



MAKTAB  
KUTUBXONASI

# XX asr

o'zbek hikoyasi

## ANTOLOGIYASI



# **XX ASR**

## **O'ZBEK HIKOYASI**

# **ANTOLOGIYASI**



**“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”**  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent–2016

UO'T 821.512.133-3(082.2)

KBT 83.3(5U)6

Y18

Tahrir hay'ati:

Abdulla Oripov

Umarali Normatov

Odil Yoqubov

Pirimqul Qodirov

Erkin A'zam

Bahodir Karimov

Habib Abdiyev

**XX asr O'zbek hikoyasi antologiyasi / Tahrir hay'ati:**  
**Y18** **A. Oripov** va boshq.; Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar:  
B. Karimov, H. Abdiyev. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklope-  
diyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 624 b.


ISBN 978-9943-07-467-5

Yillar va asrlar yakuni har qanday sohada sarhisobga imkon beradi. Sarhisob ehtiyoji zaruratga aylanadi. Shu ma'noda XX asrda yozilgan o'zbek hikoyalarning estetik qiymati, mavzu ko'lami, badiiy saviyasi, yutuqlari va boshqa qirralarini tasavvur etish uchun ushbu antologiya tuzildi. Antologiyaga Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov va boshqa ko'plab yozuvchilar qalamiga mansub hikoyalar XX asr o'zbek hikoyasi xazinasidan saralab olindi.

Mazkur antologiya muxlislar uchun o'ziga xos sovg'adir. Qolaversa, undan oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'shimcha o'quv qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

UO'T 821.512.133-3(082.2)

KBT 83.3(5U)6



© B. Karimov, H. Abdiyev

© “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”

Davlat ilmiy nashriyoti, 2011, 2016

## NASR RUHI – ASR SHUKUHI

Inson cheksiz koinotga hayrat bilan qaraydi, muhabbatdan mast yuradi, xiyanatdan azob chekadi, tirikchilik tashvishlariga ko‘miladi, hayot va o‘lim mohiyatiga yetishni istaydi. Badiiy adabiyotda inson tabiati va ruhiyatiga tegishli bunday azaliy hamda adabiy kayfiyat mavzulari epik turning eng kichik, mo‘jaz janri – hikoyada mo‘jizaviy tarzda, o‘ziga xos ravishda aks ettirilishi lozim. Hikoya janri hajman ixchamligi, shakl va mazmun, kompozitsion qurilishi, til, uslub va boshqa poetik unsurlar originalligi bilan g‘oyaviy-emotsional qiymat kasb etadi. Unda qahramonlar tayyor holda sahnaga chiqishi ham, voqelik tasviri jarayonida yaxlit obraz-xarakterga aylanishi ham mumkin. Bu jihat hikoyanavisning tasvir uslubiga, badiiy niyati, aniqrog‘i, estetik idealiga bog‘liq. Aynan estetik idealning bo‘shligi va noaniqligi yuzlab sahifalarga jo bo‘lgan epopeyalarni yo‘qqa chiqaradi. Xuddi shu nazariy asosning cho‘ngligi va butunligi bir necha sahifalik mo‘jaz hikoyaning haybatini oshiradi, umrboqiyiligini ta‘minlaydi.

Bu kichik epik janming poetik imkoniyatlari kattadir. Hikoya uchun voqeani quruqdan-quruq so‘zlab berish emas, balki obrazlar, ramzlar, badiiy detallar vositasida xarakter yaratish muhimdir. Hikoya – inson tafakkuriga bir zarb bilan tezda muhrlanadigan, go‘zal poetik shakl qurilishiga ega adabiy hodisa sanaladi. Hikoya bamisoli o‘z o‘rnida topib aytilgan qanotli ibora, frazeologik birlik, bir gapga joylangan hikmat. G‘arb adabiyotshunoslaridan biri har qanday hikoya tarkibiga ko‘ra yoyiq gapga tengligini ta‘kidlagan edi. Umuman olganda, nazariy jihatdan hikoya janri uchun bunday tavsiflar begona emas. Ammo yozuvchining voqea-bozligi, uquvsizligi, so‘zbozligi, zamonasozligi, aravani quruq olib qochishi, utilitar va ibtidoiy hodisadan «roman» yasashi – bu fojia. Ayni chog‘da, asrga teng ko‘lamdor voqeani kichkina bir hikoya mazmun-mohiyatiga singdirishi adibning mahorati va saodatidir. Zotan o‘zbek adabiyoti tarixida esdan chiqib ketadigan, izsiz yo‘qolayotgan yirik nasriy asarlarga nisbatan boqiy va yuksak badiiy quvvatga ega hikoyalar bor.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida yuzlab epik asarlar – roman, qissa va hikoyalar yozildi. Ayniqsa, o‘tgan yuzyillikda yozilgan hikoyalarning hajmi ham, son-sanog‘i ham ko‘p. Biroq adabiyot tarixida abadiy qoladigan, o‘quvchiga zavq, huzur bag‘ishlab, hayot mazmuni, insonning sirli dunyosi xususida tafakkurga da‘vat qiladigan nasriy asarlar juda ko‘p emas. Jahon adabiy durdonalariga tenglashadigan, asrlardan asrlarga o‘tadigan hikoyalar har yili, har doim yozilgan emas. O‘tkinchi «asar»larning adabiyat cheksizligida bir nuqtadek paydo bo‘lishi va yo‘qolishining o‘z sabablari bor: adibning iste’dodi, bilimi, poetik mahorati,



uslubini, tanlagan mavzularining mohiyati va hokazo... Har bir hikoya o'z egasining ana shu qirralaridan, shaxsiyatidan, kimligidan darak beradi. «Yozuvchining, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida asosan o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi» (Abdulla Qodiriy).

Ijodkor zotidan darveshona, chin fidoyilikni talab qiladigan adabiyot maydoniga har kim har xil yo'llar – yoshlikning shirin orzulari, ezgu niyatlar yoki boqiylik g'arazi bilan kirib keladi. Birorta olim avvaldan bashorat qila olmaydigan ijodiy tarix har kimga har xil yoziladi. Avval she'riy asarlar yozib, yetilganidan so'ng nasrga yoki dramaturgiyaga o'tganlar ham, har uchala tur janrlarda birday qalam tebratganlar ham, ijodini hikoyadan boshlab, adabiyot tarixida qissanavis yoki romannavis sifatida iz qoldirganlar ham bor. Ko'ngil mayli, ijodkor dardi, badiiy tafakkur tabiati mavzuni, janrni tanlaydi. Bunda ijodkorga buyruq berib, talab qo'yib bo'lmaydi. Bu yo'ldagi majburiylik, zo'rma-zo'rakilik oqibatida bahaybat o'lik so'zlar xirmoni paydo bo'ladi. Insoniyat zavqi, adabiyot uchun esa tog'dek metin, daryodek tirik so'zlar kerak. Zotan, o'tgan asrda har ikki adabiy hodisa uchun istagancha misol topiladi.

Qismat shuki, biror millat yoki mamlakat adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega so'z san'atkorining ijodiy merosida poetik tafakkurning qaysidir jihati bo'rtib ko'rinadi, belgilovchi xususiyat kasb etadi. Shu ma'noda XX asr o'zbek adabiyoti tarixida asosan hikoyanavis bo'lib tanilganlar bor. Mazkur hikoyalar antologiyasiga tartib berishda masalaning ana shu tomoniga ham diqqat qaratildi<sup>1</sup> va tanlangan hikoyalar, mualliflarning yoshiga qarab, xronologik tarzda joylashtirildi.

Ma'lumki, Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligiga asos soldi; uning ikki romani o'tgan asr nasrimiz tarixida ulkan adabiy hodisa bo'ldi. Ayni chog'da, «yangi davr adabiyoti, Yevropa gazi bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar yozgan» (Abdulla Qahhor ta'biri) bu adib hikoya janrining ilk namunasi yozdi. Oybek fikricha, «Uloqda» hikoyasi adibning voqelikni san'atkorona tasvirlashning realistik tamoyili tomon yuz burishi bo'ldi. An'anaviy mumtoz epik tafakkurning bayon usuli bu hikoyadan keyin yangilandi, ya'ni realistik pafos kasb etdi. Aslida, 20–30-yillarda hikoya yozgan havaskorlar ko'p edi. Yozganlari vaqtli matbuotda bosildi, kitob bo'lib ham chiqdi. Biroq aksariyat hikoyalar, garchand mavzulari davrning mafkuraviy talabiga, zamonaviylikka mos bo'lsa-da, insonning abadiy his-tuyg'ularidan yiroq, hatto azaliy e'tiqodiy tushunchalarni tahqirleydigan, inson ko'ngil olamiga botmaydigan shunchaki sxematik voqeanomalar inshosi edi. Abdulla Qodiriy bilan Cho'lpon esa bu davrda hikoyanavis sifatida o'z iste'dodini, inson qalbining bilimdoni ekanini, muhit girdobini naqadar teran anglashini o'sha adabiy zamondoshlariga nisbatan yorqin namoyon qildi.

<sup>1</sup> I z o h: Antologiyalar tuzishning ichki tamoyiliga ko'ra serqirra ijodkorlarning bitta jihatiga e'tibor beriladi. Ammo istisno tariqasida o'zbek hikoyachiligining tamal toshini qo'ygan Cho'lpon, G'. G'ulom, Oybek hikoyalari ushbu majmuaga kiritildi. – *Tahririyat*.

Abdulla Qahhorlar avlodi o'zbek nasrining kichik janrida ulkan o'zgarishlar yasadi. Hikoyachilik burilish pallasiga kirdi. Badiiy mahoratni egallash, psixologizm vositasida tasvir va ta'sir quvvatini oshirish, o'ziga xos individual uslub yaratish, badiiy tilni sayqallash bobida yuksalish yuz berdi. Jahon va rus adabiyotidagi tajribalarni o'rganish, o'qish va uqish o'zbek adiblari ijodiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. O'zbek yozuvchilari ham ixcham, ramzlari, tasvirlari quyuq hikoyalari-da o'zbekona xarakterlar yaratishdi. Oz so'z bilan ko'p ma'nolarni anglatgan Abdulla Qahhor hikoyalari, shoirona nigoh mujassam topgan G'afur G'ulom nasri, Said Ahmadning hajviy hikoyalari o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi. Hatto keyinchalik o'tmish mavzuidagi hikoyalar, xususan, «O'g'ri» turli adabiy talqinlar, bahs-munozaralar ob'ekti bo'ldi. Xokisor va donishmand adib Mirkarim Osimning tarixiy hikoyalari milliy o'zlikni anglashga, mumtoz olim va fozil ajdodlar shaxsiyatini avlodlarga tanitishga xizmat etdi.

60-yillarda Shukur Xolmirzayev, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov, Uchqun Nazarov, Ne'mat Aminov va boshqa yozuvchilar o'zidan avvalgi adiblar an'analarini davom ettirdilar. Ayni chog'da hikoyachilikda yangilikka, originallikka intildilar. Shu adabiy avlodning ikki namoyandasi – Tohir Malik va Hojiakbar Shayxovlar yozgan hikoyalar o'tgan yuzyillik o'zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi. Ularning fantastik asarlari o'quvchilar tasavvuriga erk, badiiy tafakkuriga kuch berdi.

Bizningcha, bu adabiy avlod hikoyanavislari orasida Sh. Xolmirzayev alohida ajralib turadi. Voqelikka ortiqcha aralashmay, qahramonlarni yetaklamasdan xolis turib tasvirlash unga xos. Eng go'zal, badiiy jihatdan pishiq asarlar yozgan bu adibning bayon usulida hikoya janrining hajm chegaralari parchalandi. Yozuvchi asr oxirida qalamini ancha erkin qo'ydi va «Ozodlik», «Bulut to'sgan oy», «O'zbek bobo» kabi hajman yirik hikoyalarini yozdi. Tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik, jamiyat hayotidagi talato'plar va inson ruhiyatining sirli qirralarini mahorat bilan tasvirladi. Bunday asarlar adabiyotshunoslik faniga yangi nazariy fikrlar berishi ham tabiiydir.

70–80-yillar hikoyalarini yozgan avlod vakillari ijodida hayotda uchraydigan g'aroyib odamlar, jamiyatdagi e'tiborsiz, telbasifat, jo'mard, begidir odamlar olamining tasviri yetakchi o'ringa chiqdi. Bu toifa odamlar taqdiri goh kinoyaviy, ba'zan lirik, gohida tajribaviy usulda qalamga olindi. Murod Muhammad Do'st ijodida tasvir tig'iz va serqatlam, qahramonlari bir qarashda sodda, ammo aslida quv, oqil galatepaliklardir. Ular nutqida ham, muallif tasvirida ham latif pichingkesatliq seziladi. Erkin A'zam «Anoyining jaydari olmasi», «Piyoda» tipidagi hikoyalarining qahramonlari tabiatida beg'uborlik, soddalik ustuvor. «Chantrimore», «Kalamakatore» – ma'nosini faqatgina ikki kimsa anglaydigan juft so'z. Ularni yozuvchi individual, g'aroyib bir obraz, xarakter uchun xizmat qildiradi. Xayriddin Sulton yozgan «Dunyoning siri», «Umr esa o'tmoqda», «Yo, Jamshid», «Oy botgan pallada» hikoyalarida lirik pafos yetakchilik qiladi. Uning qahramonlari toza, ma'naviy did-farosati yuksak, mard odamlar. Umuman, bu yozuvchilar-

ning «bosh tashvishi – odamlarning ma’naviyatidir» (Asqad Muxtor ta’biri). Shu tashvishga mos ravishda bu avlod adiblari o‘tgan asr o‘zbek hikoyalarining go‘zal namunalari yaratdilar. Ayni chog‘da ilg‘or sanalgan dunyo adabiyoti, xususan, Yevropa, Lotin Amerikasi, Yapon nasri mutolaasidan, ularni o‘rganish va namunalarni tarjima qilishdan zavqlandilar. Olim Otaxonov hikoyalarida ko‘zga tashlangan o‘sha noan’anaviy nasr sintez-sinovi ham, garchand ularda bir oz sun‘iylik sezilsa-da, o‘tgan asr oxirlaridagi hikoyachilikda qaysidir darajada samara berdi. Inson «men»idagi ziddiyatlarni irratsional usulda tasvirlashga, inson ruhiyati, ichkarisi tasviriga e’tibor kuchaydi; insonning ruhan parchalanishini tushunish va uning sirli dunyosini badiiy tadqiq qilishda hikoyachilik o‘sdi. Shu ma’noda Xurshid Do‘stmuhammadning «Jajman», Nurulloh Otaxonovning «Oq bino oqshomlari» o‘tgan asr hikoyachiligida jiddiy hodisa bo‘ldi.

Qahramonga real xronotipik xarakteristika bermasdan ba’zan ismsiz qoldirish, badiiy tasvirdagi ekzistensiallik, ong osti oqimini ko‘rsatishga urinish, voqealar kechadigan makon va zamoni geografik jihatdan cheklab qo‘ymaslik kabi adabiy hodisalarning hikoyachilikka kirib kelishi badiiy asarni turlicha talqin qilishga, hikoyani mohiyatan serqatlam bo‘lishiga imkon yaratdi. Bu yo‘lda o‘zbek hikoyachiligi Nazar Eshonqul yozgan «Maymun etaklagan odam», «Muolaja», «Tobut», «Shamolni tutib bo‘lmaydi» va boshqa qator hikoyalar bilan tubdan yangilikka yuz tutdi. Obraz ko‘lami kengaydi, ramzlar quyushdi. Hikoyaning kompozitsion butunligi, voqeani tasvirlashdagi ichki parallelizm va simmetrik holatlar yaqqol ko‘zga tashlandi. Hikoyalar tilida stilistik jihatdan uzun konstruksiyali jumlar tuzish tajribalari sinab ko‘rildi.

Bizningcha, hikoyachilikdagi jahon adabiyotidan o‘rganishlar, o‘zbekona milliy tafakkur bilan uyg‘unlashib, yaxshi natijalar berdi. Milliy urf-odatlar, o‘zlik va umuminsoniy qadriyatlar masalasi adiblarni aslo befarq qodirmadi.

XX asr oxiri, istiqloq yillarida adabiyotga kirib kelgan yosh nosirlar yozgan hikoyalar ham o‘quvchilarga manzur bo‘lganini ta’kidlash lozimdir. Bu adabiy avlod o‘zining bor badiiy mahorati va imkoniyatini yangi, XXI asrda to‘kis namoyon qilajak.

Garchand biz o‘zbek hikoyachiligi bosib o‘tgan yo‘lga xronologik tarzda qisqa bir nazar tashlagan bo‘lsak-da, bu bosqichlarda birorta adib ijodiy turg‘unlashmadi, jimib o‘tirmadi – ayrimlari tinimsiz yozdi, doimo izlandi, boshqa birlari dunyoqarashini qayta shakllantirdi. Yozish, izlanishdan to‘xtash, bir xillik va bir holatda qotib qolish – bu adib ijodi va ma’naviy hayotining tugashini anglatadi. Darvoqe, qirq-ellik yil davomida o‘zbek kitobxoniga muttasil xizmat qilgan, adabiyotimiz ravnaqi uchun jon kuydirgan ulkan adiblar ijodida istiqloq davrida yangi mavzular paydo bo‘ldi. Masalan, mo‘ysafid nosirlardan Said Ahmad va Odil Yoqubovlar mustabid tuzum davrida yaralangan qalbida, botiniy shuurida saqlanib kelayotgan iztiroblarni qog‘ozga tushirdi. Asr oxirida yozilgan «Sarob», «Qorako‘z majnun», «Oftob oyim», «Muzqaymoq» kabi yaxshi hikoyalar bu fikrning yorqin dalilidir.

O'zbekning milliy qiyofasi, o'ziga xos dard-u dunyosi, armonlari, sevgisi, turli urf-odatlar, udumlari, bazmi, to'yi, azasi, tabiat manzaralari – barcha-barchasi XX asr hikoyasida qaysidir darajada o'z ifodasini topdi.

Umuman olganda, XX asr hikoyalarida go'zalligi va fojialari, g'ururi va shubha-gumonlari, butun g'am-tashvish va sururlari bilan in'ikos ettirilgan obraz va xarakterlar o'zbek millati yuziga tutilgan ulkan bir ko'zgudir. Biz unga qarab o'zimizni, tariximizni, bizga tanish odamlar qiyofasini, turli taqdir egalari obrazini, xato-kamchiliklar va yutuqlarni ko'rishimiz mumkin. Zero, «XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi» nomi bilan bir muqovaga jamlab taqdim etilayotgan ushbu mo'jaz nasr ruhida asr shukuhi mujassamdir.

**Bahodir Karim,**  
*filologiya fanlari doktori*

# Abdulla Qodiriy

(1894—1938)



Abdulla Qodiriy 1894-yil 4-oktyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Musulmon maktabida (1904—06), rus-tuzem maktabida (1908—12), Abulqosim shayx madrasasida (1916—17) ta'lim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925—26) o'qigan. Eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho'rosining sarkotibi (1920), «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi (1923—26). «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir (1914—15). «Uloqda» hikoyasi (1916), «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydir?» (1920) kabi satirik hikoyalar muallifi.

«O'tgan kunlar» (1924—26), «Mehrobdan chayon» (1929) romanlari, «Obid ketmon» (1934) qissasi yozuvchining ulkan mahoratini o'zida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N. V. Gogolning «Uylanish» (1935), A. P. Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926-yilda «Mushtum»da bosilgan «Yig'indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937-yilning 31-dekabrda esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda Toshkent shahrida otib tashlangan.

Uning asarlari 1956-yildan boshlab oqlangan.

Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilan mukofotlangan (1994).

## ULOQDA

### I

Kecha dadamdan so'rag'anim uchun bu kun akam ham: «Kerak emas, bor-ma!» degan so'zini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonag'a yugurdim. Orqamdan: «Oyog'ing olti, qo'ling etti bo'lub qoldi-a!» deb dadam bilan oyim kulishub qolishdilar. Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqamni qashlay boshladim. Jonvor tirir-tirir qiladir, bosh chayqaydir, yer tepinadir, dum silkitadir. Shuning ila manim ko'nglimga: «Xudo xohlasa, kelar yilga biror uloqlar chopayki, hamma mani «Turg'un chavandoz» deb yurutsunlar, degan tilaklar tushadir.

Katta hayitdagi, hayitlikka olg'an mo'g'or<sup>1</sup> egarcha bilan g'alaticha qilub toyni egarladim. Tog'amg'a yalinub oldirg'an o'rus yuganni artib-surtib soldim-da, o'zim chetroqdan turub kam-ko'stini kuzatdim:

Quyushqoni ham o'mida, egar ham yaxshi qo'ng'an. Qorinbog'i ham jifs, yugani ham to'ralarnikidak, lekin o'mildirug'ining yo'qligi bir oz ko'ngilga yoqmaydi. Anchagina o'ylanib turgandan so'ng akamning yugan uchun saqlab qo'yg'an tasmasi esimga tushub, sekingina yerto'ladan haligi tasmani olub chiqib, o'mildiruq yasadim.

Endi toycham juda ham gijinglar, xuddi to'ralarnikidak bo'lub ketkan edi. U yoq-bu yog'ini tozalab, ustunga qantarib qo'ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kam-zulni, o'ruscha shimni, amirkon etukni, duxoba to'ppini kiyish... Ana shundan keyin otqa minsak, chin to'racha bo'lamiz.

Oyimning bir qiziq udumi (odati) bor: yangiroq kiyimni kiyaman, desam ko'zini ola-kula qilub: «Qaqshag'ur, kir qilasan, to'y-po'yga borg'anda kiyarsan», deb qarq'iy boshlaydir. Ozroq shayton yig'isi qilmaguningcha ish o'ngig'a kelmaydir. Bu gal ham ozroq haligi yig'idan qilub olg'andan so'ng kiyimlarimni kiyub, shohi qiyig'cha bog'lab oldim. Oyimg'a bildirmasdan, sekingina uyga kirib, dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqub, tashqarig'a chiqdim.

Xizmatchi go'sht kelturib turgan ekan, otxonadan qora qashqani ko'chaga chiqarib turishka buyurub, o'zum go'shtni oyimg'a kirguzib berdim. Tashqarig'a chiqishimda orqamdan oyim:

– Kiyimlaringni kir qilma, toyingni qattiq choptirma, uloqchilar orasig'a kirib, biror hodisaga yo'luqma, o'rtoqlaring bilan bir chekkada tomosha qil! – deb jovrab qoldi.

Xizmatchidan otni olub mindim. To'nimning etaklarini yig'ishtirub, bir-ikki qamchi berib edim, qashqacham shatoloq otub ketdi. Xizmatchining: «Xab barakalla, chavandoz!» degan so'zini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, qashqacham tushkur ko'tarib ketayozdi.

<sup>1</sup> Mo'g'or – mo'g'ul.

– Chuqurariqdan toyimni sug‘orib chiqayotib edim, bir to‘da uloqchi chavandozlar kelub qo‘shildilar. Ularning ba‘zisi akamning oshnalari bo‘lg‘ani uchun man bilan so‘rashdilar. Ulardan birisi akamni so‘rab edi, men:

– Ertalab uloqg‘a ketdi, – dedim.

Ul kulub oshnalarig‘a:

– Bizning Mahkamboy uloqg‘a juda ham ishqibozda! – dedi.

Yana biravi mandan:

– Yo‘l bo‘lsun, boybachcha? – deb so‘rag‘an edi, men uyolinqirab:

– Uloqg‘a! – dedim.

Besh-oltisi birdan: «Barakalla, chavandoz, barakalla, Turg‘un chavandoz!» dedilar. Ularning «chavandoz» degan so‘zlari manim juda hushimga kelib, ichimdan «Otangg‘a rahmat», deb qo‘ydim.

Biz, bir durkum otliq, boramiz. Ular o‘tkan-ketkandan so‘zlashib boradirlar. So‘z urunub, yana Mahkam akam to‘g‘arisig‘a taqaldi.

– Shu choqg‘acha ko‘p uloqchi ko‘rdum, lekin Mahkamdan uloqg‘a serzavqini ko‘rmadim.

Sobir tegirmonchining o‘g‘li To‘g‘onboy:

– Mahkam boybachchanning ota-bobosi uloqchi bo‘lub kelgan-da! (Meni ko‘rsatib.) Axir, o‘n ikki yashar ukasini ko‘rmaysizmi, halitdan uloq chopmoqchi! – dedi.

Bu so‘zga manim butun tanim jimirlashib ketdi va kulayozdim.

Yana bir mo‘ylabi shopdak yigit:

– Dadam Mahkamning bobosining uloq chopishini gapura bersa, kishi hayron qoladir: yuz-ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg‘uz uloqni ajratub chiqar ekan!

Yana birisi:

– Ul vaqtning odamini uloqning piri desangiz-chi! – dedi.

Man bo‘lsam, bobom maqtovini eshitib, g‘ururlanub boraman. Orqadan otshatolog‘ini eshitib, ortqa qayrilub edik, oldig‘a bir ola echkini o‘ngargan, ko‘kragi ochiq, yaxtakchan, saman otliq bir yigitni ko‘rduk. Ul bizga etib, to‘xtadi. To‘g‘on aka kulumsirab:

– Bu hafta ko‘maklashasiz-da, karvon, – degan edi, u:

– Sizdek og‘aynilarga ko‘maklashmasdan bo‘ladimi! Qani, to‘xtamanglar, – dedi.

Yurub ketdik. Bir oz yo‘l borg‘ach, haligi yigit tuzimsizlana boshlab otig‘a qamchi berdi. «Man tezroq boray», deb otini choptira ketdi. Endi so‘z haligi oldig‘a uloq o‘ngarganning oti to‘g‘arisida boshlandi. Boybachchalardan birisi:

– Valadning oti juda ham chopqur-de, uloqchi bo‘lg‘aningga yarasha shundaqangi oting bo‘lsa! – dedi.

Boyag‘i mo‘ylabi shopdakning:

– Bodirafrafdek uchadir, – deyishi hamon birdan boshqalar kulushub yubordilar.

Kulgiga uning o‘zi ham birgalashdi.

### III

Akamga M... guzarida uchrashdik. Akamlar samovorchiga jarkob pishirub qo‘yish uchun o‘rtadan pul yig‘ub bergach, tag‘i yo‘lg‘a tushdik.

Ko‘cha qishdan boshqa vaqtda suv ko‘rmagani uchun ikki gaz kelaturg‘an, bilq-bilq tuproq; ellik-oltmish uloqchilar birdaniga yo‘l bosub, qaysi otini chop-turub, qaysi lo‘killatib borg‘ani uchun butun ko‘chani to‘zon qoplag‘an. Kishikishini tanimasliq holga kelgan edi. Man uyga qaytub borg‘anda, oyimning: «Kiyimlaringni moxov qilubsan!» deb qarq‘ashidan qo‘rqub boraman.

Anchagina yo‘l borg‘andan so‘g‘un u chopilaturg‘an yerga yetdik; xuvv... to‘rt tomoni ko‘z ilg‘amayturg‘an darajada ulug‘ bir qir ekan. Munda uloqchi otliqlar ila tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo‘q edi.

Katta sadaqayrag‘ochning tegida ikki zo‘r samovorg‘a o‘t qalab qaynatadirlar. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to‘rt qop bodringni bir-biriga suyab, «Mirzaqiron bodring, kasir-kasir bodring!» deb maqtashardilar. Akamlar sadaning ostig‘a – choyxonag‘a otdan qo‘nishdilar. Kun qizig‘ida turish qiyin bo‘lg‘ani uchun man toychamdan tushmasam-da, sadaqayrag‘ochlarning bir bag‘rig‘a borub turdim.

Yonimdag‘i kishilar to‘zimsizlanib, uloqning boshlanishini kutadirlar. Birisi, «Bu kun uloq qizimaydir», desa, ikkinchisi: «Yo‘q, bu kun uloq juda ham qiziydir. Salim chavandoz bilan Murod ham kelar emish!», – deydir. Yana oradan birov:

– Ha-ha! Agar ular kelsa, uloq qizimay qolmas. Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko‘tarmaydir, «hayt», desa, bas!

– Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko‘rinmiy boshladi, ana shunisiga to‘g‘ri kelmas edi!

– Ha-ha, man ham ko‘bdan beri ko‘rmayman: girdig‘umdan kelgan qora to‘riq yigit edi-a?

– Bali-bali, otangg‘a rahmat! Ana, o‘sha yigit, shuncha so‘rog‘lasam-da, anig‘ini bilmadim!

– Shu yigiting, to‘g‘risi, anchagina janjalg‘a-da sabab bo‘ldi. Birovi: «O‘lub ketkan!» – desa, ikkinchisi: «Tirik!» – deb, qichqiradir, munga kimdir birisi qarshi tushub: «Ot boskan, do‘xturxonada o‘lgan!» – deydir. So‘firog‘i: «Birovga yomon nafas qilmanglar!» – desa, allakim: «O‘lsa-o‘lgandir, bunga nima janjal?!» – deydir. Tag‘i birov: «Bekor ham o‘lturubbiz-da!» deb kuladir.

Tag‘i: «Sirasi-sirasi!» Tag‘i shovqun-suron, tag‘i: «Ha-ha!» «Yo‘q-yo‘q!» Bir kishining: «Ana, uloq keldi!» – deb yuborishi bilan hamma tib-tinch bo‘lub, xalq uloqg‘a qariy boshladi. Tag‘i bir ozdan keyin: «Ulog‘i yosh ekan!» – «Shunisi tuzuk, shunisi!» – degan so‘zlar boshlang‘an ham edi, maydonga ikki chavan-



dozning ot o'ynatib kirishi oradag'i tovishlarni o'chirdi. Sekin-sekin: «Salim bilan Murod chavandoz», – degan shivirlashuvlar maning ham diqqatimni shu ikki otliqg'a jalb etdi. Ularning birisi ko'k, ikkinchisi ola otqa mingan chapan yigitlar edi. Endi tomoshachilar uloqni to'zumsizlanib kuta boshladilar. Xalq ichidan al-lakim:

– Ana endi chin uloq ko'rasan! – deydir.

Tag'i birov:

– Bu kun qiyomat ulog'i bo'ladir! – deb boshi bilan yanib qo'yadir.

Chavandozlar to'g'risida yana guvr-guvr so'z boshlandi:

– Murodning otini ko'r, xuddi qanoti borg'a o'xshaydir!

– Chovkarni aytasanmi, to'ruqnimi?

– Ikkisiga ham ot yetmaydir, ikavi ham yaxshi zot!

– Qulog'i chimirilgan ot chopqur bo'ladi!

– Quloqda gap yo'q, gap zotda!

– Yo'q-yo'q, serkishnovda, o'zim sinab ko'rdim!..

– Qora ot chopqur bo'ladir, deganlar. Qorasi yaxshi, qorasi!

– Dadam ot olganda, tuyoqig'a qarab olur edi, gap tuyoqda!

Bahslashadirlar. Har kim o'z tanishi bilan talashdi. Man ham shu to'g'rida o'ylab, ularning degan nishonlarini qora qashqamdan qidirib, topsam suyunib, topolmasam kuyunib turaman.

Bizning mahalladagi uloqchilar ham kelishdilar. O'rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqlar ham bor edi. Ular mening yonimga kelishdilar.

Nurxon dadasidan ola yo'rg'ani so'rag'anda, qilg'on bahonasini aytub kuladir. Haydar soqov saman otining yo'lda Shokir mishiqlarining baytaliga kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladir. Kulishamiz. Shokir mishiqlar burnini torta-torta: «Uyalib ketdim. Mundan so'g'un biya minmayman», deb qizarib bo'zaradir. Otamning umildirug'iga ularning havaslari kelub, bahosini so'rashadirlar, man: «O'n besh tanga», deb kumush qamchini ham ko'rsunlar uchun o'ynagansumol egarning qoshig'a taq-taq urib qo'yaman. Ular: «Qani-qani, deb qo'limdan olub ko'radirlar. Man sekingina boshimni qimirlatub, o'zimda allanima sezinaman. Ularning otlarig'a – o'zimmikiga, kiyimlariga – kiyimimga qarab, o'zimni ulardan allaqancha yuqorida ko'raman. Haydar soqov tutila-tutila: «Kelinglar, bir choptirayluk», – dedi. Nurxon ko'nmasa ham yuganidan tortub olub ketdi. Chidab turib bo'lmas ekan: ularning ketidan qora qashqamg'a bir-ikki achchig' qamchi berub yuborishim bormi, jonivor o'n odumida ularni yo'lda qoldirib ketdi. Anchag'ina uzoqlab, ortimdagi xalqg'a qarab edim, ko'zlari manda ekan, yana qattig'roq haydadim. Qirning bir chekkasiga borib, otni to'xtatdim. Bir talay vaqtdan keyin ular otlarini lo'killatishib manga yetdilar. Bu yerda otlarimizning chopqurilig'i to'g'risida so'zlashdik. Nurxon otining chopmaslig'ig'a akasining issiq holda suv berganini sabab ko'rsatadir. Haydar soqov bo'lsa, Eson ko'knorining o'g'lini so'ka-so'ka:

– Bozorg‘a un uchun borayotqanimda, bexos tom boshidan guvala tashlab yubordi. Otim shundan beri qamchi birla yuz ming ursang ham, qulog‘ini chimirib, hurkub turadir! – deb so‘kinadir.

Manim otim to‘g‘risida Haydar aytadi: «Saning otingg‘a hech zot bolasi yetmaydi.., – deydi. Nurxon aytadi: «Otdan saning baxting bor ekan», – deydi. Shu yerda uzoqqina so‘zlashib turg‘andan so‘ng yana otni keying‘a qarab qo‘ydiq. Tag‘i ulardan o‘zib ketdim. Xalqg‘a yaqinlashg‘ach, «Mani ham tanib qo‘ysinlar-chi», – deb toyimni qitnab yuborishim bormi, shomol-de, shomol... Endi xalq bir o‘zimga, bir qora qashqamg‘a tikila boshladi. «Mana, endi taniysan», – deb toyimning yolini qamchi sofi bilan tarab tura berdim.

#### IV

Yonimizdagi tomoshachilar:

- Ana-ana, uloqning solig‘ini yig‘ub yetibti!
- Uloq hozir boshlanadir!
- Murod chavandoz ham turdi!
- Salim qalpog‘ini kiydi!
- Tursun qassob uloqni bo‘g‘uzlamoqchi, ana pichog‘ini qayradi!
- Boybachchalar ham turishdilar!
- Salim choponini eshmoqchig‘a o‘xshaydir!
- Hab, barakalla, shovvozlar!

Juvir-juvir boshlandi. O‘rtoqlar bilan biz ham to‘zimsizlanib, uloq boshlanishini kutamiz.

Chavandozlarning qaysisi to‘nini chechmakda, qaysisi otining ayilini mahkamlamakda va qay biri uloqg‘a soliq bermaqda edi. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to‘nini manga berib, o‘zi o‘rtaga ot o‘ynatib ketdi. Endi uloqchilar ma‘rakaga jurm bo‘la boshlag‘an bo‘lsalar ham, lekin hamon uloq boshlanmag‘an edi. Butun tomoshachilar sabrsizlanib, «Uloqni so‘yib bo‘lmadimi, yaxlab qoldimi?» – deyishadirlar.

Huv, oradan talay vaqt o‘tkandan so‘g‘un bo‘g‘uzlang‘an uloqni oldig‘a o‘n-garib, Orif sarkor va uning ketidan boyagi mashhur chavandozlar ham qalpoqni chakkaga qiya qo‘yub, egarga qiyshuv o‘lturub, o‘rtaga kirdilar. Tomoshachilar uloqni ko‘rgan on: «Xah, jonvor, bormisan?» – deyishdilar. O‘rtadagilardan al-lakim:

- Uloqning qoni yaxshi yuvildimi? – deb so‘ragan edi, Orif sarkor:
- Xotirjam! – deb uloqni shalq etib yerga tashladi. O‘zi bizga yoqinroq kelib:
- O‘rtoqlar, bola-chaqalarni chetka chiqaringlar, ot oyog‘ida qolmasunlar, o‘zlaringiz ham ehtiyotroq joyda turinglar! – deb vag‘iz qildi.

Orif sarkor fotihani olub, otini yugurtirib, to‘daga ketdi. Tomoshachilar o‘rtadagi bilish-tanishlariga: «Bugun g‘ayratinglarni ko‘ramiz-da!..» – deb baqirishdilar.

Endi uloq boshlandi. Birisi oladir, ikkinchi birisi tortadir... Ikkinchining yonig'a uchunchi, to'rtinchisi tushib, birdan hamma uloqchilar o'rtaga olub tortishadirlar... Har kim o'ziga olish harakatida... Biri uloqning dumidan tutsa, ikkinchi, uchunchilar oyog'idan, yolidan tortadirlar. Shu ravishda yarim soat tortishuv – echkini yoq-yoqdan buydashuv borg'andan so'ng qaysi bir xudo yarlaqag'ani, o'rtadan uloqni olub chiqsa, ketidan uloqchilar chug'urchuqdek yopirilib, tag'i tortish boshlanadir. Tomoshachilardan: «Taqimga bos, taqimga!», – «Boshini qo'y, chovig'a qamchini shig'ob ber!», – «Bo'sh kelma, mahkam tut!», «Yuganni bo'shat, qamchini tishlab tut; yoningga alaqsima!», «Tutding-tutding, berma, chapka burul, chapka!»... degan tovishlar halidan-hali eshilib turadir. Uloq yerga tushib-netib qolsa, tomoshachilardan qaysi biri yugurib borub, uloqni yerdan oladur. Ukasimi, o'rtog'imi, kim bo'lsa ham o'z yaqinig'a tutquzmoqchi bo'ladir. Lekin boshqa uloqchilar uloqni undan olmoqchi bo'lub ustiga yig'iladirlar. Ul bermaydir. Boshqalar o'rtaga siqadirlar...

Anchadan keyin bechora oqsoqlanub yoki qo'lini silab o'rtadan chiqadir. Tortg'an azobini so'zliy-so'zliy bir chekkaga ketadir.

Ota bolani, aka ukani tanimaydir, chang-to'zon, terlangan-pishilgan; har kim uloqni taqimga bosmoq qayg'usida... Bosh yorilib, ko'z chiqg'an bilan, otdan yiqilib, qo'l singan bilan ish yo'q; ishqilub uloqni taqimga bosilsa bo'lg'ani!.. Taqimga bosish o'zi nash'alik-da!

Taqimga bosmoq har kimga ham muyassar bo'lmaydir. Taqimga ko'broq bosg'uvchilar haligi chavandozlar: azoblanub bo'lsa ham taqimga bosg'ach, otqa qamchi berib, ellik-oltmish gaz nariga qochub, boshqalar tarafidan yana tutiladirlar. Yana tortish...

Uloq boshlang'anig'a biror soat vaqt o'tkan edi. Birdan uloqchilar suv quyg'andek tinchib, tortish o'rnida to'planishib qoldilar. Biz otliq, yayov tomoshachilar hammamiz ham o'rtag'a yugurishdik; man keyinroq borg'anim uchun otliq, yayov xalq o'rtani sirib olg'anlar va man bir chekada qolg'an edim. O'rtag'a kirishning ebi bo'lmag'ach, kishilarning so'ziga quloq solub turdum. Lekin uloqchilar orasidag'i gap barchaga ham noma'lum bo'lub, har kimning yuzida taajjub va og'zida yonidag'idan «Nima gap-a?» degan savol edi.

Bir qanchadan keyin o'rtadan «Qimirlatmang-qimirlatmang!» – degan tovish eshilib, xalq yana to'zimsizlanib ketdi.

– Nari, bo'linglar-o-o-av! – deb o'rtadan biron baqirdi.

Xalq bir chetlik bo'lub, yo'l ochdi.

– Nima gap? Nima gap?!

– Hech narsa emas, Esonboyni ot bosibdir!

– Qo'rqunch emasmi?

– Yo'q.

– Sag'al...

Kishilar bir-birovlarig'a: «falakat-falakat», – deyishdilar.

«Nari tur, beri tur» bilan besh-olti kishi otqa bosiruv bo'lg'anni o'rtadan olub chiqdilar va sadaning tegiga keltirub, yotquzdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi. Bittasi: «O'ziga kelarmikin?» – deb, ot bosqan Esonboyning yuziga suv sepub ko'rgan edi, qimir etmadi.

– Besh-olti otning tegida qoldi-da, bechora!

– O'nta otning tegida qolsa ham hech narsa emas-a: qaltisroq yeridan bosqanga o'xshaydir...

– Umri boqiy bo'lsa, hech gap emas... Bechora bultur, hayitda manga yarim so'm hayitlik bergan edi. Shuning uchun, ilohi, yaxshi bo'lsun, deb ko'ngildan o'tquzdim.

Arava keldi. Esonboy akani aravaga olub yotquzdilar. Akam uch-to'rtta o'rtoqlari bilan arava yonida Esonboyini kuzatib, shaharga jo'nadi.

– Sho'r paxta qilsun, kepak qizitub bossun! – deb dori buyurishib qoldilar.

Ular jo'nag'andan keyin uloq tag'in boshlanib ketdi. Man uloq tugaguncha tomosha qilub turdim. Lekin, yaxshiki, endi hech kimni ot bosmadi...

Kecha mani ot qoqqan ekan. Chunki o'rnimga kirib yotishim bilan tarrakdek qotub uxlabman. Ertalab oyim: «Tur-tur tezrak, dadang kelsa, urushadir», – deb ustimdan ko'rpani tortub tashladi. Man uyquliq ko'zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» – deb so'ragan edim:

– Esonboyini janozasida! – deb javob berdi.

Manim uyqum o'chdi...

## JINLAR BAZMI

Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: «Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma», – deb tangriga yolib borib qo'yar edim.

Kecha xolam bizning uyga mehmon bo'lib kelgan edi. Kechasi oshdan keyin otam, oyim, xolam uchovlari choy ichishib o'tirar va o'tgan-ketgandan so'zlashar edilar. So'z aylanib kelib, yana o'sha jinlar, parilar, devlar to'g'risida to'xtadi. Otam bo'lsa, o'zi ko'rgan jinlar bazmini so'zlashdan yana tiyilolmadi. Otamning bu hikoyasi, yuqorida so'zlaganimcha, mening uchun ortiqcha vahimalik bo'lganidan darrov o'rnimga kirib, ko'rpamga burkanib, yotib oldim. Otam menga bir kulib qaradi-da, jinlar bazmidan so'z ochdi:

– Yangi uylangan vaqtlarim edi. Tirikchilik bilan ovora bo'lib, bog'ning payasiga o'z vaqtida qarolmadim. Bir kun payt topib boqqa bordim, tok juda ham o'sib ketgan, bardidan hatto ikki qarichg'acha o'sib chiqqan edi. Shuning uchun ishkamlarni shitobroq tikkaytirishga to'g'ri kelar edi. Boqqa bora boshlaganimning to'rtinchi kuni kechasi bir oz yomg'ir yog'ib chiqdi. Go'yo yomg'irni kutib turgan toklar yana ham o'sib ketdilar; sho'ralar bardi ustiga engashib, ishkom ustiga olmaganim uchun go'yo mendan arazlagandek ko'rinur edilar. Men nima

bo'lsa ham poya ishini bugun bitirmoqchi bo'ldim. «Ertaga tokni ochmasam, ham o'zim uchun, ham tok uchun jabr qilg'an bo'larman», deb o'yladim.

Istakni ozroq olgan ekanman. Oxir peshin vaqtiga istak tamom bo'lib qoldi. Istak uchun bozorga boray, desam, bir ishkongina yamoq qoldi, undan keyin bozordan qaytib chiqquncha kech ham bo'ladi. Nima qilish kerak? Uzoq o'ylab turmay, tut, qayrag'och va tol kabi daraxtlardan istak chilpidim. Chilpigan istaklarni yig'ishtirguncha ham bir choy qaynar vaqt o'tdi. Istaklarni belbog'img'a qistirib, ishkonga kirdim.

Qosh qorayib, qorong'i tushgan paytda arang poya ishidan qutuldim. Yuz-qo'llarimni yuvib, salla-choponimni kiyganimda, obdon qorong'i bosgan edi. Bog' ishlagani kelgan qo'shnilardan hech birisi qolmag'an, hamma shaharga jo'nab ketgan, ko'chada chigirtkalarining chirillashi, qurvaqalarning qurullashidan boshqa tovush yo'q edi.

Men bog'dan chiqqanda xufton bo'lmasa ham shunga yaqinlashib qolg'an edi. Qorong'ida turtinib-surtinib yo'lga tushdim...

Otam xolamga xitoban dedi:

– ...Siz bilasiz, bizning bog'ning tevaragi quyuq daraxtlik maydonlar bilan o'ralgan. Katta ko'chaga tezroq chiqib olish uchun men shu maydonlardan yurdim. Maydon nihoyatda qorong'i va vahimali edi. Lekin men qorong'ida beparvo borar edim, yolg'iz qorong'ida turtunib qiynalar edim. Katta ko'chaga chiqib olmog'im uchun orada bittagina Hamdam xumdonchining chakalagi qoldi...

Otam hikoyasini shu yerga keltirib taqagach, men ko'rpaga yaxshiroq burkanib oldim.

Otam so'zida davom etdi:

– ...Bir ikki qadam Hamdam xumdonchining maydoniga tomon yurdim... Yirtoqdan kelgan yorug'likni sezib, tevaragimga qaradim-da, hayron bo'lib qoldim... Qarshimdag'i maydondan o'tkir nur sharpasi tushar edi. Bugina emas, kishilarning chag'ir-chug'ur so'zlashib, kulushlari, gij dang-gij dang bilan childirma, ora-chora dutor, tanbur, g'ijjak kabi sozlarning zaif, ammo yurakni qitiqlayturg'an tovushlari eshitilar edi.

Men dong qotib, bir necha vaqt turib qoldim. Darhaqiqat, boyqushlar uyasi bo'lgan bir vayronada bunday voqeaning yuz berishi kishini, albatta, hayron qilar edi. Holbuki, men shu kun ertalab ham shu maydondan o'tgan edim. Bu yerda bi-ror ziyofat bo'laturg'an bo'lsa, erta bilan uning bir asari ko'rinar edi. Yosh-yalanglar kunduz kuni harakat qilganlar-da, hara ko'chalar, deb fikrimdan o'tkazdim.

Men bazm bo'layotgan maydon orqali o'tmoqchi bo'lib, devor naxnasidan oshib tushdim... o'h-ho'-o'-o', maydon ichi kunduzgidek yorug', daraxt shoxlariga chiroqlar osilgan, yerlarga irak gilamlar yozilg'an. Bir chekkaga katta oq samovorlar qo'yilgan, bir tarafda katta qozonlar qurilg'an, jaz-biz davom etar edi. Maydonning o'rta erida yuz chog'liq yosh-qari kishilar qurshalib o'ltirib, dutor, tanbur, childirma, nog'oralar chalib, bazm qilar edilar.

Shu chog'da bir kishi oldimga yugurdi va bazmdagilarga qichqirib:

– Mana, O‘sar akam ham keldi! – dedi.

Bazmdagilarning hammalari ham menga qaradilar.

– Keling, keling, O‘sar aka, poyadan qutuldingizmi? – deyishdilar.

O‘sha onda ularga nima deb javob berganimni hozir eslayolmayman, chunki juda ham garangsigan edim.

Ular meni o‘z ixtiyoriga qo‘ymay, sudrab, tortib, to‘rga chiqardilar. Odatda majlisga kirib o‘ltirgandan keyin fotiha o‘qilar edi. Biroq ularning har turli savol va muomalalari bilan ovora bo‘lib, fotiha o‘qish ham yodimdan chiqqan. Bir oz esimni yig‘ib olgandan keyin majlisdagilarni ko‘zdan kechirib chiqdim. Ko‘plarini qaysi joydadir ko‘rgandek bo‘laman... Aniqlab qaragam, umrimda ko‘rmagan-tanimagan yot kishilarga o‘xshaydilar, faqat ularning men bilan xuddi tanishlar-cha muomala qilishlari, otimni atab chaqirishlari, qilg‘an ishlarimni so‘rab, hatto boyagi istak chilpib yurganimni bilishlari meni juda ham ajabga qoldirgan edi.

Oradan kimdir, bilmadim, g‘olibo majlisning boshlig‘i bo‘lsa kerak:

– O‘sar akamga dasturxon yozilsin, – dedi.

To‘rda o‘tirganlardan yana birisi unga qarshi chiqdi:

– Ilgari bir bazm qilib olaylik, so‘ngra dasturxonga hammamiz baravar qaraymiz! – dedi va menga yuzin o‘girib: – Siz ham bazmni sog‘inib qolgandirsiz. Ilgari bazm qilaylik-a? – deb so‘radi.


Mening qornim och bo‘lsa ham, mehmonligim vajhidan, uning fikriga qo‘shilishdan boshqa choram yo‘q edi.

Sozandalar sozlarini to‘g‘rilay boshladilar. Sozlardan tanbur, dutor, g‘ijjak, rubob, chang, nay va daf kabilar menga tanish bo‘lsalar ham, yana men ko‘rmagan va bilmagan bir qancha sozlar ham bor edi. Sozlar sozlandilar, bir xil bosiq, og‘ir mashq chalina boshladi.

Mashq sehrlik edi... Men yerga singib ketarlik darajada ezilmoqqa, asirlanmoqqa, ichimdan bir to‘lqin kelib, o‘zimni qayerga urarimni bilmay, entikmakka boshladim. Sozandalar hamon haligi bosiq mashqni sekin-sekin avjga chiqarib bordilar... Axir chidab turolmadim, piq-piq yig‘lay boshladim. Nega va nima uchun yig‘lar edim, – buni o‘zim ham bilmayman. Uzoq yig‘ladim. Nihoyat, mashq bitdi. Bitdi, lekin meni ham o‘zi bilan birga bitirdi. Ikki tegirmon toshi orasida yanchilgan kishidek majruh edim. Qimir etgali majolim yo‘q edi. Ko‘zimni ochdim. Majlisdagilarning barchasi ham go‘yo bir ko‘zdan mening holimga kulib qarab turar edilar. Men o‘z holimdan uyaliy, yerga boqdim.

Sozlar yana ikkinchi mashqni chalish uchun tayyorlanar edilar. Lekin men haligidek mashqni eshitishdan bezor bo‘lgan edim. Yuragim gup-gup urib qoldi. Boyagidek mashqni yana birini tinglasam, ehtimol ajalimdan burun o‘lar, yer bilan yakson bo‘lar edim.

Ikkinchi mashq boshlandi. Mashq boshlanishi bilan butun vujudimga hayot suvi yugurdi. O‘zimda allaqanday bir lazzat his qildim. Mashq g‘oyatda shodlikli edi. Bu mashqqa ne deb ism berishni bilmayman.



Shu vaqt o'rtaga o'n besh-o'n olti yoshlik bir qiz kelib kirdi. Uning sochlari jingila-jingila, yuz va ko'zlari do'nduq, ustida yashil bahmaldan burma qilib tikilgan chiroyli delvagay kiyimi bor edi. Bir necha qadam chalishib o'rtada yurgan edi, oyog'idagi qo'ng'iroqlari jing'irab ketdi. Qiz mashq bilan baravar o'ynay boshladi.

Mashq davom etar, go'yo nafis soz tovushining yeli o'yinchi qizni g'ayri ixtiyoriy bir harakatga keltirardi. Dunyoga bir shodlik, bir ruh yog'adi, go'yoki o'liklar tirilar, yerlar silkinarlar, tog'-toshlar kularlar, yulduzlar ucharlar, daraxt shoxlari titragandek bo'larlar.

Axir shodliklarim yuragimga sig'madi. O'z erkim bilan emas, allaqanday kuch o'tirgan joyimdan turg'uzib yubordi. Qizning yoniga kirib, men ham o'ynab ketdim...

Oyim bilan xolam o'zlarini tutolmay, kulib yubordilar. Mening bo'lsa, ko'z o'ngimga dadamning o'ynagandagi ahvoli kelib to'xtagandek bo'ldi.

Dadam davom etdi:

– ...Shunday, men o'ynay boshladim. Nima bo'lsa ham qiz bilan birdek o'ynamoqqa tirishaman. Qiz men bilan biroz o'ynab turgandan keyin o'rtadan chiqib, bir chetga ketdi. Lekin men o'yinni to'xtatmadim, to'xtatish xotirimga ham kelmagan edi. Kishilar qars urib turadilar va meni masxaralagandek qiyqirib, og'iz-burunlarini qishaytiradilar, lekin men ularga parvo qilmay, o'yinni davom ettiraman.

Bir vaqt allanarsaga turtinib, yerga yiqildim. O'zimni o'nqlab olib, yana o'yinga harakat qilg'an edim, tag'in mukkamcha yiqildim.

Bir qancha vaqtdan so'ng o'nqlanib, o'rnimdan turdim va ko'zimni ochib, tevaragimga qaradim.

Orada na kishilar, na sozlar va na boshqalar – hech kim, hech gap yo'q!.. Qop-qorong'i maydon, bir ariq ichida turibman...

\* \* \*

Men otamning bu ko'rgan hodisasini muallim afandiga so'zlagan edim, kuldi:

– Vahima, xayolot! – dedi.

– Chindan ham vahimmi, vahim bo'lsa, kishida qanday voqe' bo'ladi? – deb so'ragan edim, afandim:

– Kelasi juma bolalar o'rtasida bu to'g'rida ma'lumot beraman, sen ham shu majlisda hozir bo'lsang, vahimning qanday voqe' bo'lishini bilib olasan! – dedi.

Men, albatta, juma kuni maktabga borib, afandimizdan vahimning kishida paydo bo'lishini eshitaman. Vaqtingiz bo'lsa juma kuni siz ham boringiz.

# Abdulhamid Cho'lpon

(1897–1938)



Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (Yunusov) 1897-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. Dastlab madrasada (1908–12), so'ngra rus-tuzem maktabida (1912–14) tahsil olgan. She'riy asarlari «O'zbek yosh shoirlari», «Uyg'onish» (1922), «Buloqlar» (1923), «Tong sirlari» (1926) va «Soz» (1935) to'plamlarida, shuningdek, turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan. 20-yillarda yozgan «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz» singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalari. «Kecha va kunduz» (1936) romani hamda «Yorqino'y», «Xalil farang», «O'ldiruvchi» (1921), «Sevgi va saltanat», «Cho'pon sevgisi» (1922) kabi pyesalari ham bor (bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan). Uning tarjimasidagi U. Shekspirning «Hamlet» tragediyasi o'zbek tarjima san'atining shoh namunasi hisoblanadi.

U 1938-yil 14-iyul kuni hibsga olinib, ko'p o'tmay, Toshkent shahri atrofida otib tashlangan. Vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va «Mustaqillik» ordeni (1999) berilgan.

## NOVVOY QIZ

Qilg'ilik qilinib, bechora qizning qizligi olinib, bo'lar ish bo'lib bitgandan keyin, ikkalasi jimjit bo'lib ikki tomonga cho'zilishdilar. Uyning ichi, tashqari hovli, ko'cha-ko'y xuddi tong otishidan sal burung'i vaqtlarday – chuqur, vazmin va tinch bir jimlikka botqon edi. Ba'zi-ba'zidagina pastak piromondan bir juft er-xotin musichalarning kukulashlari, qo'shni hovlidan yosh bolalarning o'yin us-tidagi shovqunlari, ko'cha tomondan yakka-yarim yigitlarning kuchsiz va g'amli qo'shiqlari eshitilib qo'yardi. Darvoza eshikning tor bir yorig'idan uy ichiga jindakkina yorug'lik tushar va u ham yolg'iz qizning so'lg'in yuzini yoritardi.



So'fining shomg'a aytgan azoni O'lmasboyni qo'zg'otib yubordi. U sekina turib, usti-boshini tuzatdi-da: «Qiz uxlagan bo'lsa, uyg'otib qo'yayin!» deb uning boshiga keldi.

Qiz ko'zi ochiq, ezilgan, behol... cho'zilib, xayollanib yotardi. Oppoq oqargan yuzlarini sekingina O'lmasboyga burdi. Xoin erkakning marhamatsiz ko'zlari bilan aldangan qizning so'nik ko'zlari bir-biriga yo'liqishdi. Erkak mag'rur. Zaharli va sovuq bir kulish bilan kuldi. Qiz juda og'ir bir jirkanish bilan yuzlarini burdi. Yana jim bo'ldilar.

O'lmasboy qizning yuzlariga mag'rurlik nazari bilan yana bir oz qarab turg'ach, sharpasiz qadam qo'yib eshikli terazaga yaqinlashdi va uning bir qanotini sekingina ochdi. Uy ichi birdan yaraqlab ketdi. Qiz tezgina ochiq-sochiq yotgan yerlarini ko'rpa bilan berkitdi-da, turib o'tirdi. Shu choq eshikni ochqali borayotgan O'lmasboy bilan qizning ko'zlari yana uchrashgan edilar. Qizga orqasi bilan turg'on O'lmasboy yolg'iz kallasinigina burib, haligi mag'rur kulish bilan unga qaradi: qiz bu safar iztirob va qiynoq aralash bir yuz bilan to'ppa-to'g'ri erkakning ko'zlariga tikildi-da, bo'shang bir ovoz bilan:

– Nima qilib qo'ydingiz? – dedi.

Zaharli va mag'rur kulishni yana bir oz kuchaytira turib O'lmasboy ham bezbetlarcha javob qaytardi:

– Maza bo'ldi, qo'ya bering...

Qiz bu so'zdan keyin juda chuqur jirkanish bilan yuzini burdi va titragan lablari orasidan mana shu ikki og'iz so'zni zo'rg'a chiqara oldi:

– Maza bo'lmay o'lsin, ilohim!

O'lmasboy qizning bu so'zini bir noz va qizlarga xos istig'no deb anglagan edi. Shuning uchun xursand bo'lib bir kuldi-da, eshikka qarab yurdi. Holbuki, eshikning bir qanoti ochilgan vaqtda qizning ko'zlaridan yirik donali ko'z yoshlari qatorlashib tusha boshlag'an edilar...

O'lmasboy eshikning yonida turib, orqasiga ham qaramasdan:

– Turing, darrov usti-boshlaringizni tuzating. Xotinlar qovun saylidan kelishib qoladi. Mana men eshikka chiqib turaman! – dedi. Shu gapni aytib bo'ldiyu, oyog'ini ostonaga qo'ydi va tashqaridan turib eshikni ham yopdi.

Qiz kuyikib-kuyikib bir oz yig'lagach, irg'ib o'rnidan turdi. Naridan-beri usti-boshlarini to'g'riladi. Asli o'zi ham usti-boshlarini yechmagan, och bo'ri-ning changaliga ko'chadan kelgan bo'yicha tushib qolgan edi... Butun borlig'ida to'lib-toshgan iztirob va g'azab, horg'inlik va darmonsizlikni sezdirmas edi. Biri tokchada va biri yerda yotqon paranji-chimmatni tezgina qo'lga oldi. Uydan yurgunganicha chiqib ketmakchi bo'lib o'zini eshikka urdi. Eshik qulflanmag'an edi. Darrov ochildi. Ochishi bilan eshikda O'lmasboy ko'rindi. Shu qadar tezlik va shoshilishliq bilan uydan otilib chiqayotgan qiz qandaydir bir kuchning ta'siri bilan yetgan joyida to'xtadi va ko'z ochib yumguncha paranjisini irg'itib uyga kirib keldi. Uning ketidan dumma-dum O'lmasboy ham kirgan edi. Ko'zlari bu-

rung'iday g'ururli emas, mardlik aralash bir iztirob bilan juda «mo'min va so'fi» bo'lib ko'rinar edi.

– Ha, oyim qiz, yo'l bo'lsin? Jo'nab yotibsizmi?

Qiz «oyim qiz» degan ikki og'iz so'zning bittadan ikkita nayza bo'lib tanga botganini sezdi. U titradi, lablari yelga yo'liqqan yaproqlarday dir-dir qaltiray boshladi. Ko'ksi qisildi, dami og'irlashdi, hansiradi. Shu holda bir oz bezgaklanib turgach, birdan baqirdi:

– Imonsiz!..

O'lmasboy bemalol kulib turib dedi:

– Oyim, sizga nima bo'ldi? Musulmon, kalimago'y odamni imonsiz deysizmi? Nima gunoh qildik?

Qiz qaltirab turib tokchadan bir piyola oldi va titragan qo'li bilan O'lmasboyga qarab irg'itdi. O'lmasboy salgina bir tomonga qing'ayish bilan piyolani yonidan o'tkardi-da, bu safar baland g'urur bilan bir qah-qaha otdi.

Dengiz shu qadar buyukligi bilan hamma vaqt qirg'oqlardan yengiladi. Ach-chig'i kelganda, g'azabi qaynaganda zo'r-zo'r to'lqinlar, kichik-kichik mavjlar-ni qirg'oqning tosh-metin gavdasiga qarab otadi. Qirg'oq, yuqorilarga ko'tarilib ketgan marmar qirg'oq koshki pinagini buzsa! Bechora to'lqinlar, mavjlar sinib mayda-mayda bo'lib, yana dengizning ko'ksiga tushdi. Dengiz ularni yana silab-siyrab boshini bir yerga qovushtirib, to'plab, yana qirg'oqqa otadi. Yana bo'linish, yana parchalanish... Tuganmas olishish!

Qiz – dengiz O'lmasboy – qirg'oqning po'lat taniga kichkina bir piyolani yolg'iz bir daf'agina otdi. Shunda ham bu jonli qirg'oq chap berdi-da, mo'riga tegib parchalangan bechora piyola bo'ldi. Shundan so'ng qiz – dengiz o'z o'zligini bildi va butun qahri va g'azabini o'z taniga singdirib olib, paranjisini boshiga tashladi-da, g'izillab eshikka chiqdi.

Oh! Zindonga kirganlarning osonlikcha chiqishlari mumkinmi? Bo'rining changaliga «omon» so'zi aslida yozilganmi? Sher qo'liga tushganni qo'yib yuborish uchun yaratilganmi? Ajdar agar bor bo'lsa, butun shuhratini marhamat orqasida chiqarganmi? Chuqur jarlar, yuksak qoyalar, vahimali uchurimlar... Odam bolasini yulib, ko'tarib, yuksaklarga olib chiqmoq vazifasini ko'radilarmi? Qilich o'pish beradimi? Xanjar peshonangizdan silaydimi? Chayon nashtarga o'xshash ignasi bilan chokingizni tikadimi? Yo'q!..

Qiz uydan ikki-uch qadam jilgan edi... Orqadan o'sha burung'i kuchli hirs bilan kelib yopishdi. Omomsiz bilaklar shu qadar «yaxshi» ishlar edikim, qiz bechoraga na baqirish, na chaqirish, na qimirlash va na silkinish uchun ozgina bir imkon qolmagan edi.

Boyagi uyda, boyagi joyda, boyagi erkak boyagiday bosdi...

Qovun saylidan keladiganlar – kelmas bo'lganlar, tan va tan bo'laklari kuchli erkakning istaklariga tugal bo'yin egib ketgan edilar...

Bu safar qiz tez qo'zg'aldi. Darrov turdi, ust-boshini tuzatdi, paranjini qo'lga oldi va shamol tezligi bilan uydan chiqdi.

Orqasidan O'Imasboy g'urur aralash qah-qaha bilan gapirib qoldi:  
– Oyimtilla! Bekor ketayotirsiz! Bu kun xotinlar qovun saylidan kelmaydigan bo'libdirlar. Qolsangiz tong otguncha bazm qilar edik. Maza bo'lar edi...  
Qiz ko'cha eshikka yetganda ichkaridan O'Imasboyning baqirg'oni eshitildi:  
– Novvoy qiz! Non to'la savating qolibdir!

## II

Yarim so'mga yetar-yetmas pul bilan qiz bechora uyiga kelgan vaqtida onasi – kampir o'lim to'shagida yotgan edi. Oftobda qatiq ichishgan qarindoshlaridan bir kampir uch-to'rt kundan beri kasalga qaraydi. Kasal bu kun xo'rdasini ham ichmagan, uni qizga qoldirgandir. Bo'lmasa, qiz balki issiqsiz qolardi...

O'lim oldidagi onaning bosh tomonida o'tirib, quruq suvdan qaynatilgan bemaza xo'rdani ichayotgan, shu kampiridan boshqa bu dunyoda hech kimsasi bo'lmagan bechora qiz o'ylaydi:

«O... bechora onam! O'lim oldida ham o'z nasibasini menga beradi. Oh! Mundan keyin kimning nasibasi bilan to'yaman!...»

O'y mundan nari o'tgach, oysiz tunlarday borgan sari qorayadi. Ko'chalarda sudralib, har bir yo'liqqanga sotilib, «sevgan»dan o'pish, «sevmagan»dan qo'pol bir turtki yeb yashash ko'z oldig'a keladi.

So'fi odamlarni «falloh» (qutulish)ga chaqirgan vaqtida kampir ham... uzildi. Endi qiz bechora hali qanotini rostlamay turib onasini va uyasini yo'qotib qo'ygan qushday bo'lgan edi...

Ona o'ldi.

Hech kim bilmasdan, sezmasdan ko'mildi...

Kampirning hech kimi yo'q edi. Lekin kampirning «har kimi» bo'lganda ham uning ko'nini ham bilmagan edi. U onasini o'zining alamli ko'nglida allaqachon... allaqachon ko'mgan edi.

Keng yurt...

Ko'p xalq...

Kampirning o'lgani, ko'milgani bir mahallaga ham bilinmagani bilan, qizning «allakim» bilan o'ynashib yurgani hammaga bilingan, butun shaharga dovruq bo'lgan edi.

Axir, qiz hech kim bilan o'ynashgani yo'q-ku! Uni: «Uyimda xatmi hojam bor, noningni tugal olaman, yur mening bilan birga», deb olib ketib, kuch bilan bosgan O'Imasboy edi-ku! Qiz besh-olti yil uyida non yopib sotib, birgina onasini boqqani holda, hech kimga qiyshanglab gapirmagan edi-ku! Qizda qilcha ham gunoh yo'q-ku!.. Lekin bu haqiqatni O'Imasboyning uyidagi devor va terazalar bilan o'sha erda qolgan non savatidan boshqa kim biladi? Kim? Hech kim! U jonsiz narsalardan un chiqmasa, ovoz eshitilmasa, tovush kelmasa, nima qilaylik? Nima?..

Oradan rosa ikki yil o'tmadi – bechora qiz ikki yerga tegib chiqdi. Burunroq uning yoshlig'i, husni, tozalig'i, bir oz umidi bor edi, endi u narsalardan hech biri qolmadi. So'nggi eridan chiqqan vaqtida ustida bir qator eski kiyimi, boshida «xudo urgan» bir paranji-chimmati qolib edi. Undan ikki-uch oy o'tgach, paranji-chimmat ham tashlandi. Endi eski, yirtiq bir qator kiyim, ezilgan yurak, charchagan gavda, gangigan esgina qoldi...

### III

Sud.

Ibratli sud.

Kichkina masjidning keng sahni odam bilan liq to'lgan. Bizning kichkina «tarzan»larimiz – yosh bolalar, tebrasidag'i daraxtlarning shoxlariga chug'irchiq-day yopishib olg'onlar. Minglarcha xalq to'plangan yerda – pastda shovqin kam, yuzcha «o'zbek tarzanlari» to'plangan joyda – yuqorida daraxt shoxlarida katta shovqin:

– Ahmad, qayerdasan?

– O... Yo'lchi! Yo'lchi hov! Yo'lchi!!! Bormisan?

– Ergash! Bu yoqqa kel! Men bu yoqdaman!

– To'xta, tush deyman! Tush! Bo'lmasa, tepib yuboraman.

Ayblanuvchi qassob O'lmasboy Abduqodir o'g'li, qishloqdan non olib kelgan bir qizning nomusini buzish bilan ayblanadi.

Sud tinch o'tayotibdir.

So'roqlar tugadi.

Shohidlar ham bir-bir o'tdilar.

Ayblanuvchilar gapirdilar...

Oqlanuvchilar vaysadilar...

Allakimlar isbot qildi...

Allakimlar tondilar...

Aybdor so'z oldi. Tondi, gapirdi, gapirdi, o'zini oqladi...

Uning so'zi tugayozganda paranjisiz «papka» ko'targan yosh bir xotin to'g'ri sud hay'ati yoniga keldi. U bezgakday titrardi.

Sud kishilari, oqlag'uvchi, qoralag'uvchi, shohid, tomoshachi... hamma, hamma unga tikildi. U bir oz hushsiz qarab turg'ach:

– Menga so'z!.. – deb baqirdi.

Xalq qoralag'uvchisi uqtirdi:

– Bu kishi xotinlar shu'basining raisasi! Masala bir xotinning nomusi ustida bo'lgani uchun munga so'z berilsin!

U gapini tugatmasdan turib xotin baqirdi:

– So'z!.. So'z!..

Berdilar.

Yaqinga keldi. Hamma jim qoldi. Masjidning keng sahni to'ldi, balki ko'mildi...

Vaqt o'tadi...

Hamma kutadi.

Xotin jim...

Hammani iztirob bosadi.

Bechora xotin qaltiraydi. «To'xta parpirak»ning shoxidagi pachgiday qaltiraydi...

Boshladi. Birdan qattiq boshladi.

– Men novvoy qiz edim... Besh yildan beri non yopib, o'zim sotib qari onamni boqar edim... Bir kun... Bir kun...

U yog'ini ayta olmadi. Nafasi og'ziga tiqildi, bo'g'ildi, badtar qaltiradi. So'ngra birdan yovvoyi bir «dod» chiqarib yiqildi.

Pastdan ham bir xunuk «dod» chiqdi. Unda aybdor ham yiqildi. Ikkovini su-yab olib ketdilar. Sud buzildi.

Yana sud bo'lganda...

Dengiz – qiz qullarday jim turib so'zladi.

Qirg'oq – O'lmas tog'larday tinch turib tingladi.

Qirg'oq ag'darildi.

Tog' yiqildi.

Dengiz mavjlari va to'lqinlari quchog'iga olib, ularni qirg'oqlardan saqlash: qo'riqlash qayg'isiga botdi.



# G'afur G'ulom

(1903–1966)



G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (1963). Toshkent shahrida Qo'rg'on-tegi mahallasidagi eski maktab va madrasada, rus-tuzem (1916) va «Hayot» maktablarida (1918) tahsil olgan. «Dinamo», «Yigit», «Egalari egallaganda», «Xitoydan lavhalar» (1931), «Tirik qo'shiqlar» (1932), «Ko'kan» (1934), «Sizga» (1935), «Chashma» (1939), «Yangi she'rlar», «She'rlar» (1946), «O'zbek elining g'ururi» (1949), «Sharaf qo'lyozmasi» (1950), «Tanlangan asarlar» (1956–59, 4 jildli) she'riy to'plam va dostonlari, «Jo'rabo'za» hikoyalar to'plami, «Muxbir sudi» (1929) pyesasi hamda «Netay» (1932), «Tirilgan murda» (1935), «Yodgor», «Shum bola» (1938) kabi qissalar muallifi. Asarlari asosida teatr spektakllari va kinofilmlar yaratilgan («Shum bola» va boshqa). «Otello», «Qirol Lir» singari jahon va rus adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

1966-yil 10-iyulda Toshkentda vafot etgan. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

## MENING O'G'RIGINA BOLAM

Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil – o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab «qora buvi» deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvunto'da<sup>1</sup> ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina o'ratepaning kir ir sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga

<sup>1</sup> Uvunto'da – eski, titilib ketgan.

ketganmiz. Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xo'roz o'tgandan keyin, yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdin uyg'onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovoz bilan suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz, ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo'lib, to'rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda bog'ga ko'chib ketardilar. Hozir ular tomon bo'sh. Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da: «Bizning uyga o'g'ri keldi». G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikan? O'g'ri o'sha amakivachchalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning to'g'rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko'kraklariga qo'yib, til tagidagi nos bilan o'ylab yotar ekanlar. Buvim «tuf» deb nosni tuflab, tomga qarab:

– O'g'rigina bolam, hoy o'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko'yiga tomga chiqqan ko'rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi, – debdilar.

O'g'ri tomdan turib:

– Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo'lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo'lini to'saverasizmi? – debdi.

Men gap shu yerlarga kelganda uyg'onib ketgan bo'lsam kerak. qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

– Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi? Mana: olti oy bo'ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo'q. Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tib mizg'iganday qush uyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

– Nimalarni xayol surasiz, buvijon? – bu gapdan keyin ustidagi to'nini turmuchlab bo'g'otning ustiga yostiq qilib qo'yib, o'g'ri ham yonboshlab oldi.

– Nimalarning xayolini surardim. Shu to'rtta yetimning ertasini o'ylayman-da, bolam. Zamoni o'zing ko'rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'zidan non anqoga shapig<sup>1</sup>. Hali bularning qo'lidan ish kelmaydi. So'qqaboshgina aravakash tog'alarining topgani o'zining ro'zg'oridan ortib, bularga qut-loyamut<sup>2</sup> bo'lishi qiyin. Ro'zg'orda bo'lsa, ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtog' chidamas», deganlar. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib eydigan bo'ladi! Chor-nochor xayol surasan, kishi. Tag'in bu yetimlarning bittagini o'g'il, uchtasi qiz. Endi o'n to'rtidan o'n beshga o'tdi. Qizlari qurg'ur qachon bir erga elashib ketadi-yu. O'zi o'rab, o'zi chirmab oladigan joy chiqmasa, bularga kimning ham ko'zi uchib turibdi deysan. Zamon qattiq, o'g'rigina bolam, zamon qattiq!

<sup>1</sup> Anqoga sharif – nihoyatda tansiq, kam.

<sup>2</sup> Qut-loyamut – yetarli ovqat.

– To‘g‘ri aytasiz, buvijon, – dedi o‘g‘ri, – mening ham ikki bolam, xotanim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To‘rtta chavati non topish uchun o‘zimni o‘tga, cho‘g‘ga, Alining qilichiga uraman. Bo‘lmasa, ishlay desam bilagimda quvvat bor, aql-u hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o‘g‘rilik kasbi yoqadi, deysizmi. Tappa-tuzuk ayolmand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo‘lgandan keyin urush to‘xtaydi, degan edilar. Hali-veri to‘xtaydigan ko‘rinmaydi. Hali ham zamon-zamon o‘sha iligi to‘qlarniki.

– Biror boshqa kasb qilsang bo‘lmaydimi, bolam, – dedi kampir.

– Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasbim kavushdo‘zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. Masallig‘ining o‘zi bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammolik qilay desam, avvalgidek qoplab g‘alla, qoplab sabzi-sholg‘om oladigan badavlatning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo‘zlaridan Buvamat ota butun qoliri-yu shonu so‘zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo‘xori unga movoza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to‘ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o‘n beshta yetim yuvuqsiz qo‘lini cho‘zib: «Amaki, non bering», deydi. Non-a, o‘zimmikiga topolmaymanu! Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo‘zchilar ham, ko‘nchilar ham, boringki, maktab domlari ham, mullavachchalarning ham rangi pano. Bir qoshiq obi yovg‘onga zor. Sanqib yuribdi.

– Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin, qiyomat-qoyim degani shudir-da, a, o‘g‘rigina bolam-a. Ha, mayli, shu yetimlarning ham peshanasiga yozgani bordir. Xo‘sh, endi o‘zingdan so‘ray. Axir, noilojlikdan-ku, shu harom yo‘lga qadam bosibsan, o‘ziga to‘qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo‘lmaydimi? Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor, Odilxo‘jaboy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan ko‘nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo‘lmaydimi?

– Ey, buvim tushmagur, soddasiz-da, sodda, – dedi o‘g‘ri. – Boylarning uyiga tushib bo‘ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo‘rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtdan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo‘jaboyning g‘ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy<sup>1</sup> turadi. Jonimdan kechibmanmi, o‘ldirmaganda ham sibir qilib yuboradi.

– Bu gaping ham to‘g‘ri, o‘g‘rigina bolam. Ammo-lekin ehtiyot bo‘l. El-yurtning oldida tag‘in badnom bo‘lib qolmagin, – dedi bizning kampir.

– Gapingiz to‘g‘ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to‘rtta tovuq, bitta xo‘roz o‘margan edim.

<sup>1</sup> Gorodovoy – bu yerda «rus soqchisi» ma’nosida ishlatilgan.



– Tovuq, xo‘roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg‘ur qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi?

– Hamma ishning ham o‘z maromi bo‘lar ekan, buvi, tovuq olgani borganda cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘noqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonvor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman.

– Shunaqa degin, voy tavba-ey. Hamma hunarning ham o‘zining murt gardoni bo‘lar ekan-da.

– Shunday qilib desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q, ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so‘m pul jamg‘arib: «Topganimiz shu, ellikboshi ota», deb pora bergan edim, rabochiyga (mardikorlikka) ketishdan olib qoldi.

– Ha, ishqilib, bola-chaqasining yegiligini<sup>1</sup> ko‘rsin. Endi bu yoqqa qara, o‘g‘ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana, yorug‘ yulduz ham tikkaga kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg‘alib pastga tush, o‘tinimiz yo‘q. Oshxonada bir zamonlar bog‘dan kelgan bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg‘on qo‘yaman. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘oradan ikkitasini olib qo‘yganman, birgalashib choy ichamiz.

– Yo‘g‘-e, buvi, – dedi o‘g‘ri, – to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman.

– Voy o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To‘xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam.

– Yo‘q, yo‘g‘-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. o‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin. To‘ylarida o‘ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tog‘ tomon ham yorishib qoldi.

– Xayr, o‘g‘rigina bolam, kelib tur.

– Xo‘p, ona, xo‘p...

Men o‘sha o‘g‘ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

<sup>1</sup> Yegiligini – «rohatini», «orzu-havasini» ma’nosida.

# Oybek

(1905–1968)



Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li) 1905-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1965), O'zbekiston FA akademigi (1943). Toshkent universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida (1925–27), Leningrad xalq xo'jaligi institutida (1927–29) o'qigan va og'ir xastalikka chalingani sababli yana Toshkentga qaytib, Toshkent universitetida o'qishni tugatgan (1930). «Tuyg'ular» (1926), «Ko'ngil naylari» (1929), «Mash'al» (1932) she'riy to'plamlari, «Dilbar – davr qizi» (1932), «O'ch» (1933), «Baxtigul va Sog'indiq» (1934), «Qahramon qiz» (1936), «Gulnoz», «Kamonchi», «Navoiy» (1937) singari dostonlar yozgan. Nasriy merosi 5 roman («Qutlug' qon», 1940; «Navoiy», 1942; «Quyosh qoraymas», 1943–59; «Ulug' yo'l», 1967; «Oltin vodiidan shabadalar», 1949), 4 qissa («Shonli yo'l», «Nur qidirib», «Bolalik» va «Bola Alisher») hamda bir qancha hikoya va ocherklardan iborat. A. S. Pushkinning «Evgeniy Onegin» she'riy romani, M. Y. Lermontovning «Maskarad», Molerning «Tartyuf» dramalarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Oybek 1968-yil 1-iyulda Toshkentda vafot etgan. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan (2001).

## FANORCHI OTA

Tor, qiyshiq ko'chaning o'ksiz oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga o'tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar edi. Uni har kuni kechqurun past bo'yli, burushiq yuzli bir chol kelib, yoqib ketar edi. Biz uni «Fanorchi ota» der edik. U juda yuvvosh, indamas kishiydi; kichkina narvonchasini chaqqon qo'yib, allaqanday ustalik bilan chiqar, qo'ltig'idan kir ro'molchasini olib, avaylab fanor oynalarini artardi. Fanorni yoqqach, yerga tushib, obkashtek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo'yib birpasda ko'zdan yo'qolar edi.

Fanor qurilgan vaqtlarda butun mahalla quvonib, unga allaqanday mehr ila qaragan bo'lsalar-da, faqat bu mehr uzoqqa cho'zilmagandi. Keyincha har kim unga parvosiz bo'la boshladi.

Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi. To'planishib, avvalo bir-birimizning do'ppimizni otishar, fanorga do'ppi kiygizgan o'rtoq merganligi ila kerilar edi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi, chunki piston qadalgan yoki har turli iraklar bilan bezalgan do'ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo'lar edi. Shuning uchun ham qo'limizga tosh, kesak olib, fanorga hujum qilishni o'rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko'zlarini o'pirib tushirardi. Keyin-keyin Fanorchi ota haftada uch-to'rt marta unga «yangi ko'zoynak» taqib ketishga majbur bo'lardi. U ketdi, darrov biz yangi «ko'z»ni o'yib olardik. Shunday bo'lsa-da, Fanorchi ota «lom» deb og'iz ochmasdi. Uning bu qilig'i bizga sira yoqmas, tutib olish uchun poylasa, hatto birontamizni tutib ursa ekan, der edik. Ammo shu tilaklardan bittasi ham yuzaga chiqmasdi.

Bir kun, namozshom vaqti, ko'chada bolalar ko'p edi. Ichimizda eng ko'p qo'rqmaydigan, eng battol Qosim cho'loq: «Bolalar!» – dedi. Changga botgan yuzlarimiz yangi bir narsa kutib, uning ko'zlariga tikildik.

– Fanorchi ota keladigan vaqt yaqin. Sindiramiz. Nima qilar ekan? – dedi-da, qo'lga ilinadigan bir narsa qidira boshladi.

Qo'llarimizdan g'izillab uchgan tosh-kesaklar fanorning hamma ko'zlarini teshib o'tgan edi. Uzoqdan Fanorchi otaning bukilgan kichkina qomati yaqinlasha boshladi. Narvoncha elkadan tushib, ta'zim ila devorga suyandi. Fanorchi ota uning ustiga chiqdi-da, «chirt» etib gugurtni yoqdi: fanor to'rt tarafdin qulagan uy kabi ajava tusda, yana bir tomonga qiyshayib turar edi. Biz hammamiz kerilib turar edik. Ba'zilar «piq-piq» kulishdi. Chol kasal odamga o'xshab, sekin-sekin pastga tushdi. O'siq qoshlari tagida qisilib yotgan ko'zlari ila hammamizga yalingsimon qaradi-da, mayin bir tovush bilan:

– Tentak bolalarim, bu qanday gap? Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo'ladimi? U yuqorida, sizlar pastda o'ynay beringlar-da.

Bolalar jim bo'lgan edi.

– Sizlar hali yosh, ko'zlaringiz o'tkir. Qorong'i ham, yorug' ham baravar. Xufton bo'lmasdan onalaringizning quchog'ida pish-pish uxlab qolasiz hammangiz. Bizga o'xshash qari-qartanglar uchun chiroq judayam kerak, – dedi.

Bolalarning ko'zi cholda edi.

– Tunov kuni kechasi qattiq yomg'ir yog'ib turgan edi. Bu yoqqa kelsam, ko'cha qop-qorong'i. Fanorning teshik oynasidan shamol kirib o'chirib qo'yan. Ana u ariqning bo'yiga borganimda bir nima suvni chapillatardi. Yopiray, nima ekan, deb fanorchamni ariqqa tutsam, mendan ham qari bir kishi ariqdan chiqolmay yotgan ekan. Darrov qo'lidan tortdim, bir amallab chetga chiqardim, hamma yog'i loy, jiq-jiq suv.

Bolalardan biri:

– Voy, boyoqish, soqoliam, yuziyam loymi?

– Hamma yog‘i loy bo‘lgan... keyin yetaklab uyiga eltib qo‘ydim, – dedi chol.

Mening ko‘zimga Fanorchi otaning degani shunday ko‘rinib kelgandi, Qosim cho‘loq:

– Yolg‘on-yolg‘on! – deb baqirdi.

Bolalar birdan:

– Rost! – deb javob qaytarishdi.

– Kim endi sindirsa, shuni tutib beramiz otamga, – dedi Ahmad.

Fanorchi ota:

– Ha, barakalla, endi sindirmaysizlarmi? – dedi.

– Yo‘q-yo‘q, – javob berdik shu zamon.

Kichkina narvonni yana yelkasiga ilib, chol qorong‘ilikka kirib yo‘qoldi.

Shundan beri, haqiqatan, fanorga hech shikast yetmadi. Hozir shu fanorning o‘rnida sim to‘r bilan o‘ralgan tuxumdan kattaroq elektr lampochkasi yonib tura-di. Uning uchun na yoquvchi, na gugurt, na moy kerak. Hech bir bola tegajaklik qilib tosh ham otmaydi. Uning yorug‘ida yurganda yoshligimning bir parchasi va Fanorchi otanigina xotirlayman.

# Abdulla Qahhor

(1907–1968)



Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1967). O‘rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetini tamomlagan (1930). Uning ilk «Oy kuyganda» (1924) hajviy she‘ri Norin shilpiq taxallusi ostida «Mushtum» jurnalida bosilgan. Yozuvchi «Boshsiz odam» (1929) hikoyasini e‘lon qilgach, umrining oxirigacha nasrda samarali ijodi qilgan. Dastlabki hikoyalar to‘plami — «Olam yasharadi» (1935). Shundan so‘ng uning «Hikoyalar» (1935, 1936) to‘plamlari ketma-ket nashr etilgan. Bu davrda u «Sarob» (1935) romanini ham yozgan. «Qo‘shchinor chiroqlari» (1951) romani, «Sinchalak» (1958), «O‘tmishdan ertaklar» (1965), «Muhabbat» (1968) qissalari o‘zbek nasri taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan. U o‘zining «Shohi so‘zana» («Yangi yer», 1949–53), «Og‘riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» (1962), «Ayajonlarim» (1967) sahna asarlari bilan dramaturg sifatida ham tanilgan. A. S. Pushkin, L. Tolstoy, N. V. Gogol, Chexov asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Abdulla Qahhor 1968-yil 25-mayda Moskva shahrida vafot etgan.

Vafotidan so‘ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

## MING BIR JON

Martning oxirgi kunlari. Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko‘yga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelganidan bexabar hanuz g‘aflatda yotgan o‘t-o‘lanni, qurt-qumursqani uyg‘otgan, avvalgidan ham yorug‘roq, avvalgidan ham issiqroq shu‘la sochayotganday tuyuladi.

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o‘ziga juda ham katta ko‘k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek de-

razadan ko'chaga qarab o'tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo'lsa-yu, oyoq-qo'li butun odam ko'chaga chiqolmay, derazadan mo'ralab o'tirsa!..

Mirrahimov jussasi kichkina bo'lgani bilan tovushi juda yo'g'on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog'lig'ini, kayfini so'radi, keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak, degan mazmunda shama qildi.

Mastura Aliyeva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og'ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko'p kishi kirib ko'rgan ekan. Mirrahimovning odamgarchiligi tutib ketdi:

– Shu sho'rlik ayolni bir kirib ko'raylik! Uch kunligi bormi, yo'qmi... Sob bo'lgan deyshadi...

– Ha, ancha og'ir, – dedi hamshira xo'rsinib, – o'n yil dard tortish osonmi!

Poygacdagi karavotda kitob o'qib yotgan Hoji aka degan xasta yo'g'on gavasiga nomunosib chaqqonlik bilan boshini ko'tarib, ko'zidan oynagini oldi.

– O'n yil? O'n yildan beri kasal ekanmi?

– Ha, o'n yil bo'libdi. Bechora turmush qilganiga bir yil bo'lar-bo'lmas shu dardga yo'liqqan ekan. Tomog'idan hech narsa o'tmaydi. Ovqatni qorniga quyishadi... Teshib qo'yilgan... Ba'zan o'zi quyadi, ba'zan eri.

Hoji akaning ko'zlari o'ynab ketdi.

– Eri? Eri bormi?

– Bor. Shu yerda. Besh oydan beri birga!

Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin:

– O'n yil kasal boqib, yana kasalxonada ham birgami? – dedi.

– Shuni ayting, – dedi hamshira. – Doktorlarga yalinib-yolvorib palataga karavot qo'ydirib oldi.

Hoji aka dardga bir qadar bardoshli ayoldan ham ko'ra bunchalik vafodor erni ko'rishga ishtiyoqmand bo'lib qoldi-yu, xalatining belbog'ini mahkam bog'lab, shirpagini kiydi.

– Qani, yuringlar, tabarruk odamlar ekan, bir ko'rib chiqaylik.

Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar bergani ketdi.

Hayal o'tmay, qorni chiqqan Hoji aka oldinda, uzun koridordan o'ninchi palataga tomon yo'l oldik. Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qora, katta-katta ko'zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtiromlar bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo'lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q zaif emas, mayin tovush eshitildi:

– Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'ladi, ming rahmat! Akramjon, kursi qo'yib bering...

Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'rdik... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi... Tobutda yotgan o'likning qo'limi,

oyog'imi, biron sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa kishi qay ahvolga tushadi? Uning o'lim pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko'zlarini ko'rgan kishi xuddi shu ahvolga tushar edi.

Boya bizni kutib olgan yigit – Akramjon kursi qo'yib berdi. Mirrahimov ikkovimiz o'tirdik. Hoji aka yo'g'on gavdasi bilan Masturani to'sib tikka turib qoldi. Yonimdagi kursini surib Hojining etagidan tortay desam, qorni silkinyapti... Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qaragam... rangi bo'z bo'lib ketibdi! Uning qo'rqqanini payqab hamshira darrov yo'l qildi:

– Iye, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. Hoji koridorga chiqib yiqilarmikan deb o'ylagan edim, yo'q, xayriyat, gumburlagan tovush eshitilmadi...

Hamshira yo'l qilib Hojini olib chiqishga chiqdi-yu, lekin bari bir, Mastura payqadi. Juda-juda xunuk ish bo'ldi. Mirrahimov ikkovimiz nima deyishimizni, nima qilishimizni bilmay qoldik. Bu hol kasalga qanday ta'sir qiladi ekan deb sekin qaradim. Mastura qonsiz labida tabassum bilan eriga yuzlandi:

– Akramjon, daftaringizga yozib qo'ying: uch mardi maydon meni ko'rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo'lmay, o'tirib qoldi.

Mastura piqirlab kulib yubordi, yana kuldi, yosh boladay o'zini tutolmay qiqirlar edi. Bu hazil va ayniqsa kulgi avval xunuk, odamning etini jimirlatadigan darajada xunuk eshitildi, keyin nechukdir, Masturaning yuzidan o'lim pardasi ko'tarilganday, hayot to'la ko'zlari o'lik yuziga jon kirgizganday bo'ldi. Mirrahimov Hoji akaning qilmishi to'g'risida uzr tariqasida bir nima demoqchi bo'lib gap boshlagan edi, Mastura so'zini og'zidan oldi:

– Bunaqa narsa menga ta'sir qilmaydi, – dedi, – Akramjon, bularga tobut voqeasini aytib bering... yo'q, yo'q, o'zim aytib beraman! Bunga besh yildan oshdi. Ko'z oldimdan ketmaydi... Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro'parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog'ini yamayotgan edi, shekilli. Birdan ko'cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qaragam – tobut! Akramjonning ikkita o'rtog'i hovlimizga tobut ko'tarib kirdi! Yuragim jig'etib ketdi... Voy sho'rim, nahot o'lgan bo'lsam... To es-hushimni o'nglab, Akramjonga bir nima degunimcha boyagi ikkovi tobutni devorga suyab qo'yib, uyga kirib keldi, uyga kirdi-yu, meni ko'rib ikkovi ham boyagi Hoji akangizday shaytonlab qolayozdi. Akramjon hayron... Men ana ketdi, mana ketdi bo'lib yotgan edim-da, o'sha kuni ertalab birov avtobusda yig'lab kelayotgan bir bolani ko'rib, mening ukamga o'xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi... Tobutni buzib pechkaga qalashdi. Menga shu ham ta'sir qilgani yo'q. Bunaqa narsalar o'lim kutib yotgan kasalga yomon ta'sir qilishi mumkin, men hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog'ini surishtirsangiz, men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki «rozilik tilashgani hali erta» dermikim degan umid bilan, dunyoda tengi yo'q, timsoli yo'q zo'r umid bilan qaragani deb bilaman.

Akramjon Masturaning biz bilan yozilib o'tirganiga qanchalik xursand bo'lsa, toliqib qolishidan shunchalik xavotirda ekani ko'rinib turar edi, shuning uchun Masturaga tez-tez dam berishni ko'zlab, ko'proq bizni gapirtirishga, o'zi gapirishga harakat qilardi.

– Sizning nima dardingiz bor? – dedi Mirrahimovga yuzlanib.

Mirrahimov birdaniga uchta dardning nomini aytdi.

– Voy sho'rim!.. – dedi Mastura, – jindakkina joningizga-ya! Shu jussangizga uchta dard sig'dimi?

Bo'ldi kulgi! Ayniqsa, Mirrahimov zavq qilib kuldi. Kasallik, o'lim to'g'risida gap tugab, xushchaqchaq suhbat boshlanishiga ilhaq bo'lib turgan Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi, askiyaga juda usta ekan, olamda dard nima, o'lim nima ekanini butkul unutib, rosa kulishdik. Afsuski, Mirrahimovning yo'g'on tovushi suhbatimizning buzilishiga sabab bo'ldi: vrach koridordan o'tib borayotib, uning beso'naqay kulgisini eshitgan bo'lsa kerak, eshikni ochib qaradi va Masturaga zehn solib, uning yuzida horg'inlik ko'rdi shekilli, bizni chiqarib yubordi. Akramjon ketimizdan chiqdi, bizning bu iltifotimiz Masturaga qancha kuch-quvvat berishini aytib, ko'nglida mavj urib, yosh pardasi bosgan ko'zlarida ko'rinib turgan cheksiz minnatdorchilik tuyg'usini aytib bitirolmas, aftidan, Masturaning bir minutlik oromi uchun o'ng ko'zini o'yib berishga ham tayyor edi.

Palatamizga qaytdik. Hoji aka karavotida yonboshlab, qand choy ichib, o'zini elpib yotar edi. Bo'lib o'tgan xijolatli ish to'g'risida u ham indamadi, biz ham indamadik. Hoji akaga bir nima deyish u yoqda tursin, Mirrahimov ikkovimiz ham kechgacha bir-birimizga so'z qotmadik, aftidan, borlig'imiz Mastura bilan band, quyunday charx urayotgan taassurotlar, fikrlar, tuyg'ularni ifoda qilgani so'z topolmas edik.

Kech kirdi. Hoji aka o'rtacharoq xurрак tortib uyquga ketdi. Mirrahimov dam-badam u yoqdan-bu yoqqa ag'darilar edi, nihoyat, mening uyg'oq ekanligimni payqab boshini ko'tardi.

– Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lirillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so'nadi. Mana shu ishonch Masturaga o'limni yo'latmaydi.

Mirrahimov uzoq jim qolganidan keyin yana birdan:

– Eri-chi, eri? – dedi, – bu yigitning ham raftoridan, yigitlik umri ming bittayu, shundan bittaginasini Masturaga qurbon qilyapti.

Ertasiga Mastura haqida yana bir ko'ngilsiz gap eshitdik: bechoraning to-mog'idan hech narsa o'tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to'planar ekan...

Kunlar o'tib hammamiz tarqaldik. Mirrahimov o'zining MTSiga, Hoji aka kurortga ketdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin shu tomonga yo'lim tushdi-yu, kasalxonani bosib o'tolmadim, kirib tanish hamshiradan so'rasam, Mastura bir soatdan keyin operatsiyaga yotar ekan. Doktorlar operatsiya stolidan turolmaydi



deb besh oydan beri uning ra'yini qaytarib kelishar ekan, oxiri bo'lmabdi – Mastura o'lsam tovonim yo'q deb tilxat beribdi.

Kirib ko'ray desam doktor ijozat bermadi. Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam, zoraki darmon bo'lsa deb kutdim.

Vaqt-soati yetganda Masturani hamshira bilan Akramjon ikki tomondan suyab olib chiqishdi. Lekin eshikdan chiqishi bilanoq Mastura ikkovini ikki tomonga itarib o'zi yurdi, bardam qadam tashlab, operatsiya zalining eshigini o'zi ochib kirib ketdi. Akramjon, butun diqqati xotinida bo'lgani uchun meni payqamadi. Mastura esa menga bir qaradi-yu, tanimadi shekilli, indamadi.

Operatsiyaga doktorlarning ko'ngli chopmagani, xastaning holi o'zimga ma'lum bo'lgani, Masturaning o'limning yuziga bunchalik tik qaragani qorong'ida qo'rqqan kishi ashula aytganidek emasmikin, degan gap ko'nglimdan o'tgani uchun operatsiyaning natijasini kutmadim, kechqurun kasalxonaga telefon qilmoqchi bo'lganimda, rostini aytsam, telefon trubkasini dadil ololmadim. Yo'q, xayriyat, Mastura operatsiyadan bardam turibdi. Shunaqa deyishdi.

Shundan keyin men uzoq safarga ketdimu, Masturaning taqdiridan bexabar bo'ldim, lekin uni tez-tez eslar edim, bu toqati toq, joni temirdan insonning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko'rishini uning o'zidan ham ko'proq tilar edim. Shuning uchun oradan uch yil o'tgach, Akramjonni bir begona xotin bilan ko'rganimda alamimdan dod deb yuborayozdim.

Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tmasa kerak, chunki bu yerga respublikaning turli oblastlaridan kelgan odamlar o'z oblastining ashulasini, o'yinini ham olib kelgan deyishadi.

Paxta bayramini yor-jo'ralar bilan Guliston rayonida o'tkazdik.

Akramjonni, boya aytganim xotin bilan shu yerda, Guliston rayoni markazining chiqaverishida ko'rdim. O'rta bo'yli, xushqomat, vujudidan yoshlik kuchi va g'ayrati yog'ilib turgan qop-qora juvon otda olma yeb, yo'l bo'yida turar, Akramjon o'z otining ayilini qayta bog'lamoqda edi. Akramjon meni ko'rib qoldi-yu, juvonga bir nima dedi. Juvon darrov otdan tushdi. Ikkovi yugurib keldi. Ikkovi ham men bilan juda eski qadrdonday so'rashdi. Biroq men, harchand qilsam ham, palatadan chiqib operatsiya zaliga kirib ketayotgan Mastura ko'z o'ngimdan ketmay, bular bilan samimiy ko'risha olmadim. Akramjonni bir nav quchoqlagan bo'ldim, juvonga esa qo'limning uchini berdim.

Juvon:

– Amaki, meni tanimadingizmi? – dedi va xurjundan ikkita olma olib, birini menga berdi.

– Qayerdadir ko'rganday bo'laman, lekin...

Juvon qo'lidagi olmani ustma-ust bir necha martaba tishladi va chala chaynab yutdi.

– Endi ham tanimadingizmi? – dedi.

Tanidim! Faqat ko'zidan tanidim! Kulimsirab, olamga tabassum sochib turgan bu juvon o'sha Mastura edi. Men nima deyishimni bilmay:

– Bu yoqda nima qilib yuribsiz? – dedim.

Mastura kuldi.

– Kuchimni, g‘ayratimni to‘la-to‘kis ishga solib yuribman, – dedi.

– Operatsiyaga kirib ketayotganingizda men yo‘lakda turgan edim, hayajonda bo‘lsangiz kerak, tanimadingiz...

– Yo‘q, amaki, – dedi Mastura bir oz xijolat bo‘lib, – kechirasiz, atayin so‘rashmagan edim... So‘rashesam, menga tasalli berar edingiz... O‘sha tobda menga tasalli berib aytilgan har bir so‘z ishonchimga raxna, ko‘nglimga g‘ulg‘ula solishi mumkin edi.

Uzoq suhbatlashdik. Er-xotin otlarini yetaklab, meni talay yergacha kuzatib qo‘yishdi: so‘ng xayrlashib so‘l tomonga ot qo‘yib ketishdi.

Men sahroda lochinday uchib ketayotgan Mastura bilan Akramjonga uzoq qarab qoldim.

Ikkovi ufqqa yetganda, biri orqaga qaytdi, hayal o‘tmay yetib keldi.

Bu Mastura ekan, yo‘ldan bir necha qadam narida turib:

– Amaki, Hoji akamga salom ayting, – dedi va ufqda kutib turgan Akramjonga tomon ot qo‘yib ketdi.

Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshirolmadim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan.

# Mirkarim

## Osim

(1907–1984)



Mirkarim Osim 1907-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan oʻqituvchi (1944), Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi (1977). Moskvadagi Bubnov nomidagi pedagogika institutini tugatgan (1926–30).

«Yangi ariq» ilk qissasi (1925) Qoʻqon xonligini ideallashtirgan asar sifatida bosilmay qolgan. Dastlabki yirik asari — «Astrobod» tarixiy qissasi Alisher Navoiy hayotiga bagʻishlangan. Shundan keyin u Navoiy haqida turkum qissa va hikoyalar yozgan (1937–40). «Toʻmaris», «Shiroq», «Iskandar va Spitamen», «Temur Malik», «Mahmud Torobiy», «Oʻtror» kabi qissalar muallifi. Uning «Zulmat ichra nur», «Ajdodlar qissasi», «Jayxun ustida bulutlar», «Aljabrning tugʻilishi», «Ibn Sino qissasi», «Singan setor» singari asarlari oʻzbek tarixiy qissachiligining yuksak namunalaridandir.

M. Sholoxovning «Tinch oqar Don» (2-kitob), S. Borodinning «Yeldirim Boyazid» romanlari va L. G. Batning «Hayot boʻstoni» qissasi va boshqa asarlarni oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Mirkarim Osim 1984-yil Toshkent shahrida vafot etgan. Vafotidan soʻng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2002).

## SHIROQ

Yoz boshlanib, Yaksart boʻyidagi choʻllarda oʻtlar qovjiray boshladi. Bu yerlarda yashovchi shak qabilalari seroʻt yaylovlarga koʻchish taraddudiga tushishdi. Yangi yerlarga koʻchish chorvachilar uchun bir bayramdek edi. Ular bahor mavsumida yashab oʻrganib qolgan yerlarini tashlab ketish oldidan bir-birlarinikiga qoʻnoq boʻlib borar, dorivor oʻtlarni yeb semirgan biyalarning sutidan tayyorlangan oʻtkir qimizlarni ichib mast boʻlgan yigitlar qizlar bilan lapar aytishar, vaqti-choqlik qilishardi.

Biroq bu safar odamlarning ko'ngliga qil sig'mas, o'tlovlardan na qo'shiq tovushi va na qizlarning xushchaqchaq kulgisi eshitilardi.

Baland bir yerga qurilgan katta oq o'tovni egnilariga yarg'oq teridan kamzul, boshlariga uchi ingichka, uzun qalpoq kiygan qurolli soqchilar qo'riqlab turardilar.

O'tov ichida esa shak qabilalarining oqsoqollari kengash qurib o'tirardilar. To'rga solingan ayiq terisi ustida chordona qurgan Rustak oqsoqollariga vaziyatni tushuntirdi:

– Eron shohi Darayavush O'kuzdan kechib, So'g'diyani bosib oldi. Eroniyalar el-yurtini talab, erkaklarni qul, xotinlarni asir qilib olib ketayotirlar. Endi navbat bizga keldi. Darakchilarimiz shohning biz tomonga Ronosbat boshchiligidagi katta bir qo'shinni yubormoqchi bo'lganligidan darak berayotirlar...

Rustak – soch-soqoli oqargan, bir oz munkayib, cho'kib qolgan suyakdor chol. U bir vaqtlar keng yag'rinli, baland bo'yli pahlavon edi. Yakkama-yakka janglarda shak urug'ining dushmanlaridan ko'p bahodirlarni yer tishlatgan, uning nomi So'g'diyada ham, Eronda ham mashhur edi.

Hozir u shaklar va so'g'diyaliklarning ashaddiy dushmani bo'lgan Eron shohi va uning qora niyatlari to'g'risida gapirar ekan, g'azabdan nafasi tiqilar, ko'zlari o't sochar edi. U gapni tugatib, dushmanni daf etmoq uchun qanday choralar ko'rish kerakligi to'g'risida o'z fikrlarini aytishni urug' oqsoqollaridan so'radi.

– Qo'lidan ish kelmaydigan chollar, kampirlar, bolalik xotinlarni qo'y va yilqilar bilan uzoq cho'llarga yuborib, qolgan er va ayollarning barini qurollantir-sak va dushman bilan bir tomchi qonimiz qolguncha urushsak, – deb gap boshladi urug' oqsoqollaridan Saksfar. U oltmishga borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qir-qizil, serg'ayrat va tavakkalchi odam edi. – Urush kulfati benomuslik mashaqqatidan yaxshiroq. Zolim Eron shohiga qul bo'lgandan ko'ra jang maydonida o'lgan afzal...

Rustak uning uzundan – uzoq gapini sabr bilan tinglab, boshini quyi solgan-cha o'ylanib qoldi.

– Jangda mardlarcha o'lmoq oson gap, lekin dushmanni yanchib tashlab, undan qasos olmoq qiyin. Biz mardlik ko'rsatib, nomimizni qoldirish to'g'risida emas, balki el-yurtimizning erkini qanday saqlab qolish to'g'risida o'ylamog'imiz kerak, – dedi u qiziqqon Saksfarga qarab.

Oqsoqollar mum tishlagandek miq etmay o'tirar edilar. Ko'p mamlakatlarni bosib olib, jang maydonlarida ko'p tajriba orttirgan, yaxshi qurollangan Eron qo'shini bilan urushmoq juda qiyin ekanligi ularga ayon edi.

Boshliqlar bu mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o'tirganlarida, o'tov eshigi oldida turgan qurolli yigit Shiroq degan bir cho'ponning kirishga ijozat so'rayotganini bildirdi.

– Shiroq! – deb qoshini chimirdi Rustak. – Kim u ?

– Shiroq bizning urug'dan. Butun umri cho'ponlik bilan o'tgan, – dedi Saksfar. – O'zi juda farosatli, dono, dostonchi chol. Eski choldivorlardan chayon

ushlab o'zini chaqtiradi. Og'riq sezmaydi. Aytishlaricha, yoshligida ilon uni chaqib olganda allaqanday giyohlarni surtib tuzalib ketgan emish. O'shandan beri ilon-chayondan qo'rqmaydi.

– Andoq bo'lsa, chaqir buyoqqa o'sha cholni.

Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan, tetikkina, barvasta bir chol kirib, ta'zim qildi.

– Ijzat bersanglar, men ham qatoringizga o'tirib, o'z fikrimni aytsam. Nima to'g'rida gaplashayotganingizni bilaman.

– O'tir, o'tir, gapingga quloq solamiz, – dedi Rustak.

– Eron shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko'p, ularni jangga chorlab, yengish mahol. Shunday bir hiyla topmoq kerakki, dushman oyog'i toyib, halokat jariga qulab tushsin.

– Qani, ayt, qanday hiyla o'ylab topting? – deb so'radi Rustak.

– Buni faqat senga aytaman. Oqsoqollar o'tovingni tark etsinlar.

Rustak bu gapni eshitib, aftlari burishib ketgan oqsoqollarga bir qarab oldi-da:

– Nima, sen shu ulug' zotlarga inonmaysanmi? – deb so'radi.

– Inonaman, ular el g'amini yeydigan halol odamlar, o'lsalar ham dushmanga sir boy berishmaydurlar. Ammo ularning yaqin do'stlari, inilari, o'g'illari, xotinlari bor. Men aytgan gaplarni beixtiyor ularga aytib qo'yishlari mumkin. Oqsoqollar meni kechirsinlar...

Urug' boshliqlari birin-ketin o'rinlaridan turib chiqib keta boshladilar.

Oq o'tovdan nariroqda cho'qqayib o'tirgan oddiy ko'chmanchilar Shiroqni yaxshi tanir, uning qo'biz chalib aytgan dostonlarini ko'p marotaba tinglagan, o'zi ham dostonlarda madh etilgan sheryurak odamlardan biri ekanligini bilar edilar.

Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Shiroq o'tovdan chiqdi. Uni ko'rgach, ko'chmanchilar dahshatga tushib o'rinlaridan sakrab turib ketdilar. Keksa cho'pon kesilgan ikki qulog'i va burniga kuydirilgan namat bosib, sizib oqayotgan qonni to'xtatishga harakat qilardi. Kutilmagan bu fojidan g'azablangan odamlar uning atrofini o'rab oldilar va ustma-ust savol yog'dira boshladilar:

– Quloq-burningni nega kesdilar?

– Sen sho'rlik nima gunoh qilib eding?

Rangi murdadedek oqarib ketgan Shiroq tishini tishiga qo'yib, o'zini bardam tutishga urinar, urug'doshlarining savollariga javob bermasdi. Uni bir joyga o'tqazib, kuydirilgan namat bilan qonini to'xtatdilar. Cholning sahro shamoli va cho'l quyoshidan qoraygan yuzida g'azab alomati yo'q edi. U o'ziga kelgach, o'rnidan turdi-da, kunbotish tomonga qarab ketdi. Hang-mang bo'lgan kishilar uning orqasidan qaraganlaricha qotib qoldilar.

Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi so'g'd xalqini itoatga keltirgan Eron shohi Yaksartning so'l qirg'og'idagi ko'chmanchilar ustiga yurish oldidan dam olmoqda. U yetti paxsa devor bilan o'ralgan bog' o'rtasidagi baland shiyponda o'z a'yonlari bilan may ichib, shakarguftorlik qilib o'tirardi.

Mulozimlardan biri shiypon yoniga kelib ta'zim qildi-da, quloq-burni yo'q g'alati bir chol shoh huzuriga kirishga izn so'rayotganini bildirdi. Doro surishtirib, kelgan odamning shak qabilasidan ekanligini bilgach:

– Mayli, kirsin, – dedi.

Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan Shiroq shohdan o'n besh qadamcha berida to'xtadi-da, yer o'pdi va o'ruidan turib, ta'zim qilganicha qotib qoldi.

Doro baland bo'yli, qush burun chiroyli odam edi. Uning ponaga o'xshagan soqoli ko'kragiga tushgan va mayin taralgan. Ustidagi to'q qizil zarrin to'ni yiltirar, qo'lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong'i kechadagi yulduzlardek charaqlar edi. Tosh qo'g'irchoqqa o'xshagan ikki mulozim uni sekin-sekin elpib turardi.

Doro kamon qoshlarini chimirib, baland ovoz bilan:

– Hoy odam, o'zing kimsan, oting nima va qaysi urug'dansan? – deb so'radi.

– Otim Shiroq, o'zim shak urug'idanman, – javob qildi chol.

– Kelib mening istirohatimni buzmoqdan maqsading nadir?

– Maqsadim mulozamat kamarin belga bog'lab, umrimni siz shahanshoh xizmatida o'tkazmoqdir. Janoblariga xayrixoh bo'lganim tufayli qabiladoshlarimdan qattiq sitam ko'rdim. Alarga men: «Shohi Eron bilan urushaman, deb chiranmang, sizlarni bir hamlada zeru zabar qilg'ay, yaxshisi, itoat kamarin bog'laborib, ul zoti bobarakotning etaklaridan o'ping», dedim. Bu gapdan xabar topgan hukmdorimiz Rustak g'azabga mindi va mening quloq-burnimni kestirdi. Men endi sizning yordamingiz bilan undan o'chimni olmoqchiman. Agar ijozati oliy bo'lsa, yengilmas qo'shiningizni yolg'iz podachilar biladigan so'qmoqlar bilan shak lashkarlarining orqasidan olib chiqar edim, keyin ularni qilich damidan o'tkazmoq qiyin emas...

Shiroqning gapini eshitib, Doro o'yga toldi. Agar jangovar shak qabilalari shu yo'sinda yakson qilinsa, O'kuz bilan Yaksart o'rtasidagi sernum yerlarni bosib olgan Eron lashkarlarining bexatarligi ta'min etilgan bo'ladi. Ammo bu keksa cho'ponni bir sinab ko'rmoq kerak.

Shiroq shohning ishonchsizlik ko'zi bilan qarayotganini fahmlab, o'z so'zining to'g'riligini isbot qilishga kirishdi:

– Axir quloq-burnimni yaqindagina kesilgani ko'rinib turibdi-ku! Biznikilar bekorga o'z urug'lariga bunday sitam yetkazmaydurlar.

O'ylab qo'ygan dalillarini keltirib, uzundan-uzoq gapirdi va o'zining Eron shohiga sodiqligini, shaklarga dushman ekanligini isbot qilishga tirishdi, so'zining oxirida quyosh tangrisini shafe keltirib ont ichdi.

Doro sarkardalari bilan maslahatlashib, shaklar ustiga qo'shin yuborishga, Shiroqni esa yo'l boshlovchi qilib olishga qaror berdi.

Eron askarlari yo'l boshlovchining maslahati bilan yetti kunlik suv, oziq-ovqat va yem-xashak olib yo'lga chiqdilar va daryoning chap qirg'og'idagi qum sahrolaridan borib shaklarga orqa tomondan hujum qilmoqchi bo'ldilar.

Dastlabki kunlar yo'l uncha mashaqqatli bo'lmadi. Cho'l o'tlari endi qovjirab kelayotgan bo'lsa ham onda-sonda buloqlar atrofida ko'm-ko'k o'tloqlar uchrab

turardi. Bora-bora cho‘l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o‘xshab uyulib qolgan qumtepaliklardan oshib yoki chetlab o‘tish oson emas edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardi. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov selini quyar, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o‘pkalarini yondirardi.

Lashkarboshilarining toqatlari toq bo‘lib, shaklar lashkargohiga qancha masofa qolganini Shiroqdan surishtira boshladilar. U esa manzilga yaqinlashib qolganliklarini va yana ikki kun yurish kerakligini aytib, boshliqlarni yupatardi. Biroq sermashaqqat safarning yettinchi kuni ham shaklardan darak topmadilar. Hammayoq dasht-biyobon, odam yursa oyog‘i, qush uchsa qanoti kuyadi. Suv, oziq-ovqat, yem-xashak tamom bo‘lgan, oriqlab ketgan otlar yer iskab suv qidiradi, qovjiragan lablari shishib ketgan odamlar bir qultum suv uchun bir yillik umrlaridan kechishga tayyor!

Shiroqni o‘rtaga olib: «Bizni qayerga boshlab kelding, ablah!» – deb qisti-bastiga oldilar. Askarboshilardan biri uni yoqasidan ushlab siltadi va haqorat qila boshladi. Shiroq yoqasini uning qo‘lidan qutqarib, namat qolpog‘ini boshidan oldi-da, serajin va keng peshonasining terini artidi. Uning qovjiragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko‘zlarida o‘t chaq nab ketdi. Atrofnı qurshab olgan g‘azabli chehralarga mag‘rur qarab turib, qalpog‘ini yerga bir urdi-da, qah-qahlab kulib yubordi:

– Men yengdim, Doro qo‘shinini bir o‘zim yengdim! – dedi u qichqirib. – Sizlarni aldab sahroning qoq o‘rtasiga olib keldim, – qo‘li bilan kunchiqish va kunchobotish tomonni ko‘rsatdi. – Buyog‘i ham yetti kunlik yo‘l, buyog‘i ham. Istagan tomoningizga yuravering! Mening go‘rim shu yerda, – deb oyog‘i ostini ko‘rsatdi.

U o‘z murodiga yetgani uchun muqaddas otash va suv xudosisga shukur qilib, allaqanday bir duoni o‘qidi. Darhaqiqat, u o‘z elini qullikdan qutqarib qolish uchun jonidan kechgan, yovuz dushmani hiyla tuzog‘iga ilintirish uchun ming turli azob-uqubatni bo‘yniga olgan edi. Mana endi u niyatiga yetdi, dushman askarini halokat jari yoqasiga boshlab keldi. Endi dushman nima qilsa qilaversin!

U Rustakning huzuriga kirganda shunday degan edi:

– Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasang, o‘z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim. Dushmani daf qilmoq uchun bir hiyla o‘ylab topdim. Umrım oxirlab qoldi, axir bu dunyodan ketmoq kerak. Men el-yurt uchun o‘limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim... Gapimga quloq sol...

Hukmdor uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma‘qullagan edi. Shunda u yonidan o‘tkir pichog‘ini olib, o‘z quloq-burnini kesgan va go‘yo o‘z eliga xiyonat qilgan bo‘lib, dushman orasiga kirgan edi...

G‘azabdan ko‘zlari olayib, aft-basharasi bujmayib xunuk bo‘lib ketgan Eron sarkardalari Shiroqni o‘rab olib, uni ura boshladilar. Sarkarda Ronosbat dabdalasi

chiqqan Shiroqni ular qo'lidan qutqarib, bir chetga olib chiqdi-da, suv ichirdi, so'ngra chodiriga olib kirib, uni yaxshilikcha yo'lga solmoqchi bo'ldi. Endi Eron sarkardasi shaklar ustiga yurish qilib, ularni tor-mor etishni xayolidan chiqarib tashlagan, u faqat qo'shinini halokatdan qutqarib qolishni o'ylardi.

– Agar sen sahro quduqlari va chashmalarini bizga ko'rsatsang, gunohingdan kechib, So'g'diyada istagan qishloqlardan birini senga in'om qilardik.

– O'z elimning dushmanlariga yordam uchun cho'zadigan qo'limni kesib tashlaganim ma'qul, – dedi u gapni qisqa qilib. Halokat yoqasida qolgan eroniylar achchiqlariga chiday olmay fidokor cho'ponni chopib, qiyma-qiyma qilib tashladilar.





*Hakim*

*Nazir*

(1915–2008)



Hakim Nazir (Nazarov Hakim Nazirovich) 1915-yil 15-oktabrda Toshkent shahrida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi (1984). Toshkent kechki pedagogika institutini (1941) va Moskva Oliy adabiyot kursini tugatgan (1956). Ilk hikoyalar toʻplami – «Qishloqdagi jiyanlarim» (1948). «Koʻkorol chiroqlari» (1954; qayta ishlangani – «Soʻnmas chiroqlar», 1958), «Suv gadosi...» (1962), «Yonar daryo» (1965), «Koʻkterak shabadasi» (1968), «Kenjatoy» (1976), «Tohir – Zuhra qissasi» (1985), «Dadamni topib beringlar» (1991), «Oq fotiha yoki bolalik sarguzashtlarim» (1995), «Najot» (2005) kabi qissalar, «Chiranma gʻoz – hunaring oz» pyesasi, ocherklar, hikoya va maqolalar muallifi. «Lochin qanotlari» romanida (1973) Ikkinchi jahon urushi davri voqealari aks etgan.

A. Gaydar, P. Pavlenko, L. Kassil («Cheremish – qahramonning ukasi», qissa), V. Katayev («Polk oʻgʻli», qissa) va boshqalarning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

«El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (2000).

2008-yil 15-mayda Toshkentda vafot etgan.

## OQIBAT

Aziza xola ayvon toʻridagi oʻrinda choʻzilib yotgandi. Tepasida qoʻshnisi Lazokatxon paydo boʻldi. Oʻziga oro berib, yasanib yuradigan bu loabar, quvnoq ayolning yoʻsini boʻlakcharoq, feʻli ayniganroq edi. Ammo qoʻshnisining lohas tortib yotganini koʻrarkan, birdan yuzida achinish paydo boʻldi.

– Iya, iya, egachi! Men sizni chaqirtirgandim. Mehmonlarimni shirin suhbat bilan xursand qilib oʻtirarsiz, deb. Chiqmadingiz. Nima boʻldi sizga?

Aziza xola oriq gavdasini arang koʻtardi. Lazokatxon bilan koʻrishgach, bodi qoʻzgʻalganidan qimirlayolmay qolganini aytib, uzr soʻradi. Lazokatxon egachisining bilagini ushlab koʻrdi. Tomir urishi bejolgini sezdi. Darrov oʻz uyidan qon

bosimini o'Ichaydigan asbobini olib chiqdi. O'Ichab ko'rgach, qon bosimi ham ko'tarilganini bildirdi. Azizaxonning nozikligini, sog'ligidan bot-bot shikoyat qilib turishini bilgani uchun achinib ketdi:

– O'zingizni ortiqcha urintirgandirsiz-da. Endi ehtiyot bo'ling. Xudo shifo bersin. Sizga kim qarayotibdi o'zi? – deb u yoq-bu yoqqa alanglab oldi. Uy ichida hech kim ko'rinmagach, so'radi. – Qani bolalar?

Aziza xola biroz o'ylanib turgandan so'ng:

– Ketishgandi... – deb qo'ydi.

– Qayoqqa? – dedi Lazokatxon sergak tortib.

– Haligi... Yangi joyga...

– Tushintiribroq gapiring-chi. Qanaqa yangi joy?

Aziza xola qo'shnisining sinchkovligini, qiziqqan narsasini aniqlamaguncha qo'ymasligini bilardi. Shuning uchun borini aytishga majbur bo'ldi. Gap o'g'li bilan kelini ustida ketayotgandi. Kelinning otasi tuzukkina tadbirkorlardan ekan. Ishlari yurishib ketgandan keyin saxiyligi tutibdi. Qiziga yaqindagi domdan bir kvartira olib beribdi. Aziza xolaning ko'hna, tor, pastqam hovlisida siqilibroq yashasharkan. Xonadonning otasi o'g'li bilan kelini turadigan bitta xonani ikki xonaga aylantirib berish harakatida ekan-ku, bu ish hadeganda bita qolmayotgan ekan. Shu sabab yangi kvartiraga ko'chishga chog'langan kelinning ra'yini qaytarib bo'lmagan. O'z-o'zidan o'g'li O'ktam ham rafiqasi ketidan ergashgan.

Bu yangilikni eshitarkan, Lazokatxonning shaxlo ko'zlari qinidan chiqayozib, jig'i-biyrone qaynab ketdi.

– Ana, xolos! Nahotki, shuni ko'ra bila turib yo'l qo'ysanglar-a! Xo'jayini ngiz ham indamay qo'yib berdilarmi?

– Xo'jayin bularni ko'chganini bilmay qoldi. Komandirovkaga ketgandi.

– Komandirovkadan qachon qaytadi?

– Uzoqroq muddatga ketganla...

– Shundoq ekan, axir bolalaringizga: «Dadang kelsin bir gap bo'lar. Meni yolg'iz tashlab ketmanglar», – deb aytmabsiz-da?

– Aytuvdim. Tez-tez kelib turamiz, deb va'da berishdi. «Hozircha bog'chasi ga bormasdan, yoningizda tursin», – deb bolasini qoldirishdi.

Shu chog' oshxonadan ushshoqqina bir qizcha choynak ko'tarib chiqib, bularning oldilariga keltirib qo'ydi. «Hoy, Jajji, dastyorchilik senga qoldimi, aynoniy!», – deb Lazokatxon qizchani bag'riga bosib, peshonasidan o'pib qo'ydi.

– Bu Jajjining yoningizda hamroh bo'lib turgani yaxshi. Lekin qozon-tovoqqa, o'y-joyga qarash, kasalingizga malham qo'yish buning qo'lidan kelmaydi-ku! Farzandlar shuni o'ylashmagani qiziq. O'zingiz ham aytishga andisha qilgan-siz-da, albatta. Fe'lingiz ma'lum. Ortiqcha tortinchoq, xoksorsiz! Ular sizning bo'shangligingizdan foydalanishgan. Ha, egachi, o'z onalik qadringizni bilmasangiz shunaqa bo'ladi. Keliningiz yuzsizlik qilgan bo'lsa o'g'lingiz o'ylashi, onaizoriga rahm qilishi kerak edi!

Lazokatxon egachisining tomirlari tortishib qolgan oyog'ini silab-siypab qo'ydi. Albatta, doktor chaqirib qaratish zarurligini aytdi. O'ktamni qanday topishni so'radi. Aziza xola unga deraza tokchasida turgan daftarchani ko'rsatdi. Lazokatxon daftarchani varaqlab, O'ktam ishxonasiga tegishli bir-ikkita telefonni topdi-da, qog'ozga yozib olgach, chiqib ketdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay qo'shni qizi kirib keldi. Qosh-ko'zlari onasinikiga o'xshash popukdakkina, chaqqon harakatli bu tiyrak qiz ayvonga ko'tarilib qaraganda, xolasining ko'zi ilingan ekan. Ovoz chiqarmasdan yoniga bordi. Pashsha qo'nmasin deb yuziga doka yopdi-da, sekin pastga tushdi. Burchakda turgan supurgini qo'lga olib, xazon, cho'p-xaslar ivirsitgan hovlini supurishga tushdi. Shundan so'ng hovliga asta-asta shakarob qilib suv sepa boshlagandi, ayvondan Aziza xolaning ovozi chiqdi.

– Voy, Dono qizim, nima qilib urinyapsan?

Dono yugura borib, ko'rishdi:

– Tuzukmisiz, xolajon? – dedi. – Sizga yordam bergani chiquvdim. Ayting, ovqatingizni pishirib beray.

Aziza xola ovqatga ishtahasi yo'qligini aytdi. Dononi ovora qilgisi kelmadi. Dono bo'lsa qattiq turib oldi:

– Ayajonim tayinladi: «Xolangga xo'rdi mastava qilib bergin, qatiqlab ichsin», – deb.

Shuni aytib oshxonaga kirib ishga unnay ketdi. Jajji qiz uning yonida pildirab yurarkan, Dono: «Biznikidan qatiq opchiqasan», – deb uning qo'lga shisha idish tutqizdi.

Bir payt Lazokatxonning o'zi chiqdi. Qizining qilayotgan ishini kuzatib, ma'qulladi. Egachisidan esa ko'ngli bezovtaligini yashirmadi:

– O'g'lingizni ishxonasiga ikki-uch marta qo'ng'iroq qildim. Topolmadim. Qayoqqayam ketgan, deyishdi. Ularga: «O'ktamni oyisi kasal, tezda yetib kelsin», deb tayinladim. Daragi bo'lmadimi?

Lazokatxon tiq etsa eshikka qarab, egachisi yonida o'tirdi. Qizi pishirib kelgan mastavadan qistab-qistab ichirdi. Qosh qorayganda o'rmidan qo'zg'aldi-da:

– O'g'lingiz qay vaqtda kelsayam Jajjidan menga xabar bering. Albatta, uni ko'rishim kerak, – deb tayinladi. Dononi esa kasalning yonida tunash uchun qoldirdi.

Ertasi u poliklinikaga qo'ng'iroq qilib, doktor chaqirdi. Peshinga yaqin doktor kelganini bilib, egachisidikiga chiqdi. Doktor kasalni ko'rib, davolar belgilab, dorilar yozib, endi jo'nayotganida, hech narsa bilmaganday siliqqina bo'lib, O'ktam kirib keldi. Eshikda «Tez yordam», uyda doktor bilan Lazokatxonni uchratib, naq kapalagi uchgan yigit, izza bo'lganidan o'zini arang bosgan holda:

– Iya, oyijon, sizga nima bo'ldi? – deb onasi qoshiga quchoq ochib keldi.

Onasi esa odatdagicha vazminlik bilan «sal tobi qochgani»ni bildirdi. Egachisining beg'am, beparvo o'g'ilga qilgan bunday beozor muomalasini hazm qilolmagan Lazokatxon:

– Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi. To‘g‘risini aytavermaysizmi, ega-chi! – deb zarda qildi. Keyin O‘ktamga yuzlandi: – Salgina tobi qochganmas. Oldindan silqovlanib yurardi onang. Endi rosmana kasal bo‘pti. Bod. Xafaqon. Ha, bu kasallari oldindan bezovta qilib yurganini bilmasmiding? Shu yarim jon onani yolg‘iz tashlab ketishga qanday vijdonlaring qabul qildi-a?! Borib turgan oqibatsizlik emasmi – bu?!

O‘ktam kutilmagan og‘ir dashnomlarni naq o‘takasi yorilguday bo‘lib eshitdi. Bu to‘g‘riso‘z, sharttaki qo‘shniga xiyol bo‘lsin ters javob berishi mumkinmasligini bilardi. Shu bilan barobar o‘z aybiga ro‘yi-rost iqror bo‘lishga ham tili bormasdi. O‘zini arang bosdi. Ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan holda zo‘raki tabassum bilan:

– Shunaqa bo‘p qoldi, opoqijon. Aybga qo‘shmaysiz. Yaqin joyga ko‘chganmiz, tez-tez xabar olib turadigan bo‘lib. Aksiga shu kunlarda u yoqda ish ko‘payib ketib, ushlanib qoldim...

– Ha, demakki o‘zingizdan ortmay qolibsiz-da. Bilaman, turmushda har xil farzandlar uchraydi. Bir xillari o‘z shaxsiy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishadi, o‘z huzur-halovatlariga berilib ketishadi-yu, ota-ona oldidagi farzandlik burchlariga raxna solib qo‘yishadi. Nahotki, sen mo‘min-musulmon farzandi bo‘laturib, o‘shanaqa betayin, betavfiqlar qatoriga kirsang?!

– Mendan xatolik o‘tgan bo‘lsa kechiring, opoqijon! – deb yana egilib-bukildi O‘ktam.

– Menga qara, otang qurib bergan bu uy torlik qilib qoldimi? Sizlarning bu yerdan ko‘chib ketishlaringga ota-onang rozi bo‘lishganmidi?

O‘ktam mushkul savolga ro‘para kelib, dovdirdi.

– Endi, opoqijon... Uncha qarshilik qilishmovdi... – deb chaynaldi.

– Shunaqa degin? – dedi Lazokatxon gumonsiragan holda. Keyin siz nima deysiz deganday Aziza xolaga tikildi.

– Ha, endi... Shunaqa... Bo‘lar ish bo‘ldi... Qayerda bo‘lishsayam omon bo‘lishsin, – degancha Aziza xola dudmol javob qildi.

Egachisining javobi Lazokatxonni qoniqtirgani yo‘q, albatta. Qoniqtirmadigina emas, bolalarini bunchalik o‘z ixtiyorlariga qo‘yib berishi, bolajonlik qilaman deb og‘irlikni o‘z zimmasiga olaverishi, serandishaligi o‘tirishmadi Lazokatxonga. Uyidan xabar olish uchun chiqib ketayotib, O‘ktamni bir chekkaga imladi-da, dedi:

– Savolimga to‘g‘ri javob bermading, bola. Dadang komandirovkadan qaytsin, gaplashaylik-chi, nima derkinlar?..

O‘ktam buni jiddiy ogohlantirishday qabul qildi-yu, yuragini g‘ulg‘ula bosdi...



# Said Ahmad

(1920–2007)



Said Ahmad (Husanxo‘jayev Saidahmad) 1920-yil 10-iyunda Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1980). O‘zbekiston Qahramoni (1999). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1968). Toshkent rassomchilik bilim yurtida, Toshkent pedagogika institutida o‘qigan (1940–43). Birinchi hikoyalar to‘plami — «Tortiq» (1940). Ijodining kattagina qismi hajviy-yumoristik hikoyalar, qissalar, komediyalardan iborat. «Er yurak» (1942), «Farg‘ona hikoyalari» (1948), «Cho‘l hurguti» (1960), «Cho‘l oqshomlari», «Odam va bo‘ron», «Yo‘qotganlarim va topganlarim» (1998), «Qorako‘z majnun» (2001), «Kiprikda qolgan tong» (2003) kabi asarlar muallifi. «Ufq» trilogiyasi (1964–74), «Jimjitlik» romani (1988), «Xandon pista» (1994), «Bir o‘pichning bahosi» (1995) hajviy to‘plamlari, 3 jildli «Tanlangan asarlar»i (2000) nashr etilgan. Uning yumoristik mahorati «Kelinlar qo‘zg‘oloni» (1976), «Kuyov» (1986) komediyalarida yorqin namoyon bo‘lgan. Feleton janrida ham samarali ijod qilgan. 1947-yil «xalq dushmani» sifatida hibsga olingan. Stalin vafotidan so‘ng oqlangan. «Kelinlar qo‘zg‘oloni» dunyoning ko‘plab mamlakatlarida sahnalashtirilgan. «Do‘stlik» (1996), «Buyuk xizmatlari uchun» (1997) ordenlari bilan mukofotlangan. 2007-yil 5-dekabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

## OFTOB OYIM

*Vatanni sevmoqni, yurt otasiga  
sadoqatni yaponlardan o‘rganish kerak.  
Maqsud Shayxzoda so‘zi.*

Kechadan beri lagerimizdagi yaponlar g‘imirlab qolishdi. Yettinchi barak oldida to‘planishib, qandaydir jiddiy bir gapni qizishib muhokama qilishardi. Yerosi Dyun degan yapon yigiti rassomlik ustaxonamni supurib-sidirib yurardi. Dyun-

ning yurak o'ynog'i kasali borligidan uni shaxtada ishlashga olib chiqishmasdi. Ba'zi-ba'zida, jahli chiqqan paytlarda yurak kasali xuruj qilib qolardi. Boshliqlar uni menga bo'yoq qorib beradigan qilib qo'yishgan edi. Men Dyundan, nima gap, tez-tez to'planadigan bo'lib qoldinglar, deb so'radim.

– Tovarishch Axmed, yurtimizga ketadigan bo'lib qoldik, – dedi u ichiga sig'magan quvonchini yashirolmay.

Uni dil-dildan tabrikladim.

– Boshliqlar shunday deb aytishdimi? – deb so'radim.

– Qayoqda! Ular bu xabarni bizdan ikki-uch kun keyin eshitishadi.

Uning gapi rost edi. Umuman, qamoqxonalarda ko'zga ko'rinmas, qo'l bilan ushlab bo'lmas «telegraf» ishlardi. Moskvada, hatto Siyosiy Byuroda mahbuslar-ga aloqador biror gap bo'lsa, o'sha kuniyoq jamiki lagerlarga yetib borardi.

Lager boshlig'ining o'rinbosari kapitan Gusak, moy bo'yoqda ishlab ber, deb onasining suvratini tashlab ketgan edi. Bugun tush paytida suvratni olgani keldi. Undan yaponlar yurtlariga ketadigan bo'ldimi, deb so'radim.

U hayron bo'ldi.

– Bunaqa gap yo'q. Bu mahbuslarning o'zlaridan chiqqan galdagi «parasha» bo'lsa kerak, – deb javob qildi.

«Parasha» – bu qamoqxona kameralariga qo'yiladigan hojat chelagi. Tarqaladigan har xil bo'lar-bo'lmas gaplarni shunday deb atashadi.

Bari bir lager «telegrafi» aniq ishlardi. Biz Stalin o'lganini boshliqlarimizdan ikki kun oldin eshitganmiz. Beriyaning qamalganini, Molotov bilan Kaganovich-ni Siyosiy Byuro tarkibidan chiqarilganini o'sha kuniyoq eshitgan edik.

Dyun ustaxonani shoshib-pishib yig'ishtirardi-yu, yettinchi barak oldida to'plangan hamyurtlari davrasiga chopardi. Lagerimizdagi o'ttiz to'rt nafar yapon-ni hammasi o'sha yerda. Bundan kirxonada ishlaydigan Sudze degan yapon yigit mustasno. Sudze hamyurtlariga qo'shilmas, kirxona zinasida boshini egib o'tirib xayol surardi. Yaponlar Sudzeni saflariga qo'shishmasdi. U yaponlarga xos bo'lmagan baland bo'yli, xuddi sirkdagi polvonlarga o'xshagan, muskullari bo'r-tib chiqqan juda baquvvat yigit edi. Boshqa yaponlar lagerimizda Sudze deb atal-gan yapon borligini bilmagandek, unga e'tibor berishmasdi. Sudze esa har tong hali quyosh ko'tarilmay kirxona tomida paydo bo'lardi. Shaxtalardan chiqarib tashlangan tog'-tog' rudalar orqasidan quyosh chiqquncha haykaldek qotib turar, yuziga oftob urilishi bilan ikki qo'lini baland ko'tarib quyoshga nimalardir deb iltijolar qilardi.

Dyunning quvonchi cheksiz edi. Bir gapirib o'n kulardi. U o'n bir yildan beri begona mamlakat qamoqxonalarida sarson-sargardon kezardi. Shu o'tgan o'n bir yil ona yurti, tug'ilgan diyori Yaponiya xayoli bilan yashaydi.

– Xayriyat, qonim yurtimga to'kiladigan bo'ldi, – dedi u allaqanday quvonch bilan.

– Jinni bo'ldingmi, yurtimga qaytay, uylanib, bola-chaqali bo'lay, boshqa-lardek bearmon yashab yuray, deb niyat qilmaysanmi, ahmoq! – dedim unga.

Dyun boshini tebratdi.

– Tovarishch Axmed, – dedi u ruscha bilishini namoyish qilayotgandek g‘urur bilan, – bilasanmi, men samurayman. Samuraylar dushmanga tirik asir tushmasligi kerak. Asir tushish xavfi tug‘ilgandayoq o‘zini xarakiri qilishi shart. Ya‘ni, o‘zini o‘zi chavaqlab o‘ldirishi kerak. Men xarakiri qilishga ulgurmaganman – Vatanimdan qon qarzdorman.

Men Dyunni doimo yuzi kulib turadigan, bolalardek beg‘ubor, uncha-muncha hazillarni ko‘ngliga olmaydigan, musichadek beozor odam deb o‘ylardim. Ichida shuncha gap borligini, yuragini qonli armon o‘rtayotganini bilmasdim. Yerosi Dyun ko‘z oldimda yuksalib, o‘n bir yil Vatani olisda, cho‘llarda, o‘rmonlarda sarson-sargardon kezib, Yaponiyaning buyuk muhabbatini dilida ardoqlab kelgan, har kuni bittadan quyosh tug‘adigan Vatani oldidagi burchini, bir daqiqqa bo‘lsin, unutmagan beqiyos insonga aylangan edi.

Dyunning Iosiro degan hamyurti ba‘zan ustaxonaga kelib uzoq gaplashib o‘tirardi. Rus askarlari uni asirlikka olgan paytda hali tili chiqmagan egizak qizaloqlari bo‘lgan. U qizlarim katta bo‘lib qolgandir, tirikmikan, deb yig‘lardi.

Yaponlarga munosabat o‘zgarib qoldi. Ularni ishga olib chiqmay qo‘yishdi, hatto alohida ovqat pishirib beradigan bo‘lishdi. Ammo Dyun qadrdonligimiz uchun hamon ustaxonada ishlab yuribdi. Yaponlarni boshqa, kichikroq barakka o‘tkazishdi. Kechqurun zang chalinganda baraklarga mahbuslar sanab kiritilgandan keyin ustidan qulflab qo‘yishadi. Yaponlarning baragi qulflanmaydigan bo‘ldi.

Bu ishlarning Sudzega aloqasi yo‘qdek edi. U hamon kirxonada ishlar, zina-poyada o‘tirib o‘y o‘ylardi. Alohida pishirilgan ovqat unga berilmasdi.

Negadir o‘sha paytlarda lagerda choy o‘rniga kofe berishardi. Hatto oshxonada yonidagi bostirmada qop-qop kofe qalashib yotardi. Kofe jonimizga tegib, bir qultum qora choyga zor bo‘lgandik. Shahardan gazeta olib kelishga borganimda magazindan bir quti gruzin choyi sotib olgandim. Dyun tunuka choynakka achchiqqina qilib damlab keldi. Hovlida skameykada o‘tirib choyxo‘rlik qilmoqchi bo‘ldik. Mahbuslar uyquda. Faqat Vatan sog‘inchi uyqu bermagan yaponlar to‘datoda bo‘lib, oy nuriga g‘arq bo‘lgan lager sahnida jimgina aylanib yurishibdi.

Dyun bilan ikkimiz u yoq-bu yoqdan gaplashib, choy ichib o‘tirardik. Bizning bu suhbatlarimiz ham g‘animatdek edi. U Vatani ketadi. Albatta, bundan keyin u bilan diydor ko‘risholmaymiz. Har qalay, besh-olti yillik qadrdonlik bir-birimizga yaqin qilib qo‘ygandi.

Ana shu sokin oydin kechada Dyundan so‘radim:

– Menga qara, Dyun, nega Sudzeni yomon ko‘rasizlar? Nega uni davraga qo‘shmaysizlar?

Yerosi Dyun indamadi. Oy nuriga ters o‘tirgani uchun uning yuzida, ko‘zida qandoq ifoda aks etayotganini bilmasdim. So‘rog‘imga javob berish niyati yo‘qqa o‘xshardi. U uzoq o‘ylab o‘tirgandan keyin:

– Yana bitta choy damlab kelaymi, bunisi sovub qopti, – dedi.

– Yo‘q, – dedim, – gapimga javob ber.

Yerosi o‘rnidan turib u yoq-bu yoqqa yurdi. Keyin joyiga kelib o‘tirdi-da, gapira boshladi:

– Buni tushuntirish qiyin. Yaponiyani, yaponni, urf-odatlarimizni bilmagan odamga buni tushuntirish qiyin. Mana, endi ajralishib ketadigan paytimiz keldi. Bu Dyun kim edi. Sudze kim edi, degan jumboq ko‘nglingda qolib ketmasligi uchun aytaman. Sen bir marta meni haqorat qilganing haligacha dilimni o‘rtaydi.

Uni nima deb haqorat qilganimni eslay olmadim.

– Ayt, agar shunday qilgan bo‘lsam, sendan astoydil uzr so‘rayman.

– Yapon ayollari buzuq bo‘ladi, degansan. Shunda alamlarimni ichimga yutib javob bermaganman. O‘shanda yapon portlarida Geysalar matroslarni yo‘ldan uradi, deganding. E-e, oshnam, bu gaping mutlaqo noto‘g‘ri. Bunaqa gap uchun seni o‘ldirishim kerak edi. Unday qilmaganman.

To‘g‘ri, shunday gap bo‘lgan edi. O‘shanda Dyunning tishlari g‘ichirlab ketgan, qoshlari chimirilib, xuddi hamlaga tayyor turgan sherga o‘xshash bir ahvolga tushgan edi. Lekin indamay o‘rnidan turib, barakka kirib ketgandi. Uch kun yurak xuruji tutib, ustaxonaga kelmay qo‘ygandi.

– Tovarishch Axmed, boya aytdim-ku, Yaponiyaga bormagan odam yaponlar to‘g‘risida aniq bir gap aytolmaydi. Ekilgan har bir tup daraxt, yo‘lga yotqizilgan har bitta tosh, qurilgan har bitta imorat Yaponiya manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Har bir qimirlagan jonda, odamlarning muomalasida, yurish-turishida Yaponiya manfaati yashaydi. Sen o‘sha buzuq deb aytgan Geysalar Yaponiyaning porloq kelajagi uchun xizmat qiladigan buyuk vatanparvar ayollardir...

– Shoshma, Dyun, bunaqa balandparvoz gaplarni qo‘y. Sal pastroq tushib gapir.

– Xo‘p, – dedi u, – mayli, qizishmay gapira qolay. Geysalar sen o‘ylagan-chalik axloqsiz ayollar emas. Nihoyatda nazokatli, yoqimtoy, bilimdon ayollardir. Ular maxsus maktablarda ta‘lim olgan, suhbatlari shirin, yapon qo‘shiqlarini xonish qiladigan, qadim zamonlardan bizga yetib kelgan ajoyib raqslarni mahorat bilan ijro qiladigan, tarix haqida gapirganda tinglovchiga o‘tmishni tiritirib beradigan, tengsiz pazanda, tabobat sirlaridan ogoh va shu bilan birga beqiyos go‘zal ayollardir. Ular suhbatidan bir marta bahramand bo‘lgan xorijliklar bir umr bu shirin onlarni unuta olmaydilar.

Yerosi Dyun sovub qolgan choydan xo‘pladi. Bir oz tin olib, gapini davom ettirdi:

– Ana endi Sudze to‘g‘risida gapiray. Yo‘lda yotgan kichkinagina tosh yoki bir qarashda nazarga tushmaydigan biror ro‘zg‘or buyumi to‘g‘risida gapirish uchun, avvalo, butun Yaponiya to‘g‘risida gapirish kerak. Bizda hamma narsa bir-biri bilan uzviy bog‘liq, ularda butun Yaponiya yashirilib yotadi. Sudze to‘g‘risida gapirish uchun shuncha gaplarni aytdim. Shunday qilmasam, hech narsani tushunmasding, tovarishch Axmed. Sudzeni Geysa tuqqan deyshardi, u otasini ko‘rmagan. Portimizga Portugaliyadan yuk ko‘p kelardi. Baland bo‘yli,



baquvvat matroslar kemadan ruda tushirishardi. Sudzening cho'yandan quyilgan-dek baquvvat gavdasi xuddi ana o'shalarga o'xshab ketadi. E'tibor berganmisan, Sudzening qoshlari burgutning qanotiga o'xshaydi. Bunaqa qoshli dengizchilarni Portugaliya kemalarida ko'rganman.

Sudze maxsus enagalar, maxsus tarbiyachilar, bilimdon o'qituvchilar tarbiyasida, imperator ardog'ida voyaga yetdi. Eng yaxshi kiyimlarni kiydi. Eng laz-zatli taomlarni yedi. Chunki u kamikadzelikka qabul qilingan edi. Kamikadze – bu «o'q odam» degani. Mamlakat xavf ostida qolgan paytlarda Kamikadzelar bir ki-shi sig'adigan va dahshatli bomba joylangan samolyotda dushman istehkomi to-mon uchiriladi. Samolyotga faqat uchib borishgagina yetadigan yonilg'i quyiladi. Agar uchuvchi qo'rqqoqlik qilib ortga qaytmoqchi bo'lsa, qaytishga yonilg'i yo'q. Kamikadze dushmanning qurol-yarog' omboriga urilib, o'zi ham portlab ketishi shart. Ammo Sudze so'nggi burchini ado etishdan bosh tortdi. Qo'rqqoqlik qil-di. Bilasanmi, tovarishch Axmed. Kamikadze burchini o'tamasa, uni urmaydilar, so'kmaydilar, sud qilmaydilar. Bo'yniga xuddi Riksha aravasining g'ildiragidek qulf-kalitli g'ildirak kiydirib qo'yadilar (Riksha – bu xachir yoki eshak o'rniga odam qo'shiladigan aravacha). Bo'yniga g'ildirak osilgan odamga hech kim suv bermaydi, ovqat bermaydi. Yerdan biror nima topib yey desa, yo ariqdan suv olib ichay desa, qo'li yetmaydi. Yotay desa, g'ildirakka bo'ynidan osilib qolib, na-fas ololmaydi. Biror uyga kiray desa, eshikka sig'maydi. U faqat ariqqa tizzalab o'tirib, g'ildirak chetini qirg'oqqa ilintirib dam oladi. Bu g'ildirak faqat u o'lgan-dan keyingina bo'ynidan olinadi.

Sudzening onasi Maniko xonim o'g'lining xoinligidan nomus qilib ko'chaga chiqolmay, odamlarga qo'shilolmay qoldi. Bu orada Sudze ikki marta uyiga kel-di. Kirolmadi. Eshikka g'ildirak sig'madi. Ozib-to'zib, soch-soqoli o'sib ketgan bolasining ayanchli ahvolini Maniko xonim bolaxonada yig'lab kuzatib turardi. U bolasining oldiga chiqmadi, bo'yniga osilib yupatmadi. Sudze endi unga suyukli farzand emas, umumxalq la'natiga uchragan jirkanch bir kimsa edi. Oradan bir oy o'tib, Maniko xonim chodraga o'ralib, ibodatxonaga bordi. Muqaddas Bud-da poyiga qo'yilgan tilla barkashga ro'molchaga tugib kelgan oltin-javohirlarni, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziragu bilakuzuklarini, jamiki taqinchoqlari-ni jaranglatib to'kadi. Tiz cho'kib Buddaga tavba-tazarrular qiladi. Asta o'rnidan turib ichkariga kirib ketadi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida Parijda bo'lib o'tgan «Go'zallar tanlovi»-da Maniko xonim birinchi o'rinni egallab toj kiygan edi. Fransuzlar uni «Oftob oyim» deb atashgandi. Hatto bir gazeta «Bugun quyosh Parij ufqidan ko'tarildi» deb yozgandi.

Tengsiz go'zal, benihoya dono, butun Yaponiyaning faxri bo'lishga arziy-digan bir malak – Oftob oyim rohibalar libosini kiydi, rohat-farog'atdan kechib, monastirda qoldi.

Sudzening ahvoli og'ir edi. U o'lib o'lolmasdi, tirik qolishning aslo iloji yo'q edi. U samolyotda uchib borib dushman istehkomiga urilib, portlab ketmaganiga

ming-ming pushaymonlar yerdı. Oxiri u o'zini dengizga tashlab cho'kib o'lishga qaror qildi. Dengiz shovullar, to'lqinlari qirg'oqqa sapchib, Sudzening tizzalariga urilardi. Dengizning qirg'oqqa yaqin joylari sayoz edi. U asta-sekin suvda kechib boraveradi. Suv tizzasidan kelardi. Keyin beliga chiqadi... Yopirilib kelgan to'lqin uni orqaga siltab, yana qirg'oqqa uloqtirib tashlamoqchi bo'ladi. To'lqin orqaga qaytishda uni dengiz ichkarisiga sudrab ketdi.

Sudze yerda yurganda bunchalik azobni ko'rmagandi. U tik holatda quloch otib suzolmasdi. G'ildirak esa uni cho'kib ketishga qo'ymasdi. Faqat bo'ynidangi-na g'ildirakka osilib turardi. To'lqin uni hali u yoqqa, hali bu yoqqa uloqtirar, har uloqtirganda bo'yni uzilib ketadiganga o'xshardi. Uning bu ahvolini olisroqdan kuzatib turgan odam, kimningdir kallasini uzib g'ildirak o'rtasiga qo'yishibdi, deb o'ylashi mumkin edi.

Bir hafta taom yemaganidan Sudze kuchdan, darmondan qolgan edi. Oxiri u hushidan ketdi. Uni rus dengizchilari katerga chiqarib olganlarini bilmadi. Matroslar g'ildirakni arralab bo'ynidan olib tashlashdi. Uning o'zi esa ikki kundan keyin hushiga keldi...

Dyun uzoq gapirdi. Baxtsiz, sho'rpesiona mahbuslar dunyoning jami tashvishlarini unutib, barq urib uxlayotgan oromli saraton tunida Dyun bilan ikkimiz hech bir mamlakatga o'xshamagan buyuk Yaponiya to'g'risida dum-dumaloq oy ruda uyumlari orqasiga botib ketguncha gaplashib o'tirdik. Dyun vatani to'g'risida gapirmas, go'yo qo'shiq kuylayotgan, goh zavq-shavq bilan, goh faryod urib doston o'qiyotgandek edi.

Kunchiqar tomonda ufq oqarib qoldi. Mana shu oppoq ufq asta bo'zara boshlaganda Sudze tomga chiqadi.

– Bo'ldi endi, Dyun, borib yot. Jindek uxlab ol. Bo'lmasa, yuraging yana xuruj qiladi.

Dyun bosh chayqadi.

– Uxlayolmayman, yurtimga tezroq ketgim kelyapti.

Beriya otilgandan keyin «Troyka» qarori bilan qamalganlarning ba'zilariga zonadan tashqariga chiqib ishlashga ruxsat berilgan edi. Shunday imtiyoz menga ham berilgan. Bugun ertalab bo'yoq olish uchun shaharga ketgan edim. Qaytib zonaga kirsam, darvoza oldida yaponlar to'planib turishibdi. Dyun yugurib oldimga keldi.

– Tovarishch Axmed, qayoqlarda yuribsan? Bizni bugun olib ketisharmish. Ko'risholmay qolamiz deb, tashvishlanib turgandim.

Atrofga qarayman. Hamma yapon mahbuslari shu yerda. Faqat Sudze yo'q. U tomدا oftob nuriga belanib, kunchiqar tomonga qarab turibdi.

Shtabdan kelgan mayor Kuzin ro'yxat o'qiy boshladi. Nomi o'qilgan mahbus darvoza tomonga yurishi kerak. O'n bir yil tutqunlikda yashagan yaponlar shu topda ozodlik deb atalgan buyuk bir olamga qadam bosa boshladilar. Nihoyat, ro'yxatdan Dyunning nomi o'qildi.

– Xayr endi, tovarishch Axmed. Og‘ir kunlarimda hamdard bo‘lganing uchun, topgan bir burda noningni men bilan baham ko‘rganing uchun, g‘am-anduhga botgan damlaringa sherik bo‘lganing uchun rahmat. Endi ko‘risholmaymiz, xayr, omon bo‘l!

U ko‘zda shashqator yosh bilan darvoza tomon ketdi.

Ro‘yxatdan Sudzening nomi chiqmadi. U kirxona tomida turib, yuz-ko‘zlari-da quvonch porlagan hamyurtlariga alam bilan qarab turardi.

Shtab oldiga kelib to‘xtagan «ZIS-101» mashinasidan qora frak kiygan savlatli bir yapon tushdi. U Yaponiya elchixonasining xodimi edi. U ozodlikka chiqqan yaponlar bilan bir-bir qo‘l olishib ko‘rishdi. Nimalardir dedi. Yaponlar qarsak chalib, qiyqirib yuborishdi. Ular yig‘lab, bir-birlarini tabriklashardi. Shu payt sherning o‘kirishiga o‘xshash bir ovoz ularni Sudze tik turgan kirxona tomiga qaratdi. Mahbuslikda o‘n yildan ortiq ovoz chiqarmay zabun yashagan Sudze ichi-da yig‘ilib qolgan hamma tovushlarini jamlab qichqirayotgandek edi.

– Kunchiqar Vatanim, mening Yaponiyam! Kechir, burchini o‘tolmagan bad-baxt o‘g‘lingni kechir! Kechir!..

Uning qo‘lidagi dudama pichoq oftob tig‘ida chaq nab ketdi. U pichoqni yalang‘och tanasini chap biqiniga zarb bilan urib, o‘ng biqini tomon tortdi. U og‘riqni ham unutilib, ikki oyog‘i oralig‘ida osilib qolgan ichak-chavoqlariga ham parvo qilmay, hamon hirqirab qichqirardi:

– Japan! Japan! Mening Vatanim, Japan!

U shunday deya turib tunuka tom qirg‘og‘iga yiqildi. O‘zining qoni halqob bo‘lib qolgan tom qirg‘og‘ida belidan osilib yotardi. U bir muddat tirichilab turgandan keyin sirpanib yerga gursillab tushdi. Tarnovdan oqayotgan qaynoq qon endi uning ustiga sharillab quyilardi.

Bu mudhish manzaradan badanlarim muzlab ketgandek bo‘ldi. Uni kuzatib turgan yaponlar yuzlarini ters o‘girishmadi. Har qalay, Sudze sobiq bo‘lsa hamki yapon edi. U umrining so‘nggi daqiqasida yaponligini isbot qildi. U yapon bo‘lib olamdan o‘tdi. Japan, Japan, deb jon berdi.

Zonadan chiqqanimda yaponlar avtobus oldida to‘planib turardilar. Dyun olazarak bo‘lib meni kutayotgan edi.

– Tovarishch Axmed, suvratga tushaylik.

U shunday deb bo‘yniga ikkita apparat osgan yapon fotomuxbirini boshlab keldi. Dyun, Iosiro uchovimiz yelkalarimizga qo‘l tashlab suvratga tushdik. Boshqalar allaqachon avtobusga chiqib bo‘lgan. Ammo Dyun shoshilmasdi. Meni bag‘ridan qo‘yib yuborgisi kelmasdi. Hiqillab yig‘lardi.

Avtobus ikki marta signal bergandan keyingina meni bag‘ridan qo‘yib yubordi. U avtobusga chiqqandan keyin ham derazadan qo‘l chiqarib, kaftlarini o‘pib silkitardi.

U ketdi. Hijron azoblaridan, xo‘rlıklardan qutulib yurtiga ketdi.

Oradan oylar o‘tdi. Biz yashayotgan qamoq-lagerga yuz minglab baxtiqaro mahbuslar kelib ketgan. Bu mustahkam devorlar, tikanli simlar go‘yo hech narsani

koʻrmayotgandek gung-soqov edi. Biroq oʻn yilning nari-berisida kelib-ketgan yapon mahbuslarini hech kim unutmadi. Ularning ahilligidan, odobidan, sezgir-u topagʻonligidan, bir ish qilsa, astoydil mehr bilan qilishidan gapirishardi. Ayniqsa, Dyunni koʻp gapirardik. Uning «L»ni «R» deb talaffuz qilishini eslardik. U «lager»ni «Rager», litvalik rassom Alikni «Ritoves Arik» deyishini eslab kulishardik.

Bir shum xabar koʻnglimizni vayron qilib yubordi. Olib ketilgan yaponlarning hammasini imperatorning maxsus buyrugʻi bilan Vatan xoinlari sifatida dengizga choʻktirib yuborishgan emish. Bu sovuq xabarga birov ishondi, birov «parasha» deb qoʻya qoldi.

Oʻsha voqealarning boʻlib oʻtganiga roppa-rosa ellik yil boʻldi. Yaqinda taqdir taqozosi bilan, toʻgʻrironing, «Kelinlar qoʻzgʻolon» bahonasida olis Amerikaga – Atlantika okeanining nariyogʻiga borish manglayimga bitilgan ekan, bordim. Nyu-Yorkda orzu qilib yetib boʻlmas joylarni koʻrdim. Mashhur afsonaviy Brodvey shohkoʻchasini, Amerikaning timsoli boʻlib qolgan Ozodlik haykalini koʻrmoq nasib qildi. Ayniqsa, BMT qarorgohi oldida hilpirab turgan bayroqlar qatorida Oʻzbekiston bayrogʻini koʻrganimda, mijjalaringa yosh qalqib chiqqanini sezmay qoldim.

Oʻzbekiston elchixonasi xodimlari, atayin Vashingtonga kelib muzeyni koʻrmay ketsangiz, keyin afsuslanib yurasiz, mashhur Vashington muzeyida buyuk bobomiz Alisher Navoiyning oʻz qoʻli bilan yozgan ikkita gʻazali bor. Albatta, borib koʻring deb, maslahat berishdi. Oʻsha kuniyoq bordim. Afsuslar boʻlsinki, muzeyning Qoʻlyozmalar boʻlimi berk. Maxsus mutaxassislar qoʻlyozmalar holatini oʻrganayotgan ekan. Afsus-nadomatlar bilan qaytib chiqdim. Muzeyda koʻrsa arziydigan millionlab eksponatlar bor. Oʻshalarni koʻrib qoʻya qolsam ham boʻlardi. Ammo, ochigʻini aytсам, Daho shoirimizning qoʻlyozmasi oldida muqaddas Kaʻba toshini tavob etgandek buyuk eʼtiqod bilan bosh egib turmoqchi edim. Niyatimga yetolmadim.

Boya shofer bu yerda kamida ikki soat boʻlasiz, shoshilmay koʻravering, men bir yarim soatlarda kelaman, degandi. Qayoqqa borishimni bilmay, muzey hovlisidagi gulzor yoqasiga qoʻyilgan skameykaga omonatgina oʻtirdim. Ertaga Amerika safarim poyoniga yetadi. Vashingtondan mashinada toʻrt yuz kilometr yoʻl bosib Nyu-Yorkdagi Kennedi nomidagi aeroportga borishim kerak. U yogʻi Toshkentgacha oʻn besh yarim soat okean ustidan uchib oʻtaman. Elchixonaga borib safar tadorigini koʻrishim kerak. Aksiga olib, shofer ham bir yarim soatdan keyin keldi. Uni kutishdan boshqa ilojim yoʻq edi.

Skameykaning narigi boshida oʻtirgan, yoshini aniqlab boʻlmaydigan bir yapon qariyasi menga qarab hadeb iljayadi. Koʻzini oladi, yana qaraydi, iljayadi. Hayron boʻldim, nega u bunaqa qilyapti. U surilib yonimga keldi

– Viy, tovarishch Axmed?! – deb soʻradi chala-chulpa rus tilida.

Hayron boʻldim. Dunyoning narigi burchida meni taniydigan odam bor ekan, deb oʻyladim.

– Rutfirro pomniti? – dedi u kulib.

Biz lagerda Dyun Yerosini «Rutfirro» deb atardik. Men Dyunga uchinchi barakdagi muqovachi Lutfulloni chaqirib kel, deb iltimos qilganimda u muqovachini topolmay, Rutfirro yo‘q ekan, deb javob qilgan edi. Ana shundan keyin ba‘zilar uni Rutfirro deb ataydigan bo‘lishgandi. Buni notanish chol qayoqdan biladi ekan deb hayron bo‘lardim.

– Tovarishch Axmed, bundan roppa-rosa qirq besh yil oldin, siz bilan qamoqlagerda birga bo‘lganmiz.

Esladim. Bu – Dyunning eng yaqin do‘sti Iosiro edi. Ammo lagerdan bo‘shab ketgan yaponlarni imperatorning maxsus buyrug‘i bilan dengizga cho‘ktirib yuborishgan deb eshitgan edim...

U tizzamga qo‘lini qo‘yib, Dyunni eslaysizmi, deb yana so‘radi.

– Bu ajoyib, olijanob insonni unutib bo‘ladimi? – dedim afsuslanib.

U paytda Iosiro o‘ttiz yoshlarda edi.

U uylangan paytlarini, qaylig‘i bilan ikki marta Kabuki teatriga borganini, mashhur aktyorlar ijro etgan rollarni xuddi tushida ko‘rgan voqealarni aytib berayotgandek gapirardi. Aytgancha, uning egizak qizlari bor edi.

– Qizlaringiz bilan, xotiningiz bilan diydor ko‘rishdingizmi? – deb so‘radim.

– Bitta qizimni topdim. Xotinim bilan bir qizim atom nurlanishidan halok bo‘lishgan ekan.

U hassasining uchi bilan yer chizib uzoq turib qoldi.

– Men sizni ko‘p eslayman. Esingizdami, ketar chog‘imizda Dyun, siz uchovimiz suvratga tushgan edik. O‘sha suvratni qora kunlarimizdan xotira deb saqlayman. Qizim shu muzeyning Yapon bo‘limida ilmiy ish qilyapti. Kuyovim dirloamat. Elchixonada ishlaydi. Qizimning ketidan bu yoqlarga kelib qolganman. Ikki nevaram bilan ovunib yuraman...

Uning gapini bo‘ldim:

– Sizlarni dengizga cho‘ktirib yuborishgan, deb eshitgan edim...

– Yolg‘on gap. Bu «parasha» gap. Hammamiz sog‘-omon yurtimizga yetib borganmiz?

– Dyun omonmi? Bola-chaqali bo‘lib ketgandir? – deb so‘radim undan yaxshi bir gap eshitish ilinjida.

– Dyun endi yo‘q, – dedi Iosiro hasrat-nadomat bilan. – Kemada ketayotganimizda Dyunning yuragi ikki marta xuruj qildi. Vrachlar arang saqlab qolishdi. Kemamiz qirg‘oqqa yetib borganda bizni kutib olish uchun Negate portiga chiqqanlarning son-sanog‘i yo‘q edi. O‘zingiz bilasiz, Dyunning hech kimi yo‘q, yetimxonada o‘sgan. U kemadan tushib, hech narsaga qaramay, qirg‘oq bo‘ylab, to‘lqinlar yuvaverib billurdek shaffof qilib qo‘ygan qumlarni to‘piq bo‘yi bosib ancha nari ketdi. Kurtkasini yechib uloqtirdi. Bukchayib o‘tirdi-da, sho‘r qumni o‘pa boshladi. U bir bukchayganicha boshini, qaddini ko‘tarmadi. To‘lqinlar uning ustidan sapchib ikki-uch metr o‘tib ketdi. Dyunning gavdasi to‘lqin ostida ko‘rinmay ketdi. To‘lqin orqaga qaytdi. Dyun tomonga yugurdim. Yetib borgunimcha, uni yana ikki marta to‘lqin bosdi. Uni qo‘ltig‘idan ko‘tarmoqchi bo‘lgan-

dim, eplolmadim. Dyun qadrdon yurtining billur qirg'og'ini o'pib, jon taslim qilgan edi. Labidan oqayotgan qonni qum shimib ketayotgandi.

Mendan narida gullab turgan Sakura tagida qora chodirga o'ralib bir rohiba odamlarga javdirab qarar, yum-yum yosh to'kardi.

U bir vaqtlar parijliklar husniga mahliyo bo'lib, Oftob oyim deb atagan tengsiz go'zal Maniko xonimga endi o'xshamasdi. Ko'zlaridan nur qochgan, archilgan shaftolidek pushti yuzlarini rang tark qilgan, farzand dog'i uni g'ijimlab tashlagan, afv qilinganlar orasida mening bolam ham bormikin, degan o'yda kelganga o'xshardi. Uning oldiga borolmadim, Dyun bilan ovora edim.

Dyunni o'z qo'lim bilan qabrga qo'ydim. Qabri boshiga bir tup Sakura ko'chatini ekib qo'ydim. To bu tomonlarga kelgunimcha har bahor uning qabri boshiga borib uzoq o'tirardim. Sakura gullari to'kilib, pushti rangga o'ralgan qabr poyiga tiz cho'kib, birga kechirgan kunlarimizni ko'z oldimga keltiraman.

Men esam, lagerda Dyun bilan so'nggi uchrashuvimni eslayman. O'shanda oy dum-dumaloq, oppoq edi. O'shanda Dyun Vatanimdan bir tomchi qon qarzdorman, degandi. Shu gapi uchun uni qattiq so'kkan edim. Qarang-a? U niyatiga yetibdi.

– Tovarishch Axmed, hozir kuyovimga telefon qilaman. Qamoqdan bo'shanimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan suvratni olib keladi.

Iosiro yonidan uyali telefonni olib kuyovi bilan gaplashdi.

...Odam bolasi tug'ilgan yurtiga o'xshaydimi? Bilmadim, men negadir shunaqa deb o'ylayman. Dyunning suvratiga qarayman. U menga har kuni bitta oftob tug'adigan Yaponiyaga o'xshab ko'rinadi. Unga qaraganimda buyuk Yaponiyani ko'rib turganga o'xshayman.

Bodroqdek g'uj-g'uj gullagan Sakura soyasida Dyun orom uyqusida yotibdi. Dengiz tomondan shamol esganda Sakura gullari duv to'kiladi. Go'yo qabr ustiga pushti ko'rpa yopib ketgandek bo'ladi. Dyun okean dovullarining dolg'ali tovushlarini, chag'alaylarning qiyqiriqlarini eshitib yotibdi.

Dunyoning ishlari shunaqa ekan-da...



# Mirmuhsin

(1921–2005)



Mirmuhsin 1921-yil 3-mayda Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1981). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1970). Toshkent pedagogika institutini tugatgan (1942). Ilk dostoni – «Qamar» (1938). «Vafo» (1944), «Qadrdon do‘stlar» (1948), «Irmoqlar» (1959), «Qalb va falsafa» (1960), «She‘rlar» (1964) va boshqa she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Birinchi o‘zbek she‘riy romani «Ziyod va Adiba» (1954) Mirmuhsin qalamiga mansub. Dastlabki nasriy qissasi – «Jamila» (1956). «Oq marmar» (1957), «Cho‘ri» (1962), «Tungi chaqmoqlar» (1964), «Arab hikoyalari» (1960), «Chodrali ayol» (1979) qissalari, «Umid», «Chiniqish» (1969), «Degrez o‘g‘li» (1972), «Chotqol yo‘lbarsi» (1977), «Me‘mor» (1974), «Ildizlar va yaproqlar» (1982), «Temur Malik» (1986), «Ilon o‘chi» (1995), «Turon malikasi» (1997) kabi romanlar muallifi. Bolalar uchun ham ko‘plab she‘r va dostonlar, hikoyalar yozgan («Sheralining mardligi», «Ovchi bolalar», «Luqmon va O‘roqboy va boshqalar»). «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (1998).

Yozuvchi 2005-yil Toshkent shahrida vafot etgan.

## «ONA QABRIGA GUL»

... Deraza pardalari osha keng, ko‘rkam xonaga tashlab qo‘yilgan qizil gilamlardagi oftob asta-sekin surilib, karavotdagi paryostiqchaga yetdi. Yumshoq to‘shakka cho‘kib, pishillab uxlab yotgan to‘rt yashar Erkin har gal mana shunday, oftob yuzlariga tushmaguncha uyg‘onmasdi.

Ammo bugun tong otmasdanoq cho‘chib uyg‘onib ketdi. Yonidagi oyijoni yotadigan karavotga erkananib qo‘l uzatdi. Oyijoni o‘rmda yo‘q! U surilib borib oyijonini achomlamoqchi bo‘ldi. Topolmadi, karavot bo‘sh edi. Erkinning kichkinagina yuragi shig‘illab ketdi. Vahima bosdi. Ha, oyijoni yo‘q, u o‘lgan. Erkin karaxt, u yoq-bu yoqqa alangladi. Pastda, ko‘rpacha ustida buvisi uxlab yotardi. U

oyijonining bo'm-bo'sh karavotiga, atlas ko'rpaga xomush tikildi. Oyijoni mana shu karavotda, oyoqlarini pastga tushirib o'tirgancha tizzasidagi Erkinni bag'riga bosardi. Qayta-qayta o'pard. Uning bo'ynidagi tilla zanjirni Erkin o'ynar, yuzini oyijoni ko'ksiga surkardi, pishillardi, qiliqlar qilardi. Hozir u oyijonisini juda ham sog'inib ketdi. Nima qilish kerak? U oyijonisini ko'rmasa bo'lmaydi! U bo'g'ilib, yig'lagisi kela boshladi. Yana xomush tortdi. Yana yig'lagisi kelib qo'llari bilan ko'zlarini ishqaladi. Bu dunyoda uning o'zi yolg'iz qolganday tuyuldi. U hozir o'zini oyijonisi bag'riga otgisi, uning tizzalariga boshini, yuzlarini surib, erkalangisi kelib ketdi. Ammo qani u oyijonisi? Qayoqqa ketdi? Qachon qaytib keladi? Muncha uni sog'intirmasa?! Oyijonisi shu karavotda kasal bo'lib yotganida, uning boshini silab turib aytgan so'zlari birdan yodiga tushdi: «Erkinjon, meni sog'inaningda qabrimga gul olib borib qo'ygin. Men seni juda ham ko'rgim keladi. Men seni sog'inaman... Gul olib kelib qo'ysang, men seni ko'rgandek bo'laman.

Katta yigit bo'lib uylansang, albatta, xotining bilan birga kelgin. Men sening xotiningni ham juda ko'rgim keladi, tushundingmi?» Erkin o'shanda bosh qimir-latib tushunganini bildirgan edi...

Nega uning oyisi o'ldi? O'lmasa nima qilardi? Nahotki, kasal bo'lgan odam o'lib ketaversa! Boshqalar ham kasal bo'ladi-ku? Nega uning oyijonisi bunday qildi? Bu to'g'ri emas! U juda yaxshi oyijon edi. U hech kimni urishmagan. U hech kimni xafa qilmagan. Shundoq yaxshi oyijoni nega o'ladi?! Erkin bu voqeaga hech tushunmasdi. Oyijonisiz bu dunyoda yurishning unga nima keragi bor? Erkin juda xafa bo'ldi. Uning kichkina yuragi vayron bo'lib, dardu dunyosi qorong'i bo'lib ketdi.

Karavotda yolg'iz, karaxt o'tirgan Erkinjonning o'pkasi to'ldi. U yana o'zini tutdi: uning oyijoni har narsaga arillab yig'laydigan bolalarni yomon ko'rardi. U hoziroq oyijoni bag'riga otib erkalanishni qumsadi. Ammo, qani u oyijoni? Chiroyli karavotu gilamlar, devordagi palagu billur qandillar ko'ziga juda yomon ko'rinib ketdi. Uning hech narsaga qaragisi kelmasdi. Unga hech narsaning keragi yo'q! Unga faqat o'zining oyijonisi kerak!

Erkinjon boshini quyi solib, karavotida indamay o'tiraverdi. Devordagi oyijoni bilan dadajoni tushgan suratga qaradi. Unga bu surat ham kerak emas! Unga oyijoni kerak! Erkin beixtiyor xo'rsindi. Hammayoq jim-jit, derazalar qorong'i...

Hali yigirma yetti yoshga to'lmagan Ra'no (u haqiqatan ismi jismiga monand juvon edi) og'ir dardga muhtalo bo'lib, operatsiya qilindi. Bu, oting qurg'ur dard uning jismida paydo bo'lganini o'zi ham sezmay qolibdi. Og'riqlardan keyin u ikkinchi bor jarroh kursisiga yotdi. Bu ish uch-to'rt oy ichida bo'ldi. Oxiri u o'z uyida yotajagini aytdi. Vrachlar ham shuni ma'qul ko'rishibdi. Keyingi kunlarda unga faqat og'riqni bosadigan, uxlatadigan doridan ukol qilishardi. U kun bo'yi karavotida taqdirga tan berib yotar, ba'zi kunlari yostig'i tagidagi daftarchaga nimalarnidir yozib qo'yardi. Shunday go'zal Ra'no ozib-to'zib ketgandi... Qani u ko'kraklaru, bellar! Xonatlas ustida yal-yal yonib, qanchalab ko'zlarni kuydirishlar qayoqda qoldi! Uzun sochi beliga tushib, kulgan dudoqlaru bodom qovoqlar,



qanot qoqib turgan qaldirg'och qoshlar qani? U sarnigun, karavotda yotardi. Har qanday beqiyos husn ham vaqtincha ekanligini endi payqadi. Sal-pal tishi og'rib, isitmasi chiqqanida oh-voh qilib doktor ustiga doktor chaqirtirgan Ra'no, hozir beomon dard changalida taqdirga tan berib, o'limini kutib yotardi. Bu ruhiy holatni sezgan eri, ota-onalari uning yoniga kirganlarida ohu nadomatlarini sezdirmasalar ham tashqarida ich-ichlaridan ezilib, yig'lashardi. Shundoq qizlari o'lib ketaveradimi! Dod degilari kelardi. Ra'noni o'limi oldidagi favqulodda jasorati yetmish-saksonga kirganlarni ham o'ylatib qo'ydi. Yoki kishi o'lim changaliga tushib, bundan chiqib ketish iloji bo'lmagach, shunday bahodir bo'lib ketarmikan? Bu hol hammada ham bo'laverarmikan?

Ichib-chekib, vaqtda ovqatlanmay isqirt yuradiganlar emas, saranjom, ozoda, o'ziga qaraydigan Ra'no bu rak degan dardi bedavoga uchraganiga kishilar hayron. Bu o'zi qanaqa dard? Vrachlar aytadigan hamma yomon narsalardan Ra'no qochar edi, u dono vrachlar o'ylagan sog'lom kishi edi. Buni qarangki, bu dard shu gulga yopishib, uni xazon qildi.

Tashqarida tong otib, sal-pal kun yorishib kelardi. Bu payt ayvonda yurib, plitada unga sut pishirib keladigan oyijonisi birdan ro'parasidan chiqib kelayotganday, Erkin to'xtab qoldi. «Erkinim, jonim bolam, o'tir, mana bu sutni ich!» – degan ovoz qulog'iga eshitilib ketganday bo'ldi. U alanglab turib qoldi. Hamma uxlar, faqat u uyg'oq edi. Hoziroq paydo bo'lib qoladigan oyijonisini kutdi. Lekin oyijoni oshxonadayam, hovlidayam, ayvondayam ko'rinmaydi. Keyin u zinapoyalardan tushib, gulxonaga bordi. Hovli o'rtasida ochilib turgan gullarning eng chiroylisidan ikkitasini uzib olib, ko'cha eshikka qarab yurdi. Uni hech kim payqamay qoldi. U bir oyog'iga botinka, ikkinchisiga shirpak kiyib olgan, har doim oyijoni kiygizib qo'yadigan matroscha ko'ylagini kiygan, yoqasi tugmasini ham solib ulgurmagan, do'ppisini ham qidirib o'tirmagan edi. Shu ahvolda ikki dona gulni ko'tarib oyijoni oldiga jo'nadi. U na kiyim, na botinkani bilardi. U yuzini ham yuvgani yo'q, uning hech narsaga qaragisi kelmasdi. U faqat oyijonini ko'rgisi kelardi. Unga boshqa hech narsa kerak emas edi.

Erkin jim-jit, kichik ko'chadan katta ko'chaga o'tib, asfalt yo'lakda keta boshladi. Uning qo'lida ikki dona gul, oyijoni oldiga borardi. U o'sha kuni katta mashina ustida, oyijonini olib ketishayotganda shu ko'chalardan o'tib, tramvay-trolleybuslar yuradigan katta ko'chalar bo'ylab ketgan edi. U go'yo hamma yo'lni biladiganday, tongotarda asfalt yo'l chetida borardi. Katta ko'chaga chiqqaniga qadar uni hech kim ko'rmadi. Faqat burchakdagi teraklar tagida ikkita laycha chopib yurganini ko'rdi. Ular o'z o'rtog'lariniki ekanligini bilardi. Katta ko'chada supurgisini yelkasiga tashlab ketayotgan kishini ham ko'rdi. Bu odamni tanimadi. Undan so'ng, g'izillagancha bir mashina o'tdi. Tramvay ham o'tdi. Erkin ularga bir qarab qo'ydi-yu, yo'lida davom etaverdi. U charchaganiga ham qaramay oldinga intilardi, bir oyog'ida shirpak bo'lgani uchun qadamini tezlatishga qiy-nalar, shirpaga ba'zan oyog'idan tushib qolardi. Asli shu ikkovini ham tashlab chiqsa bo'lar ekan. U tramvay yo'lini kesib o'tib, kattakon bog', suv to'la kat-

ta hovuz yoniga kelganida tong yorishib, yo'laklarda odamlar ko'paya boshladi. Mashinalar ham g'iz-g'iz o'ta boshladi. Gul ko'targan, yoqalarining tugmasi solinmagan, boshyalang bolaga ko'zi tushganlar hayron bo'lib kulib ketishardi. Sumka ko'targan bir ayol jadal ketayotgan yo'lida bir lahza to'xtab, Erkinni kuzatdi, keyin yelkasini qisib, yana yo'lida davom etdi... Erkin katta ko'prikdan o'tib ketayotganda orqasida kelayotgan papka ko'targan ko'zoynakli bir odam yonmayon kelib, murojaat etdi:

– O'g'lim, qayoqqa ketyapsan?

Erkin u kishiga bo'zrayib qarab turdi-yu, indamadi.

– Kimning bolasisan?

– Dadamlarni.

– Nega sening yoningda hech kim yo'q?

Erkin indamadi. U odam ham, bu bola shu yerdagi ko'p qavatli uylardan chiqqan bo'lsa kerak, deb o'yladi. U ham tez-tez yurib ketdi. Nariroq borib, gul qirqayotgan keksa kishiga uni ko'rsatib, bir nima deb ketdi. Yoqavayron, «mitti matros» chol yoniga yaqinlashganda u so'radi:

– Hey bola, qayoqqa ketyapsan?

Erkin unga ham javob qilgisi kelmadi. Nima ishi bor? U tramvay yo'lga tushayotgani yo'q-ku! Agar u tramvay yoki mashina yo'lida yurganida uni chaqirib olsalar bo'lardi. U qo'lidagi ikki dona gulni ushlaganicha, boshini baland ko'tarib ketaverdi.

– He bola, buyoqqa kel! Men senga gul beraman.

– Menga gul kerak emas, – dedi Erkin kattalardek. U qo'lidagi gulni cholga ko'rsatdi.

– Meniki yaxshiroq, mana buni ham ola ket!

Erkin nariroq yurib, o'ylamsirab to'xtadi. Cholning guli yaxshi bo'lsa, uni ham olish kerak. Oyijoniga eng yaxshi gullardan olib borishi kerak! Erkin orqasiga qaytib, bog'bon chol yoniga keldi.

– Ma, ol, bolam! – chol Erkinga darhaqiqat yana to'rtta ajoyib «prezident» atirgulidan berdi. Ikkitasi qizil, ikkitasi oq. Chol Erkinga boshdan-oyoq tikilib, yana so'radi:

– Erta-saharlab qayoqqa ketyapsan, bolajonim?

– Oyijonimning yonlariga.

– Oyijoning qayoqdalar?

– O'lganlar...

– E, bundoq degin, – bog'bon chol yuziga fотиha tortdi. Bu bola onasini qidirib, ichikib, tentirab yurganini payqadi. Tentakroqmikan, degan xayolga ham bordi. U sog'inch alangasida ketayotganini sezdi. Nahotki shundoq bolaning tentirab ko'chaga chiqib ketayotganini hech kim payqamagan bo'lsa!

– O'g'lim, u yer uzoq, hozir uyingizga qaytib keting! Ertaga dadangiz bilan birga borasiz!

Erkin boshini sarak-sarak qildi.

– Adashib qolasiz, bolam! – chol atay «siz»lardi.

– Oyijonimning oldilariga boraman!

– Yo‘q, qayting!

Chol ushlab qolishidan qo‘rqib, qushdek uchishga tayyor turgan Erkin birdan chopib, o‘zini odamlar ichiga urdi. U yana yo‘lida davom etaverdi. Odamlar ichiga kirgach, bir oyog‘iga botinka, bir oyog‘iga shirpak kiygan «matros»ni ko‘plar payqashmadi. U katta hovuz va ko‘kka otilib turgan favvoralar yoniga keldi. Bir lahza uning xayolini maydondagi kaptarlar tortdi. Ularga angrayib turdi-da, yana birdan xayoliga oyijoni keldi. U yana gulini ushlaganicha odamlar orasiga kirdi. Oyijonining ovozi qulog‘iga eshitilgandek bo‘ldi. U yoq-bu yoqqa alanglab, yo‘lida davom etdi. Bir muddatdan so‘ng yo‘l chetidagi magazin oynalari ichiga terib qo‘yilgan sut shishalariga qaradi. Ichkisi kelib yutindi. Gastronom ichkarisiga kirib, sut, pishloq sotayotgan oq xalatli semiz, do‘mbillagan xotinga tikildi. Sotuvchining qo‘li qo‘liga tegmas, chek olib odamlarga sut, kefir berardi. Semiz xotinning ko‘zi Erkinga tushdi. «Onasi bilan kelib, bu yerda adashib qolgan...» bolaga o‘xshatdi.

– Hey bola, nima qilib yuribsan?

Erkin indamadi. U ko‘zini sut-pishloqdan uzmasdi. Sotuvchi ayol matroscha kiyinib, dildirab turgan do‘mboq bolachaning boshdan-oyog‘iga razm soldi:

– Oying bilan kelganmiding, dadang bilan kelganmiding? Adashib qoldingmi?

Erkin boshini sarak-sarak qildi.

– Nima kerak senga?

Sotuvchi xotin oq bulochka ustiga ikki bo‘lak yaproqlangan pishloq qo‘yib Erkinga uzatdi. Yarim stakan sut ham berdi. Erkin stakanni olib, sut ichdi-da, ochiqib non bilan pishloqni yeya ketdi. U juda mamnun, oq xalat kiygan yaxshi xotinga iljaygandek bo‘lib gastronomdan chiqdi. U non chaynab, yana yo‘lida davom etdi. U yana ko‘prikdan, tramvay, trolleybuslar boradigan chorrahadan o‘tib, keng asfalt yo‘lda qadam tashlay boshladi. Uning qorni to‘ydi. Lekin oyoqlari chalishib, charchagandek bo‘ldi. Shu orada yo‘lka chetidagi o‘rindiqqa o‘tirib, bir lahza dam olgisi keldi. U o‘tirib orqasiga suyandi. Katta yo‘lda g‘iz-g‘iz o‘tayotgan mashinalarga, yo‘lakdagi odamlarga tikildi. Bir muddatdan keyin boshi qiyshayib, uxlab qoldi. U juda ham charchagan ekan, mashinalar shov-shuvinini sezmay, qo‘lidagi gullarni mahkam ushlaganicha qotib uxlab yotardi. Saldan keyin o‘z karavotida yotgandek oyoqlarini uzatib cho‘zildi. Yo‘lovchilar gul ushlab uxlab yotgan bolaga tikilishar, biron iljayib qo‘yar, biron bezovtalanardi. Ehtimol, bechora bola betob bo‘lib qolgandir, a? Betob bo‘lsa pishillab uxlamasdi. Shu atrofda shopmo‘ylovli militsioner ham bola yotgan skameyka yoniga kelib unga tikildi. Bolani daf‘atan uyg‘otib yuborgisi kelmadi. U sekin skameykaning bir chekkasida undan ko‘zini uzmay, qo‘riqlaganday o‘tirdi. Allaqanday ekskavatorning shaldirab, yerni larzaga solib o‘tayotgani Erkinni uyg‘otib yubordi. U ko‘zini ochib, tepasida militsioner turganini ko‘rdi. Uyalinqirab, boshini ko‘tardi.

- Ha, o‘g‘lim, adashib qoldingmi? Kimning bolasisan?
- Erkin nima deb javob berishini bilolmay, serrayib turardi.
- Uyingga olib borib qo‘yaymi? Uying qayoqda?
- U yoqda, – dedi Erkin ko‘chaning narigi tomonini ko‘rsatib.
- Yur, olib borib qo‘yay.
- Yo‘q. Men oyijonimning oldilariga ketyapman.
- Oyijoning qayoqda?
- O‘lganlar.

Militsioner o‘ylamsirab, bolaga tikildi. Bolaning ichikib uydan chiqib ketganini fahmladi. – Nima qilish kerak? – deb labini tishladi. Erkinga gap qotdi:

– Yur, men ham o‘sha tomonga ketayotgan edim, olib borib qo‘yaman. Men ham sendek o‘g‘lim bor.

Ular o‘n besh daqiqa yo‘l yurib, militsiya idorasiga kelishdi.

Erkin bu yerdan ham juftakni rostlamoqchi bo‘lgan edi, iloji bo‘lmadi. Uni navbatchi militsioner yonidagi stulga o‘tqazib qo‘ydi. Oradan yarim soat vaqt o‘tar-o‘tmas otasi mashinasini eshikda qoldirib, xonaga hovliqib kirdi. O‘g‘lini ko‘rib uni dast ko‘tarib bag‘riga bosdi. Ko‘ziga yosh olib:

– O‘g‘ilginam, – deya oldi.

Erkin ham yig‘lamsirab unga tiqilinch qilishga tushdi.

– Adajon, oyijonimning oldilariga boraylik.

– Bo‘pti! O‘g‘lim, bo‘pti boramiz, – dedi u o‘g‘lini bag‘riga qayta-qayta bosib, keyin xijolat aralash militsionerga murojaat etdi:

– Men erta bilan barvaqt aeroportga, mehmonlarni kutgani chiqib ketgan edim, buvisi bilan qolgan edi. Yaqinda boshimizga baxtsizlik tushgan... Kechirasiz... – dedida, unga tashakkur aytib chiqib ketdi.

Ular mashinalarida uyga qaytib kelib, bunda «tug‘ib o‘tirgan» buvini tinchitishdi. Ota Erkinga ham tasalli berdi. Birpasdan so‘ng oyijoni yoniga olib borishini aytdi. Otaning gaplariga Erkin itoat saqlab, oyijoni yoniga borishga boshqatdan tayyorgarlik ko‘rdi. Yuzlarini yuvdi, yangi kiyim, botinkalarni topib berishdi. U qornini ham to‘ydirib, eshikda turgan mashinalariga hammadan avval chiqib, o‘tirib oldi. Uning barcha harakatlarini kuzatib turgan otasi ko‘zlariga yosh oldi... Kichik bola uchun onaning o‘limidan og‘ir baxtsizlik yo‘q, derdi ota o‘ziga o‘zi.

Bir soatlardan keyin ular yana hovlidagi gullardan qirqib, kattagina guldasta yasab, mashinada qabristonga jo‘nashdi.

Hali marmartosh qo‘yilib, atrofi panjara bilan o‘ralmagan, tuproq uyilib, ketmon bilan tekislab qo‘yilgan yangi bir qabr tepasiga borib, ota-bola bosh egishdi. Qabr ustiga guldastani qo‘yishdi. Erkin dadasi yonida yangi qabrga tikilib turardi. Qani uning oyijoni? Nahotki uni atlas ko‘ylaklari bilan shu tuproqqa ko‘mishgan bo‘lsa? Axir uning paltosi etagiga ozgina tuproq tegsa ham cho‘tka bilan erinmay tozalardi. Uning chiroyli yuzlari, oltin ziraklari, nozik oppoq qo‘llari nahotki shu tuproq tagida yotgan bo‘lsa? Erkin xomush turardi.

– Oyijonim buyoqqa chiqmaydilarmi? – Erkin dadasiga murojaat etdi.

– Yo‘q, – dedi dadası g‘amgin. U o‘g‘lini ovutish niyatida yolg‘on gapirmadi.

Ota-bola qabristondan chiqib, uyga qaytib kelishdi. Lekin ertasiga u shamoladimi, isitmalab kasal bo‘lib qoldi-yu, tepasiga kelgan dadasiga ham, buvisiga ham, boshqalarga ham oyijon, deb qo‘l cho‘zib talpinar edi. Isitma ichida qo‘lida atirgul, oyijonini qidirardi.

Erkinning dovdirab, ichikib yurgani Humoyunlar xonadonini larzaga soldi. Buvasi-yu buvisi, ammalari Erkin atrofiga girdikapalak bo‘lib qolishdi. Xotini qazosidan keyin, «yetti»ni o‘tkazib Humoyun xizmatga bordi. Ilgari xushomad qilib yuradigan ba‘zi juvonlarga ham ortiqcha so‘zamollik yo‘q, qaragisi ham kelmasdi. Uning ko‘z oldida oyijonini yo‘qotgan ma‘yus Erkin turar, bu mitti bolaning dardu dunyosi qorong‘i, hech narsasi qolmaganday ko‘rinishi yuragini ezardi. U na ota va na buvisi, hech kimning gapiga quloq solmasdi. Unga o‘zining oyijoni kerak. Oyijonini topib berishlari kerak! Qani uning oyijoni?! Nahotki uning oyijonini ko‘mib kelishdi! Nahotki oyijoni uni bag‘riga bosmaydi! U, Humoyunning ko‘ziga oyijonisiz yashay olmaydiganday ko‘rinardi.

Advokat Farrux Do‘stmuhamedovlar oilasi motamsaro, bir kichik jon butun bir xonadonni larzaga solardi.

Oradan uch yil o‘tdi. Erkin ham maktabga bordi. Ammo hamon Humoyun uylanmay yurardi. Uning ko‘z oldida hamon o‘sha Ra‘no... Yer sovuq, kishi qazo qilgach, qolgan qadrdonlari yuragida uning mehri sekin-asta soviydi, derdilar. Bu to‘g‘ri emas ekan. Humoyun yuragida Ra‘no muhabbati hamon yashardi. U, Ra‘noni ancha vaqt ketidan yurib, yaxshi ko‘rib olgan edi. Nazarida yana bir boshqa kishini Ra‘nochalik sevisgacha qurbi yetmaydiganday tuyulardi. Biron kimsa yuragida g‘alayon uyg‘otolmasdi. Humoyun uch yildan so‘ng birinchi marta Onaxonni ko‘rib, yuragi jiz etib ketdi. Uning ro‘parasida Ra‘no turganday bo‘ldi. Uning bir yeri Ra‘noga o‘xshashib ketardi. Ovozi o‘xsharmikan? Humoyun o‘ylanib qoldi.

# *Sunnatulla Anorboyev*

(1922–2003)



Sunnatulla Anorboyev 1922-yil 9-sentyabrda Turkiston shahri, Qoratog' etagida joylashgan Qarnoq qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1973). Toshkent pedagogika institutini tugatgan (1946). Birinchi kitobi – «Hikoyalar» (1957). «Oqsoy shalolalari» (1958), «To'rtko'zning boshidan kechirganlari» (1962), «Mehr» (1964), «Umr» (1972), «Qissalar» (1974), «Oltin qoziq» (1976), «Suzib borar arxarlar» (1982) kabi qissalar to'plami nashr etilgan. «Go'zallik izlab» (1960), «Xayr, bog'chajon, bog'chal!» (1962), «Hamsuhbatlar» (1969), «Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar», «Ustoz va shogirdlar» (1970), «Parvoz» (1973), «Yaxshilik urug'i» (1986), «Yaylov gurunglari» (1988), «Anqov» (1999), «Saylanma» (1986, 2 jildli) singari ocherklar va hikoyalar to'plamlari muallifi. «Oqsoy» (1961), «Sayli» (1979) romanlari rus tili va boshqa tillarga tarjima qilingan.

«El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan (1999).

Yozuvchi 2003-yil 30-martda Toshkent shahrida vafot etgan.

## YAXSHILIK URUG'I

Yerda qor yo'q – qora sovuq. Ikki chetda arjinoz nunday qop-qora shudgor. Asfalt yo'l ho' ufqdagi o'rmonga borib taqaladi. «Ikarus» yer tanobini tortib suvday boryapti. Ahyon-ahyon bug'doy poxol g'aramlari lir-lir o'tadi.

Yaqinlashyapmiz – o'rmon tobora bo'y cho'zyapti, go'yo biz tomonga yopirilib kelayotganday. Yalanglikda haykal ko'rindi: bosh yeggancha ona sukutga cho'mgan... Vujudim jimirlab, yuragim hapriqdi. Ko'zim yoshlandi. O'ttiz yil... o'ttiz yildan ortiq ko'rishmagan birodarim u yerda meni orziqib kutayotganday edi.

Avtobusdan tushdim. Lablarim uchadi, tizzalarim qaltiraydi. Qani o'zimni bosa olsam. Qabristonga kirdim. Hammayoq muz. Jimjit. Faqat oyog'im os-

tidagi to'ng yer qisirlaydi – ozor chekkanday tuyuladi. Qadamimni ehtiyotlab bosaman. Sochlari to'zg'igan yalang bosh ona. Yonog'ida tosh qotgan tomchi yosh. Chehrasida mung. Dol bukilgan qomatida mung. Yupqa lablari qimtilgan. Motamsaro, ich-ichidan ezilib, pinhon yig'lardi.

U mana shu ko'ya, farzandidan ayrilgan necha minglab onalar ramzi, xalq dardi timsoli sifatida ko'p yillar turgan. Bundan buyon ham turadi. Yog'in-sochinli, jazirama issiq, qahraton sovuq kunlarda, zulmat tunlarda ham mana shunday yolg'iz turaveradi. U go'yo qarshisidagi qabr toshlari ostida qator yotgan, yer yuzida adolat va tartib o'rnatish uchun fashizmga qarshi kurashda halok bo'lgan mard o'g'lonlarining osuda uyqusini qo'riqlardi.

Mozor, keta-ketguncha mozor. Bir-bir bosib, qabrlarni oralab, birodarimni izladim. «Kichik serjant Makarov Aleksandr Borisovich, 1922. 1943-yil 8-iyulda Vatan uchun bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'ldi». Uning yonidagi qabr toshiga: «Oddiy askar Beyshenbekov Ummet, 1924. 1943-yil 9-iyul...» deb yozilgan. Undan narida Xudoyberganov, Olimboyev, Dolenko yotibdi. Tasavvur etaman: bular o'sha vaqtda endigina mo'ylovi sabza urgan, o'n gulidan bir guli ham ochilmagan yosh-yosh yigitchalar edi.

Bu yerda yotganlar bilan biz bir avlodmiz – deyarli bari tengdoshlarim. Ammo mening qon-qarindosh birodarim qani? Xayolan ulardan so'roqlayman. Qabrda yotganlarning qiyofasi ko'z o'ngimdan ayon bo'layotganday tuyuladi. Go'yo ulardan biri: «Buyoqda», deganday, chap elkasi tomon harbiylarchasiga keskin bosh irg'aydi. Boshqasi ham ana shunday unsiz imo qiladi. Ba'zilari: «Salom, hamshahar!» deya kulib boqqanday bo'ladi. Boshqasi esa: «Endi keldingmi?» deb ta'na qilganday qovoq uyadi. Majaqlangan chanoqlar, o'pirilgan ko'zlar... Ayrimlarining qo'li, oyog'i yo'q, boshqasining qovurg'alari mina portlab yoki bombardimonda tilka-pora bo'lgan...

Saf tortgan qator-qator qabrlarni oralashda davom etaman. Oradan... bir soat ham o'tibdiki, hamon izlayman. Yura-yura o'rmon yoqasiga yetib qolibman. Qadamimdan ko'zim ildam – tevarakka olazarak boqaman. Shunda daf'atan... U chetdagi toshda... ishongim kelmaydi... Yog'in-sochin chaplashtirgan harflar bir-biriga ulandi-yu... Yuragim gupillab urib ketdi. Oxir topdim!.. Seni topdim, jigarim! Peshonamni muzday marmarga qo'ydim. Shunda birodarim go'yo ko'zlarini asta ochdi:

- Keldingmi? – dedi.
- Keldim, – deya shivirladim.
- Uzoq kutdim, – deganday bo'ldi u.

Xijolatdan boshim xam. Yuzimning o'ti chiqib ketganday bo'ldi. Vijdonim qiynaldi. Qidirsang, bahona topiladi. Biroq o'zimni oqlashni istamadim.

- Kech bo'lsa-da, keldim... yo'qlab, – dedim.

Sukunat. Ranjimadimikan? Yuzini o'girib, chetga qaraganday bo'ldi. Keyin yonimga kelib turdi. U hayotligida ko'zlari chaqnab, olamga havas bilan boqardi. Shuning uchun ham hazilkash yangasi: «Bodroq ko'z qaynim!» deya tegishardi.

Yarqiragan keng manglayli, ochiq chehrasidan quvonch yog'ilib turardi. Yo'q, hozir uning «bodroq ko'zlari» pirpiramas, nigohi oqshom kabi so'niq, qiyofasida uhhalmagan orzular nuqsi xuddi oxirgi bor yuborgan fotosuratidagiday... Boshida qizil yulduzli pilotka, egnida elkalaridan qaynab chiqqan sho'r dog'li gimnastyorka, belida sirib bog'langan kamar... (Front gazetasida bu fotosurat tagida uning to'g'risida hikoya qiluvchi maqola ham bor).

Ulkan mis qo'ng'iroqning hazin tovushi qulog'imga chalindi. Buni Tojiddin ham eshitdi shekilli, seskanganday bo'ldi nazarimda. Beixtiyor Beryozovka qishlog'iga boqdim. U tepalikda joylashgan. Bu yerdan aniq ko'rinadi. Ayniqsa, oppoq cherkov siyrak tuman ichida muallaq qalqib turganday. Uning baland minorasidagi katta-kichik mis qo'ng'iroqlar «Dong-ding, dong-ding!» qiladi...

Beryozovkalik keksalarning hikoya qilishlaricha, urush davrida bu qishloq necha bor qo'ldan-qo'lga o'tgan. Urush boshlanishi oldida qurib bitkazilgan, hali bo'yog'i qurimagan yangi klub hammaning ko'z oldida lovillab yongan. Snaryad, minalar zarbidan ne-ne umid bilan tiklagan boshpanalarining kuli ko'kka sovurilgan. Butun boshli qishloqdan ilma-teshik bo'lib ketgan shu cherkov va so'ppayib-so'ppayib uylarning mo'rilarigina qolgan. Bu yerga dafn etilganlar o'sha beomon janglarning qurbonlaridir. Sen esang, jigarim (qirq uchinchi yilning yozida xonadonimizning eshigini qoqqan mash'um qoraxatdan ma'lum), dushman istehkomlariga qarshi butun Kursk temir halqasi bo'ylab boshlangan mislsiz shiddatli hujumda qatnashgansan, to'qqizinchi iyul kuni esa...

– Yolg'iz men emas... – deb shivirlaganday bo'ldi Tojiddin.

Bilaman, birgina sen emassan. Do'stlaring ham bor edi atrofingda. Polk... diviziya – hammalaring yoppasiga yov ustiga yopirilib hujum qilgansizlar. Ikkala tomondan ham minglarcha to'plar, minomyotlar cho'g'ga aylangan po'lat, ma'dan purkagan. Qiruvchi, shturmchi samolyotlar osmonu falakni to'ldirib g'izillab uchgan tonna-tonna bomba, qo'rg'oshin yog'dirgan...

Mozorda yotganlar, nazarimda, so'zlarimni eshitib bezovtalanayotganday edi.

– O'z suhbatimiz bilan hamsoyalaringning tinchini buzmaylik, yur, – dedim xayolan birodarimga.

Qabristondan asta chiqib, o'rmonga kirdik. Darvoqe, bu yerdan ko'rinib turgan qishloqni Beryozovka deganlaricha bor: o'rmonda shoxlari sollangan, po'sti oq, ola-bula atlasday yaltiroq qayin daraxtlari archa bilan aralash. Oyoq ostida qizg'ish-sarg'ish barglardan gilam: shox-shabbalar qisirlaydi. Sovuq. Ignabarglarda qirov.

Tojiddinning sovuqdan rangi o'chgan, lablari gezarganday ko'rindi ko'zimga.

– O'zbekistonimizda sovuq bunchalik bo'lmasa-da, har qalay u yerda ham xazonrezgi payt, – deyman birodarimga. – Biz tomonlarda kuz sho'xligi shumlikka aylanib ketadigan paytlar ham bo'ladi. Sog'ingansan, bilaman. Hamma narsa ham sog'inganda soz ko'rinadi. Lekin to'g'ri, bu yilgi kuzdan ginamiz yo'q. Dehqonning omadi kelgan – to'kin-sochin kuz bo'ldi. Paxtani-ku, o'zing bilasan, esimizni taniganimizdan yagana, o'toq, chopiq, terimga chiqardik. Mehnati og'ir,



ammo sharaffi. Bu yil Qashqatog‘dan ham baland xirmon ko‘tardik oq oltindan. Ha, yuzimiz yorug‘! Shaharda, qishloqda – hammayoqda to‘y, maraka. Ayniqsa, juma yoki shanba oqshomi karnay-surnay, nog‘ora suronidan, yigitlarning xushchaqchaq qiyqirig‘idan yetti qat osmon yangrab ketadi...

Birodarimning ko‘zlarida havas, armon yalt etganday bo‘ldi.

– Aytganday...

Tojiddin mendan bir nima kutganday hushyor tortdi.

– Bir-ikki yil burun Norin yoqalarini aylanganimda... ho‘ yuragingdan urgan qiz bor edi-ku, o‘shani uchratdim.

Nazarimda Tojiddin titrab ketdi. Bir qizardi, bir oqardi. Bolalikdan qolgan uyatchanligi yonoqlarida zuhur etdi.

– Eski oshnolarimdan biri... taniysan, sening ham oshnang: «Bizning eshikka ham kirib o‘ting, bir piyola choyimiz bor», deb qistab qo‘ymadi. Bordim. Shohi-atlas ko‘rpachalar, biqiningda paryostiqlar. Dasturxonda anvoyi noz-ne‘matlar. Uzum, anor, nashvati – shirin-shakar mevalar. Achchiq ko‘k choy. Bolaligimizni esladik. Norindan baliqday suzib o‘tib, orolda mol boqqanlarimiz, to‘qayda yurib, qirg‘ovul qochirganlarimiz, daryo bo‘yidagi qumloqda kuch sinashganlarimiz – hech narsa qolmadi-yov. Sen chakki emas eding! Bolaligimda men chuvakroq, sen elkador, otamizga tortganding. «Yotib otar» qilishning xo‘p mashqini olganding. To‘rt-besh yasharlik paytimiz bo‘lsa kerak. Hovlida ariq-ariq o‘ynayotgan edik, shekilli. Sen teshada kavlab, men enkayib tuprog‘ini qo‘lim bilan tortayotganimda boshimga bir nima qars etib tushdi... Men chirqiragancha yumalab qolganman. Sen bo‘lsang, qo‘rqqaningdan qayoqqadir tiraqaylab qochgansan. Ha, bilmasdan solib qolibsən. Onam bechora qayoqdandir paydo bo‘lib meni dast ko‘targanu o‘choq boshiga yugurgan. Kimdir sochimni qaychilab, tesha tekkan joyni ochgan. Yana kimdir kigiz kuydirib bosgan – qonni to‘xtatgan. Shundan keyingina sen eslariga kelgansan. Faqat nomozshomda, sigir podadan qaytgandagina seni qorong‘i molxonadan – oxur ichidan topishgan. Miq etmay bekinib yotib uxlab qolibsən. Ertasi kuni o‘rtamizda hech narsa bo‘lmaganday yana birga o‘ynab ketganmiz. Ana shunday, jigarim! Mening badanimda qonli urush bosgan tamg‘alar bilan birga sening kichkina momiq qo‘ling qoldirgan iz ham bor. Eski qadrdomimning das-turxonni atrofida o‘tirganimizda goho kulib, goho xo‘rsinib shularni ham esladik.

Suhbatimizga aralashib, fayz kiritgan uy bekasi... Kel, otini aytmay qo‘ya-qolay. «Adasi, osh...» deya oshnamizning esiga soldi ibo bilan.

O‘zing bilasan, biz erkaklar palov damlashda ayollarga nisbatan o‘zimizni ustasi farang sanaymiz. Ayollarimiz ham bizning bu «ojiz»ligimizdan juda mohirlik bilan foydalanishadi. Uy bekasi menga qarab jilmaydi-da:

– O‘rtog‘ingiz oshga ustalar. Men hecham o‘xshatolmayman, – deb qo‘ydi.

Oshnamiz ko‘p ajoyib mehmonnavoz kishi. Rafiqasining bu maqtovi shunchaki iltifot ekanini tushunadi. Biroq bo‘sh kelmay, hazilga hazil bilan javob qaytarib o‘rnidan turdi:

– Ha, yo‘g‘asam-chi! Hozir boplaymiz-da!

– Qarashib yuboraymi? – dedim.

– Yo‘g‘-e, bari tayyor! – dedi uy bekasi. – Faqat guruchni solib, bostirsalar bas.

– Silar o‘tiravuringlar! Birpastda gatop qilamiz!... – dedi-da, oshnam mehmonxonadan chiqib ketdi.

Suhbatimiz davom etdi. Yana – yoshlik xotiralari. Uy bekasi – sochiga oq tushgan ayol o‘ksinib qo‘yib seni esladi:

– Qovun-tarvuzlarimiz pishishga yaqin kapaga ko‘chib chiqqandik... Bu chekkada men, u chekkada ukam, o‘rtada acham... Supada qator yotamiz. Dadam ishchi bataloniga olingan, urush payti. Uyqum kelmay xayol surib chigirtkalarining chirillashi, qurvaqalarning qurillashiga quloq solib yotgandim. Osmon to‘la yulduz deng. Bir vaqt allaqanday sharpa... uyat qimaysizmi? – uy bekasi – to‘ladan kelgan kulcha yuz ayol men tomonga ibo bilan boqdi ro‘molining uchini tishlab.

– Qani, eshitaylik-chi, keyin o‘ylab ko‘ramiz! – dedim hazillashib.

– Xudo olsin! – deya qosh qoqdi u. – Yetti bolaning onasi bo‘lganimda kimam uyat qilardi! Qarasam oppoq oq kiyimda... oq ko‘ylak, oq shim, oq tuflida... Tanib turirpan – Tojiddin! Ko‘zimni chirt yumdim. Yuragim urib ketyapti deng. Asta oyoq uchida yurib tepamga keldi. Nafas olishiga qadar eshitib yotirpan. Ammo ko‘zimni ochishga qo‘rqaman. Yosh ekanman-da! Axiyri engashdi. Yostig‘imga nimanidir qo‘ydi-yu, yana oyoq uchida yurib uzoqlashdi. Ko‘zimni ochganimda u yo‘q edi: faqat bir dona qizil gul qoldirib ketibdi... – uy bekasi shunday dedi-yu, yerga qaragancha dasturxonning popugini himarishga tushdi. Anchadan keyin xo‘rsinib:

– Yosh ekanmiz... – deb qo‘ydi.

Nazarimda, Tojiddin jo‘shib ketdi. Qo‘ng‘irga moyil qo‘yko‘zlari chaqnadi. Keng chakkasidagi tangaday qoramtir (ismiga monand) xoli lov etib yonganday bo‘ldi. U shitob bilan olg‘a intildi. Men ham qadamimni tezlatdim. Negadir ichim to‘lib borayotibdi. Xilvat o‘rmonda dodlagim keladi. Qulochimni yozib osmon baravar xircha oq qayin atrofida gir aylandim-da, Tojiddinning yo‘lini to‘sib, so‘radim:

– O‘shanda ko‘nglingga tuggan so‘zlariningni unga?.. – chamasi men so‘rog‘imni tugatar-tugatmas butun qayinzor go‘yo: «Sevaman... Sevaman... Sevaman...» degan sadodan yangrab ketdi.

Tojiddin indamadi. Lablarini tishlab, ko‘zlarini xazonrezgi to‘shalgan yerdan uzmadim.

Oh, jigirim, sezib turibman, aytmoqchi bo‘lgan otashli so‘zlaring bari iching-da qolgan. O‘zing bilan birga olib ketgansan!

Qachonlardir sen o‘pkang og‘zingga tiqilguday bo‘lib, bir qirg‘iz kelinchagining hazilini so‘zlab berganding. (Ha, biz aka-ukaning oramizdagi farq atigi bir-bir yarim yosh... deyarli tengdoshmiz. Shuning uchun ham eng yaqin do‘stlar singari o‘rtamizda sir yotmas edi.)



Sen bedazorning chekkasida o'tlayotgan qashqa sigirimizni sero't joyga siljitgansan-u o'zing katta ariq bo'yiga chiqib, ajriqzorga ag'anagansan. Pastda sharrilagan suv, tepangda sarvqat mirzateraklar. Shabadada kumush barglarning shildirashi. Sen chalqancha yotib rohatdan entikkansan-u, uyquga ketgansan. Bir vaqt burningga pashsha qo'nganday bo'lgan. Sen qo'l siltab haydagansan. Xira pashsha yana qo'ngan. Yana qo'l sermagansan. Shunda qiqirlagan kulgidan uyg'onib ketgansan. Ro'parangda... yo'q, ertaklardagi gulqahqah parilar emas, ikkita yosh-yosh qirg'iz kelinchak. Ulardan birining qo'lida uzun g'umay. Burningga qo'nib, uyqungni bezovta qilgan «pashsha» shu g'umay boshog'i ekanini payqagansan. Shu kelinchak oyog'i ostidagi tuprog'i o'ynab ketgan so'qmoqqa qo'lidagi g'umaypoya bilan: «Bir o'psang-chi!» deb yozib qo'ygan. Uning o'yinqaroq ko'zlari senga tikilgan. Sen bo'lsang dam tuproqdagi yozuvga qaraysan, dam kelinchakka. Qalbingda o'smirlik hislari tug'yon uradi. Yuragingning gupullashi, chakkangning lo'qillashi garang qilgudek. Tomirlaringda qon qaynashi shunchalikki, aql-hushingni yo'qotgansan. Senga qadalgan sho'x, mug'ombir ko'zlar qarshisida tiling lol. Shunda qo'qqisdan qahqaha yangradi. Hazilkash yangachang qo'lidagi g'umay bilan tuproqdagi mehrlil yozuvni o'chirdi-da, ketdi-vor-di. Ular katta ariqdan o'tib, o'siq makkajo'xori ichidagi so'qmoqqa burilganlarida sen tomonga qayrilib, yana xoxolashdi.

Bu voqea ikkovimizning gurkirab palak ota boshlagan beg'ubor o'smir qalbizni anchagacha hayajonga solgan, o'rtamizdagi sirli suhbat mavzuiga aylanib golgan edi.

Qulog'imga olis joyda chalinayotgan hazin bir kuy eshiltganday bo'ldi. Ana goh zo'rayadi, goh pasayadi. To'lqinlana-to'lqinlana o'rmon ustidan o'tayotganini ham payqab turibman. U go'yo tund bulutlar ketidan qayoqqadir shoshadi. Yo, alhazar! Bu navo-ku. Elimizning iliq nafasi! Eshityapsanmi? U bizni mehribon ona kabi quchoq ochib chorlayapti.

Nazarimda Tojiddin ham eshitdi. Eshitdi-yu, titrab ketdi. Shunda o'rmon ham chayqaldi. Daraxt shoxlaridan ukki pariday yengil, oppoq qirov to'zg'idi.

Tojiddin toqati toq bo'lgan odamday, go'yo hayqirdi:

– Shu haqda so'zlasang-chi! Axir ota-onam... Oh, shu qadar sog'inganmanki! Qavm-qarindosh, yor-do'stlar omonmi? Aytaqol tezroq!

– Sabr qil, jigarim. O'zingni bos. Hammasini aytaman... – dedim-u, lekin so'zni nimadan boshlashga boshim qotdi. Daf'atan ota-onamiz... Yo'q, og'ir zarba bo'ladi unga. Hayotimizdagi eng charog'on lahzalar, kunlarni yodiga solib quvontirgim keldi. – Jiydakapa esingdami? O'ttiz besh... o'ttiz yettinchi yillar? Rayonda yagona to'liqsiz o'rta ma'lumot beradigan qishloq yoshlar maktabi? Ota-onamiz bag'ridan uzilib yigirma besh kilometr yiroqda yotib o'qiganlarimiz?

Tojiddin bosh irg'aganday bo'ldi.

O'ttizinchi yillar ancha og'ir yillar edi. Internat-maktabimizda nonushtaga yarimta non bilan choy berishardi. Kechqurun ham shunday. Ba'zi kunlari oq non,

ko'pincha qora non. Tushligimiz ba'zan quyuq, ba'zan suyuq bo'lardi. Ko'pincha yovg'on osh, qozon qusib qoraygan moshxo'rda bilan qanoatlanardik. Maktabning yer uchastkasida sholi o'toq qilardik, paxta terardik. Oyog'imiz, egnimiz yu-pun. Kunlarimiz o'tishi ham bir nav – goh och, goh to'q. Ammo shunga qaramay, nolish nimaligini bilmasdik! Ruhimiz baland, kech kirishi bilan sen havaskorlar to'garagiga choparding – takatum-tak – childirma chalarding. Men bo'lsam, bo'sh nifga qamalib olib, yettinchi lampa chiroqni lirillatib, devoriy gazetaning navbatdagi sonini tayyorlardim. (Amalimni suiiste'mol qilib, ko'proq o'z «asar»larimni tiqishtirardim!) Toji Husniy... O'ta g'amxo'r murabbiyimiz bor edi! Sochini ustarada oldirib, yozda oq to'r do'ppi kiyardi. Tishlari sun'iy sadafdan. Biror narsadan hayajonlansa shaqirlab ketardi. Biz bolalar bolalik qilib qo'ysak, ko-yish o'rniga quyuq qoshlarini uchirib-uchirib samimiy kulardi. Husniyning oilasi Namanganda, o'zi esa, yotog'imizga yaqin alohida xonada yolg'iz yashardi. Kechalari lampa chiroq atrofida dars tayyorlayotganimizda yoki o'ringa yotganimizda kirib, mehribon onaday har birimizning tepamizga kelar, agar ustimiz ochilib qolgan bo'lsa, yopib qo'yardi. Keyin ohista yurib chiqib ketardi. Ertalabdan esa sinfda bo'lar, ona tili va adabiyotdan dars boshlar edi. «A» bilan «O»ning farqiga bormaydi ukangiz, – derdi goho sening imloingdan ko'ngli to'lmay. Bir safar Taras Shevchenkonning «O'lsam, do'stlar, qo'yingiz...» misralari bilan boshlanuvchi «Vasiyat» she'rini yod o'qiganingda jimgina o'tirib tinglayotgan Husniy ko'ziga yosh olganini gapirib berganding. Endi bilsam, buning ajablanadigan joyi yo'q: keksalik alomati ekan...

Sen keyinchalik Farg'onaga borib pedagogika institutining geografiya fakultetiga o'qishga kirding. Qalbingda geografiyaga havas kim tufayli uyg'ongan, bilasanmi? O'sha bir oyog'i yog'och geografiya o'qituvchimiz Qurbonov tufayli! U qo'ltiqtayoqda salobat to'kib kirib kelardi. U bilan birga sinfga xarita, globus, ko'rsatkich tayoqchasi ham kirib kelardi. Qarabsizki, qit'alar bo'ylab xayolan sayohatimiz boshlanardi. Ko'p maroqli sayohat!

U, sendan eshitgandimmi, bir oyog'ini Namangan va tevarak-atrofdagi qishloqlar aholisi boshiga ko'p kulfatlar solgan Omonpolvon to'dasiga qarshi kurashda yo'qotgan ekan. Shuning uchundirki, cho'loqligidan hech o'ksinmas, doim mag'rur, qadam olishi bardam edi. Qurbonov bizni goho kunduz, goho kechasi ekskursiyaga olib chiqar, kompas bilan yulduzlar yordamida tomonlarni aniqlashni o'rgatardi. O'sha vaqtlarda Jiydakapaning chetida ko'hna tepalik – mozoriston bo'lardi. Keksalar uni «Kat» deyishar, qadim zamonlarda tevarak-atrof to'qay, botqoqlik bo'lib, to'qayzorda yovvoyi cho'chqa, yo'lbarslar yashar ekan. Odamlar esa Katda jon saqlashgan, deb rivoyat qilishardi. Qurbonov «tabiat quchog'iga» ekskursiya uyushtirganda bolalarni, aksari, shu tepalikka boshlab chiqib, atrofni tomosha qildirishni yaxshi ko'rardi. Oldinda o'zi. Kexsa, ko'pni ko'rgan sarkardaday mag'rur qadam tashlardi. Yog'och oyog'i g'ijirlardi. Biz esa uning sodiq qo'shini, saflarimizni jirslab, tepalikka hamla qilardik. Yuqoriga chiqqanimizdan

keyin hammamiz hansiragan, qizishgan bir kayfiyatda Qurbonovning atrofiga doira yasaymiz. U bo'lsa tayog'iga tayanib, o'ng qo'lini boshimiz uzra ko'tarib, atrofga suqlanib boqadi va xitob qiladi:

– Mana shu, Vatan!

Tepamizda charaqlagan quyosh, uzoqlarda Oloy tog'i. O'rik shoxlari orasidan esa oynaday yaltirab Norin ko'rinadi. Undan beriroqda sholiroya, paxta dalalari. Kun botishda esa keta-ketguncha bog'-rog'lar, qishloq tomlari. Shular orasida aeroplanga o'xshab ketadigan bizning maktab-internatimizning hashamatli binosi ham bor.

Jigarim, Vatan so'zini birinchi bor sen bilan men o'sha geografiya o'qituvchimizdan eshitmaganmikanmiz? Vatanga muhabbat urug'ini bahorgi shudgorday ko'pchigan bizning murg'ak qalbimizga ilk bor u sochmaganmikan?

Harqalay, sen sinfdoshlaring tomonidan tan olingan «jug'rofiyachi» eding: xaritaga orqa o'girib turib bolalarning falon shahar, falon tog' yoki daryo qayerda, degan savollariga falon qit'a, falon mamlakatda, falon joyda, deya aniq javob qaytararding.

Sen chinakam sayohatlarni orzu qilarding... «Yozgi ta'tilda Norinning boshiga bormaymizmi?» deya o'rtoqlaringning yuragiga o't solarding. Shundan keyin ulug'vor daryoning tog' boshidagi qor erishidan hosil bo'lgan jildiragan irmoqchadan boshlanishini tasavvur etganingda ko'zlaring hayratdan piriqirib ketardi. Umuman, sen tabiatga hayrat bilan boqarding. Bir yangi so'z, yoki g'alati o'xshatish ham seni hayajonga solardi. Yodimda, «Alpomish» dostoni qo'lingga tushgan kezlari edi. Bir safar tun yarimda meni uyqudan uyg'otib:

– Manavi so'zni eshit, – deya pishillaganding qulog'im tagida. Zavqing toshib borayotganini kosasidan chiqayozgan ko'zlaringdan ham bilsa bo'lardi:

Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti!

Oq to'shim – yayloving, sochim – shirirtki.

– Oq to'shim – yayloving... Ana! – deya xitob qilganding kitobni yopib. – Bundan ortiq sadoqat bo'ladimi!

Sen keyincha armiyaga chaqirilganingda yukxaltangga o'sha otashin muhabbat, chinakam sadoqat, beqiyos jasorat haqidagi xalq dostoni «Alpomish»ni solibsan. Ham dono, ham soddadil, ham jo'mard, ham mehr-shafqatli xalqimizning dur-gavhar so'zlaridan tizilgan bu doston sening og'ir, qahramonona yo'lingda hamisha hamrohing bo'lganiga aminman. U balki qabringda ham sen bilan birgadir. Seni dafn etgan quroldosh do'stlaring uni yostiq o'rni boshing ostiga qo'yishgandir?

Tojiddindan sado chiqmasdi. U o'sha armiyadan uyga oxirgi marta yuborgan suratidagiday ma'yus. Boshida pilotka, egnida gimnastyorka... Suratda shunday. Qor-qirovli qora sovuq. Buning ustiga, o'rmon bo'lishiga qaramay uni boshqacha, qishlik formada – boshida quloqchin, egnida shinel kiygan qiyofada tasavvur eta olmadim. U boshini xam qilganicha, etigini sudrabroq bosib men bilan yonma-yon borardi. Nimanidir so'rashga jazm etgan kishiday lablari qimtilgan. Payqadim. U

gapni chalg'itib uzoqdan boshlaganimga ko'ngliga g'ulu tushgani aniq: sezmasligi mumkin emas. Oh, mehribon ona, padari buzrukvorimiz! Qaysi til bilan unga, ular olamdan o'tgan, deya olaman?

– Esingdami, dadangdan dakki eshitganing... Ho', temir yo'l yoqasida suv sug'organingda?

Tojiddin esladi shekilli, asta bosh irg'adi.

– Yozgi ta'til paytlari qo'limizdan kelgancha sigir-buzoqqa qarash, tomorqadagi ekinlarni o'tash, chopiqdan chiqarish, tom suvoq deganday, uy-ro'zg'or ishlariga qarashdik. Bir kuni ekinlarni sug'orib yurgan otamiz ta'ziyaga boradigan bo'lib qoldilar. Sen ishlariga qarashib turadigan bo'lding. G'o'zalar ayni gulga kirgan payt edi. Otamizning qo'llaridan ketmonni olib, kartani bir aylanib kelgansan. Jildiratib taralgan suv, sening nazaringda ozga o'xshab ko'ringan: egatlardagi suv kartaning yarmiga ham yetmagan ekan-da. «Dadam kelgunlaricha ekinni suvdan chiqarib qo'ya qolay...» deb o'qariqdan suvni ko'paytiribroq ochgansan. Zora maqtasalar, degan niyatda qilgansan buni. Keyin tut tagiga chiqib yonboshlabsan. Ariqdagi suvning sharillashi, g'ir-g'ir esgan shabadaning ko'kragingga tegib erkalashidan mast bo'lib, uyquga ketibsan. Bir vaqt dadangning baqiriqchaqirig'idan uyg'onib ketibsan. Qarasang: «Eh noshud bola, noshud bola!» deya o'qariqqa chim bosayotgan ekanlar kartaga urib ketgan suv bilan olishib. Shunday tepangda esa u kishining shalpangquloq oq eshagi seni ermak qilayotganday baqrayib turgan emish.

Koyinma. Otamiz sening bunday «bolalik» qiliqlaringdan xafa bo'lsalar, yaxshi ishlaringni ko'rib quvonardilar. Esingdami, yon qo'shnimiz Xolbuvinu buqachasi yumalatib qochgani? Juda semirib, quturib ketgan edi-da, jonivor! Xolbuvi kechki payt buqachasini boylab qo'yan joyidan yechib, hovlisiga yetaklaganicha qaytayotgan ekan. So'na chaqqanmi, qaydam, qo'ng'ir buqacha o'qalog'lab Xolbuvinu yiqitibdi. Arqon qo'l-oyog'iga o'ralib qolganmi, kampirni ancha joygacha sudrab sarson qilibdi. Buni sen katta yo'ldan velosiredda o'tib ketayotib, tasodifan ko'rib qolibsan. Velosiredingni tashlab, yordam bergani yuguribsan. Yetib borganingda Xolbuvi kiyim-boshi dabdala, tirsaklari shilingan, tuproqqa belanib yotgan ekan. Sen, sho'rlik kampirni dast ko'tarib uyiga eltib qo'yan eding.

Keyin uning buqachasini qidirib ketganding. Rahmatli onamiz shunda: «Qo'ya qolsang bo'lardi, bolam. Seni ham mayib qilmasin yana!» deya javrab kuyinganlari! Yo'q, semizlikdan quturgan buqachani podadan tutgansan tumshug'idan mahkam no'xtalab, allamahalda olib kelgansan. Shunda otamizning turishini ko'rsang edi! Oq surp ko'ylak-ishtonda. Yalang oyoqlarida kalish. Mosh-guruch soqol ko'krakka tushadi. Ikki qo'llari orqada. Og'izlaridan bir so'z ham chiqmagan esa-da, senga tikilgan ko'z qarashlaridan: «Quyib qo'yganday o'zim-a! O'g'il bola degan bundoq bo'pti!» deya ich-ichidan quvonayotganlari ayon edi.

Ana shunday, jigarim, sen o'zing sezmaganing holda, bolaligingdanoq boshqalarning og'irini yengil qilish uchun hoziru nozir eding. Va shu yo'lda, tug'ilgan elingdan minglarcha kilometr yiroqda qullikka qarshi joningni tikding.

Otamiz uzoq umr ko'rdilar. Suyagi mehnatda qotgan, ko'zlari ne-ne mashaq-qat-u quvonchli ishlarni ko'raverib pishgan, qo'llari ketmon, o'roq, ayri ushlayver-ganlaridan g'adir-budir, haqiqiy dehqon edilar. Kelbati-yu so'zlari ham dehqon-cha, beso'naqayroq... Lekin sovuq qish kunlari oyoqni sandalga tiqib, qo'llariga Mashrabning «G'azallar»ini olib mutolaaga kirishganday bo'lsalar, tovushlari tit-rar, ko'zlari lim-lim yoshga to'lar, mehnatda dag'allashgan dillari misli simobday balqib ketar edi. Ammo bari bir u kishi hayotda tabiatan kurashchan odam edilar. Bizni jangga kuzatayotganlarida men u kishining ko'zlarida yosh ko'rmadim (sen ham ko'rmagandirsan, jigarim). Aksincha, vagon oldida turib dod-faryod qilayot-gan onamizga va boshqa xotinlarga dalda berib:

«O'g'illaring yigit bo'lib Vatan himoyasiga otlanishibdi. Buning uchun yig'lash emas, faxrlanish kerak!» deya nasihat qilgan edilar. Darhaqiqat, u kishin-ing faxrlanganlariga aminman. Shukrki, sen bilan biz otamizning yuzini yerga qa-ratmadik. Biz himoyachilar safida bo'ldik. Biz minglar, millionlarcha edik. Kuch-li va makkor, shafqat nimaligini bilmaydigan, xalqlarimizga kelajakdagi qullar, cho'rilar deb qaraydigan nemis-fashistlarning yo'lini to'sdik. Sen ana shunday beomon jangda, tarixda «Kursk yoyi» nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk jangda qurbon bo'lding. Bu shum xabar eshigimizni qoqqanda otamiz o'q tekkan sher-day ingrab yuborgani, mushtirar onamiz esa sochini yulib zor-zor yig'lagani aniq. Qavm-qarindosh, qo'ni-qo'shnilar to'planib aza ochganlari ham ma'lum. Biroq ota-onamiz, ayniqsa onamiz sen haqingdagi qoraxatga u qadar ishonmaganlar. Qoraxatga ishonchsizlik bilan qarashlarlariga bois: bir kampir qoraxat olgan ekan-u, lekin o'g'li eshikdan o'z oyog'i bilan kirib kelibdi. Uchqo'rg'onda ham bittasi... Onamiz oxirgi nafasiga qadar sening yo'lingga ko'z tutdi. Yodingdami, ayni saraton qizitgan payt, qo'sh quloqlik xurmachadagi qatiqni bir ko'tarishda bo'shatganing? Onamiz: «Tojiddinim qatiqni yaxshi ko'rardi», deya sen uchun o'sha xurmachada qatiq uyutardi. Non yopganida esa: «Bolam zog'orani yaxshi ko'rardi», deb makkajo'xori unidan alohida xamir oshirardi... Oxirgi marta yo-tib qolganida ikki ko'zi devorda osig'lik turgan, o'sha sen tishlab ketgan patirda bo'ldi. Oh, onaizor!

Tojiddin ham ko'kka boqib oh urganday bo'ldi. Ketimizga qaytdik. Kimsasiz o'rmonda yolg'iz ikkimiz. Uchgan zog' yo'q, faqat oyoq ostidagi to'ng xazon-rezgilargina shitirlaydi. Tepamizda qirov bog'lagan tikan bargli shox-shabbalar sollanib turardi.

Nazarimda, Tojiddin qattiq qayg'urib, hamon oh urardi.

– Ko'p kuyaverma, jigarim, – dedim asta. – O'lim haq. Buni bo'yinga olish kerak. Ota-onamiz yomon yashamadilar. Ular ham turmushning achchiq-chu-chugi, yomon kunlarni ham, yaxshi kunlarni ham ko'rishdi. Ota-onamiz uchun farzand dog'i naqadar og'ir ekanini bilsang eding! Ular bunga ham chidashdi – sabr-qanoati tog'day odamlar edi ota-onalaring. Ular olamdan birovning haqiga xiyonat qilishu dilozorlik nima bilmay, haqgo'ylik bilan yaxshilik urug'ini sochib o'tishdi.



– Sen o‘zing-chi, Sayfiddin? – deganday bo‘ldi Tojiddin ko‘z qirini tashlab.

– Men ham ularning yo‘lini tutganman. Yaxshidan ot qoladi, yomondan -- dod, degan maqol bor. Mana sen, sening qatoringda yotgan do‘stlaring avlodlarimizning bugungi farovon hayoti uchun, fashizmga qarshi qonli kurashda jon berdinglar. Sizlarga chinakam mardona o‘lim nasib etmish. Shuning uchun ham nomlaringiz marmarga o‘yib bitilgan: nomingiz dillarimizda, tillarimizda. Hech qachon na bo‘ron o‘chira oladi, na asrlar suroni. Men ham umid bilan yashayapman... O‘z ishim bilan, o‘z so‘zim bilan ko‘pchilikning dilida ziyo yoqolsam, yaxshilik urug‘ini socholsam deyman... Albatta, urug‘ sochishdan oldin, dehqon shumg‘iyalarni tomiri bilan yo‘qotish, chiritish uchun dalasini shudgorlaydi... Hech narsa hech qachon bemashaqqat, o‘zidan-o‘zi yuzaga kelmagan. Men ham yaxshilik urug‘ini sochay, deb el qatori mehnat qilyapman. Mehnatimning samarasi qachon bo‘lmasin bir kun yuzaga chiqar, yarqirab do‘stlarimning ko‘zlarini quvontirar, dillarida ezgulik uyg‘otar, degan umid bilan yuribman... Yashashning ma‘nosi ham shunda emasmi, jigarim?

O‘rmon go‘yo silkindi. Son ming kumush zarralar ko‘zni qamashtirgudek yaltirab tevarakka sochildi.

Daraxt shoxlari orasidan quyosh ko‘rindi. U uzoqda, tutayotgan qishloq tomlari ustida so‘niqqina yiltillardi.

O‘rmondan chiqib qabristonga qarab yurdik. Haykal qarshisida bir dam to‘xtadik. Kingadir o‘xshaydi. Yerga tikilgan ma‘yus nigohi, yelkasiga tushgan shol ro‘molining popugini tutgan barmoqlari, ko‘m-ko‘k tomirlari o‘ynab chiqqan suyakdor qo‘llari... Aytganday, nimasi bilandir onamga ham o‘xshabroq ketadi, ha-ha, onamizga...

...Qabr tepasiga bordim.

Kun botmoqda. Qaytishim kerak. Buni u ham sezdi. Bilaman, ko‘zi qiymaypti. Ayrilgisi kelmaydi.

– Qo‘yib yubor... ilgimdan tutma. Boray. Hali bu dunyoda mening bitmagan ishlarim ko‘p. Ulgurishim kerak!

Tiriklarning o‘liklardan farqi uning mehnat qilishi, yaratishida emasmi? Men, jilla bo‘lmasa, o‘zim va sen uchun ham ishlashim kerak. Sening tiriklar orasida o‘rning yo‘qolmasligi uchun qol ishlashim kerak!

Ketdim. Orqamga qaray-qaray ketyapman. U engashib, ikki ko‘ziga yosh olib qolganday edi, nazarimda.

– Unutma, – deganday bo‘ldi.

– Yo‘q, jigarim, unutib bo‘lar ekanmi! Qor ketib, tabiat qayta uyg‘onganda kelaman. Maysa-giyohlar gurkirab o‘sganda, lolaqizg‘aldoqlar qir bag‘rini alvon rangga bo‘yaganda... Albatta kelaman quchoq-quchoq gul ko‘tarib, jigarim...





# Odil Yoqubov

(1926–2009)



Odil Yoqubov 1926-yil 20-oktyabrda hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyatining Qaranoq qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1985). ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan (1956). Dastlabki asari – «Tengdoshlar» qissasi 1951-yilda e'lon qilingan. Shundan so'ng yozuvchining «Dastlabki qadam» (1953), «Ikki muhabbat» (1955), «Muqaddas (1960), «Tilla uzuk», «Bir feleton qissasi» (1961), «Qanot juft bo'ladi», «Matluba» (1970) qissa va hikoyalar to'plamlari nashr etilgan. «Er boshiga ish tushsa...» (1966), «Ulug'bek xazinasi» (1973), «Ko'hna dunyo» (1982), «Diyonat» (1977), «Oq qushlar, oppoq qushlar» (1988), «Adolat manzili» (1998) kabi romanlar muallifi. «Chin muhabbat» (1955), «Aytсам tilim, aytmasam dilim kuyadi», «Yurak yonmog'i kerak» (1958), «Olma gullaganda» (1961), «Muzaffar Temur» (1996), «Bir koshona sirlari» (2000) kabi pyesalar, «Dilbarim», «Bahor yomg'irlari» kinossenariylari ham bor (1971).

«Do'stlik» (1994), «El-yurt hurmati» (1998) ordenlari bilan mukofotlangan.

2009-yil 21-dekabrda Toshkentda vafot etgan.

## YAXSHILIK

Men har safar Munavvar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro'y bergan bu og'ir voqea emas, dilimda sal ma'yus va iliq hislar uyg'ongan yoz kuni esimga tushadi.

...Buvimning sersoya bog'i qarindosh-urug'larimizga, tog'amning yor-bi-rodarlariga to'lgan: birov o'choq qurmoqda, birov o'tin yormoqda, birov hovliga suv sepib, so'riga palos yozmoqda. Kechqurun to'y!

Bu shodiyonadan hamma xursand, men ham yig'ilgan bolalarga qo'shilib shov-shuv ko'taraman, dam shotutga o'rmalab, kaptar uyalaridan tuxum qidiram...

To'satdan mirzaterakka chirmashib o'sgan aymoqi tok orasidan buvimning boshi ko'rinadi. U meni imlab chaqiradi, qo'lidagi ro'molidan do'ppimga ikki-uch bosh chillaki uzum soladi:

– Bor, mehmonxonaga eltib ber. Tog'ang, bilan kelinoying... tatib ko'rishsin.

Men do'ppimni ko'kragimga bosib mehmonxonaga qarab chopmoqchi bo'laman, lekin buvim qo'limdan ushlab to'xtatadi, yon-veriga qarab sekin deydi:

– Mabodo... «o'tir», deyishsa, o'tirmagin tag'in. Bir nafas bo'lsayam birga bo'lishsin. Ertaga... – Buvim, lablari piriqirab, gapirolmay qoladi, ro'molining uchini ko'ziga bosadi-yu, imo qiladi: – Bor!

...Tog'am ertaga urushga ketadi. U kecha kechqurun kelinoyimni Toshkentdan «olib qochib kelgan». Qulog'imga chalingan shivir-shivirlarga qaraganda, ular institutda birga o'qishar ekan. Kechasi uyimiz xotin-xalajga to'lib, kelinoyimni ko'rolmagan edim, bugun ertalab podadan qaytayotib, buloq boshida ko'rib qoldim.

Tog'am buloq bo'yiga cho'nqayib, yuzini yuvar, kelinoyim esa egnida atlas ko'ylak, boshida chetlariga gunafsha rang gul tikilgan irak durra, yelkasida sochiq, qo'lida chelak, uning yonida turardi.

Kelinoyim novcha, hatto tog'amdan ham novcharoq, – men buni tog'am yuvinib bo'lib, qaddini rostlaganida payqadim, – uzunchoq yuzli, nozikkina qiz edi. Meni ayniqsa uning xiyol ma'yus qora ko'zlari hayratda qoldirdi. Umuman uning butun vujudida, ochiq, muloyim chehrasida, o'ychan tikilib turishida bo'lakcha bir g'amginlik bor edi.

Men ularga sezdirmay o'tib ketmoqchi edim, tog'am ko'rib qolib, oldiga chaqirib oldi.

– Mana tanishib qo'ying, Munavvarxon, – dedi u. – Boya sizga aytgan jiyanim Mansurpolvon shu yigitcha bo'ladi. Men ketganda birov sizni ranjitadigan bo'lsa... shu yigitga aytib qo'yasiz...

Kelinoyim chelakni chap qo'lga olib, o'ng qo'lini menga cho'zdi, qoshlarini chimirib, muloyim jilmaydi.

– Shunaqami? Tog'angiz ketganda meni birov xafa qilsa... yon bosasizmi menga, Mansurjon?

Men qizarib nimadir deb g'udrandim. Mening o'nimga tog'am javob berdi:

– Yon bosish ham gapmi, sizni ranjitgan odamning kallasini oladi jiyanim, labbay?

Kelinoyim menga qarab ko'zini qisdi:

– Qo'ying, hammani o'zingizga o'xshagan zo'ravon deb o'ylamang!

Tog'am qah-qah otib kuldi. Men esam, ko'nglim ajib bir hislarga to'lib, o'zimni boqqa urdim. O'shandan beri ko'z oldimdan kelinoyimning o'ychan chehrasi, quloqlarimdan erkalab aytgan gaplari ketmas edi.

...Qishloqi soddalikni qarang! Xayolimda hech narsa yo'q, chopganimcha borib mehmonxonaning eshigini sharaqlatib ochibman! To'rda o'tirgan kelinoyim cho'chib o'girildi. Tog'am boshini kelinoyimning tizzasiga qo'yib, sochlarini o'ynab yotgan ekan, o'zini chetga oldi-yu, meni ko'rib yana tishlarini yarqirardi:

– E, senmisan, polvon? Ke?

– Ha, shu... buvimlar uzum berib yubordilar...

– Buvinglarmi? – yana kuldi tog'am. – Qani, opke, uzum bo'lsa, maza qilib tushiraylik bir.

Men uzumni ularning oldidagi dasturxonaga qo'yarkanman, kelinoyimning ko'zlarida halqa-halqa yosh ko'rdim. Uzumni qo'yib, darhol orqamga qaytmoqchi edim, kelinoyim ko'rsatkich barmog'i bilan ko'z yoshlarini sidirib tashladi-da, qo'limdan ushladi.

– O'tiring, Mansurjon, birga uzum yeymiz.

Tog'am ham istar-istamas taklif qildi:

– O'tir!

U bir bosh uzumni kelinoyimga tutarkan, menga ko'zini qisdi:

– Bilasanmi, nimaga yig'layapti kelinoying! To'y eskicha bo'lsin emish, chimildiqqa kirarmishlar...

– Ha, kirmoqchiman, – dedi kelinoyim.

– Ikki bukilib amma-xolalaringga salom bermoqchi emishlar...

Kelinoyim uzun, ingichka barmoqlari bilan uzum donalarini bitta-bitta uzib og'ziga solarkan:

– Nega kulasiz? – dedi. – Umrimizda bir marta bo'ladigan to'y, hammasini ko'rsam deyman. Oyim bechoraniyam xafa qilmang. Mayli, chimildiq tutishsin, «kelin salom» qilishsin, qizlar lapar aytishsin...

– Ana xolos! Salkam oliy ma'lumotli kelinoyingning gaplariga qara!...

– Oliy ma'lumotli bo'lsam nima bo'пти? Axir siz ertaga urushga...

Kelinoyim gapirolmay yuzini chetga burdi.

– Xo'p, xo'p, taslim bo'ldik, azizim! Mayli, chimildiqqayam kiring, amma-xolalarniyam xursand qiling. Faqat yig'lamang, jonim. Qani, ko'z yoshingizni arting, bir jilmaying!... – Tog'am kulib kelinoyimning sochlaridan tortqiladi. Lekin u ham to'lib turgani, o'ziga dalda berish uchungina zo'raki kulayotgani shundoq sezilib turardi... Ko'nglim bir xil bo'lib, sekin chiqib ketdim...

Oqshom to'y bo'ldi. So'lim yoz kechasi qishloq bog'lari ustida ma'yus kuyalar, ayriliq hislariga to'la hazin laparlar yangradi. Kelin kelayotganda (uni qo'shni-miznikidan chiqarishdi), darvoza oldiga gulxan yoqishib, yigitlar yo'lga arqon tutishdi. Buvim, qo'lida bir hovuchcha tanga, dam yig'lab, dam kulib, kelinning boshidan pul sochdi. Qiz-yigitlar ayriliq va hijron alamini tamom unutmogchi bo'lganday, tong otguncha o'yin qilishdi. Ertalab esa guzarga yig'ilgan xaloyiq tog'am boshliq o'ttiz nafar yigitni ko'z yoshi va duolar bilan kuzatib qolishdi...

Tog'am ketgandan keyin kelinoyim o'zini qayoqqa urishini bilmay, olamga sig'may qoldi. U xuddi olis va notanish joyga tushib qolgan kiyik bolasiga o'xshar, atrofida girgитton bo'lgan qarindosh-urug'lar bilan, hatto buvim bilan ham ko'p yozilib gaplashavermas, aksariyat bog'ni yolg'iz kezar, katta-katta ko'zlarini olis-olislariga tikib uzoq o'ylarga cho'mar edi.

Men ba'zan unga har xil kitoblar olib kelib berardim. U kitobni minnatdorchilik bilan olar, meni erkalar, lekin juda kam o'qir yo o'qiy boshlasa ham yar-

miga yetmasdanoq yopib qo‘yar edi. Faqat tog‘amdan xat kelgan kunlari ko‘zlari charaqlab, yashnab-yayrab ketar, katta bog‘ning goh u yeri, goh bu yeridan uning mayin xirgoyisi eshitar edi...

Shu zaylda bir hafta o‘tdi. Keyin, o‘qish boshlanguncha (u maktabga ishga joylashgan edi), uyda «yuragim siqilib ketadi», deb dashtga, bug‘doy o‘rog‘iga chiqib ketdi.

Buvim qancha qistamasin, yalinib-yolvormasin, kelinoyim to o‘qish boshlanmaguncha dashtdan qaytmadi. Men har kuni bo‘lmasa ham, ikki-uch kunda bir xo‘tigimga minib, buvim bergan ikki-uchta to‘qach, qo‘rda ko‘milgan uch-to‘rtta jo‘xori so‘tasi, bir tovoq somsa va bir xurmacha qatiqni xurjunga joylab, dashtga, uning oldiga jo‘nardim.

Kelinoyim, og‘ir mehnatga o‘rganmagan shahar qizi emasmi, sal o‘tmasdanoq ozib-qorayib ketdi. Qiynalib qolgani shundoq sezilib tursa-da, buvimning «salomlariga» kulib javob berardi:

– Oyimlarni tinchitib qo‘ying, Mansurjon, «qiz-juvonlar orasida tupa-tuzuk yuribdi», deng!..

Men unga dil-dilimdan xayrixoh edim. Qishloqda kecha-kunduz pochta-ning yo‘liga tikilib, o‘zi bilan o‘zi olishib yotgandan ko‘ra, bu keng dashtda hamdard, hamnafas tengdoshlari orasida hasratlashib, ular yig‘lashsa yig‘lab, kulishsa kulib yurgani yaxshi emasmi?

Dashtdagilarning ko‘pchiligi xuddi kelinoyimday hijron dog‘idan qablari kabob yosh-yosh qiz-juvonlar edi. Ular, xuddi hamma alam, hamma iztiroblarini mehnatdan olmoqchi bo‘lganday, o‘chakishib, jon-jahdlari bilan ishlashar, kechalari esa tun yarmigacha keng dashtni zir titratib mungli laparlar aytishar, frontdagi yorlariga atab qo‘shiqalar to‘qishar, sodda, lekin bo‘lakcha bir samimiyatga to‘la xatlar yozishar edi... Kelinoyim qizlarning iltimosi bilan ba‘zan ularga «chiroyliroq» xatlar yozib berar, ba‘zan she‘rlar to‘qir, shuning uchun ham hamma uni yaxshi ko‘rar edi.

Kelinoyim meni ko‘zi to‘rt bo‘lib qarshi olar, chunki tog‘amning xatlarini aksariyat men olib kelar edim. Bunday paytlarda kelinoyim dag‘allashib qolgan kichkina kaftlari bilan boshimni mahkam ushlab, ko‘ksiga bosar, peshonamdan o‘par, «Mening chin g‘amxo‘rim, xaloskorim!» deb erkalar, men esam uning yashnab ketgan chehrasini, sevinchdan chaqnagan tim qora ko‘zlarini ko‘rganimda boshim osmonga yetar, unga ko‘proq yaxshilik qilsam, uni ko‘proq quvontirsam der edim.

Kelinoyim shu ketganicha dashtdan o‘qish boshlanish arafasida qaytdi. Lekin o‘qish bir hafta davom etar-etmayoq maktab yopilib, hamma paxta terimiga chiqib ketdi. Xuddi shu orada, sentabrning o‘rtalarida to‘satdan tog‘amdan xat uzilib qoldi.

Tog‘am so‘nggi xatida: «Erta-indin urushga kiramiz» degan edi, shu-shu xat to‘xtadi-qoldi.

Oradan o‘n besh kunlar o‘tganda tog‘am bilan birga jangga kirgan bir hamqishloq yigitdan xat keldi. U yigitning yozishicha, tog‘am yarador bo‘lib, uni gospitalga olib ketgan emish. Yigit buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganini aytgan va tog‘amning adresini so‘ragan edi. Bu xat qorong‘i tunda oftob chiqqanday hammaning

dilini umidga to'ldirdi, ko'zlari yana pochta-chining yo'liga tikildi. Lekin oradan yaqin bir oy fursat o'tdi hamki, tog'amdan darak bo'lmadi. Bu o'rtada haligi hamqishloq yigitga – uning o'zi ham yarador bo'lib, gospitalga tushgan edi – qancha-qancha xatlar yozildi. U yigit tog'am yarador bo'lganini, sanitarkalar uni okopdan ko'tarib olib chiqib ketganini o'z ko'zi bilan ko'rganini yana ta'kidladi. Lekin bundan nima foyda? Tog'amdan hamon darak yo'q edi.

Kelinoyim dastlabki paytlarda o'zini ancha dadil tutdi, umidsizlikka berilmaslikka harakat qildi. Lekin kunlar o'tgan sayin ezilib, axiri juda bo'shashib ketdi. Ayniqsa, hamqishloq yigitning xatlariga qaramay, gospitaldan dom-darak bo'lmagach, tamom ruhi so'nib, ko'ngli cho'kib qoldi.

U daladayam qo'li ishga bormay, allaqanday parishon yurar, arzimagan nar-sagayoq yosh boladay lablari titrab, ko'ziga milt-milt yosh olar edi. Har kuni tush-da, xuddi xat kelsa darrov xabar berishmaydiganday, meni uyga jo'natar, so'ng rangi qochib, ko'zlari mo'ltirab, yo'limni poylardi. Men uchun uning umid bilan javdirab turgan katta qora ko'zlariga qarab «yo'q» deb bosh chayqashdan katta azob yo'q edi!

Odatda men uning ko'zlariga qarashga jur'at etolmay, olisroqdan indamay o'tib ketardim, keyin uning tergan paxtalarini xirmonga tashirkanman yo ariq bo'yidan sigirga pichan o'rarkanman, axir bir kun tog'amdan xat kelishini va men bu xatni uzoqdan ko'rsatib, chopib kelishimni orzu qilardim. Yursam-tursam ko'z oldimdan shu manzara ketmas edi: kelinoyim xatni ko'rganda albatta quvonchdan yig'lar, keyin kular, so'ng meni quchoqlab bag'riga bosar va biz hozirgidan ham inoq va mehribon bo'lib qolarmiz!..

Men kelinoyim deymanu, biroq undan ham buvimga qiyin edi. Har kuni kech-qurun kelinoyim daladan qaytishi bilan mehmonxonaga kirardi-yu, o'zini sim karavotga tashlab yotib olardi, u ko'zini shiftga, bir nuqtaga tikib soatlarcha yotar, buvim esa, usiz ham yuragi laxcha cho'g', qanday qilib uning ko'nglini olishni bilmay, ich-ichidan zil ketar, dam «noumid shayton, sabr qil, bolaginam!» deb koyigan bo'lar, dam o'zi bog'ni gir aylanib, yum-yum yig'lar, nazarimda, u ham-madan ko'ra kelinoyimning ketib qolishidan qo'rqr edi.

Noyabrning o'rtalari edi. Lekin hali sovuq tushmagan, kunlar ilk kuzdagiday iliq, daraxtlarning tagi xazondan gilam to'shalganday qir-qizil, yalang'och bog'lar allaqanday ma'yus va sokin tuyuladi...

Ertalab tegirmonga borish uchun xo'tigimni egarlayotib oshxonadan kelinoyimning xurram ovozi eshitib qoldim.

– Oyijon! Meni aytdi dersiz – bugun xat keladi, – der edi u. – Tush ko'rdim. O'g'lingiz ot o'ynatib kepti.

– Inshoollo, aytganing kelsin, bolam...

Bir lahzadan keyin kelinoyim, ozg'in yuzi allaqanday yorishib ketgan arpa aralash jo'xori solingan to'rvani buvim bilan ko'tarishib chiqdi. Qopni xo'tikka ortishga yordamlashar ekan:

– Tezroq qayt, jon qaynim, – deb kuldi. – Bugun qovoq somsaga to'yib, bir yayraylik!..

Men ham ko'nglim suv ichganday bo'lib xo'tigimni choptirib ketdim. Tush bo'lmasdanoq jo'xorini torttirib qaytib kelganimda uyda hech kim yo'q edi. Unni oshxonaga tushirib, xo'tigimni yetaklab soyga ketdim.

Soyga yaqinlashib qolganimda kekxa shotut tagidagi ulkan qabr oldida o'tirgan buvimga ko'zim tushdi. Buvim bu qabrni avliyo der, har shanba uning ustidagi quloch yetmaydigan arxar shoxiga oq latta bog'lab, kechalari uning mehrobiga moychiroq yoqardi.

Buvim, tagida namat, xuddi erkaklarday cho'kallab o'tirar, lablari nimanidir pichirlar, aftidan, avliyoga iltijo qilardi.

Men buvimni ilgarilari ham bir necha marta shu ahvolda ko'rgandim, lekin u odatda bomdod yo aksincha, namozshom paytlari shunday qilardi, bugun esa... qoq tushda!..

Ko'nglim bir xil bo'lib soyga chiqdim, chiqdim-u, yana dilim yorishib ketdi. Soyda, tollar orasidagi buloq bo'yida kelinoyim qatiqlangan sochini suvga chayib o'tirardi.

U meni ko'rib beliga tushadigan mayin sochlaridagi suvni sidirib tashladi, tez turmaklab, o'rnidan turdi.

– Darrov qaytib qolibsana, qaynim? Hozir qalampir solib shunaqa bir qovoq somsa qilayki, mazasi og'zingda qolsin!

U tog'orasini ko'tarib boqqa kirib ketdi, men esa xo'tigimni tushovlab soylikka qo'yib yubordim-da, buloq bo'yidagi qurib-qovjirab qolgan o'tga cho'zildim.

Qani endi kelinoyimning tushi o'ngidan kelsa-yu, pochtachi menga bir xat tashlab ketsa! Men uni chopacha kelinoyimga eltib bersam, uyimiz ustiga yig'ilgan qora bulutlar tarqab, oftob chiqqanini ko'rsam!

Sekin qaddimni rostlab boqqa qaradim. Shotutning tagida buvim ko'rinmas edi. Men avliyo boboning qabri yoniga borishga iymanib, uning ro'parasiga tiz cho'kdim. Ko'zlarim o'z-o'zidan yumilib, bolalikdagina bo'ladigan bo'lakcha bir samimiyat va ehtiros bilan pichirladim:

– E, qudratli, shafqatli, mehribon avliyo bobo! Tilagimni qabul qil! Kelinoyimning tushi rostga chiqsin! Mehribon buvim bilan kelinoyimning ko'z yoshlarini aritgin, boshlariga tushgan g'am-g'ussadan soqit qil ularni, e, mehribon, qudratli bobo!..

Qulog'imga «Pochtachi! Pochtachi!» degan ovozlari kimganday bo'ldi. Cho'chib ko'zimni ochdim. Qichqirayotganlar – soyda sigir boqib yurgan bolalar edi. Pochtachi – bilagidan snaryad parchasi uzib ketgan qo'li qizil tayoqqa o'xshab qolgan yosh yigit – shalpang quloq eshagini «xix-xix»lab soyning o'rtasida biz tomonga qarab kelardi.

Vahimali, ayni zamonda kuz oftobiday iliq bir tuyg'u vujudimni chulg'ab oldi. Shu topda men pochtachi biznikiga yo'l olganiga, tog'amdan xat olib kelayotganiga zig'irday ham shubha qilmasdim!

O'rnimdan sakrab turdim. O'sha vahimali va qaynoq tuyg'uga bo'ysunib boqqa otildim.

– Buvijon! Kelinoyi! Xat! Tog‘amdan xat!

Uydan oldin qo‘llari xamir buvim yugurib chiqdi, uning ketidan bir qo‘lida taroq, bir qo‘lida ko‘zgu, sochlari parishon kelinoyim ko‘rindi. Rangi devor, sochlari yozilgan, u yonimdan o‘tib, men ko‘rsatgan tomonga chopib ketdi, uning orqasidan xamir qo‘llari bilan elkasiga tushgan ro‘molini to‘g‘rilay-to‘g‘rilay buvim yugurdi. Uchinchi bo‘lib men chopdim. Lekin pochtaoning biz tomonga bu-rilmasdan qo‘shni boqqa o‘ta boshlaganini ko‘rdim, ko‘rdimu, allaqanday sovuq bir hisdan a‘zoyi badanim muzlab, beixtiyor to‘xtab qoldim.

Buloq boshiga borib qolgan kelinoyim oftobda ko‘zqusini charaqlatib qo‘lini siltadi:

– Sho‘ttan uzata qoling xatni! Sho‘ttan...

Ketma-ket buvim ham yetib bordi, hansirab-entikib dedi:

– Voy, qadamingga hasanot, pochtaoni o‘g‘lim! Xatni berginu, o‘zing darvozadan aylanib kira qol. Qovoq somsa qilayotuvdim, nasibangni yeb, suyunchingni opket, bolam...

Pochtaoni eshagini to‘xtatdi. Xuddi soqolini silamoqchi bo‘lganday qizil ta-yoqqa o‘xshagan qo‘lini qimirlatib qo‘ydi, so‘ng yuzini chetga burib po‘ng‘illadi:

– Qaysi xatni aytasiz?

– Xat-da, xat. O‘g‘limdan kelgan xatni aytaman, bolam!

Pochtaoni boshini ko‘tarmasdan:

– Nima qilay, – dedi sekin. – Xat o‘g‘lingizdan emas, gospitalning nachal-nigidan ekan, xolajon. Biz uni... qishloq kengashining raisiga topshirdik...

Kelinoyim yalt etib menga qaradi. Uning ko‘zlarida shunday bir qo‘rquv, shunday bir dahshat bor ediki, men hech qachon o‘rmi to‘lmaydigan yomon bir narsa ro‘y berganini his qildimu, o‘rnimda qoqqan qoziqday qotib qoldim. Buvim esa hamon hech narsa tushunmay:

– Voy, tentak-ey, – dedi kulib. – Uning boshlig‘idan xat keladi-yu, qishloq kengashiga berasanmi, bolam?

Pochtaoni xuddi poygadan qolgan chavandozday jon-jahdi bilan eshagini sa-valab yo‘liga ravona bo‘ldi. Buvim uning ketidan yugurmoqchi bo‘lgan edi, kelinoyim alam to‘la bir ovozda:

– Oyijon! – deb qichqirib yubordi. – Oyijon!.. Qo‘ying! Kerakmas! – U shun-day dedi-da, menga o‘girildi, lablari titrab: – Topgan xushxabaring shu bo‘ldimi? – dedi-yu, nafasi etmay tomog‘ini siladi.

Men uning titragan lablariga qaray olmay boshimni egdim.

– Kechirasiz, – dedim o‘pkam to‘lib. – Men... men yaxshi niyat bilan sizga yaxshilik qilsam deb...

– Yaxshilik! – kelinoyimning ko‘zlari oldin jiqqa yoshga to‘ldi, so‘ng birdan o‘t chaqnadi: – Topgan yaxshiliging shu bo‘lsa... Yo‘qol ko‘zimdan! Yo‘qol!

U bolta tekkan yosh nihoday ikki bukilib, oyog‘i ostidagi tikonga tiz cho‘kib qoldi. Boyadan beri hushini yo‘qotib, bir keliniga, bir menga qarab turgan buvim unga otildi, men esam o‘zimni daraxtzorga urdim...

Sal o'tmay qishloq kengashidan odam chiqdi, bir lahza xotin-xalaj yig'ilib qiy-chuv, yig'i-sig'i boshlandi. Bir haftagacha buvimning uyidan odam arimadi, kecha-yu kunduz yig'i tinmadi. Lekin hech kim, hatto buvim ham meni eslamadi. Men bir haftagacha dodimni aytadigan tirik bir jon topolmay o'zim bilan o'zim olishdim. Axir... men chindan ham kelinoyimni dil-dilimdan yaxshi ko'rganim uchun, uni bir quvontirish uchun, unga yaxshilik qilish uchun shunday qildim-ku! Xuddi shu kuni, xuddi shu soatda qora xat kelganini qayoqdan bilay axir? Nahot kelinoyim buni tushunmasa?

Nihoyat, bir haftadan keyin buvim o'zi meni chaqirib oldi. Men uning allaqanday cho'kib qolgan jussasini, bir parcha bo'lib qolgan yuzini ko'rdimu, o'zimni uning bag'riga otib, yig'lab yubordim.

Men buvimga ko'nglimdagi bor dardimni aytdim. Kelinoyimning diliga ozor berish uchun emas, tog'andan xat kelganiga ishonganim uchun, azbaroyi kelinoyimni quvontirish uchun shunday qilganimni, kelinoyimni hamon yaxshi ko'rishimni, kerak bo'lsa undan jonimni ham ayamasligimni gapirib berdim...

Mehribon buvim! U mening iztiroblaringa tushundi. Kelinoyim bilan gaplashadigan bo'ldi, yig'lay-yig'lay peshonamdan o'pib, boshimni silab tinchitib qo'ydi.

Bilmadim, buvim kelinoyim bilan gaplashdimi, gaplashgan bo'lsa u nima dedi, lekin kelinoyim bir marotaba ham menga qayrilib qaramadi.

Egnida ko'k ko'ylak, boshida ko'k ro'mol, u yaqin bir oy motam tutdi. Ko'nglim xufton, men kecha-yu kunduz uning yo'lini poyladim, bir og'iz so'zga zor, uydan chiqqanda ko'zlariga tikildim, lekin u har safar meni ko'rganda uzoqdan teskari burilib ketar edi. Bir oydan keyin kelinoyim o'z eliga ketadigan bo'ldi. Qarindoshlarimizdan bittasi xo'jalikdan arava so'rab chiqdi. Men loaqal xayrlashar, aqalli yaxshi kunlar xotirasi uchun bir og'iz bir gap aytar, degan umidda ertalabdan yo'lini poyladim.

Yig'i-sig'idan yurak bezor, kelinoyim bilan buvimning xayrlashganini ko'rmaslik uchun soy bo'yiga, birinchi bor tog'am bilan kelinoyimni uchratgan buloq boshiga borib turdim. Arava qo'zg'alib, buloqqa yaqinlashganida sekin yo'lga chiqdim. Kelinoyim, egnida qora palto, boshida qora shol ro'mol, pichan to'shalgan shotili aravada menga teskari qarab o'tirardi.

... Nahot kechirmasa? Nahot bir marta qayrilib ham qaramasa? Aqalli xayrlashmasa?.. «Kelinoyi! Menga bir qarang! Mening dardimga quloq soling! Nima qilay, shunday bo'ldi!.. Xohlasangiz meni uring, o'ldiring, biroq... bir og'iz bir nima deng! Men sizni... shunday yaxshi ko'raman, shunday yaxshi ko'raman!..»

Oramiz yaqin qolganda meni ko'rgan aravakash chol kelinoyimga bir nima dedi. Kelinoyim sekin burilib qaradi, qaradi-yu, yana teskari o'girildi. Nazarimda, uning yig'idan qizarib, shishib ketgan ko'zlari qayta yoshga to'lganday bo'ldi.

Arava yonginamdan o'tib ketdi. Men, dilim qon, unga iltijo qilganimcha orqada qoldim. Arava muyulishdan burilib ketdi, kelinoyim hatto qo'lini ham siltamadi. U mening «yaxshiligim»ni kechirmagan, kechirolmagan edi.



# Pirimqul Qodirov

(1928–2010)



Pirimqul Qodirov 1928-yil 25-oktabrda Tojikiston Respublikasining Shahriston tumanidagi Kengqo'l qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1988). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1978). O'rta Osiyo universitetining sharqshunoslik fakultetini tugatgan (1951). Dastlabki hikoyasi — «Studentlar» (1951). «Qadrim» (1961), «Erk» (1968), «Meros» (1974), «Akramning sarguzashlari» (1974), «Yayra institutga kirmoqchi» (1979), shuningdek, ma'naviy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan «Najot» («Baxillar va botirlar», 1980) qissalari nashr etilgan. «Uch ildiz» (1958), «Qora ko'zlar» (1966), «Olmos kamar» (1976), «Yulduzli tunlar» (1979, ushbu asarning davomi «Avlodlar dovoni», 1989), «Ona lochin nidosi» (2000) kabi romanlar muallifi. O'zbek tili va adabiyotining ilmiy-nazariy masalalariga oid risolalar («Til va dil», 1972 va boshqa) hamda 2 jildli «Adabiyot nazariyasi» uchun «Adabiy asarning tili» va «Adabiy jarayon» boblarini yozgan. «Qadrim» qissasi asosida «Sening izlaring» badiiy filmi, «Yulduzli tunlar» romani va «Jon shirin» hikoyasi asosida ko'p seriyali videofilmlar suratga olingan.

«El-yurt hurmati» (1998), «Buyuk xizmatlari uchun» (2006) ordenlari va «Shuhrat» medali (1994) bilan mukofotlangan.

2010-yil 20-dekabrda Toshkentda vafot etgan.

## ILINJ

*Mening ikki opam urush davrida Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan erlariga sadoqat saqlab, boshqa turmush qurishmadi. Biri ikki o'g'ilni, biri uch farzandni otasiz o'stirib odam qilishdi. Bunday onalar har bir qishloqda, har bir shaharda bor. Men shu hikoya orqali ularning hammasiga cheksiz ehtiromimni izhor qilmoqchiman.*

*Muallif*

Kechasi soat ikkilarda darvoza taqilladi. Ayvonda yotgan Alisher qattiq uxlab qolgan ekan, tezda uygʻonmadi. Darvoza qattiqroq taqillagandan keyin ichki uyning eshigi gʻiyqillab ochildi-yu, Iqbol opa ayvonga chiqdi. Alisher endi uygʻondi va sapchib oʻrnidan turdi. U qorongʻida apil-tapil kiyinar ekan, darvoza tomonga:

– Hozir! – deb qoʻydi.

Iqbol opa ichki bir titroqni bosishga tirishib:

– Tezroq qara-chi, dadang emasmikan? – dedi.

Alisher uyquli tovush bilan qaytarib soʻradi:

– Kim deysiz?

– Dadang!

Alisher taajjub bilan:

– Qiziqsiz-a, oyi! – dedi-da, ayvondan tez tushib, darvozaxonaga qarab ketdi.

Alisherning dadasi Umarjon aka urushda bedarak yoʻqolib ketganiga oʻttiz yildan oshib boryapti.

Iqbol opaning eng qoʻrqqan narsasi – «qoraxat». Bedarak yoʻqolish, har qalay, undan beriroqday tuyuladi. U erining toʻsatdan kirib kelib qolishini kutadi, kechalari darvoza taqillab qolsa, yuragi hapriqib, bolalarga «dadanglar emasmikan?» deyishini qoʻymaydi.

Alisher ham kichikligida oyisiga oʻxshab, doim dadasining yoʻliga koʻz tikib yurar edi. Lekin yoshi ulgʻaygandan keyin otasining tirik qolganiga shubha qila boshladi. Agar u tirik boʻlsa, oʻttiz yildan beri suyuqli xotinini, gulday farzandlarini qidirib topib kelmasmidi?! Yoki dunyoning narigi chetida boʻlsa ham birona darak, biron enlik xat yubormasmidi?!

– Bu urushda nimalar boʻlmagan! – derdi Iqbol opa oʻgʻliga. – Dadanglar yarador paytida asir tushgan boʻlsa, chet mamlakatlarga olib ketib qolishganmi? Boshiga biron koʻrgilik tushgan boʻlsa, «bolalarim isnodga qolmasin», deb ataydan jim yurganmikin? Biror kun oʻzini oqlaydigan yaxshi ish qilsa, yoʻli ochilib, kelib qolarmikin?

Bu taxminlar Alisherda murakkab, chigal oʻy-xayollar uygʻotar edi. Alisher bu chigalliklardan bezganda dadasining jang maydonida halok boʻlganini isbotlashga intilardi. U Moskvada bedarak yoʻqolgan jangchilarni qidirish bilan shugʻullanadigan maxsus idora borligini eshitib, oʻsha yerga bir necha marta xat yozdi. Otasining soʻnggi suratları, xatlari, adreslaridan nusxalar koʻchirtirib yubordi. Qidiruv goh yurishib, goh toʻxtab, bir necha yilga choʻzildi. Nihoyat, bultur kuzda Moskvadan kelgan javobda Umarjon Rahimov xizmat qilgan oʻqchi rotaning koʻpchilik jangchilari Gʻarbiy Ukrainaning Ternopol shahri uchun olib borilgan ogʻir janglarda halok boʻlganligi aytilgan edi. Umarjon Rahimov ham shular qatorida halok boʻlgani taxmin etilgan, lekin buning aniq hujjatlari topilmagan edi. Chunki Ternopol bir marta ozod qilingandan keyin yashirin bosmachi – benderachilarning xiyonati tufayli shahar yana vaqtincha dushman qoʻliga oʻtgan, oʻshanda juda koʻp hujjatlar nest-nobud boʻlib ketgan edi.

Hujjatlar bo'lmasa, balki tirik odamlar bordir? Alisher endi shu savol bilan Ternopol shahar idoralariga, hatto yoshlar tashkilotlariga – yosh iztoparlarning otryadlariga xatlar yozdi. Natija chiqmadi. Kelgan javoblarning birida bu chigal muammoni xat orqali hal qilish qiyinligi, bedarak yo'qolgan jangchilarning belgilarini yaxshi biladigan odam o'zi kelsa biron daragini topishi mumkinligi aytilgan edi.

Kim boradi? Iqbol opa o'ttiz yil fabrikada ishlab, yaqinda pensiyaga chiqqan. Lekin uning sog'lig'i yomon. Qand kasali darmonini ketkazib qo'ygan. Qon bosimi oshib ketgan. Shu ahvolda borsa-yu, to'satdan erining qabrini topsa, so'nggi ilinjidan ham ayrilib, adoyi tamom bo'lmaydimi?

– Men o'zim boraman, – dedi Alisher.

Bunga opasi Mahfuza ko'nmadi:

– Sen dadamni eslolmaysan. Chaqaloq eding. Odamlar biron belgisini so'rasa nima deysan! Men dadamni ko'rganman. Men bora qolay...

Mahfuza jo'nab ketganiga, mana, sakkiz kun bo'ldi. Shuning uchun darvoza taqillaganda Alisherning xayoli darrov opasiga ketdi.

Darvozaxona yo'lagini oqish «Zaporojes» band qilib turar edi. Alisher mashinaning chap yoniga o'tib, qorong'ida elektr chiroqning tugmasini paypaslab topdi. Yo'lakda chiroq yongandan keyin tashqaridan keksa bir odamning;

– Telegramma! – degan xirqiroq tovushi eshitildi.

Alisher darvozaning bir tabaqasini ochdi-da, chiroq yorug'ida telegrammaning kvitansiyasiga qo'l qo'yib berdi.

Bu orada Iqbol opa ham ro'molini boshiga solib, ayvondan darvozaxona oldiga tushib keldi.

Alisher qatlab bekitilgan telegrammani chiroq yorug'iga solib, sabrsizlanib ochdi.

«Qidirganim topildi. Kiyevdan kechki reys bilan uchaman. Toshkent vaqti bilan soat uchda kutib ol. Mahfuza».

«Topildi» degan so'z Alisherni entiktirib yubordi. U oyisiga tomon o'girilib, ko'zlari yaltirab:

– Opam!.. – dedi.

– Nima deпти? Dadangni daragini topibdimi?

– Topganga o'xshaydi!

– Voy xudoim-ey! Qayerda yurgan ekanlar? Nega shu vaqtgacha kelmas ekanlar?!

Iqbol opa erining tirik topilganiga ishonib gapirmoqda edi. Alisher buni sezib birdan xavotirlandi. Balki Mahfuza otalarining... qabrini topgandir. Opa-uka so'nggi paytda otalarining halok bo'lganiga shubha qilmay qo'yishgan edi-ku. Axir tirik odam shuncha yildan beri Ternopolda jim o'tirarmidi? Lekin oyisi buni o'ylamadi. Agar u «tirik topilibdi» deb astoydil ishonib qolsa-yu, keyin buning aksi bo'lib chiqsa, kasali battar og'irlashadi.

– Oyijon, siz darrov ishonavermang!

– Ha, nega endi?

– Sal o‘ylab ko‘ring axir... Opam kelsin, anig‘ini aytadi.

– Qachon kelarkan?

– Tung‘i uchda. Hozir necha bo‘ldiykin?.. O, qirq minut qolirti!.. Men tezroq chiqishim kerak!

Alisherning yoshgina xotini ham uyg‘ondi va shosha-pisha kiyindi. «Zaporojes» vag‘illab, darvozaxonadan ko‘chaga orqasi bilan yurib chiqdi. Iqbol opa o‘g‘li bilan kelinini aeroportga kuzatdi-yu, ayvonga qaytib keldi.

Bir-biridan kichik uch bola ayvonda pishillab uxlab yotibdi. Osmonda kemtik oy suzib yuribdi.

Iqbol opa o‘zi turadigan ichkari uyga kirdi-yu, to‘rdagi eski sandiqning oldiga bordi. Sandiqning ustida qatlanib turgan baxmal ko‘rpalarni pastga olib qo‘ydi. So‘ng tokchadagi mixga osig‘liq kalitni olib, sandiqning qulfiga soldi.

Sandiq mayin ohang chiqarib, jiringlab ochildi-da, uning ichidan qalam-pirmunchoqning hidi keldi. Umarjon aka qalampirmunchoqni yaxshi ko‘rardi. Ba‘zida uning bir-ikki donasini og‘ziga solib, tishlarining orasida aylantirib yurar, gapirganda nafasidan ham qalampirmunchoqning hidi kelardi. Shu esida turgan Iqbol opa uning kiyimlarini, xatlarini qalampirmunchoq bilan birga saqlar edi.

Mana, Umarjon aka bundan o‘ttiz yil oldin kiygan sariq jujuncha kitel-shim, yoqasi bilan yengiga iroqi kashta tikilgan ko‘ylak, xrom etik... Umarjon aka frontdan yozgan xatlarida: «Ikki yosh bolani boqish senga oson emas, uydagi buyumlarini ayama, kerak bo‘lsa, mening kiyimlarimni ham sotib, yegulik ol, omon bo‘lsak narsa topiladi, o‘zingni, bolalarni ehtiyot qil!» deb tayinlar edi. Iqbol opa o‘zining seplarini, taqinchoqlarini sotganda ham, erining hamma kiyimlarini asrab yurar, har yili bir-ikki martadan shamollatib, yana taxlab qo‘yardi. Alisher bo‘y yetib katta yigit bo‘lgunicha jujuncha kitellar, yoqasi kashtalik ko‘ylaklar modadan qoldi. Hozir me‘mor bo‘lib, loyihalar chizib yuradigan Alisher otasining xrom etigini ham kiyadi. Tavba, hozirgi ziyolilar nega etik kiyishmaydi? Umarjon aka ham o‘qituvchi edi-ku. Maktabda botanikadan dars berar edi, lekin etik kiyib yurar edi.

Mayli, sandiqdagi kiyimlar rasmdan chiqqan bo‘lsa ham, agar Umarjon aka kelsa, Iqbol opa bularni eriga albatta kiydiradi.

Sandiqda chiroyli bir nay ham turibdi. Qashqar g‘arovidan ishlangan bu nayning nafis kumush halqalari o‘ziga nihoyatda yarashgan. Nayning bir uchidagi kumush qubbachasi mayda ko‘kish feruza bilan bezatilgan.

Umarjon aka shu nayda ba‘zan «Navo»ni, ba‘zan «Dugoh»ni, ba‘zan Iqbol opa otini bilmaydigan g‘alati kuylarni chalardi. Shunda butun borliq zavqqa to‘lib, erib ketganday bo‘lardi. Hozir ham go‘yo nay birdan tilga kirdi-yu, uni chalayotgan eri Iqbol opaning ko‘zi oldida gavdalandi. Umarjon aka nayning teshigiga labini to‘g‘rilab, og‘zini xiyol ochib, kuy chalganda uning oppoq tishlarida akslangan nurning shu‘lasi kumush halqachalarda bilinar-bilinmas jilvalanardi. Hozir mana shu jilo nayda yana ko‘rinib ketganday bo‘ldi. Umarjon aka nayda chalgan kuylar endi go‘yo Iqbol opaning qalbidan eshitila boshladi. Uning ko‘nglida

ham mana shu nay pardalariga o'xshash nafis, go'zal torlar bor edi-yu, buni faqat Umarjon aka chala olardi.

Eri urushga ketgandan beri Iqbol opa bu nayni hech kimga bergan emas. Nay o'ttiz ikki yildan beri sukut saqlaydi. Iqbol opaning qalbidagi muhabbat tuyg'usi ham hamon Umarjon akaga muntazir...

Umarjon aka shu kiyimlarini kiyib, nay chalib yurgan paytlarida yigirma uch yashar yigit edi. Iqbol opa esa endi yigirmaga kirgan kelinchak edi.

O'sha mas'ud damlari mana shu kiyimlarning qatida, qalampirunchiqning hidiga qo'shib, nayning sirtida jilvalangan shu'lalarga aylanib, hamon tirik turibdi. Rost, Iqbol opa hozir pensiyaga chiqqan, nevara ko'rgan kayvoni. Lekin uning qalbida o'ttiz ikki yillik hijronning haqqi turibdi, shuncha yillarning sarflanmagan nafis tuyg'ulari qatlanib yotibdi. U bir lahzaga bo'lsa ham yana yigirma yoshga qaytishni xohlaydi, suyuqli eri bilan birga o'ttiz-qirqlardan takror o'tishni istaydi.

Faqat bu istakning amalga oshishi uchun Umarjon aka qaytib kelishi kerak. Zora hozir bolalari bilan boshlashib kirib kelsa!

Mahfuza telegrammada «topdim» depdi-ku. Dadasini topmasa shunday dermidi?

Iqbol opaning qalbida shuncha yildan beri yashab kelgan ilinj ishonchga aylandi. U elektr dazmolni qo'ydi. So'ng Umarjon aka kelsa kiyadigan narsalarni sandiqdan olib, dazmollay boshladi...

\* \* \*

Sahar pallada ko'chada «Zaporojes»ning motori vag'illagani eshitildi. Iqbol opa shosha-pisha hovliga chiqqan edi, darvozadan Mahfuza kirib keldi. Ona-bola quchoqlashib ketdilar. Iqbol opa qizining yuziga yuzini bosdi. Shunda Mahfuzaning yuzi ko'z yoshidan nam ekanini sezdi-yu, yuragi «shig'» etdi.

– Qalay borib kelding? Dadangni topdingmi, yo'qmi?!

– Daraklari topildi, oyi...

Alisher mashinasini darvozaxonaga kirgizib, undan tushdi-da:

– Yuringlar, uyga kirib gaplashaylik, – dedi.

Uning ko'rinishi ham allanechuk ma'yus edi. Opasi samolyotdan tushgandan beri aytib bergan hodisalar, o'ttiz yil oldingi shafqatsiz urushning tafsilotlari uni dahshatga keltirgan edi...

Ternopol shahri ikkinchi marta fashistlarning qo'liga o'tgan kuni kechasi Umarjon aka olti xonali bir uyga o'z bo'linmasi bilan bekinib olib, oxirgi nafasi qolguncha jang qilgan. U bu uyda turadigan ayollar bilan bolalarni orqa tomondagi derazadan tushirib, qochirtirib yuborgan. Bo'lmasa, ular ham bitta qolmay halok bo'lar ekan. Chunki fashistlar Umarjon akalar bekingan uyni og'ir tank bilan qulatilib, ustidan bosib o'tgan...

Ternopol dushmandan ikkinchi marta ozod qilinganda xarobalar ostida jon bergan jangchilar jasaki kavlab olinib, birodarlar mozoriga dafn etilgan, ammo ularning ko'plarini tanib bo'lmagan, nomlari aniqlanmay qolgan...

Faqat Umarjon aka orqa derazadan qochirib qutqargan bolalardan biri uni yaxshi eslab qolgan. Shu uyda bir necha vaqt birga turganlarida Umarjon aka o'zining o'zbekistonlik ekanini, Toshkentda bir o'g'il, bir qizi borligini aytgan, bu gap bolaning yodida qolgan. Hozir bu bola – qirq yoshdan oshgan o'qituvchi ekan. Ternopollik iztoparlar Toshkentdagi Alisherning xatini olib, uning otasiga oid hujjatlarni qidirib yurganlarini shu maktabda ishlaydigan haligi o'qituvchi eshitib qoladi.

Qoramag'izdan kelgan, qoshlari ingichka, qiyiq ko'z Mahfuza otasiga juda o'xshash edi. U otasini qidirib borgandan keyin, haligi o'qituvchi bir qarashdayoq Umarjon akani eslaydi. Hatto uni jangchilar «Umar» deb atagani ham endi yodiga tushadi. Umarjon aka derazadan qochirib, qutqarib qolgan ayollardan yana biri shu shaharda yashar ekan. Keyin hammalari harbiy komissariatga borib, Umarjon Rahimovning qanday halok bo'lgani, o'limi oldidan qanday jasorat ko'rsatgani va qayerda dafn etilgani haqida guvohlik beradilar. Umarjon aka shahar markaziga – ulug'vor marmar obida qo'yilgan sakson kishilik birodarlik qabriga dafn etilgan ekan. Lekin uning kimligi, qanday halok bo'lgani haligacha aniqlanmagani uchun marmarga yozilgan nomlar orasida uning nomi yo'q edi. Mahfuza shahar tashkilotlariga uchrashib, marmar obidaga otasining nomini yozdirib qaytdi...

Hozir aeroportdan kelayotib, u buning hammasini ukasi Alisherga aytib berar ekan, ko'ziga qayta-qayta yosh oldi. Alisher unga:

– O'zingizni bosing, opa, oyimga yomon ta'sir qiladi, – deb bir necha marta aytdi.

– Qandoq qilay? Ternopolda yurganimda ham hech ko'z yoshimni to'xtatolmadim. Ko'chadagi odamlardan uyalganimdan qora ko'zoynak taqib yurdim. Ba'zida ko'zoynakning tagidan ham yosh oqib tushayotganini sezib, ro'molcha bilan artib olaman.

– Lekin... haligi... – Alisherning ham o'pkasi to'lib, zo'rg'a gapirdi: – haligi... xarobalar ostida qolib ketganlarini oyimga aytimgan.

– Jinni bo'pmanmi?..

Hozir Mahfuza oyisi bilan ichkari uyga kirganda sandiq yana ochilganini, dadasining yoqasi kashtalik ko'ylagi silliq qilib dazmollab qo'yilganini ko'rdiyu, telegrammada «topdim» deb yozganidan pushaymon bo'ldi. Iqbol opa undan xushxabar kutib, ko'zlari javdirab turibdi. Mahfuza oyisini quchoqlab, yig'i aralash:

– Oyijon, sizga quvvat bersin, mard bo'ling! – dedi.

Iqbol opaning rangi oppoq bo'lib ketdi. Qizining quchog'idan sirg'alib chiqdi-da, bo'shshangan, siniq tovush bilan:

– Nima... Dadang... endi yo'qmi?... – dedi.

– Nega?... Dadamning ruhlari hamisha tirik! Dadam oxirigacha mardona turib bergan ekanlar. Qancha bolalarni onalari bilan qutqarib qolgan ekanlar.

Iqbol opa ingragandek bir tovush bilan:

– Men-chi? – dedi. Meni bu bevalikdan endi kim qutqaradi?

Iqbol opaning og‘zi birdan quruqshab, boshi gir-gir aylana boshladi. Oyisining kasalini yaxshi biladigan Mahfuza:

– Oyijon, buncha qattiq olmang, o‘zingizni bosing! – deb uni sekin divanga o‘tqazdi.

Iqbol opa dazmollab qo‘yilgan yoqasi kashtalik ko‘ylakka qaradi. Endi buni hech kim kiymaydi! Shuncha yildan beri sandiqda asralgan etik ham hech kimga kerak emas! Kumush halqali nayni Umarjon aka endi hech qachon chalmaydi... Bu dahshatli o‘ydan Iqbol opa yig‘lamoqchi bo‘ldi, lekin ko‘ziga yosh kelmadi. Tomog‘idan bir narsa bo‘g‘ib olgan, havo etishmayotgandek qiynalar edi.

Alisher tez oshxonaga chiqib, bir piyola suv olib kirdi. Mahfuza oyisiga suv ichirdi. Keyin uni karavotga yotqizdi.

Kelinlari shifokor edi, darrov shprisni qaynatishga qo‘ydi. U qaynonasiga ukol qilib o‘rganib qolgan edi. Avval qon bosimini tushiradigan, yurakni tinchlantiradigan ukol qildi. Keyin nonushtaga yaqin insulin ukol qildi.

Iqbol opa uch-to‘rt kun o‘tgandan keyin xiyol o‘ziga keldi-yu, Mahfuzadan so‘radi:

– Dadangning surat-puratlari yo‘q ekanmi?

– Suratlarini topolmadim.

Uzoq jimlikdan so‘ng Iqbol opa yana so‘radi:

– O‘z qo‘li bilan qabrga qo‘ygan odam bor ekanmi?..

– Bilmadim... Men unaqa odamni ko‘rganim yo‘q.

Alisher oyisining bu savollari tagida qandaydir ma‘no borligini sezdi. U erining o‘lganiga yana shubha qilmoqda edi. To‘g‘rironog‘i, «Umarjon akam bir kun emas, bir kun kelib qoladi», degan o‘ttiz yillik ilinj Iqbol opaning qalbida yana uyg‘onmoqda edi. Bu ilinjning tagida qanchalik katta mehr, qanchalik cheksiz sadoqat borligini Alisher endi sezmoqda edi. Buning hammasi – hayot-mamot urushida bizga g‘alaba keltirgan ulug‘ tuyg‘ulardan ekaniga ham uning endi aqli yetdi. Shuning uchun onasining qalbidagi ilinjni asrab-avaylagisi keldi.

– Kim biladi oyi, «o‘ldi» deb qoraxat kelganlarning qanchasi tirik qolgan-ku. Balki dadam ham to‘satdan kelib qolarlar...

Bu gaplar Iqbol opaga yoqib, yostiqdand boshini ko‘tardi, zaifgina kulimsirab:

– Tavba! – deb qo‘ydi. – Fabrikada... askarlarga kiyim tikib yurganimda bir juvon bilan o‘rtoqlashib qolgandik. Ikkovimiz ham ilg‘or bo‘lib, gazetalarda ras-mimiz chiqqan edi. Shu dugonamga bir kun qoraxat keldi... Bechora eridan ayrilib rosa yig‘ladi, aza tutdi. Bolasi yo‘q edi... Urushdan keyin boshqa erga tegdi... Bir kuni eshitsam, urushga ketgan eri tirik ekan, to‘satdan kirib kelibdi... Dugonam pushaymon. Armon qilib yig‘laydi...

Shu-shu Mahfuza ham, Alisher ham otalarining o‘limini onalarining oldida tilga olmaydigan bo‘ldilar. Iqbol opa bir hafta ko‘rpa-to‘shak qilib yotdi. Kelini unga har kuni kerakli ukollarni qilib, issiq-sovug‘iga qarab turdi. Keyin u o‘rnidan turib ketdi.

---

Bir kuni yarim kechada yana darvoza taqilladi. Iqbol opa buni yana o'g'lidan oldin eshitdi-yu, Alisherni uyg'otib:

– Qara-chi, dadanglar emasmikan? – dedi.

Darvozani qo'shnilardan biri taqillatgan ekan. Alisher qaytib kelib, pidjagini elkasiga tashladi-da:

– Akbarning xotinini to'lg'oq tutib qolibdi, tug'ruqxonaga olib borishim kerak ekan, – dedi.

Iqbol opa sekin bir «uh» tortdi, lekin o'zini bardam ko'rsatib:

– Mayli, bolam, tezroq olib bora qol, – dedi.

Alisher darvozani ochib, mashinasini ko'chaga olib chiqar ekan, ko'nglida yorug' bir tuyg'u paydo bo'lganini sezdi. Hozir unga ham go'yo otasi urushda o'lmagandek, erta-indin darvozani taqillatib kelib qoladigandek tuyulardi...



# Nosir Fozilov

(1929-yilda tugʻilgan)



Nosir Fozilov 1929-yil 10-iyunda Qozogʻiston Respublikasining Turkiston tumanida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi (1990). Oʻrta Osiyo Davlat universitetini tugatgan (1954). Birinchi toʻplami – «Irmoq» (1959). «Oqim» (1962), «Robinzonlar» (1964), «Qush qanoti bilan» (1965), «Qorxat» (1968), «Koʻklam qissalari» (1970), «Diydor» (1979), «Tanlangan asarlar», 2 jildli (1983–84), «Bollaligim – poshholigim» (1989), «Bir otar toʻpponcha» (1995), «Shum bolaning nabilari» (1995), «Toshkentningnosi» (1996), «Munavvar labzalar» (1997), «Eslasang, koʻngling yorishur» (2004) va boshqa asarlar muallifi. Qoraqalpoq va qozoq yozuvchilarining asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

«El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (1999).

## ROBINZONLAR

Qish ayni avjiga chiqqan mahal edi.

Men maktabdan keldim-da, tez-tez ovqatlandim, ustimga bu yil dadam tik-tirib bergan barra teri poʻstin bilan tulki tumoqni, oyogʻimga sal kattaroq boʻlsa ham, akam ovga kiyadigan yoʻgʻon, uzun qoʻnjlilikni kiydim. Dahlizda turgan bambuk sopli qarmogʻimni, tokchadan dadamning katta qalamtaroshini oldim-da, Seyitlarnikiga qarab yugurdim... Borsam, u ham issiq kiyinib boʻlibdi-yu, biroq qovogʻini osiltirib, bemalol oʻtiribdi. Yonida Matniyoz ham bor.

Matniyozni koʻrdim-u, jon-ponim chiqib ketdi: qiziq, bizlar nima qilmoqchi boʻlsak, u nuqul qarshi chiqadi. Oʻzini kattalardek tutib: «Oʻylab koʻrish kerak», – deydi.

– Qani, ketdik boʻlmasa, – dedim men Seyitga.

– Shu qattiq bo‘ronda-ya! – dedi Matniyoz gapga suqilib, – axir o‘ylab ko‘rish kerak...

– Bizlar o‘ylab ko‘rganmiz, – dedim.

Seyit yalt etib qaradi-yu, sekin o‘rnidan turdi.

U qarmog‘ini, muz o‘yadigan lomni ko‘tarib oldi. Uchalamiz uydan chiqdik. Matniyoz indamay uyi tomon burildi.

To Amu bo‘yiga yetib, muz ustiga chiqqunimizcha Seyit lom-mim demadi. Daryo ustidagi muzga tushib, taxminan o‘rtaga qarab yigirma-o‘ttiz metrcha yurib to‘xtadi. Men qo‘lqopimni kiyib, lom bilan muz o‘ya boshladim. Sezib turibman: Seyit teskari qarab nimadir qilyapti... Men tomonga qarab-qarab tirjayib qo‘yadi. Uni yengidan ushlab o‘zimga qaratdim.

– Bu nima?

– Ko‘rib turibsan-ku! – dedi u kulib.

Uning aqliga hayron qoldim: qarmog‘ining uchiga kichkina batareya lampochkasini bog‘lab, mum bilan silliqlab, suv kirmaydigan qilibdi. Qarmoq iri o‘rniga oq rangli elektr sim tortib tayoqchaga bog‘labdi. Tayoq uchidan oxirigacha o‘sha simni tortib kelib, batareyaga ulabdi.

– Bu nima?

– Gazeta o‘qimaysan, o‘rtoq, – dedi-da, qo‘lidagi qarmoqni bir chetga qo‘ydi, shoshilmasdan qo‘llarini og‘ziga tutib isitgan bo‘ldi, keyin cho‘ntagidan teri qo‘lqopini chiqarib bafurja kiydi-da, qo‘limdagi lomga yopishdi. Jahlim chiqib ketdi.

– Bermayman, avval aytasan, keyin beraman, – deb lomni silkib tortib oldim-u, muzga bir urdim, lom qoq beligacha muzga kirib ketdi, tortib olgan edim, burillab suv chiqa boshladi. Ikkovlashib haligi joyni kengaytirdik.

Seyit qarmog‘ini suvga tashladi, innaykeyin dastaga bog‘langan batareya simlarini bir-biriga uladi-da, chaqqon yotib o‘yilgan joydan suvga qaradi. Men ham mukkamdan tushib qaradim. Qarasam... suv ichidagi haligi lampochka miltillab yonib turibdi... Endi tushundim... Baliq yorug‘likka intilaman deb...

– Voy kalla-ey, – deb Seyitning boshiga bir turtgan edim, xuddi shartlashib qo‘yganday po‘kak suvga sho‘ng‘ib ketdi, ikkalamiz ham o‘rnimizdan uchib turib, qarmoq dastasiga yopishdik.

Mana, hademay, birinchi chavoqbalig dumi bilan muz ustini shapatilay boshladi. Sal o‘tmay ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi... o‘ninchi chavoqbalig, suyenbaliqlar ham muz ustiga chiqdi.

Qancha vaqt o‘tganini bilmayman. Qayerdadir qars etib muz yorildi. Bir silkinib tushganday bo‘ldik. Atrofga alanglab qaradik, daryo o‘rtasi hali qotmagan, sal narida girdob bo‘lib oqayotgan suv ko‘rinib turardi.

Bir mahal shamol qulog‘imizga qandaydir bir chinqirgan tovushni olib keldi. Birinchisiga unchalik ahamiyat bermagan edik, ikkinchisi boyagidan qattiqroq, ayanchliroq eshitildi, boshimizni ko‘tarib atrofga qaradik. Nazarimda, qirg‘oq

uzoqlashib ketgandek, narigi betda birov qalpog'ini qo'liga olib, silkib qich-qiryapti...

– Matniyoz-ku, – dedi Seyit tirjayib, – alam qilyapti shekilli-a?

Mening tilim gapga kelmay qotib qolgan edi. Seyit meni ko'rib shoshib qoldi.

– Nima bo'ldi senga, Olloniyoz?!

– Oqib ketyapmiz, – dedim men yig'lamsirab.

– A?!

Seyit ham, men ham o'z turgan joyimizda qotib qoldik. Ko'p o'tmay qirg'oqdagi haligi odam ko'zdan g'oyib bo'ldi. Rostakamiga qo'rqsa odam yig'lay olmas ekan. Ikkalamizning ko'zimizda ham nam yo'q. Ketib boryapmiz. Ba'zan to'lqin muz parchamiz ustiga sapchib, do'q urganday bo'lardi, o'yilgan joydan chilp-chilp qilib suv chiqib, yana qayta tushadi. Avvaliga bilinmagan edi, biz turgan muz parchasi o'rtaga surilib, tez oqqan sari ko'proq chayqala boshladi. Boyadan beri bizlar bir-birimizni aybdor qilmoqchi bo'lganday, yaqinlashmay, ikkalamiz ikki joyda qaqqayib turgandik, muz chayqalib bizlarni yaqinlashtirib qo'ydi. Bir-birimizni mahkam ushlab, ko'zlarimizni javdiratib atrofdan madad qidirardik. Ammo na u qirg'oqdagi, na bu qirg'oqdagi tilsiz qamishzor, to'qayzordan biror sado eshitilmasdi.

Mana, kechga borib, shamol tindi. Biroq qor uchqunlay boshladi. Bora-bora ko'nikib qoldik, bir-birimizni mahkam quchoqlab, ko'chma muzning o'rtasiga o'tirdik. Seyitni bilmayman, mening yuragimda qo'rquv. U-bu desam, Seyit: «Menmi, senmi baliq oviga boshlagan», – deb ta'na qiladiganday nazarimda. Qayoqdanam shu ishni boshlay qoldim? Asta Seyitga qaradim, uyam, ko'zida yosh-u, tirjayadi tag'in. Kulib yubordim.

– Endi nima qilamiz? – desam, u:

– Ziganshin, Poplavskiylar nima qilgan edi, – deydi tirjayib.

– Qoraqalpoqdan chiqqan Ziganshin, – dedim uni sekin quchoqlab. Shundan keyin gapimiz uzilib qoldi. Atrofimizni qorong'ilik o'ray boshladi. Muz «qayig'imiz» boyagidan sal tinchroq oqsa ham qorong'ilik atrofimizga o'zining ko'lankasini tashlay boshladi. Shunisi tuzuk bo'ldiki, qor taqqa to'xtadi. Nazarimda, kun soviy boshlaganday. «Uf» desang og'zingdan oppoq bug' chiqadi. Quloqchin, tumoqlarimizning bog'ichlari qirovdan oppoq. Atrof zimiston. Daryoning shaldirab oqishi qo'rqinchli, qayerdadir muz muzga urilib qarsillaydi...

«Mabodo bizning tagimizdagi muz parchalansa-chi? Unda nima bo'ladi?!» Shu qo'rqinchli xayol bilan Seyitga qaradim. U ham jim. Xayol surib o'tiribdi.

Mana shunday ahvolda kelayotganimizda «qayig'imiz»ning tumshug'i bir narsaga kelib qattiq urildi. Bizlar o'tirgan joyimizdan bir metrcha joyga sirg'anib borib to'xtadik. Bunday qaragam, qirg'oqqa o'xshaydi; yer, qamish... sevinib ketdim.

– Seyit, tur, – dedim men uni turtib, – qirg'oqqa keldik, muz surilib ketmasdan tushib olaylik...

– Qanaqa yer?! – dedi u o'rnidan turib.

– Bo‘l, tez, muz oqib ketyapti, – dedim shoshilib. – Qarmoqlarni, baliqlarni ol. Bizlar baliqlarni, qarmoqlarni tez-tez qirg‘oqqa otib sakrab chiqib olgan ham edikki, muz parchasi asta-sekin bizdan uzoqlasha boshladi. Qiziq, muz bizdan uzoqlashyaptimi, qirg‘oq uzoqlashyaptimi, bilib bo‘lmas edi.

Nima bo‘lsa ham bo‘ldi, bir amallab yerga chiqib oldik. Xo‘sh, endi nima qilish kerak? O‘ylay boshladik. Hammadan ham shunisi yaxshi bo‘ldiki, bu yer uncha sovuq emasdi, atrofdan iliqroq shamol esardi. Bizlar qamish oralab sal olg‘a yurgandik, oldimizdan suv chiqib qoldi, chapga bir oz yurgandik, yana suv chiqdi, keyin o‘ngga yurdik, yana atrofimizning hammasi suv... Kichik bir orolga chiqib qolibmiz. Endi nima qildik?!

Asta yurib orolning o‘rtasiga keldik. O‘tirib o‘ylay boshladik. Bunday mahalda boshga tuzukroq fikr kelarmidi? Seyit, negadir, o‘rnidan turib, qamishlarning uch-uchidagi popuklarini sindira boshladi.

– Nima qilyapsan?

– Ishing bo‘lmasin, – dedi u salmoq bilan, – qalamtaroshing bormi? Ozroq qamish o‘r, yoqamiz...

Juda quvonib ketdim. Demak, Seyitda gugurt bor ekan. Tezda bir-ikki bog‘ qamish o‘rib keldim. Seyit boyagi popuklarni bir bog‘ qamish tagiga qo‘yib, gugurt chaqdi.

Avvaliga bir oz tutab, keyin yondi. Boyagidan sal isiy boshladik. Biroq qamish lovillab yonib, tez o‘chib qolaverar ekan. Orolchani aylanib, uch-to‘rtta yovvoyi jiyda shox-shabbasini qirqib keldim. Seyit ularni olovga bir-bir tashlab, xayolchan o‘tirarkan:

– Ha, mana endi Robinzon ham bo‘ldik, – dedi xo‘rsinib. Men indamadim.

– Yer qimirlayaptimi? – dedi bir mahal Seyit.

– Nima deb aljiyapsan o‘zing!

– Ana, ana, qaragin.

Rost, orolcha sal chayqalganday bo‘ldi.

– Tag‘in bu ko‘chma orol bo‘lmasin, – dedi Seyit vahima qilib.

– Qo‘y-e, ko‘chma orol Amuda nima qiladi? – dedim men unga tasalli berib, – dadam uni Orol dengizida bo‘ladi, deganlar-ku...

– Hozir Orol dengizida yurgan bo‘lsak-chi?

– Nima! – yuragim shuv etib ketdi. – Rost, atrofimiz hammasi suv...

Ilgarilari Orol dengizida ko‘chma orolcha borligini keksa baliqchilardan, o‘qituvchilardan eshitardik. Mana endi o‘zimiz ko‘chma orol ustida yuribmiz.

– To‘xta-to‘xta... Eshityapsanmi? Samolyot...

Rost, samolyot. Men o‘rnimdan uchib turib, osmonga qaradim. Samolyot! Ikkalamiz kuchimiz boricha baqirdik. U pastlab kelib, o‘ng tomonimizdan o‘tib ketdi. Eh, attang!..

U sal o‘tmay chap tomonimizdan yana ko‘rindi. Men katta, bir uchi yonayotgan shoxni baland ko‘tarib, u yoqdan-bu yoqqa silkidim. Yana u parvo qilmay

o'tib ketdi. O'tib ketdi-yu, yana orqa tomonimizdan pastlab uchib o'tdi. Bu gal ham ovoqimiz boricha qiyqirib, yonayotgan shoxni baland ko'tarib silkidik.

– Ana, ana ko'rirti, ur-re... ko'rirti. Signal beryapti, – dedi Seyit quvonib, – ko'ryapsanmi Olloniyoz, signal beryapti...

Samolyot ko'k, qizil chirog'ini bir o'chirib, bir yondirib, asta-sekin qorong'i tun bag'riga sho'ng'ib ketdi.

– Ko'rganda nima, bu yerga qo'na olarmidi, – dedim men hafsalam pir bo'lib.

– Rost, – deb xo'rsindi Seyit.

Samolyot qaytib kelmadi. Bizlar uni kuta-kuta yana olov atrofiga jim cho'kkaladik. Har kuni bu mahalda men allaqachon ovqatlanib bo'lib, darslarimni tayyorlayotgan bo'lardim. Oyim bugun qanday ovqat qilgan ekan-a? Qornim ochgani endi bilina boshladi... Miyamga bir fikr kelib qoldi:

– Seyit, baliq pishirmaymizmi?

Qorni ochib turgan ekanmi, boyagi tutgan baliqlarni topib kelgani o'rnidan uchib turdi-yu, nimagadir tikilib, qotib qoldi.

– Chiroq, chiroq ko'rinyapti, Olloniyoz, – dedi u quvonib. Men ham o'rnimdan uchib turdim. Qarasam, bir chiroq kelyapti. Ko'zimga u xuddi quyosh oqib kelayotganday ko'rindi. Suv ustida nur o'ynardi. Ana, qandaydir gudok...

– Kater... – dedim men asta. Keyin ikkalamiz rosa baqira boshladik. U tinmay gudok chalib, borgan sari yaqinlashar, bizlar hamon baqirardik. Uning o'tkir yog'dusi kichik orolchani butunlay yoritib kelardi. Sal o'tmay ko'zimiz qamashib, katerga qaray olmay qoldik... Ana, tarillagan tanish tovush, yozda daryoda yuradigan kichkina kater... U sal o'tmay orolchaga tumshug'ini taqadi. Ana, ustidan bir-ikki kishi tushdi. Birortasi ham tanish emasday...

– Seyit, Olloniyoz! – deb qichqirdi kimdir, kater ichidan. Ovozidan darrov tanidim: Matniyoz...

– Qani, qahramonlar katerga chiqinglar, – dedi bir yo'g'on ovozli kishi. Men, rosa boplab urishsa kerak, deb o'ylovdim. Xayriyat, negadir indamadi. Avval, Seyit, keyin men katerga chiqdik. Haligi odamlar ham chiqishdi. Men, Matniyoz, Seyit qator o'tirishdik.

– Rosa qichqirsam ham qaramadinglar, – dedi Matniyoz, – men ham qarmog'imni olib chiqib, shunday qirg'oqqa kelsam, oqib ketayotgan ekansizlar... Qichqirdim-qichqirdim, eshitmadinglar, keyin ovulga qarab yugurdim.

– Qani, ketdik, – dedi haligi ovozi yo'g'on kishi. Qorong'ida basharasi ko'rinmasdi. Faqat ustiga kiyib olgan dengizchilar formasi bilan mo'ylovigina zo'rg'a ko'rinardi. Kater asta orqaga burilib, bir silkindi-yu, suvni yorib suzib ketdi.

– Sizlarning bu joyda ekanligingizni samolyotdan bilishdi, – dedi Matniyoz shivirlab, – qancha odam ovora bo'ldi... O'ylab ko'rish kerak edi...

Seyit uning bu so'ziga indamadi. Men asta Matniyozning bo'ynidan quchoqlab oldim. U qarshilik ko'rsatmadi.

Kater tarillaganicha butun dahshat va qo'rqinchni orqada qoldirib, olg'a intilardi...

# Anvar Muqimov

(1929—1993)



Anvar Muqimov 1929-yil 5-yanvarda Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi Olchin qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent shahrida nemis tili o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olgan. Dastlabki hikoyalari — «Qovun sayli», «Bizning tashabbus». Shundan so'ng yozuvchining «G'alati odamlar» (1969), «Pinhona jang qissasi» (1970), «Xotinimdan o'rgilay» (1972), «Siz bir yondan, biz bir yondan» (1977), «Kichkina bola emasman» (1982), «Qo'qon shamoli» (1986), «Chuqur tekshirish» (1988), «Erinsangiz, kulmang» (1999) kabi asarlari nashr etilgan.

Yozuvchi 1993-yil Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanida vafot etgan.

## QO'QON SHAMOLI

Qo'qon shamoli qishda qutirib ketadi. Tomlarda, daraxtlarda, simyog'ochlarda uvillaydi, o'kiradi, chiyillaydi. Daraxtlarni egadi, bukadi, «qars-qars» sindiradi. Elektr simlarini uzadi, o't chiqaradi. Hammayoqqa dahshat soladi. Shivalab yog'ayotgan qorni o'z mayliga qo'ymay to'zg'itadi, olis-olislarga uchirib borib pastqamliklarga, zovurlarga, burchak-burchaklarga tiqib tashlaydi...

Ayozli kun o'tadi, tig'li tun o'tadi, biroq bu beshafqat shamolning adog'i ko'rinmaydi.

O'shanda ham qahraton qish, qorli bo'ron edi. Latifjonning onasi Jannat xola bir haftadan beri ana ketdi-mana ketdi bo'lib yotardi. Latifjon umrida birinchi marta ishga bormadi. Surunkasiga uch kun bormadi. Singlisi Sharifa, xotini Zulayho bilan birga onasining qoshida bo'ldi. Kolxoz hayotiga doir ba'zi zarur ishlarni telefon va hol so'rab keluvchilar orqali bitirib turdi.

Jannat xola kechga yaqin tildan qoldi. O'zining pastak tomli suyukli hujrasida sandalning to'r tomonida qizil ko'rpa orasida shirga qarab jim yotibdi. Terisi su-

yagiga borib yopishgan, chakka suyaklari boʻrtib chiqqan. Burishgan yuzlari, oriq, kichkina qoʻllari qonsiz, oppoq. Choʻkib ketgan nursiz koʻzlari bolalariga tikiladi. Cheksiz mehr bilan, tengi yoʻq bir qizgʻanish hissi bilan tikiladi. Goʻyo Parvardigor bulardan xolani emas, xoladan bularni tortib olayotganday...

Jannat xola ertalab tuppa-tuzuk edi. Dastlab chorak piyola sut ichdi. Xolaning jondan aziz sakkizta kitobi bor edi. Varaqlari sargʻayib, jildlari qayta-qayta taʼmir qilingan kitoblar. Hammasini bir-bir oʻpib, peshonasiga bosdi. Soʻngra Sharifa uning buyrugʻi bilan kitoblarni oq, odmi roʻmolga tugdi. Latifjon shoti keltirdi. Tugunni shiftga – kampirning qoq peshonasiga osishdi.

– Rahmat, bolalarim, rahmat, – dedi xola. – Umlarning uzoq boʻlsin.

Keyin xola Bedilning bir baytini yoddan oʻqidi. Navoiyning «abadul-abad» ekanligi haqida gapirdi. Soʻng zukko afandi va nodon podsho haqida latifa aytib, hammani kuldirdi. Magnitofondan Munojot Yoʻlchiyevaning lentasini qoʻydirib eshitdi. Munojotni suydi, alqadi. Tushga yaqin tarvuz soʻradi.

– Attang, tugagan edi-yu, – dedi Sharifa qoʻrqa-pisa.

– Topamiz, topamiz, buvijon, – xitob qildi Zulayho va eriga qaradi.

– Ha, tugagan ekan, nega oldinroq aytmaysizlar shuni, – jerkidi Latifjon va tashqariga otildi. – Hozir...

– Qoʻyaqol, bolam, – zorlandi bemor. – Shu zahar ayozda...

Latifjon yoʻq boʻlib ketdi va bir yarim soatlarda ikkita koʻm-koʻk tarvuz qoʻltiqlab kirdi.

– Mana, buvijon, – dedi va etigining qoʻnjidan pichoq olib, tarvuzlardan birini shartta ikkiga boʻldi. Qonday qizil goʻshtini palaxsa-palaxsa qilib tashladi. Keyin mayin jilmaydi. – Qumga koʻmishgan ekan, azamatlar, yozdagiday turibdi.

Zulayho tarvuz etidan maydalab, kampirning tishsiz ogʻziga solib turdi.

– Endi bas, – dedi xola bir ozdan soʻng. – Barakalla, bolalarim. Qolganini oʻzlaring yenglar, narigi uyga opkirib, bolalaring bilan yenglar.

Ayollar, «Rahmat», «Rahmat, sizning yeganingiz – bizning yeganimiz», deb tek oʻtirishaverdi. Bunga kampirning jahli chiqqan boʻldi.

– Gapim oʻtmaydigan boʻlib qolibdi-da, – dedi.

Ayollar, «Kechirasiz, buvijon», deya oʻrinlaridan turdilar va bir palladan tarvuzni koʻtarib, xonadan chiqdilar. Latifjon eshikni zich yopdi-da, onasining yoniga kelib oʻtirdi. «Amringizga muntazirman», deganday uning ogʻziga tikildi.

– Fursat borida gapirib olay, bolam, – dedi xola uzoq oʻylanib yotgandan keyin.

– E, unaqa demang, – choʻchib tushdi Latifjon. – Sogʻayib otday boʻlib ketasiz. Hali sizni Kavkazga olib boraman deb yuribmanu.

Bu tasalli Jannat xolaga yoqmadi.

– Bilib turib yolgʻon gapirmagin-da unaqa, – dedi. – Yolgʻonchilik yomon narsa.

Kampir tez-tez kirrik qoqib, jim qoldi. Soʻng:

Yoshimni yashadim, oshimni oshadim, – dedi zaif bir tovushda. – Mana yetmish yettiga kirdim. Otang hayot bo‘lganda ikki kam saksonga borardi. Urush yedi rahmatlikning boshini.

Xuddi shunday, buvijon, – past tovushda xitob qildi o‘g‘li.

Xola picha dam olgach:

– «El-yurtni yashnataman degan odam, avvalo, o‘zi yashnaydi», degan ekan bir donishmand, – dedi. – Mana, sen ham yashnab, yashnatib yuribsan. Bundan keyin ham yashnagin, iloyim.

Latifjon qulluq qildi.

– Xo‘p, buvijon, xo‘p.

– Keyin singling bilan xotiningni e‘zoz qilgin. Alomat juvonlar, jahonga bergisiz juvonlar.

– Xo‘p, buvijon, hamma aytganlaringizni qilaman.

Kampir jimib qoldi. Uning ikki ko‘zidan ikki dona yosh yaltiradi.

– Qirq olti yillik qadrdomim eding, – dedi ona ovozi qaltirab. – Qirq olti yil hidladim seni. Lekin... to‘ymadim, sira-sira to‘ymadim...

Latifjonning tomog‘iga bir nima tiqilganday bo‘ldi.

– Buvijon... – dedi qaqshab va kampirga tashlandi, yuzlaridan, peshonasidan «cho‘lp-cho‘lp» o‘pdi.

Haligina bo‘lib o‘tgan edi bu suhbat. Shunday bir yaxshi gaplashib o‘tirgan odam to‘satdan tildan ajrab o‘tirsa-ya.

Yarim kechadan o‘tdi hamki, shamol qahridan tushmaydi. Och bo‘riday uvil-laydi, erinmay qor to‘zg‘itadi. Kampir qizil ko‘rpa orasida kichkina bo‘lib, go‘yo shu shamoldan boshqa hech qanday voqea ro‘y bermayotganday osoyishta yotib-di... Boshida Sharifa, o‘ng tomonida Latifjon, chap tomonida Zulayho, uchovining ham ko‘ngli vayron. Sharifa bilan Zulayho ovoz chiqarmay kuyunib yig‘layapti. Dam-badam elkalari tikuv mashinasining «boshi»dagi sakragichday «dik-dik» qilib qoladi. Latifjon jim, dam onasiga, dam uzluksiz chayqalib turgan lampochkaga qaraydi. Chakkasiga ombur solingan odamday betoqatlanadi, panjalarini qisib ezadi, qayiradi... Bir payt tashqarida nimadir taraqlaganday bo‘ldi. Latifjon sergaklandi. Nima ekan? Narigi uyda bolalar yotgan edi, o‘shalarmikan?

Latifjon hovliga chiqdi. Taraqlagan darvoza ekan. Ana, yana taraqladi. Latifjon o‘rmidan turib, eshikka chiqdi. Bilqildoq qor uyumlarini kechib, darvoza tomon bordi. Darvozaxonaning chirog‘ini yoqdi.

– Kim? – dedi baqirib.

– Men, men, Xursandman, – guldiroq ovoz keldi ko‘chadan. – Bemahalda sayyoq yurgan Xursand jinningman.

Xursandali pastroq tovushda kimgadir, «Unday bo‘lsa, mayli, rahmat, katta rahmat», dedi. Yengil mashina jo‘nab ketdi.

Latifjon darvozani ochdi. Haqiqatan Xursandali ekan. Sherigi ham bor. Xursandali Latifjonning qalin do‘sti. Sayyor muxbir. Latifjon singari xushchaqchaq yigit. Marg‘ilonlik.



Ular uzoq vaqt ko'rishmagan edilar, quchoqlasha ketishdi. Latifjon haydovchi yigitni tutib qolmagani uchun Xursandali o'pkalandi. So'ngra darvozani shamolga qarshi zo'r berib itarib yopdi, sharaqlatib qulfladi. Bungacha Xursandali Qo'qon shamoli sha'niga malomat gaplarni yog'dirib tashladi.

– Buncha ham burunga o'ch ekan Qo'qon shamoli, – dedi so'ng. – Bir chaqib qo'ymaydi, ikki chaqib to'ymaydi... Burunni sug'ursang chiqsa ekan, ro'molchaga o'rab cho'ntakka solib qo'ysang, mana bo'lmasa deb!

Latifjon samimiy kulib yubordi. Keyin:

– Senikidaqa ellik oltinchi razmerli burun biz tomonlarda kam-da, – dedi hamon kulib. – O'shaning uchun salmoqdor burun uchrab qolganda, bir burunxo'rlik qilib olaylik deydi-da.

– Shunaqa, – dedi Xursandali kulgidan keyin jiddiy. – Yoz bo'lsa chivin ko'z ochirmaydi. Anovi xartumli chaqadigani bor-ku, o'sha. – Endi hamrohiga qarab davom etdi. – Bularning chivinlari ko'p «odamoxun» bo'ladi. Gulzor yoki biror ariq yoqasida o'tirib qolsangiz, «Qandaysiz in-i-i-imm!..» deb kelaveradi birin-ketin. Beparvo qoldingizmi – tamom! «Hurmatingizni o'miga qo'yadi-da», qizil xaltachani ko'tarib jo'nab qoladi xayr-ma'zurni nasiya qilib. Ne chog'li «iz-zat-ikromga sazovor bo'lganingizni» keyinroq, badaningizning biror punkti jizil-laganda bilasiz...

Mehmon bilan Latifjon yana kulishadi. Xursandali esa, tishining oqini ham ko'rsatmadi.

– E, yuringlar-e, ichkarida gaplashaylik, – dedi Latifjon ularni darvozaxonaning shundoq biqinidagi mehmonxonasiga boshladi. – Juda sovqotib qolibsizlar-a?

Mehmonlar telpak va paltolaridagi qorlarni qoqib, zinada tepina-tepina ichkariga kirishdi. Latifjon kunduzi quruq xodachalarni maydalab qo'ygan edi, darrov o'shani keltirdi. Hol-ahvol so'rab yurib, pechkani lovillatib yubordi. Pechkani yoniga stol qo'ydi. O'tirishdi.

– Bay, bay, bay, o't-a! – Xursandali kaftlarini olovga toblab, bir-biriga ishqadi. – Bo'ylaringdan akang aylangur, o't-a!

– Ko'chada ko'p turib qoldilaringmi? – so'radi Latifjon.

– Uch zum. Shamolga betkay o'zi darvozing. Yana bir zum turganimizda, muzlab haykalday ag'nab tusharmidik. Yaxshi uyg'oq ekansan.

Latifjon kechikib javob qildi:

– Idoradan hozir keldim.

– Raislik ham qiyin-da. Shunday sovuqda. Shamolni qara-ya, – Xursandali sherigiga bosh qimirlatdi. – Qo'qon shamoli mana shunaqa bo'ladi.

– Yomon ekan, – deb qo'ydi mehmon yigit sekin.

Xursandali yurgan yo'lida latifa to'qib, latifa aytib yuradi. Latifa qahramoni ko'pincha o'zi bo'ladi.

– Juda yomon, – dedi u va darrov lof-latifa boshladi. – Bir kuni bolalar hovli-da o'ynab yurishardi. Ha, u vaqtlarda Beshariqqda turardik. (Bu gapi g'irt yolg'on edi.) Men sigirlarga tert qorayotgan edim. Shamol to'satdan «g'uv» etib qoldi.

Yugurib borib, uch bolani ikki qo'ltiqqa urib, uyga chopdim. Ostonadan o'tayotganimda «tars-turs» etganday bo'luvdi, tashqariga chiqsam, sigir ham yo'q, g'ujajin ham. Shamol arqonlarini «shart-shurt» uzib, uchirib ketibdi ikkovini ham!

Mehmon zavq bilan kuldi. Kulgiga Latifjon qo'shildi. Xursandali jiddiy, ko'rsatkich barmog'i bilan ta'kidlab vahima qildi.

– Bir hafta deganda arang topdim. Qarangki, osmonu falakda uchirib borib, Xo'jaqishloqning baqateragiga osib ketibdi, battol! Borsam, sigirposhsho sevimli qizi bilan, «Ne kunlarga qoldik biz-e!» degan ashulani vang qo'yib, osilib yotishibdi baqaterakning ustida! O't o'chiruvchilarga yalinib yurib, arang tushirib olibman bechoralarni.

Yana kulgi ko'tarildi. Xursandali «kuyunib» ketdi.

– He, o'l, bu kuningdan battar bo'l, shamol, deyman! Shu ham ishmi? Xo'p, ana, kasbing sigir uchirish ekan, qurib ketganmidi menikidan boshqa sigir?! Mana, haromxo'rlarnikini uchir, poraxo'rlarnikini uchir, chayqovchilarnikini uchir! Kelib-kelib menikini uchirasanmi? Qalam uchini yalab, zo'rg'a tirikchilik qilayotgan faqir bir gazetachinikini uchirasanmi? Yo bo'lmasa hammanikini baravar uchir – osmon mol bozoriga aylanib ketsin!

Xo'p kulishdi.

– Ha, aytmoqchi, sizlarni bir-birlaringga tanishtirmabman-ku, – Xursandali peshonasiga «shaq-shaq» urdi. – Kalla yo'q-da menda, kalla. Bu kishi buxorolik do'stimiz bo'ladi. Ismi shariflari Aminjon Ne'matov. Moskvada tanishganmiz. Qo'li gul jurnalist.

Latifjon qo'llari ko'ksida, labida tabassum bilan, gavdasini oldinga va orqaga tashlab uch-to'rt bor tebratdi.

– Juda yaxshi, juda soz. Bahonada yana bir do'sting sohibi bo'lib oldik.

Mehmon hafsala bilan taralgan bo'liq, qop-qora sochini silab, «Rahmat, rahmat», deb qo'ydi.

Latifjon jilmayib o'tirardi-yu, fikri-zikri ichkarida edi. Rov kirib chiqmoqchi bo'lib o'rnidan turdi.

– Men hozir...

– Nima «hozir»? – Xursandali uning elkasidan bosib o'tqazib qo'ydi. Xursandalining durustgina kayfi bor edi. Bunday paytlarda aytganini qildirmaguncha qo'ymasdi. Buni Latifjon yaxshi bilardi. Shu tufayli ortiqcha tirqishlik qilmadi. – Oldin tanishtirish marosimi tugasin, keyin kirarsan dasturxonga. Xo'-o'sh... Aminjon bir ish bilan kelib qoldi. Buyoqlarda birinchi marta bo'lishi ekan. Hamzaobodni, So'xni tomosha qildirdim. Rishtonni ko'rsatdim. Oltiariqda yaxshigina o'tirgan edik, birdan sen esimga tushib qolding. Tuman kattalari ko'p qarshilik qilishdi. «Yo'q» deb turib oldim. «Latifjonning ishqiqi tushdimi – tamom», dedim. Mashina to'g'rilab berishdi, mana, keldik. Bir tomoni shamolga rizqimiz tortib turgan ekan. Ertaga Qo'qonni ko'rsatamiz. Xudoyorxonning o'rdasi, adabiyot muzeyi, Muqimiy, Furqat muzeylari – hech qaysisi qolmaydi. Mashina «gum»dir?

– Ha, «gum».

– Birga boramiz-a?

Latifjon hayallab javob berdi:

– Mayli, boraveramiz.

– Malades-s. Xo‘roz yigit mening do‘stim. – Xursandali Latifjonni «cho‘lp» etkazib o‘pib oldi. So‘ng o‘z peshonasiga yana shapaloq tushirdi. – Haqiqatan ham kalla yo‘q menda. Shishaga yaqinroq yuramiz-da, o‘sha chirmoviq quritib turadi xotirani. Hali nima deyotgan edim? Ha, tanishtirish marosimi ketayotgan edi. Bu – qadrdon do‘stim Latifjon bo‘ladi. Haqiqiy latif yigit. Shu kolxozga rais, o‘n to‘qqiz yildan buyon rais! O‘zi Mehnat Qahramoni, orden-medallardan bir choyshabcha bor. Uning buvisi mening ham buvim. «Buvijon», deyman uni. Aytmoqchi, buvijonim qanday? Kirib ko‘rmabman-a, darrov. E, xomkalla. Avval o‘sha kishini ziyorat qilish kerak edi-ku. Yuringlar, ko‘rib chiqaylik.

Xursandali o‘rnidan turdi. Latifjonning rangi oqarib ketdi. Otashkurakni olib «tuppa-tuzuk» yonib turgan olovni tuzatishga behuda urinib, uzoq jim qoldi. Nima qilish kerak? Bu taklifga ko‘nsinmi? Ko‘ngan taqdirida... Yo‘q, bo‘lmaydi. Yo‘qsa, haqiqiy ahvolni aytib qo‘yaqolsinmi? Yo‘q, yo‘q. Shunday dilbar, shunday yayrab-yashnab o‘tirgan yigitlarning ko‘nglini vayron qilmaydi. Qahqaha to‘lgan mehmonxonani azaxonaga aylantirmaydi...

Latifjonning holatini ko‘rib, Xursandali tashvishga tushib qoldi.

– Ha, ranging o‘chib ketdi? – dedi. – Tinchlikmi?

– Astag‘firillo, – Latifjon pechkaning eshigini yopib, Xursandaliga astoydil tikildi. – Buvim Xonobodga, Sharifanikiga ketgan. Boramiz desang, mashina chaqiraman, boramiz...

– E, shunday demaysanmi. Men... Ha, mayli, unday bo‘lsa, ertaga, Qo‘qonga ketaturib tushib, o‘tarmiz.

Xursandali kampirdan ko‘ngli tinchib, yana gapga tushib ketdi.

– Ajoyib buvi, – dedi Aminjonga qarab. – Bayt ham bitadi. Ancha she‘ri tuman gazetasida bosilgan ham. Do‘ppi tikishda unga teng keladigani yo‘q. Bir kuni kelsam, menga atab do‘ppi tikib qo‘yibdi. Lovillaydi. Qarasam, ikkita qalampir-nusxa guli ustida arabcha yozuvi bor. Nozik pushti irak bilan tikib yozibdi. Nima debdi deng? «Xursand otamga, shirin bo‘tamga», debdi. Qoyil qoldim.

Xursandali zavq-shavq bilan gapiryapti. Latifjon Aminjon singari «Hm, o-o», deb o‘tiribdi-yu, ich-ichi qaqshab ketayapti. Yuragining qa‘ridan dard sizib chiqib, ikki marta xuruj qildi. Ikki marta tomog‘ida tutib qoldi. Mehmonlarning payqab qolishidan qo‘rqib, pechkaning eshigini ochdi, gurillab yonayotgan olovni zo‘r berib pufalay ketdi. So‘ng o‘zini o‘nglab oldi-da, keskin harakat bilan o‘rnidan turdi.

– Xo‘sh, nima deysizlar, osh qildiraymi, shavla? – dedi.

Xursandali besh panjasi bilan o‘zini «so‘ydi».

– Mana shunday, – dedi. – Hech narsa kerak emas. Faqat «Ona yuragi» kerak. Shuni aytib bersang bas. – Xursandali mehmonga boqdi. – Arman shoiri

Latifjonning «Ona yuragi» she'rini eshitganmisiz? Bu she'rni Latifjondan eshit-ing-qo'ying. Vodiya yo'q bunaqa shirin aytadigani.

Latifjonning yuragi «shuv» etib ketdi. U bu she'rni chindan ham juda o'rniga qo'yib o'qiydi. Lekin hozir mutlaqo o'qiy olmaydi. Shunday bo'lsa-da, qo'lini ko'ksiga qo'yib:

– Xo'p, xo'p, bajonidil, – dedi zo'r berib iljayib. – Ammo bitta shartim bor: oldin choy damlab chiqaman. Tomoqni «yog'»lab turmasam, she'r yaxshi chiq-maydi.

– Mayli, mayli, – dedi Xursandali va Aminjonga gap uqtira ketdi. – O'zi bu bolada tug'ma talant bor. Shoda-shoda talant. Go'yo tabiat fazilatlar sandig'ini jaranglatib ochgan-u, «Ol, Latif, ol, keragicha olaver», degan. Bu ham misqollab emas, etak-etaklab olavergan, ochko'z. Jussani qarang, jussani! Minorai Kalonday keladi. Shu jussa bilan o'yinni shunaqa ezadiki. Mukarramxon bo'lib keti-e, dey-man. Mahallaning to'yida o'yinni o'zi boshlab beradi.

– Juda maddoh bo'lib ketding-da, – dedi Latifjon. – Bas endi.

Biroq Xursandali bunga e'tibor bermadi.

– Ashulani ayting, ashulani, – dedi Aminjonga qarab. – Tanburni yig'latib «Sayding qo'yaber, sayyod» yoki «Cho'li iroq»ni olganida Orif Alimahsumov yoqa ushlab qoladi.

Latifjon pechkaga ikkita og'irroq o'tin tashlab, tashqariga otildi. Ellik-oltmish metrlik masofani ellik-oltmish qadam qilib, qor uyumlarini pisand qilmay, hovlini ikkita uchburchakka teng bo'lib kesib o'tdi. Oyog'ini «tap-tup» yerga urdi. Yuragi orziqib, hujra eshigini tez, lekin avaylab ochdi. Uning orqasidan shamol ham urib kirdi va yaraqlab turgan chiroqni olib borib shiftga qadadi. Latifjon darrov eshikni yopdi.

Kampir ancha so'lib qolibdi. Shafqatsiz o'lim tobora yaqinlashmoqda edi. Jannat xola o'g'lini ko'rib, boshini sal qimirlatib qo'ydi. Latifjon hech narsa deyolmadi, beixtiyor boshini qimirlatdi va tek turib qoldi.

Sharifa kampirning boshida, onasining oppoq sochini panjalarida mayin tarayapti... Zulayho kampirning yonida, qaynonasining qoqsuyak qo'lini chap qo'li kaftiga qo'yib olib, o'ng qo'li bilan asta-sekin silayapti... Ikkovi ham tebranib, unsiz faryod chekyapti. Ba'zan elkalari «dik-dik» qilib qoladi...

Latifjon onasining oldiga tiz cho'kdi. Kampirning o'ng ko'zidan bir tomchi yosh sizib chiqibdi-yu, to'xtab qolibdi. Latifjon shoshib ro'molchasini oldi-da, engashib yoshni avaylab artdi. Latifjon qaddini rostlamoqchi edi, onasi o'ng qo'lini asta ko'tarib, uning bo'yniga tashladi. Chap qo'lini ko'tara olmadi. Zulayho solib qo'ydi uni erining bo'yniga. Kampir yuziga o'g'lining yuzini uzoq bosib yotdi.

«Buvijonim, – ko'nglidan o'tkazdi Latifjon. – Meni kechiring. Yaxshi e'zoz-lay olmadim... Eh, onam, g'animat onam».

Latifjon «Ona yuragi» she'ridagi bir bema'ni qizning muhabbatiga sazovor bo'laman deb, o'z onasining ko'ksiga xanjar sanchgan va yuragini sug'irib olgan

yigitga la'natlar o'qidi. Yurakning yiqilgan o'g'ilga aytgan so'zlarini dilida takrorladi: «Jonim, bolam, yomon yiqilmadingmi, sog'mi o't-bo'ting?»

Latifjonning ko'zlaridan yosh quyuldi. Elkalari «dik-dik» sakradi. Nihoyat, kampir qo'llarini tushirdi. Latifjon boshini ko'tarib o'tirdi. Ona-bola bir-biriga so'zsiz tikilib qolishdi. Kampirning yupqa, quruq lablari xiyol qimirladi, lekin og'zidan hech qanday tovush chiqmadi. Latifjon og'ir qo'zg'aldi. Choynakka termosdan choy quydi.

– Hozir kelaman, – dedi xasta tovushda. Jannat xola «mayli» deganday bilinar-bilinmas bosh qimirlatdi. Latifjon tashqariga chiqib, qor bilan yuzini yuvdi. Artidi.

Latifjon kirganda, mehmonlar gramplastinkadan askiya eshitishib, sharaqlab kulib o'tirishardi. Latifjon ora-sira kulgiga qo'shilib choy quydi. Xayriyat, askiyaga ovunib, «Ona yuragi»ni unutishibdi. She'rni qayta tilga olishmadi. Askiya tugagach, Xursandali ana shu askiyachilarning qaysinisi qayerlik ekanini, ularning kimlarni mot qilganliklarini gapirishga tushib ketdi. Latifjon mehmonlarga joy qildi. So'ngra:

– Sizlar bemalol gaplashib o'tiringlar, – dedi mehmonlarga. – Men o'tin-po'tin tayyorlab qo'yayin. Basharti, dam olish istagi tug'ilsa, ana joy, marhamat qilib yonboshlayverasizlar.

Mehmonlar ertalab uyg'onib qarashsa, qor tinibdi-yu, shamol hanuz qahridan tushmabdi. Ular choydan so'ng Qo'qonga o'tlanishdi. Darvozaxonada «Volga» mashinasi muntazir edi. Latifjon haydovchi yigitni mehmonlarga tanishtirdi.

– Mana, Odiljon, – dedi, – kechgacha xizmatlaringda bo'ladi.

Xursandali ko'zlarini katta ochdi.

– Ha, o'zing bormaysanmi? – dedi niqtab.

Latifjon sariq etigi bilan qorni asta tekislagan holda bir lahzga sukut qildi. So'ng qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

– Kechirasizlar, – dedi mehmonlarga gunohkorona boqib, – borolmaydigan bo'lib qoldim. Kichkina uzrli ish chiqib qoldi.

– Nima ekan u «kichkina uzrli ish»? – jerkib so'radi Xursandali.

Latifjon ko'zlarini uqalab, ancha jim qoldi. Keyin:

– Shu, shu... volidamiz... haligiday bandalichni qildilar yangitda, – dedi sekin. – Omonatini topshirdi.

Xursandali ko'z va og'zini katta ochib, taxta bo'lib qotib qoldi. Latifjon qalqib chiqqan ko'z yoshlarini yashirish uchun yuzini chetga burdi.

– Nega? Nega? – ovozi boricha qichqirdi Xursandali va savoliga javob ham kutmay, hayqirib Latifjonga tashlandi. Quchoqlab yuz-ko'zlaridan o'paverdi, o'paverdi... Ikki juft azamat yelka tinimsiz silkinaverdi, silkinaverdi...

Shamol esa hanuz darg'azab: qor uyumlarini bearmon to'zg'itadi, daraxt shoxlarini xivich qilib olib, shifer va tunuka tomlarni ayovsiz savalaydi, savalaydi...

# Farhod Musajonov

(1933–2013)



Farhod Musajonov 1933-yil 19-dekabrda Toshkent shahrida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi. ToshDUning sharq fakultetini tamomlagan (1956). Birinchi hikoyasi — «Daradagi qishloqda» (1959). Uning «Oftobni quvalab» (1963), «Boʻsh kelma, Aliqulov!» (1965), «Bir qultum buloq suvi» (1972), «Dushanba, nonushtadan soʻng» (1974), «Bogʻ koʻchamni qoʻmsayman» (1977), «Qilich va soz» (2000), «Lafz» (2003) kabi qissalari va bir qancha hikoyalari bor. Hozirgacha uning «Bahor nafasi» (1964), «Himmat» (1984), «Bogʻ koʻcha» (1987) kabi hikoya va qissalardan iborat 30 ga yaqin toʻplami nashr etilgan. Bundan tashqari u dramaturgiya sohasida ham samarali ijod qilgan («Oq kabutar», «Talvasa» va boshqalar). Shuningdek, «Jazirama oftob ostidagi uy», «Birovning boshi», «Koʻzlarim yoʻlingda», «Huvaydo», «Soʻnmas ziyo» kabi ssenariylar muallifi hamdir.

«Shuhrat» medali bilan taqdirlangan (2000).

2013-yil 28-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

## SABOQ

Osmonni bir tekis bulut qoplagan, yomgʻir maydalab, ezib yogʻardi.

Xodivoyning doʻkoni bozorga kiraverishdagi savdo chaqqon yerda joylashgan, ammo havo past boʻlgani uchun bugun xaridor siyrak. Xodivoy esnab oʻtirgandi, bir mahal sinfdosh oʻrtogʻi shitob bilan bostirib kirib qoldi.

– Ha, oshna, shahding pastroq koʻrinadi? – salom-alik oʻrniga soʻradi Badal.

– Havoni koʻryapsan-ku, – Xodivoy oʻksib javob qildi, – ertalabdan beri hali bir soʻmlik savdo qilganim yoʻq.

– Ogʻzingni ochib, lalayib oʻtirsang albatta savdoning mazasi boʻlmaydi-da. Xafa boʻlmasin-u, sen oʻzi maktabda ham noshudroq eding, – Badalning joni ichiga sigʻmayotgandek oyogʻidan oʻt chaqnaq turardi.

– Hamma senga o‘xshagan uchar bo‘lsa podani kim boqadi, – dedi Xodivoy, maktabdosh o‘rtoqlarning piching, ta‘nalari bir-biriga og‘ir botmasdi.

– Endi og‘ayni, – dedi Badal, – zamon senga boqmasa sen zamonga boq, degan gap bor. Xaridorning o‘zi «aka, uni topib bering, buni topib bering» deb ya-linib keladigan paytlar o‘tib ketdi. Endi teskarisi: sotuvchi xaridorning ko‘nglini ovlashi kerak.

– Nima, meni xaridorni bezdirib yuboradigan so‘tak demoqchimisan? – pisan-da qildi Xodivoy.

Badal og‘aynisining izzat-nafsiga tegib ketganini sezgan bo‘lsa-da, o‘zinikini qo‘ymadi.

– Savdo nozik soha, sirlari, shartlari bor. Ularni bilmaganlarning bozori kasod bo‘ladi. Yaxshi sotuvchi avvalo xaridorning fe‘l-atvorini bilishi, o‘rganishi kerak. Xaridor esa, oshna, jinsi va yoshiga qarab besh-olti toifaga bo‘linadi. Xo‘sh... bi-rinchi toifasi ziqnalar, yomon mijg‘ov bo‘ladi ular, cho‘ntagidan pul chiqishidan ko‘ra tanasidan joni chiqishi osonroq. Ikkinchi toifasi bekorchixo‘jalar, do‘konga mol ko‘rgani, narx-navoni bilgani kiradi. Uchinchi toifa – laqmalar. Bular o‘zla-richa mustaqil ish tutolmaydi. Tanishmi, notanishmi, xullas birovning maslahati, turtkisisiz hech narsa olmaydi. To‘rtinchi toifa ishning ko‘zini biladigan mutafak-kirlar. Bular narsa olishdan avval uch-to‘rt kun hamma do‘konlarni aylanib narx-navoni o‘rganadi, solishtiradi, ana innaykeyin xarid qiladi. Beshinchi toifa g‘a-yirlar, hasadchilar, taqlidchilar. Qo‘shnisi, qarindoshi, dugonasi biron narsa olgan bo‘lsa o‘shandan (kerak bo‘lsa, bo‘lmasa) olmaguncha ko‘ngli joyiga tushmaydi. Oltinchi toifa – vaziyat majburiyatidan kelganlar. Farzandi maktabga boradi, to‘yi yoki boshqa biror marosimi bor. Bular albatta narsa oladi. Savdoning ikkinchi sharti sotuvchining xaridorga muomalasi.

– Muomalani bilsak kerak, – dedi Xodivoy sal ensasi qotib.

– Bilmaysan! Bir sen emas toshkentliklarning aksariyati muomalani bilmaydi. Bir narsaning narxini so‘rasang «bo‘lishi falon so‘m» deb jerkibroq javob beradi. Ha, albatta narxning oldiga «bo‘lishi» degan so‘zni qo‘shib aytadi. Bordi-yu yuz so‘m degan narsasini saksonga tushirsang «unda yuz ellik so‘m» deydi zarda-si qaynab. Xullas savdolashishga imkon qoldirmaydi. Holbuki bozorning yozil-magan, botiniy qonuni savdolashish. Sotgan qimmatga pulladim, olgan arzon-ga tushurdim deb har ikki taraf ham savdolashishdan bahra oladi. Farg‘ona vodiysida bo‘lganmisan?

– Nimaydi? – hayron bo‘ldi Xodivoy.

– Vodiya qaysi do‘konga kirma, qaysi bozorga borma, biror narsani narxi-ni so‘rasang, «falon so‘m, so‘rayverasiz» deb javob qilishadi. Albatta narxidan keyin «so‘rayverasiz» degan so‘zni qo‘shib qo‘yishadi va savdolashishga imkon tug‘dirib berishadi.

– Meniki bozor emas, minimarket.

– Xususiy minimarket, shundoq ekan, buyumning narxini besh-o‘n so‘mga oshirib ko‘rsat-da «oladigan bo‘lsangiz, kelishtirib beraman» deb ayt, shunda mol

utiladi. Qo'rs, dimog'dor, tajang, tund sotuvchining hech qachon savdosi yurishmaydi.

– Endi ba'zi injiq, ziqna, ezma xaridorlar odamni qonini so'rvoradida, -- hi-moyalanishga urindi Xodivoy.

– Ikkinchi og'zingdan bunday gap chiqmasin! – xitob qildi Badal, – Xaridorning injiqligi malol keladigan yuragi tor odam bo'lsang savdoni yig'ishtirib boshqa hunar qil. Xaridor injiq bo'ladimi, g'alchami, bechoraholmi, boyvachchalardanmi, barini iliq kutib ol, shirin muomala qil. Do'koningga kirgan xaridor o'zini xo'jayindek erkin his etsin. Magazin muzey emas. Xaridor istagan narsasini istagancha tekshirib olsin. Sen uning xizmatida bo'l, ammo shilqimlik qilib mol olishga zo'rlama. Zo'rlasang «moli o'tmayotgandirki qistayapti olgani» deb shubha tug'iladi xaridorda. Ba'zi tortinchoq odamlar buyumga yaqinlashgani andisha qiladi, uzoqdan ko'zdan kechiradi, narxini so'rashga ham botinolmaydi, «so'rasam olmasam sotuvchining jahli chiqadi» deb cho'chiydi. Binobarin magazinga kirgan odamning oldiga darrov yugurib borma «nima kerak?» deb. Ha, hurkitvorma, o'ziga tashlab qo'y, aylansin, mollarni obdan ko'zdan kechirsin, bittasini oldida to'xtab senga qarasa ana innaykeyin oldiga bor, butun vujudingni quloq qilib gapini eshit. – Badal og'aynisining ko'ziga tikildi, – Endi savol, birorta odam senda yo'q narsani so'rab kelsa nima qilasan?

– Nima qilardim, yo'q narsani yo'q deyman.

– Ha, valakisalang, bilgandim shunaqa deyishingni. Birov narsa so'rab kelsa hech qachon yo'q demagin. Siz so'ragandan yo'g'u, lekin boshqasi, sifati yaxshirog'i bor, faqat sal qimmatroq deb boshqa buyum ko'rsat. Oladi, chunki qimmatroq, demak yaxshiroq. Endi akasi, kimga qanday murojaat qilish haqida. Do'koningga ayol kishi kirs faqat «kennoyi» deb murojaat qil. Negaki «opaxon» yoki «singiljon»ning zamirida zig'ircha bo'lsada tegajoqlikka shama yotishi mumkin. Ammo «kennoyi» so'zi egrilikni butunlay inkor etadi va faqat oldi-sotdi munosabatlariga xizmat qiladi, ayni paytda sotuvchi bilan xaridor o'rtasida yaqinlik, qarindoshlik rishtalarini bunyod etadi go'yo.

– Nima, unda erkaklar kirs pochcha deymanmi? – Xodivoy gapni hazilga burdi.

– Akajon deysan. Bordi-yu, yoshi ulug'roq bo'lsa, «buyuring doda, nima kerak» deb kutib ol.

– Bo'ldimi, doda, boshqa aql o'rgatmaysizmi, qutuldimmi? – piching qildi Xodivoy.

– Bo'lgani yo'q, savdoning eng oxirgi, asosiy sharti qoldi, – dedi Badal, – do'koningda xaridor doim ko'p bo'lsin, mol oladimi yo'qmi bari bir. Nega desang bo'm-bo'sh do'konga tortinchoq odamlar kirgani iymnadi. Kirsamu hech narsa olmasam sotuvchi ranjiydi, degan andishaga boradi. Boshqalar arziri mol yo'qdirki do'kon bo'm-bo'sh deb eshikdan mo'ralab ketvoradi. Demak magazin-da odam qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Xaridor magazingning fayzi, ko'rki.



Qolaversa xaridor asal aridek gap, bittasi kirs qolganlari duv etib orqasidan uchib kiraveradi.

– O‘zi kirmasa nima, bo‘yniga arqon solib sudrab kiramanmi?

– Yo‘li bor, lakalov, yo‘li bor.

– Qanday yo‘l, – Xodivoyning ensasi qotdi, – gaplaringning hammasi quruq nazariya. Ammo nazariya boshqa, amal boshqa.

– Haqqina rost, – o‘rtog‘ining so‘zini ma‘qulladi Badal, – unda amaliyotga ko‘chamiz. Durustroq dishing bormi?

– Ana ro‘yxati, tanlab olaver.

Badal bitta diskni tanlab muzsentrga tiqib ovozini balandlatib qo‘ydi. Qahqaha kulgi jo‘rligida askiya boshlandi.

– Endi savdo qanday bo‘lishini diqqat bilan kuzatib tur.

Hademay magazinga ikkita mo‘ysafid kirib keldi. Biri ko‘zoynak taqqan baland bo‘yli, qotma. Kiyim boshi eskiroq bo‘lsa ham ozoda, orasta, boshida ohori to‘kilib qolgan shlyapa. Ikkinchisining ko‘rinishi chapaninamo, do‘ppi chekkada, elkasiga belbog‘ tashlab olgan, o‘zi baqaloq, san‘atga dahldor kimsalardan ekanmi, askiyachini tanidi, ismini aytib «buning oldiga tushadigani yo‘q» dedi, so‘ng Badalga boqdi.

– Ukaxon, bu tasma sotiladimi yo o‘zinglar eshitgani qo‘ydinglarmi?

– Nimaydi, doda? – Badal jilmayib so‘radi.

– Iloji bo‘lsa biz ham ko‘chirib olmoqchi edik-da.

– Bizda iloji yo‘q narsaning o‘zi yo‘q, – hozirjavoblik qildi Badal. – Xodivoy, askiyani ikki nusxa ko‘chirib ber.

Xodivoy buyruqni ado etgani kirishdi, unga qadar Badal mo‘ysafidlarni gapga solib turdi.

– Doda, sizni qayerdadir ko‘rgandek bo‘lyapman, – baqaloqqa murojaat etdi Badal.

– Bir paytlar doira chalganmiz, askiyaga ham aralashganmiz, konsert-ponsertda ko‘rgan bo‘lishingiz mumkin, endi nafaqaxo‘rmiz. Qiladigan ishimiz yo‘qligi uchun manavi ko‘zoynak bilan har kuni bir-bir ko‘chalarni aylanib kelamiz. Bu bilan birga yurishimning sababi men chalasavod, to‘pori odamman, buning ichi vij-vij aql. Fizikadan o‘qigansiz-ku, plyus minus tortishadi, – baqaloq o‘zi gapirib o‘zi shox tashlab kuldi.

Qariyalar diskni olib chiqib ketishganlaridan keyin magazinda yana bitta xaridor paydo bo‘ldi. Yasanib kiyingan, qo‘liga shokolad tutqazilgan boladek baxtiyor. Faqat yangi uylangan yigitlar shunaqa libosda va shunaqa kayfiyatda bo‘lishadi.

– Og‘ayni, menga muzsentr kerak edi, o‘zingiz durustrog‘idan tanlab bermasangiz men uncha farqiga bormayman, – dedi yigit.

– Juda soz, sovg‘agami yoki o‘zingizgami, shuni aytsangiz bo‘ldi.

– Nima desam ekan... – iymanib gap boshladi yigit, – to‘ydan oldin qallig‘imga muzsentr va‘da qilgandim, kuy, ashulani yaxshi ko‘radi. Oila qurganimizga bir hafta bo‘ldi, va‘dadan qaytish nomardlik.

– Yashang, lafzi halol yigitlarning sadag'asi ketsang arziydi... – Badal sidqi-dildan kuyov bolani maqtadi.

– Tamom, shu zahoti kuyov bolaning taqdiri Badalning qo'liga o'tdi.

– Sizga keragi shu, – Badal qimmatbaho «Soni» muzsentrini tutqazdi.

Ammo kuyov bola molning narxini eshitib bo'shshib qoldi. Badal sababini darrov sezdi, demak puli kamroq. Darrov boshqa apparat tutqazdi.

– Manavi o'zimizning «Sado», «Soni»dan qolishmaydi, narxi ham arzonroq.

– Kelingiz yaponniki bo'lsin, obdan surishtirib, yaxshisini oling degandi, – xijolatomuz gapirdi kuyov bola.

– Juda to'g'ri aytibdilar, «Sado» kelinga yoqadi, o'zimizda ishlab chiqarilganiga qaramay sifati chet elniki bilan bir xil. Unda nega arzonroq deb so'rarsiz. Sababi oddiy, chet elning buyumi ustiga kira haqi qo'yiladi. Axir bitta narsani Yaponiya yoki Singapurdan olib kelishning xarajati qanchaga tushishini o'zingiz chamalab ko'ring, – Badal birdan ovozini pasaytirib, sirli ovozda davom etdi, – men chet el molini asti kamsitmoqchi emasman, sifati, ko'rinishi zo'r. Ammo ochig'ini aytish kerak, uzoq yo'l bosib kelgan buyumdan sal cho'chiyman. Qanchalik avaylab olib kelinmasin urunadi, ichidagi ashqal-dashqallari salpal joyidan siljib qolishi mumkin, apparatlar nozik narsada, qolaversa plastmass, zamenitellardan ishlanadi, albatta yaponni moli chiroyli, sifatli. Obro' uchun, yasatib qo'yish uchun yaponiyani ma'qul, lekin kundalik ishlatishga kelganda o'zimizning moldan o'taversin.

Shu payt bir ayol paydo bo'lib, gapga quloq tutib turdi. Badal unga e'tibor bermay mahsulotimizni maqtashda davom etdi.

– Bizning apparaturalarimiz yaponniki singari qushdek yengil emas, g'ozig'ir. Nega? Chunki tabiiy, asl xomashyodan yasalgan. Bilmasdan tushurib yuborasizmi, oftob yoki yomg'irda qolib ketadimi, pisand qilmaydi, ertalabdan kechgacha varanglab ishlab yotaveradi. Ishonsangiz o'zim ham shundan olganman.

– Nima qilsam ekan, dangal bittasini olaversammikin? – kuyov bola ikkilandi.

– O'ychining o'yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitarkan, – dedi Badal kulimsirab, – ammo zo'rlash yo'q, yana o'ylab ko'ring.

– E bo'ldi, bering bittasini, – kuyov bola cho'ntak kovlay boshladi.

– Xodivoy, og'aynimizga «Sado» berror.

Shundan keyin Badal xushxonlik bilan navbat kutib turgan ayolga boqdi.

– Keling kennoyi.

– To'ng'ichimiz sakkizinchi sinfni bitiryapti, shunga adasi muzsentr olib bermoqchiydilar, – ayol nihoyatda oriyatli, hamiyatli ekan, mayin ovozda iltijo qildi.

Badal madaniyatli xaridorlar bilan muomala qilishni ham o'rinlatardi, me'yoridan oshib ketmaydigan tavoze bilan.

– Juda soz, – dedi, keyin qator terib qo'yilgan apparaturalarga ishora qildi, – yoqqanini tanlayvering.

Ammo ayol ularga qiyo boqmad.

– Boyagi yigit olganining ta’rifini eshiddim, menga ham o‘shandan beraqoling.

Badalning ko‘ziga ayol to‘q oiladan bo‘lib ko‘rindi, shu bois hozirgina «Sado»ni maqtab turgan odam darrov «siyosat»ni o‘zgartirdi.

– Kennoyi, siz «Soni» olavering. Hozirgi yoshlar juda zukko bo‘lib ketishgan, faqat importniy narsa kerak ularga, o‘zimizning buyumlarni nazarga ilishmaydi, «Sado»ga gap yo‘q, ammo o‘g‘lingizga yoqmaydi. Sababi o‘sha-o‘sha, yoshlar modaning ketidan quvishadi. Meni to‘qqiz yashar qizcham bor, o‘sha halitdan kiyim tanlaydi, chet elnikini olib berasiz, deb xarxasha qiladi, – Badal beg‘araz kuldidi, – sizni o‘g‘lingiz sakkizni bitirayotgan bo‘lsa katta yigit bo‘lib qolibdi, ra‘yiga qaramasdan ilojinglar yo‘q, axir o‘zi tayinlagandir qanaqasidan olish kerakligini.

– Tayinlagan, magnitofonni ham yaponnikini oldirgandi, ammo u eskirib qoldi, endi modada muhsentir.

– Ana aytdim-ku, «Sado»ni olsangiz kelib almashtirib ketishingizga to‘g‘ri keladi, – Badal ayolning oldiga «Soni» qo‘ydi. – Bu sal qimmatrog‘u, lekin qimmatda bir hikmat bor, arzonda bir illat bor deyдилar. Shundoq ekan, adashmay desangiz «Soni»ni olavering. Yaponiya apparatlarining sifati, dizayni havas qilsa arzigulik, buni tan olmasdan ilojimiz yo‘q, bekorga butun dunyoga dovrug‘i ketmagan. Ularning molini olsangiz pulingiz o‘zingiz bilan ketadi.

– Bo‘pti, beraqoling, – ayol qo‘li ostida turgan «Soni»ni o‘z oldiga surdi.

– Yo‘q, kennoyi, buni sizga bermayman, – dedi Badal qat‘iy ohangda.

Ayol taajjubdan ko‘zlari piri-pirab Badalga savolchan boqdi.

– Peshtaxtada turgan narsaga chang-pang qo‘nadi, har xil odamlar ushlab, aylantirib ko‘radi. Har holda qo‘l tekkanda. Sizga ichkaridan boshqasini opchiqib beramiz, karton qutida, ochib, ishlatib ko‘rib olasiz. Xodivoy, kennoyimga qara!

– Voy, rahmat sizga, – ayol quvonib ketib Xodivoyning yoniga yo‘naldi.

Shu payt magazina shoshilib ikkita o‘rta yashar erkak kirib keldi. Badal bir qarashdayoq ularning qanday xaridor ekanliklarini, ne maqsadda kelganlarini aniqladi.

– Og‘ayni, bizga sovg‘abop narsa kerak, – shoshibroq so‘z boshladi erkaklarning qoramag‘izdan kelgani.

– Gap yo‘q, – dedi Badal hozirjavoblik bilan, – sizlar sovg‘a kimgaligini, tavalludi nishonlanayotgan hamkasblaringiz erkakmi, ayolmi, shunisini aytanglar bo‘ldi, xuddi ko‘nglingizdagi narsani topib beramiz.

Erkaklar Badalning topqirligiga, sovg‘a haqiqatda hamkasblarining tug‘ilgan kuniga ekanligini bilganiga qoyil qoldilar.

– Bir opaxonimiz 55 yoshga to‘lyaptilar, sovg‘a o‘shalarga, – degan javob oldi Badal.

– Bir daqiqa sabr qilasizlar, hozir qotiramiz, – Badalning ovozi ham muloyim, ham jiddiy edi, – Xodivoy, anavindan qolganmidi?

Xodivoy «nimadan?» deb so‘ramoqchi bo‘lgandi, Badal uni qo‘ltig‘idan olib ombor vazifasini o‘taydigan ichkari xonaga boshladi.

– O‘tmay yotgan moling bormi? – deb so‘radi Badal ichkariga kirganlari hamon.

– Choynak-piyola servizi bor, ikki yildan oshdi yotganiga, – dedi Xodivoy.

– Darrov changini artib olib chiq, – Badal xaridorlar yoniga yo‘naldi, Xodivoy molni epaqaga kelturguncha erkaklarni gapga solib turdi, – ayol kishiga, ayniqsa ellikdan oshgan bo‘lsa atir-upadan ko‘ra ro‘zg‘orbop narsa ma‘qul. Choynak-piyola kunda ishlatiladigan narsa, darz ketishi bor, sinishi bor, shuning uchun qancha bo‘lsa ham olaverishadi, sifati zo‘r bo‘lsa servantlarga taxlab yasatib qo‘yishadi.

Xodivoy bitta choynak va o‘n ikkita piyola olib chiqib peshtaxta ustiga yoyib qo‘ydi. Badal qalam bilan xuddi chang asbobini chalgandek bir lahzada o‘n ikkita piyolani chertib chiqdi.

– Xitoy chinnisining jaranglashiga besh ketaman-da, musiqaday quloqqa yoqadi, – dedi Badal va hali xaridorlar piyolalarni ko‘rib ulgurmaslaridan Xodivoyga buyurdi, – servizni chiroyli qutiga joylab ustidan shoyi tasma bilan bog‘lab ber. Sovg‘a sovg‘aga o‘xshasin.

Xodivoy piyolalarni qutiga joylay boshladi.

– Bundan atigi olti komplekt olgandik, sizlarga o‘xshagan akaxonlarimizning hojatini chiqarish uchun omborga tashlab qo‘ygandik, oxirgisi sizlarga nasib etdi, – dedi Badal. – Ammo buni opaxonimiz bari bir ro‘zg‘orga ishlatmaydilar.

– Iye, nega? – ajablanishdi erkaklar.

– Asl mol-da, shuning uchun qizlari bo‘lsa sepiga qo‘shib qo‘yadilar, o‘g‘illari bo‘lsa kelinga olib qo‘yadilar, o‘zlariga ishlatgani ko‘zlari qiymaydi.

Ikkala erkak asl mol olganlaridan ko‘ngillari ko‘tarilib eshik tomon yo‘naladilar.

– Yomonsan, – shu tariqa o‘rtog‘ini maqtadi Xodivoy, – serviz savil qolib yotgani uchun yarim narxiga sotib yubormoqchi bo‘lib yurgandim.

– Hoy lapashang, erkaklar ikkita bo‘lib kelsa bilginki, birorta hamkasblarining yubileyiga yoki chet ellik mehmonga sovg‘a oladilar. Bundaylar pul o‘rtada yig‘ilgani uchun savdolashib o‘tirmaydi, mijg‘ovlik qilib buyum tanlamaydi, tutqazganingni olib ketaveradi. Ayniqsa Yangi yil, Navro‘z, sakkizinchi mart bayramlari oldidan erkaklar serqatnov bo‘lib qoladilar. Demak bunday qulay paytdan imkoni boricha foydalanib o‘tmay yotgan narsalarni urvor. Ba‘zi yuho, kaltabin sotuvchilarga o‘xshab bayramlardan oldin bozor chaqqon bo‘ladi, deb narxni aslo oshirma. Chet elliklardan o‘rnak ol, ular bayramlar arafasida narxni tushiradilar. Chunki ishning ko‘zini biladi ular, bitta buyumni o‘n kun deganda ming so‘mga sotgandan ko‘ra o‘sha buyumni o‘ntasini bir kunda sakkiz yuz so‘mdan sotgan ko‘proq foyda keltiradi. Usta do‘kondor bo‘lsang shunga amal qil!

– Buni bilaman.

– Endi ayollarga kelsak...

– E, ayollar odamni yomon qiynab yuboradi, – Xodivoy qo‘l siltadi.

– Bekor gap, narsa oladiganlar asosan, ayollar. Shuning uchun ularning tilini bilishing kerak. Xo‘sh, – Badal nafas rostlab oldi, – inson bolasi borki barida ichki

raqobat bo'ladi, men sendan qolishmayman, deb musobaqalashib yashaydi. Havas, hasaddan hech kim mustasno emas, farqi birovda ko'proq, birovda kamroq, ayollarda erkaklarga nisbatan hasad sal ko'proq bo'ladi, mashhur aktrisalarga, xonandalarga, yulduzlarga taqlid qilishni yaxshi ko'radilar. O'shalarga o'xshab kiyinishga, pardoz-andoz qilishga tirishadilar. Demak ayollar kelsa nima qilishing kerak?

– Quchoq ochib kutib olishim kerak, – hazillashdi Xodivoy.

Shu payt do'konga bir boyvachcha juvon kirib qoldi. Egnida allambalo matodan tikilgan yaltiroq ko'ylak, qulog'ida olmosdan zirak, qo'lida qo'sha-qo'sha qimmatbaho uzuklar, bo'ynida shoda-shoda marvarid. Ko'rinishi ruslarning «chiroyli bo'lma, baxtli bo'l» degan gapini tasdiqlardi.

Badalning qulog'i dikkayib o'lja tuzoqqa yaqinlashishini kutdi. Juvon atir-upalarni ko'zdan kechira boshladi, keyin Badalga nazar tashladi.

– Menga yaxshi kosmetika kerak, – dedi sekin ovoz bilan.

Juvonning ola-chiror kiyinishidan didi pastligi bilinib turardi. Ustiga ustak achayin taniq, yengiltak ham ekan. Bundaylar bilan gaplashishni Badal qoyil-latardi. Ko'zlarini chaqchaytirib chapanisiga dedi:

– Bizani magazinga kirib jayam to'g'ri qirsiz, kosmetikani zo'ri sho'tta. Bizadan silaga o'xshaganlar narsa olmasa uncha-munchani qurbi yetmaydi.

– Voy nimaga? – o'zini go'llika soldi erkatoy juvon.

– Narxiga chidolmaydi, – xiringladi Badal.

– Shunaqa deng, – taltayib qiqirladi juvon, – menga «Shanel»ni ko'rsating.

– Shanelmi? – Badal o'sal bo'lib yuzini ayanchli burishtirdi, – undan qolmagandi-ku, o'ziz bilas, fransuz duxiylarini bozori chaqqon.

– Voy, ana turibdi-ku, – po'pisa aralash o'pkaladi juvon.

Badal atir-upalar taxlab qo'yilgan javonga qaradi, «Shanel»ni «ko'rib» tiz-zasiga shapatilab qichqirdi.

– Iye, bitta qolgan ekanu, man hammasi sotilib ketgan deb o'ylovdim. Omadi kulgan juvon ekansiz, – Badal «Shanel»ni olib peshtaxta ustiga qo'ydi, – oxirigisi sizga buyurdi.

Juvon timsoh terisidan ishlangan sumkasini ochib pul oldi, ammo Badal unga imkon bermadi hisob-kitob qilgani.

– Kremni qanaqasidan olasiz? – deb so'radi.

Faqat duxiga kelgan juvon krem olishga ham rozi bo'ldi, bittasini tanlagan edi, Badal qo'lidan yulib oldi.

– Bu sizga bo'maydi, – dedi o'dag'aylab, juvon taxminan Badal bilan tengdosh, 35–40 yoshlarda edi, – buni o'ttizdan oshgan ayollar ishlatadi, ajinini ketkazish uchun. Siz yoshlarga keragi manavi, jenshen ekstrakti, bodom yog'i, bodring suvi omixtasidan tayyorlangan, sursangiz yuzni oydek yashnatadi.

– Bo'пти, – juvon kremni ham olishga ko'ndi.

– Shampunni qaysinisidan beray? – deb so'radi Badal.

– Voy, uyda shampunim to‘lib yotibdi, – chekinishga urinib ko‘rdi juvon qiyshanglab, – ming xili bor.

– Bunaqasi yo‘q, – Badal peshtaxtaning ostidan bitta shampun olib juvonga tutqazdi, – kecha falonchixon (Badal mashhur xonanda ayolning nomini aytdi) shundan to‘rttasini obketti, ko‘rboqing.

Mashhur yulduz olgan shampun tabiiyki juvonga ham yoqdi.

– O‘zingiz o‘sha yulduzga o‘xshaysiz desam, didingiz ham bir xil ekan, qarang, unga yoqqani sizgayam ma‘qul tushdi.

Juvon maqtovdan erib ketib burnini qanqaytirdi.

– Qancha bo‘ldi hammasi? – deb so‘radi dimog‘ bilan.

Badal kalkulyatorda hisobladi narxlarni.

– Mana shu pomadani qo‘shvorsak roppa-rosa ikki yuz ming bo‘larkan.

Sizga yana bitta sirni ayta, falonchixon (yana mashhur yulduzni tilga oldi Badal) faqat mana shu pomadani ishlatadi. Labini ko‘rasizu, sharbat sizib turgan-dek yaltirab turadi.

Juvon pomadani ham olishga majbur bo‘ldi, biroq qanchalik boyvachcha bo‘lmasin katta xarajatga tushgani uchun sal achingandek ko‘rindi Badalning ko‘ziga.

– Pochchamning pullariga xudo baraka bersin, ammo... – Badal sal ovozini pasaytirib tagdor gap qildi, – ammo baxtli erkak ekanlar.

Garchi «sizdek go‘zal xotini borligi uchun» deb qo‘shib qo‘ymagan bo‘lsa-da, juvon qanchalik yengiltak bo‘lmasin, Badalning qochirig‘ini tushundi. Va o‘zini eng go‘zal ayol his etib baxtiyor va mag‘rur qiyofada magazinni tark etdi.

– Xey buzuqi, boya xaridor ayollarga aslo tegajoqlik qilmagin, kennoyi deb murojaat qil degandin-ku. Bu yog‘i qandoq bo‘ldi?! – ta‘na qildi Xodivoy.

– Har qanday qoidani ham istisnosi bo‘ladi. Deylik mashinada ketyapsan, chorrahaga yetganingda ko‘k chiroq yondi. Ammo ayol kishi o‘tayotganini ko‘rib to‘xtab yo‘l berding. Bunday qoidabuzarlik na faqat oqlanadi, balki rag‘batlantiriladi ham! Demak ayollarning ko‘nglini ko‘tarish uchun ba‘zida iliq gap qilsang buning aybi yo‘q.

Shu gapning ustiga magazinga eru xotin kirib keldi. Kiyim-boshlaridan o‘rta hol ekanliklari bilinib turardi.

Erning basharasi ayanchli burishgan, bo‘yniga arqon solib sudrab kirilgan odamninggina ko‘rinishi shunday tushkun va achinarli bo‘lishi mumkin. Xotin gazlamalar yoyib qo‘yilgan peshtaxta yoniga borib matolarni ko‘zdan kechira boshladi, er orqaroqda jonsarak ahvolda turar, iloji bo‘lsa tezroq qochib qolish payida edi.

– Hoy, dadasi, mana shu matodan ikki ko‘ylakli olaylik, rangi chiroyli ekan, choki ham pishiq to‘qilgan, chidamli matoga o‘xshaydi. Keling, o‘zingiz ham ko‘ring.

Er matoga tuzukroq qaramadi ham.

– Hozir zarurmi shu...

– Qanaqasiz?! Ayollar bugun qiz ko'rsa ertasidan boshlab sandiqqa sep yig'ishadi. Sizni qizingiz o'n oltiga to'lyapti, hali bir metr mato olib qo'yganimiz yo'q. Hademay sovcilar kela boshlasa, nima, quruq bo'yini uzatasizmi? – bobil-lab berdi xotin.

– Metiri necha so'mdan ekan?

– Mana yozib qo'yibdi, bir yarim ming.

– Bo'lmaydi, – narxini eshitib er orqasiga tisarildi, – juda ola chiror ekan. Gu-ruch kerak, kartoshka kerak deytoganding, o'shanga o'taylik, ha sen avval qozon qaynatishni o'yla, matoni keyinroq olarmiz.

– Qachon keyin? Maoshingiz uch kunda tugaydi, pulingiz borida jilla qursa ikki jo'ra olib qo'yaylik shundan.

– Olamiz vaqti-soati bilan, yur. Tanlagan matoing menga yoqmadi, dedim-ku, bachkana.

Badal er-xotinni zimdan kuzatib turgandi, sezdi ki o'rtaga tushmasa er juftakni rostlab qoladigan. U mol olmoqchi bo'lgan ayolni emas erning yonini olishdan boshladi gapni.

– Kennoyi, amakim to'g'ri aytyaptilar, siz tanlagan mato yomon emas-u, ammo qizning sepiga yaramaydi, – dedi Badal va shu tariqa erni o'z tarafiga og'di-rib oldi, – mana bularni ko'rboqinglar-chi, boypo'rim, sifati ham zo'r.

Badal devorga tirab qo'yilgan o'ram-o'ram matolarning nomlarini sanay ketdi.

– Shifon, velyur, gepyur, trikotin, krepdeshin – bari xorijiy matolar. Mana bular o'zimizning mahsulot: duxoba, chiyduxoba, baxmal, shoyi, surp, satin. At-lasning ham uch-to'rt xili bor. Xonatlas, qichiq atlas, jugut atlas, adras kerak de-sanglar uni ham topib beramiz, – Badal birvarakay matolarning narxlarini ham aytib o'tdi.

Er matolarga qarashga majbur bo'ldi va eng arzonini tanladi.

– Manavi durust shekilli, odmigina, guli ham chiroyli.

Badal shu zahoti erga yana yon bosdi.

– Kennoyi, amakimiz erkak bo'lsalar ham mol tanlashni bilar ekanlar. Bu haqiqatda asl mato, yuvsangiz tariqcha kirishmaydi. Tishlab tortsangiz ham yirtil-maydi, shunaqa chidamli, ko'rinishini aytmaysizmi gul-gul yonib turibdi.

Er maqtovdan burnini qanqaytirib xotiniga qaradi.

– Olib beraymi shundan, nima deysan?!

Xotin matoni choklarini qunt bilan ko'zdan kechirdi, g'ijimlab ko'rdi.

– Ayollarning bir to'xtamga kelishi qiyin, – Badal gazcho'pni olib erga jil-mayib boqdi, – erkaklar yaxshi, shart-shurt savdo qiladi.

– Oladigan bo'lsang ol ko'p chaynalmasdan, necha metr kerak?

– Besh metr yetar, – dedi xotini.

– Yo'q kennoyi, – Badal e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda cho'rt kes-di, – olti metr olavering, yetmay qolsa undan yomoni yo'q, ortib qolsa zoye ket-

maydi, moshinachining o'zi bilib lozim-pozim tikib beradi. Pul qo'lining kiri, nimalarga sarf bo'lib ketmaydi, olingan narsa esa mulkka aylanadi.

Shu asnoda bo'sh tog'oralar ko'tarib do'konga uchta ayol kirib keldi, bular daladan ho'l meva opkelib sotishgan, puliga narsa olib qaytishadi. Badal ularning atay ko'zini o'ynatib matoni o'Ichay boshladi, bayroqdek hilpiratib, jilvalantirib...

– Qanaqa mato ekan bu? – deb so'radi ayollardan biri.

– Yangi chiqqan mato, xoriyniki, – dedi Badal sirolik bilan, – kennoyi, bu yog'i uch metrcha qolibdi, olib qo'yaqolinglar to'y qiladigan odam ekansizlar.

Darhaqiqat mato o'ramining tubi ko'rinib qolgandi.

– Voy, ado bo'ldimi? – achinib so'radi tog'orali ayollardan biri.

Xaridorlarning tarqab ketishidan qo'rqqan Xodivoy «E, qalash...» deb so'z boshlagandi shu zahoti Badal og'ziga urdi.

– E Qalashboyevmi? O'shanga olib qo'ygansan-a ikki o'ram? Chayqovchi u, bizni molni qishlog'idagi do'konga oborib ikki hissa qimmatiga sotadi. Bular o'ziga oladi, hojatlarini chiqarish kerak. Yur olib chiqaylik molni, – ikkovlon ichkari xonaga yo'naldilar.

Eshikda ko'zlari alang-jalang hovliqma bir ayol paydo bo'ldi. Navbatda turganlardan so'radi.

– Hoy, opog'oyi, nimaga turibsizlar?

– Yangi mato chiqibdi, shunga turibmiz. Mana bular olishdi, – tog'orali ayol er-xotinga ishora qildi.

– Yaxshi mato ekanmi? – endi erli ayolga murojaat qildi shaddod ayol.

Qaysi xaridor olgan narsasini yomonlaydi.

– Biz oxirgisiga ilindik, odamlar bilishsa kerak qanaqaligini, bekorga talash bo'lib ketmagandir, – g'olibona ovozda maqtandi ayol.

Peshtaxtada turgan mol-o'lik mol. Xaridorning qo'liga o'tgan mol jarchi, havas va hasad uyg'otuvchi eng zo'r reklama.

– Boshqa qolmadimi? – bo'shshib so'radi hovliqma juvon.

– Hozir yana olib chiqishadi, – tog'orali ayol tasalli berdi.

– Rostdanmi? – juvon eshikka yaqinlashdi-da ko'chaga qarab qichqirdi, – xay Mapura, Shapoatni ham chaqiring, tez kelinglar.

Hademay magazinda Shapoat bilan Mapura paydo bo'lishdi, ketlaridan yana ikkita ayol ergashib kirdi. Hammalari navbatga turishdi.

Ichkari xonada voqeani kuzatib turgan Badal o'rtog'ining yelkasiga qoqib gapirdi.

– Savdo degan bunday bo'libdi, ovsar. Matoni olib chiq-da gupillatib sotaver. Bu gal sendan mol olganlarning hammasi doimiy mijozingga aylanishdi. Nima-ga desang, yaxshi mol oldim deb sevinib, izzat-hurmatga sazovor bo'lib, ko'ngli ko'tarilib ketishdi. Bo'pti, menga ruxsat, shanba kuni biznikiga o'tasan, shuni ayt-gani kelgandim.





– Nima munosabat bilan?

– Avstraliya bilan qo'shma korxonani ochdim, shuni yuvamiz.

– Iye, hashamatli restoraning, uchta supermarketing bo'lsa yana qo'shma korxonani ochyapsanmi? Nima, sen bechoraning qozon qaynatgani puling yetmay qoldimi? – dedi Xodivoy beg'araz kulib.

– Gap pulda emas, shildirvoqi, men o'z layoqatimni sinab ko'rmoqchiman, – dedi Badal jiddiy tortib, – tadbirkor qotib qolmaslik uchun o'z faoliyat doirasini kengaytiraverishi kerak. Ammo maqsad faqat boylik orttirish emas, nasib yetsa shahrimiz bolalariga zamonaviy, muhtasham kutubxonani qurib bermoqchiman, yosh avlod nafaqat jismoniy baquvvat, balki ruhaniy yuksak ma'naviyatli insonlar bo'lib yetishishsin, tushunding?

Badal eshikka yo'naldi. Ko'chaga chiqsa, ne ajabki, yomg'ir tingan, bulutlar tarqab, oftob charaqlab turardi.

# O'lmas Umarbekov

(1934–1994)



O'lmas Umarbekov 1934-yil 25-yanvarda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1992). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1984). O'rta Osiyo universitetining filologiya fakultetini tugatgan (1956). Ilk kitobi – «Hikoyalar» (1958). «Xatingni kutaman», «Yurak so'zlari» (1960), «Boboyong'oq» (1961), «Yulduzlar», «Menga ishonmaysanmi?» (1962), «Hayot abadiy» (1964), «Charos» (1966), «Ko'prik» (1968), «Bolgar qo'shiqlari», «Oltin yaproqlar» (1972), «Qiyomat qarzi» (1976, shu hikoya asosida sahna asari ham bor), «Yer yonganda» (1993) kabi hikoya to'plamlari nashr etilgan. U «Odam bo'lish qiyin» (1970), «Fotima va Zuhra» (1994) romanlari hamda «Sevgim – sevgilim» (1963), «Kimning tashvishi yo'q» (1965), «Urush farzandi» (1972), «Yoz yomg'iri» (1973), «Oq qaldirg'och» (1974) singari qis-salar muallifi. Bir qancha dramalar ham yozgan («Oqar suvlar», 1971; «Tuhmat», 1987; «Oqsoqol», 1991; «O'zing uchun o'l yetim», 1992 va boshqa). «Qizimga maktublar» («Mangu hayot bo'sag'asida») deb nomlangan publitsistik asari ham bor.

O'lmas Umarbekov 1994-yil 10-noyabrda Toshkentda vafot etgan.

## CHAROS

Erta tong. Endigina ko'tarilgan oftobning iliq nurlari derazalarga tushib, uylarni yorita boshlagan edi. Ishga vaqtlirorq borish, to'g'riroq'i, oltin kuz havosidan to'yib nafas olish ishtiyoqida uydan chiqdim. Bir oz etni junjitadigan shabada esardi. Kechasi yomg'ir yog'ib o'tibdi shekilli, asfalt yo'lak nam.

Muyulishdan o'tib katta ko'chaga chiqqanimda ko'k darvoza oldida turgan bir bolaga ko'zim tushib qoldi. Oyog'ida, dadasiniki bo'lsa kerak: katta kalish. Bir tomonga qiyshayib ko'zlariga tushib turgan qalpoq ham o'ziniki emas. Yaqinroq

bordim. Bola ko‘zlarini ko‘chaga tikkancha, ishtaha bilan qars-qurs qilib allanarsa yerdi. Havasim kelib ketdi.

– Nima yeyapsan, oshna! – dedim yoniga yaqinlashib.

– Uzum, – dedi bola qalpoq ostidan ko‘zlarini menga tikib. Keyin qo‘ynidan bir nima oldi. Bu – yetilib turgan katta bir bosh qora charos edi. – Oling.

U shunday dedi-da, og‘zini katta ochib iljaydi. Sovuqdanmi yo uzumning rangidanmi lablari ko‘m-ko‘k ko‘karib ketgan edi.

– Oling, – dedi bola yana. Lekin o‘zi javobimni kutmasdan bir g‘ujum uzumni og‘ziga tashladi-yu, bir-ikki karsillatib yutib yubordi. Yo‘lga tushdim. Ammo, yo‘lning yarmiga yetganimda bolaning qo‘lidagi charosdan, shunaqa yetilgan tim qora charosdan biram yegim kelib ketdi! Qani endi bir boshi bo‘lsa-yu, xuddi shu boladek kars-kurs suvini sachratib yesang?!

Bolaligimizda ko‘pincha shunday qilardik. Bizning qishloq bog‘ qishloq edi. Kattabog‘ deb bekorga atashmagan. Qishloqning orqa tomonida, es-es bilaman, katta uzumzor bor edi. Atrofi pastak paxsa devor bilan o‘ralgan bu uzumzorning yuz xil rangdagi uzumlari hammaning havasini keltirar, o‘tgan ham, ketgan ham suq bilan qaramay iloji yo‘q. Biz, bolalar uchun esa, uzumzor sirli bir dunyo. Hammamizning uyimizda husaynimi, buvakimi yo boshqa xil uzum istalgancha bo‘lsa ham, shu bog‘dagi uzumlardan ko‘zimizni uzolmasdik. Hammanikida uzumdan ko‘p barg bo‘lsa, bu bog‘ning ishkamlarida barg deyarli yo‘q edi. Po‘sti shilingan oppoq tol poyalariga oq, qizil, sariq, qora marjonlar go‘yo g‘uj-g‘uj qilib osib qo‘yilgandek.

Bir kuni o‘qishdan qaytayotib, bolalardan besh-oltita sho‘xrog‘imiz bir joyga yig‘ildik-da, o‘g‘irlik qilishga qaror qildik.

Kitob-daftarlarni kichik bolalardan berib yuborib, poylay boshladik. Ko‘cha-da hech kim qolmadi. Hammayoq jimjit. Sekin devorga yaqinlashdik-da, bitta-bit-ta boqqa tushdik. Uzum! Og‘zimiz ochilib qoldi. Bir chekkadan uzib ketaverdik. Bir qo‘l bilan yulib qo‘ynimizga solamiz, bir qo‘l bilan og‘zimizga. Birpasda qo‘ynimiz to‘lib ketdi. Kimdir cho‘ntaklariga, do‘ppisiga ham solib oldi. Endi ketamiz deb turgan edik, uzoqdan:

– Xo‘-ho‘-ho‘y! Kim bor! – degan ovoz eshitib qoldik.

Sheriklarim tirira-tupuriga olib qochib qolishdi. Men bo‘lsam uzumni ko‘p yeb qo‘yganimdanmi, yo qattiq qo‘rqib ketganimdanmi, qimirlolmay qoldim. Nima qilishimni bilmay ko‘zimni chirt yumdim-da, joyimda turaverdim. Qancha turdim, bilmayman. Ko‘zimni ochsam, ro‘paramda qizil etik, oq yaktak kiyib, ustidan ko‘k qiyiqni bog‘lab olgan baland bo‘yli bir chol jilmayib turibdi. Qaltirab ketdim.

– Qo‘rqma, qo‘rqma, bolam, – dedi u mayin tovush bilan. – Uzum kerak ekan, aytmaysanmi, o‘zim uzib berardim.

Bunday muomalani men sira kutmagandim, yig‘lab yubordim. Ko‘zimdan oqqan yoshni artish uchun qo‘limni ko‘targan edim, ko‘ylagim ishtonbog‘imdan chiqib ketib, qo‘ynimdagi uzum yer bilan bitta bo‘ldi. Ammo, chol e‘tibor bermadi. Ko‘rgan bo‘lsa ham o‘zini ko‘rmaganlikka solib meni yupata boshladi.

– Yig'lama, nega yig'laysan, tentak, – dedi u boshimni silab. – Bir bosh olib-sanlar, ikki bosh olibsanlar, nima bo'пти? Kamayib qoladimi? Qara, bu uzumlarni! Qancha axir. Hammaga yetadi. Qani, bu yoqqa yur!

Chol qo'limdan ushlab yetaklab ketdi. Bog'ning o'rtasidagi ishkomga kirdim. Ishkom to'la yong'oqdek-yong'oqdek keladigan qora charos edi.

– Tuzukmi? – dedi chol menga qarab va kulib qo'ydi. Ko'kragiga tushib turgan qalin oppoq soqoli silkinib ketdi. – Tuzuk bo'lsa, shundan uzib beraman.

U qiyig'iga osib qo'ygan pichog'ini qinidan sug'urib uzum uza boshladi. Birpasda yaktaginging ikkala bari to'lib ketdi.

Mana, bolam, ol. O'rtoqlaringga ham olib bor.

– Men apil-tapil uzumni qo'ynimga solib, ko'chaga yugurdim. Rahmat aytish ham esimdan chiqibdi. Eshik tagiga yetganimda orqamga bir qarab qo'ydim. Chol menga tikilganicha jilmayib turardi.

Shu-shu, deyarli har kuni boqqa charos yegani kirib turadigan bo'lib qoldim. Ammo bu uzoqqa bormadi. Shaharga ko'chib ketdik.

Mana, shundan beri qancha yil o'tib ketdi...

Oradan ikki-uch kun o'tmay, Kattaboqqa qarab yo'l oldim. Eski qishloq ancha o'zgarib ketibdi. Anhor yoqalab, qishloqning orqa tomoniga o'tdimu sevinib ketdim. Uzumzor, o'sha qadim uzumzor, avvalgiday yashnab turardi. Devor ham o'sha devor, faqat tekis qilib suvab qo'yilibdi. Tagida uch-to'rtta bola yong'oq o'ynab o'tiribdi. Boqqa qaradim. Yuz xil rangdagi uzumlar oppoq tol poyalariga atayin terib qo'yilgandek g'uj-g'uj.

– Oshna, – dedim, bolalardan bittasini chaqirib. – Menga qara, bu uzumchi ota shu yerdamikanlar hozir, bilmaysanmi?

Bola g'alati nazar bilan qaradi-da, do'q aralash so'radi:

– Siz kimlari bo'lasiz?

– Hech kimlari. O'zim shunday ko'ray deb keldim.

– Uzumchi buvam yo'qlar. Bultur o'lganlar.

Seskanib ketdim. Butun vujudimni titroq bosdi. Menga hayron bo'lib tikilib qolgan bolalarga e'tibor bermay, sekin orqamga qayta boshladim. Lekin yurolmadim, to'xtab qoldim. Qancha turdim, bilmayman, bir mahal orqamdan:

– Qani, hoy bolalar! Bolalar-ov! – degan ovoz eshitildi.

Shartta uzumzor tomonga o'girildim. Devorning orqasida oppoq yaktaginging etagiga to'latib uzum solib olgan bir yigit jilmayib turardi. Men to'zimni o'nglab olgunimcha bolalar etakni bo'shatishdi, yigit uzumzor ichida g'oyib bo'ldi.

– Kim bu? – so'radim haligi boladan boqqa ishora qilib.

– Uzumchi buvamning o'g'illari.

Yuragim o'ynab ketdi. Bog' tomonga yugurdim. Devorga yetganimda chaqirmoqchi bo'lib og'iz juftladimu, lekin darrov aynidim. Oyog'iga qizil etik, yaktak ustidan ko'k qiyiq bog'lab olgan baland bo'y yigit ishkomlar orasidan bitta-bit-ta qadam tashlab borardi. Unga tikilar ekanman, yoshligimning shirin xotirasi – uzumchi boboni ko'rgandek bo'lib ketdim.

# *Uchqun Nazarov*

(1934–2016)



Uchqun Nazarov 1934-yil 27-noyabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Toshkent teatr va rassomchilik institutining rejissyorlik bo‘limida tahsil olgan (1959). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist (1967). Birinchi hikoyasi – «Odamlar» (1962). «G‘urur», «Sadoqat» (1965), «Fido» (1970), «Girdob» (1971), «Jur‘at» (1977), «O‘zgalar uchun» (1986) singari hikoya va qissalardan iborat to‘plamlari nashr etilgan. «Chayon yili» (2005) trilogiyasi va «Oina» dramasi (1977) ham bor. Uning «Surayyo», «Qiz va yigit», «Shiddat», «Alangali sohil» va 3 bo‘limdan iborat «Qo‘qon voqeasi» kabi badiiy filmlari tomoshabinlar e‘tiborini qozongan.

Yasunari Kavabataning «Uyqudagi nozaninlar» (2001) romanini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

2016-yil 17-iyunda Toshkent shahrida vafot etgan.

## QISH NAFASI

Safar aka dori olib aptekadan chiqqanida, qosh qoraya boshlagan, chala oy bir quloch ko‘tarilgan, siyrak bulutlar orasidan yulduz mo‘ralar, narsalar, odamlar sharpaga o‘xshar, simyog‘och chinnisi yiltirar, kech kuz bo‘lishiga qaramay, havo iliq edi.

Safar aka, filtrsiz sigaret tutashtirib necha dona qolganini ko‘zdan kechirdi, tugmasini qadadi, zinadan tushdi. Qishlog‘i besh chaqirim narida edi, yayov ketdi – o‘tkinchi mashinaga qo‘l ko‘tarsa, to‘lashga puli qolmagan edi. Uch kun avval yog‘ib o‘tgan yomg‘ir tuproqni shibbalagan, yo‘ldagi xalqoblarda oy jimirlar, uzoqda it hurar, yo‘l oxirida mashina chirog‘i sarobga o‘xshar edi.

Safar akaning xotini Nasibaoy, ikki hafta burun ariq bo‘yida kalish yuvaturib, boshi aylandi, o‘tirib qoldi. Kelini Oyxon, bolasini qo‘yib, qaynonasi pinjiga kir-

di, ayvonga yetakladi. Nasibaoyning oyog'i chalishar, arang bosar, og'ir edi. Oyxon qaynonasini dahlizdagi so'riga yotqizdi, qanaqadir dori berdi. Qishloq hamshirasi ukol qilib, dori yozib ketdi. Safar aka xotining betobligiga o'tkinchi deb qaradi, doriga bormadi, qatiq ichirdi. Katta o'g'li To'qash ish qidirib, Samaraga ketgan, kichik o'g'li Pozil harbiy xizmatda edi. To'qash yarim yildan beri bedarak, xat yozmas, kelini tumtayar, qaynona-qaynotasi bilan qovusha olmas, boshi katta, eti ushoq bolasidan bo'shamas, injiq bola xarxasha qilar, hech kimga bormas edi. Oyxon qaynonasiga uncha qaray olmaganidan xijolat tortdi chog'i, bolasini do'xtirga ko'rsatish bahonasi bilan ikki qishloq narida turadigan onasinikiga ketdi. Hamon undan darak yo'q. Safar aka yo'l-yo'lakay qudasinikiga kirib o'tmoqchi, kelinini oldiga solib ketmoqchi bo'ldi, biroq oyog'i tortmadi – qorong'i tushgan, bu paytda kirib borish bemavrid ko'rindi. O'zi qaytar, deb o'yladi Safar aka, dorini tezroq olib borishi zarurroq edi. U hovliga kirib borganida, bitta ham chiroq yoqilmagan, uyi huvillagan, qop-qorong'i edi. Safar aka ayvon chirog'ini yoqdi. Xotini, ko'rpaga o'ranib, miq etmay yotar, erining sharpasiga ham e'tibor bermadi.

– Nasiba, – dedi Safar aka, bemor xotini ustida to'xtab. Xotini arang tovush berdi. – Dori olib keldim. Ichib ol, ko'zing moshdek ochiladi.

Nasiba qimir etmay ingradi.

Safar aka bir dona dorini xotining og'ziga tiqdi:

– Shim, – dedi.

Xotining chap tomoni shol edi, indamadi.

Kechagi go'ja sovuq edi, isitish uchun Safar aka kosani olib, hovliga tushdi, o'choqxonona tomon yurdi. Oy ancha ko'tarilgan, bulut qochganida Safar akaning soyasi aniqlashar, qadamiga ilashar edi.

O'choqxonaning usti qamish, atrofi ochiq edi, g'o'zapoya arang o't oldi, Safar aka qozon qopqog'ini olib, go'jani to'kdi; nam g'o'zapoyaning olovi past, tutuni achchiq edi, ovqat isigunicha, yarim soatcha vaqt o'tdi; Safar aka go'shtsiz go'jani kosaga suzib, qozonga suv quydi, qopqog'ini yopib qo'ydi.

Nasibaoy bir-ikki qoshiq go'ja ichdi, tamshandi, boshini burdi. Safar aka xotining boshini yostiqa qo'ydi. Uning chiroyli ko'zlari hozir behol, xira, o'zi darddan majolsiz edi. Dori ta'sir qilar, deb o'yladi Safar aka va yechinib, chiroqni o'chirdi, nariroqdagi o'ringa kirdi, sigaret tutatdi.

Nasibaoy dalada chopiq-yagana qilar, shomda uyiga qaytar, keliboq o'choqqa unnar, ovqatidan dixlofos hidi kelar, ketmoni oydinga yarqirar, o'zi, xamiri ko'tarilgunicha, bolalari kiyimini yuvib, dorga osar, tandirga olov yoqar, zuvala qilar, non yopar, apil-tapil yuvinib kelganida, eri uyquga ketgan bo'lar, sahar payti Safar xotiniga yopishar, ish bitgach, Nasibaoy tashqariga oshiqar, shosha-pisha nonushta hozirlar, bitta non solingan to'rvasini ketmonga ilib, dalaga ravona bo'lar, bolalarni eri uyg'otar, maktabga jo'natar, keyin tabelchilik qilish uchun xirmonga yo'l olar edi.

Shu alfoz yigirma besh yildan ortiq vaqt o'tdi. To'ng'ich o'g'li To'qash o'rta maktabni tugatib, mexanizatorlikka o'qidi, Oyxonga uylandi, farzand ko'rdi. Sa-

far bilan Nasibaoy nevarali bo'lishdi; faqat nevarasi nimjon edi, raxit, deyishdi. Kenjasi Pozil bir yil avval, maktabni bitiriboq, harbiy xizmatga ketdi – dadasi bilan xayrlashmadi ham – Safar aka Nasibaoyini urib, ko'zini momataloq qilgan edi.

– O'g'ling qaramadi ham, – dedi Safar aka, o'g'lidan yozg'irib.

– Onasini urdingiz, qaraydimi? – dedi o'shanda Nasibaoy, tumtayib va momatalog'ini siladi. – Haliyam shishi qaytmaydi. Kelinlik paytimda ham urgansiz – qizitilmagan yog'da osh qilirsan, deb. Sal narsaga urar edingiz.

– Ha, endi o'zbekchilikda urib turish kerak-da, odat, – degan o'shanda Safar aka. – Urmasang, odam sanashmaydi. Hamma uradi.

– Odatingiz qurib ketsin, – degan Nasibaoy, zarda qilib. Nuqul boshimga, yuzimga urasiz, ko'chaga chiqa olmay qolaman. Ichsangiz – tamom, janjal chiqarasiz. Bolalar bezillashadi. Ketsam, ota-onamdan andisha qilmay, yalinib borasiz. Ular tanbeh berish o'rniga meni oldingizga solib, haydashadi. Yuzimni tang'ib, ketmon chopaman.

– Boshqalar-chi? Urishmaydimi? Asad polvon xotinini urib, to'rtta tishini sindirirti – yurirti Mohiraoy, tilla tish qo'yib!

– Uring siz ham! Tilla tishga qurbingiz yetsa! Mol sotib, to'y qildingiz. Bir oylik kelin oldida urdingiz, qo'lingiz sinsin...

«Qanday paytlar edi», deya, o'sha zamonlarni qo'msab, o'yladi hozir Safar aka, va sigaretini tortdi. Qorong'ida sigaret cho'g'i yallig'landi, burni yiltiradi.

– Urgan bo'lsam – yaxshi ko'rganimdan, – dedi Safar aka, birinchi marta shu iborani tilga olib. – Qizg'anardim-da. Sharir, xotining chiroyli, deganida, seni urganman, qizg'anib. Haqiqatda, chiroyli eding. Aslida, tayloqligi uchun Sharirning tumshug'iga tushirishim kerak edi, o'zimni tutdim, seni o'ynashga chiqarishlari mumkin edi... Paxtazorda seni bo'lg'alaganim esingda bormi? Yetilgan payting edi, qochgansan. Xirmondagi juvonlar kulishgan, o'shandan keyin uyingdagilar rozi bo'lishgan. Sevmasam, urarmidim?

Nasibaoy miq etmay yotar, aftidan, xotini ham o'sha totli damlarni xotirasidan o'tkazayapti, deb o'yladi Safar aka.

– To'qashni tuqqaningda, qanaqa shodlik bo'lgan edi, esla. Qancha nom qidirganmiz. Dadang, «To'qash» qo'yinglar», degan, unaganmiz. «To'qash» nima ma'noni bildiradi?

Xotini javob bermadi. Safar aka dori kor qilgan bo'lsa, uxlayapti, deb o'yladi, ko'rpaga o'ranib, jun tiqilgan bolishga lunjini bosdi, xo'rsindi, ko'zi ilina boshladi.

Safar aka uyg'onganida, tong g'ira-shira, qushlar chug'urlar, ko'chadan o'tayotgan pada mollar ma'rashi eshitilar edi. Safar aka, kerishib, o'rnidan turdi, yuvinib, yelkasiga yupun chopon tashladi, yovg'on xo'rda qilishga kirishdi. Xo'rda suzilgan kosaga yog'och qoshiq solib, xotini oldiga kirdi, Nasibaoyini uyg'oldi. Xotini qimir etmadi. Safar aka Nasibaoyning peshonasiga kaftini bosdi – peshonasi sovuq edi. Safar aka xotinini asta silkitdi – sado chiqmadi. Iyagini

tang'ib, yoniga o'tirdi – halqumi bo'g'ildi. Baralla yig'lashdan uyaldi, chopon etagi bilan yuzini to'sdi, yelkasi qaltiradi.

Nasibaoyini peshinga chiqarishdi.

Oqshomda Safar aka marhumaning boshiga bordi – go'ri nam edi. Qarg'a qag'illar, o'ti sarg'aygan mozor bo'sh edi.

Safar aka yarim soatcha cho'nqayib o'tirdi – endi u tanho edi.

Ikkala farzandi onasi dafnida bo'lishmadi. Buyurmadi. Pozil kelganida, shine-lini tashlab, qabristonga chopdi. Qaytib kelganida, ko'zlari qizargan edi. Dadasiga ro'yxush bermadi. Onasining ajalini dadasidan ko'rdi, chog'i. O'zini bu uyda begona sezdi, uch kundan keyin, qismiga jo'nadi.

Kelini Oyxon raxit bolasi bilan kasalxonada, ma'rakaga qatnasha olmadi. Kasalxonadan chiqsa, bu yagona erkak qolgan uyga keladimi, yo'qmi – gumon edi. Eri bo'lmagach, huvillagan hovlida nima qiladi?

Safar aka darvoza yonidagi xodada kun bo'yi o'tirar, endi ta'ziyaga hech kim kelmas, Safar aka uyiga kirishga botinmas, xotining sharpasidan cho'chir, choponiga o'ranar, mudrar edi.

## «KAL MULLA»

Bu o'ttiz besh yoshga kirgan, ko'zlari kulrang, kirriklari sarg'ish kishining nomi Karl Myuller bo'lib, mahalla odamlari uni oldiniga Karl Mulla, keyin Kal Mulla deyishardi. Karl yagona yashar, onasi yetti yil burun vafot etgan, otasi, taniqli etnograf Gexard Myuller, ko'p vaqtini arxeologik safarlarda o'tkazar, nega bu nemis oilasi o'zbek mahallasida turib qolganini hech kim bilmas edi. Atrofda boshqa maktab yo'qligi sababli Karl Myuller ham o'zbek maktabiga qatnadi, og'aynilari asosan o'zbek bolalari bo'lgani uchun ota-onasi bilan bemalol uch tilda – nemischa, ruscha, o'zbekcha gaplashishga odatlandi. G'irt mahalla tilini ko'cha bolalari qanday bilsa, Karl ham shunday bilar edi. Studentligida tanishgan rus qizi Svetlana Karl bilan uch yil yashadi – yo farzand ko'rmadi, yoki eski mahalla sharoitiga ko'nika olmadi – o'ttiz yoshli Karlni tashlab ketdi. Karl tanho qoldi, boshqa uylanmadi.

Kimning nimasi buzilmasin – tikuv mashinasimi, bolalarning velosiredimi, Kal Mullaga chopishadi. Karl ishni shu qadar puxta bajaradi-ki, ustalar ham primuslarini shunga tuzattirishadi. Qo'lidan kelmagan ish yo'q, o'zi qanaqadir zavodda ishlaydi. Mahalla to'y-azalariga qatnashadi, hamma qatori fohihaga qo'l ochadi, hatto «Qulhu Ollohu ahad»ni yod biladi, ba'zilar bu haqida o'zbekcha gapirsa, hammasini tushunadi, indamaydi. Zavod unga ikki xonali uy berganida, Karl olmadi – itini, kaptarlarini, toshbaqalarini ko'zi qiymadi. Qo'shnilari tandida non yopishsa, tansiq taom qilishsa, unga ilinishadi. Karl kosalarni shokolad solib qaytaradi.



Balki nemis bo'lgani uchunmi, urush boshlanganda, Karlni olishmadi, bosh injenerlik amaldan pasaytirishdi.

Gazeta-jurnallar fashistlarni mazax qiluvchi maqolalar, Gitlarning badbashara rasmlarini bosishdi. Avvalgi «qizillar-oqlar» «ruslar-nemislar» o'yiniga aylandi, nafrat kuchaydi. Bolalardan biri Karlni «fashist», dedi. Karl e'tibor bermay o'tib ketaverdi. Keyin ortidan tosh otadigan bo'lishdi. Karl qancha indamasa, bolalar shuncha qutirishdi. Yaqindagina velosiredlarini tuzatib yurgan Karl dushmanga aylandi. Karl ko'chada ko'rinishdan ham hayiqadigan bo'lib qoldi.

Albatta, Karl shu boshi berk ko'chadan chiqib, mahalladan nariroq ketsa – bas, hech kim buni tanimaydi, hamma o'ris, deb o'ylaydi, bu bilan hech kimning ishi yo'q. Shuning uchun Karl uyidan sahar chiqib ketib, kechqurun qaytadigan bo'ldi. Biroq kelguniga qadar iti, kaptarlari och qolishadi, ularga don-suv beradigan odam ham yo'q. Sakkiz oydan beri dadasidan darak yo'q, qari narsa, omonmikan?

Karlga ta'sir qiladigan joyi shuki, ko'chasidagi tirmizaklarning bari Karlning ko'z o'ngida tug'ilgan, og'aynilarining farzandlari, hammasiga Karl varrak, rogatka, novdadan yoy yasab bergan, nomlarini biladi, ukasidek bo'lib ketishgan edi, kelib-kelib chatoqlik shulardan chiqyapti. To'g'ri, ota-akalari o'shqirishdi, po'pisa qilishdi, quloqlaridan cho'zishdi, bolalar bilganidan qolishmadi.

Urush boshlanganiga yarim yil o'tmay turib, frontdan qoraxat kela boshladi.

Birinchi marta qoraxat Karl bilan bir sinfdan o'qigan Ilyosning halokati haqida keldi.

– Adamni sen o'ldirgansan, fashist! – dedi uning o'g'li Karlga.

Karl, o'zini ushlay olmay, bolaning betiga tarsaki tushirdi, Salim chinqirib, uyiga qochdi.

Karl urganidan pushaymon bo'ldi, o'rtog'ining azasiga ham kira olmadi.

Shundan keyin Karlning ko'cha eshigida bo'r bilan chizilgan fashistlarning belgisi paydo bo'ldi. Karl o'chirib tashladi, lekin keyin mash'um xoch to'rttalab-beshthalab chizila boshladi. Karl e'tibor bermay qo'ydi. Karl hamma narsadan, ko'cha-kuyda ham, go'yo odamlar uning nemisligini sezayotgandek, hadiksiraydigan, hammaga gumon bilan qaraydigan bo'lib qoldi, o'zbek mozorining bir che-tiga dafn qilingan onasining qabriga borganida, o'zini tuta olmay ho'ngrab yig'lab yubordi. Uyiga qaytib kelganida, kaptarlarining uchtasi qo'ndodan qulab qorda yotar, qon tomchilari qorga sochilgan edi. O'zi yasab bergan rogatkalardan otishgani ma'lum bo'ldi. Keyin uy derzasining oynasi chil-parchin sindirildi, Karl yangi oyna qo'ydi, uni ham sindirishdi, itini zaharlashdi. Karl shikoyat qilishdan ham qo'rqr edi.

Bahor kunlarining birida ikkita harbiy kishi kelib, Karlni olib ketishdi. Karl ko'cha eshigini qulflashga ham ulgurmadi.

Hovli qarovsiz qoldi.

Yon qo'shnilar o'tini yulishdi, suv sepishdi, shiririshdi, hovli chinnidek bo'ldi; hovliga qarash, sarishta qilish, gullar ekish, qolgan kaptarlarga don sochish odat

bo'ldi. Keyin hovlini «Bolalar bog'chasi»ga aylantirishdi. Baqirib – chaqirishsa ham mayli, jimlikdan tuzuk.

## INSHO

Sakkizinchi sinf o'quvchisi Xurshid shaxmat qutisini qo'ymaydi, qo'ltiqlab yuradi. Faqat shaxmat o'ynaydigan bolalar bilan o'rtoq tutinadi. O'qituvchilar ichidan geografiya muallimi Daler akani alohida hurmatlaydi. Daler aka o'z fanini qiziqarli olib boradi. Biron mamlakat haqida dars o'tsa, albatta, o'sha mamlakatga xos bir xislatni, masalan, Tanzaniyada yozuvchi Xeminguey ov qilganini gapirib beradi, o'sha yozuvchining «Frensis Makomberning omonat baxti» nomli hikoyasini topib o'qib chiqinglar, deydi. O'quvchilar bu hikoyani topib o'qishadi, keyin geografiya darsida muhokama qilishadi – dars nafaqat geografiya, hatto adabiyot mashg'ulotiga aylanadi. Qiziqarli o'tadi. O'quvchilar, shuning uchun bo'lsa ajabmas, uy topshiriqlarini geografiyadan boshlashadi. Geografiya darslariga kanda qilmay borishadi. Daler aka so'z boshlashi bilan jimib qolishadi. Koridordan o'tgan odam bu sinfda dars bo'layotganini sezmaydi ham.

Darslarning birida Daler aka, Angliya haqida so'zlab, uning shahzodasi Eduard bir ayolni sevib qolganini, parlament a'zolari bu oshiqlikni ma'qul ko'rmas-gach, shahzoda Eduard qirollik taxtidan voz kechganini gapirib berdi. Dars sevgi muhokamasiga aylandi.

Daler akaning qo'lida o'qigan talabalarning ko'pi geografiya, adabiyot, tarix fakultetlariga a'lo baholar bilan kirishgan. Tarix o'qituvchisi bu muvaffaqiyatni o'ziga yozdi. Uning darslari zerikarli o'tar, aftidan Tursun Sobirov o'z fanini sevmas, tasodif ravishda tarix o'qituvchisi bo'lib qolgandek tuyulardi. Umuman, xonlar, shohlar, amirlar, sultonlarni oldin zolim-ekspluatator, Amir Temurni bosqinchi, der edi, keyin mamlakat mustaqil bo'lgach, Sohibqironni «Ulug' sarkarda, millatimiz otasi», deydigan bo'ldi.

Xurshid Daler Saidovich bilan hech qachon shaxmat o'ynamaganligi sababli, domla bu o'yinga qiziqmaydi, deb o'ylar edi. Bir kuni Xurshid bo'sh sinfda bolalar bilan shaxmat o'ynab o'tirganida, sinfga Daler Saidovich kirib qoldi. U uy kalitini qidirib yurgan ekan, bolalar kalitni axtarishga kirishishdi, topa olishmadi. Daler aka Xurshid bilan shaxmat o'ynashga o'tirdi. Yarim soat o'tgach, Xurshid mot bo'ldi. Daler Saidovich yaxshi o'ynar ekan, hech kimga taslim bo'lmagan Xurshidni yutdi, bolalar angrayib qolishdi. Xurshid yana bellashgisi keldi, Daler Saidovich soatiga qaradi: qizchasini bog'chasidan olishi, xotini ishdan kelishiga uy eshigini ochishi, boshqa qulf o'rnatishi kerak edi, ikkinchi o'yinga rozi bo'lmadi.

Xurshid ba'zan darslarga kechikib kiradi, tarix darsiga kirmaydi. Bugun «besh» olsa, ertasiga «ikki» olishi hech gap emas. Parvo qilmaydi. Adabiyot dar-

sida ijobiy, salbiy qahramon degan tushunchalarni ta'bi ko'tarmaydi. Bir kuni «Qutlug' qon» romani mavzusida insho yozishdi. Xurshid erkin mavzu tanladi, ammo yozgani o'zini qoniqtirmadi, sahifaga chiziq tortib, g'ijimlab, sinfdan chiqib ketdi. Kelasi darsda adabiyot o'qituvchisi g'ijim varaqlarni yozib, o'quvchilarga qaradi. Xurshid bu darsga ham kirmagan, zalda boshqa bolalar bilan shaxmat o'ynab o'tirardi. Adabiyot o'qituvchisi Odil To'rayev Xurshid yozgan inshoni sinfdagi o'quvchilarga o'qib berdi: «Mansur shaharga kelib, institutga kirdi, amakisnikida tura boshladi. Amakisi Dilshod xotini Toliya bilan yashar, farzandsiz edilar, – o'qiy boshladi Odil To'rayev. – Ular tez-tez tortishib turishar, yon berishmas, arazlab yurishar, Mansur orqali «gaplashishar» edi. Oxirgi mojarodan keyin amakisi uydan chiqib ketdi, bir haftacha qorasini ko'rsatmadi. Kecha keldi, eshikni Toliya ochdi, erini ko'rib, qayrilib ketdi. O'rtada Mansur serrayib qoldi. «Kiyimimga keldim, ayt, bersin» – dedi amakisi ovozi tumtayib turgan xotiniga eshittirib. Mansur kelin ayasiga qaradi. «Kiyimini sharabarachiga berib yubordim, yo'q, – dedi Toliya zarda bilan. – Da'vosini manjalaqisiga qilsin, u ko'taradi!». «Kim u?» – dedi Mansur tushunmay. «O'ynashi, – dedi Toliya o'chakishib. – Ana, rasmda yonma-yon o'tirishirti». «Yonma-yon bo'lsa, nima qirti? Xodimlardan biri, – dedi amakisi o'shqirib. «Xodimlardan biri bo'lsa, nega bitta buyragini berdi, so'ra!» – dedi Toliya da'vosini ro'kach qilib. «Qonim gruppasi o'shanikiga to'g'ri keldi, – dedi amakisi. – Bitta buyrak bilan yashash mumkin ekan, mana yashayapman. Bir odamni saqlab qoldim...».

Mansur o'rtada serrayib turib qoldi, keyin xonasiga kirib ketdi. Ular yana bir oz aytishishgach, jimib qolishdi. Mansur, mojaro tugadi, deb o'ylab, yo'lakka mo'raladi: amakisi bilan kelin ayasi quchoqlashib turishar edi. Mansur xonasiga qaytib kirib ketdi».

Odil To'rayev inshoni o'qib bo'lib, termulib o'tirgan o'quvchilarga nazar tashladi.

– Qalay? – dedi. O'quvchilar indashmadi. – Besh qo'ysam, arziydimi?

– Arziydi! – deyishdi o'quvchilar bir ovozdan, o'qituvchi qarorini olqishlab.

Tanaffusda o'quvchilar zalga chopishdi. U yerda Xurshid hamon shaxmat ustida o'tirgan edi. O'quvchilar keltirgan xabarni eshitib, Xurshid indamadi.

– Shah! – dedi raqibiga.

## UMR

Muxtor ko'p hunar bilan shug'ullandi. Baliqchilik qildi, g'isht quydi, tunuka qoqdi, elektr tuzatdi, maktabda badan tarbiyasidan dars berdi – xullas qo'lidan kelmagan ish yo'q. Hozir savat to'qiydi. O'n yil avval Zumrad ismli qizni yaxshi ko'rib qoldi. Zumrad rayon kutubxonasida ishlar, chiroyli qiz edi. Muxtor kitob bahonasida kutubxonaga borar, Zumradni ko'rish uchun kitobni tez o'qir, Zumrad

bilan asarni muhokama qilar, mulohazalari Zumradga yoqardi. Biroq qiz Muxtorning kutubxonaga tez kirishini kutsa-da, odamlar mish-mishidan hayiqar, boshqa joyda uchrashishni ep ko'rmas edi. Muxtor Zumradga sovchi qo'yishni chamalaganida, Zumradning onasi dunyodan o'tdi, sovchi yuborish noqulay ko'rindi, yili o'tishini kutishga to'g'ri keldi; yili o'tgach, Muxtorning onasi o'ldi. Vaqtni yana surishdi. Shu orada Zumrad boshqa oilaga uzatilib ketdi.

Onasining vafotidan keyin Muxtorning otasi ham ko'z yumdi, Muxtorning o'zi tanho qoldi. Shunda aka-ukasi yo'qligidan o'ksindi. Qo'shnilar tevarak-atrofdan qiz topishdi, lekin Muxtor Zumraddan boshqasiga uylanishga ko'nmadi. Bir necha yil o'tdi.

«Ko'kbuloq» qishlog'idan ish chiqdi – yangi uyning tomiga tunuka qoqish kerak ekan. Muxtor rozi bo'ldi, tomga chiqdi, tunuka qoqa boshladi. Uy egalari oldingi hovlida turishar edi. Tush paytida o'sha hovlidan ovqat keldi, ovqatni Zumrad olib kelgan edi. Muxtorning ko'zi tindi, tomdan quladi. Zumrad chinqirib yubordi.

Muxtorning bo'ydoq o'tishini, hamon sevishini Zumrad bilar, yoshlik tuyg'usi deb o'ylar edi; cho'ntagidan sochilgan qog'ozlar orasidan Zumradning rasmi chiqqach, sarosimaga tushdi. Suvratni eriga ko'rsatmadi.

Muxtorning o'ligini o'z hovlisidan ko'tarishdi. Hovlida xivichdan to'qilgan to'rt g'ildirakli foytun turar, uning yoniga novdadan «Zumrad», deb yozilgan edi. *Zumradning eri Fozil novdadan terilgan ismga ajablandi, tasodif deb o'yladi.*

# Erkin Samandar

(1935-yilda tug'ilgan)



Erkin Samandar 1935-yil 22-martda Xorazm viloyatining Xiva tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist (1989). Xorazm pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetini tugatgan (1957). Birinchi kitobi – «Amu jilolari» (1966). «Daryosini yo'qotgan qirg'oq» (1989), «Tangri qudug'i» (1996), «Jaloliddin Manguberdi» (1999), «Sulton Jaloliddin» va boshqa romanlari nashr etilgan. Tarixiy mavzularda bir qancha sahna asarlari ham yozgan («Javohir», 1980; «Bashorat», 1994; «Arabmuhammad Bahodirxon», 2002). «Pahlavon Muhammad Piryorvaliy» (1995), «Suyanch» (1996), «Ming otlilar diyori» (2003) singari qissa va badialari ham bor.

## G'AYB QUSHLARI

Shayxning karomatlari Jo'ji qulog'iga chalingan, hali Urganjga yurish boshlamasidan oldinoq uning sehrlaridan xabar topgan edi. Daryoni ters oqizarmish, devlarni jilovlay olarmish, o'zganing qo'lidagi yopig' kitobni betma-bet o'qirmish qabilidagi gaplarni avom tarqatgan deb birda ishonsa, birda ishonmas, ammo buyuk Hoqonning man-man degan shamanlari shayxning ilmiga tan berishlarini ko'rib dilidagi gumon o'rnini ishonch egallay boshlagan edi.

Urganj qamali boshlanib, uning darvozalariga yaqin yo'lash mushkulligini va qal'a devori ustida har gal shayx paydo bo'lganida cherik beixtiyor orqaga serpilishini o'z ko'zlari bilan ko'rgach, bu ishonch diliga tag'inda mahkamroq o'rnashdi.

Qamal roppa-rosa yetti oy davom etdi. Chigirtkadek besanoq qo'shin yordamga kelgachgina qal'a darvozasi yemirilib, jang shahar ichkarisiga – mahalla-maydonlarga ko'chdi. Har bitta mahallaning olinishi bitta qal'ani egallashdan ham mushkulroq kechganini ko'rganida Jo'ji tag'in shayxning karomati haqida o'ygana

toldi. Karomat deganda u inson botinidagi haybatning zohiriga ko'chib, odamlarni mutaasir etishini tushunar, xorazmliklarning yengilmasligini esa ana shu haybat ularning jon-joniga singdirilganida deb bilardi. Go'yo har bir urganjlikning yuragiga shayx haybati jo bo'lganday, shu haybat uni arslonga aylantirganday edi. Qani endi Jo'jining qo'lida ham shunday bir shayx bo'lsa-yu, u har bir mo'g'ulning qalbiga arslon haybati va jur'atini joylab bersa...

Urganj deyarlik taslim etilib, qo'shin Najmiddin Kubro xonaqosiga yaqinlashib borayotgan hozirgi asnoda bu orzu Jo'ji qalbini tag'in egallab oldi. Vaqt borida shayxga odam yuborib, agar u rozi bo'lsa, boshini omon saqlab qolishni niyat etdi.

Ammo Jo'jining niyati uning ukasi Chig'atoyga yoqmad.

– Shayx bizga aslo el bo'lmas, – dedi u tundlik bilan. – Oning boshin kesmoq lozim.

– Boshdan boshning farqi bordur, – dedi Jo'ji qizishib, – shayxning boshi ertan bizga asqatar.

Chig'atoy bari bir o'z aytganida turib oldi.

Bundan bir oycha muqaddam ham aka-ukaning orasida gap qochgan, Jo'ji qancha avramasin, Chig'atoy so'zidan qaytmagan edi. Unda bahsga Chig'atoyning jahdi, to'g'onni buzib, Urganjni suvga bostirish vasvasasi sabab bo'lgan edi.

– Faqat shul yo'l bilangina bu qaysar qal'ani taslim aylamoq va jazolamoq mumkin. – Chig'atoyning oxirgi uzil-kesil so'zi shu bo'ldi.

– Yo'q, dedi Jo'ji. – Urganjni aslo suvga bostirmagayman, menga xaroba emas, balki boy va suluv qal'a darkor.

Jo'jining bunday deyishi besabab emas edi, yurish oldidan Chingizxon unga Urganjni taslim et, u seniki bo'lur, degan edi. Jo'ji o'sha kundan boshlab dovrug'i yetti iqlimga ketgan davlatli va savlatli qal'aga egalik qilishni orzu etardi, axir. Chig'atoy bo'lsa...

Aka-uka o'rtasidagi bahsni oxir-oqibat Chingiz o'zi hal qildi.

– Urganjni Jo'ji ham emas, Chig'atoy ham emas, balki kenja o'g'lim taslim etur, – dedi u va shohzoda O'ktoyni xos qo'shin bilan Urganj ustiga yo'lladi.

Natija Jo'ji o'ylaganidek bo'lib chiqdi, qal'ani ostin-ustun qilmay qo'lga kiritishmoqda, buni otasining aqli va O'ktoyning uddaburronligidan deb bilardi u.

Hozirgi bahsni ham O'ktoy to'g'ri yechadi degan umidda uning ko'zlariga boqdi Jo'ji.

O'ktoy amr etdi.

– Shayxga odam yuboring, ul zot oyoq ostida qolib ketmasun, qayga istar, onga ketsun.

Jo'jining yuzi yorishdi. Zimdan Chig'atoyga ko'z tashladi. Uning yalpoq burni tag'inda ichga botganday edi.

Bu paytda hazrati shayx Najmiddin Kubro ochiq ayvonda yolg'iz o'ltirgancha og'ir o'yg'a tolmish edi. Savash ketayotgan guzar va maydonlardan qasir-qusur tovushlar, otlarning bezovta kishnashlari, na'ra va fig'on, alam va armonga, vahshat

va nafratga to'la nolalar eshilib turardi. Bu qonli nidolar shayxning dil yaralari-ni tirnash barobarida so'nggi mudhish voqealarni eslatib, xayolini uzoqlarga olib ketar edi. Shu asno shayx uzoq o'ltirdi. Mahzun xayollar qa'rida daf'atan bosh-dan-oyoq oq-oppoq kiyingan, oq soqoli ko'ksini qoplagan nuroniy siymo tag'in yuz ko'rsatdi. Xuddi bundan olti oycha muqaddam bo'lganidek hozir ham uning muloqot istayotgani mungli yuz-ko'zlaridan ochiq-ravshan ko'rinib turardi.

O'shanda, birinchi muloqot paytida u (Xo'jai Xizr) saltanat tanazzuliga isho-rat aylagan, bunga sabab tarzida mamlakatda sodir etilgan sahv-gunohlarni, buzuq-liklarni shayxning ko'zlariga bir-bir ko'rsatib bergan edi. Ahli musulmonning bir-birini qirishlari, saroydagi fisqu fasod, urug'-aymoqlar o'rtasidagi qon to'kishlar, Chingizxonning hiyla-nayranglaridan esi og'ayozgan Xorazmshohning ketma-ket sahv-xatolari oqibatida toju taxtda ro'y bergan parokandalik xuddi ko'zgudagidek aniq-tiniq ko'ringan, saltanatdan omad ketganiga ishorat etilgan edi-da.

Mo'g'ullar qal'aga bostirib kirgan, yoshu keksani bir yoqdan qoniga belayot-gan hozirgi asnoda Xo'jai Xizr tag'in paydo bo'lib, shayxga dedikim, muridla-ringga shahardan chiqib ketmoqlikka izn bergan eding, ammoki, ketganlardan qolganlar ko'p bo'ldi, endi olar shahidlik liboslarin kiygaylar.

Ko'p iztirob bulutlari orasida keza-keza muroqaba holatidan chiqib olgan shayxi kabir beixtiyor osmonga ko'z tashladi. Shundoq ediki, muroqabadan so'ng shayxning ilk nazariga tushganlar tengsiz kuch-qudrat kasb etmay qolmas, iloj-sizga iloj, ishonchsizga ishonch enmog'iga shubha bo'lmasdi. Bu gal shayxning nazari sa'vaga tushdi.

Sa'vani bir qarchig'ay shiddat bilan quvib borar, ora daqiqa sayin qisqarib, qochayotganning madori quriyotgani va quvayotganning jahdiga jahd qo'shilayot-gani shayxga ayon bo'lib turar edi. Shayx holdan toygan sa'vaga nazar solganlari asno manzara o'zgardi, avvalinda ikkala qush o'rtasidagi oraliq ochilib, sa'va o'z raqibidan uzoqlasha boshladi, so'ngra shahd bilan orqasiga o'girildi-da, daf'atan qarchig'ay ustiga bostirib kelaverdi. Uning zabtiga dosh berolmagan qarchig'ay orqasiga qayrilib qochaboshladi. Sa'va uni bir zumda quvib yetdi-da, zarb bilan qanotiga chang soldi. Ko'p o'tmay qarchig'ayning qanotlari qayrildi. Sa'va uning kekirdagiga og'iz solib, bo'ynidan omburday qisganча pastga o'qday otildi va ko'z ochib-yumguncha ayvon tepasiga kelib jonidan judo bo'lgan qarchig'ayni shayxning oyoqlari ostiga tashladi. Erkin-erkin silkinib oldi-da, yana yuqorilab keta boshladi.

Ayvon oldidagi hovuz bo'yida bu holatni shayxning bir qism muridlari ku-zatib o'ltirgan edi, yaxshilikka yo'yib, murshidga ta'zim bajo etgani ayvonga kirishmoqchi bo'lib turganlarida mo'g'ul elchisi kelayotganidan xabar topishdi. Shayxni bundan ogoh etdilar. Sal fursatdan so'ng shayx va elchi bir-biriga ro'ba-ro' bo'lishdi.

Najmiddin Kubro o'z holati va kiyimlarini o'zgartirishga ulgurgan, go'yo dorilomon zamonu, shayx hozir jome' masjidiga borib va'z aytadiganday vazmin va purviqor qiyofada o'ltirar, oriqdan kelgan, qotma, echkisoqol elchi esa bundan

**taajjubga** tushganini bilintirmaslikka urinsa-da, ijrg'anganini yashirolmay tajang **holda** shayxdan uch qadamcha narida tik turar, orqasida o'z qorovullari taroq tishlaridek bir tekis tizilishgan edi. Sassiqlik ter hidi shayxning dimog'iga urilar ekan, **ko'ngli** ayniy boshlaganini yashirib, xo'sh, nima demoqchisan, deganday unga **ko'z** qirini tashladi.

– Buyuk shahzoda istayurki, shayx oyoq ostida qolmasun, – gap boshladi **bo'g'iq** ovozda elchi, – dedikim, shayx aysun, neki ixtiyor aylar, bajo etilur.

Taajjub, yog'iy qal'a ahlini molday so'ysa-yu, uning shayxiga «marhamat» **ko'rsatishga** jur'at aylasa, xalq boshqa-yu, shayx boshqa, deb o'ylarmi, bu **no-kaslar?!!**

Shayxning yuzida istehzo paydo bo'ldi. Lekin savolga yarasha javobi degan-**day** bosiqlik bilan elchiga yuzlandi.

– Men bir o'zum emasman, sheriklarim bordur.

«Marhamat»ni shayx bajonidil qabul qiladi, deb o'ylagan shekilli, elchi o'y-**lanib** qoldi va boshi qotib xo'jayinlari oldiga jo'nadi.

Muridlar ustozga savol nazari bilan boqdilar. Ularning ko'nglidan nimalar ke-**chayotganini** hazrat ko'rib-anglab turardi. Muridlarning ko'nglida savol hozirgina **aytilgan** «shariklarim bordur», degan so'zdan tug'ilganini, buni turlicha anglash, **elchining** taklifiga qo'yilgan shart deb ham, ayni paytda raddiya deb ham tushu-**nish** mumkin edi.

Ularni arosatga solguvchi boshqa bir jihat yo'q emasdi. Bundan bir oycha **muqaddam**, Urganjni ortiq himoyalashning mushkulligi ayon bo'lib qolgach, **shayx** turli qal'a va kentlardan kelib o'z huzurida muqim makon tutgan murid-**lariga** shaharni tark etishga izn bergan, ular esa uchqur otni hozirlab, ustozni olib **ketish** tadorigini ko'rishgan, piri murshid bu taklifni qat'iy rad aylagan edi. Us-**tozning** bir so'zligini bilsalar-da elchiga berilgan javobdan muridlar biroz ta-**ajjubga** tushgan edilar. Ularning ko'nglini aniq ko'rib turgan shayx na bir so'z der, **na** botinidagini zohiriga chiqarar edi.

Sukut to elchi ikkinchi bor kelgunigacha davom etdi. Muridlar uning qaytib **kelishi** haqida o'ylab ko'rmaganlari yuz-ko'zlaridagi taajjubdan sezilib turardi. **Murshidi** a'zam bo'lsa elchining takror kelishi, nima deyishini oldindan bilgani **sabab** so'zla, deganday unga sinchkov nazar tashladi. Elchi dedi:

– Shahzoda ma'lum etadurlarkim, yuz kishingizni olib istagan tomonga ravo-**na** bo'lgaysiz.

Shayx yuzida tag'in faqat muridlargagina ayon bo'lgan istehzo ko'rindi. Ular **bildilarki**, hazrat taklifni rad aylagay. Ammo ular o'ylaganday bo'lib chiqmadi. **Murshid** yana elchini gangitib qo'ydi.

– Yuz kishi dersiz. Odamlarim ondin ko'pdur.

Elchi tag'in orqasiga qaytib ketishga majbur bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay qay-**tib** keldi-da:

– Xo'p, ming kishini yoningizga oling, – dedi go'yo katta iltifot ko'rsatgan-**day** kerilib.

Ersa shayx dedi:



– Yo‘q, men yurtimni, xalqimni tashlab hech qayon ketmasmen. Yaxshi-yomon kunida birga bo‘lgan xalqim ila bir tomchi qonim qolguncha birga bo‘lurmen! Shu vatanda tug‘ilibmiz, shu vatanda o‘lurmiz!

Bu gapdan, tabiiyki, elchi g‘azabga mindi va xonaqohdan o‘qday otilib chiqib ketdi.

Muridlar hazratning niyatini endi aniq bildilar va bir kuni asqatar deb tog‘dan keltirib qo‘yilgan toshlarni, yarog‘larni qo‘lga olaberdilar.

Hazrat bu paytda yetmish besh yoshda edi, lekin yosh yigitlarday o‘rmidan dast turib, kamarni belga mahkam bog‘ladi.

– Azizlarim, – dedi muridlariga, qarindosh-urug‘lari, yori-birodarlariga qat‘iyat bilan, – ayonki, yog‘iy so‘zun qabul aylab, vatandin chiqib ketar bo‘lsak, jonimiz omon qolgay va begona ellarda bo‘lsa-da o‘zumizga yarasha martaba topgay erdik. Ammo vatansiz martaba martaba, yurtsiz hayotdin hayot bo‘lgaymi?! Magaram o‘z elimizda qolur esak, yog‘iyga xizmat yelkamizga tushmay qolmagay. Bizim yelkamiz tog‘ni ko‘tarur, ammo bu isnodni ko‘tara bilmas. O‘z yurtingda o‘zgaga tobe bo‘lub yashagandin o‘lgan yaxshidir!

Muridlaru xeshu aqrabolar javob berdilar:

– Ul hayotdin o‘lim afzaldur, hivz – ul vatan, min al – iymon! Vatanni muhofaza aylamoqlik iymon belgisidir, degan yuqoridagi ahdu paymon hazrat o‘zi asos solgan Kubraviya tariqatining asl mag‘zi edi, barchasi unga sodiq qoldi, ko‘plar savash maydonida shahid ketdilar, qolganlar, mana, o‘limni bo‘yinlariga olib, jangga kirmoqlikka izn kutib turmoqdalar.

Ularning shiddatlarini ko‘rib shayxning ko‘nglidan bir fikr kechdi. Qani Xorazmshohda, oning atrofida gilar ham shunday iymon, e‘tiqod bo‘lsaydi, a‘yonlar bir-birlarining tagiga suv quyish o‘rniga yog‘iy ildizlarin quritmoqlikka jahd aylasalar, Jaloliddin Manguberdiga imdod qilsalar erdi, vatan bundoq kunfa-yakun, xalq bundoq xoru zabun bo‘lmas, bil‘aks, yog‘iyga sichqonning ini ming tanga bo‘lg‘ay erdi!

Jaloliddinni o‘ylar ekan, shayxning ko‘ngliga ishonch to‘lqini indi: Inshooloh, Jaloliddin Mangubardi yog‘iyning dodini bergay, jasur avlodlar vatanni dag‘i ozod va obod aylagaylar!

Shu o‘y bilan hazrat o‘z diliga tugib qo‘ygan niyatini amalga oshirishga kirishdi. Ichkari kirib sarosimada o‘ltirgan ayollar holidan xabar oldi, mo‘ltirab turgan bolalarning boshlarini siladi. Vodarig‘, hademay bu farishtalarning-da boshlarida yang‘oq chaqurlar, qay birlarini qatl aylab, qay birlarining qo‘l-oyoqlariga qullik zanjirlarini bog‘lamoq bo‘lurlar. Ammo yog‘iy anglamaski, olarning qariyalaridin tortib norasidasigacha bosh egib yashamoqlikdin tik turib o‘lmoqlikni afzal bilurlar!

Valitarosh o‘z diydasida halqalangan yoshni jigarporalaridan yashirdi, ayollarning qurblari bunga yetmadi, ular ko‘zlaridan duv-duv yosh to‘kib, hazrat etagini so‘nggi bor peshonalariga surtdilar. Ko‘rdilarki, uning qo‘yinlari va hamyonlarida ham toshlar bo‘rtib turadur.

...Shayxning uzil-kesil javobidan keyin O'ktoy va Chig'atoylar shayx endi o'zidan ko'rsin deb otga minaverishdi. Jo'ji ham noiloj uzangiga oyoq qo'ydi.

Shayx xonaqohga qamalib oldi, qopularni buzamiz, deb o'ylashgan edi. Biroq o'zlari tomon qilich yalang'ochlab kelayotgan bir qism otliqlarni ko'rib, bu shayx va uning odamlari ekanligini sezishdi.

Ora tobora qisqarib, qirq-ellik chog'li otliq yuzlagan qo'shin domiga tushayotgan asnoda yana bir mo'jiza Jo'ji qalbini larzaga soldi. Osmoni falakda lak-lak qushlar paydo bo'lib, maydon uzra uvvos solgancha tinmay charx uraboshladi. Mo'g'ullar shuncha jang qilib bunday holga duch kelishmagani sabab hayratlanib ko'kka o'q uzaboshladilar. Lekin o'qlar qushlarga yetib bormas, ora-chira borganlari ham nishonga tegmas edi.

Ikki tomon bir-biriga yaqinlashib qoldi. Qilichbozlikka chog'langan mo'g'ullar daf'atan tosh bo'roniga duch keldilar. Toshning bunday zarb bilan otilishini umrida ko'rmagan mo'g'ullar sarosimaga tushib birin-ketin otdan qulay boshladi.

Chiyillagan qushlar qo'shin ustiga tobora yaqinlashib kelar, to'p-to'p otliqlarga chang solmoqchi bo'lar, qanotlaridan chiqqan tovushlar o'q va qilich saslariga, otlarning hayqirig'iga qo'shilib, dahshatli sadoga aylanar edi.

Jo'jining ko'zi o'ng qanotda shiddat bilan qilich sermayotgan yoshi ulug' suvoriyga tushib qoldi, viqoridan bildiki, shayx o'sha. O'sha! U go'yoki zabardast yigitga mengzab na'ra tortar, o'ng qo'lida qilich o'ynasa, so'l qo'li bilan qo'ynidan tosh olib tinmay raqibiga otar, qilichi mo'ljalga, toshi nishonga tegmay qolmas edi. Jo'jining ko'nglida birdan bu shayx jodu bilan qo'shinning ko'zini bog'lab qo'ygan degan xayol keldi. Keldi-yu hayrati nafratga, qiziqishi g'azabga aylandi. Xos cherigini uning ustiga tashladi.

Kamon o'qining zahmi va qilich zarbidan oxiri shayx quladi, qulayotib mo'g'ul tug'chisi qo'lidagi bayroqqa chang soldi, uning bir parchasini yirtib – uzib oldi.

So'nggi nafasda ko'kka nazar tashlagan shayxi kabir o'z boshi uzra charx urayotgan sonsiz-sanoqsiz qushlarni ko'rdi, ularning orasida hali o'z nazari tushgan qushni, qarchig'ayni qiyratgan sa'vani ilg'ab oldi, go'yo o'sha bitta sa'va yuztaga, mingtaga aylangan, ularga lochinlaru burgutlar qo'shilib, dunyodagi jami qushlarga sado berayotganday, bari qanot sohiblarini o'z saflariga chorlayotganday edi. Shayxning ko'zlarida so'nggi bor umid uchqunlari yiltiradi.

Mo'g'ul shahzodalar Najmiddin Kubro jasadi ustida paydo bo'ldilar. Uning panjasidagi tug' parchasini olishga buyruq berdilar. Jallodlar qancha urinmasinlar, uni olabilmadilar. Shayx barmoqlarini kesgachgina uzuq-yuluq nimalarni yig'ishtirib ololdilar. Bu endi bayroq emas edi...

Qushlar yuqorilab ketaboshladi. Gala-gala, aylanib-aylanib uchaboshladi. So'ngra galalar birlashib, ko'k yuzini qoplab oldi. Kutilmaganda yomg'ir quya boshladi. Bu haqiqatan ham yomg'irmi yoki ko'kda charx urayotgan qushlarning ko'z yoshlarimi yoxud oq qushlar timsolida manguberdilar ko'ksidan otilgan qasos yog'inlarimi, mo'g'ullar farqiga bormadi.



# Ne'mat Aminov

(1937–2005)



Ne'mat Aminov 1937-yil 17-iyulda Buxoro viloyatining Romitan tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1992). Buxoro pedagogiga institutining tarix-filologiya fakultetini tugatgan (1959). Birinchi hajviy hikoyalar to'plami – «Ikki pullik obro'» (1966). So'ng «Qirq uchinchi pochcha» (1970), «Labihovuz xandalari» (1973), «Chinorlar qo'shig'i» (1984), «Yelkasiz polvon» (1986), «O'g'ri mushukcha» (1987), «Qahqaha» (1987), «Yallama-yorim» (1988), «Cholbolaning ertaklari» (1990) va boshqa hajviy to'plamlari nashr etilgan. 1976–83 yillarda «Yelvizak» va «Suvarak» qissalari asosida «Yolg'onchi farishtalar yoxud yelvizakfe'l va suvarakmijoz Bashirjon Zaynishev hayotidan» hajviy romanini yozgan. «Bir asr hikoyati» (1996) asari ham bor.

«Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlangan (1999).

Yozuvchi 2005-yil 18-oktabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

## TUG'ILGAN KUNIM QANI?

Oyisi Xurshidni bog'chadan vaqtli olarkan, tarbiyachisiga: «Bugun bolaginamning tug'ilgan kuni!» – dedi. Kunduzgi uyqudan vaqtli uyg'otilgan Xurshid «tug'ilgan kun»ning nima ekanligiga aqli yetmasa-da, quvnab irg'ishlay boshladi.

– Tug'iygan kunim, tug'iygan kunim! – deya qichqirgancha oldinga tushdi. Oyisi uni zo'rg'a tutib turib, maykasi ustidan oq shoyi ko'ylakchasini arang kiygizdi. Xurshid battar irg'ishlar, lablarida muzikaga o'xshatib, turli ovozlarni chiqarardi.

– Duvvuv... tug'iygan kunim...

Xurshid yo'l bo'yi oyisiga bidirlab keldi, hovliga yaqinlashganda chopachop darvozadan birinchi bo'lib kirdi, atrofga alanglab, bir nimalarni izlagan bo'ldi. Ko'ziga hech narsa ilinmadi. U yugurgancha katta uyga o'tdi: uying o'rtasida

uzun stol qo'yilgan. Stol ustida turli xildagi emishlar. Xurshidning ko'zi o'rtasi qir-qizil gulli tortga tushdi. Mazza! U tortga qo'lini cho'zgan edi – yetmadi. Yaqinidagi stulni qo'yib, chaqqonlik bilan o'rmalab chiqdi, tortning gulli joyiga changal urdi. Bittasining gulini tamomlab, ikkinchisiga qo'l cho'zayotganda oyisining ovozi eshitildi.

– Voy o'lmasam, nima qilib qo'yding! – oyisi yugurgancha kelib, uni stuldan olib, tashqari sudradi. Ular eshikdan chiqaverishda Xurshidning ko'zi toshoynaga tushdi: burni, yuzlari oppoq. Xuddi sirkdagi amakiday. Oynaga qayta o'girilib qararkan, bilagi bilan burnini artdi. Oyisi hamon javrardi: – Endi man nima qilaman, birpas shoshilmasang-ku, o'zim kesib berardim.

Oyisi uni cho'miltirdi. Patli sochiqqa o'rab, o'zi o'ynaydigan uyga olib kirdi. Xurshid gilam ustida bir dumalab, o'rnidan turdi-da, ochilib ketgan sochiqni oyoqchalari bilan tepa boshladi. U semizgina, dumdumaloq. Oyisi uni zo'rg'a quvib tutarkan, qiqir-qiqir kular, labchalarini cho'chchaytirib, allaqanday ovozlur chiqarardi. Yangi kiyim kiydirayotganda Xurshid battar quvnab, oyisining bo'ynidan achomlab oldi. Matroscha ko'ylak va kalta shimining cho'ntaklariga qo'lini tiqib ko'rdi. Oyisi uning ensiz yelkalaridan tutib, pushti, namchil, nuqra yuzchalariga shirin bir mehr bilan boqdi. Shu payt Xurshidning burni bilan qosh oralig'ida mayin ajinlar paydo bo'ldi, og'zi yarim ochildi... aksirdi. Oyisi: «O'h, urdi!» deya sochiqning uchi bilan uning burnini qattiq artdi. Xurshidning burni osti qir-qizarib, ko'zlarida yosh aylandi.

– Qani sizlar? – uyga otasi kirdi. Xurshid burun ostining og'riganini ham unutib, otasiga qarab yugurdi, otasi cho'nqaygan edi, uning bo'ynidan achomlab oldi. «Sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin qalbdan tabriklayman, hurmatli Xurshid Savriyevich!» – dedi otasi yo'g'on ovozda uning betlaridan «cho'lp-cho'lp» o'parkan. Xurshid o'zini otasining bilagiga tashlab, yayradi. Otasi o'rnidan turganda uning qo'llariga osilib, oyoqlari orasida arg'imchoq uchdi.

Ota xursand, ona shod, bola baxtiyor.

– Qani onasi, tezroq bo'ling, halizamon mehmonlar kelib qolishadi, – dedi otasi. Xurshid «mehmonlay, mehmonlay!» degancha irg'ishlab, tashqariga otildi. U qo'shni bolalarga borib qo'shilarkan: «Mani tug'iygan kunim boy!» – dedi maqtanib. Unga hech kim e'tibor bermagach, hafsalasi pir bo'lib, uyga qaytdi. Oyisi oshxonada ekan.

– Oyyi... tug'iygan kunim tani? – deya so'radi oyisining oyoqlariga yopishib. Oyisi qah-qah urib kuldi.

– Tug'ilgan kuning kechqurun bo'ladi... mehmonlar kelganda! – dedi uning boshini silab. – Bor endi, bolam.

Xurshid qo'shni xonaga kirib, kech bo'lishini kuta boshladi. Uy burchida to'ntarilib yotgan pachoq «samosval»ga ir bog'lab, uyning u boshidan, bu boshiga «dirillatgancha» borib kela boshladi. Keyin biqiniga «Moloko» deb yozilgan sariq mashinasini «samosval»ga ko'ndalang qilib yuklab, ohista sudray boshladi. Tezda bundan ham zerikdi. Katta uyga yana bir bor kirmoqchi bo'ldi. Borsa, eshik

ochilmadi. Uzoq unnadi. Ochilmadi. O'tirib olib, bor ovozda yig'lashga tushdi. Otasi kelib:

– Nega yig'laysan? – deb so'ragan edi, oyoqlarini tirirchilatib, battar yig'ladi. Shu asnoda darvoza qo'ng'irog'i jiringladi. U ham ko'zlaridagi yosh bilan otasiga ergashib, darvozaga yugurdi. Hovliga uchta amaki kirdi. Ikkitasining bo'yi otasinikidan baland, bittasini otasiniki bilan baravar. Oldingi amakining qorni katta. Har uchala amakining ham qo'ltiqlarida qog'ozga o'ralgan narsa. Nima bo'ldi ekan? Oshxonadan oyisi yugurib chiqib, mehmonlarni xursand qarshi oldi. Qorni katta amaki, keyin boshqalari ham qog'ozga o'ralgan narsalarini oyisiga berishdi. Oyisi oshxonaga, otasi bilan mehmonlar katta uyga yo'l olishdi. Ulardan keyin yana bitta amaki, ikkita xola keldi. Ularni ham onasi «Xush keldiyizlar», deb qarshi oldi. Xurshid ularga ag'rayib tupap, o'ziga e'tibor bermaganlaridan o'ksinib, bir chetda mung'ayib turardi. Chunki, ularning uylariga bundan oldin kelgan mehmonlar doim uni o'pib, yuziga sekin urib qo'yishardi. U ham mehmonlarga ergashib, katta uyga kirdi. Hamma o'zicha gapiradi. Otasi radio yonida. Musiqa yangraydi. Qorni katta amaki to'rda, guldirab kuladi. Xurshid burchakka qisilib, ularga yer ostidan qaraydi. Yon tomondagi xola unga qarab jilmaydi. Tishlari tilla. Yaraq-yaraq qiladi.

Xurshid g'izillab tashqari chiqib ketdi. Bir ozdan keyin qaytib kelib, avvalgi joyini egalladi. Tilla tishli xola unga qarab, takror jilmayganda, u ham jilmaydi. Uning tishiga choyning yaltiroq qog'oz qoplangan edi. Xola bir qaradi-yu, keyin qovog'ini solib, chetga burildi. Xurshid «achchig'i chiqdi» deb o'yladi, sekin og'zidan soxta tishini olib, barmoqlari orasida ezg'ilab, sharikcha yasay boshladi. Shu orada uyga mehmonlardan yana besh-olti kishi keldi. Stolning oxirrog'ida o'tirgan sochi ko'p tog'a unga qarab turib jilmaydi, keyin o'ng ko'zini qisib qo'ydi. Xurshid ham uning qilig'ini takrorlarkan: «Yaxshi tog'a...» deya ko'nglidan kechirdi.

Bir ozdan keyin qorni katta amaki o'rmidan turib, yo'g'on ovozda bir nimalar dedi. Xurshid o'zining otini eshitganda, diqqat bilan quloq sola boshladi.

– ...Vot tak, Xurshidjon bizning eng talantli ukamiz, o'zi yosh bo'lishiga qaramay respublikada xizmat ko'rsatgan artist degan sharafli unvonga sazovor bo'lgan Savrijon Salimovning nuri diydalari, to'ng'ich farzandlari... to'g'ri, agar o'tgan yili tug'ilgan farzandlari ham bo'lganda edi... xo'p, buning zarari yo'q, bundaqa neudachniyliklar hayotda bo'lib turadi... men imkoniyatdan foydalanib, Savrijon Salimovning talantlari haqida ikki og'iz gapirmoqchiman. Darhaqiqat, u kishi teatrimizning yosh, umidli va istiqbolli aktyorlaridan. U kishi boshqa ba'zi artistlarga xos bir-birini ko'ra olmaslik, jizzakilik, boringki, ichiqoralik xislatlaridan tamoman toza va musaffo. Men u kishi bilan ilk marta teatrshunoslik institutining foyesida...

Xurshid bu so'zlarning farqiga bormaydi, boshi og'irlashib, g'uvillaydi. Poygacka yaqin joydagi stulda o'tirgan otasining oyoqlariga suykanadi. Otasi uni

**ko'tarib**, tizzasiga o'tkazarkan: «Jim o'tir!» deb o'pib qo'yadi. Mehmonlar qadahlarni urishtirib, ichishadi. Tilla tishli xolaning yuzi xuddi «dori» ichgandek burishib ketadi. «Achchiq ekan...» o'yladi Xurshid. Bir qarsakdan keyin otasi uni yerga tushirib, oyisi uzatgan olacha to'nni «qorni katta amaki»ga kiydiradi. Hamma qarsak chaladi. Otasi «qorni katta amaki»ni zo'rg'a quchoqlab, o'padi. Yana chapak, «He-hey, qiziq bo'ldi...» o'yladi Xurshid. Otasiyam, oyisiyam tashqari chiqib ketgach, Xurshid nimagadir o'zini noqulay, yakka his etadi, boshini egganicha uyalib turadi. Qulog'iga vilkalarining tovoqlarga bir maromda tegib turgan «shiq-shiq»ni eshitiladi. Xurshid yer tagidan mehmonlarga qaraydi. Hamma kulib turibdi, u bir oz dadillashadi. Hamma o'z gapi bilan ovora.

U stol qirrasiga osilib, vazadagi olmaga intiladi. Boyadan beri unga ikki-uch marta ko'z qisib, kulib qo'yan «yaxshi tog'a» bitta olma olib beradi. Xurshid «yana, yana» deya stolga sakraydi. «Yaxshi tog'a» yana bitta olma beradi. Xurshid ikkala olmani ikki qo'lida ko'ksiga qisgancha eshikka tomon buriladi. Oyisi kelardi. U chopqillab, oyisiga tashlanadi va bitta olmani unga tutqizadi. Xurshid oyisi bilan kelib o'tirarkan, yana o'z nomini eshitib qoladi. Deraza yonida bir amaki so'zlardi.

– ...Xurshidjonning tug'ilgan kunlari shunday bir davrda o'tayaptiki, shonli xalqimiz, shu jumladan, bizning teatrimiz hayotida juda katta voqealar sodir bo'layotgan bir paytda... bu paytda hali so'zga chiqqan teatrimizning otaxoni, hurmatli Shodmonxon akamiz ham juda yaxshi gaplarni aytdilar. Aziz do'stlar, mana qarang, bugungi yubiley, to-ss, imenina dasturxonini tovuqdan tortib tortgacha, aroqdan tortib konyakkacha bezab turibdi, turli xildagi zakuskalar, hammasi muhayyo...

Xurshidning boshi tag'in guvillay boshladi. U gapirayotgan amakining boshida uy shiftida osilgan lyustraning g'ujum chiroqlarini ko'radi... Qiziq! Oyisidan sekin so'raydi.

– Oyi, anu amakimmi chochlayi tani? – Oyisi peshonasi yaltiroq, oriq teatr sufiyori Shonazar akaga qaraydi, kulgisini bildirmaslik uchun quyi labini tishlab, Xurshidni jerkiydi.

Xurshid ko'zlarini ochib, yuma boshlaydi. Dasturxonga yangidan keltirib qo'yilgan kabobdan uning ham egisi keladi. Xayriyat, onasi tashqari chiqdi. Xurshid o'ziga olma bergan «yaxshi tog'a»ga qaraydi, u yonidagi xola bilan gaplashib o'tirardi. Nima qilish kerak? Stolning to'ridan qo'yib kelinayotgan kabobdan bug' ko'tariladi, sochi yo'q amaki bo'lsa hamon so'zlar, chamasi, hozirgina qo'yilayotgan kabob haqida gapirardi. Ana, nihoyat, «yaxshi tog'a» o'z oldida tovoq uchun joy ochadi. Xurshid bir oz mulohazali qarab turadi, so'ng erkalanib borib, «yaxshi tog'a»ning tizzalariga suykanadi. Mehmon bitta suyak olib, bolaga tutqizadi. Xurshid suyakni oladi-yu, ikki qo'llab, og'ziga eltadi, boshini egri qilib, uzoq mijiydi. Chandir ekan. U qo'lidagini sekin stol ustiga tashlaydi va «yaxshi tog'a»ning tizzasiga yopishib, endi o'zi stolga ko'tarilmoqchi bo'ladi.

– Ana xolos, hamma joyimni yog‘ qilib yubording-ku! – deydi «yaxshi tog‘a» uning bilakchalaridan qattiq ushlab. U qaytib yerga tushadi, «yaxshi tog‘a» bo‘lsa ro‘molchasi bilan shimini tozalaydi. Bu voqeadan xabar topgan oyisi uni qattiq jergigancha sudrab, avvalgi joyi – eshik yonidagi bo‘sh stulga o‘tqazadi.

– Ana shu yerda ko‘milib o‘tir! – deydi past, shiddatli ovozda. Xurshid boshini ko‘ksiga solgancha birpas pishillab o‘tiradi, hamma o‘zi bilan ovora. Hech kim unga e‘tibor bermaydi. U nima qilishini bilmay, bosh barmog‘ini so‘ra boshlaydi. Zerikadi. Oyoqlarini o‘ynatadi. Bir vaqt yana u o‘z otini eshitib qoladi.

– ...Men Xurshidjonning oyilari haqida gapirmoqchiman, – deya sirolik bilan so‘zlardi «tilla tishli xola». – Haqiqatan ham Shohistaxon o‘z nomlariga yarasha, ismlari jismlariga monand juvon. U kishi mening qizlikdagi dugonam. Hali esimda, biz institutda o‘qib yurgan vaqtimizda men atlas ko‘ylak tikdirdsam, ikkita tikdirardim, u kishi biror tuffi olsalar bitta emas, ikkita olardilar. Ikkalamizning ham razmerimiz bir edi-da. Hali ba‘zi birovlar meni ko‘rib qolishsa, siz Shohistaning singlisimisiz, deb so‘rashadi.

Oyisi poygakda turib qichqiradi.

– Singlisi emas, opasimisiz, deb so‘rashsa kerak?!

Hamma kuladi. Xurshid ham o‘z-o‘zidan jilmayadi, yer ostidan «yaxshi tog‘a»ga qaraydi. U ham kulib o‘tiribdi. Mehmonlar «tilla tishli xola»ning gapidan keyin o‘z qadahlaridagini ichishadi. Oyisi ham ichadi. Ularga mazza. Xurshidning ham suv ichgisi kelib ketadi, chaqonlik bilan stuldan tushib, hurkibgina «yaxshi tog‘a»ning biqiniga borib tiqiladi. Lekin «yaxshi tog‘a» undan xafa – chetga burilib olgan. Xurshid kichkina kaftchasi bilan «yaxshi tog‘a»ning tizzasi ustida qovushtirilgan o‘ng qo‘lini ohista siypalaydi. «Yaxshi tog‘a» e‘tibor bermasdan, yonidagi kishi bilan so‘zlashadi. Xurshidning yuragi siqiladi. Suv ichkisi keladi. U oyoqlari uchida turib, shishaga qo‘l cho‘zadi – qo‘li yetmaydi. Dik etib sakraydi – yana yetmaydi. Ikkinchi marta sakraganda suv to‘la shisha tarelka ustiga ag‘dariladi. Dahshatli ovozdan Xurshid cho‘chib tushadi, so‘ng apil-tapil stol ostiga biqinadi. «Yaxshi tog‘a» o‘rnidan turib ketadi.

– Obbo... endi bunisi bormidi?! – derdi u shimiga to‘kilgan suvni dastro‘moli bilan sidirarkan.

Mehmonlarning «suv – ravshanlik» deyishlariga qaramay, oyisi Xurshidni stol ostidan sudrab chiqaradi, uning ko‘zlari yoshli, oyisiga iltijoli qarar, mehmonlardan madad so‘rab javdirardi. Xayriyat, oyisi urmadi.

– Yur endi, uyqung keldi! – deya uni sudragandek qilib, narigi uyga olib o‘tadi. Burchakdan bir uyum qo‘g‘irchoqlarni olib, uning oldiga tashlaydi: – Ma, mana bularingni o‘ynab o‘tir, mehmonlar uyat qilishadi... uyga o‘ta ko‘rmaki...

Xurshid teskari qarab g‘ingshiydi:

– Tug‘iygan kunim tani?

Oyisi eshikka yo‘nalarkan:

– Erta topib beraman! – deydi ishontirib.

---

Xurshid qo'g'irchoqlariga qiyo ham boqmay, uzoq o'tiradi. Zerikadi, yuragi to'lishib, ko'zlariga o'z-o'zidan yosh keladi. Xo'rsinadi. Unsiz yig'laydi. Shu holicha kichkina gavgasi egila-egila ohista biqinga ag'dariladi. U oyoqlarini cho'zib, qo'llarini yonga tashlaydi. Uning bir oz siniqqan, lo'ppi yuzchalarida ko'z yoshlari qotib qolgan, pishillab nafas oladi.

Qo'shni xonada hamon uning tug'ilgan kuni nishonlanar, mehmonlarning biri otasini maqtasa, ikkinchisi onasini maqtardi. Ahyon-ahyonda u uyqu aralash o'z nomini eshitganda:

– Tug'iygan kunimmi bey... bey! – deya g'ingshib qo'yar, chamasi allaqanday qo'rqinchli, mavhum tushlar ko'rardi.



# Mengziyo Safarov

(1938–1994)



Mengziyo Safarov 1938-yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumaniga qarashli Xayrobod qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning tarix fakultetini tamomlagan. Ijodi 1965-yildan boshlangan. «Ona yer qo'shig'i» (1969), «Turnalar uchadi» (1972), «Olis qirlar ortida» (1977), «Povest va hikoyalar» (1978), «Ona tuproq qo'shig'i» (1989), «Tabiat ehromi; Umr chorahalarida» (1985, Z. Egamberdiyev bilan hamkorlikda) kabi kitoblari nashr etilgan. Umrining so'nggi yillarida «Amudaryo» nomli nasriy asar ustida ishlagan (asar tugallanmagan).

1994-yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida vafot etgan.

## TOG'LARDA GULXAN YONADI

Yilqilar choshgohga borib holdan toydi. Ular yolg'iz oyoq yo'ldan boshlarini egganicha, bir-bir qadam tashlab borishardi. Ertalab uzoq safarga otlanishayotganda ancha-muncha nag'ma ko'rsatgan ikki yosh ayg'ir ham hovuridan tushgan, ba'zan biron yilqi yaqin kelib qolgandagina g'ujuri ko'tarilib, so'qmoqdan chiqar, boshini ko'targanicha bor ovozi bilan kishnashardi. Ayg'irlar hushyor kelayotgan Azimning amirona qichqirishidan so'nggina tinchlanishardi. Uning yordamchisi Samad ham charchagan bo'lib, otlarni qistamas, ularni o'z holiga qo'yib, egarga bir yonbosh bo'lib o'tirganicha Azimning to'ng'ich o'g'li Kamol bilan gap tashlashib kelardi.

Kamol o'tgan yili maktabni tugatib, oliy o'quv yurtiga kirmoqchi bo'lib, Termizga borgan edi. Biroq u tavakkal ish tutmadi, o'z imkoniyatini chamalab ko'rib, qurilish texnikumiga hujjat topshirdi. O'g'lining qanday kasbni tutishi, qaysi o'qishga kirishi Azim uchun bari bir edi. U o'g'lining xohish-istagi bilan qariyb qiziqmasa ham butun erkni uning o'ziga berib qo'ydi. U faqat, o'g'lim

o'qishni istabdimi, o'qisin, bo'yinsalaridan ortda qolib, ko'ngli o'ksimasin, deb o'yladi. Shuning uchun ham Kamol o'qishga kirib, uyga xursandchiligidan terisiga sig'may kelganida ham pinagini buzmadi. Aksincha o'g'lini yengiltaklikda aybladi. Kamolning mamnun va baxtiyor ko'zlariga tik qarab:

– Hey, o'g'lim, nimasiga muncha sevinasan, o'qishga kiribsan, yaxshi. Lekin o'qishning tog' odamiga nima nafi bor? – dedi o'smoqchilab. – Ota-bobong, inchunun, men ham o'qimay bir kunimizni ko'rib yuribmiz.

Otaning bu gaplari Kamolning hafsalasini pir qildi. U to shaharga qaytguncha o'zini otasidan olib qochib, yotsirab yurdi.

Bu yil yozgi ta'tilga kelgan Kamol Azimning ko'ziga boshqacha ko'rindi. Bo'yi cho'zilgan, yuziga husnbuzarlar toshganidan uyalib, o'zini noqulay sezishi, ko'zlarida ilgarilari payqamagan qandaydir parishonlik otaning ko'nglini yumshatdi. U endi ich-ichidan qishloqdagi yigitlardan kiyinishi, yurish-turishi bilan-gina emas, balki xulq-atvori bilan ham alohida ajralib turadigan o'g'liga ko'pchilikning havasi kelayotganini sezmasdan iloji yo'q edi. Kecha esa yaylovga, men bilan borasanmi, deb so'rgananida o'g'lining ikkilanmasdan rozi bo'lganini ko'rib, unga bo'lgan ixlosi va mehri yana oshib ketdi. U ortda Samad bilan hangomalashib kelayotgan Kamolga o'g'rincha nazar tashlarkan, qalbida otalargagina xos g'ururli hayajon toshganini his etardi.

Samad esa uzoq safarda hamroh topilganidan xursand bo'lib, Kamolni savollarga ko'mib kelardi.

– Ayt-chi, shahar yaxshimi, tog'?

– Kimga qanday. Bu – o'rganishga bog'liq.

– Men sendan so'rayapman.

– Mengami? Albatta, tog' yaxshi.

– Ana ko'rdingmi? – derdi Samad ma'nodor boqib, suhbatdoshining nozik joyidan tutgan kishidek. – Hech yer toqqa kelmaydi...

– Lekin shahar ham o'rganganga yaxshi.

– Aytaylik, sen o'rganding. O'sha yerda qolasanmi?

– Yo'q.

– Ana shu-da, – ta'kidlaydi Samad.

Kamol qamchi dastasi bilan yelkasini qashiydi. Ko'zlarini pirpiratib olg'a, suruvni boshlab borayotgan otasiga qaraydi. Samad yana uni gapga tutadi:

– O'qishni tugatganingdan keyin kim bo'lasan?

– Quruvchi.

– Nimalar qurasan?

– Binolar... – Kamol mujmal javob beradi. Hamsuhbatining ezmaligi uni zektiradi. Otni qistaydi va dam o'tmay gap mavzuini o'zgartirish uchun so'raydi:

– Kechalari tog'larda sovuq bo'lsa kerak?

– O'zing bilasan-ku.

– So'rayapman-da.

– Tog' shamolidan hali lablaring tars-tars yorilib ketadi.

Kamol beixtiyor lablarini yalaydi:

– Kechalari gulxan yoqamiz, rosa gurillatib.

Oradan chorak soat o'tgach, archazor o'rmon boshlandi. Kamol uzalib, archa shoxini sindirib olib, hidlaydi.

– Hoy, Samad aka, archa solib tandir kabob qilib berasizlarmi?

– Otang rozi bo'lsa biz hamisha go'shtxo'rlikka tayyormiz.

– Senga yotib yeyish bo'lsa bas, Samad, – dedi Azim yon tomondagi archa shoxlarini qo'llari bilan yorib, otda chiqib kelarkan. – Yeganlaring kabob bo'lsin.

Kamol otasining tantiligidan sevinib ketdi.

– Otlarni ildamroq haydanglar, – dedi Azim yigitlarga, – qosh qorayguncha Zarkosaga yetib olaylik. O'tin-po'tinni kun yorug'ida termasak, momolaring tayyorlab qo'ygani yo'q u yerda. – U shunday dedi-da, otini yo'rtirib, oldingga o'tib ketdi.

Zarkosa – tog'ning eng baland cho'qqisi. Uning etaklari ancha tekis bo'lib, yilqilarni yozda boqish uchun juda bop yaylov edi. Yilning hamma fasllarida bu yerda kuchli shamollar bo'lib turadi. Yozning o'rtalarida ham uning yonbag'irlaridagi baland archazorlar tagida qor erimaydi. Shamol turgan paytlarda esa chor-atrofdagi o'rmon vahimali shovillaydi. Qordan endigina bo'shagan soya-salqin yerlarda ba'zan boychechaklar ko'zga chalinib qoladi. Bo'tako'zlar esa butun sayhonlik, archalar orasidagi ochiq maydonlarda gilamdek sarg'ayib yotadi. Bu yerda qish bilan saraton qo'shni yashaydi. Kunduzi yoz bo'lsa, kechasi qish. Kunduzi ko'kragini shamolga berib maykachan chopib yurgan kishi, kechasi po'stinda sovqotadi. Kamol shaharda yurib ana shu tez o'zgaruvchan manzara va daqiqalarni sog'ingan edi. U hali uzoqdan Zarkosa cho'qqisining qo'rg'oshin rangli yelkalariga ko'zi tushishi bilan bolaligidan aziz bo'lib qolgan shu yovvoyi tabiat quchog'iga qaytganidan shodlanib ketdi.

Otasi bilan Samad qo'shxona tiklashga kirishib ketishganda, Kamol archazor oralab yurardi. Usti sarg'ayib, gard va barglar bilan qoplangan qorni g'arch-g'arch bosib borarkan, archa va boshqa turli giyohlarning hidini huzur qilib sirqorardi. Quyuq o'rmonzor ichiga kirgach, qalin qor ustiga cho'kkalab o'tirdi va qorni kovlab, toza yeridan bir changal olib kappaladi.

Qo'shxonaga qaytib kelganida Samad uning qo'lidagi qorni ko'rib:

– Hoy, nodon, qor yema, bu yerda tomog'ingni davolaydigan do'xtir xolang yo'q, – deb kalaka qildi.

– Nima, shaharda yurib noziklashib ketgan, deb o'yalayapsanmi bizning o'g'ilni, – dedi Azim brezent chodirning uchidagi irni qoziqqa tortib bog'larkan.

Kamol bu hazil gaplarga ham, atrofini o'rab turgan archalarga ham; cho'qqilar, allaqachon yaylovga yoyilib, bosh ko'tarmay ko'kat kavshayotgan yilqilarga ham boqib to'ymasdi. Kamol xurjundan arqon va boltani oldi-yu, chopqillagani-cha o'rmon ichkarisiga kirib ketdi.

Kech kirdi. Atrofdagi archalar qorong'ilik ta'sirida kichraygandek, yarim beligacha tog' bag'riga kirib ketgandek, endi esa tog' o'rkachlari va ular ustida

osilib turgan yulduzli osmon salobatli bo'lib qoldi. Kamol o'rmon ichidan qurigan shox-shabbalarni orqalab tashidi. So'nggi marta otasining: «Bas, yetar», degan e'tiroziga ham qaramasdan Samad bilan borib katta archa shoxini sudrab keldi. Shundan so'ng ochiq joyda gulxanga o'tin qaladi. Samadning toqati toq bo'ldi.

– Yoqsang, yoq-da, – dedi zorlanib.

– Hali barvaqt, soat to'qqiz bo'lsin. – Kamol tunda raqamlari yonadigan soatiga qaradi.

Kamol roppa-rosa to'qqizda gulxanni yondirib yubordi. Nonushta qilishayotgan Azim bilan Samad dastlab dasturxon boshida bamaylixotir o'tirishdi. Keyin alanganing qizg'ish tillari tobora yuqoriga o'rlagach, dasturxonni sudrab orqaga chekinishdi. Birpasda atrof yorishdi. Qorong'ida kichrayib ko'ringan archalar yana salobatli bo'lib ko'rindi.

– O'rin solinglar, men yilqilardan xabar olib kelay, – deb qo'zg'aldi Azim nonushtadan so'ng.

Kamol gurillab yonayotgan gulxanga o'zini toblar va yiroqlarda, archalar ortida ko'rinayotgan vodiydagi son-sanoqsiz chiroqlarga tikilar edi.

– Hoy, bola, nega qaqqayib qolding, – Samad uning yelkasiga turtdi.

– Mana, bu uchqunlar anavi chiroqlarga o'xshaydi-ya, – dedi talmovsirab Kamol. – Samad aka, Denov shahri qayerda, bir ko'rsating?

– Denovnimi? Hu ana, g'ujja chiroqlar yonyapti-ku, o'sha. Nima edi?

– O'zim, shunday.

– Menga qara, – dedi sinchkovligi tutib ketgan Samad shahar nomini eshitib gumonsirab. – Shahardan birontasini topdingmi, deyman?

Kamol yalt etib qaradi va Samadning nigohiga tob berolmay ko'zlarini olib qochdi.

– Ha, bolasi tushmagur, – Samad ko'rsatkich barmog'ini bigiz qilib o'dag'ayladi. – Hali shunday de. Aytchi, ismi nima?

– Nimalar deyapsiz?

– Gapir, bo'lmasa otangga aytaman!

– Keyin... Ana, otam kelyapti...

– Bo'пти, lafzingda turasan-a?

– Xo'p.

Samad zo'rma-zo'raki yo'talib, o'rin sola boshladi.

– Men charchadim, uxlayman. Sizlar otlardan xabardor bo'lib turinglar, – dedi Azim va yechinmasdan sholchanning chetidagi o'ringa kirib cho'zildi.

Kamol bilan Samad gulxan atrofida o'tirishar va Azimning uyquga ketishini kutishardi. Nihoyat, uzoq cho'zilib ketgan jimlikni birinchi bo'lib Samad buzdi:

– Qani, endi ayt.

– Sekin, eshitib qoladi, – shivirladi Kamol.

– Eshitmaydi, aytaver.

– Nima qizig'i bor sizga?

– Ah-ha, hali aytmaysanmi?

– Aytaman dedim-ku. Hech kimga og'zingizdan chiqarmaysizmi?

- Odam emasman.
  - Bo‘pti... Ismi Oyxol.
  - Oyxol? Yaxshi ism ekan. O‘ziyam oyga o‘xshaydimi?
  - Kim biladi deysiz.
  - Sevib qoldingmi?
- Kamol yelkasini uchirdi.
- Ota-onasi yaxshi odamlarmi?
  - U yog‘ini surishtirganim yo‘q.
  - Shaharning o‘zidanmi?
  - Ha.
  - Bechora ukam, shaharlik bo‘lsa, tag‘in laqillatib yurgan bo‘lmasin.
  - Yo‘g‘-e. Biz xayrlashayotganda kelishganmiz: men besh kun tog‘da gulxan yoqaman, u esa qaraydi. Gulxanni ko‘rib, mening yoqqanimga ishonadi.
  - Ey, sodda ukam. Gulxaning nimasi? Nima, tog‘da sendan boshqa kishi gulxan yoqmaydimi?
  - Mening gulxanim hammasinikidan katta. O‘zi aytgan: gulxan yoqasiz, men gulxanni ko‘rib sizni ko‘rganday bo‘laman, degan.
  - Hozir mana, sen gulxan yoqding. Oyxol shunga qarab turganiga ishonasanmi?
  - Ishonaman.
  - Qiziq... Men ishonmayman.
  - Siz siz-da. Men ishonaman. Xuddi hozir ham men bilan birga, meni kuzatib o‘tirgandek. Hu, chiroqlar ko‘rinyapti-ku, shu chiroqlarning yorug‘ida u ham men to‘g‘rimda xayol suriyapti.
  - Aynibsan, uka. Yoshing nechada?
  - O‘n sakkizda.
  - Chindan ham go‘dak ekansan.
  - Nega unday deysiz? – izzat-nafsi og‘ringan Kamol Samadni jerkib tashladi.
  - Hali sirkang suv ko‘tarmay qoldimi. Otangga aytam-ku, mulla qilib qo‘yadi.
  - Aytasangiz aytavering, qo‘rqmayman, – dedi Kamol.
- Azim esa ikkalasining gurungini boshidan oxirigacha tinglab yotardi. O‘g‘lining toqqa chiqishidan otasining ko‘ngliga qarab ish qilishidan o‘zga ham sabablari borligini endi anglagan bo‘lsa-da, lekin bu sabablardan ranjimadi. Aksincha u o‘g‘liga nisbatan ilgarilari juda shafqatsiz bo‘lganini his etdi. Kamol bugun uning ko‘z o‘ngida balog‘atga yetgan, oriyati kuchli, ajoyib yigit bo‘lib gavdalandi. Demak, bir zamonlar o‘zini band etgan hayotning katta tashvishlari endi o‘g‘liga ko‘chibdi. Bu hayot tashvishlarining ilk shabadalari shu yovvoyi tog‘ cho‘qqilariga o‘g‘li bilan hamroh bo‘lib kelibdi. Samad bilan suhbatda ilk daf‘a yolqinlangan oriyat o‘ti uning ko‘zlarida porlab turibdi. Ana shu oriyatni birinchi bor dadil turib himoya qildi. O‘g‘lining dadilligi va jur‘ati Azimni quvontirib yubordi.
- Samad, gaplaring muncha sovuq-a? – dedi u o‘rnidan turarkan. – Kamol, o‘g‘lim, gulxanga o‘tin tashla, gurillab yonsin, – Azim vazmin bo‘lishga urinardi.
  - Sovqotdim...



# Muhammad Salom

(1938-yilda tugʻilgan)



Muhammad Salom 1938-yil 19-aprelida Buxoro viloyatining Gʻijduvon tumaniga qarashli Choʻgʻolon qishlogʻida tugʻilgan. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti (SamDU)ning filologiya fakultetini tugatgan (1963).

Birinchi hikoyasi – «Meni kechirsang bas» (1961).

Ilk hikoyalar toʻplami – «Kechirim» (1969). Shundan soʻng yozuvchining «Yurakdagi izlar» (1970), «Toshloqdagi xazina» (1971), «Sevgi tori» (1973), «Iqror» (1975), «Shifobaxsh qoʻllar» (1976), «Dovul» (1977) kabi qissa va hikoyalar toʻplamlari nashr etilgan. «Muvozanat» (1985), «Najot» nomli (2 kitobdan iborat; 2011) romanlari muallifi.

## QARZ

Hayit aka ishdan horib, hafsalasiz qaytdi. Ish ogʻir emas, ammo yolgʻon vaʼdalar uni charchatib, asabiylashtirdi. Shunga qaramay, oʻzini bosiq tutib, tiliga erk bermadi, dardini ichiga yutdi: «Keyingi safar uch oylik maoshni qoʻshib olaman, bir talay boʻladi», deya oʻzini ovuntirdi. Faqat ayoli xarxasha qilmasa, bas.

Qiziq, Nilufar xola eshikni nim tabassum ila ochdi-yu, eriga sirli:

– Mehmon bor, – dedi sekingina.

– Mehmon? Kim? – Ensasi qotib soʻradi er. Axir hamyon quruq boʻlsa, nochorgina dasturxon bilan mehmon kutish koʻngilga sigʻadimi? Nilufarning chehrasiga qaraganda nozikroq, balki kerakli mehmonga oʻxshaydi.

– Sovchilar, – shivirladi xotini erining koʻnglidagini sezib.

– Hm... – deb qoʻydi Hayit aka qoshlarini koʻtargancha, sal ochildi: «Zoʻrroq dasturxonga hojat yoʻq». Biroq shu ondayoq darhol tundlashdi: – Ularning javobini beruvdik-ku!

– Sekinroq gapiring... – ayol erini turtdi. – Bular boshqacharoq. Bama'ni odamlarga o'xshaydi. Yigitning ota-onasiykan. O'zlari kelibdilar.

– Bari bir emasmi? Biz hozir qiz chiqazolmaymiz. Axir bitimizga to'y qilamizmi?

– Avval ko'ring, gaplashing, keyin bir nima deng-da, otasi, – Nilufar xola erib ketib, erining elkasidan silagan bo'ldi. – Bunaqada uyimizga hech kim kelmay qo'yadi. Qiz bolaning ishi qursin. Kiraqoling, otasi, mahtal bo'lishdi.

Hayit aka qo'li-yu yuzini chayib, o'zga uyga kirgan kabi sal begonasirab, mehmonlar o'tirgan xonaga qadam qo'ydi. Sovchilar bo'lmish er-xotin darhol o'rinlaridan turib, mezbon bilan so'rashishdi. O'rta yoshlardagi, bejirim kiyingan, ochiq chehrali juftlik bir qarashdayoq ziyoli odamlar ekanini a'niq sezdirib turardi. Bu holat Hayit akaning vujudiga allaqanday nur yo'naltirdi-yu, to'satdan ko'ngli yorishib ketdi.

– Aybga buyurmaysiz, akaxon, – dedi o'ng'aysizlikka barham berib, erkak mehmon, – biz ogohlantirmasdan, shunchaki tanishish uchun, norasman keldik.

– Zarari yo'q, – deb qo'ydi Hayit aka va endigina yoyilgan, buxanka non-u likobchada arzon qog'ozli konfetdan bo'lak hech narsa yo'q dasturxonga ko'z qirini tashladi. So'ng nafasi ichiga tushgan kabi: – xush kelibsizlar, – dedi.

– Agar fikrimiz bir yerdan chiqsa, keyin rasman sovchi yuboramiz.

– Yaxshi o'ylabsiz, – dedi Hayit aka sal mulohazadan so'ng ochiq tan berib. – Ammo qizimiz hali o'qiyapti. Yana uch yil o'qishi kerak.

– O'qishni davom ettiraveradi, – shoshqin gapga aralashdi ayol mehmon. – Xudoga shukr, kelinni o'qitishga qurbimiz yetadi. Ikkalovining yulduzi mos tushsa, bas. Qiziz haqida yaxshi gaplar eshitganmiz.

Mezbonlarga javob ma'qul tushdi. Ammo bir nafas o'yga tolishdi.

– Biz hali qiz chiqarmoqchi emasdik, – yerini tushunib, gap qo'shdi Nilufar xola. – Tayyorligimiz ham yo'g'idi. Zamon o'zgarib ketdi.

– Harakatlarimiz boshlanganidan keyin tayyorgarlik ham o'z-o'zidan bitib ketadi, xolajon, tashvishlanmang.

– Bizga hech nima kerak emas, opajon, – erkak mehmon dangaliga ko'chdi. – Bizga yaxshi odam, yaxshi kelin kerak. Zamonga qarab ish tutaveramiz.

– Aytasiz-da, ukajon, – dedi o'ylanqirab Nilufar xola. Ko'nglidan esa: «Rozilik olguncha shunday deyishadi. Nag'malar keyin boshlanadi», degan o'y o'tdi.

– Agar ma'qul topsangizlar, dam olish kuni qizlaringiz bilan Yoqubjonni uchrashtiraylik, shoyad bir-birlarini yoqtirishsa, – dedi nogoh ayol mehmon.

Mezbonlar bir-birlariga qarab olishdi. Hayit akaning ichidan bir nima uzilib tushganday, bo'shashibroq ko'zini yerga suzdi. Ayoli esa o'zini yo'qotmay:

– O'ylab ko'raylik, maslahatlashaylik, – dedi.

– Ha, to'g'ri, – jonlandi Hayit aka. – Fikrimizni keyin aytamiz.

O'sha kecha er-xotin deyarli uxlashmadi. Goh «qudalar»ni maqtashdi, goh ulardan ayb izlashdi, goho bahslashib, qattiq-qurum gaplarga ham borishdi.

– O‘ziga to‘q, badavlat bo‘lgani tuzuk, ammo o‘zimizga o‘xshagan musofir ekani yanada yaxshi, – dedi nihoyat Hayit aka.

– Ha-ya, – ma‘qulladi xotini, – tengi chiqsa, tekin ber, deptilar.

Hayit aka xoxolab kuldi-yu, darhol tinib, ayolini kesatdi:

– Ol-a, tengi emish. O‘zlarini ko‘tarib yubormadilarmi ishqilib?

– Kulmang. Men ko‘rpamga qarab oyoq uzataman.

Hayit aka bilan xotini qo‘shni ikki viloyatdan poytaxtga kelib qolishgan. Ikkalasi ham o‘qishga kirish uchun to‘qimachilik kombinatida ishlagan. O‘sha yerda tanishib, turmush qurishgan. Ikki qizlarini toshkentchasiga turmushga chiqarishgan: xilma-xil sarupolar, mebellar, antiqa sovg‘alar ayalmagan. Yetti yillik tanafusdan keyin tug‘ilgan Nozimaga navbat yetganda vaziyat o‘zgarib, orzu-havaslar yo‘li torayib ketdi. Er-xotinning bahsi ko‘pincha shunga borib taqaladi.

– O‘z odatimizni qilaveramiz-da, otasi, – dedi nihoyat pastroqqa tushib, Nilufar xola. – Qalin puli so‘ramaymiz. Shunga qarab, mebel ham olmaymiz.

– Nozimang o‘ksimaydimi? Opalarimdan qayerim kam demaydimi?

– Desa – der, iloj qancha. Qiz bolani ortiq tutib bo‘lmasa... Yana shunaqa sovcilarga duch kelamizmi, yo‘qmi, xudo biladi.

– Gaping to‘g‘ri-yu... – Hayit aka jimib, xayolga toldi. So‘ng to‘satdan jonlandi. – Nozimani kamsitib qo‘ymaylik. Mayli, uchrashtiringlar, bolaniyam yaxshilab surishtiringlar.

– Biror najot yo‘li topiladiganmi, otasi?

– Qarz olamiz. Qishloqdan, u yoq-bu yoqdan aylanib kelarman balki.

– Ha-ya, boyvachcha og‘aynilariz bor. Bir tomonni ko‘tarishsa...

Uchrashuvlar, «o‘rganish»lar masalani tezda bir yoqlik qildi: ikki oydan so‘ng to‘y. Hayit aka vaqtni boy bermay ham to‘yga xabar, ham qarz ko‘tarish ilinjida poyezdga o‘tirdi. Yurtdoshlari, qarindosh-urug‘lari orasida bir necha yil bo‘lma-gan edi, gina-kuduratlar ila qarshilashdi. Yana u aniq sezdi, odamlar ancha o‘zgargan: avvallardagiday ezmalanib o‘tirishlar, chuqurroq so‘rashuvlar yo‘qol-ganday. Hamma o‘zi bilan o‘zi ovoraday. Bekorchixo‘jalar esa birovga qayrilib boqishga, so‘rashishga erinadiganday. Go‘yoki begonalashuv jarligi tobora ken-gayib, chuqurlashib borayotganday, yirik-yirik darz ketishlar ro‘y berayotganday.

«Nahotki yashash uchun kurash kishilarni shunchalar tez o‘zgartirirti, – dedi o‘ziga o‘zi Hayit aka. – Bozor siyosati shunaqa kecharmikan, a?»

Ikkinchi kuni kechqurun yolg‘iz qolishganda Hayit aka fermer ukasiga ko‘nglini yordi:

– Tayyorgarliksiz to‘y boshlab qo‘ydik, uka.

– Qanaqa to‘y, aka? – Nechundir xavotir aralash talmovsirab so‘radi uka.

– Jiyaning Nozimani uzatayotibmiz.

– E, muborak bo‘lsin! Bo‘yi yetib qoldimi, a? Amakilab, yelkamga yopishar-di, qo‘ltig‘idan tutib, tepaga otardim. Yana-yana deb, meni charchatardi. Xuddi kechagiday.



- Ha, yillar ot choptirib o‘tayopti. Bormaganinggayam ancha bo‘ldi.
- O‘zingiz-chi? Esizdan chiqay depmiz, – uka ginani cho‘zmay, o‘zi qiziqqan savolni berdi. – Qudalariz o‘zimiz tomon odamlaridanmi?
- O‘zimiz tarafdand emas... – Hayit aka chaynaldi, – lekin o‘zimizday musofir, qiyinchiliklarni boshdan kechirgan kishilar...
- Xay, bunisi tuzuk ekan. Unda katta tayyorgarlikning nima keragi bor, aka? Avvalgi ikki jiyanda rosa shilingansiz. Endi bunday qilmang-da, aka, zamonga qarab ish tuting: yumaloq-yastiq qilib, jo‘nating, yuboring-da.
- O‘ylab gapirayopsanmi? Nozimaning boshqalardan qayeri kam?
- Ha, endi imkoniz bo‘lsa... – uka gapini tugatmay yerga qaradi.
- Fermang meni quvontirdi, – dedi Hayit aka ukasidan durustroq taklif chiqishini ko‘zlagancha. – Bo‘rdoqilarning semiz, sigirlarning gavmish...
- E, akajon, bularning har biri olamcha tashvish, ming bir g‘alva. Hali davlatdan olgan qarzimdan qutilganim yo‘q. Boshqalardan ham qarzim bor. Buning ustiga boyvachchalar qatoriga qo‘shib, yulqiydiganlar ko‘p.
- Hm... Sengayam oson emas ekan.
- Qiyin, aka, juda qiyin. Oriyat degan tuyg‘u bo‘lmaganda, tashlardimketardim. O‘zimni savdogami, boshqa ishlargami urardim.
- Hayit aka o‘ylay-o‘ylay ukasidan qarz so‘rab, suxani sinishini fahmlab, bu xususda endi og‘iz ochmaslikni lozim topdi. Yaxshisi, hozir tumandagina emas, butun viloyatda tilga tushgan, sobiq maktabdoshi Vahob Tadbirga yo‘liqish. Puli achib-bijg‘ib yotibdi, deyishadi. Yo‘q demaydi, qarzini qistamaydi ham. Mard odam. Shuni o‘yladi-da, Hayit aka ukasiga tasalli bermoq niyatida:
- Savdoyam sen o‘ylaganday oson emas. Manaman degan savdogarlar ham sinib, barmoq tishlab qolayotgan emish. Fermani tashlama, unda kelajak bor, – dedi.
- Bu maslahatda ham qandaydir ishora borday edi.
- To‘g‘ri-yu... – uka yana nolimoqchi bo‘ldi. Aka esa cho‘zmay muddaoga o‘tdi:
- Ertalab mashinangda, aytgancha, u ko‘rinmayoptimi, – aka ayvon sari qaragancha so‘zini davom ettirdi, – meni Vahob oshnamnikiga oborib qo‘ysang.
- Yaxshi o‘ylabsiz, aka, – ukasi quvonchini yashirolmadi. – To‘yingizni bir tomonini ko‘tarib yuborishi hech gap emas. Menda bo‘lganida sizdan ayarmidim?
- Sendan mashina so‘radim, xolos.
- Mirzayor jo‘ramga aytaman, sizni oborib qo‘yadi.
- O‘zingiz-chi? Birga mehmon bo‘lardik.
- Xafa bo‘lmang, aka, ishim juda ko‘p. Hozir borib, Mirzayorga aytaman. Akasi og‘ringanday bo‘lganini sezib, uka:
- Mashinani telejkali traktorga almashtirganimga ancha bo‘ldi-ku, aka, – dedi. – Eshitmagan ekansiz-da.
- Esiz...

– Achinmiyman. Traktor ikki-uch hissa ko‘proq yordam beradi menga. Unda yer haydayman, yem-xashak, o‘t-beda tashiyman, bozorga qatnayman. Shunda mollarning nurisini ortib, sotaman.

– A? – Hayit aka ukasiga ag‘rayib qaradi. – Molni bo‘...ini sotasanmi?

– Ajablanmang, aka, bu zamonda evini qilsangiz – hamma narsa pul. Hatto yaxshi maslahat ham pulga sotiladi...

Hayit aka tuni bilan o‘ylab, uxlolmay chiqdi. Antiqa zamon, unga qarab o‘zgarayotgan odamlar, moslasholmay dovdirab yurgan kimsalar haqida bosh qotirdi. Mirzayor haqida ham o‘yladi. Negadir uning kelishiga ishonmadi. Mashina moyi palon pul, ishdan qolish... Yo‘q, har qalay, Mirzayor ko‘p kuttirmadi: kun ko‘tarilmasdan darvoza oldida uning eski «aravasi» «bi-bir»ladi. Sal o‘tmay, Mirzayorning ochiq chehrali, g‘o‘la qiyofasi Akaxon ro‘parasida paydo bo‘ldi:

– Tayyormisiz, aka? – So‘rashuvdan so‘ng surishtirdi u.

– Tayyormanu, ammo sizni ovora qilayotganimdan xijolat chekib turibman.

– Xijolat chekmang, aka, qanday bo‘lib, ishingiz tushibdi, xudoga shukur, imkon bor ekan, taysallasak, uyat bo‘ladi.

– Rahmat, g‘ildiragingiz doimo aylanib tursin.

Mirzayor jilmayib qo‘ydi.

– Haliyam duradgorlik qilyapsizmi? – Ancha yo‘l bosganlaridan so‘ng haydovchidan so‘radi Hayit aka.

– Ba‘zan-ba‘zan, buyurtma chiqib qolganlarda boraman.

– Ishqilib, tirikchilik yukini tortadimi?

Mirzayor bir nafas sukut saqladi. So‘ng tortingannamo ohangda:

– Sizdan yashiradigan sir yo‘q, aka, – deya Hayit akaga qarab oldi. – Asosiy yukimizni mana shu qirchang‘i tortib turibdi. Xudoga shukur, nolimayman, bizani shu boqayopti.

Bunaqa gaplar Hayit aka uchun yangilik emas. Rosti, hozir hamma yoqda kirakashlar tiqilib yotibdi: istalgan vaqtda istalgan tarafga ulov topiladi. Juda qimmat ham so‘rashmaydi – raqobat hukmron. Mirzayor ham shundaylardan biri-da.

– Harakatda barakat bor deganlar, – Hayit aka Mirzayorni rag‘batlantirdi. – Buning uyatli joyi yo‘q. Endi, ukajon, agar oshnamni topsam, meni qoldirib qaytasiz. Agar olisroqqa ketgan bo‘lsa, birga qaytamiz.

– U kishi behudaga bir qadam ham siljimaydilar. Hamma ishni o‘tirgan yerlarida, tilponda boshqaradilar.

– To‘g‘ri, oshnam vaqtning qadriga yetadi. To‘g‘ri qiladi.

Hayit aka ikki oshiyonli, hashamatli, g‘ishtin bino o‘rtasida o‘rnatilgan naqshli darvoza yonida mashinadan tushdi. Shu zahoti ichkaridan qop-qora bir yigit qo‘l qovushtirib chiqdi.

– Xo‘jayin bormilar? – Mirzayor undan so‘radi.

– Hokimiyatga ketuvdila. Yarim soatda qaytsalar kerak, – yigit gapirgan ko‘yi mehmon bilan ko‘rishdi. – Ichkari kiring, tog‘a. Men sizni tanidim.

– Shunaqami? Rahmat! – Hayit aka yigitning yelkasiga qo‘l urib qo‘ydi-da, ortiga qaytib, mashina tumshug‘ida o‘ralashgan Mirzayorning ko‘ylak cho‘ntagi-ga ikkita ikki yuz so‘mlik yap-yangi pulni tiqib qo‘ydi. – Rahmat sizga!

Mirzayor cho‘g‘day qizargancha Hayit akaning bilagidan shoshqin tutdi-da, haligi pulni yo‘lovchisining kostyumi kissasiga qayta solarkan:

– Hali odamgarchilikni yo‘qotganimiz yo‘q, aka, – dedi. – Odamni uyaltir-mang.

– Ro‘zg‘ordor odamsiz. Men chin ko‘nglimdan chiqardim buni.

– Xayolizgayam keltirmang, – Mirzayor ortiga tez burilib, mashinaga o‘tir-di. – Qachon kelay, aka?

Hayit aka nechundir kalovlanib, qora yigitga birrov nazar soldi. Buni o‘zicha tushungan yigit:

– Mehmon endi ustoz ixtiyorlarida, – deya kulimsiradi.

Hayit aka oshnasining yangi hovlisiga avval kelmagan edi. Xizmatkorning qistoviga qaramay, uyga kirmay u bilan birgalikda hovlini, ajib va shinam bog‘ni ko‘zdan kechirdi. Tadbirkor oshnasining dadilligiga, dedi-yu farosatiga qoyil qol-di. Darvozadan kiraverishdagi xilma-xil gullar kamalagi tashrif buyurguvchida gullar peshvoz chiqayotganday taassurot uyg‘otadi.

Tashqarida mashina tovushi hamda Vahob Tadbirning kimgadir topshiriq ber-gan ovozi eshitildi. Ko‘p o‘tmay, yengi kalta, yap-yangi, zarg‘aldoq shoyi ko‘y-lak, boshiga somon shlyapa kiygan, oltmish yoshlar ko‘rinishidagi cho‘zinchoq yuzli, bug‘doy rang Vahob Tadbirning tanish siymosi ko‘rindi-yu Hayit aka beix-tiyor oldinga intildi.

– E, keling, keling, Hayitvoy aka, – Tadbirkor qadamini tezlatib, mehmonga peshvoz yurdi. Garchi, mehmon yoshroq esa-da, o‘zi hurmatlaydigan kimsalarni bu odam «aka» sifati bilan chaqirishga odatlangan. – Ko‘rinmay ketdingiz?

Ikkala oshna quchoqlashib ko‘rishdilar. Darhol mehmon kutiladigan uzun-choq, ayni paytda kenggina, baland, naqshinkor xonaga kirdilar. Stol usti allaqa-chon turfa mevalarga, ma‘dan suvlaru shirinliklarga to‘latib tashlangan edi. Ha de-may, idishlarda suzma, salatlar, ko‘katu suyuq ovqatlar birin-ketin kela boshladi.

– Xo‘sh, Hayitvoy aka, yuzta-yuzta qilamizmi?

– O‘zingiz-chi? – Kulib so‘radi mehmon. Chunki u oshnasining ichkilikka hushi yo‘qligini yaxshi bilardi.

– Mehmon bo‘lib kelibsiz, ichmasak bo‘lmas, – ko‘zini qisib dedi mezbon.

Vahob Tadbirning ichish usuli mehmonga sir emas: alyorlar aytiladi, qadahlar to‘qnashadi, mehmonga avval ichkaziladi, so‘ng bu odam qadahni labiga tekkizib, biror idish panasiga qo‘yadi.

– Biz ham ichishni tashlaganmiz, aka, – dedi dangal Hayit aka.

– Yo‘g‘-e, hazillashmang, – mezbon «Toshkent oqshomi» degan ajib suratli shishani ochishga urindi. – Bitta olasiz endi.

– Yo‘-yo‘q, rosti, Vahobjon aka, – mehmon shishaga tarmashdi. – Ancha bo‘ldi, ichmayapman. Bas-da endi shuncha gunohlarga botganimiz. Gaplashib o‘tiraylik.

Fikr ma'qul tushdi. Suhbat qizidi. Uy egasi ulardan xabar olib turgan xizmatkor orqali har xil ko'rsatmalar berdi, o'zi bilan olib yuradigan jajji, hozirjavob apparatdan kimlargadir javoblar qaytardi.

Nihoyat mehmonni ilhaq etgan muddaoga o'tish mavridi ham yetdi:

– Kenja qizimizni uzatayopmiz, aka. Sizni to'yga aytgani keldim.

– To'y qachon?

– Avgustning oxirgi shanbasida. Nahorga osh berishni mo'ljallayapman.

– Yaxshi, muborak bo'lsin! Hali vaqt ko'p ekan, nasib qilsa, borarmiz.

– Siz bormasangiz bo'lmaydi, aka.

– Xudo xohlasa, boramiz.

– Shu, deng, aka, – mehmon tortingancha mulozamatni uzoqdan boshladi, – avvalgi ikki qizimizga bor orzu-havasni qilgan ekanmiz, bor-yo'q bisotni ishlatibmiz.

Vahob Tadbir sezgir odam, gap paynovini ilg'ab:

– U davrlar o'tdi, – dedi kulgancha. – Har kim o'z ko'machini o'zi ichadi.

Otang bozor, onang bozor deydilar.

– To'g'ri-yu... shu keliniz... – mehmon chaynaldi.

– Bilaman, Toshkanda qiz chiqarish qursin. Eshitganman: toshkanlik uch qiz chiqarsa, so'roqsiz jannatga kirarmish.

– Kamina ham toshkanlik bo'lmasak-da, jannatga nomzodmiz, – siniq kuldi Hayit aka.

Vahob Tadbir tishining oqini ko'rsatdi va:

– Eslatmabsiz-da, shu yoqdan tuzukroq quda topardik, – dedi hazillashib.

– O'shanda ham qarab o'tirarmidik. O'rgangan ko'ngil deymizmi, tarki odat amri mahol deymizmi...

– Xo'sh, nima qilmoqchisiz?

– Sizga yukinib keldim, aka.

– Xaa... – Tadbirkor o'ylanib qoldi. – Ko'ki bilan hisoblaganda sizga biror ming kerak-da.

Hayit aka pul hamyonga naqd kirgan kabi quvonib ketdi.

– Topdingiz, aka, yashang! – deb yubordi beixtiyor u. – Bir yilda qarzni uzaman.

– Hayitvoy aka, gap bunday, – mezbon gapni cho'zgisi kelmadi. – To'g'ri, bunday qaraganda – boyman. Rosti ham shunday. Katta bog'im, chorvog'im bor, chorvam bor. Paxtam ham bor. Har yili irak qurti boqaman.

– Bundan-da ziyoda bo'ling, aka.

– Lekin qarz berolmiyman-da.

– Nega? – Anqaydi mehmon. Go'yo u chanqoq edi-yu, kosadagi muzday obihayotga qo'l cho'zganida barmoqlari titrab, qaltirab, kosa ag'anadi, suv to'kildi. – Ishonmaysizmi? Hissasini chiqarib...

– Unday demang, men foiz oladigan sudxo'r emasman. Ammo biror kimsaga ham qarz bermaslikka qasam ichganman.

– Qasam? – Bu so‘z la‘nat yopishgan kosani endi chil-chil sindirdi-yu, ichidagi so‘nggi tomchilar ham sochilib ketdi.

– Xafa bo‘lmaysiz, aka, shunday qasam ichishga hayot majbur qildi.

– Xaa...

– Birovga qarz berasizki, hojatini chiqarsin, ishini bitirsin, o‘zini o‘nglasin, deysiz. Lekin yaxshilik ba‘zan yomonlikka aylanib ketadi.

– Har xil odamlar bor, – ming‘irladi mehmon.

– Ikki yaqin odamim pand berdi menga. Taniysiz. Kimligini aytmayman.

– Qarz so‘rashuvidimi?

– Bittasi uch ming, ikkinchisi besh ming ko‘kidan oluvdi. Ikkoviyam bir oyda qaytarishga so‘z beruvdi. Mana, ikki yildan oshdiki, meni ko‘rsa, o‘zini panaga uradi, men bor yerdan qochishadi. Xuddi men Azroil ular uchun.

– Qiziq, – deya Hayit aka o‘sha odamlarning ahvolini ko‘z oldiga keltirdi. – Xatoga yo‘l qo‘yib, puldan ajralishgandiru endi xijolat chekishayotgandir balki.

Vahob Tadbirga bu mulohaza yoqmad i chog‘i, peshonasi tirishdi. So‘ng:

– Hech bo‘lmaganda oldimdan o‘tishi, salom-alikni yo‘qotmasligi mumkin-midi? Xullas, ham ikki yaqin odamimdan, ham boyligimdan ayrildim, – dedi. – Endi to‘y masalasi... – u bosh qashidi, – to‘yga boraman. Ammo qarz bermiyman. Ortiqcha pulim ham yo‘q. Qirq-ellik odam ishlataman. Ularning tirikchiligi – zim-mamda. Boshqa xo‘jaliklarda odamlar yillab ish haqi ololmayotgan holda men xizmatchilarim bilan oyma-oy hisob-kitob qilib boraman.

– Sizni bilaman-ku, bu borada tengiz yo‘q...

– To‘yga meva-cheva, ellik-oltmish ming so‘m to‘yana bilan borarman.

– Shunisigayam rahmat, aka... Boshqa birovdan qarz ko‘taraman.

Vahob Tadbir oshnasiga g‘alati qaradi: «Qulog‘ingga tambur chertdimmi, oshna? Mendanki bir nima chiqmagach, senga kim shuncha miqdorda qarz beradi?»

O‘tirishning ham, suhbatning ham qo‘ri o‘chdi. Hayit aka endi bu yerda ortiqcha qolishni ep bilmadi, ketishga izn so‘radi. Tadbirkorning ishi oshib-toshib yotardi, e‘tiroz bildirmadi:

– Bilaman, sizga hozir qiyin: ish ko‘p; chop-chop. Bu kecha qolsangiz bo‘lar-di, ammo ahvolizni ko‘rib turibman. Ko‘pam ezilmang, to‘y o‘tadi-ketadi, sog‘liq kerak.

– Rahmat... – bo‘shashibgina xayrlashdi mehmon.

Ikki kun ichida Hayit aka yana ikki boyvachcha oshnasining oldidan o‘tdi. Biroq ulardan ham tayinli va‘da olmagach, tushkunlikka tushib, g‘aribona kayfiyatda uyiga qaytdi. Uning aft-angori-yu holatini ko‘rib, xotini ham, qizi ham vaziyatni tushunishdi. Shu bois qarz-qurz xususida gap ochilmadi.

«Betimning qalini – jonimning huzuri», deb indamay bosh egib o‘tirishdan o‘zga chora qolmadi», deya u o‘ziga tasalli berdi poytaxtlik tanishlaridan ham natija chiqmagach. – Bir hisobda shunisiyam ma‘quldir. Qarzdan qutilish dardiyam bor-ku axir. Mayli, Nozima ta‘nalarga chidar... Eh...»

Ammo shu orada kutilmagan tarafdin oftob chiqib, sovuq tanaga go'yo otash purkadi. Xudo ko'ngliga soldimi, Hayit akaning qiynalib yurganini orqavorotdan eshiddimi, quda bo'lmish er-xotin favqulodda sim qoqishdi-yu sal o'tmay ularning o'zlari ham tashrif buyurishdi.

– Avvalo, qudajon, – deya so'z boshladi erkak quda bir oz o'tirishganidan keyin, – men boshda aytdim: mebel-sebellar, u-bular kerak emas, dedim.

– Ha, aytdiz, – dedi Hayit aka shuursiz ovozda. – O'zi shunaqa zamon keldi.

– Lekin sezib yuribman: orzu-havas harakatidasiz. El oldida...

– Ha, albatta, orzusiz odam bormi?

– Orzungizni bemalol amalga oshiravering, qudajon. Men qarz berib turaman.

– Qanday bo'larkin? – Qizarinqiradi Hayit aka.

– Sizga qancha kerak o'zi?

– E, so'ramang, – Hayit aka raqamni aytishga botinolmay yerga qaradi. – O'zi to'yga tayyorgarligimiz yo'g'idi-da.

– I-hm... – o'ylandi quda. – Ikki ming bilan bitadimi ishingiz?

– Qaniydi! – deb yubordi uy egasi beixtiyor.

Quda tayyorlab kelgan ekan chog'i, oppoqqina, yupqagina kostyumining ichki cho'ntagidan yigirmata 100 raqami yozilgan suratli, ko'kish qog'ozni olib, Hayit akaning ro'parasiga qo'ydi:

– Ana, oling, tortinmay ishlatavering. Faqat sifati past narsa olako'rmang. Yetishmasa, yana beraman. Qimmat bo'lsayam asl narsa yaxshi-da, qudajon.

– E, odamni uyaltirdiz... – cho'g'day qizardi Hayit aka.

– Uyalming, qudajon, qaddizni aslo bukmang. Endi biz qarindoshmiz. Qo'nyidan to'kilsa, qo'njiga debdurlar. Xo'p, bizga ruxsat, – quda qo'zg'aldi.

– Yo'-o'q, ovqat qilyapti qudangiz.

– Ovqat qilganlariga qo'yamadim, – deya ichkari kirdi ayol quda. – Vaqtimiz ziq, qudajon.

Mehmonlarni pastgacha kuzatib qaytarkan, Hayit aka xotiniga:

– Xudo qizimizning baxtini berganga o'xshaydi, – dedi.

– Aytganiz kelsin, otasi, – deya onaizor ham quvonchini yashirolmadi.

Chindan-da, ota-ona-yu qizning ham orzusi ushaldi. Nozimaning yegani oldida, yemagani orqasida: bunaqa kiyinishlarni hatto opalari ham tushlarida ko'rman-ganlar; dorilfununga avvalgiday avtobuslarda emas, kuyov bolaning saqichday qop-qora «Mercedes»ida qatnaydi.

Vaqt daryosi esa shiddatli oqar, haftalaru oylarni qaritardi. Ha demay, Nozima homilador bo'lib, hammani quvontirdi. Lekin hayot faqat quvonchlardan iborat emas. Nozimaning ota uyiga navbatdagi tashrifi chog'ida Hayit aka buni yaqqol his etdi. U qizini parishonroq holda ko'rib, hol so'radi:

– Ha, qizim, nima bo'ldi? Tobing yo'qqa o'xshaydimi?

– Yo'g'-e, tuzukman... – Nozima sekin xo'rsindi.

– Yoqubjonni ishlari joyidami? – Xavotirlanib so'radi onasi.

– Bilmasam, ishlari chatoqroq chog'i. Chet elda yomon tushganlar. Ko'p nar-salardan ayrilibmiz...

– A-ha... – yuragi zirqiraganday bo'ldi Hayit akaning. Ko'z o'ngidan sakkiz oy muqaddam ro'parasiga qo'yilgan ko'k qog'ozlar g'irillab o'tdi. Ajabo, esidan chiqqanmidi? Sirayam-da. Lekin uni qaytarish yo'llarini o'ylab ko'rmagan ekan. Xuddiki, yo'llar berkday ko'ringan. – Qarzni so'rashmadimi ishqilib?

– Yo'q, – qiz otasini ayashga urindi: o'tgan gap-so'zni silliqroq tushuntirdi go'yo. – Faqat qaynanam: «Qudamlarni ishlari yurishayoptimi?», deb so'radilar.

– Ha, ana, harakatlaringni qilinglar, debdilar-da, – dedi Nilufar xola ach-chig'lanib. – Uyalmay-netmay... Axir hammasi o'zlariga sarflandi-ku!

– Unday dema, – eri uning so'zini kesdi. – Biz qarz olganmiz, qarz!

– Ja zor qolishmagandir, shoshiltirmasalar ham bo'lardi.

– Shoshiltirishgani yo'q, oyi, – dedi Nozima oqarinqirab.

– Eslatganlari yaxshi bo'libdi, – deya Hayit aka o'rnidan turdi. Pastga tushib, atrofni kezdi. Oyoqlari arang ko'tarilib, og'ir tushar, navbatdagi ko'tarilishda yer go'yoki o'ziga qarab tortar – egasining yelkasidagi zilday yuk uni qapishtirmoq-chiga o'xshardi. Shu bois Hayit aka ko'p yurolmay, yuragi siqilib, tez qaytdi. Qizi otasi bilan xayrlashmay ketgani uchun uzr so'rabdi.

– Qarzdin tezroq qutulish kerak, xotin, – dedi Hayit aka xontaxta ro'parasiga og'ir cho'kib. – Qarzdorlik yomon: odamni tili qisq, boshni egik qiladi.

– Ozmuncha bo'lmasa bu sabil... Nima qilamiz?

– O'yladim: juma kuni maosh bilan birga nafaqani olaman.

– O'ylab gapirobsizmi, otasi? Ikkalasi yigirma dollirgayam yetmaydi-ku?

– Qirqa yaqin boradi. Uch oylik maosh ham bor. Har qalay...

– Xo'p?... – Siniq, ajabtavur kuldi xotin.

– Umrimda qilmagan ishni qilishga majburman.

Ayol ko'zlarini javdiratib, eriga qaradi: «Nima qilasiz?»

– Bor pulga xom pista keltiraman, qovurib berasan. Yana qurut-purut, saqich deganday. Yaqinimizda maktab. bog'cha bor. Bolalar bularga o'ch.

– Voy o'lmasam, hazillashobsizmi?

– Hazil ko'ngilga sig'adimi, xotin? Ishdan qaytgunimcha o'zing eplab tu-rasan... Saryog', shakar eyishni hozircha to'xtataylik. Qarzdormiz-a... Uyat – o'limdan yomon...

Oradan bir haftacha vaqt o'tib, pista sotuvchilar safiga yangi raqib qo'shildi.

# Shukur Xolmirzayev

(1940–2005)



Shukur Xolmirzayev 1940-yil 24-martda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi (1991). Toshkent universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan (1963). Dastlabki hikoya va ocherklari 1958-yildan nashr etila boshlagan. «Oq otli» (1962), «Toʻlqinlar» (1963), «Oʻn sakkizga kirmagan kim bor?» (1965) qissalari, shuningdek, yozuvchining shu davrda yozgan hikoyalari «Olis yulduzlar ostida» (1971), «Hayot abadiy» (1974), «Ogʻir tosh koʻchsa...» (1980), «Yoʻllar, yoʻldoshlar» (1984), «Bodom qishda gulladi» (1986), «Togʻlarga qor tushdi» (1987) singari toʻplamlaridan oʻrin olgan.

«Soʻnggi bekat» (1976), «Qil koʻprik» (1984), «Yoʻlovchi» (1987), «Olaboʻji» (1992), «Dinozavr» (1-kitob, 1996) kabi romanlar muallifi. «Qora kamar» (1987), «Ziyofat» (1990-yili sahnalashtirilgan) dramalari ham bor.

«Mehnat shuhrati» (1999) ordeni bilan taqdirlangan.

Yozuvchi 2005-yil 29-sentyabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

## CHOʻLOQ TURNA

U tuxumdan kech chiqdi. Chiqqanidan keyin ham oyogʻini ololmay ancha yotdi, tirirchiladi, tukdan iborat qanotlarini qoqdi. Oʻzini paydo qilgan tuxum poʻchogʻiga tizzasidan yopishib qolgan edi. Nihoyat, undan xalos boʻldi-yu, oʻng tomonga mayishib, atrofiga mayda shagʻal toshlar terib qoʻyilgan, qumga qattiqroq bosilgan tuya izidek uyasida bir-ikki aylandi. Soʻng maʼyus, ojiz ovoz chiqarib, boshini zoʻrgʻa koʻtarib, anchagacha qaltirab turdi.

U nafas olar – yangi olam havosidan nafas olar, badaniga yangi olamning – iliq bahor quyoshining nurlari singar, shuning uchun ham qaltirar edi.

Bir payt yon tomonidagi qalin shuvoqlar ortidan qattiq va dahshatli «qaq-qaq» etgan tovush eshitildi. Turnacha qattiq qimirlab, yana shikastlangan oyogʻi yoqqa



yiqlidi. Yana ancha tirirchilab yotdi. Endi, bu tirirchilashida oʻzini oʻnglab olishdan koʻra qandaydir sirli xavfdan yashirinishga intilish bor, chunki jajji turnacha onasining ovozidan buni his etgan edi.

Haqiqatan ham Ona-turna qalin shuvoqlar ortida uchta joʻjasini ergashtirib, yerga sochilgan oʻt-oʻlanlar urugʻini terib yeb yurar ekan, olisda makkor tulkini koʻrib, shunday ovoz chiqargan edi.

Tulki choʻloq turnachaning isini olib yaqinlashgan, Ona-turna buning uchun emas, yoʻq, – u endi tuxumdagi naslidan voz kechgan, – yonidagi joʻjalari va oʻzini oʻylab shovqin koʻtargandi.

Tulki dumini xoda qilib qochib qoldi. Ona-turna bolalarini ergashtirib, tagʻin uyasi yonidan – gʻoyat ustalik bilan «yasagan» uyasi yonidan oʻtarkan, u yoqqa beixtiyor qarab, Choʻloq turnachani koʻrdi. Boʻynini choʻzib, koʻksidagi echki soqolidek osilgan qora patlarini selkillatib, uning qoshiga keldi. Tumshugʻi bilan turtgan boʻldi. Ixcham, ingichka oyoqlarini ildam koʻtarib, ustidan oʻtdi. Soʻng boʻynini gajak qilib, bolasiga birpas tepadan qarab turdi-da, tagʻin uning ustidan hatlab, narida alang-jalang boʻlib, har tarafga talpinayotgan sogʻ joʻjalari yoniga ketdi.

Choʻloq turna dafʻatan ustida paydo boʻlgan soyadan najot kutib unga intilgan qolaverdi.

Bu holni kuzatgan inson hayron qoladi: Ona-turnani shafqsizlik qildi deb oʻylaydi. Aslida bunday emas: illo, bu tur qushlarning ham oʻziga yarasha mehr-shafqati boʻladi. Boʻladi-yu, lekin oʻzga qonun bu hisdan ham ustun turadi. Bu – yashamoq qonuni, zurriyot qoldirish va uning sogʻlom kamol topib, oʻzining ushbu ishini istiqbolda takrorlashiga boʻlgan tabiiy va tugʻma ehtiyot qonunidir. Shuning uchun ular zurriyotni buzadigan va istiqbolda yashashi ogʻir boʻlgan farzandlaridan osongina voz kechishadi.

Choʻloq turnaning mayda shagʻal toshchalar ustidan oʻtishi ham mashaqqatli boʻldi. Shundan keyin ham anchagacha yoniga agʻanab yotdi. Nihoyat, oʻzini oʻnglab, ne bir his – sezgi bilan quruq yerga tumshugʻini urdi.

U ovqatga muhtoj – yangi olamda shu tarzda xoʻrak topilishini tuygʻu bilan tuygan edi.

Ona-turna bolalarini hamon ergashtirib, baʻzan gʻut-gʻut ovoz chiqarib don yeyishga undar, ular donlashar ekan, u benihoya uzun boʻynini choʻzib, atrof-tevarakka qarab turardi. Nihoyat, olislarga chigirtka va kamyob oʻt barglarini izlab ketgan Ota-turna ham uchib keldi. Keng qanotlarini yoniga tap-tap urib, uzun oyoqlarini choʻzib yerga qoʻndi. U qoʻnishi bilan Ona-turna parvoz qildi. Ota-turna esa bolalari oʻrtasiga kirib, gʻut-gʻut deya ogʻzini ochdi. Turnachalar uzun tumshuqlarini ota jigʻildoniga suqib, undagi hoʻl, yuqumli xoʻrakni yemoqqa tutindilar.

Nihoyat, u joʻjalarni ergashtirib, atrofiga toshchalar terilgan uyasiga keldi va Choʻloq turnachani koʻrib, boʻynini choʻzdi. Keyin, uni oyogʻida turtib koʻrgan boʻldi. Keyin, parvo qilmay, uyaga oʻtdi-da, qanotlarini yoyib, asta pasaya boshladi. Turnachalar chiy-chiydashib, otaning issiq patlari ostiga kirib olishdi.

Cho'loq turna otasi sharpasidan ham o'ziga yaqinlik, boshpana hissini tuygan, aka va opalari ovozdin ham asti hayiqmagan edi. U ham ne bir issiq talpinish ila uyaga intildi. Bir amallab toshchalardan o'tdi. Va dumalab-turib, issiq qanot tagiga suqildi.

Ehtimol, Cho'loq turna uyaga kirolmaganda, Ota-turna unga parvosiz qolaverar edi. Biroq, endi uning harakatda ekanligi sababli, qanoti ostiga kirishga qarshilik qilmadi.

Otaning bag'ri – tashqaridagi iliq oftobdan ham yoqimli edi. Eng muhimi – Cho'loq turnachaning qaltirashi bosilgan, uning vujudiga bir bexavotirlik va ishonch kirgan edi.

Ona-turna kelganda, Ota-turna tag'in bolalarini qanoti ostidan chiqardi. Cho'loq turnacha ham onasi og'ziga intildi. Navbat bilan u ham jig'ildondan xo'rak yeb oldi. Keyin, albatta, qorni to'ymay, uzoq chiy-chiyiladi. Keyin onasining ham bag'riga kirdi.

Ona-turna ham boya e'tibor etmagan jo'jasini endi e'tibor bilan yumshoq patlari ila bekitib oldi.

Kun botishi oldidan Ona-turna yana oyoqqa turdi. Yana bolalarini yantoqzor ortiga boshladi. Endi Cho'loq turnacha ham ulardan ortda qolmay ergashdi. Endi Ona-turna ikki marta to'xtab, uning yetib kelishini kutdi. Nihoyat, Cho'loq turnacha ham onasi g'utg'utlab chaqirgan yerdan don terib yedi.

So'ng Ona-turna kattakon yovshanning kungay tomoniga yonboshlab, yumshoq, iliqqina qum-tuproqni qanotlari va oyoqlari ila tita boshladi, keyin unga bag'rini berib yotdi. Cho'loq turnacha ham aka va opalariga o'xshab qum-tuproqqa yotdi. Tuproq iliq, yoqimli – bunda quyosh tafti-yu, ota-ona bag'ridagi haroratdan ham ziyodroq bir nima bor edi.

Ota-turna tevarakda mag'rur kezib, atrof-olislarga ko'z tashlab yurar, goho o'z-o'zicha «qaq-qaq» etib yangroq tovush chiqarganda Ona-turna boshini bir ko'tarib qarar, so'ng yana xotirjam bo'lardi.

Turnalar bir xil tovush chiqargan bilan ma'nosi ko'p bo'ladi, zero, ularning inson qulog'iga bir xil bo'lib eshitaladigan ovozlarida turfa ohanglar bor.

Yovshan va yantoqlar to'p-to'p bo'lib o'sgan, ulardan xoli maydonlar taptaqir bo'lgan bu keng makonda ko'p marta quyosh chiqib, ko'p marta botdi. Havo tobora isib, o't-o'lanlar sarg'aydi. Yerlar tors-tors yorildi.

Bu, turnalar bola ochib, kuz shamollari esa boshlaguncha turishadigan makon edi. Zero bunda Cho'loq turnachaning ota-onasi va aka-opalaridan ham o'zga turnalar oilasi ko'p va ularning har biriga tegishli, o'zlariga xos tug'ma qonunlariga ko'ra chegaralangan yerlari bor edi. Bu makonda, albatta ularning g'animlari, kushanda va do'stlari ham bor edi. Masalan, eng ashaddiy dushmanlari tulki ila shaqol. Lekin bu ajoyib qushlar yashash uchun shunday kurash tarziga bo'ysunar edilarki, ular g'animlariga qarshi o'z qurollari bilan kurashishni ham bilishar edi. Birgina «qaq-qaq» etgan tovush manaman degan tulkining esxonasini chiqarib yuboradi. Shaqol ham toqat qilolmaydi bu tovushga va bu yirtqichlarning har ikisi ham bu ovozlarning egasi g'oyatda nozik, mutlaqo beozor qushlar ekanini sira

aqlga «sig'dirolmaydi», chunki bu yirtqichlarning qadim-qadimdan xuddi mana shunday tovushlar dahshatga solib kelgan, bu tovushlar chiqqan joydan qochish – ular uchun, yashash uchun kurash edi.

Tabiat naqadar dono!

Turnalarning uyalari nima uchun bu qadar sodda-ibtidoiy: qumga qattiq bosilgan tuya izining o'zi. Tag'in ochiq yerga qo'yishadi. Atrofi nega kichik toshlar bilan qurshaladi? Bu uyalarda yana bir g'aroyibotni ko'rish mumkin: qaysi turna tuxum qo'ysa, tuxumlari bilan yonma-yon ikki-uchta ot tezagini ham keltirib qo'yadi. Ular nega kerak?

Turna o't-o'lan orasiga in qo'ysa – dahshat! Chunki, aksar yirtqichlar o'zlariga yemishni o'sha o't-o'lanlar orasidan izlashadi. Xolis, tekis yerdan-chi? Yo'q. Lekin birda-yarim yo'lakay turna uyasi ustidan o'tib qolishi mumkin. Shunda ular Ona-turnalar qo'ygan tuxumlarni ko'radimi? Ko'radi. Lekin nega chaqib yeb ketishmaydi? Chunki tuxumlarning rangi ot tezagidan farq qilmaydi. Ot tezagida nima bor ularga. Uya atrofidagi toshchalar nega kerak? Cho'l shamollari tuxumlarni dumalatib ketmasligi uchun kerak.

Yashash sharoitining o'zi jonli-jonivorlarni ham qanday yashamoqni o'rgatib yaratgan.

Kuz shamollari...

Turnalar bezovta bo'lib yig'ila boshladi. Olis-olislardagi turnalar oilalari ham sayxonlik ustida parvoz qila-qila pastda ko'ringan bu to'plarga kelib qo'shilar edi. So'ng qanotlarini tap-tap urib yugurishgan, bir-birini quvlashgan, oyoqlarini ko'tarib, qanotlarini silkitishgan.

Yosh turnachalar ham ularga taqlid qilishadi. Lekin ular ko'proq uchishadi, illo ularni ko'proq uchishga ota-onalari majbur etishadi: yerda uzoq qolishsa, aya-may cho'qishadi. Goho bu sahro turnalarning «qaq-qaq» ovozlari darzaga keladi. Ovozlar uzoq-uzoqlarga ketadi va kunora yiroqlardan yangi-yangi turnalar oilasi kelib qo'shiladi.

Goho bu olatasir to'p ufqlar ortiga – olis Janubga, ulargina sezishi mumkin bo'lgan iliq taft kelayotgan yoqlarga qarab turishadi. Shunda shimoldan esadigan shamol ularning yollari, soqollari va qanotlarini hurpaytiradi.

Bir safar turnalar galasi taqir maydonda uzoq yo'rg'alab qaqqillashdi. So'ngra shunday tapir-tupur qanot qoqib havoga ko'tarilishdiki, taqir yer changib, yovshan-u shuvoqlar boshi shamol esgandek egildi. Talato'pda yerga talay patlar uchib tushdi. So'ng qushlar havoda «gilamcha» bo'lib aylana-aylana ko'tarila boshladi. Osmoni falakka chiqqanda ham aylanishar, bu aziz sahro ustida parvona bo'lgandek aylanishar, endi ularning ovozlari tamom o'zgacha: qandaydir mungli va porloq, endi ovozlari bir-biriga jo'r bo'lib chiqar edi: qur-ey, qur-ey.

Ovozlar elas-elas eshitilar, turnalar nuqtalar misol ko'rina boshladi. Keyin birpas parokanda bo'lishdi-da, uzun saf tortishdi va asta Janubga qayrilishdi.

Cho'zilgan irga tizilgandek bo'lib, sahro osmonidan uzoqlashib ketishdi.

Turnalar!..

Ularning yaralishlari, yashash tarzlaridan kelib chiqqan alohida uchishlari bor: yerga qo‘nish yoki yerdan ko‘tarilish paytida «gilamcha» bo‘lishadi, olislarga parvozda «arg‘amchi»ga aylanishadi.

Zero, olis parvoz paytlarida irga tizilgandek uchishmasa, ming-ming chaqirim yiroqdagi manzillariga emas, uning yuzdan biriga ham yetishlari gumon, ular yo‘llarda qolib yoxud nomaqbul joylarga qo‘nib, halok bo‘lishar edi. Holbuki, unday bo‘lmaydi hech: tabiatning o‘zi ularni shunday uzoq masofalarga uchishga qodir qilib, qanotlarini katta va qamrovli, a‘zolarini g‘oyat kichkina va yengil qilib yaratgani ustiga uchish tarzlarini ham shunga xos holda ijro etgan.

Turnalarda ham, albatta, yo‘lboshchi bo‘ladi. Biroq u ham olis safarda hamma vaqt safning oldida bora olmaydi. Chunki ro‘paradan esuvchi shamol, dovullar, hatto havoning muallaq holati qarshiligi ham uning kuchini kesib qo‘yadi. Shuning uchun yo‘lboshchi turna ham yo‘lakay «dam oladi», ya‘ni ortidagi turnaga o‘rmini bo‘shatib, eng orqaga o‘tib turadi. Bu tur uchishda hikmat bor: ro‘paradan esgan shamolu havo oqimi safda eng ko‘p oldingi turnaga ta‘sir etadi. Orqadagilar... bu qarshilikni juda oz sezib, go‘yo havo qarshiligi «yo‘q» bo‘lgan bir bo‘sh quvurda ketayotgandek bo‘lishadi. Turnalarning olislarga ucha olishlari siri shunda.

So‘ngra ularning uzun, ingichka tumshuqlari ham havo oqimini kesish va uning ta‘sirini kamaytirishga qo‘l keladi. Ingichka oyoqlari dumlari tomonga cho‘zilib, go‘yo bir juft dum patiga aylanib qoladi.

Pastga tushayotganda bu xil uchmoqqa hojat qolmaydi.

Cho‘loq turna...

U ancha ochko‘z, ammo bari bir zaif bo‘lib o‘sdi, Aka-opalari parvoz mashqini olayotganda, u ham, albatta, safga qo‘shilar, lekin, birlamchi, tez charchar, so‘ngra yerga qo‘nish ham uning uchun xiyla azob edi: qiyshayib qolgan oyoq yerga to‘g‘ri tushmay, Cho‘loq goho yiqilib ketar, parvoz oldidan ham tez yugurib olishda shu oyoq xalal berardiki, shuning uchun u ko‘pincha yerda bo‘lishni afzal ko‘rardi. Shuning uchun o‘zga turnalardan zaifu, ularga qaraganda xiyla etli o‘sdi. Biroq «qabilasi» udumi, yashash sharoiti talabi bilan ular xulqida paydo bo‘ladigan o‘zgarishlarni bexato o‘zlashtirdi. Unda barcha turnalarda bo‘lguvchi tug‘ma hislar kamol topdi: u ham tulki uchraydimi, shaqol uchraydimi, dahshatli «qaq-qaq» tovush bilan ura qochiradigan bo‘ldi; olis ko‘llarga borib suv ichib kelish va foydali o‘tlarni ota-onasi yordamida topishni o‘rgandi, ba‘zan o‘zi ham ichki – tabiiy hissi bilan topib yedi.

Ba‘zan safdan ortda qolgan paytlarida – qorong‘i tushgan, yulduzli kechalar-da ham o‘z qarorgohini adashmay topib kelardi. Bu xususda u o‘tkir edi: eng yaqin yo‘llarni kashf etar edi.

Mana, u ham janub sari, xuddi ohangrabodek o‘ziga tortayotgan sirli manzil sari «qabilasi» safida uchib bormoqda. Oldindagi turnalarning yon-veridan esa-yotgan shamol unga ham oz-moz ta‘sir etadi, patlarini yalab o‘tadi. Pastlik!.. U hech qachon bunchalar balandda parvoz etmagan edi. Lekin bu uchishning gashti bo‘lak ekan... Buning ustiga, olisda sirli makon bor. O‘shanga yetishlari kerak.

U makonning juda ham azizligini hoziroq sezmoqda.

Shu alfozda borar ekan, o'ng'u so'lidan oppoq bulutlarning suzib o'tayotgani ni ko'rdi. Bulutlar unga tanish edi. Bahor chog'laridan tanish... Biroq o'shanda ular yuksaklikdan patlarini yumshatib ho'l qiladigan yomg'ir yog'dirib o'tishgan edi. Cho'loq turna aka-opalari bilan qo'nishib, ularni pastdan kuzatishgan, so'ng oftob charaqlab chiqqanda, patlarini uzoq titib – to'zg'ishgan edi. Ular goho suv-loqqa borib cho'milgandan keyin ham iliq qumloqda turib, patlarini shu xilda quritishardi. Endi esa Cho'loq turna o'z safdoshlari bilan o'sha bulutlar ichidan suzib o'tmoqda. Lekin u bundan vahimaga tushayotgani yo'q, aksincha – bu g'aroyib makonda erkin-erkin quloch otmoqda.

Bir payt yaydoq, bulutsiz, niliy bo'shliqqa chiqib olishdi. Turnalar kiftiga iliq oftob nurlari tegdi. Ammo olg'a uchganlari sari Cho'loq turna havoning keskin sovib borayotganini payqadi. Pastda... pastlikda oppoq tog'lar ko'rinar, ular ham Cho'loqqa tanish edi: bir vaqtlar ularni yonlab uchgan, lekin o'shanda hech ham bunchalik sovuqni sezmagandi. Havo sovigandan-sovidi. Turnalar esa tobora tezroq uchishar, chamasi mana shu tez harakat ularni sovgotishdan saqlamoqda, ba'zilarining qantolariga qirov ham qo'ngan edi.

Havo tag'in asta-sekin ilidi. Tog'lar orqada qoldi.

Shu tarzda borishar ekan, Cho'loq turna safning ancha oldiga o'tib qolgan edi. Endi shamolning ta'siri kuchaya boshladi. Chunki yo'l boshchi turnagina emas, uning ketidagi bir necha turnalar ham «yo'l boshchilik» vazifalarini ado etib, hordiq uchun safning quyrug'iga o'tishgan, shunga ko'ra Cho'loq turna karvonning o'rtasidan oshib qolgan edi.

Cho'loq pastlikda qandaydir tanish yirik qushlarni ko'rdi. Ular o'z sahrolarida ham ba'zan uchrab qolar, biroq makonlariga yaqin yo'lamas edi. Yo'lamas edi-yu, Cho'loqning o'zi ham bu qushlardan ehtiyot bo'lishni tuyar edi.

Ular – burgutlar edi.

Karvon tag'in yuksala boshladi. Cho'loq turna bir necha marta quyiga qaradi. Ne bir tuyg'u ila safdan ajralgisi ham keldi-yu, xuddi safga zanjir bilan bog'langandek, – ko'zga ko'rinmas zanjir bilan bog'langandek, uchishda davom etdi.

U uchishi kerak edi. U uchishi kerak!

Faqat olg'a uchishi! Sirli, ohanrabo manzil tomon uchishi kerak! Nima bo'lmasin, qanday to'siqlar uchramasin, bari bir uchishi shart! Uchishi...

Etakda daraxtzor qishloqlar ko'zga tashlana boshladi va bir mahal Cho'loq turna shundoq biqinlarida gala-gala qaldirg'ochlarning ham parvoz etib borayotganlarini ko'rib qoldi. Keyin esa bir necha qaldirg'och lir-lir eta olg'a o'tdi-da, g'oyib bo'ldi.

Cho'loq turna tag'in ham safning oldiga chiqib qoldi.

Qaldirg'ochlar ham yashash qonunlari, avlodlari udumi hukmida ayni shu pallada janub sari yo'lga chiqishgan edi. Turnalar karvoni oldiga o'tib olgan uch-to'rtta qaldirg'och esa dam olmoqchi, ya'ni karvonboshilar kiftiga qo'nishgan, shu sabab ular tezroq charchab orqaga o'tishgan edi.

Qishloqlar ham ortda qolib ketdi. Cho'loq turna endi safning boshida uchmoqda. Oldindan shovullab esayotgan shamol daf'atan ta'sir etib, uning bor

quvvatini so'rib olmoqda edi. Cho'loqning ko'zlari tinib keta boshladi. Lekin uchmoqda. Qayerga... O'sha sirli makonga! Cho'loq turna u aziz makonni umrida ko'rmagan esa-da, uni biladi: u oldinda!

Karvon bir maromda ketayotgan edi. Cho'loqning parvozi susaygani sari orqadagi turnalar bir-biriga juda yaqin kelib qola boshladi. O'rtada yo'l boshchi turnaning «quvq» etgan tovushi Cho'loqqa yetib, u ixtiyorsiz bir tarzda o'mini ketidagi turnaga bo'shatdi-da, chetlanib, safning orqasiga o'tdi. Saf yana olg'a intildi. Cho'loq dumda turib uchar edi endi...

Ular shu alfozda uchib, tunni ham o'tkazishdi.

Cho'loq turna karaxt bo'lib qolgan, u bir necha marta karvonning boshiga chiqib, shu zahotiy o'ziga o'tib olgan, bu orada yo'l boshchi turna bir necha marta «quvq-quvq» deb ovoz chiqargan, endi bu xil ovoz o'zga turnalardan ham eshitila boshlagan edi.

Cho'loq orqada... orqada qola boshladi. U bor kuch-quvvati ila qanot qoqadi. Lekin tobora orqada qoladi.

Karvon olg'a ketmoqda! Turnalar karvonning qonuni qat'iy: ular ortga burilishmaydi: ular ortda qolayotgan safdoshlariga yordam ko'rsatisholmaydi ham – bu hol ularga shunchalar aniqki, hayot tarzlariga aylanib ketgan.

Safga yaroqsiz turna ham taqdirga tan bermog'i kerak. Lekin o'jar, qaysar Cho'loq buni his etsa-da, o'zini dahshat qo'yniga – yolg'izlik qo'yniga tashlagisi kelmaydi: butun bori-borlig'i bunga qarshilik qiladi. Ammo kuch-quvvat bunga imkon bermaydi: Cho'loq turna bu holidan hayratlangan kabi tag'in qanot qoqadi.

Karvon olislab ketdi. Cho'loq yolg'iz qoldi. Endi uning oldida havo qarshiligini kesguvchi kuch yo'q, hozirgi mo'tadil havo oqimi ham unga kuchli dovuldek ta'sir etar edi. Cho'loqning tezligi battar kesilib, pastlay boshladi. U nolali ovoz chiqarar, karvon esa uzoqlashgani ustiga, tag'in balandlab uchmoqda edi.

Cho'loq pastlab borayotgan esa-da, o'sha sirli yurtga qarab uchardi. Pastlab-pastlab ham uchaveradi. Lekin kuch-quvvat uni tark eta borishi, shamol uni orqaga suraverishi oqibatida u deyarli harakatsiz bir holga tushdi.

Unda yashashga intilish hissi o'zga bir tarzda junbushga keldi. U qo'nishi kerak. Qandaydir sahroga o'xshash yerga, yovshan-yantoqlar o'sgan yerga qo'nishi kerak... Lekin oldindagi vatan!.. O'sha Vatan uning uchun hayot edi: asl hayot o'shanda edi!.. Endi esa u hayot Cho'loqni inkor etdi. Cho'loq boshqa hayotga ko'nikishi kerak. U qo'nishi kerak, qo'nishi... Cho'loq turna endi temirqanot bo'lgan polaponddek hamon olg'a intilib, past-past yashil daraxtlar ustidan uchib o'tdi. Keng o'tloqlar ham ketinda qoldi. Yiroqda taqir bir maydon ko'rindi. Turna unga intilib borarkan, qarshisida saf tortgan teraklarga yetganda, tag'in o'z-o'zidan pasayib ketdi-yu, ularga shatir-shutur etib urildi. Qanoti qiyshayib, xazonlar ustiga tushdi. Yana o'ng tomoniga yiqilib, shu bo'yi tek qoldi.

Bir mahal uning tingan ko'zlari atrofni ko'rdi. Turna apil-tapil qanotini o'nglab oldi va atrof manzarasidan dahshatga kelib, «qaq-qaq» etib ovoz chiqardi.

U endi o'zga hayot qo'ynida edi...

# Omon Muxtor

(1941–2013)



Omon Muxtor (Muxtorov Omon Sulaymonovich) 1941-yil 16-iyulda Buxoroda tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1991). ToshDU filologiya fakultetining jurnalistika bo'limini tugatgan (1964). «Chorlar quyoshli yo'llar» (1966), «Ohang» (1974), «Yog'du» (1979), «Marvarid» (1985), «Shiddat» (1990) she'riy to'plamlari, «Nigoh» (1968), «Qushlar va tushlar» (1971), «Shaharlik kelinchak» (1973), «Hayot darvozasi» (1978), «Bolalikka sayohat» (1984), «Vazifa» (1988), «O'lmagan jon» (1995) kabi nasriy asarlar muallifi. «Yillar shamoli» (1976), «Egilgan bosh» (1989), «Ayollar mamlakati va saltanati», «Ffu» (1997), «Aflotun» (1998), «To'rt tomon qibla» (trilogiya, 2001) kabi zamonaviy va tarixiy mavzulardagi romanlari ham bor. Pyesalari Xorazm teatrida sahnalashtirilgan («Bosh masala» va boshqa).

O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (2009), «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangan (1997).

2013-yil 9-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

## O'YIN

– Odamda bir oz farosat bo'lsa ekan, – miyig'ida kulib dedi Keldiyev davradagilarga bir-bir ko'z tashlab, televizorga imo qilganicha. – E'tibor berdinglarni, «ne jafolar chekmadim bir bevafo dildor uchun!» deb ashula aytyapti. Aftidan, shu yigit ne jafolar chekkan kishiga o'xshaydimi?! Aslo! Bunaqa yog'li ko'z, qir-qizil yuz, katta qorin bilan uning o'zi bevafoqlik qilib, kimgadir jafo yuklashi mumkin-ku, lekin birovni deb u kuyishiga men mutlaqo ishonmayman!..

– Artist-da, dadasi, o'rganganini aytadi, – nazarida, eri davrada o'tirganlarini unutib, shunchaki og'zidan gullayotgandek tuyuldimi, gapga aralashdi, Keldiyevning xotini Zamira.

– O'rgansin, aytsin, marhamat, men qarshi emasman, – qaysarlandi Keldiyev. – Lekin ashula odamga bunday mos tushishi kerakmi yoki yo'qmi? Odamlarimiz juda madaniyatli bo'lib ketgan, deymizu ba'zan oddiy farosat to'g'risida o'ylamaymiz. Kishi o'zining ahvolini o'zi bilmasa!..

– Ko'rinishi shunaqaligiga qaramay, u yaxshi odam bo'lishi ham mumkin, – dedi uy bekasi Xolida o'ychan. Shuning barobarida, u o'rnidan turib, televizorni o'chira qoldi. – Odamni bilish qiyin. Ayniqsa, televizorga qarab, menimcha, bir nima deb bo'lmasa kerak. Jismoniy kamchilikni ko'rib, insonning qalbi qandayligiga baho berib bo'lmaydi. Umuman tashqi ko'rinish aldamchi... – To'g'ri gapirdimmi, deganday Xolida eriga ko'zi ostidan ma'noli qarab qo'ydi.

– To'g'ri, – dedi Qambar boshini silkib, – inson qalbining go'zalligi jismoniy kamchilikka qaramaydi... Lekin nega odamni bilish qiyin ekan?! Arzimagan narsalardan odam qanaqaligini bemalol aytaversa bo'ladi...

Zamira qiziqsinib, Qambarga tikildi:

– Masalan?

– Masalan, ovozga qarab aytish mumkin. Kiyinishiga qarab. Ko'chada yurish, oyoq olishiga qarab...

– Siz shularga qarab, adashmay ayta olasizmi? – so'radi Zamira.

– Nega aytmas ekanman? – dedi Qambar. – Xo'o'sh... – U birpas o'ylanib, so'zida davom etdi: – Qaysidir yili Sirdaryoga borganimiz. Katta gruppа. Har xil kishilar. Oramizda faylasuf bir domla ham bor. Shogirdi bilan... Qisqasi, shu domla... men uning faylasufligi qaysi darajada ekanini bilmayman-ku, lekin ovqat tanovul qilishi o'ziga xos edi. Og'zidagini chaynab-yutmay, qoshiqni ko'taraveradi, lunji surnaychilarnikiga o'xshab shishgan, ko'zlarida shu qadar bezovta bir mutelik aks etganki... taomning hurmatini astoydil o'rniga qo'yayotgandekmi yoki deylik, oldidagi idishni birov tortib olib qo'yishidan qo'rqayotgandekmi, taassurot qoldiradi kishida... Men birinchi tanishgan kunimiz domlanning shogirdi bilan gaplashishimga to'g'ri keldi. «Domlangiz yoshlikdan ancha qiynalib o'sgan. Shunaqami?» dedim sekin. «Shunaqa bo'lishi kerak... o'zining aytishiga qaraganda!» deb g'udrandi shogird. «U ayolmand, bolalari ko'p!» dedim kuyinib. «Ha, bir etak. Yettitami, sakkiztami...», dedi shogird. «Urush yillari domla asirlikka tushganmi, shunga o'xshagan bir narsa bo'lgan...», deb pichirladim o'zimcha. «Domla omadsizroq odam!» deb, tasdiqladi shogird. «Umuman, u miskin, umrida birovga ziyoni tegmagan... Domla ishlayotgan institut ma'muriyatiga hayronman, uning dars soatini ko'paytirib, unga sal imkoniyat yaratib berishsa nima qilardi!» deya asabiylashdim endi. «Domla talab qilolmaydi. Ular o'zlari bilib, birovga g'amxo'rlik ko'rsatishmaydi!» dedi shogird. Keyin, menga tikilib: «Siz domlani yaxshi bilar ekansiz-da!» dedi. Men, ha, ha, bilaman, deb qo'ya qoldim... Ertasi kunimi, indinimi, tushlik paytida domlaga ortiqcha e'tibor bermay, birovga malol kelmaydigan yo'sinda: «Odamning ovqatlanishiga qarab, uning butun tarjimai holini aytib berish mumkin!» – degan gapni shunchaki o'rtaga tashladim. Davradagilar bunga ishonib-ishonmay kulib, taom tanovul qilishga tutinishdi. Lekin o'sha kuni



taniqli bir raqqosa mening naq ro'paramda o'tirardi. U menga ma'noli ko'z tashlab qo'yib, shunaqangi chiroyli ovqatlandiki, so'z bilan ifodalash qiyin. Men domlaga ko'nglim achib, qanchalik ezilgan bo'lsam, raqqosani kuzatib, shunchalik zavqim keldi... Qisqasi, atrofga loqayd-beparvo qaramasangiz, odamni bilaverasiz. Qadim-qadimdan dastxatni ko'rib, odamning fe'l-atvorini aytish rasm bo'lgan, bu endi ancha mashhur soha. «Xatshunoslik» degan fan ham bor...

– Yashang, inim! – dedi hayajonlanib Keldiyev. – Rahmat! – dedi u negadiri hattoki iyib. – Televizorda-ku, jonli odam, mana, ukamiz Mahkamjon oddiy suratga qarab, kimligingizni aytaveradi. Bu unga pista chaqishday gap. Qambarjon aytmoqchi, bu ham ilm...

– Rostdanmi? – Mahkamga qarab so'radi qiziqsinib Zamira.

Mahkam suhbatga aralashmay, davra quyisida o'y surib o'tirardi.

– E, yo'q, Keldiyev domla shunchaki mening bahoyimni oshiryaptilar, – g'udrandi u noxushroq kayfiyatda.

– Siz unaqa kamtarlik qilmang. Men hozir albomni olib chiqaman. Bir qotib kulaylik, – dedi Xolida o'rnidan turib.

– Yo'q, yanga, olib chiqqaningiz bilan aytmayman! – dedi Mahkam bu gal qat'iy.

Davradagilar ovqatlanib, choy ichib bo'lishgan, ammo hali jilla o'tirishni istashganidan, Mahkamning o'zini tersroq tutishi ko'pchilikka qandaydir og'ir botdi.

– Men shuncha narsani aytib tashladim. Siz nega ikki oyoqni bir etikka tiqyasiz, men tushunmayapman, – to'ng'illadi Qambar.

– Men o'zim sizning hunaringizni ko'rganman, Mahkamjon. Shaxsan! – dedi Keldiyev ham endi injib. – Albomni bunday varaqlab, siz bizni xursand qilish-ingizning kimga nima ziyoni bor?! Aksincha, bahs yakunlanadi. Siz erka yigitsiz, albatta. Lekin hamma narsa evi bilan-da...

– Sizlar mendan bekorga xafa bo'lyapsizlar, – dedi sal ezilib Mahkam. – Men talabni bajo keltirmaganim erkalik, noz-istig'no emas. Faqat bu ishni tashlagan-man, to'g'risi. Boshqa shunday qilmayman, deb qasam ichganman...

– Nega qasam ichasiz? – Unga ajablanib, ishonqiramay tikildi Xolida.

– Har qanday hunar odamning baxtiga yarasa... har bir ishni eplagan odam qilsa!.. Men eplolmay qoldim...

– Qiziq. Biron yerda noto'g'ri gapirib yubordingizmi? – savol tashladi Qambar.

– Yo'q, men noto'g'ri gapirmayman. Ancha yil fotografiya bilan shug'ullan-ganman, odamlar suratga tushayotganda o'zining qandayligini beixtiyor ko'rsatib qo'yadi, turli-tuman kishilarni ko'raverib, ko'zim pishgan. Umuman, bu oddiy ish. Men suratga qarab, tirik odamni, uning apparat oldida turgan holatini tasavvur qilaman. Holatdan fe'l-atvorga o'tiladi...

– Xo'sh, keyin nima bo'ldi? – Toqatsizlanib so'radi Keldiyev.

– Nima bo'lardi... Bir kuni, hunar ko'rsataman, deb og'zim kuydi. Shu, xolos, – dedi Mahkam allanechuk xijolat chekkan ko'yda.

– Gapni boshlagach, oxiriga yetkazish kerak. Shaf-shaf deguncha shaftoli demaysizmi! – o'choqqa o'tin qaladi Zamira.

– Men bu voqeani hech kimga aytmagandim. Lekin mayli, orada g'ashlik qolmasin uchun sizlarga gapirib beraman, – dedi Mahkam. – Keldiyev domla ko'rganlar, rost, men o'z ishimda bir paytlar ustasi farang edim. Meni davralarda o'tirg'izib, o'q nishonga tekkanidan odamlar qotib kulishardi. Men o'zim ham zavqlanardim, chunki mening nazarimda bu qiziq bir o'yin edi... Shunday yurib, bundan besh-olti yil burun Sharif degan do'stim bilan tasodifan uning qarindoshlarinikiga mehmonga borib qoldim. Shahar etagidagi bu bog'-hovlini oldin ham ko'rganman, Sharifning qarindoshlari – tog'asi, yangasi yoshi o'ttizga yetib erqilmagan qizlari bilan birga turishadi... O'sha kuni ularnikida nima munosabat bor edi – eslolmayman, boshqa narsa yodimda – Sharif bilan mendan bo'lak yana ancha-muncha kishi yig'ilgan, hammaning kayfiyati ko'tarinki edi... Xo'p, ayni yoz payti, hovlida gangur-gungur qilib o'tirib, qayoqdan ham gap suratga borib taqaldi. Men mahmadonaligim tutib, suratdan odam tanish mumkinligi og'zimning bir chetidan chiqib ketdi. Hozirgina sizlar qiziqqanlaringga o'xshab, davrada ko'pchilik chug'urlashga tushdi. Haligi – uy egasining qizi – Nafisa yugurib ichkaridan albom ko'tarib keldi... Yo'q, u albomni mening qo'limga bermadi, faqat uch-to'rtta suratni olib, ko'zlari chaqnab mug'ambirona kulgancha, bunday gap qildi:

– Biz bu odamlarni yaxshi bilamiz, siz, menimcha, tanimaysiz... Men qo'lingizga bittadan surat beraman, siz bittadan fikringizni aytib turasiz, maylimi?!

– Mayli, – yelkamni uchirdim, menga bari bir, degan ma'noda.

Nafisa davradagilarga ko'rsatib, qo'limga surat tutqazdi.

– Ayting...

– Aytaveraymi? – dedim folbinlardek qo'r to'kib. – Bu odam ilk qarashda sodda, samimiy taassurot qoldiradi. Kattalar oldida odob saqlaydi, bolalarning boshini silaydi. Uning yana bir odati bor. Odamlar orasida o'zini jo'mard, chapani yigitlardek ko'rsatishni yoqtiradi. Lekin u anoyi emas. O'z manfaatini yaxshi biladi, qolgan hammasi niqob. Kerak bo'lsa, o'zini tomdan tashlaydi, suvdan quruq chiqadi...

Davradagilar kulishdi. Menga Nafisa boshqa suratni berdi.

– Bu yigit, romantik deydimi, havoyi xayollar bilan yashaydi. Suratga qovoq uyib tushganiga qaramay, ko'cha-ko'yda ko'rsangiz, yuzi yorug', ko'zlari porlab yuradi. Egni uringan, tuflisi ko'pincha loymi, chang... Yaxshi yigit. Undan durust bir odam chiqardi-ku, yelkasidan turtib, yordam beradigan kishisi yo'q. Asosan, uyim-joyim deb yugurib-yelgani bilan, xotindan unchalik yolchimagan...

Davradagilar yana kulishdi. Nafisa surat tanlayotib, bu gal negadir bir oz sarosimalangandek bo'ldi. U suratni ko'rsatgach, menga nima uchundir davrada

boshqalar ham nafas yutishgandek tuyuldi. Buning ustiga, yonimda o'tirgan Sharif egnimdan tortdimi, oyog'imni turtib qo'ydimi – shunga o'xshagan bir ish qildi.

– Bunisi-chi? – dedi shu payt Nafisa, nihoyat, suratni mening qo'limga tutqazib.

Men – o'zini suratshunos, surat orqali birinchi galda odamshunos deb bilgan kishi – davrada qandaydir o'zgarish ro'y berganini payqab, hushyor tortishim, albatta, bas endi, deb o'yinni sekin to'xtatishim kerak edi. Lekin men o'z san'atimga o'zim mahliyo bo'lib qolgandim. Men go'yoki sahnaga chiqqan aktyor edim. Nazarimda, tomosha zalida o'tirganlarning xatti-harakatlariga, pichirlash-shivirlashlariga parvo qilmasligim, rolimni oxirigacha bajarmay, sahnani tark etmasligim kerak edi.

– Bu ancha murakkab odam. Bir so'z bilan baholash qiyin, – dedim jilmayib. – Aqlli, chiroyli, mag'rur. O'z ishida iste'dodli, Bunday yigitlarni xotin-qizlar tez, ba'zan bir ko'rishda yoqtirishadi. Umuman, bu ham yomon yigit emas. Lekin juda xudbin. Hammadan ham ko'proq o'z-o'zini yaxshi ko'radi. Uning har qanday fidoyiligini ham...

– Rahmat, Mahkam aka, – dedi Nafisa qo'limdan suratni olib. U qo'lidagi suratlarni albomga joylab, albomni qo'ltig'iga qistirgancha, shahd bilan uyga yo'naldi.

Davra birdan suv quygandek bo'lib qolgan edi.

– Ko'p o'tirdik. Endi bizga javob bersanglar, – dedi axiyri uy egalariga qarab ayollardan kimdir.

Shu gapni kutayotgandek, hamma gur etib o'rnidan turdi.

Men ham Sharif bilan ko'chaga chiqib, yo'lga tushdik. Negadir qabih bir ish qilgan odamga o'xshab, ko'nglim g'ash, kir edi. Ayni soniyada o'zimni xuddi begona tilda gaplashadigan odamlar davrasidan qaytayotgandek his etar, gangib qolgan edim.

Muyulishga yetganimizda beixtiyor portladim:

– Nega indamaysan? Nima bo'ldi o'zi?!

– Sen qovun tushirib qo'yding, og'ayni, – g'udrandi yonimda miq etmay keelayotgan Sharif. – Axir, u Yusuf edi-ku...

– Men hech narsaga tushunmayapman. Qanaqa Yusuf?

– Sen xudbin degan yigit. Yusuf... Nafisa bilan yaqinda ularning to'yi bo'lishi kerak...

Keyin Sharif men bilan xayrlashdi.

Uyda o'sha kecha allamahalgacha bo'g'ilib, to'lg'anib yotdim. Xijolatli bir holatni tuyib ezilar, donolik qilaman, deb nodonlikka yo'l qo'yganimdan azoblandim.

Yo'q, tongga yaqin qotib qolibman, ancha bardam uyg'ondim. Oqshom ro'y bergan butun voqeani eslab, menga endi qiynalishim asossiz, bema'nilik bo'lib tuyuldi. Avvalo, men Nafisaning Yusuf bilan munosabatini qayoqdan bilibman, ular o'zi mening bo'yninga arqon bog'lamasligi kerak edi! Buning ustiga, men

to'g'risini aytdim, masalan, sahnaga chiqqan aktyor xotinbozlar to'g'risida gapirganida, deydik, zaldagi biron xotinboz mendan ranjimasmikin, qabilida istiholaga borib o'tirishi kulgili emasmi!

Shu yillari kino sohasidagi bir idorada ishlayman, beg'am-bedard kayfiyatda ishga bordim. Har kungidek qog'ozlarni stol ustiga uyib tashlab, o'z vazifamni bajara boshladim. Ammo...

Tushga yaqin kutilmaganda eshik ochilib, xonaga Sharifning tog'asi – A'zam aka kirib keldi. Men uni ko'rib, naq jinoyat ustida qo'lga tushgan kishi singari yuragim orqaga tortdi.

Qiziq joyi: A'zam aka, aksincha, men bilan har qachongidan quyuq so'rashdi. U osoyishta o'tirib olib, ob-havodan narx-navogacha – turli narsalar ustida bafurja suhbatlashishga urindi. Aftidan, A'zam aka xuddi kechagi ko'rsatgan hunarim uchun menga minnatdorchilik bildirgani kelganga o'xshar edi.

U nihoyat maqsadga ko'chayotgandek bo'ldi.

– Bir vaqtlar yigitlar qizlarni tanlab-topib, xaridorlik qilishgan, – gapni uzoqdan boshladi A'zam aka. – Hozir bu ish qizlarning gardanida, birovni topib-ma'qullasa – yaxshi, bo'lmasa – yuraveradi. Yigitlarning g'ayrat ko'rsatishidan umid kam. Ota-onaga qiyin... Men buni aytishim noqulay. Lekin Nafisa yomon qiz ekanidan uyda o'tirgani yo'q. Sizdan yashirmayman, biz birovni o'zimiz topib uni uzatishni ham ko'p o'ylaganmiz. Natija chiqmagan... Bizning topganimiz unga yoqmaydi, bo'lmasa yoqtirganingni ayt, deganimiz bilan indamaydi. Faqat yaqinda mana shu Yusuf degan yigit...

– Ayb menda. Men bilmay osiylik qilibman! – boshimni egdim mardligim tutib.

– Yo'q, ayb sizda emas, – deb keskin to'xtatdi meni A'zam aka. – Siz albat bilmagansiz. Undan tashqari, xolis fikri uchun birovdan xafa bo'lish ahmoq odamning ishi... Men boshqa narsa... Nafisaga shu Yusuf yoqdimi, rozilik berib, to'yga taraddud ko'rayotgan paytimiz...

– Ey, men bari bir... – G'udrandim vijdon azobiga o'xshash hissiyotdan yuragim burdalangan ko'yda.

– Siz mening gapimni eshitmayapsiz, – dedi o'pkalanib A'zam aka. – Men sizga shunchaki iltimos bilan... Nafisaning bizga uyda og'irligi tushmaydi. Farzandimiz, ming yil yurmaydimi! Lekin dunyoda lafz, obro' bor. Oldi-berdisi boshlangan to'yni shappa to'xtatsa, odamlar oldida malomatga qolish mumkin. Noqulay...

– Nima, Nafisa tegmayman deyaptimi? – parishonlanib so'radim A'zam akadan.

– Tegmayman deyapti. O'zi topib, o'zi endi qaysarlik qilyapti... Nafisa sizni hurmat qiladi. Sizga ishonadi... Iltimos. Bizga yordam bering. Qanday bo'lmasin... Ko'chamiz boshidagi kasalxonani bilarsiz, yonida laboratoriya. Nafisa hozir shu yerda ishlaydi. Iltimos...

– Bo‘pti, men o‘zim u bilan gaplashaman, – dedim A‘zam akaning maqsadiga tushunib, bu odamlar qarshisida gunohimni yuvгим kelganidan hayajonlanib.

A‘zam aka mahzun iljayib, menga go‘yoki ta‘zim qilmoqchidek egilib-bukilib xonadan chiqib ketdi.

Men bir nafas gangib o‘tirdim. Keyin, tushlik paytidan foydalanib, va‘daga binoan Nafisa bilan gaplashish uchun kasalxonaga qarab jo‘nadim.

Nafisa ishlaydigan laboratoriya atrofiga temir panjara o‘rnatilgan kasalxonaning ro‘parasidagi ikki qavatli mo‘jazzgina binoda joylashgan edi. Shu kunga qadar bu yerga ishim tushmagandi.

Xo‘p, so‘rab-surishtirib, kirib bordim. Maktablardagi kimyo kabinetlarini eslatadigan, katta-kichik har xil shisha idishlar qalashib yotgan xonada Nafisa qandaydir yapasqi stol ustiga horg‘in enkayib o‘tirardi. Meni ko‘rib, allanechuk ajablangandek, shu bilan birga suyungandek bo‘ldi. O‘rnidan turib, menga do‘stona qo‘l berib, deraza orqali kasalxona tomon imo qilganicha:

– Birovdan xabar olgani kelganmidingiz? – deb so‘radi.

Va‘da berganimdan boshlab xonaga kirib Nafisa bilan yuzlashganimga dovur bu qizga pand-nasihat qilish menga xamirdan qil sug‘urgandek bitadigan ish bo‘lib tuyulgandi. Mana endi – uning qarshisida turganimda, sarosimalanib tizzam qaltirayotganini sezdim.

– Ha, albatta... – Chaynaldim so‘z topolmay. Aslida, yolg‘on bo‘lsa hamki, yana nimalardir deyishim, tegrada bir oz aylanib, beozor suhbatga rag‘bat tug‘ilgach, sekin-asta dardimni yorishim kerak edi. Lekin jur‘atim yetmadimi, sabrim chidamadimi, har qalay, shu ondayoq qo‘shib qo‘ydim: – Siz bilan ikki og‘iz gaplashmoqchi edim.

Nafisaning avzoyi birdan o‘zgardi:

– Nimani? – deb so‘radi u sergaklanib.

Men bu qizning hayoti, taqdiriga beixtiyor aralashayotganimni, shunga to‘g‘ri kelib qolganligini o‘ylab, battar sarosimalandim. Uzoq chaynalib, meni kechiring, kecha sizlarnikida ko‘rsatganim shunchaki o‘yin, turmush boshqa narsa, singlim, degan jo‘n gapni unga obdan uqtirishga urindim. Nafisa menga aljirayotgan odamga qaragandek hafsalasiz tikilib, asabiylasha boshladi. Nihoyat, u dabdurustdan:

– Menga ayting-chi, Yusuf o‘zini ko‘proq yaxshi ko‘radimi, menimi? – deb yana savol tashladi.

Butun toat-ibodat bir pul. Nafisa o‘z bilganidan qolmayotgan edi. Men mabodo Yusufni ayblasam, bu yerga kelganimdan natija chiqmasligini, aksincha, yo‘q, sizni, desam, bunga Nafisani ishontirolmasligimni his etib, boshim qotganicha g‘udranishga tushdim:

– Bilasizmi, muhabbat doim ham...

– Qo‘ying, Mahkam aka... nima keragi bor, – dedi Nafisa. – Men o‘zim uning qanaqaligini ko‘nglimda sezib turgandim, faqat ifodalashga qiynalayotgandim. Siz kecha to‘g‘risini aytdingiz! – daf‘atan menga u sinchikov qaradi. – Sizni kim yubordi bu yerga?!

Men o'zimni butkul yo'qotib, tirirchilab qoldim.

– Ey, men... yuragim... – deb allanarsalarni g'uldiradim.

Nafisaning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

– Mayli, siz ham shu niyatda ekansiz... men roziman, – dedi u. – Bo'ldimi?

Keting endi... – Nafisa menga teskari o'girilib, deraza oldida shamdek qotdi.

Men xonadan sekin sirg'alib chiqib ketdim...

Mahkam chuqur sukutga cho'mdi. Hozir – davrada uning ham ko'zlarida yosh halqalangan edi.

– Keyin-chi? Nafisa o'sha yigitga tegdimi? – sal turib, sekin so'radi Zamira.

– Ha, tez orada ularning to'yi bo'lib o'tdi, – so'zida davom etdi Mahkam. –

To'g'ri, Sharif bilan do'stligimiz buzilmaganiga qaramay, men to'yga borganim yo'q. Meni hech kim aytgani ham yo'q... Yarim yilmi, bir yildanmi keyin, Sharifdan, og'ayning nega ko'rinmay ketdi, deb so'rashgan ekan, u meni qo'ymay sudradi. O'sha kundan boshlab oldingidek Sharif bilan A'zam akalarnikiga ba'zan kirib chiqadigan bo'ldim. Xonadonda hech kim men folbinlik qilgan oqshomni, ro'y bergan ko'ngilsizlikni eslab menga ta'nakor boqmasdi – ular samimiy kishilar edi!.. Men Yusuf bilan tanishdim, ko'p o'tmay ma'lum darajada do'stlashib ham qoldik. U juda yoqimtoy yigit edi. Men uni ko'rib, hatto, vaqtida unga baho berganimda haq emas ekanman, degan qarorga keldim... Nazarimda, Yusuf bilan Nafisaning munosabati ham havas qilgulik edi. Ikkisi ikki gul, biridan biri xushbo'y... Shu taxlit oradan kunlar kechib, oshqozoni jarohatlangan Sharif kasalxonaga – bu ham bir tasodif, qarangki, Nafisa ishlagan laboratoriya yonidagi kasalxonaga tushib davolanishiga, men undan uch-to'rt marta xabar olishimga to'g'ri kelib qoldi. Eski mo'jazgina binoga qaytib bosh suqishim yetti uxlab tushimga kirmagandi, ammo Sharifni ko'rgani bir borganimda beixtiyor o'sha tomonga ham o'tdim.

Sharifning bemorligini bilgan Nafisa mening kirib kelganimga bu gal ajablanmadi. Hol-ahvol so'rashib, menga o'tirgani joy ko'rsatdi. Lekin undan-bundan so'zlashayotib, u ko'zlari porlaganicha, qiziq gap qildi:

– Men bir narsani o'ylayman, Mahkam aka. Tushunmayman... Nega ba'zi odamlar haqiqatni aytgandan keyin chekinib, o'zlarini panaga olishga urinishadi? Tarixda terisini shilib, gulxanga tashlashganda ham so'zidan qaytmagan kishilar bo'lgan ekan. Nima uchun hozir biron jazoga tortilmasligiga qaramay, hammamiz qo'rqib turamiz? Mening fikrim shu, deyshish nahotki odamdan katta jur'atni talab qilsa?!

– Bu bizning tomorqamizga otilgan tosh, – dedim gapni hazilga burib.

– Yo'q, men umuman... bilmogchiman, – dedi Nafisa.

– Menimcha, siz baxtlisiz. Demak, bunday xayollarning hech qanday...

– Men albatta baxtliman, – dedi Nafisa. – Biz hammamiz ham to'rt devor ichida o'zimizcha baxtlimiz, – kulib, negadir qo'shib qo'ydi u. – Bari bir, bilishim kerak. Mardlik yetishmaganiga biron sabab bordir-ku, dunyoda...

Nafisa shu kuni go'yoki mening qarshimda o'tirgan hakam edi. Men uning asosli gapiga javob qilolmasligimni, javob qilganimda ham, boridan ko'ra og'irroq malomatdan qutulolmasligimni o'ylab, badanidan sovuq ter chiqib ketdi.

– Mavridi kelsa, hozir ham mardlik qiladi odamlar. Hamma narsa sharoitga bog'liq, – deb g'udrandim, bahs tugadi, degandek o'rimdan turib. – Undan tashqari, bunaqa masalani dabdurustdan muhokama qilib bo'lar ekanmi? Uydagilarni so'rab qo'ying...

Men Nafisa borasida osoyishtalangandim, shu suhbatdan keyin qaytib g'ashlanib qoldim...

Mahkam yana sukutga cho'mdi.

– Bo'lgan-bori shumi? Tamommi? – bezovtalandi Keldiyev.

– Siz oxirini aytmadingiz. Bu voqea shunday oddiy tugashi mumkin emas, – dedi kuyunib Xolida, ko'zi ostidan eriga qarab qo'yganicha.

– Qisqasi, ular birga yashayaptimi, qanday yashayapti, gapiring, do'stim, – to'ng'illadi Qambar, – har qalay, voqeaning oxirida nuqta bo'lishi kerak...

– To'g'ri, lekin... nima desam ekan... oxirini aytganimdan natija chiqmaydi, chunki bunga aql bovar qilmaydi, – dedi Mahkam. – Qizlarining irodasiga qaramay, o'z bilganlaricha ish bichishganidan oxir-oqibatda azoblanibmi, boshqa sababdanmi, harholda, uch yil ichida A'zam aka bilan xotini dunyodan o'tishdi. Nafisa shahar etagidagi bog'-hovlida Yusuf bilan yolg'iz qoldi. Biron yil o'tar o'tmas, Nafisaning o'zi ham bo'g'ma kasaliga chalilib, ko'z yumdi... Shunday qilib, arzimagan davr ichida butun xonadon barbod bo'ldi. Bog' hovli, yillar davomida odamlar yiqqan ashyolar, buyumlar, kitoblar – hamma narsa Yusufga buyurgan ekan, Yusuf egallab oldi. Lekin gap bunda emas... Men Nafisaga tegishli marosim kunlarida Yusufni kuzatib, uni birinchi ko'rayotgandek, es-hushim og'di. U Nafisa uchun zo'r berib, namoyishkorona iztirob chekar, ammo harakatlari aniq, qat'iy, bir so'z bilan Yusuf – har qachongi yoqimtoy yigit edi. Men bu yigit Nafisani hech qachon sevmaganini his etdim. Shu boisdandir, menga xonadonning baxtsizligi oddiy, tabiiy ro'y bergan kulfat bo'lib ko'rinsa-da, aslida, bu yerda qandaydir yashirin bir jinoyat berkinib yotgandek tuyuldi...

Mahkam cho'ntagidan ro'molcha chiqarib, kirriklariga ingan yoshni artdi.

– U hozir ham o'sha bog'-hovlida turadimi? – deb so'radi Zamira.

– Ha, o'sha yerda. Yangi oilasi bilan... Boshlanishida aytganimdek, bu hammasi besh-olti yil ichida sodir bo'ldi...

– Menga qarang, nima qilganda ham, siz suratga qarab bu yigitga avvaldan to'g'ri baho bergan ekansiz-ku, – dedi Keldiyev. – Hammasi siz aytgandek bo'lib chiqibdi. Shunday ekan, nega o'zingizni burdalayapsiz?

– Bu kishi so'zlarida qattiq turmaganlariga o'kinyaptilar, – eriga tushuntirish berdi Zamira, shuning barobarida, ilmoq tashlashga urinib.

– Menimcha, siz baho bermaganda ham butun voqea shunday kechardi, – dedi Xolida. – Hayotda nimalar bo'lmaydi...

– Men ketma-ket ikkita xatoga yo‘l qo‘ydim. Avvalo, hunar ko‘rsatmaganim ma‘qul edi. Keyin, so‘zimdanda qaytmasligim kerak edi, albatta, – dedi Mahkam o‘ychan. – Yo‘q, men o‘sha oqshom tilimni tishlaganimda, voqea boshqa shaklga kirishi ham mumkin edi. Nima uchun?! Bunday manzarani tasavvur qiling... Yusuf xudbin edi, to‘g‘ri. Lekin biz hech qaysimiz farishta emasmiz, birovga ehtiyotsizlik bilan baho beraverishni kim qo‘yibdi bizga?! Avval o‘zingga boq, degan gap bor. Har kim boshqalarga daholik qilishni emas, o‘z qusurlarini yo‘qotishni o‘ylasa! Axir, har birimizda o‘zimizga yarasha qusur topiladi. Xo‘p, allabir faylasuf, odam – suyuqlik, qaysi shishaga solsangiz, shunga mos shaklga kiradi, degan ekan. Aytmoqchimanki, Yusuf qaynotasi A‘zam akaning xonadonida – ezgu kishilar orasida, Nafisaning muhabbati tufayli o‘zgarib ketishi ham ehtimol edi. Nafisa uni xudbin deb bilib, xudbinligini eslataverib, cheksiz muhabbat kutib, qiy-nab, bu yigitni o‘zgarish o‘rniga battar xudbinlikka tomon surib yubormadimikan?! Bunisi mayli... A‘zam aka, xotini o‘z kuyovlarining yomon jihatini bilishmasa, to‘yni tinch o‘tkazaverishsa, balki dard-alam ko‘rmay yurishaverarmidi?! Nafisaning o‘zi ham ortiqcha qiynalmasmidi?! Hattoki, ular shunday o‘lib ketishganida ham, o‘lim bostirib kelgunicha, bu xonadondagilar boridan ko‘ra ancha baxtli yashasharmidi?! Ikkinchi xato... men so‘zimdanda qaytmay, to‘y buzilganidan butun hayot buzilgani yomonroq, deb haqiqatdan chekinmaganimda ham, voqea boshqacha ko‘chardi... Qaysarlanayotgan Nafisaga men madad bo‘lardim, A‘zam aka, xotini mendan injishgani ham, malomat ham o‘tardi-ketardi. Nafisa, ehtimol, yanada kech bo‘lsa-da, bir kuni o‘z baxtini topardi. Balki, bunday baxtsizlik ro‘y bermas edi... Men o‘sha bog‘-hovlida ko‘pchilik to‘plangan oqshom nega mahmadonalik qilib, surat haqida so‘zlandim?! Yusufning surati qo‘limga tekkanida, noxushlikni sezaturib, o‘zimni nega to‘xtatolmadim – bunga nima xalal berdi?! Ko‘p o‘ylayman... Erka, Yusufga nisbatan ko‘proq xudbin ekanligimdan beixtiyor shunga yo‘l qo‘ymadimmikan?! Yoki hammasiga Nafisani o‘zimcha bir oz yoqtirganim sabab bo‘ldimi?! Aytish qiyin... Bo‘lgan-bor voqea shu... O‘zlaring bilganlaringcha tushunib olaveringlar...

Davrada endi hamma nafasini ichiga yutib, mum tishlab qolgan edi.

Mahkam bexos o‘rnidan qo‘zg‘aldi, eshik yoniga borib, kiyinishga tushdi.

– Ha, namuncha birdan... Qo‘lingizga albom tutqazmaymiz, qo‘rqmang, – dedi Xolida davraning ruhini o‘zgartirgisi kelibmi, yarim hazil, yarim chin ohangda.

– Gap qo‘rqishda emas... Qachon shu voqeani eslasam, yuragim o‘ynay boshlaydi. Bir yerda o‘tirolmay qolaman, – dedi Mahkam jiddiy. U eshikka yo‘nalib, ostonada to‘xtadi va orqaga o‘g‘irilib endi bedardmi, kinoyalimi iljaydi. – Hamma aytdanlarimga ishondinglar-a? Holbuki, tixirlik qilavermanglar, deb men buni hozir to‘qidim, – g‘udrandi negadir. – Birovning uyidagi albomni boshqa odamlar ko‘rishining nima hojati bor?! – Mahkam xonadan chiqib ketdi.

Davradagilar uning izidan eshikka tikilib, hech narsaga tushunolmay angrayishdi...



# O'tkir Hoshimov

(1941–2013)



O'tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1991). ToshDUning filologiya fakultetining jurnalistika bo'limini tugatgan (1964). Ilk kitobi – «Po'lat chavandoz» (1962, ocherklar to'plami). Birinchi yirik nasriy asari – «Cho'l havosi» (1963). «Odamlar nima derkin» (1965), «Shamol esaveradi» (1966), «Qalbingga quloq sol» (1973), «Bahor qaytmaydi» (1970), «Dunyoning ishlari» (1982) qissalari hamda «Nur borki, soya bor» (1976), «Ikki eshik orasi» (1986), «Tushda kechgan umrlar» (1994) romanlari nashr etilgan.

Yozuvchining bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. «Xazon bo'lgan bahor», «Inson sadoqati» (1975), «Vijdon dorisi», «To'ylar muborak» (1979), «Qatag'on» kabi drama, komediya, bir qator kinossenariylar muallifi. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» (2001) kitobi ijtimoiy-ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan.

«Mehnat shubrati» (1996), «Buyuk xizmatlari uchun» (2001) ordenlari bilan mukofotlangan.

2013-yil 24-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

## YANGA

Akmal qo'ng'iroq tugmasini bosishi bilan ichkaridan ovoz eshitildi:

– Ana, Akmalxon keldilar.

«Kelinoyim», deb o'yladi u yangasini ovozidan tanib.

Yangasi negadir uning nomiga «xon» qo'shib gapirardi.

Akmal uylariga yangasi kelganidan quvondi. Har safar uni ko'rsa, onasini ko'rganday bo'lardi.

Eshikni yangasining o'zi ochdi. Akmalning yelkasidan quchoqlab ko'rishdi. U yashil jemper kiygan, shtapel durra o'rab olgan, qoracha, ozg'in yuzida iyma-

nuvchan tabassum bor edi. Akmal uning qo'lidagi oddiy xo'jalik sumkasini ko'rib, ketishga hozirlanayotganini payqadi.

– Nega otlanib oldingiz? – dedi astoydil ranjib.

– Bolalar yolg'iz, – dedi yangasi tuffisini kiyarkan. – Qorong'i tushmasdan bora qolay.

– Akam bor-ku, – dedi Akmal hamon uning ketishini xohlamay.

Yangasi yana iymangan qiyofada jilmaydi:

– Choyxonaga chiqadilar. bilasiz-ku.

Yonbosh tomondagi oshxonadan parcha gulli xalat kiygan, oldiga klyonka fartuk tutgan Klara chiqdi.

– Ovqatga turing desam, ko'nmayaptilar, – dedi u goh eriga, goh ovsiniga qarab.

– Mayli, o'zinglar boringlar, – yangasi eshik tutqichidan ohista tutib, tashqariga chiqdi.

Akmal uni zinadan kuzatib qaytib kirganida oshxonada jaz-buz eshitilar, uyni piyozdog' hidi tutib ketgan edi.

– Kelinoyim qachon keluvdi? – so'radi u go'sht qovurayotgan xotinidan.

Klara achishgan ko'zini kaftining orqasi bilan artib, unga yuzlandi.

– Yaqinda.

– Biron yumushi bor ekanmi?

– Nima yumushi bo'lardi, pul so'raydi-da...

Akmal xotinining ovozidagi pichingni payqab, ko'ngli ranjidi.

– Necha marta pul so'radi sizdan? – dedi zarda bilan.

Klara kapgirni taraqlatib stolga tashladi.

– So'ramasa, endi so'raydi. Bir marta bersangiz, kelaveradi. Nima, bizning pul zavodimiz bormi?

Klara oilasida yolg'iz qizligi uchunmi, kelin bo'lib tushgandayoq ovsinini xush ko'rman edi. «Seksiya» olib bu yoqqa ko'chib kelishguncha ancha mayda-chuyda gaplar o'tgan, ularning ko'piga xotini sababchi bo'lganini Akmal bilardi, ammo indamagan edi. Hozir g'ashi keldi.

– Bizning pulimizga zor qaqshab qolgan joyi yo'qdir, – dedi ovozi bo'g'ilib. – Muhtoj bo'lgandir, biron narsaga kerak bo'lib qolgandirki, so'ragandir.

– Nega muhtoj bo'lsin! Eri ishlaydi, o'zi ishlaydi. Rejasi bilan ishlatsin! – Klara gap tamom, degandek, indamay burilib qozonini kavlashga tushdi.

Akmal xotinining xalat ostidan tirsillab turgan bo'liq yelkalariga, kapgirni chaqqon aylantirayotgan tilla uzukli qo'lga birpas qarab turdi-da, burilib, xonaga kirib ketdi. Hali uyga kirganida yangasi nimagadir iymanib jilmayib turganini, nima uchun shoshilib ketib qolganini endi tushundi. Xotinining mix qoqqandek qarsillatib muomala qilishidan, o'zi bo'lsa jilovini shunchalar berib qo'rganidan g'ashi keldi. «Bo'ynini egib pul so'rab kelish osonmi? Qish kelyapti. Bolalardan biron-tasiga qishlik kiyim olmoqchidir. Buning ustiga akamning ishi bor...» U divanda chalqancha yotganicha shularni o'ylar, o'ylagan sayin ko'ngli g'ash bo'lar edi.

O'rtadagi eshik ochildi. Akmal xotini o'ziga qarab turganini payqab, indamay yotaverdi.

– Yana qancha yotasiz, – dedi Klara tag'in o'sha o'yib oluvchi ohangda, – Lolani kim olib keladi?

– Bilmayman, – dedi Akmal karavot tepasiga ilingan arabiy gilam gullarini tomosha qilgan bo'lib. – Bog'chaga har kuni men borishim shart emas.

– Bo'Imasa ovqatni qiling!

Akmal gilam tomonga butunlay o'girilib oldi.

– Masalan, men ovqat yemayman, – dedi sovuqqonlik bilan.

– Qarang-a, men sizni to'yib kelishingizni bilmabman. – Klara eshikni qarsilab yopib chiqib ketdi. Zum o'tmay eshikning kaliti shiqirladi.

Akmal o'sha alfozda yotganicha xotinini ham, qizini ham emas, negadir yangasini o'yarladi.

Adham akasi uylanganda Akmal uchinchi kursga o'tgan edi. Mexanika-matematika fakultetida fanlar og'ir bo'lgani uchunmi, yo o'zining qobiliyati sust-roqmi, xullas, stirendiyaga ilinmadi. Onasi maktabda yigirma besh yil farroshlik qilib, pensiyaga chiqqan, uning nafaqasi Akmalning joniga oro kirib turardi.

Yangasi kelin bo'lib tushganida ham qop-qora, ozg'in qiz edi. Akmal o'zidan nari borsa ikki yosh katta bu qizga avvaliga unchalik ko'nikolmay yurdi. Negadir undan o'zini olib qochar, yangasi paypog'inimi, maykasinimi yuvayotganini ko'rib qolsa, iymanar, onasiga «o'zingiz yuvmabsiz-da», derdi. Ammo onasining kun sayin nari ketayotganini, oyoq-qo'llari shishib, yotib qolganini Akmal bilardi. U har kuni o'qishga ketayotganida onasi yotgan xonaga kirib, undan ahvol so'rab o'tardi. Shunaqa paytlarda har doim onasining tepasida yangasi o'tirganini ko'rardi.

Xuddi shunaqa erta kuz kunlaridan birida u o'qishdan qaytganida, eshik tagida to'planib turgan odamlarni ko'rib hammasiga tushundi. U qachondir shu hodisa bo'lishi muqarrar ekanini bilardi. Ammo nazarida bu narsa hech kutilmaganda ro'y bergandek, allaqanday adolatsizlik bo'lgandek tuyuldi. U bir hovli xotinlar orasidan o'tib onasi yotgan xonaga otilib kirdi. Qiziq, o'shanda u yig'lamadi. Yig'lay olmadi. Faqat tong-saharda o'qishga ketayotganida onasining qilgan duosini esladi: «Tuproq olsang oltin bo'lsin, bolam. Umring uzoq bo'lsin...»

O'sha kundan boshlab Akmal eng katta tayanchi yo'qolganini tushundi. Endi uning hayoti chalkashib ketgandek, allanima o'zgarishi kerakdek tuyulardi. O'qishdan ko'ngli soviy boshladi. Stirendiya olmasa, kap-katta yigit birovga tirik tovon bo'lib o'tirsa...

Uydagi hayot o'sha-o'sha davom etardi. Xuddi onasi bor vaqtidagiday har kuni karavotining boshidagi stul suyanchig'ida dazmollangan shim, oppoq ro'molcha, yoqasi qordek toza ko'ylak, cho'ntagida har kuni tushlikka pul...

Akmal bularning hammasini yangasi qilayotganini bilardi. Akasining topgani o'zidan ortmaydi. Yangasi qurilishda ishlaydi. O'z erining tashvishi yetmagan-day, tong-saharlab turadi. Akmalning kir-chiriga qaraydi.

Yangasi og'iroyoq bo'lganidan keyin ta'tilga chiqdi. Hamon Akmalning yonidan pul arimasdi. Lekin o'zi endi ortiq bu ahvolda yurish mumkin emasligini tushundi. O'qishdan butunlay aynidi. Bir kuni akasiga qat'iy qarorini aytdi:

– Men zavodga ishga kiraman.

Akasi tayinli bir gap aytmasa ham, Akmal uning qarshi emasligini bildi. Ertasiga u kech uyg'ondi. O'sha qish tongi aslo esidan chiqmaydi. Akmal uyg'on-ganida cho'yan pechkada o't guvillab yonar, yangasi pechka oldida cho'nqayib o'tirganicha xayolga tolgan, go'yo uxlab qolganga o'xshardi. Akmal pechka g'irasidan tushayotgan yog'duda yangasining dog' bosgan yuzini ko'rib, yanayam ozib ketganini, chehrasi g'amgin ekanini sezdi.

Karavot g'irchillaganini eshitib yangasi yarq etib unga qaradi. Ammo o'rni-dan jilmadi.

– Akmalxon, men eshitdim, – dedi u past tovushda. Keyin bir zum jim qol-di-da, uf tortdi: – Mayli, bizni o'ylamay qo'ya qoling. Oyimning arvochini chirqil-latgani qo'rqmaysizmi? Oyim sizni menga topshirib ketganlar. Tushudingizmi?

Akmal yangasiga qaradi-yu, ko'zlarida yosh aylanayotganini, bu gaplarni yurakdan ezilib aytayotganini sezdi. Sezdi-yu, o'zining ham yuragi orziqib ketdi. Shu topda yangasining ko'ksiga boshini qo'ygisi, dog' bosgan yuzlarini silagisi, nimadir deb uzr so'ragisi kelib ketdi. O'shanda u mana shu yangasi o'z onasiday aziz bir odam ekanini his qildi. Mana, u o'qishni ham bitirdi. Bola-chaqalik bo'lib, yangasidan ko'pda xabar ham ololmaydigan bo'lib qoldi...

Eshik kaliti shiqirlaganini eshitib, Akmal qaddini rostladi. Yo'lakda Klara-ning tovushi eshitildi:

– Televizor ko'rasanmi, Lola? Hozir multik bo'ladi.

– Yo'q, dadamga boraman...

Eshik ochilib, jamalak sochiga oppoq lenta taqib olgan Lola chopqillab kir-di-da, Akmalni quchoqladi. O'sha tomondan yana Klaraning ovozi keldi:

– Qo'y, Lola, dadangga tegma, chaqib olasan.

Akmal qizini yetaklab yo'lakka chiqdi.

– Kelinoyim necha so'm so'radi?

Oshxonaga kirib ketayotgan Klara, haliyam o'sha gapmi, degandek burilib qaradi.

– Nimaydi?

Akmal indamay yotoqqa kirdi-da, Klaraning pardoz qutisini ochdi. Ularning puli odatda shu qutida turardi. Oshxona tomondan tag'in Klaraning ovozi eshitildi:

– U pulga tegmang. Lolaga shuba olishim kerak.

Akmal indamay yo'lakka chiqdi. Tuffisining bog'ichini bog'layotganida tepa-siga xotini kelganini ko'rib qaddini rostladi. Klaraning rangi o'chib ketgan, nafas bo'yoq yurgizilgan bejirim lablari pirpirab turardi.

– Ularning bolasi bola bo'lganida meniki bola emasmi, – dedi u ovozi titrab. – Nega bolaning nasibasini qiyasiz, yo o'tqazib qo'ygani bormi?

– Ovozingni o'chirasanmi, yo'qmi?! – dedi Akmal baqirib.

Klara hayron bo'lganidan eriga tikilib qotib qoldi. Ular laboratoriyada birga ishlashar, sevishib turmush qurishgan, to'rt yildan buyon biron marta eri unga san demagan, baqirmagan edi.

– Obora qoling, – dedi Klara yig'lamsirab. – Bor-yo'g'ingizni oborib bera qoling, o'sha gadoyvachchalarga!

Akmal yana bir dam tursa katta janjal chiqishini bilib, eshikni qars etib yopib, chiqib ketdi.

...Akmal shahar chekkasidagi hovlilarining temir darvozasini taqillatganda vaqt allamahall bo'lib qolgan, sutday to'lin oy pastak uy ro'parasidagi olchalarning sarg'aya boshlagan yaproqlarini allalar, mayin shabada esib turardi.

Eshikni nimcha kiyib olgan yangasi ochdi.

– Tinchlikmi, Akmalxon? – dedi xavotirli ohangda. Chamasi, Akmalning vazohatidan jahli chiqib turganini payqagan bo'lsa kerak.

– O'zim, – Akmal ichkari kirib, gapni ataylab boshqa yoqqa burdi. – Akam keldilarmi?

– E, hali kelmaydilar. Bolalarni endi uxlatuvdim. Yuring.

– So'rida o'tira qolaylik, – dedi Akmal olma tagidagi temir panjarali so'riga imo qilib.

Yangasi uydan darrov ko'rpacha olib chiqdi. Akmal chinniday qilib supurilgan hovlidan yurib borarkan, dimog'iga gup etib rayhon isi urildi. Bu hid unga allanechuk qadrdon, erkalovchi tuyg'ularni eslatdi. Onasi har yili rayhon ekar, «Rayhon fayzli bo'ladi, bolam», deb qayta-qayta takrorlar edi. Chindan ham mana shu hid butun hovliga qandaydir osoyishtalik baxsh etganday bo'lardi.

Akmal so'ridagi ko'rpachada yonboshlab atrofni kuzatdi. Loy tom ustidan shifer qoplab, uyning zamonaviylashtirilganini aytmasa, hech nima o'zgarmagan edi. O'sha ikki uy, bir ayvon, ustundagi uzun mixga bir tutam isiriq ilib qo'yilibdi. O'sha kaftdakkina, ozoda hovli, bo'yra bo'yi joyga ekilgan rayhon. Olma shoxiga ilingan lampochka. O'sha so'ri... So'ring shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi. Sap-sariq...

Oshxona tomondan yangasining o'tin yorayotgani eshitildi.

Akmal o'girilib qaradi. Yangasi hovli etagidagi oshxona eshigi oldida cho'n-qayib o'tirgancha o'tin yorardi.

– Qo'ying, kelinoyi, men ketaman, – dedi Akmal.

Yangasi hozir, dedi-yu, ishini qilaverdi.

Qiziq, oshxona ham, uning yonboshida devorga tirab tiklangan tandir ham o'sha-o'sha – o'zgarmagan, tandir ostiga xuddi o'sha kezlardagiday o'tin taxlab qo'yilgan edi.

Bir mahallar, Akmal bolalik chog'ida, onasi shu tandirda zog'ora non yopar edi.. Tandirdan chiqqan birinchi zog'oraning yarmisini ushatib, sopol piyoladagi sutga to'g'rab berardi. Akmalga dunyoda ivitilgan zog'oradan lazzatliroq taom yo'qdek tuyulardi.

U hozir ham o'sha lazzatli non ta'mini sezganday yutib qo'ydi-da, sekin entikdi.

Erta kuz kechasiga xos chuqur sukunat cho'kdi. Faqat onda-sonda bir shamol kelib, olma yaproqlarini duv to'kib ketadi. Keyin yana sukut quyiladi. Olisdan teplovoz tovushi keladi. Guldirab o'tayotgan poyezdning bir me'yorda guvillashi eshitildi. Ovoz pasaya-pasaya tinib qoldi. Bu tovush Akmalga yana bolalik damlarini eslatdi.

Bir vaqtlar mana shu so'ri o'mida supa bo'lardi. Onasi yotar chog'ida ko'loblatib suv separ, butun hovlini rayhon hidi tutib ketardi. Akmal onasi bilan Adham aka-sining o'rtasida ko'rpadan boshini chiqarib, osmonga tikilib yotar, uzoq vaqt uxlay olmay xayol surardi. Akmal, ishchi bataloniga ketib, o'sha yerda vafot etgan otasini eslay olmas, ammo onasining bir gapi go'dak xotirasiga o'mashib qolgan edi.

«O'lgan odamning joni osmonga chiqib, yulduzga aylanib qolarmish». Akmalning nazarida osmondagi eng yorqin yulduz otasining joni bo'lib tuyular, o'sha yulduzga uchib ketgisi kelardi. Hozir ham negadir o'sha tuyg'u yuragini qamrab oldi. O'sha bolalik damlarga bir zum qaytgisi keldi. Laboratoriyadagi murakkab tajribalaru, Klaraning injiqliklari ham, bugungi dilsiyohlik ham, hammasi bachkana, mayda narsalar bo'lib ko'rindi. Qaniydi onasi tirilib kelsa-yu, bir kecha shu so'rida osmonga, yulduzlarga, to'lin oyga tikilib yotsa.

Bir qo'lida choynak, bir qo'lida tuxum qovurdoq ko'targan yangasi temir zinatlardan chiqib keldi. Akmal qaddini rostlab o'tirdi. Yangasi non ushatdi, choy quydi.

Akmal ishtahasiz bir tarzda non kavshar, gapni nimadan boshlashni bilmay taraddudlanardi. Tayin gapki, Klara pulimiz yo'q degan, endi nima deydi? Xotinin sizni aldagan ekan, deydimi?

– Asqar katta bo'p qolgandir, – dedi u anchadan keyin.

Yangasining yuziga tabassum yugurdi.

– Ha, besh bilan o'qiydi. Dastyor bo'p qoldi. – U bir lahza jimib qoldi-da, yana jilmaydi. – Bu yil Laylo ham maktabga boradi.

Akmal birdan bahona topilganiga suyunib ketdi.

– Shunaqami? Qarang, darrov maktabga boradigan qiz bo'lib qoldimi? – U hamon kulganicha asosiy maqsadga ko'chdi. – Layloga bironta sovg'a olmoqchi bo'lib yuruvdim, hali durustroq gaplasha olmadik. Klaraning xabari yo'q, bugun men oylik oluvdim. – U cho'ntagidan pul chiqarib, dasturxon chetiga qo'ydi. – O'zingiz bironta qishlik kiyim olib berarsiz, kelinoyi...

Akmal yolg'on gapirayotganini, gaplari sun'iy chiqayotganini bilib, to'xtab qoldi.

Yangasi yarq etib, uning yuziga qaradi.

– Rahmat, Akmalxon, – dedi yangasi ohista tovushda. Uning ovozida zarda ham, o'kinch ham yo'q edi. – Bolalarning kiyimi yetarli, – dedi u dasturxon popugini o'ynab. – Boshqa narsaga zarur bo'lib qoluvdi... Bilasiz, indinga oyim vafot etgan kunlariga o'n yil to'ladi. Shunga uzoq-yaqin qarindoshlarni chaqirmoqchiydik. Ozroq yetmay turuvdi...

Akmal seskanib yangasiga qaradi-yu, haykaldek qotib qoldi. Yangasi hamon dasturxon popugini o'ynab o'tirar, chamasi, hozir hamma narsani unutib, qaynonasining xotirasini o'ylar edi.



# Erkin Malik

(1941-yilda tugʻilgan)



Erkin Malik 1941-yil 10-avgustda Toshkent viloyatining Yangiyoʻl tumanida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist (1998). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining kutubxonachilik fakultetini tamomlagan (1961).

«Ular mening doʻstlarim» (1964), «Qirq ikki ogʻayni» (1968), «Oʻqilmagan sahifalar» (1970), «Ona shahrim — Toshkentim» (1971), «7A- da qayta qurish» (1991), «Bugunning qaqajonlari — ertaning qahramonlari» (1998), «Nayrangboz shaytonvachcha» (2002), «Subhidam hikoyalari» (2003), «Champo otli ilon» (2006) kabi kitoblari nashr etilgan.

## GUL ISHQIBOZI

Hoji ota sheriklari bilan nahor oshidan chiqib, kelgan joylarining bundoq rejasini olsa, kampiri davolanayotgan kasalxona juda yaqin ekan. Kampiri tushmagur koʻrgani boraman desa, nuqul unamaydi. «Uyalarmish. Tavba, u uzatilmagan qiz-u, men uylanmagan yigitmidim, odamlardan uyalib. Gapini qaranglar».

Otaning shoʻxligi tutdi. Mashinadan tushib qoldi. Tushdi-yu, kasalxonaning haybatini koʻrib, xato qilganini bildi. Kampirini qayerdan topadi? Na boʻlimini va na yotgan xonasini bilsa. Obbo... Hali darvozasi ham ochilmapti.

Quyosh endi tigʻ urib kelardi. Xayolida kasalxona gʻarq uyquda yotgandek koʻrindi. E, soʻrab-soʻrab Makkani topishganida, bitta kampirimni topolmaymanmi? Alloh oʻzi mehribon...

Gʻayrati qoʻzidi otaning. Bundoq qarasa, darvoza yonidagi kichkina eshik ochiq ekan. Daydi itlar kirib ketganidan bildi. Hoji ota ham oʻsha eshikdan kirib bordi. Qorovul dong qotib uxlab yotardi. Uygʻotishga koʻzi qiymadi. Bir odam

qo'lida ketmon bilan gul sug'orib yurardi. Ota o'sha yoqqa qarab yurdi. Haligi odam yerdan tosh olib, itlarni tirqiratdi. Ko'zi otaga tushib qoldi-da:

– O', boboy, – dedi baqirib, – uyingizda eshik bormi, kirgandan keyin yopadi-da.

Tavba, ota kasallarni uyg'otib yubormay deb hassasini yerga yumshoq bosib kelyapti-yu, buning shang'illashini qarang. Na salom bor, na alik.

– UZR, o'g'lim, men itlardan keyin kirdim. bu eshik shundoq ochiq turarkan deb o'yladim.

– Yotibdimi anovi shishib... Qorovulmish, he, o'rgildim...

– Ma'zur tutasiz, o'g'lim, kattalar bo'limi shu yoqdami?

– Ha, borovring.

– Ayollar bo'limi qaysi tomonda?

– Ayol-erkagi yo'q, bari aralash-quralash.

Hoji ota ko'p qavatli binoning marmar zinali eshigiga borganida ichkaridan bir xotin chelak ko'tarib chiqib qoldi.

– Assalomu alaykum, qizim, – dedi dili yorishib, – Men kampirimni qidirib... Otaning gapi og'zida qoldi.

– Kirovring, aytishadi, – dedi ayol beparvogina. Tavba, odamlarga bir narsa bo'lganmi o'zi, na salom berishadi, na salomga alik olishadi-ya. Ayb o'zida, sa-harmardondan kelib nimaydi, birovning dardi erta kirsas, kech chiqmas.

Shu payt zinada oyoq tovushi eshitildi. Hoji ota shu tarafga o'girildi, bir, ikki qadam yurdi ham. Bir yosh qiz tepadan yugurib tushdi-da, otaning yonidan «lir» etib o'tdi-ketdi. Ota og'zini ochganicha qolaverdi. Nimadir tepaga chiqdi. Ota tavakkal deb tepaga ko'tarildi. O'ng tarafdagi eshik ochiq ekan. Bo'sag'adagi lattaga oldin poyabzalini, keyin hassasini artib, gilam poyandozni bir-bir bosib, to'rga qarab yuraverdi. Shu payt o'rtaoqda oq xalatlik ayol ko'rindi. U otaning yaqin kelishini chidam bilan kutib turdi.

– Assalomu alaykum, – dedi ota shirshigandek qilib, – men kampirimni qidirib keluvdim, – deb ismi va familiyasini aytdi.

– Unaqa xotin bizda yo'q, boshqa bo'limdan qidiring, – dedi ayol sovuqqina qilib. Shu payt otaning ko'zi guldonga gul qo'yayotgan bir erkakka tushdi. U otaga yelkasi osha qarab turardi. So'ngra u ildam yurib keldi-da, hoji ota bilan kutilmaganda qadrdonlardek so'rashdi.

– Ko'zimga issiq ko'rinyapsiz, mabodo Chinozdanmasmisiz?

Ota kulib, «yo'q» degandek bosh chayqadi. Lekin yigitning samimiy iltifidan, kimgadir o'xshatganidan xursand bo'lib ketdi.

– Mabodo Xizrmasmisiz? – deya yana murojaat qildi yigit, keyin zina tomon boshladi. Quchoq'ida bir dasta gul.

Ota yigitga qiziqsinib, boshdan-oyoq sinchiklab qaradi. «Hoynahoy shu yer-ning bog'boni bo'lsa kerak. Anovi sherigi gullarni sug'oryapti. Bunisi kasallar-ning bahri dili ochilsin deb guldonlarga gul qo'yib chiqyapti. Tavba, unisining muomalasi qandog'-u, bunisniki qandoq?»



– Xizrmisiz deganimga hayron bo‘lmang, – dedi yigit tabassum bilan, – men har kuni uyqudan oldin tushimga Payg‘ambarimiz (alayhissalom) kirsinlar, deb. Xudoyimga yolboraman, keyin erta bilan yana yolboraman, bugun Xizr bilan ko‘rishtirgin, deb. Xizr buva ham odamning ko‘ziga eski qadrdonidek issiq ko‘rinar ekan-da. Chinozdanmisiz deb so‘raganim, o‘zim chinozlikman.

Chol ovozini balandlatmay kuldi.

– Siz ham menga bir zumda o‘g‘limdek bo‘p qoldingiz, shu ikkovimizdan birimiz Xizrmiz-ov?

– Siz shu yerda o‘tirib turing, men manovi gullarni guldonlarga qo‘yish bahonasida, opoqimning qattaliklarini bilib kelaman, – dedi yigit.

Hoji ota yengil so‘lish olib, o‘rindiqa o‘tirdi. Bir beminnat dastyorni ro‘para qilib qo‘ygan Allohga shukrona aytdi.

Ko‘p o‘tmay yigit qaytib keldi.

– Qarang, – dedi o‘sha samimiyat bilan, – opoqim bizzi bo‘limda ekanlar. Navbatchi xotindan so‘rab bildim. Yuring...

Yigit otani eshigi ochiq turgan bir xonaga boshladi.

– Qani, otam, o‘tiring, menga bir duo bering, bugun tushdan keyin ketaman, lecheniyalarim tugadi, – dedi u otani yuqoriga o‘tkazib.

– Iye-e, siz bu yerda ishlamaysizmi? Men sizni...

– Yo‘q, men gul ishqiboziman, – deya ustoli ustidagi kitobga o‘xshagan narsani olib, otaga namoyish qila boshladi yigit. – Qarang manovi gullarni, bari hovlimda o‘sadi. Bular mening o‘g‘il-qizlarim. Bular ham gul-da, a ota, – deya qiqir-lab kuldi yigit. – Bola gul deganlar-ku. Men afg‘on urushida bo‘lganman. Tirik borsam, faqat gulchilik qilaman, deb niyat qilgan edim. Axir bizda gul yaxshi kunlarga olib boriladi-da, nima dedingiz, ota? U yoqlarda gul ko‘rmadim, bechoralar urishovrib gul ekishni ham eslaridan chiqarib yuborgan ko‘rinishadi.

Ota albomdagi gullarni ko‘rib, yigitning bolalardek beg‘uborligidan zavqlandi, ta‘sirlandi. Keyin uni duo qildi.

Yigit ko‘rsatgan boshqa bir xonadan kampirini topdi. Kampiri xonada yolg‘iz ekan. Bahavo ayvonchaga chiqib, suhbatlashib o‘tirishdi. Bir mahal pastdan gul ishqibozining ovozi yangradi:

– Assalomu alaykum, otaxon, assalomu alaykum, opoqi, qalay mazza qilyapsizlarmi?

Ota, «ha» degandek yigitga qo‘l siltab jilmaydi.

– Hah, o‘lsin, tomi ketgan, – deb kampiri yuzini teskari burdi. – Ertadan kechgacha salom berovrib, mulozamat qilovrib kasallarning joniga tegib ketadi. Odam degan sal og‘ir bo‘lsa-da...

Ota ichida «qaniydi hammaniyam shunaqa tomi ketsa» dedi-yu, kampirini topgunicha bo‘lgan sarguzashtlarini aytib o‘tirmadi.



# Qudrat Do'stmuhammad

(1941-yilda tug'ilgan)



Qudrat Do'stmuhammad 1941 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent Politexnika institutining mexanika fakultetini tugatgan (1963). Dastlabki kitobi M. Rahmonovning «Tungi telepatiya» nomli kitobi bilan bir muqova ostida nashr etilgan (1981). Shundan so'ng yozuvchining «Temirtanlar» (1987), «Noljon va Birjon» (1991), «Nobel mukofoti olgan adiblar» (2002), «Bil sayyorasi» (2007) kabi kitoblari nashr etilgan.

## OLTIN TUXUM

Osmon yorishib, tog' cho'qqilari aniq ko'rina boshlaganda tepalik yonbag'ridagi yakka-yu yagona uyda hayot kundalik iziga tushib ketdi. Sora xola odatdagidek uyning orqa tomonida yuztacha tovuqqa mo'ljallangan katak tomon yo'l oldi. Erta bilan birinchi qiladigan ishi shu: tovuqlarni katakdan chiqarib yuboradi, u yoq-bu yoqni tozalab, burchak-burchaklardagi chuqurchalarga tashlab ketilgan tuxumlarni terib oladi. Moyak uchun qo'yilgan oq piyoz kirlanib yoki so'lib qolib, tovuqlarning g'ashini keltirsa, o'sha chuqurchaga odatdagidan ko'ra kamroq tuxum tashlanadi. Bunday paytda Sora xola oshxonaga kirib, yangi, oppoq piyoz olib chiqadi, eskisining o'rniga almashtirib qo'yadi.

Kampir bugun odatdagidan sal kechikibroq uyg'ondi. Tovuqlar undan noroz bo'lgandek qaqag'lashib kutib olishdi. Faqat sariq-qizg'ish patlari kamalakdek tovlanib turgan dakang xo'roz har galgidek xotirjam. Katak bo'shaganda Sora xola ichkariga kirib, tuxumlarni savatga joylay boshladi. Eng chekkadagi chuqurchaga engashganida beixtiyor «Voy!» deb yubordi. Kir, tuxum yoki piyozligini ajratish qiyin bo'lib qolgan moyak yonida bir dona tuxum yotardi: qip-qizil! Chunonam tep-tekis, qizilki, atayin bo'yalsa ham bunday chiqmaydi.

Kampir tuxumni hayajon bilan qo'lg'a olib, kaftida aylantirib ko'rdi, hech nima tushunolmadi. Savatini apil-tapil ko'tarib, uyga qarab chopdi. Balki choli bir nima der? U har qalay o'rmonda ko'p yurgan, kuzatgan – qushlar, hayvonlar.

Karim ota ham o'rnidan allaqachon turgan, miltig'i tayyor, safar xaltasiga nimalaridir joylayotgan edi. Hovliqib kirgan kampirining qo'lidagi tuxumni ko'rib u ham ajablandi, aylantirib ko'rdi. Qirq yil o'rmon kezib, hayvonlar, qushlar, parandayu darrandalarning miridan sirigacha bilibdi-yu, tovuq qizil tuxum tug'ishini birinchi ko'rib turishi! Yoki u haliyam bilmaydigan qush zoti bormikin? Chol qancha bosh qotirmasin, bu ajabtovur tuxumning sirini bilolmadi, keyin: «Qo'yatur, ertaga qishloqqa borganimda ola ketaman», dedi va charm xaltasi bilan ovora bo'lib ketdi.

Ikkovi choy ustida ham qizil tuxum haqida gaplashib o'tirishdi. «Voy, tavba-ey, tuxum ham shunaqa bo'ladimi?» deb qo'yardi kampir. Chol ko'p gapirmasdan choyini tez-tez ichdi, tayyorlab qo'ygan narsalarini oldi-da, yolg'iz oyoq yo'ldan o'rmonga jo'nadi.

Sora xola uyni yig'ishtirdi, tashqariga chiqib, qizil tuxumni qay biri tug'di ekan, deb tovuqlarni bir-bir ko'zdan kechirib keldi. G'ayrioddiy hech nima sezmandan keyin do'ppi tikadigan igna-ip va piltakachlarni olib, tashqariga chiqmoqchi ham ediki, «qitir-qitir» etgan tovush keldi. Keyingi paytlarda sichqonlar ko'payib ketib, tez-tez «mehmondorchilikka» keladigan bo'lib qolishgandi. Kampir: «Xah, yashshamagurlar!» deb tovush kelgan tomonga talpindi. Tokchanning bir burchagida kichkinagina teshik bo'lib, sichqon ko'pincha o'sha erdan chiqib, o'sha joyning o'ziga kirib ketardi. Tokcha oldiga etganda kampir g'alati tovush chiqarib, qichqirib yubordi. Yoshlik paytlari o'rmon aylanib yurib, qo'qqisdan ayiqqa duch kelib qolganida ham shunchalik qo'rqqan emasdi. Hozir esa, oyoqlari qaltirab, madori qurib, o'tirib qoldi. Boyagi qizil tuxum... kattakon qirqma qovundek bo'lib shishib ketgan, usti o'sha-o'sha qip-qizil, old tomonida televizionikiga o'xshagan ekrani ham bor. «Voy tavba! Yo tavba – g'oldiradi kampir. Ekran yorishib, undan odam ko'rindi. Boshida g'alati kiyim bor, kosmonavt desang kosmonavt emas, sirkalarda chiqadigan masxaraboz desang, o'xshamayapti. «Voy, dod!» deya kampir eshikka tomon emaklab ketdi.

– Hoy, kampir, hoy, Sora xola, qo'rqmang! – dedi ekrandagi odam g'alati talaffuz bilan.

O'z ismini, beozor tovushni eshitib, kampir bir oz sergaklandi, qo'rquv chekingandek bo'ldi. Bitta-yarimta «temir jinnisi»ning qo'lidan kelayotgan ish bo'lsa kerak, deb o'yladi. Emaklab borgan joyida to'xtab, angrayib qoldi.

– Qo'rqmang, Sora xola! – takrorladi odam g'alati jilmayib. – Suvdan ho'plang.

Kampir kursi ustidagi choynakka qo'l cho'zdi. Qo'llari titrab, ilib qolgan choydan qult-qult yutdi. Ekrandagi odam uni yupatmoqchi bo'lardi:

– Sora xola, siz oqko'ngil odamsiz, dilingizda g'ubor yo'q. Uzoq umr ko'rasiz, lekin... – U gapida to'xtab, ekranda ko'rinmayotgan kimsa bilan imlashib oldi. Shunda ham gapirmay taraddudlanib qoldi.

– Nima «lekin»? – deya oldi kampir nihoyat.

– Cholingizni aytmogchiman... uni o‘rmonga chiqarmang. U erda tezroq kuni bitib qoladi, keyin... – Kutilmaganda kampir qo‘llari bilan dag‘dag‘a qilganча turib ketdi:

– Xah, yashshamagur! – U birdan choynakka yopishib, televizorga otdi. Choynak chil-chil bo‘ldi-yu, «televizor»ga, ekrani sal xiralashib, so‘ng yana o‘z holiga qaytganini aytmasa, jin ham urmadi. – Ko‘ngli sezib turuvdi-ya, bu ish sen muttahamlardan kelyapti, deb. Cholimni uyga qamab qo‘yib, o‘rmonda bilgan ishlaringni qilmoqchimisana?

– O‘zingizni bosib, gaplarimga quloq solmasangiz, hoziroq g‘oyib bo‘lamiz, keyin afsuslanib qolasiz.

– Nima? Nima bo‘ladi cholimga? Uni o‘ldirmogchimi? – deya shalvirab, o‘tirib qoldi kampir.

– Hech kim cholingizni o‘ldirmaydi. U o‘z-o‘ziga zavol bo‘ladi.

– Nima deding?

– Barcha jonivorlar uchun tug‘ilish, o‘lish bor, lekin hech biri kuni bitganini o‘zi bilmaydi. To‘g‘rimi? Biz esa buni bilamiz.

– Nega endi, cholimning kuni o‘rmonda tezroq bitib qolarkan?

– Negaki, u o‘z vazifasini o‘tayotganda ortiqcha berilib ketarkan.

– Seningcha, muz-tosh bo‘lib yursa umri uzoq bo‘larkan-da? Gaping muncha sovuq?

– Biz olis sayyoradan kelganmiz, – gap boshladi ekrandagi odam.

– Arshi-a‘lodan kelgan bo‘lsang ham mazax qilgani uyalmaysanmi?! – dedi kampir yig‘lamsirab.

– Sizni mazax qilayotganimiz yo‘q, aksincha, yaxshi ko‘rib qoldik.

– Voy, ordona qolgur.

– Cholingiz ham bizga yoqib qoldi, – dedi odam kulgidan o‘zini zo‘rg‘a tutib. – Uni ishi juda xayrli ekan. Tabiatga g‘amxo‘rlik qilib yurish har bir aqlii zotning burchi, biroq o‘rmonni odamlardan muhofaza qilish aqlga sig‘maydi. Umuman, hali-veri odamlar nimanidir bir-birlaridan qo‘riqlar ekanlar, biz qanday kelgan bo‘lsak, shunday imi-jimida qaytib ketganimiz ma‘qul. Hozir ham xatardan xoli emasmiz, lekin kimgadir yaxshilik qilmasdan ketolmaymiz, qonunimiz shunday. Atrof qishloqlarni qidirib, siz bilan cholingizni tanladik. Endi tushundingizmi? Siz shu tuxumni avaylab yuring, uning yordamida ko‘p odamlarning paymonasini uzaytirib, falokatlardan qutqarib qolasiz. Uni kaftingizga qo‘yib, ikkinchi kaftingizning orqasi bilan dumalatsangiz, televizorga aylanadi. Ayni vaqtda istagan kishingizning nomini ayting...

– Bir kamim folbinlik edi... – Zarda qildi kampir.

– Ekran qizil tusga kirsana... – Ekran lip etib o‘chdi, «televizor» kichrayib, ilgari gidek qip-qizil tuxum bo‘lib qoldi. Kampir qancha vaqt anqayib turganini bilmaydi, xayol surgandan ko‘ra tuxumni sinamaymanmi, dedi. Uni kaftiga olib, boyagi odam aytgandek qildi:

– Karim, Soraning choli, shahardagi katta do‘xtir Zuhraning otasi... – Tuxum asta shishib, kichkina televizorga aylandi. Uning ekranida o‘rmon ko‘rindi: tog‘ yonbag‘irlari, archalar, bodom, do‘lana, baland-baland o‘sgan o‘t-o‘lanlar. Kampir bu giyohlarning isi uyqu keltirishini yaxshi biladi. Iye! Ekranida odam ko‘rinib qoldi. Karim ota?! Sora xolaning choli!

– Hoy! – deb yubordi kampir bexosdan. Chol eshitarmidi, o‘t-o‘lanlar orasida ketaverdi. – Hoy, deyapman! Uyqu o‘tlardan nariroq yuring!

Ekranida hech narsa ko‘rinmay qoldi, uning o‘rmi sekin-asta qizara boshlaganda o‘chib qoldi. Kampirni vahima bosdi: «Boyagi odam ekran qizarib ketsa, deyayotuvdi-ya, nega oxirigacha eshitmadim? Cholimga nima bo‘ladi, endi?» O‘zini qo‘yarga joy topolmay, kampir tashqariga chiqdi, u yoq-bu yoqqa yurib, cholni uzoqroq erga otlanganini esladi, shundayam ko‘rinib qolmasmikin, degan umidda o‘rmonga kirib chiqdi. O‘zini bir oz ovutish maqsadida u-buga qaragan bo‘ldi, tovuqlarni chaqirib don tashladi. Ko‘ziga xunukroq ko‘ringan bir-ikkita-sini: «Qayoqdan falokat boshlab keldilaring?» – deb kesak bilan tushirib qoldi. – «Sen yashshamagurlarni etti xazinaning biri deb yursam, nimalarga duchor qilmoqchisanlar, hali? Oralarimga insu jinlar ham borga o‘xshab qoldi».

Kampir javray-javray ovundi chog‘i, boyagi manzara, qizg‘ish rangning tashvishi endi arzimagan tushday tuyula boshladi, dadil qadam tashlab, tikadigan ishlarini olib chiqish uchun uyga kirdi. Qarasa, tokchada tuxum yo‘q! Ikkita sichqon quvlashmchoq o‘ynab yurishgan ekan, lip etib teshikka kirib ketishdi. Tokchanning tagida, oyoq ostida ikkiga ajralib ketgan qip-qizil tuxum po‘chog‘i yotardi. Qup-quruq, na sarig‘i ko‘rinadi, na oqi! Faqat kaftdek keladigan joy dog‘ bo‘lib qolgan, yaltirab turibdi. Kampir po‘choqlarni qo‘liga olganda, kaftiga no‘xatdek zoldir yumalab tushdi. Unchalik og‘ir ham emas, juda engil ham emas. Tusi sarg‘ish, yaltiroq. Kampir uni tashqariga olib chiqib, yoruqqa tutib ko‘rdi. «Oltinmikin? – xayolidan o‘tdi kampirning. – O‘xshaydi!»

Qisqa vaqt ichida ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan sirli voqealarning guvohi bo‘lgan kampir esankirab qolayozganidan ehtiyotkorlikni unutdi. No‘xatcha kaftidan dumalab erga tushdi, engashib uni olgunicha, bir chipor tovuq yugurib keldi-da, yutib yubordi. Kampir hay-haylagancha qolaverdi, tovuq esa qochib ketdi.

\* \* \*

Karim ota kun botib, o‘rmonga qorong‘ulik cho‘ka boshlaganda horib-charchab, arang uyiga etib keldi. Ostonada xomush o‘tirgan kampir quvonib ketganidan yugurib peshvoz chiqdi, cholining qo‘lidan xaltasini oldi, chang-chungini qoqayotib, kiyimlarining yirtilib ketganidan ajablanib: «Sizga nima bo‘ldi? Qayoqlarda qolib ketdingiz-ey?» – dedi.

– Qaytib kelganimga xursand bo‘laver, onasi, bir o‘limdan qoldim, – dedi chol horg‘in tovush bilan. Sora xola turgan erida qotib qoldi, «Tuxum... tuxum», dedi-yu, u yog‘iga o‘tolmay, ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Chol kampirini suyab,

uyga olib kirdi, suv ichirib, bir oz o'ziga keltirdi. Qizil tuxum ko'rsatgan karomatlarni eshitgach, o'rmondagi voqeani gapirib berdi...

Karim ota, o'rmonning tartibbuzarlar ko'proq izg'ib yuradigan olis bir che-tiga yaqinlashib qolganida, qo'qqisdan ona ayiqqa duch kelib qoldi. Uning yoni-da to'rtta bolasi ko'zlarini yiltiraytib, g'uj turishardi. Ayiq bolalarining hech qan-day ziyoni yo'q, lekin onasining avzoyi buzuq, bir hamla bilan cholni tilka-pora qilmoqchi! Chol yelkasidan miltig'ini tushirib, tepkini bosmasidanoq, ayiqning kuchli qo'llari miltiqni osongina tortib oldi. Chol unga chap berib pichog'iga yopishdi, lekin shu payt miyasida bir fikr chaqmoqdek yalt etdi, go'yo uni ilgari-dan o'ylab qo'ygandek. Fikr qanchalik tez kelgan bo'lsa, chol shunchalik shiddat bilan yonida tikka o'sib yotgan o'tlardan birini yulqib oldi-da, bostirib kelayotgan ayiqning tumshug'iga chaqqonlik bilan tekkizdi. Ayiq o'kirgancha shilq etib tush-di, gavdasi bilan cholning belidan bosib qoldi...

– Kiyimlarimni ayiq bolalari yirtib tashlashdi. O'zim nima ahvolda yotibma-nu to'rttalasi tashlansa bo'ladimi? U yoqqa turtib, bu yoqqa turtib, zo'rg'a qutu-libman-a!

Karim ota safar xaltasidan ko'rimsizgina o't shoxini avaylab chiqarib, nafasi-ga yaqin keltirmay, kampirga ko'rsatdi:

– Mana, qaragin, onasi, o'sha o't. O'ylab qarasam o'sha paytda kimdir qu-log'imga o'tni yulib ayiqning tumshug'iga tut, degandek tuyuldi.

– Men sizga doim, shu o'tdan ehtiyot bo'ling, derdim-ku. Tuxumning ichida ko'ringaningizda ham aytdim. Demak, o'sha gapim qulog'ingizga etib boribdi-da.

Cholu kampir bo'lgan voqealarni uzoq eslashib, nihoyat, bular hammasi qip-qizil po'choqli oltin tuxumning karomati, degan xulosaga kelishdi.

– Tuxum sinib qolgani chatoq bo'пти-da, onasi, o'zga sayyoralik bilan bir gaplashib olardim, – dedi chol.

– Paymonangiz to'lib qolibdi, endi pensiyaga chiqing, ishlamang, – dedi kam-pir qat'iy. – Shaharga, qizimiz, nevaralarimiz yoniga boramiz.

– Be-e! – Qo'l siltadi chol. – Parvo qilma, onasi, chipor tovug'ing yana bitta oltin tuxum tug'ib bersa, sen uyda o'tirib olib, meni falokatlardan qutqarib qola-verasan.

Chol-kampir baravariga kulib yuborishdi.



# Zohir A'lam

(1943–2014)



Zohir A'lam 1943-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. ToshDU ni tamomlagan (1965). Birinchi kitobi – «Baxtli bilet» (1972). «Muqaddima» (1978), «Hammasi bir binoda», «BAM manzaralari» (1978), «Kiyik ko'zlari» (1981), «O'sma ketar, qosh qolar» (1981), «Ota o'g'itlari» (1985), «Zarb» (1987) kabi kitoblari nashr etilgan. «Afandining qirq bir pashshasi» (shu nomda qissa ham yozgan, 1989) nomli pyesasi ham bor. Publitsistik asarlar ham yozgan («Boyovut», 1986; «Mayiz atrofidagi gaplar», 1990 va boshqa).

Plutarxning «Iskandar Maqidunli» (1998) asarini hamda P. Vasilevning «To'siq», «O'lchamlar» kabi qissalarini, rus adibi S. Zaliginning «Komissiya» romanini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

2014-yil 13-aprelda Toshkent shahrida vafot etgan.

## ZARB

Soat o'n birga yaqinlashganda kafeda oltita mijoz qoldi. Bufetchi va ofitsiantlar ularga qarab-qarab qo'yishdi-yu, lekin indashmadi. Chunki hisob-kitob qilishgan, uyga ketishlariga esa hali vaqt bor edi.

Olti mijozning uchtasi – jinsi shim, qizil va sariq kurtka kiygan, uzun sochli o'spirinlar bo'lib, ularning biri qiz bola bo'lsa ham, tashqaridan qaraganda ajratish qiyin edi. Aytayotgan gaplarini, bildirayotgan mulohazalarini o'zlaricha eng aniq va eng zarur, deb hisoblaganlari uchun xaxolab kulishlari ham, lallayib o'tirishlari ham beg'ubor edi.

Bir stol narida esa ikki sportchi o'tirardi. Biri o'ttiz, biri yigirma yoshlar atrofidagi shirakayf bu yigitlar hech narsaga e'tibor berishmasdi. Taqdir ortiqcha shuhrat bergan kishilarda bo'ladiganidek, ularning kelbatlarida ham andak kibr ko'zga tashlanardi.

Mijozlarning oltinchisi zalning to'rida, nimqorong'i joyda o'tirardi. Uning stoli yig'ishtirib olingani uchun, grafinda oxirlab qolgan konyak bilan bir shisha «Toshkent suvi»dan bo'lak narsa yo'q edi. O'ttiz yoshlardagi bu odamning ham sportga aloqadorligi kelishgan. qoruvli qomatidan sezilardi. U ko'zini ikki sportchidan deyarli uzmas, bufet yonida g'imirlab yurganlarga onda-sonda bir qarab qo'yardi-da, yana boyagi ikki sportchiga tikilardi. Yuziga o'rnashib qolgan nuroniy g'amginlik. quyuq qoshlarining chakkasiga borganda burchak bo'lib egilishi unga allaqanday olijanoblik ifodasini berardi. Qansharidan boshlanib lablarining ustigacha kelgan ikki ajin esa zalning nimqorong'iligida yuzini bir oz osilinqiragan qilib ko'rsatardi.

U qadahdagi konyakdan ho'plab, gazagiga «Toshkent suvi» ichdi-da, soatiga qaradi. «Tezroq yo'qolishsa bo'lardi, mishiqlar», deya g'udrandi o'spirinlarga ko'z tashlab qo'yarkan. Keyin baland ovozda bemalol gaplashayotgan ikki sportchiga qaradi.

– Meni bilasan-a? Men bor ekanman, u joy seniki, hech qanaqa Sobir ham, Nodir ham o'ynamaydi! Kafilman bunga, – derdi sportchilarning kattasi.

Bu gapni eshitib oltinchi mijoz yana g'udrandi:

– Ha, hozir sening martabang ulug'.

«Martabasi ulug'» esa, qadahga konyak quyib, yosh sportchiga ich deb imladi.

– Ichmayman, o'zi shundoq ham ko'p ichvordim.

– Ich-e, kim aytadi seni yigit deb!..

– Indinga o'yin bor-ku!

– E, Xalil! Har kuni o'tiribmanmi sen bilan? Har kunimi? Yo'q! Undan keyin o'zing ayt-chi, men o'ynagan davrda oldimga tushadigan o'yinchi bormidi? A? Bormidi?

– Yo'q.

– Bo'pti-da, men esam bunaqa paytlarda ulfatimni xafa qilmasdim. Mana, ko'rib turibsan, hozir oliy ligada trenerman. Komandam, Xudoga shukur, boshqalardan kam emas.

– Ha endi, siz boshqa-da.

– Ol, sening omading uchun ichaman. Menikidan kam bo'lmasin.

Ular ichishdi. Yosh sportchi unchalik qiynalmadi. Trener esa yuzini burish-tirganicha shokolad olib, uni anchagacha labiga bosib turdi. Keyin bir tishlab, istar-istamas chaynadi-da, betini kaftiga qo'yganicha ko'zini yumib o'tirdi.

U ko'zlarini hali ochganicha yo'q ediki, stolga bir narsaning taraqlab qo'yilganini, bo'sh stulning shovqin bilan surilganini va kimningdir, «yaxshimisan, Akbar», deganini eshitdi. Eshitdi-yu, ovoz kelgan tarafga erinibgina qaradi. Ko'rgan narsasi konyagi oxirlab qolgan birovning grafini bo'ldi. Keyin... qo'lini uzatib turgan odamni ko'rdi. Ko'rdi-yu, bir seskanib tushdi.

– Yaxshimisan, Qodir, – dedi u ham qo'lini uzatar ekan, bezovta bo'lganini shogirdidan yashirishga urinib.



– Eski qadrdonimning bir suhbatini olay dedim-da. UZR, – Qodir Akbarning ulfatiga qo‘l uzatdi.

– Bemalol, bemalol, – dedi Akbar ataylab cho‘zib.

Qodir o‘zi keltirgan grafindan uchala qadahni to‘ldirdi. Yosh futbolchi ikkovi-ga bir-bir ko‘z tashlab qo‘ydi. U Akbarning avzoyidagi o‘zgarishni sezgani uchun mehmonni adovat bilan kuzatar, treneri uchun har daqiqada sapchib turishi mum-kinligi bilinardi. Trener esa, bu orada o‘zini tutib olib, Qodirga istehzo aralash muomala qilishga urina boshladi.

– Qalaysan, Qodirbek, ming yillardan beri ko‘rinmaysan, – dedi u mehmon-ning elkasiga qo‘lini tashlab.

– Yuribman, faqir kishi panada, de-eb.

– Ho, juda ham faqir emassan-ku. Ha, aytmoqchi, tanishtirmabman-ku siz-larni, – dedi u yosh futbolchiga qarab. – Eshitgan chiqarsan, mashhur futbolchi Qodir Qoriyev. O‘n yil ilgari uning nomini eshitganda ko‘chada tramvaylar to‘x-tardi. – Yosh futbolchining ko‘zlaridagi shubha yo‘qolib, chehrasiga iliqlik yu-gurdi. – Bu esa, – gapida davom qildi Akbar, – kelajagi porloq futbolchilardan Xalil Ravshanov.

– Juda xursandman, – Qodir Xalilga yana qo‘l uzatdi.

– Qayerlardan so‘raymiz? – Akbar Qodirga tikildi.

– Maktabda fizkultura o‘qituvchisiman. «Toshkabel»da trenerlik ham qila-man. O‘zim shu zavoddan chiqqanim uchun hech qo‘yishmaydi... – Qodir javob berar ekan, uchrashuv ta‘siridagi hayajoni bosilib ko‘ngli yana g‘ash tortayotgani-ni his qildi. Yuzini yana qahr va alam egallay boshladi. Undagi bu o‘zgarishni Ak-bar ham ko‘rdi va mavzu qayoqqa burilishidan qat‘iy nazar, u chetlab o‘tmoqchi bo‘lgan narsaga taqalishini sezdi.

– Ha, sen bechoraning omading yurishmadi, – dedi noiloj ohangda. Biroq bat-tar qovun tushirganini ilg‘ab, darrov gapni burdi. – Lekin zo‘r o‘yinchi eding-da, hamma qoyil qolardi. Qani, ichaylik! Mexiko esingdami, a?.. – Akbar yolg‘ondan boshini quyi solib, go‘yoki achinayotgandek, qo‘lini stolga urdi. – Kel, o‘tmishni eslamaylik. Yaxshi fursatlarning o‘tib ketgani alam qiladi.

– Yo‘q, – dedi Qodir past, ammo salmoqli ovozdada. Bu safar uning tovushi yanada yo‘g‘onroq eshitildi. – Men oldingga xuddi ana shu o‘tmishni eslash, xoti-radan ko‘tarilgan narsalarni tiklash uchun o‘tdim. Eski xotiralarni eslaganga nima yetsin! Shunday emasmi?.. – Qodir oxirgi gapini ustoz va shogirdga qarata gapi-rarkan, to‘lqinlanayotganini, ovozi ham titrab ketayotganini sezdi. Birdan portlab, ishning pachavasini chiqarishi mumkinligini o‘ylab, bor irodasini o‘zini bosishga qaratdi. Qadahni qo‘liga olarkan, Akbarga qarab jilmaydi. Uning bu qarashi Ak-barning nari-berisidan o‘tib ketdi. Undagi bu o‘zgarish beixtiyor yosh sportchiga ham o‘tdi.

– Men bechoraning omadim yurishmadi, – Qodir yigitchaga ahamiyat ber-may, Akbarga tikildi. – Qani, ichaylik bittadan...

Akbar bilan Qodir ichdi. Xalil esa ichmadi.

– Ichaver, bizlarning gapimizga e'tibor berma, – dedi Akbar.

Xalil shu paytgacha bu uchrashuvni shunchaki, ikki qadrdonning hazil-mutoyibasi, deb o'tirgan edi. Qarasa jiddiy, shuning uchun sergaklandi va ichmayman degan mazmunda qat'iy bosh irg'adi.

– O'zing bilasan, – dedi Akbar unga. Qodir esa gapida davom qildi:

– Men bechoraning ishim yurishmadi shunday qilib. – U «men bechoraga» yana urg'u berdi. Shokolad olib, bamaylixtotirlik bilan bir qimtid. Qolgan bo'lagini bir oz ushlab, tomosha qilgandek, u yoq-bu yog'iga qaradi-da, sekin zar qog'oz ustiga qo'ydi. Panjalari bilan stolga tiralib, stulga yastandi.

Oraga jimlik cho'kib, kafening so'navotgan shovqini aro ko'chada sharros quyayotgan yomg'irning yoqimli ovozi eshitildi.

– Urish, janjal qilmoqchi deb o'ylama. To'g'risi, o'zim ham senga o'xshab hozirgi vaziyatimdan hazar qilib o'tiribman... Men faqat bu dunyoda borligimni senga bir eslatmoqchiman, xolos. Mening hayotimda, taqdirimda sening ham ma'lum o'rning borligini aytmoqchiman.

Akbar shu paytda: «Bor, toshingni ter», deb turib ketishni istardi-yu, lekin qo'rquvmi, hurmatmi – buni o'zi ham bilmasdi – uni ushlab turardi. Bundan tashqari, u o'zining katta odamligini bilar, bu esa unga mustahkam qo'rg'on ichidaligiga garovdek edi. Ko'p talafot yetmasligini bilardi. Shuning uchun Qodirning dastlabki gaplarini vazadagi gulga qaragancha boshini likillatib eshitdi. Xalilga: «Nima qilardim, chidayman-da», ma'nosida bir-ikki qarab qo'ydi.

– Sen hozir kattadan-kichik taniydigan mashhur odamsan. Xizmat ko'rsatgan sport masteri, eng sevimli komandaga trener. Men esam maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchisi, qo'shimcha ravishda zavodning oddiy komandasiga trenerman. Nega shunday, a?..

Qodirning zaharli ohangdagi bu savoli Akbarga ta'sir etish o'rninga Xalilning jahlini chiqarib yubordi. Irg'ib o'rnidan turdi-da, qo'lini Qodirning yuziga paxsa qilib, Akbarga gapirdi:

– Yo'qoting buni, e! Yo'qol, deb ayting bunga!

Qodir uning qorniga bir urib, joyiga o'tqizib qo'ydi. Xalilning: «Piyanistaliging uchun, ishyoqmasliging uchun shu holga tushib qolding, mendan so'ramaysanmi?» deb baqirmoqchi bo'lgan gaplari ichida qoldi. Bir ozdan so'ng, ko'z oldi yana yorug'lashgach, Qodirning istehzoli yuzini ko'rdi,

– Agar men treneringizga bir oz bo'lsa-da o'xshaganimda, salgina qattiqroq urgan bo'lardim. Ertaga trenirovkaga chiqolmasdingiz. Balki umuman chiqolmasdingiz. Sizdan iltimos, sevimli treneringiz bilan bo'ladigan suhbatimizga xalaqit qilmasangiz, – dedi Qodir oxirgi gapiga qat'iylik ohangini berib. – Faqat eshitsangiz. Sizga ham foydasi bor.

Xalil e'tiroz bildirilmaydigan holda edi. Trenerning bu yoqimsiz suhbatni nima uchun cho'rt bo'lmayotganini ham tushunganday bo'ldi.

Bu hodisa bir zumda bo‘lib o‘tgani uchun kafe xodimlari sezishmadi. Bir stol naridagi o‘spirinlar esa, bir qarab qo‘yib jimib qolishdi. Shishada qolgan shampanlarini fuqerlarga bo‘lib, tezroq ichishga bir-birini so‘zsiz undashdi.

Akbar Xalilga achinib qarab:

– Sen keta qolmaysanmi? Biz o‘zimiz kelishib olardik, – dedi.

– Yo‘q, birga ketamiz, – javob berdi Xalil qornini ushlagancha. Qodir unga qarab gapida davom qildi:

– Men esa treneringizga o‘xshamayman. Qarshimdagi odamning kelajagini o‘ylayman, uning taqdiriga yig‘laydigan onasi yoki sevikli bordir, deb andisha qilaman. – Qodir birdan Akbarga o‘girildi. – Bilasanmi, mening bu holga tushib qolishim qobiliyatsizligimdan yoki jamiyatda menga qarshi bironta kuch borligidan emas. Axir men terma komandada hujumkor yarim himoyachi, sen esa zapasda, mening o‘rinbosarim eding. Faqat boshqa-boshqa klublarda edik... Ko‘p o‘yladim buni. To‘g‘ri, oz-moz icha boshlaganimga, odamlarni yomon ko‘ra boshlaganimga o‘zim aybdorman... Lekin mashhur futbolchining birdan sahnadan tushib ketishiga sabab nimaligini bilasanmi? – Akbar indamadi. U suhbatning cho‘zilishini sezib, zerika boshlagan va jahli chiqa boshlagan edi.

– Sen aybdorsan! Sening itfe‘lliging aybdor, – dedi Qodir uning yuziga urgandek qilib.

Bu haqoratdan yana Xalil seskanib tushdi. U bir narsalar bo‘lishini, trenerning jahli chiqishini, jilla bo‘lmasa «Og‘zingga qarab gapir», deyishini kutgandi. Lekin hech narsa ro‘y bermadi. Trener istehzosini yashirmay aftini bujmaytirganicha sigaret chekardi. Go‘yo bu gaplarning ahamiyatsiz ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘lardi. Ammo lablarining uchishi bag‘ridagi alamni oshkor qilib turardi. Xalil buni fahmladi. Ayni chog‘da mehmonning bu ta‘nalarga, hatto haqorat qilishga haqqi borligini ham sezdi.

Qodir beixtiyor yana shokolad olib tishladi-da, qolgan bo‘lagiga haligidek qarab turib, qaytarib qog‘oziga qo‘ydi.

– Shunday o‘yinchilar bor ediki... – Qodir endi qiynalib eslayotgandek so‘zlardi, – terma komandaga tushishni arshi-a‘loga yetishdan ziyod hisoblardilar. Ularning kimligini o‘zing bilasan. Terma komandada qolish hayotlarining mazmuni edi. Men esa buni futbolimiz shuhratini yoyish uchun bir pog‘ona deb hisoblardim. Bizda ham Pele, Garrinchalar singari o‘yinchilar borligini isbotlamoqchi edim. Ha, ha, sen o‘shanda ham bu gaplarimdan kularding, hozir ham kulyapsan. Lekin... men uchun futbol... hayotimning mazmuni edi. Ha... futboldan tashqarida yashash xayolimga kelmasdi. Hozir esa... Ko‘rib turibsan... Orzuimsiz yashadim... yashayapman. Parcha-parcha qilib tashlangan odamman. Armon bilan ketyapman. To‘g‘ri, shu kunda oila, farzand tashvishi meni ovutadi, qalbimni bir oz ilitadi. Topish-tutishim yaxshi, yanada ko‘proq pul topishni, bu bilan oilamga ko‘proq foydam tegishini o‘ylab, tirishib harakat qilib yuraman. Lekin shunga ko‘nikish uchun ham o‘n ikki yil umrim ketdi. Tushunyapsanmi? Azobga to‘la o‘n ikki yil! Men – avvalgi Qodir emasman, boshqa, o‘zim xohlamagan, hattoki o‘zim hazar qiladigan odamman... Shularning hammasi sen tufayli bo‘ldi!

– Menga qara, Qodir. Axir endi hech narsani tuzatib bo'lmaydi-ku! Men haqiqatan ham aybdorman, bo'ldimi? – Akbar endi o'zini solib o'tirgan beparvo-lik muvozanatidan chiqa boshlashga majbur bo'lgan edi. Bu holatdan o'ng'aysiz- lanib, Xalilga murojaat qildi: – Sen ketaver. Hisob-kitob qilganmisan?

– Ha.

– Bor, ketaver!

– Qo'yaver, o'tiraversin. Men yig'layotganimdan uyalayotganim yo'q-ku!

Akbar Qodirning yelkasiga qo'lini qo'yib, yalina boshladi:

– Qodir, do'stim, to'g'ri, men ablahman, – u shunday deb ko'ksiga urib-urib qo'ydi. – Men xato qilganman. Endi nima qilay? Kel, do'st bo'laylik. Bir-biri- mizga yordam beraylik. Istasang, ertagayoq seni o'zimga yordamchi trener qilib olaman.

– Yordamchi trener?.. Senga mening qanday yordamim tegishi mumkin? Sen- ga-ya? – Qodir Akbarning qo'lini yelkasidan olib tashladi. Xalil esa, o'ziga ishon- gan, iloji bo'lsa gapini ham o'lchab gapiradigan trenerini bunaqangi tirirchilagan holda ko'rayotganidan hayron edi.

– Bilmadim, rost gapiryapsanmi yoki ataylabmi, axir sen unchalik g'arib emassan. Dovrug'ingning sadosi hali ham jaranglaydi, – dedi Akbar. – Mana, Xa- lil, – u isbot so'rab shogirdiga qaradi, – sen Qoriyev degan futbolchini bilasanmi?

– Ha, juda ko'p eshitganman.

– Ana, ko'rdingmi?

– Bu boshqa masala, – dedi Qodir hafsalasizlik bilan. Akbar qo'l siltadi-da, qutidan sigaret ola boshladi. Oraga bir daqiqalik jimlik cho'kdi.

– Men ham bu voqeaga necha marta qo'l silkiganman. Lekin u la'nati xuddi kechagidek esimda, – dedi Qodir dard bilan. – Men seni aldab o'tib o'ng qanotdan darvozalarimga yaqinlashdim. Stadionda qiyqiriq bo'lib ketdi. Qarshimda Va- lentin turardi, orqamdan sen izma-iz kelarding. Men Valentinni aldab o'tib, yana oldinga intilishim yoki to'pni Fayzullaga oshirishim mumkin edi. Shunda darvo- za ro'parasida turgan hamma himoyachilar, jumladan; Valentin ham Fayzullaga tashlanishar, u esa to'pni menga qaytarishdan boshqa iloji qolmasdi. Har ikki hol- da ham seni aldab o'tib zo'r vaziyat yaratgandim. Stadion guvillardi. Bu vaziyat mening muvaffaqiyatim, sening esa xatoing edi. O'sha paytda, albatta, buni o'y- lamagandim, u paytda men faqat yaxshi vaziyat yaratganimdan, ishqibozlarning guvillab olqishlashidan boshim osmonda – ruhlanib, o'qdek uchib borardim... Ha, nihoyat men Valentinni aldab o'tib, undan keyingina to'pni Fayzullaga oshirishga qaror qildim. Lekin shunda... oyog'imda dahshatli og'riq sezdim. Sapchib tushib... yiqildim. Ko'z oldim qorong'ilashib, chuqur jarga uchib ketayotgandek bo'ldim... Men haqiqatan ham jarga dumalagan ekanman. O'sha jarda umrbod qolib ketdim.

Oraga jimlik cho'kdi. Yomg'ir ancha pasaygandi. Kafening oynavand devor- larida yomg'ir suvi ilon izi bo'lib oqar, tashqaridagi neon chiroqlar suvga turfa rang jilo berardi.

– Qani, ukalar, bo'ldi qilinglar. Bizlar ham do'konni yopaylik endi, – dedi kafe shveysari, qirq besh yoshlardagi dumaloqqina, past bo'yli kishi yumshoq va

muloyim ovoziga ataylab qat'iylik kiritib gapirdi. Lekin bari bir unga hech kim ahamiyat bermadi.

– Shunchalik bo'lishini kim o'ylabdi deysan...

– Ha, shunchalikka borishini bilganingda, ehtimol, bu ishni qilmagan bo'lar-ding. Lekin o'sha paytda, o'zingdan zo'rroq odam chiqqaniga, halol o'yinda seni dog'da qoldirganiga chidab turolmading. Fe'lingda itlik bor edi. Shuning uchun to'pni yaxshi tepsang ham, terma komandaga seni ikkilanib qabul qilishardi.

– Axir men jazoimni oldim-ku, meni jazolashdi-ku!! – dedi Akbar yalinuv-  
chan ohangda toqati toq bo'lib.

– Ha, seni mavsum oxirigacha futbol o'ynashdan chetlatishdi, gazetalarda ab-lahligingni yozishdi. Shu bahonada yaxshi sportchi, faqat yaxshi sportchi emas, yaxshi inson bo'lish kerakligi haqida munozaralar olib borildi. Lekin menga bun-dan nima foyda? Oyog'im tuzalib qolmadi. Men faqat olti oydan keyingina butsi kiydim. Faqat bir yildan keyingina sen bilan baravar o'yinga tusha oldim. – Qodir bu gaplarni asabiy holda gapirar ekan, gap orasida ikki qadahni to'lg'azib, birini Akbarning oldiga surib, ikkinchisini qo'liga oldi. – Gazetalar safga qaytganim bilan tabriklashdi... Lekin... – Qodir bir harakat bilan qadahni bo'shatdi-da, alam bilan davom qildi. – Lekin uchinchi o'yinda... balanddan kelayotgan to'pga sak-rab yerga tushganimda turolmay qoldim... Sen tepganingda ham tizzamning ko'zi singan, ham oyog'im chiqib ketgandi. Natijada sal keskin harakat qilsam, yana chiqib ketadigan bo'lib qolgandi. Vrachlar buni ta'kidlashgan, boshqa bir ish to-ping, deyishgandi. Lekin ularga ishonmay, to'g'rirog'i, ishonganimda ham futbol-dan bo'lak ishni qilolmay, maydonga tushgandim. Afsus, vrachlarning gapi to'g'ri chiqdi. Zarbang bir yildan keyin meni yana yiqitdi... Yana bir yildan keyin, yana do'xtirlarning befoyda deyishlariga qaramay maydonga tushdim. Lekin bo'lmadi. Birinchi o'yindayoq xuddi o'sha-o'sha bo'ldi, oyog'im chiqib ketdi.

Akbar toqatsizlanib uh tortib, stulga yaslandi. Qandaydir shoshqaloqlik bilan sigaret olib tutatdi. Bir narsa gapirmoqchi shekilli deb, suhbatdoshlari unga qarash-di. Lekin u indamadi. Shu paytda Xalilning yonida o'tirib, bu gaplarni eshitayot-ganidan jahli chiqayotgan edi. Xalil esa Qodirdek ajoyib futbolchining, shunday yirik odamning ichib, janjal qilib yuradigan darajada pastlashib qolganiga achinsa ham, uning tarafida yemasdi. «O'n ikki yil oldingi gaplarni kavlashtirishning nima keragi bor», deb o'yildari Qodirning maqsadiga tushunolmay. Akbar ham aynan shuni – Qodirning maqsadini bilolmay: «Mendan nima istaysan?» deb baqirishdan o'zini zo'rg'a tiyib o'tirardi.

Qodir esa qarshisidagi jirkanch basharani urib dabdala qilish istagi portlab chiqib ketishini xohlamay, tez-tez gapira boshladi:

– O'shanda men seni o'ylamasdim. Hali orzuimdan kechmaganim, kurasha-yotganim uchun vaqtim yo'qmidi? Yoki yoshim yigirma ikkida bo'lgani uchunmi? Bilmadim. Garrinchaning katta futbolga yigirma olti yoshda kelganini, Maresev-ning ikki oyoqsiz ham o'z maqsadiga erishganini esimda tutar va tinimsiz mashq qilardim. Hamma narsaga, jumladan, sening ablahliligga ham futbolda bo'ladi-

gan oddiy voqea deb qarardim. Lekin oyog'im qatorasiga ikki marta chiqib, futbol menga yopiq dargohligini sezganimdan keyin birdan o'zimni sinib tushgandek his qildim. Hayotning menga naqadar og'ir zarba berganini bildim. Trenerimiz Samoylichning, o'rtoqlarimning bir yildan beri menga achinib qarab yurganini, institutga kirishim uchun ko'p kuyunishganini esladim. Demak, ular fojiamni bilib, uch yilgacha komandada olib yurishgan ekan-da, dedim. Uch yilgacha ular bilan birga yashapman-u, futbol uchun o'likga aylanganimni menga aytishmabdi. Kim biladi, balki qaytishimga ularning ham ilinjilari bo'lgandir... Mening esa yashagim kelmay qoldi. Ichib olib, nuqul yig'lagim kelardi, ba'zan yig'lardim ham. Sababini o'ylay-o'ylay, oxiri senda to'xtadim. Bu aniq haqiqatni ham bir kuni seni televizorda ko'rganimdan keyin tasodifan topib oldim. Sen maydonda qo'lingni belingga qo'yib olib to'p oshirmagan sherigingga o'qrayib turganding. Shu kundan boshlab, odamlarga o'tkazib qo'yganday bez bo'lib qo'lingni belingga qo'yib turishing meni ta'qib qila boshladi...

...Oh, bu davrda onamning qiynalganlari, do'stlarimning qiynalganlari... Oradan yillar o'tdi, o'zimni mashhur futbolchi emas, oddiy kishilardek yashashga ko'niktirish uchun qanday azob chekdim! Buni ko'proq o'zim uchun emas, onam uchun qildim. Uylandim, farzand ko'rdim. Ular oldidagi mas'uliyat ham o'zimni odamdek tutishga undadi... Lekin mana shu holda – zo'rg'a-zo'rg'a yuraman. Siqilaman, zerikaman-da, o'sha orzularim singan chog'dagi yig'lab o'tirgan holimga tushgim kelaveradi. Shu menga huzur bag'ishlaydi. Bunday qilmaslik uchun har daqiqada o'zim bilan o'zim kurashaman. Ertalab nonushta qilayotganimda, yo'l yurganimda, ishda, o'g'limni bog'chaga olib ketayotganimda bu tuyg'u doimo yuragimni ezib: «Qo'y, shu mayda-chuyda ishlarni, sen faqat o'sha yo'qotgan narsang uchun yig'lashing kerak, bo'lak hamma narsa befoyda, arzimaydigan ish», deb turadi. Men esa onam, xotinim va bolalarimni o'rta qo'yib undan rahmshafqat qilishini so'rayman. Lekin butunlay yo'qolib ketishini ham istamayman. Hayotimning mazmunini eslatuvchi tuyg'udan ajralsam umidim ham yo'qolayotgandek, kim edimu kim bo'lganim, qayoqdan kelib qayoqqa ketayotganim, hamma-hammasi esimdan chiqadigandek tuyulaverdi. Tushunyapsanmi, dardim eng pokiza orzuimdan suv ichgan.

Qodir jim qoldi. U dardi bilan bo'lib, kafedaligini unutayozgan edi. Akbar bir qimirlab o'zining betoqat bo'layotganini bildirdi. Qodir ichida bir seskanib o'ziga keldi-da, gapida davom qildi:

– Senga ro'para bo'lishimdan maqsad, bu dunyoda borligimni bildirib qo'yish, xolos. Chunki sen meni esingdan ham chiqarib yuborgansan. Yo'q, yo'q, agar holimdan xabar olmading, deb ta'na qiladigan bo'lsam, o'zimdan o'zim naf-ratlangan bo'lardim. Men faqat bir harakating bilan taqdirini poymol qilgan odam bu dunyoda alamzadaligini va har kuni, har daqiqada senga tajovuz qilishi mumkinligini eslatib qo'ymoqchiman. O'lishini bilgan ho'kiz boltadan qaytmaydi, de-yishadi-ku, axir.

Qodirning bu gaplari turishga hozirlanayotgan, bas endi, gapni qisqaroq qil, deb jerkimoqchi bo'lgan Akbarning g'azabini chuqurlashtirib, hujumkorlik ruhini berdi.

– Xo'sh, bu istaklari nima deydi? – dedi u istehzo bilan.

– Hammasini aytaman, faqat shoshma, urish qilmoqchi deb ham qo'rqma. Chunki bu istakka o'zim qarshiman, uni har daqiqada bo'g'ib kelaman.

– Men hech narsadan qo'rqayotganim yo'q, shuni bilib qo'y, Qodir! Men, to milisiya kelib, turinglar, deguncha o'tirmoqchi emasman!

Qodir soatiga qarab qo'ydi.

– Hali vaqt bor, shoshaverma. Ikki-uch og'iz gapim qoldi. Seni milisiya juda ham haydama deyman. Ochig'ini aytganda, sen bilan gaplashish istagida kuyib yurganim yo'q edi.

– Hali bironing maslahati bilan keldim degin?

– Ha.

– Kim ekan senga bu aqlni o'rgatgan?

– Sen!

Akbar xaxolab kulib yubordi:

– Yo, tavba, boyatdan beri men seni tuppa-tuzuk odam deb gaplashib o'tiribman-a! Esing joyidami o'zi?

– Ha! – Qodir xuddi urib yuboradigandek Akbarga tikildi.

– Qachon, tushingdami? – dedi Akbar va qo'lini yuvib qo'ltiqqa urgan kishidek Xalilga murojaat qildi. – Tur, ketamiz. Bu bilan kayfi tarqalganda gaplashamiz.

– Ikki-uch og'iz dedilar-ku, eshitib keta qolaylik, – dedi Xalil. Eshitish ishtiyoqi borligini yashirish uchun esa qo'shib qo'ydi: – Yana qachon vaqtingizni sarf qilib yurasiz?

– Rahmat sizga! – dedi Qodir Xalilga. – Lekin bu bari bir ketolmasdi. Qo'ymasdim. O'zi ham biladi buni. Ketamiz degani esa, odatdagi artistligi. O'tir, Akbar!

Akbar o'tirdi. Qodir sovuq ohangda gap boshladi:

– Yana qaytarib aytaman, bu yerga meni boshlab kelgan sensan! Sen... itfe'l... meni tepganingda faqat orzuimni poymol qilibgina qolmading. O'sha zarbang bilan o'z fe'lingdan vujudimga urug' ham tashlagan ekansan. Bora-bora bu urug' o'sib, rivojlanib, butun vujudimga yoyildi, jismimni egalladi. Bir odam qiyofasiga kirdi. Bu qiyofa esa seniki edi. Ha, bu, ayniqsa, seni televizorda ko'rganimda aniq bo'ldi... Shuning uchun bilib qo'yki, hozir ko'rib turganing Qodir emas, ichimning yarmini sen, sening qiyofang egallagan, chunki daraxt arra bilan kesilsa, araning izini, bolta bilan chopilsa, boltaning izini saqlaydi... Sening qiyofang o'sha iz edi. Erta-yu kech shivirlab, qalbimni, odamlarga munosabatimni o'zgartirishga harakat qila boshladi. «Orzularingni yakson qilgan, «men»ligingni parchalab tashlagan odam bermalol yurirti. Sen esa faqat uning aybi bilangina itning keyingi oyog'i bo'lib qolding», derdi u. Avvaliga ahamiyat bermadim. Lekin u tamomiy

jismimni egallagach, u bilan munozara qilishdan bo'lak ilojim qolmadi. Chunki u kechasi-yu kunduzi ro'paramda turar, kechasi-yu kunduzi menga ming'irlardi. Uni o'ylamayin, deb kechalari ming martalab u yonboshdan bu yonboshimga ag'darilardim, lekin qutulolmasdim... Oxiri uning maslahatiga quloq solib izmiga yura boshladim. U esa nuqul odamlarni yomonlardi. «Odamlar bir-birlarini yan-chibgina oldinga o'ta oldilar», degan eng cevimli g'oyasini ta'kidlardi. Shu tarzda dunyodagi har bir narsani o'z e'tiqodimga nisbatan teskari qilmoqchi bo'ldi. Yaxshilikni u shubhasiz berkitilgan tamaga, muhabbatni lazzatga, hatto, ona ardog'ini qarilik kunlaridagi tayanch ilinjiga tenglardi. Men hammani – xotinimni, onamni, o'g'limni yomon ko'ra boshladim... Ichimdagi sening qiyofangni qanday qilib yo'qotishni bilmasdim. Qayt qilib tuflab tashlagim, ombir bilan sug'urib tashlagim kelardi. Mayli, ildiziga etim ilashsa etim, tomirim ilashsa tomirim bilan. Mayli, sug'urib olgan joyim qontalash bo'lsin edi! Lekin ilojini qilolmasdim. «Tuf» desam, tupugimda ko'rinariding... «Tushunsang-chi, – derdi u menga, – bu ishlarni sen uchun qilyapman. Inson zoti o'zidan yaxshi, o'zidan boy, o'zidan olijanobroq odamni ko'rolmaydi, chalib yiqitadi. Ne'matlarga xo'jayinlik qilish uchun; bu yerda kim bor, deganda yolg'iz qolib «Men!» deya olish uchun shunday qiladi. Chunki o'zidan yaxshini yo'qotganida, haqiqatan ham yaxshi bo'lib bir o'zi qoladi-da». «Yolg'on!» derdim men ichimda o'kirik bilan. Ba'zan bu o'kirik tashimga chiqib ketar, eshitgan odamlar hayron bo'lib qarashardi. «Men bunday yashay olmayman. Bunday fikr qilsam yashagim kelmaydi», derdim. U esa kulimsirab: «Yashaging kelmasligi boshqa masala. Aslida, istash-istamaslik ham sening ixtiyoringda emas. Lekin, men haqman. Mana misollar...» derdi-da, turmushdan va tarixdan misollarni qalashtirib tashlardi. Men unga qarshi dalil topolmayotganimni, engilayotganimni sezib: «YOLG'ON!» deb baqirardim. Shunda u so'nggi zarbani berardi: «Xo'sh, o'zing-chi? Akbardagi xudbinlikning qurboni bo'lmandingmi? Bilib qo'y; mening fikrimga zid borganing uchun ham chetda qolib ketgansan. Sen o'z hayotingdanki saboq olmayotgan ekansan, chetda qolib ketish u yoqda tursin, o'lib ketishga ham loyiqsan. Akbar gumburlab yashayapti. Chunki u seni olib tashlab, maydonda o'ziga kenglik ochdi. Axir u xuddi sening joyingda, sening o'rningda o'ynayapti-ku! Vaholanki, u zaxirada edi. Turmush uchun bu emas, balki olib tashlagani hisob. Yaxshilik bilanmi, yomonlik bilanmi, farqi yo'q. Umuman, axloqning barcha lash-lushlari turmush uchun ko'pik. Sodda odamlarni ahmoq qilish, avrash, lo'ndasini aytganda esa, maydondan va ne'matlardan chetlashtirish uchun to'qilgan niqob».

Men: «Mayli, sen haqsan, ishondim. Endi meni tinch qo'y», deb uni aldamoqchi bo'lardim.

U esa: «E-ey, g'irt ahmoq ekansan. Hozirgina ko'pik haqida gapirib qulog'ingga tambur chertibman-da, a? Gap – mening uchun ko'pik. Menga ko'pik bilan va'da berma! Sendan harakat talab qilaman. Ish! Gapdan foyda yo'q», deb yana nishonga olaverdi.



«Nima qilay, buyur, hammasini bajaraman. Faqat keyin meni tark et. Bo'lmasa yashay olmayman!» degan shart bilan talabiga ko'ndim.

«Bu boshqa gap. Sen endi Akbar taqdirida, ya'ni seni maydondan olib tashlagan odam taqdirida o'z izingni qoldirishing shart. Uni urib dabdala qilishing, ko'zini o'yib yoki tishlarini qoqib olishing kerak. Toki u o'sha ko'zi o'rniga qo'yilgan shisha ko'zni yoki tishlari o'rniga qo'yilgan yasama tishlarni ko'rganida oynaga qarab har bir tirjayganida seni, sen orqali esa o'zining ablahligini eslab tursin. Har bir kulgisiga og'u tushib tursin», dedi u.

«Xo'p, men roziman. Lekin sen menga bir narsani ayt. Nima uchun sen o'zingga o'zing qarshi chiqyapsan?» deb so'radim men.

«Buni izohlash oson. Yaxshilab bilib qo'y, ey inson bolasi! Men orqali senga tabiat bergan jon gapiryapti. Tirik jonga nimaiki qasd qilar ekan, men aynan o'sha shaklda paydo bo'laman. Daraxtni arra kessa arraning izi, bolta kessa boltaning izi qoladi. Senga Akbar emas, boshqa biron tajovuz qilganda men o'shaning ko'rinishida bo'lardim? Boyni boylik, mechkayni ovqat, qonxo'rni qon o'ldirishini bilarsan? Rim johillar hisobiga buyuk bo'lib, johillar tomonidan vayron qilinganidek bosqinchi xalqni bosqinchilik o'ldiradi, lanj xalqni lanjlik... Bu tabiat qonuni. Sen esa, tushunmay mendan qochib qutulmoqchisan... Yana bir karra ta'kidlayman. Sen uchun hech kim jonini koyitmaydi. O'zing harakat qilishing kerak. Hech bo'lmasa, uning ablahligi haqida jar solishing kerak. Lekin bu narsa fe'lingga zid ekanligi uchun uni sendan talab qilayotganim yo'q», dedi u menga.

Qodir gapini tugatib, kafeda, Akbarning qarshisida o'tirganini ko'rib hayron bo'ldi. Chunki xayolidagi munozarani tiklayman deb, o'zini unutayozgan edi. Bir xayolda bu gaplarni o'zimga o'zim gapirdimmi, deb ham ikkilandi. Lekin Akbar bilan Xalilning avzoyiga qarab, maqsadini amalga oshirganini sezdi.

Akbar bo'zarib o'tirardi. Xalilning yuzidan esa mensimaslik ifodasi o'chgan edi.

– Bo'ldingmi? – dedi Akbar ijirg'anib.

– Bo'ldim.

– Kayfni ham tarqatib yubording. – Akbar Xalilga murojaat qildi. – Bor, yuz ellikta konyak keltir. Meni aytdi desang, beradi.

Xalil ketdi.

– Menga qara, – dedi Akbar tajanglik va istehzo bilan. – Agar sen o'sha istagingga quloq solib, meni «dabdala qiladigan» bo'lsang, sudga tushishingni, shovshuv bo'lishini o'ylamadingmi?

– O'yladim. Istagim aytdiki: «Xo'sh, sudga tushsang, shovshuv ko'tarilsa nima qilibdi? Fojiang va bunga sababchi bo'lgan odamning jazosiz qolmaganini hamma bilishini istarding-ku! Hech narsa yo'qotmaysan. Undan keyin seni jazolashmasa kerak... – Shahar bedarvoza emas-ku. Sen bundan qo'rqmaysan ham», deydi... Shuni bilib qo'y, Akbar, bu mening xohishim emas, vujudimdagi turqingning xohishi. Aytganimdek, uni boshqara olmay qolishim mumkin, xolos...

Qodir so'zini tugatar-tugatmas, Akbar stolni itarib yubordi-da, o'rnidan turib, Qodirning yuziga shapaloq tortib yubordi.

– Yo'qol bu yerdan, piyanista!

Qodir jag'ini ushlab sekin qaddini tikladi. Bu orada Xalil ham yetib kelib, Qodirning o'ng tomoniga o'tdi. Ular hamlaga tayyor holda uchburchak hosil qilishdi. Akbar qo'lini paxsa qilib, baqirishda davom etdi:

– Ishyoqmas, piyanista. O'zingning badbaxtligingni menga to'nkab, nima demoqchisan?

Zalning to'ridan bir ayolning chinqirib gapirgani eshitildi:

– Qani, bas qilinglar! Sonya, uchastkavoyni chaqir, tez!

Lekin unga ahamiyat berishmadi. O'zini har tomonlama ustunlikka ega deb bilsa ham, qo'rqqanidan Akbarning yuzi nihoyatda xunuklashgan edi:

– Sen-chi, avval ho'v naridan turib salom berishing kerak. Men alik olaman-mi, yo'qmi – o'ylashib ko'rardim!

– Shunaqami? – dedi Qodir xunuk jilmayib. – Xudo shohid, Akbar, buni o'zing boshlading.

Qodir yuzini silar ekan, birdaniga Akbarga tashlanib, bir urib uchirib yubordi. So'ngra hujumga tashlangan Xalilni kaftining teskarisi bilan urib yiqitdi. Ofitsiantlar kelib Qodirni tinchitmoqchi bo'lishdi. Lekin u ofitsiantlarni surib qo'yib, o'qdek uchib kelayotgan Akbardan o'zini chetga olib, uni chalib yubordi. Akbar hozirgina o'zi o'tirgan stolga urildi-da, stol bilan birga umbaloq oshdi. Atrofnii idishlarning yerga tushib singan jarangi tutdi.

Akbar o'rnidan turgach, hurkib tarqalib ketgan o'spirinlarning stolidan shampan shishasini oldi-da, g'ijini Qodir tomonga kela boshladi:

– O'ldiraman! – dedi u tishlarini g'ijirlatib. – Ikkinchi meni ko'rganda bir chaqirimdan aylanib o'tadigan qilaman. – Shunday deyishga dedi-yu, lekin qo'rqqani uchun Qodirga yaqinlashmay, shishani otdi. Qodir engashib qoldi. Shisha to'g'ri borib oynavand devorni chilparchin qilib, tashqariga chiqib ketdi.

Kafe xodimlarining qiy-chuvi avjiga chiqdi. Akbarning sarosimaga tushgani-dan foydalangan Qodir uning qorniga kalla qo'ydi. Akbar orqasiga uchib borib, yana bir stolni ag'dardi-da, yiqildi. So'ng ingranib: juda ham sekinlik bilan o'rnidan tura boshladi. Qodir unga yaqinlashdi-da, yoqasidan oldi. Akbar uning qo'lida deyarli osilib turardi.

– Bu ishni o'zing boshlading, – dedi Qodir Akbarni silkib. – Men tugataman. – Endi uning yuzidagi olijanoblikdan asar ham qolmagan, vahshiylik va jahl o'zining xunuk muhrini bosgandi. – Tishlaringni qoqib olaman, – Qodir o'sha sovuq va vahshatli ohangda gapirardi. – O'rniga tilla tish qo'ydirasan, har bir tirjayganingda meni, men orqali o'zingning ablahligingni eslab turasan. Har soatda, har daqiqada!

Qodir har bitta jumlasini aytganda, Akbarning yuziga bittadan musht tushirardi. Agar shu paytda militsioner yetib kelmaganda uning bu vahshiyligi qachon, qanaqa tugashi noma'lum edi.

O'рта bo'y, pishiq gavdali, yoshgina leytenant yugurib kelib, Akbarni ajratib oldi-da, Qodirni itarib olib borib stulga o'tqizdi.

– Nima gap? – deb baqirdi u.

Qodirning o'miga ofitsiantlar vijirlab ketishdi;

– Nozaninday o'tirishgandi, – dedi biri.

– Yo'q, bu avval anovi stolda edi, – aralashdi ikkinchisi.

– Jim! – baqirdi ularga leytenant.

Ofitsiantlar ketdi. Leytenant ruchka va bloknot chiqarib, Qodir haqida ma'lumot yoza boshladi. Keyin uning zavodga kirish ruxsatnomasini olib ko'rdi.

– Uni taniysizmi? – so'radi militsioner hujjatni qaytarar ekan, atrofida Xalil va ofitsiantlar parvona bo'lishayotgan Akbarni ko'rsatib. Qodir «ha» degach, militsioner Akbar haqida ma'lumot yoza boshladi.

– Nahotki?! – dedi leytenant Akbarning o'sha mashhur Akbarligini eshitib.

– Ha, – dedi Qodir keskin qilib.

– Siz ham o'sha Qoriyevmisiz?

– Ha.

– Nima balo qilib qo'ydinglar? Nima jin urdi sizlarni?

Qodir Akbar tomonga o'qrayib qarab qo'ydi-da, indamadi. Leytenant bosh chayqadi-da, o'tirib turing, deb ofitsiantlarni so'roq qilgani ketdi.

Akbar asta o'ziga kelib, boshini ko'tardi. Uning xira ko'zlariga ma'no kira boshladi. Leytenant aktga Qodirning qo'lini qo'ydirib, uning oldiga kelganida, Akbar avval tushunmadi. Fahmiga yetgach esa, militsionerning qo'lidan akti olar ekan, o'rnidan turdi.

– Do'stim, – dedi u kemshiklanib va atrofdagilarga eshittirmaslikka urinib, – meni taniysiz-a?

– Taniyman, albatta. Ko'cha changitib, koptok tepib yurganimizda sizlarga o'xshashni orzu qilardik.

– Bo'Imasa, do'stim, aktingizni qo'ying-da, evaziga bitta mendek og'ayni ortiring.

– Endi, Akbar aka, sizni juda hurmat qilaman. Lekin burchim, qonun...

– E-e, qo'ying shu gaplarni, o'zi bugun ana u og'aynim miyamni qoqib qo'limga berdi. Menga qarang, xo'p, siz akt tuzdingiz, deylik, lekin ertaga boshliqlaringizning oldiga chiqib, bu ahmoqchilik bir bo'lib qoldi, sizga munaqa ish bilan tushmaganman, deyman. Nima qilishadi, yo'q deyishardimi? Menga yo'q deyishmaydi, bilasiz.

– Endi, bilmadim, lekin... lekin sizga kerakmikin deb o'ylovdim-da.

– Be-e, – dedi Akbar og'riq azobini bosishga harakat qilib. – Ichishib o'tirib, to'satdan tashlashib qoldik. Shu! Ertaga yana apoq-chapoq bo'lib ketamiz! To'g'rimi? – Akbar Qodirga qaradi.

Qodir indamay boshini qimirlatdi. U voqeaning bu tarzda davom etishiga hayron bo'lib turgan edi.

– Bo'ptimi, og'ayni? Menga shu akti bering-da, Akbar degan futbolchi do'stim bo'ladi, deb yuravering.

Militsioner bir oz muhmlashib turdi-da, oxirgi dalilini aytdi.

– Guvohlar dod demaydimi, – u kafe xodimlariga qaradi.

– Bular bilan o‘zimiz gaplashamiz, – dedi Akbar. – Sofiya opa, – chaqirdi u zal mudirasini. Ellik yoshlardagi sariq sochli nuroniy ayol ularga yaqinlashdi. – Bu do‘stimiz, bizlarni qamamasdan qo‘yib yubormoqchi. Boshqa urishmaymiz, deb so‘z berdik. – Akbar gapiga hazilomuz ohang berishga kuch topa oldi. – Siz qarshi emasmisiz?

– Yo‘q, albatta, qamasin, deb kim aytardi. – Zal mudirasi kulib tursa ham, qo‘llari yengil titrab, sochlari va tugmalariga besabab yugurardi. – Hamma narsaning yaxshilikcha tugagani yaxshi-yu, lekin idishlar sindi. Ana u oynaning o‘zi yuz so‘m turadi. Qo‘ydirishini hisobga olmaganda...

Akbar qo‘yin cho‘ntagini kavlati-da, bir dasta besh so‘mlik pul chiqardi.

– Mana, – dedi ayolga uzatib, – sanamasangiz ham bo‘ladi. Yuz ellik so‘m.

Zal mudirasi gunohkorona jilmayib, qo‘llari titragancha pulni oldi.

– Akbar Vafoyevich, siz xafa bo‘lmang, lekin...

– Bo‘ldi, Sofiya opa. Demak, kafe xodimlarining bizga hech qanday da‘volari yo‘q?

– Yo‘q, yo‘q, bo‘ldi. Biz doimiy mijozlarimizni hurmat qilamiz. Undan keyin, hamma narsaning yaxshilik bilan tugagani ma‘qul, – dedi zal mudirasi pulni sanay turib.

– Bo‘pti, biz ketdik, – dedi Akbar ruxsat so‘ragandek milisionerga qarab. Militsioner atrofdagilarga bir-bir qarab chiqdi. Uning yuziga birdan qandaydir o‘y-noqi tabassum yugurdi.

– E, nima bo‘lsa bo‘ldi! Sizlarni deb bir gap eshitsak eshitibmiz-da. – U aktini yirtib, cho‘ntagiga solib qo‘ydi. – Futbol qurboni bo‘lamiz-da juda borsa, a?

Qodirdan boshqa hamma mamnun jilmaydi. Akbar militsioner bilan qo‘l tashlashib xayrlashdi-da, Xalilning yelkasidan ushladi. Qodirga qarab ham qo‘ymay, shogirdiga suyanggancha sekin zaldan chiqdi. Vestibyuldagi toshoyna oldiga borib momataloq bo‘lib ketgan yuz-ko‘zini, ichkari tortib ketgan ustki labini bir-bir silab chiqdi. Keyin xuddi o‘shanday ohistalik bilan shlyapasini kiydi-da, yana Xalilga suyangan holda chiqib ketdi. Qodir Akbarning ketidan hayron bo‘lib bir oz qarab turdi-da, yuvingani kirib ketdi. Qaytib chiqib toshoyna oldiga keldi. Shveytsar uzatgan plashini qo‘llariga og‘ir yuk bog‘laganday qiynalib kiydi. Militsioner bilan shveytsarga gunohkorona bosh irg‘ab, tashqariga chiqdi. Orqasidan shveytsarning ovozi eshitildi.

– O‘lay agar, bo‘ynimni kesib tashla, hozir nimaga urishishganini bilishmaydi! Ichib olishadi-da, xo‘roz bo‘lib ketishadi. – Bu odam fikrining to‘g‘riligiga to‘la ishongani uchun kuyunib gapirardi.

Qodir xuddi darmonsiz odamdek sekin nariroq borib, orqasiga o‘girildi. Kafe peshtoqidagi neon chiroqli «Orom» degan yozuvning oxirgi harfi yonmas, uzoqdan «Oro» bo‘lib ko‘rinardi.



*Dadaxon*

*Nuriy*

*(1943-yilda tugʻilgan)*



Dadaxon Nuriy 1943-yilda Namanganda tugʻilgan. Dastlabki lirik qissasi — «Oqshom qoʻshiqlari» (1963). Shundan soʻng yozuvchining «Begona» (1968), «Bogʻlarda bahor», «Mashina Kashmirga boradi» (1970–71), «Osmon ustuni» (1976), «Shahar tegirmoni» (1990), «Begona» (1991) kabi kitoblari nashr etilgan. Esse, sayohatnoma janrida ham asarlar yozgan («Daricham roʻparasidagi Pokiston», 1996; «Azim chinorlar panohida», 2005; «Ram sohibdan hammaga salom», 2007). Ayniqsa yozuvchining «Boysun jungllaridan Kandi oʻrmonlarigacha» «toʻqilmagan sarguzashtlar» kitobi koʻpchilikda katta qiziqish uygʻotgan.

## MEHMON

Qish etagi uzilib, bahorning birinchi oyi boshlanishi bilan sohil boʻylab yuqoridan iliq shamol esa boshlaydi-da, bir haftaga qoldirmay nafasi tekkan oʻt-oʻlan, dov-daraxtlar kurtagini boʻrttirib yuboradi. Qaynarsoydagi tollarning novdalarida qovrilgan xandon pistasiday munchoq-munchoq shodalar paydo boʻladi. Qish sovuqʻidan qorayib ketgan naʼmatak shoxlariga suv yugurib, boʻyga etgan qizlarning barmogʻiday muloyim va kishi diqqatini tortuvchi boʻlib qoladi. Mijozi yengilroq bodomlar hammadan avval gulga burkanib, oʻz koʻrkini namoyish qilishga tushadi.

Mana shu pallalar Bogʻistonda boʻlsangiz bormi, tabiatning uddaburoligi-yu, mohirona sanʼatiga qoyil qolmay ilojingiz yoʻq.

Ayniqsa aprel oxirlab, togʻu toshlar yam-yashil libosga burkanib, qirmizi lolalar quyosh nurida billur qadahday tovlanganida bu yerning fayzi juda boʻlakcha boʻladi.

Hgari shaharliklar bu tomonlarga kam kelishardi. Yo'l kengaytirilib, avtobus qatnay boshlaganidan beri ularning keti uzilmay qoldi. Ayniqsa «lola sayli» ishqibozlari juda ko'payib ketdi. Shanba, yakshanba kunlari qishloq va uning so'lim qir otlaklari gavjum bo'ladi: kimdir musiqa chaladi, kimdir shirasiz ovozi bilan ashula aytadi, yana birov hali sovuq shashti kesilmagan daryo suvida cho'miladi.

Bugun juma kuni bo'lganidanmi, boya Ayiqtepada o'tirganlarni hisobga olinganda, qishloqda sayrchi yo'q edi hisob...

Ular dovon oshib ancha ichkarilab ketishgan, tabiat shavqiga berilib vaqt kechga yaqinlashib qolganini sezishmagandi. Izni yo'qotib qo'ymaslik uchun hoshib-pishib orqaga qaytdilar.

– Radioga ham ishonish kerak! – dedi yigit tajang ovozda bir dastadan lola qo'ltiqlab olgan juvon bilan qizchani shag'al qiyalikdan pastga tushirarkan. – tog'li hududlarda jala quyadi degandi. Shu sayrga ertaga chiqsak ham bo'lardi-ya!

– Unda og'ayningiz Azimjonning to'yichi!? – hozirjavoblik qildi juvon.

– Darvoqe, – Rustam peshonasini tirishtirib kafti bilan yomg'ir tomchilar quyilib turgan yuzini sidirib qo'ydi, – ertalabdan eshigi oldida qo'l qovushtirib turmasang bo'lmaydi, oshna-og'aynichilik.

Ayol qo'lidagi shamsiyani qizcha boshiga yaqinroq tutib shivalab turgan yomg'irdan uni himoya qilarkan, erining gapiga qo'shimcha qildi:

– Shu og'ayningiz g'alati-da, ayollarday ginachi! O'tgan yili komandirovka-da bo'lib o'g'ilchasining tug'ilgan kunida qatnasholmaganingizni hali-hali ta'na qilib gapiradi... Endi to'yni ham rosa katta qilsa kerak!

– Qiladi-da, magazin mudiri... Umuman mana shunaqa narsalar jonga tegdi. Otpuska olgandan beri biron kun uyda tinchgina o'tirmabmiz-a! Har kuni bittadan tashvish.

– Shuning uchun ham sizga aytdim-da, biron yoqqa ketaylik, deb.

– Mana, bir kunga bo'lsa ham keldik-ku. Endi uyga yetib olsak, u yog'ini bir o'ylashib ko'ramiz. Otpuskaning ham yarmi ketdi hisob.

Yomg'ir bir me'yorda ezig'ilib yog'ib turar, ular qir bag'ridagi ilon izi, mayin shag'alli so'qmoqdan kelishardi.

Nihoyat qishloq chekkasidagi avtobus burilib to'xtaydigan keng yalanglik-bekatga yetib kelishdi. Bu yer bo'm-bo'sh, hatto biron ta odam ham yo'q edi.

Yigit soatiga qaradi. «Vaqt yaqinlashib qopti» deb qo'ydi ichida. Ertalab haydovchi, bemalol dam olaveringlar, soat oltida so'nggi reys bo'ladi, o'shanda o'zimiz olib ketaman, degandi.

Mashina kelavermadi. Yomg'ir avjga minib, badanni junjiktiradigan sovuq shabada esa boshladi. Bekat qishloqning ancha yuqori qismida, yaydoq tepalikka joylashgan, atrofda biron pana joy yo'q edi. Faqat bir yoni maydonga kelib tutashgan pastlikdagi tomorqaning narigi etagida qalin daraxtlar ichiga ko'milgan hovli ko'zga tashlanar, garchi hali g'ira-shira tushishga ancha vaqt bor bo'lsa ham, u yerdagi ayvon shirida charaqlab yonib turgan elektr chirog'i negadir odamning diqqatini o'ziga tortardi.

Rustam bundoq yoniga o'girilib, qunishganicha o'sha yoqqa qarab turgan qiziga, so'ngra xotiniga ko'zi tushdi. Nazarida bolasi sovqotayotganday tuyuldi.

– Yuringlar, sizlarni o'sha xonadonga tashlab kelaman. Avtobus kelguncha ayvonida o'tirib turasizlar! – dedi-da, qizini bag'riga bosib, chetan devor bo'ylab keta boshladi...

G'ulomjon Ungur etagidagi yangi tokzorda ishlayotgan kolxozchilarga qozon-tovoq, choy qaynatadigan bak yana har-xil ashqol-dashqollar olib ketayotgan edi. Ayiqtepa yonbag'rida uchta sayrchiga ko'zi tushdi. Bir erkak bilan ayol yosh qizchani o'rta olib, lolalarga ko'milib o'tirishardi. Qizaloq qo'lini osmonga sil-kitib nimalardir dedi, ammo yigit traktorning shovqinida hech narsa eshitmadi...

Peshinga borganda havo to'satdan o'zgardi. Charaqlab turgan quyosh nurlari ko'zdan qochdi. Olis tog' cho'qqilari osha bostirib kelgan qop-qora bulutlar ko'k yuziga parda tashladi. So'ngra jala boshlandi.

G'ulomjon ming azob bilan tor, qiyalama yo'llardan o'tib qishloqqa kirib kelganida atrofga qorong'ilik oralab qolgandi. Hovli etagidagi olmazor yoqalab oquvchi Pskom quturib pishqirar, to'lqinlari ko'kka sapchirdi.

U traktorni katta yong'oqqa tirab to'xtatdi, kabinadan sakrab tusharkan, daryo tomonga ko'z tashladi-da, ko'pdan buyon bunaqa yog'ingarchilik bo'lmagandi, degan fikr kechdi xayolidan.

Kech tushgan sari xavotiri oshib borayotgan Xosiyatxon eri kelganligini bilib, bir oz tinchlandi. Qozon ostidan olovni tortib, tashqari ayvon yuziga chiqdi:

– Keldingizmi, hormang!

G'ulomjon xotini yuzidagi siro-osoyishtalikdan hayron bo'ldi:

– Yo'lda Ismatni ko'rdim, buvimiz yana og'irlashib qoptilar. Nega bormay, bu yerda yuribsan?

– Eshitdim. Uyda mehmonlar bor, tashlab ketolmadim.

Buvi – Xosiyatxonning onasi. Kuzdan buyon qattiq betob bo'lib, bir oyoq-qo'li ishlamay yotar, ayniqsa keyingi oy davomida ahvoli xiyla tanglashib qolgandi.

G'ulomjon xotiniga, ovqatingni suz-da, keyin u hovliga bor, deb mehmonlar o'tirgan xonaga yo'naldi.

«Salom amaki!» Dahlizdan kiraverishdagi eshik qantotiga suyanib turgan jajjigina mehmonning qo'ng'iroqday ovozi yigit diqqatini o'ziga qaratdi.

– Vaaleykum assalom! Aqlli, yaxshi qiz ekansan.

To'rda o'tirgan barvasta yigit bilan xushro'ygina juvon o'rinaridan turib G'ulomjonga peshvoz chiqishdi.

– Uyingizga mehmon bo'lib keldik, – dedi ayol mezbonga yaqinroq turganidanmi, birinchi gap boshlab.

– Juda yaxshi-da, kennoyi, odam bor joyga odam keladi. Qalay zerikmasdan o'tiribsizlarmi? – G'ulomjon erkak tomon o'girildi.

– Bu yerni o'zimizniki qilib oldik. Televizor ko'ryapmiz. Dasturxon to'kin. Qani avval tanishib qo'ayalik, brat. Mening otim Rustam.

G'ulomjon Rustamning qo'lini olarkan o'zini tanitdi.

Hammalari o'tirishdi. Oraga biroz noqulay jimlik cho'kib, uni ayol buzdi:

– Boya ertalab traktor haydab ketayotgan sizmidingiz?

– Ha, men edim, sizlarga ko'zim tushgandi, – mezbon yigit tomon o'girildi. –

**Xush ko'rdik, aka!**

– Rahmat-rahmat.

– Bir aylanib kelaylik debsizlarda.

– Ha, lola sayli qilib chiqqandik, qaytib ketolmay deng, mana shunday sizlarga kutilmagan mehmon bo'lib qoldik!

– Mehmon mana shunisi bilan qiziqda!

– Avtobus deng, bu tomonga o'tolmabdi. Suv osma ko'prikka tegay deb oqayotganmish. Bu, sizlarda har doim shunaqa toshqin bo'lib turadimi?

– Anchadan beri munaqa yog'magandi.

– Ishqilib ertaga avtobus kelsin-da. Yana qolib ketmaylik. Bir nozik og'ayni-mizni yurug'i bor edi...

– Ko'nglingiz to'q bo'laversin, ertalab avtobus albatta keladi. Suv hademay pasayadi. Bu erning sharoiti shu, har qancha jala yog'sa ham ikki-uch soatdan keyin hech narsa bo'lmaganday turaveradi.

Xosiyatxon to'latib osh bosilgan lagan ko'tarib kirib, dasturxonga qo'ydi. Choy keltirdi. Shundan keyin boshqa ko'rilmadi...

Mehmonlar birinchi keladigan avtobusga ilinish maqsadida barvaqtroq turishmoqchi edi. Ammo tog' havosi elitdimi yoki charchashgan ekanmi, allamahalgacha bosh ko'tarmay uxlashdi.

Rustam ko'zini ochganda uy ichi yorishib ketgan, deraza ko'zlaridan lovullab quyosh nuri yog'ilib turardi. U shoshib, xotinini uyg'otdi va tez kiyina boshladi.

Tashqariga chiqib osmonga ko'z tikdi-da, hayratdan yoqa ushladi. G'ulomjonning kechagi gapida jon bor edi. Yarim kechgacha quyib chiqqan sharros yomg'ir, osmonni qoplab yotgan pag'a-pag'a bulutlardan endi nom-nishon yo'q; tir-tiniq ko'k yuzidan terak bo'yi ko'tarilib qolgan quyosh hammayoqqa o'z selini yog'dirib turardi. Rustam huzur qilib kerishdi, keyin o'pkasini to'ldirib nafas oldi.

Shu payt so'ritok ostiga o'rnatilgan so'riga ko'zi tushdi. Unga to'kin dasturxon to'shalgan bo'lib, xontaxta atrofiga ko'rpachalar solingandi.

Birdan mehmonning esiga uy egalari tushdi. U yoq-bu yoqqa qarab ularni izlagan bo'ldi. Shu payt yalanglik chetidagi oshxonadan bir kampir chiqib keldi-da:

– Yaxshi uxlab turdinglarmi, bolam! – deya hol-ahvol so'ragan bo'ldi. Keyin yigitdan biron sado chiqishni kutmayoq. – Bemalol o'tirib choy ichinglar, ovqat ham tayyor. Uy egalari yo'q ekan deb tortinmanglar. Men ham shu hovlining egasi, sadag'ang ketaylar! – dedi.

– Xola, G'ulomjonlar ishga ketgan chog'i.

Kampir bir oz tutilib:

– Ha... shunaqa o'g'lim, – dedi.

– Bizlaram azonda turmoqchi edigu, uxlab qopmiz, xolajon.



– Hechqisi yo‘q, dam olishga chiqqansizlar, bolam! – kampir dasturxonga yangi damlangan choy keltirib qo‘yarkan mehmonning ko‘nglini ko‘targan bo‘ldi.

Tomorqa etagidagi maydonda shaharga qatnaydigan ikkinchi reys avtobus kelib to‘xtadi. Mehmonlar apil-tapil choy ichib, endi ketmasak bo‘lmaydi, deb turib olishdi. Kampir qo‘yarda-qo‘ymay, ertalabki nasibani tashlab ketmanglar, deb gurunchi tirikroq bo‘lsa ham mastavani suzdi.

Rustam qo‘shni kampir orqali uy egalariga ko‘pdan-ko‘p rahmat aytarkan, yonidan bloknot chiqarib nimalardir yozdi:

– G‘ulomjonga berib qo‘ying. Bizning adresimiz shu! Shaharga tushganda albatta kirsin.

Tepalikdagi bekatdan qizg‘ish yonboshi ko‘rinib turgan avtobus ketma-ket signal berdi.

Mehmonlar unga arang ilinishdi.

Mashina qishloqdan chiqay deganda tezligini pasaytirdi-da, kutilmaganda asfalt yo‘l qiyasiga chiqib to‘xtadi. Shofyor yigit kabinadan pastga tushdi. Keyin salonda o‘tirgan boshqalar ham unga ergashib tusha boshlashdi.

Rustam avval nima gapligini bilmay, u yoq-bu yoqqa alangladi-da, nariroq qir yonbag‘ridagi so‘qmoqdan yuqorilab kelayotgan ellik-oltmish chog‘li odam to‘piga, so‘ngra ular o‘rtasidagi lapanglab borayotgan qizil duxoba yopilgan tobutga ko‘zi tushdi. Yonida o‘tirgan xotining asta tizzasiga turtib, «sizam turing» degan ishorasi uni sergaklantirdi.

Avtobusda besh-olti xotin-xalajdan boshqa hech kim qolmadi.

Mashinadan tushganlar tez-tez yurib, marhumni olib ketayotgan odamlar to‘piga qo‘shilishdi-da, tobutni yelkama-yelka ko‘tarib ancha narigacha borishdi.

Rustam ham ikki-uch bor tobut dastagi ostiga yelkasini olib bordi...

Bir payt mosh gurunch soqolli kekxa odam Rustamga yaqinroq kelib qulog‘iga shirshiganday dedi:

– Bo‘lar, o‘g‘lim. Otangizga rahmat, endi qaytaylik, joyi jannatda bo‘lsin! – u yuziga fотиha tortdi.

Mashinadan tushgan kishilarning ayrimlari katta yo‘l bo‘yiga allaqachon yetib olishgan, ba‘zilari imillab hozirgina yurgan so‘qmoqdan orqaga qaytishardi.

– Rahmatli ajoyib ayol edi! – deb qo‘ydi kutilmaganda haligi qariya boshini xam qilganicha Rustam bilan yonma-yon borarkan. – Eri urushga ketib qaytmadi. Boyaqish yolg‘iz qizi bilan qolgan. Boshqa turmush qurmay butun umrini shu qizga bag‘ishlagan. Uni voyaga yetkazdi, turmushga berdi – bir farzandi ikkita bo‘ldi. Ularning yoniga nabiralar qo‘shildi... Endi armonsiz yashasa bo‘ladigan bir paytda, qarang-a, o‘lim changal solganini. O‘zi dunyo shunaqami, deyman, doim biri kam. G‘ulomjon ham yetimlikda o‘sgan, ota-onasi o‘rnini shu ayol bosib turardi.

Rustam boshini keskin ko‘tarib hamsuhbatiga qaradi:

– Qaysi G‘ulomjon?

---

– Darvoqe, siz uni tanimaysiz. Shu yerlik shofyor yigit. Shundoq avtobus qayrilib to‘xtaydigan maydonning pastidagi hovli o‘shaniki.

– Men taniyman u yigitni. Juda yaxshi taniyman. Nahot marhuma uning...

– Ha, marhuma uning qaynonasi edi. Xudo rahmat qilsin!

Rustam miq etmadi. Ertalab yuragi sezganday bo‘lgandi. Uning xayolidan yilt etib «Erta-indin vaqt topib, ko‘ngil so‘rab kelib ketarman», degan fikr o‘tdi.

Hamma o‘z o‘rniga joylashib bo‘lgandi. Rustam ham xotini yoniga cho‘kib, qizini tizzasiga oldi. Avtobus o‘rnidan qo‘zg‘alib, g‘izillaganicha yurib ketdi. Ammo ko‘p o‘tmay Pskom daryosiga qurilgan katta ko‘prikdan beriroqda to‘xtadi. Uning old eshigi ochilib bir yigit tushib qoldi.

Bu Rustam edi.



# Hojiakbar Shayxov

(1945–2002)



Hojiakbar Shayxov (Hojiakbar Islom Shayx) 1945-yil 25-martda Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon viloyatidagi Chuguchak shahrida tugʻilgan. Oʻzbek ilmiy-badiiy fantastikasining asoschilaridan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi (1997). Ota-bobolari asli toshkentlik boʻlib, Sharqiy Turkistonga koʻchib ketishgan va 1955-yil vataniga qaytishgan. Toshkent politexnika institutining energetika fakultetini tugatgan (1971). 30 dan ziyod ilmiy-fantastik hikoyalar, qissalar va romanlar muallifi. «Rene jumbogʻi», «Zalvorli odimlar» (1977), «Yettinchi operatsiya» (1979), «Gʻaroyib koʻlanka» (1980), «Olmos jilosi» (1983), «Soʻnggi ajdarning halokati», «Hayotbaxsh xayollar» (1985), «Ajdodlar xotirasi» (1986), «Yonar daryo» (1986), «Maktab sahnasi» (1988), «Sehrli qiz» (1989), «Telba dunyo» (1990), «Tutash olamlar» (1996), «Jodugarning eri» (1999), «Ikki jahon ovorasi» (2001) va boshqa fantastik qissa va romanlari bor. Publitsistik asarlar ham yozgan («Fan fidoyisi», 1987; «Zamin shaydosi», 1990).

Yozuvchi 2002-yil 27-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

## IBLIS BILAN MULOQOT

Boltaboy yarim kechasi yotgan joyida koʻzlarini ochdi-yu, bir zum hech narsa tushunmay, agʻrayib qoldi. Ikki ukasi eron gilami ustida mast odamlarday besoʻnaqay holatda dumalab yotishar, butun ayvon xuddi dahshatli zilzila yuz berganday agʻdar-toʻntar qilib tashlangan edi. Shunda kecha tunda boʻlib oʻtgan dahshatli voqealar zimmo yodiga tushdi. Toʻs-toʻpolon yarim tunda nogahon tomdan kelayotgan taraqa-turuq ovozlari bilan boshlandi. Aka-ukalar avval zilzila yuz berdi, deb oʻylashdi. Soʻngra he yoʻq-be yoʻq, oʻrtada turgan ulkan xontaxta oʻz-oʻzidan qarsillab sinib ketdi, uning gilamga chalpak boʻlib yopishib qolganini koʻrgan aka-ukalarning oʻtakalari yorilayozdi. Bamisoli koʻzga koʻrinmas yovuz

bir kimsa javonlardagi chinni idish-tovoqlarni shiddat bilan u yoqdan-bu yoqqa uloqtirar, atlas ko'rpachalarni xafsala bilan qiyqim-qiyqim qilib qirqar, ayvon tokchasidagi turfa gul tuvaklarni ayamay gilam ustiga ag'darar edi. O'sha kuni aka-ukalar katta bir «ish»ni muvaffaqiyatli yakunlab, odam o'ldirishgan, so'ngra olgan «mukofot»larini yuvishgan va xilvatgohdagi choyxonada rosa maishat qilib qaytishgandi. Uyga qaytib, yostiqaqqa bosh qo'yishlari bilan boshlangan bu favqu-lodda hodisalar bois kayflaridan birpasda asar ham qolmagandi.

Boltaboy tirriq kayfiyatda o'rnidan turdi-da, tashqariga yo'naldi. Eshikni ochib, ostona hatlab o'tdi-yu, turgan joyida taxtadek qotib qoldi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, hovlisi o'rnida ulkan mozor paydo bo'lgan, hammayoqni katta-kichik sag'analar, qabrlar, ularning ustiga o'rnatilgan turli maqbaracha va yodgorlik toshlari bosib ketgandi. Sal narida go'rkov yoki mozor qorovuli bo'lsa kerak, belkurak ushlagan baland bo'yli allakim ivirsilab yurardi. Boltaboy marmar zinalar orqali pastga tushib, beixtiyor haligi odam sari yurdi. Ajabo, «Adidas» qalpoq kiygan, qop-qora qoshlari xuddi chimirilgandek yuqoriga ko'tarilgan, uzun qora chopon va charaqlatib moylangan charm etikdagi bu kimsaning yuz qiyofasi unga juda-juda tanish tuyuldi.

Boltaboy uning ro'parasida to'xtab, salom berdi. Qora choponli kimsa ko'zlarini chaqchaytirgancha unga tikilib, istamaygina alik oldi.

– Bu yerda mozor qayoqdan paydo bo'lib qoldi, aka? – deb so'radi Boltaboy hayratini yashirolmay.

– Nega u paydo bo'lib qolishi kerak?! – dedi «go'rkov» jahl aralash ajablani. – Nima balo, kayfing bormi? Bu mozor paydo bo'lganiga yuz yildan oshgan, uka.

Boltaboy battar hayratga tushib, tili arang gapga aylandi:

– Axir, bu joy – mening hovlim... mening uyim-ku?..

– Esingni yedingmi, uka, – dedi «go'rkov» endi ochiqdan-ochiq ensasi qotib, unga xuddi savdoyilardek tikilarkan. – Qanaqa uy? Qanaqa hovli?..

Boltaboy orqasiga o'girilib, ong-tong bo'lib qoldi. Endi uyi ham g'oyib bo'lgan, uning o'rnida eshigi o'ymakorlik san'atining eng nafis usullaridan ishlangan salobatli, gumbazli, baland peshtoqli darvozaxona paydo bo'lgandi.

Atrofga olazarak alangladi. Shu chog' sal naridagi bo'yi va eni taxminan o'n gaz atrofidagi tepasi gumbaz qilingan sag'ana yigitning e'tiborini o'ziga tortdi. Eski musulmon g'ishtdan odam bo'yi balandligida qurilgan bu maqbaraning oldi tomonida pastga olib tushuvchi marmar zinalar bo'lib, zinalar tugagan maydoncha oxirida zang bosgan ulkan temir eshik ko'zga tashlanardi. Uning ichida qaysidir aziz avliyoning marmardan ishlangan qabri joylashgan bo'lsa kerak, xayolidan o'tkazdi Boltaboy. Hoynahoy bizga o'xshagan shovvozlar uni ham ayashmagan, nimani o'marish mumkin bo'lsa, o'marib, nimani buzish mumkin bo'lsa, buzib tashlashgan, albatta. Ayniqsa, sho'rolar davridagi bolshavoylarning bunaqa ish-larga suyagi yo'q edi.

– Qiziqib qolding shekilli? – Boltaboy noxos quloqlari ostida yangragan ovozdan seskanib tushdi. O‘girilib, «go‘rkov» endi o‘zi bilan yonma-yon turganini ko‘rdi. Voajab: uning boshidagi «Adidas» qalpog‘ining tepa qismi xuddi ikki shoxi borday yuqoriga turtib chiqqandi. «Nima balo, shaytonmi bu?» – xayolidan o‘tkazdi Boltaboy badani junjikib.

– Aka, tanishib qo‘yaylik, – dedi yigit unga qo‘lini uzatib. – Mening ismim Boltaboy.

– Xavotir qilma, Boltaboy, – dedi «go‘rkov» xuddi uning fikrini o‘qiyotgan day. – Kamina shu mozorning qorovuliman. O‘ljaboy deb atashing mumkin.

– O‘ljaboy aka, anavi sag‘ananing ichiga bir kirib chiqishning iloji bormikan? – so‘radi yigit jur‘atsizgina. Marmar qabrlar, mo‘miyolangan jasadlar qolganmikin?

– Nima qilasan u yerda? – javob berdi qorovul jahli chiqib. – O‘lgan odamlarning ruhini bezovta qilishning nima keragi bor?! Bu joy senga muzey yoki tomoshaxona emas-ku! Mo‘miyolangan jaslarni esa, bekor tilga olding. Darvoqe... – O‘ljaboy aka xuddi muhim bir nima yodiga tushganday o‘ylanib turdi-da, sirli ohangda davom etdi: – Darvoqe, bundan ko‘p asrlar avval bu yerda yotgan ulug‘ avliyoning qabr toshi tagida ilohiy bir yashm tosh ham saqlangan, deyishadi. Juda noyob xususiyatga ega sehrli tosh! Uni qadimda yashagan mashhur alkimyogarlarning buniyod etishgan ekan. Aytishlaricha, uning bahosi yo‘q emish.

– Uning nimasi noyob ekan? – so‘radi Boltaboy darrov sergak tortib.

– Uning yordamida istagan ishingni amalga oshirishing, kelajakda kechadigan voqea-hodisalarni oldindan bilib turishing mumkin, – dedi qorovul bamisoli arzimasi bir matoh haqida so‘z yuritayotganday loqayd ohangda.

Boltaboyning ko‘zlari chaqnab ketdi.

– Chindanam noyob tosh ekan! U hozir ham shu yerda saqlanadimi?

– Bilishimcha, yo‘q, – dedi qorovul atayin o‘zini go‘llikka solib.

– Bo‘lmasa qayerda? – yana so‘radi Boltaboy sabrsizlik bilan uning chaqchaygan ko‘zlaridan nigohini uzmay.

– Aytishlaricha, keyinchalik uni Xizr buva degan mangu yashovchi avliyo olib ketib, saqlash uchun yana allaqaysi bir avliyoga topshirgan emish.

– U qaysi avliyo ekan? Yashm tosh haliyam uning qo‘lidami? – so‘roq qilishda davom etardi Boltaboy borgan sari toqatsizlanib.

– Yo‘q, – dedi qorovul, keyin tovushini pasaytirib, yana sirli ohangda izoh berdi: – Hozir tosh o‘sha senga tanish uch opa-singilning uyiga yashirib qo‘yilgan.

– Qanaqa opa-singil?

– Darrov yodingdan ko‘tarildimi? Ularning kattasini kenja ukang sevib qolganini, yaqindagina oh-voh qilib yurganini unutibsan-da?

– Siz meni qayoqdan tanisiz?

– E, uka, shaharda, qolaversa, butun jumhuriyatda Bolta boyvachchani tanimaydigan odam bor ekanmi!

Bu gapni eshitgan Bolta boyvachchani beixtiyor og‘zining tanobi qochdi. U iftixor bilan tez-tez nafas ola boshladi.

O‘ljaboy aka boshi bilan ro‘paralaridagi sag‘anaga imo qildi.

– U yoqqa yaqin o‘rtada deyarli hech kim kirmagan, mumkin emas! Lekin sen... nufuzli odamsan. Agar sag‘anani ichiga kirishni juda istasang... marhamat!

Shunday deb, u Boltaboyni chang bosgan marmar zinalar orqali pastga boshladi.

Ulkan temir eshik qiyinchilik bilan chiyillab ochildi va ular nim qorong‘i yerto‘laga qadam qo‘yishdi. Qorovul sal oldinda cho‘ntak fonari bilan yo‘lni yoritib borardi. Yerto‘la ichkariga yurganlari sari kengayib borar, lekin bu yerda hech qanday qabr toshi ko‘rinmasdi. Birdan yana zinalar boshlanib, ular tag‘in pastga qarab yo‘nalishdi.

– Mendan hech narsa so‘rama, bu yerda savol-javob qilish mumkin emas! – dedi O‘ljaboy aka uni asta shivirlab ogohlantirarkan. – Faqat tomosha qil, kerakli gaplarni o‘zim aytib beraman. Shunaqangi g‘aroyibotlarni ko‘rsatamanki, unaqasi etti uxlab tushingga ham kirmagan. O‘zingni yo‘qotib qo‘ymasang bo‘lgani, ish-qilib...

O‘ljaboy aka bu gaplarni uqdirarkan, ular azbaroyi eskirganidan to‘kilib ketgan zinalar orqali tim qorong‘i yerto‘laga kirib kelishdi. Devorlari eski musulmon g‘ishtlardan qurilgan yerto‘laning balandligi ikki gazcha kelardi.

Oyoqlari ostida ko‘lmak suv shapilladi. Bu yerning havosi og‘ir, diqqinapas edi. Nogahon chiyillagan ovozlar eshilib, shundoq yonlaridan devor yoqalab bahaybat kalamushlar galasi yugurib o‘tdi. Ular odamlarga e‘tibor ham qilishmadi. Shunga qaramay, boyvachcha ko‘ngli aynib, qayt qilib yuborayozdi. Hamrohining ahvolini payqadimi, qorovul darrov uning qo‘lidan ushlab oldi. Bu ishni u juda vaqtida qilgan ekan, chunki bir soniya o‘tmay Boltaboy fonar yog‘dusi ostida ko‘ngilni ozdirgudek o‘lguday badbashara mahluqqa ro‘para keldi. U yigitga qahr-g‘azab bilan tikilar va ulkan jag‘dor tishlarini g‘ijirlatardi. Azbaroyi qo‘rqib ketganidan Boltaboy o‘zini keskin chetga oldi, agar qorovul bo‘lmaganida, devorga urilib, boshini yorishi aniq edi. O‘ljaboy aka sekingina kulib qo‘yarkan, unga tasalli berdi:

– Hechqisi yo‘q. Dastlabki paytlarda ko‘rshapalaklardan men ham qo‘rqardim.

Nihoyat, ular uzundan-uzun bu mudhish yerto‘laning oxiridagi mahobatli temir eshikka yuzma-yuz kelishdi. Qorovul ancha-muncha kuch sarflab eshikni ochganidan so‘ng ular ostona hatlab, yarmi g‘isht, yarmi marmar ushoqlari to‘shalgan kattakon bo‘lmaga o‘tishdi. Yerto‘ladan farqli o‘laroq, bo‘lma favqulodda yorqin nurlarga cho‘mgan, devorlarga lovullab yonib turgan ulkan shamlar osilgandi. Ularni kim va qachon yoqqanini O‘ljaboy aka izohlab o‘tirmadi. Devorlar yoqalab kishining diliga g‘ulg‘ula soladigan darajada yalt-yalt qilayotgan oppoq ustunlar

qad ko'targandi. Ular yigirmaga yaqin edi. Ularning biriga yaqinlashgan boyvachcha shu zahoti dahshat ichida ortiga tisarildi. Bular shisha tobut (sarkofag)lar bo'lib, ichiga mo'miyolangan yerkaklarning jasadlari joylashtirilgan edi. Ularning kiyim-kechaklariga qaraganda, bu odamlar o'rta asrlarda yashab o'tgan jangchi sarbozlarga o'xshar edi.

Shu payt mozor qorovuli boyvachchaning yelkasiga qo'l tashlab, bo'lnaning o'rtasiga imo qildi. Boltaboy o'sha tomonga o'girilib, tosh sandiqni eslatuvchi ulkan supaga ko'zi tushdi. «Sandiq»ning chetlariga o'ymakorlik usulida jimjimador gullar surati tushirilgan, qopqog'ining sirtiga sal-pal xitoychaga o'xshab ketadigan imlododa allaqanday notanish yozuvlar bitilgan edi.

– Xosiyatli yashm toshi o'z davrida mana shu sandiqda saqlangan, – dedi O'ljaboy aka yo'ldoshining qulog'iga shivirlab. – Uni olib ketmaganlariga qadar bu yerni ajdarhoga o'xshagan bahaybat ilonlar qo'riqlashgan va bu yerga hech kim yaqinlasholmagan. Toshni olib ketishibdi-yu, bu joyning ham fayz-xosiyati qolmabdi. Anavi jasadlar ham qo'riqchilar sanalib, birov toshga yaqinlashsa, shisha tobutlarni yorib chiqib, o'g'rilikka kelgan odamning jonini sug'urib olishgan emish.

– Yo tavba! – dedi Boltaboy hayrat barmog'ini tishlab.

– Lekin sen qo'rqma! – shivirlab gapida davom etardi qorovul. – Bari bir toshni qo'lga kiritishga harakat qil. Agar bu ishni uddalasang, – Bolta boyvachcha buni albatta uddalaydi, bunga ishonchim komil, – nafaqat yurtning, balki jami mulki olamga hukmronlikni qo'lga kiritishing mumkin.

Boltaboy unga ag'rayib tikilarkan, ayni ko'nglidagi gapni topib aytayotganidan battar hayratga tushgandi. Ayni damda xayolidan: «Nima balo, chindanam shaytonga ro'para keldim shekilli», – degan fikr o'tdi.

Shu ondayoq qorovul biqiniga turtib:

– Namuncha mijg'ov bo'lmasang! – deya xitob qildi sal tovushini ko'tarib, uning achchig'i chiqqani ko'rinib turardi. – Men ham Xudoning bir bandasiman. Lekin oddiy banda emas! Istasang, avliyo deyishing mumkin. Chunki men dunyodagi hamma gaplardan xabardorman. Aytaylik, kecha kechasi sening uyingda bo'lib o'tgan ag'dar-to'ntardan...

Boltaboy tungi g'aroyib yo'ldoshining javlon urib yonayotgan sham nurida allaqanday sirli, ko'kimtir tusda tovlanayotgan sovuq basharasiga yanada sinchiklabroq tikilarkan, azbaroyi qo'rquv va sarosimaga tushganidan jag'i osilib qolgan edi. U tili zo'rg'a aylanib, so'radi:

– Siz buni... qayoqdan bilasiz?

– Aytdim-ku, kamina avliyoman, axir!

– Avliyolar... turli karomatlar ko'rsatishgan, deyishadi. Chinakam avliyolingizni menga isbotlab bera olasizmi?

– Juda ko'p savol berayapsan, – dedi qorovul endi achchiq danak chaynab qo'yganday aftini burishtirib. – Buning oqibati yaxshi bo'lmaydi. Avliyoligimni senga allaqachon isbotlab bo'ldim. Buni uyingga qaytganingda bilasan.

– Yo‘-g‘e?.. Uyimda hamma narsa yana o‘z holiga qaytdi, demoqchimisiz?

– Savol berishni bas qil, deyapman! Aytdim-ku, hammasini halizamon o‘zing ko‘rasan!..

Shu payt O‘ljaboy aka jasad solingan shisha tobutlarning biriga sinchkov tikilarkan, ranggi bo‘zday oqarib ketdi. Boltaboy ham o‘sha tarafga yuzlandi-yu, qichqirib yuborayozdi. *Jasadning to‘satdan kirriklari qimirlab, beso‘naqay qalin lablarida zaharxandali kulgu ifodasi paydo bo‘lgandi.*

– Senga necha bor aytdim-a, ana endi hammasi rasvo bo‘ldi! – xitob qildi qorovul afsus-nadomat bilan endi baralla ovozda. – Jasadlar tirila boshlashdi. Senga avvaldan hammasini tushuntirib bersam bo‘larkan. Bu yerga kirgan har qanday o‘g‘rining miyasida, yashm tosh qayerga yashiringan ekan, degan savol-o‘y bo‘ladi. *Jasadlar ham ana shu savol-o‘yga, umuman, savol bioto‘lqinlariga sozlangan. Bu to‘lqinlar jasadlarga yetib borishi bilan ular tirilib, o‘g‘riga hujumga o‘tishadi. Ularning bittasi jonlansa, bo‘ldi, shu zahoti qolgan yigirmatasini tiriltiradi. Xayr, mayli, bo‘lar ish bo‘ldi, men ularni chalg‘itib turaman, sen qochish payida bo‘l!*

Shu payt haligi kirriklarini qimirlatgan jasad qo‘yilgan shisha tobut qar-sillab o‘rtasidan darz ketdi. Esxonasi chiqib ketgan Boltaboy qimirlashga ham holi etmay, haykaldek qotib turarkan, tobutning bir bo‘lagi to‘kilib tushdi, ayni damda undan achchiq va o‘lguday qo‘lansa tutun burqsib ko‘tarilganini payqadi. Tutun tarqalgach, shisha tobut g‘oyib bo‘lgani, uning parchalari asirlikdan qutulib chiqqan sirli mavjudotning oyoqlari ostida yotganini ko‘rdi. Shu zahoti jasad ko‘zlarini ochib, avval Boltaboyga, so‘ngra qorovulga teshib yuborgudek g‘azab-nok nigoh bilan tikildi. Boyvachchaning borliq vujudini allaqanday ibtidoiy bir dahshat hissi chulg‘adi. Ikkovi ham jon-jahdlari bilan o‘zlarini eshikka otishga intilishar, lekin qandaydir shaytoniy bir kuch oyoqlarini zanjirband qilib qo‘ygan-day edi. Shu chog‘ Boltaboy o‘z hamrohining yuzi qandaydir ma‘nisiz, sovuq bir ifoda kasb etgani, qo‘llari jonsizday osilib tushgani, u bamisoli bo‘g‘ma ilonning joduli nigohiga duch kelgan quyunchaday jasadning istiqboliga qarab yura boshlaganini ko‘rdi. Ana shundan so‘ng yuz bergan voqeadan boyvachchaning oyoqlari akashak bo‘lib, hushi boshidan uchayozdi.

Mozor qorovuli xuddi sehrlanganday o‘rta asrlarda yashab o‘tgan, ayni damda haykalday qotib turgan devday haybatli jangchi sari yurarkan, boshqa shisha tobutlar ham qoq o‘rtasidan qarsillab darz ketib, shishalar to‘kilib tusha boshlagan, bo‘lmani ulardan burqsib chiqayotgan ko‘m-ko‘k va o‘lguday badbo‘y tutun to‘ldirgandi. Mana, O‘ljaboy aka dahshatli mahluq bilan yuzma-yuz keldi-yu... yo falak! – bir sakrab uning tanasiga singib ketdi! Uni o‘ziga «yutib» yuborgan odamxo‘r «dev» shu zahoti jonlanib, oldinga bir qadam tashladi.

O‘takasi yorilayozgan Boltaboyning oyoqlarini zanjirband qilib turgan ko‘zga ko‘rinmas kuch shu ondayoq yo‘qolib, u bir zum ham o‘ylanib o‘tirmay, o‘zini tashqariga otdi.

Qo‘rquvdan es-hushini yo‘qotgan holatda bu Xudo urgan yerto‘ladan yuqoriga olib chiquvchi zinalar sari shataloq otib yugurarkan, orqasidan gumburlagan



og'ir qadam tovushlari qulog'iga chalindi. Ortiga o'girilib qarashga ham yuragi dov bermay, battar jon-poni chiqib, bor ovozi bilan chinqirgancha yanayam tezroq yugurdi. Mana, nihoyat, xaloskor zinalarga ham yetib oldi. Temir eshik ostonasidan hatlab o'tdi-yu, uni bor kuchi bilan berkitdi. Shu ondayoq ichkaridan xuddi Fantomasga o'xshab vahimali do'rillagan kulgu ovozi eshitdi. Bu kinoyali kulgu shaytoniy kuchlar tantanasidan dalolat berayotganday edi.

O'g'rilikni o'ziga kasb-kor qilib olgan Bolta boyvachcha umrida gazet-jurnal o'qimagan, g'irt mahdud yigit emasmi, yarim tunda kechgan bu g'aroyib sarguzashtlarining mohiyatini hayotining oxirigacha anglay olmay o'tadi... Gap shundaki, «Sirli olam» oynomasi yaqinda bir ilmiy maqola chop etgan, unda yozilishicha, o'rta asrlarda alkimyogarlarning inson tanasining bir necha oy yashay olishini ta'minlovchi modda kashf qilishgan, bu tajribalarga rozilik bildirgan odamlarning qoni so'rib olinib, uning o'rniga inson jasadini emirilishdan saqlovchi maxsus suyuqlik modda quyishgan. Bundan odam o'lmagan, o'ziga xos muroqaba holatiga o'tib, letargik uyquga ketgan. Moziy olimlari o'zlari bunyod etgan yagona nusxadagi ilohiy yashm toshini qo'riqlashda, aftidan, ana shunday odamlardan foydalanishgan ko'rinadi.

...Boltaboy sapchib o'rmidan turdi-yu, o'zini yana uyida, katta ayvonda ko'rib, sal ko'ngli taskin topdi. Ikki ukasi ikki tomonida aloq-shaloq dumalab yotishardi. Alanglab yon-veriga tikildi, ajabo: hamma narsa yana joy-joyida, kecha tunda bo'lib o'tgan to's-to'polonning isi ham, izi ham qolmagandi.

«Qorovul chindanam avliyo ekan shekilli?» – xayolidan o'tkazdi u o'ychan qiyofada tashqariga tikilib. G'aflet uyqusidagi bu omi va johil yigit shu bugun shaytonlar va ins-jinslar rahnamosi Uluspirning naq o'zi bilan muloqotda bo'lganini xayoliga keltirishga ham qodir emas edi...

# Tohir Malik

(1946-yilda tugʻilgan)



Tohir Malik (Hobilov Tohir Abdumalikovich) 1946-yil 27-dekabrda Toshkent shahrida tugʻilgan. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi (2000). Oʻzbek fantastikasining asoschilaridan biri. Toshkent universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan (1969). Birinchi yirik asari — «Hikmat afandining oʻlimi» (1972). «Zaharli gʻubor» (1974), «Falak» (1975), «Somon yoʻli elchilari» (1978), «Chorrahada qolgan odamlar» (1982), «Bir koʻcha, bir kecha» (1983), «Alvido, bolalik» (1989), «Soʻnggi oʻq» (1990), «Ov» (1995) kabi ilmiy-fantastik, sarguzasht qissalari mashhur.

«Shaytanat» romani (1-kitob, 1992; 2-kitob, 1995; 3-kitob, 1997; 4-kitob, 2000) yozuvchining yirik asarlaridandir. Asar asosida koʻp seriyali telefilm yaratilgan. «Jinoyatning uzun yoʻli» (2004) ilmiy-tahliliy risolasi, «Mehmon tuygʻular» (2003) nomli xotira, yodnoma, adabiy maqolalar toʻplami ham bor. Uning «Amir Temur davri adabiyoti» (1998), «Varaxsha», «Unvoni inson» (1999), «Sobilsiz dengiz» (2000), «Zulmat saltanati» (2001), «Moshtabib» (2002) ssenariylari asosida hujjatli filmlar ishlangan.

Rus yozuvchisi F. M. Dostoyevskiyning «Maʼsuma» qissasini, shuningdek, jahon adabiyoti namoyandalariining ayrim asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

## TIRIKLIK SUVI

Harbiy xizmatdan qaytgan Rustam ikki oy badalida ham biror ishni ketidan tushmadi. U ishni bunday deb, bu ishni unday deb, dalada ketmon chopishga esa boʻyni yor bermay yurganida qishlogʻiga ilon ovlovchilar qoʻnoq boʻlishdi. Shularning yumushi unga bir oz maʼqul koʻrindi-yu, ertasigayoq qumga chiqib ketdi.

Uch kun tentirashib ilon deganning urugʻini ham uchratisholmadi. Toza xunoblari oshib, soʻnggi barxanni moʻljal qilib chiqishdi. Roʻparalarida koʻm-koʻk maysaga burkangan yalanglikni koʻrib, hayratdan dong qotishdi. Yalanglik oʻrtasidagi quduqqa yaqinlashganlarida Rustam:

- Qurib qolgan quduqlarda ilon ko‘p bo‘ladi, – deb qo‘ydi.
- Rostdan-a, – dedi oq qalpog‘ini qiyshaytirib kiyib olgan past bo‘yli, qaldirg‘och mo‘ylovli yigit uni mazax qilib. – Bir tushib chiqmaysanmi bo‘lmasa? Rustam uning masxaralaganini bilib, burgut qarash qildi.
- Qo‘rqadi, deb o‘ylayapsiz shekilli? Men shu yerlarda o‘sganman. Arqonni bering!
- Shoshilmang, avval dam olvolaylik, – dedi guruhboshi.
- Men charchaganim yo‘q.

Rustamning ahdi qat‘iy ekanini bilib, unga kerakli anjomlarni berishdi. U arqonga osilib pastga tusha boshladi. Chiroq nurini quduq tubiga yo‘llab, kulcha bo‘lib yotgan ilonni ko‘rdi. «Aytmovdimmi? U olifta nimani biladi? O‘zi umrida birorta ilon ushlaganmikin? Hozir shu ilonni olib chiqib basharasiga otaymi! Ikkinchi mayna qilmaydigan bo‘ladi...» Rustam shu xayol bilan asta quduq tubiga tushdi. Nimagadir ilon qimirlamadi. Nahotki, uning sharpasini sezmagani bo‘lsa? Rustam endi ilonga qo‘l yuboraman deganda, bexosdan ko‘zi tinib, oyoq-qo‘lidan jon chiqqanday bo‘ldi. «Havosi yomon ekan, ko‘nikib qolaman», deb o‘yladi u. Ammo ahvoli yaxshilanish o‘rniga battar bo‘ldi. Go‘yo kimdir qulog‘i ostida shivirladi. Nafasi qaytdi. Arqonni tortib, yordam so‘rashga hamrohlaridan uyaldi. Birdan qulog‘i qattiq shang‘illay boshladi. U holsizlanib, devorga suyanib qoldi...

\* \* \*

...Nogahon ko‘tarilgan shamol Gurganjni chang-xasga ko‘may dedi. «Xudovandi karimning bu qahri»dan talvasaga tushgan Xorazm fuqarosi oqshomga yaqin yana bir ofatga ro‘para bo‘ldi – qora bulut yanglig‘ chigirtka yog‘di. So‘ng-ra kulrang bulut osmonni butkul to‘sib, qilt etmay turib oldi. Gurganj ahli havoning dimligidan bo‘g‘ilayozdi.

Husayn xafaqon xastaligiga muhtalo bo‘lgan zodagonga muolaja shartlarini bayon qilar chog‘ida shoh Ma‘mundan chopar keladi. Bevaqt chorlovning boisidan garang hakim saroyda jam bo‘lgan baytulhikma ahlini ko‘rgach, yanada hayratlandi. Chorlaganlar Xorazmshohning hukmiga muntazir turardilar. Davlatpanoh uzoqlamadi. Tillarang to‘n kiyib, zarhal salla o‘ragan shoh Ma‘mun ostonadan ko‘ringani hamon barcha salomga egildi. Shoh hech kimni ko‘rmaganday nigohini o‘zgartirmasdan taxt sari yo‘naldi. Joyiga o‘rnashib olgach, alik nishonasini bildirib, kaftini biroz ko‘tardi. Shundagina ta‘zimdagilar e‘tiborlariga ko‘ra cho‘g‘dan rang olgan gilamlar ustiga chordana qurdilar. Davlatpanohning so‘z aytmoqqa hushi yo‘q edi. U baroq qoshlarini chimirgani holda, ahli fazl-u kamolning<sup>1</sup> har biriga alohida-alohida boqdi. Xorazmshoh bag‘rida nechukdir tashvish bor ekanini fozillar payqagan, shu bois toqat bilan vujudlarini quloqqa aylantirib, bir-birlari bilan pinhona, savolomuz nigoh urishtirib o‘tirar edilar.

Fozillar Xorazm davlatining panohi Abu Abbas Ma‘munning bunday ruhiyatidan nihoyatda kam ogoh bo‘lar edilar. Aksar hollarda, shoh e‘tibori va donishli-

<sup>1</sup> Ahli fazl-u kamol – olim va dono kishilar.

gini namoyon etib, riyoziyot bobidami, yoinki, ilmi nujum xususidami soʻz ochib, fuzalolari bahsga chorlar edi. Bu safar esa barchani hayrat botqogʻiga botirib, soʻz aytmoqqa shoshilmay oʻtiribdi.

Nihoyat, davlatpanoh tomoq qirib, soʻz aytdi, barchaning nigohi taxt sari qaldali.

– Bu tong tangri taoloning yetuk hikmati ila Yaminuddavla va Aminulmilla<sup>1</sup> sulton Mahmud Gʻaznaviy ibn Sabuqtagin nomasi qoʻlimizga yetub keldi. Shu noma bois ahli risolatni yoʻllab, siz moʻtabar donishlarni chorlab kelturdim. Ollohga ming karra shukrlar boʻlsinkim, davlatimning ustuvorini mustahkam etdi. Ahli parxoshning naʼrasidan gʻanimlar titraydi. Fuqaroning nasibasi butun. Tangri taologa shukrlar qilishdan oʻzga yumushim yoʻq. Yana ming bor shukrkim, Olloh ahli ayyom, ahli binish, ahli botin, ahli davron, ahli idrok, ahli fununni Xorazm davlatining panohiga jamuljam etdi. Tangri taolo qudrati bilan Gurganjda baytul-hikma qaror topdi. Ollohga ijobat boʻlgan muammolar bahs etildi. Ollohning inoyati bilan siz muhtaram donishlarni qanotimizga jam qilgan edik. Tangri taoloning yetuk hikmati va toʻliq qudrati ila izmingizni yana oʻzingizga qaytaramiz. Yaminuddavla va Aminulmilla sulton Mahmud Gʻaznaviy ibn Sabuqtagin noma bitib, ahli funun, ahli donishni panohiga chorlayajagini bayon etibdilar. Inshoolloh, allomai zamonlar sulton Mahmud qanotida ham har biri eʼtiboriga monand oʻrin egallagay. Choparga hukmimni ayon etmay turib, siz muhtaram donishlarni nomadan ogoh etmakni, alalxusus, inon-ixtiyorlaringiz oʻzingizda ekanini anglatmakni ixtiyor etdim. Erta namozshomdan soʻng huzurimda yana jamuljam boʻlib, ixtiyorlaringizni bayon etmakka shaylaningiz.

Xorazmshoh shunday deb shaxt bilan oʻrnidan turdi-da, eshikka yoʻnaldi. Soʻzning bu qadar keskin uzilishini kutmagan ahli funun irgʻib turib, taʼzimga chogʻlandi. Soʻng bir-biriga soʻz aytmay, saroyini tark etdi. Chorsuda yoʻllari ayri boʻlgan fozillar turli koʻchalarga kirib, saroydan yiroqlashdilar. Xonalari bir dahada ekani sabab boʻlib, Husayn, Muhammad va Abu Saxl hamrohlikda ketdilar. Bir necha eshik yurdilar hamki, sado chiqarmadilar. Husayn odob yuzasidan Beruniyning soʻz ochishini kutardi. Abu Saxl esa bu ikki allomai zamonning qarorini bilishga oshiqardi. Beruniy xonasiga yetgunga qadar ham ogʻiz ochmadi. Faqat xayrlasha turib, Husaynning savol nazarini uqdi.

– Husayn, inim, mendan hozir javob kutmang. Bir nima demaklikka aqlim qosirlik qilib turibdi.

– Siz buyuk idrok egasi boʻlganingiz holda nahot bizni raqabga aylantirib qoʻyganlarini fahmlamadingiz? – dedi Husayn hayajonini bosolmay.

– Raqabga dedingizmi? Beruniy qoʻlini eshik halqasidan olib, oʻyga toldi. – Inim, fikringizda jon bordek. Biroq, Olloh idrokni allomaning oʻziga, iznini esa davlatpanohga topshirgan ekan, nachora?

– Chora yoʻq deng?

<sup>1</sup>Yaminuddavla va Aminulmilla – davlatning oʻng qoʻli va millat tayanchi.

– Biz davlatpanohning marhamati bilan idrokimizni ro‘yo qila olamiz. Shunday ekan, Gurganjda yashamoq afzalmi yoinki G‘aznada, degan muammo balki bekorchidir?

– Fikringizni qabul etolmaganim uchun aybsitmang. – Husayn shunday deb ta‘zim qilib xayrlashdi-da, yo‘liga ravona bo‘ldi. Abu Saxl unga ergashdi.

Beruniy bu ikki olimning hayajoni va xavotirini anglab, ularning izidan uzoq qarab qoldi.

Husayn yonida hamrohi borligini ham bir on unutib, shahdam odimladi. So‘ng asabiy ravishda Abu Saxlga o‘girildi:

– Nechuk Olloh idrokdan qismagani bois idroksizlarga bir umr qulluqda o‘tmog‘imiz lozim ekan? Axir shams qorong‘ulikning quli emas, yorug‘lik shahshohi-ku?!

– Abu Rayhon haq gapni aytdilar. Qismatimizga shu yozilgan ekan, ilojimiz qancha.

– So‘zingiz fikringizni oshkor qilyapti. Demak, siz ham G‘aznaga borishga rizosiz?

Abu Saxl miyig‘ida kulib, qo‘lini Husaynning yelkasiga tashlab, yo‘l boshladi.

– Siz kabi zukko hakim bu qadar asablarga erk beradi desa, hech kim ishonmaydi.

Husayn shundagina hamrohidan besabab ranjiganini anglab xijolat tortdi.

– Bugungi chorlovning ma‘nisini durust anglamabsiz, – dedi Abu Saxl bosiq ohangda. – Davlatpanoh ham bizdan voz kechishni xush ko‘rmaydilar. Baytul-hikmaga putur yetsa, davlatlaridan nur ketishini fahmlaydilar. Ammo, ilojlari yo‘q. Mahmud G‘aznaviy istagiga qarshi borolmaydilar. Aminulmilla behad qudrat sohibi.

– Ha, balli. Men ham shuni aytaman. Bu yorug‘ dunyo ustuvori idrok emas, qudrat. Qudrat mavjud yerda alloma ham, donishu fozil ham beqadr. Fuqaro esa qaddi dol bo‘lib, ro‘shnolik ko‘rmaydi. Men haq-taologa birovni birovdan kam qilma, deb munojot etaman. Inshoolloh, osmon aylana-aylana bizni shunday kunga ro‘para etar.

– Inshoolloh.

– Birodar, davlatpanoh ixtiyorimizni o‘zimizga bergani bilan, G‘aznaga bor-mog‘imizga majbur etadilar. Abu Rayhon: «Gurganjda makon topdik nima-yu, G‘aznada topdik nima?» dedilar. Menga qolsa ham farqi yo‘q. Magar, men inson bolasiman. Odamiy g‘ururim hamisha bo‘ynimni egik olib yurishimga izn bermaydi. Tuprog‘imga e‘tiqodim osmon qadar. Magar, g‘ururim undan ham ulug‘. Shu bois o‘z yurtimga sig‘madim. Endi, bu yer ham...

– Jurjoniya odillik hukmron, deb eshitaman.

– Husayn Abu Saxlning nima maqsadda bunday deganini anglab, yalt etib unga qaradi. Quloqlariga bir dam ishonmay turdi. Chunki Abu Saxl unga nisbatan

Beruniyga yaqin yurar, ko'p bahslarda Beruniyni yoqlar edi. Endi nima uchundir Beruniy fikriga zid ravishda G'aznaga borishga hushi yo'q ekanini shama qilyapti.

– Fikrim o'zlik qilmasa...

Husaynning so'zi og'zida qoldi. Abu Saxl niyatini oydinlashtirdi:

– Ha, aynan uqdingiz. It kim durust suyak tashlasa ketaveradi. Odamzod unday qilmaydi. Maslahatimga ko'nsangiz, Gurganjdand chiqaylik.

– Ijtinob etmak deysizmi?

– Tun bo'yi tanangizga bir o'ylang. Ma'qul bo'lsa, bomdoddan so'ng kamina-ning kulbalariga tashrif buyuring. Yo'l tadorigini cho'zmaylik...

\* \* \*

...Namozshomdan so'ng Xorazmshoh huzuriga kirgan allomalarning aksari G'aznaga bormoqqa rizo ekanliklarini bildirdilar. Al-Beruniy baytul-hikma ahli orasida Ibn Sino bilan Abu Saxlning yo'qligidan hayron bo'ldi. Saroydan chiqar mahali esa bu ikki allomani sirohlar qurshovida ko'rib, hayrati yanada oshdi.

Sirohlar tutqunlarni shohga ro'para qildilar. Davlatpanoh Ibn Sinoning qattiq-qattiq aytgan gaplarini toqat bilan eshitdi. G'azabdand tutaqsa ham jazoga hukm etmadi. Har ikkovini uylariga qo'yib yuborishni buyurdi. Allomalar bu odillik boisidan garang bo'lib, xonalariga qaytdilar.

Tun yarimlaganda Ibn Sino eshigini kimdir asta taqillatdi. Alloma qo'lga shamdon oldi-da, sarpoychan chiqib, eshikni qiya ochdi. Notanish chehrani ko'rib ajablendi.

– Taqsir, meni davlatpanoh ixtiyori bilan yo'lladilar. Tong bilan safarga chiqib, sizlarni Jurjoniyaga boshlab ketaman. Yo'l jabduqlari hozirlandi. Hamrohingizni ogoh etmagingiz lozim ekan.

Husayn tushimmi-o'ngimmi, deb garangsib turib qoldi. So'ng: «Davlatpanohning so'z aytmagani zamirida shu sir bor ekan-da», deb qo'ydi ko'nglida. Keyin notanish kimsani ichkariga taklif qilib, o'zi shoshib xonaga kirib ketdi.

...Quyosh ko'tarilganda ikki tuya va uch otdan iborat kichik karvon Gurganjdand ancha ilgarilab, tobora sarhadsiz qumlik bag'riga kirib borardi. O'zini Ro'zi-muhammad deb tanitgan rahilko'sh, kamgap odam edi. Allomalarning suhbatiga jimgina quloq tutib, berilgan savollarga qisqagina javob qilib qo'ya qolardi.

Allomalar: «Ishimizni Xudo o'ngladi», deb bejiz quvonishgan ekan. Safarning ikkinchi kuni sahroda quyun ko'tarildi. Go'yo yeru osmon qo'shilib ketdi. Otlar o'zlarini har yon urib, jilovni uzib qochdilar. Yo'lovchilar bir-birovlarini yo'qotib qo'ydilar. Bo'ron tuni bilan tinmadi. Tongga yaqin hammayoq birdan jimib qoldi. Go'yo hech narsa sodir bo'lmaganday, quyosh ohista charaqlab ko'tarildi.

Qumga ko'milayozgan Ibn Sino qaddini tiklab, ust-boshini qoqdi. Atrofga alanglab, hamrohlarini izladi. Tirik jon ko'rinmadi. Ovoz bermoqchi edi, tovush chiqmadi. Tishlari orasida qum g'ijirladi. U tiz cho'kkancha tek turib qoldi. Ibn Sino endi qay tomonga borishni bilolmay garang edi. Kunchiqarni mo'ljal qilib

ketaverishni ham, hamrohlarini izlashni ham bilmasdi. U bir qarorga kelmay, barxan tepasiga ko'tarila boshladi. Shundagina o'zidan o'ttiz qadamlar narida jon sharpasini sezdi. O'sha tomonga yugurib, panjalari bilan qumni ocha boshladi. Holsiz gavdasini rostlayotgan Abu Saxlni tanib bag'riga bosdi, yaratganga shukrlar qildi.

Allomalar kun tikkaga kelgunga qadar ham Ro'zimuhammadni izladilar. So'ng, undan umidlarini uzib, mashriq sari yura boshladilar. Oqshomga borib, sillalari qurib, bir-birlariga suyanib qoldilar. Horigan odamlarga tun salqini xush yoqib, qum yumshoq to'shakday tuyulib, qattiq uyquga berildilar. Tong bilan yana sudralib, yo'lga tushdilar. Birinchi barxanga chiqdilaru hayratdan to'xtab qoldilar: ro'paralarida atrofi barxanlar bilan o'ralgan, yashil maysaga qoplangan kaftdek yalanglik yastanib yotardi. Ikkovlon sarobmikini, deb ko'zlarini uqalashdi. Ko'rganlari haqiqat ekaniga ishonch hosil qilgach, odimlarini tezlatdilar.

Yalanglikning qoq markazi quduq... Quduq yonida ikki ayol yotibdi. Qadam sharpasini eshitgan yoshroq juvon irg'ib turib, yuzini yashirishga harakat qildi. Keksaroq ayol esa qimirlamadi.

– Bizdan hayiqmang, – dedi Ibn Sino ularga yaqinlashar ekan. – Bo'ronda adashib qoldik. Halovatingizni buzmang. Chanqog'imizni bosgach, yo'limizdan qolmaymiz.

Juvon javdiragan ko'zini yerga qadaganicha, qimir etmay turaverdi.

– Volidangiz xastamilar? – deb so'radi Abu Saxl.

Juvon yana indamadi.

Ibn Sino uning fe'lidan hayron bo'lib, bir oz qarab turdi-da, bukchayib yotgan kekxa ayolga yaqinlashib, cho'nqaydi. Kampirning bilagiga qo'l yubordi. Shu zayl uzoq o'tirdi. So'ng, bilakni qo'yib, o'rnidan turdi.

– Yurak urishi bejo. Ko'p alamlarni ichiga yutgan chamamda, – dedi u Abu Saxlga yaqinlashib.

Shundagina yosh juvon tilga kirdi.

– Biz cho'rilarmiz, – dedi-yu, yana lab tishlab jimidi.

– Bu yerga qanday kelib qoldilaring? – deb ajablendi Abu Saxl. – Yo ozodlik istab ijtinob etmakni xayol qildilaringmi?

– Biz... men... u kishi... – juvon so'z topolmay taraddudlandi.

– So'roqqa tutishga fursat yo'q... Muolajani o'ylaylik, – dedi Ibn Sino juvonning og'irini yengil qilib.

– Muolaja? – Abu Saxl kulimsiradi. – Bor-burdimizdan ajralgan bo'lsak, xizriobimiz bormiki...

– Yo'q bo'lsa, bor qilmog'imiz darkor. Xastani tashlab ketolmaymiz-ku! – Abu Saxl e'tiroz bildirishga ulgurmay, Ibn Sino juvonga murojaat qildi. – Bu yalanglik meni taajjubda qoldirdi. Siz ko'pdan beri shu yerdamisiz?

– Yo'q. Bo'ron boshlanishidan oldin qo'qqis chiqib qoldik.

– Bu erda bo'lmadimi?

– Ajab... Ajabtovur bo'ldi. Atrofda girdikapalak to'zon uchdi. Bu yerga xas ham qo'ngani yo'q.

– Ajab... Chindan ham ajabtovur, – Ibn Sino shunday deb quduq yoniga bordi. Pastga qarab ovoz berdi: aks sado chiqdi. Cho'kka tushganicha maysalarni hidladi. So'ng birini yulib olib, Abu Saxlga yaqinlashdi. – Mana bu giyoh baland tog'larda bo'lguvchi edi. Bu yerda o'sishi taajjub. Yurak xastaligiga davo bu. Siz aytgan ihyoyi amvot xizriobni shundan tayyorlash mumkin. Agar biron ilon tuta olsak edi...

– Zahri lozimmi?

– Zahridan ham qoni bilan yog'i lozim. Terisi ham. Xudoyimning bandalari ko'p yillardan beri tiriklik suvini umid qiladilar, rivoyatlar to'qiydilar. Mening nazdimda tiriklik suvini mavjud etmoq mumkin. Biz duch kelgan yer aynan g'ayrioddiy tuyulyapti. Inshoolloh, shu sharoitda niyatimiz ro'yob bo'lsa.

– Inshoolloh.

– Men quduqqa tushaman.

– Nechun?

– Quduq tublarida ilon bo'ladi.

– U holda men tushay. Bolaligimda ko'p ilon tutganman.

Xayriyatki, quduq chetida qaysi bir dono qoldirgan jun arqon bor edi. Abu Saxl belini arqon bilan mahkam bog'lab, pastga tushdi. Ko'p o'tmay quduq tubidan uning «Torting!» degan ovozi keldi. Ibn Sino holdan toyganini ham unutib, bor kuchi bilan arqonni torta boshladi.

Abu Saxl ust-boshi bir ahvolda, o'ng qo'lida yarim quloqli ilonni lapanglatganicha, chiqib keldi.

– Xayriyat, ishimizni Xudo o'ngladi. Shuning o'zi karaxt yotgan ekan, – dedi ilonni hakimga uzatib.

– Picha ushlab turing, – dedi Ibn Sino, so'ng etigini chaqqon yechib, pichoq bilan tagcharmini ko'chirdi. So'ng qo'njini ikkiga bo'lib; dasturxonday yozdi. Tagcharmning bodomday yerini o'yib, chuqurcha qildi. Shundan keyingina ilonning boshini kesdilar. Oqqan qon chuqurchani to'ldirgach, qornini yordilar. Ibn Sino giyohning ildizini kavlab maydaladi. Avval ivib qolgan qonga aralashtirdi, so'ng yoqqa bulab ilon terisiga o'rab qo'ydi.

– Oqshomga qadar oftobda toblanib tursin, – dedi Ibn Sino, so'ng yana kampir yoniga borib, bilagini ushladi.

Osmon musaffo, quyosh charaqlagan bo'lsa-da, yalanglik u qadar issiq emasdi. Ular tashnalik azobidan qutuldilar. Oqshomda Ibn Sino ilon po'stini ochdi. Tayyorlangan dori za'faron tusga kirgan edi.

– Xizriob degan edingiz? – ajabladi Abu Saxl uni ko'rib.

– Ha, bir oz quyuqlashdi. Bizga archazorning buloq suvidan lozim edi. Afsus, magar inshoolloh, bu ham xizriobdan qolishmas. – Ibn Sino shunday deb dorining bir ulushini pichoq uchida ilib olib, juvonga tutdi. – Mana shuni yutsinlar, qoldir-masinlar.



Juvon itoatkorlik bilan kelib, pichoqni dastasidan oldi. Kampirga yaqinlashgach, tiz cho'kib, bir qo'li bilan boshini ko'tardi. Kampir yamланib, dorini yutdi. Ibn Sino dorining qolganini yana ilon po'stiga o'rab qo'ydi.

Bu orada yalanglikka hukmini o'tkaza olmagan quyosh mag'ribga bosh qo'yib, alamdan barxanlar uchini kuydirib yuborish qasdida o't ufurdi. Ammo bu o'tli nafas ham yalanglikka yetib kelmadi. Aksincha, yengil shabada turdi. Atrofga qorong'ilik cho'ka boshladi. To'lin oy ko'tarildi. Shunda kampir o'z-o'zidan qaddini tikladi. Notanish kimsalarni ko'rgach, taajjublanib juvonga qaradi.

– Sizning joningizni so'rab olishdi, – dedi juvon pichirlab.

Kampirning turganini bilib allomalar unga yaqinlashib, salom berishdi.

– Mana shu zotni duo qiling, – dedi Abu Saxl Ibn Sinoni ko'rsatib. – Sizga xizriob bergan odam shu Abu Ali ibn Sino degan allomai zamonni eshitganingiz bormi?

– Biz bu dunyoda faqat to'ramnigina bilamiz. Bo'lak zotlarni eshitmaymiz, – dedi kampir siniq ovozd.

Ibn Sino izn so'rab, uning bilagini ushladi. So'ng, «Xudoga shukr» deb o'rnidan turdi.

– Taxminim ijobat bo'ldi. Tiriklik suvini xuddi shu yerda tayyorlamoq kerak, – dedi u Abu Saxlga. Keyin kampirga yuzlandi: – Bilishimcha, cho'ri ekansiz?

– Ollohdan yashiradigan sirimiz yo'q. Qochib ketyapmiz. Ammo sababini so'ramang.

– Qay tomonga borishni niyat qilgansiz?

– Olloh nasib etgan tomonga.

– Tongda biz Jurjoniya sari o'tlanamiz. Ma'qul ko'rsangiz, qanotimizga olamiz.

– Marhamatlaringizga shukr. Biz taqdirimizni Xudoga topshirganmiz. Yo'limiz bo'lak.

Kampir boshqa so'z aytmadi.

To'lin oy tikkaga keldi. Ayollar quduqning bir tomonida, allomalar ikkinchi tomonida pinakka ketdilar. Ibn Sino bir tush ko'rdi. Ko'z oldida avval xushro'y qiz namoyon bo'ldi. So'ng qizni bandi qilib haydadilar. Qora soqol, badbashara odam qizni bag'riga oldi. Keyin sahro... Hududsiz sahroda ikki ayol. Biri o'sha xushro'y qiz. Yo'q, endi u qiz emas, homilador ayol. Biri o'rta yosh, yelkador xotin. Homilador ayol qumga cho'zilib qoldi. Ko'zi yoridi. Yelkador xotin uni turg'izib nari boshladi. Ona bolasiga talpindi. Ammo yelkador xotinning zarbi bilan yiqildi. Keyin yelkador xotin chaqaloq ustiga qum sepa ketdi. Ibn Sinoning yuragi hapriqib uyg'ondi. Kalima keltirdi. O'rnidan turib atrofga alangladi. Keyin yana joyiga cho'zildi. Ko'zi ilindi. Yana tush ko'rdi. Yana sahro. Yana ikki ayol. Biri kampir. Kim u? Tiriklik suvidan bahra olgan kampir-ku?! Hamrohi... Ha, shu juvon. Ajab! Nimalar bo'lyapti! Juvon homilador. Ana, ko'zi yoridi. Endi kampir go'dakka qum sepadi... Evoh! Yo'q. Bunday bo'lmadi. Kampir chaqaloqni qo'lga oldi. Suyub ko'kragiga bosdi... Kimdir ingradi. Yana ingradi. Ibn Sino uyg'onib

ketdi. Ingrayotgan Abu Saxl ekan. Nima bo'ldi, xastalandimikan? Ibn Sino uning bilagini ushladi. Yo'q, xastalik ishorasi sezilmadi. Noxush tush ko'rayotgan bo'lsa ehtimol. Ibn Sinoning uyquasi uchib, o'rnidan turdi.

– Uyqungiz uchdimi, to'ram?

Ibn Sino kampirning xasta ovozi eshitib, unga o'girildi.

– Ha... O'zingiz-chi, yana xastalik azob berdimi?

– Yo'q, to'ram, tanamga jon bilan quvvat ham oqib kirdi.

– Unda nimaga uxlamayapsiz?

– Xudoga shukr qilib yotibman.

– O'zgalardan sir yashirish Xudoga xush yoqmaydi. Nima uchun bosh olib ketish boisini aytmadingiz?

– Bu bandalar biladigan sir emas.

– Ammo men barisini bilaman. Siz ulug' gunohga qo'l urgansiz. Begunohlarni tiriklay qumga ko'mgansiz.

– Yo'q! – ayolning bag'ridan otilib chiqqan faryod qumliklarga singdi. Juvon cho'chib uyg'ondi.

– Yo'q, – dedi kampir, bu safar pichirlab, – Xudo shohid, men bunday qilmadim. – Kampir piqillab yig'lay boshladi. Juvon uni bag'riga oldi. – Xudo shohid. Men bunday qilmadim... Avliyo ekansiz, sirimni bilibsiz, ammo men bunday qilmadim... Men olti bola ko'rdim. Oltovloni shu qumda qolgan. To'ramning hukmi bilan cho'rilardan zurriyot qolmas edi... Oltovlonim qumda... O'zim ham qumda qolishim kerak. Zarinani olib ketinglar, to'ram. Avliyo ekansiz, bu juvonning dardi ichida, bolasini Xudoyim ko'p ko'rdi. Oltovlonim qumda qolgan. Qariganimda to'ram gunohga botirmoqchi bo'ldi. Yalmog'izni egam chaqirgan edi. Zarinaga doyalik qilishni menga yukladi. E, Xudoyim, qaysi gunohlarim uchun meni bu jazolarga mustahiq etding. Oltovlonim qumda qolsa-yu, yana men birovning bolasini tiriklay ko'msam-a?! Yo Xudoyim, menga shuni ravo ko'rdingmi, a?! Oltovlonim chaqirayotgan edi, to'ram, nimaga menga xizriob berdingiz, to'ram, avliyo ekansiz...

Ayolning nolalarini to'xtatib bo'lmadi. Tongga qadar uning ko'z yoshi ham oqib quridi.

Saharda Abu Saxl ilon po'stiga o'ralgan «tiriklik suvi»ni quduq tubiga qo'yib chiqdi.

Zarina kampirni yolg'iz tashlashga unamadi.

Ibn Sino va Abu Saxl Jurjoniyaning qoralab, yo'lga tushdilar. O'lar holda bo'lib qolgan allomalarni Jurjoniya sarhadlariga yaqin yerda karvon qutqarib oldi.

Jurjoniya podshohi allomalarga lutflar ko'rsatdi. Ibn Sino quvvatga kirgach, podshoh ko'magida kichik karvon tuzib, ajabtovur yalanglik sari yurdi. Ammo qancha izlamasin, na quduqni, na yalanglikni topdi. U ko'p afsuslar bilan iziga qaytdi. Tib qonunlariga tartib berar mahalida bu voqeani afsus bilan eslab, o'chirib tashladi.

Alloma sahodagi jonlanishdan, har uch yuz yilda bir marta yalanglik yuz ochishidan bexabar o'tdi...

\* \* \*

Rustamning qulog'i shang'illashdan to'xtab, bir oz o'ziga keldi. Chiroq nuri ni kulcha bo'lib yotgan ilonga tutdi. Ilon qimir etmadi. Rustam chaqqonlik bilan uning bo'ynidan ushlab dast ko'tardi. Shunda ham ilonda tiriklik belgisi sezilmadi. Birdan Rustamning ko'zi ilon kulcha bo'lib yotgan yerdagi mushtday narsaga tushdi. Ilonni o'lik gumon qilib tashlab yubordi-da, engashib qaradi. Ilon po'sti. Kimdir hafsalasi bilan nimanidir o'rab qo'ygan. Rustam qiziqib uni oldi. Po'st ham, ichidagi narsa ham qurib, qog'oz kuliday bo'lib qolgan edi. Qo'liga olishi bilan to'zib ketdi. Hafsalasi pir bo'lgan Rustam qo'lini qoqdi, arqonga tirmashib yuqoriga chiqq boshladi. Chiqar mahali ilonning qimirlaganini, hozirgina to'zigan narsaga tilini tekkizganini sezmedi.

– Hech narsa yo'q, – dedi yuqorida u loqaydgina. – Bitta ilon o'lib yotibdi, xolos.

– Balki karaxtdir?

– Nima, men o'lik ilonni ko'rmaganmanmi? – dedi Rustam. Ammo quduq tubida o'zidan ketay deganini aytmadi. Unga boshqa gapirishmadi. Shu yerda chodir tikishdi. Oqshomga yaqin quduq bo'yida tranzistor eshitib yotgan Rustam baqirib yuboray dedi. Hali tortib olinmagan arqonga o'ralib chiqayotgan ilon esa unga baqrayib qarab qoldi...

# Qamchibek

## Kenja

(1946-yilda tugʻilgan)



Qamchibek Kenja 1946-yil 15-avgustda Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi Gurkurov qishlogʻida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi. ToshDUning filologiya fakultetini tugatgan (1969). Dastlabki sheʼriy toʻplami — «Sogʻinch» (1975). Yozuvchining «Yashil barg» degan birinchi hikoyalar toʻplami esa 1977-yilda nashr etilgan. «Koʻngil koʻchalar» (1979), «Ishqning tushsa» (1981), «Orzmandlar» (1982), «Notanish gul» (1986), «Togʻ yoʻlida bir oqshom» (1987), «Sohildagi suv parisi» (1993), «Qizil gullar» (1995), «Sohibjamol ayol siri» (1996), «Kulgibaxsh umr» (1997), «Boburiylardan biri» (2000), «Baxt qushi yoki ushalgan orzular» (2001), «Xamir uchidan patir yoxud kulcha hikoyalar» (2005), «Saylanma» (1-kitob, 2006) kabi nasriy va sheʼriy asarlar muallifi. Safarnomalar yozgan («Hind sorigʻa», «Buyuklar izidan» va boshqa).

A. S. Pushkin, X. Xeyne, Sh. Petefi, V. Bryusov, M. Svetlov kabi shoirlarning asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

### BALIQ OVI

Men birinchi sinfga qatnardim. Akam yettinchida oʻqirdi. Qishlogʻimizdan narida poyonsiz toʻqay boʻlib, hali zovurlar qazilmagan, zaxob suvlar quritilmagandi. Katta-kichik buloqlarda, ayniqsa, Damariqda (damlanib oqqani uchun shunday deyishardi) baliq moʻl edi. Suv koʻpayganda hatto toʻqay ichidagi sholiroyalarga ham baliq chiqib qolardi. Toʻqay goʻyo qishloq ahliga tabiatning muruvvati, inʼomi edi. Har shanba va yakshanba kunlar bu yerga oʻsmirlaru yigitlar toʻlib ketardi. Kim qarmoq koʻtargan, kim toʻr sudragan...

Otam kolxozda xoʻjalik mudiri edi. Uyimizga tez-tez mehmon kelib turardi. Har safar har xil kishilar: oriq, semiz, novcha, pakana, moʻylovli, moʻylovsiz...

Ularning ko'pini tanimasam-da, o'zimdagi yo'q sevinib ketardim. Chunki mehmon kelsa, akam ikkimiz albatta, to'qayga jo'nardik. Men akamning baliq ovlashini ko'rishga ishqiboz edim. Bu sohada u ustasi farang edi. To'rdayam, sanchiqdayam baliq tutib, bir zumda paqirni to'ldirardi. Hech narsadan, ilondan ham qo'rqmasdi. Ilon ko'rdimi, tamom, uni dumidan ushlab, aylantirib-aylantirib otib yubormaguncha ko'ngli joyiga tushmasdi.

Mehmonlar odatda uchta-to'rtta bo'lib kelishardi. Faqat bir kishi hamisha otam bilan kirardi. Faqat shu odamgina menga yoqmasdi. Gavdasi beso'naqay, rangi sovuq, chaqchaygan ko'zlariga qarashga yuragim dov bermasdi. Mo'ylovi ham boshqalarnikiga o'xshamas, labining ikki chetida osilib turardi. U menga dag'al ovozdagi: «Ha, Qoravoy, yuribsanmi!», deb qo'yar, peshonamga tushgan kalta sochimni qo'yning junini chamalab ko'rganday g'ijimlab, erkalagan bo'lardi. Boshim zirqirab, ko'zlarimdan yosh chiqib ketay derdi. Lekin sir boy bermay, gapiga ham javob qaytarmay, yerga qarab turaverardim. Keyin u qizlarning mayda sochiday ingichka o'rilgan va uchi chachala qilib tugilgan qamchisini «Ma!» deb uzatardi. Men uni ayvon ustunidagi mixga ilib qo'yardim. Baliqdan keyin palov ham yeyilib bo'lgach, u meni chaqirardi: «Qoravoy, qani, qamchini opkechi». U panjalari orasidan sizib tushayotgan yog'ni qamchin dastasiga surtib-surtib, yana menga qaytarib bergach, kaftini charm etigining qo'njiga ishqalay boshlardi. So'ng tovoqqa choy quyardi-da, aylantirib-aylantirib, xo'rda ichganday xo'rillatib simirib yuborardi. Hammasidan ham uning baliq yeyishini tomosha qiladigan edi. U baliqni ko'p va juda tez oshar, biroq kam nishxo'rd chiqarardi. Nima balo, qiltanog'ini ham yutib yuborarmikin, deb hayron bo'lardim. Luqmani yutayotganida, kekirganida hiqildog'i o'ynab turar, uchi ingichka va uzun mo'ylovlari og'ziga kirib ketar, lekin u chaynashdan to'xtamagan holda bosh barmog'i bilan chiqarib qo'yardi.

Dasturxonga fотиha o'qishgach, otam: «Qani, Komronbek!» derdi. Mehmonning orqamdan: «Shu o'g'lingiz epchil, chaqqon, uloqqa tushadigan yigit bo'ladi-da», deganini eshitib, qadamimni tezlatardim. Darvozaxonamiz ustuniga bog'langan otning egari qoshiga ilig'lik qora, yiltiroq korzinkani bir sakrashda olib, zum o'tmay otamga yetkazardim. Otam unga pishirilmasdan olib qo'yilgan baliqlarni qog'ozga o'rab solib qo'yardi. Men esam qamchini olib, g'izillaganimcha otni ko'chaga yetaklab chiqib ushlab turardim.

Akamni-ku, uni ko'rishga ko'zi yo'q edi-ya, hatto opam ham: «Yana kepti baliqxo'r kishi» deb ming'irlardi. O'choqboshidan jilmaydigan onam xursandmi yo xafami – bilolmasdim, to'g'risi, endi eslasam qiziqmagan ekanman. Faqat bir marta opam tandirga o't qo'yayotganida, uning: «Qovog'ingni och, Salomat, otang sezib qolsa, dilingni siyoh qiladi», degani qulog'imga chalingan.

«Baliqxo'r» biznikiga oxirgi safar kelganida erta bahor edi. O'sha yili qattiq bo'lgan qishning hali zahri ketmagandi. «Baliqxo'r» birinchi marta ko'pchilik bilan keldi. Sheriklari ham o'ziga o'xshagan qorindor-qorindoru faqat mo'ylovlari yo'q edi.

Otam mehmonlarni katta uyga o'tqazib, hammamiz tiqilib o'tirgan dahlizga qaytib chiqdi-da, past ovozda ish taqsimlay ketdi:

– Onasi, darrov suyuq oshga urin, qo'y yog'idan ko'proq to'g'ramchilab, jaz-la. Salomat, baland so'ridagi uzum, anordan olib tush, qovundanam, eski chak-monga o'rab qo'yanman. Keyin qo'shnilardan qatiq top, ko'proq. Bo'la qol, oyog'ingni qo'lingga ol. Komil, ukangni boshla to'qayga. Jonliroq tutib kelinglar. Sudralmay, ildamroq qimirla.

Akam angrayib otamga, keyin ko'zlarini mo'tiratib onamga qaradi.

– Shunday sovuqda-ya... – onam akamdan ko'z uzmay, yurak yutib, ammo jur'atsizgina shunday dedi.

– Hech narsa qilmaydi, to'rda ovlashadi. Ataylab baliqxo'rlikka kelishgan. Qani, noningni opke, choyni tezlashtir. – Otam onamning oldiga bordi-da, uning qulog'iga bir narsalar deb shivirladi. Bu gap onamga yoqmadi shekilli, peshona-sini tirishtirdi.

Akam hamon joyidan qimir etmas, ko'zlarini o'choqda guvillab yonayotgan olovga qadaganicha kirrik qoqmay turardi. O'sha paytda uning xayolidan nima-lar kechgani menga hozircha qorong'i. Katta uyga kirib ketayotgan otam qo'lini eshik tutqichiga uzatgancha to'xtab qoldi, kifti osha akamga qaradi va ancha sil-liqlashgan tovushda: «Issiqroq kiyinvol, o'g'lim...», dedi-yu, shaxt bilan tutqichga yopishdi. Lekin ichkaridan eshikni ohista va zich yopdi.

Choygumdan choynakka qaynoq suv quyayotgan onam: «Sal kun iliganda kelishsayam bo'lardi, to'qayga o't tushib, baliq qirilib ketmasidi», deb g'udrandi. Keyin u bizga zo'rlab ikki piyoladan issiq choy ichirdi, qalin kiyintirdi.

To'g'risi, shu paytda baliq oviga mening ham hech-hech tobim yo'q edi. Akam yo'ldagi tosh-kesaklarni jahl bilan tepib ketar, o'zicha to'ng'illar, men qu-nishgancha uning orqasidan indamay to'r sudrab borardim.

Ariqlarning bo'ylarida, marzalarda ko'klam nishonasi – yalpiplar bodroq-bod-roq bo'lib una boshlagan, baqalarning «vaq-vaq»i avjida. Chimzorlardagi kuzda o't qo'yib kuydirilgan ajriqlarning tomirlaridan chiqqan yangi, yashil barra giyoh-lar yer bag'ridagi hayotning qaytadan jonlanganidan dalolat berardi. So'ppaygan qovjiroq qamishlar izg'irinli bahor shamolida bir-biriga urilib noxush ovoz tara-tardi. Ikki labi ko'karib qolgan Damariq hali hech kim va hech nima loyqalatib ulgurmagani uchun tir-tiniq, bilinar-bilinmas, mayin chayqalib yotardi. Suv ostida onda-sonda mayda baliqchalar ko'zga tashlanib qolardi.

Akam Damariqning torroq joyiga to'r soldi. Men ariqning quyirog'iga borib, uzun kaltak bilan baliqlarni to'r tomon hayday boshladim. Suv bir zumda qop-qo-ra bo'tanaga aylandi. Akam to'rni ko'tardi. Havoda bir necha mayda chavaq yalt-yult etdi-yu, suvga tushib ketdi. Qaytadan to'r soldik. Bu safar biron tayam ilin-madi.

– Hali baliqlar kamaridan chiqmapti, – dedi akam po'ng'illab.

– Endi nima bo'ladi?

– Nima bo'lardi, kamarga tushaman-da.

– Sovug‘-u, aka!

– Nima qilaman! Baliq topib borish kerak bari bir.

Akam otamning gapini ikki qilmas, boshlagan ishini albatta oxiriga yetkazardi. «Falon narsa bitmay qoldi» yo «yo‘q ekan», deganini bilmayman.

Yana bir marta urinib ko‘rganimizdan keyin akam to‘rni qo‘riqqa otib yuborib, yechina boshladi. Akamga Damariqdagi, umuman, to‘qayning hamma buloq va ariqlaridagi baliq kamarlari besh qo‘lday ma‘lum edi. U Damariqning chuqurroq joyini, baliqning kamarini mo‘ljallab sho‘ng‘idi. Suv tiniq bo‘lgani uchun uning harakatlari aniq ko‘rinardi. To‘g‘ri borib po‘sti qolmagan, suv yalab o‘tayotgan tol to‘nkasi tagiga qo‘l suqdi. Amfibiya odamday suv ostida har zamonada oyoqlarini siltab, muallaq holda ancha turib qoldi, keyin orqasiga tisarilib, suv betiga otilib chiqdi. Uning ikki qo‘lida bir yarim-ikki qarich keladigan ikkita zog‘ora baliq tirichilardi. Akam ularni qirg‘oqqa irg‘itib yana sho‘ng‘idi. Keyin yana... Aftidan, ulgurji baliq topib olganidan u o‘zida yo‘q xursand, sovuqni ham unutgan edi. U har gal baliqni menga tashlayotib: «Nechta bo‘ldi?» – deb so‘rardi-yu, lekin javob kutmay sho‘ng‘ib ketardi. O‘n beshtagga borganda akam suvdan chiqdi. Badani qorda ishqalanganday qir-qizarib ketgan, dag‘-dag‘ qaltirar, tishlari bir-biriga tegib takillardi.

Uyga yetguncha yugurgilab keldik. Akam dahlizga kirdi-yu, o‘zini sandalga urdi. Onam: «Bechora bolam-ey», deb uning yuzlarini, ko‘kraklarini, qo‘llarini ishqaladi, issiq choy ichirdi, ustiga yakandozlardan tashladi, sandalga yana ikki xokandoz cho‘g‘ soldi. Akam: «Sovqotyapman, junjikib ketyapman», deb bir oz yotdi-yu, uxlab qoldi.

Baliqni opam ikkalamiz ayvonda tozalab berib turdik, onam qovurishga tushdi. Otam tayyor bo‘lganini peshma-pesh ichkariga olib kirib ketardi. Mehmonlar juda xursand: xoxolashar, ayniqsa, «baliqxo‘r»ning kulgisi momoguldirakday uyning derazalarini zirillatib yuborardi.

– Mana, Bo‘ronbekning o‘g‘li qishda muz teshib bo‘lsayam baliq tutib beradi, demadimmi sizlarga!

– Otasining o‘g‘li-da. Tanti, ulfat odamning farzandi-da.

– Ha, hamma gap otasida.

Qiziq gap bo‘lmasa ham qiyqiriq, kulgi ko‘tarildi.

– Mana endi bundan buyog‘i baliq sayli, – yana «baliqxo‘r»ning ovozi eshiltildi. – Qachon desanglar kelaveramiz. Birodarimizning eshigi hamisha ochiq. Biz eski qadrdonmiz.

Mehmonlar qorong‘i tushganda qo‘zg‘alishdi.

Eshik ochilib, ostonada «baliqxo‘r» ko‘rindi. U chayqalib ketishdan ehtiyot bo‘lganday, qulochini kerib, ikki qo‘li bilan eshik kesakilaridan ushlab olgandi. Uning pashsha qo‘nsa sirg‘alib ketadigan silliq boshida ter yaltirar, go‘shtdor, qora yuzlari cho‘g‘day qizarib, ko‘zlarining oqi jigarrang tusga kira boshlagandi.

– Kelin! Rahmat... Ammo-lekin oshni qiyvoribsiz. Bu... bizi qahramon ko‘rinmaydi?.. Iye, uxlab qopti-da, xah, mayli, damini olsin.

U ohista qadam tashlab sandal yoniga keldi. Engashmoqchi bo'lgandi, qorni xalaqit berdi. Amallab qo'lini akamning jag'iga yetkazib, erkalagan bo'ldi:

– Shavvoz yigit, botir yigit... O'g'ildan bergan-da, sizlarga... Mana shu Komilbek bor deb kelamiz-da, biz... Yashavorsin, azamat. Baliqni zo'ridan tutibdi. Maza qildik...

Mehmonlardan biri uni yengidan tortib tashqariga yetakladi.

Bu paytda onam o'choq oldida boshini xam qilganicha yuzini yarim yashirib o'tirar, otam esa pishirmay olib qo'yilgan baliqlarni qora korzinkaga joylash bilan ovora edi.

Mehmonlar bir-birlarini qo'ltiqdashib ko'cha tomon yurishdi. Pichan yeyayotgan otlarini timirskilanib yechishdi-da, suvlig'ini ham solmay egarga yopishishdi. Otlarning «taqa-tuq»i anchagacha eshutilib turdi.

Qaytib kirganimda uyning derazalari lang ochiq, onam og'zini doka ro'mol bilan to'sib olib dasturxonni yig'ishtirardi.

– Komron, manavi savil qolg'ur shishalarni yo'qot ko'zimdan nariroqqa...

Xona dimiqib, papiros tutunlari shiftning to'sinlari orasida siyrak bulutga o'xshab suzib yurar, taxir, qo'lansa ta'mlar, baliq hidi, nos isi aralash-quralash bo'lib ketgandi.

Uyni tozalab bo'lib, pechkani qaytadan yoqdik-da, uning yaqiniga joy qilib, akamni uyg'otdik. Onam: «Tur, tur, o'g'lim, ichkariga joy solib qo'ydim, issiqqina, kirib yot», deb elanar, akam bo'lsa, uning gaplarini eshitmaganday nuqul: «A, a? Nima?» – derdi. Xullas, uni bir amallab turg'azdik. Lekin u karaxt odamday joyidan jilmas, qovoqlarini zo'rlik bilan kerib, endi ochay deganida ko'zlari yangi kitobning varag'iday qayta yumilib ketardi. Onam uni tirsagidan tutib ichkariga boshladi. Akam o'ringa kirdi-yu, ustiga ko'rpani tortdi. Onamning: «Choy ichib olmaysanmi, ovqat yesang-chi», degan iltijolari javobsiz qoldi.

Otam mehmonlarni kuzatib qaytganida biz hammamiz akamning boshida o'tirardik. Onam uni ko'rdi-yu, tutaqib ketdi:

– Qaysi go'rda qoldingiz? Yo'q yerdan baliq topib siylaganingiz ham yetardi-yu, uylarigacha oborib qo'ymasangiz nima?! Bola qiynalib ketdi. Duxtir topib kelish kerak!..

Qamchini etigiga «chars-chars» urib kelayotgan otamning tabassumi ko'zlari-ning ikki chetidagi jiyaklarida, ajinlari orasida va kirriklarida qotib qoldi. U to'xtab, onamga o'qrayib tikildi, lekin birdan ko'zlari nursizlanib, rangi oqarib ketdi. Shitob kelib akamning yoniga cho'nqaydi-da, kaftini uning manglayiga qo'ydi:

– Komil! Komiljon!

Akam javob bermadi. U qisqa-qisqa, ammo tez-tez va qattiq-qattiq nafas olardi. Otam onamga yuzlandi:

– Ovqat-povqat yedimi?

– Tuz tatigani yo'q bolam sho'rlik, – javob berdi onam yig'lamsirab.

Otam chiqib ketdi. Ko'chada ot tuyoqlarining tasir-tusuri eshitildi.



Opam akamning oyoqlarini uqalab, piqillab yig'lar, onam esa, uning peshonasiga oq durrachani qayta-qayta ho'llab bosar, men nima qilishimni bilmay, bir chekkada ularning xatti-harakatini, akamning holatini kuzatib o'tirardim. Onam har zamonda: «Voy, onaginang o'rgilsin-ey, voy tomog'ingga qiltanoq tiqilgurlar-ey, biror safar baliq yemay ketishsa nima qilardi-ya! Badani yonyapti buning, qo'lni kuydiradi-ya», deb uf tortar, akam bo'lsa alahlardi: «Topdim! Baliqning konini topdim!.. OI! Ushla, suvga tushib ketmasin!.. Nechta bo'ldi! Hozir, hozir chiqaman...»

Qachon, qanday uxlab qolganimni bilmayman. Ertalab tursam, akam endi tinchib, orom olayotgan ekan. Kechasi doktor kelib ukol qilirti, xavfli emas, sal sovuq o'tibdi xolos, deb ketibdi. Chindan ham akamning isitmasi pasaydi. Hammamiz uning atrofida parvona edik. Ayniqsa, otam uning oldidan bir qadam ham jilmadi desam bo'ladi. O'zi majburlab ozgina sholg'om sho'rva, qatiq ichirdi. Bir-ikki marta kirriklarida nimadir yiltillaganini ko'rib qoldim. Hammasidan ham opam ikkimizni «siz»lagani g'alati tuyulardi menga. G'ayrati ichiga sig'maydigan, chapdast va jangari odam bir kecha-kunduzda cho'kib, xasta, siniq qariyaga aylanib qolganga o'xshardi.

Onam bo'lsa, qovog'ini ochmas, har zamonda o'zicha g'udranib qo'yardi:

– Kelin bo'lib shu uyni ostonasini bosibmanki, mehmon ustiga mehmon. Yana hammasi yemakxo'r...

Otam endi onamga tarsaki tortib yuboradi, deb yuragimni hovuchlab turardim. Chunki u onamning tiliga bunaqa erk berib yuborishiga ko'nikkan emasdi. Lekin otam miq etmas, gunohkor bola, bechora odamday iltijoli, ilinjli nigohini akamdan uzmay, mo'ltillab o'tirardi.

Akam kunduzi tez-tez bezovtalanib yotdi-yu, kechga borib isitmasi yana ko'tarilib ketdi. U o'qtin-o'qtin qaltirab-titrar, lablari pipirab uchib-uchib qo'yar, tilini chapillatib tamshanardi. Alahsirash kuchaydi. Uzuq-yuluq gaplaridan xuddi nimanidir quvlayotganday, kimdandir najot kutib, madad so'rayotganday bo'lardi. Yarim kechaga borganda tinchib uxlab qoldi. Shundan keyin biz ham yotdik.

Qattiq dod-voydan uyg'onib ketdim. Onam bilan opam akamning ustiga yotib olishganicha ho'ngrab yig'lashar, otam bir qo'lida akamning engagini ushlab, ikkinchi qo'li bilan hadeb uning qovoqlarini silar, «hiq-hiq» qilganida yelkalari titrab, ikki yuzidan shovillab yosh quyilardi. Men avvaliga hech narsaga tushunmay, angrayib qarab qoldim. Menga birdan ko'zi tushgan opam kela solib quchoqlab oldi.

– Yig'la, ukajon. Nimaga qarab turibsan? Yig'la, akamizdan ayrilib qoldik...

O'sha paytda o'lim haqidagi tasavvurim hali uzuq-yuluq, xira va tumanli edi. Xayolimga birinchi kelgan narsa shu bo'ldi: «Endi akam yo'q, u biz bilan o'ynamaydi, baliq ovlagani bormaydi! Bolalar endi akasi yo'q deb yakalashadi meni!...»

Men akamning tepasiga o'zimni tashladim. Muk tushganicha, tushunibmi, tushunmaymi uzoq yig'ladim. O'zimni tutolmasdim, nimadir meni yig'lashga

majbur qilardi. Lekin bari bir bola edim-da. Bir ozdan so'ng akam esimdan chiqdi. Hovlimizga kirayotgan odamlarning ko'pligini ko'rib og'zim ochilardi. Hatto to'yimda ham buncha odam kelganmas, deb o'ylardim o'zimcha.

Otam gangib qolganday, kim gapirsa o'shaning og'ziga qarardi. U nuqul meni bag'riga bosar, yonidan jildirmas, oldin hech qilmagan mehribonchiliklarni qilardi.

Biz otam bilan darvozaxonamizda turardik. Ba'zilar otamni quchoqlab yig'lashar, bиров so'rashib, boshqasi bosh qimirlatgancha indamay hovliga o'tib ketardi. Odamlarga oq durra, sovun ulashib yurgan Sadir amakim har zamonda kelib, otam bilan pichirlashib ketardi.

Bir mahal kelayotganlar orasida «baliqxo'r» ko'rinib qoldi. Men uni onam qarg'agandan keyin juda yomon ko'rib qolgan edim. U menga e'tibor ham bermadi. «Bandachilik...» dedi-da, otamning oldida bir zum to'xtab, hovli tomon yurdi.

Kechga tomon hovlimizda odam siyraklashdi. Lekin onam bilan opam hamon yig'idan to'xtashmasdi. Men esam zerikardim. Bolalar yo'q, kattalar o'zlari bilan o'zlari, men bilan bironing ishi bo'lmay qolgandi. Biron o'yin topib o'ynamoqchi bo'lardimu, lekin qo'lim bormasdi, ko'nglimga qil sig'masdi. Dovdirab baland so'riga chiqib, to'r yog'ochni ko'rib qoldim. Pastga olib tushdim-da, alamimni shundan olmoqchi bo'lganday bolta bilan mayda-mayda qilib, tandir yoniga uloqtirib tashladim. Tandirga o't qo'yayotgan opam hiqillab-hiqillab uni yoqib yubordi.

O'shandan keyin bir qancha vaqtgacha uyimizda kulgi eshitilmadi. Men bolalar bilan kam urishadigan, bиров qattiq gapirsa bo'ynimni qisib, yerga qarab tura-veradigan bo'lib qoldim. Chunki endi yonimni oladigan akam yo'q edi...

To'qayga ham qaytib bormadim. O'rtoqlarim zo'rlab sudrashsa ham qadam bosmadim.

Oradan ko'p o'tmay otam bizni shaharga ko'chirib keldi. Albatta, hammamiz, ayniqsa, onam, hatto otamning o'zi uchun ham qishloqni tark etish qiyin bo'ldi. Tug'ilgan, unib-o'sgan joyni tashlab, to'yda ham, azada ham har doim birga bo'lgan, ba'zida bitta nonni baham ko'rgan qo'shnilardan, qarindosh, yoru birodarlardan uzoqlashib, notanish odamlar orasiga ketish kimga ham oson deysiz. Otamning biron kasbi yo hunari ham yo'q edi. Shaharda esa, hunarsiz yashash amrimahol. Otam shuni o'ylab, bir oz ikkilandi-yu, keyin nima bo'lsa bo'ldi, boshga tushganini ko'z ko'rar, deb gapni kesdi.

Qishlog'imizni tez-tez ko'rgim kelib qoladi, birga o'sgan o'rtoqlarimni judayam sog'inaman, lekin oyog'im tortmaydi, yuragim ham betlamaydi.

# Shodmon Otabek

(1946-yilda tugʻilgan)



Shodmon Otabek 1946-yil Andijon viloyatining Shirmonbuloq qishlogʻida tugʻilgan. Mirzo Ulugʻbek nomidagi Milliy universitetni bitirgan (1969). Respublika radiosida, Oʻzbekiston Milliy kinokompaniyasida, Toshkent madaniyat institutida, «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati» gazetasida xizmat qilgan. «Xabar» gazetasida bosh muharrir (1992 – 2003). «Mirzakalon Ismoiliiy» (1978), «Yaproqdagi nur» (1979), «Odamiylik sinovlari» (1986), «Eng baxtli kun», «Qorboʻron», (2009), «Shaxmat abadiydir» (1990), «Shirmonbuloq oqshomlari» (1995), «Mirzakalon Ismoiliiy saboqlari» (2010) kitoblari, shuningdek, «Yaxshi kunlarda koʻrishaylik», «Birkam dunyo» qissalari chop etilgan. «Doʻrmon hangomalari» kitobi mashhur. U L. Tolstoy, M. Zoshchenko, V. Shukshin, B. Sarnov, Y. Gik, A. Nesin asarlarini oʻzbek tiliga oʻgʻirgan. Asarlari rus, ukrain, qozoq, turk tillariga tarjima qilingan. «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan.

## ORIYAT

Zohir majlisxonaga kirayotib soatiga qarab qoʻydi. Hali uchrashuviga ancha vaqt bor. Majlis nari borsa ikki-uch soat davom etishi mumkin. Bemalol ulguradi. Ammo oldindan aniq bir narsa deyish qiyin. Mabodo majlis choʻzilib ketsa Zulxumor kutib turarmikin? Koʻzni shamgʻalat qilib zaldan chiqib ketish qiyin. Boshqarmaning yaqinda tayinlangan yangi boshligʻini juda qattiqqoʻl, soʻkongʻich deyishadi. Hozirgi odamlarni urmasang, soʻkmasang ishlamaydi deya tap tortmay, ochiq aytaverar ekan. Zohir bunaqa ish uslubini hazm qilolmaydi. Ursang beti, soʻksang eti qotadi. Bora-bora odamlarga oddiy gap ham taʼsir qilmay qoʻyadi. Yaxshi gap bilan ham ishlash, ishlatish mumkin-ku. Mana, kichkina bir korxonaga ikki yildan buyon rahbarlik qilyapti, hali bironta odamni soʻkish u yoqda tursin, senlagani ham yoʻq. Harqalay, birovdan oldin, birovdan keyin degandek,

ishi yurishib turibdi. Zalda odamlar yig'ila boshladi. Zohir odatiga ko'ra orqa qat-orga borib o'tirdi. Shunisi qulay, rahbarning ko'zidan pana. Qiziq, boshqalar ham negadir orqa qatorni afzal ko'rishardi. Nihoyat, majlis boshlanadigan vaqt ham bo'ldi, ammo yangi boshliqdan hamon darak yo'q. Zohir shunday palla rahbarlar haqida aytiladigan gapni esladi: «Rahbar kech qolmaydi, ushlanib qolishi mumkin». To'g'ri-da, rahbar bo'lish hech qachon oson bo'lmagan, har qadamda ming bitta tashvish-muammo ko'ndalang turadi. Keyin, rahbarning ham rahbari bor. O'zidan kattaroq rahbar mudom tepasida qilich o'ynatib turadi: undan qo'rqadi. Qo'rqmay ko'rsin-chi. Yursa-tursa unga yoqishni, loaqal jahlini chiqarmaslikni o'ylaydi. Butun sa'y-harakat shunga qaratiladi. Uyqusida ham halovat bo'lmaydi. Ajabo, xom sut emgan banda shularni ko'ra-bila turib yana nega rahbarlikka qiziqarkin? Xo'sh, o'zi-chi? O'zi ham endi kichik bo'lsa-da rahbar-ku! U bu lavozimni boshqalarga o'xshab ot solib, o'zini o'tga-cho'qqa urib olgani yo'q. Hayotda istisno holatlar ham bo'larkan-da. Layoqati, mehnati ma'qul tushgandirki shu ishni topshirishdi. Yo'q deya olmadi. Mabodo bir kunmas bir kun amaldan ketsa ham alam qilmaydi, boshqalarga o'xshab achchiq qalampir chaynamaydi.

Zohirning xayoli bo'lindi. Yig'ilganlar birin-ketin o'rnidan tura boshladi. Zalga katta rahbar kirib kelayotgandi. Qo'lida semizgina papka. U to'g'ri borib hay'at stoliga o'tirdi. Yonidan boshqa mulozimlar joy egallashdi. Ulardan biri, bo'yinbog'i qiyshayibroq qolgan tepakal odam o'rnidan turib qisqacha nutq irod qilgach, markazdan kelgan hurmatli rahbarga so'z berdi. Rahbar ma'ruza matni solingan papkasini qo'lga olib, shoshilmay minbarga chiqdi va qiroat bilan so'z boshladi. Yillik ish natijalari haqida juda uzoq gapirdi, turli raqamlarni tilga oldi. Zohir zerikib, ensasi qotdi. Sekin yon-atrofiga razm soldi. Boshqalar ham allaqachon mudray boshlagan edi.

«Hammaga ma'lum bu gaplarni hozir, shu yerda aytish shartmikin? Texnika rivojlangan, axborot almashish osonlashgan zamonda odamlarning vaqtini behuda olmaslik uchun ma'ruza matnini oldindan tarqatib, majlisni muzokaradan boshlash ham mumkin edi-ku!» «Unda rahbar o'zini, o'z qudrati-ustunligini qanday namoyon qiladi?» «Tamomila yangicha ish usuliga o'tish kerak». «Biz hali bunga tayyor emasmiz. O'zimizga xos, o'zimizga mos yo'limiz bor» «E darvoqe...»

Rahbar zalda mudray boshlaganlarning ko'zini ochib qo'yishga chog'landi shekilli, umumiy gaplarni yig'ishtirib, tanqidga o'tdi. Mudrayotganlar nogoh sergak tortishdi. Rahbar shunchaki tanqid, tanbeh bilan cheklanmasdi. Nomi tilga olingan rahbarchalarni «Falonchiyev, tur o'ringdan!» deya, jerkib-siltab o'rnidan turg'izar, ayovsiz so'kar edi. Bechora rahbarchaning esa boshi xam, yer suzgan-cha miq etmay turaverardi. Katta rahbar yoshi o'zidan ancha kattaroq rahbarlarni ham ayab o'tirmasdi. Zohir yangi rahbar ishtirokidagi majlisda birinchi bor qatnashishi edi. U haqda eshitgan gaplar yana birma bir xayolidan o'tdi.

«Yo tavba! Nega bu odamlar shuncha haqorat, so'kislarni eshitsa ham churq etib og'iz ochmaydi? Baqani ham bosib olsang «vaq» deydi-ku! Nahotki hammasining tili qisiq bo'lsa? Amal shunchalik shirinmi? Ajabo, rahbar ursa,

so'ksa «xayriyat» deydiganlari ham bo'larkan. Jaydari mantiqqa ko'ra, rahbar urib, so'kib tursa ishdan bo'shatmas ekan, indamay qo'ysa yomon emish...» Zohir beixtiyor maktabda adabiyot muallimi bilan bo'lgan savol-javobini esladi.

«Nega Pushkin, Lermontov kabi shoirlar bevaqt o'lib ketishgan? Ular nima uchun duelga chiqishgan?» «Ular oriyat uchun, or-nomus uchun kurashishgan. Ha, oriyat uchun kurashadigan zamonlar, odamlar ham bo'lgan. Biz suyib o'qigan» Alpomish» ham aslida oriyat haqidagi dostonidir.» Shundan so'ng «oriyat» degan so'z ongu shuurining bir chetiga o'rnashib qoldi. Poytaxtga kelib, institutga o'qishga kirayotganda otasi qishloqdan «Oriyat uchun kurashgin, o'g'lim!» deya xat yozardi. O'z kuchi bilan o'qishga kirganida otasining ana o'sha daldasi-da'vati ham yordam berganiga ishonchi komil edi. O'sha yillar o'qishga kirolmay qolish uyat hisoblangan, o'qishdan yiqilib kelganlar oylab ko'chaga chiqolmay qolardi.

– Mamatov, tur o'rningdan! Xayoli bo'lingan Zohir cho'chib o'rnidan turdi. Rahbar ko'ziga tik qarab, zug'um qilishga shaylanib turardi. U Zohirning ham boshqalar kabi mulzam tortib, yerga qarashini kutdi chog'i, shaylanib-xezlanib, bir lahza jimib qoldi. Ammo bu yigit negadir ko'zini olib qochmadi. «Xo'sh, nima deysiz? Tilim qisiq joyi bormi?» degandek ko'zini lo'q qilib turaverdi. Qo'l ostidagilardan faqat «xo'p» deyishni kutib o'rgangan rahbar kutilmagan jur'atdan andak taraddudlanib qoldi.

– Mamatov! Sen...

– Shoshmang! – Zohir rahbarga tik qarab, shartta gapini bo'ldi.

– Nima deding?

– Shoshmang deyaqman! – Zohir bosiq, ammo qat'iy ohangda gapirdi. – Agar so'kadigan bo'lsangiz, men ham javob qaytaraman! Bilib qo'ying!

Rahbar hang-mang bo'lib qoldi. Zalda jonlanish, pichir-pichir boshlandi. Bunday holatning uzoq davom etishi mumkin emasdi. Rahbar sinalmagan otning sirtidan o'tib, obro'sini tushirgisi kelmadi, shekilli, shaytonga hay berib, alamini ichiga yutdi.

– Sen...g'alati ekansan-ku, – dedi rahbar shashti pasayib. – Mayli, o'tir, o'tir, sen bilan keyin... gaplashamiz...

Zohir yengil tin olib, joyiga qayta cho'kdi, «qilko'prik»dan o'tib olganiga ishonib-ishonqiramadi. Ro'molchasini olib, peshonasidagi terlarni artarkan, beixtiyor atrofga boqdi. Shivir-shivirlar hamon davom etardi. Nazarida, hamma unga xuddi qanotli tuya ko'rgandek taajjublanib, endi bu yog'i nima bo'larkin deya qiziqsinib qarayotgandek tuyuldi. «Mumkin ekan-ku! Endi nima bo'lsa bo'lar, osmon qo'lida bo'lsa tashlab yuborsin. Olsa ishini olar, jonimni olmaydi-ku!..»

Rahbarning keyingi gaplari qulog'iga kirmadi. Keyingi gaplarning qizig'i-salmog'i ham qolmadi. Muvozanatini yo'qotgan rahbar endi hech kimni so'kma-di, so'kolmadi. Endi Zohirning o'sha bir og'iz gapi og'izdan-og'izga o'tib, turli mish-mish, shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Zohirning o'zi salkam qahramonga aylanadi. Ayni chog'da hamkasblar uning necha kundan keyin ishdan ketishini o'zaro qizg'in muhokama qilishadi. «E qoyil! Bopladi! Oriyatli, g'ururli ekan».

«Hozir g'urur bilan bola-chaqa boqib bo'lmaydi. O'ziga tashvish orttirib oldi». «Endi ishdan ketadi. O'ynashmagin arbob bilan...»

«Ishdan ketsa nima bo'пти? O'lib qolmas. Qaytangga hammaga saboq bo'ldi.»

Majlisda tanaffus e'lon qilindi. Odamlar diqqinapas zaldan tashqariga oshiqishdi. Zohir chekuvchilar burchagiga borib, sigareta tutata boshladi. Yoniga kelgan kashandalar negadir unga qarashmas, xuddi uni ko'rmagandek sekin o'girilib olishardi. Yana boshqa kashandalar ham kelib qo'shila boshlagach, ular saf tortib, alohida davra qurishdi. Zohir bir chetda qolib ketdi, uni safdan chiqarib qo'yishdi, unga hech kim e'tibor qilmadi. U endi birzumda ola qarg'aga aylanib qoldi. Zohir soatiga qaradi. Uchrashuvga yarim soat qolgan edi. Agar majlisning davomiga kirsam ulgurolmaydi. Ustiga-ustak ko'ksini ezig'ilayotgan g'ashlik tobora kuchayar, tezroq bu yerdan ketgisi kelar edi. Uni boyagi to'qnashuv oqibatida miyasiga bolg'adek urilayotgan «Endi bu yog'i nima bo'larkin» degan tashvishgina bezovta qilmayotgandi. Hamkasblarning darrov to'nini teskari kiyib olganini ham bir amallab hazm qilishi mumkin edi. Uni xom sut emgan banda tabiatidagi o'sha ko'hna noqislik g'ussali o'yga toldirgandi. Noxushlikni bir lahza bo'lsa-da xayoldan chetlatgisi keldi, hozir bo'ladigan uchrashuvni, so'ng Zulxumorning kulib turgan yoqimli chehrasini ko'z oldiga keltirdi. Yuragi bir orziqib ketdi. Adog'i yo'q kundalik ishlar bilan andarmon bo'lib, qizni anchadan buyon ko'rolmaganini eslab, afsuslandi. Nazarida, bugungi uchrashuv ko'p narsani hal qiladigandek edi. Zulxumor bilan anchadan buyon uchrashib yursa-da, negadir ko'nglini ochib, hali muhabbat izhor qilmagan, nazarida, bunga hojat ham yo'qdek edi. So'zsiz anglashiladigan muhabbatning qadri baland bo'ladi deb o'ylandi. Ayni chog'da qiz o'sha bir og'iz so'zni kutayotgandek tuyular, shuni aytmasa boyoqishning ko'ngli joyiga tushmaydigandek edi. Bugun agar mavridi kelsa, ko'zini chirt yumib aytadi. Buning uchun botirroq bo'lishi, botir bo'lish uchun esa ozroq ichib olishi kerak. Demak, qizni restoranga taklif etadi. Bir marta shohona ziyofat qilsa nima bo'пти? Cho'ntagi ko'taradi – kecha maosh olgan.

Hamma majlisga kirib ketgan, uzun, keng yo'lakda bir o'zi qolgan edi. Zalga bir qarab qo'ygach, keskin qo'l siltab, tashqariga chiqdi.

Bahorning ilk kunlari. Havo salqin. Bulutlar orasidan goh ko'rinib, goh g'oyib bo'lib, xiragina shu'la taratayotgan quyoshning tafti deyarli sezilmaydi. Daraxtlarning ko'kka bo'y cho'zgan yalang'och novdalari hali kurtaklardan marjon taqib ulgurmagan. Kuzda uzilib tushmagan yakkam-dukkam, qorayib bujmaygan yaproqlar izg'irinli shabbodada zaifgina tebranadi.

Zohir soatiga qaradi. Uchrashuvga o'n daqiqa vaqt qolgan edi. Shoshilmasa bo'lmaydi. Katta yo'l chetiga o'tib, taksi tutish uchun qo'l ko'tardi. Birinchi to'xtagan mashinaga shoshilinch o'tirdi. Favvora yonida tushib qoldi. U yerda hech kim yo'qligini ko'rib, yengil tortdi. Mabodo qiz undan oldin kelganda xijolat bo'lishini o'yladi. Qora marmartosh bilan o'ralgan favvora atrofida aylanib, kuta boshladi. Yozda bu yer dam oluvchilar, ayniqsa, bolakaylar bilan gavjum bo'lishi xayolidan o'tdi.

– Ko‘p o‘ylayvermang, sochingiz oqarib ketadi.

Zohir tanish ovozni eshitib, beixtiyor ortiga o‘girdi. Qarshisida qora sumkachasini bilagiga tashlagan, binafsharang ro‘moli chetidan peshonasiga mayin sochlari tushib turgan Zulxumor kulimsirab qarab turardi. Qizning ochiq chehrasi yanada ko‘rkam-chiroyli ko‘rindi. Zohirning yuragi bir hapriqdi. Shoshib qizning istiqboliga oshiqdi.

– Erkaklarning sochini ayollar oqartiradi, – Zohir qizning gapiga hazilomuz javob qilgan bo‘ldi.

– Darvoqe, oxirgi imtihonni topshirvoldingizmi?

– Ha, topshirdim, – dedi qiz og‘ir so‘lish olib.

– Juda yaxshi! – Zohir qo‘llarini bir-biriga ishqaladi. – Unda yuvish kerak.

– Bunaqa odatingiz yo‘q edi, shekilli.

– Bugun men ham bir imtihondan o‘tdim. Ikkala voqeani qo‘shib yuvamiz. Odamlarga o‘xshab biz ham bir miriqaylik.

– Tushunmadim, qanaqa imtihon? Nima, kattaroq ishga ko‘tarildingizmi?

– Yo‘q, bu yog‘i... aksincha bo‘lishiyam mumkin.

– Qiziq, – dedi qiz hayron bo‘lib, – gaplaringiz sirli-jumboqli. Ishqilib, yana qovun tushirib qo‘ymadingizmi?

– Bu endi...qanday tushunishga bog‘liq, – Zohir qizga o‘ychan tikilib qoldi. – Dunyoda hech nima yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin emas, hammasi biz bunga qanday qarashimizga bog‘liq. Mashoyixlar shunday degan.

– Ko‘p o‘qigan, ko‘p biladi. – Qiz yigitga mehri iyib qaradi. – Siz ko‘p o‘qigansiz, ko‘p bilasiz. Sizga havasim keladi.

– Afsuski, bilim hamisha saodatga eltavermaydi. Aqllilik balosi degan gaplar ham bor.

– Bunisini tushunmadim, – dedi qiz nozik yelkasini qisib. – Qaytanga aqlli bo‘lish yaxshi emasmi?

– Aqlli, dono odamlarga hech qachon oson bo‘lmagan.

– Sizga ham... oson bo‘lmasa kerak.

– Men o‘zimni donolar qatoriga qo‘shmoqchi emasman. Ammo... – Zohir ortiq bu mavzuda gapirgisi kelmadi. Hozir jiddiy gaplarning mavridi emas. Endi falsafa so‘qishni bas qilib, suhbatni restoranda davom ettirsak. Ko‘nglimda hali sizga aytadigan, aytib qo‘yishim lozim bo‘lgan ancha-muncha gaplar bor. Ayrim gaplarim sizga yoqmasligi ham mumkin.

– Meni cho‘chityapsiz. – Qiz yigitga hadiksirab qaradi.

– Qo‘rqmang, Zulxumor, men hech qachon sizni xafa qilmayman, hafa qildirib ham qo‘ymayman! Shoir aytganidek, «Men seni injitmayman va lekin tinchitmayman».

Zohir qizning tirsagidan avaylab ushladi. Ular serqatnov yo‘l chetidagi keng yo‘lakdan sekin yurib ketdilar.

Shahar oqshomgi hayot og‘ushiga cho‘ka boshladi. Birin-ketin yongan sutrang chiroqlar shu‘lasi tevarak-atrofnı xiragina yoritdi. Quvlashmashoq o‘ynayot-

gandek to'xtovsiz, g'iz-g'iz o'tayotgan mashinalar qayoqqadir shoshayotganga o'xshardi.

Zohir keyingi chorrahadan o'ng tomonga ellik qadamcha yurilgach, ixcham va fayzli restoran borligini bilardi. Qizni to'g'ri shu yerga boshladi. Restoran eshikog'asi ularga yengil ta'zim qilgach, tavoze bilan ichkariga ishora qildi. Foye yonidagi kiyimxonada yechinishgach, katta, asosiy zalga o'tishdi. Qandaydir xorijiy musiqa xuddi olisdan taralayotgandek yengil aks-sado berardi. Maxsus kiyimdagi xizmatchilardan biri ularni chetroqdagi bo'sh stolga boshladi. Cho'g'day qip-qizil gilamdan yurib ketishdi.

Chap tomondagi uzun stolda o'n-o'n besh chog'li yigitlar chaqchaqlashib, xursandchilik qilishardi. Chamasi, ziyofat avj nuqtasiga ko'tarilgan, kayfi oshibroq qolgan ulfatlar yonidagi sherigining yelkasiga qo'l tashlagancha, «Men senga aytsam!..» degan o'sha ko'hna diydioni boshlab yuborgan edi. Dasturxonada bo'shatilgan oq, qizil ichimlik shishalari dumalab yotar, kuldonlar sigaret qoldiqlari bilan to'lib ketgan edi.

Zohir ularga birrov qarab qo'ygach, yana yo'lida davom etdi. Shu mahal davradan kimdir ma'nodor tomoq qirdi, so'ng Zulxumorga ko'zini lo'q qilib, gap otdi:

– O'-ho'! Zo'r narsa ekan-ku! Bizga ham bo'larmikin?

– E-e, yaxshi gap bo'lmadi-ku! – Zohir boshiga tepchib chiqqan g'azabini ichiga yutib, darhol javob qildi. Javobi yetarli emasligini anglab, battar xit bo'ldi. U bu gapni shunchaki o'zicha aytdimi yoki o'sha shilqim eshitsin dedimi – o'zi ham bilmas, ammo bu gapni ovoz chiqarib, dadil aytdi. Keyin ko'rsatilgan stolga borib o'tirishdi. Yuragi gursillab urar, titrog'i bosilmagan edi.

– Yuzingiz oqarib ketibdi, – dedi Zulxumor sarosimalanib. – Qo'ying, haligi gapga parvo qilmang, o'lib ketsin.

Zohir indamadi. Alami ichida edi. Shilqimga munosibroq zarba berolmaganidan afsuslanar edi. Yana nimadir qilishi lozimdek tuyulardi. To'g'ri, ular ko'pchilik, bir o'zi bas kelishi qiyin. Ammo kaltak yesa ham, o'lib qolsa ham, o'sha shilqimning basharasiga yaxshilab bir musht tushirishi kerak edi. Bunaqa nusxalar bilan faqat ularning tilida gaplashish kerak. Egri qoziqqa egri to'qmoq. Afsuski, bizda duelga chiqish mumkin emas. Qaytangga ilgari yaxshi bo'lgan ekan...

Ovqatlanishayotganda ham Zohirdan sado chiqmadi. Zulxumor unga g'alati qarab qo'ydi.

– Iltimos, endi sal qovog'ingizni oching, – dedi qiz iltijo bilan termulib. – Bu yerga nega keldik o'zi?

– Nima uchun kelganimizni... aytaveraymi? – Zohir kulimsirab gapirdi.

– Aytavering! – Zulxumor yigitning chehrasi ochilganidan dadillandi.

– Bu gapni aytish uchun sal botirroq bo'lib olishim kerak, – dedi Zohir va oldidagi ichimlikka qo'l uzatdi. – Ruxsat bersangiz.

– Mayli, – Zulxumor noiloj rozi bo'ldi. – Faqat, ko'p ichvormang. Mast bo'lib qolsangiz sizni ko'tarib ketolmayman.



- Bunisidan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin.
- Ko‘p maqtanavermang.
- Rost, mana ko‘rasiz. – Zohir qadahga to‘latib aroq quydi. Qizning ichmasligini bilsa ham bir og‘iz manzirat qilib qo‘ydi. – Sizga ham ozgina...
- Yo‘q-yo‘q, siz...bemalol, – qiz shoshib qadahning ustini qo‘li bilan to‘sdi.
- Faqat mast bo‘lmasligingizni bugun isbotlashga urinmang.
- Xo‘p, xo‘p, sizning sog‘ligingiz uchun! – Zohir qadahni bir ko‘tarishda bo‘shatdi. Ovqatdan ozgina totingach, yana ichdi. Ichi qizib, yengil tortdi, boyagina ko‘nglini g‘ash qilayotgan xijillik ham qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi. Nogoh Zulxumorga gap otgan o‘sha ulfatlar orasidan kimdir unga qattiq tikilib turganini ko‘rib qoldi. Beixtiyor seskanib, hushyor tortdi.
- Endi aytmaysizmi o‘sha... gapingizni? – dedi qiz erkalanibroq. Chamasi, u yigitning nima deyishini fahmlardi.
- Sizni qanchalik yaxshi ko‘rishimni bilasiz! – dedi yigit e‘tirozga o‘rin qoldirmay. Ko‘ngil izhorini shu tarzda, gap orasida bemalol jur‘at qilib aytvaganidan o‘zi ham hayratlandi.
- Yo‘q, bilmayman, aytmagansiz. – Qiz o‘ziga yarashgan karashma bilan qoshlarini chimirdi.
- Aytganman, ming marta aytganman.
- Kayfchilikda aytganingiz hisob emas, – qiz nozlanib gapirdi. Yoqimli gapni yana eshitgisi bor edi.
- Mastlik – rostlik. Aytsam yana aytaveraman. Ammo bu galgisi avvalgilarga o‘xshamaydi.
- Mayli, ayting, aytavering.
- Gapning dangalini aytsam – to‘yimizni kuzda, pishiqchilikda qilamiz.
- Voy, o‘qishim nima bo‘ladi? Yana bir yil bor-ku, – qiz o‘zi ko‘pdan orziqib kutgan gapni eshitganidan quvonib ketdi, ammo andisha qilib, gapni chalg‘itdi.
- Hechqisi yo‘q. Xudo xohlarsa, diplom ishingizni uch kishi bo‘lib yoqlaymiz, – dedi Zohir quv tabassum bilan.
- E boring-e! – Zulxumor yigitning yuziga yengilgina shapatiladi.
- Zohir qizning nozik barmoqlarini kaftiga oldi, boshini engashtirayotib atrofga bir qur qarab qo‘ydi. Beixtiyor yana o‘sha ulfatlarga ko‘zi tushdi. Shunda boyagi suq nazarning hali-hamon o‘ziga jiddiy tikilib turganini ko‘rib qoldi. Shoshib qo‘lini tortdi. O‘ng‘aysizlandi. Jahli chiqdi.
- Undan nima istashadi? Maqsadi nima o‘zi? Boyagi surbetlik kammidi? Nahotki janjal chiqarishmoqchi bo‘lsa? Ko‘rinishdan hammasi tuppa-tuzuk, ziyolisifat odamlar. Harqalay, kecha tuxumdan chiqqan jangari jo‘jaxo‘rozlarga o‘xshamaydi, yoshi ham o‘ttizning nari berisida bo‘lsa kerak. Aql yoshda emas, boshda. Hali aqli quyilmaganga o‘xshaydi. Aroqning kuchini ko‘rsatmasa turolmaydiganlar xilidan shekilli. Vajohati xunuk, janjalga sabab qidiriyapti. «Yaxshi gap bo‘lmadi» degan o‘sha bir og‘iz gapini hazm qilolmayapti. Aslida bundan ham nordonroq gap aytishi, vaziyat taqozo qilsa mushtlashishi lozim edi.

Zohir xuddi sehrlangandek raqibidan ko'z uzolmay qoldi. Oshga pashsha tushdi – suhbat eng shirin joyida uzildi.

Zulxumor yigitning xayoli bo'linib, kayfiyati buzilganini allaqachon payqagan edi. Yuzaga kelgan noxushlikni o'zicha yumshatmoqchi bo'ldi.

– Qo'ying, u yoqqa qaramang, – qiz yigitning ko'zlariga mo'ltirab tikildi. – Yaxshigina gaplashib o'tiruvdik. Suhbatimizni sovutmaylik. Men gapingizning davomini eshitmoqchi edim.

Zohir raqibidan ko'zini olib qochdi. To'y haqida gap ochganini esladi. Aytadigan gapi aslida faqat to'y haqidamidi? To'ydan ham muhimroq bir gapni aytmoqchi edi, shekilli.

– Yana o'ylanib qoldingiz? Nima, menga aytadigan gapingiz tugadimi?

– Muhim bir gapni aytam hafa bo'lmaysizmi?

– Yo'q, ichingizda qolib ketguncha aytvolganingiz yaxshi. Bilaman, siz meni hafa qiladigan gapni aytmaydiz. Axir o'zingiz boyagina «Men seni injitmayman» dedingiz-ku!

– Aytmoqchi bo'lgan gapim aslida yangilik emas, – dedi Zohir qizning ko'zlariga jiddiy tikilib. – Bir-birimizni anchadan buyon sinab, bilib yuribmiz. Men ayrimlarga o'xshab to'ygacha o'zimni farishta qilib ko'rsatmoqchi emasman. O'jarman, injiqman, cho'rtkesarman, xullas, hayotga moslashishni bilmayman. Bular kamchilikmi yoki fazilatmi – bilmadim. Men bilan yashash, menga xotin bo'lish oson emas. Hayotimiz hamisha farovon, to'kin-sochin bo'ladi deyolmayman. Bilaman, xotin zotining bunaqa turish-turmushni hazm qilishi oson emas.

Zohir nazarida eng qiyin tuyulgan gapni aytib olganidan yengil tortdi. Qizga sinchkov nazar soldi. Boshini quyi solgancha sukut saqlab turgan sevgilisining avzoyidan afsuslanish, ikkilanish alomatlarini sezmedi. Unga mehri tovlandi. Uni quchib, bag'riga bosgisi keldi. Qizga intildi, shu lahza haligi ulfatlar o'tirgan tomondan sho'x qiyqiriq, quvnoq qah-qaha eshitildi-yu shashti qaytib, shoshib ularga qaradi. Ajabo, o'sha shilqim negadir davradagi gurungga e'tibor qilmas, dasturxonga yarim o'girilgancha, xuddi o'chakishgandek hamon Zohirdan ko'z uzmay turardi. Oradagi masofa yigirma besh, o'ttiz qadamcha edi. Surbetning qiyiq ko'zlari, qalin qovoqlari, qirov bog'lagan sochlari yaqqol ko'rinib turardi. Qiyofasi allanechuk jonsarak va bezovta edi. U zo'r berib Zohirning nigohini ko'zdan qochirmaslikka harakat qilardi. Nihoyat, ko'zlar yana to'qnashdi. Nima demoqchi o'zi? O'sha bir og'iz gapini hazm qilolmayaptimi? Aslida o'zi aybdor-ku. Adolat tuyg'usi bo'lmagan joyda mantiq o'z ahamiyatini yo'qotadi. Xo'sh, nima qilish kerak? Shartta o'rnidan turib, oldiga borishi va orani ochiq qilib olishi kerak. Bormasa bo'lmaydi. Qo'rquyapti deb o'ylaydi. Qo'rroq degan isnodni ko'tarolmaydi. Borsa kaltaklanishi mumkin. Ular ko'pchilik, bir o'zi bas kelolmaydi. Ayniqsa, ichib, mast bo'lgan, quturgan to'daga ro'baro' bo'lish havfli. Yolg'iz o'zi bo'lganda ham boshqa gap edi. Og'zing qon bo'lsa dushmaning oldida tupurma. Qizning ko'z oldida oyoqosti bo'lib taxqirlanish juda-juda yomon. Uchinchi yo'l – indamay sirg'alib chiqib qochib qolish. O'lsa ham bunday

qilolmaydi. Ikkinchi yo'lni tanlashga to'g'ri keladi. Nahotki boshqa – maqbul-roq chora topilmasa? Har nima bo'lganda ham sharmanda bo'lmasligi, oriyatini saqlab qolishi kerak. Darvoqe, ishxonadagi majlisda oriyatini himoya qiloldi-ku! Hamma oriyat degan narsani unutganda yolg'iz o'zi, ola qarg'a bo'lib ajralib qoldi. Demak, istasa, jahd qilsa, insonligini unutmasa, chora topiladi. Bugun aslida oriyat uchun imtihon topshiradigan kun ekan. Mana bu imtihon qiyinroq kechadigan ko'rinadi. Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin.

Zohir noiloj o'rnidan og'ir qo'zg'aldi. O'rtadagi o'sha dahanaki sichqon-mushuk o'yinini kuzatib o'tirgan Zulxumor jon-jahdi bilan yigitning qo'llariga yopishdi.

– Yo'q-yo'q, bormaysiz, bormang!

– Bormasam bo'lmaydi. – Zohir asta qo'llarini bo'shatishga urindi. Qiz battar yopishib, tavallo qildi.

– Bormang, qo'rqaman.

– Qo'rqamang, menga hech nima bo'lmaydi.

– Men...men...– qizning ko'zlari yoshlandi.

Zohir bir amallab qizdan uzoqlashdi. Sekin yurib borib, ulfatlarga yaqinlashdi. O'zini xotirjam tutishga urinsada, ichki titrog'i hayajonini oshkor qilib qo'yayotgandi. Mana, davraga uch-to'rt qadam qoldi. U yerda bazmi jamshid avjida, faqat o'sha qisiqko'z shilqimgina hamon unga sergak tikilib turardi. Zohir o'zicha reja tuzdi. Mabodo mushtlashuv qisiqko'z bilan yuzma-yuz bo'lgandayoq boshlansa, sheriklari qarab turmaydi, unga tashlanishadi, o'rtaga olib ayovsiz tepkilashadi. Shunda u hali yiqilib ulgurmay, kaltaklarga parvo qilmay o'sha qisiqko'zning tomog'idan ombirday bo'g'ib, tinchitadi, hech bo'lmasa bittasidan o'ch oladi. Hoynahoy, Zulxumorga gap otgan ham o'sha.

Nihoyat, raqib bilan yuzma-yuz bo'ldi. Birdan tashlanib qolgudek bo'lsa, muvozanatini yo'qotmaslik uchun ikki qadam oraliqda to'xtadi.

– Keling, o'tiring, – dedi qisiqko'z sekin o'rnidan turib, yonidan joy ko'rsatarkan. U muloyim, xijolatomuz ohangda gapirdi. Mutlaqo boshqacha muomalani kutgan Zohir hayron bo'ldi. Noiloj raqibining yoniga o'tirdi.

– Men sizdan kechirim so'ramoqchiydim, kayfchilikda o'sha...nojo'ya gap bexos og'zimdan chiqib ketdi. Siz juda o'rinli, bir og'iz tanbeh bilan hammamizga yaxshi saboq berdingiz. Mana bu o'rtoqlarim ham menga yaxshigina dakki berishdi. Bugun bir do'stimizning dissertatsiya yoqlaganini nishonlayotgandik. Xur-sandchilik ham tatimadi. Harholda, yaxshi ish bo'lmadi. Sizdan... uzr so'rayman.

Zohir tamomila lol qoldi. Ayni chog'da ro'parasida o'tirgan raqibini boyagina bo'riday g'ajishga tayyor turgani esiga tushib, hayron bo'ldi. Raqibining uzridan so'ng unga nisbatan ko'nglida zarracha g'ubor qolmaganini, hatto unga nisbatan xayrixohlikka o'xshash bir tuyg'u uyg'onganini sezdi. Mehr bilan qahr orasi bunchalar yaqinligidan hayratlandi.

– Mayli, men...kechirdim, – dedi Zohir va o'zi birinchi bo'lib raqibiga qo'l uzatdi.

- Rahmat, endi sal xotirjam bo‘ldim, – dedi raqibi mamnun bo‘lib.
- Bu birkam dunyoda aslida talashib-tortishadigan narsaning o‘zi yo‘q! Hamma ishkal – odamlarning bir-birini tushunmasligida deb o‘ylayman.
- To‘g‘ri aytasiz, – dedi Zohir bosh irg‘ab. Raqibining mulohazalaridagi oddiy mantiq unga ma‘qul tushdi.
- Darvoqe, tanishib qo‘yaylik, biz endi... do‘stmiz, shundaymi?
- Shunday.
- Mening ismim – Boqibillo.
- Meniki Zohir.
- Juda yaxshi, shoir aytganidek, «O‘rtada begona yo‘q». Tanishganimiz uchun bittadan olamizda endi, Zohirjon! Boqibillo qadahlariga to‘latib aroq quydi.
- Xo‘sh, bir nima deng o‘zingiz. Indamay ichish alkashlarga xos odat deyi-shadi.
- Zohir qadahni qo‘liga olarkan, Zulxumor o‘tirgan tomonga qarab qo‘ydi. Qizning xavotir bilan o‘zidan ko‘z uzmay turganini ko‘rdi, sekin qo‘lini ko‘tarib, hammasi joyida degandek ishora qildi.
- Boya o‘zingiz aytgan yaxshi gap – odamlarning bir-birlarini to‘g‘ri tushu-nishlari uchun ichamiz!
- Qadahlarni urishtirib, ichdilar. Boqibillo qazi to‘g‘ralgan likopchani Zohir to-monga surib, yana aroqqa qo‘l cho‘zdi.
- Menga endi bas, – dedi Zohir qadahning ustini baquvvat qo‘li bilan yopib. – Bugungi rejani bajarib bo‘ldim. Keyin, – Zulxumor o‘tirgan tomonga ishora qilib, qo‘shimcha qildi, – kuzatib qo‘yishim kerak.
- Mayli, mayli, tushunaman. – Boqibillo qistab o‘tirmadi.
- Yaxshilik bilan ko‘rishaylik, – dedi Zohir qaddini rostlab.
- Aytganingiz kelsin! – Boqibillo ham o‘rnidan turdi.
- Ular qo‘l berib, samimiy xayrlashdilar.
- Zohir Zulxumorning yoniga borib o‘tirdi. Qiz uni xavotirlanib, betoqat ku-tayotgandi.
- Namuncha uzoq qolib ketdingiz? – deb so‘radi qiz andak ranjib. – U odam eski tanishingizmidi?
- Yo‘q, hozirgina tanishdim.
- Yo‘g‘-e, meni ham esdan chiqarvorib, xuddi eski tanishlardek uzoq qay-moqlashdingiz-ku?
- Shunaqa bo‘pqoldi. Men bugun... ikki marta imtihon topshirdim.
- Tushunmadim, qanaqa imtihon? – qizning chiroyli qoshlari chimirildi.
- Keyin, keyinroq tushuntirib beraman, – dedi Zohir sirli kulimsirab.

# Norto'xta

## Qilich

(1947-yilda tug'ilgan)



Norto'xta Qilich 1947-yil 7-fevralda Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani G'ishti qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini bitirgan (1971). Dastlabki hikoyalar to'plami – «Oppoq tong» (1981). Shundan so'ng yozuvchining «Yorongul» (1981), «Mo'jiza» (1984), «Chig'iriy» (1988), «Bayram» (1991), «SOS» (1992), «Iltijo» (1992) nomli hikoya va qissalar to'plamlari nashr etilgan.

### JUMBOQ

O'qigan xabariga ishonib-ishonolmay, Shoir, qo'lida gazeta, bir muddat hayronsirab qoldi: bunga ishonmaslik – g'irt mutaassiblik bo'lar... Shu asno, xayolida o'tmish bir xotirotni ham g'ujg'on o'ynayverib, battar dong qotdi: yopiray!.. Demak, hammasi rost ekan-da!.. Keyin, to'shakka cho'zilib, takroran xabarga ko'z yugurtira boshladi.

### Yana noma'lum obyekt haqida

*Avstraliyalik bir oila noma'lum uchuvchi predmet hujumiga duch kelganligi haqida mahalliy politsiyaga shikoyat qilgan. Aniqrog'i, hujumga odamlar emas, balki ularning mashinasi uchragan.*

*Ayol mashinani ochiq joyda to'xtatib, uch o'g'li bilan mashinadan tushgan. Shu payt to'satdan uchuvchi ob'ekt mashinaga yaqinlashib kelgan va uni yerdan ko'tarib, rosa silkigan. Nihoyat, g'ildiraklardagi havoni chiqarib, mashinani yerga qo'ygan. Mashina egalari butalar orqasiga berkinib, obyekt jo'nab ketguncha kuzatib turganlar.*

*Obyekt ko'zdan g'oyib bo'lguncha, ona-bolalar ovozi xuddi sekin aylanayotgan magnitofon tovushiga o'xshab chiqqanini politsiyachilarga aytib berishgan.*

*Yaroqsiz bo'lib qolgan mashinani ko'zdan kechirgan politsiyachilar uning kulga o'xshagan modda bilan qoplanganligini aniqlaganlar.*

*Hozir bu modda bilan noma'lum uchuvchi obyektlar haqidagi ma'lu-motlarni tadqiq qiluvchi xalqaro Markaz mutaxassislari shuhullan-moqdalar. Tadqiqot natijalari kelajakda e'lon qilinadi.*

Shoir xayolchanlik bilan gazetani chekkaga qo'yayotib, dahshat, deb o'yladi: agar shu rost bo'lsa, barcha toatu ibodatlar bir pul-ku!..

Noma'lum uchuvchi obyekt haqida oldin ham bir necha bor eshitgan, gazetalarda o'qigan, lekin hech qaysisi manavi xabarchalik favqulodda ta'sir qilmagan edi. Negadir, tobora noxush bir hayratga tushyapti. Nazarida, bugunmi-ertami, muqarrar bir nimadir ro'y beradigandek.

Darvoqe, anavi voqea esa!..

Hammasi xuddi hozirgina sodir bo'lganday yodida, o'shanda, – bundan yigirma besh yil avval, – otasiga aytganida ishonmay, bil'aks, qo'l siltab, kallamni qotirma, tushingga kirgan bo'lsa kerak yoki ko'zingga ko'ringandir, degan edi.

\* \* \*

Nogoh, nimadir ko'z o'ngida harir parda yanglig' titrayotganday tuyuldi. Oradan hayal o'tmay, g'ijjak nolasiday inja bir sas ohista qulog'iga chalina boshladi. Keyin, dabdurustdan qosh-qovoqlari og'irlasha-og'irlasha, uyqusi kelayotganligini sezdi.

Ayni peshin chog'i. Issiq... Atrof-tevarakda hech bir zog' ko'rinmaydi. Ota hamda uka uyga ketgan. Adoqsiz uzumzorning kunbotaridagi shiypon ayvoniga osig'liq to'rqovoqlardan ahyon-ahyonda sayroqi bedanalarning xonishi eshitaladi.

O'rnidan turdi. Yon-veriga alangladi: biydek uzumzorning kunchiqar teg-rasi olmazor bog'. Undan nari esa paxtazor – oppoq oqarib yotibdi. Bog' bilan uzumzor etagi Majnun-tepa qabristoniga tutashib ketgan. Qabristonning u yer-bu yerida temir panjaralar bilan o'ralgan qabrlar, qalin yulg'un butalari, o'skin qamishlar ko'rinadi. Qamishzordan beriroqda esa turfarang alamlar hilpiraydi... Hech kim yo'q. Go'yo, jimjitlik. Lekin, hamon uzumzor uzra simobiy nimadir betinim titrayotgandek, g'ijjak nolasiga mengzash inja bir sas esa tobora avjlanayotganday edi. Beixtiyor, – go'yo, shunday qilsa qulog'iga chalinayotgan sas tinib qoladigandek, – behishtiy ishkombayla tepasiga o'rnatilgan tunuka shaqildoq chilvirini siltab tortdi. Birdan hammayoqni jaranglagan tovush tutib ketdi. Shu barobarida gur etib, g'arq pishgan uzumzorning qabristonga tutash etagidan bir gala mayna, chug'urchiq havoga ko'tarildi. Lekin, sas tinmadi, bo'shliqlar bag'ridagi allatovur simobiy titroq ham o'sha-o'shaligicha qolaverdi. Keyin, hafsalasiz kartga cho'zilib, uzumzorning kunbotar tomonidan o'tgan qumloq yo'l bo'yidagi adl teraklar osha osmonga mudroqli bir nazar tashladi. Va, ixtiyorsiz

ko'zlari kattarib ketdi: bulutmi, tutunmi, – baayni halqa-halqa bo'lib, – yaqqol ko'rinib turardi. Xuddi birov atay qo'l bilan yasab qo'ygandek.

... yopiray, osmonda-ya?!

Hayratlanib qaddini tiklarkan, betoqatlik bilan ishkom-chayla butalarini surib, g'aroyib halqalarga sinchkov tikildi, ko'zlarini yumib ochdi, kirriklarini pirpiratdi: yo'q, xayolida emas. Ana, aniq-tiniq ko'ryapti. Qiziq!.. Shartta kunbotar tarafga o'girilib, yanayam taajjublandi: ana, bir halqa ohista yerga yaqinlashyapti. Qiziq, nimaning oqibatiykin bu?! Hali otasiga aytib beradi, nima ekanligini so'raydi. Otasi bilar buning sirini.

Ayni peshin. Issiq. Ishkom-chaylada esa havo yanayam dimroq. Harchand hayratga tushmasin, tobora uyqusi zo'rayayotgan edi. Kartda kulala bo'lib yotdi. Xayolida g'aroyib halqaga doxil fikrlar charx urgan ko'yi, allanechuk mubham bir xavotir bilan ko'zlarini yumdi. Oradan hayal o'tib-o'tmay, vujud-vujudi bo'ylab taralayotgan allaqanday huzurbaxsh bir titroqni sezdi. Keyin... bir mahal, qumloq yo'l bo'yidagi Tegirmonariqdan baxmaldek mayin ovozi eshitila boshladi: Shoir... Shoirjon, qayerdasan? Tezroq kelmaysanmi axir, seni kutyapman-ku, jonim?!

Beixtiyor hayrat aro Tegirmonariqning chog'roq bir aylanmasi sari oyog'i yerga tegib-tegmay yugurib borarkan, mana men, deb javob bergisi keldi-yu, lekin, tuyqus onasining bir o'giti yodiga tushib, taqqa to'xtadi: aslo ariq bo'yida o'ynamanglar, bolam! Suv tagidan Suvpari otingni aytib chaqiradi-yu, oqizib ketadi. «Suvpari keyin bizlarni nima qiladi, ona?» «Ruhingni suv ostiga olib tushadi... Eting baliqlarga yem bo'ladi. Tushundingmi?» «Ona, ruh nima?» «Ruh – odamning joni...»

Tisarila-tisarila, Shoir ortiga qaytdi. Qocha boshladi. Nogoh, Majnun tepa qabristoni pastqamligida bazm qurgan o'liklarni ko'rib qoldi. O'rtada gulxan gurillab yonyapti. Gulxan tevaragida kafani uvada o'liklar, odamsiyiq suyaklar... Kafani uvada o'liklarning sochlari to'zg'in, tirnoqlari o'sib ketgan, ko'zlari qoziq o'radek qorayib ko'rinadi. Odamsiyiq suyaklarning esa tishlari irshaygan. Qay birlari jazavasi qo'zib qiyqirishadi, yana birlari esa, burg'u-yu balabon sadolari ostida jununvash raqs tushayotirlar.

Shoir battar qo'rqib ketdi. Keskin ortiga burilib, ishkom-chayla tomonga yugurdi. Ichkariga kira-sola, eshik tepasidagi sholni tushirdi. So'ng, shartta kartga chiqib, tag'in kulala bo'lib yotib oldi.

... endi chirt ko'zni yumib, o'likka o'xshab yotish kerak. Qimir etmay!.. Suvparisi, – qiziq, qanaqa bo'larkin o'zi? – shaklu shamoyili rasmlardagi yarim ayol, yarim baliqqa o'xsharmikan? Uzoqdan mo'ralab ko'rsa bo'lardi. Ah, mayli!.. Tinchib qoldi ishqilib. Uning ovozi bunchayam mayin, bunchayam shirali ekan... Iy-e, borgan sari burg'u-yu balabon tovushi avj olyapti-ku!.. Ana, kimdir ichkariga kirdi! Ah, shu tobda Bo'ynoq bo'lganda edi! Zohir tirmizak kelsin hali, Bo'ynoqni ergashtirib ketgani uchun boplab adabini berib qo'yadi... Ana, kim bo'lsayam asta yaqinlashyapti. Uzum o'g'rilagani kelgan bolalardanmikan-yo?.. Yaqinlashaversin. Qo'rqayotganligini sezdirsa bo'lmas. O'likka o'xshab yotaversa, qaytib ketar

axir. Yo'q, qaytib ketmoqchi emas shekilli. Ana, sekin qo'lidan ushladi. Kafti, barmoqlari issiq, yumshoq. Ana, nimadir deyapti.

– Tur deyaрман!

...iy-e, bu... odamning ko'nglidan kechayotgan gaplariniyam bexato biladi chog'i.

– Bo'lmasa-chi! – dedi, hamon qo'lidan ushlab turgan kimsa. Uning ovozi sal boshqacharoq – allatovur cho'ziq edi. – Och ko'zingni. O'zingni o'likka solib yotganing yetar.

Shoir:

– Nima deysiz menga?– deb, ko'zini ochdi-yu, ro'parasida bo'yi kartdan sal tikroq, sochlari jingala, yuzlari tiniq, ko'zlari benihoya chaqnoq bir odamchani ko'rib, beixtiyor hayratdan dong qotdi: kim o'zi bu?! Yoshi nechada buning?.. Qiziq, lekin judayam tanishdek – biror kinoda ko'rganmi yo tog'asidan eshitgan etaklarida shunaqa odamcha haqida gap bormidi?.. – Kim kerak sizga?

– Sen keraksan.

– Men?

– Ha, sen.

Yoshi nechadali noma'lum, dam yoqimtoy bolakaydek, dam navqiron yigitday bo'lib tuyulayotgan, bo'yi pakanagina bu Odamchanning kafti allatovur yumshoq ham xiyla issiq edi.

Shoir qo'lini tortib, kartda oyoqlarini tushirib o'tirarkan:

– Men sizni tanimayman-ku? – dedi.

Odamcha so'zlarni cho'zibroq, shirador talaffuz etib:

– Seni tanishing shart emas,– dedi. – Ketdik!

– Qayoqqa?!

Odamcha, yanayam ko'zlari chaq nab, osmon sari ishora qilgan ko'yi:

– Arshu a'loga-da! – dedi.

– E, men nima qilaman u yoqda?

– Bu yerda nima qilmoqchisan?

– Uzumzorni qo'riqlayman.

Odamcha bir sapchib, kartda oyoqlarini osiltirib o'tirgach, bepisand kulim-sirab:

– Bema'ni... behuda! – dedi. – Ana, ko'r. – Odamcha shunday deb, ish-kom-chayla eshigi yonidagi g'arq pishgan shivirg'oni uzum tomon ko'rsatkich barmog'ini cho'zdi. Birdan uzumning tillarang barglari lovullab yona boshladi. – Ko'ryapsanmi?

Beixtiyor tahlikadanmi, ko'zlari kattarib, Shoir shap yetkazib, Odamchanning qo'liga urdi:

– O'chir!

– Qo'rqma, – dedi Odamcha kulib. – Xo'sh, ketdikmi?

– Yo'q... O'zing ketaver.

Odamcha tag'in g'alati jilmayib:



– Odamzod umr bo‘yi osmonga talpinib yashashini sen hali bilmaysan-da! – dedi. – Osmon qavatlarida qanday mavjudotlar borligini, ular nima ishlar bilan mashg‘ulligini odamlarning juda-juda bilgilar keladi, lekin hech qachon bilolmaydilar. Agar hozir men bilan ravona bo‘lsang, ko‘p sirlarga oshno bo‘lasan, uchib-kezib yurasan. Maza!

– I, ota-onam-chi? Ukamla-chi? Opalarim-chi? Nima, ularni sog‘inmaymanmi?

– Hech qachon!.. – dedi Odamcha. – Zamindan uzilganing sayin, osmonga ko‘tarilganing sari, beparvo... beg‘am bo‘laverasan.

– Keyin, meni topolmay, ota-onam yig‘lab yuradilar-a, shundaymi?

– Qo‘rqma, jasadingni qoldirib ketamiz. O‘zlari ko‘mishadi.

– E, yo‘q!.. – dedi Shoir, keskin bosh chayqab. – Ketmaydi bunaqasi.

– Bilib qo‘y, bari bir erta bir kun oborishadi. Lekin, unda qayoqqa tushishing-ni Xudo biladi.

Shoir yalt yuzlanib:

– Xudo bormi o‘zi? – deb so‘radi.

Odamcha yanayam dilkash jilmayib:

– Bilib turibman, bor desam ham, yo‘q desam ham ishonmaysan, – dedi. – Chunki odamsan-ku!.. Odamzod har xil shubha-yu xavotirlar bilan biri-birining boshini yeb yuraveradi. Ey, ins... inson, tushunyapsanmi gaplarimga?!

Shoir indamadi.

Odamcha asta kiftiga qoqib:

– Hozir eng beg‘ubor payting, hali dunyoning ko‘p kirdikorlaridan bexabarsan, – dedi. – Erta bir kun davradoshlaringdan o‘zib ketaversang, olayib qarashadi. Agar qolib ketaversang, burun jiyirishadi. Keyin, bot-bot vijdonsizlarga duch kelib o‘rtanaverasan. Dardmand dilingga hamdamu dardkash izlaysan, lekin, topolmaysan. Do‘st deb bilganlaringning deyarli bari oxir-oqibat manfaatparast, ta‘magir bo‘lib chiqadi. Keyin, ne qilaringni bilolmay, bosh changallab qolasan.

– Yo‘q... yo‘q!

– Yo‘q, dema, bolakay... Aytmoqchi, ukang qani – uyga ketganmi?

Uning nopisand gap ohangi, tag‘in allanechuk o‘smoqchilayotgani malol kelib:

– Kimsan o‘zing? – dedi Shoir.

– Aytdim-ku, osmondan tushgan farishtaman, – dedi Odamcha, yana jilmayib. – Gapimga ishonaver!..

– Farishta emassan. Sen – shaytonsan!

– Mayli, shayton bo‘la qolay. Lekin gaplarimga ishon: bu dunyoda hamma narsaning o‘z o‘rni, o‘z qadri bor. Ammo, Xudo haqqi, qasam ichib aytamanki, bu olamda faqat odamzod o‘z o‘rni, o‘z qadri topolmay, nima uchun kelgani-yu nima uchun ketib borayotganligini bilolmay o‘tadi. Shu bois odamzodning boshi umr bo‘yi har xil g‘alva-yu tuganmas ta‘qiblardan chiqmaydi. Men esa seni muqarrar uqubatlardan, qayg‘ulardan xalos qilmoqchiman... Xo‘sh, ketdikmi?

Odamcha sakrab pastga tushdi-yu, Shoiring qo‘lidan tortdi.

Shoir kartdan uchib tusharkan, jonhovri Odamchanning oyog‘iga yopishdi.

\* \* \*

– Shavkat!.. – deb qichqirdi xotini, tajanglik bilan. So‘ng, qiziga buyurdi. – Nodira, tur, qo‘l-betini yuvib, ukangni uyga olib kir. Loyda o‘ynamasin. Ana, zor qolgur havo yanayam ayniyapti.

Shoir, xayoli to‘zg‘ib, beixtiyor uf tortdi: xotin kasal. Ayniqsa, mana shunday beqaror bahor kunlari qo‘l-oyog‘ining barmoqlari, bo‘g‘imlari qaqshab og‘rigani og‘rigan. O‘g‘ilchanning ham sog‘ligi chatoq... Hammasiga shu... qafasdaygina hovlicha sabab. Quyoshga terskayligi-yu jarlik etagida joylashgani uchunmi, qishin-yozin zahxona. Mudom dahlizning devorlari-yu xonalar shiftidan achimsiq bir rutubat ufurib turadi.

Aslida bu ikki xonalik hovlini olish fikri hatto xayolida ham yo‘q edi-ku, lekin ijaraxona uchun tish qo‘portirganday har oy sayin falon so‘m to‘lagandan tashqari, badfe‘l ijaragirning qosh-qovog‘iga mutelarcha qarab yashash azobi ham rosa joniga tekkan edi; keyin, bu hovlicha uchun pulni o‘sha kunlarda mehmon bo‘lib kelgan ota to‘lagan – u paytlarda o‘zi aspirant edi, ilmi tolibda pul nima qilsin!.. Xullas, yaxshimi-yomonmi, boshpanalik bo‘lganlariga er-xotin benihoya suyungan edilar. Ammo, oradan uch-to‘rt yil o‘tar-o‘tmas, sevinchlari og‘riqli bir hasratga aylandi – avval xotin bedavo dardga chalindi, yaqinda esa o‘g‘ilchanning ham xastaligi ayon bo‘ldi.

Tuyqus, huv o‘shanda Odamchanning cho‘zib-cho‘zib aytgan bir sitamkor gapi Shoirning quloqlari ostida aks-sado berib jaranglayotganday tuyuldi: gaplarimga ishon – bu dunyoda hamma narsaning o‘z o‘rni, o‘z qadri bor. Ammo, Xudo haqqi, qasam ichib aytamanki, bu olamda faqat odamzod o‘z o‘rni, o‘z qadrini topolmay, nima uchun kelgani-yu nima uchun ketib borayotganligini bilolmay o‘tadi.

Shoir, hamon xotini diltang koyinayotganligini eshitgisi kelmay, xayolchanlik bilan ko‘zlarini yumdi: qiziq, Odamcha o‘shanda tushiga kirganmidi yoki... Agar tush bo‘lsa, nega bari bu qadar ravshan xotirida muhrlanib qolgan? Mana, shu tobda ham Suvparisining mayin, shirali ovozi aniq eshitayotgandek; Majnuntepa qabristoni pastqamligidagi o‘liklar bazmini ayon ko‘rayotgandek... Undan keyingi g‘aroyib manzaralar ham, ana, yasov tortib ko‘z o‘ngidan o‘tmoqda.

\* \* \*

Kimdir kiftiga turtyapti.

Shoir asta ko‘zlarini ochib, tumshug‘i kirlanib-ko‘karib ketgan latta etikni ko‘rdi: tag‘in kim bo‘ldiykin bu? Odamcha... qir-yalang‘och edi shekilli.

Ana, tag‘in kiftiga nuqiyapti.

– Tur, o‘g‘lim.

Shoir otasining ovozi tanidi: iy-e, etik axir otamniki-ku!

– Nima uchun yerda yotibsan? – deb so‘radi otasi.

Shoir taajjublandi: chindan ham nega tap-taqir yerda yotibdi, kartda edi-ku?!

Ha-ya!..

– Uyqungda bosinqirabsan-da, a?

Shoir turayotib, maykasi hamda ishtoniga ilashgan chang-chungni qoqdi:

– Zohir qani?– dedi.

– Shiyponda, – dedi otasi.

Kunbotardagi shiypon tomondan bedanalarning xonishi eshutilib turardi.

– Nima uchun Bo‘ynoqni ergashtirib ketdingizlar? – dedi Shoir. – Oldimga bitta Odamcha keldi. Bo‘ynoq bo‘lganda kelolmasdi.

– Qanaqa Odamcha ekan u?

– Bilmayman... Arshu a‘lolanman, dedi. Farishta emish.

Otasi kulib:

– Esing joyidami, o‘g‘lim! – dedi.

– Rost aytyapman, ota. Ishonmasangiz, ana, ko‘ring o‘zingiz!..

Shoir yugurib, ishkom-chayla eshigi oldidagi shivirg‘oni uzum yoniga bordi. Va, hayrat ichra tek qotib, kiftlarini qisdi: uzum gurullab yonmaganday edi, aslidagi holicha barglar xiyol tillarang tusda tovlanib turardi.

– Ha, tinchlikmi? – dedi otasi. – Jim bo‘lib qolding?

– O‘sha Odamcha o‘zining osmondan tushganligini menga bildirib qo‘ymoqchi bo‘lib, barmog‘i uchini to‘g‘rilashi bilan ana shu uzum lovullab yongan edi. Men, o‘chir, deb uning qo‘liga urgandim, olov o‘chib qoluvdi. Keyin, Odamcha meni o‘zi bilan olib ketish uchun qo‘limdan tortganida, kartdan uchib tushib, oyog‘iga yopishgan edim. Hoynahoy... sizni ko‘rib qolib, Odamcha qochib ketgan bo‘lishi kerak, ota.

Bir oz jimlikdan so‘ng, otasi chimirilib, qo‘l siltadi:

– Qo‘y, tog‘angga o‘xshab ertak to‘qima, o‘g‘lim! – dedi. – Kallamni qotirma, tushingga kirgan bo‘lsa kerak yoki ko‘zingga ko‘ringandir.

– Yo‘q, ota...

Gapirgani qo‘ymay, otasi:

– Bas qil, o‘g‘lim, – dedi. – O‘zing tuppa-tuzuk bolasan-u, lekin, ba‘zan oshirvorganingyomon-da!

Shoir, gaplari chinligiga otasini qanday ishontirarini bilolmay, ensa qashidi. Kuldi. Eh, ota, dedi... Keyin, Suvparisi chaqirganini ham, o‘liklar bazmini ko‘rib qo‘rqanligini ham aytmadi – bari bir, otasi ishonmaydi.

– Shiyponga bor, – dedi otasi, sochlarini silab. – O‘sib ketibdi, pokida oldirish kerak... Ukang ovqat keltirdi. Qorinlaringizni to‘yg‘azgandan keyin, o‘t teringlar.

Shoir xayolchan alfozda shiypon tomonga yurib ketdi.

\* \* \*

Namozshom chog‘i hovliga qaytganlaridan so‘ng, hammalari so‘rida davra qurib ovqatlanishgach, negadir, Shoir bemahal uyqu elitayotganligini sezdi. Keyin, esu hushdan begona, ko‘rpachaga cho‘zilib, uxlab qolganligini bilmadi. Bir mahal, gangur-gungir ovozlari olis-olislardan qulog‘iga chalinayotganday eshitila boshladi:

- Uyg‘otma, onasi, uxlayversin... Boshiga yostiq qo‘y, ustiga ko‘rpa tashla.  
– O‘zingiz bilan birga olib ketmaysizmi?

Beixtiyor Shoiring ko‘zlari xiyol ochildi: yulduzlar!.. Tomga tegay-tegay deb turibdi. Tong otyapti...

– Bugun peshin payti behishtiy uzum ishkombaychaylada uxlab qolgan ekan, tush ko‘rib, kartdan yiqilib tushibdi.

– Vuy-ey!.. Otasi, qo‘rqmaptimi ishqilib?

Nogoh, Shoir vujudida oniy bir rohatbaxsh titroqni tuydi-yu, o‘zini yulduzlar sari parvoz qilayotganday his etib, yana uxlab qoldi.

Allamahalda rosa uyquga qonganday ko‘zlarini ochdi: yulduzlar ko‘tarilib ketibdi. Tepaga kelgan to‘lin oy esa hammayoqni sutday oydin nurga chulg‘agan. Daf‘atan qayerda yotganini bilolmay, sekin qaddini tiklab, yon-veriga sergak ko‘z yugurtirdi: so‘rining chap tomonida onasi, opasi, u yoqda ukalari qator uxlayapti. O‘zi esa... Nega onasining oyoq uchida tunab qolgan? Axir, otasining yonida bo‘lishi kerak edi-ku? Qiziq, nima uchun otasi birga obketmabdi?

Tag‘in to‘shakka cho‘zilib, yostiqqa bosh qo‘ydi.

Yaxshi – uzoq uxlagan kabi uyquga qongan. Ruhi tetik. Ajab, nimadir qilgisi kelayotganday edi. Lekin nima qilishi kerakligini bilolmayapti... Endi hadeganda uxlayolmasa kerak. Oyga tikildi: o‘rtasida... tog‘mi? Ha, xuddi toqqa o‘xsharkan. Oyda... odam bormikan-a?

Dabdurustdan osmonga uchgisi kelib qoldi. Entikdi. Nazarida, dast o‘rnidan turib, shitob qo‘llarini yoysa – shuv etib uchib ketadigandek... Yana beixtiyor entikdi: uchsa... uchaversa. Yulduzdan yulduzlarga qo‘nib, sayr qilib yursa... Bugun, peshin vaqti, o‘sha Odamcha bilan Arshu a‘loga uchsa bo‘larkan. Oyda, yulduzlarda nimalar borligini, nimalar bo‘layotganligini ko‘rib tushardi. Yo‘q, keyin qaytib tushmaysan, dedi-ku!.. Otasi ishonmadi. Mayli... biror kun o‘zlariga yo‘liqib qolsa, so‘ngra ishonib qolarla... Hozir shiyonga borish kerak.

Shu fikr ko‘nglidan kechgani hamono, irg‘ib o‘rnidan turdi. Onasiga, opasiga, ukalariga bir-bir qaradi: hammasi miriqib uxlayapti... So‘ng, so‘ri chambaragiga chiqib, qo‘llarini yoygan ko‘yi, pastga sakradi. Qiziq, negadir yerga tap etib tushmadi, go‘yo qushday ohista qo‘ndi. Suyunib ketdi. Chambarakka hardamxayollik bilan nigoh tashladi. So‘ng, bir zum osmonga orziqib tikildi: balaaand... Adog‘i bormikan-a?.. Yulduzlar... Ular buncha ko‘p. Ana, bir yulduz vizillab uchib, yana osmon bag‘riga singib ketdi.

Oyoq yalang yurib, darvozaga yaqinlasharkan, qayerdadir bir itning g‘ayirlik bilan hurganini eshitdi, shu asnoda, tag‘in bir gala it vovulladi. Va, xiyoldan so‘ng, itlarning uni uchdi.

Jismu jonini allanechuk bir xavotir chulg‘ayotganini his etarkan, bari bir qo‘rqmaslik kerakligini o‘ylab, sekin darvozani ochdi. Ko‘chaga chiqdi. Hammayoq op-oydin. Ko‘chada hech bir zog‘ ko‘rinmaydi. Jimjitlik. Ammo olisdagi sharsharaning bo‘g‘iq shovullayotgani quloqqa elas-elas eshitiladi.

Darvozani mahkam yopgach, mayda toshlar tovoniga qadalayotgani-ni sezib-sezmay, zarang ko'cha o'rtasidan ildam yurib ketdi. Zirillab borarkan, sovqatayotganini sezdi. Junjikdi. Maykasi ustidan ko'ylak kiymaganiga afsuslan-ganday bo'ldi.

Shu paytda...

... ana... Odamcha!

Odamcha ko'cha adog'idagi keng maydonlik o'rtasidan gazlama do'koni to-monga shamolday elib o'tdi.

Yo ko'ziga ko'rindimikan-a?

Allaqachon Shoir haykalday tek qotgan edi. Ikkilana boshladi: ancha yurib qo'ygan, ortiga qaytgisi yo'q. Biroq, oldinda xavf borgan o'xshayapti. Qaytsa-chi? Yo'q, qo'rqmaslik kerak. Nimadir g'urulladi!

Shoir ilkis maydonlikning narigi betidagi tor ko'chaga tikilib qaradi: qo-rong'iroq... Kitob do'konining soyasi ko'cha yarmini egallagan. Oldinda daraxtlar qorayib ko'rinadi. Daraxtlar ohista shovullayapti.

... e, g'urullasa – g'urullar! Qo'rqmaslik kerak. Onasi rost aytadi: qo'rqqanga qo'sha ko'rinar. Qo'rqmay, dadil yurish kerak.

Beixtiyor qo'llarini musht qilgan ko'yi, sekin joyidan jildi. Keyin, agar bi-ror kori hol ro'y berguday bo'lsa, zuvillab qochajagini o'ylab, tobora chaqqonroq yurdi. Ayni maydon o'rtasiga yaqinlashayotganida, tuyqus bir it yana g'ayirlik bilan vovulladi.

Go'yo Odamcha itga aylanib tashlanmoqchi bo'layotgandek, Shoir keskin o'girilib qaradi: bir gala ko'ppak tut soyasida bir qanjichni o'rab olgan ekan. Ta-lashishyapti.

... uf-f! Boya do'kon tomon elib o'tgan ham... Yo'q, Odamcha edi. Aniq!.. Qo'rqmaslik kerak. Vuy, yurakning olatasir urishini: duk-duk, duk-duk!.. Qo'rqmaslik kerak. Buyog'i oz qoldi endi. Anavi daraxtzordan keyin, Tegir-monariq ko'prigidan o'tsa – u yog'i bog'.

Shoir, yon-veriga alanglagan ko'yi, ildam yurib bormoqda edi. Bir zumda maydonlik ortda qoldi, keyin chaqqon tor ko'chadan o'tdi.

Daraxtzor oralagan so'qmoq oy nuridan go'yo behad-behisob kumush tanga-lar sochilib yotganday bo'lib ko'rinadi. Shabadada ohista shovullayotgan daraxt-lar orasida nimadir pinhonek, negadir Odamcha qadam-baqadam poylayotgan-day tuyulaveradi. Qovjiroq o't-o'lanlar bag'ridagi bedor hasharotlar esa ko'ngilga yanayam g'ulu solib shitirlyadi.

Bexos, bir boyqush tun sukunatini tilkalavordi: qiyuv-v!..

Shoir beixtiyor seskandi. Shu asnoda, birdan bir necha qush potirlab uchdi. Shoir g'udranib so'kinarkan, birga ergashtirib qaytmaganlari uchun dilida ota-sidan o'ksidi... Keyin, Tegirmonariq ko'prigiga yaqinlasharkan, jismu jonida beorom kezayotgan qo'rquv hissini unutganday bo'ldi: qurbaqalar basma-basiga sayrashyapti. Yeru ko'kni jonivorlarning yoqimli bir nag'masi tutib ketganday edi. Qirg'oq bo'yidagi o'skin qiyoqlar betinim titranadi. Qurbaqalar cho'lp-cho'lp

suvga kalla tashlaydi. To'lib oqayotgan simobiy suv yuzasi esa quyosh tig'ida qolgan kumush la'liday jimir-jimir yaltiraydi. Bunaqasini hech qachon ko'rmagan edi. Ajoyib!.. Oydin kecha.

Qumloq yo'l betidagi adl teraklar oy nuriga cho'milib, mayin shovullaydi. Yo'ldan nari mevazor bog'. Bog' uzumzorga tutashib ketgan. Ajab, atrof-tevarakda ko'ngilga allaqanday xotirjamlik aralash zavq-shavq bag'ishlovchi bir osudalik kezayotganday edi. Garchi, ushbu go'zal tabiatning bir zarrasi ekanligini Shoir ayni kezda idrok etmayotgan esa-da, unga vujud-vujudi bilan qo'shilib-qorishib ketgandek, endi qo'rquv hissini tamomila unutgan – to hanzuz fikru yodini band yetib kelayotgan Odamcha xayolidan butunlay ko'tarilgan edi.

Bir mahal, ro'paradan o'ynoqlab Bo'ynoqlab ko'rindi.

– Bo'ynoqlab! – dedi Shoir suyunib. – Bo'ynoqlab!

Jonivor, allatovur yer bag'irlab, oyog'iga suykaldi, so'ng yaltoqlanayotganday g'ingshib, qo'llarini yaladi.

– Meni tashlab kelaveribsan-a, Bo'ynoqlab! – dedi Shoir, uning kallasiga beozor shapatilab. – Yo'lda bir gala kuchuklarga duch keldim. Eh-h, Bo'ynoqlab!..

Bo'ynoqlab tag'in ixtiyorsizligidan noliyotganday chingsib, qo'llarini yalab, hu-rib qo'ydi. Nogoh, bezovta bo'lgandek, ariq bo'yidagi bostirma ostida eshak bir pishqirdi. Qo'tondagi qo'ylarning oromi buzildi.

Otasi shiypon ayvonidagi kartda yotgan edi, sekin qomatini tiklab:

– Kim? – dedi.

– Ota, – dedi Shoir.

Otasi, ovozi allanechuk tovlanib:

– Qo'rqmadingmi? – dedi.

– Yo'q, qo'rqmadim, – dedi Shoir.

– Qo'rqqandirsan-ov, o'g'lim... Bu yoqqa kelganingni onang biladimi?

– Uyg'otgim kelmadi.

Bo'ynoqlab tag'in bir suykilib, narida cho'nqaydi.

Shoir kart chekkasida oyoqlarini sholga artdi, so'ng otasining quchog'iga kir-di. To'shak issiqqina edi. Kiftiga otasi mehrchan qoqib:

– Uxla, – dedi.

Hammayoq jimjit. Yeru osmon opoydin. Yulduzlar ajab bir sehrkorlik bilan jimirlaydi. Terak barglari esa, allalayotgan kabi mayin shildiraydi.

Negadir, Shoirning uyqusi kelmayotgan edi:

– Ota... – dedi. – Erta qanaqa kun?

– Nimaydi?

– Bozor kuni «Alifbe» olib beraman, devdingiz.

– Bozorgacha hali uch kun bor.

– Besh kundan keyin maktab, ota.

– Nasib!.. Endi uxla, o'g'lim.

Shoir ko'zlarini yumdi.

Keyin, tuyqus O d a m c h a hamda o' l i k l a r bazmi yodiga tushdi-yu, shartta ko'rpani boshiga tortdi.

Xiyoldan so'ng, nimasidandir ayro tushayotganligini his etib-etolmay, tobora uyqu g'olib kelayotganligini sezdi.

Keyin...

...allamahalda, tushidami yoxud xayolidami, turnalar bilan osmonu falakda uchib yurganday tuyuldi. Va, oradan hayal o'tar-o'tmas, birdan ko'ngli aynib, shartta kart chekkasiga cho'zilar-cho'zilmas, qayt qilvorarkan, turnalar alyori qu-log'iga bo'g'iq chalindi: qur-ey! Qur-ey!..

A'zoyi badani qalt-qalt titrarkan, og'zidan qusqi aralash so'lak oqqancha, behol ko'kka tikildi: tong bo'zarib otmoqda, osmon bag'rida qator tizilishib ucha-yotgan turnalar qaldirg'ochlarday kichrayib ko'rinadilar: qur-ey! Qur-ey!..

Shu paytda otasi ariq tomondan ildam kelib, muzday kaftini peshonasiga bosarkan:

– Aytgandim-ku, qo'rqqansan, deb! – dedi. – Ana, lablaringga uchuq toshirti.

Tag'in birdan ko'ngli aynib, ichak-chavog'i og'ziga kelganday bo'ldi. Lekin, qayt qilolmadi.

– Qus! – dedi otasi, uning boshini kaftlari orasida tutib. – Qussang, yengil tortasan.

Shoir yanayam qalt-qalt titrab:

– Kelmayopti, – dedi. – Sovuq yeyobman.

– Isitmaniki... O'tib ketadi. – Otasi yelkasidagi belbog'ni olib, lablarini artadi, yuzlarini siyirdi. Temir choynakdan piyolaga sovuq choy quyib, og'zini chaydirdi. So'ng, to'shakka cho'zilgach, ko'rpani ikki qatlab ustiga yopdi. – Xudo xohlasa, yaxshi bo'p ketasan, o'g'lim. O'ylama... hech nimani o'ylama, otday bo'p ketasan hali.

Shoir, oradan lahza kechar-kechmas, alahsiray boshladi: ana, O d a m c h a ... odamsimon s u y a k l a r ... Ana, kimdir chaqiryapti. Iy-e, Suvparisi-ku! Qochish... qochish kerak!... Nogoh, yaydoq bir qizil ot paydo bo'ldi... Ot tomon yugurish... Otga minib qochish... qochish kerak!..

Keyin...

... jiqqa terga botib uyg'ondi.

Choshgoh mahali. Quyosh qizdirmoqda. Teraklar shoxida g'uj-g'uj chum-chuqlar chug'urlashyapti. Shoir sekin to'shakda cho'nqayib o'tirdi. Xiyla bedarmon edi. Yon-veriga xastahol qaradi: ota ko'rinmaydi. Aqlu shuurini quyuq tumanmi, nimadir o'rab-chirmab olganday edi... Nima qilsaykin-a? Sekin kartdan tushdi. Shiypon ayvoniga tutash xona eshigini ochib qaradi: ota bu yerda ham yo'q. Qayerda bo'lishi mumkin?.. Bo'ynoq-chi?

Tuyqus, nimadir gurs etdi. To'rqovoqdagi bedanalardan biri bezovta pitirladi. Shoir Majnun tepa tomon nigoh tashlab, ishkombayla yonida otasini ko'rdi. Ota qo'lidagi allanima quyosh nurida yalt-yult qilmoqda edi. Otasi tomon jildi. Bir oz yurgach, charchadi. Namchil ariqcha bo'yidagi quruqshab yotgan kesak ustiga

cho'nqaydi. Bemajol edi. Quloqlari shang'illayapti. Ko'zlari tinayotganini sezdi. Majolsizlikdan xo'rliigi keldi. Keyin, nechundir allakimlardan ko'nglida o'ksidi. Va, asta uv tortib, yig'lay boshladi: ota, menga nima bo'ldi? Otajon!..

Shu paytda, qayoqdandir Bo'ynoq yelib keldi. Halloslab-hansirab oyoqlariga suykaldi. So'ng, poyida cho'zilib, qo'llarini yaladi. Chingsidi.

– Ha, Bo'ynoq?..– dedi Shoir. – Mana... men nega yig'layopman, bilasanmi? Bilmaysan. O'zim ham bilmayman.

Bo'ynoq tumshug'ini cho'zdi... So'ng, o'rmidan turdi-yu, ariqchadan oshib, ishkom-chayla sari yo'l boshladi. Besh-olti qadam nari borib, ortiga qaradi. Cho'nqaydi. G'ingshidi.

Shoir sekin ariqchadan o'tib, yer bag'irlab yotgan uzumlar oralagan ko'yi, ishkom-chayla sari yurdi. Chaylaga yaqinlashayotib, ko'rayotganlariga ishonib-ishonolmay, serrayib qoldi: kechagina peshin chog'i hushidami-tushidami tokning gurullab yongan shoxidagi barglar chindan ham gulxanda qovjiraganday quvrangan; shig'il-shig'il shivirg'oni shingillar esa po'lqitlanib yotar; otasi uni chopgan; chopilgan joydan endi ko'z yoshiday suyuqlik sizib oqmoqda edi.

– Nima uchun chopdingiz?

Otasi tokning yonbetida bir chuqur kovlayotgan edi, birdan seskanib qaradi-yu:

– Ha, Shoirjon?.. – dedi. So'ng, shartta ketmonni qo'yib, kiftidan quchdi. – Peshonasidan o'pdi. Lablaridagi po'rsiq uchuqlarni ohista bosib ko'rdi. – Yig'lab-san-ku, o'g'lim. Nima bo'ldi?

– O'zim...

– Kap-katta bola-ya?! Uyat... uyat.

– Nima uchun uni chopib tashladingiz?

– Sen... bunga parvo qilma, o'g'lim.

Nazarida, otasi nimanidir payqagan, nimadandir bezovta edi.

– Chopmaslik kerak edi.

– Bog'da qurigan daraxt, tok... xunuk ko'rinadi-da! – Ota shunday deb, bir kundayoq qovjirab-quvrangan tokni chuqurga bosib, ustidan tuproq torta boshladi. – Bor, chaylaga kirib, damingni olib yot. Uxlab qolma lekin!.. Birga qaytamiz.

– Ko'mib tashlagancha, qo'ylarga bersangiz bo'lmasmidi, ota?

Otasining ko'ylagi terdan jiqqa ho'l edi, peshonasidagi terlarni yengiga artib:

– Sen hozir bu yoqqa kelmasliging kerak edi, Shoirjon, – dedi. – Uchingansan axir, o'g'lim.

Tuyqus Bo'ynoq irg'ib turdi-yu, g'ayurlik bilan yer tatalagancha, negadir qabristonga qarab hura boshladi.

Ota shartta bir kesakni olib otarkan:

– Bo'ynoq! – dedi o'shqirib. – O'chir!..

Shoir ilkis qabriston tomonga o'girildi, ko'ziga biror zog' ko'rinmadi. Lekin, tag'in ajabtovur burg'u-yu balabon sadolari qulog'iga chalinayotganday tuyulib, boshi aylanayotganligini sezdi. So'ng:



- Eshityapsizmi, ota? – dedi.
- Nimani? – dedi otasi, ko‘zlari bejolanib.
- Balabon tovushini.

Ota indamay, tok zangi yonidagi oyboltani belbog‘iga qistirdi-yu, ildam borib:

- Opich yelkamga, Shoirjon, – dedi.
- Kerak emas, ota. O‘zim...
- Bo‘l, gapni ko‘paytirma!

Shoir xushlar-xushlamas otasining yelkasiga opichdi.

Bo‘yoqni ergashtirib, ishkom-chayladan ancha uzoqlashganlaridan so‘ng, ota o‘ychanlik bilan:

– Hademay, uzum uzishni boshlaymiz, – dedi. – Endi sen boqqa kelmasang ham bo‘ladi. Maktabga tayyorgarlik ko‘rishing kerak.

Shoir indamay, Majnun-tepa qabristoni tomon o‘girilib qaradi: allatovur harir parda yanglig‘ nimadir tag‘in jimirlab, kumushranglanib ko‘rinayotganday edi.

\* \* \*

Tusi o‘chib ketgan vassajuft shiftga Shoir xayolchan tikilgan ko‘yi, olis o‘tmishni xotirlarkan, hamon hayronu ma‘lul edi: o‘shandan keyin, – ko‘p yillar keyin, – talabalik kezlariida nimadandir siqilgan, kimningdir diydoriga ilxaq damlarida, ba‘zan esa dabdurustdan uchib ketish uchun bot-bot osmonga talpinganlari yodiga tushdi. Tag‘in beixtiyor otashin entikdi. Qani edi, qulochini yoysa-yu, uchiib ketsa!..

Nega... nima uchun shunday – hanuz biror-bir jo‘yali javob aytolmaydi. Ammo, shu armonli istak har gal ko‘nglidan kechgani hamono, sirli-sinoatli samo judayam yovuq tuyulib, ruhiyatida allanechuk sururbaxsh bir titratmani his etadi. Va, ko‘zlarini yumadi-yu... quloqlari ostida shamol guvillayotgandek, jismu jusasi esa tobora yengil tortayotganday uchib ketaveradi.

Bu g‘alati holdan yaqin-yaqinlargacha bahri dili yayraganligini hali-hamon entikib eslaydi. O‘shanday kezlarda: salom, to‘lin oy!.. Mana, menman, deb hayqirgisi kelganligi yodiga tushib, hali-hamon xurram jilmayadi. Biroq, bu ajabto-vur holni hech qachon birovga aytmagan. Biladi: aytsa – hangomatalablar esariga yo‘yib qo‘ymasalar hamki, albatta kulishlari tayin. Darvoqe, o‘shanda nima uchun ishkom-chayla yonidan sarosar jo‘naganlari boisini bilolmagan, otasi esa dabdurustdan sarosimalanganligi sababini aytmagan edi.

Otasining tabiati o‘zi shunaqa: kamgaproq.

To hanuz qo‘qqisdan Bo‘yoqning g‘ayurlik bilan yer tatalagancha, Majnun-tepa qabristoniga qarab yovqur hurgani-yu, daf‘atan otasining ko‘zlari bejolan-ganligi hamda nogoh o‘zining quloqlariga allaqanday sadolar chalinganligi sirini bilolmaydi.

Ha, garchi tahluka ichra bir kori holni kutgan esa-da, oradan bir yil o‘tguñ-ga dovur hech nima ro‘y bermagan edi. Keyin, roppa-rosa bir yildan so‘ng, ayni

uzum pishig'i kunlarida biri-biridan dahshatliroq bir necha voqea ustma-ust sodir bo'lgan edi.

Hamon o'sha kunlar yodiga tushgan zahotiyuq, O d a m c h a maydonlikni kesib o'tgan oydin kechadagidek, birdan yuragi olatasir ura ketdi.

\* \* \*

Peshin payti edi, tuyqus darvoza ochilib, hovliga avval qo'ng'izdek qop-qora bir kuchukcha yugurib kirdi-yu, tarvaqaylagan tut ostida mudrab yotgan Bo'y-noqni ko'rib, cho'chonglab hura boshladi: chav-chav-chav!..

Kuchukcha tanish edi: oti – Tozigul. Bo'ynoq erinchoqlik bilan g'urillab qo'ydi. Tozigul hurishdan tinib, og'ilxona ayvoni ustunini hidladi. So'ng, orqa oyoqlaridan bittasini ko'tarib, ustun poyini ho'lladi.

Shoir bog'dan o't terib kelgan, endi so'rida o'tirib, qulfak<sup>1</sup> somsa yemoqda edi, onasiga qarab:

– Ana, qovog'ingiz uchib turgan bo'lsa, jo'gi xolangiz keldi, – dedi. – Turing, kutib oling.

Zohir esa, shishib ketgan xasta oyog'ini so'ri chambaragi ustiga qo'yib yotgan edi, bir ingranib:

– Ana, jo'gi xolangizning Toziguli allaqachon ish bajarib qo'ydi, – dedi.

Ona o'g'illarini beozor koyidi:

– Jim bo'linglar-e, musulmonlar!..

Shu asnoda, yelkasiga xurjun tashlab, qo'liga uzun hassa tutgan, baland bo'yli, qoraparang, oltmish yoshlardagi bir lo'li xotin darvozaxonaga tutash ayvondan o'tib, so'ri sari ildam yaqinlashaverdi.

– Assalom, Mayram xola!.. – dedi ona, peshvoz yurib. – Keling... Xush keldingiz.

Mayram lo'li xurjuni hamda hassasini yerga qo'yib, salomga alik olgach, atrof-tevarakka bir qur ko'z yugurtirarkan:

– Adol, molu joning sog'mi? – dedi. – Boyingu bachalaring eson-omonmi?

– Shukur, Mayram xolajon. So'riga chiqing. Chalob qilib qo'yibman. Muzdek-kina.

Mayram lo'li qars urib:

– Tozigul!.. – dedi.

Kuchukcha besabr hovli iskanib yurgan edi, zing'illab borib, xurjun yonida cho'nqaydi. Keyin, Mayram lo'li so'riga chiqayotib:

– Choriyorlar haqiga, aziz avliyo-yu anbiyolar haqiga qozon osib, is chiqar, Adol! – dedi. – Kam bo'lmaysan. Tavba gunohni yo'q qil, sadaqa baloni!..

– Yaratgan Qodir egamga erta-yu kech shukur qilib yuribman-ku, Mayram xola.

– Noshukurlik – yomon, lekin yakkash shukronangning o'zi kamlik qiladi. Bildingmi?.. Saxiy bo'l, saxovatli bo'l.

<sup>1</sup> Q u l f a k – semizo't.

– Ha, endi imkon qadar-da, Mayram xola! – deb, ona Zohirni ozorsiz koyidi. – Hay, beadab, nariroq surilsang-chi!

– Qo‘y, yotaversin, – dedi Mayram lo‘li so‘ri chekkasiga horg‘in cho‘kib. – Bachang xasta-ku, Adol?.. Ha, turkvachchalar! ..

Zohir cho‘zala tushib yotgan ko‘yi, xiyol surilgan bo‘lib, «jo‘gi xola»ga allanechuk bir qarab qo‘ydi. Quruqshagan lablarini qimtimdi.

Mayram lo‘li kaftlarini yoyib:

– Omin, Xudoyo xudovando sherimard jilovdoring bo‘lsun, Adol... Bola-chaqangni rohatini ko‘r. Ollohu akbar! – dedi.

– Iloyo aytganingiz kelsin, Mayram xolajon!..

– Ko‘changdan o‘tib ketayotuvdim. Tozigulim darvozangni oldida taqqa to‘x-tab, kirabiz, dedi. Xay, kirsak – kirayluk, dedim.

Zohir beixtiyor piq etib kuldi. Ona tag‘in unga noxush chimirilib:

– Hay, Zoyir!.. – dedi. So‘ng, Mayram lo‘liga choy quyib uzatdi. – Hamisha mehmon uchun darvozamiz ochiq, Mayram xola. Keyingi paytlarda kamdiydor bo‘lib ketuvdingiz o‘zi.

– Bu yil Samarqandda qishlab, Surxondaryoda amal-taqal bilan bahorni o‘tkazduk. Bilasan-ku, jo‘gi xolangni oyog‘i boqadu, Adol! Mana, yoz... pishiqchilik. Kecha, xufton mahali dayravotga kelib qo‘nganbiz.

– Oling, bichakdan<sup>1</sup> yeng, Mayram xola, choyni quruq ichmang.

– Yeyman, – dedi Mayram lo‘li, choydan ho‘plab. – Oyog‘im tortmagan joyga kirmayman, ko‘nglim tusamagan joydan tuz totmayman. Lekin, san yaxshisan, Adol. Dasturxonning manga begona emas. Ko‘changda o‘zingga o‘xshagan uch-to‘rtta diltortarim bor. Bugun bir-bir diydorlashib chiqaman.

– Mayli, murodingiz hosil bo‘lsin, Mayram xola.

Mayram lo‘li choy ichdi, somsadan edi. So‘ng, dabdurustdan boshini sarak-sarak qilib:

– Aytsam – tilim kuyadi, aytmasam – dilim!.. – dedi, negadir Zohirga bir necha bor suq bilan nigoh tashlab. – Nega qosh-qavog‘ing beqo‘nim uchishini, yuraging taka-pukaligi sababini aytaymi, Adol?

– Rost, ikki-uch kundan beri yuragim nimadandir bezillaydigan bo‘lib qolgan, – dedi ona. – Agar... agar yomon gap bo‘lsa aytmang, Mayram xola, kerak emas.

– Yomonni bilmay, yaxshiga yetolmaysan... Bu dunyosiga hammamiz omonatmiz. Lekin, man sanga haqqi rosti aytar bo‘lsam, anavi turkvachchang... sanga omonat, Adol.

Birdan rang-ro‘yi bo‘zarib:

– Iloyo tilginangizga chirqon chiqsin-a, Mayram xolajon! – dedi ona. – Bas qiling!.. O‘zim sizga bir ko‘ylaklik asl libosdan olib qo‘yibman. Bitta qora tovuc ham beraman. Bolaginalarimni duo qiling. Shuginalarim unib-o‘ssin, o‘zidan ko‘paysin.

<sup>1</sup> B i c h a k – somsa.

– Qo‘rqma, bu dunyosining o‘zi aslida omonatxona, – dedi Mayram lo‘li, parvosiz qo‘l siltab. – Omonatini birov erta topshiradi, birov keyin...

Ona, yuz-ko‘zlari asabiy pirpirab:

– Agar yana bitta yomon gap aytasangiz, qarg‘ayman lekin! – dedi.

– So‘kaver, qarg‘ayver, Adol, – dedi Mayram lo‘li, mayin kulimsirab. – So‘ksang bitim to‘kiladi, qarg‘asang – gunohim... Lekin, man – esini tanigandan beri to‘g‘ri gapini aytib kelayotgan jo‘gi xolangman. Parilarim shu paytgacha mani aldamagan, shu paytgacha chiltonlarim manga pand bermagan. – Shunday deb, Mayram lo‘li tag‘in Zohirning jarohati bog‘lab qo‘yilgan oyog‘iga uzoqdan razm soldi. – Ko‘rib turibman, turkvachchangning oyog‘iga qizil jangalning tikani kirib, sinib qolgan. To‘g‘rimi, bacham?

Zohir ilkis qaddini tiklab, ixtiyorsiz ag‘rayarkan:

– Rost... rost! – dedi. – Ana, ona, sizga aytuvdim-ku!

Mayram lo‘li esa shartta onaga yuzlanib:

– Adol, darrov bir tog‘oracha namakob tayyorla! Xamirdan qil sug‘urganday qilib, tikanni qo‘lingga olib beraman hozir.

Zohir keskin bosh chayqab:

– Yo‘q-yo‘q, kerak emas! – dedi – Qo‘rqaman... Ona, kerak emas, og‘ritadi.

– E, jon desang-chi, Zoyirjon!.. – Ona ildam oshxona tomonga o‘tarkan, Shoirga buyurdi. – Bor, tavanxonadan eski tog‘orachani olib chiq, o‘g‘lim.

Mayram lo‘li chaqqon o‘rnidan turib, baxmal nimchasini yechdi, ro‘molini qayta turmaklab bog‘ladi, so‘ng yenglarini shimardi. Hayal fursat o‘tar-o‘tmas, ona namakob tayyorlab, yerga sholcha yozdi, ko‘rpacha to‘shadi, so‘ng Zohirni chaqirdi:

– Kel, o‘g‘lim... Imillama!

Zohir inqillab so‘ridan tusharkan:

– Ona, oyog‘imni o‘ziz ushlab turasiz, – dedi elanib.

– Qo‘rqma, bacham. – Mayram lo‘li ko‘rpachaga Zohirni chalqancha yotqizib, oyog‘idan dokani yechdi. Oyoqning ham osti, ham usti shishib, jarohat maddalab ketgan ekan. – Bay-bay, qanday chidading-a, turkvachcha?! – deya Mayram lo‘li jarohat tevaragini silab-siyपालadi. So‘ng, sekin oyoqni namakobga botira boshladi. – Kuydirmayaptimi?

– Yo‘q, bilinmayapti, – dedi Zohir.

Bir ozdan so‘ng, oyoqni namakobdan chiqarib, Mayram lo‘li allanimalarni pichirlagan ko‘yi, jarohatga kuf-suf qilgach, tag‘in namakobga solarkan:

– Adol, endi san jinday kiyiz kuydirib kel, – dedi.

– Hozir opkelaman, Mayram xolajon, hozir!..

Tag‘in oradan xiyol fursat o‘tdi.

Mayram lo‘li avaylabgina Zohirning oyog‘ini kaftiga qo‘yib, takroran jarohatni silab-siyपालay boshladi. Madda yanayam shishib, yanayam bilqillab qolgan edi.

– Og‘riyoptimi, bacham?

– Yo‘q, sezmayapman, – dedi Zohir.

Mayram lo'li xonish qilayotgandek bosiq ohangda pichirlab:

– Mani qo'lim emas, Luqmoni Hakimning qo'li, madadkor bibi Gulyor parimning qo'li... Kuf! – deya barmog'i bilan tilib yubordimi yoki maddaning o'zi yorildimi, tog'orachaga yiring aralash qon chakillab toma boshladi. – Ana bo'ldi... Yana birpas jim yotasan.

Hamon Shoir kirrik qoqmay, barcha xatti-harakatni kuzatib o'tirgan edi, ang-rayib qoldi: Zohir loqal qilt etmadi-ya!

Shu paytda ona shoshilinch pildirab, bir parcha doka hamda temir tovoqchada kigiz so'xtasi keltirdi:

– Mana, Mayram xolajon...

Nogoh, Zohir tishlarini g'ich qilib, baqirib yubordi:

– Bo-ah-h-x!..

– Jim, turkvachcha, jim!.. Ana, tomosha tamom. – Mayram lo'li tishkovlagichdan xiyol nozikroq bir tikanni barmoqlari uchida tutib onaga uzatdi. – Ma, ko'rib qo'y akun.

Tikanni qo'liga olarkan, beixtiyor peshonasi tirishib, ona bosh chayqadi:

– Bolam bechoragina-ya! Rosa azob yebsan-ku, Zoyirjon. Umriginang uzoq bo'lsin-a, bolajonim!..

Zohir ma'nodor, mehrchan qarab qo'ydi. Indamadi. Mayram lo'li jarohatga so'xta bosib, doka bilan bog'lab qo'ygach:

– Manga chap qo'lingni cho'z, – dedi. Va, uning kaftiga uzoq tikilib, negadir parishon bosh irg'adi. – Akun shu oftobro'yada uxla. Yum ko'zingni!

Zohir itoatkorlik bilan ko'zlarini yumdi.

Xiyoldan so'ng Mayram lo'li vazmin o'rnidan turib, so'riga yaqinlashdi. Omonat cho'nqaydi. Onaga savolchan tikildi: aytaymi, Adol?

– Ha, nima uchun jim bo'lib qoldingiz, Mayram xola?

– Adol, man sanga aytsam... shu hafta ichi boshingda bir ko'rgiliging bor.

– Yana boshladingizmi, Mayram xola!.. Shoshmang axir, Mayram xolajon, nafasimni sal rostlavolay.

– Gapimni bo'lma akun!.. Quloq sol: ko'zimga bir bog' ko'rinayopti. Bog' o'rtasida bir ishkom-chayla...

Birdan Shoir hayajonlanib:

– Ona, rost! – dedi. – Axir, u – o'zimizning chayla-ku!

– Man sanga aytsam... ana o'sha chayla yonida o'g'lingga bir farishtaning nazari tushgan.

Beixtiyor Shoir entikdi, jim qoldi.

– Tikan ham o'sha yerda oyog'iga kirgan, – dedi Mayram lo'li. – Ana, ishonmasang o'g'lingdan so'ra.

Dabdurust besabrlik bilan ona:

– Zoyir? – dedi. – Zoyirjon?!

– O'g'ling uxlayopti, Adol, – dedi Mayram lo'li allanechuk kulimsirab. – Uyg'onganidan so'g'in so'raysan.

Chindan ham Zohir allaqachon uxlab qolgan, bir maromda pishillab nafas olmoqda edi. Negadir ona shitob Zohir yoniga bordi, bir zum termilib turdi, so'ng chaqqon uyga kirayotib:

– Shoirjon, yugur, katakdan bitta qora tovuq tutib chiq! – dedi.

Og'ilxona ortiga Shoir yugurib o'tdi-yu, zumda bir qora tovuqni qaqqog'latib ko'tarib qaytdi.

Mayram lo'li tovuqni qo'liga olib:

– Diding binoyi-ku, turkvachcha! – dedi. So'ng, shartta dasturxon chetida turgan pichoq bilan tovuqning shalpaygan tojisini tilib, Zohirning jarohati bog'langan dokaga bir necha tomchi qon tomizdi. Keyin, kaftiga bir oz qon oqizib, avval Zohirning boshiga, so'ngra, qo'yarda-qo'ymay, Shoirning ham boshiga surtdi. – Buning karomatini keyin bilasan, nodon!..

Shu paytda ona uydan ikkita non hamda bir ko'ylaklik gazlama chiqarib uzatarkan:

– Mana, Mayram xolajon, bu pulniyam olib qo'ying? – deb, elandi. – Bolalarimni duo qiling! Shuginalar ortimizda qolsinlar, iloyo dog'u hasratlarini ko'rmaylik.

– Arzingni Olloh eshitgay, Adol, – deb, Mayram lo'li gazlama bilan nonni hamda tovuqni xurjunga soldi. So'ng, nimchani kiyib, tag'in kaftlarini yoydi. – Adol!.. Omin, aziz avliyo-yu anbiyolar sani qo'llab, farzandlaring umrini ziyoda qilsin. Boying bilan qo'sha piru badavlat bo'lg'aysan. Ollohu akbar!..

– Omin, iloyo aytganingiz kelsin, xolajon!.. Agar yo'lingiz tushsa, ertagayam kiring!

– Mayli... – Mayram lo'li xurjuni yelkaga osib, hassasini duq-duq yerga urdi. – Agar ertaga kelolsam, sanga bir rivoyat aytib beraman. Zo'r rivoyat!

Beixtiyor Shoir betoqat bir hayajon bilan:

– Hozir ayting, jo'gi xola! – dedi yalinib. – Ayta qoling, jo'gi xolajon?

– Ertaga, turkvachcha, ertaga!.. Adol, Xudoyim bachalaringdi barining umrini ziyoda qilsin, lekin man sanga aytсам, shu o'g'ling zo'r odam bo'ladi. Ko'rasan!.. Xayr, omon bo'l, Adol!

– Xayr, Mayram xolajon!..

Mayram lo'li Tozigulni ergashtirib, shaxdam hovlidan chiqib ketdi.

Ammo, nima uchundir Mayram lo'li ertasi kelmadi.

Indini, choshgoh mahali ota eshakka ikki chelak meva-cheva yuklab, dayravotga yo'l oldi.

Ota qo'nalg'aga borsa, buzib ketilgan chaylalardan qolgan parcha-purcha laxtag-u qog'ozlar shamolda to'zg'ib, o'choqlarda chala yongan o'tinlar tutayotganmish.

\* \* \*

Ha, o'sha kuni, – Mayram lo'li chiqib ketganidan so'ng, – nihoyat, hushiga kelgandek, ona bir muddat Zohirga o'ychan termilib turdi. Zohir jiqqa terga botib uxlamogda edi. Ona sholchaga mungrayib cho'kdi. So'ng, uning peshonasi, yuzlaridagi terlarni ohista artayotib:

– Shoir, bor, bolam, – dedi. – Jo'gi xolangdan eshitganlaringni oshirmay-yashirmay otangga yetkaz. Hayallama!.. Namozgar ertaroq qaytinglar.

Shoir dasturxonga o'rog'lik qulfak somsa, bir mashrapa ayron olib, boqqa jo'nadi. Sarosar yetib borgach, hamma gapni otasiga aytdi. Ota, birdan yurak-bag'riga o't ketgandek, muzdek ayronan simirib:

– Ukang haliyam uxlab yotibdimi? – deb so'radi.

– Uxlayapti, – dedi Shoir.

Bir oz jimlikdan so'ng, ota g'udranib:

– Aql bovar qilmaydi-ya!.. – dedi. Keyin, ta'kidli nazar bilan tikilib, tayinladi. – Ukangni yolg'izlab qo'yma, o'g'lim!

Shoir bosh iring'adi: xo'p bo'ladi!..

Ota oyboltani belbog'iga qistirib, qo'lida tokqaychi, boshini quyi eggancha, Majnuntepa tomonga sekin yurib ketdi.

Shoir dasturxonni ayvon havozasiga osgach, bedanalarning suvdoniga suv quydi. Keyin, o'roqni olib, boqqa kirdi. O't terayotib, otasining negadir xavotir bilan tayinlagan topshirig'i xayolidan kechdi: demak!.. Va nogoh, atigi bir yil emas, go'yo allazamonlar tushidami yoxud hushidami ro'y bergan o'sha g'aroyib voqea yodiga tushib, yana ko'z o'ngida tanish manzara yorqin namoyon bo'ldi: ana, mayin ovozda kimdir chaqiryapti... Ana, qabriston pastqamligida o'liklar bazmi. Ana, Odamcha!..

Bexos quloqlari ostida Odamchanning allanechuk cho'zinchoq ovozi eshiti-layotganday tuyuldi:

– ... Odamzod umr bo'yi osmonga talpinib yashashini sen hali bilmaysan-da, bolakay! Arshu a'loda qanday mavjudotlar borligini, ular nima ishlar bilan mashg'ulligini odamlar juda-juda bilgilar keladi, lekin hech qachon bilolmaydilar. Agar sen hozir men bilan ketsang, ko'p sirlarga oshno bo'lasan, uchib-kezib yurasan. Maza!..

Xayolchan alfozda Shoir o'tlarni ariqcha bo'yida chosh qilib, ustiga o'tirdi. Havo issiq, terlab ketgan edi, terlarini artayotib, ishkorn-chayla tomonga qaradi. Qaradi-yu, hayratdan angrayib qoldi: iy-e, chayla qani?!.

Shoir dik etib o'rnidan turdi: negadir ishkorn-chayla yo'q... Ko'rinmaydi.

Ota esa o'sha atrofda kuymalanib yurardi.

Beixtiyor ko'ksiga bir vahm o'rlab, Shoir:

– Bo'ynoq! – deb qichqirdi. – Bo'ynoq?!

Bo'ynoq teraklarning namchil soyasida mudrab yotgan edi, bir zumda yelib keldi.

– Qaramaysanmi axir, chaylani buzib ketishibdi-ku! Yugur!..

Go'yo farmoyishni tushungandek, Bo'ynoq ariqchadan sakrab o'tdi. Shoir ildam itning izidan ergashdi. Yaqinlasharkan, otasi chayla yog'ochlarini yig'ishtirayotganligini ko'rib:

– Ha, ota, chaylani nima uchun buzingiz? – deb so'radi.

Ota belidan belbog'ini yechib, peshonasi-yu yuzlarini horg'in siyirgan ko'yi:

– Ana, shiypon bor-ku, o'g'lim, – dedi. – Yetadi o'sha.

Javobdan qanoatlanolmay, battar Shoiring taajjubi ortdi: nega axir?! Yo chindan ham biror nimani payqaganmikanlar-a?..

– Ota, chalob keltiraymi?

– Ketamiz, – dedi ota, uzum to'la savatni ko'tarib. – Bu yerda qiladigan ishimiz qolmadi endi, o'g'lim.

\* \* \*

Namozgar ona, ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, malomat bilan qarshi oldi:

– Baraka toping, otasi, keching bahridan o'sha bog'ning!

– Esing joyidami o'zi!

– Xo'p... siz eslik bo'la qoling, otasi. O'tgan yili Shoiringiz aytganida ishonmovdingiz, Zoyir aytganda ishonmadingiz. Axir, bugun Mayram xolayam o't tushgur o'sha behishti ishkom-chaylangizni tilga oldi-ku!..

– Folbinda, valaqlayveradi. Nima, hamma gapiga ishonaverasanmi axir. Bor, kallamni qotirma!

Shoir onasini yupatgisi kelib:

– Ona, chaylani buzdik, – dedi.

Negadir, birdan ko'zlari kattarib, ona:

– Buzdingizlar?! – dedi. So'ng, yuz-ko'zlarida allatovur bir mayin tabassum jilolandi. – Ajab qilibsizlar!.. Otasi, manga qarang, endi o'sha yerda bitta qo'y so'yib, Qur'on o'qitsangiz?

– E!.. – dedi ota, chimirilib. – Zoyiring yaxshimi o'zi?

– Yaxshi. Ko'chada o'ynab yurirti... Otasi, engmishlik qilmang, bitta qo'y bolalarigizning boshu ko'zidan sadag'a. Jon otasi, yo'q demang?

– Qo'ylar sal semirsin xay.

Otaning piching qilayotganini tushunib, ona qahr bilan:

– Bilib qo'ying, bugundan boshlab bolalarimni boqqa borgani qo'ymayman! – dedi.

– Yo'q! – dedi Shoir. – Zoyiringiz bormasa bormasin. Lekin, men shiyponda otam bilan yotaman.

Keyin, ona yalinchoq ohangda:

– Bilmayman, o'z-o'zidan yuragim ko'yishgani ko'yishgan, – dedi zorlanib. – Bejiz emasdir axir, otasi! Rahmingiz kelsin munday?..

– Mayli, – dedi ota, nihoyat yon bosib. – Agar ertaga Mayram xolang kelsa, bog'dan meniyam chaqirtir. Childirmasini chaldirib, o'zim bir fol ochtiray qani.

\* \* \*

Peshin. Ota, kecha dayravotdan xomush qaytganidan so'ng, uyda bamayli-xotir o'tirolmay, boqqa kelgan, negadir, kechqurun ovqatlangani ham bormagan; mana, boyagina tushlik qilib, endi shiypon ayvonida mudramoqda edi.



Zohir, Fozil, o'zi – uchovlashib, Bo'ynoqni ergashtirgan ko'yi, Tegirmonariq yoqalab, qumloq yo'ldan xandon-xushon gurunglashgancha, Majnuntepa tomonga o't tergani borishyapti. Dabdurustdan Mayram lo'lining qayoqqadir g'oyib bo'lganligini bilgach, ona ham, ota ham Zohirga yolg'iz yurishni man etgan, shu bois, birga o't tergani Fozil jo'rasini hamroh qilib kelgan edi.

Fozil kecha oqshom brigadaning dala shiyponida «Chapayev» kinosini ko'rgan ekan: og'ir yaralanganiga qaramay, o'q yomg'iri ostida, qonday qir-qizil daryodan Chapayevning suzib o'tganligini zavq-shavq bilan hangoma qilmoqda edi.

Atrof-tevarakda dilkash bir sokinlik hukmron... Adl teraklarning barglari ohista shitirilydi. Ahyon-ahyonda, u yer-bu yerda chigirtkalar erinchoqlik bilan chirillab qo'yadi.

Bir mahal...

Yopiray, hammasi bir zumda ro'y berdi-qo'ydi: birdan Bo'ynoq tahlakali g'urullab, ura uzumzor sari qochdi. Ayni shu barobarida Zohir allakimgadir darg'azab o'qtalib:

– Onangni!.. – deya shitob oldinga yugurdi. – Hozir ko'zlaringni o'yaman sani!..

Daf'atan Fozil nimalar sodir bo'layotganiga tushunolmay-anglayolmay, hadik aralash yalt etib Shoirga qaradi: jin chaldimi uni?!

Shoir esa jonhovri:

– Bo'ynoq, bos! – deb baqirdi. – Bo'ynoq!!.

Go'yo biron bo'ynidan sudrayotgandek, uzumzorda Bo'ynoq oldingi oyoqlariga tiranib, tishlarini yovqur irshaytirib turar, ko'zlari xonasi dan otilib chiqquday chaqnar edi.

– Zoyir, qayt! Orqaga qayt, ukajon?!

Nogoh, jin ko'chgan kabi allaqachon qumloq ko'chada duvalang ko'tarilgan, teraklar esa tomir-pomiri bilan qo'porilguday qarsillab shovullamoqda edi.

Hayal o'tmay, quyun ichra Zohir ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shoir jon-jahdi bilan o'kirib, quyun tomonga otildi. Etib borgunicha, duvalang tinib, quyun bosildi. Va, ko'zlariga ishonib-ishonolmay, bir lahza Shoir haykalday qotdi-qoldi: uka qumga belanib yotar, peshonasida bir tomchi qon yiltiramoqda edi.

– Zoyir... Zoyirjon! – Shoir behud engashib, ukani kifti dan ko'tardi. Zohirning boshi shilq etib osildi. – Uka... ukajon! – Va, beixtiyor Shoirning bo'g'zidan alamnok bir ingroq otilib chiqdi. – Ota-a!.. Otajooon!..

Ko'ngli sezganmi, ota, yer bag'irlagan uzumlar osha sakrab-sakrab, yelib kelmoqda edi.

– Ota, ukam-ukam!..

Otaning rang-ro'yi surpdek oqarib ketgan edi, daf'atan tili kalimaga aylanmay, asta cho'nqayarkan, Zohirni bag'riga bosdi, qo'li qaltirab, yuzlarini siladi, so'ng:

– O'g'lim, och ko'zingni, o'g'lim? – dedi ovozi xirqirab. – Zoyirjon, bola-jonim!..

Shu paytda Bo'ynoq gunohkorona chingsib yaqinlashdi, sekin bo'ynini cho'zib, Zohirning oyoqlarini yaladi, so'ng, osmonga qarab, cho'zib-cho'zib uvlay boshladi.

\* \* \*

Tun qorong'iligi chulg'ayotgan yotoq bo'lmada Shoir ko'zlari jimirlab, gaze-taga tikilarkan, tag'in bot-bot osmonga ruhan talpingan damlarini entikib eslab, odamzod tabiatning eng oliy mavjudotimi yoki yanayam oliyroq'i bormikan, deb o'yladi: bor... Bo'lsa kerak. Bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor bo'lmaydi. Binobarin, jon – ruh bor-ku axir!.. Ehtimol, ruhlar yanayam oliyroq mavjudotlar uchun ozuqa yoki ermak manbaidir. Va nogoh, yana xayolida olis o'tmish manzaralar yorqin namoyon bo'laverdi: ana, O d a m c h a barmog'ini havoga nuqishi bilan tokning tillarang barglari lovullab yona ketdi... Ana, birdan ukasi allakimgadir o'roq o'qtalib, quyuq quyun ichra ro'yoday ko'zdan g'oyib bo'ldi... Ana...

Tavba, tushi-yu hushi bu qadar qorishig'ey!.. Tushmi, hushmi – har ne bo'isayam, hammasi aniq-tiniq yodida ekanligi g'alat. Tag'in Odamchanning allanchuk cho'ziq ovozi qulog'ida aksu sado berib jaranglayotganday tuyula boshladi:

– ... Erta bir kun... yolg'onchilarga duch kelib o'rtanaverasan, zor-zor qaqshab hamdard izlaysan-u lekin topolmaysan. Ta'magirlar... manfaatparastlar... ta'qiblar... g'alva-yu g'urbatlar...

Ajab, hayot – kun bilan tun betinim charxpalakday aylanayotgan qo'nalg'ami yoki xiyonatu diyonat beto'xtov kurashayotgan bir tomoshaxonami – nima o'zi? Nega tomoshaxona, k i m l a r uchun tomoshaxona – yanayam oliyroq mavjudotlar uchun emasmikan mabodo?.. Nahotki, odamzod nima uchun dunyoga kelgani-yu, nima uchun dunyodan o'tarini bilolmay ketsa?!

O'zi shu yoshga yetguniga dovur, shu darajaga erishganiga qadar ne-ne uqubatlarga, qanchadan-qancha xiyonatlarga duchor bo'ldi. Agar umrining davomi ham uqubatlaru xiyonatlar ichra kechar bo'lsa... Qarama-qarshiliklar kurashining birligi – hayotdir, deganlari shumi-yo? Kurash?.. Xo'sh, ko'rar ko'ziday, shirin joniday ukaginasini nimalarga qarshi, kimlarga qarshi kurashda nobud bo'ldi? Axir... qani mantiq?! Nahotki, rost bo'lsa?!

Nogoh, eshik ochilib, ostonada qizi ko'rindi:

– Dada, ovqat pishdi. Onam aytdila, peshayvonga chiqarmishsiz.


Peshayvonda chiroq za'faron nur taratar, xona ichi esa nimqorong'i edi.

Gazetani g'ijimlab, xomush o'rnidan turarkan, Shoir hamon xayolida javobsiz bir savol beqo'nim charx urayotganini idrok etdi: nahotki, rost bo'lsa – xo'sh, nima rostu nima yolg'on?



# Mamatqul Hazratqulov

(1947-yilda tugʻilgan)



Mamatqul Hazratqulov 1947-yil 1-fevralda Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Mingbuloq qishlogʻida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist (1988). ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1970). «Oq qush» (1978), «Choʻli iroq» (1982), «Hayotning bir parchasi» (1984), «Intizor» (1985), «Quyosh men tomonda» (1986), «Qoʻzichoqning koʻz yoshlari» (1987), «Jurʻat» (1989), «Eshiklar ochiq» (1991), «Chiroq oʻchmagan kecha» (2002), «Koʻkkoʻl» (2005) kabi hikoya va qissalar toʻplamlari nashr etilgan. «Mehr koʻp koʻrgazdim» (1989), «Mehmon» (1986), «Qadrim» (1992), «Afandining yangi sarguzashtlari» (1993) nomli pyesalar muallifi.

L. Tolstoy, V. Shukshin kabi rus adiblari, shuningdek, ozarbayjon, tojik, tatar va yapon yozuvchilarining hikoya va qissalarini oʻzbek tiliga oʻgirgan. «Lev Tolstoy va oʻzbek adabiyoti» (1980) degan risolasi ham bor.

## CHOʻLI IROQ

Muhabbat erini uygʻotmoqchi boʻlib uyga kirdi-yu, miriqib uxlayotganini koʻrib fikridan qaytdi. Shirin uyqusini buzgisi kelmadi. Astagina sulga oʻtirdi. Baxtiyor xuddi yosh boladek pish-pish qilib beozor uxlardi. Uning orasi ochiq qalin qoshlari pipirab qoʻyadi. Muhabbat erining qoshlariga termulib, oʻyladi: «Muncha orasi ochiq. Eskilarning gapida hikmat koʻp. Qoshlarining orasi ochiq yigitlar uzoqdan uylanadi, ularning koʻngli ham ochiq boʻladi, deganlari rost ekan. Yetti uxlab tushimga kirmagan... U-chi? U oʻylabdimi menga uylanishni?»

Ularning toʻyi oʻtganiga endigina bir oy boʻldi. Toʻydan oldin bir-biriga juda yaqin, sirdosh edilar. hatto tortinmas, uncha-muncha gaplarni bemalol aytishardi. Nikoh kundan boshlab ikkalasining ham koʻnglida gʻalati bir kayfiyat tugʻildi. Bir-biriga koʻrinmas irlar bilan chambarchas bogʻlanganini his qilganlari sari uya-

lish, tortinish tuyg'ulari jo'sh urardi. Yolg'iz qolgan kezlari kuyovning ham, kelinining ham tiliga so'z kelmas, go'yo bir-birovini endi ko'rayotganday jim o'tirishadi. Onda-sonda aytiladigan gaplari o'zlariga ham erish tuyuladi. Qiziq, nega shunday ekan? To'ydan oldin esa ikkovi ikki yoqda qachon birga bo'lishni, miriqib suhbatlashishni, bir-birining diydoriga qonishni orzu qilardi. Visol onlarida biri qo'yib, ikkinchisi gapga tushardi. «Sevasizmi?». «Sevaman». «Siz-chi?». «Men ham». Shu kabi bir xil so'zlar qayta-qayta takrorlanar, ammo na yigitning, na qizning g'ashiga tegmas, aksincha, yana eshitgisi, yana so'ragisi, yana eshitgisi kelardi.

Endi-chi? Qiziq, nega endi bunaqa? Yo'q, ular bir-biriga to'yib qolgani yo'q! Oshiq-ma'shuqlik yo'rig'i bo'lak ekan. Unda birga bo'lishlariga qanchalik ishon-salar-da, bari bir hali amalga oshmagan shirin orzu edi bu. «Yutganim o'zimniki, chaynaganim gumon», degan gap bor. Nikoh bu gapni ularning ko'ngillaridan chiqarib tashladi. Yo'q, o'zaro qandaydir «yotsirab» qolishi bundanmas. Ular hamon bir-biriga tashna, hamon intiq. Faqat endigisi bo'lakcha... Nikoh har kimning ham hayotini boshqa izga solarkan. Negadir odam o'zini salobatli, vazmin sezib qolarkan. Oldingi sho'xliklar, hazil-huzullar endi...

Muhabbat erining yuzlarini, sochini ohista silay boshladi. Baxtiyor ko'zini ochdi. Yuzlari sutga chayilganday oppoq, shundanmi, qosh-ko'zlari yana ham qoraroq ko'ringan farishtasifat Muhabbat o'tirirti. Uning irakdek mayin qo'llari Baxtiyorning silliq yuzlarini siladi. Bir tutam quyosh yog'dusi sahnadagi bale-rinani quvlab yurgan proyektor nuridek uning yuziga tushib turibdi. Kelin-kuyov bir-biriga unsiz uzoq termuldi. Keyin ko'zlar bir-biriga yaqinlashdi, yana va yana yaqinlashdi...

Muhabbat ohista boshini ko'tardi. Uning yuzlari loladek qizarib ketgan. Eri-ning ko'zlaridan ko'zini olib qochib, uning yuziga astagina shapatiladi. Bu shapa-tining ta'sirini na kuyov sezdi, na kelin.

– Yomonsiz, – dedi Muhabbat.

– Sen yaxshisan, – dedi Baxtiyor.

Ikkalasi ham unsiz jilmayishdi.

– Turmaysizmi endi.

– Hali vaqtli shekilli... Bugun dam olish-ku.

– Shunday bo'lsayam-da... Bitta-yarimta kelib qolishi mumkin.

– Kim ham kelardi? Hamma o'z ishi bilan ovora hozir.

– Bilib bo'ladimi? Axir har yakshanba kimdir keladi-ku, esingizdan chiqdi-mi, – dedi Muhabbat kulib.

Chindan ham to'ylaridan keyin ularnikiga har dam olishda birov kelardi. Goh kelinning urug'laridan, goh kuyovning qarindoshlaridan, yoki ularning to'yiga ke-lolmagan do'stlari muborakbod etgani kelishardi. Shunga ular ko'nikib qolishgan, biror yakshanba mehmon kelmasa, nimadir yetishmayotganday tuyulardi.

– Ha-ya, rost aytasan. Sakkiz yarimning konsertimi? Yoz qiziq-da, soat sak-kizda choshgoh bo'lib ketgandek ko'rinadi. Qishda shu paytda tong otmagan bo'lardi hali.

«Endi Turg'un Alimatov ijrosida satoda «Cho'li iroq»ni tinglang». Diktorning e'loni Muhabbatning diqqatini tortdi.

– To'xtang, Baxtiyor aka, eshitaylik shu kuyni. Juda yaxshi chaladi-da.

Sato tilga kirdi. Baxtiyor shiftga termulib yotar, Muhabbat erining nayzadek o'tkir, uzun va qalin kirriklari qurshab olgan juda tiniq, hayotidan mamnunlik sezilib turgan chaqnoq ko'zlaridan nigohini uzmaydi, ammo xayoli parishon. Sato torlari ingrar, goh hazin, goh baland pardada nola qilardi. Goho nafasi jim bo'lib qolar, lekin orqada – xuddi tog'lar aks-sado qaytarganday uning nolasi zirillab turardi. Musiqa go'yo asta-sekin kishi yuragiga kirib borar, uning pardasini hozir... hozir yirtib yuborguday bo'lardi.

Muhabbat o'zini tamoman yo'qotib qo'ygan, yuragi yonib ado bo'layotgan sham misoli titrayotganini sezmasdi. U hali umrida hech ko'rmagan joylarni hozir shu tobda xayol ko'zleri bilan yaqqol ko'rib turardi: Ana poyonsiz sahro, qum, qum... Issiqdan oyoq kuyadi. Karvon ketidan borayotgan o'n yetti yashar sohibjamol qizning madori qurigan. Tili tanglayiga yopishadi. U bor kuchini to'plab «suv» demoqchi bo'ladi, lekin tili aylanmaydi, u juda og'ir, xuddi shishib ketganday. Atrofda biron jonzot yo'q. Oldinda ketayotgan nortuya bo'ynidagi qo'ng'iroqning mayin, yurakni ezuvchi sasi keladi quloqqa. Sahro – non yopishdan oldin oqartirilgan tandir. Bu tandirga bordi-yu ilohiy qudrat bir tomchi suv tashlasa, kirrik qoqquncha o'tgan fursatda qurib qoladi. Tuya arqoniga bog'langanicha borayotgan go'zalning oppoq yuzlari issiqning zo'ridan bo'g'riqib ketgan, to'q jigarrang tusga kirgan. Endi loaqal ko'zini ochishga ham quvvati yetmaydi.

Tonggi shabnamdek beg'ubor bu go'zalni taqdir qayoqlarga olib ketmoqda? Uni kimlarning shafqatsiz panjasi ostiga tashlaydi. Buni kim biladi? Hech kim! Hech kim!

O, sho'rlik qiz! Qanday jafolar kutmoqda seni. Madorsizlik, tashnalik qizning xayollarini alg'ov-dalg'ov qilib yuboradi. «Qachon yetamiz? Qayerga boramiz? Mushtirar onam, dasti kalta otam! Qaylarda qoldingiz?». Lekin buni hech kim bilmaydi, uning qismati og'ir, yo'li yiroq. Juda yiroq... qum, qum, qum...

Kuy o'tmishdagi ana shu g'am-g'ussa haqida so'zlamochi bo'ladi, lekin gapirolmay yig'laydi. Bu g'amni hatto sato torlari ham ko'tarolmay o'pkasi to'lib ketadi. Ingrab, ezilib yig'laydi, yig'laydi.

Baxtiyorning yuziga issiq bir tomchi tushdi. U shart xotiniga qaradi.

Muhabbatning xiyol qisq, ammo har qanday yurakni bir ko'rishdayoq o'rtovchi tim qora ko'zlariga yosh to'lgan, kirriklari orasidan sizib chiqardi.

– Senga nima bo'ldi, Muhabbat?

Muhabbat yoshli ko'zlarini javdiratib eriga termuldi-yu, indamadi, gapirmadi.

– Senga aytayapman? Nima gap o'zi? – Bu safar Baxtiyorning ovozida bir o'ktamlilik zohir edi.

Muhabbat chuqur xo'rsindi.

– Kuyi shunday bo'lsa g'amning o'ziga qanday chiday olgan ekan odamzot?!

– Qo'ysang-chi azizam, har kuy eshitganingda bunaqa ezilaversang, o'zingni o'zing ado qilasan-ku.

– Yo‘q, Baxtiyor aka, – Muhabbat erining sochlarini mehr bilan siladi, – hamma kuyga ham yig‘layvermayman. Bilasiz-ku, «Cho‘li iroq»ni yaxshi ko‘raman. Shu kuyni eshitishga o‘zimning ham yuragim yo‘q, bezillab qolganman. Lekin chalganda o‘chirib qo‘yolmayman, eshitmay turib ketolmayman, jur‘atim yetmaydi.

– Bo‘ldi! – Baxtiyor chaqqon sakrab turdi o‘rnidan. – Odam degani bunaqa pessimist bo‘lmaydi. Yarashmaydi! Qani, choy-poyingni olib kel!

Bu – Baxtiyorning xotiniga boshqa erkaklar kabi buyruq ohangida ilk gapirishi. Buni Muhabbat ham sezdi, lekin u qadar e‘tibor bermadi. Qachondir, bir kun borib shunday bo‘lishini bilardi.

O‘sha kuni kechgacha Baxtiyorning chiroyi ochilmadi, ko‘ngli g‘ash bo‘lib yurdi. Muhabbatning yig‘lagani sababini o‘zicha tahlil qilar, turli xayollarga borardi. «Nega buncha ezildi u? Yig‘idan o‘zini tutolmadi. Nega? Xo‘sh, kuyni yaxshi ko‘rsa nima bo‘libdi? Men yomon ko‘ramanmi? Yoki shunchalik toshbag‘irmanmi? Yo‘q! Kuyni yaxshi ko‘rgan odamning hammasiyam yig‘layvermaydi-ku. Biron sabab borki, yig‘laydi, eziladi shunchalik. Ehtimol, shu kuy bilan bog‘liq bir gap bordir? Albatta, menga aytarmidi...» U o‘ylagan sari xayoliga turfa fikrlar kelar, go‘yo izlagan narsasini hozir topadigandek tuyulardi: «Balki huv anavi gapi bekorgamasdir: «Qandaydir bir ashulachimi-ey, sozandami-ey menga uylanmoqchi bo‘lib yurardi. Lekin ota-onam unga ikki dunyoda ham bermasdi. O‘zim-ku o‘ldirsa ham tegmasdim». Ehtimol, bu bilan qo‘rqqan oldin musht ko‘tarar qilgandir. Harqalay bir gap bor. O‘zi ertalab, o‘rnimdan turmasimdan kelib erkalanishidan yuragim shig‘illovdi-ya. Xotin kishi yo yomon tush ko‘rib chiqsa, yoki harom yo‘lga qadam qo‘ysa, hech bo‘lmasa oldingi jazmanini o‘ylab yuragi siqilsa, erini erkalashga, unga suykalishga tushadi, deyishardi. Shu gap rostga o‘xshaydi. Shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi. Odamlar ming yillik tajribalaridan keyin bir xulosaga keladilar.

Bu fikrlar Baxtiyorning ichini sichqondek kemirar, yuragi gupillab urardi. «Xotin zotining eng soddasi ham ayyorlikda tulkiga dars beradi». Bularni o‘ylagan sari qaysidir o‘rtog‘idan eshitgan ana shu gap yodiga kelar va unga o‘zini o‘zi ishontirardi.

Baxtiyor vajohatini bosolmadi. Hozir xotinini chaqirib, ochiq-oydin gaplashib olmoqchi bo‘ldi. «Temirni qizig‘ida bosgani ma‘qul».

– Muhabbat!

Oshxonadan Muhabbatning ovozi eshitildi.

– Labbay.

– Menga qara... Buyoqqa kel!

Muhabbat kirdi. U peshband tutib olgan, qiya qilib o‘ralgan yaltiroq ro‘moli yarashib turardi. Muhabbatning yonoqlari issiqdan qizarib ketgan, qayrilma qoshlari qaldirg‘och qanotidek ingichka, quralay ko‘zlari o‘tdek yonib turardi. Ro‘moli ostidan toshib chiqqan qop-qora sochlari oppoq bo‘ynida erkalanib yotardi.

Qorong‘u joydan birdan yoruqqa chiqsa odamning ko‘zi qamashadi. Baxtiyor ham ana shunday holga tushdi. U hozirgina o‘rik o‘tin cho‘g‘idek yonib, kuyib

turuvdi. Muhabbat bilan yuzma-yuz bo'ldi-yu, ko'zi jimirlab, dami ichiga tushib ketdi.

O, go'zallik! Sening oldingda kimlar tiz cho'kmagan! Ne-ne bahodiru pahlavonlarni lol qoldirmagansan? Sening mehru sehringga ne-ne azamatlar asir bo'lmagan!

– Chaqirdingizmi? – Muhabbatning tabassumi Baxtiyor qalbidagi alangaga suv sepdi.

U xotiniga qarab turib simobdek erib ketdi.

– Ha chaqiruvdim. Gugurt bormi?

– Gugurt, ha, bor. Mana, – u peshbandining cho'ntagidan gugurt olib berdi.

– Rahmat...

\* \* \*

– Baxtiyor uyga kelsa, Muhabbat yig'lab o'tiribdi.

– Yana nima bo'ldi?

– Hech nima. O'zim shunday.

– Yashirma mendan, bari bir bilib olaman. Keyin xafa bo'lasan.

– Nimani yashiraman sizdan, Baxtiyor aka. Eshityapsizmi, musiqa, «Cho'li iroq».

Baxtiyor battar tutoqdi.

– Eshitayapman. Shuning uchun so'rayapman-da. Xo'sh, «Cho'li iroq»ni yaxshi ko'rsang nima bo'пти? Shunga yig'laysanmi? Axir bir marta bo'lmasa, ikki marta bo'lmasa... har doim shu ahvol. Turmush qurganimizga bir yil bo'layapti-yu hamon shu kuyni eshitsang yig'laysan. Bo'ldi-da, endi.

– Turmush qurishimizning nima aloqasi bor bunga. Ilgari ham shunaqa edi. Bundan keyin ham...

– Demak... kuy zamirida kimdir bor. Uni eshitganingda o'shani eslaysan... «Cho'li iroq» yaxshi kuy emish. Bildik yaxshiligini...

– Baxtiyor aka! Nimalar deyapsiz? Nahotki... nahotki meni...

Muhabbat o'zini Baxtiyorning ko'ksiga otdi.

– Aldama meni. Laqillataman deb o'ylama. Sen o'ylagan laqmalardan emasman.

Muhabbat ko'zlarida g'ilt-g'ilt yosh bilan eriga termuldi.

– O'tinaman sizdan, bunaqa fikrlarni xayolingizdan chiqarib tashlang. Axir bu men uchun haqorat-ku. Sizdan bo'lak biron kishi aqalli qo'limni ushlagan bo'lsa, til tortmay o'lay!

– Qasam ichma!

– Ishonmasangiz nima qilay axir? Hech narsani, hech kimni eslamayman. Bilmadim, nimaga unday? Shu kuyni eshitsam yuragim siqilib, yig'lagim kelaveradi...

– Bo'ldi. Bas qil kuy-puyingni.

Muhabbat piq-piq yig'lar, o'zini bosmoqchi bo'lgani sari battar o'pkasi to'lib kelardi. Baxtiyor ayvonga chiqdi-da, sigaret tutatdi.

Kuni bilan Baxtiyorning kayfiyati bo'lmadi. Yuragi xijil, ko'ngli xira. Boshlig'idan eshitgan dashnoma yaraga tuz sepganday bo'ldi. Ishxonadan ertaroq chiqdi-da, bufetga burildi. Odatiga qarshi u yerdan bir stakan aroq olib ichdi. Gazak ham qilmadi.

Uyga kelsa xotini hali ishdan qaytmabdi. Qorong'i tushish pallasini – g'irashirani yoqtirmasdi u, yuragi siqilib ketadi. Shuning uchun hovlida o'tirolmadi. Ichkari kirib yechinmasdanoq karavotga cho'zildi. Yotgan joyida sigaret tutatdi.

Radioda konsert bo'layapti. «Endi «Cho'li iroq»ni tinglang». Baxtiyor radioni o'chirmoqchi, sug'urib olib hovliga irg'itmoqchi bo'ldi. Lekin qandaydir kuch, iroda uni bu fikridan qaytardi. «Radioda, kuyda nima ayb. O'chirganim bilan...» Sigaretni bosib-bosib tortarkan, kuyning sehrli to'riga ilinib qolganini – berilib tinglayotganini o'zi ham sezmasdi. Satodan taralayotgan mungli kuyni sigaret tutuniga qo'shib ichiga yutayotganday, bu ohang yurak pardalarini zirillatayotgandek bo'ldi. Endi kuy sadolari ichidan eshitalayotganday tuyuldi.

O, sehrli kuy! Necha asrlardan buyon qancha-qancha odamlarning yuragini zirqiratasan? Ne-ne toshbag'irlarni mumday eritmading! O, buyuk xalq! Ona xalqim! Sening betimsol dahongga ta'zim! Ming bor tasanno! Shu kuylaring, shu sehrkor mo'jizalaring bo'lmaganda, farzandlaring ham shu qadar muloyim, odamoxun, bag'ri keng bo'larmidi! Ming bor qulluq senga, ona xalqim!

Kuyning ko'z ilg'amas to'ri Baxtiyorni mahkamroq siqib borardi. U nigohini bir nuqtadan olmay tubsiz o'yga g'arq bo'ldi. Kitoblarda o'qigani, kinolarda ko'rgani, rahmatlik buvasidan eshitganlari – o'tmish, g'amli, alamli o'tmish ko'z oldiga keldi. Kuy o'sha uzoq moziy haqida, uning yuraklarni silqituvchi dardlari haqida yig'lab, faryod solib hikoya qilardi. Olisdan, juda olisdan kimningdir nolakor, ammo shiddatli, isyonkor, mardona ovozi chalindi qulog'iga:

*Baski qo'ydim men falakning yelkasiga g'am yukin,  
Kiydi motam to'nini-yu, bo'ldi qaddi ham duto.*

Eshik qars ochilib Muhabbat kirdi. Chiroqni yoqdi. U erining bu ahvolda yotganini ko'rib qo'rqib ketdi.

– Sizga nima bo'ldi?

Baxtiyor gapirmadi. Faqat «jim» degandek qo'lini ko'tardi-da, radioga ishora qildi. Shundagina Muhabbat kuyni eshitdi. U eriga qaradi. Qaradi-yu, uning ko'zlarida elektr nurida yaltirab turgan yosh tomchilarini ko'rdi. Bu hol uni haykaldek qotirib qo'ydi. Kuy tindi.

– Sizga yarashmas ekan, – dedi Muhabbat og'ir tin olib.

Baxtiyor indamay o'rnidan turdi. Sekin kelib xotinini quchoqladi. Yuz-ko'zlaridan o'pdi. Bu bo'salar Muhabbatga hammasidan – to'ydan oldingi o'g'rincha bo'salardan ham qaynoqroq, mehrliroq tuyuldi...



# Asad Dilmurod

(1947-yilda tugʻilgan)



Asad Dilmurod 1947-yil 20-iyulda Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Qoratepa qishlogʻida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi (1998). ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1971). Ilk hikoyalar toʻplami — «Osmonning bir parchasi» (1978). «Tosh burgut» (1979), «Sirlı zina» (1980), «Sherdor» (1986), «Mulk» va «Girih» (1989), «Togʻlar, sukut saqlamang» (1987), «Oq ajdar sayyorasi» (2000), «Mezon burji» (2007) qissalari, «Afrosiyob sukunati» (1983), «Koʻchki» (1991) kabi kitoblari nashr etilgan.

«Mahmud Torobiy» (1998), «Fano dashtidagi qush» (2001), «Pahlavon Muhammad» (2006) singari romanlar muallifi.

## KUNSULUV

Haligina tomchilab turgan yomgʻir chelaklab quymoqda.

Xufton yaqin: elas-elas qorongʻilik choʻkayotir...

Qoshlari oʻrtasiga tugun tushgan Zayniddin moviy «Neksiya»cini shitob haydab borardi. Xayolida goho tim qora koʻzlari jiqqa yoshga toʻlgan Naima gavdalanar va koʻksi sim-sim achishar edi.

Asli sabru qarori chirigan arqon kabi nogahon toʻzgʻib ketishiga Naima oʻzi sababchi, axir, goh oshkora, goh pinhona qitiq patiga teginib kelgani yolgʻonmi? Aksiga, boshqa ermak topolmaganday, mojaro tutantirigʻiga qaynonasi Oysha xola ham gugurt chaqqani-chaqqan...

Tunov kuni choyxonada uch-toʻrt ulfati bilan palovxontoʻra oldidan qitay-qittay tortuvdi. Laʼnati kayf nima balolarni yodiga solmadi deysiz. Birdan dardi yangilanib, shom aralash lang ochiq darvozzadan soʻltanglab kirdi, oshxonaga bordi-da, ovqatga unnayotgan Naima tomogʻiga sanchqi tiradi.

Ertalab boshi lo'qillab uyg'ondi, musibatni bilgach, avval ichkilikni o'ylab chiqargan manfur kimsani, keyin tegmanozik xotinini ko'tara qilib rosa yog'ladi. Hurmatini saqlamabdimi, bas, araz-o'raz qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'ysin. Tavbasiga tayantirmasa, boshida do'ppisini qiya qo'ndirib bekor yurgan ekan, shunday qilsinki, o'zi akajon deb yalinib kelsin va ikki bukilib poyida yiqilsin!..

Chamasi, tez-tez tutab-yonib turadigan g'alvadan Naima to'yib ketgan ekan, oradan ikki hafta o'tdi hamki, qora bermadi. Mana endi ko'r bo'lib, ortidan yo'rtib borayotir. Ostonadayoq Oysha xola ta'na toshlariga duch kelishini o'ylab og'rindi. Chiroqni yoqarkan, g'ira-shira qorong'ilik pardasini qiymalayotgan yorug'likda elas-elas qora ko'rdi. Sel yuvayotgan asfalt yo'l girdida, sharros quyayotgan yomg'ir ostida, yupun kiyingan bir ayol suruvdan adashgan qo'zichoqday junjikib turardi. Arang kaftlarini ko'ksiga qovushtirib, dag'-dag' uchayotganiga qaraganda o'lgudek sovqotgan va holdan toygan!..

Ayol qo'l ko'tarmagani uchungina emas, o'z dardi o'ziga butkul yetib-ortib yotgani sababli to'xtamadi. Faqat g'ildiraklar ko'lmak suvini shundoq ham ivigan, qotmagina gavdaga chirpa yopishgan ko'ylakka shalop etkizib sachratib o'tgandan keyin beixtiyor tormozni bosdi.

Hamon dir-dir uchayotgan, yomg'ir ko'mgan dunyoni emas, hatto o'zini ham unutgan ayol shig'illagancha tislangan mashinaga e'tibor qilmadi. Yana battar ajabsingan Zayniddin cho'ziq signal berdi. Shundan so'ng u hadik aralash qiylatib qaradi, iymanibgina eshik dastasiga uzalarkan, ulkan tarvuzday do'mpayib turgan qorni ko'zga yaqqol tashlandi.

– Singlim, yo'l bo'lsin? Muzlab qopsiz-ku!

Tinmay urayotgan yomg'ir va havo zahri ayolning eti tugur hatto suyagiga qadar o'tib ketgan edi. Butun vujudi karaxt bo'lib, oyoq-qo'li arang qimirlardi. Rangini yo'qotgan yupqa lablari yaproqday titranar, ko'ksi og'ir-og'ir ko'tarilib tushar, tanglayiga yopishgan tili aylanmas edi.

Ayol bir ozdan keyin to'kilgudek holda xo'rsindi, do'mpaygan qornini avaylab ushlaganacha, gavdasini asta o'rindiq suyanchig'iga tashladi. Picha isidi chog'i, kulcha beti xiyol qizillanib, mung cho'kkan yirik-yirik ko'zlari kul ostidagi cho'g'day yiltiradi.

– Men Zarbandga ketayotuvdim... – yana jimlikni buzdi Zayniddin, g'alati yo'lovchini gapga solish ilinjida. – Siz aytmadingiz borar joyingizni.

Ayol kaftlarini betiga bosdi-da, hiqichoq tutib uzoq yig'ladi, so'ng arang o'zini o'nglab, chaynala-chaynala qo'nar joyi – umidxonasi yo'qligini aytdimi-ey, yo falaksan!..

Ma'lum bo'ldiki, muttaham sayoq er tayini yo'q bir manjalaqi bilan topishgan, insofga chaqirsa, dabdurustdan uch taloqsan degan, bugun bo'kib ichgan-da, bo'g'ib o'ldirishiga sal qolgan, boshpo'rti va yana boshqa kerakli qog'ozlari, hatto esdalik suratlari jamlangan baxmal muqovali albomini tandinga tiqib yoqvorgan!..

– Ismingiz nima? – g'uldirab so'radi Zayniddin, Xudojon, o'zimmiki kammi-di, degan qayg'uli fikrni dilidan kechirarkan. – Borar joyingiz bo'lmasa, ismingiz ham yo'qmi?

– Ismim bor, – dedi u hiqillab, – Kunsuluv!

– Qarindosh-urug‘ingiz-chi?

– Qaydam. Men bechora yetim o‘sganman!

– Ana xolos.

– Voy, esim qursin... Ha, peshonam sho‘r ekan, ado bo‘ldim anavi go‘rso‘x-tani dastidan, – dedi anchadan keyin Kunsuluv g‘iltillab. – Shaharda Mashhura degan dugonam bor. Tikuvchilik sexida birga ishlagan edik.

Zayniddin sezdirmaygina uf tortdi, axir, ikki oyog‘i bir etikka tiqilib turgan paytda, ayniqsa bunaqa yomg‘irda shaharga borib-kelish yoqadimi? Kamida ikki soat vaqt yo‘qotadi. Lekin endi allaqachon g‘isht qolirdan ko‘chdi. Tishini tishiga bosmasa – o‘lgani yaxshi!..

Faqat Kunsuluv nega buncha bezovta, nima uchun bu qadar vahimali boqayotir mung to‘la ko‘zlari!? Birov bo‘g‘ayotgandek entikib-entikib arang nafas olmoqda, ajin tushgan torgina peshonasini marjon-marjon ter qoplagan, zulukdek qoshlari o‘rtasi tugunli!..

– Nima bo‘ldi, Kunsuluv?

Biroq ayol javob beradigan ahvolda emasdi: do‘mpaygan qornini asabiy silab, bir qisqa, bir cho‘zib ingrandi. Shu zahoti ohakday oqargan betiga bir zo‘riqish qalqidiki, buni nogahon qayrilib ko‘rgan yigit yuragi orqasiga tortib ketdi. Nimagadir aqli yetdi-da, ortiq churq etmay gazni bosdi. Xiyol siltanib olgan mashina shamol kabi yelib, tez orada yomg‘irda cho‘milayotgan shaharga kirdi.

Zayniddin to‘rt qavatli g‘ishtin imorat hovlisida Kunsuluvni bir amallab mashinadan tushirdi. Oyog‘ida zo‘rg‘a turgan ayol xayr ma‘nosida bosh irg‘adi, keyin nimadir demoqchi bo‘ldi, ammo ulgurmadi, qayta kuchlangan to‘lg‘oq butun borlig‘ini junbishga soldi. Oppoq kiyingan xodimalar chug‘urlab zambilga yotqizishganda hushini yo‘qotdi. Shaddodligi bilinib turgan, qoshlari qilichdek o‘ynoqlayotgan do‘mboqqina juvon kutilmaganda amirona buyurdi: uzoqlab ketmang-a, akamullo!..

Zayniddin iljayib hovlidan uzildi, bekat do‘konchasidan ma‘danli suv olib qaqragan tomog‘ini ho‘llagach, mashinasi eshigini ochdi, ammo shu zahoti qaytarib yopdi. Axir, borar joyiga bari bir kechikdi, shunday ekan, bir soat-yarim soat nimani ham o‘zgartiradi. Yana ozgina chidasin, asakasi ketmas, xushxabarni eshitgandan keyin xotirjam jo‘naydi. Aytganicha, hali Mashhuraga xabar berishi kerak, agar chindan qadrdoni bo‘lsa yolg‘izlatib qo‘ymas.

– Hay, akamullo, hushiga kelmayapti xotiniyiz!..

Ko‘p alomat ekan-ku bu oyimtilla!? Mundog‘ avval so‘rab-surishtirsa biron joyi kamib-netib qoladimi!? Tag‘in yoniga tirg‘ala kelib, qo‘liga bir parcha qog‘oz tutqizgani va qaysi dorixona qaysi ko‘chada joylashganini bidirlab tushuntira ketgani ortiqcha!..

Asli o‘ziyam, Oysha xola aytganidek, lattayi go‘r-da, axir, o‘sha qog‘ozni nima uchun betiga qaytarib otmadi. Bo‘sh-bayovligidan topdi: uyquga cho‘mayotgan shaharning u tarafidan-bu tarafini ko‘zlab bearmon eldi. Hatto yonilg‘isi

tugab, turli rusumli ulovlar tizilgan shoxobchada tars yorilgudek ahvolda navbat kutdi, qisqasi, tug'ruqxonaga qaytganda vaqt kichik sahardan oshgan edi. Kamini bo'sag'ada nari-beri diqqati oshib odimlayotgan do'mboq juvon to'ldirdi. Bir zah-rini sochib, xumordan chiqishni cho'tlovdi-yu, qurg'ur imkon bermadi, dori-dar-mon solingan yelimxaltani qo'ltiqlab zirillay ketdi. Noiloj bo'zarib, cho'chibgina ayol ahvolini so'raganda, hatto burilib qaramay: «Sabrdan qismasin-da, akamul-lo!» – deya boplab chimchiladi. Endi beixtiyor chap yonog'i aralash chap qoshi pirillab uchaverdi, hey, tavbangdan ketay, sabr jonivorning uyi tamom kuydi-ku!

Zayniddin chalg'ish va birpas ovunish niyatida mayda-mayda tomchilar ingan, neon chiroqlari yorug'ida billur kabi tovlanayotgan qizil-sariq atirgul yaproqlariga tikildi. Bahonada Naima tikandan qo'rqishini eslab kulimsirar ekan, bo'sag'ada boyagi pari ko'rindi. Qiyofasini avvalgidek jahl yoki istehzo emas, afsus-nadomat ifodasi qoplagan, surma tortilgan qalin kirriklari nam!..

Ming azobu ming tahlika bilan chaqaloqni kesib olishibdi, shunday shoshi-linch tadbir qo'llashmasa, yanga bechoraning hayoti butunlay xavf ostida qolar-kan. Ko'pni ko'rgan, qo'li yengil shifokor, bo'lim mudirasi Rohat Komilovna kam bo'lmasin, muqarrar ajal bilan bir necha soat terlab-pishib mardona olishib, oxiri g'olib kelgan. Shunaqa, azaldan duo ketgan, tug'ish ba'zilar o'ylaganday oson emas, har doim homilador ayol jon talashib narigi dunyoga borib qaytadi. Har holda yanganing Xudoga bir aytgani bor ekan, bechora azob tortsa-da, eson-omon qutildi. Endi siz shukur qiling va bemalol uyingizga boravering, faqat erta barvaqtroq xabar olishni unutmangiz kifoya!..

Yangi deyvurib kuydirdi-ku bu qaqajon, qanaqa yanga, hey, falak!?

Zayniddin xiyol to'rsayib jovdirardi, qult-qult yutinib qo'yayotgan hamshira nigohi bilan nigohi to'qnashdi-yu, dilidagi malol va g'ashlik o'rmini achinishga o'xshash narsa egalladi. Cho'ntagida qolgan-qutgan pulini qoqishtirib uzatgach, imillab mashinasi sari yurarkan, nuqul xayolida jarrohlik ustolida beun yotgan ayol gavdalanar edi...

O'lgudek ochiqqan va tinkai madori qurigan Zayniddin tong shafag'i ufqni ola-chalpoq bo'yab, chor atrofni dakang xo'rozlar qichqirig'i tutganda tanish dar-vozani ustma-ust qoqdi. Hoziroq ro'parasida rang-ro'yi siniqqan Naima paydo bo'lishini, mung'aygan ko'zlaridan shashqator yosh to'kib poyiga yiqilishini o'y-larkan, yuragi potirlay ketdi. Oyog'i kuygan tovuqdek tirirchilab turganda, umidi puchga chiqdi: tirqishdan xo'mrayganicha Oysha xola mo'raladi...

– Uyalmay kepsiz-da, kuyovto'ra? – kesatdi qaynona, jahlini arang bosib. – Qaysi insofli erkak ko'chaga haydab qo'yadi xotinini?

– Nimaga unaqa deysiz, onajon? – dedi Zayniddin, iloji boricha ovozini yum-shatib. – Endi... bir erkalik qilmoqchi bo'lgan-da! O'zi bilan gaplashay.

– Yo'liyizdan qolmang. Sudga ariza berib kelgan!..

Kampirsho qo'l sermadi, sovg'a-salom solingan to'rxaltani, bir chetga irg'i-tib, burnini jiyirdi. Yer yorilmadi, kuyovto'ra tushib ketmadi. Sal naridan Naima barini imi-jim kuzatmoqda, u ham onasiga o'xshab miltiq o'qlab olgan shekilli?

Zayniddin irakday eshilib, uzrni qalashtirdi, it yotishu mirza turishdan to'y-ganini ham qistirdi. Qayda, Naima arzini eshitmadi, tosh suvratiga kirib, yetti yot begonaday teskari o'girildi. Qaynonasi zaharlab tashlabdi-da miyasini, ering – er emas, og'zidan oshi to'kilib ketadigan ovsaru landovur yoki senday beozor qush qadrini bilmagan muttaham, iloyo, urug'-aymog'i bilan qirilsin, deb ko'pirgani ehtimoldan xoli emas.

Allabir g'ubor qopladi shuurini, ichi timdalanib, o'y-fikri shu qadar chuvalandiki, mashinani qachon jildirgani, qachon qishlog'iga kirganini tuzukli eslolmasdi. Jonida jon qolmagandi, cho'zilib yotgisi kelardi biron-bir xilvatda. Yoki noma'lum yoqlarga badar ketsami!? Ko'ksi uvalgudek xo'rsinib, istar-istamas molxona sari burildi, boshi lo'qillab turganiga qaramay, kun bo'yi ikir-chikir yumushlarga o'ralashdi. Zarband ko'chalarida sarg'aygani, axiyri, qaynonasi bilan xotini qahriga uchrab qaytganini ukalari tugur hatto o'zidan ham yashirishga urnar, goho lablarini qonatgudek tishlardi-da, xayolan kimgadir musht o'qtalar edi.

– Aka, Zarband bir qadam. Nosir amaki bilan Shoyim baxshini elchi qib jo'natsak, – ertalab nonushta payti noo'ng'ay jimlikni buzdi Salohiddin. – Har holda do'st-dushman oldida yaxshimas. Davralar to'rini bermay yurgan odamsiz.

– Ma'qul fikr, – darhol kesdi Nizomiddin, qirtishlangan jag'iga kaftini tirab. – Kennoyim arazlagan bo'lsayam hurmatini joyiga qo'yish kerak.

Anchayin to'liqib o'tirgan Zayniddin, churq etmay, so'lg'in nigohini bir nuqtadan uzmay, bosib-bosib choy ho'playverdi. Oftob qoraytirgan enli betida sen churvaqalarga kunim qolgani yo'q tarzidagi kesatiq-zarda zuhurlandi. Kechadan beri o'zini qurib-qaqshagan, sarob pardasiga o'ralgan o'zanda ko'rayotir, esi borida etagini yig'ishtirmasa, bir umrlik ayriliq tushishi mumkin o'rtaga. Hoziroq yana Zarbandga otlanadi, bir yo'lini qilib, ona-bola bilan til topishadi, toki suddan arizani qaytarib olishsin.

Bu yog'i qandog' bo'ldi: darvozaga otning kallasiday dumaloq qulf osilgan-ku! Alamidan ko'kardi va hovliga yo'lamaysan deganday bezraygan qulfni bir tepdi. Atak-chechak bola yetaklagan o'rta yoshli qo'shni juvondan hammasini iridan-ignasigacha bildi-da, tishlarini g'ichirlatdi. Imondan ayrilgur jodugar bir amallab sudni tezlashtirish payida. Odamovi Naima esa avrashiga laqqa uchganu yo'lga tushgan...

Kechikkani uchun o'zini-o'zi yomon ko'rib po'ng'illadi, yana parokanda xayollar og'ushida bemajol borarkan, to'satdan yomg'ir ola-tasir quyib yubordi. Maysalagan dala-qir va tap-taqir asfaltni savalayotgan tomchilarga tikila-tikila Naimani, keyin... sel ostida ivigan va sovqotib qolgan Kunsuluvni esladi. Nihoyat, Zarbanddan uzoqlashar ekan, shag'al tosh to'kilgan, tuman markaziga eltadigan yo'lga sovuqqina nazar soldi. Chakki bo'ldi, tuppa-tuzuk rejası buzildi, endi shaharga tushgani va Kunsuluv ahvolini surishtirgani ma'qul!..

Zayniddin Mashhura yashaydigan mahallani topdi, lekin tomi qizg'ish laxtakchalar bilan yopilgan, hovlisi yog'och panjara bilan o'ralgan uyni uchratmadi, bir

**bahonada** buzib yuborilgan bo'lsa kerak. Qisqa muddat ikkilangach, bozor bo'y-lab aylandi, u-bu narsa xarid qildi. Tug'ruqxona eshigida bandasidan o'tadigan noshukurchilik qimmatga tushishini muhokama qilib parishon turganda tunov kuni zir yugurtirgan tanish hamshira ko'rindi. Avval, odaticha, qoshlarini qilichdek o'ynatdi, so'ng labi-labiga tegmay shunaqa bobilladiki, yigit bechora tars yo-rilayozdi. Axir, yuragi toshdan ekanligini birinchi bor shu qa-qajondan eshitdi-da!..

– Singlim, men siz o'ylagan odam emasman, – dedi axiyri, sabr kosasi to'lib. – Til tortmay o'layki, badanim eskanlaydigan bo'ldi sizga yo'liqsam!

– Shunaqami? Rohat Komilovnaga aytasiz arziyizni!..

Zumda Zayniddin o'zini ola-bula patgilam to'shalgan, lolanusxa shisha qan-dilli jimjit va keng-mo'l xonada ko'rди. Xona to'ridagi oromkursida bemalol jur-nal varaqlab o'tirgan taxminan ellikni qoralagan to'lagina xushro'y ayol qoshida kalovlanib qoldi. Jig'u biyron hamshira bilganu bilmaganini qalashtirib jo'nagan-dan keyin u gajaklarini tuzata-tuzata chimirildi.

Hozir yana malomat toshlari yog'ilishini sezgan Zayniddin hamon qafasga tushgan musichadek javdirar, o'zini qay yo'sin himoyalash chorasini qidirar edi. Axiyri, to'satdan dilida bir jur'at uyg'ondi-da, yomg'ir sel bo'lib yoqqan kuni ro'y bergan voqeani so'ylashga kirishdi. Allabir shubha komida tili zo'rg'a aylanar, go'yo bari-barini qayta boshdan kechirayotgandek entikar, g'ovlagan kallasida, kim ishonardi bu afsonaga, degan fikr aylanishar edi.

Diqqati oshgan Zayniddin a'zoi badanidan asta-sekin qora ter quyildi. Hay-tovur so'zlari, uzuq-yuluq yangragan bo'lsa-da, dilidan chiqibdi shekilli, Rohat Komilovna yuzidan tahdidli ko'lankalar aridi, saldan keyin bir-bir bosib deraza sari yurdi, tashqarini jimgina kuzatgach, iziga qaytdi-da, ustol g'aladonidan buk-log'li qog'oz oldi.

– Sizga atalgan, yaxshi yigit, – dedi keyin xo'rsinib, oromkursiga og'ir cho'karkan. – Tavba qildim-ey. Xo'sh, haligi... O'likni tegishli idora saranjom qi-ladi. Qizaloqni yetimxonaga beramiz. Mehrdan qisilsa ham bir kun odam bo'lar!..

Qing'ir-qiyshiq bitilgan maktubdan go'yo urishdan to'xtayotgan yurak sado-si elas-elas eshitalardi. Favqulodda ezgin va zalvarli sado Zayniddin ich-ichida cho'kib yotgan armon bilan qo'shilib ketgandek bo'ldi. Va buni butun vujudi bi-lan yaqqol tuydi, tuyarkan, tunov kuni to'lg'oq paytida Kunsuluv o'ziga najot istab o'ksinibgina boqqani va nedir tilagi bo'g'zida qolganini xotirladi.

– Opa, tushundim. Shu... Haligi, iloji bormi... marhumani men tuproqqa qo'ysam!? – dedi nihoyat ikkilanibroq, maktubni qo'yin cho'ntagiga solarkan. – Go'dagini qaramog'imga olsam!..

– O'ylab gapiryapsizmi?

– Bola masalasi nozikligini bilaman. Lekin yo'li topilsa kerak. Oramizda qol-sin, quruq qo'ymayman. Nomard bo'lay kamida barra po'stin yopmasam!..

Rohat Komilovna nigohini noma'lum nuqtadan uzdi va bir malolli chimirildi: po'stinga balo bormi, ukajon? Ayni paytda ayollik qalbi orqali nimanidir payqadi.

Hozirgina yangragan og'ir-bosiq tovushda nedir shikastalik – taqdirning sovuq bir sharpasi zohir emasmi? Hali uncha e'tibor bermagan ekan: mo'ltirabgina chaqna-yotgan chog'ir ko'zlar naqadar horg'in va naqadar ma'yus!..

Ehtiyotkorlik zarar qilmas, degan o'ygga bordi chog'i, mudira norasida masalasida aniqroq javob aytmadi. Ayni paytda, haligi taklifdan ko'ngli o'sganini ham yashirmadi. Hozircha mayitni beradigan bo'ldi. Har holda yigit shunisiga ham shukur qildi. Mayli, avval rasm-rusumi bilan sho'rlik marhumani tuproqqa topshirsin-chi, keyin muruvvatli Egam bir tomonga boshqarar. Chamasi, opaxon achchiq-chuchukni tatib ulgurgan ayol, erta tag'in bosh egib kelsa, qo'llab yubor-sa kerak.

Umuman, Zayniddin barisi xamirdan qil sug'urgandek oson ko'chishiga umid bog'ladi. Mudira bilan xayrlashayotgan chog'da ham Tangri madadi bilan og'iri yengil bo'lishiga qariyb shubha qilmadi, tinmay urayotgan yomg'ir seli ko'llagan hovliga chiqdi-yu, birdan bo'shshdi. Ko'z oldidan goh Naima, goh qaynonasi, goh ukalari lirillab o'tarkan, go'yo zimziyo chohga quladi. Faqat endi orqaga yo'l yo'q: bas, qamishdan bel bog'lashi, oyog'i qolib og'zi bilan yuradigan munofiq-larga zarba berishi, har qanaqa ivir-sivir g'iybatlardan baland turishi kerak.

Qishloqqa kirganda qil sig'masdi yuragiga, mashinani darvozaxonada qantatar ekan, badani uvishib sovuqsiradi, ayvonga yetguncha sharros quyayotgan yomg'irda ividi. Tarnovlardan sharillab tegirmon-tegirmon suv oqardi. Osmon yana gumbirlatib po'stak qoqdi. Yog'aversin, istaganicha yog'aversin, baraka-da, deb qo'ydi ichida. Sal o'tib ukalari ko'ringach, quvonish o'rniga, qovog'i solindi. Soyayi davlatida semirib yurgan bu bachchag'arlarga arz-hol qilish o'limdan ham og'ir edi. Fursatni boy bermaslik niyatida oxiri noiloj yorildi.

– Yo qudratingdan! Yana bir qaytaring! – qoshlari bir-biri ustiga sapchilab g'uldiradi Salohiddin. – Tuzuk eshitmadim, yana bir qaytaring.

– Nimasini qaytaraman?

– E-e, g'ujala qilmay aniqroq gapiring-da, aka! – oraga hamishagidek suqma qoshiqday suqildi Nizomiddin. – Kimni ko'mamiz deyapsiz?

– Aytdim-ku, uzoq qarindosh... kunidan qolgan bir beva!

Ajabo, og'zidan shu so'zlar chiqqan payt ichida nimadir uzilganday tuyuldimi? Rostdan ham o'sha palla bag'ri hovuch-hovuch cho'g' yopishganday kuyishib, namdan qaroqlari xiralashdi. Xilvatda yolg'iz bo'lsa, o'kirib yig'lardi-yov. Buqaday xezlanishni biladigan ukalari dardu holini qayoqdan tushunishsin? Uyal-may-netmay ma'noli ko'z urishtirib, basharalarini burishtirib o'tirishdi. Hatto xizmat bor-yo'qligini surishtirishga ham yaramay juftaklarini rostlashdi. Gumrohlar battar bo'lishsin, chindan ham o'shalarga kuni qolgan emas. Hozir o'zi zirillab machitga o'tadi, mulla Hayit bilan maslahatlashadi, yordamchisi Musa traktorchini xabarkash qilib tayinlaydi.

Ust-boshi ivib, itdek charchab-toliqib qaytdi-yu, so'ljaygan gavdasini tappa yupqagina ko'rpachaga tashladi, hamisha qotib uxlaydigan odam tongga qadar mijja qoqmadi. O'lgur xayoli chuvalanib, har xil qiyofalar o'g'irlyaydi hushini.

Ajabki, ba'zan olisda, g'ira-shira parda ortida mudira ko'rinish berar, nogahon u bilan g'oyibona munozaraga kirishar edi.

Axiyri, zoriqtirgan tong yorishdi, yoru birodarlar to'planib ulgurmay, biqinida maxsus nishon zarblangan sutrang cho'zinchoq mashina ko'rindi. Katta-yu kichikni qiziqtirgan, ammo kimligi noma'lum mayit keldi, mayit bilan anglash mahol bir motam keldi. Har kim o'zicha odob bilan qo'l bog'lab, o'zicha has-sakashlik qildi. Kimdir ichi achib yosh to'kdi, kimdir nomiga oh chekdi, kimdir chekkada qilt etmay bo'zarib turdi, kimdir malomat bilan shug'ullandi, jumladan, oydek-oydek kelinlari – Iroda bilan Xayriniso kechroq, odamlar birin-sirin tarqalishgach, oshxonada hasratlasha ketishdi.

Biri tog'dan, biri bog'dan sayradi, qisqasi, ovsinlari Naimaxon onasi qornidan baxtiqaro bo'lib tushgan, bir baloni sezganki, araz-o'razni katta qilib ketib qolgan bechora! Bemavrid omonatini topshirgan anovi xonimcha Xudo urgan yosuman ekan: tirigini emas, o'ligini ko'rsatgani ko'p alomat hodisa! Bevafo dunyosiga iloyo o't tushsin, axir, yaxshi-yomon urchib yotgan shaharda qaysi birovining kundoshi yo'qligiga kim kafil?!..

Muzdan-da sovuq, tig'dan-da qattol g'iybatga guvoh o'tgan Zayniddin tarsilatib bir urdi peshonasiga, miyig'ida alamli kularkan, miyasiga qaynoq qon tepchib, ko'z oldida sonsiz tangachalar jimirladi. Hamon dilini yoritib turgan umid chirog'i so'ngandek bo'ldi, ruhi-joni va vujudi qaqshab, tun bo'yi o'zi bilan o'zi olishdi, aniqrog'i, ko'proq xayolan Rohat Komilovna bilan tortishdi.

Tongotarda sal-pal tingan yomg'ir, motorni yurgizgan hamono, yana savalay ketdi. Rostdan ham osmon teshildi-yov, deb g'udrandi. Shaharga yetguncha ham, tug'ruqxona hovlisiga kirganda ham shubha domida edi. Mo'jaz lavha osig'li tanish eshikni sekin tiqirlatib qiya ochganda yuragi gupillab tepardi. Oromkursida jurnal varaqlab o'tirgan Rohat Komilovna sokin jilmayganini ko'rib andak ruhlandi. Chindan ham mudira chehrasi sal-pal nurlandi-da, janoza qanday o'tgani bilan qiziqdi, so'ng, muddaosini aytib ulgurmay, beixtiyor nikoh qog'ozini so'radi. Ana shunda ko'ksi bir totli sirqirab, jovillab yosh tiqildi bo'g'ziga. Ma'lumotnoma tayyor bo'lgan hamono mudirani rahmatu tashakkurga ko'mib tashladi.

Ajabo, mashinasi emas, go'yo o'zi qanot bog'ladi: zuvillab qishloqqa keldi, fuqarolar yig'ini idorasidan guvohnoma undirdi, qo'liga mo'ltirab qaragan kotibni durustgina siylagach, Zarband sari uchdi. Yo'l-yo'lakay anchadan beri ustara tegmay nishlagan soqolini silay-silay bir kular, bir to'rsayar edi. Hali shundoq ham og'rib yotgan boshida qora kaltak sinishi mumkin. Bemaslahat qadam bosgani uchun ayniqsa Naima shunchaki manglayidan o'pibgina, qulog'ini shunchaki burabgina qo'ymasa kerak.

Ana, u tirs-tirs tomchilar tegayotgan voyish ostida bir qultum suv bilan yutgudek bo'lib, zulukday qoshlarini xiyol chimirib, nim qizil yupqa lablarini qimtigancha o'y surmoqda, rang-ro'yi hamon o'sha: anchayin zahil tortgan, ma'yusgina boqayotgan tubsiz qaroqlari nafrat va gina-gidirga lim-lim!



Naima qadam tovushini eshitib ilkis seskandi, bir zum hayrat ichra bo'zari qolgach, tutqich berishni istamagan kiyikday shitob tisarildi va yelkasi bilan ko'kimtir temir ustunga urildi. Noxush holat yengil-yengil orziqayotgan yigit uchun ayni muddao bo'ldi, jadal intilib nozik belidan quchdi-da, dast ko'tara borib mashinaga tiqdi. Shu zahoti kabina havosi farangiy atrning muattar bo'yiga belandi.

– Bu nima qiliq, bosqinchi? – yig'lamsirab-yulqinib qichqirdi Naima. – Sizni ko'rgani ko'zim, otgani o'qim yo'q!

– Xudo xayr bergur, avval eshitsang-chi! – dedi Zayniddin, tezlikni oshirar ekan. – Otish bo'lsa qochmas!

– To'xtating, tushaman! – Naima baralla ho'ngravordi va birdan rul chambaragiga yopishdi. – To'xtating! Men baxtiqaro bepushtni boshingizga urasizmi? Bitta zormondani ko'mgan bo'lsangiz, yana bittasini topib olgandirsiz!

Izzat-nafsi simillab ketsa-da, Zayniddin indamadi. Naima ko'ksida uyilib qolgan alamlarini to'kib, har so'zini bigiz qilib sanchganda ham miq etmadi. Faqat har zamonda yon tarafdin siniqqan betiga tikilib xo'rsinar, o'zi kabi uning aqlu idrokini ham bosib yotgan armon nechog'li zalvarli ekanligini chamalar edi.

Noliy-noliy toliqdi chamasi, Naima oxiri jim bo'ldi, hatto yuragini bo'shatgani tufayli bir oz osuda tortdi. Mashina qo'sh tabaqali darvoza bo'sag'asida to'xtaganda avval e'tibor bermadi, keyin peshtoqda ilingan lavhani ilg'adi-da, yana avzoyi o'zgardi. Dili tubidan nogahon bodragan xo'rsiniq dunyoni ko'mib tashlaganday tuyuldi. Bag'ri choklangan Zayniddin o'krab yuborayozdi. Axiyri, chidolmay cho'ntagidan haligi xatni olib uzatdi-da, darvoza sari yo'naldi. Hovli to'riga bo'ynini qisib shoshilarkan, go'yo olisidan eshitilayotgan ovoz yuragi torlariga tegib-tegib ketar edi.

*«Zayni aka, sizni atigi bir marta ko'rdim. Erim haydagan yomg'irli kunda. Taqdirim shu ekan, armon bilan ketyapman. O'ligim ko'chada qolishi yoki oxirat azobidan qo'rqmayman. Faqat birgina falokat – yorug' dunyoga kelgan go'dagim xoru zor bo'lishidan qo'rqaman. Iloyo, Xudoyim undan shafqatini ayamasin!..»*

Allabir sehr og'ushida Zayniddin goh hushiga kelib, goh hushini yo'qotayotgan, g'am-anduhga botgan va chor-nochor qo'liga qalam olgan Kunsuluv holarini tasavvur qildi. Sho'rlik ayol armoni yonida nedir umid ham ola ketganiga o'zini o'zi ishontirdi-da, bir hayiqib, bir dadil tanish eshikka yaqinlashdi. Ichkari bo'sag'a o'ng tarafida joylashgan postida jonsarak turgan navbatchi kampirga tortina-tortina muddaosini aytgach, sabrsizlik bilan kuta boshladi.

Hademay poyandoz to'shalgan yo'lakda oq xalat kiygan, qirovlagan bo'liq sochlari ajin tegmagan tiniq betiga muvofiq tushgan Rohat Komilovna ko'rindi. Bugun mudira chiroyi ham, qadam olishi ham boshqacha ekanligini payqash qiyin emasdi: ko'nglini yoritgan sham yog'dusi shundoq rang-ro'yiga ko'chgandi. Yonma-yon odimlayotgan do'mboq hamshira yo'rgak ko'tarib olgan bo'lib, quvonchdan ko'zlari porillar va tinmay bidirlar edi.

– Qarang, akamullo, mittigina-ya! Vay, o‘zim o‘rgilay, dadajonga bir kulon-kulon qib beysinla! Kulon-kulon!..

Zayniddin o‘zini yo‘qotib qo‘ygandek sarosimada: boshi uzra go‘yo chaqmoq chaqib, yuragi qinidan otilib chiqayozgan! «Ey, Xudojon, madad bergil, madad!» – deb takrorlardi nuqul ko‘nglida. Saldan keyin shoshilib cho‘ntagini kovladi. Mudira, u jimgina iljayib uzatgan hujjatlarni ko‘zdan kechirarkan, bag‘ri to‘lib qolgani bilan qutladi, qoshu kirrigiga gard qo‘ndirmay o‘stiring, yaxshi joylarga uzating qabilida ezgu tilaklar ayta-ayta zinaga qadar kuzatib qo‘ydi.

Rohat Komilovna bilan xayrlashgan chog‘dayoq shundoq ko‘z oldida yorug‘ olam butunlay o‘zgarib ketgandek tuyuldi. Ushoq jonning issiq nafasi faqat dilini emas, gird-atrofini o‘ragan dunyoni ham ajab bir inqilobga g‘arq aylagan edi. Yo‘rgak haroratini butun vujudi bilan teran his etar, qo‘rqib-qo‘rqib qadam bosar, sarxush kabi gandraklar va boshi girillab aylanar edi. Nazarida hozir o‘zini jamiki tirik jon to‘lib-toshib muborakbod qilardi, hatto daraxt shoxlarida qo‘nib chug‘ur-lashayotgan son-sanoqsiz qushlar ham!..

Shoshilmaygina alanglab yo‘rg‘alayotgan Naimani ko‘rib allaqayeridir jizil-lab ketdi, hayajonini bosolmay, og‘zi qulog‘iga yetib, nedir muddaoda asta chaqaloq betini ochdi, ocharkan, endi faqat dunyo emas, ko‘ngli ham yanada boshqacha yorishgandek bo‘ldi.

Notanish ayol xatini o‘qigandan keyin Naima o‘pkasi to‘lib ancha yig‘lagan chog‘i – ko‘zlari qizargan, qovoqlari ko‘pchigan edi. Tamshanib qo‘yayotgan go‘dakka nigohi tushgan hamono bir entikdi, uning rangpar chehrasiga mahliyo bo‘lib uzoq termilgach, puchuq burunchasiga asta barmog‘ini tekkizdi, bir mayin maysalagan qoshlariga ham tekkizdi.

– Vay, namuncha shirin? – dedi shivirlab. – Ismi nima?

– Kunsuluv! – javob qaytardi Zayniddin. – Yarashibdimi?

Naima mamnun bosh irg‘adi-da, kifti tog‘dek baland ko‘tarilgan eridan chaqaloqni avaylab oldi. Shu zahoti go‘yo qachondan beri rutubat cho‘kib yotgan ko‘ngliga chiroq yoqilib, siynasiga bahor oftobi nuriday iliq va yoqimli sharora quyildi.

Tez orada temir toychoq shaharni ortda qoldirdi va trassa bo‘ylab yelib ketdi, olisdan yomg‘irda tozargan qiru adirlar etagida yastangan qishloqlari ko‘zga tashlandi, shunda nigohi quvnagan Naima ko‘ksida haligi sharora yana ko‘pirdi, yana g‘alati orziqdi-da, kirriksiz ko‘zlarini chirt yumgan Kunsuluvni intiqlanib quchdi...

Zayniddin hoziroq ukalariga bor gapni aytmoqchi edi, lekin ular panadan-pa-naga qochib yurishganini eslab aynidi. Egasi ko‘chib ketgandek huvillab yotgan hovlida dastlabki onlarda Naima o‘zini begonadek tutayotganini sezib anqovsira-di, hatto o‘zi ham ancha muddat taraddudlanib qoldi. Necha yillik turmushlariga shohid o‘tgan uy go‘yo qovoq uyib bo‘zarar, ustiga ustak, chor-atrof allatovur befayz tuyular, ayvon-oshxona va bo‘lmalar qo‘qib-to‘zib yotar, oyoq bosgani joy yo‘q edi.

Nogahon Kunsuluv chirillab yig'lab yuborgach, kutilmagan hodisa ro'y berdi: hovli-haram go'yo osmonu falakdan yomg'ir o'miga sim-sim yog'ilyotgan shu'laga chayina boshladi.

Naima darhol kukundan quyuqqina sut hozirladi, emizg'ini Kunsuluv og'ziga solarkan, nimadir qovushmay o'ng'aysizlanar, siynasi osti bir g'alati achishar edi. Hademay chaqaloq miriqib to'ydi, osuda tortib beozorgina uxlab qolgach, Naima o'zi kabi patak-paymona bo'lgan, bir joyda o'tirolmay javdirayotgan eriga qarab kulimsiradi. Ushbu damda go'yo ikkovlon taqdir ko'ndalang qilgan favqulodda qiyin imtihondan bir amallab o'tgan edi.

Baraka topgur Naima anchagina uquvli chiqdi: tez orada o'zini dadil va eminerkin tutadigan bo'ldi. Odam tanib, hatto yupqagina lablarini burib jilmayishni odat qilgan Kunsuluv yonida ruhi bir yengil, suyagi bir tetik edi. Endi u chindan ovunchog'iga aylandi. Sira bag'ridan qo'ymasdi, jildirab boqadigan ko'zlaridagi ma'sumlik joniga quvvat bag'ishlardi. Emizg'ini qizg'anibgina so'rayotganda birdan to'liqib ketar, uxlata chog'i berilib alla aytar, yoqimli ohanglar toshib-toshib yuragi to'ridan yangrar edi.

Zayniddin erta-kech Naimani zimdan qiziqsinib kuzatadi, keyingi kunlarda u yosharib ketganini sezib, ko'nglida o'ralib yotgan chigillar yechilib boradi. Aql bovar qilmas sevinch va g'ururdan boshi ko'kda! Qolaversa, endi o'zi ham boshqa odam: qadam olishlari o'zgardi, ko'z o'ngida anduh, g'am-g'urbat va iztirobdan ayri ajib olam o'rnashdi. Faqat goho Oysha xola yodiga tushib mung'ayib qoladi, axir, kampirsho mojaro qo'zg'ashi va ko'ngillarini xufton qilishi ehtimoldan xoli emas. Oxiri xavotirini bo'lishdi. Bor vaqtini go'dakka sarflab hatto o'zini unutgan xotini ham avval sal bo'shshdi, keyin jo'yali maslahat berdi: dangal bo'lasiz endi, dadasi!

To'g'risi ham shu edi. Yana ham tikroq tutdi qaddini. Zarband sari g'izillab jo'nadi. Bari bir, ishqilib orqasi tutib quvlamasin-da, degan o'y tinchlik bermasdi. Ammo bekor tashvish chekibdi: Oysha xola bo'sag'ada qulochoq yozib qarshiladi. Ko'pdan beri birinchi marta kuyovini o'tqizgani joy topolmay shoshdi. Yelib-yugurib dasturxon tuzagach, barini eshitganini yashirmadi, hatto birona suyunchi so'rab ostonasiga qadam bosmagani uchun ginaladi. Yana ham qizig'i, jo'nar payti so'ramay-netmay asta mashinasiga qo'ndi, shu kungacha borib qizini qutlamagani, nevarasini erkalamagani uchun aybdor ekanini qayta-qayta ta'kidladi.

Oysha xola oshiqib bo'sag'a hatlagan pallada go'yo peshonasida quyosh balqigan, bo'yi bir qarich o'sgan edi. Hozirgina uyg'ongan norasidani entikib bag'riga bosarkan, yelkalari asta-asta titranib, ajin tilimlagan yonoqlaridan mil-dirab yosh dumaladi.

Qaynonasi qurmagur uyi to'rini bermay qo'ydi, Naima bilan birga erta-yu kech Kunsuluv yonidan jilmasdi. Soat sayin to'lishib borayotgan go'dak kulgisi va yig'isi uzoq gazaklagan armonini allaqachon ko'ksidan surib tashlagan edi. Harqalay kampir qushdek yengil tortgani Zayniddin uchun alohida mukofot bo'li-

di va bahonada shu mushfiq jon onasi o'rnida ona ekanligini ham e'tirof etdi. Ko'klam adog'ida uni bosh-qosh qilib qirqni o'tkazgach, diliga tugib qo'yan niyatini ushatish uchun kirishib, bir shanbada barchani beshikto'yga chorladi. Do'stu dushman ko'ziga sarfu xarajat borasida qisinmadi, muhimi, so'zida turib, xotirida bir farishta kabi o'rnashgan Rohat Komilovnani yo'qladi. Opaxonni iz-zat-ikrom bilan mashinasida mindirib keldi-da, egniga yal-yal tovlanadigan barra po'stin yopdi.

Ma'raka kech soat o'nga yaqin tarqadi, ukalari qora bermaganini aytmasa, rosa tartibli o'tdi. Yarim tungacha tengqur jo'ralari bilan yana ezib-ezib hangomalashdi. Axiyri, ular ham jo'naganda, o'larday charchagan bo'lib, oyoqda arang turardi. Dahlizda, Kunsuluv belangan beshik yonida suhbatlashib o'tirgan Naima bilan qaynonasiga xayrli istaklar aytib, jimgina yotoqqa kirib cho'zildi va hayal o'tmay kirriklari yumildi.

Tush ko'rsaki, ayni tong pallasida bir shivalab, bir chelaklab yomg'ir yog'ar-mish, marhuma – yupqagina kiyingan Kunsuluv, lablarida iliq bir tabassum, keng dala bo'ylab urina-surina odimlarmish, nari tomondan guldor shamsiya tutgan Na-ima ildamlab kelarmish, Kunsuluv unga bir dona atirgul va bir dona olma uzatib g'oyib bo'lganmish!..

Alomat tush go'yo tasavvuriga toabad naqshlandi. Erta-yu kech xayolidan Naimani qarshilash niyatida yomg'irda ivib, kula-kula, allabir mushtoqlik bilan oshiqayotgan Kunsuluv sira jilmas edi. Har soniya u go'yo yonginasida nafas ola-yotgandek tuyular yoki panadan har bir harakatini diqqat bilan ta'qib qilar edi...

Bugun Zayniddin daladan ancha barvaqt qaytdi, allaqachon atak-chechak bo'lib qolgan, qorasini ko'rgan zahoti qo'l cho'zib talpinadigan Kunsuluvni sog'ingan edi. Hoziroq erkatoyini to'yib-to'yib bag'riga bosishni, yorug' dunyo-ning tugamaydigan tashvishlaridan bir dam uzoqroqqa chekinishni o'ylab darvo-zadan kir-di-yu, angraygancha to'xtadi.

Axir, burma yoqali sakkiz tepki atlas ko'ylak kiygan Naima ro'parasida qizil guldek ochilib-sochilib turar, surma surilgan tubsiz ko'zlari ham sirli, ham g'am-zali boqayotgan edi. Saldan keyin hayratini yana ham oshirib, xandon kula-kula, hovli o'rtasida xiromon aylana boshladi.

– Nordon olma yegim kelyapti, nordon olma, akajon!..

# Tog'ay Murod

(1948–2003)



Tog'ay Murod (Mengnorov Tog'aymurod) 1948-yil 3-fevralda Surxondaryo viloyatining Denov tumaniga qarashli Xo'jasoat qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1999). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1972). Birinchi yirik qissasi – «Yulduzlar mangu yonadi» (1976). «Ot kishnagan oqshom» (1979), «Oydinda yurgan odamlar» (1980), «Momo Yer qo'shig'i» (1985) kabi qissalari nashr etilgan. «Otamdan qolgan dalalar» (1993, ushbu asar asosida badiiy film yaratilgan, 2001), «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» (2001) romanlari muallifi. Jek Londonning «Boyning qizi» dramasi va hikoyalari, E. Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» qissasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1994).

Yozuvchi 2003-yil 27-mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

## BOBOSI BILAN NEVARASI

Oyoqlariga qizil botinka, ustiga ko'k ishton-ko'ylak, boshiga eski ola do'ppi kiyib olgan uch yashar nevara, hammadan oldin o'rnidan turib, ayvonga chiqadi. Dasturxon atrofida o'tirganlar unga parvo ham qilmaydilar. U dahlizda birpas tik turadi. To'g'ridan qaraganda xuddi vaqtincha o'rnatib qo'yilgandek ko'rinadigan katta-katta quloqlarini ko'rganlar nevarani tog'asiga o'xshatadilar. Quralay ko'zlarini, bir oz yapasqidan kelgan burnini, keng va do'ng, hali g'am nimaligini bilmagan yaltiroq peshonasini ko'rganlar esa uni otasiga o'xshatadilar.

Nevara zinapoyadan avaylab tushadi. Orqasiga bir qarab qo'yadi. Maydamayda qadamlar bilan hovli eshigi oldidagi mototsiklning yoniga borib turadi. Esida bor, otasi bilan mana shu muloyim o'rindiqqa o'tirgan, o'shanda bu mototsikl degani qattiq ovoz chiqarib yurib ketgan, nevara qo'rqqanidan otasini mahkam

quchoqlab, ko'zlarini yumib olgan edi. Mana, u bugun ham mototsiklga minadi, o'zining minmoqchi ekanligini bildirish uchun orqa o'rindiqqa qo'lini tekkizib turadi. Hademay otasi ham keladi, so'raydi:

– Yo'l bo'lsin?

– Men ham boraman.

– Qayoqqa?

– Ishga.

– Ha-a. Direktorimiz kecha pedsovetda seni so'rayotgan edi, nega ishga kelmayapti deb, – deydi otasi hazillashib.

Nevara otasi aytgan so'zlarga deyarli tushunmaydi. Hatto ayrim so'zlarni birinchi eshitishi. Ammo shunday bir narsani payqab qoldiki, kimdir: xolasimi, ammasimi uni kelsin debdi. Boradi, boradi.

Shu payt otasi bir narsani tepadi, pat-patlagan tovush chiqadi. Nevara bir cho'chib tushib, kirriklarini pirpiratadi.

Agar olib ketmasangiz, yig'layman, degandek, lablarini buradi, yelkasini silkib, boraman, deydi. Otasi parvo qilmay ketadi. Pat-patning orqasidan tutun chiqadi, nevara tutun ichida qoladi. Ana endi, u yerga ag'anab, alamidan chiqquncha yig'lamoqchi bo'ladi. Ammo... bobosi yomon. Yumshoq tuproqqa ag'anab, mazza qilib yig'lab olishga qo'ymaydi. Nevarasini qo'lidan yetaklab ichkari olib kirib ketadi. Har qalay yomon bo'lsa ham o'zi bilgan odamlar ichida bobosini yaxshi ko'radi. Shu daqiqadan boshlab bobosini avvalgiga qaragandan ham ko'proq yaxshi ko'radi. Sababki, bobosi hozirgina unga tokchadan shokolad olib berdi.

Nevarasining ko'ngli nimanidir istaydi. Bir kuni bobosi uni qayergadir olib borgan, u yerda katta-katta uylar bor, odamlar ko'p ekan, ko'chalarda olma, bodringlarni odamlar hammaga ko'rsatib o'tirar ekan. O'shanda bobosi unga shirin suv olib bergan edi. Nevarasi hali-hali eslab lablarini yalab qo'yadi. U hozir, yana shu yerga olib boring degisi keladi, lekin aytolmaydi. Qayerga borganini o'zi ham bilmaydi. Bobosining tizzasiga o'tirib olib xarxasha qiladi.

– Jim o'tir, jim. Qara, anavuni qara. Eh-he, bolalarni qara, – deydi bobosi burchakda turgan televizorga ishora qilib.

Nevarasi bu yarmi shisha katta qutining televizor deb aytilishini yaqindagina bildi. Ammo haligacha uning nomini aytolmaydi. Bobosi televizorda qiziq tomosha ko'rib kulib yuboradi. Nevarasi nima gapligini payqamasa-da, bobosiga qo'shilib kuladi. U tomoshaga qarab o'tirib, hayron bo'ladi: buncha ko'p odamlar qanday qilib shu kichkina qutini ichiga sig'adi?..

– Bobo, bu odamlar qayerda?

– Televizorning ichida-da, ulim.

– Shuning ichida uyi ham bormi?

– Bor, ulim, bor. Hammasi bor.

– Ularning shokoladiyam bormi?

Mittigina nevarasi o'zicha, kishilar uchun eng shirin va kerakli narsa shokolad deb biladi. Shuning uchun hamma narsani, avvalo, shokoladga taqqoslab

ko'radi. Nevarasining savoli javobsiz qoladi, televizorda hech narsa ko'rinmay qolgani uchun bobosi uni o'chirib qo'yib, hovliga chiqib ketadi. Nevarasi qo'li bilan devorga suyanib o'rnidan turadi. Ko'rsatkich barmog'ini og'ziga tiqib, boshini chapga sal qiyshaytirib, televizorga birpas qarab turadi. So'ng asta-asta kelib, televizorning orqasidan ichiga qaraydi – yo'q. Chakkasini televizor yoniga tekkizib quloq soladi – yo'q. Haligi odamlar yo'q. Hozirgina shuning ichida edi... Qayoqqa ketdi ular?..

U hayron bo'lib, uy ichiga nazar soladi. Pechka oldida turgan kichkina mashinasini ko'rib qoladi. Mashina oldiga boradi. Shu yerda turgan singlisining qo'g'irchoq qizini oyog'idan sudrab kelib mashina ustiga o'tirg'izadi. Mashinaning uzun irlaridan sudrab hovliga chiqadi. Chekkaroqda bir nimalar qilib o'tirgan bobosiga qaraydi. Bobosi deraza yasayapti. Oldida ustalar uchun kerakli asboblar, har xil hajmdagi yog'ochlar sochilib yotibdi. Vaqti-vaqti bilan yog'ochga chizadi-da, so'ngra kichkina qalamini qulog'i ustiga qistirib qo'yadi. Buni ko'rgan nevarasi zavq bilan kuladi va o'zi ham shunday qilish uchun qalam qidiradi, biroq topolmaydi. Mashinasini sudrab daraxtlar orasiga qarab ketadi.

Bobosi ko'z ostidan nevarasiga qarab qo'yadi. Yana ishini davom ettiradi. Bobosi pensiyaga chiqqaniga ikki oycha bo'ldi. Hukumat uni taqdirladi. U pensiyaga chiqmasdan oldin qachon pensiyaga chiqib mundoq dam olarkanman, deb o'ylardi. Ish deganlari jonimgayam tegdi, deb qo'yardi. Mana, orzusiga yetdi. Ammo o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Nima ish qilishini bilmaydi. Ishlab o'rgangan odam – hadeb yotavergisi kelmaydi. Hovlini kuzatib, ko'ziga yomon ko'ringan narsalarni – devorning ko'chgan joylarini, buzilgan derazalarni, eshiklarni tuzatadi. Toklarning uchini kesadi. Xullas, hovlidagi beo'xshov narsalarni o'xshatmasa ko'ngli orom olmaydi. Bobosi: «Manavi Ismoil... E tavba-e, qirq yil Sovet hukumatiga xizmat qilib, minglab odamlar bilan til topishdimu, ikki oydan buyon shu tirmizak bilan kelisha olmayman-a!..»

Bugun ikki kundirki, bobosi tovuq katagiga eshik tayyorlaydi. U qo'lidagi yog'ochni qarichlab ko'radi, adashib ketadi. Yana qarichlab, bu safar qalam bilan boplab belgi qo'yadi. Kesmoq uchun arrani oladi. Bobosi: «Bekor pensiyaga chiqibman. Ishdaligimda kunida kamida o'n kishi meni so'rab turardi. Endi esa hech kimning men bilan ishi yo'q». Bobosi yana ko'p narsalarni o'ylaydi... Nevarasining daraxtlar tarafga o'tib ketganini eslaydi, xabar oladi. Xotirjam bo'lib, ishini davom ettiradi. Nevarasiga achinadi: «Bunga qiyin. Birga o'ynaydigan bolalar yo'q. Uydagilar meni yam tashlab ketadi, uniyam tashlab ketadi. Yo ikkalang birga o'ynayver, deganlarimikan bu... Yo'g'-e...»

Do'mboqqina nevarasi o'yindan zerikadi. Mashinasini sudrab kelayotib, tovuq katagiga qarab, ichida tovuq borligini ko'radi. Chap oyog'ini yerga tap etib urib «kisht», deydi. Tovuuq shunda ham indamay yotaveradi. Nevarasi: «Hamma tovuqlar hovlida o'ynab yuribdi, bu tovuq nega bir o'zi o'tiribdi ekan?...»

Qo'g'irchoq qizning qo'lini sug'urib olib tovuqqa otmoqchi bo'ladi, lekin ololmaydi. Yerdan mayda tosh olib otadi, tovuq qoqoqlab katakdan chiqib keta-

---

**di. Nevarasi tovuq yotgan joyda oppoq tuxum turganini ko'radi. Qo'lini uzatadi, yetmaydi. O'rmalab katakning ichiga kirib ketadi. Tuxumni mashinasiga solib, bobosining oldiga oboradi.**

- Bobo, tovuq tug'di, mana.
- Yaxshi bo'пти.
- Tuxumi issiq ekan.

Bobosi va nevarasi qo'l ushlab tok vayishi ostiga boradilar. Jajjigina nevarasi tokda osilib turgan uzumlarga qaraydi. O'z qo'llari bilan olib yemoqchi bo'ladi. Xuddi bobosidek qo'lini uzumlarga cho'zadi. Eh-he, hali juda uzoq, juda...

Bobosi nevarasiga boqib, beixtiyor o'zining bolaligini eslaydi... Ko'nglida nevarasiga nimadir... nimadir paydo bo'ladi... Nevarasining beg'ubor peshonasi va tiniq yuzlariga uzoq boqib qoladi...





# Murod Muhammad Do'st

(1949-yilda tug'ilgan)



Murod Muhammad Do'st 1949-yil 12-aprelda Samarqand viloyatining Jom qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning tarix fakultetining falsafa bo'limini tugatgan (1971). Moskvadagi Adabiyot institutida o'qigan (1974 – 79). Dastlabki hikoyalar to'plami – «Qaydasan, quvonch sadosi?» (1976). Shundan keyin «Mustafo» (1977), «Bir toychoqning xuni» (1979), «Galatepaga qaytish» (1983), «Dashtu dalalarda» (1987) singari hikoya va qissalari nashr etilgan. «Lolazor» (1988) romani muallifi. Asarlari asosida badiiy filmlar suratga olingan.

## DASHT-U DALALARDA

Xadicha ketdi-yu, ko'ngildan halovat ham ketdi. Uy bamisoli o'lik chiqqanday huvillaydi. Polvonning yuragi toriqdi – uyni tark etdi, boqqa olib tushadigan qiyalikdagi bobosidan qolgan yerto'lanini o'ziga boshpana qildi. Odamlarning ku'lishini bilardi, ammo uydagi hamma narsa Xadichani esga soladi: ostonaga qadami tekkan, devorga yelkasi – chidab o'tirishi qiyin bo'ldi.

Yerto'la eski bo'lsa ham havosi quruq edi. Yeri naqq metin – cho'kich tegsa, chaqin chiqadi. Qoratoyini ham ichkari olib kirdi. Bechora it ochiqqa o'rgangan edi, yerto'laga ko'nikolmadi, uch-to'rt kecha uvlab chiqdi, lekin – yo'q, keyin-keyin egasining holiga tushundi chog'i, poygakka to'shalgan poxol ustida indamay yotadigan bo'ldi.

Yerto'la avvaliga sal vahimali ko'rindi. Shifti past, agar chiroq bo'lmasa, naq lahading o'zginasi...

Asta-sekin yerto'laning go'rsimon ekaniga ham ko'nikdi. Yomg'irli bir tunda uyqusiz yotib uzoq o'yladi, o'zining tirikligini o'yladi, yonida iti Qoratoy borligini, Xadichaning ketganini... Bir o'zi ketsa go'rga edi, qizchani ham yetak-

lab ketdi... Shu tariqa, xayoli to'rt yashar qizchasi Chamanga og'di, qizim hozir Sho'rquduqning ko'chasida bemalol o'ynab yurgandir, deb o'yladi, hatto uning qo'lchalarini tuproqqa belab qichqirayotganini eshitganday bo'ldi. Yarim tun ekan, tashqarida yomg'ir sharros quyayotgani – barisi bekor edi. Xo'rliги keldi, o'zidan xafa bo'ldi, keyin poygakda xumday boshini yerga qo'yib mudrayotgan itiga so'zlandi: mening holim shu, Qoratojon, xotin ketdi, har kim o'z yo'liga ekan...

It otini eshitib, ko'zlarini ochdi. Polvon gapirib yotaverdi. Go'yoki bor alami tanidan hovurdek ko'tarilib, butun yerto'lani to'ldirayotganday edi. Qoratojon egasining qarashiga chiday olmadi, poxol ustida g'ujanak bo'lib, yana ko'zlarini yumdi.

...Kunlar shu zaylda o'taverdi. Singlisi Adolat har kech sigir sog'ar mahali holidan xabar olib turardi. Akasining o'rliyini bilar, shu sababli unga ko'pda aql bo'lavermas edi. Lekin, axiyri u ham chidab turolmadi.

– Mengayam oson tutmang, aka, – dedi. – Jo'jabirday jonman, qaysi birovlaringga qarayman? Odamlarga kulgi bo'ldik, aka, bu kuningizdan o'lganingiz behroq edi!..

Har safar singlisi kelganda miq etmay yotadigan odam, bu gal ilkis qo'zg'aldi:

– Men o'lsam tinchiysanmi, Adol?

– Qaytib oldim, aka, – dedi u. – Tillarim qirqilsin, aka, qaytib oldim!..

– Senga og'irim tushgani rost, – dedi Polvon. – Sal sabr qilgin, singil, men avval old-ortini bir o'ylab olay...

O'shandan beri Adolat qorasini ko'rsatmaydi. Olib kelgan narsasini ham yerto'ladan tashqariga, eski toltovoqning ostiga qo'yib ketadi.

Kunduzlari bir nav – yolg'izlik ko'p bilinmaydi. Ertalab qo'lga gavron olib cho'lga chiqib ketgani bilan to shomgacha podaga andarmon bo'lib yuradi. Baxtiga, sherigi Hasanboy kamgaproq odam, bir marta uylanib, yil o'tmay ajrashgan, Polvonning xotini ketib qolganiga ko'p ham ajablanmaydi.

Kunduzlari bir nav, jami azob shomdan keyin, shifti past yerto'laga qaytgan mahali boshlanadi.

Xadicha yoningda yotganida o'lim yodingga tushsa ham qo'rqmaysan: xotining bor, bolang bor, tepangda – Xudo, e, bir gap bo'lar-da, deb o'ylaysan. Xadicha bo'lmasa qiyin ekan. Endi uning siyog'i ham esdan chiqqanday; bechora salga shamollardi, shamollab dimog'i chirpa bitganida pishqirib bezor qilardi, huda-behuda chiroq yoqardi, ivirsib g'ashingga tegardi, lekin bari bir, borligi durust edi – ovunarding, istagan paytingda qo'l uzatsang yetadi, g'ingshisa g'ingshir, iloji yo'q, o'rtada non singan, nikoh o'qilgan; bag'ringga bosib yuzu ko'zidan muchchi olgan chog'laringda bechora kichrayib qolardi, u-ku kichkina, lekin sen ham o'zingni pardek yengil sezasan; dimog'ingda sutning hidi, qayoqqadir uchib ketgilaring keladi; doim ko'klam bo'lsa, ko'kalamzor bo'lsa, yalang oyoq, yalang bosh, pardek yengil Xadichani ko'tarib hovlidan chiqsang, keyin shu ko'targancha ketsang, hech kimdan uyalmasang, ketsang, yo'lingda birov uchramasa, ketsang-da, qayoqqa ketayotganingni o'zing ham bilmasang!..

U xotinini umrida bir marta – chimildiqda amallab ko‘tarib olgan, xolos. Faqat, ba‘zan poda ketidan yurganida xayoli og‘ib, uni ana shunday ko‘tarib chopmoqni istaganlarini eslaydi. Chimildiqda ikkita ayol etagidan bosib turgan, bittasi – Xadichaning o‘rtancha ammasi, shunchaki etakdan bosmay, naq taqimiga qistirgan. Polvon undan yosh edi, birmuncha sho‘xligi ham bor, kishibilmas timirskilanib turib, Xadichani qo‘ltig‘idan shartta ko‘tardi. Amma g‘aflatda qoldi, kapadek bo‘lib ag‘darilib tushdi. Uni rosa kulgi qilishdi. Xotin-xalaj baralla kuldi. «Mana senga, Oybuvi, mana senga kuyovning zo‘ri», deyishdi. Zo‘r-u nozo‘ri kimga kerak – shunchaki gap bo‘lsa bas, hamma og‘ziga kelganini aytadi, hammaning dimog‘i chog‘. Polvon chimildiq ortidan mast odamday gindiraklab chiqdi, chiqdi-yu, ko‘chada sho‘rquduqlik yigitlar bilan o‘rlashib turgan jo‘ralarini ko‘rdi. Kuyovning o‘zi chiqqach, sho‘rquduqlik bittasi battar avj qildi: «Senga Xatcha hayf, Polvon, – dedi. – O‘zimizdan ortib qolgani yo‘q edi, qulog‘ini tishlab qo‘yuvdik, haliyam tashlab ketaber!..» Polvonning yomon ajinasi tutdi, lekin urishgani jo‘ralari qo‘yishmadi, neki harbu zarb bo‘lsa, o‘zlarini balogardon qilishdi... So‘ng, Sho‘rquduqdan chiqar mahal, ko‘chaning adog‘ida, ular tushgan ulovga tosh yog‘ildi. Polvon sal enkayib, kelinning boshida turdi, lekin Xadicha shusiz ham bexatar edi. Ust-boshi qalin, yumshoq – unga hech ziyon yetmaydi. Birgina G‘uchchi cholga tosh qattiqroq tegdi, bechora yilqichi, alami tutib, ovozinig boricha aytib qo‘yaberd: «Nokas sho‘rquduqlik, mening aybim nima? Chimildiqqa kirgan menmi?!» Uning baqirganiga birov parvo qilmadi. «Yor-yor-yoron-ey!» deb qo‘shiq aytishdi. Galatepada bunday qo‘shiq rasm emasdi. Uni Sho‘rquduqdan qo‘shilib chiqqan kelinning xeshlari boshladi. Galatepaliklar avvaliga iymanibroq turishdi, keyin ular ham qo‘shildi, to‘o‘zlarining sarhadlariga yetguncha bo‘kirib borishdi: «Tomda tovuq yotadi, yor-yor-yoron-ey, oyog‘i sovg‘atadi yor-yor-yoron-ey!..» Yolg‘iz Polvon qo‘shiq aytmadi. Indamay keldi. G‘alati edi. Yonida – Xadicha, hali yuzini tuzukroq ko‘rolgani ham yo‘q, uyat-u qo‘rquvdan bir burda bo‘lib o‘tiribdi, ulov har silkinganda yelkasi tegadi, xuddi bir yashin urganday, o‘t, olov, qiyomatning naq o‘zi!.. Keng bir dala, yo‘l, ulov... E Xudo, ulov degani muncha imillamasa!.. Bir yoqda qo‘shiq, bir yoqda G‘uchchi chol, haliyam so‘kinyapti: sho‘rquduqlik nomard chiqdi, ko‘chada ro‘para bo‘lolmadi, orqadan tosh otdi... Endi G‘uchchiga qiyin, endi uning g‘urrasini Galatepa rosa bir oy kulgi qiladi, ajab bo‘pti, xo‘b bo‘pti, sen cholga kuyovnavkarlikni kim qo‘yibdi; e, enalari o‘lsin, nimasini eslaysan, Polvon, eslagulik joyi qoldimi! Yoningda Xadicha yotsa tuzuk, Polvon, hali bu ko‘rganlaring oz, Polvon!..

Xadicha bir sidra kiyimini tugun qilib, poygakda qotib turdi, bechora biror sazo chiqishini kutdi, lekin Polvon er bo‘lib bir narsa demadi. Xadicha dahlizga chiqib yana birpast turdi, hovliga chiqib hovlida turdi, ilindi, qaytarib olarku, dedi, ammo Polvon teskari-to‘ng bo‘lib yotaverdi, so‘ng, Xadicha darvozaga yetganda chidab turolmadi, qizchasi Chamanni qo‘lidan sudrab chiqdi: «Ma, muniyam obket, pishirib yeysanmi, isqotingga qo‘yasanmi!..» Musht yeganda yig‘lamagan ayol, buni eshitib yomon bo‘shashdi, ko‘ziga yosh oldi: «Haq, falak!

– dedi. – Mayli, ketsam ketayin, beqadr bo‘ldim, mayli Xudodan toping». Shu gapni aytdi-yu, qizini yetakladi-ketdi. Polvon uyga kirdi. Yalang palosda kesak bo‘lib yotdi. Qancha yotganini bilmaydi, bir payt chiqib qarasa, Xadicha uzoqlabdi, Sho‘rquduqning yo‘lida qizini iyartib ketyapti. Polvon Toshgazagacha izma-iz bordi, lekin ularning qayrilmaganini ko‘rib shartta to‘xtadi, avvaliga g‘azabi yo‘q, ichi to‘la alam, chakmonining bariga bir urdi: «Hay, mayli, ketsang ketaber, Xatcha, Sho‘rquduq borasanmi, nariroqqa o‘tib ketasanmi, bir boshimda bir kunim, men ham sensiz uloqib ketmasman!..»

Orqaga qaytdi. Hovlida o‘tirib, zambilg‘altakning bo‘shagan tirsagini sozladı, chalg‘ining tig‘ini peshladi, o‘zini yupatdi, hatto sal ovunganday ham bo‘ldi, keyin, kech tushganda qarasa, taqron joyda toq o‘zi o‘tiribdi, dardlashgudek mahrami yo‘q, yig‘layin desa, ko‘r bo‘lgur ko‘zga yosh kelmaydi. Notavonligini endi sezdi, alamidan xotin bechoraning uyda qolgan kiyim-kechagini hovliga olib chiqib, oshpichoq bilan qiymaladi, kultepaga eltib ko‘mdi. Yo‘q, bu bilan ham tinchimadi, kultepaga o‘zini eltib ko‘msa ham tinchiguday emasdi. Bezovta, beorom, miyasiga qurt tushgan qo‘chqordek hovlini gir aylanib yugurdi. Aylanaturib darvozaga ro‘para bo‘ldi-yu, uni lang ochiq ko‘rdi. Ko‘chaga chiqdi, Sho‘rquduqqa yo‘l tutmay, to‘g‘ri Salim chaqichnikiga burildi. Borsa, Salim hovli o‘rtasida sandal qo‘yib, oldida mag‘zava to‘la tog‘ora, bir parcha pishiq g‘isht bilan tovonining emini qirtishlab o‘tiribdi. Polvon tog‘orani bir tepib ag‘dardi, so‘ng Salimning yoqasidan oldi. O‘rtaga Mahfirat tushmaganda oxiri yomon bo‘lardi. Salim uning qo‘lidan yulqinib uyga chopdi, zum o‘tmay, otasidan qolgan qo‘sh tig‘ni ko‘tarib chiqib, Polvonga o‘qtaldi: «Ket, bo‘lmasam otaman!» Mahfirat miltiqqa ko‘kragini tutdi: «Avval meni otasan!..» Polvon uni chetlatdi: «Qo‘y, singlim, ering hazillashyapti». Yo‘q, xotin aytganidan qolmadi, eridan miltiqni yulqib olib, hamsoya‘ning hovlisiga otdi. Polvon boshqa musht ko‘tarmadi, g‘azabini ichiga yutib, tashqari chiqdi. Hayal o‘tmay, ortidan Salim saqich ham chiqib keldi, qachon yirtib ulgurgan bo‘lsa ham, egnidagi kiyimning butuni yo‘q, yenglari-yu, ishtonining baloqlarigacha ro‘dapoday osilib yotibdi, boshidan tuproq sochganmi, aft-basharasining kulga yumalagan toyxardan farqi kam, chiqasolib Nizomboy milisaning uyiga jo‘nadi. Polvonning xayoli qochdi: bu nomard boshini yorishdan ham toymaydi! E, opketsa, opketar, nima, ortingda yig‘lab qoladiganing bormi! Mayli, oxirigacha nomardlik qilaversin, Nizomboyga chaqadimi, boshqa qiladimi, mayli, shu nomardning ham xusuri qonsin!..

O‘zi keyingi paytlar Salim saqich bilan oshnachilikni bas qilmoqchi edi. Bir-ikki bor atay so‘kishgani chog‘lanib bordi. «Zora so‘kishib qolsagu ora ochilib, yuzko‘rmas bo‘p ketsak», deb o‘yladi. Yo‘q, so‘kish ham oson emas ekan, odamning yuzidan o‘tishi qiyin bo‘ldi.

Ikki piyola aroq ichguncha har ne janjalga xezlanib o‘tirdi. Keyin sal kayfi oshdi. Salim saqichga rahmi keldi, «Bu dayus sil qon tuflab yurib, o‘zini o‘nglaguncha ozmuncha urindimi», deb o‘yladi, qiynaldi. Salim Kattaqo‘rg‘ondan murch, saqich, hushtak, hatto erkak odam nomus qiladigan narsalargacha olib ke-

lib sotardi. Keyin ana shu attorlikdan tushgan sarmoya bilan boshqa bir ishni kasb qildi. Kechqurunlari, qishloqda ismi do'kon yopilgan mahal, so'rab kelganga bir so'm ustamasi bilan aroq sotadi. Hozir endi tuzuk bo'lib qolgani – yuziga qon yugurgan, yo'tali yo'q, gaplari ham dadil.

Oxirgi gal Salim saqich unga nasihat qilgan bo'ldi:

– Bu ishingni qo'y, bola, sen ko'p ichaverma.

Polvon uning nasihati astoydil ekaniga ishonmadi, kuldi. Salimning esa jahli chiqdi.

– Men bir oti yomon odamman, Polvon ukam, – dedi u. – Eshitsang, o'zing uchun eshitasang, eshitmasang – otangning go'riga!..

– Gapning o'zi qiziq-da, Salim, – deb e'tiroz qildi Polvon. – O'zing quyib berasan-u, ichmagin, deb aytganing nimasi? Keyin, oshna, xudo bo'lsang ham, ota-buvamni o'rtaga qo'shma, tepada tinch yotsin, men hali o'zimdanda qolganim yo'q.

– Holingga boqmaganing yomon, – deb kuldi Salim saqich. – O'zingcha ne xayollarga borib yuribsan! Aytib qo'yay, menga ko'p shox qilaverma, bo'lmasa, naq changingni chiqaraman! Sen bu yoqda ichib yurasan, xotinchang Sho'rquduqqa bir oylab o'tlagani ketadi!..

Polvon Salimni jag'iga bir urib ko'rpachaga qulatdi. Lekin, u taslim bo'lmadi, tishining orasidan sizayotgan qonni kafti bilan sidira turib, yana gapirdi:

– Sen bu yoqda, u naryoqda... Enasinikida o'sma qo'yib o'tiribdi, deb o'ylaysanmi!..

– Bas qil!..

– Bo'pti, men bas qildim, lekin sen ham o'zingga ehtiyot bo'l, Polvon ukam! Kuchingni xotinga ham ko'rsatib tur!.. – Salim saqich pixillab kuldi.

Polvon tag'in musht ko'tardi, lekin urmadi, sharta joyidan turib jo'nadi. Yo'l bo'yi Xadichani o'yladi. Buzuq desa, buzuqligiga ishonmaydi, tuzuk desa, erta bahorda Sho'rquduqqa ketib, rosa ikki hafta o'sha yoqda qolgani rost. «Sattorqulning xotini tug'ibdi», degan edi. Bunisini Polvonning o'zi ham bilardi. Sho'rquduqqa borganida bildillab qarshi oladigan tojik qiz – Sattorqulning xotini keyingi safar undan tortinibroq turgan edi. O'choqning boshidan beri kelmagan. O'zi oriqqina, shundan, qorni battar do'ppayib ko'ringan edi.

Uning-ku bo'shagani rost, lekin Xadichaning o'sha yerda bunchalik qadalib qolganiga nima deysan?..

Uyga qaytib, xotinini burovga oldi. Xadicha qasam ichdi, qizini, enasini, Xudoning o'zini guvoh qildi. Lekin, Polvon ishonmadi. Ishonay dedi-yu, ko'ngilda tugun qolarini sezdi. Kayfi bor edi, chekayotgan azobi bol tuyuldi – xotiniga ishonmadi.

Bir kuni azonda podani cho'lga haydab ketaturib, Toshgazaning so'l betida qirg'iydek qo'qqayib o'tirgan Nazar Maxsumni ko'rdi. Hayron bo'ldi: Maxsum-ku o'zidan tinchigan odam, choshgohdan oldin qorasini ko'rsatmaydi – bu-

gun bunday o'tiribdi? Qichqirib salom berdi. So'rashay desa – uzoq, salomini kifoya bilib, yana podaga andarmon bo'ldi, haydayverdi. Bir vaqt Nazar Maxsum kulrang toyxarida orqadan yetib keldi va yonma-yon ketaverdi.

– Nevaramning to'yiga bir kelasiz-da, Polvonboy, – dedi u. – O'zingiz kelib bir davra qursangiz. Odam yuboraman.

– Ko'p qatori borarman, – dedi Polvon. – Lekin, Maxsum buva, o'zingiz bilasiz, men olishadigan polvon bo'lmasam, otamning qo'yib ketgan oti...

– Olishmasangiz ham bir keling, – dedi Nazar Maxsum. – Nevaramning to'yini bir ko'ring. Yaxshi yigit, boshqalarning bolasiga o'xshamaydi, asli palagi toza-da, Polvonboy. Usta Xolyor vahima qilib yuribdi, «Muningiz bir alpomish yigit, muni ko'rpachaga qanday ag'anatamiz?», deydi...

– O'sarqulni bilamiz, Maxsum buva, – dedi Polvon. – Tuzuk bola.

– E, past ketdingiz, tilla-ku, tilla! – dedi Nazar Maxsum. – O'zingiz qalaysiz, Polvonboy? Xotiningiz ketibdi, deb eshitib edim, shu gaplar rostmi?

– Ertaga qirq kun bo'ladi, – dedi Polvon.

– Chillasi chiqarkan-da, – dedi Nazar Maxsum. – Bekor qirti, Polvonboy, sochi uzunlik qirti, endi sizday yigitni topolmaydi. Taloq-palog'ini aytdingizmi?

– Ko'zim qiymayapti, Maxsum buva. Aytсамmi deyma-u, qurg'ur ko'zim qiymaydi.

– O'ychining o'yi bituncha tavakkalchining ishi bitadi, – dedi Nazar Maxsum. – Sho'rquduq boryapman, agar talog'ini aytasangiz, men o'zim opketardim.

– Dabdurustdan bo'lmas, – deya mulohaza qildi Polvon. – Buning bir xil qoidalari bo'lardi, shunday aytib yuborgan bilan...

– Bo'laveradi, – dedi Nazar Maxsum. – Endi, o'ylab o'tirasizmi, Polvonboy, magarkim, yuzingizga oyoq qo'ydimi, endi o'ylash yo'q! Bu o'zi bir chuvalgan savdo, talog'ini aytasizu shartta qirqasiz – davosi shu!

Polvon qanday «xo'p» deb yuborganini bilmay qoldi.

– Bitta «xo'p» bilan ish bitmaydi, – dedi Nazar Maxsum uning nodonligidan ranjib. – «Taloq qildim», deb ayting.

– Taloq... – dedi Polvon.

– Bo'lmaydi, qattiqroq, – dedi Nazar Maxsum. – Yana ikki marta ayting, qoidasi shu.

– Taloq, taloq!

Qahri qo'zib turgan edi, taloq aytib ham hovri bosilmadi. Alamidan orqaroqda borayotgan sigirning quymichiga gavron bilan tushirdi, keyin birdan ko'zlari tinddi, bo'shshdi, yolg'izoyoq yo'lning chetiga behol o'tirib qoldi...

Bir zamon qarasa, sigirlar yo'ldan chiqib, lalmi yo'ng'ichqaga oralab ketibdi. Nazar Maxsum ham olisda, xuddi yov quvganday ortga qarash yo'q, toyxarini qichab boryapti. Polvon bir kasofatni sezgandek bo'ldi, lalmi bedaga urib ketgan podani ham unutib, Nazar Maxsumning ortidan chopdi. Quvib yetib, yo'lini to'sdi:

– Kimga mo'ljal qilib boryapsiz, Maxsum buva?

– Mo‘ljalim yo‘q, Polvonboy, hech mo‘ljalim yo‘q, – deya Nazar Maxsum taysalladi, ko‘zlarini olib qochdi. – O‘rolni aytganday bo‘lishuvdi, lekin men ko‘nmadim, meniki bir savob...

– Savobingizning uyi kuysin, – dedi Polvon. – Vakolatimni qaytib bering!

– Ana, oling, Polvonboy, – dedi Nazar Maxsum aqli shoshibroq. – Ana, oling vakolatingizni, men bir savob ish, deb edim, mayli, o‘zingiz borib ayting.

– Mo‘ljalni xato olgan ekansiz, – dedi Polvon. – Qo‘yadigan xotinim yo‘q!

– Xo‘p, xo‘p, Polvonboy, bizniki tig‘iz emas, – dedi Nazar Maxsum. – Lekin siz ham bir o‘ylang, hozir menga zug‘um qilyapsiz, ertaga o‘g‘lim Sanaqulbek kelganda nima javob aytishingizniyam bir o‘ylang.

– O‘rolga Sananing xotinini obbering! – dedi Polvon. – Uyga qayting, Maxsum buva, Sho‘rquduqqa keyinroq borasiz.

Nazar Maxsum itoat qildi – toyxarini orqaga burdi. Polvon bedaga oralagan sigirlarni bir amallab to‘da qildi-yu, ovloq bir kamarga qamab, o‘zi Sho‘rquduqqa jo‘nadi.

Darvoza ochiq ekan. Har gal bermalol kirib boraveradigan odam, bugun taqilatgani ham jur‘at qilmadi – turaverdi. Xayriyat, hovlida Xadichaning o‘zi ko‘rindi, ajablandi, qo‘lidagi cho‘ltoq supurgini tashlashni ham unutib tashqari chiqdi. Arazi tarqamagan chog‘i: salom bermadi, xuddi begonaday, ko‘zlari yerda, og‘zini ro‘mol bilan to‘sdi... Polvon achchiqlanmadi, qaytaga – xo‘rligi keldi, xotini o‘ragan bir so‘mlik gardi ro‘molu uning kir unnagan ko‘ylagi sabab bo‘ldimi yoki qo‘lidagi cho‘ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi, uyaldi, o‘zini nomard, noinsof sezdi.

– Obketay deb keluvdim, Xatcha, – dedi sekin, ovozin o‘zi ham tanimay.

– O‘ldirib qo‘yasan, – dedi Xadicha. – Men-ku borarman, lekin sen tentak o‘ldirib qo‘yasan.

Shunday deb yig‘ladi. Polvon unga jo‘yaliroq gap topib berolmadi. «Rost, – deb o‘yladi, – bu borsa, yana jinim qo‘zisa, yana so‘ksam, ursam, xotin degan narsaning nima holi bor, o‘ldirib qo‘yaman».

Xadicha ichkari kirib, Chamanni yetaklab chiqdi. Qizcha qo‘rqib qolgan ekan – otaga qarab talpinmadi.

– O‘lmasang, manavi norasida odam bo‘lganda tushunarsan, topisharsan, – dedi xotin. – Meni o‘z holimga qo‘y endi.

Polvon birdan sergaklandi: Xadicha xotin boshi bilan boyadan beri sensira-yotgan ekan.

– Sensirama, Xatcha, – dedi u. – Toza tomiring suvga yetgan bo‘lsayam sensiramay gapir!

Xadicha sho‘rlik to‘lib turgan ekanmi, battar ters keldi:

– Qo‘lingdan kelganini qil! – Bu gapni aytishga aytdi-yu, ortga tislandi. Polvon angrayib turib qoldi.

– Sen u yoqda odamga o‘xshab gapirarding, Xatcha, – dedi u bir vaqt o‘ziga kelib. – Kimning darsini olding, nega munday gapirasan?

Xadicha indamay yerga qaradi. Ukasi Sattorqul darvoza orqasiga kelib bekin-gan ekan, shartta otilib chiqdi.

– Ket! – dedi u ko'kragini kerib. – Esing borida ket, bo'lmasa, yomon qila-man!

Polvon uni taniyolmay qoldi. Yigitning kayfi buzuq, mo'ylovining uchlariga-cha titrab turibdi, indamasang, uradigan shashti bor. Polvon, bir ko'ngli, gardaniga solay, deb o'yladi, lekin shaytonga hay berdi: qo'y, baravar bo'lib o'tirma, bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom, qo'y, Polvon, o'zingni bos!

Orqasiga yurdi. Sattorqul izidan qolmadi.

– Ket! – deb baqirdi u tag'in. – Qaytib shu ko'chada qorangni ko'rsam, oyog'ingni urib sindiraman!

Polvon bo'g'ilibroq kuldi. O'zining ne alfozda ketayotganini o'yladi: yelkala-ri qisiq, qaddi bukik, bo'yniga musht tusharini kutgandek. Uyat, uyat, ne kunlarga qo'yding, Xatcha? Sendan shuni kutib edimmi, Xatcha?! Ko'rgan birov nima deb o'ylaydi, enag'ar Xatcha?! Yer bilan bitta qilding-ku!..

Nomus zo'r chiqdi, chidolmadi, taqqa to'xtadi. Sattorqul ham to'xtasa durust edi, ammo u to'g'ri bostirib keldi, musht ko'tardi, lekin ulgurmadi, o'zi zarbdan yerga ag'darilib tushdi. Polvon uni bilagidan dast ushlab, siltab turg'azib qo'ydi, lekin gap qotmadi, yo'lga ketaverdi.

Yegan mushti alam qilgan ekan. Sattorqul yarim yo'lda, adirdagi tuyaquduq yonida quvib yetdi. Yolg'iz emas, qavatida yana ikki otliq, biri – Ahmad shayton, unisi – yuqori labi kemtik, jikkakroq odam.

Etik qo'njiga qo'l yuborsa nomardlik bo'ladi, gavron ham poda qamalgan kamarda qolgan – bir o'zi uchovini daf etarga holi kelmadi. Bir nafasda qo'lla-rini orqasiga qayirib boylashdi, so'ng haligi labi kemtik yigit bexosdan taqimiga tepdi – Polvon chalqancha qulab tushdi. O'rmidan turmoqchi bo'lib uringanida, Sattorqul kelib, yelkasidan etigi bilan bosdi:

– Xatchaning talog'ini aytasan! – dedi u. – Keyin, mayli, tusagan yog'ingga ketaber. Aytsang – bo'shatamiz.

– Hozir bo'shat, – deya Polvon qaynisiga emas, labi kemtik yigitga yuzlan-di. – Bo'shatib qo'yib gaplash.

Polvonning o'ziga bepisand qaragani Sattorqulga alam qildi:

– E, beshbattar bo'lmasanmi!.. – Etigining uchi bilan Polvonnini yuztuban ag'darib tashladi va yag'rini aralash qamchi tortdi. O'rmasi mayda ekan – badanni tig'dek kuydirib o'tdi.

Polvon iyagini zarang yerga tiragan ko'yi qotib yotaverdi. Avvaliga og'riqni sezib turdi, qamchi har tushganida eti ko'pchib-qabarib chiqayotganini ham bildi, lekin birpasdan so'ng eti o'lib, quloqlariga qamchining havoni vizillatib chiza-yotgan tovushigina qoldi.

Ishongisi kelmadi. Tinchgina molini haydab ketayotib edi, yo'lda Maxsum uchradi, taloq olib ketmoqchi bo'ldi, uni iziga qaytarib, o'zi keldi, mana, endi, ma-navi zarang yerda, tuyaquduq yonida, qo'llari bog'liq, qimir etgani imkoni yo'q,



yer bilan bitta... Tush ko'ryapman, deb o'yladi u, hammasini tush ko'ryapman, seniyam tush ko'ryapman, Sattorqul inim, podachining tushi qursin, bir xil tushlarimda meni ilon chaqadi, tishi etigimdan o'tib boldirimga sanchiladi, dod deyman, dodlaymanu uyg'onib ketaman, seniyam tush ko'ryapman, Sattorqul inim, yaxshi qilmading, inim, mayli, qattiqroq ur, toki men uyg'onib ketay, hammasi tush bo'lib chiqsin, uyg'onib, yonimda Xatcha bilan Chamanni ko'ray... Yolg'izlik yomon, inim, sizlar uchov, men bir o'zimman... Sen ham harsillab qolding, charchading, inim, mayli qamchini labi kemtik jo'rangga ber, u ham ursin, ayt, qattiqroq ursin, o'rmasi har sirmab o'tganida yag'rinimdan parcha-parcha et uzib olsinu, men uyg'onib ketay, tushdan forig' bo'lay, yonimda Xatchani ko'ray, tushimda bo'lsayam uni uyga obketay, mayli, uraber, inim, yara-chaqa bo'lsa bitib ketar, to'xtama, nega to'xtading yoki menga rahming keldimi, inim?..

Chidab yotdi. Ingramadi. Bir mahal havo dim tortganini sezdi. Dim, epkinsiz, quyuq. Yelkasidan chiqqan ter ko'zyoshiday issiq... Termi bu, qon emasmi?.. Qir-qizil, ko'zyoshiday jizillatadi, sarg'ish chakmonni bag'ir tusiga bo'yab bor-yapti...

Ko'zlarini yirib, oldinda bir juft toshtovon etikni ko'rdi. Ag'darma ko'n, choklari pishiq, jiyirilgan joyi yo'q, faqat nag'ali yeyilibdi, qushning tiliday yupqa, bugun-erta uziladi...

Etiklar qimirladi. Polvon yotgan joyida bir-ikki silkinib tushdi. Keyin etiklar yana manglay tarafiga o'tdi. Polvon tag'in ularga tikildi, biroq etiklar tutqich bermadi, soniya sayin kichrayib, uzoqlashib boraverardi. Ko'zlarini yumarkan, chuqur tin oldi, iljaydi: etiklar qochdi, qochdi!..

...Sahar mahali kunbotar tarafda yilqi kishnadi. Sayxonlikdagi yantoqlarni shitirlatib salqin shamol turdi. Polvon unga yuz tutdi – uzoq, to sal tetik tortgunicha. So'ng yilqi ovozi kelgan yoqqa qarab o'rmaladi.

Ko'p sudraldi. Tizzalari, tirsaklari zirapchaga to'ldi. Taqirga yetganida qurigan loy qisir-qisir sina boshladi. Bir payt barmoqlari balchiqqa tegdi. Chanqoq xuruj qildi: balchiqni siqimlab og'ziga solib shimidi. Suv chiqmadi hisob, tomog'iga tiqilib, nafasini qaytardi. Yana oldinga o'rmaladi. Biror besh daqiqa o'tib, uzatgan qo'li suvga tegdi. Polvon ikki-uch to'lg'anib olg'a jildi-yu, betini suvga botirdi, so'ng tirsaklariga tayanib, tili bilan yalashga tutindi. Ko'nglida g'alati bir g'urur uyg'ondi, o'zining miskinligidan, manavi qora balchiqqa belanib yotganidan, suvni kuchukka o'xshab shaloplatib ichayotganidan shodlandi, sovuq tomchilarning chanqoq vujudi bo'ylab bir maromda taralayotganiga quloq soldi...

Xadichani Sho'rquduqdan berida, poda yotar joydan topdi. Ustida o'sha kir ko'ylagi bilan gardi ro'moli, etagida qo'ng'iz kavlab ketgan besh-oltita g'ovak tezak (shuni bahona qilib chiqqan), birov urganmi, o'zi yig'laganmi, ko'zlari qizargan...

Polvonni avvaliga tanimadi, yo'q, tanidi-yu, ko'zlariga ishonmadi, qo'rqdi, qo'li bilan yuzini pana qildi – qamchidan to'sganday.

– Talog‘imni aytdingizmi? – deya sekin, xo‘rlanib, kelar baloni daf etolmasligidan qo‘rqqandek so‘radi; ko‘zlari mo‘ltiradi, etagidagi tezak yerga to‘kildi.

– Aytardim, Xatcha, – dedi Polvon. – Aytardim, lekin endi bo‘lmaydi, ilojim yo‘q, aytсам – qo‘rqoqqa chiqaman. Chidaysan endi, Xatcha...

Xadicha yig‘ladi. Ko‘zlarini artarkan, ro‘moli boshidan sirg‘alib tushdi, sochlari yelkasiga yoyildi.

– Boraymi? – deb so‘radi. – Urmaysizmi?..

Polvonning xo‘rligi keldi: seni urgan qo‘l sinmaydimi, Xatcha!..

Xadicha yaqinroq keldi, erining usti-boshiga chaplangan loy va qonni artmoq bo‘lib qo‘l cho‘zdi, ammo botinmadi, yovuqlikning o‘zi mahobatli bir devor misol ko‘z oldini to‘sdi – qo‘llarini tortdi, ko‘ngliga yana qo‘rquv oraladi.

Polvon hayratlandi: senga shunchalik ko‘ngil qo‘yib edimmi, Xatcha? Kel, qo‘llarimda ozod ko‘taray seni, o‘n besh kunlik oyday quchog‘imni to‘ldir, Xatcha, meni qattiq-qattiq chimchila, zora seni tush ko‘rmagan bo‘lsam!..

U ayolni dast ko‘tarib oldi. Xadichaning bilaklari bo‘yniga chirmashgan zamon majoli qochdi, gandraklab ketdi, lekin sal o‘tib bilaklarning kuydirguvchi taftiga ko‘nikdi, charchog‘u og‘riq unutildi, go‘yo tani ham unut bo‘ldi-yu, uning o‘zi bo‘yniga chirmashgan bilaklarga aylandi... Faqat yuraklarning olatasir urgani seziladi, go‘yo butun dashtu dalalar ularning dupuriga to‘lgan... Seni shunchalar sog‘inib edimmi, Xatcha? Ko‘ngildagi kinu g‘azabim qani? Nega yig‘laysan, Xatcha? Sen ham sog‘indingmi? Sog‘inganing rostmi, Xatcha? Biror narsa de, shubhalaring bekor, de, Xatcha, ko‘nglimni qabartma, belimni bukma, gavharni toshga urmaylik, Xatcha!..

Ayolning yuziga tikilib, gumoniga tasdiq izladi. Lekin, Xadichaning turgan-bitgani – yuzu ko‘zi, bo‘yniga chirmashgan bilaklari, yoqasiga qadalgan bir qator sadaf tugmalarigacha iffatga yor, shubhaga zomin edi.

Xadicha erining ko‘zlarida bir og‘riq ko‘rdi, ammo so‘z so‘ylarga majoli yetmadi, bo‘g‘ziga tiqilgan achchiq xo‘rsiniqni ichiga yutdi-yu, uning tarashadek qotgan jun chakmoniga betini burkadi...



# Erkin A'zam

(1950-yilda tug'ilgan)



Erkin A'zam 1950-yil 10-avgustda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (2016), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist (1998). ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1972). Dastlabki hikoyalar to'plami – «Chiroqlar o'chmagan kecha» (1977). «Otoyining tug'ilgan yili» (1981), «Olam yam-yashil» (1984), «Javob» (1986), «Bayramdan boshqa kunlar» (1988), «Pakananing oshiq ko'ngli» (2001), «Kechikayotgan odam» (2002) kabi qissa va hikoyalardan iborat kitoblari nashr etilgan. «Chantrimore», «Piyoda», «Pakana», «Dilxiroj», «Erkak» kabi ekran asarlarining hammuallifi.

## PIYODA

Bu o'rtada kim yomon desangiz – Berdiboy yomon! Berdiboy bemehr, Berdiboy otabezori, onabezori, Berdiboy ukalarini xushlamaydi, ularga yov, ota uyidan ham qochgani qochgan – yomon-da Berdiboy! Nomi yomonga chiqqan. Azaldan. Eskilik sarqiti u. «Hoy, shoshmanglar, birodarlar, unchalik emasdir-ov, nima, enasi buni yomonlikka tuqqanmi, buniyam ko'nglida biron dardi-da'vosi bordir, aytsin, eshitaylik!» deydi mardumi musulmon qayda! Alam qilar ekan: axir, u ham odam, shu zamonning odami, shu havodan nafas oladi, ikkita munchoqdek-munchoqdek qizalog'i bor; birovdan kamdir, birovdan ziyod ro'zg'or qilsa, hech kimdan non-osh so'ramasa, ba'zilarga o'xshab piyoda yurmasa – eskiroq bo'lsa hamki, mayli-da, tagida uch oyoqli ulovi tayyor! Faqat, faqat...

Mana, u odatdagidek, bozor-o'charini kajavaga joylab, endi mototsiklini o't oldirmoqqa chog'langan edi, kimdir chaqirib qoldi:

– Ho'v Berdiboy!

Ukasi, to'rtinchi sinfda o'qiyotganida tug'ilgan, o'n yoshlar kichik bir tirmizak – Samandar; qavatida o'ziga o'xshash ikkita shotiri, yuqori guzardan velosired surib kelyapti.

Berdiboy yonbosh bo'lib mototsikl egariga suyanarkan, g'ijindi: «Parda Qurbonning tarbiyasi-da!»

– Sanam o'qishga ketyapti! – dedi Samandar shaytonaravasidan tushar-tushmas, bir oyog'ida hakkalab.

– Suyunchi beraymi shunga?!

– Toshkentga! – Samandar battar g'ashiga tegmoqchidek tirjaydi.

Berdiboy g'azabini yashirolmadi:

– Otang-chi, Parda Qurbonning o'zi-chi, o'qishga bormasmikan u?!

– Otam supada eski kitob o'qib o'tiribdi, – deb javob qaytardi bola parvo qilmay.

– O'qisin, ko'proq o'qisin – imoniga foyda!

Berdiboy mototsiklini tarillatib bozor darvozasidan chiqdi-yu, katta ko'chada qatorlashib o'tayotgan mashinalar bahona, ikkilangancha turib qoldi. Nihoyat, bir qarorga kelib, bundan uch oy avval «qaytib qadam bossam!..» deya qasam ichib ketgan uylari tarafga soldi yo'lni.

Bostirma tagida, bo'yin-boshini kattakon eski sholro'mol bilan tang'ib, qo'lda rapida, ikki yuzi tandirdan yangi uzilgan kulchadek qizarib-bo'g'riqib non yopayotgan onasi uni:

– Ebi, o'zimdi sahroyi ulimmi? Araz-durazing arib-tarqab keldingmi, bolam? – deya, yaxshi tanimagan bo'lib chap kaftini peshonasiga soyabon qilgan-cha, kulimsirab qarshi oldi. – Ke, ke. Qizginalaring chopib-chopqillab yuribdimi? O'zingdi tan-joning sog'mi? Oyro'zingdi vaqti xushmi? Tiniq kampir qalay? O'tirgandir keng yaylovda kengash qurib?

– Yaxshi, hammaginas yaxshi, oy kulganday! – dedi Berdiboy sabrsizlik bilan. – Bu, Sanamingiz o'qishga ketarmish, deb eshitdikmi, apa?

– Uzangi shaylab turibdi-ku, akasi, bilmasam. Shunga to'rttagina kulcha qilib beray, yo'lda yeb ketar deb, mana, ertalabdan beri sabil qolgur tandirga bosh suqib yotibman.

– Toshkent deganlari anoyi shahar emas, apa...

– Nima qilay? Yo'liga xoda solay desam, bu qilobining fe'lini bilasan, keyin uyda qolib suyagimni oqartiradi. Qo'y, ulim, sen aralashma, borsa borsin, o'qisa o'qisin! Binoyiday bitirib kelayotganlar kammi! O'ziga insof bersin, de. Zamonasi ekan, nachora! Mana, o'qimay men nima bo'ldim? Kunim – kir yuvishu non yopish!

– Apa-a, Toshkent katta shahar, deyapman!

Bu safar onadan sado chiqmadi. U indamay, birin-ketin tandirdan uzgan patirlariga kosadagi suvdan sepib, nariroqqa – yirtiq dasturxon to'shalgan xontaxta ustiga qalashtirib tashlayverdi.

– Ha, avval borib anov odam bilan so'rash, – dedi bir mahal.

Samandarning aytgani to'g'ri chiqdi: Parda Qurbon uzumlarini chumchuq cho'qib bitirgan ishkom tagidagi supada, po'stakni chappa tashlab, qansharida ko'zoynak, xirmondek bo'lib kitob mutolaa qilib yotardi.

– E-ha, Berdiboy, – deya og'ir qo'zg'alib, istar-istamas qaddini rostladi u. – Keling. Bolalar yuribdimi? Momangiz damlimi?

– O'tiribdi. Eski kasali – kechasi oyog'i og'riydi.

– Ihm, ihm. Cho'rt, borish kerak ekan-da bir.

Koshki bu odam bilan tuzuk so'rashib bo'lsa, so'zlashib bo'lsa! Yuz og'iz gapirsangiz ham javob shu – «Ihm, ihm. Cho'rt, cho'rt».

Nimadan so'z boshlashni bilmay Berdiboy beixtiyor tomorqaga nazar soldi. Qarovsiz, hammayoq qarovsiz! Olmalarning tagi yumshatilmagan, shoxlari sinib, mevalari yerga to'kilib yotibdi – molga yem. Devor tagida o'sgan ikki tup anor – beboshbog' gangib yurgan ikki qo'tir echkiga tayyor ermak. Hovliga tutash keng sayhon suvsizlikdan tors-tors yorilib, ajriqzorga aylangan...

– Anovi yerni chopib, biron nima ekish kerak edi, – dedi Berdiboy azbaroyi gapni yurishtirib olish maqsadida.

– Ihm, chopish kerak, ekish kerak, – deya ma'qullab qo'ydi ota.

Kim chopadi, kim ekadi? Erkashotirlari har yoqqa to'zib ketgan, boyagidek ko'cha changitib, noma'qulning nonini ko'zlab yuribdi. Bir umr cho't qoqqan odamning o'zi bo'lsa, endi mana, muk tushgancha eski kitoblarni hijjalab yotibdi – oxiratning tashvishu hisob-kitobi bilan mashg'ul, bu dunyoni suv bossa bosaversin! Erta bir kun boshiga salla o'rab, soqolini ko'kragiga tushirib namozxonlar qatoriga kirsa ham ajab emas. Anov boloxonada ulfati Barot Qosim bilan bir yonboshlaganda yarim qo'yning go'shtini-yu, necha-nechalab shishaning tusini o'chirgan davrlari esida yo'q...

– Ota, bu Gulsanam... – deb g'udrandi Berdiboy.

– O'qishga ketyapti u. Toshkandga, – dedi Parda Qurbon kitobidan ko'z uzmay.

Shoshma, g'urur bilan aytdimi shu gapni?

– Maylimi? O'zi boshyalang yurardi...

– Boshyalang? Qachon? Yo'g'-e, Berdiboy, unday demang!

Bu yog'ini pardozlab o'tirmadi Berdiboy – borini tiliga chiqardi-qo'ydi:

– Er bo'lsa shu yerdan ham topilar edi...

Ota ajablangan kabi unga bir o'qraydi-yu, indamadi, tag'in kitobiga egilib oldi.

– Berdiboy, o'zingizning singlingiz-a!.. – dedi saldan keyin.

Nos yaxshi-da bunday paytda, tilning tagiga tashla-ab, karu gung bo'lib o'tiraverasiz! Aytgichingizni bo'lsa aytib oldingiz!

– Mana men, akajon!

Berdiboy yalt etib ayvon tarafga qaradi. Deraza tagida yotib hamma gapni eshitgan chog'i, panjaraga suyanganча, hech narsadan tap tortmaydigan bir vajo-

hat bilan sho‘x-shaddod Gulsanam turardi. Boshyalang! Ana, ko‘rdinglar, musulmonlar, aytmabmidim!

– Yo‘l bo‘lsin, singlim? – dedi Berdiboy nosini tupurib.

– Toshkentga!

– Toshkentda pishirib qo‘ygan ekanmi?!

– Sizga sallalik, Oyro‘zi chechamga paranjilik opkelmoqchiman!

– Xo‘sh, qanday o‘qishga ekan? – dedi Berdiboy uning kesatig‘ini eshitmagandek, atay merovsirab. – O‘qib kim bo‘lasiz endi?

– Xudojnik-modeler! Bichiqchi rassom.

Bu so‘zlarni Gulsanam shunday ohanjamali talaffuzda, shunday burab aytdiki, tilginasini sug‘urib olgisi keldi Berdiboy.

– Devor ag‘nasa, ichkari ag‘nasin, – dedi maqol-matalsiz gapirmaydigan ona tandir boshidan turib orachi-murosachilikka tusharkan. – Mayli, akasi, o‘zimizdan ham chevar chiqsin-da. Bir ko‘ylak tiktirish – falon pul! Kelib xotiningga, qizaloqlaringga chiroyli-chiroyli narsalar tikib beradi.

– U yoqda kimnikida turasan? – deya so‘rog‘ida davom etdi Berdiboy.

– Kimnikida bo‘lardi, akam-chi, Muzaffar akamnikida!

– Ha, Xudo uribdi!

– Bu nima deganing, ulim! Bir qorindan chiqqan ukang-a! – dedi onasi supaga yaqinlashib. – Uyat bo‘ladi. O‘zingnikini yomonlasang, yotning mehri qochadi, deydi. – U qo‘lidagi ko‘pchib-singib pishgan nondan bir chimdim uzib og‘ziga soldi-da, chala yozig‘liq dasturxon ustiga qo‘ydi: – Ol, nondan ol. – So‘ng Gulsanamga o‘girildi: – Sen, qiz, bunday aytishib o‘tirguncha, kirib taraddudingni ko‘r! Akangdi odatini bilasan: Tiniq kampirdi o‘gitini yeb, o‘gitini ichib katta bo‘lgan bu sahroyi ulim!

Yo‘q, Gulsanam zahrini so‘nggi tomchisigacha to‘kmasa, naq o‘lib qolardi!

– Siz, aytaymi... – dedi u Berdiboyga chaqchayib qarab, – o‘tgan asrdan qolgan odamsiz, akajon!

– Bo‘pti! Bu zamonda akalik qolmabdi, ukalik qolmabdi. Buni surishtirmoqchi bo‘lgan odam o‘tgan asrga qaytishi kerak ekan, bo‘pti, qaytamiz! – dedi Berdiboy g‘aribnolalik bilan. – Otang rozi, enang rozi, biz nima der edik, singlim? Biz bu uydan etak silkiymizu chiqamiz-ketamiz-da!

– O‘tir, o‘tir! Qo‘zilaring qo‘lingga qaraydi, ikkita issiq patir o‘rab beray, – dedi onasi kiftidan bosib. So‘ng yarim hazil, yarim chin ohangda ginaxonlik qildi: – Doim kelib uyimga bir g‘avg‘o solib ketasan-a, ulim? Hah, sening kindikkinangdi kesgan kampirdi kapaginasini kuysin!

«Kindikkinangdi kesgan kampir...» Momamni aytyapti. Yoqtirmaydi, o‘lgudek yomon ko‘radi uni. Kelinligida ko‘p sitam o‘tkazgan emish-da. Shu yalmog‘iz kampirdan qutulay, ham ota-onamga yaqin bo‘lay, deya qistayverib, axiyri, shahardan uy-joy qildirgan otamga. Biz bo‘lsak qolaverganmiz u yoqda – yolg‘iz kampirning qo‘lida, «yalmog‘iz» kampirning qo‘lida... sahroyi bo‘lib,

o'gay bo'lib! Endi bular – shaharlik! Endi bularning oti – Muzaffaru Samandar, Gulsanamu Gulandom! Bizniki bo'lsa... Berdi, Berdiboy! Kim berdi, nima berdi, nega?.. Endi apam bu yerni «uyim, mening uyim» deb gapiradi. Parda Qurbon bo'lsa miq etmaydi, «ha, uying, sening uying» degandek, quloq qoqmay o'tiraveradi. Chunki ro'zg'orning tizgini, jami bordi-keldisi apamning qo'lida! Bu ishlarni ko'ring, e, dod-ey!

– Yo'q! – dedi Berdiboy shitob bilan o'rnidan turib. – Men ketdim! Boshingizga yostiq qiling patiringizni! Uyimda non yetarli, shukr! Bu yerda bizning bir chaqalik qadrimiz yo'q ekan, bildik! Endi yelkamning chuquri ko'rsin uyingizni!

– Berdiboy, ihm, Berdiboy! Cho'rt, cho'rt... – deya bazo'r, tanbalona bir qo'zg'alib qo'ydi ota.

– Sizdi bilamiz, yana hech nima ko'rmaganday, labingizga kesak surtib kirib kelasiz uyimga – sizdi bilamiz! – dedi ona zaharxanda bilan.

– Kelsam!..

– Berdiboy! Cho'rt, cho'rt...

– O'tgan safar qasam ichmay, suv ichib edingizmi? Yashang!

O'tgan safar... Berdiboy to'lib-toshib kirib kelgan edi bu uyga. Muzaffarboy kepti, ukasi kepti! Toshkentda, institutda domlalik qiladigan ukasi! Xotini bilan kepti. Bir izzatiga yetish kerak! Toki, kelinlari qoyil qolsin, «erimning shunday akasi bor ekan», desin! Berdiboy mototsiklda markazga tushib bozor oraladi, uyiga borib semiz bir qo'yni yotqizdi. Mehmonlarni olib ketgani kelsa, hovlida qandaydir qiz yuribdi... Boshyalang, sochi qirqilgan. Egnida yupqagina, piyozning po'stidan ham yupqa-e, engsiz bir ko'ylak, lozimdan-ku darak yo'q. Kelinlari shu emish! Onasini chetga tortib: «Apa, ayting, – dedi, – boboydi oldida buytib yurmasin!» «O'ylama, ulim, boboy qaramaydi». «Qaramasayam...» Anovi arzanda Muzaffarlari-chi, Muzaffarlari? «E, Berdiboy-e, qir-qizil chudaksiz-da!» deydi kulib turib. Xotinini uyga olib kirib och biqiniga solishning, «aka, to'g'ri aytasan», deyishning o'rniga!

Onasi rost aytadi: o'shanda, arazlab ketayotganida ichgan qasami – qasam bo'lmay, suvmidi?! Hah, xom sut emgan banda!

Berdiboy darvozadan chiqqach, hayratidan yoqa ushlab qoldi. Yo tavba, rostdan shu xotin tuqqan onasimi? «Ket! Jo'na! Yana shu uyda qorangdi ko'rsam!..» dedi-ya!

...Rajab bodining hovlisi temirchilar gularida edi. Berdiboy mototsiklda bog'-bog'ot oralab topib bordi. Devor kemtigidan ovoz berib so'radi: «Toshkentdan billa o'qigan jo'ralari kelgan, o'shani olib qayoqqadir ketdilar», deb javob qildi xotini.

«Eh, qo'limga tushasan-ku hali!» dedi ichida Berdiboy titrab.

Gap shundaki, avval-boshlab Safar shilpiqning temir-taqaga o'ch kenjasi Rajab bodi Toshkentdan shunday bir antiqa tomosha topib keldiki, kuy-qo'shiqdan tashqari, shappotdek joyidan kino ham ko'rsatar ekan. Qo'ni-qo'shni, mahallako'y oqshomlari bodining ayvonini to'ldirib tekin kino ko'rgani to'planardi.

Keyin bunaqa matah ko'paydi, rasmga kirdi.

Keyin... qiz-juvonlar hayo atalmish dahmazaga qo'l siltab, ko'chada ishvako-rona qadam tashlaydigan bo'lishdi; yigit-yalangning sochi yelkasiga tushdi, sur-naypocha shimu zaifona guldor ko'ylak kiymagani qolmadi; Ashur novvoyning kelini uch go'dagini chirqiratib, «Sevaman! Sevsam nima qilay?» deya shahri-sabzlik dorboz bolaga ergashib ketdi. Keyin bir kuni mulla Shodining sochi taqi-mini o'padigan, qushdek hurkak, qo'ydek yuvosh qizi Gulchehra ko'chaga velo-sired minib chiqdi, keyin – eh!..

Berdiboyning hayoti o'shanda buzildi – yettinchi sinfdan beri Gulchehraga oshiq edi! (Qishloqda oyog'idan chayon chaqib, shahar maktabiga o'qishga o'tganidan beri!)

Shu-shu, Berdiboyimizning ashaddiy g'animi – Rajab bodi. Televizor degan baloni o'sha yaramas topib kelgan-da. Berdiboyning barcha «fojia»siga esa ana shu badbaxt sandiq aybdor, shu aybdor!

Rajab bodi qo'liga tushsa!.. Biroq, tushganda nima deyishi, nima qilishini o'zi ham bilmasdi.

Rajab bodi qo'liga tushmadi – uyida yo'q ekan. Berdiboyning o'zi bo'lsa, mana qariyb ikki soatdan buyon do'ngning ustida boshiga mushtlab o'tiribdi. Mototsikli buzilib qoldi... Rayon veterinariya shifoxonasiga kirib yumushlarini bitirdi-da, shitob bilan markazdan chiqib qishloqqa haydadi. Yo'lning yarmiga kelib, mana shu do'nglikka o'rlayotganida la'nati arava pat-pat etdi-yu, o'chdi-qoldi. Qani endi o't oldirib bo'lsa! Qilmagan hunari qolmadi: nishablikka endirib ko'rди, «sham»larini qaytadan artib qo'ydi, moylarining yo'lini ko'zdan kechirdi, tozaladi – qayoqda! Axiyri, bir ish chiqishidan umidini uzib, kajavadagi xurjundan ikki dona bodring oldi-da, karsillata-karsillata do'ngga chiqib o'tirdi. O'tgan mashinaga qo'l ko'taradi, hayqirib ovoz beradi – birovi burilib qarasa-chi! Nomusul-monlar! Xurjunni yelkaga tashlab piyoda jo'nayveray desa – manzil olis, xurjun zildek! Kuyovlik chog'lari – markazdagi veterinariya idorasida ishlardi u paytlar – mana shu o'n besh chaqirim yo'ldan goho yayov qatnardi. Qalliq o'yinga oshiqardi! Xayolida – o'tgan kechasining zavqi, nash'asi, yutininb-tamshanib ketaverardi. Endi qayga shoshadi – o'sha uy, o'sha xotin!

Berdiboy tilining tagiga nosni tashlab, shu sabilning kayfini surib, xo'rsina-xo'rsina o'tiraverdi. Bugun chap yoni bilan turganmidi, hamma ishi chappa ketyapti-ya? Umuman, nimaga bunday bo'lyapti? Bari chatoq, bari teskari, buzilganmi, bir balo... ilgarigidek emas!

Yo'q, birdan o'zgardir hammasi, birdan! Go'yo u talay muddat – bir yilmi, besh yilmi g'afiat uyqusida yotdi-yu, uyg'onsa – mana shu ahvol! Go'yo uning bir yilmi, besh yilmi ko'zi ko'rmay, qulog'i eshitmay qoldi-yu, bir kuni tuzalsa – hammasi boshqacha! Odamlar qandaydir o'zgarib qolgan, lafz-u liboslari antiqa, dunyolari antiqa – tanib bo'lsa, o'lay agar, mana jon! Qarasa – mulla Shodining qushdek hurkak, qo'ydek yuvosh qizi Gulchehra boshyalang, sochini kungurador turmaklab, ko'chada velosired minib yuribdi! Kuppa-kunduzi! Yo pirim-ey! To'rt



yl ikkovi bir partada o'tirgan qiz! «O'v, esing joyidami, Chehra! Bu nima yurish? Boshingni yop!» desa, «E, bor-e, tezagingni ter!» deydi!

O'shandan boshlab Berdiboy battar aynidi: neki yangilikni ko'rsa g'ijinadigan, dushman ko'zi bilan qaraydigan bo'lib qoldi. O'zi-ku azaldan shunday ori nozik, irimchi; xudojo'y kampirning tarbiyasida yurib, yigit yoshida bamisoli saksan yashar xurofotparast cholning o'zginasiga aylangan. Ona rost aytdi: «Tiniq momoning o'gitini yeb, o'gitini ichib katta bo'ldi». Qishloq xo'jalik bilim yurtida o'qib yurgan kezlari ham kursdoshlari unga olaqarg'adek, orqavarotdan kulib qarashardi. Harbiy xizmatdan qaytib o'qishga kirgani uchun u hammaga – aka, yurish-turishi-yu, o'zini tutishi anovi yengiltak zumrashalarga o'xshamas, muallimlar ham unga «Berdiboy aka» deb murojaat qilishar edi. «Aka»lik huquqidan foydalanib, u duch kelgan bolani ter gagani ter gagan edi. Kaltaroq ko'y lak kiygan qizni ko'rsa-ku, jon-poni chiqardi: «Tizzangni yop-e, sharmanda!»

Buxgalterlik bo'limida Musallam degich sal shaddodroq, ammo ofatijon bir pari bor edi. Shu qiz Berdiboyga qandaydir suykalgandekmi bo'lib, iliq-intiq nigohlari tashlab yurardi. Nihoyat bir kuni u o'rtaga odam qo'yib, dardini yetkazganida, Berdiboy ko'pchilikning oldida baralla: «Ih, shu jibljajibonni olaman deb kim o'lib boryapti!» dedi. Bu gapni eshitgan barcha qiyqirib yubordi. Keyin bilsa, kursdagi jami yigit o'sha qizga xushtor, xushtori nimasi, birgina boqishiga intizor ekan. Keyin bilsa, uni shunchaki laqillatishgan, mayna qilib kulishgan ekan. O'sha qizning o'zi ham!..

Ay, Gulchehra, Gulchehra! Ay, esini yegan qiz! Nega o'sha sabilni minding? Nega boshingni ochib yurding – tunde k qora zulflaringni Berdiboydan o'zgalar ham ko'rsin, debmi?.. O'shanda boshgingangga ro'molgingangni o'rab, halimdekkin bo'lib yursang, o'sha, erkakka chiqargan matahga oyoq oshirib minmasang – zaifalik o'rningni bilsang, qiz bolaga nomunosib o'sha makruh gapni og'zingga olmasang... qo'ling uzayib, oyoqlaring qisqarib qolarmidi, zolim qiz?! Mana, endi Berdiboydan hol so'ra!..

Gulchehra unday-bunday shaharda emas, naq Toshkentda o'qidi. Kelgan-ketganlarida uchrashib qolishsa, Berdiboyning yonidan xuddi arazlagandek tumshayib, dimog' bilan o'tardi. Keyin-keyin ko'rganda esa, «ha, sindosh!» deya qandaydir hazil aralashmi, mazax aralashmi muomala qilishga o'tdi. U endi erga tekkan, Toshkentning qoq belida yashar, chamasi, bir paytlar televizordan ko'rib maftun bo'lgani – xilvat xiyobonlari o'zining ho'v o'sha sunbul sochlaridek qir-qokil majnun-tollarga batamom yetishgan edi.

Televizorda nima ko'p – ko'zni quvnatib, havasni qo'zg'aydigan yaltiroq tomosha ko'p! Ayniqsa, sokin Anhor bo'ylarida qo'ltiqma-qo'ltiq, navozish ila kezib yurgan yoki so'lim majnuntollar tagida sirli roz aytishib o'tirgan «baxtiyor yoshlar»ni ko'rgandan keyin bu juvonmarglarning fe'li buziladi-da. Fe'li buzilsa ham-ku mayli... Toshkent deganlari nuqul ana shunday quvnab-yayrab sayr qilib yuradigan shahar ekan-da, deb o'ylaydi. Shulardan qayerim kam? Oh, Toshkent! Men ham borsam, shularday bo'lib yursam!.. Mana, chamadon tayyor, pishang

berguvchi dugonalar ayyor: hech nimang kam emas, o'rtog'jon, o'lsang o'liging ortiq ulardan, yur, ketdik! Xullas, bechora ota-onani qon qaqshatib yo'lga tushadi. Ana shunda, ana shunda: «Esingni yig', hoy qiz, o'sha sen havas qilgan tomoshagullarning xiyobonu majnuntoldan boshqayam dardlari bordir!» deb yo'lga ko'ndalang bo'ladigan sherimard aka kerak!

Bunday akaga qo'l siltasa, uni hatto masxara qilsa-chi?! E, unaqa singilning boridan yo'g'i!.. Ketsa ketsin, daf bo'lsin, izi o'chsin, nomi o'chsin! O'qib kelib bu kishim yana ko'p nag'malar ko'rsatmoqchi bu yerda – «xudojnik-modeler» emish-a! Axir, shahar senga ammaning uyimi? Yaxshi bor, yomon bor. Yomon ko'p! Ko'za kunda emas, kunida sinadi, singlim! Bilib bo'ladimi, bo'yni yo'g'on biror nomard bosh-ko'zingni aylantirsa... begona yurtlarga tushding-ketding-da. Ota-onangni, jigargo'shalarini ko'rgani kelsang – yiligi bir kelarsan. Tobora uzoqlashasan, begonalashasan. Begona – sangi devona, debdilar. Keyin, kimga xatlab beribdi bu dunyoni? Hozir beg'am-beparvo kitob varaqlab yotgan otang bir kuni paq etib... Yetib kelguningcha «etti»si o'tadi, jon singlim! «Otam»lab armonda qolaverasan! Bunisi ham mayli, deylik. Falokat bosib, biror la'nat orttirsa-chi – isnod, yetti pushtingga yetadigan isnodga botasan! Ey, nima jin urgan-a bu odamlarni? Ko'ra-bila...

Berdiboyning vujudi zirqirab ketdi. Og'riqdan, ojizlikdan bo'kirgudek nola qilib yubordi u. Nolasi tevarak-atrofga taraldi. O'zining tevarak-atrofiga, xolos.

Berdiboy goho o'zicha orzu qilardi: qani edi, aka-ukalar barimiz bir joyda, masalan deylik momamning bog'ida – dashtda yashasak, bir qo'ra, bir qo'rg'on bo'lib! Topgan-tutganimizni kechqurun bir qozonga solsak, birga yesak, birga tursak! Mayli, boboy yotsa yotaversin bizning davrimizda davron surib – yangi kitobini o'qiydimi, eski kitobini o'qiydimi, o'zi biladi. Ota bo'lib boshimizda tursa, dasturxonimizning to'rini to'ldirib o'tirsa – kifoya, shuning o'zi katta davlat bizga. Apam, xayr, chidar uch-to'rt kun, nima momamni bog'lab beribdimi bu dunyoga, o'zining ham oldingi shashti yo'q... Singillar ham shu yaqin-atrof xesh-hamsoyaga uzatilgan bo'lsa – issiq-sovug'u yaxshi-yomon kun degan gaplar bor. O', qani bunday bo'lsa! Ana o'shanda mehr-oqibat ham, og'a-inichiligu ota-bolalik deganlari ham boshqacha bo'lardi.

...Yo'q, Berdiboy, bu tushingizni suv allaqachon oqizib ketgan! Bilasizmi, biz bugun qanday zamonda yashayapmiz? Endi bizning har birimizga alohida bir qo'rg'on kerak! Devorlari shunday baland, o'zi shunday pinhon qo'rg'onki, na otdan bo'ylab bizni ko'ra olasiz, na osmondan qarab! Bu shunday bir qo'rg'onki, goh yuksak yulduzlar orzusida, goh zamindagi mayda bir havaschalar ilinjida o'rtanib, ba'zan o'zimiz ham o'zimizni yo'qotib, topolmay sarson yuramiz...

Ammo, qo'rg'onimiz muttasil harakatda – ulkan bir kemanding bag'rida u. Kemandan tushib qolib bo'lmasa – jon shirin, dunyo qurg'ur umidli...

Berdiboy tirishib-toriqib shahar tomonga nazar soldi: nega bordi o'zi shu yoqqa? O'qishga ketadigan bo'lsa ketardi, qorasi ko'zdan yitardi! Bunday alam-u azob ham kam edi.

Asta-sekin tevarakni shom qorong'isi chulg'ab, shahar tarafda chiroqlar millatlay boshladi. Elektr chiroqlar. Go'yo shular ham paydar-pay ko'z qisib, uni masxara qilardi. Battar alami jo'shdi Berdiboyning. Yaqin yillargacha momosining uyiga chiroq o'tkazilmagan, bunga istak ham, ehtiyoj ham yo'q edi. Uylanganidan so'ng xotini qo'ymadi. «Chilla» kezlari edi... «Kechasi tashqari chiqqani qo'rqyapman», deb turib oldi. Ilgari Berdiboy uyiga elektr o'tkazsa, xuddi o'ziga gagina mahram qandaydir muqaddas sir olamga oshkor bo'ladigandek, osuda-osoyshta hayotiga allaqanday g'animlar bostirib kiradigandek bo'lib tuyular edi. Axir, hamma baloni shu boshlab keldi-da! Shu bo'lmasa, radio o'qirmidi, televizor ko'rsatarmidi! Shu bo'lmasa... Berdiboyning boshida bunaqa savdolar ham yo'q edi. Shu bo'lmasa, tanka-yu raketa degan vahimalar ham bo'lmasdi. Nega shularni o'ylab chiqardi ekan odamzod? O'ziga o'zi balo orttirguncha, tinchgina kunini ko'rib o'tiraversa nima qilardi?..

Yovuz bir kayfiyatda edi hozir Berdiboy! Qo'yib bersaki, olamdagi jami elektr chiroqlarni-yu radio-televizorlarni sindirsa, majaqlasa, yanchib tashlasa!.. Lekin – odamlar-chi, shularni o'ylab topgan odamlar-chi?! E, hammasining bo'lgani bo'lgan, endi o d a m qilib bo'lmaydi bularni!

Osmonni larzaga solib, yashil-qizil chiroqlarini lirillatgancha samolyot uchib o'tdi. Qorong'ida allaqanday parranda, to'rg'aymikan, naq Berdiboyning tepasida charx urib aylandi, qanotlarining epkini ham sezilgandek bo'ldi. Uch-a, qirg'inga uchrugurlar, uch!

Berdiboy jahl bilan og'zidagi nosni tupurib, o'rmdan turdi. Yugurgudek halloslab do'ngdan tushdi, mototsiklining oldiga bordi. Ko'ziga u hozir bir uyum keraksiz temir-tersakdek xunuk, dardisar ko'rinib ketdi. Turib-turib, alamidani shartta burildi-yu, kajavasidagi xurjunni chetga olib qo'yib, mototsiklni surib bordi-da, sel o'pirgan soylik – arnaga itarib yubordi. Negadir, kutganidek qattiq taraqlamadi, bir o'ram sim toshga borib tushgan kabi sado berdi, xolos.

Asli, almisoqdan qolgan bu shalaqaravanning sog' joyi yo'q, sovxoz necha yillar burun uni hisobdan chiqarib tashlagan, Berdiboy u yoq-bu yog'ini yamab-yasqab, bozor-o'charga-yu, qozon-tovoq orasida minib yurar edi. Ajab bo'ldi, shu bahona qutuldi-qo'ydi!

Berdiboy og'ir bir xo'rsindi-da, xurjunini yelkalab yo'lga tushdi.

Tun zim-ziyo, milt etgan shu'la yo'q, to'rt taraf biydek dasht, manzil olis, yelkasida zildek xurjun, turtina-surtina bir odam piyoda ketib boradi.

Uzoq yo'l yurdi u, yo'l yursa ham mo'l yurdi u. Yura-yura shunday bir go'shadan chiqib qoldiki...

...«Ajinalar» hech ajablanmay, hatto allanechuk xushhollik bilan qarshi olishdi uni, davraga taklif qilishdi. Hammasining kayfi bor, uning ham qo'liga darhol piyola tutqazishdi. Notanish bir hayajon ichida, o'ylab ham o'tirmay ichib yubordi u. Xiyol boshi aylanib, o'zini unutan ekanmi, asta yoniga cho'kkan sharpadan sapchib tushay dedi. Sochlari to'sdek, yarimyalang'och bir «ajina». Badani-yu,

yuz-ko'zida tomchilar mildiraydi – hozirgina anovi suvdan chiqqan. Iye, Rajab bodi ham shu yerda yuribdimi?! Ha, ana, bir dasta kabob ko'tarib kelyapti. Davradan chetroqda, ikki toshning orasiga bosh suqqancha, ko'zlari yoshlanib tutun puflyotgan maykachan kimsa shu ekan-da. «Toshkentdan billa o'qigan jo'ralari kelgan». Davraning izzatli joyi – ko'rpacha ustida yostiqliquchoqlab siroroq o'tirgan anovi notanish yigit o'sha, Toshkentdan kelgan mehmon bo'lsa kerak. Boshqalari ko'ziga birmuncha issiq ko'rinadi, chamasi, rayon markazidan chiqqan yosh-yalang...

– E! Parda Qurbon bobomizning ulimi? – dedi Rajab qo'lidagi kabobni o'rtaga qo'yarkan, unga ko'zi tushib. – Qalaysiz, Berdiboy? Yo'l bo'lsin? Munchoqligami? Kech yo'lga chiqibsiz-da? Bunday, piyoda? Kamnamoroqmi o'zi keyingi paytda? Haliyam qishloqda – Munchoqlida? Bo'limda? Zootexnik?.. Ha-a, malades!

Berdiboy uning birorta so'rog'iga churq etmadi, xo'mrayib o'tiraverdi. Rajab ham javob kutmadi – o'z savollariga o'zi javob qaytargan edi.

– Bittadan olsak! – dedi u so'ng mehmonga qarab takalluf bilan.

– Ixtiyori ba shumo, deydilarmi...

Quyildi. Hammaga. Berdiboyga ham. Ichdilar. Hamma. Berdiboy ham.

– Sovuqmasmikan? – deb so'radi mehmon boya suvdan chiqib kelgan «ajina»dan. – Men ham bir tushsammi devdim.

Yelkasiga sochiq tashlab o'tirgan «ajina» dik etib joyidan turdi:

– He, shu shaharliklar nozik bo'ladi-da! Turdik! Hamma! – U sochig'ini toshning ustiga otib, patira-putur suv oralay ketdi.

– Turdik!

Dasturxon boshida Berdiboyni yolg'iz qoldirib, barcha o'rnidan qo'zg'aldi.

Rajab bodi bo'shagan sixlarini ko'tarib «ko'ra»si tomon ketdi.

Gulxan shu'lasida yalt-yult tovlanayotgan mavjlar, yarimyalang'och ko'lan-kalar. Shalop-shulup, shatir-shutur. Zim-ziyo tunni boshlariga ko'tarib qiyqirishadi, bir-birlariga suv sepib qochishadi... Ajinabazm, tus ajinabazm!

Berdiboy nima qilib o'tiribdi bu yerda? Qanday kelib qoldi u?

Yelkasida zildek xurjun, qorong'ida tusmol bilan qadam tashlab boraverdi, boraverdi – hech yo'lning adog'i yo'q. Yura-yura shunday bir manzaraga duch keldiki, qarab ko'zlariga ishonolmadi. Soylikka o'xshash o'zan. Allaqayoqdan guldiragancha bir quvur suv otilib chiqyapti. Gulxan, qandaydir ko'lankalar, g'ovur-g'uvur... Berdiboy hangu mang bo'lib qoldi. Nima, adashdimi? Bolaligidan buyon kezaverib tovonlari to'zigan bu dashtu adirda sira bunday manzilni ko'rmagan, bunaqa manzaraga ham uchramagan edi. Yo, ajinalarmikan? O'xshaydi. Ana – suv, gulxan... Momam aytar edi: ajina qorong'i bir xilvat joyda, yolg'iz paytingda uchraydi, deb. To'g'ri aytib ekan: mana, qorong'i xilvat joy, bir o'zim... Uni qo'rquv bosdi, tizzalarining ko'zi qaltiray boshladi. So'ng, o'zini dadillikka olib, do'ngning tepasiga chiqdi-da: «Ho'-o'v!!!» deb ovoz berdi. «Nima-a?»

degan ovoz qaytdi pastdan. Odamga o'xshaydi-ku! «Ki-im?» dedi Berdiboy endi dadilroq. «Ajinalar! – dedi haligi odam. Keyin uni cho'pon gumon qildimi, chaqirdi: – Keling, boybobo, kelavering!» Berdiboy asta do'ngdan enib, gulxanga yaqinlashdi. Qarasa – bir to'p yigit-yalang; ziyofat avjida, davra chortang? Chet-roqda ikkita «Jiguli» ham turibdi...

Dasturxonga fотиha qilgandek kaftlarini yuziga tortib, Berdiboy sekin joyidan qo'zg'aldi. Vazmin odimlab Rajabning tepasiga bordi.

Mana, o'sha Rajab bodi, qon-qiyomat dushmaning! Qo'lingga tushdi nihoyat! Gapir gapiraringni, qil qilaringni!..

– Buytib yurguncha, uygingangizga borib, xotingingizni oldida televi-zor-ingizni ko'ri-ib o'tirmaysizmi? – dedi Berdiboy achchiqqina ohangda chimdib.

– Televizorda nima bor, Berdiboy, dunyoning bor gashti mana shunda-ku! – dedi Rajab uning pichingiga mutlaqo beparvo, allaqanday beg'araz bir samimiyat va hushchaqchaqlik bilan. – Ko'raman desam, ana – televizor moshinada! – So'ng u kaftining ko'zi bilan chap qovog'ini ishqay-ishqay qaddini rostlarkan, cho'milayotganlar tarafga qarab qichqirdi: – Chori-i, telikni qo'y – futbo-ol!..

Berdiboyning ko'ziga Rajab bodi sirli odam bo'lib ko'rindi. Boyagi shash-ti-yu g'azabini bir zumga unutib, daf'atan unga havasi kelib ketdi. Bir hisobda shuniki maza! Yashashni biladi bu: o'zi oddiy o'qituvchi, maktabda fizikadan dars beradi-yu, bir qarasangiz – doim qo'lda nimadir yasab, temir-tersakning ichida yuradi, bir qarasangiz – mana bunday dala-dashtda bir chimdim go'shtni deb tutun puf lab yotadi. Alomat! Shu yerga ham olib kelibdi-ya televizorini... Erinmagan banda!

– Siz nima deysiz gapimga, Ravshanjon?

– To'g'ri aytasiz, dunyoning lazzati mana shunda, mana shunday ajoyib o'tirishlaru ajoyib joylar, ajoyib kengliklarda! – dedi kattakon sochiqqa o'rangan cha junjikib ularga yaqinlashgan mehmon yigit. – «Piknik» deyishadi buni, chinakam piknik bu! Bizni ham ana shu narsa boshlab keldi-da bo'tga, Rajabvoy! Umuman, hozir butun dunyoda tabiatga keskin qaytish jarayoni boshlangan. Masalan, sivilizasiyaning cho'qqisiga yetishgan Fransiyadek mamlakatda ham hozir uyda non yopish rasm bo'lgan emish. Do'konning nonidan qo'lbola nonni afzal ko'rishar-kan-da. Bu hatto antiqa bir mashg'ulot, antiqa bir... taom, tansiq taom hisoblanar ekan!

– Ho'-o', kelinglar! Futbol!.. – deb baqirdi Chori.

Cho'milayotganlar apir-shapir suvdan chiqib, artina-kiyina davraga oshiqish-di. Yerga to'shog'liq sholchaning bir chekkasida vag'illab yotgan mo'jazgina bir qutiga hamma mahliyo! Bir to'pni deb shuncha odam u yoqdan-bu yoqqa yugur-gani yugurgan!..

Murodi hosil bo'lmay pisillab qolgan Berdiboyni yana boyagi badbin, yovu-zona kayfiyat chulg'agan edi. Davrani chetlabroq jilarkan, televizorga yaqinlash-ganda u, xuddi qoqilib ketganga o'xshab, uni sekingina bir tepib o'tdi.

– O‘, o‘, Berdiboy, nima qilyapsiz! – deya chinqirdi o‘rnidan sapchib turgan Chori. – Ko‘z bormi?! Yo kayfingiz oshdimi?

Berdiboy pinak buzmay, borib xurjunini yerdan ko‘targan edi, Rajab uning oldiga keldi.

– Ha, Berdiboy? O‘tirmaymizmi? Nima, yo oborib qo‘yaymi? – dedi u qorong‘ilikda turgan mashinasi tomon ishora qilib.

Berdiboy ilkis uni ko‘kragidan qattiq itarib yubordi-yu, bir siltashda xurjunni yelkasiga olib, burilasolib jo‘nab qo‘ydi.

Kutilmagan zarbdan ag‘anab, yerga o‘tirib qolgan Rajab negadir xaxolab kula boshladi. So‘ng orqadan uning gapi eshitildi:

– Mana shunday kelib-kelib turi-ing, Berdibo-oy!..

Yana o‘sha zim-ziyo tun, yana o‘sha to‘rt tarafi biydek dasht, yana o‘sha zildek xurjun, x u r j u n – turtina-surtina piyoda ketayotgan bir odam... Bir olam!

Berdiboy qayoqqa qarab borayotganini o‘zi ham bilmas, negadir bu haqda o‘ylamas ham, nuqul halloslab-harsillab oldinga intilgani intilgan edi. Anchadan so‘ng qir bo‘yida qandaydir chiroq miltillab, chaylaningmi, kapaning qorasi ko‘rindi. O‘sha tomonga burildi u...

Kapadan shabpo‘shini kaftiga urib qoqa-qoqa, yarg‘oqbosh bir qariya chiqdi:

– Keling, mehmon. Baxayr?

Salom-alik qildilar. Muddaosini aytdi Berdiboy.

– Munchoqlidanman, deng? Kimdi uli bo‘lasiz?.. He, u bizning oshna-ku! Frontga birga jo‘naganmiz. Ko‘p og‘ir, ba‘mani odam. Hay, uyga kiring, yotib keting. Eski oshnamizning uli ekansiz... Borishim shart, deng? He, bir kecha o‘n kecha bo‘lama, borasiz-da shu uyingizga ham!.. Ulov desangiz, anov «pat-pat»-ning moyi sob bo‘lgan, hafta beri – yotibdi. Nima? Eshak-peshak deysizmi? Eshak nima qiladi bizda, og‘am! U jonivor ham qirilib bitdi hisob. Padang tomonlarda qolmagan bo‘lsa bitta-yarimi... E, ulariyam bir...

Qariya bilan xo‘shlashib, u ko‘rsatgan yo‘l bo‘ylab qorong‘ilikka sho‘ng‘irkan, taajjubdan Berdiboyning boshi qotdi. Bu yerlarni Oqqo‘ton deydimi u. Chilai chor mahalligidan mana shu dala-dashtda o‘sib, bunday joyni eshitmagan ham ekan, bunaqa yerlarni ko‘rmagan ham. Bugun o‘zi u bir baloga uchrabdi: nuqul adashadi, nuqul...

Bir mahal uzoqdan nimadir yiltilladi. Yonarqurtdek bir nima. U yaqinlashib kelaverdi, kelaverdi. Kattalashdi. Odamga o‘xshaydimi... Odamning ko‘zi shunday yonarkanmi qorong‘ida?! O‘ziyam bahaybatroq ko‘rinadi. Orqasida dumsimon nimadir yerga surgalib kelyapti. Ana, yoli ham bor. Ot ekan-da, kalla! Iye, ot ikki oyog‘ida yuradimi? Qanaqa maxluq bu o‘zi – vishillaydi? Motorning tovuhsiga ham o‘xshaydimi? Benzin hidi kelyapti, ha, ha! Mototsikli... Yo pirim, bu nima balo bo‘ldi?!

Balo, balo!

Berdiboy shunda sezdi: qandaydir soylikka tushib qolibdi. Ikki yoni tik jar. Boyagi soylikning adog‘i emasmi? O‘shanga tus beradi...

«Balo» hamon bostirib kelmoqda edi. Orqaga qochay desa – u yog‘da anovilar, oldinga yuray desa...

U asta-asta o‘rlikka tomon tislaverdi – «balo» to‘g‘ri unga qarab kelaverdi, u tislaverdi – «balo» bostirib kelaverdi...

Bu paytda...

Erini kuta-kuta zerikkan Oyro‘zi, katta qizini Tiniq momoga tashlab, kichkinasini ko‘tarib, eri bultur qorbo‘ronda adashib halok bo‘lgan beva qo‘shnisinikiga televizor ko‘rgani chiqqan, mana, hozir ro‘zg‘or yumushlaridan horigan xotinlar o‘tirgan joylarida pinakka ketishgan, tomoshalari poyoniga yetib, ekranda «qorbo‘ron» bo‘lib yotar edi.

...Gulsanam esa, chamadonchasini kiftiga qo‘yib, mulla Shodining nevarasi bilan markazga qarab chopdi. Tonggi avtobusga ulgurishlari kerak!



# Nurali Qobul

(1950-yilda tugʻilgan)



Nurali Qobul 1950-yil 2-yanvarda Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi Usmat qishlogʻida tugʻilgan. Fargʻona Davlat universitetining tarix fakultetini tamomlagan (1974). «Oyqor» (1978), «Salom togʻlar» (1979), «Odam, Oyqortogʻ va Daydi shamol haqida ertak» (1980), «Tubsiz osmon» (1981), «Kaptarlar qaytmagan tun» (1984), «Yashash uchun kechikma» (1985), «Unutilgan sohillar» (1988), «Oq kaptarlar» (1990), «Bugʻdoy pishigʻiga yetmaganlar» (1992), «Sen vatansan, muhabbat» (1994), «Vatandan yaxshi yor oʻlmas» (1995) va boshqa asarlari nashr etilgan.

G. Markesning «Tanholikning yuz yili» romanini, Ch. Aytmatovning «Bolaligim» asarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

## KAPTARLAR QAYTMAGAN TUN

Kampir har kuni ertalab tong yorishmasdan uygʻonadi. Shu kunga eson-omon yetkazgani uchun xudoga shukrona aytib, katta doka roʻmolini uzoq oʻraydi. Sir-langan chelakning qolgan-qutgan suvini hovliga sepib, yuz-qoʻlini yuvadi-da, bir necha burda non olib buloqqa tushadi. Yuz-qoʻlini yana qayta yuv-gach, tushini suvga aytgancha nonni ushatib, buloqqa tashlay boshlaydi. Kampirning kelishi-ga oʻrgangan va uzoqdan qorasi koʻrinishi bilan uymalashadigan baliqlar suvni shaloplatib yuzaga otilib chiqishardi. Kampir esa ular bilan xuddi odamdek gapla-shib, uvoq ulasha boshlaydi.

– Sizlar ham kichik boʻlgansizlar. Kichiklarga ham non beringlar, – dedi u katta baliqlarni tergab. – Uyalmaisizlarmi oʻz bolalaringning nonini tortib olib yeyishga. Odamlarga oʻxshab jonivorlar orasidan ham mehr-oqibat koʻtarilyapti.

Soʻng, u katta baliqlarni aldab turib, nonni maydalab kichik baliqlarga tash-lardi. Bunga oʻrgangan baliqchalar katta baliqlar non boʻlagiga tashlanishganda



non uvoqlarini kutib joylaridan jilmay turaverishardi. «Duo qilinglar, Xudo ham menga el qatori nevara bersin», derdi kampir suv to'ldirilgan chelakni ko'tarib iziga qaytayotganda. Baliqlar esa kampirning suv olishiga qo'ymay, chelakka kirib chiqaverishadi. Kampir zo'rg'a ularni chelakdan haydab chiqaradi.

Lekin bari bir bitta-yarimta baliq ilashib chiqar, kampir chelakning ostida qolgan suv bilan yana qaytarib kelib buloqqa quyardi.

Sahar namozini o'qigach, joynomozni yig'ishtirib qo'yardi-da, hovli to'rida mudrayotgan govmish bilan kattakon oq echkiga ko'z qirini tashlab don-dun saqlanadigan pastakkina omborxonaga tomon yurardi. Kampirning omborxonaga borayotganidan xabar topgan echki umidvor bo'lib sekin ma'rardi. Govmish biz ham bor, degandek erinibgina o'qrayib qo'yadi. Kampir o'zicha ularga daf'i javob qaytarib, yo'lida davom etadi. Uzoq paysallanib nimchasining cho'ntagidan omborxonaga kalitini topadi. Shu bahonada cho'ntagida yana nimalar borligini bilib qo'yish uchun birma-bir yuziga yaqin keltirib, ko'zdan kechiradi. Cho'ntagida esa hamma narsa bo'lardi. Bir yil burungi to'ydan olgan parvardadan tortib, charxning dugigacha. U cho'ntagidagi mevalarni bejizga asramaydi. Qaysi to'y ma'rakaga bormasin, «Ilohim Xudoyim meni ham shunday kunlarga yetkazsin!» deya bir juft parvardami, yong'oqmi oladi. So'ng, yana bir parvardani olib tishsiz milklarida aylantirib so'ra boshlaydi. Atrofida bir-biriga gap bermay chuvillashayotgan xotin-xalajlar gapini mutlaqo eshitmayotgandek odamlarning boshi uzra tog'orti ufqiga tikilarkan «Ilohim yetkazgan kuningga, bergan rizqingga shukur», deydi.

Ko'rinib turgan shu tog' ortida, Panjakent degan tomonda kampirning yakayu yolg'iz qizi yashaydi. Farzand ko'rmay turmushi buzilgandan so'ng, o'sha yoqqa, tog' ortidan kelib qishloqning molini boqib yuradigan Eshmurod ismli qo'y og'zidan cho'p olmaydigan, o'zidan to'rt yosh chamasi kichik yigitga tegib ketdi. Odamlar «qizing oshiq-ma'shuq bo'lib, qochib ketdi», deya ta'na qilishdi. Kampir beg'ubor va najottalab ko'zlarini mo'ltiratib, ularning gaplarini eshitar, lekin g'ing demasdi. Xuddi hammasiga o'zi aybdordek iyagini tizzasiga tiragancha jimgina o'tirar, ichida sabrsizlik va alam bilan suhbatdoshining yoqimsiz gapini tugatishini kutardi. Ichida: «Xudo urganni payg'ambar hassasi bilan turtgandek, men sho'riqisgan yolg'izga shu gaplarni yetkazishdan bu insonlar ne muddao topisharkin?» deya o'ylar, o'ylab o'yiga yetolmasdi.

Yaqinda kampirga xushxabar keltirishdi... U anchagacha tushimmi-o'ngimmi degandek o'tirgan joyida ag'rayib qotib qoldi. Qizining bo'yida bo'lgan emish. Shundan keyin kampirning ichiga o't tushdi. Kechalari birdan uyqusi qochib, qizini o'ylab ketadi. «O'g'il bo'lsa otini Xudoyberdi, qiz bo'lsa Biyotma qo'yaman», derdi o'ziga-o'zi quvonchi ichiga sig'may. Ammo, tug'ilajak nevarasining ota-onalari bolaga ism qo'yishni undan so'rashadimi, yo'qmi, buni xayoliga ham keltirmasdi.

Qulfning kalit soladigan joyini uzoq qidirib, zo'rg'a ochganda ham u bir narsani – qizining tezroq bo'shanishini o'ylar, yuragining tub-tubidan buni Xudodan



o'tinib so'rardi. Erta sahardan shomga qadar o'zicha savob deb bilgan ishlar bilan mashg'ul bo'lardi.

U chit ko'ylagining yengini to'ldirib bug'doy oldi-da, yana omborxonaga eshigini qulflab qo'ydi. Bo'lmasa bo'shatib podaga haydaganda echki o'zini omborxonaga uradi, Kampir esa halloslab unga yetolmaydi. Yetgunicha u bemalol biror kilo bug'doyni paqqos tushirgan bo'ladi. Qopning og'zi bog'loqlik bo'lsa yirtib yeydi. Kampirning hovlida g'imirlab yurganini ko'rgan musichalar kukulashib atrofida girdikapalak bo'lib aylanishadi.

Kampir peshayvon ustunining tag kursisiga o'tirganicha musichalar bilan gaplashib, don ulasha boshlaydi.

– Sadag'ang ketay Biyfotmaning beozor tovuqlari.

Qani endi hamma odamlar sizlarni jannatdan uchib chiqqanliklaringni bilganda edi. Odamlardan ham xafa bo'lib bo'lmaydi. Ularning ham tashvishi ko'p. Dunyo shunaqa ekan. Inson qancha qorni to'yib, biri ikki bo'lsa shuncha sertashvish bo'lib qolarkan. Zamonang tulki bo'lsa tozi bo'lib quv degandek, odamlar faqat kunining orqasidan quvadigan bo'lib qolishdi. Ishqilib oxiri baxayr bo'lsin. Odamlarga qanchalik aql kirgan sari jonivorlarning, dov-daraxtlarning tinchligi buzilyapti. Magazinlarda un ko'payib, sizlar rizq-ro'zilaringni terib yeydigan tegirmonni ham buzib tashlashdi. Uning hech kimga og'irligi tushayotgani yo'q edi-ku?

Musichalar talashib don yeyishardi. Ularga tevarak-atrofdan chumchuq, mayna va chug'urchuqlar kelib qo'shilishardi. Kampir hamma musichalarni tanirdi. Musichalar esa don talashib, kampirning kiyimlarini yulqilashadi. Kampir ularning xatti-harakatidan mast bo'lib kular, bu yoqimli daqiqalarni cho'zish uchun donni olisroqqa sochardi.

– Voy sadag'ang ketay beozor qushlar-ey! Shu donning hammasini sizlarga beraman! Sizlarga bermay kimga beraman? – derdi kampir hovuchini to'ldirib don socharkan.

So'ngra u qushlar bilan astoydil xayr-xo'shlashib, etagini qoqqancha boqqa qarab yuradi. Yong'oqning shoxiga qistirilgan eski o'rog'ini olib, govmish bilan echkiga uvatlardan o't o'radi, pechak yuladi. Bedadan ham o'rib berishi mumkin, lekin u qishga mo'ljallangan. Shuning uchun kampir uzzu-kun bedapoyani qo'riqlab, urchuq yigirib o'tiradi. Uning ham o'g'li yoki nevarasi bo'lganda boshqalarnikidek qish uchun Taypoqsoy dalasidan to'rt-besh qop somon keltirib berarmidi? Kampir doimo boriga qanoat va shukur qiladi. Hech qachon nolimaydi. U bari bir bir kun emas, bir kun nolalarim Xudoga yetib boradi deb o'ylaydi. Shuning uchun ham shukur qiladi.

Yoqimli hid anqib turgan barra o'tni govmish bilan echkiga bo'lib solgandan so'ng tandirxonaga qarab yurdi. Sut sog'adigan, yog'i sirtiga urib ketgan kadisini olib keldi. Govmishni iydirish uchun og'ildan buzog'ini olib chiqib qo'yib yubordi. Targ'il buzoq onasini turtkilab ema ketdi. Kampir buzoqqa bir oz tikilib tur-

di-da, so'ng irini tortdi. Ichida uni ona suti emishdan mahrum etayotganiga achindi. Shunda birdan ko'z oldiga o'sha – tug'ilajak nabirasi kelib ketdi. Nazarida uni ham birov onasi bag'ridan tortib oladigandek tuyuldi. Shu o'yda qo'li bo'shshib, xayoli qochdi. Ag'rayganicha buzoqning yemishiga tikilib o'tiraverdi. Lekin shu alpozda qarab o'tira olmasligini angladi. Hademay sut oluvchi keladi. Unga kamida bir kadi sut berish kerak. Bo'lmasa u kampirga oz pul beradi. Hech kimga gap bermaydigan Safargul sutchi kampirning sutini hammadan arzonga oladi. Kampir buni biladi. Qo'shnilar tushuntirishgan. Biladi-yu, indamaydi. Biror nima degudek bo'lsa Safargul og'zidan chiqqan gapni yoqasiga tarmashtiradi. Safargul shartlashtilgandek biror so'm yoki bir necha tiyin kam bersa ham indamay olaveradi. «Bari bir, bir o'zimga shuncha sut kerak emas. Pul bermasayam mayli. Odamlar ichib alqasa bas. Sut bergandan savob ish bormi dunyoda?» – o'ylardi o'zicha.

– Xudo xohlasa bu pullarni nevara to'yiga ishlatasiz, – deydi Safargul kampirni og'iz ochirmaslik uchun nozik joyini topib.

Aniqrog'i kampir pul sanashni bilmaydi. Shuning uchun ham kim nima bersa olaveradi. Ikki marta Safargul bergan pulni qo'shnisi Bahrom oqsoqolning o'g'liga sanatgan edi, qanchayam kam dedi. Kamini Xudo berar, shungayam tashvish chekib yuradimi? Odamlar seni kam degani, yerga urgani bilan kam bo'lib qolmaysan, ishqilib egasi kam qilmasin, taqdiringni boshiyam oxiriyam bo'lmas ekan. Uyasini yo'qotgan to'rg'aydek havoda muallaq bo'lib qolarkansan.

Kampir shu o'ylar bilan govmishni sog'ishga o'tirdi. Kadi ko'pirganicha to'lib borardi. Sut kunligidan kam chiqdi. Kampirning xayoliga «endi meni Safargul koyiydi» degan fikr keldi. U yana buzoqni emishga qo'yib yubordi. Har yili echkini sog'in qilib oladi. U govmish bilan basma-bas sut beradi. Buzog'i ko'proq emgan kunlari qariyb ikkisining suti baravar keladi. Kadidan ortgan sut kampirning o'ziga qoladi. U bu sutni pishiradi. Bir kosasini sap-sariq kattakon urg'ochi mushuk ikkalasi ichishadi. Mushuk deyarli har yili bolalaydi. Kampirning tashvishiga tashvish qo'shiladi. Shunda mushuklarning o'ziga bir kosadan ortiq sut ketadi. Qolgan sutni qatiq qilib haftada bir marta kuvi pishadi. Kampirning chayir va baquvvat qo'llari kuvini tezda yoqqa keltiradi. Sut kadidan ortmagan kuni u sutsiz qoladi. Piyolaga kallaqandni solib, non to'g'rab yeydi. Mushukka esa qolgan-qutgan ovqatlardan beradi. Sut mo'ljaldagidan ozroq bo'lsa Safargul kampirga o'shqiradi. «Va'dalashib qo'ygan odamlarimga nima deyman?» deydi u ko'zlari olayib. O'sha sut kelishini kutayotgan odamlar va bolalarni o'ylab, kampir buzoqning rizqini qiyardi. Safargul o'zidan olgan sutni uch barobar pullashini esa xayoliga ham keltirmaydi. «Shuncha sutni eshakka ortib, rayonga olib tushishning ham o'zi bo'ladimi? Safargul bechoraga ham qiyin, boshida eri yo'q», deya o'ylardi u sut oluvchi ko'rinmay ketgunga qadar orqasidan tikilib.

Sutni ko'tarib olgach, yuvindisiga qorni ichiga kirib ketgan, doimo to'ymay yuradigan Olaparga itoshi qiladi. Tokchadan bir kosacha kepak oladi-da, sal mazaliroq bo'lsin uchun bir hovuch qora bug'doy unidan aralastiradi. Olapari og'zi

kuyganiga qaramay itoshini yalay ketadi. Bu paytda mushuk miyovlab kampirning atrofida girdikapalak bo'laveradi. Uning kosasiga ham bir cho'mich sut solib, ikki-uch to'g'ram qotgan non tashlaydi.

Etakdan ma'rashib qishloq podasining tog' tomon o'rlayotgani eshitaladi. Kampir qo'lini soyabon qilib, quyoshning ko'tarilayotganini kuzatadi-da, o'zicha podahaydar mahali bo'lganini fahmlaydi. Irg'ay yog'ochdan qilingan cho'ponlarning tayog'iga o'xshash hassasini qo'lga olib govmish bilan echkini ko'chaga haydaydi. Echki echkiligini qilib, orqaga qochmoqchi bo'ladi. Kampir unga zug'um qiladi.

– Tog'u toshda maza qilib o'tlab, o'ynab kelmayсан-mi shaytondan tarqalgan? – deydi hassa o'qtalib.

Echki kampirga o'qraygancha podaga qarab yuradi. «Nega kampir bechorani qiynaysan» degandek ularni kuzatib turgan govmish echki oldiga tushgach, unga ergashadi. U echkiga ergashib, o'rganib qolgan. Kechqurun padaqaytar mahali bo'lgach, u ma'rab echkini topib oladi-da, ortidan qishloqqa qaytadi. Echki qochib, uyga qaytib kirsam kampir yetolmasligini ham biladi. Biroq, bo'yniga arqon tushgandan so'ng, kampir uni jazolaydi, hassasining uchi bilan bir-ikki nuqib qo'yadi.

Qirda eshagiga ikkita sut idishi solingan xurjun ortgan Safargul ko'rindi. U yetib kelguncha kampir sadaqayrag'och shoxidagi kadini olib chiqdi. Gap-so'zsiz Safargulning idishiga quydi. Biror nima dermikin degandek ko'zlari javdirab, uning og'ziga tikildi.

Eshagiga o'nnglanib o'tirish uchun oyog'ini qayta uzangiga solarkan:

– Sutingiz kundan-kun suyulib boryapti, Oybuvi momo, – dedi Safargul. – Sigir bilan echkini tuzukroq boqmayapsiz. Yoki sutga suv-puv qo'shyapsizmi? Bunday bo'lsa sutingizni olmay qo'yaman.

Kampir nima deyishini bilmay ag'rayib turardi. Sababi: Safargulning bunday deyishi yetti uxlab tushiga kirmagan edi.

«Umrida sut sog'magandek gapiradi-ya, sutga ham suv aralashtiradimi? Qaysi Xudodan qo'rqmaydigan shunday qiladi?» – boshi qotib o'ylardi kampir. «Nega u uyalmay-netmay shunday deydi? Oyog'im go'rga yetib qolgan bir yoshda shunday qilamanmi? Men esimni taniganimdan beri do'zaxi ish qilganim yo'q! Bundan buyon ham qilmayman! Men cholginamning oldiga o'z ajalim bilan halol pokiza borishim kerak!»

Sutchi xotin allaqachon ikki qir oshib ketib qolgan edi. Kampir hamon qo'li-da kadisi bilan qaqqayganicha qotib turardi. Undan ikki qadamcha narida yalpayib yotgan Olapar lab-lunjini yalab, egasining ma'yus holatini kuzatardi. Kampir nimadir esiga tushgandek o'ziga kelib, shosha-pisha uyga qarab yurdi. Mushuk yeganda sachragan uvoqlarni donalab terib, ohistagina chumolilar ini og'ziga eltib qo'ydi. So'ngra sadaqayrag'och soyasidagi eski so'riga o'tirib nonushta qilgan bo'ldi. Sut ichayotganida yana xayoliga tug'ilajak nabirasi keldi. «Bo'lganda u

ham sut ichardi», deya o'yladi xomush bo'lib. «Nega Xudo doimo baxtni kechikib beradi?» o'ylardi kampir termilib. «Bolaning qadriga yetmaydiganlarga besh-o'n-talab farzand beradi. Mening qizimga esa...»

Chug'urlashib sadaqayrag'ochga uchib qo'nayotgan chumchuqlar dasturxon-dagi nonga yopishganda kampirning xayoli bo'lindi. Engini silkitib qushlarni uchirgan bo'ldi. Dasturxondagi qolgan-qutgan ushoqlarni qoqib og'ziga soldi-da, nonni o'rab yostiqlarning ostiga bostirib qo'ydi. So'ngra sadaqayrag'ochning shoxi-ga qistirig'liq urchug'ini qo'lga oldi.

Soya qaytishi bilan yana chap yengini bug'doyga to'ldirdi-da, urchug'ini qo'ltiqlaganicha uyning kun chiqish tomonidagi qirga chiqdi. U deyarli har kuni kunning ikkinchi yarmini shu yerda o'tkazadi. Kampir qirga chiqishi bilan bu yer-ga Kattajarning kaptarlari uchib kelishadi. Kaptarlar qir ustida bir-birini turtkilab, bir-ikki aylanishgach, qo'nishadi. Ular qirga qo'nishi bilan kampir galaga yangi qo'shilgan kaptarlarini kuzata boshlaydi. Ularning kun sayin ko'payib borayot-ganidan o'zicha xursand bo'ladi. Lekin, nega xursand bo'layotganini aniq tasav-vur yeta olmaydi. Kaptarlar donga to'ymay, kampirni turtkilashaversa, u yana omborxonaga borib keladi. Bug'doy esa oxirlab borardi. Kuyovi kela qolganda edi, bozordan biror qop bug'doy, yoki yorma olib kelib berarmidi? Yoki birorta qo'ni-qo'shniidan ot-ulov so'rasamikan? Don tugab qolsa kaptarlar qayerga bo-radi?

Qishloq bolalari allaqachon bu kaptarlarni bezdirishardi. Xayriyatki, Olapar bor. Kaptarlar uchib kelganda u qirga hech kimni va hech qanday hayvonni yo'lat-maydi. Shu daqiqalarda kampir bu dunyodan mutlaqo ajralib qoladi. Shunda u hamma narsani unutadi. Nazarida o'zini ham qushga o'xshagan allaqanday jo-nivorga aylanib qolganday his qiladi. Harakatlari ham g'ayritabiiy bo'lib qoladi.

Kaptarlar uzala tushib yotgan Olaparning ustida o'rimalashib yurishar, juni orasidan nimalarnidir terib yegandek cho'qishardi. U esa mudraganicha yer bilan bitta bo'lib yotar, qushlarning cho'qishi unga shu qadar xush yoqardiki, birpasda ko'zi ilinardi.

Kampir yana don olib kelish uchun o'rnidan turganida, g'ov og'ziga yukini o'zi tushiradigan mashina kelib to'xtadi. Kampir qo'lini soyabon qilib, kelganlar-ni kuzatdi. Kabinadan qo'ng'iz mo'ylovli haydovchi bilan Safar soqovning o'ziga o'xshagan tili chuchuk o'g'li Tursunali tushdi.

Hormang, Oybuvi momo! – dedi u shirshigan ovozda. – Kaptarlarni boqib yotibsizmi? Damlikkina yuribsizmi?

Shukur, bolam... Bir navi. O'zlaring omonmisilar? Ota-onalaring baquvvat yurishibdimi? Ancha bo'ldi, enangni ko'rmadim. Qizimni kutypman, hech dara-gi bo'lmayapti...

– Vaqt ziq, momo, siz bilan gaplashadigan gap bor, – o'g'ri qarash qildi Tur-sunali.

– Nima gap? Aytaqol tezroq, bolam, – uning og'ziga tikilib ag'raydi kampir.

– Sizga bug'doy kerak emasmi?

– Kerak, bolam, qani endi uni olib kelib beradigan odam?  
– Mana bu mashinaning kuzovi to‘la bug‘doy. Olsangiz, arzon garovga sota-  
miz. Ko‘p emas, sakson so‘m bersangiz bo‘ladi, – bidillab ketdi Tursunali.  
– Voy! Bir mashina bug‘doyni nima qilaman, bo‘tam! – hayron bo‘ldi kampir.  
– Xudo berganiga shukur qilib olavermaysizmi? Omborxonangizga o‘n mas-  
hina bug‘doy sig‘adi. Shu bilan bir necha yil bug‘doy olmaysiz. O‘zimiz tashib  
beramiz.

Kampir ularni alqab-alqab rozi bo‘ldi. Bug‘doyni omborxonaga tashish uchun  
ikkita xalta olib chiqdi. Shofyor bilan Tursunali terlab-pishib, bir zumda bug‘doyni  
omborxonaga tashib kiritishdi. Kampir ro‘molchaga tugib, ko‘rpaning orasiga  
qistirib qo‘ygan pulini olib chiqdi. Tursunali pulning yarmidan ko‘prog‘ini olga-  
ch, ular shosha-pisha mashinaga o‘tirishdi.

– Biror kishiga bu haqda og‘iz ochib yurmang, tag‘in, – tayinladi duduqlanib  
Tursunali ketayotganida, – bilasiz-ku, hozir odamlar oyog‘i bilan emas, og‘zi bi-  
lan yuradi.

Kampir indamay ag‘rayib turardi. Uniig nega bunday deganini tushunmadi.  
So‘ng, ro‘molchasida qolgan pulga qaradi. «Yarmidan ko‘prog‘i sakson so‘m  
bo‘lsa, qolgani qancha ekan!» deya o‘ylardi u pulni qayta tugarkan. Biroq Tursu-  
nalining 150 so‘mga yaqin olganini xayoliga ham keltirmasdi. «Dunyoda qanday  
yaxshi odamlar bor-a? – derdi o‘ziga-o‘zi. – Xudoning o‘zi yetkazaman desa, hech  
gap emas ekan. Qizim bilan kuyovim bug‘doyni ko‘rib suyunishadi, – beixtiyor  
xayolidan o‘tkazdi kampir quvonchi ichiga sig‘may. – Kaptarlarim bilan musi-  
chalarim Xudo degan ekan». – Kampir endi musichalar va kaptarlarga ko‘proq  
don beradi. Ular qanchalik talashib don yeyishsa, kampir yayrab ketar, kuyib-pi-  
shib ular bilan o‘zicha so‘zlashardi.

U qirda kaptarlarga don sochib o‘tirgan edi. Urchug‘i yonida yumalab yo-  
tar, kaptarlarning qorni to‘yib, o‘zi bilan o‘ynashishni istayotgan Olapar ularning  
har bir xatti-harakatidan ko‘z-qo‘loq bo‘lib, cho‘nqayib o‘tirardi. Kun peshindan  
oqqan, mashriq tomondan salqin shabada esardi. Kampirning xayolini mashina-  
ning bo‘g‘iq ovozi buzdi. G‘ov oldiga usti yopiq kichkina mashina kelib to‘xtadi.  
Undan qishloq sovetida ishlaydigan Xo‘jato‘pi mahallalik Turdibek bilan shapkali  
odam tushdi. Kampir uni doimo shapka kiyib, qishloq bolalarini tergab yuradi-  
gan Xolbek tog‘begi deb o‘yladi. Diqqat bilan tikilgach, militsioner ekanligini  
payqadi. Ular o‘zaro nimalarnidir so‘zlashishdi. So‘ngra militsioner hovli tomon,  
Turdibek qirga qarab yurdi. Kampir yengida qolgan-qutgan bug‘doyni uymala-  
shayotgan kaptarlarga to‘kib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

– Hormang, Oybuvi momo! – dedi Turdibek kampirga yaqinlasharkan.  
Negadir uning salom bermagani kampirning ko‘ngliga keldi.

«Tursunali ham salom o‘rniga, hormang, deb kelgan edi. Bu ham he-be yo‘q  
shunday deb kelyapti. Odamlar salomni unutishyapti. Oxiri baxayr bo‘lsin», o‘y-  
lardi kampir Turdibekka sinchkovlik bilan tikilarkan.

– Assalomu alaykum, bo‘tam!

– Salom, momo!

Kampir salomdan so‘ng nimadir demoqchi edi, unutib qo‘ydi. Tiliga kalima kelmay Turdibekning og‘ziga tikilib turaverdi.

– Kaptarlarga don beryapsizmi? – xijolatomuz jilmayib so‘radi Turdibek.

– Ha, bolam, shundoq ermak qilib...

Shu payt Olapar irillab o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Kampir o‘g‘irilib qaragan edi, du-mini qisib nariroq ketdi. Kaptarlar gurillagancha osmonga ko‘tarilishdi. Turdibek sochilib yotgan bug‘doyni kaftiga olib ko‘ra boshladi.

– Pastga tushaylik, momo! – dedi ovozi allaxil tovlanib, bug‘doyni siqimla-ganCHA soylikka qarab yurarkan.

Kampir indamaygina uning orqasidan ergashdi. Militsioner hovlini aylanib yurardi. Kampir bilan sovuqqina so‘rashgach, omborxonaning eshigini ochishni buyurdi. Kampir uzoq paypaslanib, eshikni ochdi. Bug‘doyni ko‘rib ikkisi ham anchagacha jimib qolishdi.

– Bug‘doyni sizga kim olib kelib berdi? – dona-dona qilib so‘radi militsioner.

– Safar soqovning o‘g‘li bilan yana bir mo‘ylovli shopir, – dedi kampir alla-nima sezganday.

– Qachon olib kelishdi?

– O‘tgan kuni.

– Ular bilan qachondan beri aloqa qilasiz?

– Qanaqa aloqa?

– O‘zini go‘llikka solyapti, – Turdibekka qarab dedi militsioner,

Bu kishining ular bilan aloqasi yo‘q. Ular olib kelishgan, kampir sotib olgan, – dedi Turdibek to‘g‘risini aytib.

– Siz ishni pachava qiladigan ko‘rinasiz, shekilli. Qayerdan bilasiz aloqasi bormi, yo‘q? – Turdibekka yovqarash qildi u.

Turdibekning dami ichiga tushib, jimib qoldi. Kampir zo‘rg‘a yutinib qo‘ydi. Yutinganda ko‘zlari yiltillab ketdi.

– Eng muhimi kalavanning uchini topdik, buyog‘i hech gap emas, – o‘zicha ga-pirininib, nimalarnidir yozardi militsioner. Yozuvi tugagach, kampirga ruchka berib qo‘l qo‘ydirdi.

– Ertaga ertalab rayonga, militsiyaxonaga borasiz. Bozorning shundoqqina ro‘parasida, – dedi militsioner kampirning qo‘liga to‘rtburchak shaklidagi qog‘oz tutarkan.

– Buni nima qilay, bo‘tam? – qog‘ozni ko‘rsatib so‘radi kampir.

– Bu chaqiriq qog‘ozi. Shuni olib borasiz. Agar bormay qolsangiz, o‘zingizga qiyin bo‘ladi, – ta‘kidladi u.

Kampir nimadir deb, javob bermoqchi bo‘ldi. Biroq, tiliga hech qanday so‘z kelmadi. Mehmon kuzatganday ular bilan iliqqina xayrlashdi. So‘riga taklif qil-gandi militsioner ko‘nmadi. Ular ketgandan so‘ng aql-hushini joyiga qo‘yib, voqeaning mag‘zini chaqa boshladi. Oxiri o‘zicha nimanidir tushundi-yu, ko‘zlari katta-katta bo‘lib ketdi. Iztirobda butun vujudi yonardi.

---

Podaqaytar mahali bo‘lib qolgan edi. Kampir echki bilan sigirni ajratib kelish uchun podaning yo‘liga chiqmoqchi bo‘ldi. Lekin turolmadi. Bir amallab sudralib uyga kirdi.

... Shu kuni ilk bor govmish bilan echki boyloqsiz qoldi. Kampirning ko‘zini shamg‘alat qilib, o‘zini bedapoyaga uradigan echki ostonadan jilmadi. Elini to‘lib ketganidan oyoqlari tarvaqaylab, bor ovozi bilan ma‘radi. Shu kuni ilk bor buzoq ham onasini emolmadi. Mushuk uxlab yotgan kampir atrofida o‘rmlashardi. Govmish og‘il bilan ostonaga o‘rtasiga borib kelardi. Ular shu alpozda tong ottirishdi.

Ertalab baliqlar buloqda g‘ujg‘on o‘ynaganicha qolaverdi. Musichalar ostonada to‘planib, nimanidir kutishardi. Echki erta-indin kampirning yettisiga so‘yilishini bilgandek, hovlini boshiga ko‘tarardi...

Sutni olib ketish uchun kelgan Safargul avval kampirni chaqirdi. Javob bo‘lmagach, eshagidan tushib, musichalar galasini uchirganicha uyga kirdi. Kirdi-yu, dodlaganicha qaytib chiqdi.

Quyosh mashriqqa og‘ishi bilan beg‘ubor osmonni to‘ldirib uchib kelgan kap-tarlar galasi qirga qo‘nmadi. Ular yarim tunda ham uyalariga qaytmay, qishloq ustida aylanib uchishardi.



# Nodir Normatov

(1950-yilda tug'ilgan)



Nodir Normatov 1950-yil 24-dekabrda Surxondaryo viloyati Sherobod tumanining Poshxurt qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1972). Dastlabki kitobi – «Ko'hitang hikoyalari» (1977). Yozuvchining «Jazo» (1981), «Ismoil tog'aning tarozisi» (1982), «Jarlikdan qushlar uchdi», «Bisot» (1986), «Daraxt tagidagi odam» (1988), «Kamalak yashaydigan uy» (1990) kabi asarlari, «Barigal» (1991) romani nashr etilgan.

«Sharq miniatyuralari maktablari» kitobi mualliflaridan biri.

Uning «Tomosha» qo'g'irchoq pyesasi Jizzax qo'g'irchoq teatri jamoasi tomonidan ingliz tilida Amerikaning Nyu-York, Nyu-Jersi kabi shtatlarida namoyish etilgan. «Omonxona mo'jizasi», «Behzod vorislari», «Beshik» (2005) hamda «Malik Nabiyev», «Chingiz Axmarov», «Poshxurtning oltin poydevorlari» (2006), «Boysunlik Gyugen» (2007) kabi hujjatli filmlar ssenariysi va matnini yozgan.

K. Paustovskiyning «Isaak Levitan», Nozim Hikmatning «Lomakon» singari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

## BIR KUNI CHUMOLI BO'LIB...

«Siz nega kasalxonada yotibsiz», deysizmi? Do'xtirlar oshqozoning zaharlangan deyishdi. Nega, qanday qilib – hayronman. Ochig'ini aytganda, men tabiatan ziyofatlardan qochib, nafsiga qanoat qilib yuradiganlardanman. O'sha kuni bor-yo'g'i bir bo'lak qotgan non yegan edim. Balki, o'sha, giyohi behishtni qidiram deb, bo'lak o'tni yeganimdan shu ko'yg'a tushgandirman. Giyohi behishtni yeshitmaganman, dedingizmi? Men ham ilgari eshitmagan edim. Qishlog'imizda siz biz bilmagan giyohlar ko'p. Har gal qishloqqa borganimda qishloq boshidagi Dovulqo'rg'onni ziyorat qilib qaytaman. U yerda chashmalar ko'p. Suv yorug'lik deyдилar, shuning uchunmi, u yerda negadir ruhim yayrab ketadi. Bir kuni shu

tomonga ketayotgan edim. Yo'lni kalta qilish maqsadida, qabriston yaqinidan o'ta boshladim. Atrofni o't-o'lan bosib ketgan eski qabrlar o'yilib, cho'kib qolgan, yangidan do'ppayganlari ham ko'zga xunuk ko'rinadi. Qabristonga o'tishdan avval so'qmoq pastida, shundaygina yo'l yoqasida chuldirab turgan chuqur chashmaga tushdim. Chashmaning suvi oz bo'lsa ham bir parcha yerni ko'kazak qilib turardi. Hovuchimga suv olib ichdim, rohatlanib bosh ko'tardim-u, buloq chekkasida bo'yi bir qarich keladigan giyohga ko'zim tushdi. Shung'ula bo'lsa kerak, degan xayol bilan uzib olgancha, do'nglikka ko'tarildim. Qabriston yonboshida bahorda ko'karib, endi quvrab qolgan chimzor ko'rindi, men shu yerdan o'tarkanman, buta yonida chumolilar qatnovini ko'rdim. Yo'lovchi chumolilar shu qadar ko'p edi-ki, ularni elektron mashinasi ham sanab ulgurmasa kerak, deb o'ylysiz. Shu xayol bilan qo'limdagi giyohni og'zimga soldimu, birdan qulog'im shang'illab ketdi. Miyamga qon urildi, gandraklab ketdim. Chumolilar o'tayotgan yo'l yonida cho'kkalab o'tirib qolgach, o'zimga keldim. Ammo, qizig'i shundaki, qulog'imga turli-tuman, muloyim, ingichka ohang-tovushlar eshitila boshladi. Bu tovushlar xuddi buzuq telefon dastasidan ulanib qolgan begona kishilar suhbatini eslatardi. Men avvaliga, nima bo'lyapti o'zi, deb atrofga alangladim, ammo, hech kimni ko'rmadim, shundan so'ng bu chinkillab so'zlashayotganlar – chumolilar ekanini payqadim. Ularni xuddi tushda ko'rayotganday edim.

Chumolilar bir-birlariga «horma», «bor bo'l», «quvonching ko'paysin», «senga ham shuni tilayman» qabilida murojaat qilib o'tishardi. Ularning o'ng tomonga ketayotganlari don-dun, qiltiq-xas tashib borishardi. Qarama-qarshi tomondan ketayotgani esa, aftidan yuklarini qo'yishib, yana ishga, ozuqa tashishga ketishardi. Men g'ujg'on bo'lib o'tayotgan bu mitti jonivorlarning yukli-beyuklari bir-birlariga halaqit bermay, ya'ni ko'cha qoidalarini buzmay o'tayotganlariga qoyil qolib ketdim. Bu qatnov yo'lda birorta betartib, bo'lak yo'l solib ketayotgan qonunbuzar mutlaqo ko'rinmasdi. Ayniqsa, yukdan bo'shagan og'izchalarini yengilgina silkitib, salom berib o'tayotgan yosh chumolilarni aytimg. Xullas, bu tartib-qoidani ko'rib, beixtiyor «qoyil» deb yubordim.

– Nimasiga qoyilsan, ey odamzod? – degan tovush eshitildi yaqinimdan.

Men bundan shoshib qoldim, ko'z-qirim bilan sekin-asta tovush egasini izlay boshladim.

– Mana, men bu yerda, oyog'ing oldidaman, hushyor bo'l, tag'in ezib qo'y-magin, – dedi yana o'sha tovush egasi.

Ana shundan so'ng, men og'zidan yukini qo'yib turgan sariq chumolini ko'rdim.

– Bilaman, sen chumoli tilini tushunib qolganingga hayron qolayotirsan, – dedi chumoli. – Buning sababi shuki, sen buloq bo'yida o'sgan giyohi behishtdan egansan. Boya buloq bo'yiga borgan qavmlarimdan biri yeyayotganingni ko'rgan ekan. Endi sen, to quyosh botgunicha tilimizga tushunib, biz bilan so'zlashish quvvatiga egasan... Xo'p, qani, sen javob ber-chi, nega o'z-o'zingdan «qoyil» deb yubording?

Men haliyam chumolining gapiga tushunishdek mo'jizaga aqlim bovar qilmanimdan, tilim lol edi. Nihoyat, tupugimni yutib, javob qildim:

– Nega qoyil qolmay? Shunday tig'iz yo'lda, buning ustiga qarama-qarshi qatnov bo'la turib, birorta ham chumoli to'qnashib ketmayapti.

– Gapingga tushundim, – dedi chumoli, – sen chumoli yo'lini odamzod yo'li bilan taqqoslayapsan-da. Odamzod keng yo'lda, ko'cha harakatlari belgili-qoidali bo'lishiga qaramay, bir-biri bilan bari bir to'qnashib yuradi. Shundaymi?

– Sen buni qayerdan bilasan, – dedim og'zim ochilib.

– Nega bilmayin. Sen ko'rib turgan bu chumolilar oddiy emas, biz asli odamzod qavmidanmiz.

– Shunaqa degin, – dedim men uni kalaka qilmoqchi bo'lib, – qani, mundayroq tushuntirib ber-chi? Balki, Xudo loyimizni bir joydan olgan chiqar?

Chumoli yonidan yuk tashib o'tayotgan oriqqina chumolini to'xtatdi.

– Hurmatli boshliq, – dedi boshchasini qimirlatib, – Menga quyosh botguncha ruxsat bersang. Odamzodga ul-bul narsani tushuntirsam.

Oriq chumoli javob qildi.

– Senga ijozat, donishmand.

Chumoli boshliq shunday dedi-yu, yo'lida davom etdi. Men chumolilar boshlig'ini har qalay juda o'zimizdagi singari hashamatli xonada, yumshoq kreslodada o'tirishini tasavvur qilmagan esamda, har qalay biror uya-omborning chekkasida o'tirib, qatnovni, keldi-ketdilarini hisobga olsa kerak, deb o'ylagan edim. Ajabki, ularda boshliq fuqarosi bilan teppa-teng ishlar ekan.

Boshliq chumoli ko'zdan g'oyib bo'lgach, ishchi chumoli yana tilga kirdi:

– Ey, odamzod! Biz sizning qavmingiz bo'lamiz, desam, ishonmading. Endi eshit! Gap shundaki, biz mana shu qabristonda yotgan marhumlarning tirikligida ishlatilmay qolgan miyalaridan chumoliga aylanib chiqqanmiz. Inson suratida yurgan paytlarimizda, insonlik haq-huquqimiz teng bo'lsa ham, uni suiiste'mol qilganmiz, ya'ni bir-birimizning ko'zimizga cho'p suqib yashaganmiz. Mana endi chumoliga aylanib qolganimizda, o'sha xatolarning o'rnini bosish uchun o'zimizning temir qonunlarimizni yaratganmiz. Bu qonun hammaga barobar. Biz qonunni insonchalik suiiste'mol qilmaymiz. Chumolilarning birdan-bir maqsadi shu.

Men hali ham chumolining gaplariga ishonmay turardim.

– Bo'lmasa nega sizlar inson tilida gapirmaysizlar? – deb uni mot qilmoqchi bo'ldim.

Chumoli menga shunday dedi:

– Inson tili, bu shartli, o'zi o'ylab topgan tovushlar yig'indisi. Bizning tilimiz esa tabiiy sezgilar asosiga qurilgan. Butun tirik mavjudotning tili – bu sezgilar. Inson ham bu sezgidan mahrum emas. Ammo, u dunyoning mayda-chuyda ishlariga shunchalik berilib ketganki, natijada sezgilardan mahrum bo'lgan.

– Sen qanaqa mayda-chuyda ishlarni nazarda tutasan?

– Mana aytaylik, qog'ozbozlik, behuda rasmiyatchiliklar. Yoki gapim noto'g'rimi?

Men nima deyarimni bilmay, yelkamni qisdim.

– Inson miyasidagi son-sanoqsiz sezgilar ishlatilmasa, harakatga keltirilmasa, ular g‘aflat uyqusida qola beradi. Biz miyadagi ana shu sezgilardan yaralgan chumolilarmiz.

Men chumolining bu gaplaridan dahshatga tushdim. Meni chumolining bu qadar zukkoligi o‘ylantirib qo‘ydi. Qayerdan biladi u bunday gaplarni? Yoki u birorta mashhur donishmandning aqlidan yaralganmikan? Ammo, bizning qishlog‘imizda katta donishmandlar o‘tganini eshitmaganman. Shuning uchun bu gapni ehtiyotkorona so‘radim: «Sen bunday gaplarni qayerdan bilasan?»

– Nega bilmayman. Eng zo‘r kitoblarni bitgan qancha-qancha buyuk zotlar bu qaro yerda yotibdi. Biz – odamzod qavmidan bo‘lgan barcha chumolilar bir-birimiz bilan muloqotda bo‘lishga intilamiz.

– Nega kerak sizga bu muloqotlar? – dedim.

– Nega, deysanmi? Hech bo‘lmaganda, insonlikda qilgan xatolarimizni, gunohlarimizni anglash uchun. Keyin, ba‘zida senga o‘xshagan giyohi behishtni yegan insonga bilganlarimizni yetkazish uchun.

– Giyohi behisht yeganlar tez-tez uchraydimi? – deb qiziqib so‘radim.

– Yo‘q, – dedi chumoli afsuslanib. – Eng yomoni shundaki, necha yillar, necha oylar davomida bitta-yarim kishi bu giyohni uchratadi. Lekin ularning ba‘zisi bizning gapimizga ishonib, ba‘zisi ishonmay ketadi. Shunday bo‘lsa ham biz o‘z bilganlarimizni yetkazishga urinamiz.

– Shu qishloqdan yaqin yillar ichida biror kishi giyohi behisht yeb kelgan joyi bormi?

Chumoli o‘ylanib qoldi.

– O‘tgan yili Mo‘min lov-lov degan kishi kelgan edi, – dedi u. Men beixtiyor, savdoyi, paydar-pay gapiradigan Mo‘min akani esga oldim.

– Axir u esli-hushli odam emas-ku? – dedim chumoliga.

– Nega shunday deysan. Axir sen ham odamlarga «men chumolilar tilini tushunib, ular bilan gaplashdim», desang, ular seni ham esi yo‘qqa chiqarishmaydimi?

Shunda men Mo‘min lov-lovning gaplarini esladim. U agar biror kishi qurt-qumursqaga azob berganini ko‘rsa, darhol yo‘lini to‘sardi.

– Qurt-qumursqa ham Xudoning bandasi. Uning ham senga o‘xshab joni bor. Tegma ularga, – derdi.

Men endi chumolining haq ekanligiga iqror bo‘ldim. Chumoliga ko‘zimni tikkancha, o‘ylay boshladim. Mana shu jonivor qaysi zotning miyasidan yaralgan ekan. Balki men o‘sha zotning avlod-ajdodlarini toparman. Chumoli bu savolga javob berishdan qat‘iy bosh tortdi.

– Bunga biz chumolilar qasamyod qilganmiz, – dedi u.

Men undan yana nimalarni so‘rashni o‘ylay boshladim.

– Senga ikkita taklifim bor, – dedi chumoli. – Birinchisi shuki, xohlasang, chumolilar uyasiga seni taklif qilaman.

- Borishga borardimu, lekin men chumoli uyasiga qanaqasiga sig‘aman?  
– Gavdang shu yerda qolaveradi. Men senga oyoq tegizishim bilan miyang chumoli shakliga aylanib, men bilan birga keta beradi.

Men shu yerda qo‘rqoqlik qildim – miyam gavdamni tashlab ketishini sira xohlamasdim. U yerda menga nima bor, gavdam beega qolsa? Axir unga qancha mehnatim singgan. Onam to‘qqiz o-yu, to‘qqiz kun qornida ko‘targan, sakkizga kirganimga qadar oq yuvib, oq taragan bu gavdani. Mana, yigirma sakkiz yilki, uni men avaylab kelaman. Shunday bo‘lgach, qanday qilib gavdamni bekor-dan-bekorga, to‘satdan tashlab keta olaman.

Chumoli xayolimdan o‘tgan gapni fahmlagandek, shunday dedi:

– Bari bir odamzodligingga bording. Gavdangni tashlab ketishga ko‘zing qiy-mayapti. Mayli, bo‘lmasa, ikkinchi shartni eshit. Sen o‘zing haqingda bilganla-ringni, ko‘nglingda neki dardu o‘ylaring bo‘lsa, barini aytib berasan. Balki, men sening biror dardingga malham bo‘larman.

Men ochig‘ini aytganda, undan katta mo‘jiza kutgan bo‘lsam bordir, lekin bunaqa taklifni eshitaman deb o‘ylamagan edim. To‘g‘ri-da, men o‘zimni muxbir-likka urganimdan beri hammaning dardini tinglashga majbur bo‘lganman. Ammo, men-chi, meni kim tinglaydi, buni hech kim o‘ylamaydi. Hozir esa, shunday bir qulay imkoniyat bor ekan, nega men bundan foydalanmasligim kerak ekan. Axir dardini to‘kkan odam yengil tortadi, deyishadi-ku. Axir Iskandarning shoxi borli-gidan voqif bo‘lgan satarosh bu sirni hech kimga ayta olmay, oxiri quduqqa aytib, yengil tortgan-ku.

Xullas, men ko‘p o‘ylab o‘tirmay, o‘zim haqimda bilganimcha ochiq-oshkor gapira boshladim.

Chumoli mening gapimni birpas tinglab turdi-da, «qo‘y, bunaqa tarjima holni. Meni tuyg‘ularingning tarjimai holi qiziqtiradi. Sen shundan gapir», dedi.

– Qo‘ysang-chi, bu juda qiyin masala, – dedim unga. – Sen uni tushunarmi-ding.

– Mayli, aytmasang-aytma, – dedi chumoli.

Lekin men aytmadan qo‘yarmidim? Axir tuyg‘ularimning tarjimai holini, ularning tug‘ilishlari-yu, yo‘q bo‘lishlarini chumolidan bo‘lak kimga ham aytib bo‘lardi? Nega deysizmi, axir men ham hamma qatori o‘z tuyg‘ularimni yashirib yuraman-da. Ba‘zan, ichgan mahallarim, ularni xotinlarning bezagi kabi ko‘z-ko‘z qilishga oshiqaman. Sho‘rlik tuyg‘ular ana shunday qilib egasining qachon saxiy-lik qilib ozodlikka qo‘yib yuborishini har doim sabr-toqat bilan kutishgani-kutish-gan. Bisotimda qolgan tuyg‘ularni olib qaray-chi, deb o‘yladim. Mana, odam-zoddagi ilk tuyg‘u bu, u o‘zligini anglashdan boshlangan, shekilli. Bu tuyg‘uning shakli ignaning uchidek keladi, ammo, oltindek toza, qaragan kishining ko‘zi qa-mashadi. Menda bu tuyg‘u tug‘ilganida yoshim to‘rtlarda edi. O‘sha paytlarda yoshim nechadaligini bilmasdim, albatta. Xotiramda hovlimizdagi katta to‘y-sho-diyonalar manzarasi bir umr parchinlanib qolgan. Keyin bilsam, ikki akamning

qo'shaloq sunnat to'yi bo'lib, o'sha paytda ularning biri sakkizda, ikkinchisi olti yoshda ekanlar. Ana shunday hisob-kitob qilinsa, men albatta to'rt yoshda bo'lam. Xullas, o'sha kuni men kimdir o'rgatgan qo'shiqni takrorlar edim:

Jiyda qoqay to'yingda,

Jiyda qoqay to'yingda.

To'yda nima uchun jiyda qoqish kerak, buning ma'nosi nima, rosti, haligacha bilmayman. Keyin, qo'limga qayerdandir sho'rva solingan sopol tovoq tushib qoldi. Uni kimgadir, qayergadir elta turib, gilam ustida o'tirganlarning biriga to'qnashib ketdim. Qo'limdagi tovoq tushib, sho'rva bir odamning yelkasiga to'kilib ketdi. U odam ko'kragini changallab, o'rmidan turdi, menga esa, «qo'y, yig'lama» deb zo'rma-zo'raki jilmayib qaradi. Uning qiyofasidagi og'riq aralash meni avf etgan ifodani shu vaqtgacha unutmayman. Men yillar o'tib unga (u xolamning o'g'li edi) o'sha voqeani eslatganimda, u «rost, shunday bo'lgan edi, sen to'kib yuborgan sho'rvadan mana bu yerim kuygan edi», deb, ko'ksidagi chandig'ni ko'rsatdi. Men xijolat chekkanday bo'lib, uning ko'zlariga tikildim va bu ko'zlarda bir paytda meni avf etgan muloyim ifodani ko'rib qoldim. Mana shundan beri yuragimda unga nisbatan minnatdorchilik tuyg'usi yashab keladi. U mening qalbimga nur, yuragimga quvvat beradi.

Men xayolan yetti-sakkiz yasharlik paytimga qaytaman. Lablarimda beixtiyor anorning, oluning ta'mi paydo bo'ladi. So'lagimni yutib, paxsa devordan oshib, ikki-uch anorni uzib, maykam ichiga joylayman. «Qani bo'l, ketdik», – deydi ham-rohim. Bir mahal yonginamizdan, «To'xta!» degan tovush eshitaladi. Sherigim bir zumda devor kemtigidan oshib, juftak rostlaydi. Men esa endi qochmoqchi bo'lganimda, kimningdir ombirdek qo'llari bo'ynimni qisadi. Bir dam nafasim chiqmay qoladi. Keyin o'sha qo'llar meni oldinga itqitib, maykam ichidan uch dona anorni chiqarib oladi. Men endi ro'paramda shop mo'ylovli, shokosadek chiqqan ko'zlarni ko'raman. Bu – kolxoz chorbog'ining qorovuli G'ani edi. U meni bir tup yong'oq tagiga boshlab, do'ppaygan bir qabrni ko'rsatib, shunday deydi:

– Mana, ko'rdingmi? Men mana shu yerda bir odamni so'yib, ko'mganman. Mana endi seni ham so'yaman.

U shunday deb yonboshiga osilgan uzun pichoqni qinidan sug'uradi. Pichoq quyosh nurida bir yarq etadi-yu, men taxtadek qotib qolaman. Esimda qolgani shu. Ertasi ko'zimni ochib qaragam, uyda yotibman. Men tirik ekanligimga ishonarishonmay ko'rpani, keyin boshimni ushlab ko'raman.

– O'zimning bog' to'la anor bo'lsa, nima qilarding bolam, o'sha yerga borib, – deydi onam.

– Bola-da, bola, – deydi momom, – o'g'lingga ko'proq ish buyurib turgin. Bekorchilikdan bola bechora nima ish qilishini bilmay zerikkan-da. Og'zidan qoni kelgur G'ani moxov bolani shunday qo'rqitadimi?

Men shular haqida gapirar ekanman, chumolidan o'sha marhum G'ani akani tanish-tanimasligini so'radim. Axir u ham mana shu qabristonga ko'milgan.

– Ha, taniyman, – deb javob qildi chumoli, – Bilasanmi, uning uch yuz yil avval o‘tgan bobokalonlarining kasbi jallod bo‘lgan, G‘ani akang qoniga tortib, ota-bobosidan o‘tgan qo‘l xotirasi bilan pichoq o‘qtalib, senga shunchaki do‘q-po‘pisa qilmoqchi bo‘lgan.

– Demak, hali uch yuz yil avval manfur kasb bilan shug‘ullangan ota-bobosi uchun G‘ani aka ham yomonotliq bo‘lib yuribdimi? – dedim.

– Nachora, – dedi chumoli. – Qonni, irsiyatni birdan tozalash qiyin... Yana bir sirni aytishim mumkin.

– Qani eshitaylik-chi?

– Boya oldimizga kelib to‘xtagan boshliq chumoli G‘ani aka edi, bilsang.

Men bu safar hangu mang emas, xafa bo‘lib ketdim.

– Nahotki, – dedim unga, – shunday badjahl odam sizga boshliqmi? Bu yerda ham u yo‘lini topibdi-da.

– Unday emas, – dedi chumoli. – Bizda eng ko‘p ishlagan kishi boshliq qilib tayinlanadi. G‘ani aka insonligidagi gunohlarini yuvish uchun hammadan ko‘p yelib-yuguradi, sho‘rlik.

– O‘zing boyagina irsiyatni tozalash qiyin deding-ku. Nahotki, u yuvosh tortib qolgan bo‘lsa.

– Biz chumolilar inson miyasining faqat ezgulik qismidan yaralamiz, – dedi chumoli. – Bunga shubha qilmasang ham bo‘laveradi. Yaxshisi, sen hikoyangni davom ettir.

– Yaxshi, – dedimu, ko‘nglimda mavjud tuyg‘ular tarjimai holini birma-bir ayta boshladim.

– Bilasanmi, sen menga tovush chiqarib, gapirib o‘tirma. Yaxshisi, xayol sur. Xayolingdan nimalar o‘tganini men anglab turaman. Faqat buning uchun oyo-g‘ingga sal tegib tursam, bas, – dedi chumoli.

– Mayli, – dedim men. So‘ng, tizzamni quchoqlagancha, uzuq-yuluq xotiralarni eslay boshladim.

Bolalik xotiralarida eslasa eslagudek voqealar juda ko‘p. Ammo, shunday voqealar borki, ular xayol ko‘zgisida xuddi g‘ilofga solingan kinotasmadek tayyor turadi. Istalgan daqiqada ular xayol ekranida lir-lir etib, qayta jonlanadi. Balki, payti kelib, ko‘ngil ekranidagi bu tasvirlarni yozib oladigan magnit tasmasi o‘ylab topilar. Men shuni xayol qilaturib, beixtiyor bolalik xotiralarini yozilgan xotira tasmasini tomosha qila boshladim.

Ana, paxsadan qilingan ikki xonali uy. Dahliz va oromgoh. Haligacha ham o‘sha uy men ko‘rgan barcha uylardan issiq, shinam, keng, go‘zal tuyula beradi. O‘sha ikki xonali uyda sakkiz jon yashasak-da, kengu mo‘ldek tuyulardi. Oradan yillar o‘tib, men olti kishilik oilam bilan uch xonalik issiq-sovuq suv, qulay ho-jatxonasi bor uyga arang sig‘ishimizni o‘ylab, hayron bo‘laman, buning sababini ko‘p o‘ylayman, ichim siqiladi. Balki bu jumboqni menga chumoli yechib berar.

– Sen yerdan ajrab qolyapsan, – deydi chumoli noxosdan. – Yer taftini his qilib turmagan har qanday tirik jonga osmonu falak ham torlik qiladi.

«To'g'ri aytding, chumoli» deyman ichimda. Kecha qizim uyimizning qaysi bir xonasi devorlariga qalamchizgilar qilganiga xotinim ozmuncha urishdimi? Men xuddi shu yoshda, olti yoshimda uyimiz devoriga akalarim o'rgatgan ismimni pichoq bilan o'yib yozmagan edimmi? Buni bexosdan onam ko'rib qolib, «bolam, devorning ham joni bor, uni pichoq bilan tilsang, joni og'riydi» demaganmidi? Hozir ham bag'ri tiralgan devor yoki toshni ko'rib qolsam ko'nglim uvishib ketadi. Men bolalarimda ham rahm-shafqat tuyg'usi tug'ilishini juda-juda xohlayman. Axir ezgu-tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'la bermaydi. Ular inson qalbida g'aflat uyqusida yotgan bo'lsa uyg'otish, mavjud bo'lmasa yaratish lozim emasmi, – deb o'ylayman. Meni kechalar ko'proq mana shu muammolar bezovta qiladi. Ayniqsa, yerga, tabiatga muhabbat tuyg'usi bo'lmagan inson har qanday jinoyatga qodir ekanligini o'ylayman.

– Ko'p o'ksinma, – deb fikrimni bo'ldi chumoli, – sen chumoliga aylanganingda faqat tabiatni dilingga jo aylab yashaysan. Yaxshisi, menga ayt-chi, seni nimalar tashvishga soladi, shular haqida gapirgin. Chunki, vaqtimiz ziq. Ana, qara, quyosh botishiga oz qoldi.

– Nima desam ekan, senga. Agar tilla baliqdek, sen ham tilla tilagingni, deganingda, boshqa gap edi. Tashvish-hasratimni birovg'a aytishga o'rganmaganman. Shuning uchun do'stu dushmanlarim meni «bu ichidan pishgan, juda pismi», deyishadi. Balki ular haqdir. Lekin men bir donishmand aytgan gapga amal qilaman. U shunday degan: «g'amu hasratingni o'zingga qoldir, shodligingni do'stlaring bilan baham ko'r, nafratingni dushmanlaringga asra».

– Sening tashvishlaringga balki mening biror xizmatim asqotar. Axir men yer yuzidan ko'ra, yer ostida ko'p bo'lgan insonlar dunyosidan elchiman. Qolaversa, biz yorug' dunyoda yashayotgan qavmlarimizning qanday dardu tashvishlari borligini bilgimiz keladi.

– Sen faqat tuyg'ularnigina tushunishga qodir ekansan. Shuning uchun yana mendagi ikki-uch tuyg'uning tarjimai holini gapirib beraqolay. Balki shunda sen meni jindek tushunib yetarsan.

Chumoli gapimni ma'qulladi.

Meni eng katta qiynoqqa soladigan narsa, so'z oldida javobgarligimdir. Hali-hali, bundan sakkiz yil muqaddam, uy berib qolishar, deb bir amaldorni maqtab yozganimni sira kechira olmayman. O'sha amaldor menga uyni o'z navbatim bilan berganida rahmat aytganim o'zimga alam qiladi. El qarg'ishiga uchragan o'sha odamni men «hurmatli falonchiyev» deb ataganim alam qiladi. U kishi men uchun ham, elu-yurt uchun ham hurmatli emas, qallob ekanligini men o'shandayoq bilgan edim-ku. Ba'zi kechalari o'sha so'z mening tomog'imdan g'irpa bo'g'adi, «nega sen meni o'sha yaramasga sotding, nega men xor bo'ldim» deb holi-jonimga qo'yamaydi. Ana shunda men o'ylab qolaman: o'zimga-o'zim xiyonat qilishdek bu illat menda qayerdan paydo bo'ldi, o'zi? O'sha birgina beqadr bo'lgan so'z, o'sha so'z meni ko'pdan beri ta'qib qiladi. Qani sen ayt-chi, men qachon uning bu ta'qibidan qutula olaman?



– Bu darding bedavo, – dedi chumoli. – Sendan avval o‘tgan ahli donish ham, eng katta gunoh, bu so‘zni beqadr qilmoq, deganlar. Men buni chumolilar majlisida aytib ko‘rman. Balki biror fatvo topilar.

– Mendan faqat so‘z emas, tuyg‘um ham ranjigan. Bu voqea shunday ro‘y berdi: Men avvallari hech qachon bo‘lmagan bir shaharda yulduzi issiq bir oy yuzlari ko‘rib qoldim. Qizig‘i shundaki, men uni tanidim. U bilan bu umrim bino bo‘lganidan beri uchrashgan emasman, lekin negadir yuz yil, ehtimol, ming yil burun u men bilan birga yashagandek tuyuldi. Uni qoshu ko‘zidan tanidim. Ko‘zlari ming yillik xotirotning ifodasini aytib turardi. U ham meni ko‘zlarimdan tanib, to‘xtadi. Ikkalamiz ham sukut saqlab gaplashdik. So‘ng men to‘satdan xotinim... bolalarim borligini esladimu, o‘z tuyg‘umdan uyalib ketdim. Oy yuzliga mehrim tushishidan qo‘rqib, tuyg‘umni jilovlab oldim. Oy yuzlari, garchi u bilan oradan ming yillar o‘tib uchrashganimizga qaramay, tezda tark etdim. Tuyg‘umga esa, «ha, menda bir lahzalik zaiflik paydo bo‘ldi, u hozir o‘tadi-ketadi» dedim. «Yolg‘on!» deb qichqirdi tuyg‘u. – Sen qo‘rqoqlik qilding. Bu tuyg‘u meni bir necha kunlar ta‘qib qildi, yoqamdan olib, qanchalar so‘kkanini aytasang. Bir kuni u tongda meni tark etib, she‘rga aylanib ketdi. Uning dard-faryodi mana shu satrlarda jamuljam bo‘ldi.

*Oltin sukunatdan yaralgan dilbar  
Nurli nigohingdan ko‘zim qamashdi  
Andak bir hayo-ku, hisni jilovlar:  
Shoshma, der ul ro‘yo, ko‘zing adashdi.*

– To‘xta, to‘xta. Bu tuyg‘u bir seni emas, ko‘plarni ham bezovta qilib keladi, – dedi chumoli. – Balki u seni bir umr tergap, bezovta qilar. Qo‘y, u hech bo‘lmasa shu bilan alamidan chiqsin.

– Men bu tuyg‘uga o‘ta qattiqqo‘l bo‘lganimni tan olaman. Lekin meni boshqa bir tuyg‘u bois yuragim qo‘rqoq, titraydigan bo‘lib qolgan. Meni mana shu ko‘p tashvishga soladi.

– Ko‘rinishingdan hecham qo‘rqoqqa o‘xshamaysan-ku, – dedi chumoli. Ko‘nglingda ham qo‘rquv sezmadim.

– Yo‘q, bu gaping noto‘g‘ri, – dedim men. – Yaqinda tanishlardan biri menga, «sen qo‘rqoqsan» deb aytdi. U buni mushtlashish bahonasida aytdi. Men o‘zining qo‘rqoq emasligimni isbotlash uchun u bilan mushtlashdim. O‘sha kech uyga xursand bo‘lib qaytar ekanman, birdan ahmoqona ish qilib qo‘yganimni angladim. Axir, aslini olganda, men yuragimda ancha-muncha qo‘rquv sezaman. Uyim ko‘cha boshida, avtomashinalar tinimsiz o‘tib turadi. Bolalarim ko‘chaga chiqib o‘ynashsa, har safar ulardan xabar olaman. Ularning mashina yo‘liga chiqib ketishidan qo‘rqaman. Uyimizga issiq-sovuq suv, gaz, yana allaqanday quvurlar o‘tkazilgan. O‘tgan yozda ana shu quvur qudug‘iga eridan endigina ajralgan

yoshgina bir juvonning yakka-yu-yagona o'g'li tushib ketib o'ldi. Uning faryodini eshitganimdan beri, mening ham yuragimda qo'rquv paydo bo'lgan. Xotinim damqisma degan dardga giriftor bo'lgan. U to beshinchi qavatdagi xonamizga har chiqqanida, nafasi qaytib, juda qiynaladi. Men safarga ketsam, uyda qolgan xotinimu, to'rtta norasida go'dakni o'ylab, qo'rqib turaman. Ba'zan xotinim televizorni ko'rib, vahima qiladi: «Dunyoda oziq-ovqatdan ham ko'ra o'q-dori ko'p ekan», deydi. Uning vahimasi meni yana tashvishga soladi. Axir unga ortiqcha hayajonlanish mumkin emas. Nafasi qisadi-da. Ehtimol, ko'nglimdagi bunday qo'rquv tuyg'usini sen chumoli ko'rmayotgandirsan. U allaqachon ko'nglimda emas, qonimga singib ketgan. Bu qo'rquvlar oldida mushtlashish masalasi nima degan gap axir. Yana nima dey senga, chumoli. Ana, quyosh ham botib qoldi, vaqtimiz ham tugab qoldi.

Chumoli mening gaplarimni eshitib bo'lgach, shunday dedi:

– Bu qo'rquvning chorasini bilmadim, odamizod. Balki buni chumolilar majlisida ko'rib chiqarmiz. Agar javob topsam, albatta senga yetkazaman. Xayr, ana, quyosh botib ketdi. Xayr!

U shunday dedi-yu, ko'z oldimdan g'oyib bo'ldi.

Ana shundan beri chumolini uchratganim yo'q. Har gal qishloqqa borsam, albatta qabriston yo'liga o'taman. U yerdan o'rmalab ketayotgan har bir chumoliga diqqat bilan tikilaman. Tiriklik g'amida yurgan har bir chumolini «bu o'sha tanish chumoli emasmikan?» deb o'ylayman. Mana, necha yoz o'tdi, undan esa darak yo'q. Lekin uni umid bilan kutganim ham yo'q. Negaki, bir kunmas bir kun men ham chumoli bo'lib, uning oldiga jo'nayman...



# Xurshid Do'stmuhammad

(1951-yilda tug'ilgan)



Xurshid Do'stmuhammad 1951-yil 8-yanvarda Toshkent shahrida tug'ilgan. Tosh-DUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1973). Dastlabki kitobi – «Hovli etagidagi uy» (1989). Shundan keyin yozuvchining «Pano», «Oromkursi». «So'roq». «Sof o'zbekcha qotillik», «Mahzuna», «Ibn Mug'anniy», «Yolg'izim – Siz», «Ko'z qorachig'idagi uy», «Jajman» (1997) asarlari, shuningdek, «Hijronim mingdir mening» (2000) qissa va hikoyalar to'plami, «Bozor» (2000) romani nashr etilgan. «Hamid A'lamovning aytolmagan gaplari» xotira-essesi va «Jurnalist bo'lmoqchimisiz?» (2002) risolasi, «Chayongul» (2000) kinossenariysi muallifi.

A. Ryunoskening «Rasyomon darvozasi» hikoyasini, T. Po'latovning «Yetti huzurhalovat va qirq qayg'u-alam» romanini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

## VASIY

Oppoq, toza dasturxonga yo'rgaklangan chaqaloqni tizzalari orasiga yotqizib-tebratib o'tirgan juvon ayvonning lang ochiq derazasidan bo'ynini cho'zib hovliga qaradi. Quvalashayotgan bir juft musichani ko'rdi-yu, yo'rgakni avaylab ko'rpachaga yotqizdi, o'midan ildam turib kalishini oyog'iga ilganicha hovliga tushdi. Musichalar qanotini parillatib oldinma-keyin tomga ko'tarildi.

Juvon ayvon qatoriga solingan oshxonadan o'tdi, devor poyiga suyab qo'yilgan xokandozni ko'tarib, uning ostidagi supurgini oldi, xokandozni qayta joyiga qo'ydi. U musicha qo'ngan joyga keldi-da, oyoqlarini keng yoyib ikki bukilganicha go'yo yo'qolgan ignani qidirayotganday yerga tikildi, shu alfozda bir nafas turgach, tuproqdagi musicha izini topdi. Ko'ylagining etagini orqaga sirmab, o'sha yerni supurdi.

Hovli top-toza edi, supurgi kesak uvog'ini tirnab chiqardi. Juvon kesakni barmoqlari uchida avaylab ushlab ko'chib chiqqan joyini izladi. Topdi shekilli, uvog'ni joyiga qo'ydi, avval barmog'ining uchi, ketidan kalishining tumshug'i bilan tekisladi, supurgini yana bir sirmadi-da, oshxona tomon yurdi, borib xokandozni ko'tardi, supurgini joyiga qo'yib, ustidan xokandozni devorga suyadi.

Juvon ayvonga qaytayotib vodoprovod yoniga bordi, bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan jo'mrakni burab suvni jildiratdi, qo'lini sovunladi, yuvdi-sovunladi, sovunladi-yuvdi, so'ng tirsagini jo'mrak chamberagiga botirib uni burashga unnadi. Suv kamaysa-da, to'xtamadi, ko'ngli joyiga tushmagan juvon tirsagi bilan jo'mrakka tayangan ko'yi vodoprovod tevaragida gir-gir aylana boshladi: bir, ikki, uch... nihoyat, jo'mrak qotdi – suv to'xtadi. Juvon suv yuqi selgishini kutib qo'llarini yoniga osiltirdi, keyin boshi barobar ko'tarib quyoshga tutdi.

Botib borayotgan quyoshning laqqa cho'g'dek tilimi yashirinib ulgurmagan, uning haroratsiz, qizg'ish nuri atrofni yoritib turardi. Juvon shafaq yorug'ida yanayam oqarib ko'rinayotgan, tob tashlagandek qiyshiq va oriq barmoqlariga tikildi, qon talashganday qizarib ko'rinayotgan zich panjalari orasidan ko'z uzmay, panjalarini yoydi, so'ng kaft va barmoqlaridan suv selgib bo'lganiga ishonch hosil qilgach, shirillaganicha ayvon tomonga yurdi, kalishini yechib kavshandozning bir burchagiga tekisladi-da, ayvonga o'tdi, hovli sahniga ko'z yugurtirdi, xotirjam tortib, boya turib ketgan joyiga qaytib o'tirdi. U yo'rgakni tizzasiga yotqizib dasturxonning qayrilgan uchlarini tekisladi, qayta-qayta siypalashiga qaramay, bir chekkasi qayrilaverdi. Juvon ko'rpacha ostidan qaychi olib dasturxonning yig'ilib-qayrilib qolayotgan parchasini qirqdi, osilgan irlarni ham qaychiladi. Shundan so'ng ko'ngli taskin topib, yana yo'rgakni avaylab tebratishga kirishdi. U nimalardir deb pichirlar, dam-badam bo'ynini cho'zib hovliga razm solar, dasturxon chetlarini tortib-tortib chaqaloqning yuzini yashirishga tirishar, ayvon jimjit, ba'zan juvonning shiviri quloqqa chalinmasa, hovli ham jimjit edi.

Nogahon yo'lak tomonda nimadir «shapp!» etdi. Juvonning yo'rgakni siypalayotgan qo'llari asabiy qaltiradi. To'satdan hushini yo'qotgan odamday rangi quv o'chdi, lablarini qimtib birpas tin oldi. So'ng qaychini ko'rpacha ostiga yashirdi, yo'rgakni tizzasidan tushirib ohista ko'rpachaga yotqizdi, qaddini rostladi. Kalishini oyog'iga ildi-da, zinadan chaqqon tushib oshxona tomonga yurdi. Oshxonani yonlab borib supurgi bilan xokandozni ikkala qo'lga oldi, zirillaganicha qaytib, yo'lakka o'tdi. Yo'lakda nimadir «sharpp! shirpp!» etdi-yu, juvon u yoqdan chiqdi – xokandozni tutgan qo'lini oldinga cho'zganicha burnini jiyirdi, xokandozda esa yangi kelgan gazetalar bor edi.

Shu alfozda juvon hovli etagiga bordi. Oshxonaning orqa tomoniga burilib ko'zdan yo'qoldi. U talay fursat qaytib ko'rinmadi, sharpasi ham sezilmadi. Hovliga xavotirli sukunat cho'kdi.

... Uyning yopiq derazasi go'yo shu sukunatga xalal bermoqchi emasdek «qirs... s...» etib jur'atsizgina ochildi. Tavaqalar yarim-yorti ochilib ulgurmay...

Oshxona muyulishida juvonning qorasi ko'rindi. U supurgi bilan xokandozni avvalgi o'rninga qo'ydi, keyin... vodoprovod yoniga keldi. Bosh va ko'rsatkich barmoqlarining uchida jo'mrakni burab suvni ochdi, qo'lini ikki-uch qayta sovunlab, erinmay yuvdi, jo'mrakni tirsagi bilan qotirdi, so'ng kaftlarini boshi barobar ko'tarib botib borayotgan quyosh nuriga tutdi. Yoyib turgan panjalariga uzoq tikildi. Kaftlarini yuz-ko'ziga yaqinlashtirdi-uzoqlashtirdi, yaqinlashtirdi, yana uzoqlashtirdi. Ufqqa bosh qo'yayotgan quyosh nuri kaftlarining sirtidan singib ich tomonga silitib o'tayotganday, kaftlaridan o'tib ko'zlarini battar qamashtirayotganday bo'laverdi.

Shu payt uning nigohi ro'parasiga qadaldi. Ravish-holatini buzmay uzoq, sinchkov tikildi, so'ng birdan qo'lini quritayotganini unutib ayvonga yugurdi. Sarosimadan ko'zlari olayib, yo'rgak tepasiga keldi, qontalash shafaqning qirmizi nuri ravon romining yuqori ko'ziga tushib turar, oynadan sinib o'tgan bir tutam nur chaqaloqning ustini yoritgan edi. Juvon yo'rgakni dast ko'tarib uni narigi ko'rpachaga yotqizdi, so'ng o'sha tezlikda ayvondan tushib hovli etagiga yugurdi, u yerda omborxonada tomiga suyab qo'yilgan uzun narvonni yelkasiga qo'yib, iziga qaytdi. Chayqala-chayqala ayollarga xos bo'lmagan g'ayritabiiy kuch bilan og'ir narvonni lapanglatib ko'tarib keldi. Narvon uchini ravonning yuqorisiga qadar ko'tarib qo'yganida deraza ko'zi qarsillab ketdi. Juvon bunga parvo qilmadi, indamay-netmay zirillab narvondan ikki-uch pog'ona ko'tarildi. Narvonning uchi g'iyqillab bir yonga qiyshaydi.

... boya yarim-yorti ochilgan uy derazasi shiddat bilan, lekin shovqinsiz lang ochildi.

Juvon pog'onada turgan joyida bir siltanish bilan narvonni joyiga qaytardi. Shoshib-pishib yuqoriladi-da, ravon romining eng tepasidagi – shafaq nuri tushayotgan ko'zini qattiq-qattiq arta boshladi. Biroq oynaga hamon nur tushaverdi, juvon harchand artmasin, uni ketkazolmadi, to'xtab bir muddat tikildi – oynada xuddi suv yuzasida yoyilganday moy dog'lari ko'rinib turar – unda quyosh nuri jilvalanayotgan edi.

Juvon nurga shu qadar jon-jahdi bilan tikildiki, oynadan qaytgan shu'la uning ko'zlariga ignadek qadaldi, og'riqqa dosh berolmaganidan boshini siltab orqaga tortdi. Nogoh siltanishdan muvozanatni yo'qotgan juvonning gavdasi orqaga og'di – uch-to'rt quloch tepalikdan boshi bilan tikkasiga ag'darilib tushayotgan asnoda ham u ola-kula ko'zlarini oynadagi dog'dan – shu'la aksidan uzmad. U yiqilishidan emas, balki o'sha qizg'ish-qirmizi nurdan sarosimaga tushgan, vahimadan o'zini o'nglolmay qolgan edi.

... lang ochilgan derazadan hovliga bir yigit irg'ib tushdi. Tushdi-yu, oyog'i yerga tegayozganida munkib ketdi, o'zini bazo'r o'nglab yugurgilaganicha narvonga yetib keldi va jon holatda unga yopishdi. Yigit dag'-dag' qaltiragan qo'l-lari bilan narvonni tutgan chog'ida juvon muvozanatini tikladi, hech narsa yuz bermagandek tik turganicha boyagi-boyagi – oynani artaverdi, oyna esa top-toza,

gard-g'uborsiz, hatto quyosh yanayam ufq ortiga cho'kkanidan qirmizi shu'la ancha yuqoriga siljigan, deraza ko'ziga tushmayotgan edi.

Juvon oynani hali uzoq tozalaydigandek bir maromda harakat qilayotganida yigitni ko'rdi. Rangi quv o'chdi, oyoq-qo'li bo'shshib, narvonga holsiz suyandi, oyna artayotgan lattasi cho'zilib osilib qoldi. Keyin o'zi imillab tusha boshladi.

Yana vodoprovod jo'mragi buraldi, qo'llar yuvildi, tirsak bilan jo'mrak qotirildi-da, juvon kaftlarini quyosh botib ketgan tomonga tutdi. Uning uzun-uzun, qoq suyak barmoqlari ola-chalpoq yorug'da jonsizdek ko'rinar, o'zi kaft va barmoqlaridagi naqshin chiziqlardan asabiylashar, o'jar nigohi bilan ularni silliqlagisi kelar, ayni chog'da narvon yonidagi yigitga g'ijinib ko'z qirini tashlab qo'yardi.

... nimjon, maykachan, sochlari to'zigan rangpar yigit miq etmay unga mo'ltayib turaverdi.

Tahluka va xavotirdan gezarib ketgan juvon qo'lini orqasiga yashirdi, yugurib ayvonga chiqdi, yo'rgakdagi chaqaloqni dast ko'tarib bag'riga bosganicha o'zini ichkari uyga urdi.

... narvonga suyangan ko'yi juvonnini kuzatayotgan yigit yurishga chog'landiyu, o'rnidan jilmadi. U, juvon eshik tirqishidan o'zini kuzatayotganini sezmaganday ko'rsatib boshini xam qildi. Xiyol fursat o'tkazib, ehtiyotkorlik bilan eshik tomonga ko'z qirini tashladi. Juvon ko'rinmadi. Yigit yalang oyoqlarining uchida bir-bir qadam bosib ayvonga chiqdi. Bo'sag'aga yetgan joyida nimaningdir «g'irch, g'irch»lashini eshitib, taqqa to'xtadi...

– Seni mendan olib qo'yishmoqchi!

– Men sening bolangman-ku.

– Ne-echta tug'dim-a!.. Tug'aman – ular olib qo'yadi, tug'aman – olib qo'yaverishadi. Ozmunchasini yo'qotdimmi?! Seni bermayman!..

– Meniyam tortib olishsa-chi?

– Unda yana tug'aman. Agar endiyam erga berishmasa-chi, o'zimmi mana bunaqa qilib qiyib tashlayman! Ko'ryapsanmi?..

...yigit jon xalpisida eshikka yaqinlashib ko'zini tirqishga bosdi...

Xona to'ridagi taxmonga o'girilib o'tirgan juvon tizzasidagi chaqaloq o'ralgan dasturxon – yo'rgakni buydaladi, silab-siyपालadi, bir yo'la yuzi yopiq chaqaloq bilan gaplashaverdi:

– O'zingni qiysang meni kim boqadi?

– Voy, tilingdan aylanay, ularga qolsang yonboshiga bosib o'ldirib qo'yadi.

Berib bo'libman!

– Bo'lmasa, ularning o'zini qiyib tashlay qol!

– Damingni chiqarma, yashshamagur! Qiyaman! Hammasini qiyaman. Hovlida yolg'iz qolsam-chi, darvozani tambalab qo'yib tug'averaman, tug'averaman. Hammalaringni qator-qato-or yotqizib jonimni bo'li-ib-bo'li-ib beraman, qoqindiq!.. Hu-uvv!.. Hu-uvvv!.. Ulardan – zolimlardan qachon qutilaman? Qutilamanmi?!.. Hu-uvv!.. Hu-uvvv!..

Yo'rgak ustiga duv-duv ko'z yosh to'kila boshladi. Lekin juvon yig'idan tez to'xtadi. Ulg'ayib qolgan farzandini ro'parasiga o'tkazib olib unga xotirjam nasihat qilayotgan onadek vazmin gapirdi:

– Sen ko'p vaysama. Yuzingni ochma. Xo'pmi?.. Ular ovozingni eshitsa, seni olib qo'yishadi. Sensiz holim nima kechadi? Seni qayerdan topaman yana?

– Bo'lmasa, yashirib qo'y.

– Tovushingni chiqarma deyaqman! Izimdan yuradi ular, meni o'z holimga qo'yishmaydi... Eshitib qolsa uyim kuyadi, vayron bo'laman!

– Yashir, tezroq! Shoshilsang-chi!

– Menga o'rgatma, deyaqman! Nima, yashirishga aqlim yetmaydimi? Yetmaydimi!.. Mana!.. Mana!..

Juvon o'rnidan dik etib turdi-da, uy ichida charx urib, gir-gir aylanishga tushdi. Birdan to'xtadi, izlaganini topdi shekilli, tokchaga to'shalgan oq qog'ozning chekkasidan ushlab qattiq tortdi. Ustma-ust terilgan piyola, choynak va likobchalar oyoq ostiga sharaqlab tushdi.

...poygakda turgan yigit uy ichiga otilib kirishdan o'zini bazo'r tiydi. Holsizlanib, eshik kesakisiga suyandi. Uning oyoq-qo'lidan majol ketgan, asabiy qaltirar, lekin ko'zlari hamon sergak, hushyor ham mehrli boqar edi...

Yo'rgak ustiga sochilgan chinni parchalarini kafti bilan surib tashlayotgan juvon birdan cho'g'ga botirib olganday qo'lini siltab tortdi va ko'ziga yaqinlashedi. Kaftining qirrasida qon ko'rindi. Juvon dam kaftiga, dam qon tomchilariga mengraydi, shunda

... eshik «tiqq» etdi...

Juvon bukchayib o'rnidan turdi, asta eshik tomonga o'girildi

... eshik ortidagi odam sharpasini... sezdi. U apil-tapil yo'rgakni qog'ozga o'ray boshladi. Shu asnoda eshik va deraza tomonga qarab xuddi badbo'y isdan nafasi qaytganday «Huvv!..» deb labini cho'chchaytirar, qo'llari shiddatli harakatlanib chaqaloqni o'rab-chirmar edi. U yo'rgakni bag'riga bosganicha yugurgilab eshikdan chiqar-chiqmas taqqa to'xtadi.

... yigit ayvondan tushib ulgurmagandi... Juvon o'sha zahoti orqasiga qaytdi. Eshikni taraqlatib yopdi. Yo'rgakni yashirish maqsadida uning ustiga ko'rpacha tortdi. Keyin derazadan tashqariga qaradi, boshini chiqarib engashdi. Aftidan deraza oshib hovliga tushishga chog'landi. Jur'at etolmadi chog'i, chiroqni yoqib ko'rpacha ostidan yo'rgakni oldi, shokila-shokila bo'lib ketgan dasturxon-ga qo'lidagi qon yuqlarini artdi. Arta turib zich yopilgan eshikka qarab og'ir tin oldi. So'ng hamon xavotirli nigohini eshikdan uzmay unga yaqinlashdi. U bolani bag'riga bosganicha eshikka peshonasi tekkudek oraliqda to'xtadi...

... narigi tomondan esa yigit ichkariga mo'ralab turardi...

Juvon allakimlar eshikni buzib uyga bostirib kirishga hozirlanayotganini payqab qolganday dahshatga tushgan, a'zoyi-badaniga yugurgan qaltiroqni bosolmayotgan edi. U ancha vaqtgacha shu ahvolda turdi. Titroqni bosishga chiranganidan peshonasi va yuzlarida sovuq ter tomchilari paydo bo'ldi.

Birozdan so'ng u ancha xotirjam tortdi. Endi uning harakatlaridan hadik, pala-partishlik aridi, aksincha, favqulodda bamaylixotirlik bilan taxmondagi ko'rpalarning yarmini zumda ag'dardi. So'ng qog'ozga o'ralgan yo'rgakni taxmondagi qolgan ko'rpaning ustiga qo'ydi-da, uning ustidan yiqitgan ko'rpalarni qayta yig'ishga tushdi. Shunda u oyog'ining ostidagi ko'rpani olayotib etagini qo'shib ko'targanidan uning zangori ich ko'ylagi ko'rinib ketdi

... eshik ortidagi yigit ko'zini olib qochdi...

Ichkaridan juvoning bo'g'i va zardali ovozi keldi:

– Endi topib bo'lishibdi! Topadi-ya, topadi! Taxmonga yaqinlashsin-chi! Bit-talab qiyaman... Qo'limga tushganini qiymalayman!

– Meni qiyma!

– Seni qiymayman, qoqindig'im! Tag'in o'lib-netib qolmagin, xo'pmi?.. Yo'qolmagin... Tug'ishda qiynaldim-ey!.. Yana qachon bola ko'raman. Yana qachon erga berishadi meni... Sen o'lmagin, seni yashiraman!.. O'lib qolmagin!.. Uvv!.. Xih, uvvv!! Huvv, ket! Huvv, ket! U-uvvv!..

Juvon achchiq-achchiq ho'ngrab yubordi.

... eshik ortidagi yigit ikki bukilib kalit uyasidan mo'ralab qarar, bir lahza bo'lsin juvondan ko'z uzmas edi...

Uydan alla tovushi eshitildi. Juvon alla aytayotib gapdan to'xtamas, dam o'zi, dam chaqaloq bo'lib savol-javob qilar, «bolasi» yoqimli gap aytguday bo'lsa, «Voy, aylanay-ey!» deb taxmonga talpinar, lekin qo'lini cho'zar-cho'zmas yig'lab yuborar, yana allalashda davom etardi.

U shu alfozda uzoq yurdi. Keyin to'xtab, uyning o'rtasida bir nuqtaga qadalgancha qaqqayib qoldi, uzoqdan elas-elas quloqqa chalinayotgan shovqinni eshitmoqchidek sergaklandi. Uning shu turishida yana ne balolarni boshlashini bilib bo'lmasdi...

Allaqancha vaqt o'tdi. Juvon o'y surib o'yiga yetgan odamday shoshilmay taxmondagi ko'rpaning ikki-uchtasini tushirdi. So'ngra yo'rgakdagi chaqaloqni devorga taqab uning ustidan ko'rpalarni qaytadan yig'di. Yiqilgan ko'rpalarni kafti bilan itarib-surib tekisladi, tekislanmagan joylarini qiydi. Shundan so'ng-gina ko'ngli tasalli topdi chog'i, qo'llarini ikki yonga osiltirganicha yelkasi bilan ko'rpaga horg'in suyandi...

... yigit kalit uyasidan tikilib turaverdi...

Nihoyat juvoning ko'zlari yumildi, sirg'alib tushib gilamga o'tirib qoldi.

... yigit eshikdan chekinayotib sezilar-sezilmas entikdi, yengil nafas olib yonginasidagi stulga ohista cho'kdi...

Tun yarmidan og'ib, tong otishiga picha qolgan, uyning chirog'ida hovli sahni, qorayib ko'rinayotgan narvon, ayvon yuzasida sochilib yotgan dasturxon qiyqimlari qandaydir sirli-bezovta manzara hosil qilgan

... maykachan, yelka suyaklari turtib chiqqan uvoqqina yigit stulda suyanganicha tizzalarini quchib qunishib mudrar edi...



---

Juvon g'ira-shira tong ota boshlaganida uyg'ondi, o'tirgan ko'yi ostin-ustin bo'lib ketgan uyning ahvoliga razm soldi, o'rmidan shoshilmay turib sochini, ko'ylak yoqalarini tuzatdi, so'ng taxmondagi ko'rpalarni tushirdi, boya o'zi qo'ygan yo'rgakni olib qon dog'lari qotib qolgan qog'ozga, qaychilab tashlangan dasturxonga angraydi, chuqur, so'lg'in uf tortdi. Qog'ozni, dasturxonni ochdi-da, unga o'ralgan chaqaloq-yostiqli olib taxmonga qo'ydi, oyoq uchida yurib kelib eshik tirqishidan ayvonga mo'raladi.

...yigit stulda g'ujanak bo'lib o'tirgancha uxlayotgan edi...

Juvon taxmondan tushirgan ko'rpalardan birini keltirib eshikni ohista ochdi, yigitning tepasiga yaqinlashib ko'rpani ikki qo'llab yoyib baland ko'tardi. Eshik shovqinsiz ochilgandayoq qush uyqusida yotgan yigit cho'chib uyg'ongan edi. Juvon uning ko'ziga qaramay, yuzini ko'rpa bilan panalab turib gunohkorona va chorasiz bir iztirobda gapirdi:

– Joyingga kirib uxla, ukam. Men tuzukman... Men yaxshi bo'lib qoldim...

# Olim Otaxonov

(1951-yilda tugʻilgan)



Olim Otaxon 1951-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan (1974). Dastlabki toʻplami — «Bolalik kabutarlari» (1981). Shundan soʻng yozuvchining «Oqshom xayollari» (1986), «Ozod qushlar haqida qissa» (1988), «Adoqsiz koʻchalar» (1990) kabi nasriy asarlari nashr etilgan.

## TOʻRTINCHI QAVATDAGI SARGʻISH DERAZA

*U sarson izlardi oʻzini oʻzi.*

*A. Rembo*

Hayotda hech narsa oʻzidan-oʻzi sodir boʻlmaydi: beamr tikan ham kirmaydi, deganlari bejiz emas — roʻy bergan har qanday hodisaning sababi mavjud — biroq kech kuzning zamharir kunlaridan birida tasodifan uchrab, xayolingni algʻov-dalgʻov qilib yuborgan narsaning sababini sen hech qachon topa olmaysan: qolaversa, bunga hatto qiziqib ham koʻrmaysan...

Basharti qiziqsang — oʻsha osmon, oʻsha sayyoh qushlar, zamharir qaygʻular va xayollarning gʻamgin tovushlaridan boʻlak nima ham yodingga tushardi?! Mabodo qiziqsang va bir-biriga halqa-halqa ulanib ketgan bu manzaralar chashmaning tubidagi toshchalar kabi koʻz oʻngingda ravshan tiklangan taqdirda ham ularga ortiqcha ahamiyat berib oʻtirmasding.

Holbuki, hammasiga arzimagan narsa — osmonni toʻldirib uchayotgan yoʻlovchi qushlarning gʻamgin tovushlari sabab boʻlgan edi.

Esingdami, oʻsha kuni kech qaytding: qoraygan osmon, rutubatli havo... Chakmoning yoqasini koʻtarib, negadir bolaligingda yuz bergan bir voqeani hadeb

eslashga urinib, yomg'ir yuvib o'tgan yo'lakdan yurib kelarding. Ko'ngling biroz g'ash edi, ehtimol, yuragingga hech narsa sig'masdi.

«Nima qilish kerak?» – deya o'zingdan norozi bo'larding va sekin-asta allaqanday umidsizlik yuragingga cho'kib borayotganini sezarding. «Xuddi hayotimda bir nima yuz beradigandek doim nimanidir kutib yuraman... Nima qilish kerak?»

Sen chuqur xo'rsinib baland imoratlar sari burilding va kimsasiz maydonga kirganingda chor-atrofga alanglading; nechanchi marotaba bu beo'xshov imoratlar orasida devsfifat odamlar yurtiga kelib qolgan Gulliver xayolingdan o'tdi; eting junjikdi: darvoqe, izg'irinning dami kesilgan yerda junjikhishing ajablanarli...

Sen ko'rimsizgina bino tomon yurib va xuddi shunday ko'rimsiz yo'lak orqali o'tib chappa burilasan. Yo'l o'rtasida kalta-kulta shoxlarini uzatishga chog'langan ko'yi qotib qolgan daraxt yonidan o'tayotib xo'rsinasan. U yongan simyog'ochdek shumshuk va ayanchli ravishda qaqqayib turardi.

Dunyoda hosiyatsiz narsalar ko'p: hosiyatsiz kunlar, hosiyatsiz tushlar, hatto hosiyatsiz tasodiflar... Sen irim-chirimlarga ishonmaganing uchun bu hosiyatsiz daraxtga boshqa ko'z bilan qararding.

Shamol endi ro'paradan esardi, sen chiqishdan ko'ra tushish noqulay va qiyin bo'lgan zina tarafga yurasan. Zina tepasiga yetganda tevarak-atrofnı allanechuk shovur-shuvur tutib borayotganday tuyuladi; sen pastga tusha boshlaysan – quyiroq tushganing sari shovqin kuchayib boradi. So'nggi pog'onaga oyoq qo'yganingda dastlab boshing uzra dengiz to'lqinlari guvillagandek, ilkis bosh ko'tarib, uchib borayotgan qushlar galasiga ko'zing tushganda esa hazin sadolar yangrab ketadi.

Osoyishta qanot qoqib borayotgan qushlar... Ularning tovushidagi ohanglar shunchalik ma'yus va shunchalar ham kuchli ediki, beixtiyor ta'sirlanib tomog'ingga bir nima tiqilganini his qilasan. Zum o'tmay zina panjarasiga behol suyangan ko'yi ulardan ko'z uzmay turib, «hozir yomg'ir yog'adi» degan o'y ko'nglingdan kechadi.

Qushlarning tovushidagi g'amginlik ularning qanot qoqishidagi vazminlikka uyg'un edi. Shu asno boya yo'lda kelayotib sen eslashga uringan bolaligingdagi voqea yarq etib yodingga tushadi: zavol payti qabriston devori yoqalab yolg'iz yugurib ketayotibman, yomg'ir shivalayotganga o'xshaydi, boshdan-oyoq oppoq kiyingan bir kishi ro'parangdan chiqib allanimalarni so'raydi, sen javob berasan, so'ng birdan bu odamning ortidan qarash uchun o'girilasan... Ammo qabriston ko'chasida hech zog' ko'rinmaydi. O'shanda bir necha kungacha shu voqea haqida o'ylab yurganding.

Sen ko'zingni behol yumasan. Ko'z oldingda zangori zulmatning sirli shakllari yonib-o'chadi va bolalik xotiralari bir to'lqin kabi yuraging sohillariga tinmay urilayotganini his qilasan.

Qulog'ing ostidan qushlar nolasi anchagacha ketmaydi, sen ko'zingni ochasan-da, uylarning son-sanoqsiz derazalarida ketma-ket yonayotgan va zarhal ir-

larga osilgandek sezilar-sezilmas silkinayotgan chiroqlar shu'lasiga termulasan-u yolg'iz ekaningni armon bilan his qilasan. Egasiz boqqa begona qushlar yopirilib kelganidek, g'ash va huvillagan ko'nglingga kutilmagan kechinmalar kira boshlaydi.

Xuddi mana shu qushlar juda ko'p narsalar haqida seni ogoh qilishi mumkindek va hayoting qo'ng'iroqchalarini chalib yuborishga qodirdek daf'atan ularga talpinasan.

Biroq, qarasang qushlar yo'q, ular uzoqda qora dog'lardek qir-qizil shafaqqa singib borardi. Sen mung'ayib ular ortidan termulasan, nazaringda yana boshqa qushlar to'dasi uchib o'tadigandek hech qayerga jilmay ko'zing tolguncha qarab turaverasan. Bexosdan bir narsaga ko'zing tushadi-yu, yuraging hapriqib hamma-siga tushunasan.

Bu hozirgina tepasidan sayyoh qushlar uchib o'tgan imoratning to'rtinchi qavatidagi deraza edi, undan asta-sekin quyuqlashayotgan qorong'ilik qo'yniga irakdek mayin shu'la taralardi. Bamisli notinch dengizda adashib-uloqib yurgan va kunlardan bir kun nur sochayotgan mayoqni ko'rgan dengizchilar ilkis quvonchdan o'zlarini yo'qotib qo'ymay, dastlab jilvagar mayoqning najotbaxsh raftoriga maftun bo'lganidek sen ham bir necha soniya to'rtinchi qavatdagi sarg'ish derazaga hayrat bilan tikilib qolasan. Deraza chindan ham mayoqqa o'xshardi: u imlar yoxud chorlar va bu deraza shaklidagi yorug'lik manbai ohangrabodek domiga tortardi. Sen beixtiyor: «Qushlardan xotira bu» deya xayol qilasan: darvoqe, derazadan yog'ilayotgan qizg'ish shu'la bilan qushlar ovozida muayyan umumiylik bor edi – ikkovining zamirida ham unsiz faryod kuchli, ikkovi ham deyarli bir xil ta'sir etardi.

Esiz, ertaklardagi afsonaviy qushlar yodingga tushmaydi, bo'lmasa bu sarg'ish derazani albatta ularga qiyoslagan va afsonaviy qushlarning tiriklik suvi, mangu go'zallik yashiringan makonlarni izlab topishda odamlarga ko'mak bergani yoki o'sha manzillarga olib boruvchi vositalar – oltin gardishli ko'zgu bilan duldul hadya qilganlari bilan bog'larmiding?

Qorong'ilik hamon quyuqlashardi, sen esa bu sirlı derazadan ko'ngil uzolmaysan; qorong'ilik borliqni qo'rqinch pardasiga qalinroq o'ragani sayin deraza ravshanlashib, o'n to'rt kunlik oydek to'lishib bormoqda edi. Bu bir mo'jizaga o'xshardi! Besh qavatli uyning deyarli barcha derazalarida chiroqlar yongandi, lekin ularning bamisoli oydek porlagan to'rtinchi qavatdagi anavi deraza oldida yonarqurtlar yoki tuman qo'ynida xira yiltiragan yulduzlardan farqi yo'q edi.

Oxiri ko'zing toliqadi, ohista xo'rsinasan, yo'lga tushasan, o'n-o'n besh qadam yurgach, o'ng qo'ldagi esiz yo'lakga o'tib yana derazaga nazar solasan. Bu yerdan deraza ko'zga yaxshi chalinmaydi.

Sen yo'lakning adog'iga borgach, yana bosh ko'tarib qaraysan. Endi derazani bafurja tomosha qilsa bo'lardi, chunki sen uni naq ro'parasidasan. Nazaringda deraza hamon kimnidir chaqirar, kimnidir o'zidan ogoh qilardi: nimadandir umidvorga o'xshardi. Sen daf'atan mana shu iltijoni payqab qolganing uchun zum

o'tmay u iltijoning qizg'ish barmoqlari vujudingga yopishib, yuragingni paypaslayotganini sezib seskanib ketasan. Ha, u yuragingni izlamoqda edi! Beixtiyor entikasan.

Bu yerdan hatto chetlariga lolarang to'r hoshiya bostirilgan deraza pardasi-ning zarrin gullari aniq ko'rinardi. Sen, ana – hozir pardaning bir chetini ohista qayirib, biron qarab qoladigandek yoki parda bexos qimirlab ketadigandek yuragingni hovuchlab kutasan. Ammo parda qilt etmaydi va sen oyog'ingni sudrab uyga jo'naysan.

Shu kuni allamahalgacha mijja qoqmay, tunchiroqni yoqib o'tirasan, ko'zlar-ning qum tiqilgandek achishadi; yuraging bezovtalana boshlaydi. Oxiri qaqshab og'riyotgan yelkalar-ning silab-siy-pab, tunchiroqni o'chirmasdan uxlab qolasan.

Oradan ikki kun o'tgach, yana shu yo'l bilan uyga qaytasan. To'g'ri, bu yo'ldan yurishga asli odatlanmagand-ning. Lekin sarg'ish deraza kun bo'yi xayolingdan ketmagani uchun shu yo'ldan kelgand-ning. Kimsasiz maydoncha. Mana o'sha hosi-yatsiz daraxt. Darvoqe, sen tut bo'lsa kerak, deb o'ylagan daraxtga o'zingcha nom qo'yib olgand-ning: «Rog'!»

Shu yerga ko'chib kelgan paytlar-ningda endigina: «Rog'!» degan doston yozib tugatgand-ning. O'shanda doston-ning g'ayritabiiy sarlavhasiga xuddi kelishib olgandek hamma baravariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqqan edi. Olimlar ham, shoiru noshirlar ham bu so'zni tushunmagan, uning zamirida qanday ma'no yotganini bilmagan bo'lsalar ham, astoydil, samimiyat bilan tanqid qilgandilar. Sen o'shanda pinagingni buzmagand-ning, chunki ular nazaringda sen ustalik bilan qo'ygan tuzoqqa ilingan, ya'ni nihoyatda kaltabin ekanliklarini fosh qilgan edilar. Ayrimlar doston qolib ko'proq arxaik so'zlar, mistika va rog' haqida og'izlariga kelganini valdiragandilar; ba'zilar sarlavha tufayli doston-ning yutug'i xiralashib turibdi, degandi. Kim minbarga chiqib gapirsa, gapini nimadan boshlamasin va umuman nimalar haqida to'xtalmasin, bari bir oxir-oqibat muqarrar sarlavhadagi shu so'zga kelib to'xtar yoki barcha fikrlari beixtiyor shunga bog'liq bo'lib qolaverardi.

Hech kim, buning ma'nosi nima, deb so'ramagandi. Holbuki, sen o'zing ham bilmasd-ning. Shuning uchun muhokama nihoyasida so'zga chiqib hammalarini mulzam qilgan va sizlarning fikringiz ham, she'riyatga munosabatlaringiz ham rog' deb kulgan eding.

U suvlar oqib ketdi. Biroq o'sha doston-ning ruhi, kayfiyati keyin nima yozgan bo'lsang, o'shanda aks etaverdi va hatto hayotning tarziga ham ta'sir qildi. O'sha doston o'zligini sarson bo'lib topolmayotgan inson haqidagi o'ylar-ningdan tashkil topgan edi.

Hozir beo'xshov daraxtga kulimsirab qaragan-ningda ana shular ko'nglingdan kechdi. «Rog', rog', bog'-rog'...» deya shivirlaysan zinadan tusha boshlagan-ningda.

Sen iloji boricha derazaga qaramaslikka tirishasan. Lekin diling-ning bir che-tida sarg'ish derazaning xuddi o'sha kungiday porlab turganiga ishonch bor edi.

«Balki o'sha kuni chindan ham tasodifan shunday bo'lgandir», – deya xayolingdan kechirasana-u, bari bir qaramaslik uchun o'zingni chalg'ita boshlaysan.

Sen duch kelgan narsalar haqida eslaysan: dastlab Verlen haqida o'ylaysan, keyin Muhabbatga bergan va'dang xayolingdan ko'tarilgani, unga yuborgan so'nggi maktubning nihoyasida: «Menga sening ko'zlarining emas, mana shu ko'zlarining xayoli muhim» degan mujmal, hozir eslaganing hamono tuturiqsiz va bachkana bo'lib tuyula boshlagan jummalarni eslab, peshonang tirishadi, aloha bari bir yana sarg'ish deraza xayollaring orasiga asta kirib qoladi.

Zinadan tushib, ensiz yo'lakning adog'iga kelib qolganingni payqab, noiloj bosh ko'tarib qaraysan.

Sarg'ish deraza seni kutayotgan edi.

Qaraganing zahoti deraza xuddi sen bilan salomlashmoqchidek parpiraydi va yorishib ketadi – go'yo qorong'ilik qo'ynida gurillab gulxan yona boshlagandek.

Sen beixtiyor qo'l ko'tarib ishora qilmoqchi bo'lasan, ammo orqa tarafdan qadam tovushlari eshitilib, fikringdan qaytasan. Ikki kishi yoningdan shosha-pisha o'tib ketadi. Bu odamlar shunchalik hovliqib borar ediki, oyoqlari chalishib, har qadamda qoqinib-surinardilar.

Daf'atan, «Shular ham menga o'xshab sarg'ish derazani ko'rib fikru zikri bu bilan band bo'lishi mumkinmi?» deb o'ylaysan.

Bu sarg'ish derazaga har kuni qanchadan-qancha odamning ko'zi tushmaydi deysan?! Biroq, ich-ichingda birortasi unga ahamiyat berish tugul, qayrilib ham qaramasligiga ishonching komil edi.

Ehtimol, sen ham shu choqqacha qaramay, sayyoh qushlar osmonni to'ldirib uchib o'tgan o'sha oqshom ko'rib qolgandirsan? Ehtimol, har bir odam uchun shunga o'xshab alohida bir tasodif kerakdir?!

Bora-bora bu sarg'ish deraza fikru-xayolingni o'g'irlab qo'ydi. Sen hatto ba'zi kunlari tezroq qorong'i tushsa-yu, tezroq o'sha deraza oldiga borsam, deya kutadigan bo'lding. Goho ishxonangda derazadan serqatnov ko'chaga qarab o'tirgan paytlarda birdan ko'z oldinga sarg'ish deraza kelar, yuraging orziqib ketardi. Sarg'ish deraza bamisoli mahjubang edi, mahbuba bo'lganda ham yulduzdek charaqlagan, zoriqqan ko'zlarida, horg'in va o'ychan qarashlari, zarif tabassumida intizorlik, iltijo va alohida mehr jilvalangan mahbuba!

Bir kun havo behad sovib, qor hidi kelayotganiga qaramay kechki payt yomg'ir quyib berdi. Sen derazani qiya ochib, shovullab yog'ayotgan yomg'irni picha kuzatib turganingda xayoling qochdi va ko'z oldingga o'z-o'zidan sarg'ish deraza keldi.

Keyingi paytda seni bir narsa ajablantira boshlagan edi. Sarg'ish derazaning nimasi o'ziga asir qilib oldi, deya boshing qotardi. Boshing qotardi-yu, ammo o'ylaganing sari yengil tortarding, yo'q, to'g'rirog'i qalbing-la bir xushnudlik turyarding, ruhingda bir kuchlanish sezarding. Shuning barobarida, bari bir nimasiga uchganingni ham bilging kelardi.

O'sha, qiya ochiq derazadan yomg'irni tomosha qilib turganingda daf'atan, shu bugunoq u kimning uyi ekanini aniqlashga qaror qilasan va beixtiyor xonaga sig'may, g'ira-shira yo'lakka chiqib, tashqariga yurasan. To birinchi qavatga tushib, shlyapangni kiyib ko'chaga chiqquningcha bu istak-xohish kuchayaveradi. Sen yosh boladek hayajonlana boshlaysan. Bu avzoyingdan seziladi shekilli, kiyimxonadagi ayol ham, eshik yonida xayrlashgani bosh silkib qo'ygan kishi ham ajablanayotganini yashirmay, ortingdan qarab qoladi.

Ko'chaga chiqqach, yomg'irga ham qaramay yo'lga tushasan.

Metroning oppoq nur to'shalgan zinalaridan tushib borayotganingda platformada yoqib qo'yilgan son-sanoqsiz chiroqlar shu'lasidan ko'zing qamashadi: stansiya kunduzgidek charog'on – bu charog'onlik odamlarning qalbiga yetib bormayotgandek tuyuladi senga. «Nega oddiy, sarg'ish deraza mening yuragimni bunchalik zabt etgani holda, metrodagi nur bir paysa ham ta'sir qilmaydi. Bunda qanday sir bor?» deya ajablanasan.

Metrodagi iliq havo elitadi seni, lohas bo'lasan, faqat toza havoga chiqqachgina yengil tortasan.

Yomg'ir shivalardi: sen avtobusga chiqasan, avtobus chamasi o'n minut yurgandan so'ng qorong'i bir bekatda seni qoldirib jo'naydi. Sen ko'chani narigi yuziga o'tasan – fikru-xayolingda hamon sarg'ish deraza.

Daf'atan, sarg'ish derazani ko'rishdan ko'ra, uyda kim istiqomat qilishini bilish istagi kuchayadi.

Bu sarg'ish derazaga o'rganib qolgan dastlabki paytda ham, keyinchalik ham xayolingga kelmagandi. Ammo ilk bor derazaga ko'zing tushgan kunning ertasidan boshlab unga naqadar qiziqib qolgan bo'lsang, hozir, oradan ikki hafta o'tgach, u yerda kim yashayotganini bilishga shu qadar qiziqqa boshlaysan va bitta-yarimtasidan so'rab bilishga qaror qilasan.

Istagan odamingni yo'lak yonida uchratasan. Avvaliga u nima demoqchi bo'layotganingni anglay olmaydi, ko'zlaringga tikiladi, ammo indamaydi. So'ng-ra yelka qisadi va bu kekka bog'bonni uyni orqa tomoniga olib o'tishdan boshqa ilojing qolmaydi.

Afsuski, cholga bir nimalarni uzoq tushuntirgach, bosh ko'tarib qaraganingda, daming ichingga tushib ketadi.

Ko'zlaring o'rganib qolgan sarg'ish derazani topolmaysan. U o'z o'rnida bo'lgani bilan nurafshon emas – eski g'orning vahimali og'zidek qorayib turardi.

Chol yelkangga qoqib qo'yadi va uyiga taklif qiladi, sen uzr so'rab, tinka-madori qurigan kimsadek oyog'ingni sudrab uyingga jo'naysan.

Arang to'rtinchi qavatga chiqib, eshikni ochasan va uyga kirasan. Uyning sovuqligi seni ajablantiradi, borib radiatori ushlab ko'rasan, so'ng chakmoningni yechib, stul suyanchig'iga tashlaysan-da divanga behol cho'zilasan. Yotgan yeringda bosh tomoningdagi tunchiroqni yoqish uchun cho'zilasan va daf'atan barmoqlaring, kafting bir haroratni tuyib hayron bo'lasan. O'rmingdan turib tunchiroq

lampochkasini ushlab ko'rasan. Lampochka yaqinda o'chirilgandek iliq, hali so-vib ulgurmagan bo'ladi.

Ertasiga peshinga dovur hardamxayol yurasan: dam-badam derazadan ko'-chaga qaraysan. Ahyon-ahyon hovliga tushib aylanasan – ammo ko'ngling joyiga tushmaydi. O'zingcha sarg'ish deraza haqida turli taxminlar to'qiyasan: go'yo u yerda yashayotgan kimsa uzoq payt kutaverib charchaganu, chiroqni uchirgan, endi hech qachon qayta yoqmaydi yoki kecha uyida bo'lgani uchun chiroqni yoqib ketishni istamagan: yoxud men bormasimdan xiyol avval chiroqni o'chirib, qo'ni-qo'shnisinikiga chiqib ketgan...

Kutilmaganda bordi-yu, kecha yomg'irda sayr qilgani hovliga tushgan bo'lsa-chi, degan o'y kechadi va sen «Agar shunday bo'lsa demak u meni ko'rgandir. Ehtimol, men unga parvo qilmagandirman» degan xulosaga kelasan.

Shunga qaramay, sen bugun, albatta, nimadir oydinlashishi kerak, deb isho-nasan. Basharti, sarg'ish derazani bugun ham topolmasang, u holda tamom – umi-dingni uzishing mumkin. Agar seni kutib olsa, demak kechagi iztiroblaring o'rin-siz – biror kor-hol ro'y bergan chiqadi.

Ish vaqti tugab, ko'chaga chiqqaningda hamon yomg'ir yog'ardi. Ezib yog'ar-di. Kechagiga o'xshab metroda emas, tramvayda ketasan. Tramvay juda uzoq, ay-lanma yo'llar bilan qatnagani uchun unga kamdan-kam chiqarding.

Dekabrning boshlari edi. Sen tramvaydan tushib, ko'chani kesib o'tasan-da, orqaga biroz yurasan, so'ng chap qo'ldagi do'kon yoqalab borib, baland uylar to-monga burilasan. Yomg'ir tezlashib, ikki qadam narini ko'rib bo'lmasdi, sen sha-labboying chiqib, zina yoniga yetib borasan, zinadan tushar-tushmas, boshingni ko'tarib qaraysan. Sochlaringdan, yuzingdan yomg'ir suvlari oqardi. Harchand ti-kilma, sarg'ish derazani topolmaysan. Bu xuddi bevaqt tashlab ketgan hamrohdek ko'ksingni tirnaydi. Sen yig'lagudek bo'lib yana qaraysan – deraza yo'q, yana va yana qaraysan – faqat yomg'ir yog'ayotir, yog'ayotir – yomg'irdan bo'lak narsa ko'rinmayotir: sen xunob bo'lasan va yo'lingda davom etasan, boshmoqlaringdan suv o'tadi, qizib ketgan badaningga chirpa yopishgan ko'yilgining g'ashingga tega-di. Sen ensiz yo'lakning adog'iga borgach, yana – bu safar javdirab qaraysan va hafsalang pir bo'ladi. Kiftlaring, kuraklaring, tizzalaring achisha boshlaydi. Shu choq kimdir chaqirgandek bo'ladi-yu, to'xtab qaraysan, ammo hech kim ko'rin-maydi. Zum o'tmay to'niga o'ralib, soyabon ko'tarib olgan bir kishi paydo bo'la-di, sen uni kuzatib turasan va yoningga yetib kelganda birdan to'xtatib, sarg'ish derazani ko'rsatib so'raysan. Ha, ha, ikki kundan beri chiroq yonmaydi. Qanday-dir shubhali, deya u kishini qiziqtirmoqchi bo'lasan, biroq soyabonli odam bir qaraydi, ikki qaraydi va lom-lim demay, jo'nab ketadi.

Tarvuzing qo'ltig'ingdan tushib yana qaraysan, qaraysan-u, yuraging birdan uvishib, to'xtab qolgandek bo'ladi.

Yomg'ir to'zoni oralab sarg'ish deraza elas-elas miltirardi.

Birdan ko'ngling buzilib, o'sha tomonga yurasan, deraza tagiga yaqinlash-ganing sari nazaringda u tobora ravshanlashib boradi. Ana u! Sarg'ish shu'falarga



burkangan, horg'in va intizor. Tomog'ingga bir nima tiqilib achishadi va yuragining gursillab ura boshlaydi. Sochlarning ivib, bo'yningga, quloqlaringga yopishib qolgan.

Sarg'ish derazani injular bilan bezayotgan yomg'ir tinmaydi. Tevarak-atrofdan tovushlar kuchayadi, bu tovushlar dunyoni tutadi. Sen endi shukronalar aytasan – ko'nglingda muhabbat uyg'onadi, zotan, bu muhabbat bahor yomg'irlarida ivib egilgan maysalarga o'xshaydi.

Sen derazaning shundoq ro'parasiga borib olasan-da, xuddi Sulla legioni qarshisida yakka o'zi qilich yalang'ochlab turgan Antoniy singari o'zingni ham o'z, ham har narsaga qodir seza boshlaysan...

Bu bir jodu edi. Chunki sen sarg'ish derazasiz g'arib va benavo ekaningga ishongan va yo'qotib qo'yishdan qo'rqa boshlagandan e'tiboran, uni avaylashga, uning holidan xabar olib turishga, ertami-kechmi unga yetishishga ahd qilasan va bu ahd sizot suvlari kabi yuragining teran qatlamlariga oqib kiradi.

Endi faqat sen unga emas, balki sarg'ish deraza ham senga talpinayotgandek va u ham senga o'xshab najot kutayotgandek tuyuladi.

Sen o'zingni xuddi uzoq yo'lning mashaqqatli dovonlaridan o'tib olgandek his etasan. Go'yo sarg'ish deraza bilan oralaringda bir-birini anglash va o'zaro hamdardlik boshlangan edi.

Oqibat sen qaysi yo'l bilan bo'lmasin men yordam berishga tayorman deb unga tasalli berib qo'yish yo'llarini axtara boshlaysan. Ammo qanday qilib? Buning uchun o'sha uyda kim yashayotganini aniqlash zarur edi. Shu tariqa avval qiziqib, so'ng hafsalang pir bo'lgach, unutilib yuborgan muammo yana bezovta qiladi.

O'sha kuniyoq ertalab ishga ketayotganda farrosh xotindan ba'zi narsalarni so'raysan. Azbaroyi biron foydasi tegarmikan, degan ilinjda ezma xotinning hasratlarini tinglaysan, unga dalda berasan va oxiri sen qolib u o'ziga kerakli narsalarni so'rab, boshingni qotirishga tushadi. Qo'l siltab, ishga jo'naysan.

Kechqurun ham barcha urinishlarning zoye ketadi. Hech kim aniq javob bermaydi. Hamma ajablanadi va bir nimalar deb ming'iraydi. Hatto ba'zilari esa senga boshdan-oyoq razm solib, indamaydi yoki bosh chayqab qo'yadi.

Nihoyat, kunlarning birida sen uyda o'tirolmay yuraging ziq bo'lib ko'chaga chiqasan-da, o'sha to'rtinchi qavatdagi sarg'ish derazali uyni yo'qlashga qaror qilasan. Eshik yonida nafas rostlab, qo'ng'iroq tugmasini bosasan. Negadir hayajonlanasan. Ichkaridan yumshoq qadam tovushlari eshutilgandek bo'ladi. Ammo ikki-uch daqiqa o'tadi hamki, hech kim javob bermaydi. Sen yana qo'ng'iroq chalasan, biroq hech kim chiqmaydi. Shunda qo'ng'iroq tugmasini uzoq to'uyda hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilguncha bosib turasan, so'ng pastga tushib, binoni aylanib o'tasan-da, derazaga qaraysan: sarg'ish deraza allanechuk fayzkor charaqlardi.

«Ichkarida birov boru, eshikni ochmayapti», – deb o'ylaysan. Ammo o'sha zahoti: «Balki hech kim yo'qdir» – degan xayolga borasan.

«Unda dam yonib, dam o‘chishining siri nimada?» Sen ming xayolda uyingga qaytib borganingda nima qilishni bilmasding.

Kunlar o‘tdi.

To‘rtinchi qavatdagi sarg‘ish derazali uyda kim yashashini bilish istagi shunchalik kuchaydiki, azbaroyi aniqlamaguncha yeganing ichingga tushmas bir ahvolga yetding.

Ammo sen bir narsani unutib qo‘yayotgan eding: sen uchun sarg‘ish derazaning mavjudligi muhimmi yoki shu uyda kim yashashimi? Holbuki, ayni choqda mana shu narsani oydinlashtirib olish zarur edi. Chunki bular aslida tamoman boshqa-boshqa narsalar edi. Dastlab sarg‘ish deraza sabab vazifasini o‘tagan bo‘lsa, u endi go‘yo oqibat edi – sababini izlash orqaga qaytish deganidir.

Kunlarning birida mana shunday hal qilib, mushkul kechinmalar bilan ishdan qaytayotgan paytingda dekabr oxirlab qolgan, havoda mayda qor uchqunlayotgan edi. Sen ko‘ksingni to‘ldirib nafas olganча qor uchqunlarining tobora yiriklashayotgani hamda tezlashayotganini sezib ajablanarding.

Baland imorat ostidan o‘tib, huvillagan maydonchaga yetganingda qor yana ham tezlashadi. To‘xtab, atrofga razm solasan. Go‘yo shu qor tufayli hayotingda bir o‘zgarishlar ro‘y beradigandek edi, zero, bu baland-baland imoratlar ham endi beso‘naqay va ko‘rimsiz tuyulmasdi.

Qor yog‘ardi.

Sen Rog‘ yoniga kelganingda uni tanimay qolasan: daraxt oppoq, harir libosga burkangan...

Zinadan tushayotganingda esa shamol kuchayadi va ko‘p o‘tmay chinakam qor bo‘roni boshlanadi. Shamol qor uchqunlarini changallab olganча chir aylanib yelar, dam uylarning devoriga, derazalariga keltirib urar va dam etaklarini hilpiratganча osmonu-falakka ko‘tariladi.

Sen zinadan tushgach, ko‘zlaringni kafting bilan panalab derazani izlaysan. Son-sanoqsiz qor uchqunlari oralab, sarg‘ish deraza seni chaqirmoqda edi. Nazaringda u horg‘in emas, sokin edi. Sen ensiz yo‘lakning adog‘iga borib, qo‘l silkiysan va bir iztirob vujudingni sekin qamrab ola boshlaydi-yu, xuddi uzoq ayriliqdan so‘ng farzandini ko‘rgan onadek ko‘ngling buziladi...



# *Shahodat Isaxonova*

*(1951-yilda tugʻilgan)*



Shahodat Isaxonova 1951-yil 1-yanvarda Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi Shayxlar qishlogʻida tugʻilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1973). «Ona» (1976), «Ilinj» (1978), «Muhabbatning tugʻilishi» (1982), «Antiq ziyorat» (1984), «Sirli tilak» (1986), «Intiqom» (1994) kabi asarlari nashr etilgan.

## **KATTA «A», KICHKINA «a»**

U mushtchalari bilan koʻzlarini ishqarkan, choʻzib xomuza tortdi, ogʻzidan beixtiyor «a-a-a» degan mudroq aralash ovoz chiqib ketdi. Yonida oʻtirgan sariq sochli puchuq qizaloq kaftlarini labiga bosganicha, piq etib kuldi. Orqaroqdan kimdir unga oʻxshatib «a-a-a» deya atay takrorladi. Doskaga nimadir yozayotgan oriqqina, koʻzoynakli opa orqasiga oʻgirildi, xoʻmrayib qoʻydi. U qoʻrqib ketdi va xuddi koʻzoynakli opa hozir uning ovozidan tanib yoniga keladigandek, oldingi partada oʻtirgan bolaning panasiga yashirindi. Lekin opa joyidan qimirlamadi. Oʻtirganlarga birma-bir razm soldi-da, yana ishini davom ettirdi. Yozib boʻlgach, bolalarga qarab, tushuntira boshladi:

– Bu katta «A», bu kichkina «a»...

«Bogʻcha opa boʻlganda albatta tanirdi, – deb oʻyladi u ichida, – keyin kelardi-da, qulogʻimdan choʻzib burchakka turgʻazib qoʻyardi. Koʻzoynakli opa esa tanimadi. Yoʻq, koʻzoynakli opa emas, otini qiziq qilib aytgan edi. Mu... mula... E-e, «bogʻcha opa» deyish oson edi, bogʻchaga – bogʻcha, opaga – opa. Nega ularning otini «maktab opa» qoʻyishmagan? Maktabga – maktab, opaga – opa boʻlardi. Aytishga ham oson edi».

Koʻzoynakli opa qoʻlidagi boʻrni doskadagi harflarga taq-taq urganicha hamon bir gapni takrorlardi:

– Bu katta «A», bu kichkina «a»...

«Unisi katta «A», bunisi kichkina «a»... Shuni yuz marta qaytarish shartmi?»  
Ko‘zimni yumib ham aytishim mumkin: Unisi katta «A», bunisi kichkina «a»...  
E e...»

Xayollari chuvalasha boshladi. Yana bog‘chasi, oppoq to‘shakli karavotchasi va har narsaga tanbeh beraveradigan dum-dumaloq bog‘cha opasi ko‘z oldida gavalandi. Bog‘cha opasini «Bo‘g‘irsoq» deyishardi. Lekin bu nomni unga bolalar qo‘yishmagan. Birinchi bo‘lib Nigoraning ayasi aytgan. Nimaningdir ustida aytilib qolishganda: «Tekin ovqatni yeganing uchun bo‘g‘irsoqday semirgansanda, ichi po‘k bo‘g‘irsoq», degan. Gapi to‘g‘ri. Rostdan ham bog‘chada ovqat tekin edi. Bu yerda esa pulga berisharkan. Ko‘zoynakli opa ham shuning uchun oriq bo‘lsa kerak-da!..

– Qani, takrorlanglar-chi: bunisi katta «A», bunisi kichkina «a».

Chiyildoq, baland-past ovozlardan quloqlari bitib qolayozdi. Yonidagi puchuq qiz «Sen takrorlamaysanmi?», degandek, turtib qo‘ydi. Uning takrorlagisi kelmadi. Kaftlari bilan quloqlarini bekitgancha ko‘zoynakli opa va bolalarni kuzata boshladi. «Vuy, rosa qiziq! Xuddi ovozsiz kinodagiga o‘xsharkan. Qo‘llari, lablari, ko‘zlari qimirlaydi-yu, lekin nima deyishayotganini bilib bo‘lmaydi». Kaftlarini sal ochgan edi, undan ham qiziq bo‘ldi. Quloqlari xuddi ari uyasiga o‘xshab g‘uvillab ketdi.

– Ey, Qodirov! Sen nega takrorlamayapsan?

U ko‘zoynakli opaning nima deganini eshitmagan bo‘lsa-da, o‘zi tomon kelayotganini ko‘rib qo‘rqib ketdi va darhol qo‘llarini quloqlaridan olib, qotib qoldi.

– Nega sen takrorlamayapsan, a Qodirov! Yo buning senga dahli yo‘qmi?

U o‘rnidan sakrab turib, shosha-pisha chiyilladi:

– Unisi katta «A», bunisi kichkina «a».

– Qaysi biri katta «A?» Unisimi, bunisi? – Ko‘zoynakli opa orqasi bilan yurgancha doska yoniga bordi-da, stoldan uzun ko‘rsatkich tayoqni olib, shakllardan biriga tegizdi: – Qaysi biri kattasi?

«Qaysi biri edi? Unisi... yo‘q, bunisi... Yo‘q, kattasi katta bo‘ladi-da. Anavi bo‘yi uzuni – kattasi!»

– Birinchisi katta «A», ikkinchisi kichkina «a», – dedi ko‘zoynakli opaga xavotirlik bilan mo‘ltirab.

– Yaxshi, Qodirov! O‘tir joyingga. Diqqating bir joyda bo‘lsin!

U atrofga mag‘rur ko‘z tashlab, joyiga o‘tirdi. Yonidagi puchuq qizga: «Ko‘rdingmi?», degandek mamnun qarab qo‘ydi. Qizcha unga havas bilan boqdi.

Lekin lahza o‘tmay, uni yana esnoq tutib, ko‘z oldida g‘alati halqachalar paydo bo‘la boshladi. «Bir, ikki, uch...», deya halqachalarni sanashga kirishganda ular shu qadar ko‘payib ketishdiki, o‘ntaga yetganda adashib qoldi. Bolalar, sinf, doska va partalar ayqash-uyqash bo‘lib, xira pardaga chulg‘andi. Ko‘zoynakli opaning ingichka ovozi uzoqdan kelayotgan mayin bir kuydek vujudini allalay boshladi. Bog‘chada maza edi. Ovqat yeyishardi, o‘ynashardi, uxlashardi – shu.

Bu yerda esa nuqul qo'ng'iroq chalishadi – o'qishadi, nuqul qo'ng'iroq chalishadi – o'qishadi...

U qalqib ketdi. Bu safar sariq sochli qizning jahli chiqdi shekilli, ko'zoynakli opaga imlab, «Ey, uxlama, o'lasan!», deb shivirladi. Uning lablari javobga shaylandi-yu, ammo gap topolmay kalovlandi. «Ko'zoynakli opa ko'rib qolmadimikan?», degan hadik bilan u tomonga qararkan, kallasiga bir fikr keldi.

– Bog'cha opa! – deya sekin qo'lini ko'tardi. – Yozilib kelsam maylimi?

Ko'zoynakli opa orqasiga o'girilib, bolalarga birma-bir alanglarkan, unga ko'zi tushib, shu tomon yo'naldi.

– Avvalo, Qodirov, men senga «bog'cha opa» emasman, muallima opaman! Ikkinchidan... – U ko'zoynagi ostidan sinchkovlik bilan tikilarkan, negadir bir lahza jim qoldi, so'ng muloyim, ayni paytda, qat'iy ovozdada: – Mayli, chiqib kelaqol. Keyin gaplashamiz, – dedi.

«Bog'cha opa bo'lganda hecham qo'ymasdi, – deb xayolidan kechirdi u o'rnidan turarkan. – Birpas aftingga tikilib: «Ana, ko'zlaring aytib turibdi, nega yolg'on gapirasan, tirrancha? Qani, joyingga o'tir-chi» deb koyib berardi. Ko'zoynakli... yo'q, muallima opa boshqacha... yaxshi ekan».

U koridorga chiqdi-yu, qayoqqa borishini bilmay, bir lahza ag'rayib turdi. Keyin orqasiga qaytdi. Eshikdan kirib hali o'rniga o'tirmasdan, birvarakayiga to'rtta bola qo'l ko'tardi:

– Yozilib kelsam maylimi?..

– Yozilib kelsam maylimi?..

Muallima opa ko'rsatgich tayoqni stolga qarsillatib bir urdi. Qo'llar qanday tez ko'tarilgan bo'lsa, xuddi shu yo'sinda pastga tushirildi.

– Bolalar, eslaringda bo'lsin, biz birinchi darsimizda kelishib olganmiz. Dars, bu – o'yinchoq emas. Yozilish, ovqatlanish, dam olish va hokazolar uchun tanaffus beriladi. Men Qodirovning ahvolini tushunganim holda ruxsat berdim. Lekin bu birinchi va oxirgi marta. Sening ham qulog'ingda bo'lsin, Qodirov! – Muallima opa ko'rsatkich tayoqni stolga qo'yib, kalta qirqilgan jingalak sochlarini silkitganicha bolalarga yaqin keldi. – Endi sizlar bog'cha bolasi emassizlar. Mustaqil odamsizlar! «Mustaqil» degap gapni tushunasizlarmi o'zi?

Bolalar shoshib bir-birlariga qarashdi. Yo'q, deyishsa, muallima opa koyib berishini o'ylabmi, hech kim miq etmadi.

– «Mustaqil» degani – bu endi o'zlaring aql farosat bilan ish tutasizlar, degani. Chunki, yana qaytarib aytaman, endi bog'cha bolasi emas, katta odamsizlar! – Muallima opa qo'llarini ko'ksida chalishtirib deraza yoniga bordi va ko'zoynagi ostidan yana ham katta va cho'kik ko'rinadigan o'ychan ko'zlarini bolalarga tikdi. Xayolidan nimalarnidir o'tkazdi. So'ng oldingi partada o'tirgan do'mboq bolaga murojaat qildi: – Cho'liyev, mana, senga bir savol: deylik, darsdan qaytayotganingda, yo'lda, o'zingdan kichkina bolani birov do'pposlayotganini ko'rib qolding, shunda sen nima qilgan bo'larding?

Cho'liyevning qisiq ko'zlari birdan chaq nab ketdi.

– Kaltaklagan bolani urardim!

Bolalar uning javobini to‘g‘ri deb o‘ylashdi shekilli, hech kim indamadi. Muallima opaning kulgisi qistadi-yu, lekin o‘zini vazminlikka oldi. Cho‘liyevning orqasidagi partada o‘tirgan, yuzlari qizlarnikiga o‘xshash, oriq-ozg‘in bolaga yuzlandi:

– Qani, Mahmudov, eshitaylik-chi, bunday vaziyatda sen nima qilarding?

Bolaning bug‘doyrang chehrasiga sarosima ifodasi qalqidi. U o‘rmdan turib dam muallimaga, dam bolalarga alanglagancha nimadir dedi.

– Uning o‘zi qo‘rqog‘-u!.. – degan ovoz keldi orqa partadan.

Hamma birdan kulib yubordi. Mahmudovning cho‘zinchoq yuzi duv qizardi.

Muallima opa gapirgan bolani topmoqchidek sinf to‘riga tahdidli nazar tashlarkan, Mahmudovning sochlarini siladi:

– Bunday paytda, Mahmudov, darhol janjalni to‘xtatib, o‘sha zo‘ravon bolaga tanbeh berish kerak. «Odobli bolalar hech qachon bir-biri bilan urishmaydi», deya uyaltirish lozim. Bu gap faqat Mahmudovga emas, hammamizga tegishli, bolalar!

Muallima opa o‘sha kuni katta «A» bilan kichkina «a» haqida boshqa gapir-madi. Qo‘ng‘iroq chalinguncha rosa qiziq gaplarni aytib berdi. Hayratdan ham-maning og‘zi karnayguldek ochilib qoldi. Qiziq, uch kundan beri nuqul ro‘yxat o‘qishu tanishishdan boshqasiga o‘tmagan oriqqina muallima opa shuncha gapni bilarkan-a! Yana, ular bilan katta odamlardek gaplashishi-chi!

– Bolalar, – dedi, – bilib qo‘yinglar, bu yerda oddiy bolalar emas, kelajak o‘tiribdi!

Bu gapni eshitib hamma ag‘rayib qoldi. «Rost-da, qanaqa kelajak o‘tirishi mumkin? Kim o‘zi, opalari aytayotgan kelajak?» Muallima opa ularning yuzidagi ajablanishni sezdimi, stolda yotgan ko‘rsatgich tayoqni oldi-da, baland ko‘tarib: «Kelajak bu – sizlar», – dedi. Lekin ular bari bir tushunishmadi. Shundan so‘ng u Qodirovning yonidagi puchuq qizni o‘rmdan turg‘azdi-da: «Hozir men sizlarga sinfimizda qanday kelajak o‘tirganini isbot qilaman», dedi. Bolalar puchuq qizga g‘alati bir ajoyibotni ko‘rgandek qiziqsinib tikilishdi.

– Qani, To‘ychiyeva, – dedi muallima opa uning yelkasiga kaftini qo‘yib, – o‘rtoqlaringga ayt-chi, maktabni a‘lo baholar bilan bitirgach, kim bo‘lmoqchisan?

To‘ychiyeva bu savolni eshitib, birdan xayoliga «Masxaralamayaptimikan-lar?», degan o‘y keldi shekilli, hadik bilan opaga tikildi. Opaning ko‘zlari oynak ostidan muloyim va jiddiy boqib turardi.

– Uyalma, aytaver, – dedi muallima uning xijolat bo‘layotganini ko‘rib. – Hozir boshqalardan ham so‘raymiz.

To‘ychiyeva qizarindi, keyin «aytsammikan-aytmasammikan?», degandek shoshib bolalarga ko‘z yugurtirdi-da, past ovoz bilan pichirladi:

– Raqqosa...

Yon tomondan kimdir cho‘zib hushtak chaldi. Uch-to‘rtta bola muallima opa turganini ham unutib, bor ovozdagi «O‘-o‘-o‘!», deb yubordi. Orqada o‘tirganlar To‘ychiyevaning nima deganini eshitishmadimi, oldingi partadagilarni turtib

soʻray boshlashdi. Muallima opa ingichka qoshlarini chimirib, hushtak kelgan tarafiga oʻqrayib qaradi. Soʻng Toʻychiyevaga yuzlanib:

– Juda yaxshi oʻylabsan, Toʻychiyeva! – dedi. – Orzuingga yetishishing uchun yaxshi oʻqishing, intizomli boʻlishing kerak. Oʻtir. – Keyin bir lahza indamay turdi-da: – Qalay, Qodirov, uxlamayapsanmi? – dedi unga qarab.

U: «Sen kim boʻlmoqchisan?», deb soʻrab qolsa, nima javob beraman?», deb oʻylab oʻtirgan edi, choʻchib tushdi. Bolalar kulib yuborishdi. Hozirgina qizarib-boʻzarib oʻtirgan puchuq Toʻychiyeva ham xuddi bugunoq raqqosa boʻlib ketadigandek magʻrur jilmaydi. Birinchi kuni Toʻychiyevani uning yoniga oʻtqazishganida jahli chiqqan, koʻziga u juda bijildoqdek koʻringan edi. Qurmagʻur, allaqachon orzu qilishga ham ulguribdi. U esa... Aytganday, dadasi uylariga kelgan mehmonga maqtanib: «Mening oʻgʻlim katta boʻlsa professor boʻladi», dedi-ku, orzu degani balki shudir?

– Qani, eshitaylik-chi, kelajakda Qodirov kim boʻlmoqchi ekan? – deya muallima opa koʻzoynagini toʻgʻrilab jilmaygancha unga tikildi.

– Menmi? – u shosha-pisha oʻrnidan turdi va bolalarga bir-bir qarab chiqdi. Hammaning nigohi unda edi. Hatto Toʻychiyeva ham: «Qani, nima deb javob berarkan?», degandek ogʻzini ochib turibdi. – Men... haligi, professor boʻlmoqchiman...

– Va-a-a! – deb yubordi yonidagi partada oʻtirgan Atoyev. – Dadasi traktorchi-yu, bu professor boʻlarmish! Professorlikka pulni qayoqdan olarkan?

Qodirov oʻzini yoʻqotgudek boʻlib, muallima opaga qaradi. Muallima opa ning koʻzlari katta-katta ochilgan edi.

– Bu... bu gapni senga kim aytdi, Atoyev?

– Oʻzim bilaman? – Atoyevning dumaloq yuzida qatʼiy bir ifoda paydo boʻldi.

– Dadasi sovxozning direktori-yu, hamma narsani biladi! – deb chiyilladi birov orqa tomondan.

Muallima opa isib ketdi shekilli, peshonasida yaltirab ter paydo boʻldi. Atoyevga yaqinlasharkan, uzun, ingichka barmoqlari bilan koʻzoynagini olib, atir hidi anqib turadigan roʻmolchasida obdan artdi. Soʻng, muloyim ohangda soʻradi:

– Qani ayt-chi, Atoyev, yana nimani bilasan?

Atoyev muallimaning gʻalati boʻlib ketganini sezib, bir lahza ikkilanib qoldi. Soʻng, yelkasini qisgancha sekin oʻrnidan turdi-da:

– Hammasini bilaman, – dedi.

Muallima opa koʻzoynagini taqarkan, Atoyevning qarshisidaga partaga ohista choʻkdi.

– Masalan, nimani? – Atoyev uning nima haqda soʻrayotganini tushunmagandek koʻzlarini pipiratdi. Muallima opa endi boshqacharoq qilib soʻradi: – Masalan, «professor boʻlish uchun koʻp pul kerak», degan gapni qayoqdan eshitding?

Atoyevning koʻzlari: «Shuniyam bilmaymanmi!», degandek mamnun chaqnadi.

– Dadam aytganlar. Chunki yozda akamni do‘xtirlikka pul bilan qo‘yishdi. Dadamning o‘zlari aytdilar. «Do‘xtir bo‘lishing uchun necha mingim ketdi, professor qilaman deguncha, bilmadim, yana qancha pulning boshini yeysan», deb. Uning dadasi traktorchi-ku! Ana, traktorchi Qobil akaning o‘g‘liyam puli yo‘qligi uchun qaytib keldi...

Muallima opaning birdan jimib qolganini ko‘rib, Qodirov o‘yga toldi. Demak, rostdan ham, professor bo‘lolmas ekan-da!?. Dadasi esa o‘rtoqlariga maqtanib yuribdi: «O‘g‘lim profesor bo‘ladi?» deb.

– Gap bunday, bolalar, – muallima opa hammaning xayolini bo‘lib, partadan turdi-da, qo‘llarini ko‘ksida chalishtirgancha doska yoniga bordi. – Bularning hammasi bekorchi gaplar. Sizlar bunaqa gaplarga quloq solmanglar. Chunki endi sizlar mustaqil odamsizlar. Boya aytganimdek, mustaqil odam har bir ishni o‘z aqli, o‘z kuchi bilan bajaradi. Faqat ota-onasining kuchiga ishongan bolani men haqiqiy inson hisoblamayman. Unaqalar o‘zlariga ham, ota-onalariga ham, jamiyatga ham biron foyda keltirishmaydi. Ulardan hamma hazar qiladi. Sen esa, Qodirov, xafa bo‘lma. Mana ko‘rasan, ulg‘aysang, albatta professor bo‘lasan, uning uchun esa o‘qishing, yaxshi o‘qishing kerak, xolos!

Qizarib ketgan Atojev o‘tirishini ham, turishini ham bilmay qotib qolgan edi.

Shundan keyin muallima opa boshqa bolalardan ham kelajakda kim bo‘lmoqchiligini birma-bir so‘rab chiqdi. Burchakdagi partada o‘tirgan Sattorov «Uchuvchi bo‘laman», dedi. Doimo To‘ychiyeva bilan birga yuradigan qoracha qiz – Hakimova esa, o‘qishni bitirib do‘xtirlikka kirarmish. «O‘zingdan kichkina bolani birov do‘pposlayotganini ko‘rsang, nima qilarding?», degan savolga javob berolmagan Mahmudov «Ministr bo‘laman» degan edi, hamma kulib yubordi. Muallima opa ham qo‘shilib kuldi. So‘ng, uning yelkasiga qoqib: «Yaxshi o‘qisang, odobli bo‘lsang, albatta, ministr bo‘lasan», dedi. Faqat Atojev: «Sovxozga direktor bo‘laman», deganida negadir indamadi, ko‘zlarini yerga tikkancha doska yoniga bordi-da: «Ana bolalar, ko‘rdinglarmi, bizning sinfimizda kimlar o‘tiribdi! Bizning sinfimizda Vatanimiz uchun, xalqimiz uchun, fan va madaniyatimiz uchun jonini ham ayamaydigan halol, pok, fidokor insonlar o‘tiribdi!», dedi.

Uyga qaytarkan, Qodirov sevinchdan terisiga sig‘masdi. Muallima opalari juda ajoyib ekan! Bunaqangi yaxshi gaplarni qayerdan toparkan-a? Atojevni qizartirib qo‘ygani-chi! Bog‘cha opa bo‘lganida boshqalarni jerkib tashlab: «Sizniki – to‘g‘ri, – Atojevjon!» der edi. Muallima opa esa: «Bekor aytibsan, Atojev, mana ko‘rasan, Qodirov albatta professor bo‘ladi», dedi. Rostdan ham, professor bo‘lsa-ya? Dadasi rosa-yam suyunardi-da. Innaykeyin, o‘ziyam ko‘zoynaklarni taqib, televizorda rosa gapirardi-da...

– Huv bola, baqqa qara, Qodirni o‘g‘limisan? – uning xayoli bo‘linib, ovoz kelgan tarafga o‘girildi. «Oyposh xolasi! Oyposh xolasi qiziq kampir-da! Darchasi oldidagi qari tut tagiga yog‘och quti qo‘yib olib, kunbo‘yi pista sotib o‘tiradi. Hech kim bilan gaplashmaydi ham, hech kimnikiga chiqmaydi ham. Faqat buvi-



si bilan o'rtoq. Buvisining aytishicha, uning odamlardan ko'ngli qolgan emish. Ayniqsa, yakka-yu yolg'iz o'g'li ham shahardan uylanib, o'sha yerda uyli-joyli bo'lgandan keyin hamma narsadan qo'lini yuvib qo'ltig'iga uribdi. Buvisi: «Oyposhshajon, o'g'ling shaharda palon joyda ishlaydi-ku, sening pista sotib o'tirganing nimasi? Undan ko'ra, xudoga shukur qilgin-da, o'yna-kul, o'g'lingnikiga bor, to'y-ma'rakaga chiq», deb koyisa, Oyposh xolasi: «Momoguljon, men buni ochimdan o'lganim uchun qilayotganim yo'q, o'zinning pensiyam o'zimga yetib ortadi, lekin nomusi o'shanga tegsin, deb qilaman, yedirib-ichirib, bugungi kunda keragim bo'lmay qolgani uchun qilaman», degan emish. Buvisining aytishicha, Oyposh xolasi keliniga yoqmaganmish. Qiziq, shunday yaxshi kampir nega yoqmagan ekan-a?..

– Menga qara, ma! – Kampir bir siqim pista uzatdi-da, doka ro'mol tang'ilgan peshonasiga kaftini soyabon qilib, kirriksiz, botiq ko'zlarini unga tikdi. Keyin pastida ham, yuqorisida ham bir donadan qolgan sarg'ish tishlarini ko'rsatib, hayratomuz jilmaydi:

– E-ha, kap-katta odam bo'lib qolibsan-ku, sen ham, a? Qani, beri kel-chi, – Oyposh xolasi salqi qovoqlari ostida yiltillabgina turgan dumaloq ko'zlarini piri-piratib unga boshdan-oyoq havas bilan termildi. Orqasiga osib olgan sumkasini ushlab ham ko'rdi. So'ng, bo'shshibgina «uf» tortdi.

Oyposh xolasining «Katta bo'lib qolibsan», degan gapi unga xush yoqdi va kampirga sezdirmay yelkalarini kergancha oyoq uchida qaddini balandroq ko'tardi. Kampirning hozirgina kulib turgan chehrasi negadir birdan o'ychan tortdi.

U xolasining yuzida ro'y bergan o'zgarishni kuzatarkan, buvisining gaplarini esladi: «Tavba qildim, Xudoyim. To'q yashaganimiz sayin bir-birimizdan uzoqlashib ketyapmiz. Qishloqda biron-bir mard yo'q-ki, Oyposhsha bechoraning o'g'liga ikki enlik xat yozib, uni insofga chaqirib qo'ysa. Hamma o'z tinchini o'ylaydi. Xudo haqqi, savodim bo'lganda o'zim boplab bir yozardim».

Daf'atan uning xayoliga bir fikr kelib, quvonib ketdi. Rost-da, mana bugun katta «A» bilan kichkina «a»ni yodlashdi, ertaga esa boshqa harflarni o'rganishadi. Innaykeyin, Oyposh xolasiga bemalol xat yozib bersa bo'ladi. Eh, o'shanda xolasi rosa quvonsa kerak!

– Oyposh xola, – dedi u dumaloq ko'zlari qisilinqirab, afti jiddiylashib, – men... men xat yozib beraymi, sizga?

Kampirning serajin yuzi battar tirishdi:

– Qanaqa xat, chirog'im?

– Haligi... o'g'lingizga! Buvim aytganlar, «Savodim bo'lganda yaxshilab bir xat yozardim», deb. Mening esa savodim bor. Mana... – u shosha-pisha yelkasi-dan sumkasini oldi-da, ichini titkilab, ko'k daftar chiqardi. – Mana, qarang, bu katta «A», bu kichkina «a!» – Sevinish o'rniga Oyposh xolasining ko'zlari birdan g'amginlashib, kirtayib qolganini ko'rib, hayron bo'ldi. Yo ishonmayaptimikin?» – Oyposh xola, rost aytyapman, mana ko'rasiz, bir oydan keyin hamma

---

harflarni bilib olaman, – dedi shoshib, azbaroyi kuyib pishgandan yuzi qizarib, bo‘g‘riqib ketdi. – Keyin siz aytib turasiz, men yozaman. Hammasini yozaman. Keyin o‘g‘lingiz qaytib keladi. Shunaqa! Men o‘zimni o‘ylamayman, men endi mustaqil odamman. Muallima opamiz aytdilar. «Endi sizlar mustaqil odamsizlar, o‘zlaringizdan kattalarga yordam berishlaringiz kerak», dedilar, bildingizmi?

Oyposh xolasining tund chehrasi asta-sekin yorisha boshladi. Peshonasidagi tirishlar yozildi. Ikki qoshi o‘rtasidagi tuguncha ham yo‘qoldi. Etlari shalvirab qolgan chap qo‘lini peshonasiga soyabon qilgan-cha, o‘ng qo‘li bilan uning yelkalariga qoqdi:

– Ishonaman, bolam, ishonaman...

U Oyposh xolasini ishontira olganidan xursand edi. Rost-da, bir oydan keyin albatta xat yozib beradi. U, buvisi aytganidek, o‘zining huzurini o‘ylaydiganlardan emas. U endi mustaqil odam. Ana, Oyposh xolasining o‘zi ham aytdi. «Ishonaman, bolam, ishonaman», dedi.

U ketib borarkan, orqasiga o‘girilib, Oyposh xolasiga yana bir bor qaradi. Kampir qari tutga suyanganicha uning ortidan termilib o‘tirardi...



# *Dilbar Saidova*

*(1951-yilda tugʻilgan)*



Dilbar Saidova 1951-yil 1-aprelda Leninobod (hozirgi Xoʻjand) shahrida tugʻilgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist (2000). Samarqand Davlat universitetining tarix fakultetini tugatgan (1975). «Lolaqizgʻaldoq» (1978), «Olam goʻzal» (1980), «Ayol haqida ikki qissa» (1984), «Ovoz» (1999), «Qismat oʻyini» (2005) kabi nasriy kitoblari nashr etilgan.

## YIGʻI

Kampir odaticha erta turdi. Eshikni ochdi. Xonaga gurillab sovuq havo kirdi. Tani yayrab ketgandek boʻldi. Hali tashqari butunlay yorishib ulgurmagan, havo allaqanday tumanli va nam edi. Qora jun roʻmolini oʻrarkan: «Qor yogʻadimi nima balo, hidi kelib turibdi», – deya oʻzicha gʻudrandi, keyingi paytlarda oʻziga-oʻzi gapiradigan boʻlib qolgan. Radio qulogʻini buradi. Tongda beriladigan konsert unga xush yoqardi.

Kovushini kiyib hovliga chiqdi. Pastdagi uyga nazar tashladi. Uy hali qorongʻi edi. «Qari chol, taltayib uxlab yotibdi haligacha. Uyalmaydiyam. Uyning barakasini uchirib yuborayotganini bilmaydi. Xudo oʻlimingni bersin, iloyim!» Oxirgi soʻzini aytdi-yu, atrofga alanglab qarab qoʻydi. Hech kim yoʻqligini bilib koʻngli joyiga tushdi.

Tahorat qildi, yuz-qoʻlini yuvdi. Hovli past va yuqoriga boʻlingan. Pastga tushdi. Har kun koʻcha darvozasini birinchi boʻlib ochib qoʻyardi.

Oshxonaga oʻtdi. Gazga olov yoqib choynakni qoʻydi. Piyolalarni yuvdi. Stol ustini yigʻishtirdi. Azimjon bilan kelini yotadigan uy yonidan oʻtayotib nevarasi – kichkintoy Nosirjonning yigʻi tovushini eshitdi. Derazani taqillatdi.

– Hoy, turinglar endi. Kun yoyilib ketdi.

Azimjon erinibgina ko'zini ochdi, har tong shirin uyqudan mahrum qiluvchi oyisidan jahli chiqdi, koyindi: «Kallayi saharda balo bormi turib, shu qariyalardan ham bezor bo'ldim».

Kelin uyqusirab erining pinjiga tiqildi. Er-xotin issiq o'rinni tark etishni istamagan holda anchagacha to'shakda pichirlashib yotishdi. Kichkintoy ularning o'rtasiga kelib cho'zilib yotdi. Olam endi butunlay yorishgandi. Avval kelin turdi, uning ketidan kichkintoy o'rmaladi. Kelin kichkintoyni kuzatib bir o'pib oldi-yu, erining qo'yniga solib qo'ydi.

– Erkatoyingizni oling. Men boray, choy-poyini to'g'riley. Tag'in oyim javrab yurmasinlar...

Kampir namoz o'qirkan, deraza orqali pastki uyga qarab oldi. Chol tomonda hamon tinchlik. Chol tursa derazani qiya ochib qo'yardi. Namozdan so'ng ham-malari ovqatlanadigan uyga o'tib, ko'rpachalarni soldi, tokchadan dasturxon olib yozdi. O'g'li sovuq suvda yuvinib, pishqirib kirib keldi. Kichkintoy buvisining bo'yniga osildi. Buvisi ko'ngilchan odam ekanligini, yuzini yuziga qo'ysa, erkallansa, konfet berishini yaxshi bilardi. Bir-ikki marta nimchasi cho'ntagiga qo'li uzatdi, buvisi uning qo'lini ushlab qoldi.

– Avval ayiqchalar haqidagi qo'shig'ingni ayt, keyin...

Kichkintoy ayiqchalar haqidagi qo'shig'ini noiloj kuylashga tutindi. Dasturxon yoniga o'g'li ham kelib o'tirdi. Ona-bola huzur qilib qo'shiq tinglasharkan, nogoh taraqlab eshik ochildi. O'girilib qaradi, kelinining oqargan chehrasini ko'rib nimadir yuz berganini fahmladi.

– Otam, haligi otam... – o'kirib yig'lab yubordi. Azimjon hovliqib o'rnidan turdi.

– O'libdimi? – kampir sovuq tirjaydi. Undagi o'zgarishni sezishmadi. Kampir yig'lash kerakligini yaxshi bilardi. Lekin ko'zidan yosh chiqarish uchun ham, dod solish uchun ham kuch-madori yo'qligini his etdi, bundan dahshatga tushdi va labini qattiq tishlab oldi. O'g'li ko'ylakchan yugurgilab pastki uyga ketdi.

– Otam, otaginam, vo otam...

Hovlisiga chiqib kelin ham eriga qo'shilib ovoz chiqardi. Xiyol o'tmay hovli qo'ni-qo'shniga to'lib ketdi. Birin-ketin katta qizi – Karomat, o'rtanchasi – Salomat, keyin o'g'li A'lam, ularning bola-chaqalari kirib kelishdi. Chor-atrofnii dod-faryod egalladi.

Faqat kampirdan sado chiqmasdi. Yuzida hech qanday ma'no qolmagan, nevarasini bag'riga bosganча deraza yonida o'tirib hovlidagilarni kuzatardi. U balki hech narsani ko'rmasdi. Xuddi qotib qolgandek edi. Uning bu ahvolini hamma tushunardi. Ular marhum bilan o'n besh yildan beri so'zlashmasdi...

Nogoh eshik g'irchilladi, seskanib o'girildi. Karomat, Salomat, A'lam va A'zamjon boshlarini quyi egib turishardi. Ular nimadir deyishmoqchi edi. Lekin botinisholmasdi.

– Nima gap?

A'lam bir yo'talib oldi, xirqirab so'z boshladi:

– Uyni ostin-ustun qilib hech narsa topolmadik.

– Pulmi?

– O‘limligini yig‘magan ekan-da...

– Yig‘gan bo‘lsa ham, hozir qayerdaligini topish qiyin.

Kampir yana sovuq tirjaydi. Hammaning boshi egik edi. Hech kim sezmedi.

– Tokchani qaranglar.

A‘lam oyog‘i uchida qo‘l uzatib rangi uniqib ketgan tugunchani oldi. Ochishdi.

– Sananglar, yarmini sarflanglar. Qolganini joyiga qo‘yinglar. Qayerdaligini bildilaring. Biron kori hol yuz bersa, u yog‘i meniki.

Ozg‘in, qorayib ketgan Karomat o‘zini tutolmay yig‘lab yubordi. Salomat ham unga qo‘shildi. Erkaklar ko‘zlarini ishqlashdi.

– Ko‘pam yig‘lamanglar, o‘lim hammaning boshida bor narsa, – dedi xotirjam qiyofada kampir.

Farzandlar chiqib ketishdi. Kichkintoy ham kampirning qo‘lidan sirpanib chiqdi. Xonada yolg‘iz kampir qoldi. Hamma hovlida g‘imirlab u yoqdan-bu yoqqa yurar, o‘lik bilan ovora. Uning bor-yo‘qligi hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Kampirning xotirasida jonlangan voqealar yolg‘iz o‘ziga ayon edi...

U shu hovlida voyaga yetgan. Oppoq soqolli, basavlat, serjahl otasini mahallada «eshon» deydirdi. Onasi mushtdakina, past ovoqli edi. Dugonalari ko‘p bo‘lsa-da, qo‘shni – Jo‘raqul degan bola bilan gaplari kelishardi. Jo‘raqul uning qo‘g‘irchoqlariga qumdan uy yasab berardi. Ular qo‘g‘irchoqlarini qum uychalarga joylashtirishardi-da, issiq tuproq ustiga cho‘zilib sirli-sirli suhbat qurishardi. «Katta bo‘lsam, quruvchi usta bo‘laman, senga uy qurib beraman», – derdi Jo‘raqul. «Men esa chevar bo‘laman, senga do‘ppi tikib beraman», – derdi Maxfirat. Ikki hovli o‘rtasida darcha bo‘lardi. Bir kuni darcha olib tashlandi, o‘miga g‘isht terildi. Ko‘cha eshigi ham zanjirlanadigan bo‘ldi.

– Endi katta qizsan, – dedi onasi, – har kimga ko‘rinaverma, uyat bo‘ladi...

Jo‘raqulni shundan so‘ng ko‘rmadi. Devor ostiga kelib faqat ovozini eshinishi mumkin edi. Oyisining «Uyat bo‘ladi» degan so‘zi uning qulog‘iga bir umr qo‘rg‘oshin bo‘lib quyildi.

– Erga beraman seni, sal og‘ir bo‘l, qizim...

– Yo‘q, yo‘q, tegmayman erga... – urning ma‘nosiga hali yetmasdi, lekin negadir ko‘zlari yoshlandi.

– Yig‘lama qizim, uyat bo‘ladi...

To‘y bo‘ldi. O‘ttizni qoralab qolgan, birinchi xotini sariq kasalidan o‘lgan Sadriddinxo‘ja ichkuyov bo‘lib keldi. O‘zining sirliligi uchun ham jozibali bo‘lib ko‘rinadigan birinchi kecha yoshi hali o‘n to‘rtga ham to‘lmagan Maxfirat hayotida muhr bo‘lib bosildi. Burchakda titrab-qaqshab o‘tirgan paytida kayfi tarang kuyov kirib keldi. Bilagiga qo‘l uzatdi. U o‘zini olib qochdi. Kuyov bir hamla bilan burchakka qisdi, boshidagi ro‘molini olib otdi, kiyimlarini yechib tashladi,

dast ko'tarib to'shakka yiqitdi. Uyat, uyat lovillatib yubordi bechora qizning butun vujudini...

Keyin kuyov pishillab uxlab qoldi. Qorong'ida timirskilanib kiyimlarini topib kiydi. Qochib ketish fikri tug'ildi unda. Tashqariga chiqdi. Pastga tushdi. Eshik zulfiga qo'l uzatgan ham ediki, onasining ovozi eshitdi.

O'zini mushtdakkina oyisi bag'riga otib yig'ladi, baqirib yig'lamoqchi, ko'nglini bo'shatmoqchi edi.

– Ovozingni chiqarma, qizim, uyat bo'ladi...

Kunlar, oylar, yillar xuddi arava g'ildiragidek yumalab o'taverdi.

Karomat tug'ildi. «Qiz tug'dingmi, itdan tarqagan!» – boshiga musht yog'ildi. Go'dagini bag'riga bosganicha miq etmadi. Keyin Salomat... «Yana qizmi, haromi!» Mushtdan, ta'nalardan qaddini ko'tarolmay qoldi. A'lamni beshikka yo'rgaklab, emizib o'tirganda, eshikni oyog'i bilan tepib mast Sadriddinxo'ja kirib keldi. Yonida begona ayol ham bor edi. «Dod» deb qichqirgisi, odamlarni chaqirib yordam so'ragisi keldi. Tilini tishladi. Marhuma onasi eshik oldida tik turardi. «Uyat bo'ladi, qizim!» Yuragini zirqiratayotgan alamini ichiga yutib ikkoviga uyning to'ridan joy solib berdi...

Azimjon tug'ilgan yili urush boshlandi. Sadriddinxo'ja urushga ketdi. Urush boshlanganidan hamma qayg'uga tushgan bo'lsa, Maxfirat quvondi. Urush uning erini uzoq-uzoqlarga olib ketgandi. U endi qaddini rostlab yuradigan, ko'chaga chiqadigan bo'lgandi. Bir kuni kechqurun magazindan non olib qaytarkan, kimdir qichqirganday bo'ldi. Qo'rqib qadamini tezlatdi. Lekin chaqirgan odam bari bir unga yetib oldi. Bu – Jo'raqul edi. Ular bir-birlariga tikilib qotib qolishdi.

– Maxfirat, Maxfirat! Sizni ko'radigan kun ham bor ekan-ku! Shuncha yildan buyon faqat ovozingizni eshitardim. Xayriyat, Xudo bor ekan. Ertaga, erta tongda urushga ketayapman.

Maxfirat nimadir deyish kerakligini bilar, lekin hech narsa deyolmasdi. Ular ko'chada, odamlar ko'z o'ngida turishardi. Nogohda oyisining ovozi uni o'ziga keltirdi: «Uyat bo'ladi, qizim, begona erkak...» U yugurgilab ketdi, ortidan Jo'raqul ham ergashdi.

– Urushdan omon qaytsam, hali balki ko'risharmiz...

U bari bir hech narsa deyolmadi. Darvozani zanjirlab qo'ydi. Tuni bilan uxlayolmadi. Yumshoq to'shak badaniga mix bo'lib qadaldi, o'rnidan turib hovlini kezdi, devor ostiga bordi. Narigi yoqda kimdir «Maxfirat!» deb chaqirganday bo'ldi. U esa ovoz chiqarolmadi. Oyisi izma-iz ta'qib etardi. «Uyat bo'ladi, qizim», – derdi beozorgina boqib.

O'sha uchrashuv uning uchun eng nurli xotira bo'lib qoldi. O'sha kech uni chaqirmadi. Umr bir ko'z ochib yumganchalik o'tib ketibdi – bechora alam-sitamlar bilan birga. Lekin Jo'raqulning o'ktam chehrasi, ovozi, qaddi-basti o'sha holiha turibdi. Nega uni chaqirmadi? Bu savol uning yuragini doim o'rtab keladi...

Urush tugadi. Maxfiratning quvonchi ham tamom bo'ldi. Sadriddinxo'ja qaytib keldi. Jo'raqul esa izsiz yo'qoldi. Qo'shni hovlidagilar uni bir yil kutishdi,

ikki yil kutishdi, oxiri ovoz chiqarib aza tutishdi. Bu hovlidan ham ovoz chiqdi... Alamli, dardli, armonli ovoz... Sadriddinxo'ja tumtayib oldi, keyin jahli qo'zg'ab qichqirdi.

– Endi bo'ldi qil, la'nati! Yo men bo'lmaganda og'iz-burun o'pishganmiding o'sha itvachcha bilan?

«Uyat bo'ladi, qizim! Erli xotinsan...» – shu kundan e'tiboran marhuma oyisini ham yomon ko'rib qoldi. Doimo zolim erning tomonini oladi. Onasini yoddan chiqarishga urindi, eslash to'g'ri kelsa, ijrg'anadigan bo'ldi...

Urushdan eri asab kasalini orttirib kelgandi. Sal narsaga tutoqib ketadi, qo'liga nima tushsa otib yuboradi. Endi u bolalarni deb yashardi bu erkak bilan. Keyin ko'nglida yana bir armon paydo bo'ldi. Lekin bu armonni hatto ko'nglidan kechirish ham qo'rqinchli edi.

Bolalar katta bo'lib qolishdi. «Qizlaringga ehtiyot bo'l, biron gap eshitsam, hech qaysingni sog' qo'ymayman», – dedi eri. Karomatni so'rab uyga sovchilar qatnay boshladi. Karomat rad qilaverdi. Lekin bir galgi sovchilarga indamadi. Qizining shularga ko'ngli borligini u darrov sezdi.

– Men rozi. Faqat otasiga maslahat solinglar, – dedi u. Ota esa ko'nmadi. Sovchi tomonning avlodi past emish. Sovchilar bari bir qatnayverdi.

– Endi kelmanglar, bo'ldi, agar qizim rozi bo'lsa, unaqa qizni men oq qilaman, xotinimdan shunaqa gap chiqsa, unga uch taloq, – dedi ota supada uning roziligini kutib o'tirgan sovchilarga.

Ichkarigi xonada o'tirgan Karomat bu gapni eshitib faryod solib yig'ladi. O'zini o'zi o'ldirmoqchi bo'lib kerosinga yopishdi. Qiy-chuv ko'tarildi. Maxfirat yugurib tashqariga chiqdi.

– Umrimni xazon qilding, endi bolalarimning ham baxtini to'smoqchimisan, nomard, – deya chinqirganini o'zi ham bilmay qoldi. Sadriddinxo'janing ko'zlari qinidan chiqayozdi:

– Uch taloqsan, – dedi vishillab...

Shundan buyon er-xotinning o'rtasida gap-so'z yo'q edi. Chol pastki uyda yashardi... Bolalarning hammasi uyli-joyli bo'lishdi...

Hovlida rasm-rusm joyiga keltirilayapti. Otadan yaxshi gapni kam eshitgan bo'lishsa-da, farzandlar uning hurmatini binoyidek o'rinalatishayapti. Kampirning ko'nglini g'ashlik egalladi. Odamlar, odatda, qadrlı kishilar olamdan o'tsa, o'rtanib yig'lashadi, yaxshi xislatlarini eslashadi. Kampir nima deb yig'laydi?

Eshik ochildi. Karomat kirib keldi.

– Oyi, oyijon, – u yig'lab onasini quchoqlab oldi. – Men sabab otam bilan urishib qoluvdingiz. Endi rozi-rizolik qiling. Otaginam go'rida tinch yotsin...

Kampirning yuragi ezilib ketdi. Qanaqa farzandlar o'stiribdi-ya, shunchayam shafqatli bo'lishmasa...

– Mayli, bolam, mayli, – dedi qizining boshini silarkan. Salomat, A'lam, Azimjonlar ham tik turib uni kutishardi. U sudralib hovliga chiqdi. Odamlar tobutni ko'tarishdi... bir zum qotib turishdi. Ular hamon kampirga muntazir edilar.

---

Tobutda yotgan kishi uning navqiron yoshligini o'zi bilan birga olib ketayotgandi. Endi u qanday yashaydi, qurigan qoq suyakka aylangan kampirning kimga keragi bor. U axir bari bir niyatiga yetdi-ku. O'limini bir bor ko'rsam, armonim yo'q, deb yashab kelayotgandi hozirgacha. Yo'q, hech qachon birovlariga o'lim tilamagandi, yolg'iz shu armoni bor edi. Uning boshqa hamma yaxshi tilak va orzularini yo'qlik sari ketayotgan tobutdagi o'lik berahmlarcha toptagan, o'ldirib yuborgandi. Qalbi tubida asrab kelayotgan yolg'iz armoni amalga oshdi. Endi yashashning hojati ham yo'q edi.

U baqirib yig'lab yubordi. Har birining boshiga kelishi muqarrar bo'lgan oxiratni o'ylab cheksiz qayg'uga cho'mgan farzandlar, nevaralar, qarindosh va qo'ni-qo'shnilar hayrat bilan kampirga tikilishdi. U boshidagi ro'molini otib yubordi, oppoq sochlari yoyilib ketdi, tobut ko'targan odamlarning yo'lini to'sdi. Tobutga osilib oldi:

– Meni ham olib ket. Nega tashlab ketayapsan, olib ket meni ham...

Qizlari va kelinlari qo'ltig'idan suyab chetga chiqarishdi. Uning endi tik turishiga majoli ham qolmadi, ichkariga olib kirishdi, karavotga yotqizishdi. U alah-sirardi, anchadan so'ng hushidan ketdi. Cholni ko'mib kelishganda kun botgandi, lekin borliq allaqanday sokinlik va tiniqlikka g'arq edi.

Konfet so'rab kirgan kichkintoy nevarasiga buvisi kulib boqmadi, sho'x vijirlashlariga ham e'tibor bermadi. Kichkintoy odaticha sekingina uning cho'ntagiga qo'l uzatdi-yu, seskanib tushdi. Buvining ko'zlari ochiq, yuzi esa sovuq tirjayib turardi. Chinqirib tashqariga otildi. Yo'q, u hali bola edi, dunyoda o'lim degan narsa borligini idrok etolmasdi. Lekin o'limning nafasi, muhri sovuq va dahshatli ekanligini shu damda his etgandi. Borliqni yana yig'i-sig'i egalladi.

Kampir olamdan o'tgandi...



# Mirzapo'lat Toshpo'latov

(1952-yilda tug'ilgan)



Mirzapo'lat Toshpo'latov 1952-yil 1-sentyabrda Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi Dashtu Fayzobod qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1976). «Yurakdagi sir» (1977), «Beorom to'lqinlar» (1979), «Baxt yulduzi» (1989), «Oyni axtarayotgan bola» (1985), «Sanam tog'idagi gulxan» (1991), «Saylanma» (2007) singari qissa va hikoyalardan iborat kitoblari nashr etilgan. Asarlari asosida badiiy filmlar suratga olingan («Olov qa'ridagi farishta», 1994; «Gunoh», 1995; «Tavba», 1996; «Muallif», 1999; «Zanjir», 2001; «Muzaffar», 2003).

## MAYDON

- Hoy, odamlar! Aziz polvon o'zini yiqitgan polvonga qizini berarmish!
- Qizining o'zi ham shunday deb turganmish. Rozimish.
- Juda qiziq bo'пти-da. Xuddi ertaklarga o'xshaydi-ya!

\* \* \*

– Odamlar-o, odamlar, eshitmadim demanglar! Aziz polvonnikiga to'yga-ov...

Hamma hayron: Aziz polvon qiziga qalliq tanlash uchun kurashli to'y qilsa, o'zi kurash tushsa...

– Asli, qizini erga bermoqchi bo'lgan ekan, qizi: «Unda kurashli to'y qiling, kim meni yiqsa, o'shanga tegaman», deb oyoq tirab olibdi. Otasi: «Ko'nsang ham, ko'nmasang ham, meni yiqitganga beraman», deb turib olgan ekan, qizi rozi bo'ptimish.

- Lekin qiziyam o'zi qizmisan-qiz-da. Ko'rganmisan, xurliqo, pari nusxa-da.
- Ha, kurashmisan, kurash bo'ladi-da!

- Aziz polvonni yiqitadigan mard bormikan o‘zi.
- Uning bilan belashish uchun Farhoddek botir kerak.
- Xuddi, ertakning o‘zi-ya.
- Ertaklar bekorga to‘qilmagan-da, oshna.
- Zarjahnon rivoyatini eshitganmisan?
- Yo‘q...

Aziz polvonning qishlog‘i-yu yon-atrof qishloqlarda shu taxlid gaplar aytilardi. Unut bo‘lgan rivoyat yoddan ko‘tarilganda shu polvonlarni eshlashardi.

– Hamma biladigan Zarjahnonni eshitmabsan-a. Eshit bo‘lmasa, xumkalla, bu rivoyat ajdodlarimiz haqida. Ular kurashni sevishgan. Ayollari ham jasur bo‘lgan. O‘shal uchun ularga yov yaqin yo‘lamagan. Bilib qo‘y, bu rivoyat o‘zimizning ona Zarjahnon haqida. Yaxshilab eshit. Balkim, bola-chaqangga so‘zlab berarsan. Bu rivoyatni «Ona botir», «Ona oqil» haqida qo‘shiq ham deb yuritishadi. Xatoga yo‘l qo‘yma-ya, avlodlar qahriga uchraysan...

Nasaf qishlog‘i. Telba daryo – Qashqa. Saroy qabilasining sardori yorug‘ dunyodan ko‘z yumdi. Ahli aholi bir hafta ko‘k kiyib, sadr tepdi... Yig‘idan ko‘zlari qizardi. Uning yaxshiligi uchun ham dildan yig‘lab sadr tepishdi. Mehr olamida beqiyosligini, mardlar maydonida tengsizligini, adolatparvarligini aytib yig‘lashdi. Ammo, u tirilib kelmadi. Shul bois, qabila ulug‘lari kengashga yig‘ilishdi. Biri u, biri bu dedi. Bir qarorga kelolmay, uch kun tortishishdi. Axiri, «sardorning qizi Zarjahnon kimni o‘ziga loyiq topsa, o‘shal bosh bo‘lsin», degan qarorga to‘xtashdi.

Zarjahnonni chaqirishib, kengash qarorini aytishdi.

Qiz o‘ylanib javob qildi:

– Ey ulug‘lar, agar sizlar shuni qaror qilibsizlar, men rozidurmen. Faqat shartim bor.

– Qani-qani, eshitaylik-chi, – deyishdi kengash ahli.

Qiz ularga yana ta‘zim qilib shartini aytdi.

– Otaxonlar, men tanlagan yigit el-ulusga bosh bo‘larkan. Unda aql-zakovat birlan uni sinamog‘im kerak.

– Xo‘sh-xo‘sh, qizim, – deyishdi o‘tirganlar.

– Shartim shu: meni yiqib, ikki savolimga javob berganga xotin bo‘laman.

Shart hammaga ma‘qul tushdi.

– Ha, qizim, to‘g‘ri gapni aytding. El boshida bosh bo‘lib turgan odam zo‘r va oqil bo‘lmog‘i kerak, – deyishdi-da, shu zahoti qizning shartini elga e‘lon etishdi.

Elning manman degan polvon, mard yigitlari qur atrofidan joy olishdi. Zo‘rlarning zo‘rin, qizning kurash tushishin ko‘rmoqqa tumonat tomoshabin ham qur atrofiga cho‘kdi.

Qur o‘rtasida davra. Davraga sochini turmaklab, jomakor kiyib olgan Zarjahnon chiqdi. Go‘yo oymisol davrani yoritdi. Go‘zalligin ko‘rgan bulbullar sayrab yubordi. Odamlar hayajondan «voh» deb, polvon bo‘lmaganidan ming bir afsus tortishdi. Qiz kurash tushdi, manman degan polvonlarni bo‘yi barobar ko‘tarib otdi. Qiz bolaning shunchalar qudratligidan, «yo tavba», deya yoqalarini ush-

lashdi. Tomoshabin ko'p, kurashadigan yo'q. Bori ham tugadi. Boshi qotgan bakovul davra aylanib Zarjahonning cho'poni oldida to'xtadi.

– Hoy yigit, kelbatingdan tog' hurkadi, bir baxtingni sinasang-chi? – dedi.

Yigit o'ylanib, istiholaga borib, davraga chiqdi. Zarjahon ham davraga chiqdi. Atrofdan sukunat, butun borliq sukunatda. Uvillab, pishqirib esadigan bo'ronlar ham jimgina tomoshabinga aylangan. Ular bel ushlashdi: tog'lar uchrashdi. Na'ra tortib osudalik bag'rin tig'lashdi. Ammo, bir-birini yiqolmadi. Kurash uzoq davom etdi. Qiz holdan toydi: charchadi. Yigit chinordek, Alpomishu Farhoddek davrada turaverdi. Qizning jahli chiqdi.

– Hoy, yiqitadigan bo'lsang, yiqit-da, endi, – dedi.

– Go'zallarning go'zali, men seni qay yuz bilan yiqaman.

Zarjahon birdan yengil nafas oldi. Kengash yoniga borib yengilganini tan oldi.

– Unda savolingni ber, kechiktirib nima qilasan, – deyishdi.

Qiz birinchi shartini aytdi.

– Gavhar og'irimi, yer?

– Gavhar yukini yer bosar.

– To'g'ri, – dedi Zarjahon. – Dunyoda eng aziz narsa nima?

– Yer bilan quyosh!

– Bu ham to'g'ri, – deb o'z hayotini yigitga chambarchas bog'labdi. Buni eshitgan olam dunyoga yangi bir tadbirni qo'llabdi. Janglarda shohlar kurash tushisharkan. Qaysi yiqilsa, yiqitganga itoat etib, farzandi yoki aka-ukalaridan garov qoldirib qaytarkan. Aziz polvonning va qizining sharti to'g'ri bo'пти, shunga qaragan-da, – dedi rivoyatini tugatayotgan kishi.

\* \* \*

Aziz polvonning bog'i etagidagi kenglikda tomoshabin qur tikib o'tirdi. Moyli kunjara kallalari davrani yoritdi. Jumagulning otasi yakka-yu yagona qiziga zo'rlarning zo'ridan kuyov tanlashga kirishdi. Davraga talabgorlar bitta-bitta eng shimarib chiqishdi. Aziz polvon aziz edi. Nomi elga mashhur edi. Odamlar uni Hasan ko'lvor deya atashardi. U tuyani yiqitgan, otni tishida ko'targan polvon. Uning bilan olishish uchun Alpomish misol yigit kerak edi.

Aziz polvon qancha-qancha polvonlarni yiqitdi. Navbat Hut polvonga yetdi. Zo'rlar bilan zo'rlar kurashganda ularning shamolidan bo'ron hurkar, deyishadi. Zo'rlar tantiligi, sofligi, qudratligi bilan zo'r. Ular maqtanishmaydi, so'zlaridan qaytishmaydi. Ikkalasi uzoq olishishdi. Odamlar Hutni Alpomishga, Azizni Hasan ko'lvorga qiyoslashib rosa tomosha qilishdi. Aziz polvon charchadi. Hut uni bo'yi barobar ko'tarib yiqitmay yerga tik qo'ydi.

Hut Jumagulga shunday uylangandi.

Jumagul polvon qizi. U qurni, polvonlar kurashini xush ko'radi. Ular bilan Zarjahon g'ururlangandek, g'ururlanadi. Ammo u ayol, ayollar ko'zlari yorigan xonadonni sevadilar. Ular bolalari-yu erlarini iloji bo'lsa yonlaridan yiroqlatmasa-

lar. Ayollar osudalik, go'zallik timsolidirlar! Jumagul ham o'sha ayollarning biri: tanholikni yomon ko'radi.

Osmon betini qamrab olgan bulutlar kechga borib tarqadi. Ko'kda chaman yulduzlar porladi. Kuni bilan ko'z ochirmay yoqqan qor yer bag'rini oppoq harirga burkadi. Havo musaffo. Qishloq sokin. Sovuqdan junjikkan itlarning hurishi ham eshitilmaydi.

Jumagul bolalarini uxlatib, hovliga chiqdi. Darvoza tirqishidan ko'chaga ko'z tashladi. Hech kim, biron jonzot yo'q. O'choqqa olov yoqib, qumg'on qo'ydi. Namiqqan o'tin buruqsadi. Nihoyat, sharqirab qaynadi. Jumagul iliq choyni to'kib yangidan damladi. Uchinchi bor eriga atab choy damladi. O'choqdagi qo'rmi sandalga solib, choydushni bir chetiga qo'ydi. Sandalga tashlangan cho'g'dan iyaklari, burnilari ustidan ter rezalar yiltilladi.

Jumagulning fikri xayoli eri Hutda. Uning raqiblari bir necha bor Jumagulga: «eringga ayt polvonlikdan kechsin: bo'lmasa chuvrindilaring bilan chirqirab qolasanlar», deb po'pisa qilishgan. Jumagul erining oyoqlariga yiqilib iltijo qildi, o'tinib so'radi. Lekin bo'lmadi. Qaysi ayol tul qolishni istaydi. Hech qaysisi. Erlar ular uchun hayot ustuni. Shu ustunga suyanib yashaydi. Qora kuchlar Jumagulni ustunidan ayirishmoqchi. Hut buni bilsa-da, davrani, kuchlilar, mardlar maydonchasini tark etolmaydi. Polvonlar uchun qurning havosi o'zgacha, hayotlarining bir bo'lagi. Jumagul buni bilmaydi. Bilish uchun kurashib ko'rmog'i kerak.

Hutning otasini raqiblari o'ldirib ketganini eslab, Jumagulning eti zirqirab ketdi. «Ey, xudoyim, balo-qazolardan o'zing asragin», deb pichirlagancha, xayol og'ushida uyquga ketdi.

Eri Hut bilan kechasi qayerdandir kelishmoqda edilar. Qarshisidan qora libosli kishilar chiqib, o'rab olishdi.

– A-ha, qo'lga tusharkansan-ku, bachchag'ar! – dedi otda turgan shopmo'ylovlisi. – Xotining o'lja. O'zing quzg'unlarga yem bo'lasan!

U bir imo qilgan edi, yonidagi sheriklari Hutga tashlanishdi.

– Dod!.. Voydod!..

Jumagulning jon achchig'idagi qichqirig'idan uxlab yotgan bolalar uyg'onib ketishdi. To'ng'ichi Najim piyolada suv tutdi. Jumagulning vujudi qo'rqinchli tushdan dag'-dag' titrardi.

– Bosinqirabman, qo'rqmanglar, bolalarim, – deya ularning ustiga ko'rpa tashlab, tashqariga chiqdi. Qora tunda, achchiq izg'irin iliq harorat ustidan g'olib chiqib, tantanavor vizillardidi.

Vohaning hamma tomonlaridan nomi ketgan polvonlar kelgan. Kurash uchun ajratilgan maydonda odamlar qur atrofini to'ldirishgan. To'rt-besh joyda moyga shimdirilgan kunjara kalla yonib turibdi. Qur atrofidagi gulxanlarga yorilgan to'nkalar qalangan. Tarafkashlarning: «Bo'sh kelma, Hut! Barakalla, Hut!» – degan qiyqiriqlari yangraydi.

Polvonlar sovuqni pisand qilmay raqibi ustidan g'olib chiqish uchun bir-biriga hamla qilib, chalishga yoki yelka qilib yiqitish ishtiyoqida yonishadi. Ust-

laridagi jomakorlariyam chidash bermay, shir-shir yirtiladi. Boyvachchalar pul chiqarib: «Hut yiqitadi, o‘zini tutishini qara, kelbatiga qara! Alpomishni o‘ziku!» – deb tikishadi. Tortishuv, tikishlar g‘olibni olqishlash bilan tugaydi. Hut raqibini dast ko‘tarib otdi. Gurs etgan tovush yerni zirillatib yubordi-yov! «Balli Hut!», «Otao‘g‘il!», «Halol!», – degan baqiriqlar eru ko‘kni tutdi.

Hut katta qo‘chqorni yelkasiga tashlab, qurni bir aylanib hamqishloqlari oldiga kelib o‘tirdi.

Yiqilgan polvon chamasi Hutdan yoshi katta edi. O‘rmidan turib, uning oldiga kelib qo‘l cho‘zdi.

– Qoyilman, polvon. Shu paytgacha yag‘rining yerga tegmagandi, – deb Hutning qo‘lini xomush siqib orqasiga qaytdi.

Davra bakovuli:

– Hut, sen bilan bellashishga G‘uzor begining o‘g‘li Safarniyoz polvon talabgor, – dedi. Hut davraga chiqib, qariyalardan fotiha so‘ragancha tiz cho‘kdi.

– Omin, Olloh omadingni bersin! – deya fotiha berishdi qariyalar.

Hut qoida bo‘yicha davrani uch aylandi-da, qaddini rostlab, zabardast, oftobdan qoraygan, og‘ir mehnatda qadoq bo‘lgan qo‘llarini raqibi Safarniyozga uzatib bordi. Qur atrofi tinch, olam tinch. Go‘yo butun borliq sukunat-la tomoshabinga aylangan.

Safarniyoz ham ancha nom chiqargan polvonlardan. Faqat g‘irrom, shuhrat quliga aylangan polvon. Otasiga qarashli yerlarda bo‘ladigan kurashlarda birinchi tovoq zoti uchun kurashadi. Oladi ham. Bekning o‘g‘li, hamma-hamma narsa u tomonda. Shuning uchun ham oladi. Ha, birinchi zotni u oladi. Hut bilan ilk bor bellashmoqda. Hutdek dovrug‘i viloyatni tutgan polvon bilan olishib, olamga dovrug‘ solmoqchi. Qolaversa Hut Safarniyozga bek otasi yuz-xotiri uchun yiqilib berar, degan o‘y-xayol ham yo‘q emas. Ana, ushlahdi. Safarniyoz qoqma berdi. Hut buni kutmagan edi. Haqiqiy polvonlar birinchi qafasda kuchlarini chamalashadi, yiqitishga chiranishmaydi.

Hut tizzada turib qoldi. Safarniyoz esa unga yopishib, yiqitishga urinadi. Polvon qahrlandi. O‘rgimchakdek yopishayotgan raqibining ikki qo‘lini siqib ushlab, bir qop unni yelkasiga olgandek keng yelkasiga olib o‘rmidan turdi. Safarniyoz chillak oyoqlarini tirirchilatar, qo‘lini esa Hutning qadoq barmoqlari ostida, go‘yo boylangandek sezardi. Zo‘rning zo‘ri – zo‘r bo‘ladi. Qahri kelsa – sher bo‘ladi. Buni bilmagan Safarniyoz qaytanga o‘zga xayollarga borar, tan berishni esa istamas, g‘ijinib, ko‘zlari xonasidan chiqib ketgudek bo‘lib: «Qo‘yvor, yalangoyoq», deb tirirchilardi.

Hut uni yelkasiga ko‘tarib davra aylantirdi-da, qurning o‘rtasiga tosh irg‘itgandek itqitib yubordi.

Safarniyozning malaylari uning ko‘nglini ovlash bilan ovora: Biri changini qoqardi, biri issiq choy tutardi, oddiy tomoshabinlar ofarinlar aytardi.

Davraga tovoq keltirildi. Bakovul tovoqlarning zotini chiranib ayta boshladi:

– Birinchi tovoq – nortuya, ikkinchi tovoq – ho‘kiz, uchinchi tovoq – qo‘chqor, yonida ikki kiyimli olachasi bilan. Zo‘r oladi, yiqilgan keyingisida olar. Hoy talabgorlar, qani yuragida o‘ti, belida quvvati toshganlar, zoti g‘olibniki, tomoshasi bizniki, olinglar!

Davrada jonlanish boshlandi. Ammo Hut nomidan tovoqni olib keladigan tarafkashlari jim edi. Tarafdorlaridan biri tovoqni polvon nomidan olishi kerak. Hozir Hut uchun tovoq olib keladigan Hamro bobo ham jim. U bek o‘g‘lining dushmaniga aylanib qolishidan hadiksirab jim o‘tirardi.

Ikkinchi tovoqni Hamro bobo Nazirqulga, uchinchisini To‘ychining hamqishlog‘i Qodir polvonga oldi. Nazirqul zotni halollab oldi. Qodir esa Temir polvonga boy berdi. Birinchi tovoq hali ham yetimcha bo‘lib turavergach, chorjo‘ylik Tanti polvon tarafdorlari oldi. Tanti davrani uch aylanib, o‘rniga borib o‘tirdi. Hech kim davraga chiqavermagach, bakovul o‘rtaga chiqib:

– Talabgor bo‘lmasa, nortuyani Tanti polvonga beramiz! – deya e‘lon qildi. Tomoshabinlar birinchi tovoq zotini shunday berilishini istashmaydi. Birinchi tovoq kechening yulduzi, bahodiri. Uning qanday olinishini orziqib kutishmoqda. Agar hozir bakovul: «Zotni ber Tantiga, talabgor yo‘q», desa bormi, hamma alamzada bo‘ladi. Kurashning oxirigacha o‘tirishganiga ming afsus chekadilar. O‘zlari olisholmaydi, lekin olishadiganlarni: «Nega palonchi chiqmadi, qo‘rqdi, bachchag‘ar. O‘sha ham polvon bo‘libdimi. Kelib-kelib, chorjo‘ylik polvonga berib yuborishdi-ya zotni enag‘arlar-a», deb so‘kinisha-so‘kinisha uylariga qaytishadi. Hozir ichlarida so‘kinib, ich-ichidan o‘zlarini polvon bo‘lmaganliklariga ichikib o‘tirishibdi.

– Talabgor bo‘lmasa, zotni keltir, Aliqul! Ho, Tanti polvon, tuyani keltirgunlaricha davrani yana bir aylanib qo‘ying!

Qoidaga muvofiq, Tanti polvon davrani yana bir g‘olibona aylanishni bajo keltirishi kerak edi. Odamlar oxiri, so‘nggi umidlari bilan Hut polvon tomonga boqishmoqda.

Tanti davrani aylanmadi. U davrani tik kesib o‘tib, Hut o‘tirgan joyga bordi: uning qarshisida to‘xtadi.

– Hormang, Hut polvon, sizning dovrug‘ingizni eshitib Chorjo‘yday joydan kelgandim, bellashmoq uchun. Nahotki shuncha yo‘l bosib kelganim havoga uchsa, oringiz kelmaydimi? Sizni oriyatli polvon, deb eshitgandim...

Tantining oxirgi so‘zlari Hutga qattiq botdi shekilli, oshiqmaygina jomakorini kiyib beliga belbog‘ini boylab, o‘rtaga chiqdi. Tomoshabinlar jonlanishdi. Dillari yorishdi. Ikkala polvon ham dovrug‘ solgan polvon. Hut voha polvoni. Tanti, zo‘rlarni eshitib, topib olishadigan – sayyor polvon. Ular sekin ushlashishdi: sinashda bo‘lishdi. Birinchi qafas tugab, ikkinchi bor ushlashishdi. Tanti ichkaridan chalib qayirmoqchi bo‘ldi. Hut uning chilini qayirib, qo‘shpoycha usulini qo‘lladi. Kurash qiziganda-qizirdi. Oltinchi qafas ushlashishdi, charchashdi. Tanti tezkorlik, tuya chil qo‘lladi. Tomoshabinning butun vujudi diqqatga aylangan, hech birining yiqilishini xohlamasdi. Zo‘rlarning yiqilishi yomon – qayg‘uli. Ularning olishi-

shi shuning uchun yoqadiki – mardona olishishadi. Mardlar nomard bo‘lmaydi. Shu boisdan ikkisining ham yiqilishini istashmaydi. Mayli, ikki polvon olishaverishsin, tong otib, kun botguncha, haftalab, yillab olishishsin, qur atrofidagilar tomoshadan horishmaydi, o‘tiraverishadi. Faqat, davrada polvonlar – mardlar bo‘lishsin. Tomoshabin horimaydi: faqat o‘rtada polvonlar bo‘lishsin! Ikkalasi ham hunar va quvvat bilan belashishmoqda. Tomoshabin hayajonlar to‘lqiniga g‘arq. Tanti yelka qilmoqchi bo‘ldi, bo‘lmadi. Hut eng oddiy usul – qayirmadan uni yiqitdi. Eh, qanday ko‘rgilik, shunday polvon yiqilsa-ya...

Odamlar «halol», «halol» deb baqirishmadi.

– Halol... – deyishdi o‘kinchli ohangda. Axir ular hech birining yiqilishini istashmagan-da... Nachora, buni kurash deytilar. Mardlar qudratini maydon ko‘rsatur!

Yiqilgani Safarniyozga juda alam qildi. Shu yiqilishda, bekning o‘g‘li degan nom ham obro‘, hurmat taxtidan yiqilib, tuproqqa qorishib ketgandek tuyulaverdi. Dili xufton bo‘lib uyiga qaytdi. Ich-etini yeb o‘zini qo‘ygani joy topa olmadi. U shunday chora izlardiki, bu bilan polvonlik obro‘cini, bekning o‘g‘liligi obro‘cini saqlab qolishi kerak edi. Lekin Hutning dovrug‘i atrof-viloyatni tutgan, yiqita olmasligiga aqli yetardi, ammo chora topishi kerak!..

\* \* \*

...Kurashdan so‘ng uzoq yo‘l bosib charchab horib kelgan Hut, uyida bek va boyvachchalarning zulmidan Toshkentga qochib ketgan Ermatni ko‘rib charchog‘i ham esidan chiqib, dasturxon oldida gaplashib turardi.

– Obbo Ermatjon-ey, rosa dunyo kezibsizda-a, erta-indin hurlik bo‘ladi, degin. Yelkamizga quyosh nuri tushadigan bo‘ptida-a.

– Ha, Hut aka, shunday. Yaxshi kunlar boshlanadi...

– Aytganing kelsin, uka. Bosh omon bo‘lsa, ko‘rarmiz. – Hovlidagi ot tuyoqlarining dupurini eshitib, o‘rnidan turdi. – Hozir, Ermatjon, bir qarab kelay-chi, kim ekan, – deb yelkasiga to‘nini yelvagay tashlab tashqariga chiqdi. Hovlida saman otli, beliga xanjar taqqan Safarniyozni ko‘rarkan, nimaga kelganini darhol sezdi, lekin bosiqlik bilan so‘radi:

– Xush kelibsiz, xizmat, boyvachcha.

– Gaplashgani keldim.

– Xo‘sh-xo‘sh, boyvachcha?

Safarniyoz qo‘ynidan oltinga to‘la hamyonni olib, Hutning oldiga irg‘itdi.

– Ol! Bir umr yeb yotasan. Lekin bilib qo‘y, evaziga ertangi kurashda yiqilib berasan. Birovga og‘zingdan gullasang, ko‘rasan!

– Arpa do‘g‘ingni enangga qil, bachchag‘ar! Puling o‘zingga buyursin! Polvonlar ahli kuchini, insof va vijdonini pulga sotishgan emas. Sotishmaydi ham, boyvachcha!

– Tanangga o‘ylab ko‘r, bir marta yiqilsang, osmon o‘pirilib yerga tusharmidi! Tag‘in boshingga otangning kuni tushmasin.

– Er yigitning gapi bitta bo‘ladi!  
– Voy yalang oyoq. Tiling burro-ku, itvachcha!  
– Nima deding haromtomoq, – deb yubordi. Uning qahri qo‘zg‘agandi. Kuchqudrati etiga sig‘may ketdi. Zo‘rlar – bahodir. Ularning qahri toshmasin, toshgandan keyin...

\* \* \*

Qishloqliklar yozning ne‘matini yig‘ishtirib, yelkalaridan tog‘ ag‘darilgandek, yengil tortishdi. To‘ylar boshlandi. Ko‘chalarda aytuvchilar ko‘rinib qoldi.

– Odamlar-ov, odamlar, eshitmadim demanglar, Valinikiga to‘yga-ov. Jappi-jamoa to‘yga-ov...

– Zo‘r kurash bo‘larkan, Valining to‘yiga Tanti polvon kelganmish. Hut bilan yana bir bor kuch sinashmoqchi bo‘p kelganmish...

– Polvon degan ana shunday bo‘lsin-da. Qandini ursin. Shuncha yo‘ldan kepti-ya.

– Asl polvonlardan ekan-da, hammaning og‘zida shu gap.

Hut polvon kenja o‘g‘ilchasini ko‘tarib, non yopayotgan xotini Jumagulning atrofida uymalashadi. U hayajonda, o‘zini qo‘ygani joy topa olmaydi. Yuragi tez-tez uradi. Nega? Yuragiga taskin axtaradi. Axir bugun yana o‘sha Tanti bilan bellashadi. Hazil gap emas. Tanti qudratli, oriyatli polvon. Oriyatli bo‘lmaganda, Chorjo‘yday joydan kelarmidi. Albatta, bu kurash og‘ir ko‘chadi. Tantini eshitishsa, odam ham tumonat kelsa kerak. Bo‘lari-bo‘lar. Endi maydon ko‘ryaptimi. Qolaversa, avval yiqitgan, kuch sinashta bo‘lgan. Lekin bir yil ichida qanday o‘zgarish bo‘lishi mumkin, shunisi qorong‘i. Tanti bir yil huzur-halovatini, tinchini yo‘qotib yashagan. «Yelkam yerga tegmagandi, qoyilman», deb tantilik qilib tan berganu... Bo‘lmasa, birinchi kurashdayoq yetib kelarmidi. Mayli, ko‘rsin. Hutning bilaklari hut sovug‘ida qotgan. Yelkalari, yag‘rini hutning qorida ishqalangan. Hut – hut oyining qori ustida tug‘ilgan, u Hut. Hech narsani pisand qilmaydi. Hali uning qoni qaynaydi. Kuchini sig‘dirolmaydi. U sig‘dirolmaydi. U bugun bellashadi, yulduzlar charaqlab, oy chiroy ochganda, og‘zidan bug‘ hovurini purkab olishadi. Qorong‘i tushdi, yulduzlar miltirab, oy qiyo boqdi.

– Bo‘p qoldingmi, xotin. Bunchalik kamsuqum bo‘lmasang, – dedi Hut.

– Hozir, otasi. Uchta non qoldi. Pushti sovug‘lik qir turibdi. Biroz qizarsin. Sizga mana bu nonni ataylab singa qilib pishirdim, bolalar bilan suvga bo‘ktirib yeb turing, quvvat bo‘ladi.

– Bor ekansan-ku, xotin. Shu bir og‘iz so‘zingni qachondan beri atrofingda uymalashib, intiq bo‘lib kutib turgandim-ku.

Hut polvon xotinidan biron bir iliq so‘z eshitmasdan ko‘chaga chiqolmaydi. Unga ham qiyin, unga erining davru davroni, keltirgan zotlari kerakmas. Kechqurunlari uyda o‘tirishini xohlaydi. Hut bo‘lsa, to‘yma-to‘y yuradi. Shu bugun oxirgi marta kurash tushishi, zotini xudoyi qilib beradi-da, davrani tark etadi. Hut shu xayollarni dilidan bir-bir o‘tkazib, to‘yxonaga yo‘l oldi. Ana qur: qur atrofi-



da tumonat tomoshabin, davrani yoritib turgan moyli kunjara kallalar, tumonat tomoshabin... Uni davra ahli intizorlik bilan kutishmoqda. Balki kechikib kelganini qo'rqoqlikka yo'yanganlar ham oz emasdi. Qurga yaqin otdan tushdi. Kimdir yugurib kelib:

– Polvon, kuttirib qo'ydingiz-ku. Odamlar «kelmaydi», deb turishgandi. Kelganingiz xo'p yaxshi ish bo'ldi-da. Otning jilovini menga bering, boylab kelaman.

– Yangangiz non yopayotgandi, sal qarashib hayalladim. Tovoqlar qo'yil-dimi?

– Yo'q, endi.

Hut odamlarni oralab qurning bir chetiga cho'kdi.

Davrada shivir-shivir boshlandi.

– Ana, kelmaydi deganding, keldi-ku!

– U qochadiganlardan emas!

– Zotni Tanti olarmikin, Hut?

– Albatta, Hut oladi-da!

– Tanti ham uzoq yo'ldan bekorga kelmagandir.

Hut miyig'ida kulib qo'ydi. Davrada olishayotgan yigitlarni kuzatayotgan bo'ldi. Lekin odamlar davrada chiranib olishayotgan o'spirinlarni emas, unga qarab turishganini sezib, xijolat bo'ldi. «Nega bu ahvolga tushdi, hech qachon yuragi bunchalik tez urmagandi-ku! O'zi nimalar bo'lmoqda, xuddi birinchi marta davra ko'rayotganga o'xshaymana-a», deb o'zini-o'zi koyigan bo'ldi.

Qur bakovuli tovoqlarni qo'ya turib:

– Birinchi tovoq, – o'ng qo'lidagi tovoqni baland ko'tardi. – Besh yashar novvos, bir arabi gilam bilan. Ikkinchi tovoq – uch yashar novvos, uchinchi tovoq – bir qo'chqor, yigirma chervoni bilan.

Ikkinchi-uchinchi tovoqni olganlar davrada kurashni boshlashdi. Oho, biri halolladi. Uchinchi tovoqni ham olishdi. Tanti oldi. Tanti polvon belbog'ini yelkasiga tashlab davrani uch bor aylanib joyiga borib o'tirdi. Tanti ozgan, sochiga oq oralagan, «bechoragina odamga o'xshab qaribdi», – xayolidan o'tkazdi, Hut. – Bir yilda shuncha-ya, – deb bilinar-bilinmas pichirladi. Tantiga, rahmi kelganday bo'ldi. – Ammo, buni kurash deydilar. Davraga polvonlar, yuragida o'ti borlar chiqadi. Qolaversa, u mening rahm-shafqatimga muhtoj emas. U olishadi. Ha, olishadi». Hut echina boshladi. Hammaning ko'zi unda. Go'yo uni endi ko'rishayotganday. Hut davraga chiqdi, qomatini kerib, tog'dek soya solib aylana boshladi.

Tanti ham davraga chiqdi. Bir aylanib Hut bilan ko'rishdi.

– Omonmisiz, polvon?

– Shukr. O'ziz omonmisiz?

– Shukr.

Ular uzoqlashishdi. Uch marta qurni aylanishib, bir-biriga yaqinlashishdi. Havasmand polvonlardek jilpanglashmadi. Sekin ushlashishdi. Hammasi burungi kurashdek boshdan qaytarila boshladi. Bir-birini silkishib qo'yvorishdi. Ikkinchi

bor ushlashishdi, bel siqishishdi, qayirib ko'rishishdi, natija bermadi. Uchinchi bor ushlashishdi. Hut o'rama chil qildi. Tanti qayirib tashladi. Atrof suv sepganday jimjit. Yulduzlar-da, oy-da, tun-da, jim: butun borliq tomoshabin. Qayta-qayta ushlashishar, ammo natijasiz. Tun yarimdan oqqan. Ana, Hut yana, yana qushpoycha usulini qo'lladi. Buni raqibi kutayotgandi. Chunki Tanti xuddi shu usuldan yiqilgan. Shul bois bu usulga imkon tug'dirgandi. Tanti qarshi hujumga o'tdi. Raqibni ikkala qo'lini yonboshga olib o'ng tomondan chaldi. Hut chinor qulaganday quladi. Tanti uning ko'kragidan bosib o'tirib ham olmadi. Turg'azib, changini qoqib qo'ydi. Hutni peshonasidan sovuq ter chiqib, yo'ldan adashgan yo'lovchidek joyini topolmasdan boshqa tarafga borib qoldi. Gurra kulgi ko'tarildi. Boshi aylanib, atrofni ko'zlari ilg'amasdi..

\* \* \*

Hut mag'lublikning achchiq alamini yutib, tarkidunyo qilib, uydan chiqmay yotib oldi. To'y-ma'rakalarga ham chiqmay qo'ydi. Uyning zanjirband quliga aylandi-qo'ydi. Hech kim bilan ko'rishishni istamaydi. U faqat o'zidan-o'zi koyindi. Axir Hut kurash atalmish maydondan tantana bilan chiqib ketmoqchi edi-ku! U axir zotini xudoyi to'y qilib berib, maydon atalmish kurash maydonini g'oliblik to'yi bilan tark etmoqchi edi-da. Bo'lmadi... Axir u yiqilishini xayoliga ham keltirmagandi-ku! Yotish-turishida-da halovat yo'qolgan. Ko'ziga shunday yorug' jahon tor ko'rinsa-ya. Bu qanday ko'rgilik. Shu alfozda ancha kunlarni halovatsiz o'tkazdi.

Yurtga bahor shabadasi epkin-epkin esa boshladi. Sekin-sekin kunlar iliy boshladi. O't-o'lanlar asta-sekin yer yuzini qitiqlab chiroy ochdi. Daraxtlar o'zga-cha bir libos to'qiy boshlagan kunlarning birida Ermat pirqa kirib keldi.

– Hormang, polvon.

– Keling, Ermatjon, keling. Ammo, kesatmang, polvonligimning nimasi qoldi. Polvon deysiz.

– Iye, hali siz, bir yiqilib bo'ldi bizniki, deydiganlar turidanmisiz? Hayf sizga-ey, yerlarni ham chopmabsiz. Bo'ldi qiling endi tuxum bosib yotishni. Ana, Tantini polvon desa bo'ladi. Sizdan yiqilgandan keyin tinim bilmay past-baland joylarni ketmonlab tekislab yer ochib, odamlarga beribdi. Yozi bilan yangi uy qurayotganlarga loyini tashib beribdi. Ana, chiniqish qanday bo'ladi, bilib qo'ying, – deb chiqib ketdi.

Hut o'tirib o'yylab-o'yylab, belni olib yer chopishga tutindi. Kechgacha erini yumshatib chiqdi. Ertasi yana qayta chopib chiqdi. Ishtahasi ochilib bir lagan oshni ko'rdim, demaydigan bo'ldi. Ekin ekdi. Hovlida ish tugadi hisob. Mayda-chuyda ishlarga uning toqati toq bo'ladi. Ikki-uch kun yana tajang bo'lib yurdi.

– Otasi, uyda buncha siqilib o'tirmay, ko'cha-kuylarni ham aylanib qo'ysangiz-chi, – deb ping'illadi xotini.

– Ha, badingga urib qoldimmi? O'zing xohlarding-ku, uyda o'tirishimni. Mana, o'tiribman. Niyatingga yetding.

– Niyat qilmay ketay. Sizni rangizga qarayverib, ziq bo‘p ketdim. Qaytam kurashib turganingiz yaxshiykan, otasi.

Hut xotini bilan ortiqcha tortishmadi, yelkasiga ketmon bilan qopni tashlab qishloqdan uncha uzoqda bo‘lmagan to‘qayzorga yo‘l soldi. Yetib kelib, aylanib chiqdi. Ketmon bilan qopni bir chetga qo‘yib, bilakday-bilakday yulg‘unlarni sug‘urib ko‘rdi: quadrati yetarkan. Bu ish uning har kungi mashg‘ulotiga aylandi. Ertasi bilakdan yo‘g‘onini, indini undan yo‘g‘onini...

\* \* \*

Kuz keldi. Daraxtlar barg to‘kib, o‘tlar quridi. Uy mo‘rilaridan tutun o‘rladi. Suv yuzasi muzqaymoqdan to‘n kiydi. Hut polvon kurash – maydon ishtiyogida yona boshladi. U tushi-yu o‘ngida Chorjo‘yda Tanti bilan olishayotganday. Tanti uni kutib, «Eh, qanaqa polvonsan-a, yiqilib ham oring kelmaydimi», deb Chorjo‘y to‘ylarida Hutni yo‘qlatayotganday bo‘lib tuyulaverardi. Uyqusida yana oromi yo‘qoldi. Xotiniga gap solgandi, rozidek ko‘rindi. Qishloqning ikki polvonini qabatiga olib Chorjo‘y qaydasan, deb otlarini g‘irotdek yeldirib, qomat kerib yo‘l oldilar. Uch kunda Chorjo‘yga yaqin bir qishloq choyxonasiga kelib tushdilar. Choyxonada keksa-yu yosh choyxo‘rlar iliq-issiq choy sirqaradilar. Uch musofirni ko‘rishib, yonlaridan joy berishdi. Piyolada choy tutishdi:

– Yaxshi yetib keldinglarmi, mehmonlar? Bemalolroq o‘tiringlar, bolalarim, – dedi mo‘ysafid chol uchovini qo‘yarda-qo‘ymay yoniga o‘tqazarkan. – Uzoq yo‘l bosganga o‘xshaysizlar. Qaydan bo‘lasizlar?

– Qarshining yonidagi Saroy degan qishloqdanmiz, otaxon, – atrofdagilar Qarshini eshitib mehmonlarga yaqinroq surilishdi.

– Mehmon, unda siz Hut polvonni bilasizmi?

Hut choy icha turib:

– Ha, – dedi. Sheriklariga jim o‘tiringlar, ma‘nosida qarab qo‘ydi. Savollar yomg‘iri boshlandi.

– Mehmon, shu rostmi, otlarni yelkasida ko‘tarib o‘ynatadi, deyishadi.

– Odamning soniday daraxtlarni bir tortishda sug‘urib olarmish. Hut davrada devdek kelbatli bo‘lib ketarmish.

Hut polvon miyig‘iyida kulib qo‘ydi. Choyxonachi cholni yoniga chaqirib, oynadan ko‘rinib turgan tanasi uch yashar bolaning beliday keladigan daraxtni ko‘rsatib:

– Otaxon, o‘sha tutni menga berolmaysizmi? – dedi.

Choyxonachi, buning aqli joyidami, tomdan tarasha tushganday daraxt so‘raydi-ya, deb ijirg‘anib aftini burishtirdi.

– Kerak bo‘lsa olaqol, mehmon.

Hut tashqariga chiqib ketdi.

Choyxonachi Hutning sheriklariga yuzlandi:

– Uning aqli joyidami?

– U Hut polvonning o‘zi, – deyishlari bilan gurr etib o‘rinlaridan turishdi: tashqariga otilishdi. Hut tut daraxtini yaxshilab quchoqlab ushladi.

– Yo pirim! – deya na‘ra tortdi. Go‘ro‘g‘lidek hayqirdi, Alpomishdek tashlandi, Farhod tusiga kirdi. Ana kuch, ana qudrat! Hut polvon daraxtni tag-tomiri bilan sug‘urdi...

– Balli-ey!

– Hut polvon degancha bor ekan!

Polvon nafasini rostlab, kaftini qoqib, joyiga kelib o‘tirdi. Choyxonachi chol:

– O‘g‘lim, kechir meni. Jinday og‘ir gapirdim, – deb kechirim so‘radi.

– Hechqisi yo‘q, otaxon.

O‘tirganlardan ba‘zilar uylariga borib, bolalarini olib kelib, polvonga silatishdi – polvon bo‘lishini niyat qilishdi. Birovlar shunday polvon ajdodidan bo‘lmaganidan ichikishdi. Havas bilan boqishdi. Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Farhodga qi-yoslashdi. Ular ham bo‘lgan bo‘lsa, Hutchalik bo‘lgandir-da, – deb xayollaridan o‘tkazishdi.

– Aybga buyurmaysiz, polvon, qayerga yo‘l tutasiz? Agar bemalol bo‘lsa, qoling. Bugun qishlog‘imizda katta kurash bo‘ladi. Polvonlarga xat bitilgan. Sizga ham, – dedi bir mo‘ylovdor dehqon.

– Akaxon, men jon deb qolardim. Men Chorjo‘yga Tanti bilan bellashgani bo-rayotirman. Undan yiqilganman o‘tgan yili. Mabodo u kelsa, men ham qolaman.

– Ha, polvon, Tanti polvon Chorjo‘y o‘lkasini faxri. Kamtar edi, mard edi, yetim-yesirlar boshini silardi. Xudo ko‘p ko‘rdi. Rahmatli yomonlarning o‘qidan o‘ldi, – dedi yig‘lashdan beri bo‘lib.

– Eh, attang, rahmatli bo‘ldi deng-a. Eh, attang-a! Bu yorug‘ dunyo beozor bo‘lib ko‘ringani bilan shafqatsiz ekanda-a? Eh, attang, Tanti do‘stim-a...



# Murod Tillayev

(1952-yilda tug'ilgan)



Murod Tillayev 1952-yil 4-aprelda Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetida tahsil olgan (1979). Dastlabki hikoyasi – «Istak» (1974). Shundan so'ng yozuvchining «Och biqiniga!» (1983), «Men senga, sen men-ga», «Ko'ngilchan qorbobo» («O'n uchinchi stul», 1986, rus tilida – jamoa to'plam), «Diloromim» (1990, rus tilida), «Qopqon» (2000) kabi qissa va hikoyalar to'plami nashr etilgan.

## QO'LOQP

*Kimki komil bo'lmagay g'aflat anga,  
G'aflati ilmi xirad podosh etur.*

*Kimki johil bo'lmagay hikmat anga,  
Ilmi ham bir kun jaholat fosh etur.*

**Jaloliddin Rumi**

Trolleybus navbatdagi bekatda chayqalib to'xtadi. Yo'lovchilar birin-ketin tusha boshladilar. Shu payt oldingi eshik yonida bilagiga bir parcha qizil mato bog'lab olgan ayolning ovozi hammaning xayolini bo'lib, sergaklantirdi:

– Qani, tezroq bo'ling, tez...

Uzun, sariq yungli qalin palto yoqalarini ko'tarib olgan o'n to'qqiz-yigirma yoshlar chamasidagi yigit qo'lidagi charm qo'loqini g'ijimlab lochinnikidek harakatchan, katta-katta ko'zlarini goh yerga notinch qadar, goh kimnidir izlayot-gandek atrofga olazarak qarab qo'yardi. Ammo «lom-mim» demasdi.

– Chirtangiz bo'lmasa, unda jarima to'lang! – Nazaratchi ayol yigitga jiddiy tikildi. – Uyalish kerak edi!..

«Balki u pulini yodidan chiqazib qoldirgandir. Balki... umuman... hayotda nimalar bo'lmaydi... – deb o'yladi deraza yonboshida yupqa gardishli ko'zoynak taqib o'tirgan qoracha kampir yigitdan ko'z uzmay».

– Baraka topkur, bolani bir marta kechiring, endi qilmaydi, – dedi kampir ikki tizzasiga qo'llarini tirab turarkan. – Men to'layman, qo'yib yuboring uni, qoqindiq! – U nazoratchi ayolga yaqin borib dastro'molchasi uchiga tugib qo'ygan pul-lari orasidan yuz so'mlik olib uzatdi:

– Keragini olib qoling, qizim...

Nazoratchi ayol kampirga boshdan-oyoq bir sidra qarab chiqdi-da, yigitga ishora qilib negadir jilmaydi.

– Nevarangiz bo'ladilarmi? – Bu gap ohangida kinoya ham, nazoratchi ayolning yigitga muruvvati ham bor edi.

«O'g'lim, yo nevaram bo'lishi shartmidi? – deb o'yladi kampir bo'g'ilib. – Begonaga yaxshilik qilish ayb emas-ku!»

– Avvalroq o'ylash kerak edi. – Nazoratchi ayol kampirning qarashidan ko'nglidagi fikrni o'qib olgandek bo'shshib gapirdi. – Yana shunday qilsa, – dedi boshini yigitga burib, – jarima solaman. Albatta, ikki hissa qilib...

Yigit istar-istamas boshini ko'tarib avval kampirga, so'ng nazoratchi ayolga qovoq uyub qarab, tashqariga otildi.

– Yosh ekan, – dedi kampir pulini ro'molchasiga qayta tugayotib. – Quyulib qoladi...

Trolleybus shitob bilan o'rmidan qo'zg'aldi. Oldingi o'rindiq tepasidagi kichkina tuynukdan salonga muzdek qor havosi gurkirab kirdi. Hamma bir-biriga urildi...

Kampir birpas o'tirgach, trolleybusda borgan sayin odamlar siyraklashib qolayotganini, tok kelishini kutish befoyda ekanini tushundi. «Bu yog'i uygacha bir bekatcha yo'l. Qor havosi, tan davosi. Sayr qilib borarman», – o'yladi u.

U trolleybusdan tushayotganda zinada qorga belanib yotgan charm qo'lqopga ko'zi tushdi. «Boyoqish shoshganidan tushirib qoldirirti, – deb o'yladi yigitni eslab. – Uzoqqa ketib qolmadimikin?!» – U eshik chetidagi mis tutqichdan ushlab, yaxmalak yerga oyoq qo'ydi. Qo'ydi-yu, birdan sirpanib, qo'li tutqichdan chiqib, chirpirak bo'lib tushdi... Qo'lidagi tuguni ancha nariga borib, qorga ko'milib ketdi. O'zi qo'rqqanidan, miyasiga urgan og'riqning zo'ridan ko'zlarini chirt yumib, tishlarini g'ijirlatib, sovuq yerni quchganча ingrab yubordi.

\* \* \*

Nazoratchi ayol bekatga yetganda to'satdan yuragi qattiq-qattiq urayotganini, ko'kragi qattiq sanchayotganini, tomog'iga bir narsa tiqilib kelayotganini sezib, ko'ngliga g'ulg'ula tushdi.

U bundan besh yil burun taxikardiya kasaliga yo'liqib, bir oycha davolanib chiqqan, shundan buyon biron marta qattiq harakat qilib qo'ysa, yo hayajonlan-sa, bas, dunyo ko'ziga qorong'i bo'lib ko'rinadi... U hozir ham a'zoyi badanidan

muzday ter chiqib ketayotganini payqadi. Chiroq tagidagi o'rindiqdan qorni sildirib o'tirdi. «Endi kampirning holi nima kechadi?» Birdan ko'z o'ngida tinmay ingrayotgan kampir paydo bo'ldi. Butun kuchini yig'ib, o'rnidan turdi. «Mening kasalim uniki oldida nima bo'пти? U qari narsa... Oldi olinmasa, tag'in xudo ko'rsatmasin...»

U endi besh-olti qadam bosgan edi, yo'l chekkasidagi gazeta do'koni yonida sigaret tutatib turgan boyagi sariq yungli, qalin palto yoqalarini ko'tarib olgan yigitni ko'rib qoldi.

«Yaxshi bo'ldi», – deb o'yladi o'zicha sevinib.

– Xo'sh, nega tikilib qolding? Odam ko'rmanmisan?!

Nazoratchi ayol og'riqning zo'rayib borayotganidan yigitning gapini zo'rg'a eshitdi.

– O'zim... – dedi asta unga yaqin kelib. – Boyagi kampir... trolleybusdan yiqilib tushdi...

– Menga nima?! – Yigit ko'zlarini lo'q qilib ayolga tikildi.

– Kampirning oyog'i qattiq shikastlangan ko'rinadi... – dedi nazoratchi ayol g'azabini ichiga yutib. – Yordam berish kerak... narigi ko'cha muyulishidagi avtomatdan «Tez yordam»ga qo'ng'iroq qilib bersangiz. Men... borib unga qarab turaman.

– Dastyorlik qilib o'rganmaganman! – Yigit uning gapini cho'rt kesdi.

Nazoratchi ayol «yalt» etib yigitga qaradi. Yigit sigaret tutatib, yo'lak bo'ylab kelayotgan qizlarga suqlanib tikildi.

– Ko'rnamak! – dedi g'azab bilan. – Vijdonsiz! So'tak! – Nafasi qisilib gapirdi. – Sen... seni... Sadqai odam ket-e!!! – Uning ko'z oldi qorong'ilashdi-yu, keskin burilib, boshini quyi solgancha qorni g'arch-g'urch bosib yurib ketdi.

\* \* \*

Hilola darlar tugashi bilan birinchi qavatga tushib, yo'lak boshiga «Dekanat» deb yozib qo'yilgan eshik oldiga bordi. Talabalar bu eshikdan ichkari kirishga jur'at etolmas, hatto fakultet o'qituvchilari ham dekan – Abdulla Sayfiddinovichning xonasiga o'ylashib kirishlarini Hilola allaqachon – birinchi kursda o'qib yurgan kezaridayoq payqagan edi. U dekaning xonasida o'tkazilgan starostalar majlisida besh-olti marta qatnashgan, Abdulla Sayfiddinovichning so'zini ko'p tinglagan bo'lsa-da, har gal u bilan yuzma-yuz kelib qolsa negadir borlig'ini hayajon bosib, lavlagisi chiqib ketardi. U hozir ham hayajonlanib bir zum ikkilanib turdi-da, so'ng shaxt bilan eshikni ochdi.

Professor Abdulla Sayfiddinovich deraza tagidagi stol yonida mukka tushgan-cha allaqanday qog'ozlarni ko'zdan kechirib o'tirardi. Zangori darparda tutilgan derazadan tushayotgan quyoshning taftsiz nurida paxtaday oppoq bo'lib qolgan sochlari tovlanib ko'rinardi.

– Mumkinmi, domla? – dedi Hilola eshik tutqichini qo'yib yubormay.

Professor stoldan vazmin bosh ko'tardi-da, negadir jilmaydi.

– Keling, – dedi sekingina. Keyin oldidan bo'sh kursi ko'rsatdi. – O'tiring.

Hilola qir-qizil loladay tovlanib turgan kursiga iymanib ohista cho'kdi.

– Tabriklayman Moskvada o'tkaziladigan YUNESKO simpoziumida qatnashadigan bo'ldingiz.

– Men... men-a?! – Hilola yalt etib professorga qaradi. Esankirab o'rnidan turdi.

– Ha, siz! Fakultet kengashi tasdiqladi. – Professor Hilolaning kichkina qo'lini siqdi. – Omad tilayman!

Hilola yo'lakka chiqdi-yu, «Sizga hamroh bo'lib mexanika-matematika fakultetidan G'ayrat Kamolov boradi» deganini eshladi. Demak, u ham anjumanda qatnashar ekan-da.

Shu tobda Hilolaning xayolida G'ayrat, uning doimo o'ychan, samimiy boqib turuvchi tim qora ko'zlari, silliq taralgan sochlari qayta jonlandi. Beixtiyor u bilan tanishgan oltin kuz kunlarini eshladi...

\* \* \*

Oq xalatli doktor trolleybus ichida yotgan kampirning qo'lini ohista ko'tarib harakatga keltirdi. Tomir urishini eshitgach, shpris tayyorlab, bilagiga ukol qildi. Kardiamin tezda o'z kuchini ko'rsatdi: kampir kichkina, ajin bosgan ko'zlarini yarim ochdi. Atrof tumanli, ayqash-uyqash bo'lib ko'rindi ko'ziga. Ko'ngli ayniy boshlagach, yana ko'zlarini yumib oldi.

Hilola trolleybus tomon chopib borarkan, tinmay harsillar, ko'ngli mudhish bir narsani sezib, yuragi gupillab urardi. Trolleybus eshigi yonida odam tirband edi. Amallab ularni yorib o'tdi. O'tdi-yu, birdan... rangi qordek oqarib, lablari titrab, dahshat ichida qichqirib yubordi:

– Buvi, buvijonim! – U jon holatda kampirning qarshisida tiz cho'kib, uni mahkam bag'riga bosdi. – Sizga nima bo'ldi, buvijon? Ko'zingizni oching, ocha qoling ko'zingizni, buvijon!..

Kampir Hilolani ovozidan tanib, boshini xiyol ko'tardi. Majolsiz qo'llari bilan nevarasining sochlarini silab, ko'ziga yosh oldi.

– Endi mashinaga olsak ham bo'ladi, – dedi oppoq xalati ustidan qalin palto tashlab olgan ko'zoynakli vrach. – Tezroq shifoxonaga olib borish kerak.

Ikki kishi brezent zambilni trolleybusning yonidan olib o'tayotganlarida birdan odamlar chetlashishdi. Ichkaridan dilni larzaga soluvchi faryod eshitildi.

– Buvijon! Buvijonim! Ko'zingizni oching! Ocha qoling ko'zingizni, buvijon!

Simyog'och ostidagi «Damas» rusumli mashinaning eshigi ochib qo'yilgan, atrofida besh-oltita odam to'planib turar, havo sovib, bitta-bitta laylak qor yog'a boshlagan edi.

G'ayrat ularning oldiga kelib tosh qotib qoldi. Bir kampirga, bir sochlari so'l-g'in yuzlariga yopishgan Hilolaga qarab turib titrab ketdi.



«Nahot, nahotki!..»

Kampir shu payt zambil yonida egilib borayotgan nazoratchi ayolga nimanidir uzatganday bo'ldi, ovozi past, ingroq chiqdi:

– Boyagi yigit tushirib qoldirirti... omonat... Ko'rsangiz berarsiz...

G'ayrat o'zining qo'lqopini tanidi, tanidi-yu, birdan vujudi muzlab, ko'z oldi qorong'ilashdi, oyoqlari shalvirab, beixtiyor simyog'ochga suyandi.

U o'ziga kelganida mashinaning qizil chiroqlari uzoqlashgan, yo'l chekkasida to'planib turgan odamlar allaqachon tarqalib ketgandi. Faqat qulog'i ostida Hilolaning yurakni ezuvchi faryodi, kampirning dilkashlik bilan nazoratchi ayolga aytgan so'nggi so'zlari hamon jaranglard...

# Erkin Usmon

(1952–2016)



Erkin Usmon 1952-yil 10-fevralda Toshkent shahrida tugʻilgan. Toshkent Davlat chet tillar institutini tugatgan (1978). Dastlabki fantastik hikoyasi – «K. K» (1967). Shundan soʻng yozuvchining «Gunafsha» (1981), «Oʻgʻildan sovgʻa keldi» (1984), «Olam nurga toʻladi» (1987), «Kulishgani keldik», «Dilingda darding boʻlsa», «Yos-tiqdek kitobdan uch sahifa» (1989), «Hayratlarga toʻla dunyo» (1995), «Qatortol to-monlarda» (2007), «Ajral xiyoboni» (Saylanma, 2008) singari hikoya va qissalari nashr etilgan. Shuningdek, u «Onaginam», «Yuk koʻtargan odam», «Gulliverlar», «Ayol kishi-ning baxti» kabi qissa va hikoyalar asosida televizion va radiospektakllar muallifi hamdir.

Karel Chapek, Grin, Paustovskiy, Anor kabi adiblarning asarlarini rus va ingliz tillaridan oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

2016-yil 4-dekabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

## TXARAD

*«Ana shu yoʻl yoqalab boraversang,  
bir daraxtga duch kelasan. Yodingda tut, u  
oddiy daraxt emas».*

*«Oʻzbek xalq ertaklari»dan*

Namozshomga yaqin havo aynidi.

Koʻk yuzini yagʻir, uvada bulutlar qoplab, kuchli shamol turdi. Dov-daraxtlar titrab-qaqshab, yoʻlkalar mayda-chuyda shox-shabbalaru bargu xazonlarga toʻldi. Qayerdadir, yopilmay qolgan deraza darchasi boʻlsa kerak, oynaning qarsillab sin-gani quloqqa chalindi. Bu ham yetmagandek, chiroq oʻchib qoldi. Tevarak-atrofga allanechuk vahimali va rutubatli zulumat choʻkdi va ana shu sim-siyoh osmon

bag'rini tilkalab chaqmoq chaqdi, yeru ko'kni larzaga solib, momaqaldiroq gum-burladi. Qor aralash yomg'ir yog'a boshladi...

Tun yarmidan oshgan, subhi kozib pallasi edi chamasi, endi ko'zim uyquga ilingan ekan, xotinim uyg'otdi.

«Kimdir derazani taqillatayпти», – shivirladi vahimali tovushda.

O'rnimdan turib derazadan qaradim. Qorong'ulik qo'ynida hech narsa ko'rinmas, faqat yomg'ir tomchilarining shitir-shitirigina eshitilardi xolos. Xotinim to-monga qarab, «hech zog' yo'q» dedimu, shu payt qandaydir qo'llarning deraza tokchasini timdalab, oynani ustma-ust chertgani aniq-tiniq qulog'imga chalindi. Tok urgandek seskanib ketdim.

«A... a-na!» – yana shivirladi xotinim tili zo'rg'a aylanib.

Apil-tapil choponimni yelkamga tashlab, qo'lchiroqni oldimda, ko'cha eshik-ni ochib tashqariga chiqdim.

Asfalt yo'l yuzasi katta-kichik ko'lmakchalarga to'lib toshgan, izg'irin yana-da kuchaygandek edi. U yoq-bu yoqqa alangladim. Ko'chada hech kim ko'rinma-di. Ko'nglim xotirjam bo'lib uyga kirayotgan ham edimki, deraza oynasining yana tiqillagani eshitildi. Qaradim. U shundoqqina eshigimizdan bir-ikki quloch narida o'sgan daraxt shoxlari edi.

Bizni va yon qo'shnimiz Musurmon tog'aning eshigini quchib olgudek tar-vaqaylab ketgan daraxt shoxlari har shamol esganida devorlarni, deraza tokcha-si-yu kesakilarini paypaslar, haqiqatan ham xuddi kimdir oynani taqillayotganga o'xshab ketardi.

Xotinim xavotirlanib qaradi shekilli, deraza pardasining shitirlab surilgani eshitildi. Eshikni tambalab, uyga qaytib kirdim. «Hech kim yo'q, daraxt shamol-da chayqalib, shoxlari derazaga tegayotgan ekan», deya xotinimni tinchlantirgan bo'ldim. U «qurib ketsin, o'takamni yorib yuborayozdi» deya yana o'rniga borib yotdi.

Men xotinimni tinchitdimu, lekin shu tobda negadir o'zimning halovatim yo'qola boshlaganini sezdim. Uyquq qochgan edi. Sigaret tutatib tashqariga chiq-dim. Zina yondoriga omonat o'tirib cheka boshladim. Negadir, xotinimni daraxt-ni «qurib ketsin» deya qarg'agani kulgimni qistatdi. Chunki, eshigimiz yonida o'sgan u daraxt sira «qurib ketadigan»ga o'xshamasdi.

Juda g'alati daraxt edi. Uning ko'chatini bir vaqtlar, bundan o'n-o'n besh yil-cha muqaddam vokzal yaqinida bir notanish kimsadan bir shisha vinoga almashib olgandim. Uni uyga olib kelgan kunimni ham yaxshi eslayman.

Erta bahor... Bulutli oqshom edi... Vokzal maydonidagi qahvaxonaga sigaret olgani kirgandim. Sigaret olib chiqib kelayotganimda soch-soqoli jo'xori popu-giga o'xshagan, afti-basharasi shishib, kulrang ko'zlaridan hech bir ma'no uqib bo'lmaydigan bir irkit kishi ro'paramdan chiqqan, chekishga sigaret so'ragan va gap orasida ko'chat sotmoqchi ekanligi, agar istasam, bir shisha vinoga almashi-shi mumkinligini aytgandi. Ko'chat jonivor esa, yirtiq gazeta bo'lagiga nari-beri

o'ralgan ko'yi qahvaxona zinasi yonida tashlandiq, cho'ltoq supurgidek bo'lib yotardi.

Turgan gap, men uning qanaqa daraxt ko'chati ekanligini surishtirgan, notanish kishi esa so'yloq tishlarini ko'rsatib tirjayib qo'ygan va «Yaxshi daraxt, juda chiroyli o'sadi» degandi. Va men o'sha oqshom uni uyga olib kelgandim va ertasi-gayoq eshigimizni ro'parasidagi ariq bo'yiga ekib qo'ygandim. Ochig'ini ayt-sam, uning qanaqa daraxt ekanligiga ham unchalik qiziqmagan, ko'chatga yoxud uning egasiga rahmim kelganidanmi, shunchaki yerga qadab qo'ygandim, xolos. Shu bois, xuddi notanish kimsa aytgandek bo'lib unib chiqqanida ham unchalik ajablanmadim.

Ko'chat kutilmaganda tez ildiz otib, o'sib ketdi. O'sha ko'klamdayoq, tirnoq-dek-tirnoqdek, xuddi charmdan qirqib olingandek, qattiq-qattiq yaproqlar chiqardi, keyin na gulga, na mevaga o'xshagan, qon tomchilarini yoxud mayda-mayda qizil yulduzchalarni eslatguvchi kurtaklar tugdi va eng qizig'i, o'sha yerining o'zida ignadek-ignadek o'tkir va ingichka tikanlar ham paydo bo'ldi.

Eng ajablanarli yeri shundaki, unga na issiq, na sovuq ta'sir qilardi. Juda chidamli, ayni chog'da allanechuk g'ayritabiiy daraxt edi u. Uning uchun na yoz saratoni-yu qish qahratonini, na kuz xazonrezgiligi-yu bahor tarovatining mutlaqo ahamiyati yo'qdek tuyular, go'yo manguilikka qo'yilgan haykal yanglig' savlat to'kib turaverardi. Yanayam qizig'i, uning ustida to'lib-toshib sayrash u yoqda tursin, shox-butoqlariga birona qush qo'nganini yo uya qurganini eslayolmasdim. Shuning uchun bo'lsa kerak, yon qo'shnimiz Musurmon tog'a uni so'kka-ni-so'kkan, meni koyigani-koyigan edi.

«Qayoqdan topib keldingiz, bu kasofatni? – derdi u norozi ohangda. – Na meva qilsa, na soya tashlasa! Na bundoq qarab odamni bahri-dili ochilsa!.. Juda bexosiyat daraxt ko'rinadi, kesib tashlab qo'yaqolaylik, zora o'tinga yarasa!...»

Men esa kulib qo'yaqolardim. «Ha endi, bir daraxt, Xudo yaratgan tabiatning bir ne'mati-da!» – derdim.

Musurmon tog'aning bo'lsa, battar jig'ibiyroni chiqardi.

«Yo'q, bu Xudo qarg'agan daraxt! – derdi u fig'oni oshib. – Qaysi kuni masjiddan shomni o'qib qaytayotsam, uzoqdan xuddi barzangi odamga o'xshab ko'rinib ketdi. Xuddi boshiga shapka kiyib, sekin ... siznikiga yo biznikiga kirib bora-yotgan kissavurga o'xshaydimi-ey!...»

«Unaqa demang, Musurmon aka, – derdim qo'shnimni hovridan tushirishga urinib. – Daraxtning yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Faqat yo manzarali, yo mevali bo'ladi, xolos...»

Qo'shnim ham o'ziga etgan cha qaysar odam edi.

«To'g'ri, mulla yigit! – to'ng'illardi u qovog'ini uyub. – Lekin, buningizni na mevasi bor, na manzarasi!...»

Xullas, men u yoqda o'z ishlarim-yumushlarim bilan andarmon, Musurmon tog'a bo'lsa bu yoqda xunobi chiqib yuraverdik. Daraxt esa o'saverdi va ko'p

o'tmay o'zining chigal va sertikan shoxlari bilan Musurmon tog'aning ham, bizing ham eshiklarimiz, derazalarimiz tepasini qoplab oldi.

Aslini olganda, Musurmon tog'a yomon odam emasdi. O'lgudek kamtar va kamsuqum bu odam bilan ko'p yillik yon qo'shni bo'lsak-da, kunda-kunora uch-rashib tursak-da, uning nihoyatda murakkab hayotini, naq ajalning og'zidan omon chiqqani haqida hech nima bilmasdim va buni eshitganimda ochig'i juda hayratga tushgandim.

Esimda bor, Musurmon tog'aning katta kuyovi bilan bir davrada o'tirganimizda u shirakayflik bilan qaynotasining «tarjimai holi»ni uch-to'rt og'iz so'z bilan «chizib» qo'yaqolgan edi.

Ma'lum bo'lishicha, Musurmon tog'aning bobosi o'ris askarlari shahar ahli uyquda yotgan paytda Toshkentga bostirib kirgan yili asir olingan va otib tashlangan, keyinchalik xuddi shu narsa Musurmon tog'aning otasiga ham «tamg'a» qilib bosilgan va u ham o'ttiz yettinchi yili qamalib, bedarak ketgan ekan. Ana o'sha voqea-hodisalarning davomi yoxud natijasi o'laroq, Musurmon tog'a ham urushdan keyin bir necha yil o'tgach qamalib, yigitlik davrini Rusiya o'rmonlarida o'tkazgan ekan...

Kim bilsin, balki bu gaplarni uning kuyovidan eshitmaganimda, Musurmon tog'a qismatidan butkul bexabar qolarmidim deya o'ylab qolaman. Chunki, u kishining o'ziga qolsa, bular haqida ikki dunyoda ham og'iz ochmagan bo'lurdi...

Endilikda bo'lsa, umr bo'yi ro'shnolik ko'rmagan ana shu keksa tarix muallimi (taqdirning «achchiq hazili»ni qarang!) uchta qizini allaqachon uzatgan va hayhotdek hovlida kasalmand xotini bilan tavfiqona hayot kechirib yurardi.

Faqat bir narsani sira tushunolmasdim. Musurmon tog'a qanchalar ko'ngilchan va mehribon odam bo'lmasin, ikkovimizning uyimiz ro'parasida o'sgan, oti ham, zoti ham notayin, ana o'sha bechoravash daraxtni yoqtirmas, unga sira tobi-toqati yo'q edi.

... Axiyri bo'lmadi. Qaysi bir yili ikkovimiz uni arralab tashladik. Uylarimizning oldi ochilib, kun tushadigan bo'lib qoldi. Lekin, Musurmon tog'aning bu quvonchi uzoqqa bormadi. Bir yil o'tar-o'tmas yana ko'karib chiqdi. Yana kesdik. Ildizlarini kavlab, chopib tashladik. Lekin uning ilondek cho'zilib, bir-biriga chirmashib ketgan qop-qora ildizlari juda chuqur tomir olib ketgan ekan. O'sha-o'sha hafsalamiz sovib, o'z holiga tashlab qo'ygandik. Yaqinda, Musurmon tog'a yana hasratini boshladi.

«Bu daraxtingiz yaxshilik keltirmaydi», – dedi u bir kuni gapdan-gap chiqib. – Agar sezgan bo'lsangiz, yon-verida bironta daraxt unmas ekan...»

Ana shu gapdan keyin o'ylanibroq qoldim. Chindan ham, shu g'alati daraxt o'saboshlagandan beri, darvozamiz yonida na olcha, na olma, na boshqa daraxt ko'karibdi...

«Nega bunaqa?» desam, Musurmon tog'a «Ildizlarini ochganimizda ko'rdingiz-ku, to'rt tomonga o'rmlab yotibdi. Boshqa daraxtlarning rizqini qiyib, gul-lab-yashnab o'saveradi-da!» deya ma'yusgina kulimsiradi va qo'shib qo'ydi.

– Xuddi, Sho‘ro hukumatiga o‘xshab! ...»

Men o‘sha topda, «Xo‘p, Sho‘ro hukumatidan to‘ygan ekansiz-da!» deb yuboray dedimu, tilimni tishlab qoldim. Bu jabrdiyda mo‘ysafidning yarasini yangilagam kelmadi.

... Xuddi o‘sha kunlarning birida uyimizga tanish tabiatshunos og‘aynim kelib qoldi-yu, u ham bu daraxtni aniqlay olmadi.

Faqat, «Yo‘q, bu – bizning iqlimda o‘sadigan daraxt emas. Gaplaringga qaraganda, u boshqa daraxtlarning quvvatini so‘rib olib, istagan joyga moslashib ketaverarkan. Shunaqa tur daraxtlar bor deb eshitgandimu, sira ko‘rmagandim» dedi.

«Oti nima»» desam, yelkasini qisib qo‘ydida kulib, «Buni daraxt desang, asakang ketadi. Shuning uchun «Txarad» deb atagan ma‘qul» deb hazillashdi. Ma‘lum bo‘lishicha, «Txarad» degani «Daraxt» so‘zining teskari o‘qilishi ekan. Kulishdik.

Maktabda o‘qib yurgan kezarimiz biz bolalar ham shunaqa, teskari «gaplashish»ni odat qilib olgandik. Masalan, men, «Yalaq» desam, og‘aynim «Ro‘z!» deb javob berardi. Bu, bizning «Qalay?», «Zo‘r» deya hol-ahvol so‘rashishimiz edi.

Shu-shu, bolalarcha sho‘xlik bilan aytilgan bu so‘z o‘yini yoqib qoldi-yu, o‘zimcha unga «Txarad» deb nom qo‘yib oldim...

«Txarad» bir qaraganda, hech ziyon-zahmati yo‘q, beozor, ba‘zan anchayin ojjiz va notavon daraxtga ham o‘xshab ko‘rinardi. Lekin boshqa, biz bilgan, o‘nlab-yuzlab daraxtlar orasida bari bir «oq qarg‘a»dek bo‘lib ajralib turar, o‘zining sertikan shoxu butoqlarini qanot yanglig‘ yozganicha bo‘yiga ham, eniga ham o‘sib borardi. Ko‘pda hech kim unga e‘tibor ham bermasdi. Nima ko‘p, biz bilgan-bilmagan, tanish-notanish dov-daraxtlar ko‘p. Kim ham ularning yoniga kelib, sinchiklab qarab o‘tirardi, deysiz?!...

Lekin, Musurmon tog‘a bundan mustasno edi. U «Txarad»ni yoqtirmasdi va buni yashirib ham o‘tirmasdi.

Bir kuni ishdan qaytayotsam, qo‘shnim jig‘i-biyroni chiqib, daraxtning atro-fida aylanib yuribdi.

«Nima gap, Musurmon tog‘a?» – desam, «E-e!» deya behafsala qo‘l silkidi. «Hech shu daraxt bilan chiqisholmadingiz, til topisholmadingiz-da!» deb hazil-lashgandim, jahli chiqib ketdi.

– Bu padari la‘nat, o‘zimizning shaftolimi, o‘rikmi bo‘lsayam koshkiydi, – dedi u bo‘g‘ilib. – Na otining, na zotining tayini yo‘q! Hali peshinda qarasam, ishkorning tagidagi siymon yo‘lka darz ketib yorilib yotibdi. Nimaykan desam, ana shu badbaxtning bosh barmoqdek ildizi hovlimizning o‘rtasidan turtib, teshib chiqibdi...

– Be, shunga shunchalikmi? – dedim Musurmon tog‘ani tinchlantirib, – va yana hazilga yo‘ydim. – Ildizi ko‘chadan o‘tib, uyingizni tagidan hovlingizgacha chiqqan bo‘lsa, zo‘r ekan-da?!

– E, qo‘yib bersangiz ertaga tomga ham ildiz otadi, – dedi Musurmon tog‘a astoydil ranjib. – Xapa bo‘lmangu, buningiz daraxt emas, naq balo-qazoning o‘zi!

Jami boshqa daraxtlarning qonini so‘radi... O‘zini shu yerlarning xo‘jayini deb his qiladimi-ey! Duch kelgan tomonga tomir otadi-ya! Tag‘in, g‘o‘dayib turishini aytmaysizmi?

– Mayli, bir yo‘lini qilib yo‘qotarmiz, – dedim nima deyishni bilmay.

– Be, yo‘qotib bo‘psiz endi uni, mulla – siniq kulimsiradi Musurmon tog‘a, – Agar tagidan portlatib yo‘ldiziga benzin qo‘yib yoqib yuborilmasa... bilmadim, yo‘qotish qiyinov!.

Musurmon tog‘aning bir burda yuziga qalqib chiqqan noumidlik sharpasini sezib ajablandim. «Nahotki, hafsalasi pir bo‘lgan bo‘lsa?» – degan xayollarga ham bordim.

Musurmon tog‘a ko‘nglimdan kechgan o‘yni sezdi shekilli, sekin qo‘shib qo‘ydi: «O‘zi eshitmasinu... lekin, bu badbaxt daraxt hammamizdan ko‘proq yashaydiganga o‘xshaydi...»

Uning bu gaplaridan ham hayron bo‘ldim, ham kulgim qistadi.

– Eshitadi, eshitadi, – dedi Musurmon tog‘a. – Hamma daraxtlar eshitadi. Ular ham tirik jondek bir narsa-da, mulla. O‘sadi, gullaydi, meva qiladi, qariydi, quriydi, o‘ladi... Lekin, bu bedavoning joni juda qattiq ekan...

Shu bilan suhbatimiz tugadi. Oradan kunlar, haftalar, oylar o‘tdi. Tabiiyki, Musurmon tog‘a ham, men ham «Txarad» haqidagi o‘sha kungi gap-so‘zlarimizni unutib yuborgandik. Mana endi bo‘lsa, bugun, yarim kechada, aynan ana shu daraxt derazamizni timdalab, chertib, hammaning uyqusini buzib turibdi.

Beixtiyor o‘rnimdan qo‘zg‘alib, yana ko‘cha tarafga yurdim. Ko‘cha-ko‘yni qor bosgan, sovuq izg‘irin hamon zabtiga olar, daraxtlarning novdalaridan tortqilab, so‘nggi za‘faron yaproqlarini yulqib, chirpirak qilib uchirar, faqat qorong‘ilik qo‘ynida tosh haykaldek qotib turgan «Txarad»ning mayda-mayda barglarigina qilt etmayotganga o‘xshar, go‘yo darg‘azab shamol ham bu bedavo daraxtni, uning sertikan shoxlarini chetlab o‘tayotgandek edi...

Daraxt tagiga keldimu, birdan uning ham notinch ekanligini ichki bir tuyg‘u bilan his qildim, «Txarad» ham allanechuk besar-bezovta edi. Uning ayqash-uyqash shoxlari ham alamli shivirlar, go‘yo tanasi qaqshab og‘riyotgandek qisirlar, qoqsuyak qo‘llarga o‘xshash novdalarini cho‘zib devorlarni paypaslar, timdalar, go‘yo iltijo qilayotganga, unsiz faryod chekayotganga o‘xshab ketardi.

Shundagina, «Txarad»ning ham qarib qolganini sezdim. Endi u ham boshqa daraxtlar kabi shamolning xuruji-yu hujumlaridan qo‘rqqandek shox-butoqlarini ko‘kka cho‘zib yolborar, o‘zining taqdiri shamol deb atalmish ko‘zga ko‘rinmas kuchning shafqatsiz qo‘llarida ekanligini sezgandek, dag‘-dag‘ titrab turardi...

Shu tobda, negadir unga rahmim ham kelib ketdi. Ammo, ayni shu lahzalarda o‘zim ham o‘jiz va nochor edim. Faqat, «Txarad»ning unsiz faryodiga quloq tutish, so‘zsiz hamdard bo‘lishdan bo‘lak narsa qo‘limdan kelmasdi...

\* \* \*

Ertalab g‘afolat bosib uxlab qolibman. Shosha-pisha ishga otlandim. Endi xonamga kirib borgandim hamki, telefonga chaqirishayotganini aytishdi. Hayron

bo'lib go'shakni qo'linga oldim. Xotinim ekan. «Tez keling!» – dedi u yig'lamsiragan tovushda. – Qo'shnimiz Musurmon tog'a qazo qilibdilar...»

Parishon ahvolda uyga qaytdim. Sira ishongim kelmasdi. Kecha ertalab ko'rishgan, odatdagidek, hazil-huzul qilib, birpas gurunglashgandik. Bugun bo'lsa, endi bu gap!.. Bilib bo'lmas ekan-da, odamni. Yo kechagi ob-havo ta'sir qildimikan? Kim bilsin, balki tundagi rutubatni yuragi ko'tarmagandir, degan xayolda ko'chamizga kirib keldim. Ammo, hammasi o'ylaganimdan ko'ra boshqacharoq bo'lib chiqdi.

Musurmon tog'a bilan bizning eshigimiz ro'parasidagi daraxt – «Txarad»ning chirib ketayozgan tanasi ag'darilib yotar, uch-to'rtta yosh-yalanglar esa arra va boltalar bilan uning shox-butoqlarini butashmoqda edi. Hech vaqoga tushunolmay qoldim.

Ma'lum bo'lishicha, machitda bomdodni o'qib qaytgan Musurmon tog'a ostonadagi qorni kurayotgan ekan, tuyqusdan daraxtning katta bir shoxi sinib ustiga tushibdi. Musurmon tog'a boyaqish hali o'zini o'nglab olmasdan turib, daraxtning o'zi ham g'irchillab ustiga yiqilibdi...

Kimdir «umurtqa pog'onasini ezvoribdi» desa, kimdir «boshini majaqlab tashlabdi» derdi. Boshqa birov esa «u ham emas, bu ham emas, baxtsiz tasodif» deganga o'xshash gap qildi.

Nimayam deysiz, odam bolasining taqdiri azaldan qochib qutulolmasligi-ku, tayin gap. Lekin Musurmon tog'aning kutilmagan o'limi qismatmikan, yozuq-mikan yoki shunchaki baxtsiz hodisamikan? ... Har nima bo'lgandayam men bu ko'ngilsiz hodisa uchun o'zimni ham aybdordek his qildimu, o'zimni qayerga qo'yishni bilmay, gangib-kalovlanib qoldim.

Qo'ni-qo'shnilar Musurmon tog'aning eshigi yoniga, yo'l yoqasiga uzun harraklar o'mata boshlashdi. Qandaydir chapdast yigitlar yuk mashinasida tobut keltirib yo'l chetiga qo'yishdi. Ichkarida xotin-xalajning yig'i-sig'isi quloqqa chalinib qolardi. Birin-ketin ola-quroq izdihom janozaga yig'ila boshladi...

Uch-to'rt yigit «hoy-hoy»lashib shox-butoqlari chopilib, qo'li-oyog'i kesilgan odamga o'xshab qolgan «Txarad»ni ko'tarib, yo'l chekkasidagi butalar orasiga olishayotganini ko'rib, men ham ularga yordamlashgani oshiqdim.

Va shu payt ... uni yerga tashlayotganimizda, ariq chetida bo'y cho'zib turgan, qizg'ish novdalarini ignadek-ignadek tikanlar qoplagan pastakkina butaga ko'zim tushdi-yu, qotib qoldim.

Yo'lning berigi tomonini yorib chiqqan bu nihol ham – «Txarad» edi...





# *Alisher Ibodinov*

*(1952-yilda tugʻilgan)*



Alisher Ibodinov 1952-yil 12-dekabrda Fargʻona viloyati Oltiariq tumanidagi Eski-arab qishlogʻida tugʻilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1980). «Gulsafsar hidi» (1978), «Quyosh ham olov» (1984), «Qoʻrboshi Madaminbek» (1995), «Latofat» doʻkonidagi qotillik» (2003) kabi qissa va hikoyalar toʻplamlari nashr etilgan.

## BIR TOMCHI YOSH

– Hammaning kelini abitta oʻtiri-ib kashta tiksa, meniki kitobga termiladi! «Olima-da!» – Qudasi Qurbon kampirning maʼrakada katta-kichikka eshittirib va atayin unga tegizib shangʻillashi Sobira xolaga ogʻir botdi. Atrofida oʻtirgan bir-ikki kampir labini qimtididi. Qoʻshni Payzi otin uning tizzasiga qoʻlini bosib:

– Indamang! – dedi.

Sobira xola ogʻiz ochmadi. Maʼrakadan soʻng boshda tuguni bilan qudasini-kiga oʻtdi.

– Quda, – dedi. – Mana siz kelin-kevat koʻrgan kayvoni xotinsiz. Mangina shu yosh, lodon qizimni sizga topshirganmanki, bilmaganini oʻrgatar, oʻzi bovlab olar deb. Lekin, haligi, maʼrakadagi gapingiz teshib ketdi-da, mani, quda!

Shunday dedi-yu, ovozi titrab, koʻziga yosh keldi. Sobira xolaning koʻngli boʻsh. Sal dili ozor cheksa, darrov koʻzi gʻiltillab qoladi boyaqishning. Qurbon kampir kesatigʻi qudasiga alam qilganini sezdi-da, ichidan yayrab ketdi. «Oʻla, achitibdi-ku, gapim», deb xayolidan oʻtkazdi va yumshoq ohangda:

– Ha, endi, ogʻizning darvozasi yoʻq, bir chiqib ketgandir-da, bunga xafa boʻlmang, – dedi. – Toʻgʻri, Maʼsumaxon yaxshi, mehnatkash, qobil juvon. Kelinim bor, desa arzigulik. Odobi ham joyida. Ammo... shu boʻsh qoldimi, oʻquv-radi-oʻquvradi... Yuraklarim siqilib ketadi, unga qarab! Hoy, deymen, kelin, siz

o'zingiz bir kolxozchi bo'lsangiz, o'qib, nima, shahar olib berarmidingiz eringizga! Undan ko'ra kashta tiking, ko'rpa-yostiq qoplang. Bekordan xudo bezor, deb mundoq nasihat qilsam, bezrayib turaveradi. Miq etmay uyiga kirib yana kitobga termiladi. Ana, innakeyin menikiyam alanga oladi-da, quda!

Sobira xola bildiki, qudasi ham chakana alamzada bo'lmabdi. U yotig'i bilan gapira ketdi.

– Ma'suma yoshligidan shunday: ko'p o'qiydi. Bu dard unga yo'rgakda tekkan. Qizlik payti necha martalab oldidan otib yuborganmanu, kitobni!

– Erminan yaxshi, Xudoga shukur. – Uning og'zidan gapni ilib ketdi qudasi. – Qattiq-quruq ish kam oralarida. Endi... Ora-sira bo'p turadi. Bir kuni Rajabboy daladan kech qaytib, dam olayotsa, Ma'suma unga g'azal o'qibdi. Charchagan emasmi, noilojdan eshitib o'tirgan bolamni uyqu bosibdi. Shunga qancha arazlashdi-yu...

– Arazlashga arazlaydi, lekin menga o'xshab darrov ko'zining suvini sel qilavermaydi qizim. Sizga yolg'on, xudoga chin, quda, shu qizni o'stirib, hali bir tomchi ko'z yoshini ko'rganim yo'q! Esini tanibdiki, birov bilan urishsa, arazlaydi, tumtayadi, ammo yig'lamaydi! Mening yig'imni ham siz yig'lab qo'ygansiz, deydi.

– Ha, ishqilib omon bo'lishsin... – Qurbon kampir shahdidan tushdi. Ko'p o'tmay qudalar apoq-chapoq tarqalishdi.

Ma'suma kech qorong'usida daladan qaytdi. Dalachilar tushgan mashina qishloq o'rtasida to'xtashi bilan shovqin-suron ko'tarildi.

– Ma'ruf, tugunni uzat!

– Hoy, tushsangiz-chi, tezroq!

Ko'chadagi tiq etgan tovushga quloqlari ding bo'ladigan bolalar kechki ovqatlarini tashlab, onalari, opalarini qarshilagani yugurib chiqishdi.

Jimjit ko'cha olomonga to'ldi.

Ma'suma uyiga burilayotib, Ma'rifatxon bilan xayrlashmoqqa qaradi-yu, mashinadan «tap-tap» pastga irg'itilayotgan o't bog'larini ko'rib, birdan bo'shashdi: bugun ham o't yulmabdi! Tushlikdan so'ng dam olishayotganda Ma'rifatxon ketuvdi-ya o'tga, u kitobga qiziqib unutibdi. Ana endi jazosiga eshitadi qaynanasining sayrashini! Non tugunidagi kitob biqiniga botgandek bo'ldi. U tugunni orqasiga yashirdi.

Yuk mashinasi bir jig'illab qo'zg'aldi-da, chiroqlarining yorug'i yo'l yoqasidagi teraklarni, paxsa devorni, ikki tavaqali sariq darvozani va shu darvozaga yo'nalgan Ma'sumaning xircha qomatini, barmoqday-barmoqday o'rilgan sochini, yelkasidagi ketmonini, chang bosgan kirza etigini bir zum oltin nurga burkadi. So'ng ikki dumaloq nur qo'shni uy devorini, simyog'ochni keskin suzib o'tdi-da, uzoqlarga chuzilgan tasmaday, asfalt yo'lga to'g'rilandi. Mashina jo'nadi. Ma'suma darvoza tavaqasini ichkariga itardi. Berk.

«Voy-ey, yo'q bo'lsaydi!» shirin tin olib xayolidan o'tkazdi u omadiga ishonmay. Darvoza tavaqalari orasidan qo'lini suqib zanjirni tushirdi.

O'rtasi dahliz, ikki uy, ayvonli imorat qorong'ida xo'mrayib turardi. Ayvon oldi ishkom. Ishkomdan nari – tomorqa. Hovli paxsa devor bilan o'ralgan. Uy qarshisida molxona. Kimdir kelganini sezib, sigir shikoyatomuz «mo'...o'»ladi.

«E, bugun Savri xolanikida ma'raka-ku! Kechki o'tirishga jo'nagandir, qaytmaydi endi!» Ma'sumaning oyog'i ildamlashib, charchog'i tarqab ketdi. Chiroqni yoqib, tugunini so'riga qo'ydi. So'ng yana kelib qolsa, xarxasha qilmasin, degan mulohazaga bordi-da, tugun ichidagi kitobni to'shak tagiga yashirdi. Tushlikdan ortgan nonni qayoqdandir yetib kelib, ko'zlarini mo'ltiratib turgan paxmoq kuchukka tashladi. Etigini ayvonga yechib, kelinlik xonasiga kirdi. Kenggina, tokchavand xona did bilan bezatilgan edi. To'rdagi mehrobgga qo'yilgan naqshdor sandiq ustiga duxoba, atlas ko'rpachalar taxlangan, qoziqlarga har xil gullar tikilgan sochiqlar ilig'liq. Xona chetida ichi chinni idish-tovoqlarga liq to'la bufet. Polga gilam to'shalgan. Tokchalardan biriga «Kvars» televizori o'rnatilgan.

Ma'suma ust-boshini o'zgartirdi-da, ko'chaga chiqib, artezian qudug'idan suv keltirdi. Dahlizdagi obrezda yaxshilab yuvindi. O'sma qo'ydi. Shifoner oynasiga qarab pardoz boshladi. Sochlarini yozib «prichyoska» qilib ko'rdi. Orqasi bilan bitta irakdek sochi uni kinolardagi fransuz go'zallariga o'xshatib yubordi. U sochini goh o'ng tomonga, goh chap tomonga ag'darib, bundan zavqlanardi. Sochlarini «laylak uya»day tepaga turmakladi. Bu ham chiroyli chiqdi. Shifonerdagi yangi atlas ko'ylagini olib kiydi, o'zini oynaga soldi. Ko'yлак xiyol uzun edi. Etagini bukib boqdi. Bari bir ko'ngliga o'tirmadi. U u yoq-bu yoqqa alangladi-da, lozimini yechdi.

Ko'ylagini tizzasidan to'rt enli yuqoriga ko'tardi. O...y! Oynadan unga bag'oyat kelishgan, beli ingichka, oyoqlari bejirim, sarvqad, sochlari yelkasini qoplab, bir qarashda yuraklarni jazillatadigan jonon boqib turardi.

Birdaniga raqsga tushgisi keldi. Oynaga muqom qildi-da, qo'llarini o'ynatdi. Qoshini qoqib, ko'z qisdi. Shu payt eshik g'ijirladi. U gul-gul ochilib o'sha tomonga o'girildi. Eri emas ekan. Qora, o'g'ri mushuk bir zum to'xtab, unga ko'z yugurtirdi-da, o'ljasini tishlab, ura qochdi.

– Ha, xudo olgur! – deb nomiga po'pisa qildi Ma'suma allaqachon ko'zdan g'oyib bo'lgan mushukka. Qorong'ilik qa'ridan unga javoban mushukning masxaralovchi «miyov»i eshitildi-yu, uni o'chdi.

Kelinchak qaytadan kiyindi-yu, ovqatga unnadi. Kartoshka, piyoz archib, gazga sho'rva qo'ydi. Xonani supurib, ko'rpacha yozgach, ko'ngli tinchib televizorni buradi. Televizorda film ketardi.

Go'zal manzaralar, bir-biridan chiroyli, so'nggi modada kiyingan qahramonlar... Mana, yigit bilan qiz qo'ltiqlashib, parkda sayr qilib yurishibdi. Boshlariga kuzning za'faron barglari yog'iladi. Qiz – raqqosa, yigit – ashulachi. Qiz jahonga mashhur raqqosa bo'lish orzusida, yigit ham undan qolishadigan emas...

Gaz vishilladi. Sho'rva qaynab, toshgan edi. Ma'suma yugurib chiqib, o'tni pasaytirdi. Sho'rvani shopirib, tuzini ko'rdi. Pomidorni ko'p solgan ekan, sho'rva qir-qizil. Taxirroq. Kartoshkasi xiyol ezilibdi, u butun, lekin salga uqalanadigan

darajada hil-hil pishgan mushtday – tuxumday oppoq kartoshkalarni chinni kosaga oldi. Kosadagi bug‘i ko‘tarilayotgan, «o‘lgan» oq piyoz halqachalari, ko‘k piyozlar xolday yopishib qolgan kartoshka uyumini ko‘rib, ko‘ngli g‘alati bo‘lib ketdi. Dilidagi yaqin o‘tmish xotiralari entiktirib yubordi.

Bolaligida, uylarida, odatda, sho‘rvani alohida, har kimning o‘z kosasiga suzishgach, kartoshkasi bilan go‘shhini laganga solib, yo‘l-yo‘l chit dasturxonga qo‘yardilar. Ular obdan qaynab yetilgan sho‘rva suvini terlab ichishar, o‘rtadagi kartoshka va go‘shht uyumi dimoqni qitiqlovchi hid taratib, ko‘zlarini o‘ynatardi.

Ovqatdan so‘ng otasi seryung oyoqlarini cho‘zib, ko‘rpaga yonboshlar, agar kayfi xush bo‘lsa:

– O‘qi, qizim! – derdi Ma‘sumaga.

Ma‘suma «Kuntug‘mish», «Shirin bilan Shakar», «Malika ayyor»larni sharilatib o‘qib berardi. Ayvon ro‘parasidagi ishkonda yirik-yirik uzum boshlari chiroq nurida marjon tizimlariday osilib yotardi. Ba‘zan dostonning eng qiziq joylari kelib, atrofdagilar «oh-voh» ko‘tarishganda, uzum boshlari ham ohista qimirlab ketardi... Oh, qanday baxtli damlar ekan o‘sha oqshomlar!..

Keyin otasi vafot etdi. Oilada kattasi Ma‘suma edi. Onasiga ergashib dalaga chiqdi. Onasi ham indamadi. Bir jo‘yak g‘o‘za chopiq qilsa, bir bog‘ o‘t yulsa ham harna, dedi. O‘shanda Ma‘suma o‘n ikkiga to‘lgan edi. Shundayicha mana yigirma birga kiribdi, paxtazorning qo‘ynida! O‘qish ham qolib ketdi! Sakkizinchi sinfni zo‘rg‘a bitirdi-yu, u yog‘iga sabri chidamadi. O‘n sakkizida uni Rajabboyga berishdi.

Rajabboy qo‘shni mahalladan, Ma‘suma dirkillab, to‘lishib kelayotgan mahalda u o‘ninchini bitirgan, shaharga o‘qishga borib kirolmay qaytgan paytlar edi. Uzzukun motosiklni «pat-patlatib» izg‘ib yurardi. Ko‘plar qatori Ma‘sumaning ham ko‘zi tushgandi unga. Keyin armiyaga ketibdi, deb eshitdi.

Ko‘p o‘tmay Ma‘sumalarning eshigini ham gapdon, sermulozamat, chaqqon kampirlar – sovchilar cherta boshlashdi. Ma‘suma kuyov tanlamadi. Bir vaqtlar qalbining tubida tug‘ilgan jingalak soch, kelishgan ziyoli yigit – Ma‘suma bilan bog‘larda qo‘l ushlab sayr etishi kerak bo‘lgan yigit qalbining o‘sha yerida o‘lib, dafn etilgan edi.

Bir kuni oyisi uni uy burchagiga tortdi-da, kechagina armiyadan to‘lishib, aqli-hushli bo‘lib qaytgan qo‘shni mahallali Rajabboyning maqtay boshladi. Hamma qizlar nima qilsa Ma‘suma ham shunday yo‘l tutdi. Axiyri ko‘ndi.

Keyingi paytlarning rasmini qilib, kuyov-qalliqni rayon markazida uchrash-tirishdi. Ma‘suma uyalib, Rajabboyga tik qaray olmadi. Ma‘sumaning dugonasi bilan Rajabboyning o‘rtog‘i o‘zaro qandaydir imolar bilan kelishib, ularni yarim soatcha xoli qo‘yishdi. Rajabboy u yoq-bu yoqdan gapirdi, keyin Ma‘suma bilan dugonasiga olib kelgan sovg‘alarini berdi. Ma‘suma Rajabboyga qo‘sh atlas dast-ro‘mol uzatdi. Shu bilan uchrashuv tugadi. Bir oydan so‘ng uni to‘y qilib tushirib olishdi. To‘ydan keyingina Ma‘suma Rajabboyning yuziga tik boqib termiladigan bo‘ldi. Rajabboy qoracha, qirraburun, yirik ko‘zli, gavdali yigit. Ma‘suma o‘n olti

yoshligida xayolida chizgan yigitdan unda bir narsa – jingalak soch bor edi. U Ma'sumani yaxshi ko'rar, istaklarini bajo keltirardi. Kitoblarni ham u olib kelardi. Ma'suma ba'zan yozgan she'rlarini Rajabboyga ko'rsatar, u miyig'ida kulib qo'ya qolardi. Lekin bu masxaralash emas edi, buni Ma'suma tushunar va eriga muhab-bati jo'sh urib ketardi.

Ma'sumaning ko'p kitob o'qishi, natijada uy ishlarining qolib ketishini qay-nanasi janjallarda dastak qilar, Rajabboy kechalari uning sochini silab:

– Xafa bo'lma, – derdi. – Kampir odam, kitobning nimaligini qayoqdan tu-shunsin...

Lekin onasi turtkilab qo'ymayapti shekilli, u ham keyingi paytlarda o'zgardi. Mashina olish dardiga tushdi. Ikki gapning birida falonchining xotini muncha pul ishlabdi, er-xotin mashinalik bo'libdi va hatto: «E, anovimi?.. Ha, unga mashinani xotini ishlab topgan, o'zi kayf-safodan bo'shamaydi», qabilida uchiriqlar qiladi-gan bo'ldi. O'zini ayamay kolxozda bir ish qilsa, tomorqada ikki ishni bajaradi. Oilani ovqatdan, kiyim-kechakdan siqib, mashinaga pul jamg'aradi. Ilgarigiday Ma'sumaga kitob keltirish ham kamaygan.

Ma'suma uzun bir so'lish olib, kostryul qopqog'ini yopdi-da, xonasiga kirdi. Kino tugabdi.

Ma'suma televizorni o'chirdi-da, ko'rpachaga yonboshladi. Jimjitlik yuragini siqdi. Yuzini yostiqa bosdi. Qulog'ida nimadir sokin shovullar edi. Bu – jimjit-likning tovushi! Chalqanchasiga o'girildi. Havo dim. Saratonning qaynoq nafasi-dan tunlari ham hech yerda orom yo'q.

«Bir ezildi, buyam qaylardadir-ey!» Xayolidan o'tkazdi u erini.

«Hozir kelsa... quchoqlab o'pib-o'pib olaman!» deb pichirladi u qandaydir otashin g'azab, nozli alamzadalik bilan. To'satdan u halitdan beri faqat erinagina kutib o'tirganini sezdi.

«Kelsin-chi!..» Xayolidan o'tkazdi a'zoi badani yonib. U erini erkalashni, bu-tun olam boshqa yoqqa ketib o'zlari tanho qolganlarida ko'ngillariga siqqanicha sho'xlik qilishni yoqtiradi. Ba'zan shunaqangi yoniq ehtiros bilan erini erkalardi-ki, eri uning quchog'ida o'zini yo'qotib qo'yardi.

U ko'rpa ustiga joy bo'lolmay to'lg'andi. Ichi qizidi. Nimadir yuragini tirna-gandek, holi joniga qo'ymasdi. Ko'nglini bo'shatgisi kelardi. U o'rmidan turdi-da, she'r daftarini ochdi.

Oynadan qorong'i ko'chadan «viz» etib o'tgan mashinaning yorug'i tushdi. Ma'suma pastki labini tishlab, ko'zlarini sho'x o'ynatdi-da, bir varaq qog'ozga yozdi:

*Qirlarda lolalar ochildi,  
Yigit-qizga gilam poyandoz.  
Sizni kuta bag'rim ezildi,  
Siz-chi, kimga aytayapsiz roz?*

Eri kelgan paytda she'rni yostiq ustiga qo'yadi-da, o'zini uyquga soladi!

U she'r yozilgan qog'ozni yostiq ustiga, ko'zga ko'rinarli qilib qo'ydi-da, o'zi yuzini boshqa yostiqqa bosib, yuragi dukullab urgan holda kuta boshladi. Mana hozir u kirib keladi. She'rni o'qiydi. So'ng odatdagicha, Ma'sumaning sochidan tortadi. Ma'suma qaramaydi...

Gursillagan qadam tovushlari bir zum tindi-da, so'ng yana xonaga yaqinlasha boshladi. Ma'suma qiqirlab kulib yubormaslik uchun yuzini yostiqqa mahkam bosdi.

To'satdan... Zarb bilan tepilgan eshikning taraqlab ochilishidan Ma'suma sanchib o'midan turib ketdi. Uy burchagidagi bufet ichida chinni idishlar bir-biriga urilib, jarangladi. Eshik yonida turgan choynak ag'darildi.

Rajaboy ko'zlari olaygan, g'azabdan titragan holda ostonada turardi.

– Padaringga la'nat sendaqa xotinning! Sigir ochidan o'lay deb qopti! Na o't yulibsan, na uydan biron nima topib solibsan! Do'mpayib yotishingni qara!

U xuddi ovoz qaytargichi olingan motosiklday vag'illab ketdi. Qani endi to'xtatib bo'lsa... Ma'suma to'xtatishga harakat ham qilmadi. U karaxt edi. Eshitmas, sezmas, faqat labi-labiga tegmay ochilib-yopilayotgan og'izni ko'rardi xolos.

Birdan ko'zi yostiq ustidagi qog'ozga tushdi-yu, ko'ngli yumshab ketdi. Asta egilib uni oldi-da, ohista parcha-parcha qilib yirtdi. So'ng she'r daftarini derazadan ko'chaga, bo'tana suvlar limillab oqayotgan ariqqa otdi. Daftar qanoti yozilgan kaptardek «shig'g'» etib uchib, ariqqa quladi. Mayda to'lqinlar bag'rida bir-ikki oqarib ko'rindi-da... Oqib ketdi!

Ma'sumaning ko'zlari tubida ham allaqachonlardan beri payt poylab yotgan bir tomchi yosh sizib chiqib kirriklariga ilashdi, so'ng oftobda qoraygan yuzida iz qoldirib, atlas ko'ylagiga yumaladi, unga ham singmay, pastga oqib tushdi.



# Orziqul Ergash

*(1953-yilda tugʻilgan)*



Orziqul Ergash 1953-yil 14-yanvarda Samarqand yaqinidagi Darxon qishlogʻida tugʻilgan. Samarqand Davlat universitetini tamomlagan (1975). «Toʻy» (1983), «Dunyoning bir chekkasi» (1984), «Bolaligim koʻchalarida» (1986), «Shohsanam» (1988), «Darxon qissalari» (1990), «Sening bu dunyoda borliging» (2008) kabi qissa va hikoyalar kitoblari nashr etilgan.

## DALA OʻRTASIDAGI DARAXT

Toʻrtovlon Koʻksoy boʻyidagi shiyponda, ulkan chorpoyada davra qurganmiz. Tagimizda choʻgʻday koʻrpachalar, biqinimizda par yostiqlar. Shiypon atrofi suv sepilgan, yogʻ tushsa yalagunday top-toza, sarishta. Gulrayhonlar hidi hov etakdagi shamshodlar ostidan koʻtarilib havoga singiyotgan kabobning xush boʻyiga aralashib dimoqqa uriladi. Oʻsha shamshodlar tagida bir qariya va yosh yigit unnalib yurishadi. Olis-olislardan oppoq choʻqqili togʻlar, undan beriroqda Choʻpon ota adirlari, yanayam beriroqda esa bir chekkasi manovi soygacha kelib yetadigan paxta paykali va unda yoyilib gʻoʻza chopiq qilib yurgan qiz-juvonlar koʻzga chalinadi. Bu yoqda – «Shotutli» oʻrtasida, yolgʻizlikka mahkum etilgan shotut maʼyus oʻy surib turadi. (Ammo u bir paytlardagi mahobatli, sadaqayragʻochdek xushsuvrat daraxt emas. Shotut hozir... Yaxshisi, bu haqda keyinroq...)

Bunaqa toʻrt koʻz tugal yigʻilmaganimizga koʻp zamonlar boʻlib ketgan. Toʻgʻri, Eryigit, Sayim, men uchovimiz ora-sira koʻrishib, yigʻilishib turamiz. Burhon esa qoʻshilmaydi va biz ham unchalik ishtiyoq sezmaymiz bunga.

Men taʼtilda edim. Eryigit xizmat safari bahonasida yoʻl-yoʻlakay qishloqqa kirgan ekan. (U viloyat gazetasida xizmat qiladi.)

– Burhon haq bermoqchi. Qattiq iltimos qilyapti, – deb qoldi Sayim. (U maktabda harbiy ta’limdan dars beradi.)

– Burhonni qo’y, – dedi Eryigit, – o‘zimiz o‘tiraveramiz.

U azal boshdan Burhonni xushlamasdi, Ko‘ksoy tollari voqeasidan keyin esa ko‘rarga ko‘zi yo‘q. (Tollar haqida ham keyinroq...)

Sayimning miyasiga bir narsa urdimi, amalga oshirmay qo‘ymaydi. Eryigitning jon joyidan ushladi.

– Menga qara, sassiq deb burningni kesib tashlamaysan-ku. Burhon ham begona emas, birga o‘sganmiz, – dedi kulib, – sen yoqtirmasang o‘zingga, menga juda ma’qul bola. Bunaqa qo‘li ochig‘ini hech yerda ko‘rmaganman. Qolaversa, u avvalgi Burhonmas, hali ko‘rsang meni aytdi deysan...

Xullas, u dedi, bu dedi, ko‘ndirdi.

Keyin bilsak, Burhonga ham shunaqa ishlov bergan ekan: bir kep qolishibdi. O‘zimizdi jo‘ralar, biri olim, kimsan texnika fanlari doktori, biri katta shoir, deпти. Ular bilan o‘tirishni havas qilib yurganlar qancha. Undan tashqari sening dovrug‘ingni eshitib, suhbatingni olmoqchi bo‘lib yurishibdi o‘zlariyam... (Burhon Farmon birgaddan keyin bir muddat brigadirlik qildi. Kolxoz tugatilgach, brigada yerini xususiylashtirib olib, boz-boyagiday ishini davom ettirayotgan ekan.)

Eryigit avvaliga qovoq ochmay o‘tirdi. Burhon buni o‘zicha tushunib, ayniqsa, unga xushomadni oshirdi. Hali sixda jizillab turgan kabob uzatar, hali gazak tutar, hali qadahni ikki-uch qayta urishtirib, ichishga undardi.

Iltifotlar ta’sir qildimi, ichimlikmi, haytovur Eryigit yumshadi, davraga jirslasha boshladi. Sayim Eryigitga bir narsani qattiq tayinlagandi: Burhonga tanadashnom bo‘lmasin, Ko‘ksoydi xarob qilbsan, boshqa-qashqa degan gaplar qilmagin. Arog‘ini ichib o‘tirib bunaqa qilish noto‘g‘ri. Boshqa payt, boshqa joyda ixtiyoring, degandi.

– Ichkilik deganda iblis bilan ham og‘iz-burun o‘pishishgayam tayyorsan-a, – deya hazillashdim.

– Albatta-da, – dedi u parvo qilmay. – Bu sabil shaytonning suvi-da o‘zi.

Ichkilikka ruju qo‘yganidanmi, Sayimning yuzlari qarimsiq tortib, qon urib qolganidan jigarrang bo‘lib ketgan. Eryigitning o‘sha-o‘sha kamgapligi. Buning ustiga o‘ta rahmdil. Bolaligida birovni qo‘lida chumchuqmi, boshqa jonivormi ko‘rib qolsa, qo‘yvorgin, azob bermagin deb yolvorib yurgan kuni edi. Shunday ekan, butun boshli gurkirab o‘sib yotgan tollarni qiyratgan Burhonni osongina kechirib yuborarmidi.

Hozir ham bu yerda bizning yuzimizdan o‘tolmay arang chidab o‘tiribdi.

Avval men qadah so‘zi gapirdim. Jo‘ralarning hammasiga, jumladan dasturxon sohibiga ham sog‘lik, omad tiladim. Fermer Burhonning a‘zolarini, plan masalalarini ham unutmadi. Sayim bo‘lsa qitmiriligini qo‘ymay, Burhonni nuqul ko‘klarga ko‘tarib maqtadi.

– Farmon birgad yigirma yilda qilmagan, qilolmagan ishni Burhon jo‘ramiz bir yildayoq qilib tashladi, – dedi bizning qitq patimizga tegib. – Mana shunday



ajoyib shiypon ko'tardi. Haqiqiy rahbar shunaqa bo'ladi-da. Kolxozchilarini o'y-lab qildi-da buni. Odamlarim hordiq olishsin, dedi, chang-tuproqqa qorishib, pe-shinlarda soy bo'ylarida dumalab yotishmasin, dedi-da. O'shalardi duosi sharofati bilan mana endi fermerlikni ham do'ndiryapti... Malik jo'ramning tilagiga qo'shi-laman, jo'ramiz omon bo'lsin, topgani to'ylarga, ulfatchiliklarga buyuraversin...

Eryigit bir necha marta o'ziga berilgan qadah so'zini indamay o'tkazdi. Biroq, Sayimdan qutilib bo'larmidi.

– Mana necha yilda bir ko'rishib turibmiz, jo'ra, – dedi gapni uzoqdan kelti-rib. – Agar menga, Malikka, Burhonga aytar gaping, tilaklaring bo'lmasa, mayli indamasdan ichaveramiz, lekin buyam to'g'ri bo'lmaydi-da, jo'ra. Faqat ichish uchun to'planmaganmiz-ku, maqsad...

– Bo'ldi, bo'ldi, – deya xijolatli kulimsirab Eryigit piyolasini qo'liga oldi. – Bari bir qo'yaysan, bilaman... Xo'p, Sayimjon, rahmat Burhon ikkovingga. Boshimizni qovushtirganlaring uchun... Qiziq-da, qaysi birimiz o'ylagandikki, oradan o'n besh, yigirma yillar o'tib, mana shu yerda, mana shu tarzda atlas ko'r-pachalarda yastanib ziyofat eymiz, deb... Masalan, mening xayolimning ko'cha-sigayam kirmagan... To'g'ri, kelajak haqida o'ylaganman. Lekin, men o'ylagan kelajak butkul boshqa edi. Sizlarni bilmadimu, ammo men... – u birpas olislarga ko'z tikib jim qoldi. Keyin bilinar-bilinmas xo'rsinib qo'yib davom etdi. – Men borar manzilimni ancha-muncha adashtirgan ekanman.

Eryigit yana jim qoldi. Qo'lidagi piyolasini dasturxonga qaytib qo'ydi.

– E, ja, pessimist bo'p ketibsanmi, shoir, – dedi Sayim shovqinli ovozda. – Bunaqa emasding-ku, sen avval boshdan mo'ljalni to'g'ri olgan eding. Mana Malikboy aytsin, mushtday bola edik hammamiz, sen shoir bo'laman, derding. To'g'rimi? Mana shoir bo'lding, kitoblaring chiqdi. Katta bir gazetaning, res-publika gazetasining viloyat muxbirisan. Yana nima qoldi yetishmaganing. Ha, aytmoqchi, menga qara, jo'ra, ko'pam noshukur bo'lavermaylik, mustaqillikka erishganimiz, bu – hammamizning baxtimiz emasmi! Manzilga to'g'ri yetganimiz emasmi!.. Ja, bunaqa odamni yuragini ezmagin-da, adashganman, yanglishgan-man deb! Senday shoir odam shunaqa deb tursang, biz bechoralar butkul uloqib ketgan ekanmiz-da bo'lmasa!..

Sayimning jo'shib ketayotganini kulimsirab kuzatib turgan Eryigit, bo'pti, bo'pti, deganday bosh irg'adi.

– Sayimjon, uzr, – deya Eryigit so'zini davom ettirdi. – Lekin, sen yaxshi gap aytding, mustaqillikka erishganimiz, bu hammamizning umumiy baxtimiz. Ammo... – u yana xo'rsinib qo'ydi, – shaxsiy baxt boshqa narsa... Bo'pti, bu gapga nuqta qo'yaman. – Qo'liga piyolasini oldi. – Agar mana shu sabilni ichish kerak bo'lsa, men taklif qilardimki, mana shu dalalarda o'tgan eng pokiza va baxtiyor bolalik uchun ichaylik. Bolalikning o'zi baxt ekan. Mayli, u quyoshda qop-qora-yib ketmon chopgan bo'lsin, qo'llari taram-taram yorilib o't yulgan, paxta tergan bo'lsin, Sayim aytgandek, manavinaqa shiyponda emas, tollar tagida dumalab dam olgan bo'lsin, bolalikning o'zi bir baxt ekan... Men yana taklif qilardimki,

o'sha baxtiyor bolalik yillarimizdan qolgan yakka-yu yolg'iz yodgorlik – anovi Bobo Shotut uchun ichaylik...

– E, shotut qoptimi! – deb yubordi Burhon befarosatlarcha.

Eryigit biz zum jim qoldi-da, yana avvalgi sokin qat'iyatda so'zini davom ettirdi.

– Bobo Shotutning g'animat qolgan umri uchun ichaylik!..

– Zo'r gap bo'ldi, zo'r! – dedi Sayim shovqinlab. – A, nima dedilaring, shoir shoir-da bari bir. Qani bo'lmasa, urdiq.

Piyolalarni oldinma keyin bo'shatib, gazak qilgani tutinarkanmiz, Burhon og'zida ovqati bilan gapga tushib ketdi.

– Yangi yil kechasi edi. Televizor oldida erib, yonboshlab yotgan edim, xotin baqir-chaqir qir qolsa bo'ladimi. Hey, baqa chiqing, uni qarang, deydi. Hovliga chiqsam, manashiyaq kunday yorishib boryapti. Kayfim uchib ketdi. Obbo, dedimu otni yaydoq minib, bog' o'rtasidan soldim. Hov o'rta yo'lda bir g'aram g'o'zapoya bor edi. Shunga o't ketdiyov, deb o'ylagandim. Yetib kelib qarasam, gulxan dala o'rtasida. Battar qo'rqib ketdim. Ajina bazm bo'lyaptimi, nima balo, dedim. To'g'risi-da, shotut kimdi esida bor... Tikilibroq qarasam, olovdi oldida uch-to'rtta odam chopib yuribdi. Yuragimni bosib olib, otimni yo'rttirib bordim. E, shotut degani alomat yonarkan, xuddi benzingga bo'ktirib olinganday gur-gur qiladi. Qish o'rtasi bo'lsayam, yog'in bo'lmaganidan quruqshab yotgandi-da.

– Qisqasi rosa tomosha bo'lgan ekan-da, – kesatdi Eryigit.

– Nimasini aytaasan, – kesatiqqa kesatiq bilan javob berdi Burhon. – Lekin, bir-ikkita zang'ar tomoshani beliga tepdi. Hov, Mo'soariq bilan Shotut orasi qancha bor, uch yuz-to'rt yuz qadam keladi-ya, ana o'sha yerdan suv tashib kelishyapti. Odamni kulgisi qistaydi...

Eryigit o'rnidan turib ketdi-da, hovli etagiga borib, shotut tarafga ko'z tikkancha cheka boshladi.

– Rost-da, odamni kulgisi qistaydi, – Burhon to'xtam bilmay davom etdi. – Uying yonyaptimi buncha hovliqib chopasanlar. Bolibek amaki degan bo'lardi-ku, o'shani Toshkentda o'qiydigan bolasi, hammani zir yugurtirayotgan o'sha. Ey, qo'yaveringlar, bu endi odam bo'lmaydi, degandim, baloga qoldim. Haligi zumrasha, bu mani otamni ko'rgan, bobomni ko'rgan, deb xezlanib kelsa bo'ladi-mi. Yana bir narsa desam, yoqamdan oladigan. E, bore, deb jo'nab qoldim. Men hozir...

Burhon karavotdan ildam tushdi-da, xiyol gandiraklab oppoq tutun buruqsib turgan shamshodlar tomon ketdi. Sayim Eryigitni sudraguday bo'lib yetaklab kelib, joyiga o'tqazdi. Sixda jizillab turgan kaboblarni dastalab ko'tarib kelgan Burhon o'rniga o'tirar-o'tirmas, gurungini to'xtagan yeridan davom ettirdi.

– Mana, bari bir aytganim bo'ldi, ko'karmadi...

– Ko'karibdi-ku, – dedi Eryigit unga tik qarab.

– E, qayoqda! – Burhon qo'lidagi sixlarni dasturxon o'rtasidagi tovoqqa qo'yarkan qo'l siltadi. – To'rtta shoxi qolgan edi. Bittasi shamolda qulab tushdi.

Qolgan uchtadan bittasi arang barg chiqaribdi. Ana qaranglar, shotutmas, qurigan saksovol bo'p yotibdi.

– Pastki tanasidan yangi novdalar chiqazibdi-ku, – dedi Eryigit yosh boladay o'jarlik bilan.

– Bari bir bo'lmaydi, bachki novdalar qishda qurib qoladi.

– Bo'ladi, sen shotutni bilmabsan!

– Foydasiz, o'zaklarigacha kuyib ketgan.

Sayim oraga tushdi. U Burhonga ko'z qisib qo'yib, tanbeh bergan bo'ldi.

– Unaqa dema, Burhon, shotutimiz ko'karsin. Biz yana mazza qilib yeylik.

To'g'rimi, Abdumalik...

– Qiziq gapirasana, Sayim, – dedi Burhon, keyin iltifotsiz bir six kabobni olib yeyishga tusharkan, g'o'ldirab davom etdi. – Ko'karaversin. Menga og'irligi tushyaptimi. Ko'karaversin...

Sayim bizlarga kabobdan olib uzatdi.

– Qani, sovumasin. Olinglar.

– Men o'z ko'zlarim bilan ko'rdim, – yostiqqa tirsaklab, oyog'ini uzatarkan, Burhon yana mavzuga qaytishdan o'zini tiyolmadi. – Kovaklari ichidan olov xuddi mo'ridan chiqqandek chiqib borayotgan edi. Shuni uchun aytayapmanda o'zaklarigacha kuyib ketdi, deb...

– E, bo'ldi endi, shotut haqida gap tamom, – dedi Sayim toqatsizlanib. – Ichamiz. Ol piyolangni bu yoqqa. E, o'rgildim sendaqa fermerdan!..

U yangi shisha qopqog'ini ochishga tutinarkan, niyati o'zgardi.

– Yo'q, endigi qadahni o'sha Shotut boboning oldida borib ichamiz. Turinglar!..

– Sayim jinnilik qilma, – dedi Burhon yonboshlagan ko'yi kavshanib. – Shu daqqi oftobda shotutti tagida balo bormi!

– Sen jim o'tir. Men mehmonlardan so'rayman. Nima deysizlar, boramizmi, Malikjon, Eryigit?.. – Sayim Eryigitni bag'riga bosib, yuzidan o'pdi. – Mening shoir do'stim, men sen ikkoving bilan faxrlanaman. Doim o'quvchilarimga aytib, maqtanib yuraman. Senlar tufayli ular menga havas qilishadi. Qani, turinglar, iltimos...

Eryigit boshini ko'tarmadi. Sayim endi menga tirg'aldi.

– Abdumalik, xo'p degin, jo'rajon.

– Shundog'am yaxshi o'tiribmiz, Sayimjon...

– Yo'qmi, yo'q degin. Sen alkashsan, jim o'tir de, o'tiraveraman.

Kayfi oshib qolgan Sayim hay-hay demasam yig'lashga tushadi. Eryigit bosh solib o'tiribdi. Burhonga qarasam, yelka qisadi.

– Men bechora bir alkash...

– E, bechora alkash, – dedim kulib, – bo'pti boramiz!..

To'rtovlon gandiraklab yo'lga tushdik...

... U bir paytlar g'oyatda mahobatli, ulkan, shu bilan birga g'oyatda xushsuvrat daraxt bo'lib, bir qarashda sadaqayrag'ochga o'xshab ketar va olis-olislardan ham ko'zga tashlanib turardi.

Uni bu yerga kim o'tqazgan, qachon o'tqazgan, nega aynan dalaning qoq o'rtasiga o'tqazgan... hech birimiz bilmasdik. Hatto keksalarimiz ham: «biz mushtday bola edik, shotutning shu turishi edi. Mana qarib-qartayib boryapmiz, u haliyam o'sha-o'sha», deyishardi...

Shotutning bujur tanasiga ikkitamizning qulochimiz arang yetadi, yon atrofga bosh solib turgan novdalari birday chayir va zalvarli, anchayin shamol-to'polonlar ularni tebratolmasdi. O'sha yillar ham bu dalada paxta ekilardi. Dala o'rtasida qo'r to'kib turguvchi bu viqorli daraxt esa bizning g'aribgina bolalik dunyomizning ajralmas bir moviy bo'lagiga aylanib qolgan edi. Dala yumushidan bir zungina ozod bo'ldikmi, unga yopirilardik: uning osti-ustini bozor qilib yuborardik.

Yillar o'tib u bilan xayrlashuv fursati ham yetdi. Ammo, biz xotirjam edik: u qarimaydi. Yana o'n yil, yigirma yil, o'ttiz yil o'tib kelsak ham u bizni xuddi shu turishida qarshi oladi, degan ishonchda edik...

Tush paytlari soyda cho'milib, salqinlab olganimizdan keyin tollar tagida cho'zilishib, hozirgina o'zimiz chiqib kelgan dalaga tikilardik. Dala jivir-jivir hovur ichida hansirab turganga o'xshar, katta-kichik quyunchalar behol g'o'zalar bargini yulqilab, bir-biri bilan quvalashmachoq o'ynab yotar, dala o'rtasida bechora Shotutimiz gungu lol bo'lib turar, uning qoq tepasida esa saraton oftobi misoli olov shar bo'lib otash purkagani purkagan edi. Xayol qilardikki, hozir uning yaproqlari qovjiraydi, keyin novdalari chatnab-chirsillab turadi-da, birdan lov etib alanga ichida qoladi... Oxir-oqibatda shunday bo'ldi ham. Lekin saraton oftobi emas, uch-to'rtta betiyiq bolakayning ermagi xarob qildi uni.

Shotut bizni aftoda bir alfozda qarshi oldi. Burhon topib aytgan ekan, u saksovulga, ulkan saksovulga o'xshab qolibdi...

Biz yetib kelgunimizcha, Shotutning bo'yradekkina soyasida ko'rpachalar solinib, dasturxon tuzab qo'yilibdi. Sayim darhol chordana qurdi.

– Xo'p, qani kelinglar, – dedi u xushhol, – olim o'ng tarafimda, shoir chap qo'limda o'tirsin. Sen Burhon to'g'rimda o'tirgin-da, aroqdan quy. Yaxshisi, o'zim quyaman. Burhon ikkalamiz o'tirdik. Eryigit shotut atrofida aylanishib, paysallab turdi. Sayim piyolalarni to'lg'azdi.

– Eryigit, kel buyoqqa jo'ram. Tomoqlar taqillab ketdi. Kelaqol, bo'yingdan seni. O'tir. Haligi gapingni takrorlaysan...

Eryigit gapirmadi. Bosh solib o'tiraverdi.

– Bo'pti, shoirdi o'sha gapi uchun... Qani, urdiq.

Me'yoriga yetdi shekilli, ko'p o'tmay Sayimning birov bilan ishi bo'lmay qoldi. Eryigitga o'xshab bosh solib o'tiraverdi. Anchagina kayfi oshib qolgan

Burhonning esa aksincha tili-jag'i ochila boshladi. Falokati qisib, Eryigitga tirg'alishga o'tdi.

– Mana sen shoirsan, – dedi u go'sht chaynashdan og'zi bo'shamay, – katta gazetta ishlaysan. Hamma sendan qo'rqadi, malades... Lekin, men qo'rqmayman, bir gramm ham... – u atrofiga qarab oldi-da, pixillab kuldi. – Chunki, sen jo'ram-san...

Eryigit jahli chiqsa gapini yo'qotib qo'yadi. Rangi oqarib, qizaraveradi. Du-duqlanib qolishdan ko'ra, gapini ichiga yutishni ma'qul ko'radi. Juda o'tib ketsa, qo'li ishga tushadi. Bunaqa paytda uni to'xtatish mahol. O'zi ozg'in, nimdoshgina ko'rinsa-da, devday odamdan ham tap tortmay tashlanaveradi. Burhon shu tobda yo uning ahvolini tushunmayotgandi. Yoki bo'lmasa o'zining ham janjallashgisi kelayotgandi.

Burhonga «bas qil» deganday ko'z qisdim, tushunmadimi, endi menga yuzlanib oldi.

– Jo'ramiz raisga xat yozibdilar. Unda kolxoz shirkatga aylangan edi. Shirkat ham omonat imoratday qimirlab turardi... Shunday, shunday, tollarni yiqitibsizlar, tolsiz soy soy bo'ladimi... go'zallik, tabiat, yana bir narsalar debdi-da, ishqilib. Rais nima qildi, degin, anovi shiyponga odamlardi yig'di-da, buni xatini o'qib berdi. Mayli, o'zimizdan chiqqan kadr, iltimos qilgan ekan, ektiramiz qaytadan. Shoirdi gapi yerda qolmasin, dedi...

Sayim o'tirgan yerida tushunib-tushunmay «to'g'ri, to'g'ri» degancha bosh irg'ab qo'yardi. Men bo'lsam, kayfim tarqab, hushyor tortib boryapman. Eryigit betoqatlanib, suvli idish qopqog'ini ochdi-da, idishi bilan ko'tarib ichdi. Barmoqlari titray boshladi.

Burhon bo'ldi qilay demasdi.

– Keyin ketdi-bordi, qaytib esigayam kelmadi. Bilaman, shoir mendan xafa. Tollarni men yiqitganman, bo'ynimga olaman, chunki, paxtani o'yladim. Eski tollarni yiqitsam, hasharot kamayadi, deb o'yladim... Endi, gapni o'g'il bolasini aytсам, shoirdi ishqi o'sha tollarga bekorga tushmagan. Tabiat, go'zallik degani bir bahona. O'sha soydi bo'yida bittasi bilan svidaniya qilardi. Ko'rganman ikkovini, toldi tagiga biqinib olib, bir-biriga termilib, she'r o'qib o'tirishardi. Lekin... – u pixillab kuldi. – Lekin, hech ish qilishmasdi.

«Tamom, endi muqarrar!» dedim. Va o'rnimdan turib, ularning o'rtasiga borib cho'kmoqchi bo'ldim.

– O'sha jonon hozir bir amaldorning to'shagida...

Burhon gapini tugatishga ulgurmadi. Men borib unga qalqon bo'lishga...

Eryigit o'tirgan yerida chap qo'li qirradi bilan Burhonning manglayiga yashin tezligida zarb berdi. Chorpaxil Burhon o'tirgan yerida g'o'lachaday uchib tushdi. Unga yordamga shoshilgandim, Eryigit yelkasi bilan meni turtib yubordi-da, Burhonning yoqasidan changallab ko'tardi. Oyog'iga turar-turmas yuziga musht tushirib qulatdi. Yana ko'tardi. Ayirmoqchi bo'lib harchand urinmay, qo'limdan kelmasdi.

Bir payt Sayimning dahshatli hayqirig'i eshitildi.

– To'xta! To'xta deyman!

Unga qarab qo'rqib ketdim. Ko'zlari qinidan chiqib ketgan, qo'lida yarmi sindirib tashlangan aroq shishasi. Etim muzga aylandi.

«Ana endi haqiqiy fojia yuz beradi!»

– Sayim, o'zingni bos, jinnilik qilma, – deb unga ro'para bo'ldim.

– Yo'limdan qoch, – deb qo'lidagini serpadi. – Hozir o'ldiraman, qonini ichaman uni!..

Eryigit Sayimning baqirig'idan o'ziga kelib, oyog'i ostidagi Burhonning yoqasini bo'shatdi. Qaddini rostlab, sovuq bir xotirjamlik bilan Sayimga qarab yurdi.

– Qani, kimni o'ldirmoqchisan?!

Sayim ich-ichidan Eryigitni hurmatlab, oldi-orqasida faxrlanib gapirib yurardi. Hozirgi holatida ham shu narsa ish berdi. Darhol popugi pasayib, qo'lidagi shishani tashladi. Keyin kutilmaganda tizzasiga cho'kib, yig'i aralash gapira ketdi.

– Mana meni urmaysanmi uni urgancha. U bir bechora-ku, Xudo urib qo'rgan bechora-ku!

Eryigit shartta orqasiga qayrilib, shotutning naryog'iga o'tib ketdi. Burhon bir chekkada yuzini teskari o'girgancha o'tirardi. Sayim aroqning qolgan-qutganini quyib ichdi-da, endi men tomonga tizzalab keldi.

– Malik, unga aytib qo'y, ahmoqlik qildi. U begunoh, bechora bir banda-ku! Bilsang, uning oldida men nopokman. Mening qo'llarim qon, qon!..

U yer mushtlab yig'lashga tushdi. Angrayib qoldim.

– Nima deypasan, esingni yig', – deyoldim zo'rg'a.

Eryigit hayratlanib, bizga yaqin keldi.

– Esim joyida meni, Malikjon. Bilaman, sen ikkoving allaqachon meni no-shud alkashga chiqarib qo'ygansizlar. Lekin, nima uchun shunaqa bo'p qolganimni bilmaysizlar. O'z zavq-shavqlaring bilan bo'p ketgansizlar. Burhon biladi, dardimni tushunadi.

Sayim gandaraklab borib, Eryigitga ro'para bo'ldi.

– Hov, birda, esingdami, afg'onda bo'p kelding, gazetaga chiqaray, deding. Men ko'nmadim. Nega!! Negaki, men aytgan narsalarni hech yerda chiqara olmasding. Shuning uchun kerak emas, dedim. Nima deb o'ylagan bo'lsang, o'ylagandirsan. Lekin, men sen o'ylagan odam emasman. – Sayim ko'kragiga gursilatib urdi, – bor, juda ko'p orden-medallar. Chunki, men o'ng-tersimga qaramay tashlanar edim. Balodan ham qaytmasdim...

Sayim Eryigitga tikilib negadir jim qoldi. Eryigit tut tagida yotgan g'o'laga cho'kdi. Dasturxon yuzida turgan ochiq shishalardan birini olib suv ichdi. Sayim endi o'zini bosib olib, ohista gap boshladi.

– Men o'shanda sezdim, sen shoir bo'lsang ham, go'dak eding, hech baloni bilmasding. Institutda nima o'qitishgan bo'lsa, o'shani gap deb yurarding.

Sayim Burhonning oldiga borib, tizzaladi. Yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. Va yana biz tomonga o‘girildi.

– Lekin, aytib qo‘yay, mana shu bola mendan pokroq, mendan tozaroq, nega deysanmi?..

U birdan gap ohangini o‘zgartirdi.

– Aytmoqchi, sizlarga vatan xoini kerakmi? Dizertir, qochoq... Ayniqsa, sen shoirga kerak, mana, marhamat!.. – Burhonning yelkasiga qoqdi. – U afg‘ondan qochdi. Sariq bo‘lgan bitta bolani peshobini ichib, o‘ziga kasal yuqtirdi. Qalay, zo‘rmi?.. Burhon jo‘ramiz ana shu ishdi qildi. Buyam holva, armiyaga bormaslik uchun, qornini yordirib, boshqatdan tiktirganlar bor. Haliyam tirik o‘shalar!..

Sayim yerga qapishib borayotgan Burhonning yelkasidan siltab tortib, o‘ziga qaratmoqchi bo‘ldi. Burhon qimir etmadi.

– Qalay, jo‘ra, oxiri sotdim-a! Shuncha olib bergan aroqlarningning hurmatini qilmadim-a! E, alkashdan hech zamonda tuzuk odam chiqqanmi!.. Yo‘-o‘q, jo‘ra, bari bir sen xoin emassan! Hech kimni sotmagansan. Faqat qo‘rqoqsan, xolos. Nima bo‘lgandayam mendan battar emassan... Meni bo‘lsa, qo‘llarim qon, qon!.. – Sayim yana jazavaga tusha boshladi. – Menga mana shu dushman, ot desa, otganim otgan edi. Surishtirib o‘tirmas edim. Endi bo‘lsa faqat qon ko‘raman. Ko‘zimni yumdimmi, bo‘ldi, hammayoq qir-qizil qonga do‘nadi. Uyimiz oldidagi ariqdan qon oqib yotgan bo‘ladi. Kosa-kosa olib ichaman, to‘ymayman. Yuragim yonib ketaveradi. Bir kun sen Malik, menga aroq quyib berding, qarasam, piyola to‘la qon. Nima bu, desam, tirjayding, tishlaring orasidan qon sizib chiqdi. O‘g‘ilchamning sut shishasi ichi to‘la qon, qiqir-qiqir kulib, ichib yotgan bo‘ladi. Bilmadim, men nima qilay, bu balodan qanday qutilay?! Faqat... bo‘kib ichsam, tosh qotib uxlasam, ozroq qutilaman... Agar Burhon og‘aynim kunimga yarab turmaganida qachonlar o‘lib ketgan bo‘lardim... Televizorda ko‘rgansizlar-a... – Sayim o‘rnidan turib, bizga yaqin keldi. – Televizorda cho‘loq bolalar futbol o‘ynaganini ko‘rgansizlar-a? To‘pga ro‘para bo‘lishsa, mo‘ltoq oyoqlari sakrab ketadi. Mo‘ltoq qo‘llari sapchib tushadi. Shularni ko‘ra turib dod deb yubormaysizlarmi, dod deb!.. Odamzot uchun bundan ortiq azob bormi. Ana o‘shalar ham mening bitam – kechalari qon ichib chiqishadi...

Sayimning avji pasaydi. Behafsala qo‘l siltab, orqasiga qaytdi.

– Senlar ham yuribsanlar-da, shoirman, olimman deb. E!..

Burhonning qo‘ltig‘idan oldi.

– O‘zimdi fermer jo‘ram tuzuk. Ketdik, jo‘ra, yana bitta aroq obermasang, bo‘lmaydi. Shoir kayfimni uchirib yubordi. Qani, tur...

Nihoyat Burhon boshini ko‘tardi. Sayimning yuziga tikilib turib, o‘zidan nari itardi.

– Yo‘q, to‘xta... Meniyam mehmonlarga aytadigan gapim bor. Sengayam...

Tilga kirgan Burhonga ajablanib qaradim. Eryigit ham boshini ko‘tardi. Sayim tushunmay ko‘zlarini yirib-yirib ochib, unga tikildi-da, beixtiyor uning qarshisida tizzaladi.

– Sayim, o‘z og‘zing bilan aytding-a, Burhon qarashib turmaganida o‘lib keldim, deb. Aytdingmi?..

– Aytdim, jo‘ra, to‘g‘risiyam shu-da.

– Manavi og‘aynilaringni bittasini akademik, deb og‘zingdan moy tomadi. Bittasini shoir deb poypatak bo‘lasan. Qani, mard bo‘lsang ulardi yuziga ayt: biror marta ahvolingni so‘rashdimi? Afg‘ondan kontujin bo‘p kepsan, do‘xtirga ko‘rsataylik, sanatoriyaga yotqizaylik, deyishdimi? Nima, qo‘llaridan kelmasmidi?! Tag‘in, o‘sha men laqma, qo‘rqoq Burhon kuningga yaradim. Minnat emas bu! Manavilarga o‘xshab qo‘lim uzun bo‘lganida o‘zim bilardim nima qilishni, qo‘limdan kelgani shu bo‘ldiki, senga aroq oberib turdim. Obermasam bo‘lmasdi, atir ichishga o‘tib ketayotgan eding. To‘g‘rimi? Tag‘in aytaman, minnat qilmayman. Bugun bo‘lsa, mana shu ish uchun meni qo‘rqoqqa chiqarib o‘tiribsan.

Sayim bosh ko‘tarmay g‘o‘ldiradi:

– Unaqa demadim-ku!..

– Aytding... Mayli, sen bilmasang, bechora xotining, onang biladi. Xudoyim ko‘rib turibdi... Umuman sen uchalang, meni hech qachon odam o‘rnida ko‘rmagansanlar.

«Ana bo‘lmasa!»

– Sizlar a‘lochi, sizlar abjir, sizlar botirsizlar. Men yomon o‘qiydigan, no-shud, qo‘rqoq edim.

– Qo‘ysang-chi, Burhon, – dedim men o‘rnimdan turib. – To‘rtovimiz bitta ko‘chani bolasi edik. Ahil edik...

– Ha, bitta ko‘chani bolasi edik. Lekin, meni hamma vaqt ajratib tashlardilaring. Yolg‘onmi? Bir kuni hatto yuzimga aytgandilaring, Burhonboy, bizlarni mozorimiz ham boshqa-boshqa deb.

Eryigit hayratlanib qaradi. Men xijolatli boshimni egdim.

– Sizlarniki qanaqa mozor, desam, mana bu Sayimboylaring, biz uchovimizga Chig‘atoydan joy zakaz qilingan, degandi. Men soddani aqlim yetmabdi. Keyin bilsam, Chig‘atoy deganlaring, Toshkandagi ulug‘ odamlar ko‘miladigan qabriston ekan. Ana ko‘rdilaringmi, mushtday boshlaring bilan hatto qabristonlarningniyam boshqa qilib olgandilaring. Bitta men bilanmas, ota-bobolaring bilan ham manovi Ko‘makrason bobo mozorida yotgilaring kelmagandi.

Boshimiz egilib qoldi. Yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsak.

– Yana tag‘in ikki gapdi birida Xondara deysizlar. Ko‘ksoy deysizlar. Shotut bobo deysizlar...

Maktabni bitirar yilimiz, mana shu yerda shotut oldida suratga tushgan edilaring. To‘rt og‘ayni bir suratga tushaylik, deganding, sen Malik. Yuragim qalqib tushgandi, meniyam aytayapti, deb. Keyin bilsam, shotutti qo‘shib to‘rt og‘ayni degan ekansan... Og‘ayni emish!.. Mana shu shotutti tili bo‘lsa, ayt sin: raisni, raykomni zug‘umlarini, bu qari daraxtni oldirib tashlang, deb buyurganlarini... Lekin, men – yomon Burhon qulog‘imni qattqlikka olib yurganman. O‘shalardi ayrganini qilmaganman... Shiypon yonidagi shotutni ko‘rdingmi, Eryigit? Mana



shu shotut novdasidan olib borib, Bahrom boboga payvand qildirganman. Qishloq ichidayam ellikta shotut ko'kartirganman. Men – laqma Burhon qildirganman shu ishlarni. Agar bu kuyib kul bo'lib ketgandayam nasli davom etadi. Bitta emas, ellik bitta bo'lib!.. Senlar nima qildilaring shotutti og'aynilari!..

Sayim Burhonning yelkasidan tutib:

– Burhon bo'ldi endi, yaxshi emas, mehmonlar, – degan edi, battar avjlandi.

– Kim mehmon, shularmi? Shu qishloqdi tug'di-bitdisi-ku bular, qanaqa mehmon?! Xondaraning bolalari-ku. Mehmon-mehmon deb, oyog'ini yerdan uzib qo'yamiz-ku bularni!.. Manovi shotutti qara, kuyib ketgan bo'lsayam ko'karib turibdi, yangi novdalar chiqaryapti. Nima uchun?.. Tomiri yerda, suvda. Bular-di oyog'i yerdan uzilib qoladi-ku bu turishda! Tushunasanni?! Odamlarim kun bo'yi Jarariqda daqqi oftobda chopiq qildi. Na unisi, na bunisi bir og'iz so'radimi, odamlarning qayerda, ahvoli qanday deb! Yo'q, esigayam kelmadi!..

Sayim Burhonning yoqasidan tutib, zorlana boshladi:

– Bo'ldi dedim, Burhon, bo'ldi qil, iltimos!..

Eryigit ularga yaqinlashib, Sayimni chetga surdi. Burhonning yuziga unsiz tikildi.

– Gapir, do'stim, gapir, – dedi ovozi titrab.

Shunda kutilmagan hodisa yuz berdi. Burhon Eryigitning ko'zlarida jiqqa yosh ko'rib, tildan qoldi. Eryigit uning manglayiga manglayini qo'ydi. Burhon chidab turolmadi, uni bag'riga bosib, baralla ho'ngrab yubordi.

# Normurod Norqobilov

(1953-yilda tug'ilgan)



Normurod Norqobilov 1953-yil 7-iyunda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi Qishliq qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (2006). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1982). Dastlabki hikoyasi – «Chorraha» (1982). «Zangori ko'l» (1987), «Unutilgan qo'shiq» (1990), «Yuzma-yuz» (1993), «Pahmoq» (1997), «Sariq gul» (1998), «Arazchi chumchuq» (1999), «Bekkatdagi oq uycha» (2000), «Jo'shqin daryo», «Ovul oralagan bo'ri» (2005), «Bo'ron qo'rqon kun» (2007) kabi qissa va hikoyalardan iborat to'plamlari nashr etilgan. «Quyoshi botmaydigan yurt», «Shim yoxud xotinlar janjali» nomli asarlari asosida bir necha qismli videofilm yaratilgan.

«Shuhrat» medali bilan taqdirlangan (1999).

## AYRILIQ QUVONCHI

Bola do'ngda bobosi Norboy cholni kun qaytgandan beri kutadi.

Choldan esa negadir hanuz darak yo'q.

Bola bundan siqilsa-da, lekin ajablanmaydi. Ora-sira qishloq tomonga ko'z tashlab, Bozor tog'am qo'ymayotgan chiqar, deb o'ylaydi. Nega deganda, Bozor tog'asi anchagina jahldor odam, cholning do'ngda qo'nqayib, qotgan non shimib o'tirishini yoqtirmaydi. Kishilar oldida nomusga o'ldirayapsiz meni, deydi. Uning gapida jon bor, qishloq ahli bo'lak mavzu qurib qolganday, keyingi paytda nuqul cholning g'iybatini qiladigan bo'lishgan.

– Norboy chol o'libdi, kuni qotgan nonga qolibdi.

– Nonni o'g'li va kelinidan bekitib yerkan.

– Aytdim-a, buncha ozib-to'zib ketdi deb. Demak boquvning mazasi yo'q ekan-da.

– Qariganingdan keyin shu-da, nafas olishing ham birovga malol kelib qoladi...

– Kampir o'ldi-yu, choldan putur ketdi.

– Unga qiyin, tengqurlari yo'q, boyo'g'riday bo'zrayib bir o'zi qoldi.

– O'lsa, izidan izillab yig'lagandan ko'ra, hozir duosini olib qolish kerak cholning.

– Bu gapingni borib Bozorga ayt.

– Aytaman, kerak bo'lsa, qizigayam aytaman.

Cholning esa bu xil past-baland gaplar bilan ishi yo'q. Kunning tafti sal pasayishi bilan hassasini do'qillatib, qishloq biqinidagi do'nglikka chiqib keladi. Yerga cho'ka-cho'ka, og'ir uh tortarkan, o'zicha g'o'dranib qo'yadi: «Voy jonimi-iy, tozayam siqilib ketdim-a uyda». So'ng hassasini tizzalari orasiga olib, oshiqmay qo'yniga qo'l yuboradi. Timirskilanib, ko'kishtob jiydasi cho'ntagidan nimadir qidiradi. Chetdan kuzatgan odamga nosqovog'ini izlayotganday tuyulishi mumkin. Yo'q, cholning qo'lida nosqovog emas, hamisha suvi qochgan bir bo'lak non bo'ladi. U nonni og'ziga olib borishdan avval obdon o'ngu tersiga razm soladi, puf-puflab uni gardu gurddan tozalagan bo'ladi, so'ng tishsiz milklari orasiga olib, ko'zlarini yarim yumganicha, tamshanib-tamshanib shimishga tushadi. Namlangan non uvoqlarini yamlamay yutadi. Qavatida tizzalarini quchib o'tirgan bolaga gohida shunday deb qo'yadi:

– Qotgan non yurakning selini oladi, ulim.

Chol yemak bilan andarmondek ko'rinsa-da, aslida ikki ko'zi kunbotishga cho'zilgan toshyo'lda bo'ladi. Yo'lda biror qorani ilg'ashi bilan non shimishdan to'xtab, sergak tortadi.

– Qara-chi, anavu kelayotgan Muso tog'ang emasmi?

Muso cholning ikkinchi o'g'li.

U uzoq shaharda turishiga qaramay, cholni ko'rgani tez-tez qishloqqa kelib turadi. Enasining o'limidan so'ng cholni shaharga olib ketmoqqa ko'p urinib ko'rди. Biroq Norboy chol deganlari halimdek yumshoq, musichadek beozor ko'ringani bilan o'ziga yetganicha qaysar – ketishga unamadi. Shuning uchun Muso avvalgidan ko'ra serqatnov, gohida o'zidek kamsuqum, xushro'ygina ayoli bilan keladi. Har qishloqqa kelganida cholni o'zi yuvintirib, o'zi kiyintirib ketadi. Og'ziga tansiq yemaklar tutadi. Bolaning nazarida, chol ko'rinishiyoq odamning ishtahasini qo'zg'aydigan shirin taomlarga nisbatan qotgan nonni afzal ko'radiganday. U lablarini cho'lpillatib, qotgan non bo'lagini shu qadar uzoq, shu qadar huzur qilib shimiydiki, zerikkanidan bolaning yuragi tars yorilay deydi. Ba'zida do'nglikka to'rsillib-gursillab Bozor tog'asi chiqib keladi.

– Ota, nima o'tirish bu, a?! – deydi achchiqlanib. – Ko'rgani ko'z nima deydi? Qishloqda bosh ko'tarib yurolmay qoldik-ku! Turing, uyga boring!

– Yo'q, – deydi chol sarkash ohangda. – Ukangni kutayapman.

– Kechagina kelib ketdi-ku u, – Bozor uning egnidagi ohorli libosiga ishora qiladi. – Kecha sizni o'zi yuvintirib, o'zi kiyintirib, fason qir ketdi-ku. Nima darrov esingizdan chiqdimi?

Kechagi kunni chol unutgan, buguni bilan yashaydi. Shuning uchun boshida g' o' ddayib turgan o' g' lining gap-so' zlariga ortiq e' tbor bermaydi. Ufqqa sanchilgan toshyo' lga ilhaq termulib o' tiraveradi. Faqat non shimimoqdan o' zini tiyadi, xuddi qo' lidagini birov tortib olib qo' yadiganday, yemakni kaftlari orasiga yashiradi. Tog' asining dag' dag' asi cholga ta' sir qilmasligini yaxshi bilgan bola, uning tezroq ketishini istaydi. Tog' asining qorasi o' chishi bilan u bobosiga yaqin surilib, egnidagi ohorli libosini to' yib-to' yib hidlaydi. Chol qotgan nonni suyganday, u yangi gazmol hidiga o' ch. Biroq ikki-uch kundan so' ng bola sevgan bu hiddan asar ham qolmaydi. Cholning kiyimlari uniqib, undan ter isi anqiy boshlaydi. Bu holdan Muso tog' asining qattiq aziyat chekishidan boxabar bolaning yuragiga tashvish oralaydi. Cholni aldab-suldab naridagi pastak qir yoqalab o' tgan Toshli-soyga olib tushadi. Uni quyosh taftida qizigan toshlardan biriga o' tqazib qo' yib, egnidan jiydasi-yu yaktagini sidirib oladi. Quyosh nuri cholning keksargan suyagiga xush yoqqandek, uning bu harakatlariga ko' pda monelik qilmaydi. Qitig' i kelganday qih-qihlab kulib qo' yadi, xolos. Bola ter hidi o' tirib qolgan kiyimlarni o' ta uquvsizlarcha yuvarkan, o' ziga kalakaomuz iljayib qarab turgan cholga ko' z qirini tashlab, beixtiyor uning tezroq o' lishini istaydi. Kiri malol kelganidan emas, ko' hnargan buyumdek yaqinlarining e' tboridan mosuvo bo' lganidan o' kinib, shu xayolga boradi va so' ng bu o' yidan o' zi qo' rqib ketadi. Unga ortiq qaramaslikka tirishadi. Chol esa terisi halviragan oriq badanini qoqsuyak barmoqlari bilan qashlab, silab-siypalab yana qih-qihlaydi. Epsizlarcha kir yuvayotgan bolaning harakatlarini masxaralab kulishda davom etarkan, deydi:

- Bu ishning bo' madi. Undan ko' ra meni biror jar-parga oborda, itarib yubor. Bola qovoq osib, to' ng' illaydi.
- Yo' q, hech qachon!
- Mendan enang bezor, tog' ang bezor, hamma bezor, nima qilasan kirimni yuvib. Birato' la qutilib qo' ya qolasan deymanda.
- Muso tog' am sizni yaxshi ko' radi.
- Sen-chi?
- Yomon ko' raman.
- E, nechun? – Chol battar qih-qihlaydi.
- Jordan itarib yubor deganingiz uchun.
- Itarib yubormaysanmi?
- Yo' q!
- Itarib yuboraqol, – Chol bu safar ermaklab emas, erkalanib kuladi.
- Yo' q dedim-ku sizga! – Bola chinqirib yuboradi.
- O' zimning ulimdan-da!
- Men sizga ul bo' lmayman endi. – Bola tumshayib toshlardan biriga cho' ka-di. – Kiringizniyam yuvmayman.
- Eya, nimaga endi? – Chol ajablangan bo' ladi.
- O' sha... o' sha gapingiz uchun. – Bola beixtiyor qo' lidagi kirni eza boshlaydi. – Muso tog' am kelsin barini aytib beraman.

– Muso tog‘ang qiynalib ketdi-da, ulim, – Chol jiddiy tortib, badanini siypalashdan to‘xtaydi. – Bolam bechora meni deb hamma bilan qirpichoq bo‘layapti. Uzilishib ketmasin deb qo‘rqaman.

Bola nima deyarini bilmay boshini egadi. Muso tog‘asini tinimsiz qaqshatadigan Bozor tog‘asini-yu enasini yomon ko‘rib ketadi. Ularni qo‘lidagi suvi silqib turgan kir yaktak o‘rmda tasavvur etib, obdon ezg‘ilagisi, qoqib-suqib, eslarini kiritib qo‘ygisi keladi. Keyin bu ish qo‘lidan kelmasligini anglaganday, cholga gunohkorona javdirab qaraydi. Chol esa endi uni unutgan, toshlar oralab oqayotgan suvga xayolchan termulib qolgan, go‘yo umrning o‘tkinchiligini, oqar suvdan tezbog‘ini endi fahmlab yetganday, mahzun xayolga botgan bo‘ladi. U aka-ukalar jiqqillashgan kezlari ham mana shu tarzda xayolga cho‘madi. Lablari chetida esa ermaklovchi bir tabassum qanot qoqay-qoqay deb turadi. Biroq bu tabassumni boladan o‘zga hech kim payqamaydi. Negaki, bu paytda Bozor tog‘asi payqaydigan ahvolda bo‘lmaydi: «Ota faqat menga kerakmi, a? – deya baqiradi qo‘llarini paxsa qilib. – Ana, qiziyam qarasin, yasanib-tusanib, to‘yima-to‘y yurguncha! Axir bir yangang qay biriga bo‘lsin, ro‘zg‘orga qarasinmi, yo... Qiynalib ketdi-ku, u sho‘rlilik!» Muso tog‘asi enasiga ro‘paro‘ kelganida, uning zardasi Bozor tog‘asidan oshsa oshadiki, kam bo‘lmaydi: «Otam bechoraning nafaqasi yaxshi-yu, o‘zi yomon bo‘p qoldimi, – deydi qalin qoshlarni chimirib. – Qarasin, beliga tosh tegmagan o‘sha Oysanam semizni...» Enasi so‘zga chechan ayol, gap deganlarini tandir boshidagi o‘tinday qalashtirib tashlaydi. Shunda Muso tog‘asining boshiga kutilmaganda bir og‘riq kiradi, har holda bolaga shunday tuyuladi. U bu og‘riqqa chidayolmay, boshini changallaganicha u yon-bu yon tebranadi. Ingrashadi, ingrashgandayam yomon ingrashadi, so‘ngra bu adadsiz dardga chidamoqqa bardoshi yetmagandek, to‘yqusdan qo‘llarini ko‘kka ko‘targancha, alamli ravishda hayqirib yuboradi:

– Jaholat! Oh-h, qanchalar jaholat!

Bola bu so‘zning ma‘nosi neligini anglayolmasada, tusi va sovuqligini butun vujudi bilan his etadi. Nazarida, so‘zga jamlangan harflar tog‘asining ko‘kka yoyilgan barmoqlari orasidan sitalib, sochilib, qishloq uzra mahobatli qoramtir qoya yanglig‘ qad rostlagandek tuyuladi. Harflar shaklidagi bu dahshatli qoyalar halizamon naq ustiga qulaydigandek, u nozik yelkalarini qisib, ko‘zlarini chirt yumib oladi. Quloqlari esa odatdagidan tashqari ding – qudratli bir to‘fonni kutadi. Biroq to‘fon o‘rniga dardchil bir nidoni eshitadi. Ajabsinib ko‘zlarini ochadi va ko‘radiki, hozirgina hovlini boshiga ko‘tarib hayqirgan Muso tog‘asining boyagi vajahatidan asar ham yo‘q – tuzalmas bemor qoshida nochor qolgan odamdek, shalvirabgina turibdi. Keyingi harakati esa bundanda battar aftodahollik kasb etadi. Ezilgan, ezilib ketgan bir ahvolda asta cho‘ntagiga qo‘l yuborib deydi: «O‘sha zormandani men beray sizga, opa...»

Opa bo‘lmish, kerakmas, deb to‘ng‘illasa-da, pulni oladi. Bu qilg‘ini yo‘q yerdagi bahonalar bilan xaspo‘shlashga kirishadi. Muso uni eshitmaydi, boshini

ekkancha darvoza tomon yuradi. Qarshisida pochchasi Yomonqul paydo bo'ladi. U qaynisi bilan iliq-issiq ko'rishadi. Siz hech alag'da bo'lmang, bu ishni o'zimiz nazoratga olaman, deydi. Muso sodda, mehri tovlanib pochchasining yelkasidan quchadi. Bu g'idi-bidilarning bir chetida aslida pochchasi turganini xayoliga ham keltirmaydi.

Yomonqul tabiatan pismiq odam. O'tgan yili ko'klamda qaynog'asi Bozordan kaltak yeganidan beri ayolining urug'iga zimdan adovat saqlab keladi. Oqshom ko'pchigan xamirday bo'lib, supada yonboshlab yotarkan, sekingina pisillaydi.

– Shu odamlarda hech insof qolmayapti-da, nafaqani akang olsa-yu, boboyga sen qarasang, bir tovuqqa ham suv, ham don kerak deganday... odamlar yomon bo'p ketdi, – Yomonqul bu gaplarni shunchaki aytganday bo'ladi. Aytgandayam tepasidagi ishkonga tikilib aytadi. So'ng qo'shib qo'yadi: – Shu – u bu yil uzumning sal cho'g'i pastroqmi deyman, xotin?

Ayolni esa uzumning cho'g'i emas, shuningdek, cholning nafaqa pulini qurtdek sanab olayotgan akasining qilmishlarivam emas, yaqinidagi yig'inda tog'arasiga arzimato qo'yib qaytargan yangasi Oysanam semizning qiligi ko'proq qiziqtiradi, ya'ni erining gapi hali eskirib ulgurmagan alamini qayta yodiga tushiradi.

Yomonqul esa endi go'ng, uzumu ishkommniyam unutgan, chakagi ochilgan ayolining gaplarini eshitmaydi – go'yo pinakka ketgan. Ayoli yangasi Oysanam semizning ustiga bearmon mag'zava ag'darishda davom etarkan, orada bo'y bermas, qaysar cholniyam yanib o'tadi: «Ko'chibgina kela qolsa, o'shalarga zor qir qo'ymasdim. O'zim qarardim, oq yuvib-oq tarardim! Yo'q, kelishni xayollariga keltirmaydi. Xuddi qizining uyidan ilon chiqqanday, bir piyola choyimni zo'rg'a ichib, hadaha ulinikiga qochishga tushadi. Ana, Mamarayim qiyshiq ulinikida emas, qizirikida turibdi-ku. Odamlar gap qilsa qilibdi-da, nima, biror yeri kama-yib qolarmidi. Binoyidek yashab yuribdi qizirikida nevaralariga qarabgina. Bu kishim esa biznikida turishdan or qilarmish, qizining tizza bo'yi yog'liqqina oshidan ulining shildir sho'rvasi afzal emish. Tavba, go'rga kiray deb turgan odamning noz qilishiga balo bormi!» Yomonqul ayolining shang'illashidan uyg'onib ketgan bo'ladi. Anqovsiraydi va ko'zlarini pirpiratib, sekingina yana olovga kerosin sepadi: «Ha-a, mehribonlikda senga teng keladigani yo'q, topganingni otangni og'ziga tutasan.» Ayol jigarlaridan yegan katta-kichik alamlarini esga olib, battar sannashda davom etadi. Yomonqul yo'liga uni insofqa chaqirgan bo'ladi. Ammo ayoli endi osonlikcha tinchimaydi – o'zi yonib, o'zi o'chmaguncha hovuridan tushmaydi.

Bu xil holat ko'proq qishloqqa Sodiq pochtagi oralagan kuni ro'y beradi. U tarqatgan nafaqa puli Yomonqulga negadir ko'p ko'rinadi. Ayniqsa, bu pulni qaynog'asi Bozorning qo'lida ko'rsa, ichi o'z-o'zidan yonib ketaveradi.

Chol esa bu kabi ahmoqona g'idi-bidilarga hamisha beparvo, nimtabassum-la qotgan nonini shimib o'tiraveradi.

Bola do'ngda cholni kutib zerikdi.

Bir o'yi, nima gapligini bilish uchun tog'asining uyiga bormoqni xayol qildi. Biroq enasi bilan urishig'li yangasining sovuq qarashlarini ko'z oldiga keltirib, bu niyatidan qaytdi. Kerishganicha qishloqqa ilhaq tikildi. Bozor tog'asining hovlisi quyuc daraxtzor ortida, do'ngdan ko'zga tashlanmaydi. Xuddi shu payt daraxtzorga tutash ko'chada tog'asining mahmadona qizlaridan biri paydo bo'ldi. U it quvlagandek yugurib kelardi. U ko'cha yuzidagi tovuqlarni hurkitib, «Qo'ng'iroqcha» laqabli ushoq, oppoq kuchukchani akillatganicha, besh uy beridagi katta-kon yashil darvozaga etadi. Uni kuch bilan taqillatadi. Hamisha qiyin ochiladigan darvoza nolakor g'iyqillab avval qiya, so'ng kengroq ochilib, uning qarshisida ammasining tajangtob qiyofasi namoyon bo'ladi. Amma uydagilari ta'siri tufayli keyingi vaqtda salominiyam yig'ishtirib qo'ygan jyaniga hayron tikilarkan, lahzaning yuzdan bir ulishida xayolidan o'tgani shu bo'ladi. Shu qiz tug'ilganida amma sifatida qanchalik quvonmagandi u. Tuyg'ulari marvarid yanglig' go'zal va serjilo edi. Ajab, bu tuyg'ular ustiga qachon gard o'tira qoldi ekan? Gohida u o'sha yoqimsiz gardni yengil bir himo bilan sidirib tashlab, qalbining qay bir burchiga yashiringan serjilo tuyg'ular yog'dusidan bahra olgisi keladi. Biroq yuragiga qo'rg'oshinday quyilgan adovat bunga monelik qiladi. Hozir ham u adovatni o'ziga esh va qadrdon bilib, jyaniga o'qrayib qaraydi. Darvozani ilkis qoqib, cho'chitib yuborgani uchun nordon so'zlar bilan siylamoqni o'ylaydi. Biroq halizamon uylarida yuz berishi ehtimoli bo'lgan musibatdan gangib qolgan qiz uning qovoq-tumshug'iga qarab o'tiradigan ahvolda emasdi. Ammasini ko'rishi bilan mijjalariga qalqigan ko'z yoshlarini tiyib-tiyamay, bobom... tezroq yuring, deganicha iziga buriladi. Qizning yanoqlariga dumalagan ko'z yoshlari ayolning yuragidagi adovatni yuvib, qisqa muddatga bo'lsa-da, qon-qarindoshlik tuyg'usini qayta uyg'otadi. U oxir-oqibati yo'qlik ermish bu bevafo dunyoda jigarlari bilan nimani talashib-tortishganini eslayolmayotganday, eslagan taqdirdayam maqsad va mohiyatini to'la anglashga qurbi yetmayotganday bir muddat serrayib turarkan, agar narida tovuqlarni hurkitib, kuchukchani akillatib chopqilab ketayotgan jyaniga yetishmasa, g'amdan adoyi-tamom bo'ladigandek, uning ortidan yugura ketadi.

Do'ngda o'tirgan bolaga enasining avval yo'rg'alab, so'ng lo'killab chopishi qiziq tuyuladi. Uning bu qadar hovliqishidan yuragi nimadir sezganday bo'ladi. Va beixtiyor bobosining kechagi gaplarini eslaydi.

– Momong chaqirib qo'yamaypti, ulim, – degandi chol. – Musodan esa darak yo'q.

– Yaqinda kep ketdi-ku, bovojon.

– Musoga tez xabar beringlar. – Chol yo'lga mahzun tikiladi. – Otangni safari qaribdi denglar.

Chol yo'ldan ko'z uzmagan ko'yi, qo'lidagi non bo'lagini og'ziga olib boradi. Tamshanib, shima boshlaydi. Ivigan non ushoqlari soqoliga ilashadi, yerga sochiladi. Uni zimdan kuzatib o'tirgan bolaning esa yig'lagisi keladi. Men hech qachon bova bo'lmayman, bova bo'lish juda yomon ekan, deb o'ylaydi.

Xayolini cholning jonsarak ovozi bo'ladi.

– Anovu kelayotgan Muso tog'ang emasmi?

– Yo'q, Qalandar amaki, – deydi bola va har doimgidek izoh beradi. – Muso tog'am piyoda emas, moshinada keladi. O'zining moshinasi bor-ku.

– E-e, Qo'zivoyning ulimi? – Chol har galgidek mashina haqidagi gapga e'tibor bermaydi. – Uning bizga uzoq qarindoshligi bor. Ko'rishganingda salomingni ayama. Bular o'zi urug'i bilan durust odamlar. Otangga o'xshab pismiq emas.

Bu gapdan bolaning qovog'i osiladi. Lekin indamaydi.

Kechayam u, odatdagidek, cholni tog'asining darvozasigacha kuzatib borgan. Ichkariga kirishga yangasidan hayiqqan. O'zi cho'chiydigan xonadonda bobosini yolg'iz qoldirib kelganidan ichi achib, enasiga yalingan.

– Ena, bobomni uyga opkelaylik.

– Yo'q, bizning uydan ilon chiqqan, chayon chiqqan, kelmaydi bobong, – degan enasi bobillab.

Otasiga aytishdan foyda yo'q. Bu to'g'rida gap ochilishi bilan negadir u hali bog'dan, hali tog'dan kela boshlaydi va juda bo'lmasa, bolani biror yumushga buyuradi.

– Ko'p bidillamay, bor, mollarga qara!

Bu safar bola hech narsani o'ylab o'tirmadi. Enasi gavdasiga mos bo'lmagan lo'killashda daraxtlar ortida ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan oyog'ini qo'lga oldi. Qoqilib-suqilib chopdi. Bovom o'lib qolgan bo'lsa-ya, degan hadikda yig'lamsirab chopdi.

Lang ochiq darvozadan uchib kirdi.

Hovli suv quygandek jimjit edi.

U hovli etagidagi hujra tomon oshiqdi. Ostonaga qoqilib, munkib ketarkan, to'rda cho'zilib yotgan cholga-yu, uni tevaraklab o'tirgan xeshlariga ko'zi tushib, baqirib yubordi.

– Bovojon!

– Muso! – Chol shovqinni eshitib ingradi. – Keldingmi, bolam!?

– Xabar berdik, hademay yetib keladi, – dedi Bozor tog'asi g'o'ldirab.

– Muso! – Cholning ovozi bu gal juda zaif chiqdi. – Mu-so-o!

Cholning boshiga borishga bolani qo'ymadilar. Qo'rqasan, mumkin emas, deb haydab soldilar.

Ertasi tong-azonda qishloq sukunatini yig'i ovozi buzdi.

Bola yuzini chala-chulpa yuva solib, tog'asinikiga oshiqdi.

U gangib, supada to'p bo'lib yig'layotgan xeshlari safiga borib qo'shilganini sezmay qoldi. Kimdir qo'lga tayoq tutqazdi. Kimdir sekin shirshidi.

– Izillab yig'la! Ovozning boricha baqirib yig'la!

– Emasam, odamlar uyat qiladi, – dedi boshqa biri. – Axir bovongni yaxshi ko'rarding-ku. Qani, bir bovomla-chi!

Cholning xesh-aqrobalari-yu nevaralari juda ko'pligi o'sha kuni bilindi. Tayoq tutganlar serobligidan supada joy yetishmadi. Qisqasi, keng hovlining deyarli



---

chorak qismini tayoq tutganlar egalladi. Biroq ular orasida faqat ikki kishigina chinakkamiga ko'z yoshi to'kardi. Biri – Muso, ikkinchisi esa, bola. Ammo u Muso tog'asi kabi ayriliqdan emas, quvonchdan yig'lardi. Mana endi bovosini hech kim jerkimaydi, siltalamaydi, uyatga qoldiryapsiz, deb qo'lidagi burda nonini tortib olishmaydi.

Bola ezilib-ezilib, quvonib-quvonib yig'lardi. Aytib-aytib, ichida esa kimlar-nidir yanib-yanib yig'lardi.

Deraza raxida esa kecha cholning qo'lidan tortib olingan non bo'lagi yotardi. Allaqachon unga ega chiqqan chumolilar bandalarning bu yolg'on uvvoslari bilan ishlari yo'q, non umoqlarini bir jonu bir tan holda, imi-jimida o'z inlariga tashirdi, tashmalardi.

# *Bahodir Murod Ali*

(1954–2016)



**Bahodir Murod Ali (Murodaliyev) 1954-yil 17-noyabrda Andijon viloyatining Paxtabod tumaniga qarashli Eskiqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1980). Ijodi 70-yillarda boshlangan. Ilk kitobi – «Oqto'sh» (1989). «Ko'kto'nliklar» (1990) nomli kitobi ham nashr etilgan.**

**2016-yil Toshkent shahrida vafot etgan.**

## OQTO'SH

Bostirma ostida katta, qora it oldingi oyog'iga jag'ini qo'yganча yotibdi. Uning dumi va quloqlari kesik. Tumshug'ining uchi tovuqlar titaverib mayinlashib ketgan tuproqqa botgan. Ko'zlari yarim yumiq, go'yo kattaroq ochishga majoli yo'q.

It ko'rinishdan horg'in, beparvo bo'lsa-da, tiyrak qaraydi. Uning butun diqqati hasharchilarning ayvondagi poyabzallarida. Poyabzallar bor-yo'g'i to'rtta: poylari doim og'ib turadigan qo'nji kalta etik, bog'ichsiz ikki juft tufli va chelak yonidagi keda. Bular itga begona. Unga qarashlilari uch juft kalish. Kalishlar hozir ayvonda yo'q. Tong sahar tarqalishadi. Birinchi bo'lib Beka kigizdan patak solinganini sigir tomonga sudraydi. Qiz yangi kalishni oyog'iga ilib, paxtazorga jo'naydi. Uchi salgina yirtilib, qizg'ish lattasi chiqib qolgan kalishni esa Xo'jayin xirmonga kiyib ketadi.

Xo'jayin avval dalaga etik kiyardi. Oyog'i shishib ketib kalish kiyadigan bo'ldi. Etigi ulkan edi, qo'njlari uzun, keng edi. It kuchukligida bolalardan qochib, ana shu etik ichida necha martalab jon saqlagan. U paytlarda itning ko'ksidagi oqi bilinmasdi. Yunqlari hozirgidek timqora emas, qizg'ish, mushuknikidek mayin edi. Bolalar tortqilashganida yulimib ham ketardi. Dumi bilan quloqlari bus-butun edi.

Keyinchalik qirqishib... o'ziga yegizishgan.

Xo'jayin kalish kiyadigan bo'lgach, etikka birov qaramadi. Ancha mahal chang bosib yotdi, so'ngra qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Bu kutilmaganda yuz berdi. It ayvonga chiqqanida, etikning turaverib iz bo'lib qolgan o'rniga ko'zi tushdi. Shundagina etikning yo'qolganini sezdi. Iskadi, ammo qayerga olib ketilganini bilmadi. Narsa yerdan ko'tarildimi, qayta yerga tushmasa, tamom, hidini topish qiyin.

Shu-shu ayvonda uch juft kalish qoldi. Hasharchilarning poyafzallari bular safiga yaqinda qo'shilgan. O'sha kuni it qo'nimini yo'qotdi. Qancha oyoq-kiyim ko'paysa itga shuncha yaxshi. Axir, uyga kirib ketganlardan qoladigan birdan-bir nishona shular. Shular yolg'izlikni bilintirmaydi. Biroq hasharchilarning poyabzallari dastlabki kunlardan oq pala-partish yechiladigan, hatto ichkariga kirib ketadigan bo'ldi. Gohida qo'nji kalta etik bilan keda kalishlar ustiga chiqib qoladi. Bu – itni g'ashiga tegadi.

Oqto'sh, Oqto'sh bo'lgandan beri ularnikiga ne-ne poyabzallar kelib ketmadi. Lekin hech qaysisi bularchalik ko'p turishmagan, betartib bo'lmagan. Bunday mehmonlarning ularnikiga birinchi bor qo'nishi...

– Oqto'sh!

It Bekaning ovozini eshitib, sapchib o'rnidan turdi. Butun gavdasi bilan silkinib, yungiga yopishgan tuproq quyqalarini tushirdi-da, echkinikidek bo'lib qolgan dumini likillatib yugurdi.

Beka tandirdan uzib tashlagan kuyik non issiq edi. Oqto'sh birdaniga og'ziga ololmay norozi vingilladi. Non hidi ishtahani qo'zg'ab shoshirdi. U og'zi kuyiganiga ham ko'nikdi. Bir-ikki yerga tushirib bo'lsa-da, bostirma ostiga olib keldi. Ostiga yarimta g'isht qo'yilgan ustun yoniga tashlab, kursillatib yeya boshladi.

It och edi. Tongda qizni paxtazorga kuzatib kelgandan keyin ham tuz totmangandi. Odatda yo'ldan nimadir topilardi. Ayniqsa, hasharchilar kelgandan buyon go'sht, suyaklar, chala yeyilgan non burdalari uchrab turardi. Bu gal hech narsa yo'liqmadi.

Oqto'sh nonni yeb bitirgach, yalandi, u yoq-bu yoqqa yana umidvor qaradi. Ko'zga ilinadigan biror narsa yo'q. Noiloj turdi, oldingi oyoqlariga tiranib uzun kerishdi. Ustiga shifer yopilgan uyhasi oldidagi yalog'iga qaradi. Qup-quruq. Yana yalandi va chanqog'ini bostirish uchun to'nkadan yasalgan tovuqlar suvdoni tomon lo'killab ketdi.

It idishdan bosh ko'tarayotganda makkajo'xorisi yig'ib olingan tomorqada nimadir yaraqladi. It zudlik bilan u yerda hozir bo'ldi. Bo'sh shishani ko'rib, bo'shshadi. Lekin bari bir hidladi. Badbo'y hiddan ko'ngli ag'darilib, bostirmaga qaytdi.

It nima yaltirab ko'rinisa, albatta, o'sha yerga boradi. U qachonlardir chala eyilgan konserva topib olgan. O'sha-o'sha yaltiroq narsalarni konserva faraz qiladi. Tomatli baliqlarning mazasini tuyib boraveradi, hidlayveradi.

Oqto'sh oldin bunday narsalarning hidini ham bilmasdi. Xonadonning biso-tini tinchgina qo'riqlab yurardi. Ovqatni egalarining qo'lidan yerdi. O'zga qo'lga qaragulik qilmagan. Hammasi hasharchilar kelgandan keyin boshlandi. Bular kel-di-yu, Xo'jayin ham, xo'jalikning tutumi ham o'zgardi. Toza turadigan hovlida sigaret qoldiqlari, bo'shagan shishalar, konserva qutilari paydo bo'la boshladi. Chiroqlar kech o'chadigan bo'ldi. Kirdi-chiqdining me'yori bo'lmay, xonadon oyoq ostida qoldi. Oldiniga it bu yangi muhitga ko'nikolmadi. Hasharchilarning uy-anjomlaridan bemalol foydalanishlari, turfa xil odamlarning vaqt-bemahal ki-rib kelaverishlari itga alam qilardi. Go'yo o'ziniki bilan begonaning farqi qolma-yotgandek edi. Kim bo'lsa chaqirmay-netmay bostirib kirib kelaversa, ularni kirit-maslikning iloji bo'lmasa, biror narsani qo'riqlamasa itligi qayerga bordi buning?! Unga ham qiyin edi...

Kun ilib, Oqto'shni pashshalar talay boshladi. Mudradi deguncha; ko'zining jiyaklariga, burnining teshiklariga qo'nadi. Hol-joniga qo'ymaydi. Toqati toq bo'lgan it katta ko'kish pashshani poylaydi. Ro'parasiga kelganidanoq, panjasi bi-lan urdi. Mo'ljal xato ketib, chang ko'tarildi. It alamidan boshini ikkinchi qo'lga olib, ko'zini yumdi.

Chang bosilgach, qayergadir g'oyib bo'lgan ko'kish pashshsha yana vizillab qoldi. Oqto'sh ko'zini salgina ochib, pashshani kirriklari orasidan kuzatdi, tumshug'iga qo'nishini kutdi.

Pashsha itning tumshug'iga endi qo'nmoqchi edi, ulgurmadi. Oqto'sh og'zi-ni ochgan ko'yi unga tashlandi. Pashsha bu gal ham chap berdi. Itning og'ziga boshqa bir chirkov kirib ketdi. U chirkovdan qutulish uchun yutindi. Chirkov esa ichkariga o'tmay tanglayiga yopishib qoldi. Oqto'shning tanglayi qichimsirab, yo'taldi, ammo og'zidan chirkovni chiqarolmadi. Tili tanglayiga yetmadi. Boshini sarak-sarak qilib vingshidi, qisqa-qisqa pishqirdi, bo'lmadi. O'rnidan turib g'o'zapoya g'arami tomon chopib ketdi.

G'o'zapoya ayvon yonidagi yalanglikka bosilgan. It pashshalardan bezor bo'lganidan hamisha shu yerga keladi. Ayniqsa, g'aramning mollar qashlanaverib yoydek o'rlatib yuborgan tomonida umuman pashsha bo'lmaydi.

Oqto'sh shu yerga kelib yotdi. U hamon boshini silkitar, o'qchir, oldingi oyoqlari bilan tumshug'ini silab, nochor vingshirdi.

It chirkovdan qutulganida, Beka tandirdan ikkinchi marta non uzdi. U savat-dagi nonni uyga tashlab chiqqach, hasharchilar yotgan pardasiz xonani taqillatdi. Ichkaridan ovoz bo'lmadi. Mushti bilan urdi. Eshik ochilib, ostonada yelkasiga qora to'n tashlagan yo'g'on kishi ko'rindi. Bu qo'nji kalta etikning egasi edi. Beka unga quyoshni ko'rsatib nimalardir dedi. Hasharchi bosh silkidi va oyog'iga eti-gini ilib, sahn chetidagi gaz baloniga borib o'tirdi. Og'zini katta ochib esnadi va Oqto'shga ko'zi tushib, «Hu-u-ut» degancha po'pisa qildi. It uning dag'dag'asi-dan norozi to'lg'andi. Osilib tushgan ustki lablari pir-pir uchdi. Ammo o'rnidan turmadi.

Oqto'shning qimir etmaganidan darg'azab bo'lgan «barzangi» tosh qidirdi. Buni payqagan it zirillagancha g'aramning yon tomoniga o'tdi hamda g'o'zapoya cho'plari orasidan uni kuzatdi.

It yurak oldirib qo'ygandi. Uning avjini Xo'jayin qirqqan. Hasharchilarga hurdi deguncha, haydab soladi. Hatto bir gal mo'ylovli yigitni katak tomonga o'tkazmaganiga uchi singan o'roq bilan urgan ham...

Pardasiz xonadan boshqa hasharchilar ham birin-ketin chiqib kelishdi. Oldinda ikkala ko'zoynakli, ortidan mo'ylovli yosh yigit. Ko'zoynaklilar qora tuffilarning egalari. Ular beozor. Bo'sh bo'ldi deguncha, taxtachadagi donachalarga termilishgani termilishgan. Kedaning egasi mo'ylovli yigit esa sho'x. U ham qo'njisi kalta etikning egasi singari tunlari uyda bo'lmaydi. Undan hamisha badbo'y hid anqiydi.

Oldinda Oqto'sh, orqada yelkalariga etaklarini tashlagan to'rt hasharchi uzunqisqa bo'lib yo'nalganlarida anhor yoqasidagi yo'l huvillab qolgandi. Yo'lda faqat terimchilarning hamda tongda o'tib ketgan qishloq podasining izlari. Paxtazorda esa xirmondagi arava va qaqqayib turgan hasharchilar. Qishloqliklar bosh ko'tarmay terishayotgani uchun ko'zga tashlanavermaydi. Ularning bor-yo'qligi ham bilinmaydi.

Ular odatdagidek, Uchtepa etagidagi chimzorga borishdi. Chimzor pastqamroqda, ko'tarma qilib qurilgan yo'l, qishloq tomonni to'sib turadi. Hasharchilar kelasolib o'tirishni boshlab yuborishdi.

Oqto'sh anhordan chiqarilgan loyqa uyumi ustida cho'nqayib o'tiribdi. Ko'zlari dasturxonda, nimadir tashlanishidan umidvor. U kolbasa bo'linayotganda tinchini yo'qotdi. Bir-ikki tamshandi, chapillab yalandi. Yana tilini osiltirgan ko'yi bir tekis nafas ola boshladi.

Oqto'sh intilganicha bor edi. U kolbasaning ta'mini bilardi. Yumaloqlab tayyorlangan xushta'm go'shtni it xuddi shu yerda totigan... Dastlabki tashlangan kolbasa yog'liroq edi. It irganibroq yaladi. Mazasini totib ko'rgach, yana kutdi, lekin ular boshqa berishmadi. Ziyofat oxirida esa yog'lisini ham, yog'sizini ham Oqto'shga irg'itishdi. Biroq endi qorong'i edi. Ko'pi isrof bo'ldi. Oqto'sh hidlab topganlarinigina edi. Nechtasi anhorga tushdi, nechtasini topib bo'lmadi. Aslida hasharchilar bilan brigadir bu yerga tushdan keyinoq yig'ilishgandi. Podaqaytar mahalda turishmoqchi edi, bir-birini tortishib o'tirib qolishdi. Bu orada mo'ylovli yigit qishloqqa bir tushib chiqdi. Narsalarga ko'z o'tmay qolganda, o'rinlaridan turishdi. Shu-shu bular paxta terishmaydi. Kunni chimzorda kech qilishadi...

Oqto'sh ham ular bilan birga. Ba'zida ular nishxo'rdlardan tashqari katta-katta kolbasa bo'laklarini in'om qilib turishadi. Bugun negadir e'tibor berishmayapti. Qo'njisi kalta etikning egasi boshiga to'nini qo'yib uxlayapti. Ko'zoynaklilar shaxmat o'ynayapti. Mo'ylovli yigit tomosha qilyapti.

Oqto'sh ularni kuzatishdan, kutishdan zerikdi. Orqa oyog'i bilan kalta qulog'ini qashidi-da, Uchtepa ortidagi paxtazorga qarab ketdi.

Terimchilar yaqinda bu kartadan chiqishgani uchun atrof kimsasiz yastanib yotardi. Egatlarga terim mashinalarining izlari muhrlangan. Shoxalari sinib yonlariga osilib qolgan g'o'za tuplari be barg, befayz. Bu majruh qora cho'plarning bir paytlar gurkirab o'sganiga ham, barg yozib gul tukkaniga ham ishonging kelmaydi.

It ana shu qora cho'plar orasidan quruq barglarni qisirlatgancha bosib borardi. U maydonni qoq ikkiga bo'lgan ariqchadan o'tib, g'o'zasi ola ekilgan joyda to'xtadi. Qisqa-qisqa iskadi, pishqirdi. Turgan joyida aylanib qoldi. U bezovta edi.

Oqto'sh bu yerga kelganida tinchini yo'qotar, ba'zida uzun-uzun uvlab ham olardi. It bu yerga hayotidagi unutilmas xotirotni tuygani kelardi. U o'z xotirotni tiklayotganida ko'z o'ngida oqish pag'a rang paydo bo'lar, bu rang bora-bora itga aylanardi. Oq itga... Sekin asta o'sha Oq itning och jigarrang tumshug'i, tiyrak ko'zlari, bo'ynidagi titilib ketgan chilviri, ixchamgina jussasi gavdalanardi. Keyinchalik o'sha Oq it ortiga qayrilib, Oqto'shning qo'loqlarini pushti tillari bilan yalayotgandek, erkalani bo'yniga bo'ynini suykayotgandek, yuzlariga iliq, yoqimli nafasi urilayotgandik bo'lardi. Hamda birdaniga gurillagan ovoz, dimog'ni yorgudek badbo'y hid yopirilib kelardi. Itni ko'zi tinib boshi aylanardi; ko'ngli ag'darilardi. Oqto'sh shunda bu shirin va achchiq xotirotni iskanjasidan qutilish uchun ortiga qaytardi.

Oqto'shga xotirotni bo'lgan voqea tundan boshlandi. Ular ko'p yo'l bosishdi. Charchoq nimaligini bilishmadi. Hamon yugurishardi. Oldinda bo'yniga chilvir bog'langan Oq it. Ortida gala, gala. Gala tobora ko'payib borardi. Oq itning hidini bilganlar kelib qo'shilishaverdi, qo'shilishaverdi.

Gala suvni kechib o'tmay, kanal yoqasidan yo'l soldi. Shunda Oqto'sh paytdan foydalanib gala boshiga shudgor orqali kesib chiqdi. U halitdan buyon chilvirli itga hech qaysi itni yo'latmayotgan Olaparga yetib bordi. Uni ko'kragi bilan surib, o'rniga o'zi o'tdi. Olapar irilladi, ammo hujum qila olmadi. Oqto'shning yo'g'on gavdasidan, o't chaqna b turgan ko'zlaridan hayiqdi.

Endi Oqto'sh Oq it bilan yonma-yon borardi. U Oq itga yanada yaqinlasharkan, uning quloqlarini beozor tishladi. Tumshug'i bilan tumshug'iga, bo'yniga turtkiladi, iskalandi. Quloqlarining ostini yalay boshladi, yalay boshladi. Shunday yaladiki, uning muloyim mayin yungidan huzurlanib ketdi. Oqto'shning issiq nafasiga, gurkirab urayotgan balog'at hidiga chilvirli it bardosh bera olmadi. Oqto'shga yon berdi va uni boshqalardan ajratib ergashtira boshladi.

Shunda galada besaranjomlik paydo bo'ldi. Itlar to'xtovsiz hurib, Oqto'shga hujum qildilar. Ular Oq itni qizg'anishmoqda edi. Hujumni Olapar boshladi. U vovillaganicha Oqto'shning orqa soniga tashlandi. Biroq tishlashga ulgurolmadi. Uning nojo'ya harakatini payqagan Oqto'sh unga bostirib bordi. Olapar o'zini o'nglaguncha, Oqto'sh uning qulog'i aralash bo'ynidan tishlashga ulgurdi hamda uch-to'rt siltab yoniga otdi. Olapar gandraklab turib qoldi va akillab orqaga tisarildi. Bu bilan Oqto'shga tashlanish taraddudida bo'lgan boshqa iliqqan itlarning ham avji qirqildi.

Oqto'sh yer titib irillar, birona itni chilvirli Oq it tomonga o'tkazmasdi. O'zi esa tislana-tislana unga yaqinlashib borardi.

Ularni bir necha itlar ta'qib qilib keldi. Keyin siyraklashaverdi, siyraklashaverdi. Bitta-bitta ortda qolaverdi.

Oqto'sh chilvirli Oq it bilan mana shu g'o'zasi ola ekilgan maydonga tong otmay yetib kelishdi. Durkun g'o'zalarning barglari ho'l, havo salqin, muzdek suvni simirgandek badan-badaningni yayratardi. Atrof tinch, yurakni hapriqtirib yuboradigan darajada osuda. Hech narsa halaqit bermasdi...

Quyosh Uchtepadan mo'ralaganida ularning tinchi buzildi. Qovoqaridek g'o'ng'illagan ovoz keldi. Birdaniga ovoz tobora yaqinlashib kuchayib bordi. Ular talvasaga tushib qolishdi. Qochishga ulgurishmadi. Osmondan ular tomonga qanotlarini kerib bir narsa bostirib kelardi. Bu narsa juda bahaybat va qo'rqinchli edi. U yeru ko'kni larzaga solib, borliqni kar qilgudek o'kirib kelardi. Oqto'sh har xil ovozlarga o'rgangan, lekin bunday ovozga ilk bor duch kelishi edi. Osmondagi maxluq bir zumda bular tomonga sho'ng'idi. Kelayotgan bu fojidan hamma narsa titradi. Oq it dag'-dag' qaltirardi. Qaltiroq Oqto'shga ham o'tdi. Ular qo'rquvdan ovoz chiqarisholmasdi. Shu lahzada maxluq ularni bosib ketadigan darajada pastlab, hayqirganicha o'tib ketdi. Bu juda tez ro'y berdi. Itlar uni tuzukroq ko'rishga olmadi ham.

G'o'zalar bosh tebratib shovullab yuborishgandagina, ularning garangsigani tarqadi. Vangillashib qochib qolishdi. Ular qayoqqa ketishayotganini bilishmas, faqat yugurishar, tinmay yugurishar, mana shu vahima quchog'idan qutulishsa bas edi. O'ta nordon, badbo'y hiddan Oqto'shning boshi aylanib ko'zi tinaverdi, oyoqlari chalkashdi, jufti ham shunday bo'lmoqda edi. Ular butunlay bo'shshib, badanlari o'zlariga bo'ysunmay pir-pir uchardi, yugurayotgan bo'lishardi-yu, badbo'y ajal muhitning cheti ko'rinmasdi, ularni ta'qib etayotgandek edi. U sar-siz-sarhadsiz edi. Havoga tarqagan hid nafas olishgan sayin burunlarini kuydirar, tomoqlarini shilib yuborgudek achitib, azob berardi. Kun issiq, g'o'zalarning barglari qalin, dim, g'ir yetgan shabboda yo'q, havo og'ir. Nafas olish borgan sari qiyinlashardi. Ularning madorlari qurib, holdan toyishdi. Ajralisholmadi ham. Serbarg g'o'zalarga suyanib, yotib qolishdi.

Oqto'sh badanlariga botayotgan g'o'za novdalarini va o'zining hayot ekanini sezdi. So'ngra qayerdandir g'o'ng'illagan ovoz eshitildi. Bu ovoz hali ham ikki-uch marta qulog'iga elas-elas chalinganini tuydi. Lekin bunisi ancha uzoqdan edi.

Atrofdagi qurt-qumursqalar harakatini to'xtatib qotib qolishgan, pashsha, chivinlar shalpaygan barglarga osmondan yog'ilgandek yopishgan. Jufti – Oq it esa qayergadir g'oyib bo'lgandi.

Oqto'sh badbo'y hidni sezmayotganiga ajablandi. Tez-tez hidlab ko'rdi. Bil-madi. Ammo o'zining nihoyatda vazminlashib qolganini, boshini ko'tarishga qurbi yetmayotganini sezdi...

Oqto'sh o'sha-o'sha bo'yniga chilvir bog'langan Oq itni boshqa uchratolmadi. Unga o'sha kunda tez-tez bo'lib turadigan bosh og'rig'i va ana shu unutilmas

voqea xotiroti bo'lib qoldi. Uning g' o' zasi ola ekilgan maydonda har gal tuyadigan xotiroti ham ana shular edi.

Ayvondagi keda har kungidan oldinroq g' oyib bo'ldi. Endi faqat qo' nji kalta etik qoldi. Bu ham musiqa tinmasdan qayergadir gumdon bo' ladi. Itga hamroh bo' lib qoladigan poyabzallar odatdagidek ikki juft qora tuflı, o' zıga qarashlı kallıshlar.

Uylardagi chiroqlar siyraklashdı. Dastlab Xo' jayın bilan Bekaning xonasıdagı, keyın qız yotadıgan xonaning chirog' i o' chdı. Atrof qorong' ilashdı. Ayvondagı chiroq nursız. Musıqa hamon avjıda. Chıgırtkaların chırqıllashı tınmagan.

Oqto' sh g' o' zapoya g' arami yonıda betob yotıbdı. Uning bosh og' rıg' i xurujıldı. Eski dardı qo' zg' ab qoldı. Oldın oyoqları uvıshdı, yelkalarıga, bo' ynıga o' tdı. Bo' g' inları qaqqshadı. Sekın-asta boshıga og' rıq kırdı. Bır lahza borlıq qorong' ilashdı, hech narsanı ilg' amadı. G' aram yonıga amallab yetıb oldı. Keyın nıma bo' lganını, qancha mahal yotganını bılmaydı. Mana endı, og' rıq yengıllashıb ko' zi ochildı.

Qız yotgan xona tomondan nimadı qısırıldı-yu, it og' rıqını unutdı. O' rıdan turıb o' sha tomonga yurıb ketdı. Muyulıshga yetmasıdan deraza ochildı, ıchkarıdan qız osılıb tushdı. Oqto' sh unı qarshılab ıskalandı, erkalandı. U itga parvo qılmadı. Derazanı sassızgına yopdı-da, qo' lıdagı kalıshını kıyıb, oyoq uchıda uynıng ortıga o' tdı.

Xojanıng kıyımları bugun boshqacha edı. Yurganıda shıtırlardı, yoqımlı bır hıd taratardı. U avvalları tunda tashqarıga chıqmasdı. Chıqqanıda ham uzoq turmasdı. Musıqa eshtılayotgan tomonga qarab qolardı; ko' proq turgandı bo' lsa, onasınıng ovozi eshtılardı-yu, chuqur xo' rsınıb, noıloj xonasıga kırıb ketardı.

Qız o' yın maydonıdagılardı tandır yonıdagı tuynukdan, Oqto' sh esa makkapoya g' arami yonıdan kuzatdı. O' yınchılar orasıdan bırıncı bo' lib kedanıng egası ko' zgı tashlandı. Uning uzun bo' yi va qora mo' ylovi boshqalardan keskın ajralıb turardı. Xoja har damgıdek unga berılıb qarab qoldı.

Qız hasharchılar kelgan kundanoq shunaqa edı. Unı tınımsız kuzatardı. Ba' zan Oqto' shga tınchlık bermasdı. Unı loyqa uyumıdan quvıb, o' nıga o' zi chıqardı. Chımzorga tıkilardı. Hatto unıng dordagı yuvılın ko' ylagı ostıdan o' tayotganıda ham to' xtar, yuzlarını ko' ylakka bır zum tegızıb, suykalıb o' tib ketardı. Atrofdı hech kım bo' lmasa, ayvondagı kedasını kıyıb ko' rardı, bır ikkı qadam bosardı ham.

Mana bugun tergan hamma paxtasını chımzorga eltıb, shu mo' ylovlı hasharchınıng etagıga ag' darıb berdı. Endı tuynukdan kuzatyaptı. Ammo mo' ylovlı yıgıt Xojanıng ungaıntıqlıgıdan bexabar, u sochi qırqılın qızını bag' rıga sıngdırıb yuborgudek quchoqlab, kuy ohangıga mos tebranadı...

Oyoq sharpası Oqto' shnıngdıqqatını o' zıga tortdı. Darhol tandır tomonga qaradı. Xoja tuynukdan uzoqlashıb, uy tomonga ketayotgandı. It unıng ortıdan yurdı. Xojanıng boshı egık, yelkaları tıtrardı. Uning boyagı shashtı, yurıshlarıdagı chaqqonlıgı yo' q edı.



Ular yana uylarning orqalaridan yurishdi. Oqto'sh traktorchi qo'shning uyi ortidan o'tayotganida to'xtab qoldi. Uning dimog'iga tanish poyabzal hidi urilgandi. Lekin qaysi poyabzal hidi ekanligini it bilmadi. Oldinga yurdi, ortga qaytdi. It iskab borarkan, Xojasi o'z xonasiga kirib ketganini payqamadi. Hid qadam-baqadam yangilanib borardi. Qadamlar katta, masofalar tez bosib o'tilgandi. It izning hididan adashmadi. Hid uni ayvonga, poyabzallar turadigan joyga boshlab keldi. Poyabzallar orasida qo'njisi kalta etik yo'q edi. Oqto'sh ortiga qaytdi. Hid traktorchi qo'shning uyi orqasiga kelganda birdaniga izziz yo'qoldi. Atrofda dov-daraxt yo'q. U tumshug'ini shabboda esayotgan tomonga tutdi. Hidni tutolmadi. Alangladi va devorning yuqorirog'idagi derazaga ko'zi tushdi hamda oldingi oyog'i bilan deraza raxiga tirmashdi-da, iskadi. Tanish hid. Raxda qo'nji kalta etikning izi bor edi. Ichkariga barzangi hasharchining kirgani shubhasiz. Biroq derazaga oppoq parda tortilgan. Ichkari esa timqorong'i, hech narsa ko'rinmaydi.

Oqto'sh tokchaga chiqmoqchi bo'ldi. Lekin chiqishga qurbi yetmadi. Tokchani faqat qitirlatdi, xolos. Uning tirnoqlari beton tokchaga o'tmay zirqirab og'ridi. It norozi g'ing'illadi. Shunda ichkaridan qararoq soyaga o'xshash narsa ko'zga ilindi. U g'ing'illashini bas qilib, soyaga tikildi. So'ngra yana tataladi, intildi. Soyalar quyuqlashib, aniq bir juft soyaga aylandi va deraza oynasiga yaqinlashdi. Oppoq parda yengil tebrandi. It qattiqroq tatalab, irilladi. Soyalar bunga bardosh berisholmadi, sekin uzoqlashib qorong'ilikka singib ketdi.

Oqto'sh noiloj pastga tushdi. Tez-tez boyagi izlarni iskadi, deraza tomonga qarab vingshidi, vingshidi, lekin vingshishdan o'zi qoniqmadi. U parda ortida qandaydir yomon bir narsa bo'layotganini bildi. Yo'l tomonga cho'nqayib uliy boshladi.

It yo'lga qaragancha uvlayapti. Yo'lda marjondek yulduzlar tizmasi boryapti. (Ular aslida yulduzlar emas, zavodga paxta olib ketayotgan transportlarning chiroqlari). Yulduzlarning bir jufti uyning egasiniki. It shularni o'ziga chorlayapti. Qaniydi o'sha bir juft yulduz shu tomonga burilsa. Hov anavi daraxtning yoniga kelganidayoq qarshisiga yugurardi. Qo'shni yigitning kabinadan epcillik bilan tushishini kutardi. Oyog'i yerga tekkanidanoq etagiga yopishardi. Doimo moy hidi keladigan etagiga. Mahkam quchoqlab olardi, vingshirdi, vingshirdi. Uyiga tezroq kirishini, u yerda nojo'ya ish sodir bo'layotganini, barcha-barchasini bildirardi. Tezroq burilsa edi, o'sha bir juft yulduz. Odatdagidek tongga yaqin emas, hoziroq burilsa, g'ayrining derazadan oshib kirganini bilsa, burilsa, burilsa. Yo'q, burilmaydi, burilmaydi. Ular jimirlaydi, xolos, jimirlaydi. Yulduzlar faqat jimirlaydi, o'zlariga chorlaydi. Chorlaganingga kelmaydi, kelmaydi.

\* \* \*

Hasharchilar ketganiga ham mana ancha kun bo'ldi. Ular ketdi-yu, hamma-yoq huvillab qoldi. Yana xo'rozlarning qichqirishlari, tunlari itlarning hurishlari qishloqqa o'z hukmini o'tkaza boshladi. Hamma narsa oldingi holiga qaytganday bo'ldi-yu, Oqto'shning ahvoli o'zgardi. U qattiq og'ridi. Uch kundan buyon tuz

totgani yo'q. Yalog'idagi non to'g'ralgan sutga ham qaramadi. Ko'ngli hech narsa tusamadi.

Dard bu gal kutilmaganda boshlandi. Badani umuman uvishmadi. Birdaniga ko'zi tinib, oyoqlari o'ziga bo'ysunmay qo'ydi, yiqildi. Kechga yaqin xo'jayin to'shakka solib, uychasiga sudrab olib keldi. Shu yotgancha yotdi. Kecha kechqurun ketmoqchi edi, ketolmadi. Bu yerda qolib ham bo'lmas edi. U nimanidir yaqinlashib kelayotganini va shu nimadir uni olib ketishini tobora aniqroq bilardi.

Chiroqlarning o'chishini kutdi. Hammasi ko'ngildagidek bo'lgach, zo'rg'a o'rmidan turdi. O'rmidan turishga turdi-yu, ko'zi tinib chayqalib ketdi. Oyoqlar turish berdi. O'zini tutdi. Endi butun gavdasi qaltirardi. Ayniqsa, to'rt tomonga tiralib turgan oyoqlar shunday qattiq qaltirardiki, egilib, jussani yerga tushirib yuboradigandek edi.

It yurmoqqa hozirlandi. O'ng oyog'ini salgina yerdan uzgandi, muvozanati buzilib, og'a boshladi. U darhol oyog'ini joyiga qo'yib, muvozanatni saqlashga ulgurdi. It tikka qoldi. Ammo qaltiroq battar avj oldi. Darmonsizlikdan tumshug'ining uchini ter bosdi. Yeru ko'k chirpirak bo'la boshladi. Oqto'sh ko'zlarini chirt yumib, oyoqlariga tayandi. Bor umid oyoqlarida qoldi. Afsuski, vaqt o'tgan sayin oyoqlaridan ham mador ketib borardi. It uzoq tik turolmasligini bilsa-da, yotmadi. U ketishi kerak edi. Yana oldinga qarab intildi. Bu gal o'zini o'nglayolmadi. Gavdasi og'irlik qildi. Chap tomonga og'ib yiqildi va hushdan ketdi.

Tongga yaqin o'ziga keldi, tush ko'rdi. Tushiga Oq it kirdi. Oq it uni qayergadir ergashtirib ketardi. Oqto'sh Oq itning izlarini bosib borardi, izlar oldingi oyoqlarini orqa oyoqlar takrorlaydi. Ular tezroq yurishdi. Qadamlar hamon bir-birini takrorlaydi. Yana tezlashishdi, yugurishdi, chopishdi. Ular chopishgandagina oyoqlar bir-birini takrorlamay qo'ydi. To'rttala oyoq o'z holicha tusha boshladi. Ular uchib borishayotgandek chopishardi. Yunglari havoda silkinardi. Qadamlarining tovushi eshitilardi. «Dukur-dukur, dukur-dukur, dukur-dukur». Keyin birdaniga oyoq tovushlari juda ham ko'payib, tartibsiz va qattiqroq eshitildi. Shundoq qulog'ining ostida dukurladi. «Dukur-dukur, dukur-dukur». It uyg'ondi. Tovush o'ngida ham yerdan eshitilardi. Oqto'sh ko'zini ochdi. Katakdan chiqarilgan tovuqlar ekin maydoni bo'ylab yugurishardi. Oq xo'roz qanotlarini qoqib qichqirdi, tovuqlar, qanotlarini kerishdi.

Shu payt qo'shning xo'rozi shitob bilan yugurib keldi-da, tovuqlardan birini quvib ketdi. Oq xo'roz kuk-kulab yer titish bilan ovora edi. Buni ko'rmadi. Oqto'shda esa begona xo'rozni quvish istagi bo'lmadi.

U bu mojaroga befarq tikilib yotaverdi. Oqto'sh hasharchilar kelib ketganidan so'ng ko'p narsalardan judo bo'lgandi. Birinchi bo'lib egalik tuyg'usidan, albatta. U avvallari qaramog'idagilarga hukmrondek bo'lib yurardi. Xonadon bisotiga begonani yaqinlatmasdi. Endi u ham oddiy bir uy hayvoni ekanini, mana shu miyasiz tovuqlardan, suzik ko'zlarini unga baqraytirib turgan sigirdan, burni kertilgan qora eshakdan o'zini farqsiz bo'lib qolganini shu damda chuqur his qildi.

Tovuqlarga don sochib bo'lgan Xo'jayin Oqto'shga yaqinlashdi. Yalog'iga nazar tashlab, ro'parasiga o'tirdi.

– Oqto'sh, senga nima bo'ldi?

It nomini eshitib ko'zlarini Xo'jayinga tikdi. Xo'jayin uning boshini siladi.

– Kasal bo'lib qolibsanda-a? Qaniydi, sen jonivorning qayering og'riyotganini bilsam...

Oqto'sh Xo'jayinning rahmi kelayotganini, lekin ilojsiz ekanini tushundi. It bu mehribonchilikka bardosh bera olmadi. Ko'zlariga yosh qalqidi.

Xo'jayin uning boshini siladi. So'ng tizzalariga tayanib o'rnidan turdi-da, og'ir-og'ir qadamlar bilan uy tomonga ketdi.

Tushga yaqin Beka yuvindi ko'tarib keldi. U ham itga achinib-achinib qaytdi. Oqto'sh Xojasi – qizni qorong'i tushguncha kutdi, kelmadi. U negadir uch-to'rt kundan buyon ko'rinmasdi. Qayergadir ketgan.

Bugun havo kechagidan sovuq edi. Osmonda yulduzlar, xonadonlarda chiroqlar miltirab qoldi. Oqto'sh endi yo'lga tushishi kerak. Agar bugun ketmasa ertaga kech bo'ladi...

It arang o'rnidan turdi. Endi yurishi kerak. U kechagiga nisbatan, o'zini yaxshi sezdi. Shunday bo'lsa ham u oyoqlariga hamon ishonmasdi. Ammo ketishi shart, bu erda qolib bo'lmaydi, qolib bo'lmaydi. Oqto'sh ishonqiramay asta qadam bosdi. Keyin yana, yana. U sekin va bir tekis yurib ketdi. It avval hovlini aylanib chiqdi. O'zi uchun qadrdon narsalar va buyumlar oldida oz-oz to'xtadi. Ular bilan bog'liq bo'lgan xotiralarni esladi. So'ngra yo'lga chiqdi.

It chimzorga kelganida harsillab qoldi. Yotsa turolmasligini bildi. Tik turgan-cha nafasini rosladi. Bu yog'i endi shudgor. Qorayib turgan shudgorning ustki qismi yupqa muzlagan. Ostki qismi esa yumshoq. Yo'lga qaraganda shudgorda yurish og'ir. Buning ustiga yer tekis haydalmagandi.

Oqto'sh chuqurroq haydalgan bir joyga kelganida o'zini o'nglayolmay qoldi. Oldingi oyoqlari bir zumda yupqa muzlamani sindirib tuproqqa kirib ketdi. Oyoqlarini yerdan chiqarib ulgurolmadi. Tumshug'i tuproqqa botdi. It bu yerda ko'p ovora bo'ldi. Burnidan chiqayotgan hovurdan muzlama erib, nafas olishi qiyinlashdi. Dastlabki urinishi zoye ketdi. Oyoqlarini birdaniga yerdan sug'urolmadi. Keyin yana qattiq intildi. Bu gal oyoqlari chiqishga chiqdi-yu, tizzalab qoldi. Endi tizzalar tuproqqa cho'kib borardi. It bor kuchini to'plab yana urindi, turib oldi. Yo'lda behol davom etdi.

Oqto'sh Uchtepa ortidagi g'o'zasi ola ekilgan joyga qarab borardi. Hozir yer haydalib, u joyni topish mushkul edi. Ammo it u yerni taxminan topib bordi. Bir daqiqa tuproqqa belangan tumshug'ini yuqori ko'tarib, havoni iskadi va yotdi. Bu gal u hayotida birinchi hamda oxirgi marta jag'ini qo'lining ustiga emas, shundoq muzlagan kesakchalar ustiga qo'ydi va chuqur xo'rsinib yubordi.

Havo sovuq. Osmonda yulduzlar bodraydi. Uchtepaning shundoq ustidan tuxumning sarig'idek oy balqib turibdi. Oqto'sh esa shu hayotga tashna ko'zlarini tikkancha yotibdi.

# Jumaqul Qurbonov

(1955-yilda tugʻilgan)



Jumaqul Qurbonov 1955-yil 2-iyunda Qashqadaryo viloyatining Muborak tumani-dagi Koʻhnashahar qishlogʻida tugʻilgan. ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan (1981). «Qorakoʻz» (1992), «Chorraha» (2003) hikoyalar toʻplami va «Amir Temur tugʻilgan joy yoxud Zanjirsaroy qissasi» (1993), «Buyuk hadisshunos Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy» (1955) kabi tarixiy asarlari nashr etilgan. «Sardoba» («Shom ortidan», 2004; «Iztirobli yillar», 2005) 2 jildli romani ham bor.

## QORAKOʻZ

Choʻldagi xoʻjalikka yuk olib borgan Anvar tushdan soʻng shaharga qaytish uchun katta yoʻlga chiqdi. Ertalabdanoq goh tinib, goh toʻxtab yogʻayotgan kuz yomgʻiri ancha kuchaygan, hali-beri tinadiganga ham oʻxshamasdi.

Anvar havo aynigan shunday kezlari oʻzi yoqtirgan qoʻshiqni xirgoyi qilib, bir maromda yurishga oʻrgangan. Yomgʻir tomchilari zarb bilan mashinaning oynasiga urilar, havoda namxush rutubat kezardi.

Katta yoʻlda mashinalar qatnovi sust, bekatlarda odamlar siyrak. U kichik kanal ustidagi koʻprikdan mashinani ohista haydab oʻtayotib, bexosdan nariroqdagi daraxt ostida qoʻl koʻtarib turgan ayolni koʻrdi.

«Biron zarur ishi bordirki, shunday paytda yoʻlga chiqibdi, – dilidan oʻtkazdi u, – hamroh boʻlsa zerikmayman. Bechora oʻziyam ancha iviganga oʻxshaydi. Soyaboni ham yoʻq ekan».

Mashinani ayolning yonida toʻxtatib, uzalib kabina eshigini ochdi.

– Qarshigacha olib keting, – dedi yoʻlovchi ayol unga iltijoli termulib, – avtobus ketib qolibdi.

– Chiqing, – dedi Anvar yo‘ldan ko‘z uzmay, – bari bir bo‘sh ketyapman.

Ayol qo‘lidagi tugunni o‘rindiqqa qo‘yib, so‘ng o‘zi ham chiqib o‘tirdi. Boshidagi qizil durrachasini yechib oldi, ro‘molchasini chiqarib, yuz-ko‘zlarini artidi.

– Bemalol o‘tiring, – dedi Anvar uning ko‘ngliga tegmaydigan ohangda, – ichkari issiq.

Ayol indamadi. Mashina o‘rtacha tezlikda ko‘lmaklarni sachratib borar, Anvar oyna tozalagichni kuzatgancha, yo‘ldan ko‘zini uzmasdi. Ahyon-ahyonda o‘ziga bo‘ysunmagan qiziqish tufayli hamrohiga o‘g‘rincha qarab qo‘yardi. Ayol ham buni sezar, lekin o‘zini beparvo tutib, xayol surgancha ketardi. U ko‘rinishidan yigirma besh-yigirma olti yoshlar atrofida edi. Chehrasi ochiq, bodomqovoq, peshonasiga tushgan soch tolalari o‘ng ko‘zini qoplagan, aftidan bu uning parvosiga ham kelmasdi. Anvar jim ketishni ep ko‘rmay, ohista yo‘taldi.

– Bu... begona mashinada ketishdan qo‘rqmaysizmi, singlim? – dedi sho‘xlik bilan.

– Yo‘q, – dedi hamrohi gap ohangiga yarasha, – ko‘rinishingizdan yomon yigitga o‘xshamaysiz-ku?!

– Yomonlarning nima peshonasiga «yomon» deb yozib qo‘yilarmidi? – Anvar zavqlanib kuldi, – odamning qandayligini bilib bo‘larkanmi?

– Men bilaman, – dedi ayol bo‘sh kelmay, – insonning kimligi rostdan ham peshonasiga yozib qo‘yiladi. Faqat uni ko‘ra bilish kerak.

«Balo-ku», deb o‘yladi Anvar. So‘ng: – Siz shifokor yoki muallimasiz, to‘g‘ri topdimmi? – deb so‘radi.

– Yo‘q, – dedi ayol, – bog‘chada ishlayman.

– Sal adashibman, – Anvar tan oldi. – Bari bir begona mashinada kelganingizni ko‘rib, xo‘jayningiz rashk qilsa kerak?

– Yo‘q, – dedi hamrohi yana kulimsirab va cho‘zib. – Qilmaydi!

– Nimaga?

– Xo‘jayinning o‘zi yo‘q-da!

Anvar unga ajablanib qaragandi, ayolning yuziga nigohi tushib, yuragi beixtiyor seskandi. Ayolning o‘ng ko‘zi qorachig‘ining o‘mini butunlay oqish parda qoplagandi. Nafasi ichiga tushib ketdi. Ahvolini sezdirmaslik uchun undan ismini so‘rganini bilmay qoldi. Bir ozdan so‘ng hamrohining «Qorako‘z», deya istar-istamas javobi eshitildi. Oraga yana noqulay jimlik cho‘kdi. Mashinaning guvillashi ham bu sukunatni buzolmasdi.

– Ko‘rinishing bu ahvolda-yu, yana munaqa dabdabali ismga balo bormi, deb o‘ylayotgan bo‘lsangiz kerak, – to‘satdan Qorako‘zning o‘zi gap boshladi. – To‘g‘ri topdimmi?

– Yo‘g‘-e, – Anvar rulni burib yuborishga sal qoldi.

– Menga baxtsizlik hadya etgan bu ismdan qutilishga ko‘p harakat qildim. – Bu safar Qorako‘zning ovozi so‘niq chiqdi. – Lekin onam ko‘nmadi. «Bu ismni rahmatlik momong qo‘yganlar. Arvohi chirqillab qoladi. Senga ko‘z tekkan, bo-

lam». Men bu gaplarga ishonmasam-da, lekin onamni ayardim. Busiz ham u meni o'ylab, o'zini oldirib qo'ygandi.

– Hayotda ko'ngilsiz hodisalar ko'p bo'ladi, uzoq vaqt farzand dog'ida kuygan tanishim yaqinda farzand ko'rdi. Go'dakning bir ko'zi ojiz edi. Lekin ular shunday xursandki, asti qo'yavering, – dedi Anvar ayolning ko'nglini ko'tarish ilinjida.

– Meniki tug'ma bo'lganda taqdirga tan berardim, – deb javob qaytardi Qorako'z. – Biroq, bu ancha keyingi voqea. Bunga bir odam aybdor. Ammo uning kimligini o'zim ham bilmayman.

– Bu qiziq-ku, – dedi Anvar. – Sizni bir umrga nogiron qilib, o'zi yallo qilib yursa... Siz uni bilmasangiz?

Qorako'z eski yarasi yangilangandanmi yoki manzilga hali uzoqligi uchunmi, bo'lib o'tgan voqeani hikoya qila boshladi.

– Bu voqea sodir bo'lganida to'rtinchi sinfda o'qirdim. Bir kuni maktabga ketayotuvdim. Bexosdan qayerdandir bir tosh uchib kelib zarb bilan ko'zimga urilganini bilaman, xolos. Meni kasalxonaga olib borgan Rasul boboning ayti-shicha, chinqirib yotganimda bir bola paydo bo'lgan, lekin, u Rasul boboni ko'rib qochib ketgan. U kishi ham meni qonga belanib yotganimni ko'rib quvlamagan. Keyin otam qancha izlasa ham bolani topolmadi. Lekin u... bir qizning baxtiga zomin bo'lganligini, umrbod nogiron qilib qo'yanini bilarmikan?! Bu – bizga qorong'u...

Qorako'zning keyingi so'zlari Anvarning qulog'iga kirmadi. Qo'l-oyog'i bo'shashib, ustidan sovuq suv quyilgandek a'zoyi badaniga titroq kirdi. Mashina yo'ldan chiqqa boshladi. Xayriyat, o'tkinchi mashina yo'q edi.

Qorako'zning: «Sizga nima bo'ldi?» – degan so'zlari uni hushiga keltirdi. Shoshib tormozni bosdi. Ko'kragi zarb bilan rulga urildi. Qani endi bularning bar-chasi tush bo'la qolsa, tush bo'la qolsa, tush bo'la qolsa?..

... O'shanda Anvar beshinchi sinfda o'qirdi. Bir kuni onasi uzoq bir qarindoshinikiga olib bordi. Ayollar suhbatlasha boshlagach, bir o'zi zerikkan Anvar qarindoshlarining bog'iga chiqdi. Avval daraxtlarga qo'ngan qushlarga tosh ota boshladi. Keyin, qushlarni haydagach, bog' chetidagi paxsa devor ustiga bo'sh shishani qo'yib mo'ljalga oldi. Kesaklari mo'ljalga tegmaganidan xunobi oshdi. Kattaroq qayroq toshni olib, devorga yaqin borib, bor kuchi bilan irg'itdi, lekin mo'ljaldan adashdi. Shu payt devorning orqasidan qattiq chinqiriq eshitildi. Shoshib devordan qarasa besh-olti qadamcha narida, ko'chaning o'rtasida o'n-o'n ikki yoshlar atrofidagi qiz erda yumalab, tinimsiz chinqirardi. Yugurib qizchanning yoniga bordi. O'zi boyagina otgan tosh bir chekkada yotar, qizchanning ko'zidan oqayotgan qon yuzi va kiyimlarini belagandi. Anvar qo'rqqanidan yig'lab yubordi. Keyin shu tomonga yugurib kelayotgan cholni ko'rib qochib qoldi.

Bu voqeadan so'ng ancha vaqtgacha lablariga uchuq toshib, kechalari uyqudan cho'chib uyg'onadigan bo'ldi. Ota-onasi qancha surishtirsa ham o'tgan

voqeani ularga aytmadi. Vaqt hamma narsaga davо ekan, bu voqea asta-sekin bo-lalik dunyosidan unutilib ketdi. Lekin... mana, yana hammasi qaytadan yangilandi. «Tog' tog' bilan uchrashmaydi, lekin odam odam bilan uchrashadi», deb shuni aytar ekanlar-da. Ayni shu damda uning qalbini iztirob beayov kemira boshladi.

Indamay ketavermaysanmi, yoshlik – beboshlik deganlar, axir sen ataylab qilmagansan-ku?! Hayotda tasodiflar ko'p bo'ladi. Hammasiga ham chora izlab bo'lmaydi-ku?! Hozir iqrор bo'lsang, zulukday yopishib olgan iztirob azobidan qutulasan. Yo'q, yo'q, aytib bo'lmaydi. Ayt – keyin tomoshani ko'rasan. Ham-maga gap-so'z bo'lib, malomatga qolasan, o'zing uylanish taraddudida yuribsan, balki aytish kerakdir, bo'lmasa umr bo'yi ta'qibdan qutula olmaysan. Qo'lingdan kelgan yordamingni ber, zora Qorako'z seni kechirsa...

Shu payt hamrohining «to'xtang, yetib keldim» degan so'zlari undagi tuyg'ular kurashiga xotima berdi. Qorako'z sumkachasidan pul chiqarib uzatdi. Shu payt Anvarda qandaydir kuch paydo bo'ldi-yu, qizning ikki bilagidan mahkam ushladi. Yuragi bo'g'ziga tiqilganday bo'ldi. Hansirab gapira boshladi:

– Qorako'z! Siz la'natlab yurgan o'sha qochoq bola menman. Eshitayapsizmi, menman yoki ishonmaysizmi!! Hammasini bir boshdan aytib bermoqchiman!

U gapini tugatolmadi. Qorako'z yalt etib unga qaradi. Birpas hayron bo'lganday tikilib turdi. Shundan so'nggina, Anvarning gaplari shuuriga yetib bordi shekilli, ko'zlariga duv-duv yosh quyilib keldi. Eshikni shart ochib, pastga otildi va zarb bilan yopib jadal yurib ketdi.

Anvar kabinadan irg'ib tushib, qizning izidan ikki-uch qadam tashladi. Chaqirgani bilan to'xtamasligini bildi va shaffof yomg'irzor aro singib borayotgan qizning ortidan karaxt bir holda termilib qoldi.

# Xayriddin Sultonov

(1956-yilda tug'ilgan)



Xayriddin Sultonov 1956-yil 15-yanvarda Toshkent viloyati Qibray tumanining Tuzel qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (2006), ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1978). «Quyosh barchaga barobar» (1980), «Bir oqshom ertagi» (1983), «Onamning yurti» (1987), «Umr esa o'tmoqda» (1988), «Boburning tushlari» (1992), «Boburiynoma» (1997), «Saodat sohili» (2005) kabi nasriy kitoblari nashr etilgan. «Changak», «Moziydan bir sahifa», «Mehrobdan chayon» kabi videofilmlar hamda «Tushlarimda ko'rib yig'layman», «Yozning yolg'iz yodgori» ssenariylari asosida badiiy filmlar suratga olingan. «Sarhovuzning bo'ylarida» (1992) nomli dramasi ham bor.

A. Sent-Ekzyuperi, Y. Nagibin, V. Shukshin kabi adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. «Shuhrat» medali (1996), «Mehnat shuhrati» ordeni (2003) bilan mukofotlangan.

## DUNYONING SIRI

– Shunaqa... Yer yuzida to'rt milliard odamga yetgan havo menga yetmaydi...

Bu gapni u hazillashib aytdi. Ammo Qunduz uning so'z ohangidagi pinhoniynadomatni ilg'adi...

Zax va bo'yoq hidi anqib turgan katalakdek qiroatxona sovuq edi. Yigit yu-pungina plashga o'ranib kresloga cho'kkan, behafsala jurnal varaqlaydi. Bir haf-tadan buyon kutubxona ochilgan zahoti kirib keladi, kun bo'yi o'qiydi, kechqurun Qunduz uyga otlangandan keyin rahmat aytib chiqib ketadi.

Kuz – «o'lik mavsum». Sanatoriyda odam kam. Kutubxona deyarli kimsa-siz. Diqqinapas xonada Qunduz yolg'iz o'zi kitoblarga termilaverib zerikadi. Ish tugasa-yu tezroq ketsa... Biroq «Indamasxo'ja» kechgacha miq etmaydi. Qunduz



kurort daftarchasidan uning student ekanini, ismi Muzaffarligini bilar, ammo yigitning bepisand munosabatiga ensasi qotar edi. Aslida o'ranib-chirmanib yuradigan bu kasalmand kimsaning e'tiboriga zor emas: u bir oy avval turmushga chiqqan – o'zi uchun batamom yangi, sirli hayot og'ushida mast. Har kuni ertalab kelinlik liboslariga burkangancha gul-gul yashnab ishga keladi, lekin quyosh nuridan bebahra, rutubatli tor hujrada malohatidan hayratga tushadigan tirik jon yo'qligi tufayli andak afsus chekadi. Bir ozdan so'ng eshikdan «ammasining buzog'i» – Muzaffar kirib, nari-beri salomlashgach, kitoblarga ko'miladi.

Uch kun burun u yigitni gapga solmoqchi bo'ldi. Hiyla vaqt ro'parasida al-animalarni atay yozib-chizib o'tirdi. Muzaffar bir payt kaftini og'ziga tutib uzoq esnadi. O'z go'zalligi qudratiga benihoya ishongan har qanday ayol kabi Qunduz ham qattiq ranjidi. «Kekkaygan student» haqida «Odamovi!» degan hukm chiqarib, minba'd so'z ochmaslikka ahd qildi.

Biroq bugun ertalab beixtiyor: «Nima kasalsiz?» – deb yubordi-yu, tilini tishladi.

Muzaffar jilmayishga urindi, ozg'in, qonsiz yuzlariga mahzun bir parishonlik qalqidi.

– Shunaqa... Yer yuzida to'rt milliard odamga yetgan havo menga yetmaydi.

Qunduz unga ajablanib qaradi.

– Men astmaman-da, – dedi yigit xo'rsinib.

Uning soxta xushholligini ko'rib, Qunduzning rahmi keldi.

– Tuzalib qoldingizmi, axir? – deb so'radi atay tetik ohangda.

– Vrachning gapiga ko'ra, tuzalishim kerak. Lekin... doim doktorlarning aytgani bo'laversa, olamda allaqachon kasallik qolmasdi.

U tasalli berishga shoshildi:

– E, hali ko'rmagandek bo'lib ketasiz!

Yigit bosh chayqadi:

– Qaydam...

– Hadeb o'ylab siqilavermang-da! Bu yerda qancha odam davolangan! Tog' havosi...

– Keyin «salomatlik posbonlariga «Men sizdan shifo topdim» degan muzikali salom» yo'layman, shundaymi? – Muzaffar kulimsiradi. – Xuddi doktorga o'xshaysiz-a... Menga qarang, tag'in vrach bo'lmang?

– Yo'q, – Qunduz ham ma'yuslanib kuldi. – Farmasevt bo'lmoqchiydim.

– Kirolmadingizmi?

– Ximiyadan yiqildim.

– E-e... – Yigit qo'zg'alib qo'ydi-da: – Biror sirtqi bo'limiga kiring, – deb maslahat berdi.

– O'qish endi... – deya kelinchak xandon otib kuldi. – Otasiz o'sganmiz. Shuning uchun amakimning deganlari-degan.

– Ha-a, – dedi bosh irg'ab Muzaffar.

Qunduz gazeta-jurnallarni taxlashga kirishdi.

– Bu dard o‘lgur sizga qayoqdan yopishdi? Juda yoshsiz-ku? – deb so‘radi ishdan bosh ko‘tarmay.

– Bilasizmi... – Yigit so‘z qidirib kalovlandi. – Haligi, dadam shiyponga qorovul edi. Ko‘p kasal bo‘lardi. O‘shanda o‘rmda turardim. Defoliatsiya vaqtida... Tog‘da paxta ekilmaydi, defoliatsiyani bilarmikansiz?

– Qiziqsiz-a, nega bilmayman?

– Ana shu paytda dalada hech kim qolmasligi kerak. Men yotaverardim – shiyponni qarovsiz tashlab ketolmasdim... – U gunohkorona iljaydi.

– Sizni qarangu! – dedi kutubxonachi. – Shiyponni bo‘ri yermidi?!

– Yosh-bebosh bo‘lganman-da! – deb achchiq kuldi yigit.

– O‘qishingiz-chi?

– Bir yil yo‘qotaman, nachora? – Muzaffar qo‘lidagi jurnalni varaqlay boshladi. – Bu yil ayniqsa, ko‘p qiynaldim.

– Sog‘ayib ketasiz, – dedi ishonch bilan Qunduz. – Aytgandek, institutni bitirib kim bo‘lasiz?

– Odam, – deb kuldi u.

\* \* \*

– Tog‘dan tushib kelyapman, – dedi u ertasi kuni Qunduzni ko‘rgan zahoti. Egnida qalin sviter, eshik kesakisiga suyangan ko‘yi hansirab turardi.

– Qalay?

– Tog‘lar o‘ksik, mening ko‘nglimdek... – Yigit quyosh nuridan ko‘zlari qamashib gapirardi. – So‘z yo‘q! Balandroqqa chiqqan-olmadim-da, nafas qisib qoldi.

– Nega... o‘ksik? – deb so‘radi kutubxonachi deraza pardalarini surarkan.

– Chiqsangiz ko‘rasiz.

– Men hali chiqmaganman.

– Qo‘ying-e?!

– Ishonmaysiz-a? Bir marta, to‘qqizinchi sinfda huv yonbag‘irgacha borganmiz, lola terгани. Keyin qo‘l tegmadi.

– Yopiray!

– Bo‘zchi belboqqa yolchimaydi. – Qunduz xijolatomuz kulimsiradi. – Ko‘klamda chiqmoqchimiz nasib qilsa. Chiroyli joylar...

Muzaffarni yo‘tal tutdi. Mushtini og‘ziga tutib yo‘talarkan, yuzlari qizarib-bo‘zarib, yelkaları silkinardi.

– La‘nati-ey... – dedi xuruj bosilgach, yoshlangan ko‘zlarini artib. – Sahardan boshlayapti-ya! Ha-a, chiroyli joylar, kiroyi joylar... – Javondan qora muqovalli qalin kitobni olayotib, afsuslangandek: – Chiroyli joyla-r-r, – dedi u yana va o‘qishga tutindi.

Tashqarida, quyoshning haroratsiz yog‘dusiga chulg‘angan dov-daraxtlar tagida za‘faron ko‘ylagi etaklarini sudragancha kuz dildirab kezadi. Hakkalar

uchib-qo'rib xazon titkilydi. Olisdagi qorli cho'qqilar do'ppi gullaridek xayoliy tovlanadi. Ko'kish tuman ichra elas-elas ko'zga chalinayotgan yovvoyi bodom, tog'olcha, do'vana butalari qoplagan o'ngirlar xonaga dilgir sukunat baxsh etadi.

Qunduz zerikdi. Nari-beri parishon yura boshladi. G'ashlikka o'xshash bir tuyg'udan yuragi siqilib, xo'rsindi. Daf'atan o'zini kimsasiz, g'arib sezdi. «Bosh olib ketsang, bi-ir yoqlarga... – Zum o'tmay hushiga kelib kulimsiradi: – Jinniga o'xshab...»

Muzaffar bilan suhbatlashish allanechuk maroqli. Ammo yigit berilib o'qir, go'yo olamda uning borligini unutmagan edi. Qunduz qat'iyat bilan qimtilgan qalin lablarga, g'amgin qo'yko'zlarga, qiz bolaniki singari uzun, ingichka barmoqlarga bir-bir tikildi.

– Nima o'qiyapsiz? – deb so'radi nihoyat jur'at qilib.

Yigit bosh ko'tardi.

– Gegel.

Qunduz Gegelning kimligini so'rashga iymandi, tushungan kabi bosh silkib qo'ydi.

– Qiziqmi?

– Nima desam ekan? Har narsa ham qiziqsangiz – qiziq. Faylasuf u.

– Kecha televizorda ham bir faylasuf chiqdi.

– Kim?

– Sharirovmi, Sharopovmi, shunaqa fan kandidati bor ekan-ku?

– Qaydam, bo'lsa bordir, – dedi yigit. – Bilasizmi, dunyoda kandidatlar, bakalavrlar, doktorlar, magistrlar, professorlar ko'p – olimlar kam.

Kelinchak angrayib o'tirar, g'ayrioddiy tuyulayotgan bu so'zlarni idrok etishga qiynalar edi.

O'qimaganiga o'kindi. Agar o'qiganda u ham shunaqa chiroyli gapirarmidi...

– Ovqatlangani bormaysizmi? – deya u soatiga ko'z tashladi.

– Tushlik bo'ldimi? – Muzaffar o'rnidan qo'zg'aldi. – Kechgacha ishlaysiz-a? Ozroq o'qimoqchiydim.

– Ha.

Yigit bosh irg'ab eshikni yopdi. Qunduz ko'ngli g'ash, Muzaffar stol ustiga qo'yib ketgan kitobni asta varaqladi. Qalam bilan chizilgan satrlarga tikilib qoldi:

«Voqeiy narsalar – haqiqiydir, haqiqiy narsalar – voqedir»...

\* \* \*

Kechasi yomg'ir yog'di. Ertalab yeru ko'kni tuman bosdi. Qunduz osmonni to'ldirgan qora bulut uyurlariga, namchil asfalt yo'lga tashvishlanib qaradi-yu, kun bo'yi dildirab o'tirishini o'ylab, g'ash tortdi. Maktabdan ishxonasiga telefon qilib, bir kunga ijozat oldi.

Uylarni yig'ishtirmoqchi edi, ammo qo'li yumushga bormay yuragi orziqdi. Qalin tivit ro'molini o'rab, plashini kiydi-da, sanatoriya jo'nadi.

Kutubxonani ochishi bilan ozoda kiyingan, ko'zoynakli, oq-sariq qariya kirib keldi. Birpas jurnal varaqlagach, kitob yozdirib chiqib ketdi.

Qunduz ro'molini yelkasiga tashlagan ko'yi qo'llarini kuh-kuhlab o'tirardi. Boshida telpak, tomog'ini sharf bilan o'ragan, rangi bo'zdek Muzaffar ostonada paydo bo'lgan zahoti shoshib o'rnidan turdi.

– Shu sovuqda ham keldingizmi? – deb so'radi yigit achinib. – Shamollab qolasiz-ku! Bu yerga loaqal elektr pechka qo'yishsa bo'lmaydimi?

– Isitish qozoni ishdan chiqibdi, tuzatishyapti, – dedi kelinchak gunohkorona.

– Qozon yorilibdimi? Tabiiy ofat-da! – deya tanglayini takillatdi yigit.

Qunduz nima deyarini bilmay:

– Kitobingizni olib beraymi? – deb so'radi.

– Mayli. Rosa o'qiydigan havo bo'lyapti! – U yo'talib, istar-istamas kresloga cho'kdi.

Sukunat devori ularni bir-biridan ajratib turar, deraza ostida chak-chak yomg'ir tomchilab, daralardan tuman pardasi ko'tarilib bormoqda edi.

– Kecha Zohida bilan urishdim, – dedi Qunduz kutilmaganda hasrat qilib.

Yigit kitobdan ko'z uzib unga qaradi:

– Zohida kim?

– Buxgalter xotin.

– Nega urishdingiz?

– Kutubxonada farrosh yo'q, o'zim supurib-sidiraman. Boshqa birovning nomiga oylik chiqarkan, vedomostda ko'rib qoldim. «Direktorga aytaman», desam: «Bo'shaging kelayotgan bo'lsa aytaver», deydi. Xonani tozalasam o'zim uchun qilaman, oylik talashmoqchimasman-u, shunday degandan keyin chidayolmadim-da, qizishib ketdim.

– Tavba! – deya yigit bosh chayqadi. – Odamlar ajoyib: shirin bo'lsang – yutib yuborishadi, achchiq bo'lsang – chaynab tashlashadi... – So'ng barmoqlarini asabiy o'ynab: – Shuning uchun yer yuzida chuchmal odam ko'p-da, – dedi.

Shamol turdi. Yiroqdagi qorli cho'qqilar yana yarqiradi. Tog' bag'ridagi yong'oqzor osha yuqoriga o'rlayotgan otliq elas-elas ko'zga chalinar edi.

Muzaffarni birdan yo'tal tutdi. Nimjon gavdasini kreslo suyanchig'iga tashlab, xirqirab qoldi.

– Doktor chaqiraymi? – dedi Qunduz shoshib.

– Yo'q... o'h-ho'. o'h-ho'... o'tib ketadi. – Yigit og'riqdan yuzini burishtirib, ko'kimtir tomirlar o'ynab chiqqan qo'lini siltadi. – Deraza... derazani oching...

Derazadan yomg'ir aralash izg'irin yopirilib pardani tortqiladi. Qunduz junjikib ketdi.

Muzaffar og'ir-og'ir nafas olib, to'lg'anardi.

– O'zim ham... o'h-ho'... nega bugun tutmadi, deb turuvdim...

Kelinchak labini tishladi: «Qiyinalib ketdi-ey!»

– Sovuq bo'lmaydi-da sizga, – dedi kuyunib.

– Hozir... Hozir-r bosiladi... O‘h-ho‘...  
 Titroq barmoqlari kreslo yog‘ochini bemajol tirmar, tor ko‘krak qafasidan shig‘-shig‘ degan tovush eshitar edi.  
 – Mana, o‘tib ketdi. – Yigit manglayidan ter tomchilarini artib, omonat iljaydi. – Xasta o‘pkam achchiq gazlarga o‘rganib... toza havoda qiynalyapti.  
 Yomg‘ir quyib yubordi. Muzaffar derazadan tashqariga qarab entikdi:  
 – Yomg‘ir ham ezildi-ey! Nima o‘qiyapsiz?  
 Qunduz qo‘lidagi kitobni ko‘rsatdi.  
 – Nima haqda?  
 – Bizning yoshimizda nima haqda o‘qishardi?  
 – E-ha... – deya ma‘nodor bosh irg‘adi Muzaffar derazani yoparkan. Yomg‘ir tovushi pasaydi.  
 – Menda bir kitob bor, – dedi joyiga o‘tirgach. – Fransuz yozuvchisidiki. O‘qib, yigit boshim bilan yig‘laganman.  
 – Rostdan-a?  
 – Yolg‘onchining uyi kuysin. Xohlasangiz, o‘qib ko‘ring.  
 – Bugun... yo‘q, mayli, ertaga olib kelasiz-a? Shunaqa ta‘sirlimi? «O‘tgan kunlar»ga o‘xshaydimi? Men qachon o‘qisam, o‘z-o‘zimdand yig‘lagim kelaveradi.  
 – «O‘tgan kunlar»... O! – Yigitning ko‘zlari chaqnab ketdi. – Faqat siz emas, Qodiriy o‘zi yozib, o‘zi yig‘lagan ekan!

\* \* \*

Ertalab eri telpagini bostirib uydan chiqarkan, Qunduzga:  
 – Ishga borsang, qalinroq kiyin. Kunga ishonma, eshak o‘ldiradigan oftob bu, – dedi.  
 Quyosh charaqlab turibdi, ammo havo sovuq. Ko‘chani ikki betidagi tunuka tomlarda qirov yiltillaydi. Kechagi yomg‘irdan so‘ng ola-chalpoq quriy boshlagan yo‘lga teraklarning novvotrang yaproqlari to‘kilar, ikkita to‘qol echki barglarni yamlab yurar edi.  
 Tushgacha Muzaffardan darak bo‘lmadi. Qunduz to‘satdan o‘zining betoqatlanayotganini sezdi. «Kitob bermoqchiydi-ku?» – deb o‘yladi xayolini chalg‘itishga urinib.  
 Kun tushdan oqqach, yuragiga g‘ulg‘ula tushdi. Eshikni qulflab, uchinchi korpusga chiqib bordi.  
 Muzaffar to‘rt kishilik xonada yolg‘iz o‘zi o‘ranib yotar edi.  
 – Sizga yolg‘onchi bo‘ldim-a? Ko‘rmaysizmi... – deya xomush kulimsiradi.  
 Qunduzning ko‘zlarida hurkak bir bezovtalik paydo bo‘ldi:  
 – Tuzukmisiz?  
 – Rahmat, ertalab sal... – Yigit yuzini burishtirib yon-verini timirskiladi, keyin noumid qo‘l siltab qo‘ydi.  
 – Yolg‘iz qiynalmaysizmi, hamxonangiz ham yo‘q ekan?

- Muzaffar qaddini rostlab, hazin jilmaydi.
- Atay shu palataga joylashganman.
  - Nega?
  - Aslida odamlardan qochib keldim. Keyin... boshqalarning uyqusini buzish insofdan emas.
  - Odamlarsiz qanday yashaysiz? – deb so‘radi kutubxonachi ko‘zlari javdirab. Yigit qo‘llarini ko‘ksiga chalishtirib, kuldi.
  - Gyote bo‘lib keting-e!
  - Gyote?!
  - Shunday nemis shoiri o‘tgan, bilsangiz kerak. O‘shaning she‘ri bor: «Qanchalar bema’ni bo‘lmasin muhit, bari bir odamsiz yasholmas odam!» – deya viqor bilan o‘qidi u.
  - Ana, ko‘rdingizmi! Siz bo‘lsa...
  - Men bo‘lsa... delfinga achinaman.
  - Kimga?
  - Savolingiz o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha noto‘g‘ri, lekin mohiyat e‘tibori bilan juda to‘g‘ri!
- Qunduz tushunmay, yelka qisdi.
- Chunki delfin – tilsiz-ongsiz hayvon sanaladi. Hayvonlar esa «kim?» emas, «nima?» degan so‘roqqa javob bo‘ladi. Maktabda o‘qitishgan-ku? Ammo men aytayotgan delfin boshqacha, «kim?» deb so‘rashga arziydigan... Meni jinni deb o‘ylamayapsizmi? – deb qoldi u to‘satdan.
  - Yo‘-o‘q, nega?
  - Sal poyintar-soyintar gapiraman-da... Indoneziyada bir delfin maktabga qatnaydigan bolalarni narigi oroldan berigi orolga o‘tkazib qo‘yar ekan. Doim ma‘lum vaqtda qirg‘oqqa kelib, o‘quvchilarni kutib turarkan. Bir kuni bolalar bilan qandaydir mast odam ham unga minibdi. Qo‘lida lattaga o‘ralgan pichog‘i bor ekan. Suv o‘rtasiga kelganda delfinning qoq yuragini mo‘ljallab sanchibdi...
  - Voy-y! Nimaga?
  - Nimaga deysizmi? Yovuzlikda qachon mantiq bo‘lgan? Bu yog‘ini eshiting: delfin suvni qora qonga bo‘yab sohilga suzib boribdi. Bolalar qirg‘oqqa tushishi bilan u shalop etib ag‘darilibdi-da, jon beribdi... Ko‘rdingizmi? Agar uning o‘rnida «kim» bo‘lganida edi, pichoq sanchilgan zahoti yelkasidagilarni ulotqirib yuborardi.
  - Voy, sho‘rlik! Darrov yarasini bog‘lashganda, balki o‘lmasmidi...
  - Kim bog‘laydi? O‘sha, «nima» degan so‘roqqa javob bo‘ladigan kimsami? Tumbochka ustidagi suvsiz bankaga solib qo‘yilgan bir dasta giyoh quriy boshlagan, elitguvchi talx hidi gurkirar, qovjiroq ko‘katlar huvillagan bo‘m-bo‘sh xonani yana ham befayz ko‘rsatar edi.
- Qunduz deraza rafida tartibsiz sochilgan qog‘ozlarga razm solib:
- Dars tayyorlayapsizmi? – deb so‘radi.
  - Yo‘q, – deya bosh chayqadi yigit. – bu – kundalik.

– Ko‘rsam, sir emasmi?  
– Sir!  
– Harbiy sirmi? – deb kuldi Qunduz.  
– Dunyoning siri, – deya jilmaydi yigit. – Olamda odamzodning aqli yetmaydigan bir sir bor. Uni hech kim tushunmaydi. Agar unga insonning aqli yetsa, yashashning ma‘nosi qolmaydi.

Uni yana yo‘tal tutdi. Kelinchak vujudida og‘riq tuyib, labini tishladi: «Xudoyim-ey!»

Muzaffar dahanini sochiq bilan artib, adyolini tuzatarkan, hansirab:

– Shunaqa, – deb qo‘ydi.

«Tuzalib ketsin-ey, bechora», deya xayolan shivirladi Qunduz.

– To‘yingiz qachon bo‘lgan? – deb so‘radi yigit daf‘atan.

– Bir oydan oshdi... – Nogahoniy e‘tirof tuyg‘usi Qunduzning ko‘nglini titratib o‘tdi.

– Eringiz nima ish qiladi?

Bu savol unga malol keldi, negadir ranjidi.

– Kanalda... texnik.

– Ha-a, yaxshi, – dedi yigit qoshini chimirib, dag‘al tovush bilan.

Gap-so‘z tugagandek edi. Qunduz derazadan ko‘rinib turgan bir parcha osmonga boqib:

– Gruppangizda qizlar ham o‘qisa kerak? – deb qo‘ydi.

Muzaffar qo‘llariga tayanib, yag‘rinini ko‘tardi.

– Birontasini yaxshi ko‘rasizmi, demoqchisiz-da? Yo‘q, yaxshi ko‘rmayman.

Meni ham dunyoda onamdan boshqa hech kim yaxshi ko‘rmagan, – dedi u jilmayishga urinib.

– Nima uchun?

– Chunki... – deya u bir lahza taraddudlandi. – Keling, bu ham sir bo‘la qolsin!

– Hammayoq sir deng? – Kelinchak o‘rmidan qo‘zg‘aldi. – Mayli, men boray.

– Shoshyapsizmi?

– Chanqadim.

– Choynakda choy bor. Sal sovuqroq.

– Yo‘q, rahmat. Vrachni aytib yuboraymi?

Yigit bosh chayqadi.

– Nega?

– «Tabib ayur: «Ey nodon, bu dardni bedavo derlar», – deya u tumbochkasidan mo‘jazzgina kitobcha olib uzatdi. – Mana, o‘sha yig‘lata-digan...

Qunduz eshikni zichlab yoparkan, ichkaridan yo‘tal tovushi eshitildi.

\* \* \*

Uyga xomush qaytdi. Darvoza ochiq, qaynatasi qo‘lida toqqaychi, olma daraxtlari tagida kuymanib yurar edi. Salom berib hovliga kirdi-da, yo‘l-yo‘lakay ertalab yoyib ketgan kirlarini yig‘ishtirdi. Atlas darpardalar, guldor so‘zanalar bi-

lan bezatilgan xona botib borayotgan quyoshning qirmizi yog'dusiga cho'mgan, burchakdagi toshoyna, servant ustidagi soatda g'urub shu'lasini yallig'lanar edi. Qunduz to'rdagi suratda kulib turgan, dakana ro'molli jikkakkina kampirga bir zum tikilib qoldi.

U marhum qaynanasini ko'rmagan. Shu vajdan qo'shni xotinlar uni: «Keng uyning kelinchagi», deb hazillashadilar.

Sigirmi sog'ib bo'lib, ovqatga unnaganida mashina signali eshitildi. Dars tayyorlab o'tirgan qaynisi – o'n to'rt yashar Isroil chiqib darvozani ochdi. Changga botgan sariq «Moskvich» kirib keldi. Bolonya kurtka, ko'k shim kiygan Komil mashinadan tushib ust-boshini qoqdi-da, og'ilxonada terit qorayotgan otasi tomon yurdi. Qunduz obdastaga iliq suv quydi, ishkom bag'aziga sochiq ilayotib, eriga uzoqdan sekin: «Hormang», dedi.

U oshxonada sabzi to'g'rayotib, bexos boshmaldog'ini kesib oldi. Shosha-pisha bog'layotganda eri gugurt qidirib kirdi.

– Qo'lingni kesdingmi? E! Ko'zingga qaramaysanmi? – dedi u koyish ohangida. – Ha, mayli, qon – yorug'lik. Namakobga botir – darrov to'xtaydi.

Ovqat mahali poygakda choy uzatib parishonxayol o'tirar, qaynatasining gaplari qulog'iga uzuq-yuluq chalinar edi:

– ... qizil novvosning kunjarasi... Ertaga boqqa chiqib toklarni ko'mish kerak... Mulla Nurmatnikiga...

Choydan keyin cholni mudroq bosdi. Kelinchak unga o'rin to'shab bergach, idish-tovoq yig'ishtirishga tushdi.

Uyga qaytib kirganida televizor vag'illab yotar, eri muk tushib pinakka ketgan edi. Sharpani sezib, ko'zlari yarq ochildi.

– O'chirib qo'yaveraymi?

– E-e... charcha-bman... – Komil esnab, o'midan turdi.

Qunduz pechkaga ko'mir solib, derazadan tashqariga tikildi. Qop-qorong'i. Hovli etagidagi qari tut zulmat qa'rida qorayib ko'rinadi. Qayerdadir daydi mushuk zorlanib miyovlaydi.

«Yo'tali bosildimikan? Sir deb nimani aytdi ekan-a? Hech kim tushunmasligi kerak... Nega? Sir bo'lgani uchunmi?...»

Sekin uf tortdi, sumkasidan u bergan kitobni oldi. Erinib varaqladi. Duch kelgan sahifadan o'qiy boshladi. Avvaliga loqayd ko'z yugurtirdi, so'ng mo'jizaga uchragandek, olamni unutdi...

Na eshikning g'ijirlab ochilganini, na erining yo'talganini sezdi. Komil yelkasi osha engashib muzdek kaftini uning bilagiga qo'ygandagina cho'chib tushdi.

– Qanaqa kitob? Qani? Barb-yus?! Odamning otimi?.. Barbaris degan konfet bo'lardi...

– ...

Eri choponini yechib stul suyanchig'iga tashladi. Bosh qashigancha birpas serrayib turdi-da, esnab:



– Mashinaning suvini to‘kib qo‘yish kerak. Qor yog‘adiganga o‘xshaydi, – deb uydan chiqdi.

Qunduz uning gapini eshitmadi. Bu vaqtda u... yig‘lar, lablari: «Azizim Lui! Senga bu maktubni yigirma yildan so‘ng yozyapman...», deya shivirlar edi. Muzaffarni esladi. «Bu kitobni o‘qib, yigit boshim bilan yig‘laganman...»

Erining qorasini payqab, yuz-ko‘zini artdi.

Komil yechinib karavotga cho‘zildi. Baquvvat qo‘llarini boshi ostiga qo‘yib, chalqancha yotar, nafas olganida keng ko‘kragi ko‘tarilib tushar edi.

– Qani, yotmaysanmi? – deya shivirladi u xushnud kulib. Ko‘zlari chaqnar edi!..

Qunduz bosh chayqab, o‘qishda davom etdi. Har kech shu gapni eshitganida a‘zoyi badanini sirli hayajon qamrar edi. Hozir negadir vujudi junjikdi.

Eri bir zum shiftga tikilib yotdi-da, norozi ohangda:

– Kun bo‘yi to‘ymadingmi, bo‘ldi-da! O‘chir chiroqni! – dedi.

Keyin bir sapchib, xotining baxmal nimcha sirib turgan belidan shartta quchoqlab bag‘riga tortdi.

– Oh, otincham-ey! Bo‘ldi endi!..

Qunduz birdan bo‘shshib, ko‘zlarini yumdi.

Tun. Olam jimjit.

Qunduz ko‘z ochdi-yu, seskanib tushdi: sovuq, zimiston xona, yo‘tal tutib yolg‘iz to‘lg‘anib yotgan... Muzaffar!

Komil shoshib qoldi:

– Nega yig‘laysan?

Qunduz o‘zini benihoya tahqirlangan his qilar, yelkalari dir-dir silkinar edi...

Eri turib chiroqni yoqdi.

– Aysang-chi, nima bo‘ldi? Biror joying og‘riyaptimi?

– ...

Komil jig‘ibiyroni chiqib, karavot chetiga o‘tirdi.

– Odamni xun qilib yubording-ku! Gapirsang-chi!

Uning churq etmaganini o‘zicha tushungan eri yoniga ohista cho‘zildi.

– Bilaman, ish ko‘p, zerikib ketding, – dedi bir ozdan so‘ng muloyim tovush bilan. – Loqaqal kinoga oborolmayapman. Ko‘rib turibsan-ku, qo‘lim tegmayapti. Obyektni topshiraylik, shaharga tushamiz, aylangani. Xohlasang, teatrga kiramiz...

Bu taskin-tasalli Qunduzni butkul o‘rtab yubordi.

Komil chiroqni o‘chirib, yotgan joyida sigareta tutatdi. Sigareta cho‘g‘ining lir-lir shu‘lasida dala shamoli qoraytirgan horg‘in yuzi g‘ira-shira ko‘zga chalinar edi. U bosib-bosib ichiga tortdi.

Er-xotinning uyqusi o‘chgan, birortasidan sado chiqmas edi.

Qunduz xira yorug‘ tushib turgan derazaga tikilarkan, opasi Zumradni esladi. So‘ng tug‘ilib o‘sgan hovlisi, erta ko‘klam tomida qizg‘aldoqlar lovillaydigan uy

xayoliga keldi. Opasi o'ninchi sinfni bitirayotgan yili bir yigit bilan qochib ketgan edi. Onasi uni ko'p qarg'ar, Qunduzdan jahli chiqsa ham albatta qo'shib o'tar edi: «Shumoyoq egachingga o'xshamay o'! Qirchiningdan qiyilgur, o'sha sharmandaga tortyapsanmi?!»

U opasining isnodi ostida ezilib o'sdi. Maktabni tugatishi bilan onasi uni «gumdon qilish» payiga tushdi. Sanatoriy oshxonasida ishlab yurganida Qunduzni bir oylik o'qishga yubordilar. Qaytib kelgach, u amakisining oshnasi Mirkamol domlaning o'g'liga fотиha qilinganini eshitdi.

Orasta uy-joy. Oqko'ngil qaynata, royishli qayni...

To'satdan ongida allanarsa charaqlab, uni titratib yubordi: yonida Muzaffar yotgandek tuyuldi... Bu xayoldan hatto o'zi qo'rqib ketdi. Ko'zlarini chirt yumdi: yana Muzaffar!

Qunduz vahimaga tushib, bo'g'ziga yig'i tiqildi. Nahotki...

Komil beozor pishillagancha uxlab yotardi.

Shu odam uning eri. Bir umr!

Shuursiz bir tarzda Komilning issiq yuziga barmoqlarini tegizdi. Eri uyqusirab tamshandi. Yonboshiga ag'darilib ko'zini ochdi:

– Haliyam uxlamadingmi?

Qunduz uning uyquli ko'zlariga tik boqib:

– Menga qarang, – dedi. Tovushi o'ta xotirjam, istig'nodan asar ham yo'q edi. – Meni... yaxshi ko'rasizmi?

Komil anglamadi:

– A?

– Meni yaxshi ko'rasizmi?

Eri yelkasidan quchdi.

– Gaping qiziq. Yaxshi ko'rmasam... uylanarmidim?

– Men-chi?

– Nima sen?

– Men sizni yaxshi ko'ramanmi?

Komil dovdirab qoldi.

– Xotinim bo'lgandan keyin... yaxshi ko'rasan-da, – deya g'o'ldiradi uyqusi o'chib. Birdan sergaklanib o'rnidan qo'zg'aldi. Tizzalarini quchoqlab, xotiniga jonsarak tikildi.

– Senga nima bo'ldi o'zi? – deb so'radi u. – Rostini aytaver...

Kelinchak derazadan tushayotgan o'nying xira yorug'ida erining tumtaygan lablari, kirtaygan ko'zlarini ko'rib, rahmi keldi.

– Hech narsa... – deya pichirladi u.

– Yo'q, «hech narsa»ga o'xshamaydi! Yo... bitta-yarimtaga...

Qunduzning yuragi shuv etdi.

– Nega indamaysan? Gapir!

– Nega unaqa deysiz?

– Ha? Nimaga bunaqa g‘alatisan bo‘lmasa?

– ...

Komilning diqqati oshdi. Nima qilarini bilmay, yana sigareta tutatdi.

Saharxez xo‘rozlar qichqirgunga qadar churq etmay bedor yotdilar.

Ikkalasi ham o‘rtada nimadir yo‘qolib, nimadir paydo bo‘layotganini anglangandek edi.

\* \* \*

Eri tong qorong‘isida choy ichmay ishga jo‘nadi.

Qunduz boshi cho‘yandek og‘irlashib o‘rnidan turdi.

\* \* \*

... Xat qisqa edi:

*«Qunduz! To‘satdan jo‘nayapman. Sovuq jonimdan o‘tib ketdi. Siz baxtli bo‘lishingiz kerak. Siz o‘zingiz bilmagan holda menga qanchalik dalda berganingizni bilsangiz edi... Faqat rahmat ayta olaman.*

*Muzaffar».*

– Manaviniyam qoldirdi, – dedi qorovul chol qora muqovali qalin kitobni uzatib.

Qunduz hayron bo‘lib cholga qaradi.

U bamaylixotir, piyoladan achchiq ko‘k choy ho‘plar edi.

# Ashurali Jo'rayev

(1956-yilda tug'ilgan)



Ashurali Jo'rayev 1956-yil 8-avgustda Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi Jaloyir qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist (1999). Toshkent davlat San'at va madaniyat institutini tamomlagan. (1978). «Toshbaqalar poygasi» (1986), «Yurak bo'ronlari» (1989), «O'q uzgan kim?» (1994), «Senga ko'ngil bersam» (1999), «Dil gavhari» (2001), «Tanimading-a?» (2005), «Maysalar uyg'ongan tong» (2008), «Sahifaga sig'magan satrlar» (2014), «Konvert odam» (2015) kabi kitoblari nashr etilgan.

## KETMON YUZIDAGI OY

Ketmonning yuziga oynning aksi tushmay qo'ydi. Yuzi kichrayib, xira tortib, zang bosib borayotgan ketmon esa oyni judayam sog'ingan edi. Oy uning eski dildoshi, darddoshi va ushalib-ushalmagan orzu, armonlari edi. Afsuski, ketmon tush ko'rmaydi. Boshi band, xotirasi yog'ochga aylangan. Agar u tush ko'rganda bormi, tushiga nuqul oy kirardi. To'lin oy!.. Va u mazza qilib oy bilan armonlashardi.

O'shanda ketmon yosh edi. G'ayrati jo'sh urib hech qayerga sig'masdi. Har gal yer bilan uchrashganida uning damidan o't chiqardi. Bu o't tuproqni jizillatardi. Ketmonning olovi yerni haroratga burkardi.

Yer bunday dami o'tkir haroratli ketmonlarni ko'p ko'rgani uchun ham ularga zarracha parvo qilmas edi. Yerning bag'ri yerday keng va bepoyon edi.

Ketmonning oy bilan sirlashgan daqiqalari umrining eng baxtli lahzalari edi. Oy aksi uning kaftday yuzlariga qo'ngan oydin tunlar lazzatini hech qachon unutilib bo'lmaydi.

Oy, oydan-da go'zal, ketmon, ketmondan-da haroratli va qudratli edi. Aslida, oynning hasrati ham ketmonnikidan aslo kam emasdi. Ular bir-birlariga mahliyo

bo'lib, hatto hasratlashishni ham unutib qo'yardilar. Bunday paytda hasratga balo bormi?..

Endi yer uning jon-jonini sug'urib olgan edi. Ne-ne dami o'tkir ketmonlar kabi bu sho'rlik ketmon ham yerning azaliy va ilohiy quvvatiga dosh berolmadi. Yer qanchalar yumshoq, qanchalar metin bo'lgani bilan, baribir, yer edi. Abad-azal shu: temirchilar zo'r berib, yuksak mahorat bilan ketmon yasayveradilar, yer esa ketmonlarning damini asta-sekin pasaytirib, jasoratini so'ndirib boraveradi. Ming harakat qilgani bilan, ketmon oxir-oqibat holdan toyadi. Holdan qolish esa azob. So'ngra ortiqcha buyum singari hech kimga kerak bo'lmay qoladi. Yoningga yosh va zabardast ketmonlar kelib qo'shiladi. Ular ham oxir-oqibatini o'ylamay, zavq-shavq bilan tun-u kun yer chopgani-chopgan... Eh, shunday paytda ketmonning jasoratiga, shijoatiga na ta'rif, na taraf yo'q. U ertasini va kelajagini o'ylamay, yer bilan g'ayrati jo'shib kurashgani-kurashgan. Ketmon odam bilan yerni bog'lab turuvchi faqat mehnat vositasi emas, balki tiriklik manbayi hisoblanadi. Vositachilik – mushkul vazifa. Avvalo, ketmonning qanday qo'llarga tushishiga ham bog'liq. Agar u haqiqiy mehnatkash dehqon qo'li bilan oshno bo'lsa, ya'ni o'z qo'lini topsa, bu ketmon uchun bayram, mo'l-ko'l xirmoni uchun hosil qo'shig'i yangraydi. Bunday paytda ketmon ketmon bo'lib yaralganiga shukr qiladi, tinimsiz yer chopadi. Uning tanida ham, yuzida ham armon qolmaydi.

Endi ishyoqmas, dangasa qo'lga tushgan ketmon armonda ketadi, shashti so'nadi, hamma dardi ichida bo'ladi. Egri qo'llarga tushgan ketmon esa faqat begonaning tomorqasi uchun ishlaydi, umri sargardonlikda o'tadi. Begona egatlarda sandiroqlaydi.

Ketmon egasining yoshi ham bir joyga borib qolgan, endi uning gursillatib, qarsillatib ketmon urishga kuch-quvvati kelmasdi. Ketmon uning quvvatini uzum shirasiday so'rib olgan.

Bir vaqtlar egasining kuch-g'ayrat to'lib-toshib yotgan bilaklari dastaga tegishi bilan ketmonning bag'riga o't tushardi. Ishga bir sho'ng'ib ketildimi, tamom, ilhomlangan qo'llarning ketmondan, ketmonning po'rsildoq yerdan uzilgisi kelmasdi. Tuproq elanib-elanib, titilib-titilib, ushoq-ushoq bo'lib ketardi. Ketmon tekkan yer xamirday ko'pchiydi.

Yerning ham mehri jo'shib, ketmon tushgan tuproqlar elanib, maydalanib borardi. Ketmon qanchalar bag'rini tilka-pora qilmasin, yer o'zini yayrab-yayrab hosilga tayyorlardi. Ketmon yengil-yengil botsa, yer ham yayraydi, yer ham huzur qiladi. Yer choyga qo'shilgan asalday eriydi. Urug'ni uyg'otib, uning nish urgan ildiziga bag'rini ochadi. Hosil bo'lug'lashadi.

Ketmon yer bilan urug'ning qo'shilishiga makon yaratib beradi. Lekin ketmon qanchalik kuyib-pishib mehnat qilmasin, hosil qo'shig'ini eshitish baxtiga muyassar bo'lolmaydi. Ketmonning noq peshonasiga azaldan shu ko'rgiliklar yozilgan bo'lsa, u sho'rlik nima ham qilsin? Mehnatni ketmon qiladi-yu, uning huzurini o'roq ko'radi. Hatto hosil to'ylariga ketmonni taklif qilishni unutib qo'yadilar. To'rda to'ralar savlat to'kib o'tiradi. Ketmon ushlamaganlar yo qadah, yo

mikrafon ushlaydi. Abjir shoirlar ketmon haqida she'r o'qiydi. Qo'liga ketmon ushlamagan bittasi «Ketmon» degan doston yozibdi.

Ketmon bechora qachon ishlab, qachon dam olganini bilmaydi.

Qishda ariq-zovurni tozalaydi, sho'ri yuviladigan dalalarning chelini tortadi, so'ng sho'r yuvadi.

Bahorda ko'chat o'tkazadi, urug' ekadi, nihollarni zavq bilan chopiq qiladi.

Yozda mehnat qaynaydi, ketmon qanday yumushlarni bajarganini eslab sanog'iga yetolmaydi, o'ftobning tig'ida terga botib mehnat qilgani-qilgan. Saratonda sarg'ayib-sarg'ayib ketadi ketmon. Og'ir-og'ir nafas oladi ketmon. Yerning taftidan chuqur-chuqur hansiraydi ketmon. Ketmonni qora ter bosadi. Bu marjon-marjon ter tomchilaridan ba'zan yer ham sho'rlaydi.

Kuzda hosilni yig'ib-terib olishda ketmonning o'rmi, vazifalari borki, buni ketmondan boshqa birorta zo'r texnika eplolmaydi.

Ketmonning yotog'i – yil o'n ikki oy dala. Bunday ayvon peshtoqida yoki sayisxonaning bir qorong'i burchagida durustroq dam olganligini eslolmaydi.

Endi hamma ketmon ham o'z egasidan rozi bo'lavermaydi. Birovlar xuddi o'z farzandiday ketmonni asrab-avaylaydi. Toshga, temirga urib olishdan ehtiyot bo'ladi. Agar ketmonning tig'i biror qattiq narsaga tegib uchsa yoki jiddiy lat yesa, egasining ham yuragi og'riydi, vujudi azob chekadi. Axir ketmon mehnat qurolli-ku!

Berahm, beshafqat qo'llarga tushgan ketmonning holiga voy! U ketmon bo'lib yaralganiga ming-ming pushaymonlar yeydi, umri ozor bilan o'tadi, alami, dardi o'zi bilan ketadi. Bunday ketmon tezda safdan chiqadi, uning ketmonlik siyohi qolmaydi. Ketmon o'z-o'zidan qarib, holdan toyib, kasallikka yo'liqadi, adoyi tamom bo'ladi.

Bir kuni egasi ishdan qaytgach, odatdagiday, ketmonni hovli etagiga uloqtirdi. Uloqtirish jarayonida jahl bilan: «He, onangni...» – deb haqorat qildi. Ketmon onasi bor-yo'qligini bilmaydi. Lekin bu haqorat uning temir tanasini zirqiratib yubordi. Axir eng og'ir haqorat onani so'kish-ku! Qaysi kuni dalaga kelgan uch-to'rta yo'g'on kishi ham uning egasini boplab haqorat qildi. Biri qo'yib, biri nuqul onadan keldi. Bechora dehqon, sho'rlik dehqon tosh yutganday miq etmasdan, boshini ketmonday egib, mutelarcha yerga termilib turdi. Uning alamdan butun vujudi titrayotganligini ketmon dastasini tutgan qo'llarining titrayotganligidan sezish mumkin. Agar zamoni ko'tarsa, onangni degan bu haromxo'rlarning ketmon tillarini chopardi. Shunda hammayoqni chopilgan tillar bosib ketardi.

Hikoyamizga qaytaylik. Ketmon ketmonligini unutmastan oldin e'zozlangan paytlari ham bo'lgan.

Uning egasi – ancha bama'ni odam. Daladan qaytgach, ketmonni hovli etagidagi ariqda erinmay tozalab, qavarib ketgan kaftlari bilan ishqalab yuvadi. Kaftlarining qavargan joylari ketmonning qitig'ini keltiradi. Bunday iltifotdan ketmon hijolat bo'ladi. Uning qo'llari qavarib-qavarib, barmoqlari yorilib-yorilib ketganidan uyaladi. Ba'zan yuvib bo'lgach, ketmon dastasini olma shoxiga qistiradi,

ba'zan ayvonning burchagiga egib qo'yadi. Gohida yuvib bo'lib, hovli o'rtasidagi tomorqada qoldirib ketadi. Shunda ketmon rosa yayrab hordiq oladi. Ayniqsa, to'lin oy ketmon yuzida paydo bo'lsa quvonadi, oy bilan sirlashgisi keladi. Lekin uning yuzida oy bilan sirlashadigan na harorat, na iliqlik bor. Dardlashay desa, dardi oyga yetib bormaydi. Oyning ham dardi ko'p, hasrati mo'l bo'lsa kerakki, ketmonga yetib kelolmaydi.

Ketmon endi ketmon-da, yuziga oy aksi tushishi bilan mudraydi, mudrab tush ko'radi. Tushida ham mehnat, jon-jahdi bilan berilib yer chopadi. Ketmondan oldin dastasi terlaydi, dastadan oldin qo'llar, qo'llardan oldin barmoqlardan ter sizib chiqadi. Ba'zan manglaydan, yuzlardan oqayotgan sho'r, taxir ter ketmon yuziga ham tushadi. Ketmon tushida ham terdan tamshanadi, terdan tomog'i achishadi. Ming yildirki ketmondan ter hidi anqiydi. Ming yildirki ketmondan dala hidi, tuproq hidi keladi.

Bu yil ketmonning o'ttizinchi bahor dalaga chiqishi. O'ttiz yilki bajaradigan yumushlari aniq. Tinim bilmay yer chopadi, ariq qazadi, nihol o'tqazadi, tomorqani chopiq qiladi, loyxandaqni tekislaydi, loyga botib loy qoradi, zambilni o'sha loy bilan to'ldiradi. Ba'zan esa qo'shni go'rkov uni ijaraga olib turadi. Bunday paytda u ma'yus tortadi, to'yib-to'yib yig'lagisi keladi-yu, lekin yosh oqadigan ko'zlari yo'q... Oyog'i yo'qki, qochsa; qo'li yo'qki, talab qilsa; tili yo'qki, dard-u hasratini aytsa... Bechora ketmonga bunday imkon berilmagan. Berilganda ham nuqul mehnatdan gapiraverib quloqlarni qomatga keltirardi. «Sharafli mehnatimiz...», «Shonli mehnatimiz...» deb tinkani quritardi. O'shanda ham ter to'kib, asl mehnat qiladigan ketmon miq etmasdan ishlayverardi. Nuqul minbarga intiladigan mahmadona ketmonlardan xudo asrasin...

\* \* \*

Ketmon qachon, qaysi ustaxonada toblanib tayyorlanganini bilmaydi. Ishlayverib xotirasi ham kesakka aylanib ketgan. Allaqachon eslash qobiliyatini yo'qotgan. Ketmon sho'rlikning bilgani – dala bilan hovli. Egasi ham qiziq odam: bir gal uni e'zozlab yelkasiga tashlab yuradi, boshqa safar eshakka minib, dastasini taqimiga bosib oladi. Ba'zan daladan qaytishda eshakka ortilgan o'tning orasiga qo'yib bog'laydi. Shunda ketmon ancha ozor chekadi. Bularga chidasa bo'ladi. Lekin ba'zan tinib-tinchimagur egasi tunda tomorqasiga suv qo'yadi. Shunda ketmonga rosa alam qiladi-da! Kuni bilan yer chopgani yetmagandek, yarim kechgacha dahana bog'lab, dahana ochadi. Kechasi ketmonning oromi buziladi, xayoli tarqaydi, halovati yo'qoladi. Oy bilan sirlasholmaydi. Ba'zan oy undan oldin uxlab qoladi...

Shu zayil ketmon eskirib, zanglab adoyi tamom bo'lib borardi. Uni yasagan temirchi ustasini bilmasa ham, bozorda bo'lgan savdoni oz-moz eslaydi. Yaxshi ishlangani, yuzlari keng-mo'l, ancha yengil bo'lgani uchun ham tez sotilgan edi. Egasi uni xurjunga solib olib kelgan. So'ng toldan qilingan dastani teshigidan, ya'ni zo'rg'atadan zo'r berib o'tkazganini biladi. Hatto dastani yorib kichik pona

---

ham urgandi. Dasta g'irvon bilan jiplashib ketdi. So'ngra bir kecha suvga solib qo'ygandi. Dasta o'zidan o'zi shishib, zo'g'ataga chippa yopishdi. Shu yopish-guncha qimir etmaydi.

Tong-saharda dalaga chiqib ketgani, dalaga muhabbat qo'ygani... Shu-shu dala bilan bog'lanib, yer bilan oshno tutindi. U bir safar ilg'or ketmonlarning umumiy yig'ilishida minbarga chiqmoqchi bo'lib rosa harakat qildi. Lekin uni majlisxonaga yaqin ham yo'latishmadi. Eshikdayoq siltab-siltab irg'itib yuborish-di. O'shanda dastasi qarsillab yerga tegib, biroz darz ketgandi. Shu-shu qaytib majlisga bormaydigan bo'ldi. Keyinchalik gilos daraxtidan qilingan dasta o'rnatishdi. Zanglamasligi uchun tez-tez ot yog'i surishardi. Keyinchalik otlar ozib ke-tib, yog' bermay qo'ydi. Ketmondan har urganda duvillab zang to'kiladigan bo'lib qoldi. Zang uni kemirib borardi...

Hademay xandaq yoki axlat o'raga tashlab yuboriladigan ketmonning bir armoni bor: ketmonlar qachon o'z mehnatining huzurini ko'radi, qachon rahat qiladi?..

... Ketmon yaroqsiz holga kelib qolgach, uni temir-tersakka topshirib yubo-rishdan oldin egasi yangi ketmon xarid qildi. Lekin yangi ketmon eskisiga parvo ham qilmadi, qayrilib qaramadi ham.

Yap-yangi ketmon dalaga talpinadi, tezroq yer bilan diydorlashgisi, diydorla-shib muhabbat izhor qilgisi keladi. Yangi ketmon ham oy bilan sirlashishga tash-na. Oyning oyday aksi uning yuziga tushishini istaydi. Yer bilan boshlanadigan o'tli ishq oldidan ketmonga pirlari hazrat Dovud alayhissalom madad bersinlar. O'tgan barcha katta-kichik ketmonlarning dami qo'llasin.



# O'ktam Mirzayor

(1956-yilda tug'ilgan)



O'ktam Mirzayor 1956-yil 2-yanvarda Samarqand viloyati Narpay tumanida tug'ilgan. O'zMUning jurnalistika fakultetini bitirgan (1982). «Ogoh ko'ngil» (1992), «Yaxshi kunlar quvonchi» (1998) she'riy, «Tuproq hidi (2012), «Amakimning kasali» (2015) nasriy to'plamlar muallifi.

## TUPROQ HIDI

– Istam, ho Istam, – degan ovoz eshitildi.

Qornini yerga berib kitob o'qiyotgan Istam «Obbo, yana kim keldi», degandek, boshini bir zum ko'tarib, ovoz kelgan tomonga quloq solib turdi.

– Istamboyl!

Otasining xirillagan ovozi. Dik etib o'rnidan turdi. Qo'lidagi kitobini o'n-giri sal osilgan eshik yonidagi eski g'aladon ustida turgan «Rekord» televizorining yoniga qo'yib, tashqariga chiqdi. Ammo xayoli hali kitobdan uzilmagandi. Istam darvozaxonaning yonidagi o'rik ostida nogironlik aravasida bir burda bo'lib o'tirgan otasining yoniga keldi. Ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lib, qiltillab turgan bo'yniga osildi. Yuziga yuzini ishqab, erkalandi.

– Otajon, isingizga bir to'yay...

– Nari tur-e, po'rim! Is qoptimi, – dedi otasi xirillab, so'ng tomog'iga bir narsa tiqilgandek qiynalib yutindi. Uzun barmoqlarini bir-biriga kiyishtirib, chuqur xo'rsindi.

Istam otasining shu og'ir xo'rsinishidan «kunlarim sanoqli bo'lib qoldi», degan ma'noni angladi. Onasining vafotidan keyin otasining birdan munkillab cho'kishi Istamni tashvishga sola boshlagandi. Ukalari: «Ishingizdan qolmang, otamga o'zimiz qaraymiz», – deyishsa ham, g'animat dunyoda ota mehriga to'yib

qolay, keyin o'qirman deb, o'z hisobidan muddatsiz ta'til olib, otasining oldiga ko'ch-ko'ronini orqalab keldi. Kimdir: «Yaxshi qilibdi», – desa, yana kimdir: «Shuncha yil o'qib, go'r ham bo'lmabdi-da, mana, qaytib kelib otasining kulbasiga tiqilyapti», – dedi.

Istam miq etmadi. Po'rim kiyimlarini kelgan kuniyoq yig'ishtirib, g'ilofiga tiqdi, o'zini astoydil otasining xizmatiga shayladi. Choy desa, choy, non desa, nonni muhayyo qildi. Oyog'ini yuvdi, tirmog'ini oldi. Soch-soqolini tarashladi. Nima qilsa ham, otamning ko'nglini olay dedi. O'tgan yili onasi to'satdan vafot etganida yuragini armon o'rtab yuborgandi. Eslasa onayizorini biron marta yumshoq ko'rpachalarga o'tqazib, bir piyola choy uzatmagan ekan. Shu sabab akasi-yu ukalari, opasi-yu singlisiga: «Ishlaringdan qolmanglar, uy-uylaringga jo'nanglar, endi navbat meniki», – deb otaning xizmatiga qattiq bel bog'lab turgan joyi edi.

– Otajon, hammomga o'tin qalaganman, cho'miltirib qo'yaymi?

– O'tgan kuni cho'mildik-ku, bolam! Ey, ey, anavi Qosimboy? – dedi chol asfalt yo'lga xavotirli ishora qilib. Istam ko'chadan velosipedini g'izillatib o'tib ketgan odamni orqadan tanimadi. Lekin uning g'alati harakatlarini ajablanib kuzatib qoldi. Yoshi oltmishni qoralasa-da, qiligi bolalarnikiday bu echkisoqol chol boshida eski qalpoq, oyog'ida yirtiq kalish, rangi oftobda unniqib ketgan keng, uzun ko'k ko'y-lak-ishtonini shamolda hilpiratgancha velosipedini haydab borardi. Nafas bobo:

– Qosim, o'zimizning Qosimboy. Biror kori hol bo'ldi-yov, tajangligi tutib qopti, – dedi chol biroz ma'yuslanib.

– Ota, menda nima ishingiz bor edi?

– Kel, o'tir bolam, kursichani bundayroq sur, – dedi ota yoniga bir dam kelib, chaqchaqlashib o'tadigan hamqishloqlari uchun aravacha qarshisiga qo'ydirgan kursichaga imo qilib, – yegan-ichganing o'zingniki, ko'rgan-boqqaningdan gapir.

– Kitob o'qiyotuvdim, yaxshi yozuvchi akamiz bor. «Pakananing oshiq ko'ngli» degan kitob yozibdi. Endi boshlovdim...

– O'zing qachon yozasan? – dedi otasi dabdurustdan.

Gap ohangidan Istam shuni aniq bildiki, otasi uning yozuvchi bo'lishini juda-juda istagan. Ammo Xudoyim iste'dod bermagan bo'lsa, nima qilsin...

– Ey, ey, jinni bo'lganmi, anaviga qara, qara! – dedi bir payt Nafas buva cho'pday qurib qolgan uzun barmoqlarini yana asfalt tomon cho'zib. – Qaytar, qaytar badbaxtni! Hozir bir baloni boshlaydi. Yana kampiri bilan janjallashganmi, deyman-da...

Qosim amaki uzun ishton-ko'ylagini shalviratib, hovliqqanicha velosipedini zuvillatib o'tib ketdi. Istam to'xtatishga ulgurmadi. Yo'lga chiqib, ortidan kuzatib qoldi, xolos.

– Shokirlarnikiga burildi, ota.

Nafas buva birdan so'lishdi, so'ng: «Yana kimdir qaytish qilibdi-da», – dedi qadoq qo'llarini juftlab, yuziga fотиha tortarkan.

Istam otasining nafasi ichiga tushib ketganini aniq sezdi. Nima ham qilsin bechora. Yoshi to'qsonni qoraladi, qishloqda biron-bir tengdoshi qolmadi. Har safar kimdir qazo qilsa, shu ahvol. Soatlab bir nuqtaga tikilib o'tiradi.

– Biz tomonga kelyapti, – dedi Istam ko‘chadan ko‘z uzmay.

– A?! – dedi ota.

Istam yo‘lga chiqib, qo‘li bilan «to‘xtang» degandek ishora qildi. Qosim amaki ko‘prik yoniga kelib to‘xtadi. Tashvishli nigohi buvaga tushib, xo‘rligi kelgan boladek o‘pkasi to‘lib, obi diyda qildi:

– Nafas buva, endi nima qilaman?

– Ha, ha, Qosimboy, tinchlikmi? Nima g‘alva?

– Toshturdi tog‘aning xotini bandalikni bajo keltirdi. Nasim Karmanaga ketgan. Padarla’nati Shokir o‘lguday mast. Endi nima qilaman, buva? Go‘rkov yo‘q.

– Boshqa birovni yoningga ol, bo‘lmasa.

– Hech kim yo‘q-da, hozir kimam go‘rkovlik qilardi, bir o‘zim eplay olmayman, – dedi Qosim amaki tajangligi tutib. – Mayit mahtal bo‘lib qoladi. Ey, Xudoyim-ey, bu qishloqning erkagi o‘lgan, qirilgan.

– Menga qara, Qosimboy, – dedi Nafas buva xotirjam, – kap-katta odamsan, o‘zingni bos. Iloji topilar, ana, Istamni yoningga ol bo‘lmasa, bir amalla, uka. Katta bir qishloqda go‘rkov topilmasa, uyat-a!

– Yo‘q-da, yo‘q... Yoshlar bo‘yin bermaydi, bundayrog‘i o‘ziga ep ko‘rmaydi. Ikki-uchta alkashga kunimiz qolgan...

Biroz sukutdan so‘ng:

– Ukam qarashib tursa, bir amallardim, – dedi sal o‘zini bosib.

Istam turgan joyida taxtaday qotib qoldi. Bir ahvolda:

– Ota-a, – deyoldi, xolos.

– Qishloqchilik bolam, bora qol, savob bo‘ladi, – dedi Nafas buva sovuqqina, «gap tamom» degandek, yana panjalarini bir-biriga kiyishtirib, yutindi.

Istam otasining gap ohangidan «Yozuvchi bo‘la olmaganingdan keyin go‘rkov bo‘lasan-da» degan istehzoni aniq uqdi. Qaydam, ota bechora shu ko‘ngilda gapirmagandir. Ammo Istamning xayolidan naq shunday fikr o‘tdi.

\* \* \*

Qosim amakining tajangligi rost ekan. U bilan o‘rflashib bo‘lmasligi ko‘rinib turibdi. Istam yo‘l-yo‘lakay bir-ikki og‘iz gapirib, pand yedi. Gapni qisqa qilish kerak. Iloji bo‘lsa, indamagani ma‘qul.

Tajang o‘ziga o‘zi g‘o‘ldirab, velosipedini biltanglatib, qabriston tomonga burildi. Istamning inon-ixtiyori unda. Qabristonga yetgunicha achigan ter hidiga bir amallab toqat qilib bordi.

Amaki qabristonning temir darvozasini ochgach:

– Assalomu alaykum, mayitlar! Oxirat yaqin, oxirat yaqin, oxirat yaqin, – dedi salmoqlab. Avval ham bu yerga kelib ketgan chog‘i, darvozaning orqasiga yotqizib qo‘yilgan sopi kalta belkurak, ketmon va teshani qo‘liga olib, lahad qazish uchun joy izlay boshladi, u yer-bu yerga ketmon urib ko‘rardi.

Sherigining ovozidan hali-beri o‘ziga kela olmagan Istam «po‘killab» turgan yuragini hovuchlab, mung‘ayib yotgan qabrlarni oralab, unga ergashdi. Bu yerda bemalol yurib bo‘lmas ekan. Oyoq ostidagi har bir do‘nglikning tagida

qaysidir hamqishlog'ining loshi yotganini xayolan tasavvur qilgan Istam nihoyatda ehtiyotkorlik bilan qabr oralab, bazo'r o'ziga yo'l topib yurdi. Oxirgi marta bu yerga onasi olamdan o'tganda aka-ukalari bilan kelgandi.

Qosim amaki joy topgunicha Istam onasining qabriga borib, tilovat qilib qaytdi. Tajang ungacha joy topib, eni-bo'yi bir quloch keladigan yerni xashak, o't-o'landan tozalab qo'ygan ekan. Istamni «bu yoqqa kel» degandek imladi va yulingan xashaklar ustiga o'tirib, pichirlab oyat o'qidi. So'ng birgalashib ishga tushib ketdilar.

– G'ayrat qil, ukajon, tuprog'ini bu yoqqa tashlaysan, – deb o'ng tomonni ko'rsatdi va o'zi gursillatib chuqur qaziy boshladi Qosim amaki.

Ikkalasi galma-gal, miq etmay, terlab-pishib ishladilar. Hash-pash deguncha to'rt burchakli chuqur hosil bo'ldi. Istam oxirgi hovuch tuproqni tashqariga chiqar-ganida peshonasidan reza-reza ter oqar, ust-boshi namiqib ketgandi. Tuproqning xushbo'y hidi biram yoqimli ediki, agar bu yer qabriston bo'lmaganida Istam uzoq vaqt bu bo'yni to'yib hidlashga tayyor edi. Ammo chuqurdan chiqiboq, kayfiyati buzildi. Atrofdagi qabrlarga ko'zi tushishi bilan, eti seskandi. Endi Qosim amaki chuqurga tushib, pastki chap burchakning qoq o'rtasidan tuynuk ochdi. Tuynuk bora-bora ichkariga qarab kengaya boshladi. Hademay go'rkov ko'rinmay qoldi. Har zamon-har zamonda ichkaridan uning inqillab tesha chopayotgani eshitalardi, xolos. Chuqurlik lahaddan chiqqan tuproqqa to'ldi.

– Ukajon, – dedi amaki teshikdan tuproqqa belangan boshini yumronqoziqday chiqazib, – ha de, ha de, oz qoldi.

Istam chuqurga tushib, jon holatda tuproqni tashqariga ota boshladi. U qora terga botgan edi. Lahaddan bir maromda teshaning «to'q-to'qi» eshitaladi. Istam uning ovozi daraxt tanasidan qurt-qumursqalarni terayotgan qizilishtonning ovozigina o'xshatdi. Bir payt tepada kimdir:

– Biz ham sherik, – dedi cho'zib.

Istamning yuragi «shig'» etib ketdi. Cho'chib qaradi. Ukasi Rustam ekan.

– Savobga bizni ham sherik qilinglar, – dedi Rustam tizzalariga qo'l tirab, pastga engashgan ko'yi.

– Otam yubordilarmi? Eplayolmaydi degan-da, a?

– Urinib qolmasin dedilar. Qani, bu yoqqa chiqing, – dedi ukasi, akasini chuqurdan chiqazib olish uchun qo'l cho'zar ekan.

Istam «Shunday deyishlarini bilardim» degandek indamay ishida davom eta-verdi.

Rustam chuqurga tushib, akasini qistadi:

– Chiqing, o'zim oxiriga yetkazib qo'yaman, siz ust-boshingizni qoqib oling, odamlar ko'rsa, uyat bo'ladi, aka, chiqing!

– Hozir, – dedi Istam, so'ng lahadning ichiga qo'rqibgina bosh suqdi. Keng-kovul yerto'lada Qosim amaki tiz tushib, yon devorlarni tesha bilan taroshlardi.

– Qosim aka, yordamchi keldi, – dedi Istam.

– Baraka topsin, – dedi Qosim amaki pishillab. – Yana bir ha desak, tugallay-miz, pardozi qoldi.

Teshikning og'zi tor bo'lishiga qaramay, ichkarisi yarim oy shaklida, odam bo'yi uzunlikda kovak qilingandi. Qosim aka hovuchlab-hovuchlab tuproqni tashqariga chiqarib tashladi. Istam ukasi bilan o'rin almashdi. Rustam kalta dastali belkurak bilan uyulgan tuproqni peshma-pesh tepaga ota boshladi. Tuproqning rangi ikki xil edi. Chuqurdan chiqqan tuproq oddiy – qo'ng'irtop, lahadan chiqqani esa sap-sariq oltinday, buning ustiga, mayin edi. Bir payt Qosim aka lahadning ichiga uzala tushib, yotib oldi. Tepada yumshoqqina tuproqqa yastanib o'tirib olgan Istam «Bunisi nimasi?» degandek, ichkariga ajablanib qaradi. Amaki yotgan joyida lahadni ko'zdan kechirdi. U shu topda ajabtovur mehribon va muloyim bo'lib qolgandi. O'z ishidan mamnunligi yuz-ko'zidan bilinib turipti. Tajang yotgan joyida iljayib:

– Tuproqning hidiga qara, jonivor-ey, Xudo degan ayol ekan, – dedi chap qo'li bilan tuproqni uqalab, – soz chiqdi, hidi biram shirin!

Qosim amaki o'ziga o'zi gapirib, yana tirjaydi. Uning o'raday og'zida qolgan yakkam-dukkam tishlari ko'rinib ketdi.

– Qosim aka, bo'b qoldimi? Men nima qilay? – dedi Istam, «Menga ish qolmadi-ku» degandek.

Amaki, yotgan joyidan turib, tizzaladi. Tanasidan oqqan jiqqa ter bilan qorishib, loy bo'lgan bilagini qoqib, endi bilganingni qil degandek, Istamga orqasini o'girib oldi va lahadning u yer-bu yerini taroshlay boshladi. Rustam esa miq etmay, chuqurdagi tuproqni tepaga otardi.

Istam o'rnidan turib, ust-boshini qoqdi va onasining qabri tomon ketdi. U yerda ancha o'tirib qoldi. Mayitni olib kelishganida borib olomonga qo'shildi. Bir chekkada turib, boshqalar qatori dafn marosimini kuzatdi. Odam ko'p edi. «Qishloqda shuncha odam bor ekan-u, bitta go'rkov topilmasa-ya» degan fikr o'tdi dilidan. Qosim amaki esa dadillashib qolibdi. Go'r og'zida yumshoqqina tuproqqa cho'kkallab, odamlarga aql bo'lib o'tiribdi. Haligina vahima bosib, nima qilarini bilmay, shalvirab turgan odamdan asar ham qolmagandi. Hamma uning izmiga bo'yin eggan. Hassakashlar mayitni chaqqonlik bilan qo'lma-qo'l qilib lahadga uzatishdi. Tajang endi mayit egalariga gap uqdira boshladi:

– G'ishtni unday emas, bunday qala, eplayolmasang, chiq bu yoqqa.

– Qosimboy, o'zingiz qalang, nurab ketmasin.

– Nuramaydi, – u chuqurga tushib, butini kerib, lahadning teshigi og'ziga cho'nqaydi, – g'ishtni bunday qo'yadi. Ber bu yoqqa, – u bilag'onlik qilib, chaqqonlik bilan lahadning og'ziga g'isht qalay ketdi. – Sen uzatib tur....

Birpasda lahadning og'zi yopildi. Bundan bir-ikki soat burun ne mashaqqat bilan qazilgan go'r zum o'tmay to'ldi, hatto haligina tep-tekis bo'lib yotgan yerda bir uyum do'nglik paydo bo'ldi. Qabr boshida avval mayitning haqqiga duo qilindi. Odamlar tarqaldi. Qosim amaki ham asbob-uskunalari qo'ltiqlab, qabristondan chiqdi. U mamnun edi. Istam ukasi bilan hovliga qaytganida Nafas buvani kimdir o'rikning quyuq soyasiga ko'chirib qo'ygan ekan. Ota munkayib, pinakka ketibdi. Istam kafti bilan og'zini to'sib, ukasiga «sekinroq» degan ishorani qildi. O'zi esa ehtiyotkorlik bilan aravacha qarshisidagi kursichaga cho'kdi, boladay pishillab uxlayotgan otasiga tikildi. «Xudoga shukur!» – dedi huzurlanib.

# Jamila Ergasheva

(1956-yilda tug'ilgan)



**Jamila Ergasheva 1956-yil Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan (1979).**

**Ayni paytda «Ayol va zamon» gazetasida Bosh muharrir lavozimida mehnat qilmoqda. «Izhor» (1990), «Intiqom» (1993), «Tanazzul» (1996), «Ayol jodusi» (2003), «Zulfizar» (2011) kabi kitoblari chop etilgan.**

## BOYBICHCHA

Kenja o'g'il omadsizroq chiqdi. Besh yil Toshkentda yurib, diplom ololmay qaytdi. Uydagilar qancha surishtirmasin, sababini aytmadi, o'zi Toshkentga boshqa bormadi. Akalarining hammasi alohida uy-joy qilib, chiqib ketishgan edi. Gulnor kampir choli bilan borini bozor qilib, kenjasini uylantirib qo'ydi. Besh o'g'ilni uyli-joyli qilgan chol-u kampir nazarida bu to'y eng oxirgi tashvishlari edi. Hayotlarining qolgan qismi rohat-farog'at va toat-ibodat bilan o'tishini umid qilgan edilar, ammo...

Diplomsiz o'g'il durustroq ish topib, ro'zg'or xarajatlarini o'z zimmasiga olgunicha ikki farzandli bo'ldi. Bu orada chol o'tib ketdi. Gulnor kampir kelin oldida qo'li qisqa o'g'lining tili ham qisq bo'lmasligi uchun tashvish chekar edi: nafaqasini ro'zg'orga sarflar, hali u, hali bu tikib sotar, xullas, tinib-tinchimas edi. O'g'il ishga joylashganidan keyin ham birlari ikki bo'lmadi. Kelin: «Dadasi un tugadi», «Dadasi, yog' tugadi», – deganda, Gulnor kampirning yuragi zirqirab ketardi: «Qo'lida diplomi bo'lganida shuncha qiynalmasdi bolam».

Keyingi paytlarda kenja biroz tajangroq bo'lib qoldi. Besh bola, ona, xotin... Go'sht-yog' nari tursin, non yetkazish ham kundan kunga qiynlashib boryapti. Qoplab keltirsa ham, bolalari pillaqurtday birpasda yeb bitirishadi. Akalari ota

uyiga kelib, onasi bilan uch-to'rt og'iz gurung qilib ketishi g'ashini keltiradigan bo'lib qoldi.

– Boyvachcha o'g'illaringiz onasini ko'rgani ikki qo'lini burniga tiqib keladi. Ukam jo'jabirday jon, bolalaridan orttirib onamga nimayam olib beradi deb, bir kilogina olma ko'tarib kelisha olmaydi.

Gulnor kampir ko'pincha indamaydi. Bir hisobda kichik kelin haq edi. Ba'zan to'ng'ich o'g'li: «Bozordan qaytayotgan edim», – deb kiradi-yu, «Ona, ko'nglingiz ketganda yersiz», – deb qo'liga biron narsa tutqazmaydi.

Tunov kuni kampir Olimjonning uyiga borgan edi. Kelini hovlidagi supada bir tog'ora tovuq go'shtini tozalab o'tirgan ekan. Parrandachilik fermasi direktori jo'natgan, shekilli.

– Shuncha berarkansan, so'ymay ber. Xohlagan paytimiz ikkita-ikkitanidan so'yib-so'yib yeyvurardik. Endi buncha narsani nima qilaman? – javrandi kelin.

Qozonda yog' qiziyotgandi, kelin oshning zirvagini qovurib keldi. Tovuq go'shti rosa shirin ekan, chaynagan sayin mazasi chiqaveradi. Mazasi chiqqani sayin, Gulnor kampir ko'z oldiga nevaralari kelaveradi.

Dasturxon yig'ishtirilgach, kampir: «Uyga ketaman, o'g'ling olib borib qo'y-sin», – deb turib oldi. O'zicha kelin birorta tovuq o'rab berar deb umid qildimi? Mashinaga o'tirayotganida o'ng tomondagi chala bitgan oshxonaning ochiq eshigidan uyulib yotgan qovun-tarvuzlar, qat-qat taxlanib turgan yog'och qutilardagi uzumlarga ko'zi tushdi. Negadir alami keldi. Bir zamonlar kichkinasi bir narsa yeb, kattasi yutib turganini ko'rsa, yegulikni darhol bo'lishtirib berar edi. Endi esa... bir narsa desa: «Ishlasin, ona, ishlagan tishlaydi. Men uning bola-chaqasini boqaman deb, yelib-yugurib yurganim yo'q», – deb og'ziga uradi. Kampir: «Shu kamxarj holiga bola-chaqasiga qo'shib, meniyam boqib o'tiribdi» – desa, «Boqmasin. Biznikida yashang, o'zim boqaman», – deb bidirlaydi.

Ehtimol, to'ng'ichlari boqsa-boqishar, hammasining topgani o'ziga yetib-ortadi. Ammo odamzod bir umr bir joyda yashab, shu yerda o'rganib qolgan bo'lsa, ikkinchi bir joyga, hatto u bolasi uyi bo'lsa ham, o'rganishi juda qiyin. Bundan tashqari kampir shu kamxarj o'g'il va uning bolalariga boshqacha mehr qo'ygan...

Kelin: «O'g'lingiz kelsa, meni urishadi. Bir kecha yotib borardingiz-da!» – deb javrab qoldi.

– Onasini ko'rgisi kelsa, izlab borsin, – to'ng'illadi kampir.

Olimjon rostdan ham so'roqlab keldi.

– Ona, meni kutmay ketib qolibsiz?

– Meni nima qilasan, osh-nonning ofati bo'lsam. Tovuqlarni maza qilib yedilaringmi?

Olimjon xo-xolab kulib yubordi.

– Tovuqlarni Olapardan so'raysiz. Keliningiz it bog'log'liq deganmi, tovuqlarni supada ochiq qoldirib, sizni kuzatgani chiqqan. Ko'chadan qo'shni yangi olgan mebelimni ko'ring deb, uyiga yetaklab ketgan. Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi borligini yaxshi bilasiz. Bu yoqda bolalar televizorga yopishib yotgan,

hammaning qorni to‘q, it ochdan o‘lsinmi, bir amallab bo‘shalibdi-da, yeganini yeb, yemaganini tuproq bilan bitta qilibdi...

Kampir qovog‘i uyulib o‘yladi: «Qizg‘onganing qizil itga yem bo‘lsin!»

– Agar shu tovuqlarni mehnat qilib topganda edi, shunday ochiq-sochiq qoldirmas-di, – dedi keyin, qahrini oxirigacha yutib yubora olmay.

Kampir o‘zi ro‘zg‘orga qo‘shimcha bo‘lsin deb bir umr elning xizmatini qildi: kigiz bosdi, gilam to‘qidi, kiyim tikdi.

Bashang kiyinib, katta pul sarflab, arzimas yumushlarni kimlargadir qildiradigan kishilarga qarab: «Nasib etsa, men ham bolalarimni o‘qitaman», – deb niyat qilardi. To‘g‘ri, chol-kampir ba‘zilar kabi bolalari ortidan chopishmadi. Ular maktabda yaxshi o‘qishardi. So‘ng birin-ketin o‘z bilimlari bilan institutga joylashib olishdi. Ayrim tengqurlariga o‘xshab ijara uylarida yashashgani yo‘q, yotoqxonada kun kechirib, stipendiyaga qanoat qilishdi.

Shunday degan bilan er-u xotin ularni butunlay taqdir hukmiga tashlab qo‘yishmadi. Ikki-uch joyda ishlab, oylab yovg‘on ichgan vaqtlari ko‘p bo‘ldi. Har neki yetolmagan orzu-niyatlarini bolalarining diplomli va ishli bo‘ladigan kunlariga asrab qo‘yishardi. Ayniqsa, yoz oylari qiyin o‘tardi. Bir hovlidan uch qolip qazishardi-da, loy tepib, tandir qilib sotishardi.

Bir o‘g‘li iqlimi sovuq yurtlarda o‘qidi. Har doim sentyabrda pulning o‘rniga olma-anor olib ketardi. Aytishicha, u yoqqa borgach, bu narsalarni besh baravari-ga pullardi. Bir safar bog‘ qorovuli bo‘lib ishlaydigan qo‘shnilari: «Ikki qop olma bo‘lsa, o‘zim berib yuboraman. Kattalar qurultoyga ketishgan», – deb qoldi.

Gulnor kampir unda yosh va chayir edi. Kenjasini yetaklab bog‘ga bordi: «Bir qopni sen velosipedingga ortasan, bittasini men orqalayman». Baland-baland daraxtlarga chiqib olma terish oson bo‘lmadi. Ikkinchi qop to‘lay deb qolganda agronom kelib qoldi va o‘g‘lining yoqasidan tutib baqira ketdi:

– Hoy, muttaham! Nima qilyapsan?! Hozir melisa chaqirib, qamoqqa tiqtirib yuboraman, – tepada qaltirab o‘tirgan Gulnorga ko‘zi tushib, battar baqirdi. – Pastga tush, xudbin! Odamlar bolasini to‘g‘ri bo‘l desa, sen birgalikda o‘g‘irlik qilyapsan.

Gulnor qaltirab-qaltirab daraxtdan tushar chog‘ida shoxcha lozimini ilib yirtib yubordi.

– Opa, pulini to‘laymiz. O‘g‘lim Rossiyada o‘qiydi, shunga berib yuboraman degandim.

– Puling boshingdan qolsin, iflos! Sendaqalar dastidan xo‘jalik abgor!..

Gulnor har qancha yalinsa ham, agronom ayol xovrini bosmadi. Baqirgan-cha og‘ir qoplarni yugurdagiga ko‘tartirib jo‘nadi. Gulnor esa bo‘m-bo‘sh qo‘l, ko‘zlari to‘la yosh va rangi qumdek oqarib ketgan o‘g‘li bilan qoldi. Sal o‘tmay qo‘shni kelib uzr so‘radi:

– Xafa bo‘lmang, hamsoya, o‘zi sal...

Gulnor hech narsa demadi.

– Sizlar boraveringlar. Kechga yaqin o‘zim picha eltib beraman.



– Yo‘q!..

Haqiqatan, hozir Gulnor uchun hech nima kerak emasdi. Tezroq yolg‘iz qolish va o‘kirib-o‘kirib yig‘lab olishni istar edi.

Ular qorong‘i tushguncha bog‘da qolib ketishdi. Gulnor pochasi yirtiq holda qishloq oralab yurishdan uyaldi.

Albatta, bu kunlarni kenjasidan boshqa hech kim eslamaydi.

To‘ng‘ichlar osmondan o‘zlari shunday toparman-tutarman bo‘lib tushgan-day yurishadi. Kelinlar esa ularni mol-u dunyosi bilan yaratib qo‘ygandek muomala qilishadi. Ayniqsa, bosh kelin gaplariga chidab bo‘lmaydi: «Tushimda deng, tandir-tandir non pishirayotgan emishman. Darrov sadaqa chiqardim. Uch kundan so‘ng boshqarmaga ko‘tarilib ketdi. O‘g‘lingiz ham doim: «Sen bilasan, onasi», – deb minnatdor bo‘ladi». «Sendan emas, Allohdan minnatdor bo‘lsin», – deb, yuz yirtadigan odam kerak. Gulnor kampir esa indamaydi. Dilxiralik nimaga kerak?

Gulnor kampir oxiri ahd qildi: «O‘rgangan bovrurim», – deb shu kambag‘al o‘g‘linga jabr qilib yotmay, navbat bilan boshqa o‘g‘illarnikida ham turayin. Ularni ham oq sut berib boqqanman, o‘qitganman, uylantirganman!..

Ertalab to‘ng‘ich o‘g‘liga qo‘ng‘iroq qildi:

– Bolam, menga mashina yubor. Zerikdim.

– Yest, onajon!

Kelin qaynona ortidan kirgan latta tugunni ko‘rib hayron bo‘ldi. Tili uchginasida qirg‘oqqa chiqib qolgan baliqday pitirlab turgan savolni bijildoq kichik qizi berib qo‘ya qoldi:

– Momo, bu nima? Biznikiga ko‘chib keldingizmi?

– Ha, bolam.

– Ur-r-ey! Endi biznikida yashaysizmi?

– Ha, shunday.

Qaynonasini ko‘rib: «Endi butun kunim qosh-qovoqqa qarash bilan o‘tarkan-da», – deb ensasi qotib o‘tirgan kelinning bu gapdan so‘ng tamom mazasi qochdi.

– Bor, bir ro‘mol olib kel, boshim yeb boryapti, – darhol ro‘molni peshonasiga tang‘ib oldi. – Voy, boshim!

Onasi buyrug‘i bilan bolalar dasturxon tuzashdi.

O‘g‘il esa ko‘rpachada yonboshlab, qo‘yniga kirgan qizchasini erkaladi. Buni ko‘rib, xotini qahrlandi:

– Hey, menga qarang, ish kiyim bilan cho‘zilib olmang, turing, ishingizga boring.

O‘g‘il xotiniga hech narsa demay, qizini erkalay-erkalay qo‘zg‘aldi. Kampir hayfi kelib o‘y surdi: «Ay-y, odamzod-a! Buncha tor bo‘lmasang. Shu kampir tug‘ilib o‘stirgan o‘g‘ilning soyasida boybichcha bo‘lib yuribsan. Necha yilda onasi tugun ko‘tarib kelsa, birdan isitmalab qolasan».

Kelin bosh og‘rig‘i bir hafta tinmadi. Maqtanishdan jag‘i tinmasdi, kamgap bo‘lib qoldi va, nihoyat, yorildi:

– Uyda biron gap bo‘ldimi?

– Yo‘q! Ularning qo‘li yupqaroq, boshi ko‘p, bu o‘g‘illarda ham haqim bor, bir kenjanikiga yopishib yotavermay devdim-da.

– Kenjada bir siz emas, hammamizning haqimiz bor. U yashayotgan uyga biz ham sherikmiz, – necha kundan beri ichida buruqsab yotgan o‘t, nihoyat, og‘zidan chiqib ketdi.

Kampir nadomat bilan bosh chayqadi:

– U uyga biroving bir g‘isht qo‘yganing yo‘q. U uyni cholim bilan men qurganman. Uyimni kimga berishni o‘zim hal qilaman.

Shu bilan qaynona-kelin o‘rtasida bo‘lib turgan uzuq-yuluq so‘zlashuvlar butunlay barham topdi.

Ertasi kuni kechqurun o‘g‘liga dedi:

– Meni ukangnikiga olib borib qo‘y!

– Sodiqnikigami?

Kampir achchig‘i kelib g‘udrandi:

– Olimnikiga.

O‘g‘il ham, kelin ham jilla qursa ko‘ngil uchun «Nega? Biznikida turaversangiz bo‘ladi-ku» demadi, deyolmadi.

Kampir Olimjon uyida bir oy yashadi. Er-u xotin kun bo‘yi ishda, kampir esa nevaralarini qo‘ridi. Avvaliga er-u xotin rosa xursand bo‘ldi: «Endi bog‘cha ham, eshik-darvozaga qulf ham kerak emas». Ammo keyin-keyin o‘g‘li ba‘zan jerkib tashlaydigan odat chiqardi. Oxiri kampir ko‘nglidagini aytib soldi:

– Ha, o‘g‘ilboy, to‘shagim sasidimi deyman? Ovozining baland-baland chiqyapti. Agar shunday bo‘lsa, ayt, ketaveray!..

Olimjon ko‘nglidagi ayon bo‘lib qolganday xijolat tortib kuldi:

– Sizga birov ketding deyaptimi? Onam deb ba‘zan-ba‘zan erkalik qilsak, aybmi?

Bir oy deganda uchinchi o‘g‘il kelib, olib ketdi. Kampir o‘zicha «O‘g‘lim meni sog‘inibdi-da» deb o‘yladi. Olimjon qo‘ng‘iroq qilib: «Momoyini olib ket, biznikida zerikib qoldi», – deganini, Odil: «Xo‘p aka, biznikida ham uch-to‘rt kun tursin», – desa, «Senikida ham bir oy turadi, mana, men bir oy qarab berdim», – deganini keyinroq kelinidan eshitdi.

– Bo‘lmasa, men boray. O‘g‘lim uch-to‘rt kun tursin degan bo‘lsa, kelganimga haftadan oshib ketdi, – dedi kampir astoydil taraddudlanib.

– Qo‘ying-e, – dedi kelin yolg‘ondakam xijolat tortib. – Siz kelib uyimiz to‘lib qoldi. Qaynog‘alarim ham hech kelishmas edi, sizning bahonangizda...

Ammo kunlar o‘tgan sayin kampir sababli qora beradigan mehmonlarga zo‘r-bazo‘r dasturxon yozilib, til uchi mulozamat ko‘rsatiladigan bo‘lib qoldi. Bir kun kampirni ko‘rgani kenjasi qadam ranjida qildi. Ishdan horib qaytayotir, shekilli, rangi o‘chib, lablari qotibroq turardi. Kelin ichkarida dam olayotganini bilsa ham, chaqirtirdi. Kelin yuzini ham yuvmay ming malol bilan turib kelib, qaynisi bilan shunchaki so‘rashdi-da, kampirga xo‘mrayib qaradi.

– Ha, nima deysiz?

– Choy-poy qil.

Kelin indamay xonadan chiqib ketdi. Anchadan keyin dasturxon yozildi, arzon-garov qand-qurslar qo'yildi. Ikki piyola bilan bir choynak choy paydo bo'ldi.

– Ovqat yo'qmi? – so'radi kampir og'rinib.

– Qolmagan, – kelinning qoshi chimirildi.

– Ovqat nima kerak, – dedi Sodiq xijolat tortib.

Yolg'on gapni mehmon ham sezgan edi. Boya kampir oshxonaga kirib, ochiq qolgan qozon og'zini yopmoqchi bo'lganda tagida ovqat borligini o'z ko'zi bilan ko'rgan edi. «Hali katta o'g'li maktabdan qaytgani yo'q. Ovqatni shunga olib qo'ygan. Bergisi kelmasa, muzlatkich to'la tuxum, qovurib qo'ysa, dunyosi tugab qolmaydi-ku».

Kampir og'ir xo'rsindi.

– Onajon, uyga yuring, – dedi Sodiq javdirab. – Bolalar juda sog'inishgan.

– Xo'p, bolam, – kampir ko'zlarini yumgan ko'yi bosh irg'adi.

– Taraddudingizni ko'ring, hozir olib ketay!

– Sen boraver, bolam, akang kelsin, mashinasi bilan eltib qo'yadi.

Kechqurun Odilbek oldida ona o'zini tutib tura olmadi:

– O'g'lim, bu yerda ham izzatimiz bitdi, shekilli.

– Tinchlikmi?

– Bugun ukang kelgan edi, xotining ikkita tuxumga arzimadi!..

– Siz aytdingiz-u, qovurib bermadimi?

– E-e! Aytishim shartmi? Ko'rib turibdi-ku, ishdan ochqab kelayapti.

Odilbek jahli chiqib sayradi:

– E-e, ona, shuningizni to'q kuni bormi? Sizning ko'nglingizni deb hamisha qarashib kelaman. Lekin to'ymaydi, doim och. Bir umr shuning g'amini yedingiz, nafaqangizni shunga berasiz, uyida yashab, cho'riligini qilasiz. Endi, hech bo'lmasa, menikida yashayotganda shuni o'ylamang. Lapashangligi uchun biz aybdormi? Hadeb xafa bo'lasiz? Yana nima qilay? Uyimning to'ridan joy berib qo'yibman, yeb-ichib o'tiribsiz.

– Uyingning to'ri o'zingga nasib qilsin, bolam, – kampirning rangi oqarib ketdi. – Mayli, hozir ishdan charchab qaytgansan chog'i, lekin ertaga ertalab ola ketasan.

– E-e, ona!..

Kampir shu oqshom tuguvli turgan tugunini qayta tugdi. Samandarnikiga boshni istamadi. Bir ota-ona o'n o'g'ilni boqadi, o'n o'g'il bir ota-onani boqolmaydi deganlari shumikin? Esiz, besh o'g'il tuqqan, besh o'g'ilni o'qitgan boybichcha-ya, «Ko'nglingizda nima gap bor?» degan mehrga yo'g'rilgan savolni eshitmaganiga necha-necha yillar bo'lib ketdi-ya. Esiz, Alloh undan bir qiz farzandni ayagan ekan-a. O'g'illar ham o'z kuniga o'lmasin, qiz ich kuylak bo'lardi-da. Ay, dunyo-ya!..

Kenja o'g'il uyda ekan. Odilbek mashinasi darvozaga ro'para bo'lishi bilan yugurib peshvoz chiqdi. O'zicha xijolat chekib, bir qo'li bilan onasining tirsagidan oldi, biri bilan tugunini ko'tardi. Qadrdon, sarishta xonaga kirgach, kechadan buyon kampirning yuragini siqimlab turgan narsa g'oyib bo'ldi va yumshoq kavot sari yurdi.

– Kechirasan bolam, biroz cho'zilay.

– Mayli, bemalol.

– Ay, bolam-a! – Kampir ko'zlarini yumib oldi, shu yotishida o'ylayaptimi, uxayaptimi – anglash qiyin edi. Anchadan so'ng horg'in pichirladi. – Mayli, shunisigayam shukur.

Kampir boshqa gapirmadi. Kechki ovqatga ham turmadi.

Sodiq akalariga bir-bir qo'ng'iroq qildi.

– Onamizning tobi yo'q, hech narsa yemayaptilar!

– Kecha Odilnikida soppa-sog' o'tirgan edi-ku.

– Odilning xotini bir narsa degandir-da.


Har qaysisi har narsani ro'kach qildi. Biri ishdan charchab kelgan, birining mehmoni bor, yana biri choyxonaga chiqishi kerak ekan... Hammasi ertaga ertalab ishga ketishda biryo'la xabarlashib o'tishini aytdi.

Tongga yaqin kampir uzildi. Dunyo birdan huvullab qolganday bo'ldi. Avval oqshom bir og'iz gap bilan yetib kelgan yolg'iz singil faryodi olamni tutdi:

*Besh o'g'illi boybichcham,  
Suyunganim opam-ov,  
Topolmayin bir dardkash,  
Kuyunganim opam-ov.*

*Shunday kunda yuragim  
Tilindi-ku, opam-ov,  
Bir qizingning yo'qligi,  
Bilindi-ku, opam-ov...*

Saldan keyin boybichcha yotgan xonada besh o'g'il baravar: «Onam-ey!...» – deya uv torta boshladi...



# Nabijon Boqiy

(1956-yilda tug'ilgan)



Nabijon Boqiy 1956-yil 7-noyabrda Farg'ona viloyati Bog'dod tumanidagi Chuvanchi qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1984). «Bir muhabbat qissasi» (1990), «Qatlnoma» (1992), «Gulzamira» (1994), «Chingiz afandiga maktublar» (2004), «Anvar poshoning vasiyati» (Istanbul, 2006) kabi qissalari chop etilgan.

R. L. Stivenсонning «Merosxo'r», «Katriona» romanlarini (1990) hamda Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonov yozgan «Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori» (1998, Y. Xo'jamberdiyev bilan hamkorlikda) kitobini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

«Shubrat» medali bilan taqdirlangan (1995).

## HISORAK

Biz Hisorakda yashaymiz.

Mening taxallusim – Baqqi Chol. Bilaman, orqavarotdan odamlar «Laqqi Chol» deydi. X. s. Indamayman, o'zimni bilmaslikka solib yuraman. Arqonni uzun tashlab qo'yganman, vaqti-soati yetganda tanobini tortaman. Mayli, g'animlarim chuchvarani xom sanab yuraversin. Menga ham marhum ustoz Tog'ay Murod yo'lini berib, ishlarim yurishib ketsa: «G'animlarim bir kuydi, bir kuydi-e!» deb do'ppimni osmonga otib rosa o'ynayman, xumorimdan chiqaman. Yag'iri chiqqan bitta do'ppim bor. Uni ko'cha-ko'yga kiyib chiqib bo'lmaydi. Chunki «do'st boshga qaraydi» degan gap bor. Hozirgi zamonda «do'st» qanaqa bo'lishini o'zingiz ko'rib turibsiz: ishonch qozonib pinjingizga kirib oladi-yu, manfaatlar to'qnashgan zahoti nishtarini sanchib yoki ko'zingizni shamg'alat qilib, piyolangizga zahar tomizib qochadi. Do'ppim borligini birov biladi, birov bilmaydi: u iste'foga chiqqan sandalimning chetida turadi, bemaza kitobni o'qiy boshlasam beixtiyor

hidlab-hidlab qo'yaman. Foyda beradi, mutolaani oxiriga yetkazaman. «Terlagan boshning yog'i yopishib, qasmoq bo'lgan do'ppini hidlashdek azob ham dunyoda bor-ku, uning oldida bemaza kitob nima bo'пти?!» deb o'zimga taskin beraman. Shunda bildim, taskin ham odamga kor qilar ekan. Do'ppining sirtini emas, as-tarini hidlash kerak. Dimog'ni yoradigan sassig'i ichida bo'ladi, ichidan chiqadi.

Mahalla nomini o'zimiz qo'ydik. Taklif Yovqur Bahodirdan chiqqan, bosh-qalarga ma'qul bo'lgan. Ayniqsa, Rahim Baqqol bu taklifni qizg'in qo'llab quv-vatladi; mahalla boshiga qo'ndirib olgan butkasi yonidan o'tgan odamni to'xtatib: «Mahallamizga bundan boshqa nom yarashmaydi, tarixiy ildizi ham chuqur ekan. Ishonasizmi-yo'g'mi, «Boburnoma»da Hisor haqida maxsus gap bor, hisorliklar Boburjonni norozi qiladi. Xususan, «Xisravshoh adno kishilarg'a qilg'on insoni-yatni bizga qilmadi... Shirim tag'oyi nomardroq kishi edi», degan. Raz, mahalla nomini Hisorak deb qo'ydikmi, buyog'iga ogoh bo'laylik; insoniyatni unutmay-lik, nomardlik qilmaylik. Do'st-dushman oldida yuzimiz yerga qaramasin, namu-nali mahalla bo'lishimiz kerak. Ijodkor ahli doim el-yurtning ko'z o'ngida turadi... Gugurt, tuz, sigaret, tualet qog'ozi, tish kavlagich uchun ham supermarketga yu-guraversa, «iye, falonchi hojatxonada qog'ozdan foydalanar ekan, tishini kavlar ekan?!» deb, odamlar gapni ko'paytiradi. Budkani bekorga qo'nqaytirib qo'yga-nim yo'q. Kelinglar, mayda-chuydalarni o'zimdanda xarid qilinglar. Shu bahonada o'zimga ham besh-to'rt so'm qoladi, ro'zg'orimni tebrataman. Lekin menda insof bor, duo olsam bas, duo pulga sotilmaydi. Shunaqa gaplar, og'ayni», deb diydiyo qiladi.

Rahim Baqqol chakana molini o'tkazish maqsadida kitob titkilaydi. Bosim bilimdonligini ko'zko'zlaydi, ijod ahlining ensasini qotiradi. Goh adabiyotshunos, goh tujjor qiyofasiga kirib hunar ko'rsatadi. «Jurnalda e'lon qilgan narsangizni o'qidim, hamsoya, ma'qul bo'ldi. Boplabsiz-u, otlarni aytmaysiz-da! Lekin kimlar nazarda tutilganini bildim», deb mug'ombirona jilmayishni yaxshi ko'radi. Go'yo olamshumul maxfiy sirni biladi-yu, aytmaydi. Aytisa, osmon uzilib yerga tushadi...

Hisorak degani, menimcha, tepalik ma'nosini anglatadi. Biroq, etimologiya-dan bexabar olimon Hisorakni «qo'rg'oncha» bo'lsa kerak deb tusmol qiladi. Biz-ning nazarimizda ham shunisi to'g'riga o'xshaydi. Ammo tepalikdan nom-nishon yo'q. Ehtimol, bir zamonlar do'nglik bo'lgan-u, vaqt shamoli uni yemirib yubor-gandir. Bu haqda hech kim tayinli bir narsa deya olmaydi. Bizga qolsa, kallani ishlatgandan ko'ra tusmol gaplarga ishongan ma'qul. Boshqa joylarda ham hi-sorak-qo'rg'oncha ko'p uchraydi. Lekin bunaqasi bo'lmasa kerak. Dastlab, Ra-him Baqqol nima uchun shu nomni qizg'in qo'llab-quvvatladi ekan deb hayron bo'ldik. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, mahallaga nom qo'yib, tegishli idorada ro'yxatdan o'tkazish muhim ekan. Shunday qilinsa, sonda bor mahalla sanoqqa ham kiradi; maishiy xizmat shahobchalari tashkil etiladi, hokimiyat tizimidan ul-bul undirib olinadi va hokazo. Mana, Rahim Baqqol bemalol savdo to'chkasini ochdi. Mayli, ochgani yaxshi. Lekin o'zini adabiyotga, ijod olamiga daxldor bilib,

she'riyatga soya solayotgani yomon bo'ldi. O'zicha tankami-manka degan yangi janr yaratibdi, ikki qator she'ri og'izga ham tushdi: «Yigit cho'ntagida bo'lsa ul-buli, Doim sayrab turar bulbuli». Qalay!

Hisorakda yanvar oyining o'rtalarida ham tizza bo'yi qor bor edi.

Bir shoir tanishim bizga devordarmiyon qo'shni bo'lgan Bo'rijar klinik-sanatoriyasida roppa-rosa o'n kun muolaja olishi lozim edi.

Bo'rijarning o'ziga xos «hasbi hol»i bor. Taxminan, 120–130 yil muqaddam ulug' knyazlardan Sofokl Turkistonga ixroj qilinadi. Bilasiz, Rusiyada har kim ham bundoq rutbai shohonaga noil bo'lavermasdi. Faqat zoti oliylari imperatorning aka-ukasi, amakivachchasi, erkak jinsidan bo'lgan farzandlari «u.k.» oldqo'shimchasi bilan sarafroz etilardi. Har bir u.k. toj-taxtga da'vogar bo'lishi mumkin edi. Biroq, valiahdni shaxsan imperator tayinlardi, u yakto bo'lardi, duta bo'lishi mumkin emasdi. Ikkita qo'chqorning boshi bitta qozonda (kotyolda) qaynamaydi. Ikkinchi Nikolay nogiron u. k. o'g'li – Alyoshani (olmon onasi uni «Aleks» derdi) taxt vorisi deb e'lon qiladi; voris nogiron bo'lsa ham o'zining pushti kamaridan bino bo'lgan, boshqa u. k.lardan jontomiriga yaqinroq dilbandi har holda xiyonat ko'chasiga kirmaydi, padarining betiga oyoq qo'ymaydi. Anavilari esa xotin urug'iga yon bosadi, ota urug'ini kamsitadi. Shundoq ekan, ularni «Qishki saroy»dan chetlashtirgan ma'qul. Bundan tashqari, u. k.ning qo'li egriroq ekan. Oldi olinmasa, gap-so'z ko'payadi, imperator xonadoniga dog' tushadi.

– Og'am, Sofoklboy, qoloq o'lkani yuksaltirib bergaysiz! – deb imperator ulug' knyazning elkasiga qoqib Toshkentga jo'natadi.

Podshohning amri vojib, ulug' knyaz Sofokl lom-mim demay uzoq muddatli komandirovkaga o'tlanadi. O'n sakkiz kun deganda Toshkentga yetib keladi, general-gubernator uni karnay-surnaylar bilan kutib oladi, xos xonaga joylashtiradi.

– Shahar tashqarisida dilkusho bog'-hovlim bo'lsa, umrimning qolgan qismini bilyard o'ynab o'tkazardim, – deb istak bildiradi u.k..

– O'-o', qandoq ajoyib, qandoq purma'no taklif! Bo'ldi, bajaramiz!

Geodeziya, geologiya, minerologiya, zilzilashunoslik mutaxassisleri guruh-guruh bo'lib to'rt tomonga tarqaladi. Bog'-hovli uchun munosib joy qidiriladi.

Yoz oylari edi. Ko'pni ko'rgan mahalliy mallavoylardan bittasi «tender»ni yutib oladi, akademiklar rahbarlik qilayotgan guruhlar dog'da qoladi. Gap shundaki, Donish Chol to'rt kosa sutni to'rt javonibga qo'yib, sut yoniga soqchi tayinlaydi, o'zi har kuni otda yurib posbonlardan xabar oladi. Kosalardagi sut birin-кетин achiydi. Bo'rijar yoqasiga qo'yilgan sut esa bir haftadan keyin ham sigirdan yangi sog'ilgandek ko'piklashib turaveradi.

– Bo'ri ahmoq emas, qayerda bolalashni biladi; Bo'rijar eng bahavo joy, bu yer tog'dan esadigan shamolning yo'lida ekan. Ulug' knyaz Bo'rijarda barpo etilgan bog'-hovlida istiqomat qilsa, minba'd afsuslanmaydi, – deydi Donish Chol.

Tilmochning gapini eshitgan ulug' knyaz yelkasidagi zarbof choponni Cholga yopadi:

– Yakshi, yakshi... babay gut, malades! – deydi. Yelkasiga qoqadi. – Turq-atvoring shoh Edirga o‘xshar ekan. Ishqilib, umring o‘xshamasin... Xo‘sh, babay, tila tilagingni, mendan nima istaysan? – deydi u. k.

– Otamdi oti Viktor boy, – deb yerga qaraydi Chol.

– Tuzuk. O‘zimizdan ekansan-ku! – deb u. k. Cholning yelkasiga qoqadi.

– O‘tgan yili qazo qildi...

– O‘-o‘, chatoq bo‘pti-ku!.. Meros masalasida ishkak chiqdimi?

– Meros xatlangan, vasiyatnomani notarius tasdiqlagan. Lekin boshqa gap bor.

– Qanaqa gap ekan?

– Qo‘qonda Muqimiy degan shoir o‘tgan.

– Xo‘sh-xo‘sh?

– Bir paytlari Qo‘qon boyonlari Muqimiyning yollab otam haqida hajviya yozdirishgan.

– Obbo, chatoq bo‘lgan ekan-ku!

– Shoir ham, otam ham olamdan o‘tib ketdi... Lekin... Ostroumov yaqinda Muqimiyning saylanmasini chop etadi.

– Baxayr. Shoirlarga, ayniqsa, marhum shoirlarga homiylik qilish kerak.

– Ha, to‘g‘ri.

– To‘g‘ri bo‘lsa, senga yana nima kerak?!

– Saylanmaga otam haqidagi hajviyalar ham kiritilibdi.

– Yaxshi. Muallif merosxo‘ri istasa, g‘ijimlab otib yuborilgan qoralamani ham chop etishi mumkin.

– Iltimosim, «Voqeari Viktor»dan ikki qatorinani tushurib qoldirilsa...

– Nima uchun?

– Mana, o‘zingiz eshiting: Olib baski yetti yarim paxtani, O‘n ikki yarimga itardi sani.

– Zo‘r-ku! Buning nimasi yomon?!

– Bu gap paxtachi boylarga og‘ir botadi.

– Og‘ir botadimi? – deb qayta so‘raydi u. k.

– Og‘ir botadi.

– Og‘ir botsa, o‘sha joyni opqo‘yish kerak. Ikki qatorini opqo‘ysa, osmon uzilib tushmas. Bo‘pti, Ostroumovga o‘zim aytib qo‘yaman.

– Minnatdorman, – deydi Chol jilmayib.

U. k. miyig‘ida kulibgina qo‘yadi. Bekorga miyig‘ida kulmagan ekan: Ostroumovga aytib, o‘sha ikki qator joyini yo‘g‘on-yo‘g‘on qora harflarda yozdirib chiqaradi.

Keyinchalik oshkor bo‘ldiki, ulug‘ knyazning ismi sharifi Kostya ekan, Sofokl esa uning laqabi – «klichka»si ekan. Chamasi, u. k. boshqalarga ham laqab qo‘yib, Bo‘rijarni laqabxonaga aylantirib yuboradi.

Bo‘rijarda hashar boshlanadi. Jarlik tekislanadi, bo‘rilar quvib yuboriladi, hademay pishgan g‘ishtdan boloxonali imorat tiklanadi. Bog‘-hovliga «Volchya



yama» deb nom beriladi. Ulugʻ knyaz bilyard oʻynab, koʻnglini xushlab yurgan kezlarda (u qishda ham yashash uchun tancha, oʻchoq qurdirib oladi) Peterburgda oq podshoh taxtdan agʻdariladi. U. k. bir kechada gʻoyib boʻladi. «Volchya yama» dastlab «Gurgi jar» deb qayta nomlanadi, soʻng bu nom «Gurgi surx» deb oʻzgartiriladi, peshtoqiga «Gurgi jarga xush omaded!» deb yozilgan alvon mato osib qoʻyiladi. Bir kuni bogʻ-hovliga galife shim kiygan, beldagi tasmasiga nagan taqib olgan qizil komissar tashrif buyuradi. Qoʻlini peshonasiga soyabon qilib lavhani hijjalab oʻqiydi; bir chetda qunishib turgan oq ishtonli bogʻbondan:

– Goʻrgi soʻrx nima degani? – deb soʻraydi.

– Qizil boʻri, – deydi bogʻbon.

– Ahmoq! – deb oyogʻining ostiga tuflyadi komissar. – Hech jahonda boʻri-ning ham qizili boʻlar ekanmi!.. Eski nomi nimaydi?

– Boʻrijar.

Komissar chakkasini qashlaydi, oʻylanadi, uzoq oʻylaydi va:

– Yoʻq, boʻlmaydi... Bizga gʻoyaviy jihatdan toʻgʻri kelmas ekan... Yaxshisi, Qiziljar boʻla qolsin, – deydi. – Oʻzing ham, boboy, qizil ishton kiyib olgin.

Shu nom yetmish yil davomida oʻzgartirildi. Qizillar saltanati barham topgach, bir kechada peshtoqda «Boʻrijar» degan lavha paydo boʻldi. Hozir eski bino omborxonada vazifasini bajaradi, yonida koʻp qavatli imorat qoʻr toʻkib turadi. Jarlikdan ham, boʻrilardan ham nom-nishon qolmagan, atrof koʻm-koʻk archazor, rasmona oʻrmon. Oʻrmon qoʻynida sihatgoh joylashgan.

Ajoyib kunlarning birida qorovulbegi Xon Xoʻja kaminaga: «Sendan iltimos, oshna, qoʻlingdan keladi, toʻrt-besh varaq intermediya yozib bergin. Mavzuni Boʻrijar direktori aytadi... Shifokorlarning koʻrik-tanlovi boʻladi, shekilli. Badiiy qismida tomosha koʻrsatiladi... Qulxoʻja mendan iltimos qildi, men sendan iltimos qilyapman. U kerakli odam, tanish-bilishlar muolaja olaman desa, beochered joy hozirlab beradi», deb qoldi. Zarur ishim yoʻq edi, rozi boʻldim. Ertasi kuni Qulxoʻja sim qoqib meni sihatgohga taklif etdi. Bordim. U mavzuni belgilab-chegaralab berdi. Gap orasida:

– Klinik-sanatoriya nomini «Labiob» deb oʻzgartirsak, nima deysiz? – deb soʻradi.

– Nima keragi bor?

– Boʻrijar degan nom mijozlarni choʻchitadi.

– Yanglishmasam, Chorjoʻyning nomi ham Labiob – Lebab deb oʻzgartirilgan, – deb qoshlarimni chimirdim.

Qulxoʻja baqrayib qoldi. Ogʻzi, tomogʻi quridi, qult-qult yutindi. Xiyla fursatdan soʻng:

– Masalaning siyosiy tomonini oʻylamabman... Bizga toʻgʻri kelmas ekan, – dedi past tovushda. – Aslida, Boʻrijar ham yomon nom emas...

– Boʻrilar oʻzi ov qiladigan hududni peshob toʻkib chegaralab oladi, derdi Shukur Xolmirezayev.

– Buni qarang-a! – dedi Qulxoʻja talmovsirab.

Shundan keyin bu mavzuga boshqa qaytilmadi.

Biz yana uch-to'rt marta uchrashdik: intermediyaning xomaki nusxalarini muhokama qildik, tuzatishlar kiritdik, oxiri ixchamgina «sahna asari» paydo bo'ldi. Men beixtiyor Bo'rijarda rahbar bilan xodimlarning munosabatini kuzatdim.

– Siz Qulxo'jami yoki Xo'jaqulmi? Xodimlaringiz goh unday deyapti, goh bunday. Pasportingizda qanday yozilgan? – deb so'radim.

– Biz asli oqsuyakmiz, xo'jalardan. Sho'ro zamonida dindorlarning kosasi oqarmasdi, yelkasiga oftob tegmasdi. Shu bois otam menga «Qulxo'ja» deb ism qo'ygan, «xo'ja»ni orqa planga olgan, oldingi planga «qul»ni chiqargan. Hartugul, «qul» proletariat sinfiga mansub. Xudoga shukr, mana, endi dinimizga ham yo'l ochilib qoldi, «xo'jalardanman» degan odamni hech kim ta'qib qilmaydi.

– «Xo'ja»ni oldingi planga chiqaribsiz-da!

– Shunday bo'ldi, shunday! Xa-xa-xa... – deb birdan qahqaha otib yubordi u.

– Pasportni ham o'zgartirdingizmi?

Qulxo'ja kulgidan to'xtab, qiyofasiga jiddiy tus berdi.

– Yo'q, o'zgartirmadim. Pasportni o'zgartirsam, doktorlik guvohnomasini ham o'zgartirishim kerak bo'ladi. Ortiqcha yugur-yugurning nima keragi bor. To'g'rimi?

– To'g'ri, – dedim miyig'imda kulib. – Agar dunyo teskari bo'p ketsa bormi...

– Xudo saqlasin!

\* \* \*

Musofir ukamiz G'iyosiddin Kichkina ko'pdan buyon yurak xastaligidan nolib yurar, Bo'rijarda bir kurs muolaja olsam otdek bo'lib ketardim, deb ovoz chiqarib xayol surardi. Avvalo, Qulxo'jaga intermediya yozib berishga rozilik bildirganimdayoq G'iyosiddinni o'ylagan edim. Boz ustiga, uyoqda Mirzo To'ra: «Aka, otamning shogirdlariga qanaqa yordam kerak bo'lsa, ayting, qarab turmaymiz», deb holi-jonimga qo'ymasdi. Intermediya poyoniga yetgach, darhol Gulistonga sim qoqdim: «Mirzajon, To'ra Sulaymonning ruhi shod bo'ladigan ko'rinadi, suyunchi bering!» dedim. Mirzo to'xtovsiz Toshkentga yetib keldi, sihatgohdan shartnoma nusxasini oldi, hademay Bo'rijarning hisob raqamiga ikki yuz ellik ming so'mni «haydab» berdi. Afsuski, «haydaliş kuyi» pul haydalngandan keyin boshlandi.

Shartnoma bo'yicha, G'iyosiddin Kichkina yangi yil arafasida «sihatgoh»ga kelolmadi; qurbon hayiti o'rtaga tushib qoldi. Yangi yildan so'ng sanatoriya gavjumlashib ketibdi. Bir oy ilgari kaminaga ishi tushgan chog'ida kunda-kunaro: «Aka, keling, birga tushlik qilamiz... Akaxon, bir kelib keting, ujin qilamiz», deb shakarguftorlik qilib yuradigan Qulxo'ja birdan to'nini teskari kiyib oldi. «E-e, qanaqasi bu! Axir, odamni ezib yubordilaring-ku!» deb telefonda siltab tashladi. «Xo'jayin, bu menman – «akaxon»iningiz, – dedim nafasim ichimga tushib. Telefon go'shagini ushlab turgan qo'lim titray boshladi. – Axir, o'zingiz aytgan edingiz, puli to'langandan keyin...» «E-e, puli to'langan bo'lsa, aytilgan

vaqtda kelsin-da!» dedi xo'jayin. Mulzam bo'lib go'shakni qo'ydim. Kap-katta odamning tuyqus o'zgarib qolishini kutmagan edim. «O'lsam ham mana shunday professor-shifokorning qo'lida davolanmayman», deb qasam ichdim. Lekin ataylab Do'mbiroboddan yotib davolanishga chog'lanib kelgan G'iyosiddinga sir boy bermadim. Shubhasiz, ko'ngliga g'ulg'ula tushadi. Ustiga ustak, «ustoz» deb jomadonini ko'tarishib kelgan boysunlik Azamat degan chaqqon yigitcha oldida «reytingi» pasayib ketishi mumkin.

– Og'ayni, o'zingiz aytilgan paytda kelmadingiz. Shu kunlarda hokimu to'ralar yopirilib ketirti... Yaqin orada joy bo'shamaydigan ko'rinadi, – dedim labimni tishlab.

– Mayli, aka, bo'shaganda kelarman, – dedi G'iyosiddin Kichkina siniq jilmayib.

– Menda bitta taklif bor, choyxona-palov damlasak qalay bo'ladi? – deb qoldi Azamat. – Qibrayga chiqib xarajat qilib kelaman.

– Mayli, – dedim. – Bilaman, pul bersam olmaysiz, lekin sizga beradigan pulim ham yo'q. Qibrayga chiqsangiz ikki quti «PALL MALL» olib qayting; qutisi qattig'idan bo'lsin, yuz so'm qimmat yuradi.

– Xo'p bo'ladi, – deb Azamat o'rnidan qo'zg'aldi.

– Birga boramiz, – dedi G'iyosiddin. – Gurunglashib borib kelamiz.

– Mayli, birga boringlar. Meni bir-ikki soatlik yozadigan ishim bor, – dedim. – «Yakta afg'oniy ast» degan hujjatli qissani boshlab qo'yanman; qaytganlaringdan so'ng muxtasar syujetini gapirib beraman.

– O'-o', nomi zo'r-ku! – deb kuldi G'iyosiddin. – Yangi narsaga o'xshaydi.

– Albatta yangi-da, eski saqichni chaynamayman-ku!

Ularni ostonada kuzatib qoldim. Tashqari sovuq edi, chiqmadim.

Hisorakka ikkita darvozadan kirish mumkin: bittasi – mahallaning «xususiy mulki» bo'lib, uni burnog'i yili suvuyqmas Turkistoniy degan xorijlik sarmoyador «ehson» qilgan. Xashaki «oktyabryat»-yulduzchalarning soatbay islovatxonasiga aylanib qolgan «Ijod uyi» yonidan o'ng tomonga burilgan yo'lovchi tob tashlagan darvozaga duch keladi-yu, «Hotamtoy»ning ismi sharifi yozib qo'yilmaganini ko'rib ajablanadi, chunki Hisorakda darvoza qanotlariga egasining nomini yozish an'anaga aylangan. Istiqbolda Shukur Xolmirzayevning pastqamgina kulbasi namoyon bo'ladi, Hisorakka kirib qolganingizni darhol sezasis. Shukur akaning kulbasini kunchiqar tarafdin qo'shqavatlik chala bitgan bino ezib turadi; Shavkat Rahmonning o'n besh yildan buyon bitmay yotgan xokisorgina imorati yonida esa butun boshli «BelAZ» ham bemalol o'tib ketadigan temir darvozali muhtasham koshona qad ko'targan; ro'parasida Shuhrat domlaning tomi ochiq yotgan ixchamgina uyi bor... Ikkinchi yo'l – hovuzxona yoqalab o'tadi: ikki chetdagi archalarni qalin qor bosib enkaytirib qo'ygan, tor yo'ldan ertalab Sayfi Saroyining «Matiz»i zo'rg'a qor kechib o'tgan; haybatli chinorlar ostidan qaralsa osmon ko'rinmaydi – ho'l qor kuzda to'kilmagan xazoniy yaproqlarga chirpa-chir

yopishib qolgan. Ko‘z oldingizda oppoq qorga burkangan bog‘ namoyon bo‘ladi; qarab ko‘zingiz quvonadi, dilingiz ravshan tortadi.

Hademay G‘iyosiddin Kichkina bilan Azamat to‘rt-besh kishilik palov masalig‘ini xarid qilib qaytdi.

– Kechikmadikmi? – dedi G‘iyosiddin kulimsirab. – Tushlik ham o‘tib ketdi.

– Qanaqa tushlik? – dedim jo‘rttaga.

– Axir, soat uch bo‘ldi, – dedi G‘iyosiddin Kichkina televizor ustida turgan soatga ishora qilib. So‘ng, har ehtimolga qarshi, bilagidagi qo‘lsoatga ham ko‘z tashladi.

– Qiziq ekansiz-ku, og‘ayni, sizlar tomonda haligacha nonushta, tushlik, kechki ovqat degan «eskilik sarqitlari» saqlanib qolgan ekan-da!

– Sizlarda-chi?! – deb yubordi Azamat ko‘zlarini katta-katta ochib.

Yelkamni qisib, qo‘llarimni ikki tomonga baralla yozib yubordim:

– Rahmatli Shukur akaning rahbarligi ostida biz eskilik sarqitlarini tag-tugi bilan bartaraf etganmiz! – dedim.

– Yo‘g‘-e! – dedi G‘iyosiddin kalta paltosini yechishdan to‘xtab.

– Ha-da, duch kelsa, uch mahalgi ovqatni biryola yutib olib, keyin kavsh qaytarib yuraveramiz.

– Shuning uchun Shukur akam umrining oxirida oshqozonining yarmini kestirib tashlagan ekan-da? – dedi Azamat. – Tejamkorlik bundan ortiq bo‘lmas, ofarin!

Hazil-huzul qilib oshxonaga o‘tdik: birov yog‘ni dog‘ qildi, birov sabzi-piyozni hozirladi, birov ko‘rsatma berib turdi. Hash-pash deguncha zirbak tayyor bo‘ldi, guruch kurmakdan tozalandi, ivitib qo‘yildi, tuz-namak rostlangach vag‘irlab qaynayotgan qozonga guruch solindi, suvini tortgach damladik. Turup to‘g‘raldi, dasturxon tuzaldi.

– Azamat, anavi zormandadan ozgina ketmaydimi? – deb televizor ostidagi pardadan ko‘rinib turgan shishalarga ishora qildim.

– Yo‘q, aka, men og‘zimga olmayman, – dedi Azamat qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib.

– Ixtiyoringiz. Bo‘lmasa, hozir oshni buzaman, – deb oshxonaga chiqdim.

Oshni buzib, go‘shnlarni kichikroq laganga ajratib qo‘ydim. So‘ng guruch-sabzini yaxshilab aralash-tirdim. Olov past edi – tagi olmapti, yaxshi pishirti.

– G‘iyosiddin, go‘shetni opketing, maydalang. – O‘rtasiga Marg‘inoniyning timsoli tushirilgan laganga uch-to‘rt kapkir osh solgan chog‘imda hovli tomondan birovning chaqirgan tovushi eshitildi. – Kim bo‘lsa ham yaxshi mehmon ekan, osh ustiga keldi, – dedim.

Azamat oshxonaga kirib:

– Sizni birov so‘rayapti, – dedi.

– Taklif qiling, ichkariga kirsin, osh tayyor!

– Ichkariga kirmayapti, – deb G‘iyosiddin Kichkina ham oshxonaga mo‘raladi.

– Kiraversin. Kim ekan?

– Yoshi kattaroq bir odam, – dedi G‘iyosiddin. So‘ng qo‘lida go‘sht to‘g‘ratotgan pichog‘i bilan yo‘lakka chiqib: – Aka, kiring ichkariga! – dedi.

O‘zim kapkirmi ko‘tarib yo‘lakka chiqdimu mumtoz adabiyot shinavandasi bo‘lgan yangi hamsoyamiz Egamqul akaga ko‘zim tushdi.

– Iye, keling, aka, ichkariga kiring! – dedim quvonib. – Mana, shoir ukalar kelgan, suhbatlashasiz!

– UZR, minba‘d uzr! – deb Egamqul aka soxta salobat aralash qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib bosh chayqadi. – Bajonidil kirardim-u, lekin sira ilojim yo‘q.

– Tinchlikmi, aka? – dedim soxtakorlikdan g‘ijinib.

– Mashinam Hovuzxonaga yaqin joyda qorga botib qoldi. Iltimos, ukajon, borib chiqarishib yuborsangiz! – dedi Egamqul aka hamon qo‘llarini ko‘ksidan olmay.

– Bo‘pti... Lekin shu oshni sovutmasdan eb olgunimizcha mashinangiz botgan joyida tura tursa nima qiladi? – dedim hazil aralash. – Bahorgacha tursa, qorlar erigach minib ketaverasiz.

– Yo‘-o‘q, ukajon, bo‘lmaydi, uyda mehmonlar bor.

– Mana, biz boramiz, – deb Azamat shoshilib kurtkasini kiydi.

– Men ham boraymi? – dedim. – Shartmi borishim?

– Bu yigitlar mehmonmi? – dedi Egamqul aka savolimni eshitmagandek.

So‘ng: – Yaxshimisiz, yigitlar?

– Rahmat, aka.

– Agar belkurak bo‘lsa, olinglar, g‘ildirak ostini kavlash kerak, – dedi rahbarona ohangda Egamqul aka. – UZR-da endi. – Qiyofasiga zo‘raki tabassum yugurtirdi.

– Mayli, hechqisi yo‘q, aka. Men ham boraymi? – deb qayta so‘radim.

– Yo‘-o‘q, men boraman, – deb G‘iyosiddin Kichkina shahdam kalta paltosini kiydi.

– Mehmonlarni ishlatar ekanmiz-da, uzr, – dedi Egamqul aka irjayibgina.

– Xijolat bo‘lmang, aka, yosh kelsa – ishga deydilar, – dedi G‘iyo-siddin.

Men oldi yopiq ayvondan belkurakni topib berdim.

– Hozir, birpasda qaytamiz, – deb ta‘kidladi Egamqul aka. – Vsevo desit minut.

Uning ruscha, forscha so‘zlarni aralashtirib gapirishi doim ensamni qotirardi.

– Birga qaytib keling, osh tayyor, – deb qoldim.

Chamasi, Egamqul aka Hisorakka bog‘ oralab o‘tib kelmoqchi bo‘lgan. Bu yo‘ldan Sayfi Saroyidan boshqa odam mashinada yurmaydi. U ertalab ishga ketgan bo‘lsa, yana qor yog‘ib izlarni ko‘mib qo‘ygan, Egamqul akaning «Neksiya»-si esa, tabiiyki, qorga botgan.

Bu odamga kimdir «Asror bobo» deb laqab qo‘ygan edi. Lekin laqabi o‘ziga sira yarashmasdi. Asror bobo qayda-yu, soxta salobat qayda!

Nafsilamrni aytganda, birovga laqab qo‘yadigan odam ahmoq bo‘lmaydi; kishining o‘ziga xos nozik bir nuqtasini topib, nishonga bexato uradi. Hisorakda

qalamkash qavmi istiqomat qilsa-da, Egamqul akaga «Asror bobo» laqabi hadya etilgan dastlabki paytlarda ko'pchilik Abdulla Qahhorning to'qima qahramoni bilan bu kishi o'rtasida o'xshashlik borligini birov xayoliga ham keltirmadi. Aksincha, «ul qayda-yu bul qayda!» deb labini burib, qoshini kerganlar bisyor topildi. Haqiqatan ham, biz bilgan, tasavvur qilgan Asror bobo hozir ham vodiy choyxonalarida onda-sonda uchrab turadigan quvgina, quvnoqqina, ayni choqda pokdamon, rasmona bobo bo'lsa, Egamqul aka soqolining oqini kampiridan yashirish uchun har kuni ertalab iyagini ustarada qirtishlaydigan, «farz», «sunnat» kabi gaplarni «axloq kodeksi»ning yoshkamollarga mo'ljallangan dasturilamal deb o'ylaydigan, ularga rahbar xodimlar amal qilishi shart emas deb hisoblaydigan «komil inson» edi go'yo. Asror bobo bor-yo'g'i mahalliy doirada ma'lum va mashhur bo'lsa, Egamqul aka o'z zamonasida «Birinchi» bilan gaplashib yurgan katta odam. Xullas, «ul qayda-yu bul qayda!» degan gapda jon bor. Asror bobo tabiatida andak quvlik (kampiriga nisbatan) seziladi, lekin bu quvlik beg'araz, beozor; quvnoqlik esa bachkana gulixandonni eslatadigan askiya emas, zavq-shavqdan tug'iladigan hayotga chin muhabbat nishonasi yoki aksincha, hayotga chin muhabbatdan tug'iladigan zavq-shavq nishonasidir. Egamqul aka xatti-harakati bilan quvlik qilayotganini go'yo sezdirmaydi, lekin chinakam zavq-shavq nimeligini ham bilmaydi. U hayot zavqini ham, shavqini ham nomenklaturaga (mansabdan mansabga ko'chib yuruvchilar ro'yxati) kirgan paytidayoq paqqos esidan chiqarib yuborgan... Shunday bo'lsa-da, ultarmalik Asror bobo bilan Egamqul aka o'rtasida qandaydir o'xshashlik bor. Afsuski, bu teskari o'xshashlik bo'lib chiqdi. Ya'ni, Egamqul aka, aslida, Asror boboning karikaturasi ekan. Egamqul akaning laqabiga juz'iy tuzatish kiritib, «Xosaki Asror bobo» deyilsa, to'g'riroq bo'lardi. «Xosaki» so'ziga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «nasldor, zotdor» deb ta'rif berilgan. Bu ta'rif Egamqul akaga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etilsa, unchalik yarashmaydi, o'rmiga tushmaydi, lekin ma'lumot ma'nosida qayd etib qo'yilsa zarar ham qilmaydi.

Bu kishi ilgari surunkali amaldor bo'lgan, keyinchalik nafaqa yoshiga yetgach nomenklaturadan tushib qolgan. Shu bois o'zini «adolatsizlik qurboni» deb hisoblaydi. Oftobshuvoq kunlarning birida adolat tiklanishiga, ya'ni katta mansabga tayinlanishiga umidvor bo'lib yuradi. Umidvorlik muddati xiyla cho'zilib ketgani uchun har xil mashg'ulotlar bilan o'zini ovutadi; goh qarasangiz, mumtoz adabiyot muxlisiga aylanib qoladi, «adabiyotshunos» Rahim Baqqolning boshini qotirib, unga Navoiy g'azallarini sharhlatib eshitadi; gohida o'zi mutolaa qilgan yangi kitob to'g'risida bachkana mulohazalarini aytib miyani suyultiradi. Ora-orada: «Ishqilib, vaqtingizni olmayapmanmi?» deb g'ashingizni keltiradi. Vaqtingizni olayotganini bilib turib shunday savol beradi, basharangizga tikilib kulimsiraydi, sizni ham yolg'ondakam shakarguftorlik qilishga majbur etadi. Mayli, amaldan urilib, ko'ngli yarimta bo'lib qolgan deb hech kim unga qattiq gapirmasdi. Egamqul akani befarosat, befahm deb bo'lmaydi – hamma narsaga aqli yetadi. Ammo ba'zan xorijiy texnologiya asosida barpo etilgan hovuzini, saunasini ko'z-

ko'zlash uchun ataylab uyiga taklif qilar, o'g'il-qizlariga atab shaharning so'lim go'shalarida qurdirayotgan dang'illama imoratlarini ham tomosha qildirib qaytar edi-yu, beixtiyor bu kishining ziyrak-zukko zot ekaniga ko'ngilda shubha uyg'onnardi. Bir so'z bilan aytganda, eski zamondan qolgan «Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun!» degan taomilni batamom xususiylashtirib olgan. Boshqalar ham inson, boshqalar ham baxtli-saodatli bo'lishga haqli degan gapni xayoliga keltirmas, mabodo xayoliga keltirsa, minbarga chiqib olib, kuyib-pishib va'z aytayotgan voiz nutqining qoralamasi ko'rinishidagina tasavvur etar edi.

Daslab, Egamqul akani hurmat qilardim, kuyinchaklik bilan aytadigan gaplariga chirpa-chin ishonardim. Hozir ham ko'pni ko'rgan inson sifatida hurmat qilaman, gaplarini indamay eshitaman. Biroq, o'ylaymanki, uni Yovqur Bahodir bilan Rahim Baqqol mendan ko'ra ko'proq hurmat qiladi, unga ko'proq ishonadi. Yovqur sirolik bilan o'zini chetga tortadi, g'ijinadi, vijdonan qiynaladi: «Basharasiqa qarab tirjayib turishga majburman, ko'ngli yarimta, dili og'rimasin deyman. Agar ko'ngli butun bo'lsa, ya'ni amalda o'tirgan bo'lsa u biz bilan so'rashmasdi, yonimizdan boshini qimirlatib o'tib ketardi. Nima uchun ko'ngliga qarashimiz kerak o'zi?! Tupurdim-e, o'shanday yarimta ko'ngilga!» deb jig'ibiyron bo'lardi-yu, ammo yana ko'ngilchaklik qilishni qo'ymasdi. Bu masalada Rahim Baqqolga Xudo berdi: endi uning palag'da gaplarini eshitadigan quloq topilgan, budkasi gavjumlashib qolgan edi; ular apoq-chapoq bo'p ketdi. Zimdan kuzatilsa, o'z qadrini biladigan «chahoryor» budkani chetlab, aylanma yo'ldan yuradigan bo'lganini payqash mumkin. Biroq, Hisorakda aylanma yo'l ham uzoq emasdi; bari bir adog'dagi odam ko'zga tashlanadi. Chunki to'rt taraf beton bilan o'ralgan, yo'llar tutash, chorraha bittagina edi. Menga qolsa, budkada betma-bet o'tirgan Rahim Baqqol bilan Egamqulning birini olib biriga ursang ham haqqing ketadi. R. Baqqolning pandavaqi ekani oyday ravshan, unga nisbatan Egamqul quvgina, qitmirgina. U Shayx Sa'diyning kalomi bilan, mumtoz iqtiboslar bilan o'zini maqtayotgandek tuyuladi. Muomaladagi soxtakorlikni darhol sezaman. Sezmasam koshkiydi.

Oradan yarim soatdan mo'lroq vaqt o'tib G'iyosiddin Kichkina bilan Azamat qaytdi. Egamqul aka rahmat aytib, hovlisiga kirib ketirti. Mayli... Palovni olovga yaqinroq joyda saqlab turgan bo'lsam ham, tovi ko'tarilgan edi, endi bemalol qo'l bilan oshalab yeyish mumkin. Hammamiz oshni qo'l bilan yeyishga qaror qildik.

– Agar ikki kishi bo'lmasak, mashinani chiqara olmasdik, – dedi G'iyosiddin bir-ikki osham olib. – Lekin Egam aka ajoyib odam ekan, Sa'diyning g'azallarini forscha yoddan bilarkan, qoyil!

– Ma'rifatli inson shunaqa bo'ladi, – deb kaftini yaladi Azamat. – Afsuski, o'qigan, uqqan odamlar kam. Zamonaviy qahramon ham shunaqa bo'lishi kerak.

– Ko'pni ko'rgan odam, o'zining mustaqil qarashlari bor, – deb men ham hamsoyani maqtagan bo'ldim. – Mumtoz adabiyotdan xabardor odam ablah bo'lmaydi.

– Olasiz-da, aka! Ablah bo'lmalik ham noyob fazilatmi?! – deb G'iyosiddin kafti bilan og'zini yopib, orqasiga o'girilib miriqib kuldi.

Xullas, osh ustida ham, oshdan keyin ham hammamiz Egamqul akaning insoniy fazilatlari to'g'risida safsata sotib o'tirdik. Ha, aynan «safsata» sotdik. Chun-ki, afsuski...

\* \* \*

O'sha kuni G'iyosiddin Kichkina bilan Azamat Toshkentga qaytdi. Jomadon biznikida qoldi. Bo'rijar sihatgohida joy bo'shasa, bari bir G'iyosiddin Kichkina keladi – pulini allaqachon Mirzo To'ra to'lab qo'yan.

Oradan o'n-o'n besh kun o'tdi. Bir kuni terakzor yoqalab Hisorakka qaytayot-sam, ro'paramdan kelayotgan «Jiguli» yonimdan o'tib to'xtadi. Hayron bo'ldim: odatda, na oldimdan, na orqamdan kelayotgan yengil mashinaga qarayman. Atay-lab qaramayman, odatim shunaqa. Agar insofli tanish-bilishim bo'lsa, o'zi mashi-nasini to'xtatib opketadi. Opketmasa aslo xafa bo'lmayman, demak ishi zarur yoki ichi to'la odam ekan deb o'ylayman. Kimdir nomimni tutib chaqirdi. O'girilsam, ajab, sihatgoh xo'jayini Qulxo'ja orqa eshigini qiya ochib, bitta oyog'ini yerga qo'yib o'tiribdi.

– Telefon nomeringizni ayting, – dedi u qo'li bilan ishora qilib.

Ro'parasiga borar-bormasimdan mashinadan tushdi. So'rashdik. Men mu-vaqqat telefon raqamimni aytdim, haydovchi daftarchasiga yozib oldi.

– Shoir xalqi injiq bo'ladi-da, – deb nolib qo'ydi Qulxo'ja. – Aytilgan paytda kelganda-ku, siz ham, men ham ovora bo'lmalik.

– O'zining sarson bo'lgani-chi! – dedim kulimsirab, yarash ohangida.

– Bo'pti, o'n-o'n besh kundan so'ng o'zim telefon qilaman... – deb u yana orqa o'rindiqqa o'tirdi. – Anovi kuni qattiq gapirdim, shekilli...

– O'zim bemahal sim qoqdim...

– Xo'p, xayr...

Mashina jo'nadi. Men ham o'z yo'limda davom etdim. Ichimdagi g'ashlik bir-pasda tarqadi-ketdi. Aftidan, men o'shanda Qulxo'jani boshqalar «ezib yuborgan» paytda telefon qilib, lang'illab turgan temirga suv sepgandek bo'lgan ekanman.

Orqamdan mashina signali eshitildi. O'girilsam, boyagi mashina tisarilib kel-yapti. To'xtadim. «Jiguli» yonimga kelgach, orqa eshigi ochildi. Qulxo'ja o'ng oyog'ini yerga qo'yib:

– Yalang'och maxsum ham Hisorakda yashayaptimi? – deb so'radi.

– Qaysi yalang'och maxsum?

– Egamqulni aytyapman.

Piq etib kuldim.

– Nega kulasiz?

– O'zim, shunday, – dedim. – Siz uni taniysizmi?

– Taniyman. Bir joydanmiz... – U negadir yerga qarab xo'rsindi. – Qiziq, ob-komda ishlab yurgan kezlarida yashirincha namoz o'qib yurardi, bizni ham mu-



sulmonchilik ahkomlariga zimdan da'vat etardi. Uning nazarida, kommunizmda yashayotgan odam jannatdan ham joy hozirlab qo'yishi kerak edi. Noshukurchilik oqibatida kommunizmdan judo bo'ldi, jannatdan ham darak yo'q. Endi badantarbiya qilib uzoq umr ko'rmoqchi. Qarg'aga o'xshab uzoq yashashdan kimga foyda, galvars! – deb bug'doyzorni titkilayotgan qarg'a galasiga ishora qildi. – Undan ko'ra o'zingga chiroyli go'r qazdirib, ustiga maqbara qurdirib qo'ymaysanmi!.. Endi bo'lsa, shortik kiyib terakzor bo'ylab yuguradi, pishshillamay o'! Shu ishni hovlisida qilsa ham bo'ladi-ku, jun bosgan oyog'ini reklama qilish shartmikan...

– Sog'lom tanda sog' aql, deydilar.

– Qo'ysangiz-chi, – dedi Qulxo'ja qo'l siltab. – Sportsmenlar dunyoda eng kam umr ko'radiganlar toifasiga kiradi. Umrni Xudo beradi, har qancha urinsa ham bandasi umrini uzaytira olmaydi... Xalq orasida shoirlar alkash bo'ladi degan gap yuradi. Shu bois Egamqul sog'lom hayot tarzini targ'ib qilmoqchi bo'lsa kerak.

– Qaydam.

– Aslida, bu ham reklamaning bitta ko'rinishi, xolos.

Yelkamni qisib kulimsiradim.

– Xuddi shunday. Siz uni bilmaysiz, – deb Qulxo'ja mashina eshigini zarb bilan yopdi.

Mashina bu gal o'rmidan shitob qo'zg'aldi.

Ana xolos!..

Shom chog'ida G'iyosiddinning uyiga sim qoqib, o'n-o'n besh kundan keyin sanatoriyada joy bo'shaydi, komandirovkaga ketib qolmang, deb ogohlantirdim.

\* \* \*

Bir kuni shaharga ketayotsam Yovqur Bahodirning darvozasi ro'parasida Shukurxona tomondan shortikchan sayr etib qaytayotgan Egamqul akani uchratib qoldim. So'rashdik, salom-alik qildik. Egamqul asabiyroq ko'rindi. Boshini yelkasi uzra o'ng va chap tomonlarga aylantirgach:

– Terakzorda bitta tanishimni uchratib qoldim, – dedi.

– Kim ekan?

– Siz uni tanimasangiz kerak. Bo'rijarda ishlaydi.

– Xo'jaqul aka emasmi?

Egamqul menga hayratlanib tikilib qoldi. So'ng:

– Siz uni qaydan taniysiz? – deb so'radi.

– Hisorak bilan Bo'rijar yonma-yon, ko'cha-ko'yda uchrashib turamiz, ba'zan xizmat mashinasida shaharga obketadi.

– Hm-m, – dedi Egamqul yerga qarab, negadir lunjlarini shishirdi. – Ahmaq! Otini boshqa qo'yirti. Xo'jaqul emish!.. Qulxo'ja-ku!.. Xo'jalarning quli bo'lgandan ko'ra, qullarning xo'jasi bo'lgan yaxshi emasmi?! Nima dedingiz?

– Ikki o'n besh – bir o'ttiz-ku, nima farqi bor? – dedim.

– Iye, nega farqi bo'lmas ekan, yer bilan osmoncha farqi bor-ku!

– Shunaqami?

Egamqul aka iyagini tutamlab bir nuqtaga tikilib qoldi. Xiyla sukutdan so‘ng:

– Bilasizmi, Napoleon nima degan? – deb so‘radi.

– O‘limi oldidan aytgan gaplarini so‘rayapsizmi?

– A yo‘-o‘q... – dedi u cho‘zib. – O‘limi oldidan nima degan ekan? – dedi qiziqsinib. – Men eshitmagan ekanman.

Kulib yubordim: axir, bundan 186 yil muqaddam vafot etgan odamning vasiyatini eshitish uchun kamida 200 yashar chol bo‘lish kerak edi-da! Darhol lab-lunjimni yig‘ishtirib:

– Jahongir «Fransiya, armiya, Jozefina» deb jon bergan, – dedim.

– Muni qarang-a, o‘layotganda ham jazmanini esidan chiqarmagan ekan...

– Siz Napoleonning qaysi gapini nazarda tutgan edingiz? – deb so‘radim.

– Qo‘y qo‘mondon bo‘lgan sherlar galasidan Sher qo‘mondon bo‘lgan qo‘y poda afzal degan. Bu degani – xo‘jalarning quli bo‘lgandan ko‘ra, qullarning xo‘jasi bo‘lgan yaxshi demak. To‘g‘rimi?

– To‘g‘ri-yu, lekin Piri Turkiston o‘zini Qulxo‘ja deb ataydi.

– Yassaviy shunaqa deganmi?

– Ha, shunaqa degan.

– Eshitmagan ekanman... Mavridi kelsa, Rahim Baqqoldan so‘rab ko‘raman.

– So‘rab ko‘ring, – deb oldinga bir-ikki qadam tashladim.

– Yo‘l bo‘lsin, shahargami? – deb so‘radi.

– Ha, shaharga, hozir A‘zamxon akamning xizmat mashinasi keladi. Tekinga opketadi.

– Yuring, o‘zim oborib qo‘yaman, pul olmayman. Qayerga borasiz? – deb so‘radi u qiyofasiga zo‘raki kulgi yugurtirib.

– «Telefilm»da ishim bor.

– Shoshmang, «Telefilm» qayerda?

– «Paxtakor» metrosidan chiqilsa bas.

– Bo‘ldi, men sizni Amir Temur xiyoboniga tashlab o‘taman... Hozir mashinamni minib chiqaman, – deb Egamqul aka uyi tomon yo‘l oldi. Sal narida to‘xtab: – Yuring, birga gurunglashib bora qolaylik, – dedi.

Birga ketdik.

Egamqul aka temir darvozasini lang ochib, ichkarida turgan mashinasini o‘t oldirdi, motorini birpas qizdirdi. So‘ng birgalashib Toshkentga yo‘l oldik.

Terakzor yoqalab borib o‘ng tomonga burildik. Arg‘inga yetgan paytimizda:

– Ishqilib, anavi kuni xafa bo‘lmadingizmi, mehmonlaringizga malol kelmadimi? – deb so‘rab qoldi tuyqus.

– Qaysi kuni? – dedim qoshlarimni chimirib. – Nimani aytyapsiz?

– Mashinam qorga botib qolgan kuni yordam berdilaring-ku!

Birdan unutilayozgan voqeani esladimu kulib yubordim:

– Iye, Egamqul aka, nima deyapsiz?! Nega xafa bo‘lishim kerak? Shu ham yordam bo‘ldi-yu... – deb teskari qaradim.

– Rostini aytsam, men sizga vaqtimni yetarlicha videlit qilolmayapman. Siz bilan miriqib suhbatlashgim keladi. Sizga havas qilaman, juda-juda xokisor insonsiz-da!

– Yo‘g‘-e, qo‘ysangiz-chi! – dedim ensam qotib.

– O‘sha kuniyam, qarang, mehmonlaringizni menga yordam bergani jo‘natdingiz...

– Men jo‘natganim yo‘q, o‘zlari bordi. Nima, men ularga xo‘jayinmanmi?..

– Aslida, uyingizda mehmon borligini mutlaqo bilganim yo‘q edi, – dedi xuddi gapimni eshitmagandek.

– Ular bo‘lmaganda o‘zim yordamlashib yuborardim, Egamqul aka.

– Sizga haddim sig‘ib uyingizga chaqirib borgandim-da, ukajon.

– Bemalol, aka, bemalol, – dedim-u, «bu odam birovning gapini eshitmas ekan» deb ichimda g‘imirladim.

– Ko‘rmaysizmi, o‘sha kuni o‘g‘lim o‘rtoqlarini mehmonga chaqirib qo‘ygan, menga (sotkamga) ketma-ket telefon qilib: «Papa, qayerda yuribsiz, nega kichikyapsiz?!» deb so‘rab yotibdi deng. Men, mana, bog‘ oralab o‘tyapman, besh minutdan keyin, uch minutdan keyin uyda bo‘laman deb, o‘g‘limni chalg‘itib turdim... Mashinamda ziyofatga mo‘ljallangan mayda-chuydalar bor edi.

Do‘rmondagi aylanma yo‘lga burildik. Egamqul aka yo‘ldan ko‘zini uzmas, men bo‘lsam uning yuz-ko‘ziga ko‘zim tushishidan xijolat bo‘lib yo‘lovchilarni, poyezd yo‘lidan narida yastanib yotgan dalalarni tomosha qilib borardim. O‘zimcha Egamqul akaning xirsdek baquvvat o‘g‘lini, o‘ziga o‘xshagan xirsday-xirsday o‘rtoqlarini ko‘z oldimga keltirdim: «Nichego sebe!..» Ochig‘ini aytsam, hamsoyaning o‘g‘lini bir-ikki marta uzoqdan ko‘rganman: «Lasetti»ni minib, xo‘mrayib uyoq-buyoqqa o‘tib qolardi, to‘rt muchasi sog‘ edi; toparmon-tutarmon biznesmen, shekilli.

– Bilasizmi, ukajon, Shayx Sa‘diy, sen Sharqda turib shunday ish qilginki, G‘arbda yashayotgan odamlar haqqingga duo aytib, seni olqishlasin, degan.

– Ya‘ni, musulmon odamning ishiga g‘ayridinlar ham tan bersin, tahsin o‘qisin degan ma‘noda shunday degan bo‘lsa kerak-da! – dedim.

– Ha, balli! Sharqda musulmonlar, G‘arbda, asosan, nasroniyalar yashagan. Bu o‘z-o‘zidan tushunarli, izohga hojat yo‘q, – dedi Egamqul aka yo‘ldan ko‘z uzmay.

Beixtiyor uning aft-angoriga tikildim: yuzlari jiddiy, qoshlari chimirilgan. Aftidan, u o‘zi aytaётgan gaplariga chirpa-chin ishonardi... Ishonmasa kerak deb o‘yladim. Ishongan odam bunday qilmaydi; uyida ho‘kizday o‘g‘li ag‘anab yotsa-yu, qorga botib qolgan mashinasini yo‘lga chiqarish uchun kap-katta odam hamsoyasidan yordam so‘rab yalinib yursa-ya!..

Xo‘sh, ultarmalik Asror boboning eshakaravasi loyga botib qolsa nima qilardi? Mumtoz adabiyotdan mutlaqo bexabar chol o‘g‘lini uyiga berkitib qo‘yib, qo‘ni-qo‘shnilarini yordamga chorlarmidi?!

«Uyingni o'g'ri bossa, o'g'lingni sandiqqa solib qo'yib, qo'shnini yordamga chaqirmaysan. Hammaning ham farzandi o'ziga aziz», degan edi Asrorqul.

– Asror bobo jinni ekan, – deb yubordim beixtiyor.

– Nima dedingiz? Yana bir qaytaring, yaxshi eshitmay qoldim, – dedi Egamqul aka boshini men tomonga qiyshaytirib.

– Abdulla Qahhorning «Asror bobo» hikoyasidagi cholni aytyapman, g'irt jinni ekan! Uni jin chalgan...

Egamqul aka ilkis yuzimga tikilib olgach:

– Unchalik emasdir, – dedi ishonqiramay. – Yana kim biladi deysiz.

– Jinni bo'lmagan taqdirda ham uni jin chalgan. Tegirmonboshida uxlab qolgan odamni albatta jin chalib ketadi.

– Farg'onada ham shunaqa gap bormi? – dedi Egamqul aka ajablanib, yuziga soxta tabassum yo'llab. – Bizda ham odamlar tegirmonboshida yotib-turishdan irim qiladi, tavba!.. Lekin Rahim Baqqol negadir Abdulla Qahhorni juda yomon ko'radi. Odamzot qiziq ekan.

– Baqqolning hamma gaplariga ham ishonib bo'lmaydi, Egamqul aka.

– Qo'ysangiz-chi! U bilmagan narsasini gapirmaydi...

– To'g'ri, faqat bilganini gapiradi... Mulla ham bilganini o'qiydi, – deb qo'shib qo'ydim ijirg'anib.

Egamqul aka yana bir marta aftimga sinovchan tikilib oldi. Men qilt etmasdan yo'lga qarab o'tiraverdim. O'rtada gap-so'z tamom bo'ldi. Amir Temur xi-yobonida mashinadan tushdim, lekin hamsoyaning soxta qiyofasi ko'z oldimda muhrlanib qoldi. Jin ursin, endi kun bo'yi mana shu bashara meni holi-jonimga qo'ymaydi, lop etib ro'paramdan chiqaveradi.

Birodarlar, rostdan ham, Asror boboni jin chalganmi? Yoki o'zimizga bir balo bo'lganmikan?..

\* \* \*

Darvoqe, oradan roppa-rosa o'n besh kun o'tgach Bo'rijar sanatoriya-sining rahbari Qulxo'ja kaminaga sim qoqib: «Joy bo'shadi, hokimlar daf bo'ldi, G'iyosiddin kelaversin», dedi. Bir oz ajablandim... So'ng unchalik hayron bo'lmalik kerak deb o'yladim. U puldor muassasaning rahbari, qo'lida kam deganda yuz kishi ishlaydi, dargohiga tashrif buyuradigan kazo-kazolar og'ziga mahtal bo'lib turadi... Men-chi, shunchaki ko'rik-tanlovlarga intermediya yozib yurgan yupqaqo'l qalamkashman, xolos. Shakarguftorlik qiladigan paytlar allaqachon o'tib ketgan, jo'rajon. Eshak ham loydan o'tgan. Endi o'zing shakarguftorlik qilasan... Men shakarguftor deb yurganim Qulxo'ja, aslida, Rum qaysariga o'xshar ekan: «Keldim. Ko'rdim. Yengdim» tarzida qisqa-lo'nda hukm chiqaradi-qo'yadi. Lekin, sanatoriya oshxonasida tushlik, kechki ovqat mahallari kaminaga aytib bergan latifalari, «odamiylik qissasi» hali-beri esimdan chiqmasa kerak...

Anglaganim shu bo'ldiki, Qulxo'ja maxsus toifaga mansub odam: birovga ishi tushgan paytlarda so'roq alomatidek gajak bo'lib tursa, yumush bilan kelgan

odam qarshisida undov belgisi holatiga kiradi-*qo'yadi*. Quyidagilar – zinapoya, yuqoridagilar – mehrob. Zarurat tug'ilsa, «*xo'ja*»ni nari surib, «*qul*»ni beri suradi.

«*Ultarmalik Asrorqul Haydar* otaning qadrdon oshnasi bo'ladi». *Qulxo'ja* bilan *Egamqul* ilgari oshnachilik qilgan, qadrdon bo'lgan. *Ikkovi* ham katta oxurdan yem yegan, faqat bittasi nari surilib, bittasi beri surilgan...

Ikki yorti – bir butun, deydilar. *Qulxo'ja* bilan xosaki *Asror bobo* bitta olmaning ikki yuziga o'xshardi. Ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi.

Shu oqshom *G'iyosiddin Kichkinaga* qo'ng'iroq qildim. U ertalab yetib keldi; men uni sanatoriyaga opkirib ishboshi *Kristinaga* tanishtirdim. *Kristina G'iyosiddinni* asosiy binodan pastroq bo'lgan «*dacha-mehmonxona*»ga joylashtirdi. Bu «*dacha*» qalin archazor qo'ynida ekan, toza havoga shu qadar to'yinganki, hatto havoni oshamlab yeyish mumkin edi. Boz ustiga, *Kristina* ham ajoyib duragay qiz ekan. «*Ismingiz aslida Xristina, hazratim Shayx San'on* qissasida tasvirlagan «*Tarso qiz*» aynan o'zingiz bo'lsangiz kerak. Nima deysiz, *Muslima?*» deb so'radim. «*Men chala muslimaman*», dedi *Kristina*. «*Nima uchun?*» «*Chunki otam gurji, onam yunon qizi*». «*A-ha, gap buyoqda ekan-da! O'zim ham bu qiz hofizning so'lim g'azaliga bekorga o'xshamasa kerak degandim-a! Qachon o'qiganman, qayerda ko'rganman deb boshim qotib turgan edi: endi topdim, atoqli gurji yozuvchisi Nodar Dumbadzening «HELLADOS» hikoyasining moddiylashgan ko'rinishi ekansiz. O'sha hikoyani o'qiganmisiz? Nizom Komil tarjima qilgan, «Tafakkur»da bosilgan*», dedim jo'rttaga hayajonlanib. «*Yo'q, o'qimaganman*», dedi *Kristina* beparvo. Bu javobni eshitib hushimdan ketib qolyozdim. «*Nahotki! – dedim ko'zlarimni olaytirib. So'ng najot kutgandek xona kunjidagi stulda qimtinib o'tirgan G'iyosiddin Kichkinaga yuzlandim: – Siz-chi, G'iyosiddin, o'qiganmisiz o'sha hikoyani? Mazmunini Kristinaga gapirib bermaysizmi?!*» *G'iyosiddin Kichkina* yerga qarab: «*O'qimaganman, aka... «Tafakkur»ning o'sha soni qo'limga tushmagan*», dedi. «*O'rischasini o'qish kerak edi! Uni qachon Nizom Komil tarjima qilar ekan deb kutib yurish shart emas-ku!*» dedim fig'onim chiqib... Xullas, kuppakunduzi ikkita «*johil odam*» bilan yuzma-yuz kelganimga goh ishonib, goh ishonmay dilkusho sanatoriyaning tark etdim: «*Toza havolar o'zlariga siylov, afandilar! Menga Hisorak bo'lsa bas. Bay-bay!...*»

*Zohiran* quvnoq bo'lsam ham, lekin ko'nglim xira tortdi, ko'nglimga g'ubor qo'ndirib qaytdim... Oradan bir hafta o'tib «*bo'lgan voqea*»ni qog'ozga tushirdim. *Qalay!* Sezib turibman, *Hisorak* hangomalarining davomi borga o'xshaydi. Yana qaydam.



# To'loqin Hayit

(1957-yilda tug'ilgan)



To'loqin Hayit 1957-yil 15-noyabrda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida-gi Dashnobod qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodi-mi (2011). Respublika rus tili va adabiyoti institutini tugatgan (1981). «Meni kechir, bolajon» (1991), «Dashnobod hangomalari» (1992), «Boyvachchaning qizi» (2009), «Odamning yaxshisi» (2011) hikoyalar to'plami, «Turon tunlari» (1995), «Vafo malika-si» (2005), «Qora Shahzoda» (2007) romanlari hamda «Ulug' Amir o'g'itlari» (2004), «Shohi Zinda» (2005) kabi risolalari nashr etilgan.

## KAMPIR OSH

Hojar ona ayvon chekkasidagi taxta so'rida muk tushgancha guruch tozalamaqda edi. Ichkari uydan chiqqan o'g'li patila soch, ingichka mo'ylovli Hosilmat:

– Yana oshmi, momoshka! Qo'ying, nima qilasisiz... qizlar kuladi, – dedi javrab.

– Tug'ilgan kuningni eshitib, Asal dugonam bilan Mehrining tomog'i tushadi, bolam. O'shanga... aylanay, bir kampir osh damlamoqchiman. Sanlar o'zlaringni svet-pvet stollaringni qilaveringlar! – dedi Hojar ona muloyim ohangda.

– Svet-pvet emas, odamni sharmanda qilmang. O'rtoqlarim eshitsu shu gap-laringizni, mani nervimga o'ynashadi. Tak, chto momoshka, shvedcha stol, deng, xo'pmi?

– Xo'p, bolam, xo'p, aylanay! Shvedcha bo'lsa, shvedcha-da! Meni bilmaydi, deysanmi? Ana agarodimda shvet barq urib yotibdi. Har yili ekaman, bilasan-ku aylanay. Shved deganingni... bu tom o'lgur bolam, odam qarigandan keyin quloq ham tosh bitarkan!

Hosilmat kampirning uyiga kirdi: o'rtada xontaxta, atrofida quroqi ko'rpachalar solingan.

– Momoshka?

– Labbay, bolam.

– Bularingiz bo'lmaydi. Bu yerda ham shvedcha stol qilamiz. O'rtoqlarim sizni ko'raman, deb kirib qolishlari mumkin. Chto, manavi amir zamonidan qolgan xontaxta-yu, ammangizning qizi bergan ko'rpachalaringizni cherdakka «fisht» qilaman!

– Hoy, hoy, aylanay, bolam! Undan ko'ra, onangni o'ldirib qo'ya qol!

– Voy-bo'y momoshka, nervingiz ham bor-a. Sizga bir og'iz gapirib ham bo'lmaydi-ya!

– Mani onam, desang, tinchimni buzma, bolam!

– O'rtoqlarim...

– Hoy, o'sha o'rtoqlaring tog' oshib kelmagandir. Ichida nemis-pemisi bormi!

– Nemis o'rtog'im yo'q, hammasi mahalla bolalari!

– Mahalla bolalari bo'lsa, burnining ostidan narini ko'rishadi.

– Sinfdosh qizlar ham kelishadi.

– Mayli, kelishsin, bolam. Aybi yo'q. Ana, Asalning o'g'li ham sinfdosh qizlarini ham chaqiribdi. Birov gapirdimi? Gapirgani yo'q.

Hosilmat sochlarini qashib nari ketarkan, «Momoshkaga tushuntirish qiyin!» deb to'ng'illab qo'ydi.

Oradan bir soat o'tib, Asal kampir bilan Mehri muallima keldi. Endi hol-ahvol so'rashgan edilar hamki, bir gala yigit-qizlar chuldirashib ichkari kirishdi. Har uchchala kampir derazaga yopishdi.

– Voy o'lmasam! – dedi Hojar ona ko'rsatkich barmog'ini lunjiga bosib. – Ana uni qaranglar. Sharmanda-a! Kindigi ochiq... kimning qizi ekan?

Mehri muallima ajin qo'lini peshonasiga tiradi:

– Umi? U Sokina boyvuchchaning o'rtancha qizi. Toshkentda o'qiydi. Meditsinada. Jenski do'xtir bo'larmish.

– Do'xtir bo'lmay har balo bo'lgur, atlas kiyib kelsa o'larmidi?

Hojar ona tor shim kiygan qizni ko'rsata turib:

– Vuy, sharmanda, sharmanda! – dedi ko'zini yashirib.

Mehri muallima piqir kuldi.

– Afg'ondan oshib kelganga o'xshaysiz, Hojaroy, bugun ko'ryapsizmi bu turqisovuqlarni?! Yevropacha kiyinamiz, yevropacha yashaymiz, deb urf-odatlarimizni rasvo qilishyapti.

– O'sha Avro'pani urf-odatlari yaxshi ekanmi shunchalik?

– Qaydam?! – Mehri muallima labini burdi va Hojar onaning qo'lidan pichoqni oldi. – Sabzini man to'g'rayman.

Asal kampir piyoz solingan kosani oldiga tortdi:

– Man piyozni artib turay bo'lmasa!

Mehri muallima sabzini to‘g‘rab turib, so‘zida davom etdi:

– O‘sha Yevropa deganlarida ikki erkak nikohdan o‘tib yashasharmish.

Hojar ona ishonmadi:

– Bo‘ladigan gapni aytasangiz-chi?!

Asal kampir gapga qo‘shildi:

– Kecha radioda aytishdi. Bu narsani o‘zbeklar qoralaydi, dedi.

– Ana ko‘rdingizmi?! – Mehri muallimaning quyuq o‘sma qo‘yilgan qoshlari qaldirg‘och qanotlaridek pirpiradi. – Men bir narsani bilmasam gapirmayman!.. Ayoli yarim kechada kelsa, yer urishsa, sudga berarmish. Xotin boshqani xohlasa, eriga «sen yoqmay qolding» deb uydan haydab yuborarmish. Ota minan o‘g‘il kelisholmay qolsa, uy-joyini sud orqali hal qilisharkan!.. Ana, sizga bir olam gap!

Hojar ona:

– Ko‘p ham unaqa emasdir! – dedi aftini burishtirib.

Mehri muallima:

– Sizni o‘shaqqa jo‘natish kerak, o‘shanda ko‘zingiz moshday ochiladi! – dedi shartta.

– Moshday ochiladigan bo‘lsa, borib kelaman! – hazillashdi Hojaroy.

Sabzi, piyoz to‘g‘ralib bo‘lgach, kampirlar oshxonaga chiqishdi. Sochini sa-riqqa bo‘yagan, qiltiriq qiz bilan yo‘g‘on bo‘yniga oltin zanjir taqqan yigit ichka-riga bosh suqishdi. Sassiqlik aroq hidi anqidi.

– Salom, onalar! – hiqillab dedi yigit. – Nima ovqat?

– Osh, osh, bolam! – Hojar ona uning yelkasiga qoqdi.

Yigit qimmatbaho to‘q ko‘k ko‘ylagining yelkasiga, kampir qo‘li tekkan joy-ga g‘ijinib pufldi.

– Osh? – dedi keyin ijirg‘anib. – Kechasi jeludkaga og‘irlik qiladi.

Qiz o‘qchidi. Yigit uning qo‘ltig‘idan olib, ariq tomon boshladi.

Hojar ona yoqasini ushladi.

– Tovba, tovba! O‘zi yosh-u, ichib olganiga o‘laymi? E Xudo, qaysi kunlarga yetib keldik?!

Qizning o‘qchigan ovozi, so‘ng qusqisining suvga sharillab ag‘darilgani eshi-tildi. «Hay, hay» deganicha Hojar ona ular tomonga oshiqdi. Yigit qizning sochi va boshidan ushlab turardi. Qiz o‘qchib-o‘qchib suvga qusar, qo‘lansa hid atrofga anqir edi.

Hojar ona eng uchi bilan og‘zini yopib:

– Hoy, aylanay, qizim, suvga qusma, gunoh bo‘ladi! – dedi ko‘ngli ichikib.

Asal kampir tovush qildi:

– Yog‘ingiz qayerda?

Hojar ona ortiga qaytdi. Gaz plitasi yonidagi yog‘ idishni olarkan:

– Bizning zamonda suvga tupursak, xudorahmati otamiz xivich bilan quvlar edilal, – dedi kuyunib. – Kap-katta qiz, uyalmaydi, g‘arq etib suvga qusib o‘tirib-di-ya! Hay, attang!



Hosilmat ichkari kirdi.

– Ha, momoshkalar, qanaqa palov bo‘lyapti o‘zi?

Hojar ona jilmaydi:

– Kampir osh bo‘lyapti, bolam!

– Kampir osh? Xe... xe!

– Sengayam olib qo‘yamiz.

– O‘zlaring yenglar... bizdi oshqozon bunaqasini xohlamaydi.

Hojar ona piching qildi:

– Oshqozoningga shvedcha aroq yoqadi shekilli, bolam. Hay, ichib olibsan-a?

Hosilmat xixiladi:

– Ha, endi, momoshka, ellik gramm odamni o‘ldirarmidi?!

Chet el musiqa tovushi uyni larzaga keltirdi, tapir-tupur oyoq tovushlari, qiy-chuv eshitildi.

Hojar ona o‘g‘liga tanbeh berdi:

– Sekinroq, o‘g‘lim, sal pastroq... qo‘ni-qo‘shni degandek...

– Bir kecha chidasa, osmon uzilib yerga tushmas, momoshka!

Asal kampir labini tishladi.

Hojar ona Hosilmatning ortidan:

– Osh pishib qoldi, o‘rtoqlaring xohlashsa, ayt, suzib beramiz.

– O‘zlaring yenglar, o‘zlaring! – qo‘l siltadi Hosilmat va ichkariga kirib ketdi.

Mehri muallima uning ortidan borib derazadan ichkariga boqdi. Burni puchuq qiz nafis, uzunroq sigaret tutatdi.

– Staruxalaring nima pishiryapti?

– Osh! – javob qildi Hosilmat iljayib.

Qiz chaplangan aftini burishtirdi:

– Nu-da, Xosilmatchik, mama tvoya... zo‘r, kechasi osh yeyish... vey... jalka oshqozonlariga.

Hosilmat uning qo‘llaridan ushlab, o‘rtaga boshladi. Qiz noz-karashma bilan unga suykaldi.

O‘rtadagi stol usti allaqachon bo‘shab qolgan, aroq, shampan, vino shishalari, tort qutilari tartibsiz sochilib yotardi. Xorij qo‘shiqchisi kuchanib, xirillab, baqirib kuylar, u har ovozini ko‘targanda, irg‘ishlab o‘ynayotgan do‘mboqqina qiz bilan ozg‘in yigit Hosilmat tomonga o‘qtin-o‘qtin qarab qo‘yishardi.

Qiz orqasini o‘girib irg‘ishlab o‘ynar ekan, boshini noz bilan qimirlatib, bo‘ynini burib, ko‘zlarini suzgancha yigitga boqar, u «xah» deb egilganda, uning ozg‘in ko‘ksiga oppoq yelkasini suykab-suykab olardi.

– Onasi osh qilayotgan emishmi? – nozlanib so‘radi qiz.

– Shunaqa deyishyapti! – sovuqqina javob qildi yigit.

– Undan ko‘ra, alive salat qilganlarida, oz-ozdan yer edik.

– Otstaliy kampir u... buni tushunadi, deysanmi? Oshini qilaversin.

– Ve-e-ey! Osh? Kechasi-ya!

Mehri muallima pildirab ortiga qaytdi.

– Yoshlar buzilib ketgan, deyishganda, ishonmagan edim! – dedi u ichkari kirar-kirmas. – Hay-hay, bizlar bergan tarbiyadan «t» harfi ham qolmabdi. Maktabda bularga nima o'rgatishyapti?!

– Burungi zamonda qizil to'y chiqib, hammani aroqqa o'rgatdi, – dedi Hojar ona hasratli ohangda. – Endi bu balo chiqdimi?! Bittasi ham o'tirmaydi: ovqatini ham tik turgancha yeyishadi... «Bismilloh» deyishadimi, yo'qmi?..

Asal kampirning hasratidan o't chiqdi:

– Bular «bismilloh»ni ham, «omin»ni ham bilishmaydi.

Osh pishdi, qozonning qopqog'i olinganda, oshxonada, hovlida xushbo'y hid taraldi, it hurib, xo'roz bir qichqirdi. Hojar ona go'shtini ajratib olib, to'g'rab oshga bosdi-da, ikkita suyakni itning oldiga eltib tashladi, tovuqlarga esa, bir hovuch don sepdi. So'ng katta chinni tovoqdagi oshni ko'tarib uyga kirdi.

Hojar ona oshpaz cholini esladi.

– Osh pishdi, deguncha xudorahmati esimga tushadi. Pishirgan oshlarini yeb to'ymas edik.

Mehri muallima:

– Bir umr elning to'ylarida xizmat qilib o'tdilar, Xudo rahmat qilgan bo'lsin! – dedi bo'rsildoq nonni avaylabgina ushatar ekan.

«Oling, oling» bilan oshni edilar, ustidan bosib-bosib achchiq-achchiq choy ichdilar. Endi gurung qizigan paytda tor shim kiygan ikki qiz bir-biriga suyanib, ichkari kirdi. Ularning rangi oqargan, ko'zlarida nur yo'q edi.

Hojar ona o'rmidan turdi.

– Kelinglar, qizlarim! Bu yerga o'tinglar!

– Charchab qoldik, boshimiz aylanib ketdi.

Mehri muallima ularning rang-ro'yiga nazar solarkan:

– Ikkalangdayam animiya bor ekan, o'z'laringga qarab yursanglar bo'lmaydismi?! – dedi ularni tergagan bo'lib.

Hojar ona kichkina taqsimchada osh keltirib qo'ydi.

– Olinglar, ona qizim!

Qizlar bir-biriga qarashdi.

Mehri muallima Asal kampirga imo qildi:

– Bularga qoshiq bering!

– Ha-ya, esim qursin!

Bir zumda taqsimcha bo'shadi. Qizlarning yuziga qon yugurdi.

Hosilmata dehsinib ichkari kirdi.

– Momoshka, qorin tatalab ketdi.

Hojar onaning ko'zlari javdiradi:

– Ozgina qirmoch qoldi, bolam, yeysanmi?

– Qirmochmi, irmochmi, nirmochmi, momoshka, farqi yo'q, olib keling! Qorin... qorin quldirab odamni ezib yubordi!

Hojar ona bir taqsimcha qirmochni o'g'lining oldiga qo'ydi. Hosilmat qoshiqni ochiqib og'ziga tiqdi, so'ng yutoqqancha qirt-qirt chaynay boshladi.

Uch yigit, besh qiz ichkari bosh suqdi.

Hosilmat qirmochni ularga manzirat qildi:

– Olinglar, qirmoch rangni toza qiladi, deb eshitganman!..

Yigitlar uning yoniga cho'kishdi.

Tor yubka kiygan to'liqqina qiz:

– Men osh eyman! – dedi shirakayf holda.

Kampirlar bir-biriga ma'noli boqib, o'nilaridan turishdi.

– Bo'ling, – dedi Hojar ona Asal kampirga imo qilib.

– Nima qilamiz endi? – hayron boqdi Mehri muallima.

– Nima qilardik, aylanay, – Hojar ona ostonada turgan rang-barang qimmatbaho tuffilar orasidan eski kalishini topib apil-tapil oyog'ini tiqdi. – Yordam berasizlar, kampir osh qilamiz!

Xo'roz cho'zib-cho'zib qichqirdi, tun yarmidan oqqan edi.



# Abulqosim Mamarasulov

(1958-yilda tug'ilgan)



Abulqosim Mamarasulov 1958-yil 5-fevralda Samarqand (hozirgi Jizzax) viloyatining Bulung'ur (hozirgi Baxmal) tumanidagi Barlos qishlog'ida tug'ilgan. Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat universitetining rus filologiyasi fakultetini tugatgan (1979). «Suyunchi» (1982), «Hayotning bir lahzası» (1985), «Sen uchun yonib» (1988), «Barlos qishlog'ining zumrad tonglari» (1990), «Sevishganlar» (1992) kabi asarlari nashr etilgan.

*Men senga qo'shilib yig'lay olmasman,  
Faqat bosh egaman qayg'ungga so'zsiz.  
Men senga talpinib aslo tolmasman,  
Men seni sevaman, yig'layotgan qiz.*

*Yo'ldosh Eshbek*

## TELBA MUHABBAT

O'sha kuni Halima shifoxonadagi uzun kurslarda dugonalari bilan qaldirg'ochlarday tizilishib o'tirishgandi. Murod bir to'da yigitlar bilan allaqayoqdan kelaverdi. Hammasining kayfiyati ko'tarinki.

Osmon uzilib yerga tushmadi. Yer chappa aylanmadi. Bo'ron ko'tarilmadi. Olamni larzaga solib, momaqaldiroq qarsillamadi. Chaqmoq chaqmadi. Jala quy-madi. Faqat miqtigina, chayir, ko'zlari sho'xchan, qorachadan kelgan, istarasi issiq Halima o'tirgan joyida qotib qolgandi. Go'yo yelkasida bir botmon tosh. Hayrat to'la qop-qora qorachiqlari kengayib ketganday.

– Ana, sening yigiting! – dedi qizlardan biri.

Qizlar kulib yuborishdi, chunki Murod Halimaning hech qanaqa «yigiti» emas, ikkalovi hali biron marta yuzma-yuz ham kelishmagandi.

Umuman, Murod juda g'alati.

G'alatligi uchunmi, Halima qiziqib, qizlar davrasida bir-ikki marta undan gap ochgan, shuning uchun qizlar Murodni Halimaning «yigiti»ga aylantirishgandi. Bu shunchaki hazil deya avvallari Halima o'zini ishontirardi, lekin...

Bora-bora davralarda Halima Muroddan gap ochmay qo'ydi.

Bora-bora Halima ishtirok etadigan davralarda qizlar ataylab Muroddan gap ochadigan bo'lishdi.

Bora-bora Muroddan gap ochilsa, Halima qizaradigan, yuragi tirirchilaydigan va bu suhbatga o'zini go'yo uncha e'tibor bermayotganday ko'rsatishga urinadigan bo'lib qoldi.

Halima istardiki, bir kun Murod uni tushunsa, o't-olov ko'zlarini qadab, yoniga kelsa va... nimadir desa... Ammo Murod haligacha Halimaning yaqiniga yo'lamagandi. Halima esa shunday damni kutardi. Umid qilar va kutardi.

Davolanuvchilar orasida «kandidat» laqabini olgan Murod haqiqatan ham g'alati edi. Ko'pincha yolg'iz yurar, shifoxona hovlisida kam ko'rinardi. Mish-mishlarga qaraganda palatasida o'tirib olib, nuqul dissertatsiya yozgani-yozganmish. Yaqinda fan kandidati bo'larmish. Dugonalar tegishib, Halimani «kandidatning xotini» deb chaqirishardi. Bu hazil Halimaga yoqardi. Shunday yigit umriga yo'ldosh bo'lish – baxt.

Kelishgan, xushbichim, bilimli va hokazo...

Halima goho yigitlar davrasida Murod juda qiziq gaplar aytib, hammani kuldirayotganini ko'rib qolardi. Ha-da! Aynan hammadan chetda yuradigan, xayolparast yigitni ko'pchilikning o'rtasida ko'rsang qiziq bo'larkan. Yana, hammani kuldirsa.

O'sha damda «sening yigiting» degan qiz Halimaning yaxshigina mushtini yedi. Bari bir Halimaga «sening yigiting» iborasi yoqqan, yuragi shirin orziqib, hatto Murod uzoqdan ko'ringandayoq ancha-muncha talvasaga tushgan, zo'berib o'zini beparvo ko'rsatishga urinayotgandi. Ammo qalban Murodning yigitlar davrasidagi har bir qadamini, har bir qarashini kuzatayotgandi. Murod juda xushhol, ko'zlari chaqnoq. Do'stlariga nimanidir quvna b gapiryapti. Halima ham quvonib ketdi.

Qizlar ham shod edilar. Boyadan beri safsata sotib, kulishib o'tirgandilar. Shu quvnoq ruh bois Dilorom:

– Murod, bu yoqqa keling! – deb qoldi.

Birdan Halimaning nafasi ichiga tushdi. Ustiga birov bir paqir muzday suv ag'darganday. Yurak urishi sustlashayotganday. Murodni chaqirgan Diloromga javdirab bir qaradi-yu, ko'zlarini yerga tikdi.

Murod yaqinlashdi.

«O'zini tutgani ma'qul. Tag'in, Halima chindan yaxshi ko'rib qolirti, deb o'ylashmasin».

– Siz nega bunchalar beparvosiz? – dedi dabdurustdan Dilorom dugonalarga ko'z qisarkan.

– Nima, birontasi meni sevib qoldimi? – so‘radi Murod qizlarga bir-bir nazar tashlarkan.

Ko‘z tanishligini hisobga olmaganida Murod bu qizlarning birontasi bilan haligacha hamsuhbat bo‘lmagan, hozirgi hazil-chin aralash gap qo‘shishlar esa tabiiy ravishda ularni birdan ruhan yaqinlashtirayotgan, yigit qizlarning maqsadini gaplari tugamasdan anglab yetgandi.

– Albatta-da! – Dilorom yuziga achinish tusini berdi. – Bechora Halima dugonamiz sizning dardingizda kuyib kul bo‘ldi. Ado bo‘ldi! Bir qaramaysiz ham, ahvolini so‘ramaysiz ham! – Dilorom Halimani bag‘riga bosdi, sochlari, yuzini silab ovutgan bo‘ldi.

Butun vujudi bilan asl holatini bildirib qo‘ymaslikka urinayotgan Halima ham yolg‘ondakam qovoqlarini solgancha, qo‘llarini ikki yonga osiltirib, yerga qaradi.

– Si-iz? Meni yaxshi ko‘rib qoldingizmi?! Nahotki?..

– Ha,.. endi... sizni... – dedi Halima tutila-tutila, xuddi hozir yig‘lab yuboradiganday (aslida ham yig‘lashiga sal qolib), – ko‘pdan beri... ko‘z ostiga... olib yurgandim.

Qiyqiriq kulgu ko‘tarildi.

– O, Halima! – Murod nogahon uning qarshisida tiz cho‘kdi. Qiz hatto kaftlari yigitning kaftlariga tushib qolganini sezmedi hisob. Sezsa-da, tortib olishga yuragi betlamadi. – Nahotki siz rost so‘zlayapsiz?! Nahotki mana shu beg‘ubor ko‘zlar aldamaydi? Nahotki bu oshufta ko‘zlar bir umr menga maftunkorona termuladi?

Murod shunaqangi ilhom bilan ko‘zlari yonib gapirardiki, qizlar o‘zlari boshlagan kulguli mashmashaning davomini zo‘r qiziqish bilan kuzatishardi. Murod qiziqchilik qilayotgani ayon edi-yu, bari bir sevgi izhori hazilmi, chinmi, hech kimni hech qachon loqayd qoldirmagan.

– Men sizga ishonaman, Halima! Bir siz emas, axir men ham olti oydan beri g‘oyibona sizning dardingizda kuyaman! Yonaman!! Men ham sizni jon-dilimdan sevaman, Halima! Dardimni qanday yetkazishni bilmay, arosatda edim. Baxtli tasodifni qarangki, dugonalaringiz bizga xolis xizmat qildilar. O, bu qanday samoviy baxt! Sira ishongim kelmayapti... Halima sizmisiz o‘zi?

– Murod Diloromga o‘girildi: – Men aynan meni yaxshi ko‘rib qolgan qizga sevgi izhor qilyapmanmi?

Yana kulgi ko‘tarildi.

– Ha, ha, adashmadingiz.

«E, ajoyib yigit ekan-ku bu Murod deganlari!»

– Ana, – dedi Murod hamon o‘sha alfozda, – mening yuragim ham sizga bo‘lgan otash muhabbatga limmo-lim. Sizga talpinyapman, sevgilim! Endi sizsiz menga hayot yo‘q! Siz borsiz – men borman bu dunyoda. Endi hech qachon ajralmaymiz. Birga yashaymiz. Ertaga ertalab ZAGSdan o‘tamiz. Yo‘q, qizlar, sizlar kulmangizlar. Halima, jonginam, siz ham kulmang, men yuragimda bor gaplarni aytyapman. Men yuragimni bo‘shatib olmasam, tars yorilib ketadi. Biz birga bax-

tli yashaymiz. Bolalarimiz ko'p bo'ladi. Siz «Qahramon ona» bo'lasiz. Olti marta egizak tug'ib bersangiz kifoya...

– Iy-e, sevgi izhori shunaqa bo'larkanmi? – ajablendi qizlardan biri.

– Siz mening ustimdan kulyapsiz! Men nechun o'z dardimni sizlardan yashirishim kerak? Bu tashna yurak to'lib ketgan. Oshing halol bo'lsa ko'chada ich, deganlar. Halima, siz uyalmang, mayli, dugonalarinigiz meni hazillashyapti, deb o'ylayversin. Hazil yaxshi. Kulishsin, mayli. Hazil hazil bilan-u, ammo men sizni chindan yaxshi ko'rib qolyapman...

– Shuncha gapni qayerdan olyapsiz? Doim indamay yurardingiz-ku! – so'radi Dilorom zavqlanib.

– Men asli kamgap odamman, to'g'ri, – deya davom etdi Murod, – ammo bilingki:

*Yurakkinam alvon yaylov, titrab yotar, sevgilim.*

*Undan tinmay dukur-dukur, otlar o'tar, sevgilim.*

Bu xo'rlangan yurak tuyoqlarning toptashlariga bardosh berolmaydi. Yo'q, men ortiq chidolmayman. Men ketaman! Bu o'lkalardan bosh olib ketaman. Alvido, sevgilim! – deya Murod Halimaning qo'li ustida turgan o'zining qo'lini o'pdiyu, jo'nab qoldi.

– Indamay yurgani bilan ko'p balo bor ekan bu kandidatingizda! – dedi Dilorom. – Hammani jim qildi, ketdi.

... Halimaning o'pkasiga suv yig'ilib qolganmish! Yotirti o'shandan beri shifoxonada. Birinchi kunlari «endi umrim dard bilan o'tarkan», deb necha bor yig'lagan bo'lsa ham tabiatan xushchaqchaq qiz tezda o'zini ovutib olgandi. Shifoxonadagi yigitlarni qizlarga «bo'lishtirgan», o'ziga Murodni «tanlagan» ham Halima edi. Davralarda qizning qattiq-qattiq ovozi, sho'x kulgusi alohida ajralib turardi.

Ana shu Halima Murodni chinakamiga sevib qoldi, shekilli. Bir gapirib o'n kuladigan, uncha-muncha yigitlarni mot qilib ketadigan qiz Murodning qarshisida xijolatdan qizarib, tili aylanmasdi.

Murod hozirgi gaplarini hazil aralash aytib ketdi.

Bari bir yaxshi gap yaxshi-da.

Endi Halima Murodni ko'rsa hayajonlanaveradi. Ayniqsa, uning qarashlari, kulishlari...

Murod esa ko'chada kam ko'rinadi. Oshxonada ovqatlanib bo'lgan zahoti yo'lakdan to'g'ri shifoxona binosiga yo'l olardi.

Kechalari kinoga ham chiqmaydi.

Nuqul yozarmish. Kandidat bo'lish oson emas, shekilli.

Oradan to'rt kun o'tdi. Halima Dilorom bilan kechki ovqatdan chiqib kelishayotgandi, kimdir qo'lidan ushlab to'xtatdi. Halima o'girildi. O'girildi-yu, vujudiga harorat yugurdi. Qarshisida Murod iljayib turardi.

– A, bevafo! – dedi u. – Ko‘rinmaysiz! Uchrashuvga chiqmaysiz? Nima, umrimiz visol damlarini intiq kutish bilan o‘tib ketadimi? Yo boshqa bittasini topib oldingizmi?

Halima lol. Yuragi iydi. Kulimsiradi. Ayniqsa, Murodning o‘tli nigohi uni «o‘ldirayotgandi».

– Halima bevafomi, sizmi? – Dilorom oraga suqildi. – Sevgi izhor qilgandan beri dumingizni ushlatmaysiz-ku!

– Men Halimani bu o‘lkalardan olib ketmoq istayman. Ne baxtki, biz bir-birimizni shifoxonadan topdik. Endi ketamiz. Mening yurtimga ketamiz.

– Yurtingiz qayoqda? – so‘radi Dilorom.

– Baxmalda. Baxmal tog‘larini, Oyqor cho‘qqisini eshitganmisiz? O‘sha tog‘lar etagida bizning Barlos qishlog‘imiz bor.

– Men tog‘da yasholmayman! – dedi Halima azbaroyi hayajonlanganidan, go‘yo Murod uni hozir olib ketib qoladiganday.

– Yashaysiz! – dedi Murod komil ishonch bilan. – Biz sizga barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz. Hovlimizda yigirmata qo‘y, o‘ttizta echki, yigirmata qoramol bor. Har kuni ertalab soat to‘rttdan yettigacha siz ularni tog‘ bag‘rida boqib kelasiz.

– E, boqmayman!

– Nechun? Axir bu siz uchun katta baxt-ku! Tong otmasdan siz Oyqor cho‘qqisining etagida shirin orzular og‘ushida cho‘ponlik qilasiz. To‘g‘ri, bizda bo‘rilar ko‘p. Yesa yeb ketar, nima bo‘pti? Axir bu romantika-ku! Tasavvur qiling: agar qaytib kelmasangiz, butun qishloq oyoqqa turadi. Sizni izlaymiz... va xarsanglar orasidan qop-qora qonga belangan oppoq harir ko‘ylagingizni topib olamiz. To‘y kechasi siz ana shu ko‘ylakda edingiz. O, mening armonlarim! Ushalmagan orzularim! Qonli ko‘ylagingizni ko‘zlarimga surtib yig‘layman. Siz emas, bir umr men baxtsiz bo‘lib qolaman. O-o! Oyqorda bir qabr bor. Unga siz dafn etilgansiz. Siz emas, u yerga mening ushalmagan orzularim dafn etilgan. Har tong g‘am-anduhga botgan bir g‘arib kimsa qo‘lida bir dasta anvoyi gullar bila Oyqorga ko‘tariladi. U har kuni qabrni changallab, sochlarini yulib, betlarini timdalab, faryod chekadi. O‘sha – men! Sevgilingiz, sizning bebaxt sevgilingiz!

Murod gapdan to‘xtadi. Bir necha daqiqa hammalari jimib qolishdi.

– Odamning eti junjikib ketdi, – dedi Dilorom nihoyat o‘ziga kelib. – Gaplaringiz buncha sovuq?

– Nima, dissertatsiyangizga shunaqa narsalar yozyapsizmi? – so‘radi Halima hayajon bilan.

– Ha. «Murod bilan Halimaning fojiali sevgisi tarixi» degan mavzuda.

– Qiziq ekansiz, – dedi Halima past ovozda. – Qachon jiddiy gapiryapsiz, qachon hazillashyapsiz, bilib bo‘lmaydi. Uch-to‘rt kunlab ko‘rinmaysiz. Ko‘rinsangiz, gapirib-gapirib jo‘nab qolasiz...

– Yoningizda yurishimni istaysizmi?!



Halima Murodga o'g'irildi. Eng qo'rqqani – Murodning ko'zlariga duch keldi-yu... «Men seni sevaman!», derdi Murodning ko'zlari. Bitmas-tuganmas baxt va'da qilardi bu ko'zlar! Bu ko'zlar yonardi. Bu ko'zlar Halimaning oromini o'g'irlagandi.

– Nima balo, siz meni rostdan yaxshi ko'rib qolyapsizmi, deyman-da, a?

– Siz-chi? Siz yolg'ondakam deb o'ylaganmidingiz? – dugonasi o'rniga Dilorom javob berdi.

– Ha-da!

– Demak, o'zingiz ham yolg'ondan sevgi izhor qilayotgan ekansiz-da?!

– Men-ku, Halima deb es-hushimni yo'qotganman, ammo Halima hazillashyapti, mening ustimdan kulib yurirti, deb o'ylagandim.

– Bu gapingiz ham hazilmi?

– To'g'risi, qachon hazillashaman, qachon jiddiyman, o'zim ham ajratolmay qoldim. – Murod kulib yubordi. – Xo'sh, borasizmi bizning Baxmalga?

– Shunaqa vahimali narsalar aytyapsizki, men Halimaning o'rnida bo'lsam sirayam bormasdim.

– Ko'ngilga xush yoqadigan narsalar ham aytishim mumkin. Mayli, Halimani bo'rilar yemasin. Halima hech qachon qo'y-echki boqmasin. Tasavvur qiling: Bahor! Lolalar hamma tarafda qir-qizil bo'lib ochilgan. Qizg'aldoqlar qir-adirlarga to'shalgan. Yon bag'irdagi Oysharrak bulog'idan sharqirab oqayotgan zilol suvlar soylarga tomon yuguradi. Erta tong. Halima oppoq harir kelinlik libosida ko'za ko'targancha buloq boshiga bormoqda. Mayin tog' shabadasi sochlarini o'ynayapti. Halima baxtiyor! Lablarida sokin tabassum. Ana! Yuzini muzday suvga chayqayapti. Shu payt men orqasidan boramanu, ko'zlarini yashiraman. Bu men ekanligimni Halima yaxshi bilgani uchun qo'llarini qo'llarim ustidan bosadi. Qalblardagi harorat qo'llarga, qo'llardagi harorat qalblarga o'tadi. Halima o'zini mening og'ushimga tashlaydi. Bir-birimizga termulamiz. «Men baxtliman!» deya pichirlaydi Halima va ko'zlarini yumadi. Men Halimaning qop-qora, mayin sochlarini mehr bilan silayman...

– Bilibsiz! Ko'zlarimni yashirganingizdayoq ko'za bilan boshingizga solib qolaman, – dedi Halima oz-moz og'rinish bilan.

– Ana sizga buloq! Endi nima bo'ldi?

– Nima bo'lardi. Boshim yorilib, hushimdan ketib, yiqilaman. – Halima o'g'iriladi-yu, qattiq dahshatga tushadi, chunki meni qandaydir yovuz niyatli odam deb o'ylagan-da. Tezda boshimni tizzasiga olib, peshanamni tang'iydi. Ammo qon oqaveradi. Nafas olmay yotaveraman. Halima yuzimga suv sepadi, yoqamdan tortib, silkiydi, yum-yum yig'laydi. «Sizki bu dunyoda yo'qsiz, menga yashash na darkor?», deb sal naridagi tik jarlik tomon yuguradi. Halima o'zini halok qilishga chog'lanayotganini anglaymanu, to'lqinlanib ketaman (Yolg'ondakam o'zimni o'lganga solib yotgan bo'laman-da.). Tomog'im bo'g'iladi. «To'xta, Halima!» deya hayqiraman. Halima to'xtaydi. Ko'zlariga ishonmaydi. Majoli qurib cho'kka tushadi. Kulib yig'laydi, yig'lab kuladi. Barmoqlarini tishlagancha, titrog'ini bos-

moqchi bo'ladi, lekin bosolmaydi. Men ham yig'layman. Hech kim hech qachon meni Halimadek seva olmasligiga hozirgina ishonganim uchun yig'layman. Sal bo'lmasa Halimadan ajrab qolishim mumkinligini anglab yetganim uchun Xudoga shukr qilib yig'layman...

Murod bu ertagini ham tugatdi.

– Yozuvchiga o'xshab gapirasiz-a! – Dilorom hayratlandi.

– Aspiranturaga kirishdan oldin muxbirlik qilganman. Halimalarning qishlog'ida ham bo'lganman, – dedi Murod. Nogoh uning nigohi sovuq chaqnadi.

Shifoxona binosiga yetib keldilar. Qizlar hali sayr qilishni istardilar «Unda o'zlaring aylanaveriqlar», deb Murod ichkariga yo'l oldi.

«Demak, xabari bor shekilli».

Halimaning butun vujudi zirqirab ketdi.

\* \* \*

O'shanda, viloyat markazida bo'lgan majlisda Halimani mukofotlashdi. Majlisdan chiqib, Klara, Ismat bilan birga kechqurun restoranga borishdi. Halimaning mukofotini yuvishdi. Halima ham ozroq ichdi. Es-hushi joyida edi. Mehmonxonaga kelib, Klara ikkovi o'zlariga ajratilgan xonada yotishga hozirlanishdi. Keyin yarim kechaga yaqin «opa chaqiryapti» deb, Ismat Halimani chekkadagi bir xonada Erkin Eshboyevichga duch qildi. «Opa» viloyat miqyosidagi rahbar edi. U chaqirgan joyga bormaslik mumkin emasdi. Keyin... nima voqea yuz berganini Halima faqat ertalab angladi. Lekin baqirmadi, chaqirmadi, Erkin Eshboyevichga yig'lab tarmashmadi. Shunaqa holga tushgan qizlar haqida ko'p eshitgani bois qachondir o'zi ham shu holga tushib qolishdan qo'rqib, hadiksirab yurgani bo-ismi, tushunib bo'lmaydigan bir xotirjamlik va befarqlik bilan kiyimlarini kiyib, ayvonchaga chiqdi-da, panjaraga suyandi. O'h-ho'! To'qqizinchi qavatda... O'zini tashlasa-chi? Nega? Nima uchun? Kim uchun?

– Iy-e, Halima!

Halima o'zini pastga tashlamoqchi deb o'yladi shekilli, Erkin Eshboyevich jonholatda yugurib kelib, qizning yelkasidan tutdi. Halima bir silkinib o'zini bo'shatdi.

– Esingizni yeb qo'yingizmi? – Erkin Eshboyevich hansirardi. Keyin o'z qurbonining o'ta loqayd, lo'q ko'zlariga qarab, shashtidan tushdi. Qo'lini tortib olib, panjara tomonga o'tdi. – Halima, siz menga qizim qatorisiz, o'z qizimday... Bilmayman, meni... Xayolimda hech narsa yo'q edi. Sizga hurmatim juda zo'r. Bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Siz mening gaplarimni eshitishni istamayapsiz. Mayli, bo'lar ish bo'ldi. To'g'risi, oldimdan norozi bo'lib chiqishingizni istamayman. Hozircha siz mana shuni olib keting. Qolganini keyin gaplashamiz.

Erkin Eshboyevich qizga bir dasta pul tutqazdi. Halima hamon loqayd ahvolda turgani uchun pulni qanday olganini o'zi ham anglamadi. Qo'lidagi pulga qaradi-yu, birinchi marta xo'rliqi keldi. Demak... Erkin Eshboyevich yana gapga tushdi. Bir balo qilib, tinchgina qutulmoqchi. Halima tirqirab kelayotgan ko'z

yoshlarini ko'rsatmaslik uchun lom-mim demay chiqib ketdi. Xayoliga bir fikr kelgan edi. Shuning uchun to'g'ri Ismatning xonasiga bordi. O'ylaganiday, yo'q ekan. O'zlarining xonasiga o'tdi. Eshikni ancha taqillatishga to'g'ri keldi. Nihoyat sochlarini nari-beri taragan Klara tugmalarining ko'pi qadalmagan xalatining yoqasini g'ijimlagancha, eshikni qiya ochdi. Halima o'zini ichkariga urdi.

Gumoni to'g'ri edi. Ismat shu yerda ekan. Shosha-pisha kiyinardi. Halimani ko'rib, barmoqlarining uchi tugmani qaday olmay, qaltirab qoldi. Halimaning eshushi joyida, fikrlarini jamlab bir qarorga kelgan edi. O'sha loqayd alfozda ko'zlarini lo'q qilib, bir qadam oldga yurdi. Ismat tisarilib, divanga o'tirib qoldi. Halima qo'lidagi pulni Ismatning tizzasiga qo'ydi. So'ng jomadonini olib, kiyimlarini yig'ishtirishga tushdi. Klara bilan Ismat nima deyishlarini, nima qilishlarini bilishmasdi. Halima esa, go'yo xonada hech kim yo'qday, sochiqni olib, vannaxonaga kirib yuvindi, kiyimlarini almashtirdi. Bu orada ichkarida g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari eshutilib turdi. Klara bilan Ismat nimanidir tortishardi. Halima qaytib chiqqanda ikkovi yana jim bo'lib qoldi. Nihoyat Halima jomadonini ko'tarib, ketishga chog'langanda Ismat chiday olmadi.

– To'xtang, Halima! Bu birgina mening ishim emas! – Ismat yig'lamsiragancha pulni otib tashlab, ko'kragiga mushtladi. – Bo'lib o'tgan gaplarni bilib keting. Men bor-yo'g'i buyruqni bajardim, xolos. Mening hech qancha aybim yo'q. Siz meni tushuning, Halima! – Ismatning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqdi.

– Ismat Sa'dullayevich!

– Nima? Nima? Nima?!

Ismat o'g'irilgancha Klara tomon yurgandi, Klara uni shapaloqlab soldi. Ismat yuzini ushlagancha g'azabi ham, alami ham so'nganday divanga cho'kdi. Halima hali aytilmagan gaplar borligini anglab, to'xtadi. Lekin hech kimdan sado chiqmasdi. Nogahon Halimaning nigohi divanda, polda betartib sochilib yotgan pullarga tushdi. Jomadonini qo'yib, erinmasdan pullarni bittalab terib oldi-da, yana Ismatning tizzasiga qo'ydi.

– Buni anovinga bering! – dedi Ismat jonholatda pullarni Klaraning yuziga otib. – Hamma ishni qilgan o'sha! Menga bunday qaramang, Halima! Qahvaga qo'shib berasiz, deb Erkin Eshboyevichga uxlatadigan dori topib bergan ham anovi jalab!..

– Ablah! – Klaraning ko'zlari telbalaricha chaqnab, Ismatning yuziga chang soldi. – Sin jalab! Irkin Ishbayevich jalab!..

Ikkovi jiqqamusht bo'lib ketishdi. Halima tishlarini tishlariga bosgancha tashqariga otildi.

\* \* \*

G'alati yigitning yonida yursang o'zing ham g'alati bo'lib qolarkansan. Halima bu gaplarni aytaman, deb sira o'ylamagandi.

Oradan uch-to'rt kun o'tdi. Murod yana avvalgiday parishonxotir holda faqat oshxonada ko'rinar, qizlarga ko'zi tushsa, bosh irg'ab salomlashar, tushmasa, o'zi bilan o'zi band, xayol surardi.

Halima esa... Halima endi... U o'zini o'zi tushunmayotgandi. Murod uni yaxshi ko'rmasligi aniq. Shunda ham ko'ngil... Dardlarini dugonalaridan yashirishga urinar, agar davrada Murod haqda gap ochilsa, kulgu bilan qutulardi. Murod esa...

Bir kuni oqshom shifoxona bog'ida sayr qilib yurishganda tasodifan (tasodifmikan?) qarshilaridan Murod bir do'sti bilan chiqib qoldi.

– Mening jondan aziz sevgilim! – dedi Murod quloqlarini yozib. – Nahotki bu siz?! Men sizning dardingizda kuyib kul bo'ldim. Sizni izlab chiqqan edim. Yuring. Hozir hayotimizda ilk visol damlari boshlanadi. Dilorom, siz mening do'stimni ovutib turing. Bizning Halima bilan ancha-muncha maxfiy gaplarimiz bor.

Murod Halimani yetaklagancha kichik yo'lakcha bo'ylab ketaverdi. Halima qarshilik qilishga o'zida na kuch, na jur'at topa oldi.

– Siz nega doim mendan qochasiz? – so'radi Murod yo'l-yo'lakay.

– Qochgan menmi, sizmi?

– Demak, meni kuzatarkansiz-da!

– Endi siz... kasalxonada o'zi bitta yigitsiz, albatta kuzatamiz, – dedi Halima og'rinib.

– Mayli, shunday ekan, bugundan, hozirdan boshlab bir umrga birga bo'lamiz, xo'pmi?

– G'alati gaplar... xuddi bozordan mol sotib olayotganday savdolashasiz, a? – dedi Halimaning ko'ngli buzilib.

Ikkovlon necha marta suhbatlashgan bo'lsa, Murod birinchi marta gap topolmay qoldi. Ular jimgina bog'ning qorong'i, xilvat tomonlariga borardilar. Murodning yuzidagi quvonch o'rmini ayanchli ishshayish egallagan, buni Halima payqamas, payqashga urinmasdi ham.

– Halima! – dedi jiddiylashgan Murod to'xtagancha uni ikki yelkasidan tutib o'ziga qaratarkan. Uning vajohati buzilgan, qiz o'zini qattiq sevib qolganini endigina payqayotgan, nimalarnidir aniqlashga urinar, qizning muhabbati uni hangu-mang qilib qo'ygandi. – Men ahmoq nimalarni o'ylab... Eh! Nahotki siz meni sevib qoldingiz?

Halima boshini egdi.

– Nimaga javob bermaysiz, Halima? – Murodning ovozi qaltiradi. – Men buni bilishim kerak.

Olisdagi simyog'ochga ilingan elektr chirog'i ikkovi tarafga sal-pal nur taratar, Halimaning yuzi zo'rg'a ko'rinar, kayfiyati qattiq buzilgani aniq edi. Halimaning yelkalari sekin-sekin titray boshladi. Keyin yo'lka o'rtasiga o'tirgancha, tizzalariga boshini qo'ydi. Murod hayron bo'lib, cho'kkaladi-yu, qizning boshini ko'tarib, o'ziga qaratishga urindi. Halima uni silkib tashladi. Halima yig'lardi. Unsiz, butun vujudi qaqshab, qaltirab, yig'lardi.

– Iy-e! Sizga nima bo'ldi?

– Siz? Siz bariga aybdorsiz! Men hali sizni yaxshi ko'rib ahmoq bo'lganim yo'q. Sizning nimangizni yaxshi ko'raman? Kandidat bo'lsangiz o'zingizga!

Nima qilasiz mendan ko'ngil so'rab? Bari bir ikki dunyodayam menga uylanmaysiz-ku! Qizlar menga «yigiting» deb sizni ko'rsatishayapti. Siz axir mening yigitim emassiz-ku! Hozir meni poylab keldingiz. Sizni yaxshi ko'rishimni allaqachon bilgansiz. Toqatim toq bo'lganiga ishonch hosil qilib meni qorong'ulikka boshlab keldingiz... Xo'sh, nega indamaysiz? Shumidi maqsadingiz? Shumidi?! Yo yolg'onmi? Siz nuqul qizlarni ahmoq qilib o'rgangansiz. Yo meni ham ahmoq deb o'yladingizmi?.. Men ahmoq bo'lmasam, sizdek ablahni sevib qolamanmi? Dunyoda yigit zoti qurib ketganmi? Men... eh, sho'rpehana! Nimaga jimsiz? Nimaga?! Nimaga?! – Halima sakrab turgancha, yigitning yoqasidan tutdi. – Gapirsangiz-chi axir, Murod aka! Siz indamaganingiz sari men qo'rqayapman. Men ahmoqman! Men jinniman! Men sizni yaxshi ko'raman, Murod aka!..

– Halima, Halima!.. – Murod yana nimadir deb g'o'ldirayotgandi, Halima kafti bilan uning og'zini to'sdi.

– Yo'q, gapirmang! Gapirsangiz battar qo'rqaman. Iltimos, Murod aka, gapirmang. Men jinni bo'lib qolayotganga o'xshayman...

– Halima!!!

– Gapirmang! Keting! Ko'rgani ko'zim yo'q sizni! – Halima panjalari bilan yuzini to'sgancha, yana cho'kkaladi.

– Halima, o'zingizni bosing.

– Keting dedim. Shafqatingizga zor emasman. Istamayman, bildingizmi, istamayman! – Halima o'rnidan turgancha yer depsindi. – Nimaga bo'zrayasiz? Yana ko'z yoshlarimni ko'rmoqchimisiz? Siz uchun yig'lagan men tentak! – Halimaning ko'zlaridan shashqator yosh quyilardi. – Keting! Tinch qo'ying meni, iltimos...

Murod nihoyat boshini eggancha yo'lga tushdi.

– Murod aka, siz nima qilyapsiz?

Murod shoshilgancha o'girildi.

– Nega meni tashlab ketyapsiz? Ket desa ketaverasizmi? Siz axir yigitsiz-ku! – Halima sal yorug'roqqa chiqqan, yig'idan nam ko'zlari baxtiyor chaqnar edi-yu, Murod chopqillab qaytib keldi.

– Siz haqiqatan ham g'alatisiz, a, tovba! Qiz bolaning ham aytganini qilar-kanmi? Ushlang qo'ltig'imdan, ha ana, endi yuring. Gap degan bunday bo'pti-da. Voy tovba-ey! Juda g'alati qizga duch kelib qoldim, deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak, a?

– Halima, men sizga bir gapni...

– Yo'q, yo'q, gapingiz kerak emas, gapirmang.

– Men bilishingizni istayman! Men uylanganman, axir!

Bir dam Halimaning nafasi ichiga tushib ketdi. Keyin shod kayfiyatini yo'qotmaslikka urinib, yasama quvnoq holda, ammo siniq ovoz bilan dedi:

– Mayli, hech qachon menga uylanmang! Mana shu yurishimizning o'zi men uchun katta baxt!

Ularning yurishi tezlashib, yoruqqa chiqdilar. Dilorom bilan Murodning do'sti bog'ning chetidagi kursida o'tirishgan ekan. Halima yigitni qo'ltig'idan

bo'shatdi-da, «yaxshi sayr qiling» deganicha sirli, ayni damda ayanchli shivirlab, chopqillaganicha Diloromni sudrab ketdi. Palataga kirar-kirmas Halima Diloromni mahkam quchoqlaganicha o'paverdi. Tishlab-tishlab o'pard. Dilorom voy-voylab yulqinar, ammo Halima qo'ymasdi.

– Yeb tashlagim kelyapti sizni! E tavba! Jinniman men, g'irt jinniman! Kandi-datni kaput qildim. Bechora mung'ayib qolirti. Men – malades! Zo'rman! Tarjimai holini butkul aytib berishga majbur qildim. Oh! Ta-ra-ram-ram, ta-ra-ram-ram!... – Halima o'yinga tushib ketdi.

Dilorom Halimaning telba-teskari harakatlariga ko'nikib qolgan edi, lekin...

– Siz uni haqiqatan sevib qolirsiz!

– Men sizga nima deyapman, ni-ma de-yap-man?! – Shu topda Halimani mut-laqo tushunib bo'lmasdi. – Men uni emas, u, u meni sevib qoldi! U!

Xonaga boshqa qizlar kirib kelishdi.

– Do'stlarim! – dedi mag'rur Halima tantanavor, qo'llarini keskin silkitarkan. – Men es-hushimni yo'qotdim. Bilasizlarmi, men... jinniman! – Halima o'zini karovatga tashladi. – Bilasizlarmi, sevish qanday yaxshi! Uh, nomardlar-ey. Nega indamaysizlar?.. Menga hech narsa kerak emas. Bittang ham kerak emas-san! Ketinglar! Hammang ket. – Halima birdan o'kirib yig'lab yubordi. Yuzini yostiqaqqa yashirdi.

Qizlar hozirgina bulbulday biyron sayrayotgan Halimaga tushunmasdilar.

– Ketinglar, ketinglar! – yulqinardi yig'layotgan Halima. – Tinch qo'yinglar meni. Hammang... hammasi... bir go'r! Sevmaydi u meni...

– E, qurib ketsin Murodingiz! – Dilorom achchiqlandi. – Qo'ysangiz-chi, o'shanga ham yig'laysizmi? Murod sizning tirnog'ingizga ham arzimaydi, kerak bo'lsa... Qizlar, boringlar endi, Halima ozroq dam olsin.

Palatada ikkovlon qolishdi. Halima qimirlamay jim yotar, Diloromning esa yuragi ziq bo'lib ketgan, ammo bir og'iz gap so'rashga jur'ati etishmasdi. Nihoyat Halima o'girilib, dugonasiga xomush tikildi. Kulimsirashga urindi, ammo ko'zlarida yosh. Cheksiz dard yotardi Halimaning qorachiqqlarida. Bu dardlarni So'z bilan ifodalash shart emas.

Muhabbat ana shunday kuchli...

Haqiqiy muhabbat ming yilda bir keladi, deganlari rostmikan?

– Qo'ying o'shani, – dedi Dilorom dugonasini yupatishga urinib. – Dunyoda undan ming karra yaxshi yigitlar to'lib-toshib yotirti.

Halima sukut saqladi. Armon bilan ko'zlarini yumdi. U hozirgi holatida um-rini yig'i bilan o'tkazgan, kulish nimaligini bilmaydigan odamga o'xshardi. Murodga ko'ngil qo'ya boshlagandan beri dilining to'rida cho'kib, to'planib yotgan armonlari hozir birvarakay junbushga kelib, Halimani ming bir ko'yga solayot-gandi.

– Gapirsangiz-chi, yuragim to'lib boryapti. Hozir men ham yig'lab yuboraman. Nimaga... G'alati bo'lib qoldingiz? – Dilorom «jinni» deb yuborishiga sal qoldi.

Halima miyig'ida kulimsiradi.

– Uylansang uylan, yo'qsa kallamni garang qilma, menga sendan boshqa sovg'i yuborayotganlar ham to'lib yotirti, demadingizmi?

– Bizning bahorimiz o'tgan, – dedi Halima afsus bilan. – O'n sakkiz yoshli qizlar kammi?

– Voy nomard-ey! Hali o'shanaqasidan olaman, dedimi? Unda «Nega tiz cho'kding? Nega u gaplarni aytding?» deb yoqasidan olmadingizmi?

Halima ma'yus bosh chayqadi.

– Shoshmay tursin, ko'rsatib qo'yaman unga... Mening qo'limga tushadi hali. Uff! Yonib boryapman! – Dilorom shasht bilan ayvoncha eshigini ochdi.

Palataga xushbo'y bahor havosi kirib keldi. May oyining eng latif kechalari-dan biri. Shifoxona bo'ylab ekilgan qator teraklar oxirgi to'rtinchi qavatdan ham baland. Daraxtlarning naryog'i bedazor. Yaqinda o'rim boshlanadi. Halimalarning xonasi uchinchi qavatda...

Yuqorigi qavatdan hazin xirgoyi eshitalardi. Ayvonchada tinmay gapirayotgan Dilorom o'girilib dugonasiga qaradi... Halima jilmayardi.

– Nima balo, rostdan jinni bo'lib qoldingizmi?

– Eshiting, – deya shivirladi Halima, ko'rsatkich barmog'ini labiga bosib shivirlagan ko'yi ayvonchaga chiqarkan.

To'rtinchi qavatda, o'zlaridan ikki deraza narida Murod ayvoncha panjarasiga suyangancha, qorong'ilik qa'riga ma'yus tikilib, qo'shiq aytardi:

*Seni yupatmoqqa jur'at yo'q menda,*

*Sen mening kechmishim, umrim bo'lagi.*

Murod qizlarni ko'rmasdi. O'zicha xirgoyi qilardi. Balki ataylab Halima uchun kuylayotgandir.

– Obbo jinnilar-ey! – Dilorom o'zini to'xtata olmasdi. – Bir sizmi desam, u sizdan battar.

Halima Diloromning gapini eshitmadi. Eshitsa ham e'tibor bermadi. Murod uni...

– Sizlarni tushunmayapman, – ajablandi Dilorom. – Bir daqiqa o'tmaydi – kulasiz. Bir daqiqa o'tmaydi – yig'laysiz.

Murod esa kuylardi:

*Yig'lamoq tilarman, qaynab yig'lagin!*

*Tishlaringni sekin qayrab yig'lagin!*

– Ha, do'-o'st! – deya yuqoriga qichqirdi Dilorom. – Juft bo'lsin. Yangilik-ku! Bitta-yarimtasi yurakdan urdimi?

– Ha-da! Oshiq ko'ngil kuylamoq istaydi, – dedi Murod kuylashdan to'xtab. – Bu telba ko'ngil ko'p narsalar istaydi.

– Nimagadir shu ishlaring menga yoqmayapti, – dedi bir joyda turolmay ichkariga kirib chiqayotgan Dilorom. – Siz sog'lingizni o'ylashingiz kerak. Vrachning gapini unutdingizmi?

«Siz o‘zingizni nihoyatda ehtiyot qilishingiz kerak, – degan edi vrach Halimaga. – Suv nafaqat o‘pkangizga, balki jigaringizga, yuragingizga ham ta’sir qilgan. Sizga qattiq hayajonlanish mutlaqo mumkin emas. Agar aytganlarimni qilsangiz, hali uzoq yillar yashaysiz. Siz hali hayotda nimani ko‘rirsiz?..»

Halima ma’yus, parishon kulimsirab karovatiga o‘tib yotdi. Dilorom chiroqni o‘chirdi.

Halima uxlay olmas, to‘lg‘anardi. Kechasi bilan Dilorom Halimaning goh hiqillab, goh shivirlab nimalarnidir gapirayotganini sezib yotdi. Faqat tong oldidan Halima tinchib qoldi.

Tong otdi. Navbatchi hamshira avval palatalarga bir-bir kirib, kimga issiqlik o‘lchagich kerakligini so‘rab chiqdi, keyin dori tashlab ketdi.

Halima devorga o‘girilganча qimir etmay yotaverdi.

Dilorom yuvinib keldi, oshxonaga nonushtaga borish payti yaqinlashdi hamki, Halima qimirlamasdi. Nihoyat nonushtaga borishga tayyorlanayotgan Dilorom o‘z karovatida o‘tirib, soch tararkan:

– Turing, ey, oshiqi-beqaror! Murodingiz ko‘zlari to‘rt bo‘lib, yo‘lakda sizni kutyapti, – dedi.

Halima qimirlamay yotaverdi. Avvallari Muroddan gap ochilsa, Halima hazilmi, chinmi, tirirchilab qolardi.

– Tursangiz-chi! – Dilorom cho‘zilib, Halimaning yelkasidan tortdi.

Halima shilqillab ag‘darildi-yu, yarim yumuq ko‘zlari shiftga tikilganча, qotdi. Uning badani daqiqa sayin sovib borar, qop-qora qorachiqlarida hayronlik, hayrat, iztirob, alam, «Men dunyoga kelib nima ko‘rdim?» degan achchiq savol va bilinar-bilinmas tabassum qotib qolgan edi...



# Shoyim Bo'tayev

(1959-yilda tug'ilgan)



Shoyim Bo'tayev 1959-yil 20-iyunda Tojikistonning O'ratepa tumaniga qarashli Maydoncha qishlog'ida tug'ilgan. Xo'jand Davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini tugatgan (1982). Ilk qissasi – «Sirli yulduzlar» (1984). Shundan so'ng yozuvchining «Dunyoning sarhisobi bor» (1988), «Endi bari hoshqacha» (1990), «Shamol o'yini» (1995), «Kunbotardagi bog'» (1997), «Hayot» (2000), «Ko'chada qolgan ovoz» (2005) kabi qissa va hikoyalardan iborat to'plamlari nashr etilgan. «Qo'rg'onlangan oy» (1996), «Shox» (2007) kabi romanlar muallifi.

«Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan (2001).

## HISOMIDDIN AL-YOG'IY

Qish chillasi oyoqlandi.

Sovuq zabtiga oldi.

Masjid ayvonida tirik jon ko'rinmasdi, uzoq-yovuqdan oqib kelishgan namozxonlar o'zlarini ichkariga olishgan.

Besh-olti yuz namozxonni bermalol sig'dira oladigan bu binoni har biriga duradgorlar tomonidan oylab ishlov berilgan o'n ikki yog'och ustun o'z kiftida tutib turardi. Bu ustunlarda o'n ikki mamlakatning san'atini, urf-udumini ko'rish, didini payqash mumkin edi. O'n ikki mamlakatdan kelishgan ustalar o'zlarining bor hunarlarini yog'ochlarga muhrlagandilar. Endi ular oddiy yog'och emas, balki, masjidning ko'rkiga ko'rk, salobatiga salobat bag'ishlab turgan yuksak san'at namunalari edi.

Juma namozi bo'lgani uchun masjidda odam tirband; ular bir-birlariga ozor va xalaqit bermaslikka urinib, namozning boshlanishini betoqat kutar edilar.

Mehrob oldida darveshlar darveshi, shayxlar shayxi Hisomiddin al-Yog'iy sukut saqlab turardi.

Egnida janda qabo, boshida rangi o'ngib ketgan kalonsuvo.

Bunday kiyim-bosh masjidning hashami, ayrim namozxonlarning zarbof to'nlariga muqoyasan qaralganda judayam bechorahollik alomati bo'lib tuyulardi.

Bundan tashqari, shuncha odamning ana shu bechoraholday ko'ringan kekxa shayxning og'ziga tikilgancha, ilhaq turishida ham qandaydir ilohiylik mujassam edi.

Yetmishlardan oshgan oppoq soqolli shayxning nur yog'ilib turgan yuzida, o'tkir qarashlarida, ozg'in yelkalarini adl tutishida masjidni fayziyob etadigan, namozxonlar safini jirslashtirib-bog'lab turadigan allanarsalar mavjud edi.

Namoz boshlanishiga sanoqli daqiqalar qoldi.

Namozxonlar bezovtalana-tashvishlana boshladilar.

Ularning nigohlarida, endi nima bo'larkin, deganga o'xshash so'roq soylari izg'irdi.

Endi nima bo'larkin?

Bu savol bejiz emasdi.

Gap shundaki, hamon ulug' sulton Alouddin Tarmashirindan darak yo'q edi.

Xitoy, Hindiston, Iroq podshohlari va O'zbek mulki orasidan musti mustahkam o'rin olgan Movarounnahr sultoni Alouddin Tarmashirin qo'shinining hisobsizligi-yu yovqurligi, sarhadlarining poyonsizligi-yu ilkidagi zaminning jan-natmakonligi, ahli raiyatning farovonligi-yu ular orasida adolatni qaror topdirganligi tufayli yengilmas va qudratli deb nom olgan edi. Shu bois, nainki chegaralari tutash mamlakatlarga, balki, uzoq-uzoqlarga – ummon osha, tog'lar osha dong'i ketgan edi.

Necha yildirki, sulton juma namozini shu masjidda o'qiydi.

Sultonning xos mahrami biroz avvalroq namoz o'qiladigan gilamchani meh-rob yonidagi maqsuraga<sup>1</sup> to'shab ketar; shundan so'ng mahramlari, akobirlari, shotirlari qurshovida sulton yetib kelar, gilamcha ustiga cho'kkalar, u bilan birga kelganlar yon-atrofidan, ortidan joy olishardi.

Bugun esa...

Hali gilamcha ko'targan mahram ham ko'rinmadi.

Nima bo'ldiykin?

Bu hol Hisomiddin al-Yog'iyga qanday ta'sir qilarkin?

Kekxa shayxning nigohida qilt etgan o'zgarish sezilmasdi.

U faqat namozni boshlash tadorigini ko'rar, teran ko'zlarida bugungi va'zini ko'ngillarga chuqur joylay bilishini anglatuvchi ifodalar bor edi.

Og'ir eshik g'iyqillab ochildi.

Ichkariga sovuq havo yopirildi.

Eshikka orqa o'girib o'tirishgani uchun namozxonlar «guvv» etib yelkalari osha ortlariga o'girilib qarashdi.

<sup>1</sup> Maqsura – mehrob yonidagi alohida ajratilgan o'rin, davlat boshliqlari namoz o'qigan.

Namozxonlar bilan yuzma-yuz turgan shayx ko'zining qirinigina tashlab qo'ydi. Nainki eshikning ochilishi, balki qo'porilib tushishi ham uni zarracha bezovta etolmasligi ayon bo'ldi.

Eshikka yaqin o'tirgan, ko'rinishidan-da, kiyinishidan-da bu yerlikka o'xshamagan o'ttiz-o'ttiz besh yoshlardagi o'rta bo'y, katta-katta ko'zlaridan mug'ombirlikka qorishiq aql porlab turgan kishi qalingina po'stin kiyganiga qaramay, o'zini sovuqdan chetga olayotgandek beixtiyor siljib qo'ydi.

Bu odam yurtma-yurt, sarhadma-sarhad kezib yurgan marokashlik sayyoh edi.

Uning yo'lga chiqqaniga o'n yillardan oshib ketdi.

E-he, bu vaqt ichida nimalarni ko'rmadi-yu!

Olimu devona, bo-yu faqir, dono-yu nodon, kamtaru muttaham, pastkashu olijanob, xasisu saxiy zotlarning betinim oqimidan misli ummondek to'lqinlanib yotgan shaharlardan tortib tahqirlangan odamlari johillikka, yolg'on da'volarga, munkirlikka yuz tutganliklaridan yerparchin qilingan ellargacha u ko'rdi.

Odamsod misli hasharot, deya o'yladi.

Ammo, uni yuksaltiruvchi birgina narsa bor, deyishadi.

Nima o'sha narsa?

Sayyoh betinim qidiradi, qidiraveradi...

Oyog'i yetgan notanish joylar uni hayratga soladi.

Bu hayrat yana qadam bosishga undaydi.

Axyri, hayrati yetaklab kelgan joy shu bo'ldi.

Avval Shayx Hasan va Hisomiddin al-Yog'iy bilan tanishdi.

Sayyoh ularga otasining ham faqih bo'lganligini, o'zining ko'plab musulmon allomalarining va'zlarini tinglaganligini, hadislarni yod olganligini aytib, ba'zi masalalar xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirgach, lahza ichida dunyoni bir necha marta kezib chiqa olgulik karomatga ega ikkala shayx marokashlik sayyoh ham olamni faqat oyoq bilan aylanib yurmaganini zohiran bo'lmasa-da, ichdan tan olishdi.

Ular sayyohni sultonga yuzma-yuz qilishdi.

U haqda gapirib berishdi.

Sulton unga iltifot ko'rsatib, kulimsiradi:

– Xushmisan, yaxshimisan, qutlug' o'lsun, – dedi sof turkiy tilda.

Sayyohni sulton iltifotidan ham ko'ra u so'zlamish tilning jozibasi, ulug'vorligi-yu tantiligi lol etdi.

Sulton aytgan so'zlarni yodlab oldi.

Taqlid qilayotganini o'ylab ham o'tirmay, kim bilan ko'rishsa-da, shu so'zlarini aytdi:

– Xushmisan, yaxshimisan, qutlug' o'lsin!

Bu tilga mehr uyg'ondi sayyohda.

Ko'proq turib, ko'proq so'z o'rganish harakatida bo'ldi.

Sayyoh hamisha shu masjidga kelib namoz o'qir, ayniqsa, Hisomiddin al-Yog'iyning namozdan keyingi va'zlarini berilib tinglardi.

Bugun sayyoh masjidga kirib kelganida odam liq to'la edi.

Shu bois, uning joyi poygahda bo'lib qoldi.

Hisomiddin al-Yog'iy masjidga hech kimga siz u yoqqa o'ting, siz bu yoqqa o'ting, deb aytmasdi.

Ostonada chopar paydo bo'ldi.

U boshiga mo'g'ulcha qalpoq bostirgan, egnidagi mo'g'ulcha po'stinning junlari joni bor jonivornikiday hurpayib turardi.

Chopar yelka osha o'ziga tikilgan yuzlab nigohlardan bir zum talmovsiranib qoldi.

U o'zga sayyoradan kelib qolganek edi.

Naq sultonning o'zidan chopar bo'lib kelganligi yodiga tushgach, dadillashdi.

Mehrobgacha olib borgulik yo'l qidirdi.

Yo'l topmadi.

Namozxonlar-da o'rinlaridan turib, unga yo'l berishmadi.

Shayx hamon miq etmay turardi.

Axiyri chopar sukunatni buzishga jur'at etdi:

– Sizga xabar keltirdim!

Shayxning o'ktam tovushi masjid gumbazlarida aks-sado berdi:

– Ne xabar ekan?

– Sizning o'zingizga aytish buyurilgan.

Namozxonlar talmovsiranishdi.

Shayxning qonsiz lablarida istehzoli tabassum o'ynadi.

U ozg'in qo'llarini oldinga cho'zib, qulogini ochdi, namozxonlarni bag'riga bosmoqchi bo'lgandek bir harakat-la:

– Bularning bari-da mening o'zim! – dedi.

O'tirganlar yengil xo'rsinishdi.

Sayyoh zavqlanganidan bosh chayqab qo'ydi.

Chopar nima qilarini bilmadi.

Shayx buyruq ohangida:

– Aytavering! – degach, chopar g'oz turib, qog'ozdan o'qib berayotgandek e'lon qildi:

– Sohibqironi a'zam, ulug' hoqonimiz sulton Alouddin Tarmashirin hazrati oliylari bugungi namozi jumaga muhim davlat ishlari bilan ushlanib qolganliklari tufayli bir oz kechikib kelishlarini e'lon qiladilar!

Olomon qalqdi!

Bu hech ko'rilmagan hodisa edi!

Ayrim namozxonlar betoqat bo'lishib, ichlarida, e, namozni boshlayveraylik-da, sultoni-mo'ltongiga nima ishimiz bor, deya yengiltaklik bilan o'ylashar, musulmonlikning bu farzini tezroq yumaloq yostiq qilib, ko'chaga chiqishga intilishardi.

Namozni boshlash vaqti yetgandi.

«Imomlikka o'tgan Hisomiddin al-Yog'iy noqulay ahvolga qoldi, – o'ylardi sayyoh. – Hozir sultonni kutsa, namoz vaqti bo'ldi, namozxonlar undan o'pkalashadi, kutmasa, sulton g'azabi...»

Chopar ostonada shayxdan javob kutayotgandek qimir etmay turardi.

Shayx boshini ko'tardi.

– Sohibqironi a'zam, ulug' hoqonimiz sulton Alouddin Tarmashirin hazrati oliylariga chopar janoblari yetkazsinlarki, – deya hirqiroq tovushda, tantanali ravishda e'lon qildi shayx Hisomiddin al-Yog'iy, – vaqt shunday hakamdirki, uning qarshisida shohu gado barobardir. Biz uchun eng ulug'i Allohimiz buyurganidir!

Chopar o'zini chetga oldi.

Uning yonida gilamcha ko'targan xos mahram paydo bo'ldi.

Uyam chopar kabi mehrobgacha olib borgulik yo'l qidirdi.

Gilamchani hamishagi joyiga – mehrob oldiga to'shamoqchi edi.

Yo'l topmadi.

Gilamchani ko'rsalar-da, namozxonlar-da o'rinlaridan turib, unga yo'l berishmadi.

Shundan so'ng mahram gilamchani qaytarib olib ketishni ham, ketmaslikni ham bilolmay picha sarosar turib qoldi. O'ylay-o'ylay bir qarorga keldi shekilli, gilamchani birgina bo'sh joyga – shundoqqina ostona ostiga, sayyoh yoniga ohista to'shab, ortga chekindi. Eshik yopildi.

Shayx imomlikka o'tdi.

Namoz boshlandi.

Oradan ancha vaqt o'tgach, eshik ochilib, sulton ostona hatladi.

Unga hech kim e'tibor bermadi.

Hamma o'z toat-ibodati bilan mashg'ul, o'qtin-o'qtin, shayxning yelkalariga nazar tashlab qo'yishardi.

Janda qabonigina bazo'r ko'tarib turganday ko'ringan shayxning ozg'in yelkalarida kishini beixtiyor o'ziga jazm etuvchi, ko'zini olib qochuvchi allanarsalar bor edi. Unga iqtido qiluvchilar har doimgi namozdan keyin bir-birlariga ko'pincha:

– Imomimizning yelkalarida hamisha farishtalar o'tiradi-ya, kishini o'ziga qarab olaveradi, – deyar edilar.

Sulton Alouddin Tarmashirin vaziyatni payqab, beixtiyor eshikni ohista yopdi.

O'zining gilamchasi ustiga cho'kkaladi.

Gilamchani u yoq-bu yog'ini to'g'riladi.

Masjidning umumiy ruhi uni o'ziga singirdi.

Buyukligi abas topdi.

Xoqonligi unut bo'ldi.

Shayxning o'ktam ovozi hammani yakdillikka chaqirardi:

– Allohu akbar!

Shu edi ulug' saodat:

– Allohu akbar!

Munavvarlik-da shu edi:

– Allohu akbar!

Yuksaklikda shu edi:

– Allohu akbar!

Borliq-da shu edi:

– Allohu akbar!

Shu edi, shu edi, shu edi yalakat bir vujud-da shu edi, yagona bir ovoz-da shu edi:

– Allohu akbar!

Sultonning ko'zlaridan beixtiyor yosh tirqiradi.

Sultonga ergashib kelishib, masjidga kira olishmagan, to'g'rirog'i, kirib o'tirishga joy topisholmagan a'yonlar tashqarida qolishdi.

Shu choqda ular hoqonning yodidan beixtiyor ko'tarilib ketishgandi.

Ularning g'amini hamisha yeb, ustini butlab, qornini to'qlab kelgan sulton endi o'zining g'amini yemoqda edi.

O'z ruhining g'amini yemoqda edi!

A'yonlarga malol keldi bu: chunki, ular ruh-la dushman edilar, sulton o'z ruhining g'amini yesa, bizning badanimizni g'amini yemay qo'yadi, deb o'ylar edilar: o'z badanlarini dunyoning hukmdori deb bilar edilar.

Ularning badanlarida hamma a'zolar mujassam edi – yurak bor edi, miya bor edi, qorin-da juda-juda bor edi; faqat, ruh yo'q edi, ruh yo'q edi – egasi tashlab ketgan tashlandiq hovliday huvillab yotishardi.

Namoz davom etardi.

Ahyon-ahyonda shayxning shirali ovozi masjid gumbazlari aro taralar, bu ovoz har yetgan yeridan nur sachratayotgandek bo'lardi.

Tashqarida qolishgan sulton a'yonlaridan sovuq o'ta boshladi.

Ular kaftlariga «kuh-kuh»lashib, namozning tezroq tamom bo'lishini kutishardi.

Eshikni qiya ochib qarashgayam yuraklari dov bermasdi, chunki eshikning takkinasida naq sultonning o'zi o'tirardi.

A'yonlar bir-birlariga bunday kuchli sovuq ancha yillardan buyon bo'lmaningani gapirishardi, holbuki, yaqindagina bundan-da beshbattar sovuqlar bo'lib o'tgan, issiqqina o'rduda may ichib, et yeb, suyak chaynab, sohibqironi a'zamni sharafib, ko'klarga ko'tarish bilan ovora bo'lib qolishgan a'yonlar u sovuqlarni payqashmagandi.

Namoz tugadi.

A'yonlar qalt-qalt titrashlarini zo'r-bazo'r bosib, sultonning chiqishi tadorigini ko'rib turishganda, shayx Hisomiddin al-Yog'iy va'z boshlab yubordi.

A'yonlar yana qaltiray boshlashdi.

Hisomiddin al-Yog'iyning va'zi qisqa bo'ldi.

– O‘zlarining vaqtinchalik kuch va mansablarini suiiste’mol etib, shulardan foydalanib, xalqqa jabr-zulm o‘tkazuvchilar, albatta, qiyomatda emas, bu hayotning o‘zida ham javob beradilar, – deya so‘z boshladi Hisomiddin al-Yog‘iy sokin tovushda. – Ular o‘zlarini xalqqa yaxshilik va mehr-muruvvatda bo‘lganday ko‘rsatarlar yoinki haqiqatdan ham o‘zlarining qanday ahvolda, ravish-raftorda ekanliklarini bilmaslaridan xalqqa yaxshilik qilib, mehr-muruvvat ko‘rsatayapman, deb astoydil ishonarlarki, bu ularning so‘qirliklari belgisidir, shu tufayli orttirgan gunohlari yana chandon ortadi. Tilidan bolu qo‘lidan qon oqqan zolimlar bu dunyoning eng jirkanch mahluqlaridir, – shayxning keskir so‘zlari, o‘ktam tovushi hammaning boshini xam qilgan, hamma ham o‘zining qanaqa odam ekanligini o‘ylab o‘tirar, ayniqsa, sulton Alouddin Tarmashirin ko‘zlaridan oqayotgan yoshlarni yashirishga ham urinmasdi.

Shayxning so‘zlari beozor edi.

Boisi, u hech kimga barmoq nuqib, ey sen, deb aytib-ko‘rsatmayotgandi.

Shayxning so‘zlari keskir edi.

Boisi, uning so‘zlarida hammaga ham tegishli nimalardir bor edi.

Masjidga yig‘ilganlarning asosiy qismini mamlakatni qo‘lda ushlab turishgan boyonlar, mulkdorlar, sulton o‘rdusiga yaqin kishilar tashkil etishgan edi.

Shayx barchaga bir-bir ko‘zgu tutmoqda edi.

Haqiqiy qiyofani alayno-oshkor ko‘rsata oladigan ko‘zgu tutmoqda edi u.

Vijdonga ko‘zgu tutmoqda edi.

Ko‘zguda kir-chirlar, xas-xashaklar, chang-to‘zonlar aks etmoqda edi, xolos; shu bois, barchaning boshi xam edi, ko‘zi yumuq edi.

Boshlari xam esa-da, ko‘zlari yumuq esa-da ko‘zguni ko‘rib turishardi.

Va‘z tugadi.

Kimlarningdir ko‘z o‘ngidagi ko‘zgu shu zahotiyog‘ yo‘qoldi, kimlarningdir ko‘z o‘ngida abadul-abad qoldi.

Namozxonlar o‘rinlaridan turishib, darhol o‘rtadan yo‘l ochishdi, sulton Alouddin Tarmashiringa ta‘zimda bo‘lishdi.

Sulton asta-sekin yurib, imomning oldiga keldi.

Jilmaydi.

Qo‘l uzatdi.

Imom sultonga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi-da, iltifot ko‘rsatayotgandek qavima qaboning titilib ketgan yenglari orasidan ozg‘in qo‘lini cho‘zdi.

Namozi juma intihosiga yetdi.

Sulton Alouddin Tarmashirinni namozxonlar ta‘zim-la kuzatishdi.

Sulton xiyol ta‘zimda bo‘lib turgan sayyoh yonidan o‘tayotib, unga jilmaydi. Sayyoh yana-da egildi.

Sulton ortidan namozxonlar ham birin-ketin tashqariga chiqishdi. Zum o‘tmay ulkan bino bo‘shadi. Mehrob oldida tik turgan shayx bilan poygahdagi sayyohdan va muazzindan bo‘lak hech kim qolmadi.

Sayyohning bu yurtga kelganiga ellik kundan oshgan, safari qarimoqda edi. Kelganidan buyon shu masjidida namoz o'qib, shayx bilan bot-bot suhbatlar qurib turardi. Hisomiddin al-Yog'iyning salohiyati-yu quvvai hofizasi uni lol qoldirardi. Bu cholning bilmagan narsasi yo'q edi: koinotning barcha sir-sinoatidan tortib odam bolasining fe'l-atvorigacha unga ayon edi, shu bois, ulug' faqih nomini olgandi. Sayyohning bugun o'zini juda munosib tutgan shayxga nisbatan mehri yana-da tovlanib ketgandi.

Sayyoh hozirgina namozxonlar o'tirishgan namat ustidan shayxning oldiga yurib bordi.

– Havo sovub ketdi, – dedi sayyoh g'uvillab sovuq yopirilib turgan ochiq eshikka qarab olib.

– Ha, sovuq, – dedi shayx beparvo.

– To'ningizni qarang, ancha urinib qolibdi-ku, taqsir, – dedi sayyoh ko'zi bilan shayxning egnidagi ayrim joylariga yamoq tushgan qavima qaboga ishora qilib.

Shayx jilmaydi.

Jilmaya turib:

– O'g'lim, bu ham meniki emas, qizimnikidur, – dedi.

Sayyoh egnidagi po'stinni yechishga urinayotib:

– Marhamat qilib, mana shu po'stinimni olib kiysangiz, – deya taklif qildi.

– Yo'q-yo'q, urinma, o'g'lim, – shayx sayyohning qo'lidan ushlab po'stinni yechdirmadi.

– Sizga sovg'a deb...

– Rahmat, o'g'lim, rahmat, – dedi shayx minnatdor bo'lganday. – Men elik yil muqaddam hech kimdan tuhfa olmayman deb Allohga qasam ichganman, mabodo, sovg'a olguday bo'lsam, albatta, sendan olgan bo'lardim.

Sayyoh ta'zim qildi.

Shayx qo'lini uning kiftiga qo'yib:

– Qaddingni ko'tar, o'g'lim, – dedi.

Sayyoh qad rostladi.

Uning rangi oqarib ketgandi.

Qo'lini ko'ksiga qo'yganicha tisarila-tisarila chiqib ketdi.

... Ertasi kuni sulton Alouddin Tarmashirin yana yo'lga otlanayotgan sayyoh sharafiga katta ziyofat berdi.

Ziyofat o'rduda bo'ldi.

Sultonning o'rdusi chodirdan tiklangan bo'lsa-da, ichkarisi har qanday hashamatli saroydan qolishmasdi.

To'rdagi taxtda sulton yonboshlab o'tirardi. Oyoq ostlariga, taxtning yon-atrofiga qoplonu yo'lbarsning terilari to'shab tashlangandi. Taxtni qurshab olishgan xizmatkorlar sultonning har bir so'ziga ilhaq turishar, hozir u, osmondagi oyni olib kelinglar, desa, shunga-da yugurib ketguday edilar.



Mamlakatning barcha akobirlari, nomi chiqqan ustunlari, olimu fuzalolari, shoiru maddohlari... qo'yingki, saltanatni emib yotishgan jamiki ko'kaldoshlar bugun o'rduga yig'ilishgandi. Saroy ahli, vaziru vuzaro, amirlar – har kim o'z mansabi-yu mavqeiga qarab joy egallagan edi.

Sayyohni sultonning chap yoniga o'tqazishgandi.

Yig'ilganlar oldlariga qo'yilgan tovoqlar va ko'zalarni birin-ketin bo'shatis-har, ularning o'rniga yangilari kelardi.

Sulton ularning barchasiga ko'z ostidan erinchoqlik bilan nazar tashlar, bu qarashidan o'tirganlarning birortasiyam uni qiziqtirmasligi ko'rinib turardi.

Sultonning negadir kayfiyati yo'q edi.

Kechagi masjidagi voqea uni ancha-muncha mataassir etgan bo'lsa-da, shohlik g'ururiga ham tegib ketgandi.

U bugun sayyoh bahonasida beriladigan ziyofatda shayx Hisomiddin al-Yog'iyga o'zining kimligini ko'rsatib ham qo'ymoqchi bo'lgandi.

To'g'ri, Hisomiddin al-Yog'iy hech vaqt o'rduga qadam bosgan emas.

Sultonning birortayam sovg'asiga qiyo boqmag'an.

Bordi-yu, Alouddin Tarmashirinning saxiyligi tutib, butun mamlakatni hadya etmoqchi bo'lsayam, shayx mensimasligini yaxshi biladi.

Shayxning undan ustunligi shunda edi.

Shayxning sayyoh bilan aloqasi durustligidan sulton uning shu bahonada saroyga tashrif buyurishiga umid bog'lagandi.

Biroq undan darak bo'lmadi.

Sulton chopar yubordi.

Chopar qaytib kelib, Alouddin Tarmashiringa shayxning javobini yetkazgan-da, sulton g'azabdan ko'karib ketdi.

Tevarak-atrofga ilkis qirg'iy qarash qilib oldi.

Xayriyat, chopar yetkazgan gapni uning o'zidan boshqa hech kim, hattoki, yonida o'tirgan sayyoh ham eshitmagandi.

Hisomiddin al-Yog'iy choparga ziyofatga kelolmasligining sababini sultonga yetkazishni buyurib, mana bunday degan edi:

– Podshohning ziyofati xos kishilar uchun harom. Uning qilayotgan xayru ehsonlari olomon uchundir, chunki, olomon shunday narsalarga o'ch, shu tufayli uning barcha gunohlarini kechirib yuboraveradi. Lekin Alloh kechirmaydi, xos kishilar hammavaqt itlar oldiga tashlanadigan suyakka ijrg'anib qaraydilar. Shu sababli, o'zlari faqir bo'lsalar-da, hech qachon hech kimga bosh egmaydilar. Sultonga yetkazingki, shu bois men o'rduga borolmayman, harom kiymayman, harom yemayman deb, ellik yil burun Allohga qasam ichgandirman.

Alouddin Tarmashirin nima qilarini bilmay qoldi.

Nima qilsin?

Janda qabosi-yu eski kalonsuvodan bo'lak boyligi bo'lmagan keksa shayxga qanday jazo loyiq ko'riladi?

Agar hozir u bir imo qilsa poyida bo'riday irillab turishgan yugurdaklari lahza ichida uning boshini ko'tarib kelishlari mumkin-ku!

Yo'q!

Sulton Alouddin Tarmashirin bunday qilmaydi.

Yetti iqlimga adolatpeshaligi, fuqaroparvarligi bilan dong'i ketgan sulton bunday qila olmaydi.

Alouddin Tarmashirin davraga xuddi begonalarga qaraganday og'ir-og'ir qaradi.

Uning miyasiga fikrlar quyuni chaqmoqday urila boshladi.

«Mana bu ziyofatxo'rlik qilib o'tirishgan, o'z manfaatlari yo'lida hech qanday qabihlikdan qaytmaydigan, kichkinagina tuhfa uchun itdek tavon yalashga ham tayyor olchoqlardan jismi uvoqqina chol naqadar yuksak, ulug', qudratli-ya, deya o'ylardi sulton Alouddin Tarmashirin. – Mening o'zim-chi? Adolatli shoh emishman! Axir, ahli raiyatga solingan soliqlaru fuqaroning peshona teri evaziga mana bu tekinxo'rlarni boqib yotganim yolg'onmi? Yo'q, yo'q: shayx to'g'ri so'zlaydi, bundan-da achchiqroq so'zlar aytsa-da, bari rost: biroq sultonlik martabamning bir tomoni nega, nima uchun to'ng'izboqarlikka aylanib ketayotganini o'zim ham anglolmay dog'daman...»

Sultonning miyasida ko'ngilni xira qiladigan bir-biridan qora fikrlar g'ujg'on o'ynay boshladi. Qovoq-tumshug'i osilib dovu dunyosi qorong'ilashdi.

Uning kayfiyati davradagilarga ham yuqdi, sekin-asta kavshanishib, ayrimlari ovqatdan qo'l uzdi.

Sayyoh ziyraklik va ehtiyotkorlik bilan kuzatib o'tirardi.

Sulton ixtiyorsiz ravishda oldidagi tovoqda turgan sergo'sht kattakon ilikni oldi-da, keskin bir harakat-la pastga tomon uloqtirdi:

– Qani ushlanglar!

Pastdagilar esankirab-dovdirab qolishdi. Sulton uloqtirgan suyakning yerga tushishi uning kayfiyatini battar yomonlashuviga bahona bo'lishi mumkinligini hamma yaxshi anglab turgan edi.

To'rt-beshta amaldorlar gavdalariga nomunosib holda chaqqonlik bilan harakat qildilar. Ular havolab kelayotgan suyakka qo'llarini cho'zganicha, o'zlarini otdilar. Suyak bitta edi, shu bois ularning biriga nasib etdi, lekin barchalari suyakka ega bo'lgandek quvondilar, ulargina emas, davradagilarning barchasi qiqqirib yubordilar.

Suyakni tutib olgan amaldorni olqishlay ketdilar:

– Yashang, Burg'ubek!

– Halolingiz bo'lsin!

– Sultonimiz himmatlariga balli!

– Umlrari uzoq bo'lsin!

– Dunyo turguncha tursinlar!

Shu tariqa davraga xushnudlik qaytgandek bo'ldi.

Shovqin-suron, vag'ur-vug'ur yana avj oldi, dasturxondan qo'l uzganlar yana qo'l cho'zdilar.

Alouddin Tarmashirin chap qo'lini xiyol ko'tarib davrani tinchitdi. So'ngra ellik kundan ortiq mamlakatlarida turgan marokashlik sayyoh Shamsiddin Abu Abdulloh at-Tanjjiy sha'niga iliq so'zlar aytib, unga ikkita ot va ikkita tuya tuhfa qilganini bildirdi.

Sayyoh o'rnidan turib ta'zim qildi.

Davradagilar sultonni olqishladilar.

So'ngra sulton o'rnidan turib, suvsar mo'ynali oq po'stinni o'z qo'li bilan sayyohga kiygazdi.

Har tomondan har xil ovozlari qushlarday uchib keldilar:

– Qulluq bo'lsin!

– Buyursin!

– Sultonimizga ofarin!

– Qulluq sultonimizga, qulluq!

Sulton qo'li bilan ishora qilib, gala-gala ovozlarni ortlariga qaytarib yubordi, ular uchishga payt poylab, inlariga qaytib qo'nishdi.

Sulton Alouddin Tarmashirin sayyohga oq yo'l tilarkan, lablari chetida nimta-bassum bilan shunday so'zlarni aytdi:

– Sizning oyog'ingiz hali dunyoning ko'p davlatlariga yetadi. Ular, albatta, biz haqimizda so'rashadi. Siz ularga bizning mamlakatimiz haqida so'zlayotganda u yerda o'z sultonining taklifini ham rad qila oladigan qudratli odamlar bor ekan, deb ayting. Ular u odamlarning qudrati nimada ekan, deb so'rashsa, halolliklari va tantiliklarida ekan, deb ayting. Shularni aytsangiz, bizning o'yukligimiz va kuchimiz haqida xalqlarning o'zlari xulosa chiqarib olishaveradi.

Sulton Alouddin Tarmashirin taxtga cho'kib, ko'z ostidan o'rduga sochilgan odamlarni kuzatganча yumshoq bolishga yonboshladi.

Sayyoh ta'zim qila-qila o'z joyini ishg'ol qildi.

O'rduda qiyqiriq, olqishlar avjiga chiqdi.

Nima uchun qiyqirib, nimani olqishlayotganliklarini fikr-yodlari ziyofatda bo'lgan bu sho'rliklarning o'zlari ham bilmasdilar. Sultonga yaxshi ko'rinish, uning kayfiyatini buzmaslik – ularning muddaolari shu, boshqasi bilan ishlari yo'q edi.

Ziyofat tonggacha davom etdi.

Sayyoh ziyofatdan turib oq yo'lga tushdi.

Uning xayolini serto'lqin ummonlar, noma'lum shaharlaru mamlakatlar bezovta qilgani qilgan edi.

Haqiqatdan ham, bu tinib-tinchimas odamning oyog'i dunyoning eng chekka sarhadlarigacha yetib bordi.

Qayerda bo'lmasin, o'sha ko'rganlarini bot-bot eslab, roviylardek rivoyat qilib yurdi marokashlik sayyoh Ibn Battuta.



# Ilhom Zoyir

(1961-yilda tugʻilgan)



Ilhom Zoyir 1961-yil 2-iyulda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tugʻilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1987). «Tarsaki» (1995), «Yelpatak» (1997), «Tabassum bekati» (2000), «Qoidasi shunaqa» (2002), «Toʻgʻri soʻzning toʻqmogʻi» (2003), «Sehri qalam» (2005), «Sichqoncha Tabuning sarguzashtlari» (2006), «Uchovlonning sarguzashtlari», «Holva yemagan bola» (2007) kabi hikoya va qissalar toʻplamlari, «Yuz tillo mojarosi» (2008) «Toʻrtburchakli yostiq» (2009), «Ajal piramidasi» (2010), «Qismat oʻchi» (2011) romanlari nashr etilgan. «Qarz» komediyasi sahnalashtirilgan (2010). Sinken Xoppning «Sehri boʻr» (2004), Yan Ekxolmning «Sofdil Mallavoy» (2006) ertak-qissalarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. «Doʻstlik» ordeni bilan taqdirlangan (2009).

## TOʻTINOMA

Itni ham gapirtirishga harakat qilishdi, natija chiqmadi. Hozircha parrandalar ichida odamga oʻxshab gapiradigani oʻzim. Gapirganda ham haqiqatni gapiraman. Hech bir zamonda haqiqatga balo urmagan, ammo uni aytganga qiyin boʻlgan. Oʻzimdanda qiyos... Ey, oʻzimni tanishtirmabman-ku. Kaminaning ismlari – Artist! Yosh boʻlsam-da, koʻpni koʻrdim: biri undoq, biri bundoq...

Dastlab meni yuz ellik soʻmga (bu eski pulda, yangi pulda bebahoman) savdo xodimi arzandasiga olib berdi. Oʻshanda bor-yoʻgʻi uchta yoki toʻrtta soʻzni arang eplab gapirardim, xolos. Bolasi tushmagur shunaqangi soʻzlarni oʻrgatdiki, oʻzini hurmat qilgan odam bularni eshitsa bormi, yetti qavat poʻst tashlaydi.

Bir kuni bolapaqir meni televizor oldiga oborib qoʻydi: kino berayotgan ekan. Kinosiyam kriminalroq ekanmi, kimnidir sud qilishyapti. Sud zaliga sudyalar kirib kelishayotganda, kimdir – kinoda albatta – «Turinglar, sud kelyapti!» de-

gandi, o'tirganlar o'rinlaridan turishdi. Xuddi shu jumla miyamda mixlanib qoldi. Bilasizlar, bitta so'zni ko'p bor takrorlaymiz. Siz odamlar ham ba'zida bir-birinigizga «To'tiday bitta gapni qaytaraverma!» deysizlar-ku, to'g'rimi? Men ham o'rgangan jumlamni xohlagan paytimda qaytaraverdim. Katta xo'jayinga – bolakayning otasiga yurakdan bergan ekan: «pir» etsam, yuragi «shir» etadi. Yana «savdo – nozik ish» deganiga o'laymi! Ismlari – Shamsiddin, familiyalari – Qaynarov, sevimli mashg'ulotlari – kunlik tushumni qayta-qayta sanash. Uyqulari hushyor, aytganimday – «pir-shir». Bir kuni pul sanab o'tirganlarida «Turinglar, sud kelyapti!» deya qichqirib yuborgandim, o'tirgan o'rnidan sapchib turib, to'rt tomonga alang-jalang qaradi. Qo'lidagi pulni shoshganidan pijamasining ichiga solgan edi, pochasidan tushib ketdi. Pulni oyog'i bilan bosib turib, atrofga quloq soldi, hech bir sharpani sezmagach, pulni olib, qayta sanashga kirishdi. Pul sanash barobarida bo'ynini cho'zib derazadan tashqariga qarab-qarab qo'yadi.

Shu alpozda jumlamni yana bir bor takrorlagandim, bir sapchidi-yu, ko'kragini changalladi. Koshki ko'krakda yurak bo'lsa.

Shomda oila kechki ovqatga o'tirgan edi, yanga issiq ovqatni akaning oldiga keltirib qo'ydi. Shu mahal «Turinglar, sud kelyapti!» degandim, akaginam o'rnidan turaman deb ovqatni to'kib yubordi va do'mboq oyog'ini kuydirib qo'ydi. Shu bahonai sabab bo'ldi-yu, kaminani ertasi kuni «Zoomagazin»da savdoga qo'yishdi.

Do'konda ertadan kechgacha mudrab o'tirsam-da, meni so'rab keluvchilar unchalik ko'p bo'lmadi. So'rganlarga narxim to'g'ri kelmasdi. Bir oy deganda baxtim ochildi. So'zamol kishi keldi-da: «Gapiradigan to'g'ri kerak», dedi...

Yangi xo'jayinning turqi-tarovati yoqmasa-da, qarshilik qilish befoyda. Mening qarshiligim – o'tirib qolgan qari qizlarning qarshiligiday gap. Xullas, yangi egamning ismlari – Sotimboy aka. U meni o'n kun boqdi. Badanimga jir bitib, patlarim jilolandi. O'n birinchi kunning shomida eru xotin yasan-tusan qilishdi-da, kaminani mehmonga olib ketishdi.

Uy liq to'la odam. Avvalida poygakdan joy tegdi. Xo'rligim kelsa-da, xonish qilayotgan hofizning soziga sel bo'lib, mudrab qolibman. Birdan uyg'onib ket-sam, to'rga qarab ketyapman. To'rda esa badavlat kishi o'tirardi. Sotimboy aka o'sha kishini quchoqlab cho'lpillatib o'pdi, tug'ilgan kuni bilan tabriklab, «sovg'a original bo'lsin, dedim-da», deb meni unga qo'shqo'llab topshirdi.

To'ra Barot deb nom chiqargan bu xo'jayinim qancha mehrini bermasin, xonadon jinimga o'tirishmadi. Uyga kunora tanish-notanish odamlar bir nimalarni tashlab ketishadi. Shunaqalar kelganida yangamiz qizarib-bo'zarib ketar, «Voy, ovora bo'lib nima qilardingiz. Eshitgan quloqqa yaxshi emas», derdi. Kishilar esa: «Ovorasi bor ekanmi, akamizning soyai davlatlarida umrguzaronlik qilganimizdan keyin, ilinamizda», deya keltirgan narsalarini qo'yarda-qo'ymay tashlab ketishadi. Suhbatning davomi xo'jayin ishdan qaytgandan so'ng avj oladi.

– Yana pora oldingizmi? – dedi yangamiz jerkib.

– Qanaqa pora?! – do‘q urdi xo‘jayin qoshlarini chimirib. – Bizda «pora» degan gap yo‘q! Bu – sovg‘a! Sen uzumini yeginda, bog‘ini so‘rama!

– Nomi yo‘q bog‘dan, deng, – dedi yanga va jimib qoldi.

Men esa «nomi yo‘q bog‘dan» degan gapni ilib oldim. Biz to‘tilar, gapning ma‘nosiga uncha yetavermaymiz, «kesim»ini aytib yuborsak, kerak odam «ega»sini topib olaveradi.

«Ko‘za kunda emas, kunida sinadi» deganlaridek, uyni taftishchi bosdi. Ana, ol! Hamma yoq ostin-ustin bo‘ldi. Cho‘zilib qolgan yanga betiga suv sepilgach, o‘ziga keldi-yu, tildan qoldi. Taftishchilarning so‘roqlariga o‘zim javob berdim. Uyda barcha narsalar nomi yo‘q bog‘dan kelganligini aytdim-da! Javoblarim ishni xalta qildi. To‘polondan so‘ng, yangaga til bitdi-yu, aka yiqilib tushdi: ishdan ham mansabdan, ham... Saroyday uy huvillab qoldi. Qaraydigan kishi bo‘lmagach, meni arzon-garovga sotib yuborishdi.

To‘g‘ri qassobning qo‘liga borib tushdim. Ey, yo‘g‘-e, yangi egam qassob edi. Qassobning uyiga keladigan go‘shlarni ko‘rganimda, burgut bo‘lib tug‘ilmaganimga afsus chekardim. Ha, aytgancha, bu hovlida mendan tashqari Olapar degan it bor edi. U semirib ketganidan o‘rnidan turolmas, begonani ko‘rsa nomiga bo‘lsa-da hurib qo‘yay demasdi.

– Itga suyak-puyak olib kelsangiz-chi! Lahm go‘sh hayf-da, – dedi yanga eriga zorlanib.

– Xotin, – dedi Qassob aka barmog‘ini peshanasiga tirab burarkan, – mana bu yering ishlamaydi! Suyak jaraq-jaraq pul-ku! Bu hovli-joy, bu molu davlat nimaning orqasidan? Albatta, suyakning orqasidan-da!..

Gap gap-u, miyamga «suyak» o‘tirib qoldi. Rosti, eru xotin maqtanishni xush ko‘radi. Uyga mehmon kelganda, «bu molu davlat halol pulga kelgan», deb maqtanganlarida, tinch turolmadim. «Suyak, suyak!» deyaverdim. Gapimga bir uy odam kuldi. Nimagadir Qassob aka menga ola qaradilar...

«Hamma balo tilingdandur!» deganlari shu. Bu yerdan ham badarg‘a bo‘ldim. Tirik qolganimga shukur qilib, ikki oy do‘konda qon qaqshab yotdim. Oxiri bittasi «Kunibo‘yi xotinim uyda o‘tirib zerikadi, bola-chaqa yo‘q, ermak bo‘lsin», deb sotib oldi meni. Dastlabki kunlarda yangi joyga ko‘nikishim og‘ir kechdi.

Fe‘liga yarasha Halimbek aka egarda o‘tirolmaydigan yoshda, yangamiz esa yonaman deydi: ko‘zlari o‘ynoqi. Tagiga yetsam, shu tannoqning husnu chiroyiga uchib, akam besh bola-yu xotinning bahridan o‘tgan ekan. Suhbatlaridan angladimki, er chars xotinning jilovini hali-hanuz qo‘lga olmagan.

Halimbek aka ishga ketgach, xotin kunibo‘yi o‘zini u yoqqa-bu yoqqa urdi, telefonda soatlab gplashdi, erini yomonladi. Keyin telefonni qo‘yib, menga di-ydiyo qildi. Tavba, deb gapiray: menga shunaqangi g‘alati qaradiki, ko‘zi teshib yuboray dedi. Uyalganimdan ko‘zlarimni olib qochdim.

Shu ayol hayotimga suiqasd uyushtirdi. Tilini tiymaganning holi shu-da! Aysam, ishonmaysiz. Uyga barvasta erkak kirib keldi. O‘zi ayolga erkakning

begonasi yo'q, lekin bu erkak umuman begona. U kunoralab yana keldi. Ziyofat quyuq, hiring-hiring joyida. Bir vaqt ayolning: «Qo'chqorvoy oka, quymichimni ezvordingiz-ku!» degan nolasi eshitildi. O'sha kuni ayolga yordam berolmaganim uchun o'zimni rosa koyisam-da, «Qo'chqorvoy aka» degan ismni eslab qoldim.

Halimbek aka ishdan kelganlarida «Qo'chqorvoy aka» deyaverdim. Avvalida u kishi e'tibor bermadi. Yana bir-ikki bor takrorlaganimdan so'ng, er xotinga qarab:

– Buning nima deyapti? – deb qoldi. – Qo'chqorvoyi kim bo'ldi yana?

– Ishxonangizdagi Qo'chqorvoy-da, – dedi xotin beparvogina.

– Yaxshi, – dedi Halimbek aka parishonxotirlik bilan peshanasini qashib. –

To'xta, sen-ku Qo'chqorvoyni tanishing mumkin, bu uni qayerdan taniydi?

Xotin tirirchiladi. So'zlashga so'z qahat. Uchqundan alanga chiqib, rosa tomosha bo'ldi.

Ertasi kuni xotin meni mushukka edirmoqchi bo'ldi. Qafasni ochgan zahoti amallab qochdim va deraza pardasiga qo'ndim. Shirpagini otgan edi, mo'ljalidan adashib deraza oynasini sindirdi. Shu oyna ko'zidan chiqib qochdim. Daraxtdan-daraxtga qo'nib, bolalar bog'chasiga bordim-da, taqdirimni bog'cha mudirasi bilan bog'ladim. Opa «bolalarga ovunchoq», deya meni qafasga solib, bir burchakka qo'ydi. Opa bu ishdan keyin bir pushaymonlar edi, endi joyiga tushmaydi-da. U har kuni uyiga xalta-xalta narsa tashirdi. Keyin oshpazlardan bilsam, yulg'ich «bolalarning nasibasi»ni tashirkan. Shunda: «Ha, yashshamagur! – dedim ichimda. – Seni boplamasammi!»

Ota-onalarning shikoyati sabab, dilimni bo'shatuvdim, ertasiga opaning bu yerdan nasibasi uzildi...

Yangi mudira opa ancha ayyor ekan, sobiq kasbdoshining ishdan ketganligi sababini so'rab-surishtirib: «Bizning oramizda sotqinlarga o'rin yo'q! Birovga vafo qilmagan, bizga vafo qilarmidi!» dedi.

Bu nutq menga qaratilgan edi. Shu kuni do'konga ravona bo'ldim. Bunga zarracha achinganim yo'q, faqat bolajonlarning ko'z yoshlari yuragimni ezib yubordi...

Uyida kitobdan boshqa hech vaqosi yo'q kishiga ergashdim. U har kuni meni gapga soladi. Bilsam, yozuvchi ekan. Boshimdan o'tkazganlarimni unga aytib berdim...

Kecha yozuvchi bir gazetani ko'rsatdi. Gazetada suratim bilan sarguzashtlarim chop etilgan. Shunda o'yladim: «Gazetani ko'pchilik o'qiydi, suratimni ko'radi va men haqimda bilib oladi. Mabodo yozuvchi bilan kelisholmay qolsak, tili bir qarich, ichida gap turmaydigan to'tini kim sotib oladi? Hech kim! Nimagaki, hamma o'zidan qo'rqadi!»

# Nazar Eshonqul

(1962-yilda tug'ilgan)



Nazar Eshonqul 1962-yil 15-iyunda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Tersota qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1986). Dastlabki asari – «Urush odamlari» (1988). Shundan so'ng yozuvchining «Momo qo'shiq» (1989), «Maymun yetaklagan odam» (2001), «Shamolni tutib bo'lmaydi» (2004), «Momo qo'shiq» (2006) kabi asarlari nashr etilgan. F. K. Anittining «Hikoyalari va qissalari»ni, A. Kamyuning «Esselari»ni, Chexovning «Boloxonali uy» hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

## MAYMUN YETAKLAGAN ODAM

Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi: u ko'chani uyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqlarda chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim. U qovoqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortardi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi. Mashinadan kitoblarni katta etakda tashib kiritayotganimda – go'yo atrofidagi olamdan endi hech iltifot kutmay qo'ygandek, hech narsaning qizig'i qolmagandek menga e'tiborsiz bir ko'z tashladida, so'ng yana o'sha holatida yerga qarab o'tiraverdi.

Bir necha kundan so'ng uy bekasidan bu cholning bir paytlar tuzukkina rassom bo'lganini va hozir ham surat chizib turishini eshitib, hayron qoldim. Uni hayotda omadi chopmagan biron amaldor bo'lsa kerak, deb taxmin qilgandim. Key-



inchalik cholni tez-tez o'sha kitelida go'yo necha qadam umri qolganini o'lchab yurgandek og'ir qadamlar bilan uyiga yoki ko'cha boshidagi oziq-ovqatlar do'koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla oshxonasida ovqatni titrab-qaqshab yeb o'tirganini, qovoqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo'yganini ko'rib qolardim. Zaharli, odamni bo'g'ib, holsiz qilib qo'yadigan bu adovat menga o'shanda uning butun tanasidan, vujudidan, qoqshol bo'lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi tilsimli qo'rg'on kabi menga noma'lum bo'lgan umr qal'asidan ufurayotgandek tuyulgandi. Uni ko'rsam negadir yuragim g'ash tortadigan, ko'nglim behuzur bo'ladigan, kayfiyatim buziladigan bo'lib qolgandi, vaholanki, hali u bilan salom-alikdan nariga o'tmagandik. Menga, avvalo, uning turqi yoqmasdi: nochor holiga qaramay odamlarga kibr aralash dimog'firog' bilan qarar, hammaga yotsirab, shubha bilan tikilar, go'yo o'zini bir umr har bir kishiga shunday tikilib o'tgandek tutardi. Bir kuni uy bekasi mendan cholga kechki ovqat chiqarib berishni iltimos qilib qoldi. Cholning sovuq yuzini esladim-u istihola qildim; biroq yo'q deya olmadim. Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda savat kursida o'tirgancha oldidagi surat romga egilib olgandi. Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlari chirigan, umuman hovlidan chirkin va badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo'yi saqlab kelgan bo'lsa kerak degan fikr kelib qoldi. Hiddan ko'nglim ayniguday bo'lib chol o'tirgan ayvonga yo'l oldim. Chol menga e'tibor ham bermadi, ajab-sinib bir qarab qo'ydi-yu, o'z ishini davom ettiraverdi; u qandaydir bo'yog'i ko'p surat chizayotgan edi. Nariroqda turgan kichkina xontaxtani keltirib cholning oldiga qo'ydim: u shunda ham e'tibor bermadi: u o'ziga ovqat keltirib berishlariga ko'nikib qolgan edi, shekilli. Shunda uning qo'llari qaltirab, bo'yoqlarni chaplab yuborayotganini sezib qoldim. Cholning oldiga ovqatni ham qo'yganimdan so'ng, u chizishdan to'xtab, xontaxtaga o'girildi va bo'yoqli qo'llari bilan nonni bemalol sindirdi, og'ziga tutdi; yorilib qolgan lablari orasidan chirigan ko'm-ko'k tishlari ko'rindi. Shunda men yana uning qandaydir badjahl ma'budning haykaliga juda o'xshab ketishini sezdim. U bu yerdaligimni ham unutganday, xurillatib, imillab, chollarga xos lanjlik bilan ovqatlanar va og'zining ikki chetididan lag'monning su-yug'i yana kosaga oqib tushar, boshi qalt-qalt titrar, bo'yinlarida tirishib qolgan tomirlar yutinganda bo'rtib, ko'karib ketar, ko'zlari horg'in yoshlanib turar, har dam-har damda qansharini o'ng qo'li bilan qashirdi. Bu unga odat edi chog'i – qanshari turli bo'yog'larga belanib qolgandi. Qo'llari qoshiqni madorsizlik bilan ko'tararkan, uning shu soniyada yana ham ifodasiz tusga kirgan yuziga qarab, ovqatni ham eplab icholmaydigan asabiy va ro'dapo cholning rassom ekanligiga sirayam ishongim kelmasdi.

– Suratlarinigizni ko‘rsam bo‘ladimi. Yigirmanchi yillardagi suratlarinigizni, – deb so‘radim undan shubhamni bildirmaslikka tirishib. Chol bamaylixotir kavshandi-da, menga qaramasdan, o‘ziga buning aloqasi yo‘qday, go‘yo bir uyum axlatni ko‘rsatayotganday, ijirg‘anib, qo‘li bilan ayvonning to‘rini ko‘rsatdi.

– Hammasi tartib bilan terib qo‘yilgan, u tomondan boshlanadi, – dedi hirqir-oq tovushda. Uning tovushi ham shunchalik sovuq ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi; indamay ayvonning to‘riga qarab yo‘l oldim.

Cholning yigirmanchi yillardagi suratlarini shu ko‘chadagi bir-ikkita san‘atdan xabardor kishilar maqtashgandi; muzeyda ishlaydigan o‘rtog‘im ham cholning suratlarini ko‘rgazmaga qo‘yilganini aytgandi. Chol yigirmanchi yillarda kom-somol bo‘lgan va bosmachilarga qarshi kurashgan, yangi hayot qurishda faol ishtirok etgan deyishgandi. Yigirmanchi yillarning shiddatli shamoli uni yuksak parvozlarga ko‘targan; o‘ttizinchi yillarda mas‘ul vazifalarda ishlagan, deb hikoya qilishgan. U o‘sha amalida toki iste‘foga chiqarib yuborishgunlaricha uzoq yillar ishlagan ekan. Ko‘chadagilar uning o‘sha davr faoliyatini mish-mishlar bilan qo‘shib-chatib hikoya qilishardi. Chol ishdan ketgach, mana shu eski uyga qamalib olgan, hech kimga qo‘shilmaydi, bir vaqtlar o‘zi ozor bergan kishilarni ko‘rgisi kelmaydi, deyishardi. Cholning xotini elliginchi yillarning oxirida o‘lib ketgan, faqat istarasi o‘zinikidan ham sovuq yolg‘iz o‘g‘li bor edi. O‘g‘li qimorboz, avvallari kissavur bo‘lgan, keyin qotillik qilgani uchun qamalib ketgan, endi esa qimorning orqasidan kun ko‘rar ekan. U juda jizzaki yigit edi. Uni ikki marta ko‘chada ko‘rgandim. Aytishlaricha, u shaharning chekkasida bir beva bilan yashar va oyda-yilda otasiga bir ko‘rinish berar, shunda ham har doim janjal bilan jo‘nab ketar edi. U cholning oldiga ko‘pincha birdan-bir maqsad bilan – pul so‘rab kelar, agar topib bermasa, g‘ovg‘a ko‘tarar, hatto ikki marta otasini urib ketgan, deb aytishardi. Ko‘plar «cholning puli bor, lekin hech kimga, hatto o‘g‘liga ham ravo ko‘rmaydi, juda xasis», deyishardi. Kim biladi, o‘g‘li ham otasi haqida shunday o‘ylasa kerak; u otasini zarracha hurmat qilmasdi. Uning ovozi ko‘chadan o‘tib borayotib eshitib qolgandim. «Hech narsani bilmayman – deb baqirardi u qandaydir qirindi tovushda, – agar topib bermasangiz, sizga qo‘shib uyga ham o‘t qo‘yaman». So‘ng taraqa-turuqlar, ihrashlar, cholning nimadir deb so‘kingani eshitildi. Kechqurun uy bekasi o‘g‘li cholni yana urib ketganini aytgandi.

Cholning ayvoni – unga ustaxona vazifasini o‘tasa kerak – oldi oynali, yozda derazalarini lang ochib salqinlatib qo‘ysa bo‘ladigan, keng go‘sha edi. Cholning yigirmanchi yillardagi suratiga juda qiziqardim, umuman, cholga qarab turib qiziqishim yana ham ortgandi. Bu yerda har xil keraksiz ashqol-dashqol – sun‘iy gullar, tuvaklar, turli bo‘yoqlar, sarg‘ayib ketgan kitoblar, olov ko‘tarib borayotgan bola tasvirlangan haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, to‘rlar, zanjirlar qalashib yotar va bu yerdan ham shilta hidi kelar, ayvondan ko‘ra besamar o‘tgan umrni eslatadigan besarishta qaznoqqa o‘xshab ketar edi. Ayvon uzun bo‘lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko‘rgazmaga qo‘yilgandek terib qo‘yilgan, to‘g‘ri-

rog'i, bor-yo'g'i qirqqa yaqin surat va eskizlar «1957», «1947», «1937», «1928», «1926» va hokazo tartibda terib qo'yilgandi. Suratlarini oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo'rg'on tomon ko'tarilib borayotgandek his etdim o'zimni. Oxirgi, ayvonning burchagiga osib qo'yilgan suratning tagiga «1921» sanasi yozib qo'yilgan edi: chol shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo'lsa-da, ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuq o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan portlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan edi. Rasmda chol nima demoqchi bo'lganini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning ko'nglidagi hissiyotni to'la aks ettira olgan edi. Keyingi suratlarda cholning qo'li ancha kelishib, bo'yoqlar tiniq, o'z o'rmini topgan, tabiat manzaralari tobora go'zallashib borardi, ranglar ham turfa xil edi. Biroq bir lahzada osmonu falakni qoplagan kuzgi qarg'alar kabi suratlariga qandaydir mavhumlik – qora rang yopirilib kirgandi. Qora bo'yoqning suratdan suratga ortib borishi meni hayratga soldi: mavhumlik tasvirda ham, bo'yoqda ham sezilardi. Men har bir manzarada boshqa ranglar o'rmini qora ranglar olayotganining guvohi bo'ldim. O'ttizinchi yillarda chizilgan suratlar esa yana ham mavhumroq edi, endi bu yillardagi suratlarini qora rang butkul qoplab olgandi. Suratlar bilan birga sizning ko'nglingizga ham mavhum bir tuyg'u yopirilib kirardi. Chol suratlarini pala-partish chizgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim o'shanda, chunki cholning mas'ul xizmat davri mana shu yillarga to'g'ri kelardi. Men suratlariga qarab turib, ularning maqsadu maslaksiz chizilganini his qildim. Faqat birinchi suratdagi yigitning ko'zidagi qat'iyat va ishonch beixtiyor har qanday kishini o'ziga rom qilib qo'yardi, siz ham mana shu yigit izidan nomsiz, isyonkor safarga otlanginiz, vahimali, zim-ziyo o'rmondan xurofot hamda bid'at yakson etarak ajdodlaringizni nur va kenglikka boshlab chiqib, hur qarashlaru alg'ov-dalg'ov hayot qo'yniga tashlagingiz kelib qolardi. Siz yigitning ko'ziga qarab tursangiz uning tantana qilishiga ishonardingiz. Muzeydagi do'stim ham ana shunday hislarni boshidan kechirgan bo'lsa kerak, cholni rosa maqtagandi. Ana shu suratida chol o'zini qobiliyatli va istiqbolli rassom sifatida namoyon eta olgan edi. Agar cholning birinchi o'n yillikdagi suratlariga e'tibor bersangiz, sizni ham beixtiyor cholning navqironlik davridagidek ulug'vor kayfiyatlar chulg'ab olardi.

Men keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo'l chiqib ketmaslik uchun chizilgan bo'lsa kerak, degan fikrga kelgandim; bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko'chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'lim isi kelib turgan har xil qurollar, yig'layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq, qandaydir qo'rquvdan (xuddi «Pompeyaning so'nggi kuni» kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli mahluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar

(karnaval bo'lsa kerak deb o'ylagandim), bazmu jamshid qilib o'tirgan shotirlar, yalang'och ayollar, ma'suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlarini aks etgan edi. Bu suratlar ilhom yo maqsad bilan chizilganiga ishonish qiyin edi. Bironta suratda ham aks ettirilgan manzaraga tushunmay, cholga qaradim. Chol ovqatini yeb bo'lgan va menga teskari o'tirgancha, matoga yana qo'ng'irroq tus berardi. U go'yo mening bu yerdaligimni unutganday edi. Cholning keyingi suratlarida bironta ham mukammal tasvirlangan odamni ko'rmadim. Hamma suratlar bo'yoqlarning mato yuziga chaplab tashlanganidan iborat edi. Bu suratlariga xos mavhumlikdan hayratga tushdim. Chunki bilishimcha, chol bularni eng yaxshi suratlarini ichidan tanlab, terib qo'ygan edi. O'sha kuni men cholning mahalladoshlari maqtaganchalik rassom ekanligiga sira ishonmadim va uning suratlarini ko'rib, yana ham hafsalam pir bo'ldi. Bu suratlar menga umid qo'shinlari tashlab ketgan umrning tashlandiq qarorgohlariga o'xshab tuyuldi. Endi uni shunchaki nomiga maqtashgan bo'lsa kerak, deb o'ylay boshladim. Suratlardagi mavhumlik negadir yuragimni g'ash qilgandi. Biroq cholning hayoti bir paytlar bir kechada porillab ochilgan guldek to'siq bilmas shiddat bilan boshlanganini, so'ng bu shiddat hayotning mavhum irmoqlariga xuddi yoz yomg'iri jazirama sahroga singgani kabi qo'shilib ketgan degan xulosaga keldim. Uning o'sha navqironlik davrini eslatdi, nigoh qontalash va shilpiqlanib qolgan bo'lsa ham, hali tiyraklik bilan tikiladigan ko'zlaridagina qolgan edi. Bu ko'zlar ham har qanday ishonch va umiddan mahrum edi.

Cholning yoniga qaytar ekanman, u chizayotgan suratga bir zum ko'z tashladim: ustiga chang tushmasin deb, doka yopib qo'ygan suratda odamning va qandaydir hayvonning oyoqlari tasvirini ko'rdim. Va bu hol meni biroz hayratga soldi – polotnoda nihoyat ko'p yillardan keyin odam surati paydo bo'lgan edi. Surat hali chala edi. Munkayib qolgan chol surat qarshisida tiz cho'kib turganga o'xshardi, bo'yoqlar ham cholga zo'rg'a bo'ysunar, go'yo ular ham bu behuda va mavhum manzaralarni aks ettirishdan butkul charchaganday edi.

– Xo'sh, – dedi u mening idish-tovoqni yig'ishtira boshlaganimni ko'rib, – suratlar sizga yoqdimi?

Yelka qisdim va suratlariga tushunmaganimni aytdim. U charchaganidan milklariga yosh sizib chiqqan horg'in ko'zlarini menga achingandek, bir zum qadab turdi-da keyin bosh silkidi.

– Ha, to'g'ri, biz tushunarsiz yashadik, – dedi g'amgin tusda, – har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong'u bo'lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o'zimiz aybdormiz.

U xuddi odamning ustidan kulayotganday yoki kinoya qilayotganday istehzo bilan gapirar, har bir so'zi asablarni zirqiratib, arralab o'tardi. Kim biladi, balki menga shunday tuyulgandir. Endi gap tamom deganday qo'liga mo'yqalam oldi. U men bilan boshqa gaplashgisi kelmayotgan, agar men bu yerda kechgacha qolsam ham uning biron og'iz gapirishi gumon edi. Idishni olib, tezda chiqib ketdim. Chol menga qayrilib ham qaramadi. Uzoq vaqtgacha uning gapini o'zimcha mu-

lohaza qilib yurdim. Biroq menga nima uchun shunday deganiga hech tushuna olmadim. Cholning suratlari ichida menga faqat maymun yetaklab borayotgan yigit surati yoqqan edi. To'g'ri, men tasviriy san'at sohasida yomon muxlis edim, lekin yigitning ko'zlaridagi ishonchdan hayajonga tushar va uning qat'iyatli chehrasi tez-tez ko'z oldimda namoyon bo'lib turardi. Qolgan suratlari esa aloq-chaloq esimda qolgandi. Ikki kunlardan so'ng esa birinchi suratdan boshqa hamma suratlardagi manzaralar bir-biriga aralashib ketdi, so'ng yo'l-yo'lakay daraxtga bir zum qo'nib o'tgan qushlar kabi xotiram daraxtlaridan butkul uchib ketdi.

Boshqa bir kuni cholning oldiga ovqat olib kirganimda yana o'sha shilta hididan ko'nglim ozib ketayozdi. Lekin men endi har burchakda puturdan ketayotgan umrning tanazzulidan darak berib turgan qo'lansa hidga ko'nika boshlagan edim. Biz bu gal ancha suhbatlashib qoldik. Qizig'i shundaki, u juda savodli edi va shu vaqtgacha nimaiki qilgan bo'lsa, hammasini bilib, anglab turib qilganga o'xshardi. U Titsianni ham, Pikassoni ham, modernizmning hozirgi namoyandalarini ham, muzeydagi do'stim maqtaydigan Jorj Brak va Umberto Bachanini ham bilar va ularning ijodidan juda yaxshi xabardor edi. Biroq biz o'sha kuni u bilan mutlaqo boshqa narsalar haqida gaplashgandik. U hayotda nima yaxshiligu nima yomonlik, hech qachon farqlab bo'lmaydi, yaxshilik – ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo'lib tuyuladi, mening umrimda anglagan xulosam shu degandi.

– Yo'q, – dedim men uning salmoq bilan, mening xulosam hammaning xulosasi bo'lishi kerak degan ohangda gapirishidan g'ashim kelib. – Bular mutlaqo qarama-qarshi tushunchalar. Yomonlik yaxshilik bo'lishi sira ham mumkin emas, nimaiki hurlikka, erkka, ezgulikka zid bo'lsa, u yomonlikdir, – dedim.

U hali yosh bola ekansan-ku, degandek dimog' aralash kuldi. So'ng jiddiy tortib, nelarnidir eslaganday gapira boshladi.

– Men umr bo'yi yomonlikka ham ezgulikka ham teng xizmat qildim. Chunki nima ish qilsam o'sha ishim ikki qismga bo'linar edi. Siz bilan tortishmoqchi emasman, faqat bitta misol keltirmoqchiman. Bir vaqtlar juda martabali bir do'stim bo'lardi, o'zi sofdil edi-yu, sal obro'talab edi. U yigirma yetti yil amal kursisini hech kimga bermadi; usta odam edi. U nima qilardi, deng. Yuqoridan shuncha xom-ashyo ber, deb buyruq kelardi. Buyruqni inkor etib yoki muhokama qilib bo'lmasdi, – biz ana shunday ruhda tarbiyalanganmiz, – uni bajarish kerak! Bajarish uchun butun korxonalar ishchilari o'n to'rt-o'n olti soatdan ishlashlari kerak. Bu esa – bilasizki, rasman mumkin emas. To'g'rirog'i, mumkinu, ya'ni turli-tuman tashabbuslar tashkil qilib bajarsa bo'ladi, biroq o'n ikki oy bunday qilib bo'lmaydi. Odam mashina emas. Bu minglab odamlarni mayib qilishi mumkin. Yo'q desang, kursini topshiraver; boshqasi, albatta, shunday qiladi. Bitta sen halol bo'lganing bilan hayot go'zal bo'lib qolmaydi. Shunda mening do'stim eng maqbul yo'lni tanlagan. Ta'kidlayman, o'zi juda sofdil, oqibatli odam edi. U hamma ishni bajarildi deb, qog'ozga qo'l qo'yib beravergan. Boshqa korxonalarni ham bu ishga tortgan, ular «bizdan bugina, sizdan ugina» deb yozib beraverishgan.

Azbaroyi odamlarning taqdirini o'ylab shunday qilgan. Do'stim shu yo'l bilan o'zicha buyruqlar mustabidligiga qarshi kurashgan. Yigirma yetti yil odamlarni qog'ozlar bilan himoya qilgan. Oxir oqibatda uning ajali yetib o'ldi. Keyin uning go'riga tosh otish boshlandi; u himoya qilgan ming-minglab odamlar unga birinchi bo'lib tosh otdilar – o'rniga boshqani saylashdi, bu boshliq buyruqni qanday bo'lsa shunday bajarish uchun qo'lidagi hamma narsadan foydalandi – hatto kuchdan ham. Daromad kamaygan, sadaqa so'rash ko'paygan, bora-bora odamlar oldingi boshliqni afsus bilan eslashgan, uning to'g'ri yo'l tanlaganini anglashgan. Xo'sh, ayting-chi, bu yerda nima yaxshiligi nima yomonlik. Buni qanday farqlasa bo'ladi. Biri odamlarni o'ylab, qonunni suiiste'mol qildi, ikkinchisi qonunni o'ylab, odamlarni xarob qildi. Men bu yerda qaysi biri yomonlik, qaysi biri yaxshilik, hech farqlay olmayman. Umrim davomida ham buni farqlay olmadim.

– E'tiqod-chi, – dedim uning salmoq bilan gapirishidan achchiqlanib, to'g'risi uning dalillari meni biroz dovdiratib qo'ydi; u o'z umri haqida juda ko'p o'ylagan edi, aftidan, shuning uchun qat'iyat va ishonch bilan gapirardi. – E'tiqodli odamlar to'g'rirog'i, e'tiqodi mustahkam odamlar yaxshilik bilan yomonlikni juda teran anglyadilar, – dedim va gapimdagi balandparvozlikdan o'zim uyalib, to'xtab qoldim.

– E'tiqod! – dedi u g'ussali ohangda, – agar bir umr e'tiqod qo'yib, shunga ishonib, kurashib yonib-kuyib yashasang-u, bir kuni ... e'tiqod qo'ygan narsangiz puch, yolg'on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig'ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz bunday demasdingiz; ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan, xuddi yo'ldan chiqib ketgan shaldur-shuldur, bo'm-bo'sh aravaga aylanardi. Siz esa bo'shliqni to'ldirish va aravaga nimadir yuklash uchun har qanday yovuzlikdan ham qaytmasdingiz. Shumi e'tiqod! Men bu so'zni ishlatmay qo'yganinga ham qirq yildan oshib ketdi. Bu so'z shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvozki, eshitsam ko'nglim ayniydi.

U alam bilan xirillab to'xtab qoldi. Uning jahli chiqqan, negadir ko'ngli to'lib ketgandi, hozir biron narsa desam, jerkib tashlashi aniq edi. O'zining fikrini ma'qullamaganlarni yoqtirmasdi, aftidan. Uning butun umr yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligini izlay-izlay, javob topolmaganini o'zimcha tasavvur qilib, dahshatga tushdim, hatto uning o'sha kuni tushunmagan rasmlariga ham andak tushunganday bo'ldim; bu suratlar – o'z-o'ziga ishonmagan, umrini turli aldovlar va yupanchlar bilan behuda o'tkazgan odamning hayot haqidagi o'ylari, uning mavhumlikka mustahiq qalbining parcha-parchalari edi. Umri poyoniga yetgan sayin dunyoning beshafqat xulosalaridan qochib, u mana shu mavhumlik va yolg'izlikning quyuq o'rmoniga yashiringandi. O'zining o'tgan umriga mana shu yolg'izlik qo'ynidan turib nazar solmoqchi, o'z umriga ham xulosalar yasamoqchi edi, shekilli, uning gaplaridan bu sezilar, lekin, menimcha, o'ziga zarur xulosani hanuz topolmagandi. Uning yolg'iz hayoti menga chirigan daraxtning yemirilayotganidik mudhish bo'lib tuyulgandi. Aftidan, yolg'izlik uning so'nggi boshpanasi-

ga aylangandi. Uning gaplarida odamning vujudini zaharlovchi nimadir bor edi. U bilan chorak soat gaplashib, o'zimni yomon his qila boshladim. Nimagaki ishonam, chol hammasini chilparchin qilib tashlagan, meni ham o'zining ishonchsizligi bilan zaharlab ulgurgandi. O'sha kundan so'ng men ichimga kirib olgan cholning qiyofasidagi shaytonni vujudimdan quvib chiqarguncha, uzoq vaqt o'z ko'nglimni o'zim ko'tarib, faqat quvnoq hikoyalar o'qib yurdim.

Cholning oldiga boshqa qaytib chiqmadim. Hovlidagi chirkin va shilta hididan, cholning qo'lansa gaplaridan hamon o'zimga kelolmayotgandim. Eslasam ko'nglim aynir, birdan hamma narsaga qiziqishim yo'qolar edi. Uy bekasi haftada bir marta cholga ovqat kiritib turar, uning berilib qandaydir surat chizayotganini aytardi. U suratga tushunmasdi, shuningdek, cholni ham yomon ko'rar, lekin qarovsiz cholga butun ko'cha ovqat kiritib turgani uchun ulardan ayrilgisi kelmasdi. Umuman, beva ayollarda tabiiy shafqat hissi bo'ladi. Ularning ko'ngli yumshoq, tez ta'sirlanib, tez xafa bo'lishadi.

Men bora-bora cholning suratlarini bilan ham, uning taqdiri bilan ham qiziqmay qo'ydim, o'sha payti Onettining hikoyalarini tarjima qilayotgandim. Chol kamdan-kam esimga kelardi, esimga tushgan onlari esa ko'z oldimda qora sharpa kabi paydo bo'lar va bu sharpa meni tinmay ta'qib qilardi. Ba'zan birinchi suratni eslab, xayollarga tolardim, xayollarim ham suratdagi yigitning ko'zlari kabi huzurli edi. Meni faqat chol chizayotgan so'nggi suratgina ozroq qiziqtirib turardi, chunki, sezishimcha, chol oxirgi suratini chizmoqda edi. Uni ba'zan yo'lda – oziq-ovqat do'koniga chiqib kelayotgan holatda ko'rib qolardim va kunma-kun hayot asari yo'qolayotgan yuz-ko'zlariga, o'z umri uchun ayanchli xulosalar to'lib yotgan va uni masxara qilgandek ko'klam bilan birga tobora go'zallashib, yasharib borayotgan atrofidagi olamni ko'rmaslik uchun yerga yana ham ko'proq egilib qolgan qaddi-qomatiga qarab, shu mudhish fikrimga ishongim kelardi.

Butun qish davomida cholni ikki marta – darvoza yoniga kursi qo'yib, o'zini chuvoqqa toblab o'tirgan holda ko'rdim. Uy bekasi ko'p javraydigan ayol edi. U butun mahallani g'iybat qilib chiqar, so'ng yana cholni «taftish» qilardi. U chol haqida ijirg'anib gapirardi, lekin ovqat kirgizishni kanda qilmasdi: unga ayniqsa, cholning mahalla-ko'ynikiga o'xshamagan odatlari yoqmasdi.

Bahorning boshlarida hordiq oyidan qaytib kelib, uyga kirishim bilan uy bekasi ko'zida yosh bilan qarshi oldi va uch kun burun cholning qazo qilganini aytdi. Vujudimga sovuq, shilimshiq narsa o'rimalaganday junjikib ketdim va birdan xayolimga cholning suratlarini keldi. «Uy hali qarovsiz, – dedi menga uy bekasi, – o'g'lini hech qayerdan topisholmadi, yana qo'lga tushgan bo'lsa kerak».

Kechqurun cholning hovlisiga o'tdim. Hovli huvillab yotardi. Shilta hidi cholning o'zi bilan birga yo'qolgan, biroq chirkin hid hali gupillab dimog'ni kuydirardi. Suratlar bir chekkaga yig'ishtirib qo'yilgandi. Cholning so'nggi suratini izlay boshladim. Chol suratni chizib ulgurganmi, yo'qmi, meni juda qiziqtirardi. Sariq matoni nihoyat topdim va uning yuzidagi qog'ozni yulib olib shosha-pisha suratga tikildim. Ko'zimga nihoyatda tiniq ranglar lop etib urildi – bu surat qirq yil

ichida chizilgan mavhum suratlariga sira o'xshamas edi. Men rasmdagi manzardan bir nafas tong qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o'rmon aks ettirilgan edi. Faqat bu suratda maymun umidsiz, ko'zlariga g'am cho'kkan, yuz-ko'zida hayotdan nishona qolmagan, munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab ketardi.

Suratning shoshib chizilgani ko'rinib turardi. Ko'p joyiga bo'yoqlar nomiga chaplangan edi. Cholning o'zi ham umri oxirlashganini bilgan va shuning uchun shoshgandi. Rasmning orqa fonidagi ranglar me'yoriga yetmagandi. Bu quyosh botib, atrofga cho'kkan xira qorong'ulikni eslatardi. Biroq ana shu qo'ng'ir rang fonida maymun va odamning qiyofasi ravshan aks etgan, odamning yuzidagi umidsizlikni yana ham kuchaytirgan edi.

Men o'shanda beixtiyor hayot kabi san'atning ham kirish va chiqish eshiklari borligi haqida o'ylagandim. Cholning suratlari go'yo sirli qo'rg'on edi; cholning ilk suratini ko'rgan daqiqadayoq bu qo'rg'oniga kirib qolgandim va uning suratlaridan qolgan sovuq hissiyot bilan birga yuragim g'ash bo'lib yurishimning sababini topganday bo'ldim. Shu kungacha cholning qo'rg'onida yashagan edim va hozir bu qo'rg'on eshigidan biyday kimsasiz dalaga chiqib qolganday his etdim o'zimni. Vujudimni shilimshiq, jirkanch narsa o'rniga bir narsasini yo'qotib qo'ygan odamday cholning suratlaridan qolgan xavotir egalladi.

O'zim yashaydigan uyga qaytib kirganimda beka mahalla kengashida ishlaydigan keksa bir kishi bilan gaplashib o'tirardi. «Mahalla keksalari yig'ilishib, uyni kimgadir bermoqchi bo'lishibdi, – dedi u menga, – uy olaman deb yurgandingiz, mana shu uyni ola qoling».

Birdan dimog'imga hovlidagi dov-daraxtlardan tortib, gullaru har bitta g'isht-gacha o'rnashib qolgan chirkin hid gup etib urildi; ko'nglim behuzur bo'lganday ijirganib ketdim.

– Yo'q, – dedim men o'z xonamga ketar ekanman. – Hozircha uysiz yashab turaman.



# Abduqayum

## Yo'ldosh

(1962-yilda tug'ilgan)



Abduqayum Yo'ldosh 1962-yil 29-fevralda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. Toshkent Politexnika institutini (hozirgi Texnika universiteti) bitirgan (1985). «Qaro ko'zim. Shayx ur-ra'is» (1990), «Sunbulaning ilk shanbasi» (1998), «Timsohning ko'z yoshlari» (2003), «Parvoz» (2004), «Bir tun va bir umr» (2007) kabi kitoblari nashr etilgan.

R. Bredberi, A. Kristi, F. Braun, E. Potter hikoyalarini, E. Berezikovning «Buyuk Temur» romanini (H. Shayxov bilan hamkorlikda), P. Shermuhamedovning «Buyuk Xorazmiy» romanlarini o'zbekchaga tarjima qilgan.

«Shuhrat» medali bilan taqdirlangan (1999).

### YOLG'ON VA HAQIQAT

\*\*\*

O'zbekovullik Rayimberdi cho'loqning kenja o'g'li G'oziqu'l o'qishni bitirganidan so'ng shaharda qolib ketdi.

G'oziqu'l balki shaharda qolmasdi ham, axir, O'zbekovulda ota-ona oxir-oqibat kenja o'g'il bilan yashashi rasm bo'lgandi.

Rayimberdi cholning ham ko'nglida shunday niyat bor edi. Shu bois ota katta o'g'illarining har biriga alohida uy-joy qurib olishiga qo'lidan kelgancha ko'maklashdi.

G'oziqu'l o'qib yurgan chog'lari shaharga olifalarcha kiyinib, qishloqni bosgan tappi isidan burnini jiyirib bo'lsa hamki, onda-sonda kelib turardi.

Yigit salgina maqtanishni xush ko'rardi.

O'qishi borasida ham tengdoshlariga yoinki o'zidan kichik yoshdagilarga al-lanechuk maroqlanib, lazzatlanib hikoya qilishni boplardi:

– Dars deganlarini teshib qo‘yganman! – derdi gapga biyron talaba odatda darrov jo‘shib ketib. – Domlalar ham buni yaxshi biladi. Shuning uchun baholarimni avtomat qo‘yib qo‘yaverishadi.

Tabiiyki, yoshlar bor joyda gap aylanib qizlarga kelib taqaladi-da.

G‘oziquil bu sohada ham suyagi yo‘qligini pesh qilishni boplardi.

– To‘rttasi bilan yuraman, – derdi u suhbatdoshlarining burniga to‘rt panjasini urib yuborguday taqab. – Hammasining figurasi dahshat!

– Bironlasiga uylanasizmi? – deb so‘rardi ilonning tiliday ingichka bo‘yinbog‘ taqib olgan shaharlik talabani og‘iz ko‘pirtirishlariga mahliyo bo‘lib qolgan sobiq sinfdoshlardan biri gapdon tengdoshini «sen»lashga istihola qilib.

Ana shunda G‘oziquil deganlari lablarini g‘alati burishtirib-qiyshaytirib, qoshlarini chimirar, o‘zicha aqlli yoki ma‘nodor gap qilmoqqa urinar va bir muddatlik sukunatni o‘tkazgach, alal-oqibat:

– Yo‘q, – derdi soxta tantana bilan. – Ularning barisi «Yursang mayli, lekin tegmaymiz» deb aytgan.

Albatta, bu qadar chuqur hikmatli e‘tirofning mag‘zini chaqishga qishloq yoshlarining salohiyati yetmasdi. Shu sabab navbatdagi savol o‘rtaga tashlanardi:

– Nega?

G‘oziquil savol berguvchiga «Shuni ham bilmaysanmi?» degandek mazaxomuz qarar va sira e‘tirozga o‘rin qoldirmaydigan ohangda shartta aytardiki:

– Bir maza qilib qolishmoqchi bo‘lishgan-da!

Talaba bu bilan nima demoqchi yo bo‘lmasa o‘sha «yuradigan» qizlar nimani bir maza qilishmoqchi – buni tushunish mushkul edi. Lekin ortiqcha savol berish ham o‘ng‘aysiz edi.

Rayimberdi cholning o‘ziga qolsa-yu, o‘qishini bitirgan zahoti o‘g‘lini dikonglatib sudrab kelardi-ya shahardan. Lekin kutilmagan bir hodisa bo‘lib qoldi.

Endi o‘qishini tamomlagan G‘oziquil lotereyaga «Neksiya» yutib olibdi!

O‘ziyam G‘oziquil deganlarini oynai jahonda bir oycha reklama qilishdi-yov.

Kech tushaversa bo‘ldi, televizor atrofiga yig‘ilib olganlardan birontasi «Hozir G‘ozi chiqadi» der va shu gap aytilar-aytilmas, ekranda paydo bo‘lgan «Reklama» yozuvining ortidan kamera qarshisida sal o‘ng‘aysizlanib turgan G‘oziboy ko‘rinardi.

Darvoqe, omadli yutuq sohibi mikrofonga qarab:

– Men, G‘oziboy Rahimberdiyev, bozorda ikkita lotereya sotib olgandim... – deb gap boshlardi.

Balki shu sababli bo‘lsa kerak, O‘zbekovulda odamlar endi baxtli talabani «G‘oziboy» deb atay boshlashdi.

Xullas, G‘oziboy televizorda ko‘rinaverib charchamadi, odamlar Rayimberdi cholni tabriklab charchashmadi.

«Neksiya» yutgan G‘oziboydan darak bo‘lavermedi. Shu sabab, el-yurtning gapidan uyaldimi, Rayimberdi chol bir qo‘chqor so‘yib, ovulning katta yoshli erkaklarining barini dasturxonga chorladi.

Rayimberdi chol o'jargina edi. Shu bois, bir do'q bilan uchar qushday shaharga intilayotgan katta o'g'illarining popugini pasaytirib qo'ydi:

– Ota kerak bo'lsa o'zi keladi, aka kerak bo'lsa o'zi keladi.

Shunda to'ng'ich o'g'il Norbo'ta ozgina e'tiroz bildirishga urindi:

– Guppi bolangizni do'st-jo'ralari eritib yurgan har kuni.

Rayimberdi chol bir muddat o'ylanib qoldi, so'ng:

– Har kuni eriyverishga pul qayda, agar moshinni sotmasa... – dedi.

Bu gapni eshitgan akalarning ichidan qirindi o'tdi, ammo ota huzurida ortiqcha mahmadonalik qilishdan o'zlarini tiydilar.

G'oziboy qirqinchi kuni qishloqqa oppoq «Neksiya»da kirib keldi.

Quchoqlashib so'rashishlaru qutlovlardan keyin ota hayron bo'lib so'radi:

– Pravang yo'q edi-ku, bolam, mashinani qanday haydab kelding? Yo'lda gai-pai...

Bunga javoban G'oziboy odatiga ko'ra bepisand qo'l siltadi:

– E, hozirgi zamonda pul bo'lsa samolyotni ham haydab ketsa bo'ladi, ota...

Quvonib ketgan Rayimberdi chol boqib yurgan kattagina qo'chqorini so'ydi, el-yurtni uyga chorladi. Bu safar dasturxonga aroq-vino ham qo'yildi.

Kelganlar biri-biridan shirin qadah so'zlari aytishdi, Rayimberdi cholni, G'oziboyni qutlashdi. Ko'pchilik bilan to'qishtirib ichaverib, anchagina kayf bo'lib qolgan G'oziboy chayqalib-gandiraklab hovli o'rtasida turgan oppoq mashinasi yoniga bordi-da, kutilmaganda kapotga bor kuchi bilan daranglatib urdi va:

– Bu... – deya bo'kirdi, – bu mashina otamning xizmatida bo'ladi. Bir umr...

Mehmonlar «oh-voh»lar bilan o'z hayratlarini izhor etishdi, ko'ngli bo'shab ketgan Rayimberdi chol ko'zlariga yosh oldi...

Ishqilib, hammayoq «sen je, men je» bo'lib ketdi.

Mehmonlar tun yarmida tarqalishdi.

Ertasi kuni peshinga qadar kun taftida pishillab uxlagan G'oziboy bir amallab ko'zlarini ochdi-yu, oftobadagi ilimiq suvda shosha-pisha yuzini yuvgach, hovlidagi chorpoyada yonboshlab yotganicha bir umr o'zining xizmatida bo'ladigan oppoq «Neksiya»ga ko'zlarini qisib, zavqlanib qarab o'tirgan otaning huzuriga bordi.

Odatdagi salom-alik, «Yaxshi yotib turdingmi?» «Rahmat»lardan keyin dabdurustdan G'oziboy dangaliga ko'chdi:

– Ota, uch yuz mingcha pul kerak.

Ota sergak tortdi.

– Tinchlikmi, bolam?

– Oformleniyaga, chexolga. Agar yana yuz ming bo'lsa signalizatsiya o'rnat-sayam bo'ladi.

Rayimberdi chol o'zicha mulohaza qildi. «Oformleniya, chexol kerak... Lekin mashina qishloqda bo'lsa, signalizatsiyasi nimaga kerak?»

Uyda buncha naqd pul yo'q edi.

Ota uch o'g'lining har biridan bittadan qo'yni deyarli majburlab oldi. Ayniqsa Norbo'ta qattiq qarshilik qildi.

– To'yga deb bittagina qo'y boqayapman, uniyam bersam, o'zim nima qilaman? – deb oyog'ini tirab turib oldi.

Shunda Rayimberdi chol uni jerkib berdi:

– Bitta qo'y shuncha aziz bo'ldimi? Ertaga moshin uyda tursa yurasan maza qilib.

Xayriyat, bu dastak o'jar o'g'ilning shaxtini sal so'ndirdi. Bundan mamnun bo'lgan otaning o'ziyam bitta qo'y qo'shdi. So'ng bu qo'ylarni yangi mashina ortib bozorga olib borishga ko'ngli bo'lmay, qishloqda molni ko'tara savdo bilan oladigan Said dallolni chaqirdi. Dallol otaning mo'ljalidan ancha past narxni aytdi.

Savdolanish boshlandi.

Nihoyat, bir to'xtamga kelindi.

Bari bir pul uch yuz mingga yetmadi. Qolganiga chol-kampir pensiyasidan o'limlikka deb yig'ib yurganini qo'shishdi.

Shoyi belboqqa tugilgan pulni e'tiborsizlik bilan yukxonaga tashlab qo'ygan G'oziboy rahmat aytgan bo'ldi va mashinani qishloq yo'lidan changitib haydab ketdi.

Rayimberdi chol oppoq «Neksiya» ortidan uzoq qarab qoldi. Go'yoki mashinani so'nggi bor ko'rib turganini ko'ngli sezganday...

\* \* \*

Vaqtning bu qadar oshiqib chopqillashini!

Ovulda G'oziboyga aylangan kenjatoy hov o'sha mashinani rasmiylashtirishu o'rindiqlarga g'ilof o'rnatish uchun uydagilar ne mashaqqatlar ila topib bergan uch yuz ming so'mni olib ketganidan keyin naq olti oy qorasini ko'rsatmasdan ketdi.

Ota, akalar bir oy kutishdi, ikki oy. Oxiri xavotirlana ham boshlashdi. Ammo G'oziboyi tushmagur ovuldan shaharga borib o'qiyotgan talabalardan salom aytib yuborishni kanda qilmasdi.

O'sha talabalarning aytishicha, G'oziboy «Ishlarim besh!» degan emish. Yaxshigina ishga kiribdi, ovuldagilarning tushiga ham kirmagan maosh olayotgan emish. Yaqinda esa chet el safariga ham borishni mo'ljallab turgan ekan...

Bu xabarlarini eshitib otaning sal ko'ngli joyiga tushganday bo'ladi.

Ammo to'ng'ich Norbo'ta hech bu gaplardan qanoat hosil qilmaydi. Kunda bo'lmasa ham, kun ora kelib gap orasida kenjatoyning vafosizlik qilayotganini qistirib o'tib ketadi.

– Shahar ko'rgan echkidan qo'rqish kerak, – derdi odatda Norbo'ta gap ohanigiga ozgina vahima aralashtirgan holda. – Buningiz soddagina bola, bironyasi boshini aylantirib, «Neksiya»ni maza qilib minib yurgandir. Biz bo'lsak bu yerda, chang ichida bitta eshak aravaga zor bo'lib... Necha marta to'y-ma'rakaga borishga ham birovga sarg'aydik...

Otaning ham ko'nglida bir niyati bor edi. G'oziquk kelsa-yu, chol-kampirni oppoq «Neksiya»ga mindirib olib, bir Buxoroyi sharifga ziyoratga olib borib kelsa. Axir, Buxoro – aziz-avloliyolar o'tgan joy. Ana, qishloq mullasi Ashur ko'sa ham bir janoza mahali guring orasida aytib o'tib ketdi-ku: «Buxoroni ziyorat qilish yarim hajga barobar», deb. Shunday ekan, o'zingning mashinangda, yumshoqqina o'rindiqlarga yastanib olib, beminnatgina borishga nima yetsin.

Chol aynan shu sababli ovuldagi tengdoshlari o'rtaga pul tashlab, Buxoroga borib kelish uchun eskigina «PAZ» avtobusini kira qilishganida qo'shilmay turib oldi. Tengdoshlar hadeb zo'rlayverishganida esa sog'lig'ini bahona qildi. Holbuki, yetmish beshga kirib Rayimberdi chol – sal oqsab yurishini aytmasa (bu ham bolalikdan qolgan, bug'doy o'rar mahali o'zining jo'rasi Saydazim sariq adashib o'roqni uning boldiriga sanchib olgan) biron marta sog'lig'idan shikoyat qilgan, do'xtirlarga chopmagan.

Saydazim jo'rasi sariqligidan tashqari, quvgina ham edi. Shu sababli u Rayimberdi cholni ayab o'tirmadi, gap bilan uzib oldi:

– Olisdagi «Neksiya»dan, jo'ra, yaqindagi «Pazik» yaxshi. Tushunganskiy?

Rayimberdi chol bamisoli gunoh ish ustida qo'lga tushganday qizarib ketdi, so'ng bir amallab o'zini qo'lga olarkan, sir boy bermaslikka uringan ko'yi hazin ohangda gapirishga urindi:

– Gap sog'liqda, jo'ra. Sog'lig'im to'g'ri kelganda-ku, Buxoroga piyoda borishgayam tayyor edim-a...

Saydazim sariq jo'rasiga istehzo bilan qarab turdi-turdi-da, so'ng yana nishini sanchdi:

– Bu ketishda hali piyodayam borolmay qolasan-ov...

Har ne bo'lganda ham o'ttiztacha chol eski, shalaq, buning ustiga qo'lansa isi salonga urib turadigan avtobusda Buxoro shahriga, muqaddas joylarni ziyorat qilishga borib kelishdi. Ana shundan keyin Saydazim sariq naq bir hafta ovulda hech kimga gap bermadi. Ayniqsa, Rayimberdi cholning oldida ko'rganlariga qo'shib-chatib rosa maqtandi.

Rayimberdi chol bu gaplarni qulog'ini ding qilib eshitdi, og'zidan suvi kelib eshitdi. Qariyaning Buxoroga juda-juda borgisi keldi. Ammo o'ylay-o'ylay, oxiri o'g'lini kutishga qaror qildi. Axir, lafz halol. O'g'li o'shanda, otasi o'g'li mashina yutib olgani bois el-yurtga dasturxon yozib, borini to'kib solganida hammaning ko'z oldida kapotni mushtlab «Bu mashina otamning xizmatida bo'ladi. Bir umr...» degandi axir. O'sha huzurbaxsh daqiqalarni eslasa, qariyaning ko'ngli yumshaydi, tomog'iga mushtday bir nima kelib tiqiladi, yetmish ikki tomiriga iliq bir nima yugurganday bo'ladi.

«Ko'lik yoshlarga yarashadi, – deya o'ylardi otaxon bunday paytlari. – Mayli, bolalar minib yuraversin. Chol-kampirni bir Buxoroga olib borib kelsa bo'ldi-da...»

Rayimberdi chol do'st-tengdoshlari oldida sog'lig'idan shikoyat qilib, xatolikka yo'l qo'ygan ekanmi, ishqilib, keyingi kunlarda chindan ham oyoq bo'g'im-

larida og'riq paydo bo'ldi, boshi ham sal harakat qilsa aylanadigan bo'lib qoldi. Buning ustiga o'qtin-o'qtin peshonasida sanchiq turadi.

Qariya buni charchaganlikka yoxud shamollashga yo'ydi. Shu sabab badaniga erinmay qo'y yog'idan surtib chiqdi, oyoq bo'g'imlariga sho'r paxta bosdi, kunda-kunora uyda isiriq tutatkizib turdi.

Mana shunday kunlarning birida G'oziboy uya salgina uringanligi sezilib turgan kul rang «Matiz»da kirib keldi.

Rayimberdi chol indamadi, ammo ko'zlarining paxtasi chiqib ketgan Norbo'ta dam sayin otasining yoniga kelar va vishillab:

– Ana, aytmabmidim! – deb ketardi.

To'ng'ichiga o'qrayib-o'qrayib qarab qo'yayotgan chol nihoyat bir piyola choydan keyingina til uchida turgan savolni berdi:

– Bolam, moshining o'zgarib qolibdima?

G'oziboy pinak buzmay, shu zahoti javob qaytardi:

– «Neksiya»ni arendaga berdim. O'zim hozircha «Matiz»ni ermak qilib yuribman.

– Prava oldingmi?

O'g'il yana beparvo qo'l siltadi:

– Pulingiz bo'lsa, ota, hozirgi zamonda samolyot haydasangiz ham bo'ladi.

Gailarning ham otasi pul-da, ota...

Gapga hech sabri chidamay, joyida irg'ishlaguday bo'layotgan Norbo'ta aralashdi:

– Arendaga bersang shu yerdayam shopirlar bor edi.

Bu savolga ham oldindan javob tayyorlab kelgan ekanmi, G'oziboy akasi gapini tugatmasdan og'zidan olib yoqasiga yopishtirdi:

– «Neksiya» shaharning mashinasi, aka. Bu yerning shopirlari, bu yo'llarda uni uch kunda rasvo qilishadi.

Darhaqiqat, ovulga olib keluvchi yagona yo'l yil bo'yi o'nqir-cho'nqir bo'lib yotar edi.

Norbo'ta nimadir deb e'tiroz bildirmoqqa og'iz juftladi, ammo to'ng'ichidan oldin ota tilga kirdi:

– Bolam, biz chol-kampirni bir Buxoroga olib borib kelsang. Aziz joylarni ziyorat qilib kelsak...

– Qachon?

Ota shoshib qoldi, so'ng o'ylanib turib javob qaytardi:

– Iloji bo'lsa, juma kunlari...

– Bo'ldi, gap yo'q, – dedi G'oziboy ishonch bilan. – Juma bo'lsa juma-da. Kelamanu, olib ketaman. Sizlar tayyor bo'lib tursalaringiz... Faqat... – shu yerga kelganda o'g'il o'ylanib qoldi: – shu «Matiz» sal jyostkiyroq-da. Men sizlarni «Neksiya»da olib borib kelaman. «Neksiya» yumshoq bo'ladi, qiynalmaysizlar...

Yana ko'ngli bo'shashib, ko'zlariga yosh qalqqan ota belidagi belbog'ining uchini mijjalarga bosdi:

- Umringdan baraka top, bolam...
- Bo'lmasa sizlarga o'zimga xabar qilaman, – dedi G'oziboy ishbilarmonlarga xos ko'tarinki ohangda. – Sizlar tayyor bo'lib turasizlar...
- Oqshom, yotish oldidan G'oziboy otasiga yaqin kelib, shivirladi:
- Ota, biron ikki yuz mingcha pul kerak bo'lib qoldi.
- Tinchlikmi? – xavotirlanib so'radi Rayimberdi chol.
- Tinchlik, ota, tinchlik. Aytdim-ku, yaxshi joyga ishga kirdim deb. Bir-ikki so'm tashlasam, chet elga borib ishlab kelishim tezlashadi.
- Otaga bu taklif unchalik yoqinqiramadi, ammo g'ashi kelganini sezdirmaslikka urinib, asta so'radi:
- Chet elga borish shartmi? Ishing yaxshi bo'lsa... Bo'lmasa shu yerga qaytib kelsang ham bo'lardi. Rayondan bir ish topilar...
- G'oziboy keskin bosh chayqadi:
- Bu yerning ishi menga to'g'ri kelmaydi, ota. Undan keyin, shaharda bir yilda topganimni chet elda bir oyda topaman, ota.
- O'zi qanchaga bormoqchisan?
- Uch oy, ko'pi bilan to'rt oyga...
- Chol ikkilanib qoldi.
- Bu yoqda enang qarib qoldi...
- Uch oyda qaytaman dedim-ku... Ishlagan pulimga ikki xonalimi uy olsam, sizlar ham borib maza qilib yashayverasizlar...
- Rayimberdi chol uzoq mulohaza qildi. Oxiri o'qigan-bilgan o'g'li bejiz bunday qarorga kelmagan, degan o'yga bordi-da, o'g'illarini maslahatga chaqirdi.
- G'oziboy hovlida, chorpoqda pishillab uxlab yotgan mahali ichkarida qizg'in bahs ketmoqda edi.
- Bir so'm ham bermayman! – dedi Norbo'ta pishqirib. – Buningiz «Neksiya»da, «Matiz»larda yallo qilib yursin-da, biz bu yerda eshak aravagayam zor bo'lib... Bermayman. Pulning o'zi yo'q. Bo'lgandayam bermasdim!
- Qolgan ikki o'g'il otaning og'ziga qarashdi.
- Nihoyat, Rayimberdi chol to'ng'ichini jerki berdi:
- Ukang chet elda ishlab, pul topib kelsa yomonma? Shahardan uy olsa yomonma? Bizning uydan ham o'qimishli odam chiqsin-da. Bolalaring katta bo'layapti, ertan-bir kun o'qiyman deb qolsa, ukangning uyiga bemalol boraverasan...
- Eshigini tepib ochib kirasiz, – deya ota fikrini davom ettirdi ukalardan biri.
- Norbo'ta ikkilanib bosh chayqadi.
- Hay bilmadim-ov... Avvallari bozor ko'rgan echkidan qo'rq, deyishardi. Endilari shahar ko'rgan echkidan qo'rq, degan gap bor... O'qimishli bo'laman desa shu yerdayam bo'laverardi. Shuning uchun shaharda yashash shartma?..
- Xullasi, – deya mashvaratga yakun yasadi Rayimberdi chol, – uchalang bit-tadan qo'y berasan.
- Qo'y! Qanaqa qo'y! – fig'oni falakka chiqdi Norbo'taning. – Uyimda bitta echkiyam yo'qligini o'zingiz yaxshi bilasiz-ku.

– Bo‘lmasa bitta qo‘yning pulini berasan, – deb turib oldi ota.

Ota amri vojib.

O‘g‘illar qo‘y bo‘lmasa ham, bir qo‘zichoqning pulini qarz-qavola qilib bo‘lsayam topib kelishdi.

Yetmaganiga ota o‘zi bilan kampir pensiyasidan o‘limlikka deb yig‘ib yurgan oxirgi pullarni qo‘shdi.

Ertalab, shoyi belboqqa tugilgan pulni G‘oziboyga tutqazarkan, ota ilinj ila eslatdi:

– Chol-kampir bir Buxoroni ziyorat qilib kelsak...

Kenjatoy otasiga ajablanib, ko‘zlarini katta-katta ochib qaradi:

– Aytdim-ku «Neksiya»da olib borib kelaman deb. O‘zim xabar qilaman, tayyor bo‘lib tursalaringiz...

– Iloji bo‘lsa, juma kuni... – dedi yuragi hapriqib ketgan ota.

– Bo‘ldi, gap yo‘q. O‘zim biron studentdan aytib yuboraman...

G‘oziboy xuddi o‘tgan galgiday pul to‘la belbog‘ni yukxonaga e‘tiborsiz tarzda tashlab qo‘ydi-da, motorni o‘t oldirdi.

Negadir g‘azabi qaynab ketayotgan Norbo‘ta asta ukasining yoniga borib, tishlari orasidan shivirladi:

– Bizdi hech bo‘lmasa rayonga oborib ke, uka. Bir bozor qilib qaytay-lik...

G‘oziboy shoshib bilagidagi soatiga qaradi. So‘ng afsuslanib bosh chayqadi:

– Jon deb borardim-u, aka, soat uchda muhim yig‘ilish bor-da. Yetib bormasam bo‘lmaydi. Kelasi safar «Neksiya»da oborib kelaman.

– «Neksiya»ng arendada emasmi? – ijkilab so‘radi darg‘azab aka.

G‘oziboy pinak buzmadi:

– Xohlagan paytimda olib turaman, deb shart qo‘yganman. O‘sha kunlar uchun pul to‘lamaydi-da.

Norbo‘ta bir joyi og‘rib ketganday aftini bujmaytirdi:

– Ko‘ziga qarab haydasin... Birovniki deb duch kelgan yerga ketavermasin...

– Buni o‘zim kontrol qilib turibman, aka...

Shu bilan xayrlashishdi.

«Matiz» qishloqning sertuproq yo‘lida chang bulutini osmonga ko‘targancha yelib ketdi.

\* \* \*

Kutish azobini boshidan o‘tkazgan odam yaxshi biladi.

Rayimberdi chol bir juma kutdi, ikki juma, uch juma...

Har juma ertalab ota kishi bilmas kiyinib oladi. Mabodo G‘oziboy «Neksiya»da kelib qolsa, shoshib qolishdan cho‘chiydi-da. Buning ustiga, mashinani kutdirib qo‘yishdan istihola qiladi. Kampiriga nima? Ustiga bitta yangi ko‘ylagini tashlaydi, oyog‘iga kalishini iladi – bo‘ldi-da, shu bilan tayyor. Rayimberdi chol esa... Oppoq yaktak-ishton, hattoki mayka ham yuvilgan, toza, har payshanba kechqurun Norbo‘taning xotini dazmollab beradigan kamzul-shim... Kamzulning



ko'krak cho'ntagidan soatning zanjiri chiqib turadi. Cho'ntakda dazmollangan ro'molcha. Mahsi-kalish yaltiraydi. Ba'zan hatto oqsoqol mo'ylovini ham yaltiratilab, moylab oladi. Axir, hazil gapmi – chol-kampir Buxoroyi sharifga borishadi, hazrat Bahouddin Naqshbandning oshyoniga... Bunday ziyoratga yetganlar bor, yetmaganlar bor... Buxoro ziyorati – yarim haj savobini ado etmoq bilan barobar...

Rayimberdi oqsoqol juma kunlari peshinga qadar tahoratini yangilayverib, qishloq chekkasiga ko'z tikaverib charchaydi. Tushga borib cholning kayfiyati tushadi. Ovqat ham yemaydi. Bir piyola ko'k choyni naridan-beri ichgan bo'ladi-da, asta uyga kirib ketadi va kishi bilmas kiyimlarini almashtirishga tushadi.

Ammo buni ko'pchilik biladi...

Hatto boshida Norbo'ta otasiga zaharxanda aralash:

– Kelmaydi, uningiz kelmaydi, – deb aytishdan o'zini tiyib turolmasdi.

Yo'q, bora-bora o'g'il otasining azoblanayotganligini sezdi chog'i, ortiqcha gap-so'zdan o'zini tiyadigan bo'ldi. Buning o'rniga juma kunlari sahardan otasini ergashtirib qishloq chekkasidagi machitga qatnaydigan bo'ldi.

– Otamning harna chalg'igani yaxshi, – dedi Norbo'ta xotini birdan o'zining taqvodor odamga aylanib qolganligidan hayratlana boshlaganini ko'rganida.  
– Bo'lmasa o'zini o'zi yeb qo'yadi...

Kunlar, shu jumladan jumalar ham o'tib borardi...

\* \* \*

Shunday odamlar bor: yemaydi, ichmaydi, ishlamaydi, ammo qo'shnisining uyida nima bo'layotganligini miridan-sirisiga qadar aniq-tiniq bilmasa kechasi uxlay olmay chiqadi.

Shunday qishloqdoshlardan ba'zilari shaharni erinmay izg'ib, G'oziboyni topib olishibdi.

Chet eldagi xizmat yuzasidan berilgan savollarga yigiti tushmagur kirrik qoqmay javob berib tashlabdi:

– Sal kechikib turibdi. Lekin ishlarim besh! Yaqinda ikki xonali uy oldim!

«Ikki xonali uy» xabari G'oziboyning qishloqda to'kilay deb turgan obro'sini birmuncha ko'tarib qo'ydi. Buni eshitgan Rayimberdi chol ham yengil tin oldi: «Har qalay, shaharda bejiz yurmagan ekan-ku...»

Ammo keyingi xabarlar ko'ngilni quvnatadigan darajada emasdi.

Shahardagi bozorda kelib-kelib Saydazim sariq uchratib qolibdi G'oziboyni. Sal chapaniligi bor emasmi, chol birdan tutaqib baqira boshlabdi:

– Hey bola, yo'lingga sarg'ayib qarayverib otangning ko'zlari teshilib ketdi-ku! Bir taksi bilan bo'lsayam oborib kel chol-kampirni Buxoroga!

Bunga javoban G'oziboy ajablanib:

– Taksi nimaga kerak, «Neksiya»m bor-ku, – debdi.

Endi ajablanish navbati Saydazim sariqqa kelibdi:

– Mashinang bo'lsa obor-da, nega achchiq ichakday cho'zib yuribsan?

– Oboraman! – debdi G‘oziboy sira shubhaga o‘rin qoldirmaydigan ohangda.  
– Bu hafta vaqtim yo‘q, ammo keyingi hafta albatta oborib kelaman...

Go‘yo ishni o‘zi bitirganday xursand bo‘lib, terisiga sig‘may ketgan Saydazim chol qishloqqa kelasola Rayimberdi jo‘rasidan suyunchi olgani chopadi.

Rayimberdi chol ikki haftacha hayajonlanib, o‘zidan o‘zi miyig‘ida iljayib, ko‘zlari chaqnaq yurdi. Shu o‘n to‘rt kun mobaynida oqsoqol biron marta sog‘lig‘idan shikoyat qilmadi, ko‘chalarda ham qaddini kerib yurdi.

Ammo va‘da qilingan jumada kelmadi G‘oziboy... Tabiiyki, hammamiz ham tirik insonmiz, ish-pishimiz chiqib qolishi mumkin.

Ammo keyingi juma ham qorasini ko‘rsatmadi G‘oziboy... Hattoki undan keyingisida ham...

Rayimberdi chol birdan cho‘kib qoldi.

Bamisoli ichidan bir nima «cho‘rt» etib uzilib ketganday birdan qaddi bukildi. Ko‘zlaridagi o‘t so‘ndi.

\* \* \*

Va‘da qilinganidan keyin oradan roppa-rosa o‘ttiz to‘qqiz juma o‘tgandan so‘ng (Rayimberdi chol erinmay sanab yurgandi) keldi G‘oziboy.

Bu safar u eskiroq, rangi to‘q ko‘k «Jiguli»da keldi.

Ota haydovchilik guvohnomasi xususida so‘rab o‘tirmadi.

Norbo‘ta tergov qilishni boshlab yubordi, ammo biron savoliga jo‘yali javob ololmadi.

G‘oziboy nuqul «ishi besh»ligini pesh qilardi. Bunga sayin to‘ng‘ich akaning jig‘ibiyroni chiqardi.

– «Neksiya» qani? – derdi u fig‘oni falakka chiqib. – Agar moshin arendada bo‘lsa, puli qani? Nega pachaq bir «Jiguli»da yuribsan? Shuncha paytdan beri nega shopirlikka o‘qib olmading?.. – va hokazo.

Axyri xotini orqali savollarini takrorlagan Norbo‘ta «shaharlik echki» G‘oziboyning yaqinda katta bir odamning (yigit nechukdir «ko-otta» debdi) erkatoy qiziga uylanayotganini, ammo vaqtinchalik o‘sha yerda yashab turishini ma‘lum qildi.

– Ichkuyovmi? – qotib qoldi Norbo‘ta. – Esi joyidami buning? Otasi, onasi, uchta akasi bari birday tirik turib bu ichkuyov bo‘ladima?

Ushbu serg‘azab savolga «Bu vaqtinchalik. Tez orada ishlarim «besh» bo‘lib ketadi, ana undan keyin alohida yashayveramiz» degan dudmalroq javob bo‘ldi.

Jahl ustida aka asosiy savolni bermaganligini G‘oziboy odatdagidek qanaqadir muhim ishlar uchun ikki yuz ming sum olib ketgandan keyingina angladi. Ammo endi kech edi. Shunday qilib, «To‘y qachon? Qachon sovchilikka boriladi?» degan savollar ochiqlicha qoldi.

Xo‘sh, qanaqa muhim ishlari uchun xarajat kerak ekan kenjatoyga? To‘g‘risi, buni Rayimberdi chol unchalik tushunmadi. Lekin o‘g‘lining jon kuydirib bir nima tushuntirishlariga jimgina quloq solib, hattoki bosh irg‘ab, ma‘qullab o‘tir-

di. Aftidan, G'oziboy qaydadir do'kon ochmoqchimi-ey, qurilish firmasi tashkil qilmoqchimi-ey. Ishqilib, tez orada ishlari «besh» bo'lib ketar ekan, ana shunda hammasini qo'shib, ortig'i bilan qaytararkan.

Rayimberdi chol indamay o'rnidan turdi, kichkina xonaga o'tib, o'limlikka deya so'nggi oylar ichida yig'ilgan ellik besh ming so'mni olib kelib xontaxta ustiga qo'ydi.

Qolgan yuz ellik ming so'mcha pulni uch aka bir amallab topib keldi. Qay-erdan izlashdi, kimlarning ostonasiga bosh urib borishdi, ne sarmoyadorlarning yuziga qarab sarg'ayib o'tirishdi – noma'lum, ammo otaning bir amri ila ularning har biri bir kechada ellik ming so'mdan pul olib kelib berishgani rost.

Bu gal akalar kenjatoyini kuzatgani chiqishmadi. Ular ayniqsa og'zi yomon Norbo'taning biron nima deb yuborishidan cho'chishgandi.

Doimiy odatiga kanda qilmagan holda shoyi belbog'ga o'ralgan ikki yuz ming so'mni yukxonaga bepisand tashlab qo'ygan G'oziboy to'satdan bir nima esiga tushganday otasi tomon o'girildi va shosha-pisha:

– Ota, – dedi, – bu hafta vaqtim yo'q. Lekin keyingi jumalarga tayyor bo'lib tursalaringiz, enam ikkalangizni Buxoroga, ziyoratga olib borib kelaman. Bu, – shunday deya o'g'il motori ishlab turgan «Jiguli»ga ishora qildi, – juda jyostkiy. Bo'lmasa jon deb shunda oborib kelardim. Shuning uchun yaxshisi «Neksiya»ni bir-ikki kunga olay-da...

– Mayli, bolam, mayli, – dedi Rayimberdi chol negadir o'g'liga qaramas-likka tirishib. – O'zing qarab ko'r, imkoniyating bo'lsa, ishingdan gap tegmasa...

Bu gapga javoban o'g'il yayrab kuldi:

– E, qiziqsiz-a, ota, ish tugarmidi...

– Agar iloji bo'lsa... – ota soqolini tutamlab o'ylanib qoldi. So'ng dona-dona qilib, ammo shundayam o'g'liga emas, noma'lum nuqtaga tikilgan ko'yi gapirdi: – agar iloji bo'lsa, shu yerga qaytib kelsang yaxshi bo'lardi. Enang ikkalamizning besh kunligimiz borma-yo'qma... O'zing tepkilab ko'marding... Mayli, nima bo'lsa o'tdi...

O'g'il otaning gap ohangidagi allaqanday siniqlikka e'tibor beradigan ahvolda emasdi. Shu sababli shosha-pisha gapni bo'ldi va ko'zlari chaqnaq, ko'tarinki ruhda dedi:

– E, ota, hali hammasi zo'r bo'lib ketadi. Shu ishlarni bitirib olay, keyin bir katta hovli olaman. O'sha yerda hammamiz maza qilib yashaymiz. Mana ko'rasiz... O'limni esa o'ylamanglar. Hali nevaralaringizning to'yini o'tkazib berasiz, deb yuribmizu...

Har qalay, G'oziboy – Norbo'ta ta'biri bilan aytganda – shahar ko'rgan echkilardan edi. Shu bois gapga usta edi.

Lekin bu safar Rayimberdi o'ziga xo'rozqand va'da qilingan yosh boladay shodlanib jilmaymadi, aksincha, indamay turdi-turdi-da, oxiri chuqur bir xo'rsinib olgach, qo'llarini fotihaga ochdi:

– Yo'ling oydin bo'lsin, bolam... Eson-omon vataningga yetib ol...

Eson-omon shaharga yetib olgan G'oziboy shu bilan o'n olti hafta suvga tushgan toshday izsiz g'oyib bo'lib ketdi.

Endi Rayimberdi chol juma kunlari ertalabdan hayitlikka olib boriladigan bolakayday entikib-shodlanib kiyinib olmaydi. Qariya endi juma kunlarni boshqa kunlardan farqlamay qo'ygan.

Ammo farzand bari bir farzand-da. Ota ham shu muddatdan keyin shaharda o'qiyotgan talabalardan so'rattirdi, ularning uyiga nevaralarini yubordi, kerak bo'lsa Norbo'ta-yu qolgan ikki o'g'liga ham zug'um qildi, xullas, G'oziboy haqida biron yangilik eshitishga astoydil urindi.

Nihoyat, ko'plashib qilingan sa'y-harakatlar oqibati o'laroq, dastlabki ma'lumotlar kela boshladi.

Taassufki, bu xabarlarida kishini shodmon etguvchi unsurlar kamroq edi. Bil'aks...

Chunonchi, uzunquloq gaplarga qaraganda G'oziboy o'sha ikki xonali uyida bir ayol bilan birga yashayotganmish... «Jiguli»ni ham tashlab, ishga poyi-piyoda qatnayotganmish... Garchand uchrab qolgan tanishiga «ishim besh» deb og'zini to'ldirib maqtangan bo'lsa-da, rangi ro'yidan, ayniqsa, ust-boshidan bu chiranishga arzigulik alomat topish mushkul emish...

Bu gaplarni eshitib ota xavotirga tushdi. Ilk bor qon bosimi ko'tarilib ketib, shifoxonaga bordi, biron o'n besh-yigirma kun achchiq dorilardan ichib yurdi, yumshoq joyiga o'n-o'n beshta ukol oldi.

Axiyri ota chiday olmadi. Nevaralarini zing'illatib, dalada kemon chopib yurgan Norbo'tani toptirib keldi.

To'ng'ich o'g'il halloslab hovliga kirib kelgan zahoti ota achchiq ustida unga qarab o'shqirdi:

– Bir onaning qornidan talashib tushgan iningga joning achiydimi sen bolaning?

Norbo'ta gapning bu qadar g'azabli buromadidan battar dovdirab, otasiga hayron termulib qoldi.

Rayimberdi chol kecha olgan pensiyasini chorpoya chekkasiga qo'ydi-da, o'sha g'azabkor ohangda farmon berdi:

– Bor, izla, top! Ahvoliga qara! Toza qiynalgan bo'lsa ko'chirasola kel shu yerga! Ochdan o'lmaydi!

Gap kim haqida ketayotganligini anglagan Norbo'ta itoatkorona bosh egdi-da:

– Xo'p, ota, boraman, – dedi. – Izlayman, topaman. Lekin endi u echkingiz qishloqqa qaytmas-ov. Shahar ko'rди-da...

Ota betoqat qo'l siltadi.

– Qaytmasayam omon yursa bo'ldi. Qiynalib qolgan bo'lsa yordam ber. Ukalaringga ayt. Uch-to'rt so'm obor.

Norbo'ta aftini burishtirdi:

– Bu yebto‘ymasingizga qancha kerakligini juda yaxshi bilamiz... Nima, bi-  
zning pul ishlab chiqaradigan stanogimiz borma? Yo «Neksiya»mizni arendaga  
berib qo‘yibmizma?..

Shunga qaramay, saharga qadar bir amallab yana ikki yuz ming so‘m pul to-  
pildi.

Tongda Norbo‘ta «Qaydasan, G‘oziqu!» deya yo‘lga tushdi.

\* \* \*

Norbo‘ta ertasi kuni kechqurun bola-chaqasiga, ukalarining bolalariga,  
ota-onasiga ikki sumka shirinlik, mayda-chuyda sovg‘a ko‘tarib kelib qoldi.

Odatga ko‘ra, to‘ng‘ich o‘g‘il avvalo otasining yoniga borib, salom berdi.

Hol-ahvol so‘rashuvdan keyin ota Norbo‘taga tik qarab turaverdi. Bu unsiz  
nigohdagi savolni ilg‘agan to‘ng‘ich o‘g‘il bidirlab ketdi:

– E, sharoiti zo‘r ekan! Issiq suv, sovuq suv, gaz. Tok o‘chmaydi. Zo‘r. Kelin  
bilan G‘oziqu bir-birini sizlab gapiradi... – Axiyri otasining ko‘zlari g‘azabdan  
chaqnaq ketganini ko‘rgan Norbo‘ta shosha-pisha izoh berdi: – Endi, uylanmasa  
bo‘lmaydigan bo‘lib qolgan ekan-da... Lekin kelin buni sizlaydi, bu uni... Zo‘r...

Ajabki, o‘g‘il iloji boricha ko‘proq va tezroq, imkon qadar quvnoq ohang-  
da gapirishga urinardi-yu, lekin buni o‘zi istaganchalik eplolmas, buning ustiga  
nuqul ko‘zlarini otasining nigohidan olib qochardi...

– Boraver... – dedi oxiri ota qo‘l siltab.

Yengil nafas olgan Norbo‘ta onasining huzuriga oshiqdi.

\* \* \*

Oradan ikki haftadan ko‘proq vaqt o‘tdi.

Bir kuni Rayimberdi chol nevarasini yuborib, Norbo‘tadan G‘oziqu ning  
manzilini so‘rattiribdi. «Xat yozib yuboraman», degan emish.

Norbo‘ta bir qog‘ozga manzilni yozib berdi.

Ertasi kuni Rayimberdi chol hov bir paytlardagiday, ertalabdan ko‘chalik ki-  
yimlarini kiydi. Keyin pochtaxonaga borib o‘zining va kampirining pensiyasini  
oldi.

Shundan keyin Rayimberdi cholni bekatda ko‘rganlar o‘zlaricha qariyani tu-  
man markazidagi katta machitga borayapti shekilli, deb o‘ylashdi. Axir kun juma  
edi-da...

Ammo qariya yo‘lni shahar tomon soldi.

Rayimberdi chol avtobusdan tushgan zahoti oldiga yugurib kelib, eski tanish-  
lardek quyuq salom bergan taksichiga hayron bo‘lib tikilib turdi-da, so‘ng manzil  
yozilgan qog‘ozni ko‘rsatdi.

Manzilni o‘qigan haydovchi o‘ylanib qoldi. Keyin:

– Gadoy topmas joy-ku, ota, – dedi. – Shaharning narigi chekkasi. Mayli, olti  
ming bering, oborib qo‘yaman.

Rayimberdi chol kulimsiradi:

– Qishloqdan shu yerga olti ming sarflamadim...

– Endi bu yer shahar, otaxon, – bo‘sh kelmadi taksichi yigit tilla tishlarini namoyish etib kularkan. – Mayli, sizning hurmatingizga to‘rt yarim mingga oborib qo‘yaman. Hurmatingiz bor, otaxon...

Rayimberdi chol ma‘qullab bosh irg‘adi.

G‘oziquqlning uyi haydovchi aytganchalik juda olisda emas ekan. Ko‘pi bilan yigirma daqiqada yetib kelishdi.

Oqsoqol shoshilmasdan besh qavatli uyning beshinchi qavatiga ko‘tarildi.

Eshikni, darhaqiqat, qorni qappaygan bir juvon ochdi.

Ota salom berdi. So‘ng, juvonning o‘ziga chaqchayib qarab turganini ko‘rgach:

– Men G‘oziquqlning otasiman, – dedi xijolatomuz jilmayib.

Juvon shosha-pisha salom berdi va o‘rdakdek lapanglagan ko‘yi ichkariga kirib ketarkan, yo‘l-yo‘lakay:

– G‘oziboy aka! Qishloqdan, – deya ovoz berdi.

Ichkaridan maykachan, kalta ishton kiygan G‘oziquql yugurib chiqdi.

Ota-bola quchoqlashib ko‘rishishdi.

Odmigina, devorga yopishtirilgan gul qog‘ozlari ko‘chib tushgan xona. Burchakda ikki kishilik divan. O‘rtada mo‘jazgina xontaxta. Shu xontaxtaga boyagi juvon harsillab-pishillab kelib dasturxon tuzagan bo‘ldi. Buni ko‘rib Rayimberdi chol xijolat chekdi.

Dasturxonga ota olib kelgan mayiz, konfet, pechene, hattoki qishloq nonlaridan ham qo‘yilganiga qaraganda...

Bu orada hol-ahvol so‘rashishlar tugadi.

– O‘zingning ishing qanday, bolam? – deb so‘radi ota asta.

Bu so‘roqda nechukdir iztirob va ayni paytda hadik ham borday edi. Ammo otasini ostonada ko‘rgan zahoti qo‘rqib ketgan G‘oziboy buni ilg‘amadi va odatiga ko‘ra kekirdagiga zo‘r berdi:

– Ishlar «besh», ota! Nasib qilsa bir-ikkita ishlar bitay deb turibdi. Qo‘limga katta pul tushadigan. Ana o‘shandan keyin maza qilib yashaymiz. Katta bir hovlini mo‘ljallab yuribman, o‘shani sotib olsam, enam bilan sizni ham ko‘chirib kelaman. Hammamiz tugal bo‘lib...

Ota indamay dasturxonga qarab o‘tiraverdi. Faqat zehn solib qaragan odamgina qariyaning rangi yanada qorayib ketganini, ko‘zlariga alam yoshi inganini payqab olardi. Lekin G‘oziboy ba‘zan hatto o‘zi ham mutaassiblarcha ishonib qoladigan havoyi rejalarini bayon qilib berish bilan ovora edi.

Ehtimol, hammasi odatga ko‘ra shu bilan tugashi ham mumkin edi. Ya‘ni, o‘g‘il og‘iz ko‘pirtirib maqtanadi, ota ezilib, iztirob chekib uyga qaytadi...

Ammo kutilmaganda...

Kutilmaganda oraga boyagi, xona bilan oshxona o‘rtasida o‘rdakdek lapanglab yurgan juvon aralashib qolsa bo‘ladimi!

Buni hech kim, ayniqsa ota kutmagandi!

– Voy, voy, voy, – dedi juvon masxaraomuz ohangda. – Qanaqa hovli, bizam bilsak bo‘ladimi? Mosh sig‘magan orqangizga loviyani tiqib nima qilasiz?

– O‘chir... ing! – dedi ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketgan, rangi quv o‘chgan G‘oziquq tishlari orasidan.

– Endi o‘chirmayman! – dedi juvon shartta. – Sizning yolg‘on gaplaringizga uchib, shuncha pisib yurganim yetar!

Mutlaqo tuyqusdan Rayimberdi cholning ko‘nglidan «Bular rostdanam bir-birini «siz»larkan», degan fikr o‘tdi. So‘ng esa birdan sergak tortdi.

– Bo‘ldi! – derdi bobillab juvon. – O‘lar bo‘lsam o‘lib bo‘ldim! Otam qirq yillik rais, yiqqanining o‘zi yotib esak qirq yilga yetadi, degandingiz! Akamning ikkita mashinasi bor, degandingiz, keldi, ko‘rdik akangizni ham! Og‘zidan siz ikki yil burun sotib yuborgan «Neksiya» tushmaydi. Qishloqda bir suruv qo‘yim bor degandingiz. Men bo‘lsam shu holimda, – juvon qappayib turgan qorniga ishora qildi, – kartishka bilan karamdan boshqa narsani ko‘rmayman. Ertaga bolangiz bir narsa bo‘lib tug‘ilsa, bilib qo‘ying, ikki qo‘lim yoqangizda ketadi... Oltin tog‘lar va‘da qilgandingiz, o‘zingizning bo‘lsa bitta kichkina to‘y qilishga qurbingiz yetmadi... Nima, to‘rt bolali bo‘lganimda qilasizmi o‘zingiz va‘da qilgan katta to‘yni?... O‘lar bo‘lsam o‘lib bo‘ldim-ku! Sharmandai sharmisor qildingiz-ku ota-onamning, qarindosh-urug‘larimning oldida! Hech vaqoyingiz yo‘q ekan, hech bo‘lmasa ularning oldida tilingizni tiyib yursangiz bo‘lmasmidi! Nima qilasiz qop-qop va‘dalar berib. Va‘dani siz berasiz, mazaxga men qolaman...

Juvon izillab yig‘lab yubordi.

Adoyi tamom bo‘lgan, sholg‘omi chiqib ketgan G‘oziquq yerga qarab qoldi.

To‘satdan Rayimberdi chol ohista yo‘taldi. So‘ng favqulodda xotirjam ovozdada, juda ham sokin bir tarzda asta-sekinlik bilan kelinini gapga tutdi va o‘zini qiynab kelgan ba‘zi savollariga qisman bo‘lsa-da javob oldi.

Darhaqiqat, G‘oziquq mashina yutib olganidan keyin uni yuvishga, maishatga shu qadar zo‘r berganki, oxir-oqibat bo‘ynigacha qarzga botib, mashinani sotishga majbur bo‘lgan. Keyin «Matiz» mashinasini ijaraga olib, taksichilik qilib kun ko‘rmoqchi bo‘lgan. Ammo haydovchilik guvohtonmasi yo‘qligi bois, mirshablar-ga tushaverib bor-budidan ham mahrum bo‘lgan.

Qishloqqa haydab borgan ko‘k «Jiguli» esa, ota gumon qilganiday, birovniki, to‘g‘rirog‘i, kelinning ukasiniki ekan...

Kelinning ismi Hilola ekan. U tibbiyot kolejida o‘qib yurganida G‘oziquq bilan tanishib qolganu, uning qop-qop va‘dalariga uchib...

Kelin ho‘ngrab yig‘lab yubordi:

– Bir oy bo‘ldi, ostona hatlab ko‘chaga chiqolmayman. Qarz so‘rayverib, qo‘shnilarni bezor qilib yuborgandik. Endi ularni qaytarish kerak. Qaysi pulga? Do‘xtir bo‘lsa «Toza havoda sayr qil», deb urishadi meni. Ko‘chaga chiqsam, qo‘shnilarning ta‘na-malomatidan havo ichimga zahar bo‘lib quyiladi... Uyda yuragimni hovuchlab o‘tiranman. Eshik «tiq» etsa qaltirab qolaman. Qaynog‘am kelgan kuni, – kelin Norbo‘tani nazarda tutayotgandi, – uyning egasi kelib bir janjal

qildi, bir janjal qildi. Uch oylik ijara pulini to'lamagandik. Haliyam o'g'lingizning yonida puli bor ekan, borini chiqarib berdi...

Rayimberdi chol o'g'liga savolomuz qaradi.

Biroq G'oziquq boshini yerdan ko'tarmasdi.

Uning o'miga ham o'ksinib hiqillayotgan kelin javob berdi:

– Uymi? Uyda ijaraga turamiz? Bu kishim qaysi puliga olsin uyni? Bu kishini-ki faqat og'izda...

G'oziquq sakrab o'rmidan turdi va «tars-turs» yurgancha ayvonga chiqib ketdi.

Kelin yana izillab yig'lashga tushdi.

Ota bosh egib qoldi...

\* \* \*

Rayimberdi ota ertalab yonidagi bor pulini kelinning qo'liga tutqazdi, o'ziga faqat yo'lga yetadigan pul oldi, xolos.

Shu kuni peshindan keyin ota qishloqqa kirib keldi.

Vahimaga tushgan o'g'illar ona boshchiligida uy yonida turishgan ekan.

Otaning qayerdan kelayotganligi ayon edi...

Rayimberdi chol bir hafta-o'n kun pul izladi, uch o'g'liga do'q urdi, po'pisa qildi, hovlidagi bor mollarni sottirdi, ishqilib, bir milliondan ko'proq pul yig'di. Yana to'rt yuz ming so'mcha pul qarzga topildi.

Xullas, Norbo'ta borib, kelinning qo'liga bir yarim million so'mni berib keldi.

Ota talabiga ko'ra, Norbo'ta G'oziquqni qishloqqa ko'chib kelishga rosa undagan. Ammo «shahar ko'rgan echki» bo'lmish G'oziquq bo'y bermagan. Hamishagiday:

– Yaqinda ishlarim «besh» bo'lib ketadi. Ana o'shanda qishloqqa «Mercedes» minib boraman, – deb turib olibdi.

Kelin esa ochiqdan-ochiq:

– Qishloqqa bu ahvolda borishga uyalaman, – debdi.

\* \* \*

Rayimberdi ota yanada cho'kdi.

Farzandlar uni shifoxonaga olib borishdi.

Ota tuman shifoxonasida qiynalib jon berdi... To so'nggi soniyaga qadar otaning tobora nursizlanib borayotgan ko'zlaridan yosh arimadi...

Har nechuk, yuborilgan odamlar G'oziquqni topib kelishdi.

G'oziquq akalari qatori bel boylab, aso ushlab «Voy, otam»lab turishga yaradi.

Mayitni joylab kelishganidan so'ng Norbo'taning uyida bir g'unajin so'yilib, ovulning oqsoqollariga bir kosadan sho'rva berildi.

Hayot shafqatsiz. Odamlar ham.

Balki bunda bir hikmat bordir, har nechuk, qabristondan qaytgan odamlar marhum haqida emas, ko'proq kundalik tirikchilik tashvishlari haqida gaplashishardi.



– E, ishlar bilan bo‘lib sal kechikib qoldim-da, – deb qoldi bir payt G‘oziqu sal balandroq ovozda. Ko‘pchilik u tomonga «yalt» etib qarashdi. – Keyingi juma yumshoqqina «Mercedes» mashinasida kelib, otam bilan enamni Buxoroga, ziyoratga olib borib kelmoqchidim. Og‘aynilarga tayinlab qo‘ygandim. Barisi tayyorgarlik ko‘rib, kutib turishgandi...

Nechukdir bu gaplardan so‘ng xonaga o‘lik sukunat cho‘kdi. Oqsoqollardan ko‘pchiligi allanimadan xijolat chekkanday bosh egib, dasturxon popugidan ko‘z uzmay o‘tirishardi.

– Shu «Mers»ni o‘zim olmoqchiman, – deya gapida davom etdi G‘oziqu. – Yaqinda bir katta ish qildim, qo‘limga katta pul tushadigan. «Ko‘k»idan...

Norbo‘ta avval tomoq qirdi. So‘ng allaqanday jerkigan ohangda:

– Uka, – deb chaqirdi.

G‘oziqu sergak tortib shu tomonga qaradi.

– Seni so‘rashayotgandi, – dedi Norbo‘ta tashqariga ishora qilib.

– Shu yerdayam topib olishadi-ya, – dedi iljayib G‘oziqu shoshib o‘rnidan turarkan.

Norbo‘ta ukasi bilan izma-iz chiqdi.

– U yoqda, – dedi u G‘oziquga do‘ng ortini ko‘rsatib.

G‘oziqu hayron bo‘lib shu tarafga yurdi.

Norbo‘ta ukasining ortidan keldi. Uning qo‘lida bir tuguncha bor edi.

– Mana, – dedi u tugunchani ukasining qo‘liga tutib. – Bu yerda ikki yuz ming. Otam oxirgi kunlari tildan qoldi. Agar gapirganida shunday vasiyat qilishi aniq edi. Shaharga bor. Kelinning ko‘zi eson-omon yoriganidan keyin qishloqqa ko‘chib kelinglar. Ana joy, ana uy. Biz ham qarab turmaymiz. Endi shaharda uytib yurish senga yarashmaydi...

– Aka, siz tushunmayapsiz-da, yaqinda ishlarim «besh» bo‘lib ke-tadi...

Ammo Norbo‘ta ukasini gapirtirgani qo‘ymadi. U qo‘li bilan qishloq o‘rtasi-dagi bekatga ishora qildi.

– Hozir esa bor. Yarim soatlardan so‘ng avtobus o‘tadi. Shaharingga jo‘na. Negadir hozir seni ko‘rgim kelmayapti... Hozir ketsang, hammamizga yaxshi bo‘ladi... Keyingi bozor xudoyi qilamiz. Kelsang yaxshi bo‘ladi...

– Kelaman, – dedi hovliqib G‘oziqu. – Albatta kelaman...

G‘oziqu tugunni bag‘riga bosganicha, akasining fikridan aynib qolishidan cho‘chiganday bekat tomon tez-tez yurib ketdi.

G‘oziqu yakshanba kuni xudoyiga kelolmadi. Bir talabadan «Zarur ishim chiqib qoldi. Lekin tez orada «Mers»da boraman», deb aytib yuboribdi...

# Nabi Jaloliddin

(1962-yilda tugʻilgan)



Nabi Jaloliddin 1962-yil 2-mayda Andijon viloyati Izboskan tumanining Jonobod qishlogʻida tugʻilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1993). «Yalpizli kecha» (1993), «Hur nido» (1996), «Oʻlimning rangi» (1998), «Sen bilan qolmayman» (2002), «Erkagi bor uy» (2005) kabi sheʼriy va nasriy asarlari nashr etilgan.

A. Kamyuning «Kaligula» asarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

## ERKAGI BOR UY

Darvozaxonadan irgʻishlab kirib kelgan bolakay uy yonida tarvaqaylab oʻsib, tom ustigacha shoxlab ketgan kattakon oʻrikning ostida erinchoqlik bilan timirskilanib yurgan targʻil mushukni koʻrib, bir toʻxtalib oldi. Keyin qoʻlidagi sumkasini goʻyo mushukning ustiga irgʻitayotgandek qattiq siltadi va shu siltash asnosida ogʻzidan vahimali bir tovush chiqardiki, mushuk ham oʻsha tovushga hamohang ravishda «dod»lab, oʻrikning ikki odam boʻyi keladigan shoxiga sakrab, bolaga «haziling qursin», deganday qarash qildi-da, boyvuchcha yurish bilan qingʻir-qiyshiq shoxlar orqali tomga oʻtib ketdi. Bola oʻz qiligʻidan zavqlandi. Aslida bu mushuk ularniki emas, qayoqdandir paydo boʻlib qolganu, bironing eʼtiboridan ozor topmagach, tomda makon topib, bola tuqqan va shu xonadonning salkam aʼzosiga aylangan.

Uydan chiqib kelgan ayasi ayvonda toʻxtab, unga dakki bergan boʻldi:

– Mishigʻni qiynamagin-da, oʻgʻlim!

Bolakay sumkasini erkalash bilan u yoqdan-bu yoqqa siltab, sakragancha ayvonga – ayasi va soʻrida oʻtirgan xolasining oldiga koʻtarildi.

– Assalomalaykim! Keling, xolajon! – dedi ovozi jaranglab.

– Vaaleykimassalom. Odobiyam bor bu shumtakani, – deb qo‘ydi ayasi zavqi kelib.

– Keldiyimi, polvon? Qani!.. – xolasi o‘tirgan joyida so‘rashish uchun kaftini ochdi.

Bola o‘z odaticha erkalik bilan xolasining kaftiga «chars» etkizib kaftini urdi-da, «qalaysiz?» deb qo‘ydi.

– Ayajon, – u sumkasini so‘ri chetiga qo‘yib, chaqnagan dumaloq ko‘zlarini ayasiga tikkancha bidillashga tushdi. – Badal buvaga salom beruvdim, «Barakalla, ota o‘g‘il, ilohim, otangga o‘xshagan yigit bo‘lgin», deb duo qildi.

Ayasining mehri iydi, ma‘yus ko‘zlari yoshlanganday yiltirab ketdi.

– Barakalla, o‘g‘lim! – bolakayning boshini bag‘riga tortdi. – Iloyim Badal buvaning aytgani kelsin! U kishi dadang rahmatlini ja yaxshi ko‘rardi-da... – deya ko‘ngli buzildi.

Badal buva ularning uch-to‘rt eshik naridagi qo‘shnisi bo‘lib, hamisha darvozasi oldidagi ixcham supada qo‘lidagi behi shoxidan yasalgan qo‘lbola hassasiga tayanib, goh nimalarnidir pichirlab, goh o‘tgan-ketganga gap tashlab o‘tirguvchi, soqoli qorday oppoq nuroniy chol edi. Chol hamma narsani bilguvchi, qishloqdagi har bir ishdan boxabar edi. Barcha o‘z qilmishi uchun u kishidan hayiqar, chunki chol aytadigan gapini xaspo‘shlab, ezg‘ilab o‘tirmas, dangal aytardi-qo‘yardi. Shundanmi, qishloq ahli har bir voqea-hodisa uchun orqavorotdan bo‘lsa-da, Badal buvaning hukmini kutardi. Uning hukmi esa doimo adolatli bo‘lardi shekilli, barchalari hamisha har bir ish uchun shu oqsoqolning munosabatini bilishga urinishardi. Hozir qishloqdoshlari nazdida oqilu dono bo‘lgan otaxonni bolaning otasi haqida aytgan gaplaridan ayolning ham ko‘ngli yumshagandi.

Bolakay xolasining doimgiday olqishlari ostida kiyimlarini almashtirish uchun uyga kirib ketdi. Sumkasini qo‘yib, ko‘ylagini yecharkan, xolasining xavotirli bir ovozda g‘o‘ng‘illab gapirgani beixtiyor qulog‘iga tushdi.

– Ayvongacha chiqdimi, shixting qurg‘ur? – so‘radi xolasi ayasidan.

Shundagina bola deraza orqali onasining holatiga e‘tibor berdi – u anchagina g‘amgin o‘tirardi.

– Bo‘yning uzulgur qo‘li bilan imlab tashqariga chaqirdiyam. Ko‘zlarini yiltirashidan tuzukkina mosiydiyam (mast ediyam) shekilli, itdan bo‘lgan!

Bolakay endi derazaga yaqinroq kelib, ayasi bilan xolasining gaplarini diqqat bilan eshita boshladi. Uning murg‘ak qalbi onasi bilan bog‘liq biron ko‘ngilsizlik bo‘lganini sezgandi.

Ayasi xijolatli ovozda sekin-sekin gapirardi:

– Yer yutgur, bir-ikki marta ishdan qaytayotganimdayam suzilib qarovdi. Salomlashib o‘tganimni o‘zicha tushungan shekilli-da...

– Kechqurun chiqib birga yotaymi? – so‘radi xolasi dalda berguvchi ohangda.

– Qo‘y, eriyini g‘ashi kemasin tag‘in.

– U itvachcha yana chiqar hali?..

– Bilmadim. Xudo saqlasin. Kechqurun dod solmoqchiyam bo'ldim, lekin mahalla-ko'ydanda nomus qildim. Bari bir, hammayam to'g'ri tushunmaydi, qaytaga mish-mish ko'payadi. Axir bolalarim bor!.. Hammasiga sabab – uyimda erkagim yo'qligi. Erkagim bo'lsa-yu... – ayasining ovozi chiyillab ketdi, chamasi, u yig'lab yubordi.

Bolakayning ham ko'ngli buzildi, ayasiga juda-juda rahmi kelib ketdi, dasini eslab o'ksindi. Shu hissiyotlar orqasidan «kim bo'ldiykin u odam?», deya o'ylab qoldi. «Kechasi biznikiga kiradigan qaysi haramiykin? Hali u erkagi yo'q uyga kirarkanmi? Bizi uyni erkagi yo'qmi?.. Men-chi?!. Yo'q, ayajon, biznikidayam erkak bor, ha, bor, ayajon!» Bolakay endigina beshinchi sinfda o'qirdi, ayni damda esa xuddi kattalarday fikr yuritar, ayniqsa, ayasini xafa qilganlardan o'ch olish istagi uning tomirlaridagi qonni chinakam yigitlarnikiday olovlantirmoqda edi. «Faqat kim bo'ldiykin u it?! Ha, mayli, kechqurun bilib olarman. Ko'rsatib qo'yaman men unga birovnikiga kirish qanaqa bo'lishini!» U uylariga kirgan odam kim ekanligini ayasidan so'rashga uyaldi. O'zicha qat'iy bir qarorga keldi-da, shahd bilan tashqariga chiqdi.

Ayasi tovuq boqamiz deganidan keyin katak qilish uchun bir talay guvala quyib tashlagandi. Hozir ana o'sha yaqindagina quyilgan guvalalardan ikkitasini olib, o'rik ostiga keltirdi. Bu orada xolasi chiqib ketarkan, «hoy, guvalachi, biznikigayam o'tgin», deb qo'ydi erka bir ovozda. Uning qilayotgan ishiga e'tiborsiz nazar tashlab qo'ygan xolasi tugul ayasi ham «yosh bola o'ynayapti-da», deya o'ylagandi, xolos. U esa o'ynamayotgandi, o'z nazdida, kechqurun bo'lajak «jangga» hozirlik ko'rayotgandi. Uning bolalik sho'xliklari-yu shumliklari to'lgan miyasiga ayni damda tunda ularnikiga kirgan o'sha odam kim ekanligini bilish-u, u haramining boplab adabini berib qo'yish xayoli o'rtnashib qolgandi. Shu niyatda o'rik ostiga ikkita guvala olib kelgach, yana allaqayerlarni timirskilanib, ayasi bozordan piyozu kartoshka tashiguvchi sun'iy irdan to'qilgan xalta va arqon topib keldi. Guvalalarni xaltaga solib, arqonni beliga o'radi-da, tirmashib, o'rik ustiga chiqa boshladi.

O'rikning yirik shoxlari ham bir nechta bo'lib, ular qing'ir-qiyshiq, beso'naqay, g'adir-budir tanasi qoraygan va dag'alligidan bolakayning nozik tanasini, hatto, kiyimi ustidan-da, shilib yuborguday edi. Odatda, qari o'riklarning mayda shoxlari xuddi chakalakzor butalariga o'xshab, bir-birlariga chirmashib ketadi. Shuning uchun o'rikning barglari ham ko'p, ya'niki g'uj-g'uj bo'ladi. Bolakay qo'lidagi xaltani qurigan kichikroq butoqqa ilarkan, o'sha qalin barglar orasidan hovli etagidagi devorni ko'rish uchun biron tuynuk axtardi. Biroq rostdan ham barglar shu qadar qalin ediki, qani endi devorni ko'rib bo'lsa. Bari bir hovli tomondagi devordan oshib kiradi, deya o'yladi bola, darvoza tarafdan o'lsayam o'tolmaydi. Shularni o'ylarkan, xaltani yana qo'lga olib, ehtiyotkorlik bilan uyning tomi ustiga egilgan yo'g'on shox tepasiga o'tdi. Aslida bu kekxa o'rikning har bir shoxi tanish bo'lganidan bola uchun uning ustida yurish unchalik qiyin

emasdi. Har yili o'rik pishig'ida bu o'rikning ustiga necha bor chiqib-tushgan va shuning uchun qaysi shoxda oyoqni qayerga qo'yishni yaxshi bilardi. Hozirgi ehtiyotkorligi esa qo'lida yuki borligidan edi. U o'sha shoxning o'rtasida, ya'ni hovlining etagidan keluvchi odamning aynan ustini mo'ljallab to'xtadi va xaltani yana butoqqa ildi. Belidagi arqonni yechib, taxladi-da, uchi singan kalta shoxga bir bor aylantirib osib qo'ydi. O'rikdan tushib, hovli tomonga o'tdi va devorning odam oshishi mumkin bo'lgan joyini chamaladi-da, o'z fikriga yana bir bor ishonch hosil qilgach, ortiga qaytdi. Endi uning birdan-bir tashvishi tungi uyquni yengish edi. Ularnikiga kiradigan haligi noma'lum odam bari bir yarim kechasidan avval kelmasa kerak. Chunki u ham xuddi o'g'rilar kabi bexatarroq paytni poylashi aniq. Ungacha esa bolakay dong qotadi. Eng alam qiladiganियam shu. Ko'pincha televizorda beriladigan kechki kinolarni rosa poylay-poylay, endigina boshlanay deganda, hatto, singlisidan oldin uxlab qoladi. Bu tirmizak singlisi kichkina bo'lgani bilan kitob o'qishni, ayniqsa, ertaklarni shunaqayam yaxshi ko'radiki, katta uyga kirib olib o'qigani o'qigan. «Uxlaysanmi-yo'qmi», deya hatto, ayasi ham pinakka ketib qoladi. Aytganday, ertakni esladimi? Qaysidir ertakda o'qiganmide yoki singlisidan eshitganmide, xullas, undagi qahramonlardan biri kechasi uxlab qolmaslikning chorasini topadi. Bola o'z topqirligidan quvonib, jilmayadi. Og'risa-chi?! – o'yladi keyin, ha nima, uxlab qolmasa bo'ldi-da. Og'riqqa chidaydi, axir u erkak kishi-ku! Bu uyning erkagi borligiga ayasini ishontirishi uchun ham chidashi shart.

Yotar payti ayasi singlisi ikkalovining rangli qalamlarini taroshlab beradigan piskani doimgi joyi bo'lmish tokchaga yozilgan gazeta tagidan oldi-da, ko'rpasiga kirdi. Ayasi chiroqni o'chirishi bilan yonboshlab, chap oyog'ining tovonini ayvondan tushib turgan chiroq yorug'iga tutdi. Tishlarini bir-biriga qattiq bosib, piska bilan tovonining ikki enlik chamasi joyini tilib yubordi. U kutgancha og'rimadi. Qon chiqishini birpas kutib turdi, hatto, kesilgan-kesilmaganligini tezroq aniqlash uchun barmoqlari bilan bir-ikki uqaladi ham. Qon chiqishi hamono boya oshxonadan olib kirib qo'ygan tuzni jarohatiga bosdi-da, labini tishlab, ko'zlarini yumdi. Bir lahza o'tar-o'tmas jarohati jazillab achisha boshladi. Bola emasmi, bir muddat o'z maqsadini ham unutib, to'lg'andi, bilinar-bilnmas ingrandi. Bir oz bo'lsa-da, og'riqni qoldirish uchun ko'rpa ostida turib jarohatini pufalay boshladi. Ayasi hali uxlamagandi, shu bois o'g'lining bezovtaligini payqadi.

– Nima qilyapsan, bolam? – deb so'radi u o'rtadagi singlisi osha bo'ylarkan.

Bola o'shandagina sergak tortdi, shoshib o'zini o'ngladi-da, «hech narsa», dedi xotirjam ovozda.

Lekin bari bir uyqu zo'r keldi. Oyog'ining achishishi pasaydimi yoki shunchalar toliqqanmide, tez orada dong qotib uxlab qoldi.

Ertalab ayasining ovozidan uyg'ondi. U odatdagidek «maktabga kech qolasan», deya ketma-ket takrorlar va bu orada o'z yumushlarini ham bajarardi. Bolakay o'rnidan turib, eshik tomonga dastlabki qadamini qo'yishi hamono chap oyog'ining tovonini zirqirab ketdi va shundagina tundagi urinishlarini esladi.

Og'riqni unutish uchun jarohatli tovonini ko'targancha tek turarkan, haligi odam kirmadimikin ishqilib, degan o'y urildi miyasiga va uxlab qolgani alam qilib, afti tirishdi. Bir nimalar deya so'kingancha, uxlab qolganiga go'yo oyog'i aybdorday tovonini polga ketma-ket qattiq bosdi. Endi og'riq unchalik sezilmasdi. Uy eshigidan chiqarkan, so'rida o'tirgan xolasiga ko'zi tushdi, yuvuqsiz holda u bilan ko'rishishga uyaldi-da: «Keling, xola» degancha shoshib hovli tomonga yurdi. Xolasi beparvogina: «Ha, turdingmi, polvon?» derkan, shu ondayoq jiyani un-utib, opasiga aytmoqchi bo'lib turgan gapida davom etdi:

– Yaxshi, bugun chiqmabdi yer yutgur! – dedi u ovoziga bir oz sirli tus berib.  
– Ajabmas insof berib qaytib qadam bosmasa.

Bolakay xolasining bu gaplarini uyning muyulishiga yetganda eshitdi. «Xay-riyat, bu kecha chiqmabdi, harami!» – deya xursand bo'lib, yengil nafas oldi.

Bola kun bo'yi kechqurun uxlab qolmaslik chorasini qidirdi. Hatto, maktab-da ham xayolidan shu narsa ketmay yurdi. Uxlab qolmaslik chorasini izlab bosh qotirgani sayin haligi odamning kimligini bilish ishtiyoqi kuchaygandan-kuchayaverdi. Bari bir adabini beradi u iflosni!..

Odatda, ayasi kun bo'yi mayda-chuyda ishlar bilan tinim bilmaganidanmi kechqurun to'qqiz bo'lmayoq mudray boshlardi. Bu kecha ayasining aynan shu odati bolakayga qo'l keldi. Ayasining charchaganini bahona qilib, kitobga muk tushgan singlisini ham tezroq yotishga qistay boshladi. Niyati nima qilib bo'lsa ham ayasiga sezdirmay ertaroq tashqariga chiqib olish edi. Bo'lmasa yana uxlab qoladi. Singlisini kitobidan ayirib uxlatguncha, soat ham o'ndan o'tib ketdi. O'rni-dan turib, yonboshlab olib pinakka ketgan onasini uyg'otdi.

– Chiroqni o'chirvoraymi, aya?

Bola chiroqni doim ayasining o'zi o'chirishini va undan oldin katta uyga kirib, ko'ylagini almashtirib chiqishini juda yaxshi bilardi. Hozirgi so'rovi esa uning shunchaki bolalarcha hiylasi edi.

Ayol uyqusirab o'rnidan turarkan, «yotaver, o'g'lim, o'zim o'chiraman», deb qo'ydi. Bola esa ayasining ko'zi tushishini mo'ljallab o'z ko'rpasiga kirdi. Aya-si katta uyga o'tishi bilan o'rnidan turib, hali o'ramoqlab qo'ygan to'shakni o'z ko'rpasiga xuddi odam yotganday qilib joyladi-da, asta yurib tashqariga chiqib ketdi. Ayasi katta uydan qaytib, u tomonga birrov ko'z tashladi-da, yotganligiga ishonch hosil qilgach, eshikni ichkaridan zanjirladi va chiroqni o'chirib, joyiga yotdi.

Bola iloji boricha tovush chiqarmaslikka urinib, o'rikka tirmashdi. Bizga tan-ish yirik shoxning arqon va guvala solingan xalta ilingan qismiga yetib, arqon-ni oldi. Bir qo'li bilan shoxni quchoqlab yotarkan, ikkinchi qo'li bilan arqonni beli va yelkasi osha o'rik shoxiga qo'shib o'ray boshladi. Uning bu ehtiyotkorligi mabodo uxlab qolsa, pastga qulab tushmaslik uchun edi. Arqonni o'rab bo'lgach, ikkinchi qo'li bilan ham o'rik shoxini quchoqlab, qulayroq joylashib oldi-da, o'ng yuzini shoxning g'adir-budir tanasiga qo'ydi...

Oradan qancha vaqt o'tdi, bilmaydi, bir mahal yelkasiga allanarsaning yengil urilishidan cho'chib uyg'onib ketdi. Bu tungi sanqishlaridan qaytayotgan tomدا yashovchi daydi mushukning oyoqlari edi. U har kuni necha bor o'tguvchi, o'zi uchun yo'lak vazifasini o'taguvchi shox ustida yotgan odamni payqab-payqamay sakrab yuborgandi. Bola uyg'ondi-yu, qayerda yotganligini ilg'ay olmay, atrofidagi qorong'ilikdan yuragini bir lahza vahm bosdi. O'zining qayerda ekanligini eslagach esa dag'al o'rik shoxi botib, yuzi, yelkasi-yu ko'kragi va qo'l-oyoqlari uvishib qolganligini sezdi. Ular shu qadar zirqirab og'rirdiki, bola emasmi, uyqu-si qattiqigidan bu azoblarni avvalroq his qilmagandi. U qo'llarining uvishganini yozishga urinarkan, tuyqus pastdagi odam sharpasini payqadi. Payqadi-yu, sergak tortib, o'zini bu yoqlarga eltgan maqsadini esladi. Pastdagi odam ayvonga yaqinlasharkan, bola uni tanishga urinib, qattiqroq tikildi. Iye, bu sinfdagi Shodi manqaning dadasi-ku! Uylari bularnikidan uch-to'rt eshik narida. Voy, traktorchi alkashay! O'zi o'g'lini hamma manqa, deb ermaklab yursa-yu, sen birovni uyiga kirasanmi! Hu, ablah alkash! Bu uning bolalarcha to'pori g'azabi bilan g'o'ldirashlari edi. Bu orada Shodi manqaning dadasi ayvon chetiga etib, qo'lidagi mayda toshmi-kesakni ehtiyotkorlik bilan deraza oynasiga otardi. Derazaning bir-ikki tiqirlashidayoq ichkaridan ayasining sarosimali yuzi xira ko'rindi. «Tungi mehmon» tuzukkina ichib olgan shekilli, tebranib, qo'li bilan ayasini tashqariga imlay boshladi.

Bola shu yerda turib ham ayasining uy ichida nima qilishini bilmay, bezovta tirirchilayotganini sezib turardi. Shu bilan birga anovi alkash birovning uyida xuddi o'z uyida yurganday bemalol sanqishidan g'azablanar, qaniydi kattaroq bo'lsa-yu, uni bo'g'ib tashlashga ham tayyor edi. Bari bir unga ko'rsatib qo'yadi birovning uyiga kirish qanaqa bo'lishini. U ehtiyotkorlik bilan yonidagi xaltaga qo'lini tiqib, guvalalardan birini oldi. Uni qo'lida mahkam ushlab olgach, hamon ayvon chetida g'imirlayotgan Shodi manqaning dadasiga birpas qarab turdi. So'ng keskin bir tomoq qirdi. Shodi manqaning dadasi bir seskanib tushdi-yu, shoshib o'zini qorong'iga olib, u yoq-bu yoqqa olazarak alangladi. Bu bola uchun ayni muddao bo'ldi, chunki u bolaning shundoqqina ostida turardi. Bola qo'lidagi guvalani rosa mo'ljalab olgach, «tungi mehmon»ning boshiga otdi. Hali yaxshi qurimagan guvala «gurs» etib uning boshiga tegdi va bo'linib ham ketdi. U «ih», dedi-yu yerga o'tirib qoldi. O'sha ahvolda birpas pishillab turgach, oldiniga bir necha qadam emakladi, keyin esa bukchayib ganderaklagan hovlining etagiga yugurib ketdi.

Bolakay o'zini shosha-pisha arqondan bo'shatarkan, bir paytning o'zida ayasini o'ylar, sho'rlik onaizori tashqaridagi gurso-gurslarni eshitib, yuragi yorilguday bo'lib turganligini ham qalban, ham aqlan his etardi. Shu bois ham tezroq pastga tushishga, tezroq ayasining ko'ziga ko'rinishga urinardi. Chunki o'zining tashqarida, yanaki o'rik ustida ekanligi ayasining, hatto, tushiga ham kirmasligini yaxshi bilar, illo ko'rpa ostidagi dumaloqlangan to'shak bu dunyodan bexabar pishillab uxlayotgan o'g'ilchasi misolida edi.

Rostdan ham ayni zamonda uy ichida o'takasi yorilguday bo'lib titragancha deraza ortiga olazarak boqayotgan ayasi tashqarida nima bo'layotganligini tushunmas, o'g'lining o'rniqa qarash esa xayoliga ham kelmasdi.

Qo'rquv ichida hamon deraza oldida turarkan, tashqaridagi qorong'ulik qa'ridan yorug' sari chiqib kelayotgan o'g'lini ko'rib tursa ham avvaliga payqamadi, lahza o'tar-o'tmas jilmaygancha ayvonga ko'tarilayotgan bolakay o'z o'g'li ekanligini bildi-yu «voy, o'lay, voy o'lay!» deya bolasining ko'rpassi tomon tashlandi. Ko'rpani qayirib, o'g'lining o'rnida o'ralgan to'shakni ko'rgach: «Bolam!..» deb salkam qichqirib yubordi. Entikib eshik sari otildi, zanjirmi tushirarkan, tilidan faqatgina «o'g'lim, bolam», degan so'zlar uchar va shu bilan birga qo'rquvdan karaxtlangan miyasi bo'lib o'tgan voqeani tushunib borardi.

Ular ayvon o'rtasida uchrashdilar. Bolakay hamon jilmayib turar, ayasi esa uni quchoqlab yuz-ko'zidan o'parkan, yig'lar va hansiray-hansiray so'zlardi:

– Aylanay qo'riqchi bolamdan! Uyimi erkagi bo'p qogan bolamdan o'rgilay! Uyimga darvoza bo'p qogan o'g'lim meni!.. – ayol bu gaplarni dil-dildan o'rtanib aytar va hozirgi ko'z yoshlari-yu o'rtanishlari ila beva ayollarga xos bir necha yillik alamlari, hatto, ko'rgiliklari bag'ridan sidirilib chiqib ketayotgandek edi. Borki armonlari, o'ksinishlari mana shu kichkinagina o'g'ilchasining bir necha daqiqalik jur'ati tufayli butunlay yo'q bo'lib borayotgandek edi...

O'sha kunlarning birida bolakay yana maktabdan qaytardi. O'z supasida odatdagidek jilmayganday o'tirgan Badal buvaning ro'parasiga kelganda qoyillatib salom berdi.

– Vaaleykimassalom, – dedi otaxon ovozigga qoyil qolayotgandek tus berib. – Barakalla ota o'g'il! Haqiqiy erkak!..

Bola yayragandan-yayradi.

Shu payt nariroqdagi darvozadan boshi bog'langan Shodi manqaning dadasi tamaki tutatgancha chiqib keldi. Beixtiyor Badal buvaga ko'zi tushdi-yu, bir g'alati bo'lib oldi. Chamasi otaxonga ro'para kelishi uning xayolida ham yo'q edi.

– Boshing tuzukmi ishqilib? – dedi Badal buva kinoyaomuz ohangda.

Traktorchi indamadi. Cholga norozi qiyofada bir qaradi-da, «qaydanam chiqdim», deganday siltanib ortiga qaytdi.

– Erkagi bor uyni devolidan oshmagin-da!.. – deb qo'ydi otaxon zarda bilan.

Bu mahalda bola o'z darvozasidan kirib bormoqda edi. U ichkari kirib darvozani yopdi-da, yelkasi bilan ham itarib, zichlab qo'ydi.

Shu payt ro'parasida o'ynayotgan singlisining oyog'i ostida o'ralashib yurgan mushukka ko'zi tushdi. Lekin bola odatdagidek uni qo'rqitmadi, unga qarab bilinar-bilinmas jilmayib, singlisining paxmoq sochlarini barmoqlari bilan yengil to'zgitib qo'ydi. So'ng yelkalarini ko'tarib u yoq-bu yoqqa qaradi. Ayvondagi so'rida unga kulimsirab boqib turgan ayasi va xolasini ko'rib, ma'noli tomoq qirdi-da, mardona yurish bilan ular tomonga yo'naldi.





# Sobir O'nar

(1964-yilda tug'ilgan)



Sobir O'nar 1964-yil 25-fevralda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi Quvkalla qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1986). Ilk hikoyasi – «Kunsuluvning xatlari». Shundan so'ng yozuvchining «Orzuga to'la qishloq» (1989), «Ovloq adirlar bag'rida» (1990), «Chashma» (1991) hikoyalar to'plamlari nashr etilgan. «Chambilbelning oydalasi» (2006) asari muallifi.

Qoraqalpoq adibi X. Tojmurodovning «Ov hangomalari» (1990) hamda turk yozuvchisi Bakir Yulduzning «Karbalo fojeasi» qissasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

## TARVUZ

Omondavlatning qishloqdan qo'ng'iroq qilib indinga bola-chaqasi bilan kelishini eshitib Xudoyqulning ensasi qotdi, nechukdir miyasiga lop etib buyam pul so'rab keladi, bo'lmasa besh-olti yildan beri ko'rishmagan sinfdoshga balo bormidi, degan o'y urildi. Ko'ngli xijil tortib, kelmasayam o'pkalamas edim dedi. O'zidan-o'zi xotiniga yozg'ira ketdi: «Bu zamonda birovga ahmoq odam qarz beradi, olgan odam vaqtida qaytarmaydi, elanib yurasan-yurasan orqasidan, yo'q, mana, ko'rib turibsan-ku, o'ldirsang o'ldir – berolmayman, deb qaqshab turaveradi. Va'dalar boshqacha edi-ku, desang, tushsa olasan-da, deya shalpayadi. Nima qilasan, o'ldirasanmi, so'lasanmi, o'rniga keladimi shunda? Ayniqsa, qishloqdagi odamga qarz ber, quduqqa tushgan ignaday ming yildayam qaytmaydi, yemish oladi, bug'doy oladi, yemishni – moli, bug'doyni – o'zi yeb qo'yadi, nima qilasan, yeb qo'ydik, uka, jo'ra, deb hiqillab turaveradi. Senam yordam ber menga, Sapuvra, shu gal qarz bermayman, qaytmaydi, eng yaqin sinfdoshim shu Omondavlat bo'lsa, undanam qaytmaydi».

– Xo‘p, pulimiz yo‘qligini xotiniga tushuntiraman, xotini eriga aytar, shundayam yo‘q, senda bor, berasan, deb yopishib turib olmas, axir. To‘g‘rimi?

– Ishqilib bir iloj qil, meni qutqar shu safar, bo‘lmasa, bilasan-ku, ko‘nglim bo‘sh, berib yuboraman.

Er-xotin ikkov mehmonlarni kutib olish rejasini tuzishdi.

Undoq desa bundoq, bundoq desa undoq edi, deya chora gap topib beramiz, xullas, yo‘qligiga ishontiramiz, deb kelishib olishdi.

Mehmonlar kechin-ola yetib kelishdi. Omondavlat xotini, bir chaqaloq qizi, to‘rt-besh yoshlardagi burni oqqan o‘g‘li bilan keldi. Do‘stining uyida yo‘qligini ko‘rib chandon xafa bo‘ldi, go‘yo u hech qayoqqa qimirlamay kutishi shartday. U qo‘ltig‘ida ikkita tarvuz, xotini bir qo‘lida chaqalog‘i, bir qo‘lida kattakon korzinkasifat sumkasi bor edi. Sumkada turshak, yong‘oq, mayiz, qishloqning tegirmon unida yopilgan talay non va patirlar, Xudoyqulning yosh qizchasiga atab tikilgan kiyim-bachkilar. Omondavlat tarvuzlarni oshxonaga qo‘ydi, so‘ng yuz-qo‘lini yuvib zalga – mehmon kutiladigan joyga o‘tdi. O‘g‘ilchasi ur-to‘polonni boshladi: telefonning trubkasini ko‘tarib «allo» deb qichqirdi, televizorning knopkalarini bosa boshladi, bir qog‘oz qutining ichidan turli o‘yinchoqlarni chiqarib har yoqqa sudradi. O‘zi yasatilgan stol bo‘yiga o‘tirib choy ichdi, uzum edi, yong‘oqlardan chaqdi, televizorga qarab o‘tirib divanda uxlab qoldi. Allamahaldan so‘ng o‘rtog‘ining kelib turtishidan uyg‘ondi. Sapchib turib quchoqlashib ko‘rishga ketdi. Uxlab qolgani uchun uzr so‘radi.

– Yo‘l charchatgan-da, nimasiga xijolat bo‘lasan, – dedi Xudoyqul. So‘ng o‘tirib so‘rashar-so‘rashmas atrofning to‘zib ketgani, o‘g‘ilchasi hamma narsani ag‘dar-to‘ntar qilgani, chaqalog‘i narigi xonada baralla qichqirayotganini ko‘rib chandon kayfi uchdi va sal jahlini bildirib bir oz sur ohangda: – Jon jo‘ra, oyog‘ingdiyam, noskingdiyam yuvib kel vannaga borib, – dedi.

Omondavlat o‘rtog‘ining gapi hazilmi-chinmi, bilolmay garang bo‘ldi, bir jilmayib «qo‘ysang-chi, ey, oyog‘im sasimagandir», demoqchi bo‘ldi, qarasa, mezbonning avzoi jiddiy, juda xijolat bo‘lib o‘rmdan qo‘zg‘aldi. Balog‘atga yetgandan beri bunaqa dashnom eshitmagani uchunmi, ko‘ngli singandek bo‘ldi. Ammo keyinroq picha g‘ashligini bosib, shaharda uylar tor, shuning uchun o‘zimga sezilmagan ter hidi uyga tarqagan chiqar, begona bo‘lsam betimga aytarmidi deb o‘ylab qo‘ydi.

Chamasi shunday deb o‘ziga tasalli berdi. Xudoyqul qishloqni, og‘a-ini, qarindoshlarni surishtirgach, dabdurustdan pul topish ancha mushkul bo‘lib ketgani, birovga bergan pulingniyam, molingniyam qaytib olish o‘limdan og‘irligini yozg‘irib so‘zlay ketdi. Omondavlat do‘stining pul so‘rab qo‘ymasin deb avvaldan pushkadan o‘t ochayotganining ma‘nosini tushunmadi. Hayron bo‘ldi, uyning har tarafi yaltirab turishi, televizor, mebellarning bahosini o‘zicha o‘ylagan bo‘ldi, hovli qurayotgani, qanaqadir chet el mashinasini minib yurganini eshitgan, miyasining bir chekkasida hammasi g‘imir-g‘imir e‘tirozlar uyg‘otib, noshukur bo‘lmaslikka da‘vat qilmoqchi bo‘ldi-yu, negadir o‘zi ham rostdan odamlar hozir

shunaqa ekanligini tasdiqlash uchun amakisining o'g'liga urug'lik uchun tiramoda o'n besh ming so'm bergani, biroq uni qaytarib olish qiyin bo'lgani, ikki-uch marta besh yuz – ming so'mdan berib barakasini uchirgani, oxiri ekkan bug'doyini bod urib, hech narsa berolmasligini aytib turganini so'zladi.

– Ana shu-da, hamma shu, hech o'zga emas, xoh shaharda, xoh qishloqda, xoh do'st, xoh dushman bo'lsin – oqibati shu, – deya pishang berdi Xudoyqul. – Haliyam o'n besh ming ekan-ku. Bu shaharda bir xil o'ziga to'q oilalarning bir kunlik xarajatiyam emas. Omondavlat «yo'g'-e» deya televizordan ko'zini uzib jo'rasiga qaradi, ishonish-ishonmasligini bilmadi. Xudoyqul esa bee'tibor davom etdi.

– Mana shaxsan o'zinning o'n ming dollardan ko'proq pulim tashqarida yurirti. Zarillikkayam so'rab ololmayman. Hammasi ko'z qiymaydigan odamlar: do'stlar, kursdoshlar, qarindoshlar, ukalar.

Omondavlat shu dollar deganlarining basharisiniyam ko'rmadim-da, o'zi u necha so'm turadi, qayerda sotiladi, deb so'ramoqchi bo'ldi, ammo shu mavzu unga ko'p xush kelmadi. Hamma narsang yetarli bo'laturib, dodlayversang ham yaxshi emas-ku. Birdan xayoliga jo'rasi qizchalik bo'lgani kelib, cho'ntak kovladi va «to'nbichar qutlug' bo'lsin, umri uzun bo'lsin!» dedi. Yigirma uch yil avvalgi sinfdosh bo'lib yurgan kunlari, maza-bemaza qilgan ishlarini eslab miriqib o'tirgisi keldi. Sinfdoshlarining ahvolidan so'zladi. Ikki oyda bir marta yig'ilib turishlari, yig'ilganda uch kilo go'shtning pulidan gashtak pul yig'ishlarini aytib, sen ham qo'shilsang o'tirishga, bolalar Xudoyqul bizlarni mensimay ketdi deb yuribdi, bir minnatdan qutulasan, dedi.

Xudoyqulning ensasi qotdi. Yo pulni, yo do'stlarini mensimaganday bo'ldi. «Ichlaringda joni bori kim o'zi?» deb kulmish qildi. Do'sti xafa bo'la boshlaganini ko'rib «xo'p-xo'p, boshqa bunday demayman, men seni masxara qilmadim-ku» dedi va tag'in kuldi.

Omondavlat endi bu kishi oldingi qadrdon sinfdoshi emas, tamom begona odamga aylanib bo'lganini his eta boshladi, afsuslanishini-da, begonasirashini-da bilmadi. Bilgani shu bo'ldiki, ayni kezda o'zi ham, bola-chaqasi ham ortiqcha ekan. U o'ylar ediki, bola-chaqa bilan bordi-keldi qilish durustroq bo'ladi, qalinlashish shundan boshlanadi, xotinlar ham, bolalar ham bir-birining otini aytib eslab turishi yaxshi gap. Biroq bu kabi munosabatlar Xudoyqulga kerak emasga o'xshaydi. Mehmon qizardi, bo'zardi, xijolat bo'ldi. Televizorga qarab o'tirib tosh qotdi, lekin qulog'iga shapaloq tekkan kabi qizib turar edi. Xudoyqul gapi teskari bo'lgani bir sari durustroq siylamadiyam. Dasturxonga kelgan birinchi ovqat moshxo'rda bo'ldi. Mezbon bulka non kesa boshladi.

– Qishloqning non-patirlari bor edi, Sapuvraga ayt opkesin, – dedi mehmon. Mezbon xotiniga tayinladi, u qop-qora bir non va patir opkirdi.

– O'zi bunday bo'lgani bilan ta'mi boshqacha-da, jonivorning rangi sal netoroq, – dedi mezbon darrov Omonga qarab: – Rostingni ayt, ichasanmi, ichsang opkeltiray, – deb so'radi.

– Shart emas, – dedi Omondavlat yana televizorga ko‘zini qadab. Ovqatni oldiga tortarkan, yana qo‘shib qo‘ydi:

– Yo‘q bo‘lsa, opkeltirib o‘tirma.

Bu bilan u ichgisi borligi, «yarimta» ustida ezilishgisi, samimiyroq suhbat sog‘inayotganini sezdirgan edi. Ammo...

Xo‘rillatib moshxo‘rda ichishdi.

Ovqat ichib bo‘lishlari hamon eshik qo‘ng‘irog‘i jiringladi. Bashang kiyingan ikki yigit kirib keldi. Mezbon bilan o‘pishib ko‘rishgach, stolga cho‘kishdi, aftidan uzoq o‘tirishga vaqtlari va hafsalalari bor.

Mezbon ham darrov girdikapalak bo‘laketdi. Mehmonlar Xudoyqulning biznes hamkorlari ekan chog‘i, tag‘in ayni paytda qayerdandir bir ishni do‘ndirib qaytishar, chamasi mezbon ularga suyunchi berishi kerakday. Stolga birpasda g‘alati taomlar kela boshladi. Yeryong‘oq, parvarda, konfet, turshak singari «kam-bag‘alning» bezaklari hash-pash deguncha yig‘ishtirildi. Kolbasa, qazi, pishloq, tovuq go‘sh tidan tortib boshmaldoqning boshiday kelguvchi og‘zilari lang ochilgan pistalar ham keldi. «Qishloqi» mehmon hushyorroq tortib o‘tirardi.

Bular chunon nozik kishilar ekanini sidqidildan his etish uchun Xudoyqulni o‘zi tomonga imlab qulog‘iga aytdiki, qishloqning yong‘oq-mayizlaridan opkelgan, tarvuz ham bor, xotining so‘yib uzatsin, zo‘r mehmonlaring kepqopti axir.

Yo‘q, Omonning gapi yana inobatga o‘tmadi, qaytanga boyagi tegirmoni non va patir bo‘laklari ham dasturxon ko‘rkini buzdi chog‘i yig‘ishtirib opqo‘yildi.

Ana xolos! Bunaqa dasturxonni hali-hanuz ko‘rgan emas Omon. Qishloqning to‘yida yelim va sopol piyolalarda vino ichib xursand bo‘lib yurgan odam bu kabi tansiq taomlar borligini haytovur tasavvur qilgandir-ku, ammo ko‘rmagan ekan.

Hademay eng chiroyli shishalarda aroq keldi, quyildi, tantanavor, ohanjamali so‘zlar, bir-birovini maqtashu maqtanishlar boshlandi.

Omondavlat bularning orasida o‘zining ne nav inson ekanini angladi, begonasiradi, begonasirab talay marta balkonga, hojatxonaga borib chekib keldi, bir chekkani olib boshni burkab uxlab yuborgisi ham keldi, ammo bungayam or qildi, oxirigacha chiday dedi. Bular bo‘lsa biri olib, biri qo‘yib kim bilan qanday shartnoma tuzgani, necha milyon tushirgani-yu, ularni qandoq o‘zlashtirib, nimaga sarflashlari, tushunarsiz uslublari xususida so‘zlashardiki, buni eshitib obdon chatoq bolalar ekan, o‘tkir yigitlarga o‘xshaydi. Xudo bilsa orqasida suyagichganlariyam bordir-da, deya tasavvur qilib o‘tirdi. Bir jingalak sochlisi ko‘ylagining ko‘krak cho‘ntagidan gugurt qopidan sal polvonroq narsani olib ichiga gapira ketganidan bildiki, bu telefon, televizorda ko‘rsatgani shu, e, sadag‘ang ketay, hukumat, ana, bor bo‘l, qandingni ur, yasha! Ammo bu telefonda faqat jiddiy gaplarni gapirish shartga o‘xshamaydi, bola dam bir xil xotinlarga, dam bug‘altirimi, kimgadir bir qizga sira mensimay, oxirida o‘rischalab erkalab ham murojaat etdi. Birgalashib ichilaverganidanmi, avvalgi mehmon bilan keyingi mehmonlar qovusha ketishdi. Omondavlat hadeb bular katta ketavergach yo g‘ashi keldimi, yo o‘zi yig‘inib turgan joyi bormi, har tugul bir xil rejalari borligi, mabodo amalga osha ketsa,

Xudoyqul jo'ra, Sirg'ali bozoridan o'zing bir «Jiguli» tanlashib yuborasan, deb aytdi. Xudoyqul ichi yorishganday, yangirog'idan olasanmi yo eskirog'idan, degan ma'noda so'radi.

– Qanchalarga mo'ljallayapsan?

– Milyon bo'lmaydimi, – deb qo'l siltadi Omondavlat.

– Oho, malades, qo'ymaysan, – dedi o'rtog'i zo'raki tantanavor ohangda. Keyin o'zi puli bormi-yo'qligiga qiziqdi.

– Bug'doy bor, jo'ra. Hozir arzon, qishda ko'tariladi narx, o'shanda urib yuboraman. Gap bor-da, bilding?

– Bildim-bildim. Demak, bir milyonga sotasan?

– Balki ikki milyon bo'lar, ko'ramiz.

Qishloqi mehmon ham toza o'lar-qolar joyda emasligini ko'rsatgisi kelib tilari biyron bo'ldi. Shunday qilmasa bular odam qatorida ko'rmay garang qilaveradigan.

– O'zi g'alladan qancha olding? – deb so'radi bari bir shahar bergisi kelmay, bepisand ohangda Xudoyqul.

– Sakkiz tonna chiqadi o'zirniki, yetmasa Samadniki bor. Uyam qariyb besh tonna yuk qiladi. G'alla bu yil kam odamlarda, hademay yuz so'mdan oshar deymen. Ishonganimiz shu-da.

– Ma'qul, lekin ikki milyon deb maqtanma. Bo'larini aytaver, bir milyon bo'larkan-da u yoq-bu yog'i. Oilani ham tashlab qo'ymaysan-ku. Qishda mashinayam rosa ko'tariladi-da lekin.

– Yetmasa sen bor – nima g'amim bor.

– Shu yetmay turuvdi. O'zimam kutgan edim o'ligini tashlar ekan deb, aytdim-ku boya, yo'g'amas, bor. Lekin ololmayapman deb.

– Qo'rqma, o'lmaysan. Avvalo so'ramayman, so'rasam – yo'q, dema, kelishdikmi?

– Hali qish kelsin, bir gap bo'lar.

– Bilaman, pul jigardan bo'larmish, shuning uchun bolani otadan ayiradigan bevafo bu. Boya kelganimdayoq eldan burun yozg'irding, ochdan o'ladiganday. Qish kelsin, deysan. Qish kelganda qor ham so'ramasman sendan, xotirjam bo'l, uyqung o'chib yurmasin yana, sinfdoshim kep qoladi deb.

«Quyilsin, urilsin» davom etdi. Ittifoqo yupqa, nozik likopchalarda tarvuz keldi. Omondavlatning bir oz kayfi oshgani bo'ismi, tarvuzga ko'zi tushgani zamon ichi yorishib ketdi. Hay-hay, yosh boladek sevindi. Picha mubolag'asi bilan aytganda, dasturxonning egasiday sezdi o'zini.

Darrov tili burro tortib, gapni dashtning lalmi qovun-tarvuzlariga burib yubordi. Holbuki, u shundoq Xudoyqulning uyi yaqinidagi tarvuz sotuvchi odamdan, uyum ichidan tanlab sotib olib ko'tarib kelgan, chamasi, cho'laki, selitrage obdon to'ygan qora tarvuz edi bu. Ammo shu bahona Omondavlat bolaligida ekilmish qovun, handalak, tarvuz, bodring, oshqovoqlarni, ayni pishiqchilik chog'i polizga, yana ayni o'zlarining poliziga tikonli bodomcha shox-shabbalaridan yasalgan

to'siq uzra oshib o'g'irlikka tushishlari, oqibat qorovullayotgan kampir – o'z enasi tomonidan ketlariga cho'g'day bosilmish xivich zarblari xususida chah ura ketdi. Chog'roqqina hovlisiga har bahor bodring, pomidor bilan qo'shib o'n-o'n besh tup handalagu qovun ekanlari, ular taqyo palak qilib keyin uzun palak otib ketishi, so'ng yong'oqdek tuynak qilishidan to rangi bo'zarguncha bir hovli bola dam-badam «ko'z-quloq» bo'lib: goh ushlab, goh burunlarini tekkizib hidlay-verishgani sabab onasi bezor bo'lib quvganlari, boisi tuynakka hadeb odamning qo'li tegaversa, azbaroyi qo'l zahri ta'sir etib qovun rivojlanmay qolar emish, – hamma-hammasini zavq bilan esladi. Shuningdek, xom sapchalarga burnini tek-kizganda uning tikonday tuklari tirnab ketishi-yu, ayniqsa ertalablar biror handa-lak pishgan bo'lsa, butun hovlini muattar hidi tutib ketishi, tonggi hid, u orqali handalakni qidirishning naqadar maroqli yumush ekani, palaklarni u yon-bu yon ag'darganingda subhidamdagi namxush tuproqmi, shudringmi nimadir salqin nar-saning palaklarga qo'shilib burningga bir otsiz yashnoq hidlari urilishi, kishini entiktirib yuborishi... Oshqovoq, tarvuz palaklarining paxsa devordan osha tushib yo'l-yo'lakay ko'm-ko'k va sap-sariq sapchalari yaltirab turishi, uy bolalari uni ko'cha bolalaridan qizg'anib qo'riqlashlari, otalari ko'cha taraf devoriga qabatma-qabat supurgi ekib, palaklarni ko'zdan pana qilishlari yohud kuchuk bog'lab qo'yishlari...

Bearmon bolalikning armon to'la izlari bular.

– Qoyil, – dedi jingalak sochli mehmon. – E, qoyil, qo'yib bersa ikki sinfdosh shoir bo'lib ketarsizlar.

– Hech gap emas, – dedi Xudoyqul, – mana bu bolaning tomiri Jumanbulbul-ga tutash. Yana besh gramm olsa, qo'lini tanbur qilib terma aytar.

– Iltimos qilamiz, shu narsani aytmang, – deya iljaydi boyagi jingalak soch-li. – Shu turkmancha qo'shiq eshitsam, kechasiyam yomon tushlar ko'raman. Baxshilarning ovozini eshitsam, qo'rqaveraman.

Go'yo kulgu uchun aytilgan bo'lsayam, har qalay bu yigitlar illo-billo bax-shining dostonu termasi uchun qishloqning boyagi orzu-ehtirosiga boy hayotini eshitishga-da toblari yo'qligi sezilib turardi. Shu bois Xudoyqul xato ish qilib qo'yganday darhol «etagini yig'ishtirib oldi». Maktab bolalari she'r aytaturib bir joyida adashib qolsa, kimdir eslatsa, tag'in sharillatib ayta ketadi, shu sing-ari uyam ertan-mertan bojxonada ishlaydigan Qobilning oldiga o'tish haqidagi o'zining mas'uliyatini anglagach, ikki sherikka, aniqrog'i, mehmonlarning guliga takallufni davom ettira berdi. Omondavlatimiz tag'in ularning ishbilarmonligi-yu katta gaplariga mahliyo bo'lganicha qoldi. Qozonkabob keltirildi. Ichildi. Tarvuz-ga uzalib bir tilik oldi. Yeb bo'lib po'chog'ini likopchaga qo'yar chog' tag'in dong qotdi, bu boshqa tarvuz! Qorasidan opkelgandi, bunisi yashil-chiror.

Bular bizga teng emas, butkul boshqa odamlar ekan bachchag'arlar, degan koyishga o'xshash bir shiddatli o'y muhrlandi va kayfiyati tushib ketdi. Aroqdan o'ziga bir piyola to'ldirib quyib, oxirigacha sirqordi va men to'ydim deganday piyolani to'nkarib tashladi. Maqsadi tezroq mast bo'lib olish, mast bo'lishgina

emas, boshqa holatga o'tgisi, ziq vaziyatdan qutulgisi keldi, bir otim nos ham tushirib yubordi-yu maqsadiga erishdi.

Stoldan chetlanib kresloga cho'kdi. Boshini solintirgan ko'yi qotib uxlab qoldi. Kechroq uyg'ondi. Boshi g'uvillab, siqib og'rirdi. Mehmonlar ketgan. Xudoyqul allaqachon yuvinib, soqolini olib choy-poy ichish taraddudini ko'rib yuribdi. Xuddi hech balo ko'rmaganday. Ertalabdan bir rus ayol «kuk-si» degan ovqat keltirib berdi. Kechagi ovqatlar ham xoynahoy buyurtma bilan kelgan bo'lishi mumkin, deb o'yladi Omondavlat. Chunki ayoli yosh bolali-ku.

Sohibdan uzr so'radi, ketamiz biz, dedi. Mezbon ham ketsang ketaver deganday qildi.

– Bir o'tiradigan bo'lib kelasizlar. Bugun o'zimam Olmaotaga uchmoqchiman.

Omondavlat o'rtog'i uchun bu qadar ahamiyatsiz bo'lganidan o'kindi, albatta. Bolalarini, xotini olib yo'lakka chiqqach, Xudoyqul yo'lni o'zicha tushuntirib yubordi. Ammo xotini ular bilan birga chiqdi to ko'chagacha. Ko'cha boshida axlatxona bor ekan. Omondavlat e'tibor bermadi-yu, xotini bir turtgach, cho'chiganday ishora qilgan tomonga qaradi: temir yashiklar yonida xuddi kecha o'zi ko'tarib kelgan tarvuzlarga o'xshash ikki tarvuz turibdi. Nahotki, dedi o'zicha. Turshak, mayizlarni ham chiqarib tashlagan bo'lsa-ya.

«Ey, inson! Kechagina men qatori eding-ku. Qishloqdan, tezak orasidan chiqding-ku. Nima qiliq axir bu? Senga milyon so'mlik sovg'a opkelishga qurbim yetmaydi. Ko'ngil bu, do'st, ko'ngil! Haqorat ham shunchalik bo'lar. Kelmasam, men ham o'lib qolmas edim, obro'yingni qilay desam, teskarisi bo'ldi. Bu ishing yaxshi emas, hech yaxshi emas. Juda noma'qul! Oxiri voy bo'lsa kerak, vallohu a'lam!» Tashqarisiga esa bu chiqdi:

– Sapuvra, bo'ldi, ketavering. Biz kimligimizni endi bildik. Sizlarni ham. Tamom. Xo'p. Xayr. Rahmat.

Shundoq deb oldinga o'tib ildamroq yurib ketdi. Bir xayol yana ortiga burilib, jillaqursa bir achchiq gap aytgisi keldi-yu, umrbod teskari bo'lib qolishdan cho'chib to'xtamay ketaverdi.

# Shodiqul

## Hamro

(1965-yilda tugʻilgan)



Shodiqul Hamro 1965-yil 13-oktyabrda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida tugʻilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1989). «Suratdagi ayol» (1994), «Karvon qoʻngʻirogʻi» (1999), «Qora kun» (1996), «Qaqnus qanotidagi umr» (2005) kabi hikoya va qissalar toʻplamlari nashr etilgan.

### SURATDAGI AYOL

*Yuzingda dogʻ koʻrdim, muborak boʻlsin...  
Uyqudagi alahsirashdan.*

Shaharning kun chiqish tarafida joylashgan moʻjazzina hovlida ijarada yashay boshlaganimning ikkinchi yili yoz arafalarida uy bekasi – kamsuqum, odamovi beva kampir tuyqusdan qazo qilib qoldi. Kampir kechasi oʻzining hovli chetidagi hujrasida olamdan oʻtgan, ammo uning oʻlimidan ertasi choshgohga qadar biror tirik jon xabar topmagandi. Faqat choshgohga yaqin kampirni ertalabdan buyon hovlida koʻrmaganim, hujraning eshik-derazasi kecha oqshom qay tarzda bekitilgan boʻlsa, hamon shunday turganligi koʻnglimga xavotirlik soldi. Soʻng eshikka kelib sekin taqillata boshladim. Oradan bir necha daqiqa oʻtdi, lekin ichkaridan biror sas-sado eshitilmadi. Keyin eshikni sekin itardim, eshik qulflanmagan ekan, gʻiyqillab ochilib ketdi: deraza yuziga darparda tortib qoʻyilganidan uy ichi qop-qorongʻi edi, dafʻatan koʻzim hech narsani ilgʻamadi va beixtiyor uch qadamcha nariga yurdimu uyning toʻridagi toʻshakda qimir etmay yotgan kampirga koʻzim tushdi-da, rangim quv oqarib, qoʻl-oyogʻimni qaltiroq bosdi, qoʻrqqanimdan nafasim ichimga tushib ketdi. Kampir shiftga qarab yotar, uning shishinqiragan yuzi qorayib ketgan, engagi koʻksiga tushib turganidan ogʻzi vahimali alfozda ochilib



qolgan edi. «O'lib qolibdi...» degan sovuq o'y miyamga urildi va otilib tashqariga chiqib ketdim.

Keyinchalik kampirning sirli o'limi to'g'risida o'ylar ekanman, nazarimda marhuma jon berayotganda boshida biror tirik zog' turmasligini, faqat yolg'iz o'zigina ajal bilan yuzma-yuz kelishini oldindan bilgan va bunga hozirlik ham ko'rib qo'ygan degan xayolga bordim. Chunki o'sha kun men uyga kirib borganimda mayit qibla tomon bosh qo'ygan, qo'l-oyoqlari, xuddi risoladagiday, o'rni-o'rnida, faqat engagi bog'lanmagan edi. Shak-shubhasiz, bularning barini kampirning o'zi, jon uzilayotgan daqiqalarda bajarishga ulgurgan, o'sha tun ham, ertasi men hujraga kirgunimga qadar ham, hovliga biror kimsa qadam bosgani yo'q edi.

Men shularni o'ylar ekanman, kampirning ko'z oldimda kechgan ikki yillik umri mobaynida mudom ovsarday xayoli parishon bo'lib yurishi, ba'zida esa chuqur-chuqur xo'rsinib qo'yishi sabablari ayon bo'lganday bo'ldi.

Kampir bu ikki yil ichida shubhasiz ko'proq o'z o'limi to'g'risida o'ylagan dedim o'zimcha.

Shu kun, men xabar berganimdan so'ng mahalla ahli hovliga birin-ketin kirib kela boshlashdi. Kampirning o'limi hech kimni ortiq qayg'uga solmadi, nomigagina bir-ikkita ayol ovoz chiqarib yig'lagan bo'lishdi, qolganlar shunchaki savob uchun kelishganday, allanarsalar to'g'risida pichirlashib, gurunglashib o'tirishar edi.

Marhumani asrga chiqardik.

Kechqurun men va kampirning hujrasida Qur'on tilovat qilib chiroq yoqishayotgan ikki kampir qoldi. Ko'p o'tmay kampirilar ham ketishga tushdi. Ular qoqinib-turtinib hovlidan chiqishar ekan, marhumaning turfa xil xislatlari haqida to'qib-bichib tinimsiz javrashar, ba'zan gap orasida menga yuzlanib, kampirning chirog'ini hech qursa, qirq kungacha o'chirmay o'tirishimni qayta-qayta tayinlashar edi.

Kampirilar hovlidan chiqishgandan so'ng men darvozani tamballab ijraxonam tomon yurdim. Mayit chiqqan hovlining ruhi og'ir va vahimali edi. Men xonamga kirib o'rindiqqa cho'zilar ekanman hech narsa to'g'risida o'y-lamaslikka tirishar, lekin marhumaning boya to'shakda yotgan holati hadeganda ko'z o'ngimdan nari ketmay yuragimdagi qo'rquvni battar zo'raytirar, buning ustiga, hovlida qandaydir sharpalar kezib yurganday tuyular, gohida esa kimdir ko'zlarini lo'q qilib derazadan menga tikilib turganday bo'lar edi. Men ko'rpaga burkanib ko'zlarimni yumib oldim va alahsirab uxlagancha tong ottirdim-da, bugunoq bu hovlidan ko'chib ketaman, deb o'z-o'zimga so'z berdim. Biroq, kunduzi tungi qo'rquv-vahimalar tongi tumandek tarqab ketdi va ko'chib ketishni ertaga, indinga deya paysalga solib yurdim.

Kunlar shu alfozda asta-sekin o'ta boshladi. Men hovlida yolg'iz yashashga hech ko'nikulmas, hamon tunlari uzoq yillar yolg'iz kampirgina tiriklik ruhini bag'ishlab kelgan, uning o'limidan so'ng esa allaqanday sirli qiyofaga kirgan bu

hovlida, xuddi naqd baloning domida yotganday sovuq terga botgancha alahsirab uxlar, kunduzlari esa, o'zim sezmagani holda kundalik mashg'ulotimga aylanayotgan muhim yumushim – darvoza oldida turib onda-sonda fotihaga kelib ketadigan kishilarni qarshi olar edim.

Shunday kunlardan birida marhumaning uyida saqlanayotgan va meni ko'pdan buyon qiziqtirib kelgan eski quti va undagi suratlar esimga tushdi.

O'tgan yili qishning oxirlari edi. Men qandaydir yumush bilan eshikni taqilatmasdan kampirning hujrasiga kirdim. Kampir uy o'rtasida muk tushib o'tirgancha qarshisida sochilib yotgan bir gala suratlariga berilib tikilar edi. U eshik ochilganini va mening uyga kirganimni bir muddat payqamay turdi, so'ng nimadandir xayoli bo'linib menga yuzi tushdi-yu, sarosima aralash avzoyi buzildi, go'yo men olib qo'yadigandek, qarshisidagi suratlarni o'ng yonboshida ochiq turgan qutiga shosha-pisha sola boshladi. Kampir suratlarni yig'ishtirib bo'lgach, miq etmay, menga teskari qarab o'tirib oldi. Aftidan, mening ruxsatsiz uyga kirib suratlarni ko'rishim uni qattiq ranjitgan edi, bir haftacha qovog'ini solib gaplashmay yurdi. Shu voqeadan so'ng men qutidagi suratlariga qiziqib qolgan edim. Kampir hujrasiga qamalib olib suratlariga uzoq-uzoq tikilishini bilar, so'ng uni hovli yuzasida allaqanday ma'yus qiyofada ko'rardim, shundan keyin suratlarni ko'rishga bo'lgan qiziqishim battar oshar edi. Lekin kampir hayot chog'ida suratlarni ko'rish uchun biron marta qulay imkon tug'ilmagan edi.

Hovlida yolg'iz yashay boshlaganimning oltinchi kuni ertalab hujraga kirdim. Uy ichidan eski qutini osongina topdim, u to'rdagi tokchada yotgan ekan. Qutini xonamga olib keldim-da, rangi uniqib ketgan qopqog'ini sekin ochdim: rostdan, qutining ichi suratlar bilan liq to'la edi. Endi kampirning butun sir-asrorini bilib olishim aniqday tuyulganidan yuragim zarb bilan ura boshladi va shoshib suratlarni bir-bir ko'zdan kechirishga tushdim. Nihoyat qutining tagiga chetlari buklanib yuza qismi qorayib ketgan eski surat qolganda o'z-o'zidan hafsalam pir bo'ldi. Men o'sha qishki voqeadan keyin, qutida albatta qandaydir sirli surat bo'lishi kerak deb o'ylar va bunga qattiq ishonar edim. Ayniqsa, o'shanda kampirning ranjishi va suratlarni yashirishi bu qiziqishimni battar alanga oldirgan edi. Ayni chog'da esa, men qutida hech qanday sirli surat topa olmadim. Quti, odatdagi, suratkashning: «Jilmaying, suratga olyapman!» degan ovozi yangragan lahzada qiyofasi aks etgan kishilarning surati bilan to'la edi. Suratlarining birortasida ham marhumaning tanish chehrasi uchramadi, suratlar menga mutlaqo notanish kishilarniki edi. Yuzga yaqin suratlar xuddi bitta nuxsadan andoza olgandek bir-biriga aynan o'xshar, har bir suratda erkak bilan ayolning ma'nosiz jilmayib turgan qiyofasi aks etgan edi.

Men qarshimda sochilib yotgan suratlariga befarq tikilib, nega o'shanda kampir bularni mendan yashirganiga tushunolmay hayron bo'lar, lekin qanchalik o'ylamay biror jo'yali sabab topolmas edim. Gohida esa, o'sha men o'ylagan sirli surat qayerdadir, suratlarining orasida yotibdi-yu, faqat men uni ko'rmayotganday tuyular va butun diqqatimni jamlab yana suratlarni titkilashga tushar edim, ammo

ko'z ochib yumguncha navbat o'sha eski suratga yetganda, yana hafsalam pir bo'lib bo'shshib qolar edim.

Axiyri qutida hech qanday sirli surat yo'qligiga aniq ishonдим, kampirning o'shandagi xatti-harakatini uning o'zini ovsarligiga yo'yib ko'nglim tinchidi.

Quti suratlari bilan mening xonamda qoldi. Men qachonki zerikkan chog'imda, shunchaki ermak uchun suratlarga ko'z qirimni tashlar, qolgan paytlarda esa, ular keraksiz buyumdek xonamda sochilib yotar edi.

Aslida, men bu yilgi yozgi ta'tilni shahardan tashqarida – kindik qonim to'kilgan qishloqda o'tkazish niyatida edim. Shu tufayli kursimizning jami talabalari o'z tashabbuslari bilan uzoq yurtdagi qandaydir qurilishga yordamga o'tlanishganda, yolg'iz men, sog'ligim to'g'risida turli xil bahonalarni ro'kach qilib ulardan ajralib qolgan edim. Va allaqachon qishloqqa jo'nab ketishni mo'ljallab qo'ygan edim, biroq kampirning bevaqt o'limi bu niyatimni orqaga surib yubordi. Buning ustiga mahallaning keksa kampirlari har safar hovliga kirishganda mening hech qayoqqa ketib qolmasligimni, kimdir albatta, marhumaning arvohi hurmati uchun uyning chirog'ini yoqib, hovliga ko'z-quloq bo'lib turishi kerakligini qayta-qayta tayinlashar va gaplarining oxirida «bir kun tuz totgan joyga, qirq kun salom», degan hikmat bor, o'g'lim», deyishib, meni bu hovlida yashaganimni va yashayotganimni pisanda qilib o'tishar edi. Kampirlar, go'yo men hovlini tashlab ketib qolayotgandek astoydil kuyinib nasihat qilishar edi. Men irsiz bog'lanib hovlida qimir etmay o'tirar edim.

Kampirning yigirmasida ertalabdan hovlida kampirlar yig'ilishib bir mud-dat yig'i chiqarishdi, keyin uyga kirib ancha vaqt marhumani xotirlab o'tirishdi. Osh-suvdan keyin hamma tarqab, hovlida yana yolg'iz qoldim. Men darvoza oldiga qo'yilgan o'rindiqqa behol o'tirib hovlining aft-angoriga ruhsiz tikila boshladim: kampirning egasiz huvillab yotgan hujrasi, bir chetdagi o'zimning ijaraxonam, atrofni qurshab turgan paxsa devor, xullas, tegramdagi barcha-barcha narsalar ko'zimga jahannamday xunuk ko'rinib ketdi. Men kimsasiz hovlida yolg'iz yashayotganimni, tunlari alahsirab sovuq terga botib uxlashlarimni, ayniqsa, biror tirik jonga sezdirmasdan qorong'i hujrasida tiriklikdan umid uzib jimgina o'lishga qurbi yetgan kampirni xayolimdan o'tkazar ekanman xo'rlicim kelib ketdi. Go'yo mening taqdirim ham qachondir shunday kechadi, degan o'y miyamga mahkam o'rnashib oldi, yuragim muzlab, vujudimda yashashga zarracha istak qolmagan edi. Men o'zimni ojiz va hech kimga keraksizday his etdim. Keyin ruhsiz qiyofada xonamga kirdim va o'rindiqqa cho'zilib hech narsa to'g'risida o'ylamay shiftga termulib yotdim. Ancha paytdan so'ng xayolan qo'limni yonboshimda ochiq turgan qutiga suqdim. Qo'lim paypaslay-paypaslay axiyri qutining qaysidir burchagidan o'sha eski suratni topdi, so'ng uni ko'zlarimga yaqin keltirdim. Suratga nigohim tushdi-yu, qo'llarim titragancha o'rimdan sapchib turib ketdim, eski suratning yuzasini qoplab turgan qora dog'lar ortidan kimdir tirik nigoh bilan – ha, aynan tirik nigoh bilan tikilib turgandek bo'ldi. Men deraza qarshisiga kelib yana suratga qaradim: ha, kishining yuragini allanechuk seskantiradigan

o'tkir nigoh bilan tikilib turgan uzunchoq yuzli ayolning chehrasi ko'rindi, surat yuzasini qoplab turgan quyuq qora dog'lar xuddi to'rli chachvondek uning yuzini berkitib turar edi. Men suratga kirrik qoqmay tikilar ekanman, ayol, daf'atan ko'zimga, moviy osmon bag'rida ko'kragini shamolga toblab charx urib uchayotgan qushlar galasiga cheksiz havas hamda ichki iztirob bilan mung'ayib termulib turgan qafasdagi qushchaga o'xshab ko'rindi. To'g'ri, ayol suratga tushayotgan lahzada o'zi istamay jilmayishga uringan va qurishqoq, qonsiz lablarida kulgi yuz ko'rsatib ma'yus chehrasi ravshan tortgandek edi. Ammo uning yirik-yirik tim qora ko'zlarida butunlay o'zga holat zuhur etardi. Mening nazarimda, ayolning vujudini qizdirgan, o'limday qaysar qandaydir istaklar jamlangan xilqat bor edi uning botiq ko'zlarida. Meningcha, ayol suratga tushayotgan fursatda bu xilqatni yashirishga uringan shekilli, ko'zlarini katta-katta ochganicha tik qarab turar edi. Lekin uning bu holati xuddi quyosh yuzini to'smoqchi bo'lgan bir uyum qora bulutga o'xshar, hademay bu o'tkir nigoh toliqib, yana o'sha xilqat qalqib yuzaga chiqishi va ko'zlarining sahniga o'z saltanatini yoyishi aniq edi. Ayolning o'zi ham buni sezgan chog'i, siri fosh bo'lishidan cho'chibmi, ko'zlarining chekka-chekasida bezovtalik alomati aks etgan edi.

Agar men mana shu nigoh ortidagi sirli xilqatni ko'rmaganimda, albatta suratni tashlab yuborar va uni qayta qo'limga olishim gumon edi. Shu tobda suratdan ko'z uzishga qurbim yetmas, asta-sekin ayolning ko'zlaridagi xilqatga g'arq bo'lib borar edim.

Men suratga oshufta bo'lib qoldim. Endi hovlida yolg'iz yashayotganim, kindik qonim to'kilgan qishloqqa ketolmay bo'g'ilib yurishim, uyqumdagi bosinqirab alahsirashlarim, kampirning o'limi, mahalladagi kampirlarning pand-nasihatlari, hamma-hammasi, qachondir ko'rgan xira tushimday xotiramdan butkul unut bo'lib ketdi. Men xonamga qamalib olib suratdagi ayol haqida o'ylar, uning jodu ko'zlariga soatlab termular va bundan ko'nglim hech qachon bezish sezmas edi.

Ba'zan men ayolning nigohi toliqib qolishdan cho'chibmi, uning ko'zlarini yumib qo'yish maqsadida qoboqlari ustida barmoqlarimni ohista yurgizar va tabiiyki, buning uddasidan chiqolmas edim. Shunda suratdagi ayol mening ustimdan alam bilan qah-qah otib kulayotganday tuyular, so'ng men uyatdan qizarganimcha xonadan tashqariga chiqib ketar edim. Tun allamahal bo'lganda ko'chada be-maqsad tentirab yurar, keyin xonamga kelib suratga qarashga botinolmay, chiroqni o'chirib o'rindiqqa cho'zilar edim.

Bu tun ham xuddi shunday holat takrorlandi. Faqat men xonadan chiqa turib – azbaroyi, jahlim chiqqan bo'lsa kerak – suratni yuztuban yotqizib qo'ydim. Endi ostonaga yetganimda ortimdan kimningdir entikib nafas olgani va qadam tovushi eshitilganday bo'ldi. Men qattiq seskanib tushdim va boshimni ilkis o'g'irib ortimga qaradim-da, ko'zlarim kosasidan chiqqudek kattarib, haykalday qotib qoldim: ikki qadamcha narida suratdagi ayol siniq jilmayib turar edi... Yo'q, men tush ko'rayotganim yo'q, qarshimda aynan suratdagi ayol turar edi. Men uni boshidagi yashilrang ro'moldan, egnidagi oq gulli ko'yilakdan va pir-pir uchayot-

gan kirriklari ostidagi o'sha xilqatdan tanidim. Ayol uzoq yo'l bosib kelgandek entikib-entikib nafas olar, uning yuz, bo'yinlari qizarib ketgan va u nimadandir qattiq bezovtalanib, atrofga olazarak qaragancha, tezroq xonadan tashqariga chiqishga oshiqar edi.

Ayol, go'yo ko'rmayotganday menga e'tibor ham bermadi va sharpaday sas-sadosiz xonadan chiqa boshladi. Men ham beixtiyor uning izidan yurdim.

Biz quyuq tuman bag'riga kirdik. Ayolning bezovtaligi bir oz bosilgan, lekin so'z qotmasdan, xuddi biror yumush bilan qayoqqadir ketayotgan kishiday, bosiq qadam tashlab jimgina ketib borar edi. Men esa hamon ayolni suratdan chiqib kelishi va ko'z o'ngimda qimtinib nafas olgancha yurib borishini tasavvurimga sig'dirolmay, ko'r-karaxt bo'lib, unga ergashib borar edim. Men har qadam tashlaganimda, nimadir so'ramoqchiday ayolga qarab olar, lekin u oldinga tikkan nigohini zarra chalg'itmas va uning sukut saqlashi o'rtamizda chuqur bo'shliq yasab turar edi.

Kimsasiz jinko'chalar bo'ylab uzoq yurdik. Agar qaysidir muyulishdan bahaybat qora it akillab chiqib, yo'limizni to'smaganda hali izimizga qaytmagan bo'lar edik. It, kutilmaganda, ro'paramizda paydo bo'ldi va jon-jahdi bilan hura boshladi. Ayol haddan ziyod qo'rqib ketdi, u mening qo'limdan mahkam ushlab tezroq bu yerdan ketishga qistar edi. Uning a'zoyi badani dir-dir qaltirar edi. Shoshib ortimizga qaytdik. It bizni ta'qib etmadi, u xavf-xatarni bartaraf etganday, tumshug'ini osmonga cho'zib bir-ikki hurib qo'ydi.

Ayol butkul tinchini yo'qotgan, u tinimsiz «uf» tortgancha shoshilib qadam tashlar edi.

– Lo'li xotinning so'zlari to'g'ri chiqdi, – dedi to'satdan ayol alamli ovozda xuddi o'z-o'ziga gapirayotganday shivirlab.

– Qanaqa lo'li xotin? – deb yubordim hech narsa tushunmay.

Ayol so'rovimni eshitmaganday, yana pichirlab gapira boshladi. Endi uning ovozi bir oz bo'lsa-da, ravon, ammo nimadandir alamzada bo'lsa kerak, zaharli chiqar edi.

– Men bir paytlar otning tuyog'idan tushib qolgan eski taqaday odamlarning yodidan butkul unut bo'lib ketgan edim. Hovlimizga ancha paytdan buyon biror xotin-xalaj yo'lamay qo'yganidan tentakday o'zim bilan o'zim gaplashardim. Xotin-xalajlar kelishganda ham nima o'zgarardi, shunchaki ko'ngil uchun aytyapman-da. Shunday dilgir kunlarning birida hovlimizga yelkasiga bo'z to'rva osgan qop-qora yuzli bir lo'li xotin kirib keldi. Men yuragim siqilib o'tirgan edim. Uni ko'rib suyunib ketdim. Lo'li xotin, «uyga kiring», deya qilgan mulozamatlarimga ko'nmadi, shundoqqina ostonaga yaqin yerda yastanib o'tirib oldi. So'ng shishadek yaltirab turgan ko'zlarini menga muloyim tikdi-da: – Kel, aylanay, fol ochib qo'yaman, – dedi.

Men umrim bino bo'lib hech qachon fol to'g'risida o'ylamagan, olamda shunday narsa borligini xayolimga ham keltirmagan ekanman. Shuning uchun bo'lsa kerak, lo'li xotinning kutilmaganda aytgan so'zlariga nima deb javob berishni bil-

may hayron turib qoldim. Lo'li xotin iljayib, mening og'zimga bir oz qarab qoldi, so'ng yuzimdagi hayronlik alomatini ko'rib, xohlamayapti, deb o'yladi shekilli, «fol ochay» deya ortiq qistamadi. Keyin uning yuzi jiddiy tortdi va mendan nigohini uzib hovli yuzasiga, eshik derazasi ochiq turgan uy sahniga g'alati qaray boshladi. Ko'p o'tmay, u nigohini yana menga qadadi, bu gal uning yuzida boyagi muloyimlik yo'qolgan, kirrik qoqmay tikilishida yurakni seskantiradigan vahm bor edi. U nimadir izlayotganday, mening aft-angorimga ancha payt tikilib turdi. Bizning nigohlarimiz to'qnashganda, men sekin boshimni quyi soldim. Shundan so'ng, lo'li xotin nimadandir ko'ngli to'lmaganday, yengil xo'rsinib oldi va bosiq ovozdagi qiroat bilan gapira boshladi: – Shu narsa har doim yodingda bo'lsin, sen o'zing nikohida bo'lmagan nomahram erkak bilan birga bo'lish to'g'risida, tilingda gapirma, dilingda o'ylama, o'zini ko'zing bilan ko'rishga va so'zlarini qulog'ing bilan eshitishga hech qachon orzumand bo'lma! Bilsang agar, bularning bari Muqaddas kitobda zino, deb yozilgan, gunohi og'ir kechadi...

Lo'li xotin mening sadaqa berishimni ham kutmay hovlidan chiqib ketdi. Men uning ketganini payqamay qolgan edim, aniqrog'i, hushim o'zimda emas edi... Lo'li xotin yuzimga bir shapaloq urib ketganday edi. U, mening yuragimdagi bor sir-asrorni oldindan bilgan va atay shu tufayli hovliga kelganday edi. Nazarimda, u lo'liga ham, aniqrog'i, odamzod bolasiga ham o'xshamas edi... Lekin o'shanda kim bilgan bo'lsa hamki, bari bir meni tushuna olmadi. U ketgandan so'ng, oh, qanday bo'g'ilib yig'lagan edim-a...

Biz hovliga yaqinlashib qolgan edik. Ayol hozirgina o'zi aytib bergan voqeadan ta'sirlanibmi, battar qo'rquvga tushgan, mendan bir qadamcha oldinda, xuddi qatl maydoniga ketayotgan gunohkordek zir titrab-qaqshab borar edi. Men unga taskin berish, hech qursa ko'ngli uchun biror so'z topolmas, tilim xuddi kesib tashlanganday kalimaga kelmas edi.

Ayol hovliga endi qadam qo'ygandi, tuyqus qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Men bu daqiqada, negadir orqamga o'girilib qaragan edim. Oldimga qaraganimda ayol yo'qligini bilib, aqldan ozayozdim va telbalaracha hovlida u yoqdan-bu yoqqa yugurib uni izlay boshladim: zim-ziyo tun qo'ynida ko'zim biror sharpani ilg'amas, hayratim va xunobim battar oshar edi. Ayol hech qayerda yo'q edi. Boshim buzilgan ari iniday tinimsiz g'uvillar va qayoqqa yurishimni bilmay, hovli o'rtasida qotib qoldim, bu ro'y berayotgan voqealar o'ta g'ayritabiyy tuyulayotganidan bo'lsa kerak, balki men tush ko'rayotgandirman, deb o'ylay boshladim: mana ayol, tun kabi sezdirmasdan g'oyib bo'ldi, endi men xomush tortib uyg'onib ketishim kerak... O, yo'q, buni hech qanday tushga yo'yib bo'lmaydi. Axir, oy, yil burun emas, atigi bir necha soniya maqaddam – bir necha soniya muqaddam-a – ayol men bilan ko'chada yonma-yon yurgan, qarshimizdan la'nati it hurib chiqqanida qo'llarimdan mahkam tutib olgan va menga lo'li xotin voqeasini aytib bergan ediku?! Uning, tuzoqqa ilingan qushday yuragi potirlab urishi hamon qulog'im ostida eshilib turibdi-ku?! Yo'q, bu tush emas, tush bo'lganida yuragim bunchalik og'rinmas edi...

Men yana shahd bilan hovlining har bir burchagiga, oshxona, marhuma kampirning hujrasiga va ijaraxonamga bosh suqib chiqdim, ammo hech qayerda ayolni topa olmadim, u o'zidan na biror iz, na nishon qoldirgan edi. Men sarhadsiz sahroda yo'lini yo'qotgan sayyohday ayolni qayerdan izlashni bilmasdan hovli o'rtasida yana hushsiz qotib qoldim. Shu holatda qancha turganimni bilmayman, keyin kutilmaganda ijaraxonamda, boya o'zim yuztuban yotqizib qo'ygan surat yodimga tushdi va otilib ichkariga kirdim-da, suratga tashlandim: xayriyat, ayol suratda ekan... U o'sha ilk marta ko'zim tushgan qiyofada turar, yuzida, ko'zida hozirgina tashqaridan kelganligining va boyagi qo'rquv-vahimaning hech qanday asorati sezilmas, faqat uning yonoqlari xiyol qizarinqiraganday edi.

Men ayolni – suratda jonsiz qiyofada bo'lsa hamki, topganimdan ko'nglim xotirjam tortgan edi.

Men o'tayotgan kunlarning hisobidan adashib ketdim, zero, buning men uchun hech qanday qizig'i ham yo'q edi. Kunduz kunlari xonamda qamalib o'tirishim tufayli, har kun shomga yaqin marhumaning ruhiga atab chiroq yoqish va Qur'on tilovat qilish uchun hovliga kelib-ketadigan kampirlarga onda-sonda ko'zim tushib qolar va ular bilan deyarli gaplashmas edim.

Bu kun – kampirning qazo qilganiga qirq kun to'lgan bo'lsa kerak hovliga yana xotin-xalaj yig'ildi. Ular, odatdagidek, hovlida birpas yig'i-sig'i qilishdi-da, so'ng uyga kirib choshgohga qadar o'tirishdi. Ular ketishgandan keyin hovlida ikki kampir qoldi. Kampirlar, hovli yuzasini va kampirning uyini supurib-sidirib tozalashdi. Shom mahal esa, marhumaning ruhiga atalgan so'nggi – qirqinchi chiroqni yoqishib, duoyi fотиha qilishgach, hovlidan chiqa boshlashdi. Hovlidan chiqa turib, kampirlarning biri, meni ko'rib yurishdan to'xtadi va aft-angorimga bir muddat tikilib turdi-da, keyin yumshoq ovozda:

– Rangingiz siniqib ketibdi, tobingiz yo'qmi, o'g'lim? – dedi.

– Yo'g'-ey! – deb yubordim men qizargancha, jilmayishga urinib.

– Agar yolg'iz o'zingiz tunlari bosinqirab chiqayotgan bo'lsangiz, nabiramga aytaman, sizga hamroh bo'ladi. Harqalay ikki kishi ikki kishi-da, – dedi kampir.

– Yo'q, rahmat! – dedim uning so'zini rad etib.

– Mayli, o'zingiz bilasiz, o'g'lim, – dedi kampir va ortiq so'z qotmay tashqariga chiqdi.

Men darvozani tamballab keldim.

Ayol suratdan chiqib ketgan tundan keyin, men suratga yanada qattiqroq bog'lanib qolgan edim. Ammo har doim o'zimni surat ichida kezib yurganday his etsam hamki, bari bir, ayolning sir-sinoatlariga – uning g'oyibdan paydo bo'lgan-dek suratdan chiqib kelishi va yana izsiz g'oyib bo'lishi, nega lo'li xotin voqeasini aytib berganiga tushinib yetmagan edim. Suratdagi ayol men uchun hamon zabt etilmagan, lekin zabt yetilishi kerak bo'lgan toshdevorli qo'rg'onday sirli edi.

Ba'zan men suratdagi ayolni iztirob changalida azoblanayotgan yuziga tikilib, u haqida turli xil faraz va taxminlar to'qir edim.

Ehtimol, deb o'ylardim, ayolning o'zi ham quyoshning eng yugurik nurlari bo'ylay olmaydigan, choh tubiday qorong'i va zax bu eski suratda yashashdan allaqachon bezgan, lekin inon-ixtiyori qo'lida emasligidan hech qayoqqa bosh olib ketolmayotgandir.

Balki, ancha yil burun – ehtimol, u paytda ayol o'n sakkiz yoshli durkun qiz bo'lgan – ayolning o'zi baxt izlab bu surat ichiga kirgan, biroq o'ylagan, kutgan quvonch-shodliklarini topa olmagan va buning ustiga u ortga qaytish yo'lini yo'qotib, hamon surat ichida adashib yurgandir.

Balki, ayol ilk marta qadam qo'ygan chog'da, surat ham qordek oppoq va tiniq bo'lgan, keyin ayolning g'am yo'g'rilgan nafasi tegib-tegib, olov tushgan daraxtning tanasidek qorayib ketgandir.

Yo'q, ehtimol, ayol qachonlardir johil kimsalar tomonidan bu suratda yashashga mahkum etilgan va bir umrga tilsimlab tashlangandir. Bu tilsimotninig sir-asrorini yechib ayolni xalos etish uchun buyuk saltanatning yovuz qo'shini kuchi yetmas, balki qandaydir notavon kimsaning bo'g'zidan alam yoki insof bilan otilib chiqqan bir og'izgina so'z kifoyadir.

Bu o'ylarimning adog'i yo'q edi. Men bu o'ylarni avvalo o'zimni ovutish uchun ichimdan to'qib-bichib chiqarar va bunga ishonib-ishonmay yurar edim. Ammo yuragimda, har vaqt ayolni sog'inish, uni qarshimda yana jonli qiyofada ko'rish istagi ustun turar edi.

Oradan besh tun o'tdi. Ayol qayta suratdan chiqib kelmadi.

Men har tun xonadan chiqa turib, suratga uzoq, iltijoli tikilib turar, ammo surat qilt etmas, so'ng yolg'iz o'zim tashqariga chiqib ketar edim. Bu holat har kun takrorlanar va men asta-sekin, endi ayol hech qachon suratdan chiqib kelmasa kerak, degan o'yga borar edim.

Bu tun ham ayolni suratdan chiqib kelishini juda-juda istab, lekin kelmasligiga ko'proq ishonib xonamdan chiqa boshladim. Men endi eshik tutqichiga qo'l uzatgan edim, ortimda xotiramda muhrlanib qolgan ayolning entikib nafas olishi eshitilgandek bo'ldi, seskanib boshimni o'girdim va yuragim quvonchdan hapriqib ketdi: qarshimda ayol turar edi. Ayol o'tgan galgidek, nimadandir qattiq sarosimaga tushgan, olazarak boqayotgan ko'zlarida qo'rquv to'la edi.

U bu safar menga nigoh tashlamay, yonimdan sirg'alib o'tdi-da, shoshib tashqariga chiqdi. Men uning ortidan yurdim.

Tun lashkarlari mo'ru malahday borliqni ishg'ol etgan, tevarak-atrof quduq tubidek qop-qorong'i va og'ir sukunatga ko'milib yotar edi. Tun qo'yniga kirgandan so'ng ayolning qo'rquvi bosildi, shekilli, u bir oz xotirjam qadam tashlar, nafas olishi ham sokin tortgan edi. Biz tor, egri-bugri jinko'cha bo'ylab yurib borar edik, to'g'rirog'i, ayol yo'l boshlar, u aniq manzilga ketayotganday bosiq va ikkilanmasdan qadam tashlar edi. Tungi qiyofasi menga yod bo'lib ketgan bu jinko'chalar, aftidan, ayolga ham yaxshi tanish edi, u qarshimizda uchraydigan muyulish yoki ko'chani kesib o'tgan ariqchalarni oldindan sezar va qadamini shunga moslab olar edi.



Men qayoqqa ketayotganimizni va yana qancha yo‘l bosish kerakligini bilmas, butun inon-ixtiyorimni ayolning izmiga topshirib, u boshlagan yo‘ldan miq etmay ketib borar edim.

Ayol bu safar ham biror og‘iz so‘z qotmas, faqat onda-sonda menga orqada qolib ketmadimikin, deganday ko‘z qirini tashlab qo‘yar edi.

Uzoq yurdik. Nihoyat, ayol qandaydir hovli qarshisida to‘xtadi. Men ham yurishdan to‘xtab, ayolga savolomuz qaradim. Ayol esa, hovlining darvozasiga, so‘ng menga qaradi-da, sirli jilmaydi. Men uning bu sirli jilmayishiga tushunmay, ichimda, nima gap ekan, deya bir tabaqali darvozaga qaradim va shu zahotiyoy hushyor tortib, qizarib ketdim: biz, marhuma kampirning darvozasi qarshisida turar edik...

Men, imillab darvozani ochar ekanman, dam-badam ayolga qarab olar va hayratimni yashirolmay beo‘xshov iljayar edim. Hayratga tushishimga sabab, ayol kampirning hovlisini adashmay topib kelishi edi. Buning ustiga u meni mutlaqo teskari yo‘ldan – o‘ng tomondagi, katta yo‘lga yaqin ko‘chadan boshlab kelgan edi. Biz boya hovlidan chiqqanimizda esa chap tomondagi ko‘cha bo‘ylab ketgan edik...

Men darvoza tabaqasini lang ochib, hovliga kirish uchun ayolga yo‘l berdim. Lekin ayol o‘rmdan qimir etmay, mening yuzimga tikilib qoldi. Uning yuzi, ayniqsa, ko‘zlari shunchalik jiddiy va o‘ychan ediki, menga kirrik qoqmay tikilar ekan, albatta, ko‘nglida qandaydir noxush o‘y kechayotgani aniq edi. Men uning bu qarashiga dosh berolmay, boshimni quyi soldim. Ayol yana bir necha daqiqa shu alfozda qotib turdi, keyin bo‘shashgan qiyofada sudralib qadam tashlagancha hovliga kira boshladi. Men hali qadam tashlashga ulgurmagan edim, shu chog‘...

Ehtimol, ayol bu so‘zlarni ko‘nglida kechirayotgan payt, o‘zi sezmaganda holda beixtiyor pichirlab yuborgan va shunda ham, biror tirik jon eshitadi, deb o‘ylamagan bo‘lsa kerak. Ammo uning pichirlab aytgan so‘zlari menga aniq-tiniq eshiltildi: «Buning ham – meni nazarda tutdi shekilli – burni bor ekan. Mening erimni burni yo‘q...» Men tosh qotgancha darvoza to‘siniga suyanib qoldim.

Ayol so‘zlarini tugatganda hovli ichiga kirgan va shu zahotiyoy, qayoqqadir izziz g‘oyib bo‘lgan edi. Men bu safar uning sirli g‘oyib bo‘lganidan xavotirga tushmadim, zero, endi uning borar manzili menga ayon edi. Men uning pichirlab aytgan so‘zlari ta‘sirida hushsiz qotib turar, bu so‘zlar meni ayolning, xuddi lahcha cho‘g‘ ustida biqir-biqir qaynab turgan va suvi daqiqa sayin kamayib borayotgan qumg‘ondek, yuragiga yetaklab kirgan, undagi bor sir-asrorming kalitini qo‘limga tutqazgan edi....

Men xonamga kirmadim, tongga qadar ko‘chada yurdim. Faqat ertalab xonamga kelib suratni qo‘limga oldim: shu paytga qadar, men payqamagan ekanman, – to‘g‘risi ham suratning bu qismi nihoyatda qorayib ketganidan biron narsani ilg‘ash mushkul edi, – suratdagi ayolning o‘ng tomonida qandaydir erkak kishining qiyofasi aks etgan edi. Uning bo‘yi ayolnikiga qaraganda picha uzun,

yuzi zahil bo'lsa kerak, suratda yana qorayib ko'rinar edi. Men erkakning yuziga qaradim: rostdan ham uning burni yo'q, yuzi peshonasining ostiga qadar kaftdek tep-tekis edi... Suratga tushayotgan fursatda, u yuzidagi bu nuqsonni yashirishga uringan shekilli, boshini egibroq tutib, ko'z osti bilan qarab turar edi.

Suratdagi erkak bilan ayolga ancha vaqt o'ychan tikilib qoldim. Keyin boshimga kelgan fikrdan xira tortgan ko'nglim yorishganday bo'ldi. Nazarimda, qanchalik og'ir bo'lmasin, faqat shu yo'l bilangina ayolni suratdan xalos etish mumkin edi.

Men suratning erkak kishi turgan tomonini yirtib tashlamoqchi bo'ldim.

Shu niyatda suratni qo'limga oldim va uni endi yirtishga chog'lanayotganimda, ayolning o'ng qo'li xuddi erkakning qovurg'alaridan o'sib chiqqandek, jirs yopishib turganiga ko'zim tushdi: agar men suratning erkak kishi turgan tomonini yirtsam, ayol qo'lsiz qolishi kerak edi... Men suratdagi ayolning yuziga qaradim va shu zahotiyog, u xayolimda, qo'lsiz qiyofada jonlandi-yu, yuragim uvishib ketdi, peshonamni sovuq ter bosdi. Qo'llarimni suratdan tortib oldim.

Ammo meni boshqa bir o'y qiynar edi: bundan buyon men suratdagi ayolga tikilib, uni suratdan chiqib kelishini kutib, jimgina yashab yurolmas edim, chunki, shu paytga qadar ko'zim tushmagan va borligini xayolimga ham keltirmagan, ana u suratdagi erkak kishini ko'rgan edim. Endi qarshimda men tanlashim shart bo'lgan ikki yo'l turganini yurakdan his etdim: ayol qo'lsiz qolsa hamki suratning erkak kishi turgan tomonini yirtib tashlashim kerak, yoki suratni xonada qoldirib, o'zim hech qachon qaytmas bo'lib bosh olib ketishim lozim edi.

Yo'q, bari bir suratni yirta olmadim. Har gal uni yirtish uchun qo'lga olganimda, ayol qirqib tashlangan o'ng qo'lining o'rnidan favvoradek qir-qizil qon otilyotgan qiyofada ko'z o'ngimda jonlanaverar va barmoqlarim titrab, surat yerga tushib ketar edi. Buning ustiga suratdagi erkakning «yirtma» degandek yolvorib termulishi ham jur'atimni chilparchin etgan edi.

Men mag'lub qiyofada sudralib xonadan chiqa boshladim. Ortimda, kimningdir suyunib qichqirgani va yana kimningdir bo'g'iq faryodi eshitleyotganday edi. Men esa, yelkamni zil-zambil yuk bosib turganday, boshimni o'gira olmas edim. Mana, xona ostonasiga ham yetdim... Ehtimol shu ketgan ko'yim qaytib hech qachon bu ostonani hatlay olmasman...

Ehtimol, bir necha daqiqadan so'ng, tinib qolganday mudroq tortgan bu qonimda yana sovuq va yovuz jur'at uyg'onar...

Ehtimol, bundan buyon suratdagi ayol, yolg'iz o'zi, do'zaxdan ham qivilgan arvochday tunlari ko'chada izg'ib yurar va uning armonlari hech qachon to'zim topmas... bilmayman... Boshim hech narsani idrok qilmay qo'ygan edi. Men uchun ushbu daqiqada eng muhimi tezroq surat qarshisidan nariroq ketish edi.



# Luqmon Bo'rixon

(1965-yilda tug'ilgan)



Luqmon Bo'rixon 1965-yil 15-fevralda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani-dagi Yangiobod qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1991). Dastlabki hikoyasi – «Begimqul katta» (1987). Shundan so'ng yozuvchining «Yalangoyoq» (1991), «Sirlil muallim» (2006), «Xizr ko'rgan yigit» (2007) singari hikoya va qissalar to'plamlari nashr etilgan. «Jaziramadagi odamlar» (2005) romani muallifi.

## QO'NOQ

Uni ko'rdimu yuragim orqaga tortib ketdi. U tobutdek tebranib borayotgan vagon tamburining bir burchida cho'nqayib o'tirar, har bir o'tib qaytuvchini qon nuqsi urgan ko'zlari bilan qiziqsinib-qiziqsinib, bosh-oyoq kuzatib qolardi.

Men tamburga chekish uchun chiqqandim. Unga ko'zim tushdi-yu, seskanib ketdim, bu ham yetmaganday, beixtiyor salomiga bosh irg'ab yuboribman. Bizni shu ahvolda chetdan ko'rgan kishi eski tanishlar ekan, degan o'yg'a borishi aniq edi.

Balki u chindan ham ko'zimga issiq ko'ringandir? Yo'g'-e, bu nusxani birinchi marta uchratishim. Balki qo'rquv aralash bosh irg'ab yuborgandirman?

Men o'z qilmishimdan uyalib ketdim. Ko'nglimga hijillik cho'kdi. Odatda, ta'bim tortmaydigan, izzatim ko'tarmaydigan ish qilganimda ko'nglim shunday g'ashlik uyasi bo'lib qolardi.

Men o'zimni g'irt beparvolikka olib, lablarimga a'lo nav bulg'or sigaretidan qistirdim. So'ng, gugurt chaqa turib, kishi bilmas, yer ostidan bir qarab oldim. U hamishagidek, meni hamon sinchiklab ko'zdan kechirar, zo'r bir qah-qaha otish-

ga chog'lanayotganday lablari ahyon-ahyonda yonoqlari tomon yoyilib-yoyilib ketardi.

Men tamburning qo'sh oynali derazasi tomon yuzlanib, o'zimcha tashqarini kuzatayotgan kishi bo'ldim. Afsuski, tashqari allaqachonlar quyuuq qorong'ulik qa'rida qolgan edi. Shu bois, oynada o'zimning ajablangan, g'ashlangan turqi-tarovatimdan boshqa hech neni ko'rolmadim.

Qiziq, u rostakamiga qah-qah urmoqchimikan? Shunchalar xursandmikan zang'ar? Unday bo'lsa, bu sassiq tamburda nima qilib o'tiribdi, nahotki, shunday shodmon odamning kupeda joyi yo'q?! E... e, balki u telba-devonadir? O'z-o'zidan iljayaveradigan aqli pastdir? Rost, u tentak!

Mening xuddi shu xulosamni tasdiqlagandek poyezdning old tomonidan parovozning uzun o'kirigi eshitildi. Temir g'ildiraklarning taraqa-turuq ovozi kuchaydi. Vagonlar zardali-zardali tebrana boshladi. Aftidan, poyezd boshqa yo'lga o'tmoqda edi.

– Aka, chekishingizdan bering.

Shundoq yonginamda eshitilgan tovushdan cho'chib tushayozdim. Qarasam, haligi nusxa qimtinibgina qo'l qovushtirib turibdi. Uning «aka», deyishi yog'dek yoqib, darrov, sigaret qutimni unga uzatdim.

Bu nusxaning yoshi, nari borsa, yigirma ikkilarda edi. Uning ko'pdan beri suv ko'rmay hurpayib ketgan sochlariga, kir-chir qo'llari-yu ust-boshiga qarab, darhol, lo'li bo'lsa kerak, degan xayolga bordim.

U qutichamdan sug'urib olgan sigaretni ancha vaqt ezg'ilab turib qoldi; hoy-nahoy, u ham, barcha tilab chekuvchilardek, sigaret izidan gugurt so'ramoqqa imanayotgan bo'lsa kerak. Uning odob saqlab turishi menga yoqdi.

Olifitalarcha gugurt uzatdim. U shoshib gugurti olarkan, rahmat, dedi. Jilmaydi. Tamburdagi kirlanib ketgan chiroqning xira yorug'ida uning qoramag'iz yuzi battar qorayib ko'rinaradi. Yuz-qovoqlarida, bo'ynida bir vaqtlar orttirgan jarohat izlari yaqqol ko'zga tashlanib turar edi. Nazarimda, u har kuni do'pposlashadigan urushqoq ko'chabazorilarga o'xshardi.

Men o'zimni yana beparvolikka soldim. Ammo, qancha urinmayin, qiziqishim tobora ortayotganidan unga tez-tez ko'z tashlab olardim.

Kutilmagan sherigim so'rab cheksa ham, chakana kashanda emas ekan: uch tortishda sigaretni yarimlatdi. Qurmag'ur har puflaganida og'iz-burnidan burqsitib tutun chiqarar edi. Uning bu qilmishi meni ko'p ajablantirayotgan bo'lsa-da, negadir, andek yoqinqiramay ham turardi. Axir, ziyoli odamning oldida... yaxshi emas.

Sherigim o'qtin-o'qtin labini yalab, ketma-ket yutinib, katta tayyorgarlik ko'ruviga qaraganda, gurunlashmoq istardi. Lekin u so'z boshlovga botinolmasdi chog'i, men tomon umidvor-umidvor ko'z tashlab qo'yardi. Men esa o'zimni hamon loqaydlikka, sovuqqonlikka olardim.

Nihoyat, uning toqati toq bo'ldi. Bir tomoq qirib olib:

– Sayohatga ketayapsizlarmi? – deb so'radi u.

Men vazmin bosh irg‘ab, «ha» ishorasini qilar ekanman, ajablanimdan sherikni beixtiyor bosh-oyoq kuzatib chiqdim. Qiziq, yolg‘iz emasligimizni qayoqdan bildi u?

– Qirq kishi bir vagonda kelayapsizlarmi?

Uning ikkinchi so‘rovi meni tamom dovdiratdi. Axir, haqiqatdan biz qirq kishi edik. Uzoq bir shaharni mo‘ljallab sayohatga chiqqandik. Tamburdan sal naridagi kupeda men uch o‘rtog‘im bilan joylashganman. Qiziq, biz haqimizda qayerdan biladi u?!

Bilag‘on sherigim xunukdan-xunuk homuza tortib, yana allanimadir dedi. Shu payt chap tomondan uzun bir eshelon shiddat bilan o‘tdi-yu, quloqni qomatga keltiruvchi shovqin-suronda uning gapini tushunmay qoldim. Shunday bo‘lsa-da, «ha» deb bosh silkitdim.

Eshelon vahshat solib o‘tib ketgach, tamburga jindek osoyishtalik indi. Bu orada kutilmagan sherik quloq-chakkasini ko‘mib ketgan sochini zo‘r berib, ammo huzur bilan qashiladi.

– Ertaga ertalab falon shaharga yetsak kerak-a? – deb so‘radi u, negadir kulimsirayotgan ko‘zlarini menga tikib.

Men yelka uchirdim. To‘g‘risini aytsam, bu nuxsa meni xiyla qiziqtirib qo‘ydi. Ajab, ust-boshi bir ahvolda-yu, yana tinmay iljayishiga, boshqa kishi oldida o‘zini erkin tutib, naq quchoqlab olguday bo‘lishiga balo bormi?

Uning aft-angoriga endi oshkora hayrat bilan qarab turarkanman, bir payt yuragim «shuv» etdi. Negaligini bilmadim-u, miyamda noxush fikrlar yalt-yult eta boshladi. Balki, bu nusxa o‘g‘ridir?! Tavba, nega shu o‘y ertaroq boshimga kelmadi-ya? Ob-bo, qir-qizil o‘g‘ri ekanligi shundoqqina ko‘rinib turibdi-ku?! Meni gapga tutishlari bejiz emas. Zang‘arning boshqa yerda sheriklari ham bor-ov? Bu nusxani biz haqimizda ma‘lumot to‘plashga yuborgan ular! A-ha, manovi, aftidan, biznikilardan kim bilandir gaplashgan ham...

Go‘yo shubhalarimni tasdiqlaganday, bir mahal, kutilmagan sherik yana so‘roq qilib qoldi:

– Birinchi kupeda boshliqlaringiz bormi, deyman? Nazoratchi nuqul o‘sha yerga choy tashiydi.

Men bilinar-bilinmas bosh irg‘ar ekanman, battar xavfsirardim. Ammo, tan olish kerak, taftishchining gap ohangida hech bir qaroqchilik alomatlari sezilmasdi. U haddan tashqari iliq munosabatda bo‘lar, tamakidan sarg‘ayib ketgan tishlarini ko‘rsatib, tinmay tabassum hadya etar edi. Ko‘rgan kishi, xohlasa-xohlamasa, ikki og‘a-ini uzoq ayriliqlardan keyin uchrashib qolganlar, deb o‘ylardi.

Biroq, uning bari sof – samimiy muomalalarini men o‘z shubhalarimga em qilar, manov nusxaga ishonmaslikka o‘zimni-o‘zim da‘vatlar edim. To‘g‘ri-da, o‘g‘ri hech qachon, «men – o‘g‘ri» demaydi-ku? Iljayadi, xo‘mrayadi, ishqilib, o‘zini ko‘ngli toza, samimiy ko‘rsatmoqqa tirishadi. Ish pishgach, shartta bo‘yningga pichoq tiraydi. Ana, keyin ko‘raverasan har ikki gapida «aka» deguvchi muloyim supurgining hunarlarini!

Poyezd shitob bilan yelib bormoqda. Vagon va temir «tuyoq»larning sharaqa-shuruq, taraqa-turuq qilishi asab torlarini g'oyat taranglashtirardi. Bu tomonlarga avval yo'lim tushmaganligi sabab qay bir manzilda ketib borayotganimizni bilmasdim. Boz ustiga, vaqt kech – xufton mahaliga yaqin bo'lib, tambur derazasi ortida qop-qora qorong'ilikdan boshqa hech narsa ko'zga tashlanmaydi.

Kutilmagan sherik tamburni obdon qarab chiqarkan, bir payt:

– Bu yerni nimaga o'xshatasiz, aka? – deb so'radi. Men odatdagiday elka qisdim. Lekin nomiga bo'lsa-da atrofimga ko'z yugurtirdim.

Hamma matohi temir-tersakdan bo'lgan oddiy vagon tamburi. Tepada xira chiroq. Oyoq ostida sigaret qoldiqlari, qog'oz, latta bo'laklari sochilib yotibdi. Ko'kish rangga bo'yalgan temir «devor» – tamburning naq hurmat kitobi deb o'y-laysiz. Unga kimlardir o'z ismini, shahrining nomini hafsala bilan o'yib yozgan. Hatto yana allakim no'noqlarcha yurak va nayza tasvirini ham tushiribdi, an'anaga xilof ravishda nayzaning ikki uchiga katta-katta harflar yozishni unutibdi. Kim biladi, balki shoshib turgandir?

Haligi nusxa hanuz ishshayib, mendan ko'z uzmay javob kutardi. Men labimni cho'chchaytirib yana yelka uchirdim. U esa chekib tugatgan sigareti qoldig'ini oyoqlari ostiga tashlab ezg'iladi-da, chopib borib, o'sha joyiga boyagiday cho'nqayib o'tirdi. Tizzalariga ikki tirsagini qo'yib, rapidadek qo'llariga iyagini tirab, menga kulimsirab qararkan:

– Endi-chi? Endi nimaga o'xshatayapsiz? – deb so'radi u. Go'yo bu la'nati tambur nimaga o'xshashini bilmog'im shartday.

Men beparvo sigaret tortdim. Uning o'zini talabchan otadek tutishi menga yoqmayotgan edi. Og'iz-burnimdan chiqayotgan quyuq dud achishtirgan ko'zlarimni yarim yuma turib yana bosh chayqadim.

– Turma. Bir kishilik kameraga o'xshaydi, – dedi u o'rmidan turib, – yo noto'g'rimi?

Men uning so'rovlariga javob bermoqni o'zimga ep bilmasdim. Ammo ko'nglimning qay bir burchida ezmavoyga nisbatan iliqlik silqib chiqmoqda, bo-yagi gumonlarim tabiatimga bo'ysunmay, asov ayg'irdek orqaga tisarilmoqda edi.

– Uch kun oldin qamoqdan chiqdim, – dedi u botinmaygina.

Men nima deyarimni bilmay qoldim. Axir, qamoqdan qutulgan odamni birinchi marta uchratib turibman. Nima qilay, tabriklaymi, «balli, sizga» deymi, yo... «ob-bo-o, chatoq bo'pti-ku», deb achingan bo'laymi?

Bo'g'zimdan ma'nisiz «e» degan qisqa va zaif tovush chiqdi. Jabrdiyda bir mahal xira chiroqqa termulib turardi.

– Turmani odam bolasi ko'rmasin ekan, aka, – dedi u qult etib yutinib. – Odam bolasi ko'rmasin...

Shu lahzadayoq kutilmagan sherikning ko'zlariga xayolchan ma'yuslik bos-tirib kirganini payqab qoldim. U ustma-ust xo'rsindi-da, menga yana jilmayib qaradi:

– Endi hammasi orqada. Ana endi... – jabrdiyda shunday dedi-yu, baquvat qo‘llarini negadir musht qildi. Bilmadim, nega, balki birortasini «ana endi» do‘pposlar, balki «ana endi» mustahkam bo‘lganini ko‘rsatmoqchidir?

Men chekib bo‘lingan sigaret qoldig‘ini oyoqlarim ostiga tashlab, shoshilmay ezg‘iladim. Kutilmagan sherik ketmoqqa shaylanayotganimni ko‘rib bir cho‘chib tushganday bo‘ldi, yo‘q, rostdan ham cho‘chib tushdi u!

– Boya, – dedi ajab nusxa shoshilinch tomoq qirib olarkan, – cho‘nqayib o‘tirganimni ko‘rib hayron qolgandirsiz. Tentak bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandirsiz, to‘g‘rimi?

Men zo‘raki iljaydim. Tentakvoy esa yana chopqillab borib o‘sha joyiga cho‘nqayib oldi. Iljaydi.

– Qamoqda, – dedi u yana ko‘zlarini xira chiroqqa qadab, – tonggacha shunday o‘tirardim. Meni ko‘pincha bir kishilik kameraga qamashardi. Kameraning bir burchagida shunday o‘tirib tongni kutardim. Eh...

U shunday dedi-yu, siqib, so‘ng qo‘yib yuborilgan prujinaday sapchib o‘rindan turib ketdi.

– Eh, – dedi u ehtiros bilan qo‘l siltab, – endi hammasi orqada. Endi yelkaming chuquri ko‘rsin u kamera-pamerasini. Men endi... men endi...

Ajab nusxa rahatlanib kerishdi. Ko‘zlarini suzib jilmaydi. U ayni chog‘da qorni to‘ygan go‘dakka o‘xshab ketgan edi.

Men ham vazmin bosh irg‘ab iljayib kutilmagan sherikka ham – quvonchlik ko‘rsatgan bo‘ldim. Ammo, ko‘nglim nimadandir g‘ash edi. Men ketish niyatida, vagon eshigi tomon bir qadam tashlab xayrlashuv uchun endi qo‘l cho‘zmoqqa shaylanganimda u yana shosha-pisha gap boshlab qoldi.

– Haligi, – dedi u, meni suhbatga qiziqtirmoqqa jon-jahdi bilan harakat qilib. – Haligi... men kamerada shunchaki cho‘nqayib o‘tirmasdan. Qarang...

U shunday dedi-yu, cho‘ntagidan gazetaga o‘rog‘lik ohak bo‘lagini chiqardi. Ajab, u cho‘ntagida doim ohak bo‘lagi olib yurarkanmi? Yo vagon nazoratchisining chelagidan topganmi? Balki biror stansiyadan, poyezd to‘xtagan chog‘i terib olgandir, kim biladi deysiz?

– Hozir, hozir... – lo‘livoy shunday dedi-yu, haligi hurmat kitobiga aylanib ketgan tambur devorini shoshib, yutoqib bo‘yashga tushdi.

Men uning har bir xatti-harakatini kuzatarkanman, hayronligim tag‘in kuchaydi. Qiziq, namuncha menga yopishib oldi bu nusxa? Negadir tamburdan ketishimni hech istamayapti? Uning «ketma» degandek yolvorib qarashlari, boshimni aylantirmoqqa o‘lib-tirilishlari, negadir botqoqqa cho‘kayotgan odamning duch kelgan xas-xashakka yopishishini eslatib yuborardi. Ob-bo, g‘oyat antiqa chiqib qoldi-ku bu og‘aynim.

U hash-pash deguncha ishini tugatdi. Aftidan, u bunday maynavozlarcha bo‘yoqchilik bilan juda ko‘p shug‘ullangan ko‘rinadi.

– Qarang, – dedi maynavoz, ohak yuqi bo‘lgan qo‘llarini puflab tozalarkan. – Qarang, aka, juda zo‘r bo‘ldi bu gal, kutmagandim.

Men ikki qadam olg'a yurib u ishora qilgan joyga qaradim. Ko'rdimki, o'sha – o'yib-chizib tashlangan tamburning «devori» oppoq tusga kiribdi. Temir devor oq – oppoq edi.

Men hech vaqoga tushunolmay ajab nusxaga o'girildim. U xuddi mushkulimni oson qilib qo'yganday, og'zi qulog'ida, taltayib turardi. So'ng, mening hayron qotganimni ko'rdi-yu, shoshilinch tilga kirdi:

– Qarang, yaxshilab qarang, aka. Nimani chizdim men.

Uning haddan tashqari ezmaligi naq hiqildog'imga kelgan bo'lsa ham yana bir karra qiziqish bilan oppoq temir devorni ko'zdan kechirib chiqdim. Ammo, bu la'nati bo'yoqchilikdan hech qanday ma'no uqa olmadim.

Mening juda qiynalib ketganimni, sabr kosam to'lib-toshayotganini ezma darrov payqab oldi. U, ketib qolishimdan cho'chidi shekilli, hovliqa-hovliqa iltifot qila boshladi:

– Cho'nqayib qarang, aka, cho'nqayib. Anovi – men o'tirgan joy qulayroq, tortinmang, cho'nqayavering.

Shu chog' tamburda bashang kiyingan qandaydir kimsa paydo bo'ldi. U besh-olti vagondan o'tib kelayotgan bo'lsa kerak, bilinar-bilinmas hansirar, yuziga qizillik tepgandi.

O'tkinchi bizning vagon tomonga zirillab o'tarkan, hayajonda tinmay tirir-chilayotgan ajab nusxaga, oppoq devor yonida gangib turgan – menga qiziquvchan nigohini bir-bir qadab oldi. Hatto kinoyali ishshaygandek ham bo'ldi. U bizni tamburga amal-taqal qilib, ilashib olgan daydilar, deb o'yladi chog'i.

Ajab nusxa, go'yo qarddon oshnasini ko'rib qolgandek, hech bir tap tortmay, o'tkinchiga ustma-ust ko'z qisdi. Bu ham yetmagandek, izidan «davramizga marhamat», dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Men boshim qotgan bir ahvolda turgan bo'lsam-da, uning taklifidagi samimiy lutfni ilg'ab qoldim! U yetti yot begonaning oldida ham o'zini elga osh berayotgan, qo'li ochiq, ko'ngli keng boyvachcha misol tutishi meni qandaydir zavqlantirib yubordi va beixtiyor piq-piq kula boshladim.

Ezmaning lutfi karami, mening hirlinglashim bir soniya bizga angrayib qolgan o'tkinchining ko'ngliga g'ulu soldi, hoynahoy, u zing'illab vagon ichkarisiga urib ketdi. Aftidan, u qimmatbaho kiyimi-yu, so'lkavoy liq to'la hamyonini bizdan qizg'andi. U oliy zot endi tong otguncha bu tamburdan qaytib o'tishga botinolmas-ov.

O'tkinchi ko'zdan yo'qolib, vagon eshigi qars etib yopildi-yu, men darhol o'zimga keldim. Bema'ni bir jumboqqa bema'nilarcha bosh qotirib o'tirganimdan uyalib ketdim. Ustiga ustak, haligi o'tkinchining masxaraomuz ishshaygani ko'z oldimga kelib ketdi-da, izzat-nafsim qo'zg'alib, ajab nusxaga achchiqlangannamo o'qrayib qaradim. U ham portlashim yaqinligini sezdi shekilli, egardan tushmasa ham har qalay otdan tushib gap boshladi:

– Mayli, aka, ovora bo'lmang. – Uning ovozi endi biroz horg'in va ruhsiz eshitilardi. – Mayli, o'zim tushuntiraman. Bu sizga qanday bilmadim-u, lekin menga juda oddiy.



Ezma o'z burchagiga borib yana cho'nqaydi-da, bir-ikki yutinib olgach gapida davom etdi:

– Kamera devorini ham shunday oqqa bo'yardim-da, tong otguncha termulib o'tirardim. Hech charchamasdim. Mumkin, sizga kulgilidir, mumkin, meni tentakka chiqararsiz, lekin bari bir gapiraveraman.

Ajab nusxa shartta o'rnidan turdi-da, o'sha bo'yalgan joyiga yaqinlashdi.

– Shu oqlikka termulsam o'zimni ko'm-ko'k osmonda, oppoq bulutlarning orasida ozod uchib yurganday his qilaman. Termulganim sayin shu oqlikka singib ketayotganday bo'laveraman. Eh, nimasini aytay, o'sha beton devorlarning oqqa bo'yalgan bir qulochcha joyi meni uch yil omon saqladi, uch yil!..

Jabrdiyda har bir so'zini sarg'aygan tishlari orasidan sug'irib-sug'irib gapirarkan, menga bir marta ham qaramadi. U faqat o'sha – bo'yalgan joyga tikilib turardi. U, go'yo meni unutgan, mutlaqo unutgan edi!

– Eh, – dedi jabrdiyda, nihoyat, menga o'girilib. – Bekorchi narsalarni gapirib o'tirishimga qarang. Buning hammasi bema'nilik, o'z-o'zini aldash. Xudoga shukur, endi hammasi orqada, hammasi o'tdi. Men endi ozodman! Men ozod! Menga endi hech bir oqlik – poklik kerak emas. Men endi odamlar orasidaman! Ha-ha-ha...

Ajab nusxa quvonch va ehtiros bilan yelkamdan quchdi. Uning tanidan anqiyotgan qo'lansa hiddan jirkanibmi, yo shunchaki cho'chibmi – beixtiyor orqaga tisarildim.

Ajab nusxa hamon tinimsiz aljirardi:

– Kamera-pamerasini ham, oq devorini ham yelkamning chuquri ko'rsin. Endi jinniga o'xshab cho'nqayib o'tirish yo'q, endi faqat shaxdam qadamlar...

U shunday dedi-yu tamburni gumburlatib, ikki-uch qadam tashladi. Men unga shosha-pisha yo'l bera turib vagon eshigini qiya ochdim. Oxiri, yelimdek yopishib olgan bu nusxaning oldidan tezroq ketishga uzil-kesil qaror qilgandim.

– Aka, yo'l bo'lsin? – deb so'radi u pismiqlanayotganimni sezib.

Men zo'raki iljydim:

– U yoqda... do'stlar kutib qolishdi.

– Meni kupengizga taklif qilmaysizmi? – deb so'radi yopishqoq allaqanday nozlangan, erkalangan ohangda.

Uning jiddiy yo hazil gap qilganini bilolmay sarosimada qoldim. Nahotki jiddiy – surbetlik qilayapti? Yo'g'-e, hazillashayotgandir? Jig'imga tegmoqchidir, yaramas?!

Negadir uning ta'nali so'rovlari menga hazilday tuyuldi-yu, u bari bir bor-maydi, degan umidda sher bo'lib:

– Marhamat, – dedim olifalarcha quchoq kerib. Ammo karomatim chirpakka chiqdi. Yopishqoq tashakkurona bosh irg'ab izimdan ergashdi. Men sirogarchiligidan qattiq pushaymon bo'ldim. Nachora, endi kech edi.

Poyezd pishqirib, halloslab yelgani-yelgan. Vagon asabiy-asabiy chayqalmoqda.

Biz kupega kirib borganda o'rtoqlarim hali uxlashmagan ekan. Yuqoridagi ikki joyda Boy bilan Jon cho'zilib olishgan, Boy allaqanday rasmi jurnalni suqlanib tomosha qilmoqda. Jon esa oliftagarchilikka ko'tarib yuradigan qalin kitobini varaqlagani-varaqlagan. Pastki ikki joydan birining egasi mening qo'shnim Bek odatdagiday almisoqdan qolgan magnitofonini titkilab o'tiribdi.

Ular mening juft bo'lib qolganimni ko'rib, bir zum angrayib qolishdi. Men ayibdorona iljaydim. So'ng sherigimni o'tirmoqqa unday turib, keskin masxaramuz ohangda:

– Tanishinglar, bu kishi bizning oshno, – dedim. Shu bilan go'yo kelgan mehmon hech bir e'tiborga loyiq emasligini do'stlarimga oshkor qilgan bo'ldim.

Mehmon o'zini tantanali uchrashuvda deb his qildi chog'i, qo'yib bersa o'tirganlarning har biri bilan quchoqlashadigan darajada hayajonlanib, salomlashuvga tutindi.

Boy bilan Jon yotgan joylaridan erinibgina qo'l cho'zishdi. Bek esa ko'rishga turib, o'rmidan xiyol qo'zg'alib qo'ydi va yana o'z yumushiga sho'ng'ib ketdi.

– Bu kishi – Bek, bunisi – Boy, bunisi – Jon, – dedim har bir do'stimni qo'noqqa ko'rsatib. Ammo shu payt tanishimning ismini haligacha bilmasligim, u ham menikidan bexabarligi lop etib yodimga keldi-yu, oz-moz mulzam tortib qoldim. Lekin gapimning oxirini ustalik bilan hazilga burib yubordim:

– Men esa – o'sha-o'sha Qulman.

Aftidan, shu orada qo'nog'imiz ham o'zini tanishtirmaganini eslab qoldi shekilli, darrov o'z ismini tilga oldi.

Biz haligacha bir-birimizni bilmasligimizni payqab qolgan Boy bilan Jon piq-piq kulishdilar. Ishga astoydil berilib ketgan Bek esa gap nimadaligini bilolmay hammamizga bir-bir angrayib chiqdi.

Ajab nusxa kulgilariga ko'p ham e'tibor bermay, go'yo o'zining yuz yillik uyiga kirgandek bemalol joylashib olarkan, yag'ir kurtkasining zanjirini shig'illatib pastga tortib qo'ydi. Odatdagiday, tinimsiz iljayishda davom etdi.

Oraga jimlik cho'kdi.

Do'stlarim o'zlarini g'irt loqaydlikka solishayotgan bo'lsa-da, ammo mehmon bilan g'oyat qiziqib turishganini payqash qiyin emas edi. Xususan, Bekning ahyon-ahyonda bir menga, bir mehmonga ko'zini lo'q qilishi, tepada yotganlarning xiyla besaranjomlashib qoluvini ularning maqsadini oydinlashtirib turardi.

– Bu kishi, – dedim men so'yilmoqqa qandaydir ehtiyoj sezib, – ko'p qiyinchilik ko'ribdi. Uch kun oldin qamoqdan chiqibdilar.

Shunday deyishim bilanoq yuqoridagi ikkala kalla baravariga egilib boshoyoq sinchiklab kuzatib chiqdi.

Qo'nog'imiz ularning junbushga kelib qolganini o'zicha tushundi shekilli, xuddi, ko'p katta yumushni tindirib kelganday, kamtarona iljayib, misoli sahnadagi artistlardek, boshini uch-to'rt silkitdi.

– Biz juda inoq bo'lib oldik, – deb gapda davom etdim men. Biroq shu lah-zadayoq qarshimdagi yuqori joyda yotgan Boyning g'azab bilan uyulayotgan

qovoq-tumshug'iga nogoh ko'zim tushdi-yu, damim ichimga tushib ketdi. Uniki kamday, Bek ham chaqchaygan ko'zlari bilan mehmonga tahdidli ishoralar qildi. Bu – uning «yo'qot manovini!» degani edi.

Tepamda yotgan Jon ham umumiy bezovtalikdan chetda qolmay, ustma-ust ma'noli tomoq qirdi.

Men ancha shoshib qolgandim. Allaqachonlar tumandek tarqab ketgan shubhalarim qora bulutlarga aylanib, vahima bilan yana bostirib kela boshladi. Axir, manovi uchovi ahmoq emasdir? Shular ham bir narsani sezishganki, tinchini yo'qotishdi? Ob-bo, nega ham boshlab keldim-a, bu shilqimni?

Shilqim esa kupedagi noxush ola-tasirdan bexabar Bekning magnitofon tuza-tishini ishtiyok bilan kuzatib o'tirardi.

– Rosa qiynabdi-ku, – dedi u astoydil hamdardlik bilan. – Yangimidi?

Bek unga shubhali bir qarab olarkan:

– Ko'rmayapsizmi titilib ketganini, – dedi istamaygina.

Mehmon Bekka ta'nali bir tikilib olgach, menga o'girildi. Uning qattiq xafa bo'lgani yuz-ko'zidan shundoq bilinib turardi.

Men hamon o'z yog'imga o'zim qovrilib, shubha-yu gumonlarning ayovsiz hujumlaridan garangsib turardim. Ustiga-ustak, do'stlarimning sovuq qarashlari tanaffus bilmas edi.

Men axiyri mehmondan tezroq qutulish payiga tushib qoldim. Buning birdan-bir yo'li to'mtayib olish, u bilan gaplashmaslik degan fikrga bordim va o'zimni qattiq horiganga sola boshladim.

Shu orada Bek magnitafonini asabiy yig'ishtirdi-da, yemak stolchasining ustiga taraqlatib qo'ydi. So'ng o'z joyiga yotmoqqa hozirlik ko'ra boshladi. Unga tegishli o'rindiqning bir chekkasida o'tirgan mehmon shosha-pisha men tomonga ko'chdi.

Boy bilan Jon ham allaqachon o'zlarini uxlaganga solib olishdi.

Vagon bir maromda tebranmoqda. Temir g'ildiraklarning shovqini avj parasiga ko'tarilgan. Kupening keng derazasidan qorong'ulik vahima solib turibdi.

Nimyorug' kupeda faqat ikkovlon hurpayishib qolgan mushuklardek sukut saqlab o'tiribmiz. Go'yo gurungbozlikka hech bir gap-so'z yo'qday. Aslida-ku, ichim to'la savollar. Xususan, uning qachon qamalgani, nima uchun qamalgani, qamoqxona hayoti meni juda-juda qiziqtirardi. Lekin bu nusxaning tezroq daf bo'lishini istab turganimdan, biror narsa so'ramoqqa hech botinolmas edim. Axir, bu qurmag'ur lo'libasharaning bir gapdoni ochilib ketsa qutulib bo'ladimi undan?!

Qo'noq bir mahal qarshimizdagi yuqori o'rindiqqa ko'z tashlab:

– Aka, tilla soatingiz necha bo'ldi? – deb so'radi Boydan. Aftidan, u Boyni uxlamay yotganini sezib, do'stona suhbatga tortgan, hatto suhbat zavqli bo'lsin deya «tilla» so'zini atay hazil uchun qo'shgan edi.

Boy esa gumonlarga limmo-lim ko'zini unga emas, negadir menga qadab qo'poldan-qo'pol to'ng'illadi:

– Tilla soat buzuq.

Qo'noq horg'in va xafahol iljayib menga qaradi. Men o'zimcha vaziyatni yumshatgan bo'lib:

– Bechoralar charchashgan, – deb ming'illadim.

Ammo qop-qora derazaga ma'yus tikilib turgan mehmon gapimni mutlaqo eshitmadi.

– Qarta o'ynaymizmi? – deb so'radi u bir-ikki daqiqadan so'ng qo'lini kurtkasining cho'ntagiga suqib.

Men shosha-pisha bosh chayqadim:

– Yo'q, yo'q, o'ynashni bilmayman.

U qo'lini cho'ntakdan olmay, bir zum o'ylanib turdi-da:

– Sizga zo'r-zo'r fokus ko'rsataman, xo'p? – dedi.

Men gap topolmay yelka qisdim.

Qo'noq cho'ntagidan hali kam o'ynalgani bilinib turgan bir to'p qarta chiqardi-da, ustamonlik bilan chiylay boshladi. Uning tarashadek qo'llari shunday tez aylanardiki, naq mashina motorining parragi deysiz. U misoli garmon chalayotgandek har quloch kerganda qartalar prujinadek eshilib-eshilib, cho'zilib ketar, hatto shig'-shig' etgan yoqimli ovoz ham chiqarar edi.

Men shunchalar qaltis harakat chog'i ham qartalarning sochilib ketmayotgani ko'rib hayratga tushardim.

Nihoyat, u tilga kirdi:

– Manovi, – dedi u erkak rasmi tushirilgan bir dona qartani naq tumshug'imga tiqib, – «Pristupnik №1». Siz yaxshilab ko'rib oling, lekin men ko'rganim yo'q, to'g'rimi?

Men tasdiqladim. Qo'noq «pristupnik»ni yana qartalarga aralashtirib tashladi-da, yana bir qartani ko'zimga ko'ndalang qilib:

– Manovi, – dedi, – uning sevgilisi. Yaxshilab ko'rib oling, aka.

Men yarimyalang'och ayol tasvirlangan qartani eslab qolganimga, fokuschi-ning o'zi bu qartani ham ko'rmaganiga yana bir karra ishonch hosil qilganimdan so'ng u «mahbuba»ni ham to'pga qo'shdi. Keyin boyagidan-da chapdastlik bilan qartalarni chiylab, prujinadek cho'za boshladi.

– Hozir, – dedi u cho'g'dek porlayotgan ko'zlarini menga qadab, – «Pristupnik №1» soqchini gum qilib, qorovul boshliqlarini otib tashlab, qamoqxonadan qochib ketadi va o'z sevgilisining bag'riga eson-omon yetib oladi. U baxtli bo'ladi, u baxtli bo'ladi!

U oxirgi so'zlarini og'zidan tupuk sachratib takrorlar ekan, ko'zlarini kupe-ning qop-qora derazasiga burdi. Aftidan, u bizni butkul unutgan edi.

Qo'noq ehtiros bilan gapirib, qartalarni yashin tezligida aralashtirarkan, nazarimda, u goh afsun o'qiyotgan jodugarga, goh kinolarda ko'rganim – sim to'siqlararo sudralib borayotgan, ko'zlarida qat'iy ishonch qalqib turgan mahbusga juda-juda o'xshab ketardi.

Oxiri qartaboz charx urib aylanayotgan qartalarning ichidan bir juftini oldimga tashladi-da, tinchidi-qoldi.

Men juftlarni qiziqish bilan ag‘darib ko‘rdim-u, ajablanganimdanmi yo zavqim jo‘shib ketganidanmi he-helab kulib yubordim. Bular – o‘sha «oshiq-ma’shuq» qartalar edi.

Shu orada g‘ujanak bo‘lib yotgan Bek u yondan-bu yonga ma’noli ag‘darildi. Men darhol o‘zimga kelib, sal bo‘lmasa «vazifam»ni unutilayotganimni sezib qoldim.

Yana ko‘nglim bezovtalana boshladi. Qo‘nog‘imiz esa qartalarni o‘z holicha chiylab ma’yus o‘tirar, bizga ko‘p ham e’tibor bermas, chamasi nimanidir kutmoqda edi!

Men endi payti yetganini payqab, yostig‘imni u yon-bu yonga surdim. Xayriyat, imo-ishoralarim zoye ketmadi.

– Uzalmoqchimisiz? – deb keskin so‘radi mehmon to‘satdan va jilmaydi. Biroq uning bu galgi tabassumi xiyla siniq va shirasiz edi.

Men uquvsizlik bilan ishshayib peshona qashladim.

Qo‘noq meni bir qur ko‘zdan o‘tkazdi-da, chaqqonlik bilan o‘rmdan qo‘z-g‘aldi.

– Bo‘pti, bizga ruxsat endi, – dedi u xayrlashuvga qo‘l uzatib. – Rahmat, aka, hangomalashib kelganingiz uchun.

Mehmon ketishga shaylana turib, do‘stlarimga qarata:

– Kechirasizlar... – dedi quruqqina qilib.

Zum o‘tmay kupe eshigi shig‘illab ochildi-yu yopildi.

Men turgan joyimda serrayib qoldim.

Eshik yopilishi bilan Bek joyidan sakrab turdi. Boy bilan Jon ham oyoqlarini osiltirib oldilar.

– Uf-f, kimni ergashtirib kelding, a? – deb so‘radi Bek ko‘zini lo‘q qilib.

– Insonparvar, – deb to‘ng‘illadi Jon yuqoridan ihrab tushar ekan.

Men shunday ta‘nalar toshbo‘roni ostida yana bir karra aybdorona iljayib joyimga cho‘kdim.

– Yuvuqsizning qir-qizil o‘g‘riligi basharasidan bilinib turibdi-ku?! – dedi allaqachondan beri tepamda qoqqan qoziqday bo‘lib turgan Boy.

Men o‘zimni oqlamoqqa bir-ikki harakat qilgandim, ular ayovsiz qayirib tashlashdi. Noiloj, damim ichimda, miq etmay turaverdim.

– U yolg‘iz emas, – dedi jiddiy tahlikaga tusha boshlagan Boy. – Uni atay, razvedkaga yuborishgan.

Bek unga ilova qildi:

– Yaramaslar, doim sayohatchilarni poylab yurishadi-da.

– Kupega begonani kirgizmanglar, deb Palonchayev qancha tayinlagan ediya... – dedi Jon ham o‘ychan bir qiyofada.

Bo‘lib o‘tgan ko‘ngilsiz voqea muhokamasi to‘rtovlon o‘rtasida gurullab yona ketdi.

– Magnitofonga yeb qo‘yguday qaraydi-ey...

– Kupeni zimdan kuzatishini ko‘rdingmi?

- Sening soating tilla ko‘rinib ketdimi deyman, he-he-he...
- Ukkag‘ar, juda quv ko‘rinadi-ya?
- Qarta chiylashiga besh ketdim-da...
- Bu ham bir ayyorlik-da...
- U ham hozir sheriklari bilan maslahat qilib yotgandir?
- Palonchayevga aysakmikan?
- E, qiziqmisan, bir kamimiz o‘sha jirraki boshlig‘ingdan so‘kish eshitishmi?
- Endi nima qilsak-a?
- Endi nima qilsak-a?

Shubhalar-gumonlar, tashvishli shivir-shivirlar, jiddiy maslahatlar yarim soatcha cho‘zildi.

Men ham uch-quyrug‘i yo‘q xavotirlar changalida, miq etmay, igna ustida o‘tirganday o‘tirar, do‘stlarimga umidvor tikilar edim.

Nihoyat, maslahatlar pishdi. Biz shu tunda muqarrar hujum qiladigan bosqinchilar bilan beomon olishuvga qaror qildik.

Vaqt ham allamahal bo‘lib qolgandi.

Biz yostiqlarimiz tagiga ichimliklardan bo‘shagan to‘rt-besh shishani bostirib, joy-joyimizga omonat-omonat cho‘zildik. Ammo uyqu qayoqda, deysiz. Xiy-la paytgacha o‘g‘rilar, talonchilar, qotilliklar haqida gurunglashib yotdik.

Poyezd vishillab, halloslab yelgani-yelgan. Temir «tuyoq»larning taraqa-turuqi horigan vujudlarni battar horitib, asablarni rahmsiz egovlaydi. Deraza orti zim-ziyo zulmat. Poyezd hoynahoy ulkan bir dashtlik bo‘ylab ketib borar edi.

Mening nihoyatda chekkim kelardi. Sheriklarim tahlikali to‘lg‘ana-to‘lg‘ana jimib qolishdi. Aftidan, sal-pal mizg‘iyotgan bo‘lishsa kerak.

Men oxiri chidayolmay o‘rnimdan turdim. Sigaret qutimni, gugurtimni paypaslab topdim-da, tashqariga chiqmoqqa shaylandim. Ko‘nglim allanechuk xijil-likka to‘lib turardi.

Kupe eshigini shig‘illatib ochganimda do‘stlarim darhol birin-ketin bosh ko‘tarishdi. Men kulgu bilan ularni tinchlantirgan bo‘ldim.

Vagon yo‘lagida hech kim ko‘rinmasdi.

Men tambur tomon yo‘naldim...

Nogoh unga ko‘zim tushdi-yu, qattiq seskanib ketdim.

U yana o‘sha o‘zining irrisqi burchagida cho‘nqayib o‘tirar, ko‘zlari bir nuqtaga – o‘z qo‘li bilan oqqa bo‘yagan o‘sha tambur «devori»ga ma‘yus qadalgandi.

Ajab nusxa meni ko‘rmadi. Yo ko‘rsa ham zarracha e‘tibor bermagan edi.

Men tamburda bir zum kalovlanib turgach, bu yerda chekish xiyla o‘ng‘aysizligini anglab, sekin izimga qaytdim.

Unga yana beixtiyor ko‘zim tushdi. U hamon cho‘nqayib o‘tirar, o‘sha bo‘yalgan joyga toliqmay tikilar edi. Ajab nusxa xuddi shu o‘tirishida qushga o‘xshardi. Ha, bahaybat, mag‘ur qushga o‘xshar edi! U, nazarimda, o‘zining bepoyon Oqlik o‘lkasi tomon mangu parvozga shaylanayotganday tuyuldi.

Poyezd o‘kirib shiddat bilan yelib borar edi.

# *Salomat*

## *Vafo*

*(1966-yilda tug'ilgan)*



Salomat Vafo 1966-yil 20-yanvarda Xorazm viloyati Shovot tumanida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1989). «Farida» (1984), «O'zini izlayotgan ayol» (1989), «Ko'ngil farishtasi» (1995), «Tilsim saltanati» (2005), «Ovoraning ko'rgan kechirganlari» (2008) kabi asarlari nashr etilgan.

Sevinch Cho'kumning «Odam» hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

### ELAT

Men har kun ertalab, tunda ko'rgan mudhish tush ta'siridan turolmay yotar, butun vujudimni qo'rquv qoplar, chala-yarimta bilgan kalimalarimni qaytarib, arang qimirlardim. Emishki, allaqanday isqirt va rasvo mushuk yo'limni kesib o'tar, oyog'imga yopishib, zorlanib miyovlaganicha izimdan qolmashim. Uning xira tortgan, shilpiq ko'zlari, ba'zan jonlanib, yog'dulanib, nelarnidir yodga solardi. Bolaligimda kechasi yurishga qo'r qar, bir juft cho'g'day yonib turadigan, it va mushuk ko'zlarini ko'rishim bilan orti-oldimga qaramay qochib qolardim. U davrda elatda dov-daraxt yashnagani uchun, it-mushuklar ko'p bo'lar, hatto kechalari olislardan chiyabo'rilarning uligani eshitilardi. Xullas, cho'g'day yonmish ko'zlarni eslashim bilan, tug'ilib o'sgan elatim, gujumlar soyasiga yashiringan uyim, onam xotiram qa'ridan tiklanib kelar, ana shundan so'ng barcha azob-uqubatlar boshlanardi. Gap shundaki, men ko'p yillardan beri olis shaharda yashar, salohiyatim bilan shaharning eng badavlat odamiga aylangan, qayga qo'l uzatsam yetardi. Lekin yillar o'tishi bilan elatimdan tobora uzoqlashar, tanish-notanishni unutar, yillab ko'rishmagan qarindoshlarim bilan diyorlashishga bir da'fa vaqt topolmasdim.

Balki, topmasdim.

Monoqda yashovchi qari onam elatga qaytarolmay kuydi-yondi. Garchand, qayt endi, kelaqol deb oshkora aytmasa-da, fikri-yodi menda bo'lib, bir hovuch suyak bo'lib qolganini bilar, ammo buni-da qarilikka, injiqlikka yo'yardim. Onam yoz oylarida ko'cha eshigi oldidagi gujumga orqasini berib, o'tgan-ketganni gap-ga solib, tasbeh o'girib o'tirarkan. Men elatga tez orada boraman, qo'yaman demasam-da, onam bari bir kutavergan, yo'llarimga qarayvergan, qish oylari derazadan qarab ko'zlari tolgan. Uning ana shu sukutida buyuk bir norizolik, ko'ngil to'lmaslik, bir oz gina, bir oz o'pkalash bor edi. Ba'zan ukalarim, onamning kasal bo'lib qolishidan qo'rqib koyishganida... birdani...ga... birda...niga yig'lab yuborarkanlar. Yillar onamday qat'iyatli, g'ayratli ayolga ham ta'sirini o'tkazib, injiq va asabiy bo'lib qolgan ekan. Uyimiz katta yo'lga yaqin bo'lgani uchun – ukalarim hamisha xavotir olishgan. Onam esa qaysarlik, sukut va sabr bilan kutavergan.

Onamning vafoti haqida mudhish xabarni olgan tong, tushimda ul isqirt mushukni ko'rmadim. Elat sari o'tlanib chiqqanimga go'yo ko'p vaqtlar bo'ldi, yo'lim unmas, manzil sari yetmas edim. Fikr-u xayolim joyida emas edi. Men butkul o'zimni yo'qotib qo'ydim, nazarimda onam hali o'lmaydiganday yana ko'p yashaydiganday edi. O'lim degan hodisot, qaysi bir ma'noda onamga tegishli emas, onam o'lishi mumkin degan fikrni miyamga sig'dirolmasdim. O'lim bizga begonaday edi. Umuman, bu voqeani qachonlardir sodir bo'lishini bilsamda, bu xabarni bunday mudhish ekanligini, o'zimni shunchalar o'zgarib ketaman deb o'ylamagandim. Bu xabardan so'ng dunyo bo'shab qoldi.

Men yana o'sha ko'hna o'ylar iskanjasida qoldim.

U o'ylar – xayollar meni yeb tamom etdi.

Yetib kelsam, uy huvillab yotibdi, allaqachon janoza o'qilgan. Darvoza, uy, bog'lar – hammasi qarib, munkayib qolganday. Fayzsiz. Onam o'tiradigan ko'rpacha yig'ib, (onam hozir turib ketganday) gujum ayrisiga ilib qo'yilibdi. Ko'rpacha, supa, gujumlar... hammasi mavjud... onam yo'q. Ko'hna charxning qismat karvoni onamni ham olib ketgan edi. Yo'lga qaragan ayolni... Dunyoning mohiyati ayriliqlar, yo'qotishlardan iborat ekan. Onam, aynan kechikib kelishimni bilganday, so'nggi daqiqalargacha yo'limga qarab yotgan, shuni bir ko'ray deya, tezroq yur o'g'lim, deya iltijo etgan.

Jannatdan tushmish farishtalar ortiq kutmagan. Jannatiy onam.

Ana shunday (marja xotini bilan qo'shmazor bo'lsin) duoibad etganda rizolik tilashmay ketgan borgan. Ketavergan.

Men qabristonga yetib kelganimda, qorovul boboy inqillab-sinqillab, hatto so'kinib, og'ir va qo'pol darvozani berkitayotgan ekan. O'lim saltanati – darvozasi, boshqa olamlarga ketish darvozasi. Bu yerga ham darvoza qo'yilgani g'alati tuyuldi. Ha, ana shu mudhish darvoza bag'rini ochib, bir paytlar ziyoratga keladigan onamning, jonsiz loshini manguulik saltanati sari kuzatgan. Qorovul tobut ko'targan olomonni o'tib ketganini aytib, qaysi tomonga ketishganini qo'li bilan ko'rsatdi va joyiga tushmayotgan darvoza ilgagini, allaqanday og'ir temir bilan «darang-during» urib ming'irlab so'kinardi.



Men har gal kelganimda, meni taniydigan odamlar birin-birin vafot etar, begonalar ko'payar, bolaligimga bog'liq xotiralar asta-sekin Vayongondan joy olardi. Endi, meni biladigan odamlar elatda kam qolgan, bolalikka bog'liq umrimning jami xotiralari, Vayongonda bir qabr o'laroq yotardi. Elatning fayzi ketgan, tengdoshlarim qarigan, hamma yoqni gugurt qutisiday bir xil uylar bosib ketgandi. Ichimdagi yotlik bilan tashqaridagi yotlik uchrashar, umidsizlikka tushirar, o'zimni juda bir aziz narsadan ayrilganday his etardim... Men u olis shaharda, har kim bo'lsam-da, o'zim tug'ilib o'sgan Monoqda hech kim emas edim. Har ne bo'lganda ham insonni tug'ilgan joyiga, inson anglab yetmamish, ko'zga ko'rinmas, allaqanday g'ayritabiyy bir kuch bog'lar edi-ki, buni faqat eng yaqin odamning musibati lahzalaridagina bir qadar tushunib yetganday bo'lasan.

Balki, bu narsa, shu paytgacha – onam qiyofasidagi Vatan timsolidagi gavdalanmish edi.

Nahot tiriklik qismat degan yoziqning alal-oqibati shu bo'lsa deya o'kinardim.

Ichkariga qadam qo'yishim bilan rutubat aralash yomg'ir, chirigan o't-cho'p, balchiq hidi burnimga urildi. Birinchi odimdanoq, o'liklar saltanati degan o'y miyanga keldi, odamlar hamma olamlarda saltang bo'lib yasharkan. Qancha yuranimni bilmayman, bir jonzot jonholatda oyog'imga tashlandi. Qarib-churib ketgan isqirt mushuk jon azobida, o'ng panjasini yerdan uzganicha miyovlardi. Irimchi odam bo'lganim uchun, bir odim izimga qaytdim, ko'nglimga yomon narsalar kelib seskandim. Miyamda allaqanday qora fikr yarq etdi: xuddi shu holatda o'tirmish qari mushuk shaharda tushimga kirgandi. Badbaxt mushuk, tushimni shunday ochib, kirib kelavergan. Izimga qarasam qorovul choldan asar ham yo'q, (uni ko'rganmidim?) temir darvoza hech qachon ochilmaganday, joyida sobit turibdi. Olisdan uzoqlashib borayotgan olomonning g'ala-g'ovuri, shiddatli guvillashga qo'shilib qulog'imga urildi. Yaqingina joyda quyun qo'zg'alayotgandi. Taxi buzilmagan ro'molcham bilan yuzimni artdim, ko'zimdan yosh chiqibdi. Yuragimni g'ussaga to'ldirmish xabar, xarob manzaralarga, shaharda ancha noziklashib qolmish yuragim bardosh berolmamishdi. Zamonlarning o'zgaruvida, bu yer, tosh yotqizilib, devor bilan o'ralgan bo'lsa-da, qabriston deyarli o'zgaragan, vahimali mahobatini yo'qotmagan edi. Qabristonning qo'rqinch suvrati bolaligimdan yuragimda saqlanib qolgan, jin-ajina, temir tirnoq degan rivoyatlar ta'sirida ulg'aygandim. Qabriston uzra tanish va notanish odamlarning musibati osilib turar, hech narsadan xabardor bo'lmagan chog'da ham, allaqanday mudhish fojeaning qora ko'lankasi sezilib turardi. Bunda vaqt ham, zamon ham qotib qolgan, faqat unda-bunda qovjirab qolmish rangsiz o't-o'lanlar, yulg'unlarda hayot asari sezilar, past-baland tug'larga bog'langan alamlar alamli hilpirardi.

Hali onamni qabriga uzoq, yog'ingarchilik bo'lib, pastlikdagi yerlar botqoqqa aylanib, chetlab o'tmaguncha yuqoriga chiqishim mushkul edi. Mushukni bosib olganimdan so'ng, vujudimga toliqish his etsam-da, tezroq olomonga yetib olish uchun, odimimni tezlatdim. Chor-atrofni to'zg'oqlar qoplagan, bor-budidan ayrilgan kulrangidagi qamishlar, yulg'undan tortib, katta-kichik qabrlargacha – bir

rangga, o'lik sukunat rangiga qo'shilib ketgan edi. Atrofga og'ir jimlik cho'kkan, bu yer dunyodan ayirib, bo'lib, majburlab olingan, mangu o'lim saltanatiga o'xshardi. Men tobora ichkarilarkanman, o'limning mangu xo'rsiniq va ichikishlarini ravshanroq eshitar, allaqanday hadik bilan odim tashlardim. Sho'rxok yerlarda toyg'onib, yiqilib-surinib, qimmatbaho kiyimlarimni avaylab yuqorilarkanman, eski va g'arib qabrdagi yozuvga ko'zim tushib qotib qoldim.

### **Pirim buva**

Yo, Tangrim Pirim buvaday odamning o'lganiga to'rt yil bo'libdi, bexabar qolaveribman. (Ana, xabardor bo'lding deylik, endi nima deysan?). Shaharda tinchlik bermaydigan o'ylarning, xotiraning bir qismi – Pirim buvaga ham bog'liq edi. U odam: xotindan kuygan edi. Urushdan kelsa – xotini erga tegib ketgan, yangi olgan xotini ham buni tashlab ketib qoladi. Qaytib xotinning yuziga qaramadi u, dunyoda uning uchun xotin zotining mavjudligi bekor edi. Ko'ngilchang, yuvvosh, so'qqabosh bir odamning qahri qattiqligiga hayron qolar, tobora bu odamga bog'lanar edim. Onam qishloq sho'rosi bo'lib ishlaganida, kolxoz ot-arava bergan, Pirim buva biznikida yashardi. Elatdagilar uni kar va saqov deb o'ylashardi. Pirim buva odam bolasi bilan elakishmagani uchunmi dudiqlana-dudiqlana «unasin-unasin» derdi. Bu uning «undan so'ng.. undan so'ng» degani edi. Gap boshlaydigan bo'lsa, asosiy so'z lug'ati shu so'zdan iborat edi. Ichib olgan kezlarida tillari yechilib ketardi:

– Alimni otib tashladim, kigiz qo'yib. Blat. Uch yil yog'och miltiq ko'tarib, birovlarning ko'ylak-ishtonini yuvdim. Suka. Bitlariga utik bosdim. Hammasi jonimga tegdi. Tfuu... Otdim tashladim, yo o'lay, yo qolay dedim. Svoloeh. Yuragingni qurtini o'ldirib girmon bilan urushmasang, qop ko'tar, idish-tovoq yuv... Kesam ahvol bu... He enangni...

U bilan beda keltirishga borgan paytimiz umrimning eng go'zal lahzalari edi. Buvaning tili bilan aytganda, yo'ng'ichqa keltirishga borardik. Bedazorda bedanalar sayrar, beda gulining boshni aylantirar isi, otning pishqirib-pishqirib qo'yi-shi, Pirim buvaning vaqti chog' hollarda, olmoncha, o'rischa aralashtirib, bevafo xotin haqidagi qo'shiqlari.. bari go'zal edi. Azbaroyi otlarni yaxshi ko'rganimdan Pirim buvaga yopishib olgan, kattagina bola bo'lsam-da, biror joyga ketar bo'lsa, xarxasha etardim. U esa menga ezilgan, qotib ketgan, rangdor qog'ozli konfetlar berardi. So'ng u qaridi, Toshhovuzdagi urug'lari oldiga ketdi, men olis shaharga o'qishga jo'nadim. Bir so'qqabosh odam haqidagi xotira shunday edi. Shoshapisha yuzimga fotiha tortib tez qo'zg'aldim.

### **3442. Otanazar Sobir o'g'li**

Uch ming to'rt yuz qirq ikki raqami bilan tuproqqa qorishmish bu odam bir ming to'qqiz yuz yetmish oltinchi yildan beri, muhabbatdan qon taloshmish yuragiga, qo'lini qo'yganicha – mangu uyquga ketmish. Nahot ko'z ochib yumguncha

fursatda, bu eski charxi-dun yigirma marta aylanishga ulgurgan ekan. Xotiram ko'kida bir qora kun o'tib edi. O'z nikoh to'yi kuni halokatga uchrab, halok bo'lgan kuyov fojeasini sira unuta bilmasman. Oradan ne-ne baxtli-baxtsiz, saodatmand-saodatsiz kunlar o'tdiki, ammo u dard saqlab qo'yilmish mayday tobora o'tkirlashar, vaqt o'tgan, yoshim ulg'aygan sayin – bu fojia dahshatini yaxshi anglar va his etardim. Men shaharda paytimda ham, bu voqeani qanday sodir bo'lgani haqida o'ylar, turli taxminlar etar, butun Monoq elati oylab motam tutganini eslardim. Baxtsiz tasodifning ham, eng baxtsiz edi bu tasodif. Bu taxlit fojia hali hech qanday yozuvchi tomonidan yozilmagan, ustalik bilan birov tomonidan uyushtirilganga o'xshardi. Nazarimda Otanazar qattiq uyquga ketgan, bir kun, kelin qabr boshiga kelar bo'lsa, bir silkinib turib ketadiganga o'xshardi. Agar, bir kun Allohning nazari tushar bo'lsa, uning qiyomatdan ham oldin tirilishiga, tanasining javhari harakatga kelib, ilgari holida bunyod bo'ladi deb ishonardik. Chunki, u navqiron, kelishgan, hatto o'limning ham rahmi keladigan darajada yosh edi.

«Hatto, o'lim ham sevmishdir uni».

Qabristonning baland joyida yigirma yilki, qattiq sukut bilan ko'zini yo'lga tikib yotar, qachondir, qaysi kundir, nimadir sodir bo'lishiga shay bo'lib yotmishdi.

Qabr ham – Otanazarning o'ziga o'xshab, baland va mag'rur edi. Kelgan-ketgan oromini buzganiday sovuq va mag'rur tikilar, egasiga sadoqat va mehr ko'rgazib sobit turardi.

Ulug' enamizni mangu mayib etmish bu fojiani kelin unutib ham yuborganidir. Ba'zan og'ir xotiralarga berilganda ko'ziga yosh ham olib qo'ygandir. O'sha yili o'zgadan tug'ilmish o'g'li, yigirmaga ham kirib qolgandir, balki. Naql etishlaricha, muhabbatda telbalik bormish, aynan shu telbalik ramzi o'laroq yotmishdi bu yerda og'amiz. Ayni shu telbalik uning ishqida zohir edi.

Qabristonning tuprog'i juda og'ir edi, bunda – orzu-armonlar, iztirob havaslar panoh topmish insonning mangu navqiron ko'ngli ko'milmish edi.

Tezroq borishim lozim edi, olomon allaqachon ko'rinmay qolmish, kunbotardan qattiq shamol esa boshlagan edi.

## 9482. Ovodon

Men uni rasmdan tanidim, bu o'sha maktabning bitiruv kechasida tushgan rasmdan kattaytirib ishlanmish rasm.

O v o d o n.

Men shu qizni bir vaqtlar yurak-bag'rim kuyib-kuyib sevmish edim. Men uning hajrida ne-ne tunlarni uyqusiz otirib, uni birgina ko'rmak uchun, birgina bilmak uchun, birgina his etmak uchun olis paxta otizlarga piyoda borib kelardim. Kelar yo'llarini qarardim...

Uning eshididagi har bir narsaga, hatto qari tolga ham havasim kelardi. U kunlar – nechog'lik toza va samimiy yuragim bor edi. Yuragimni ochmay, bir og'iz gapirolmay, shaharga ketib qoldim. Ikki-uch yildan so'ng, uning yurak xurujidan vafot etganini eshitdim.

Qayg'urdim va unutdim.

Ovodonning ota-onasi dunyodan o'tib, qarovsiz va ko'rimsiz qolmish qabrda birgina nishon, yo'g'on o'rim sochini oldiga tashlagan, hali ochilmagan g'uncha, o'spirin, go'zal qizning rasmi bor edi. Yillar qabristonni chetlab aylanavergan, ovloq qabristonning ovloq go'ridagi o'spirin siymo, mijjasidan bir tomchi yoshi oqay-oqay deb, xiyol jilmayganicha, navqiron holida qolmish edi. Makon va zamon maqomlari – bu yerda bekor edi. Navqironlik va o'limda bir-biriga zidlik, qarama-qarshilik bor edi. Eng baland avjda – qarsillab singan bir yovuz tovush bor edi – bunda.

U nechuk go'zal qo'shiqlar aytmish edi, endi u yangroq tovush, nozik badan, qora sochlar, qora ko'zlar, qabrning qay burjida sochilib, sochilib yotibdi, u qo'shiqlar, hayajonlar, hayratlar, otashlar qay tuproqqa singmish ekan.

Endi – u Ovodondan bir uyum g'isht va shu eskirib ketgan rasm qolmish edi. Uning rasmi bu xarobot aro bir ko'mak istamishday, noma'lumlikka ko'z tikib, qorachug'larida hayrat, hayotga muhabbat aks etib, tikilib turaveradi, turaveradi. O'n besh yilki, tong otadi, vahimali tun cho'kadi: qor-yomg'irlar yog'adi, qahraton avjiga chiqadi, oylab odam qadami tegmaydi... u esa yana allaqanday ilinj bilan tikilib, ko'zidan bir tomchi yoshini oqizay-oqizay deb sukut bilan qarab turaveradi.

Horimaydi, qarimaydi.

Ko'ngli – sukutda edi.

Meni bu rasm yomon etdi, ko'z yoshlarimni arta-arta arang o'rimdan jildim. Shaharda yig'lashni unutib qo'ygandim, dimog'im achishar, ko'zimdan tinmay yosh oqardi. Uning yurish-turishi, kulishlarini eslardim, yuragim «duk-duk» urardi. Endi menga bori xotiralar, xayollar, o'tgan bir kunim ham – armon edi.

Men kim edim, kim bo'ldim, shahardagi iztirobu o'rtanishlarning sababi ne edi? Bari xotiradanmi, faqat xotiragina, bolalik kunlarimgina, shuncha qiynab, oromimni oldimi?

Kim qabrga rasm qo'yishni o'ylab topgan bo'lsa, o'shaning go'ri rasmsiz qolsin.

Kun og'a boshlamadi, xayolimni bir joyga yig'ib, jadallasam, olomonning izidan yetolmasligim aniq edi.

## 2813. Rais

Oldi soyabonli shapka, harbiycha galifeli cholvor, kamzul va etik kiyib yurish bu badqovoq odamni, qari chollar ko'rsa-da, tili kalimaga kelmay qolar-kan. Asrning la'nat tamg'asi uning bo'yniga osilgan edi: tunlar mash'ala yoqib yarim tungacha xotinlarga ko'sak terdirgan, g'o'zapoyani o'roq bilan o'rdirgan, yana xotinlarga arava va zambarda dalaga go'ng tashitgan ekan. Yoshgina bir ayolni yonib turgan tandirga tashlagan, paxta vaqtida non yopgani uchun degan mish-mishlar yurardi. Urush payti erkaklar kam bo'lgani uchun, u qancha kelin va

yosh qizlarning nomusini bulg'agan, onam falonchi o'shaning haromzoda o'g'li, derdi.

Bolaligimda bu odamning ismini bilmasdim, barcha bolalar kabi, bir so'z bilan «reyis» deb atardim. O'sha vaqtda elatda birgina «Pobeda» mashinasi bo'lib, uni ham shu rais minardi. Rais va «Pobeda» ikkalasi bir kunda tug'ilganday, bir-biriga mos va tengdosh edi. Ikkalovining qo'pol va noyob nusxaligida, allaqanday yaqinlik bor edi. Xotiramda qandaydir yovuz dev – yuragimning qo'rqinch degan tushunchasiga, mangu ma'bud bo'lib qolmish edi.

O'liklar ham rais zulmidan qo'rqqanday bahaybat qabr yonidan olisroqqa siljib, qabristonning bir tarafiga pisib olmishday edi. Raisning o'g'illari otasiga siy-izzat ko'rsatib, go'riga mahalliy haykaltaroshlar yasagan haykal qo'yishgandi. Haykalning yozu-qish, qushlar o'tirib tashlagan boshi allaqachon teshilgan, ichiga allaqanday qush uya qurib olgan, burni uchib ketgan, haykal o'rnashgan supa bir tarafga oqqan, u olisdan sajdaga bosh qo'yayotgan, miyasi teshilgan odamni eslatardi.

Inson bari bir o'larkan, buncha zulm, xiyonat – gunohlarni nechun qilarkan, deb o'yladim. Va yana o'zimga javob berdim: hech kim o'limni bo'yniga olmaydi, har kim o'zini mangu deb o'ylaydi. Bu safga o'zimni ham qo'shib qo'ydim.

## 11868... 14478

Bu kichik tepaliklarning ayrimlari ustida raqam bor, yoyilib ketganlarida, hech qanday nishon yo'q. O'sha atrofda tartibsiz sochilib yotgan eski-yangi beshiklardan, bu qabrchalarning kimga tegishli ekanini bilib oldim.

### B o l a l a r.

Ayni shu sukut o'lkasida, jajji qabrchalar shahrining qad rostlashining o'zi alamli, armonli edi. Suvrat shahar xarobalari.

Yana quyun ko'tarildi, shamol etagiga sho'rxok tuproqni, yantoqlarni, eski qabrlarga tikilgan alamlarni yulib olib, qabriston ichida charx urar, g'uvillab nola etib, tobora haddidan oshardi. Qurib bitgan saksovullar, og'ochlar, beshiklar chayqalib ovoz chiqarar, bularning hammasi shamolning guvillashiga qo'shilib, kishini vahimaga soluvchi ohang paydo etgan edi.

Beshiklarni nega tashlab ketishdi, ul bag'ri kuyuk ota-ona shu taxlit – farzand dog'ini unutmochi bo'lganmi? Insonga xotira degan narsaning ne keragi bor edi, u insonni azob-uqubat iskanjasida saqlasa? Bu qo'rqinch saltanati komida yalang'och beshiklar. Ko'ngilni buzar, beixtiyor borib hammasining ustiga gavharpo'sht yopging kelardi. Qabristonda sochilib yotgan beshiklar, mayit taxtalar, alamlar ustiga qadalgan alamlar, eng mashhur rassomning xayoliga kelmaydigan, kelsa-da, bu manzarani boricha tasvir etolmaydigan – qora, qop-qora manzara edi. Ne bo'lganda ham beshik va qabrning yonma-yon yotuvida, inson umrining ibtidosi va intihosi aks etmish – sovuq falsafa bor edi. Haqiqat o'zining uzun umri

mobaynida, birinchi marta shu yerda, qabristonda ro‘yi-rost, yuz foiz haqiqat maqomida aks etmish edi. Faqat – o‘limgina haqiqat edi.

Har ne bo‘lganda ham, bu ikkala ashyoning inson hayotida muhim o‘rni bo‘lib, yovuz qismat buni allaqachon anglaganday, bandasiga nenidir aytmoqchi bo‘lib, qabr va beshikni yonma-yon qo‘ymish edi.

Qabrlarda qachonlardir onasining issiq qornidan ajrab tushgan, hali dunyoni anglamasdan turib, tuproqqa qorilgan norasidalar yotardi. Kim biladi, ular o‘l-maganida dunyodagi eng buyuk va mashhur odam bo‘larmidi? Bir vaqtlar onam menga, seni besh nafar ukang Vayongonda yotibdi, deguvchi edi. Ular qayerda, qanday yotibdi, men ularni bilmasdim, ko‘rmaganim uchunmi – yuragimda unchalik rahm-shafqat uyg‘onmasdi. (Ana inson psixologiyasi.)

Bir kun kelib ularning ham ota-onasi dunyodan o‘tgach, norasidalar unutiladi. Xotira shunday shafqatsiz kuchki, u o‘liklarni tez unutib, yengil tortadi. Hali qotib ulgurmagani suyaklarni, murg‘ak etni, qop-qorong‘i vahimali yer osti – kirrik qoqmay yutib yuboradi. Tamshana-tamshana yangi qurbonlarni yutishga chog‘lanib, yana necha-necha yuz yillar qorong‘i go‘rday og‘zini ochib yotaveradi.

### **3 A. 2793. Itlar saltanati.**

*(bu yerga ham texnika asri yetib kelibdi)*

Yura-yura qabristonning tashlandiq burchagidan chiqib qolibman, bu yerga hech qachon odam oyog‘i yetmaganday, hammayoq xarobot, har xil latta-lutta, singan mayit taxtalar, siniq g‘isht uyumlari, gullab qurib qolgan qamishlar sinib sochilib yotar, qor yoqqanday chor-atrofni to‘zg‘oqlar qoplab olmish edi. Vaqt o‘tishi bilan bu yer, qabristonning axlatxonasiga aylangan, hammayoqni yulg‘un va to‘rong‘il bosib ketgan edi.

Shu mahal yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, o‘nlagan katta-kichik, birining oyog‘i mayib, birining ko‘zi ko‘r, birining dumi kesilgan itlar... mayib itlar galasi otilib chiqdi. Ham qo‘rquv, ham hayratdan qotib qoldim, oyoq-qo‘lim – vujudimdan jon qochdi. Meni tilka-pora etib, suyagimni g‘ajishga tayyor, yurtning itiga o‘xshamas, malla juni osilib qolgan, biznikilar «marja it» deydigan, bo‘yi bir qarich, soqoli ikki qarich qarovsiz itlar jon-jahdi bilan hurar, arvochday ozg‘in, qir-qizil emchaklarini selkillatib yurgan qanjiqlar boshqalarining oyog‘i ostida qolib ayanchli angillardi. Go‘yo o‘z tasarrufidagi sarhadga meni yaqin yo‘latmas edi. Itlar menga tashlanish borasida, ko‘zi qonga to‘lib bir-birini tishlar, har tarafga qochar, kattasi kichigini, kuchlisi ojizini o‘mgani bilan urib yiqitardi. Bir-biri bilan omonsiz talashar, bir-birini g‘ajishardi. Nazarimda butun dunyoning mayib-majruh, isqirt-ochko‘z, och va daydi itlari, shu yerga, daydi itlar makoniga yig‘ilmish edi. Itlarning bo‘yniga eski har xil rangdor tasmalar, qo‘ng‘iroqchalar taqilmish edi. Barining sasi hura-hura bo‘g‘ilib qolgan, ko‘zlari qon quyulganday qizil va ma‘nosiz edi. Ularning ichida yirik kelbatlisi, aftidan sardor, tala-to‘pga

qo'shilmadan bir chetda viqor bilan o'tirar, junlari arslon yoliday parvarishlab o'stirilgan, paydor va baquvvatligidan, Noyila totorning sodiq farzandlaridan biri ekanligi bilinib turardi. Sardorning ko'zlari behafsala, befarq, g'ussali boqar, to'daning talashuv va hurishiga dunyoning sir-sinoatini bilgan qariyaday jimgina tikilardi. Qaydandir eshitilmish hushtakka ular, qanday tez paydo bo'lgan bo'lsa, shunday tez ko'zdan yo'qoldi.

Manglayimga yirik-yirik tomchilar tushdi, tavba, qabristonda ham yomg'ir yog'arkan, shamol bo'larkan, mening nazarimda hamma narsa qotib qolgandek edi. To'zg'ib yotgan qamishlar orasidan asta mo'raladim, yarmi o'prilib ketmish, eski qabr atrofida haligi to'da, intizomli askarday cho'zilib mudrab yotishardi. Itlarning eski po'stakday yerga qapishib yotmish bu holati, yaqin orada turganga, biror yemak yeganga o'xshamasdi. Ular, bir kunda vaboga uchrab duvva to'kilganday, bir arava etib, axlatxonaga keltirib tashlangan axlat uyumiga o'xshardi. Qabrda na yozuv va na-da bir nishon bor edi. Somon suvoqlari ko'chib, nurab, chor-atrofni o't-o'lanlar, qamishlar bosib ketgan edi.

O, men allaqanday ichki sezgi bilan bu tashlandiq itlar qarorgohi kimning qabri ekanligini bilib oldim. Har bir ovul, qishloqning qaysi bir jihati bilandir mashhur odami bo'ladi. Men hikoya qilib bermoqchi bo'lgan odam – elatning eng «mashhur» odami edi. Vaqt-bevaqt bizning elatimizga, kelinga qalin puli to'lash og'ir bo'lgani uchun, qo'li kaltaroqlar, olis Rusiyadan xotin olib keladigan odat chiqarishgandi. Ba'zan, elatda falonchining o'g'li o'ris xotin olib kelibdi. Yoki, falonchi armiyadan totor xotinga uylanib qaytibdi, degan gaplar oralab qolardi. Noyila totor shu taxlit elatimizga kelib qolgan edi. Xudo rahmat qilgur Noyila o'zi aslida yaxshi xotin bo'lgandir-u, «komsomol to'yi»ga yuzini, qosh-ko'zini shunday bo'yab chiqqandiki, umrida bo'yoq neligini ko'rmagan xotinlar, elat odamlari, bu bo'yalgan xonimni ko'rib esi og'ib qolayozdi. Ko'p yillar gapirib yurishdi: «Nurmat cho'qli, o'risdi yurtidan, ko'k ko'z qo'rchoq katiribdi», deb. Odamlar qattiq kuygan ekanmi, shu-shu, Noyila totorni o'zga sayyoradan kelganday, o'lguncha safiga qo'shishmagan. Bu elning odati g'alati ediki, bir umr yashasa ham, to'y-hashamiga aralashsa ham, kelgan odam, yot bo'lib qolaveradi. Bir qarich bo'lagacha, anovi Noyila totormi, burnigacha kraska suradigan, derdi. Buning ustiga u elatimizdagi o'ris tilini biladigan yakka-yu-yagona odam bo'lgani uchun, ba'zi yaramas odamlarga yumaloq xat yozib beradigan odat chiqargandi. Yana bir tarafi Noyila totorning farzandi bo'lmay, bor mehrini it va mushuklarga bermishdi... Elat chetidagi, eski chala bitgan qo'rg'oni itlarning chinakam qo'riqxonasiga aylangan edi. Bir qarich cho'ntak itlaridan tortib, og'zidan so'lagi oqib yotgan eshakday-eshakday buldo'q itlargacha bor edi. Itlarning irsiy taraqqiyoti aks etadigan, tirik muzey edi u qo'rg'on. Qalang'i-qasang'i kuchuklarni allaqanday topib keltirar, ularni ko'paytirib, itlar saltanatining malikasiga aylangan edi. U elatdagilar bilan sira til topisholmas, talashar-tortishar, ayniqsa, bolalarning jig'iga tegar, uyi yaqinidan o'tib qoladiganlarini, itlarga quvlatib, huzur qilardi. Ba'zan jahldan bo'g'ilib:

– Kazir alarg‘a itarman (ya‘ni itlarga), alar silardi, olordo ko‘yar, svolochi, – deb qichqirardi.

Sho‘rlik totor o‘lgach, itlar ham bunga kelmish, endi ular solih bir farzand o‘laroq, totorning yo‘q sha‘nini va mulkini qo‘riqlab yotishardi.

### J. 3383. Sharif surnaychi

To‘y-po‘ydan bo‘sh vaqtda Sharif surnaychi, bolalarni yig‘ib, allaqaydagi gaplarni gapirib o‘tirishni yaxshi ko‘rardi. U, og‘zidagi nosni tuflardi-da, boshini mag‘rur ko‘tarib, men o‘ligimni Monoqqa ko‘mish uchun kelganman, so‘ng go‘rda tinchgina oyog‘imni uzatib yotib, surnay chalib yotaman, deb qolardi. Biz, tirik odam o‘z o‘ligini qanday ko‘markan, bordi-yu bu ish amalga ohsa so‘ng, qanday surnay chalib yotarkan deb, hayron bo‘lardik. Semiz baqaloqqina surnaychi ko‘zimizga boshqacha ko‘rinib, qo‘rqib qo‘chardik ham. Atrofda odam yo‘q paytlari, masxaralab, kesak otib quvlardik.

Asli, Monoqda, qirqidan oshgan odam surnaychi bo‘lmas, degan naqlnoma gap bor edi. Lekin Sharif surnaychi qirqidan oshganda surnaychi bo‘lib, bu gapning puchligini isbotladi. U olis shahardan odamni, qirqidan ohsa-da surnaychi bo‘lishini isbotlash uchun, Monoqqa kelganday, qirqidan oshdi surnaychi bo‘ldi qo‘ydi. Umuman, Monoq tarixida qirqidan oshgan odam, surnaychi bo‘lganmi yo‘qmi, bilmayman. Bu maqol, qaysi toifa odam uchun, qachon aytilganligi bilan ham qiziqmaganman. Faqat, qirqidan oshgan surnaychi bo‘ladimi, degan gapni bilaman. Turib-turib, nega endi aynan, qirqidan oshgan odam surnaychi bo‘lmasligi kerak, deb o‘ylayman. Bu gapning eng to‘g‘ri ma‘nosi, qirq yoshgacha bir hurning boshini tutmagan odam, qirqdan so‘ng balo ham bo‘lmaydi degani bo‘lsa kerak. Lekin, bari bir, bizning Sharif surnaychi, bu gapni sindirdi-da.

Aytishlaricha, yoshligida uni savdoyi deb, kasalxonaga yotqizishgan kuyi, elatga qaytib kelmagan, bizga noma‘lum umrini o‘sha yoqlarda yashagan. Shu vaqtgacha shaharda qanday yashagan, ne yumushlar bilan tentiragan, bir Xudoga ayon edi. Bu haqida qahramonimizning o‘zi sira gapirishni suymasdi. Endi, faqat shu tuproqqa ko‘milib, oyog‘ini uzatib yotish uchungina bu yerlarga kelib turgan ekan.

Odamlar uni surnay chalishiga ham, o‘ziga ham birday munosabatda bo‘lar, hech kim to‘yga aytmas, u ertalabdan to‘y joyida xizmatini ado etib, el qatori qornini to‘ydirib ketaberar edi. Kambag‘alning bir to‘ygani, chala boyigani-da.

Endi bilsam, Sharif surnaychi, orzusiga yetgan, o‘ligini bunga ko‘mib, qabr ustiga qo‘chqor shoxlarini qo‘ndirib, bamaylixotir yotardi. U dunyodan g‘arib, miskin va befarzand o‘tgani uchun, savobtalab odamlar tomonidan, qabriga ohakdan ganch o‘yilib ishlov berilgandi.

Olisdan surnaychining go‘ri qabriston go‘rlaridan ayrilib, marmar qasrday oqarib ko‘rinardi.



## G. 8463. Onam (1927–1992)

Shu yerga kelganda, ruhi jonimda bir o'zgarish yuz berib, bezgak tutganday titray boshladim. Men shaytonlay boshladim, hamma yog'im tortishib, yuz-ko'zlarim «pir-pir» uchib, tobora holdan toyardim. Ichimni qo'rqinch, allanimaga zo'riqish qoplab olgan, qaddimni tik tutolmay qiynalardim. Oyog'im ostida allanima ayanch bilan vag'illadi, yana o'sha kasofat, xosiyatsiz mushuk, qabristonni boshiga ko'tarib miyovlardi. Daydi it, mushuklarning ko'ziga yaqiniday ko'rinamanmi, ular har joyda meni topishar, izimdan qolmay ergashishardi. Bir hovuch suyak bo'lib qolgan, uvada bo'lib yotmish junlari orasidan, uchburchak boshini arang ko'tarib miyovlardi. Bir qarashda, xarob holati bilan butun umrini qabristonda o'tkazganga, shu yerning ajralmas bir bo'lagiga aylanib ketganga o'xshardi. U har miyovlashiga olam-jahon kuch sarflar, zaif tanasi titrar, bo'g'zidan har xil saslar chiqardi. Yana bir oz shunday tursa, xuddi shu holatda qotib o'ladiganday edi. Ne maqsadda izimdan qolmayapti. Bu bexosiyat mushuk, kissalarimni ushladim, yegulikdan asar yo'q. Tan olib aytishim kerak ediki, ayni shu holatda, mushuk va mening qismatimda o'xshashlik bo'lib, har ikkalamiz bu o'lik saltanatda: daydi, xo'storsiz, najottalab edik. Qismat har ikkimizning ham yo'limizni – shu yerda birlashtirmish edi. Men bexosiyat mushukdan ayrilish uchun, gandraklay-gandraklay yuqoriga o'rmaladim, mushuk onasidan ayrilgan boladay, sho'rxok tuproqda sirg'alib, o't-o'lanlarga yopishib jon holatda tirmashardi.

Aql-u hushdan ayrilgan devonaday, dovdirab, qabristonni uch marta aylanib chiqdim, onamning yangi qabri, jannat tasarrufiga o'tib ketgan hududday yo'q edi. Go'yo ulug'larning qahri kelgan, onasidan kechgan vatangadoning jazosi shu degan-u, jannat darbozalarini berkitgan. Quyosh botayotib, qabristonni mangu vahm va qo'rquv sukunati qopladiki, men qabrni topolmasdim. Yulg'unlarni ushlab, tetapoya boladay yurarkanman, yovvoyi bir sas bilan ona, onajon derdim, o'zimni la'natlab yig'lardim. Men ko'proq yig'lashga o'rgana bordim. Ana shu lahzalarda butun umrlik hayotim uchun, olis shaharlarda qolib ketganim uchun, Tangriga ming tazarru aytdim. Agar, Alloh amr etib, shu lahzada onam qaytadan tirilar bo'lsa, butun umr poyining gardini artib o'tishga, umrim shomigacha xizmatida bo'lishga tayyor edim.

Onam, o ko'zimning nuri, onam!

Bu yozg'irishlarim – battar telbalantirar, endi men fikrlay olmas, ro'yoga aylanmish dunyomni ostin-ustin etardi. Bir zamon, yaqinginada chalingan surnay sasini, it hurishini eshitdim. Ana dedim, Sharif surnaychi menga rahm etib – yordamga chog'landi. Noyila totor buyuk va itoatgo'y lashkari bilan xizmatga chog'landi. Ulug' xizmatga. Men sehrlanmish jonzotday u surnay hokim bo'lmish makonga qarab boraverdim. Yana mushuk ayanchli va o'tinchli miyovladi, uning cho'g'day yonmish ko'zlari boshim uzra osilib turdi, o'lim yulduzi misol. O, o'lim yulduzi. Surnay meni sehrlar, izmiga solar, tobora o'lik saltanat sukutiga qo'shilib borardim. Allaqayda vujudimda ulug' bir farog'at, osoyishtalik va

---

horg'inlik his etdim. Ichimda bir istak paydo bo'lib, sayhonlik joyda cho'kkaladim. Yurishga boshqa holim qolmagandi. Ihrab-sihrab mushuk ham yetib keldi izimdan. Boshimni ko'tarib qarasam, onam, qora marmar toshda jilmayib, kulib, yashnab, porlab turardi. Qabrga nomunosib onam!.. Umr kutib – tolgan onam!.. Qora o'lim, bizni ajratib turardi. Onam!.. O, yolg'izginam!..

Qabrga «Dushamova Soporgul. 1927–1992-yil» deb yozib qo'yilgan ekan. Onamning qabri asta-sekin bu yerga joylashayotgan safning oxirida ekan, sal narida Pirim buva, endi jami xotiralari bilan meniki bo'lib qolgan, kuyovlik libosidagi Otanazar og'am va yana-da go'zallashib ketgan Ovodon... Tobora tun bag'riga singib ketayotgan qora marmarda, onam mangu sukut bilan horg'in boqardi: (go'yo kuta-kuta charchagan) uning yuzida na gina, na kin, na tana bor edi. Onamning mangu sukutida, meni kelajakda mangu azob-uqubat chohiga tashlaydigan, mashhar qadar o'rtaydigan bir siniq, bir ma'yus tuyg'u balqirdi. Bu yolg'onchining alaloqibati shu ekan, alaloqibatning mohiyati: ayriliqlar, armonlar, qayg'ular, alamlardan iborat ekan. Musibatning ulug'i, onani boladan, bolani tuqqanlardan ayirar ekan. Shu mahal marmarga bir tomchi ko'z yosh tushdi: yo men yig'ladi, yo tosh yig'ladi.

Bu mening elatga bog'liq eng so'nggi xotiralirim edi. Onam yotgan safning eng oxirida... eng oxirida... dunyoning musibatidan gangib turardim. Yaqinginda yana it hurdi, yana surnay chalindi.



# Zulfiya Quroloy qizi

(1966-yilda tug'ilgan)



Zulfiya Quroloy qizi (Zulfiya Yo'ldosheva) 1966-yil 15-sentabrda Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug'ilgan. Jizzax pedagogika institutining o'zbek filologiyasi fakultetini bitirgan (1990). «Turmush» (2003), «Yovuzlik farishtasi» (2005) kabi kitoblari nashr etilgan.

## QADIMIY QO'SHIQ

\* \* \*

*«Ana u! Kelyapti! Ana, anavi yoqdan kelyapti. Qara, qaragin. Nimaga to'xtab golding? Bormaysanmi oldiga?*

*– Voy sharmanda! Voy yuzsiz... Anavi yuzsizni qara!*

*– Tangriga ibodat qilish o'rniga...*

*– Qizim, jon qizim, iymon keltir, tavba qil. Endi u yoqning keragi yo'q senga. U yoqning yeri ham boshqa, osmoni ham! Olloh iymon keltirgan bandalarining gunohlaridan kechguvchidir. Iymon keltir, bolam, iymon keltir, iymon nuriga chulg'angaysan!..*

*– Qiyomat kuni bir tarozu qurilurki, ani beadad sutunlar bila barpo qilishur, Har bir sutunning uzunligi mag'rib birla mashriqning miyonasiga barobardur. Aning har bir pallasi yer yuziga barobardur. Bir pallasi Arshning o'ng tarafida tururki, anga savob solinur. Bir pallasi Arshning chap tarafida tururki, anga gunoh solinur.*

*... kimning tarozusi yengil kelsa, bas, andog' kishining onasi Hoviyadur.*

– ...

*Shivir-shivirlarga to'lgan olam qalbini tilib yuborgan o'tli xo'rsiniqni iliq shamol olis-olislarga olib ketdi...»*

Sultonmurod yana o'sha tanish uy – qishloq chekkasidagi xaroba oldiga kelib qolganini mayda yomg'ir tomchilari yuziga urila boshlaganidan keyin fahmladi: «Nega keldim bu yerga? Axir endi u yo'q...»

Tomchilayotgan yomg'ir birdan jalaga aylandi. Momaqaldiroq gumburladi. Qoraygan osmon bag'rini chaqmoq tilib o'tdi.

Olam shovqin-suronga, tasir-tusur tovushlarga to'lib ketdi.

Yigit parishonlik bilan kimsasiz ko'chada qaqqaygancha turib qoldi, jiqqa ho'l bo'lgan kiyimlari og'irlashib vujudini ezayotgandek, sovqotib qaltirayotgandek yelkasini qisib qunishdi, shusiz ham anchadan buyon parokanda o'y-xayollari chil-chil bo'lgan billur siniqlaridek har tomonga sochilib ketdi.

Momaqaldiroq hamon guldurar, tinimsiz chaqmoq chaqar, olam olov ichida qolgandek edi.

Sultonmurod asta ortiga qaytdi. Besh-olti odim yurgach, qarshisidan muyulish chiqdi. Muyulish chetida ulkan tosh qorayib turardi. Yigit shu tosh ustiga cho'kdi. Horg'inlik bilan nam toshni silarkan: «Qara-ya, bir bechora o'tib ketdi-yu, lekin sen bilan men hamon bormiz, yashayapmiz...» deb qo'ydi sekin.

Shu yerda o'tirib u nimalarnidir o'ylab olmoqchi bo'ldi. O'ylab olish uchun bundan ortiq qulay va xoli yer yo'qday edi. Ammo... Yigit uch-to'rt qadam narida shu tomonga qarab kelayotgan Xoliq amaki bilan tegirmonchi cholni ko'rib asabi buzildi. «Shu yerdayam tinchlik yo'g'-a. Allamahalda ko'chada nima bor ekan bu chollarga?!»

\* \* \*

Bu uy Abdurahmon eshonga tegishli edi. Eshon bir necha yil muqaddam qarib-churib olamdan o'tdi. Hayhotdek hovlida undan yodgor bo'lib ikkinchi xotini Shohsanam qoldi. Eshon boboning katta ayolidan farzandlari bor, lekin ular boshqa-boshqa yashashardi. Eshon bobo dinning barcha talablariga rioya etgan holda, to'ng'ich ayolini har tomonlama ta'minlab qo'ygandi. Yolg'iz Shohsanam...

Darvoqe...

Eshon buva uni – tunda qo'qqisidan gumburlagan momaqaldiroqdan qo'rqib, yuragi besaranjom urib qolgan navnihol qizni – avval davolagan, yetti kun yetti mahal duo o'qib sog'aytirib yuborgan, keyin esa yana duo o'qib, uni o'ziga og'dirib olgan...

Har qalay, odamlarning og'zidagi gap shunday.

Bu g'aroyib nikoh haqida el ichida yana bir gap og'izdan-og'izga o'tib yuradiki, bunisi avvalgisidan-da jumboqli. Emishki, eshon buvaning duosidan shifo topgan qizning o'zi uni yo'qlab borganmish...

Ilojsiz qolgan ota-ona nima qilsin?..

Bu gap-so'zlarga faqat bir yigit ishonmasdi, ishona olmasdi. Shu haqda o'yladi deguncha o'zini qo'ygani joy topolmay, keng olamga sig'may qolardi: «Bunday bo'lishi mumkin emas! Mumkin emas! To'g'ri, uning tobsiz bo'lgani rost,

lekin hech qachon... Hech qachon! Uni majburlagan bo'lishlari mumkin. Chorasiz qolib, noiloj rozi bo'lgandir. Ammo hech qachon... hech qachon! Chunki... chunki... U meni sevadi, meni!»

Bu rost edi. Bu haqda butun qishloq ahli xabardor bo'lmasa-da, har qalay, teng-to'shlari ivir-shivir qilib yurishardi.

Darvoqe, bir kech – hali shom tushib ulgurmagan mahal edi – maktab yonidagi yakka tut ostida ularning gaplashib turishganiga Abdurahmon eshonning ham ko'zi tushgandi.

– Xudo xohlasa, nikohimizni mana shu kishiga o'qitamiz, – degandi o'shanda Sultonmurod yoshiga nisbatan ancha qoruvli, kimxob kamzuli o'ziga yarashgan eshonning ortidan qarab qolarkan.

Qiz esa uyalib kulimsiragan... Keyin taqdir charxpalagi teskarisiga aylanib ketdi. Sultonmurod yuragini changallab qolaverdi.

To'ydan keyin Sultonmurod uni bir marta uzoqroqdan ko'rdi. Juvon ham uni ko'rdimi-ko'rmadimi, bilmaydi, ehtimol, ko'zi tushgandir-u, o'zini ko'rmaganlikka olgandir.

Sultonmurod esa bu kunni eslab qoldi. Unuta olmadi. Yanglishmasa, o'sha kuni chorshanba edi, sanasi ham esida – 12 may, peshin chog'i edi... Biroq – buni qanchalik istayotgan bo'lmasin – juvonning oldiga borish tugul, unga tikilibroq qarashga-da botina olmadi. Nima bo'lgan taqdirda ham endi u qishloq ahlining e'tiqodiga sazovor bo'lgan taqvodor odamning zavjasi!..

Hamma-hammasini unutmog istadi. Buning yo'li topildi – uylandi. Taqdir hazili – kelin Shohsanamga qarindosh edi.

Ammo bari bir huvillab yotgan ko'ngil mulkiga fayz kirmadi. Yuragini bir alam ezib yotardiki, bunga chidab yashagandan ko'ra, do'zax olovida kuyib kul bo'lgan afzal edi. Kunlarning birida u barcha-barchasiga – uyat-andisha, iymon-e'tiqod – hamma-hammasiga qo'l siltadi. Va...

Sultonmurod o'zini eshonning hashamatli darvozasi oldida ko'rdi: «Undan so'rarim bor... Nega... Nima uchun bunday qildi?»

Biroq...

Eshikni taqillatishga ham ulgurmadi.

Hashamatli eshik shiddat bilan ochildi.

Ostonada Abdurahmon eshon paydo bo'ldi. Ular bir necha daqiqa bir-birlariga so'zsiz tikilib qolishdi. Eshonning nigohlari g'azab va nafratga to'la... Oqish, lekin ayni damda gezargan, bo'zargan chehrasida shafqatsiz ifoda qotib qolgan...

Sultonmurod bo'shshdi. Allaqanday g'ayritabiiy kuch qarshiligiga duch kelganday o'zini juda-juda ojjiz his etdi. Boyagi shashtidan asar ham qolmadi.

Asta burilib ortiga qaytarkan, alam va iztirobdan ingrab yubordi...

Shu-shu bo'ldi-yu, yigit yo'li tushgan taqdirda ham eshonning ko'chasini aylanib o'tadigan bo'ldi.

«Mana endi undan abadul-abad ayrildim, – deb o'yladi Sultonmurod. – Endi uni hech qachon olisdan bo'lsayam ko'ra olmasam kerak!»

Darhaqiqat, shundan keyin u Shohsanamni uzoqdan bo'lsa-da ko'rishdan mahrum bo'ldi. Chunki...

– Tavba qildim, qariganda yosh xotinga uylangan erkak esdan og'ib qoladimi deyman-da, – deb qoldi bir kuni Sul-tonmurodning xotini. – Eshonbuvani aytaman-da. Ostona hatlab ko'chaga chiqsang oyog'ingni urib sindiraman, debdi Shohsanam opamizga. Tunov kuni bechora derazadan qarab turgan ekan, Eshonbuva toza ta'zirini beribdi.

Sultonmurod churq etmadi. Ichidan zil ketdi. Ayriliqqa, azob-uqubatlarga to'la dunyo qad rostladi qarshisida. Biroq yigit tishini tishiga bosdi, chidadi, chunki barbod bo'lgan dunyo vayronalari ustida shunday ulug'vor koshona bunyod etgandiki, bu koshonaga istagan yerda, istagan vaqtida kiradi-chiqadi; bu yerda iztiroblardan zada qalbi orom topadi, qiyg'os gullagan shaftolining yoqimli hidi dimog'iga urilgandek bo'ladi, qaynoq, betakror bo'salar ta'mini tuyadi lablari...

Ittifoqo...

O'sha kuni u ishga kechikibroq bordi. Ertalabdan oq boshliqdan eshitadiganini eshitdi. Buning ustiga hisobot daftarchasi uyda qolib ketibdi. Boshliqdan yana nasibasini oldi. Bu kamlik qilganday, boshliq uyiga borib, o'sha jin urgur hisobotni olib kelishni talab qildi. Ishxonadan uygacha sakkiz chaqirim, kun issiq; bekatda yarim soat turib ulov poyladi, ammo hadeganda ulovdan darak bo'lavermadi, asablari o'ynagan, charchagan, bo'g'ilgan bir alfozda poyi piyoda yo'lga tushdi. Chamasi, biror soatlardan keyin u o'zi yashaydigan ko'cha boshiga yetib keldi. Shu yerda to'xtab biroz nafas rostlamoqchi bo'ldi. Ammo... Oh, mehribon Parvardigor! – shuncha harakat, shuncha zahmat va ko'rguliklar yolg'iz Uning uchun, Uni ko'rish uchun ekanligini o'sha daqiqada, hatto undan oldinroq ham qaydan bilibdi? Bilganida edi ehtimol... Yo, Qodir egam, tag'in deng shundoq ro'parasidan chiqib qoldi! Albatta U yolg'iz emasdi. Yonida qandaydir bola ko'targan ayol... Va atigi bir daqiqa, yo'q, yarim daqiqa, ehtimol soniyaning allaqaysi bir ulushida – bexosdan ularning nigohlari to'qnashdi! Hamroh bo'lmish ayol nimadir dedi, lekin Shohsanam eshitmadi. Olam suv quygandek jimjit bo'lib qolgandi. Keyin yana hammasi avvalgi holiga qaytdi: shovqin-suron, vag'ir-vug'ir...

Shohsanam yerga qaragancha yonidan, shundoqqina yonginasidan o'tib ketdi. Sul-tonmurod uni anchadan buyon bunchalik yaqindan ko'rmagan, ko'zlariga termulmagan edi. Yigitning hayotidagi eng porloq kun bo'ldi o'sha kun.

Oradan ko'p vaqt o'tmadi.

Abdurahmon eshon to'satdan bandalikni bajo keltirdi.

Shohsanam beva qoldi.

«Endi u yo bu hovlidan bosh olib ketadi, yo kimgadir erga tegadi, – degan gap topib keldi Sul-tonmurodning xotini uyiga borib. – Albatta, erga tegadi-da. Tegsayam tegadi, tegmasayam tegadi. Axir yosh bo'lsa, ovunadigan farzandi bo'lmasa. Tegadi-da, tegmay qayoqqa borardi? Aytmoqchi, shahardagi amakimizning bultur xotini o'lgandi. O'rtaga tushsammikin?»

Sultonmurodning yuragi zirq etdi.

Yomg'ir fasli o'tdi.

Jazirama o'tdi.

Sokin va osuda sunbula kirib keldi hamki, Shohsanam na erga tegdi, na qishloqdan bosh olib ketdi. Eshon buvadan qolgan hovlida yolg'iz o'zi yashayverdi. Juvonning xaridorlari ko'p edi. Lekin nima uchundir biror kimsa eshonning ostonasini hatlab o'tishga jur'at etolmasdi. Shohsanamning o'zi ham ko'pchilikka qo'shilmas, to'y-ma'raka tugul, aqalli, ko'cha-ko'yga-da chiqmay qo'ygandi.

Tiriklay ko'milgandek edi go'yo.

Eshon buvadan qolgan hovli-joydan putur keta boshladi.

– Qarov bo'lmagandan keyin shu-da! Hamma narsa o'lda-jo'lda tashlab qo'yilgandan keyin shunaqa bo'ladi! – deya javrardi Sultonmurodning xotini har kech. Beva bo'lib qolganidan keyin Shohsanam nima uchundir unga yoqinqiramay qolgandi. – Esiz... esizgina shunday uy! Rahmatli eshon buva bo'lganda... Tavba, qosh-ko'zini bo'yashdan boshqasiga yaramaydigan bu iririsqi xotinning nimasiga uchdi eshon buva?.. Hatto piyovaniyam eplab pishira olmaydigan qo'li siniq-ku bu!

Sultonmurod esa...

Shu «qo'li siniq» juvonni bir ko'rishga mushtiq, rahmatli eshon buvaning ko'chasi o'tishdan o'zini zo'rg'a tiyib yurardi. Axir, ehtimol, chindan ham u uquvsizdir... Lekin... rangpar xushbichim chehra, nozik dahan, tik qomat, ko'zlar... xuddi bu o'lamda o'zidan boshqa hurliqo yashamaydigandek chaqna boquvchi nigohlar...

Bularni unutib bo'ladimi?

Yigit faqat bir narsadan xavotirda edi, hatto qo'rqardi. Bu qo'rquv tuyg'usi shu qadar ulkan ediki, uning haybatiga bir qur nazar tashlashga-da qurbi yetmasdi: «U meni unutgan bo'lsa-chi?!»

Yil so'ngida eshon buvaning ruhi-pokiga atab yil oshi berildi. Shundan keyin bir hafta ham o'tmadi, birdan sovchilar yomg'iri yog'ila boshladi.

– Eshon buvaning hurmatini saqlab shuncha kutdik. Endi bir narsa de. Ukam yomon yigit emas.

– Xo'p, deyaqoling endi, iltimos. Akamning shashti baland, ko'nmasa opqochib ketaman, deyapti!..

– Bu dunyodan hech kim toq o'tmagan, qizim. Senam axir bir kun uy qilanda, yosh umringni xazon qilmasang-chi.

– Yolg'izlik azobi yomon. Mana, mening amakim o'n besh yildan buyon yolg'iz yashaydi. O'n besh yil-a! Bechora xotini jon berayotganda boshqaga uylanmayman, deb va'da berib qo'ygandi. Endi bilsam... bosib yurgan ekanman, deydi sho'rlik amakim.

– Xo'p desa, kaftimda ko'tarib yuraman, deyapti akam. Iltimos... hech bo'lmasa bir og'iz gaplashib ko'ring o'zi bilan.

Dunyo so'qqabosh erkaklarga to'lib ketgandek edi. Biroq!

– Yo'q, dedimmi, yo'q! – bitta so'zda turib oldi Shohsanam.

Sababini so'rganlarga tishini yormadi.

– Beshyog'ochlik kishi yomon odamga o'xshamaydi, – deya Sultonmurod-ni yangiliklardan xabardor qilardi xotini bilibmi-bilmaymi. – Shu kishiga tegsa bo'lardi. Ikkita bolasi bo'lsa nima qirti? Tayyor dastyor-ku ular. Boshqalarni-ku pisand qilmadi.

Sultonmurod churq etmasdi. Faqat yuzi avval oqarinqirab, keyin qog'ozga aylanib borardi...

Nazarida xotini «hamma gap»dan xabardor-u atay Shohsanam haqida «xush-xabarlar» topib kelayotganday... Bu dahshat! Axir yoningdagi odam ko'nglingdan nelar kechayotganini sezib tursa... azob bundan ortiq bo'ladimi...

Oradan ancha vaqt o'tdi. Kunlarning birida ishdan qaytayotgan Sultonmurod-ni mashina turtib yuborib yengil jarohat olib, kasalxonaga tushib qoldi.

Shu kuni ertalab havo bulut edi. «Yomg'ir yog'sa ehtimol», – deya o'yladi Sultonmurod zirqirayotgan jarohatiga kaftini bosib. U yostiقدan boshini ko'tardi deguncha deraza osha tashqariga termulardi. O'sha kuni ham u bir muddat dera-za raxiga peshonasini tirab turgandi. Qattiq o'yga tolganidan vaqt choshgohga yaqinlashganini, bulut ko'rpasi yig'ilib, osmonning bir cheti ochilayotganini ham payqamadi.

Bir mahal...

Yo Rabbiy!

«Yo'q, tush ko'ryapman, bu tush!...»

Sultonmurod ko'zlarini yumib-ochdi, ochib-yumdi hamki, qarshisidagi sarob tonggi shudringday yo'q bo'lib ketmadi. Ma'yus, mahzun jilmaygan chehra...

– Xudoga shukr...

– Sen?!.

– Ha... Ertalab... boya... eshitdim... eshitib qoldim...

Sultonmurod endi e'tibor berdi. Juvonning yuzi dokadek oppoq, nigohlari xavotirga to'la edi. U hatto tuzuk-quruq hol-ahvol ham so'rasha olmadi. Qattiq qo'rqib ketganida odam shu ko'yga tushadi.

– Qo'rqma, – dedi, deya oldi Sultonmurod. – Qo'rqma...

Juvon bosh irg'adi.

Bori shu.

Keyin u uzalib, qo'lidagi to'rxaltani deraza tokchasiga qo'ydi-yu ketdi.

Sultonmurod shu kuni kechgacha deraza oldidan nari ketmadi. U entikardi, xo'rsinardi. Kasalxona darvozasi tomon ketgan yo'lakka unsiz tikilardi...

Shu kuni u yana bir narsaga iqror bo'ldi: qalbida yashayotgan tuyg'u abadiyatda ham ruhini tark etmaydi!

– Nimaga o'zboshimchalik qilib yuribsiz? – deya so'roqqa tutdi xotini Sultonmurodning jabrlanuvchi sifatida da'vosidan voz kechganini eshitib, tutaqib ketganidan sira ham o'zini bosa olmay. – Xayolingizga nima kelsa qilaverasizmi? Xo'p, da'vo qilishdan voz kechish niyatingiz bor ekan, avval shartingizni aytmaysizmi? Jilla qursa kasalxona xarajatini ko'tarsayam hama edi-da!



Sultonmurod xotirjam tutdi o'zini. Xotini gapirganda ensasi qotmadi bu gal. Hatto unga kulib qaradi. Xotini uning yuzi tabassumdan bu qadar yorishib ketganini yaqin-o'rtada ko'rmagandi.

«Qanotim bo'lsa-yu qoshingga uchib borsam!»

Ammo endi u bo'z yigit emas.

Tangri yorlaqab unda qanot paydo bo'lganda ham endi uning yoniga bora olmasdi. Bunga iqror bo'lgani sayin ich-ichidan nimadir ko'tarilib tomog'iga tiqilardi-qolardi: «Tangrim...» Shohsanam esa yana uyiga qamalib olgan, tashqi dunyo bilan aloqasini uzgandi go'yo.

Bir kuni...

Xotini kechki ovqatni dasturxonga qo'yib, o'zi oshxona tomonga ketdi. Va zum o'tib qo'lida tuguncha bilan qaytdi.

– Sanam opamizning tobi yo'q emish, – dedi u Sultonmurodning savolchan nigohiga javoban. – Bora solib ko'rib kelay. Har qalay, bir ildizning tomirimiz...

Sultonmurod taxta bo'lib qoldi. Og'zidagi luqmani yuta olmadi. Gapirmoqchi, nimadir demoqchi bo'ldi, lekin tomog'iga qiltanoq tiqilib qiynalayotganday bo'g'zidan xirqiroq tovush chiqdi, xolos.

Xotini unga g'alati qarab qo'ydi-da, indamay chiqib ketdi.

Sultonmurod so'ri chetini tutdi. Kuchi boricha mahkam ushladi. Hozir kimdir oyoq-qo'lini chandib bog'lab tashlashiga-da rozi edi: Yo'q! Yo'q! Bu mumkin emas!..

Yarim soatlardan keyin xotini keldi. Rangi oqarinqiragan...

– Sanam opamizning ancha mazasi yo'qqa o'xshaydi, – dedi u so'ri chetiga o'tirarkan. – Voy Xudoyim-ey... Dard beraman desa oson ekan-da. Bechora... Adoyi tamom bo'pti!

Ayolning ayolga rahmi keldimi, ahvol jiddiy!

Sultonmurodning ichida nimadir chirt uzildi. Quloqlari shang'illadi. Xotini-ning javrashlari uzoq-uzoqlardan kelayotgan tovushdek elas-elas eshitalardi:

– O'zidan ko'rsin! Hammasiga o'zi, faqat o'zi aybdor. Vaqtida er qilganida bu azoblar yo'q edi. Hali bu kunlar holva. Bu hali azob emas. Haqiqiy azob hali oldinda! Bir kunlar turibdi hali. Qon yig'laydi, qon!..

Xotini bashorat qilgan halokat yaqinlashib qolgandek Sultonmurodni dahshat bosdi. Ko'zlarini chirt yumdi. Allazamonlardan buyon qadam tashlashga izn bermayotgan, temir to'siqdek yo'liga g'ov bo'lgan kuch iskanjasida to'lg'andi.

– Men o'shanda aytgandim, bilganday, ko'nglim sezganday aytgandim, – hamon labi-labiga tegmasdi xotini-ning. – Amakimga ko'nmasangiz, ana To'ychi muallimni ushlang degandim. Yolg'iz yashash oson emas. Issiq jon... O'zi meni norozi qilgan odam o'nglanmaydi!

– Bas qil-I!.. – tishlarini g'ichirlatdi Sultonmurod. – Bas qil-I!..

– Ha, namuncha...

Xotini-ning gapi chala qoldi. Sultonmurod kutilmaganda irg'ib o'mnidan turdi-yu, so'ridan sakrab tushdi va ko'cha eshik tomon otildi.

To'lin oy teraklar ustida osilib turardi. Allaqanday shovqin-suronsiz, mahzun kecha edi. Sultonmurod shu oqshom muyulish chetida qorayib turgan toshni ko'rdi. Va ancha vaqtgacha tosh ustida xayol surib o'tirdi. Keyin bor kuchi-yu irodasini to'plab, eshon buvaning nurayotgan uyi tomon yurdi.

– Bu hammasi... siqilganimdan... Qo'rqmang, o'tib ketadi, – dedi Shohsanam siniqlik bilan. Uning yuzi za'faron, ko'zlari kirtaygan, ozg'in vujudi nihoyatda behol ekanligi shundoq sezilib turardi.

Ayol nimanidir yashirayotgandek va buni kulgi bilan pardalayotgandek, ha-deb jilmayishga urinardi. Sultonmurod uy ichiga zimdan razm soldi: hammayoq shirshiydam, taxmonda to'rt-beshta ko'rpa-yostiqdan boshqa qo'lga ilinadigan narsa yo'q edi.

Juvon buni sezdi.

– Dori-darmonga deb... O'lsin, qancha dorini ichib yubordim. Bari bir foydasi bo'lmadi.

O'rtaga zilday sukunat cho'kdi.

Sultonmurodning nimadir degisi, ayolning ko'nglini ko'targisi, shu bilan o'rtadagi noqulaylikni ko'tarib tashlagisi kelardi. Lekin hali uyidan chiqmasdan oldin ich-ichidan turgan qaltiroq hamon bosilmagani sababli, sira ham gapira olmayotgan edi.

– Bilaman, mendan xafasiz, – deb qoldi juvon bir mahal.

Sultonmurod shuncha urinsa-da, eplolmadi – bo'g'zidan og'ir xo'rsiniq otildi.

Ayol ko'z uchida unga qarab turardi. Nimadir deyish lozim...

– Nimalar deyapsan... deyapsiz... Nega xafa bo'larkanman?..

– Bilmayman, hatto tushuna olmayman o'zimga-o'zim... Menga nima bo'lgan? Xuddi hushim o'zimda emasday... Mana hozir ham... – dedi ayol o'ziga-o'zi gapirganday past ovozda. Birpas jim turdi-da, so'ng yana dedi: – Ba'zida nimadandir juda bezovta bo'laman. Xayolinga nimalar kelmaydi? Mana hozir yana... Mendan nafratlansangiz ham arziydi... Men shunga loyiqman... O, yo'q, yo'q!..

Juvon yuzini kaftlari bilan to'sib, ho'ngrab yig'lab yubordi. Yuzi bir burda... Barmoqlari qonsiz va nimjon... Qoqsuyak yelkalarida ayanchli titroq...

So'nggi bardosh ham tugadi:

– O'zingdan-o'zing nimalar deb yotibsan boyadan beri, – deya gap boshladi yigit, go'yo juda ham oddiy narsa haqida so'zlayotgandek. – Hali... hali shunaqa bo'lmag'ur o'ylarni o'ylab, o'zingni o'zing kasal qilib yotgan ekansan-da. Men xafa emishman... to'g'ri, bir paytlar bo'lgan... shunday... Lekin keyin... bilsam, sendan nafratlanish tugul, xafa ham bo'lolmas ekanman...

Biror soatlardan keyin Sultonmurod o'rnidan qo'zg'aldi.

«Buning hammasi yolg'izlik oqibati... Uni tashlab qo'ymaslik kerak!» degan qarorga keldi u juvon bilan xayrlashayotib.

Shundan keyin u tez-tez Shohsanamning ahvolidan xabar olib turadigan bo'ldi. Ayol juda sekinlik bilan bo'lsa-da, o'ziga kela boshladi. Uning ahvol-ruhiyasidagi har bir o'zgarish yigitning nazaridan chetda qolmasdi: «Bugun u yarim

soatdan ko'proq gapirdi, harsillamasdan, xotirjam so'zladi. Hatto kulgisi ham jaranglay boshladi...»

– Menga turmushga chiq, – deya taklif qildi u kunlarning birida.

– Ilojim yo'q... – deya pichirladi juvon.

Yigit hayratdan dong qotdi. U ayoldan bunday javobni kutmagandi.

– Nega? Nima uchun? Meni o'ylayotgan bo'lsang ko'p qayg'urma, hammasini yaxshilikcha hal qilaman.

– Men u yog'ini o'ylayotganim yo'q.

– Nimani o'ylayapsan bo'lmasa? Seni bu hovlida nima ushlab turibdi? Na far... Kechirasan!

– Men bandiman...

– Tushunmadim...

– Yaxshisi, shunday yuraveraylik.

– Seni hech kimga ishonmayman. Hatto manavi soqov devorlarga ham...

– Bu devorlar soqov emas. Har oqshom ular tilga kiradi.

– O'lay agar, so'zlaringga tushungan bo'lsam.

– E, qo'yavering bu yog'ini. Boyagi gapim gap. Shunday yuraveraylik. Bizni hech kim, hech narsa ajrata olmaydi!

Yigit e'tiroz bildirmadi.

*«Balki u haqdir? – deb o'yladi ichida. – Ehtimol, shunisi ma'quldir...»*

Biz reja tuzamiz, ammo tasodif uni barbod qiladi. Kutilmaganda fojia yuz berdi. Ha, bu – tasodif, mash'um tasodif edi. Hatto g'ayritabiiy sir-sinoat edi. Kutilmaganda sodir bo'ldi u. Shohsanam yarim tunda qo'qqisdan gumburlagan momaqaldiroqdan cho'chib uyg'ondi-da, chidab bo'lmas darajada sanchayotgan yurak xurujidan yigirma daqiqa azob chekdi-yu... omonatini topshirdi-qo'ydi. Sultonmurod dovdirab qoldi. U hech narsani idrok qilolmasdi. Yo'q, idrok qilardi, ammo hech narsaga tushunmasdi. Axir shu kecha harorat qirq daraja issiq, havo qurib qolgandek nafas olish amrimahol, barqut osmonda yulduzlar charaqlab turar, qilt etgan epkin yo'q, lekin butun borliqni, kurrai zaminni larzaga solib, momaqaldiroq gumburladi!..

Yo alhazar!

Yer yorilib ketgudek bo'ldi-ya!

Dafn marosimidan qaytib, ochiqqanlaridan shosha-pisha ovqatlanayotgan er-kag-u ayol, odatdagidek, ya'ni boshqa hamma joyda bo'lganidek, marhuma haqida gapirishdi.

– Tavba, ming marta tavba, shunday qilib ham odam o'ladimi? Jon berish ham oson ekan-da. Birgina momoguldirak!..

– Yo'q, bu yerda boshqa bir gap bor.

– Sho'rlikning yuragi xasta ekan-da.

– E, u bo'ldi-bu bo'ldi, nima qilib bo'lsayam eshon buva zavjasini o'zining oldiga chaqirib oldi-da!

– Iye, uni qaranglar, parda qimirlayapti!

Sultonmurod ortiq dosh bera olmadi... Azaxonadan chiqib ketdi.

To'shakda ajriqqa ag'anagandek uxlolmagan yigit allamahalda asta o'rnidan turdi.

– Qayoqqa? – so'radi xotin.

– O'zim, shunday...

– Ertalab vaqtlı turishingiz kerak, uxlasangiz bo'lmaydimi?

– Uyqum kelmayapti.

Eshik xiyol g'iyqillab ochilib-yopildi.

Xotin ko'rpani yuziga tortdi: «Tavba!»

Kecha oydin edi.

Charaqlagan yulduzlardan yerga kumushrang yog'du to'kilardi.

Deraza yonidan o'tgan yigit birdan taqqa to'xtadi.

– Sen?!

– Ha, men...

– Axir, sen...

– Keta olmadim!

\* \* \*

*«Dunyo shunchalar go'zal!*

*Yayrab nafas olib yashaganga ne yetsin... Oy nurida tovlanayotgan yaproqlarning shovullashi qanday ajoyib...*

*Ammo...*

*Bu dunyoni siz borligingiz tufayli yaxshi ko'raman.*

*Siz tufayli!..»*

– Qayerlarda yuribsiz? – so'roqqa tutdi xotin.

– ...

– Birpasda yo'q bo'lasiz-qolasiz!

– Yomg'ir yog'ayotgan ekan. Yo'l chetidagi tosh ustida birpas o'tirdim.

– Birpas?! Qaysi yo'lning chetidagi tosh?

– Muyulishchdagi...

– Muyulishda hech qanaqangi tosh yo'q! Yomg'ir ham yog'mayapti! Qachonlardan beri osmondan bir tomchi tushgani yo'g'-u... Nega yolg'on gapirasiz? A, nega? Nima uchun? Hech bo'lmasa ariqdagi suvga bo'kib, keyin uyga kelsangiz bo'lardi!

– Men axir u yerda Xoliq amakini ko'rdim. Keyin anavi chol bor-ku, oti ni maydi, hah, tegirmonchi...

– Sho'rim qursin, axir ular allaqachon o'lib ketishgan-ku!

– ...

– Sizga bir balo bo'lgani rost.

– Bas qilsang-chi!

– Bas qilmayman! Nega endi bas qilarkanman? Men yerda yashayapman, sizga o'xshab osmonda uchib yurganim yo'q!

– Insof qilgin, charchadim, birpas mizg‘ib olishga qo‘yasanmi-yo‘qmi?!  
– Boring, do‘kondan bir qop un opkeling. Uyda bir hovuch un yo‘g‘-u, bu kishim!.. Qachon bolam-chaqam deysiz?

– E, bor-e!

*«Esingizdami, bir kecha tong otguncha uxlamasdan gaplashib o‘tirganimiz? Esingizda, a? Bilardim... Osmon bir boshqa bo‘lib yorishib ketgandi o‘shanda! Oy naq tepamizda turib olgandi. Xuddi bizdan uzoqlashgisi kelmagandek. Iliq shamol rayhon hidini dimog‘imizga urardi... Nazarimda, kecha-kunduz ham, oy-quyosh ham, hamma-hammasining bizga havasi kelardi».*

– Chik-chak... Chik-chak...

Sultonmurod cho‘chib ko‘zini ochdi.

Allakim deraza oynasini ohista chertgandek tuyildi. Yostiqlardan boshini ko‘tardi.

Xira yog‘du tushayotgan oyna ortida kimdir unga tikilib turardi.

Yigit ixtiyorsiz suratda o‘rnidan turdi.

Xotini qora terga botib uxlab yotardi.

Sultonmurod hovliga chiqdi. So‘ng ko‘chaga...

O‘n daqiqadan keyin u o‘zini xaroba oldida ko‘rdi.

Chiroq yoniq turardi.

– Kech kirishini ming azob bilan kutdim... – deya shivirladi juvon uning ko‘ksiga bosh qo‘yarkan.

– Men ham adoyi tamom bo‘ldim. Nega buncha shoshilding?

– Ixtiyorim o‘zimda emasdi.

To‘satdan javondagi idishlar jaranglab ketdi. Qandaydir ko‘rinmas qo‘l idishlarni bir-biriga urib, chil-chil qilayotgandek edi.

Juvon xijolatli kulimsiradi.

– E‘tibor bermang. Men o‘rganib ketganman...

U so‘zini tugata olmadi. Xonaning allaqaysi burchagidan eshitilgan ovoz juvonning ovozi bosib ketdi:

– Badbaxt! Yaramas! Tavqi la‘natimga uchradim! Qiyomat kuni ham seni kechirmayman!.. Ey, badbaxt! Azob farishtalariga topshirdim seni! Alar do‘zax o‘tidin toj kiydirurlar boshingga, qizdirilg‘on misdan libos kiyursan!

Juvon ikkala kafti bilan yigitning quloqlarini to‘sdi.

– Eshitmang!..

\* \* \*

Sultonmurod kimsasiz ko‘cha o‘rtasida turar, allaqachon qorong‘i tushib, yon-beridan odam oyog‘i tiyilganini, uyiga borishi lozim ekanligini fahmlardi, his etardi, ammo oyoqlariga tosh bog‘lagandek ularni yerdan uzolmasdi. Bir mahal allakim qo‘lidan tutgandek bo‘ldi. Qattiq seskandi. Uy tomon yurmoqchi bo‘ldi. Shu on oqshom hukmiga o‘tgan borliq bag‘ridan sirg‘alib o‘tgan bir nido quloqlariga urildi: *«Sulton...»*

*Yigit ikkilandi: bu odatdagi ovozga, odatdagi chorlovga o'xshamasdi.*

*Tag'in o'sha ovoz: «Sulton...»*

*Yigit garangsigan ko'yi ovoz kelgan tomonga yurdi: yana o'sha xaroba!*

*U tanish yo'lak bo'ylab ichkariladi.*

*Xona zim-ziyo.*

*Quloqni qomatga keltirgudek sukunat.*

*Vaqt to'xtagan, olam nafas olmay qo'ygandi go'yo.*

*– Bu yoqqa o't! – degan dag'al ovoz gulduradi. Qorong'ilikka ko'nika boshlagan yigit zulmat qa'ridan o'ziga qadalib turgan bir juft g'azabnok nigohlarni his etdi.*

*So'ng esa... shiftda osilib turgan oqish sirtmoqqa ko'zi tushdi.*

*Qaltirab ketdi.*

*– O'zingni os!*

*Tosh qotgan sukunatga birdan jon endi: xona shovqin-suronga, shivir-shivirlarga, sarosimali, qiroatli, yig'lamsiragan ovozlarga to'lib ketdi.*

*«– E Xudoyim!*

*– Yo Rabbiy!*

*– Boyaqish hali yosh ekan.*

*– Xayriyat, u bizdan emaskan. Men ukam Mirzapo'latmi deb o'ylab qo'rqib ketganimdan yugurib kelgandim. Xayriyat!.. Anchadan buyon betob edi-da...*

*– Nega menga tirg'alasiz hadeb?! Qayerga borsam ko'zingizni lo'q qilib turganingiz-turgan!*

*– Iye, bu Iskandar akaning o'g'li-ku! Voy sho'rlik... Iskandar akaga xabar berish kerak. Tezroq! Tezroq!*

*– Voy-bo'y, namuncha... Men bilan ko'rishmaslik uchun atay poyabzalingizni qo'lingizga olvoldingizmi? Pastkashligingiz qolmadi-qolmadi-da!*

*– O'g'lim!*

*– Bolam... Bolajonim... Yosh joningga javr qilma! Otasi, unga ayting, bunday qilmasin... Bolam!.. Darvoqe, eshon buva... Eshon buvaning oldiga borishim kerak! Yo Tangrim...»*

*– Bo'lsang-chi! Nega ikkilanyapsan? Bo'laqolsang-chi!*

*Sultonmurod toshday og'ir nigohlarini sirtmoqqa qadadi, bir necha soniya undan ko'z uzmad.*

*– Bu juda oson...*

*Sultonmurod beixtiyor sirtmoq tomon bir qadam tashladi.*

*«– Oh!*

*– Voy bechora...*

*– E, nega dod-voy qilasanlar? Qilg'ilikni qilgandan keyin jazosini olsin-da! Bundaylarning joyi do'zaxda!*

*– Do'zax shunday joyki!.. Do'zaxning o'tidin zarradek olib, uni tog' ustiga qo'ydilar. Bas, tog' aning issiqlig'idin simobdek erib ketdi...*

*– Yo tavba!*

– *Tangrim, uni o‘zing yorlaqa!»*

Sultonmurod sirtmoqqa qo‘l uzatdi. Qo‘li yetmadi, yetar-yetmas bo‘lib, havoda muallaq qoldi. Yana bir qadam... Bexosdan poyabzalining uchi qattiq narsaga tegdi. Munkib ketdi.

– Yo‘q, yo‘q, – degancha ortga tislandi u o‘ziga kelib.

– Qo‘rqma, – deya dalda berdi gulduragan ovoz endi bir oz yumshoq ohangda...

– Yo‘q!

– Bu juda oson...

Shu on bo‘shliq qa‘ridan suzib chiqqan sharpa tap tortmasdan dorga qo‘lini uzatdi va... xuddi shunday hech ikkilanmasdan – oddiy yumushni bajarayotgandek – sirtmoqni bo‘yniga soldi. Shundoq Sultonmurodning ko‘z oldida sharpa o‘zini osdi. Boshi ko‘ksiga osilgan... oyoqlari shalviragan... Yuzi esa... Hayratlanarlisi shunda ediki, u sharpaning yuzini aniq-taniq ko‘rdi. Darvoqe, yuz... yuzini qanday edi desa bo‘ladi? Yuzi... yuzi ulug‘ saodatga erishgandek mamnun va sokin edi!

– Nega bunday qildingiz? – deya qichqirib yubordi Sultonmurod beixtiyor.

– Nima qirman?

– U o‘lib qoldi.

– U o‘lgani yo‘q. Yaxshilab qara. Mana u yoningda turibdi.

Sultonmurod ko‘zlarini yumib-ochdi: yo alhazar! Sharpa boyagi joyida hech narsa bo‘lmagandek qaqqayib turardi!

Yigit aqldan ozayozdi.

– Hozir... Hozirgina u... – deya pichirladi quruqshagan lablari.

– U o‘lgani yo‘q, sirayam o‘lgani yo‘q.

– Aqlim bovar qilmayapti...

– Tasavvur qil, vujud – ulkan chig‘anoq, ruh shu chig‘anoq ichida dimiqib yotgan jonivor. Mana endi u ozod!

Sultonmurod yana sirtmoqqa ko‘z yugurtirdi.

– Bu juda oson...

– Bu juda ajoyib...

– Bu juda oson...

– Bu juda ajoyib...

Tarang tortilgan asablar bo‘shashdi.

Yigit o‘zi istamagan holda, lekin shunga majburdek sirtmoqqa qo‘l yubordi.

Shu vaqt...

Birdan yer-u ko‘kni larzaga solib, momaqaldiroq gumburladi. Chaqmoq chaqdi.

Shamol qop-qora bulutlarni haydab keldi.

Deraza sharaqlab ochilib-yopildi.

– Yo‘q! Yo‘q! – degan faryod eshitildi avval.

Keyin... Yo Rabbii!

---

Chaqmoq yorug'ida u ko'zga tashlandi. Mana u! Bor bo'y-basti bilan. Bu o'sha!

– Yo'q! – deya takrorladi u. – Yo'q! Bunday qilmang! Bu tuzoq... Bu fitna... – juvon yigit poyiga tiz cho'kdi. – U meni o'zi bilan olib ketmoqchi edi. U bilan ketsam gunohlardan forig' bo'larmishman. Jannat mening poyimda bo'larmish! Mag'firat nuriga yo'g'rilar emishman. Shunda buyuk azob kuni yorug' yuz bilan chiqar emishman. Aks holda ruhim yorug' dunyoda sarson-sargardon izg'ib yurarkan... Men shunisini tanladim. Dunyoni siz borligingiz tufayli yaxshi ko'raman! Qarang, shaftoli qiyg'os gullabdi...

Kutilmaganda xona ichi yorishib ketdi. Sultonmurod hayrat og'ushida juvonga boqdi. Sirtmoqqa uzalgan qo'llari bo'shashdi...

Ertalab uni xarobadan hushsiz holda topishdi. Tushgacha u qishloq kasalxonasida yotib, nihoyat hushiga keldi. Ammo... yigit tamomila aqldan ozgan, telba edi.

*«– Yo tavba, men ilgari ham bunday voqeaga guvoh bo'lgandim.*

*– Qachon?*

*– Million yil avval...»*



# Isajon Sultonov

(1967-yilda tugʻilgan)



Isajon Sulton 1967-yil 6-aprelda Fargʻona viloyati Rishton tumani Avazboy qishlogʻida tugʻilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1990). «Munajat» (1990), «Oydinbuloq» (1995), «Boqiy darbadar» (2011), «Ozod» (2012) va «Bogʻi Eram» (2015) kabi kitoblari nashr etilgan. «Boqiy darbadar», «Ozod» romanlari, «Munajat», «Onayizorim» qissalari hamda ellikdan ortiq hikoyalar muallifi.

Asarlari ingliz, nemis, turk va rus tillariga tarjima qilingan. Chikago shahri (AQSh) da oʻtkazilgan xalqaro adabiy asarlar tanlovi sovrindori.

J. Neru qalamiga mansub «Hindiston» asarining «Bobur» qismini, D. Bussati, R. Akutagava, U. Sayfiddin va boshqa dunyo adiblarining asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

«Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi (2014).

## SHAMOLLI KECHA

*«Yetim bola, hoy bola,  
Singling qayda, boy bola?...»  
R. Rahmatdan*

Dangʻaraning dashtida, shamolli kechada aka va singil buvilarinikiga ketib borishmoqda edi.

Qorongʻi tusha boshlagan boʻlsa-da, hali tevarakni enlab ulgurmagan edi.

Qarama-qarshidan esayotgan shamol shiddati ostida och kulrang tusli notanish butalar yovvoyi is taratib yulqinar, koʻtarilgan changu toʻzon isi ham tevarakni tutib ketgan edi. Yoʻl chetidagi oqish jiydalarning shoxlari uzilguday boʻlib yulqinardi. Qamishlar sinib ketgan poyalarini tiklolmay shovullardi, havoda toʻzon va qamish popiltiriqlari chirpirak boʻlib uchardi.

Aka oldinroqda, baquvvat bir tayoq tutgancha, yerni ura-ura odimlardi. U avvaliga singlisining qo'lidan tutib oldi, biroq eski xazonlar va mayda xas-cho'plar quyun chirpiragida ko'ziga tiqilib qattiq achishtirganida qo'lchasini qo'yib yubordi. Hozir qizaloq akasining ortidan chopqillab borar, shamol ko'ylakchasini-yu ro'molini yulqilardi. Pochasidan ingichka oyoqchalari ko'rinib turardi, ikki o'rim yovvoyi sochi kichkinagina guldor ro'moli ostidan chiqib qolgan, akamdan qolib ketmay deb deyarli yugurib borardi. Shamol ufurishlari ostida oldinga xiyol etkayib, ko'ylagi goho yelkan kabi shishib qadam tashlayotgan akasi ko'ziga hech narsadan qo'rqmaydigan g'oyat kuchli, yurakli botir bo'lib ko'rinardi.

Shamol esa goh yer betiga tushib, goh yuksaklarga ko'tarilib g'uvillab esardi.

Shamol bu makonlarda to'satdan qo'zg'aladi. Tog' oralarida yetilib, o'ngirlar orasidan o'kirib-vahshat solib chiqib keladi. Qishloqlarning naridan-beri ohaklangan devorlaridagi changlarni uchirib, tomlarning qumlarini sochib, ko'cha tuprog'ini to'zg'atib-to'zg'itib esaveradi. Makkapoyalarni ag'anatadi, kir o'ralarda hushtak chaladi, suvlarni chayqatadi, tepalarda g'uvillaydi, pastga tushganida chelaklarniyu cho'psavatlarni ag'anatib yumalatib yuboradi. Dala-dashtdagi yumron inlarini qum bilan ko'madi, ovsarroq qushlar qurgan uyalarni tamomila buzib tashlaganida jajji polaponchalari chirqillay-chirqillay yerga qulab tushib, vahshiy hayvonlarga yem bo'lishadi.

– Aka, sekinroq!

– Tez-tez yur dedim!

– Aka, jon aka, sekinroq yur, yetolmayapman axir!

Minglar ortda qolib ketgan, u yog'i Dashtqishloq. Dashtqishloqda bolalarning buvisi yashaydi. Bu ikkovlon shu bugun buvinikida yotib qolish uchun yo'lga chiqishgan.

Bularning onasi yo'q, bir necha yil avval kasal bo'lib olamdan o'tib ketgan. Baland bo'yli, kelishimli, yoqimli ayol edi. Bolalariga juda mehribon, bolalar ham uni juda yaxshi ko'rishardi. Qip-qizil, singib pishgan nonlar yopardi... Azbaroyi ayolining hurmati, ota anchagacha uylanmay yurdi, har kuni ertalab sahar chiqib ketib, shom qorayganida gandiraklay-gandiraklay kirib kelardiyu bolalarini quchoqlab, ko'zlaridan sariq yoshlari oqqancha bir nimalarni g'o'ldiray-g'o'ldiray axiyri uxlab qolardi. Bir necha oy shu alfozda kechdi, shunda buvilari jonga ora kirdi, qarovsiz qolgan bolalarni o'z uyiga bot-bot opketadigan bo'ldi. Nihoyat, ota to'ng'illay-to'ng'illay, birovlarining qistovi bilan Chomochdan bir beva ayolga uylandi. Bu beva xastahol, ozg'in, ko'p javraydigan bir xotin edi. Yil o'tmay ingichka, rangi siniqqan, ozib-to'zgan bir bola tug'di.

Aka-singil u chaqaloqdan begonasirashadi, yozg'irishadi. Shu sabab, hovlining ishlarini saranjomlagach, ko'pincha buvilarinikiga yotgani ketib qolishadi. Buvining uyi oddiy, kichkina, ammo osoyishtalikka to'la. Havosi sarin, yoqimli. Kichkina tokchada behi choy damlangan turadi. Sandal ustida qurutlar, turshaklar, vassalarga behi, olma, anor, uzum boshlari osilgan. Vassalarning soni to'qson to'qqizta. Yana, jiyda isiyam kepturadi.

Bugun shamol qo'zg'almasidan avval bolalar uy ishlarini bajarib ulgurishdi. Ota dalada, bola mol-holga qarab, o'tinlarni g'amladi, qizaloq esa katta qozonda suv isitib, tandirdagi kuldand qo'shib kir yuvdi, dorga qatorlashtirib osdi, xonalarni supirib-sidirib, eski sholchalarni tashqariga opchiqib qoqdi. O'gay uka nimagadir tinmay chirillab yig'lagani-yig'lagan. O'gay ona esa chaqalog'ining boshidan kelolmaydi, dumba yog'ini dokaga o'rab shimdiradi, bola chiqarib tashlab yana chirillaydi.

Shamol ana o'sha mahalda qo'zg'ala boshladi. Uning zo'rayishi o'ziga xos: avvaliga ekinzorlaru daraxtlarni silkitib-silkitib goh-goh shiddat urib turdi, paydar-pay esib, tandingning kullarini to'zg'itdi, kir o'ralarning zangor suvlarini chayqatdi. Aka-singil ertalabdanoq buvinikiga ketamiz deb ahd qilib qo'yishgan, chunki chaqaloqni qarg'ab javranayotgan kuyinchak bu ayol jonlariga tekkan. Yumushlar bitgunicha vaqt ham kech bo'ldi, tog'u tosh tepasida qoramtir bulutlar to'planib, ko'kni enlab kela boshladi. Birpasda to'zonlar uchdi, ko'chaning tuprog'ini to'zg'itib derazalarga olib kelib urdi.

Mana shu mahalda ikkovlon qo'l ushlab uydand chiqishdi-da, buvinikiga yo'l olishdi.

\* \* \*

... Havo bulut bo'lgani uchund shom ertaroq qo'ndi. So'qmoq yo'lning bir tomonida yovvoyi daraxtzor, bir tomonda to'qay boshlandi.

Shamol yanada kuchliroq esaverdi.

U osmondagi bulutlarni ham shitob bilan surib borardi. Bulutlar to'da-to'da bo'lib uyilar, goh oralari ochilib, bo'zrang oyning bir cheti ham ko'rinardi. Balki bir ozdand keyin yomg'iru jala quyib yuborar? Goh bulut oralaridan oy mo'ralaganida tevarak yorishar, shunda shamolning qilmishlari yanada yaqqolroq ko'zga tashlanar, atrof egilib-bukilayogan dov-daraxt, shox-shabba tovushlariga to'lib ketgan edi.

– Aka, qo'rqib ketyapman!

– Qo'rqma, nimadand qo'rqasan?

– Aka, sen qo'rqmaysan-a?

– Yo'q, men hech narsadand qo'rqmayman!

Shu mahal qizgina oyog'i allaqanday ildizga ilashib yiqilib tushdi. «Voy o'lay», deb hadik va qo'rquv aralash o'sha zahoti akasiga qaradi. Aka ortiga qaramay ketib bormoqda. Ozig'in yelkasinigina ko'radi qizaloq, ensasidagi sochi shamolda yulqinadi. Qizgina apil-tapil o'rmidand turib, ko'ylagini ikki qo'li bilan tutgancha yana akasining ortidand chopdi. Akasi hammadand kuchli, qo'rqmas yigit. Ana, qo'lida tayog'i, shamolda yulqina-yulqina adl ketib borayotir.

Bu qizginani Nozik deydilar. Ikki yuzi bo'g'riqqand, qo'lchalari-yu barmoqchalari qadoqli, kaftlari qavargand, lekin qiyiqqa moyil qora ko'zchalari kulib-kulib turadigand yoqimtoy qizaloq u. Nozik ismini buvisi qo'ygand. Onasi esa uni Nazokat deb chaqirardi. Xolalari uni Latofat deydilar. Dugonalari Nozi desalar, ammalari Go'zal deydilar... Qizginaning yoqimtoyligi rahmatli onasiga tortgand.

Yana, o'ziga o'xshagan jamalaksoch qizaloqlar bilan to'ptosh o'ynardi, goho lattadan qo'g'irchoq yasab, bolasini ovutardi. «Voy jonim bolajonim, ochqab ketdingmi?» deb o'zicha mehribonchilik ko'rsatganida, akasi uni masxara qilib kular edi. Qizginalar kichkina cho'plarni bir-biriga boylab, bir bo'lak matoni kiyim qilib kiydirib «mehmon-mehmon» ham o'ynashardi. Sumalak mahali tortina-tortina, katta xotinalarning «bo'l ha bo'l, uyalmaygina qol» deyishlari ostida ulkan kapgirni qozonga botirib, necha tosh chiqishiniyam ko'rardi, besh-oltita tosh chiqib qolsa uyalganidan qochib ham ketar edi.

Lekin hozir u sarosimada, goh mitti qo'lhalarini yozib, goh shamol yulqilatgan ko'ylagini tutib, akasining ortidan chopib-chopqillab bormoqda.

Aka do'q urgani bilan, o'zi qo'rquvdan dir-dir titrayotganini singilga sezdir-madi. Poyonsiz dashtda, shamolli kechada mana shunday borishyaptiyu kishilar orasida og'izdan og'izga o'tib yuradigan hamma vahimali narsalar hozir shamol qa'ridan chiqib keladiganday tuyulmoqda edi. Pastak notanish butalar ostida yo-vuz jinlar bo'lishi mumkin, ular shunaqa shamolli kechalarda yolg'iz qolib ketgan kishilarni poylab izg'ishadi. Shovullayotgan qoramtir daraxtlarning ustidan qilich ko'targan qora odam tushib kelishiyam mumkin. Ho'v anavi xaroba – kimsasiz eski machit ichida dev kutib turgan bo'lsa-chi? Ha, yo'l ustida hoziru nozir, bu suronda birov qichqirsayam eshitilmaydi, hammayoqni tabiatning nolalari tutib ketgan mahalda yo'llarda, daraxtlar ostidayu ustida mana shunaqa bemahalda yo'lga chiqqan yo'lchilarni adashtirib ketishadi. Adashganlarning ba'zilari qishloqqa sira qaytishmaydi, ularni keyinchalik ham birov ko'rmaydi, goho kimdir qandaydir tasodif sabab qaytib kelsa ham esdan og'ib, og'iz-burni qiyshayib qolgan bo'ladi.

Shunday mahallarda vahimalar girdobida adashib ketganlarning nimalarni ko'rishganiniyu nimadan buncha qattiq qo'rqishganiniyam birov bilmaydi. O'z-lari esa, aytib berisholmaydi.

\* \* \*

... Oy bulutlar ostiga yana kirib ketdi. To'lqin-to'lqin bulutlar ko'k yuzini tamomila qoplab oldi.

– Aka!

– Yursangchi tez-tez, «aka»lamasdan!

– Aka!..

– E, nima deysan?

– Akajon!..

Shamol battar shiddat urardi. Shunda daraxtlarning ko'lankalariga jon kirgan-day bo'ldi. Bir buta o'rmidan ilkis qo'zg'alib yo'l ustiga tashlandi. Yum-yumaloq kattakon bir narsa shundoq yonginasidan yumalab o'tib qamishlar orasiga kirib ketdi. Akaning esiga buvisining ertaklaridagi dahshatlar keldi, go'yo bu allaqaysi jodugarning kesilgan boshi-yu «Hap sanimi!» deya kimnidir yaniy-yaniy yumalab borib chuqurga tushib ketganday! Daraxtlar shoxlarini cho'zib, yolg'izoyoq yo'l-

ga yaqinlashib kela boshlashdi. Akaning yuzlari muzlab ketdi, Aksiga olib uzoqlarda chiroq ham ko'rinmaydi. Chunki qishloqdagi chiroqlar shamolda o'chib qoladi. O't chiqib ketmasin deb ko'pincha sham ham yoqmaydilar. Qo'y-ko'zilarining ba'rashlariniyu kuchuklarning vovullashlarini shamol uchirib ketadi.

– Aka, akajon!..

Yigitcha yo'qdan bino bo'lgan qo'rquvini yengishga urinardiyu shu shamol ostida chayqala-chayqala, tizzalari dir-dir qaltirab qadam tashlar edi. Jonholatda yugurib qochgisi kelardi. Lekin, qayoqqa? Buvining qishlog'igacha ancha bor, tevarak yulqinayotgan, shitirlyotgan, ingranayotgan daraxtlaru butalarga to'la. To'qayzorda vahshiy hayvonlar ham bo'lishi mumkin. U tayog'ini yanada mahkam qisimlab oldi. Ozgina yurishsa, buvining qishlog'iga yetib olishadi. Dasht-dalalar uzra g'uvillayotgan bu shamol hozir, shu pallada qo'rqinchli, xolos. Ertaga tong otsa, sira qo'rqinchli bo'lmay qoladi. Hozir o'tayotgan yerlaridan ertaga kunduzi o'tsa, hamma narsa tinchlanib-sokinlashgan bo'ladi. Lekin, hozir nega bu qadar qo'rquv uyg'otayotir? Qorong'i bo'lgani uchunmi? Ha, qorong'ida narsalarning ko'rinishlari o'zgarib ketadi, vahima kuchayadi. Aslida yo'lga chiqish-masa bo'lar ekan. Nimagayam chiqishdi? O'gay onaning yonida, chaqaloqning big'illashiyu otaning to'ng'illashi ostida bo'lsayam tinchgina uxlagani yaxshimasmidi? Yaxshisi ayvonda, ko'rpaga burkanib olib shamol ovozigga quloq solib uxlayverardi. Shamolda teraklarning qarsillab sinishini eshitib yotish mazza... Bu dashtdan ham qarsillayotgan ovozlar kelmoqda, balki qanaqadir daraxtlarning shoxlari sinayotgandir? Butalar mustahkam, bari yer bag'irlab qolgan, qayishqoq, dashtning butalari shamolga moslashib ketishgan.

Hech bo'lmasa oy bulutlar ostiga kirib ketmay tursaydi. Lekin oy chiqsa, vahima yana kuchayadi. Oy yog'dusida dashtda nimalardir harakatlanayotganday tuyuladi. Yurak yana shuvillab ketadi. Tezroq, tezroq yurib buvnikiga yetib olish kerak. Adashtiruvchilar balki rostdan ham bordir? Nega bo'lmasa kap-katta odamlar ham ularni gapirib yurishadi?

Yigitcha shu tarz qadamini ildamlatib, deyarli yugurib bormoqda edi. Qamishlar orasida bir nimalar qattiq shitirlar edi. Balki u yerda ham qanaqadir vahshiy hayvonlar qulay payt poylab yugurib borishayotgandir? Tezroq buvnikiga yetib olishsaydi...

\* \* \*

... Nihoyat, qishloqning daraxtzorlari qorayib ko'rindi. Shamol yanada avjiga chiqqan, daraxtlarning qurigan shoxlari bu yerda ham qarsillab sinardi. Chapdagi zovurning do'nglari ustida bo'g'iq hushtak chala boshladi. Qishloqda ovozlar o'zgacha, dashtdagi kabi yovvoyi, hurkituvchi emas. Bu yerda ham nimalardir taraqlayapti, kimningdir eshigi shamolda ochilib-yopilib g'iyqillayapti, kuchuk vovullashi eshityapti.

Tuprog'i to'zg'ib yotgan ko'chadan deyarli chopib borar edi yigitcha. Hech qayerda chiroq yo'q, ho'v naridagi ba'zi uylarning kichkina derazalarida sham

yog'dusi lipillamoqda. U uydagi kishilar balki hozir bamaylixotir gurunglashib o'tirishgandir? Yigitchaning yuragi qiniga sig'may ura ketdi, ich-ichidan g'alati, yovvoyi sevinch ko'tarilib keldi. U qah-qah otib kulib yubordi, nafasi tiqilib-tiqilib kulardi... Nihoyat, buvining eski uyiga ham yetib keldi. Ichkari tomonidan zulfini ilingan eshik ham shamolda taqirlamoqda edi, yelkasi bilan qattiq turtgan edi, ochilib ketdi.

– Buvi-i! Buvi-i! – deb ovoz berdi u.

– Voy xayriyat-ey! Voy xudoga shukur-ey! – saldan keyin shamolning uvil-lashlari aro odam tovushi kelishini ishonib-ishonqiramay kutib o'tirgan buvi ka-lishini apil-tapil kiyasola, chiqib keldi. – Eson-omon yetib kelvoldilaringmi, bo-lajonlarim, qo'rqib ketmadilaringmi?

– Yo'g'-e, nima deyapsiz, shamoldanam qo'rqamanmi? – dedi yigitcha kek-kayib. Yuragidagi yovvoyi quvonch va xotirjamlik endi unda o'smirona g'urur uy-g'otdi. Qo'rquvi chekingan, boyagi vahimalari kulgiliyu bema'ni tuyula boshladi.

– Voy, buving cho'ri, botirimdan o'rgilay! – dedi buvi.

So'ng, chiqayotgan joyida to'satdan to'xtab, sarosimalanib so'radi:

– Hoy o'lgur, singling qani?

Yigitchaning yuzidagi baxtiyorlik ifodasi birdaniga g'oyib bo'ldi, go'yo u ifodani ham shamol uchirib ketganday edi. Hang-u mang bo'lib ortiga alangladi.

Singil yo'q edi!

– Yigit bo'lmay o'l, Nozik qani?

Nariroqda, egilib-bukilayotgan daraxtlar ostida ham, hozir oy xira yoritib tur-gan tuproq yo'lda ham qizaloq ko'rinmas edi.

Boyagina «aka-aka»lab chopqillab ortidan kelayotgan edi-ku? Kichkina gul-dor ro'moli ostidan ikki o'rim yovvoyi sochi tikkayib chiqib turgan edi-ku? Po-chalaridan ingichka oyoqchalari ko'rina-ko'rina, goh tevarakka «voy o'lmasam» deya alanglab-alanglab, goh akasining kuchu qudratidan bolalarcha mag'rurla-nib-faxrlanib, ko'ylakchasini shamol yulqilay-yulqilay chopib-chopib kelayot-gandi-ku? Qani qizaloq? Qay yerda qolib ketdi u?

Ko'chalar, bog'lar, yulqinib-silkinayotgan bu makonlar bo'm-bo'sh, faqat-gina shamol – odam yashamaydigan uzoq tog'larning yolg'iz qoyalari orasidan chiqib kelgan mana shu vahshiy shamolgina butun olam uzra yoyilib-sochilib shiddat urmoqda edi, xolos.

\* \* \*

Dang'araning shamoli – bahaybat tog' oralaridan ko'zga ko'rinmas benihoya ulkan maxluq singari chiqib kelgan shu shamol o'kirib-pishqirib rosa esdi!

Shu turishda u hozir Qirqlar, Minglar, Aravon, Jilva, Chomoch, Soyilar, Nay-man, Begovot kabi yuzlab qishloqlar ustida to'zon va qum sochib vahshat solib, chunon o'kirib-o'kirib o'tdi-ki!

Daraxt oralarini aylanib-aylanib esishida nola ohanglari borday edi. Kuch va qudratini insonlarning omonat makonlari uzra namoyon qila-qila, goh bo'z-

lay-bo'zlay, goh nolon-nolon, goho esa isyon ila qichqira-qichqira, shiddati pasayganida esa ingrana-ingrana esaverdi.

Uning esishida boshqa ma'nolar ham borga o'xshardi.

«Yetim bola» deb ovoz chiqardi u tomorqalar ustida.

Ayqash-uyqash bo'lib sinib ketgan juxorizorlar uzra esa «Hoy bola» deb dag'dag'a qildi!

Va qahqaha urib, sho'rlik akaning sochlarini uzib olguday bo'lib yulqilayverdi:

«Yetim bola, toy bola,

Singling qayda, boy bola?..»

\* \* \*

Bu - hayotda juda ko'p voqealarni ko'raverib diydasi qotib ketgan kampir edi. Lekin hozir sarosimaga tushib, vahima va qo'rquv ila yigitchaning sochlaridan tortib, mushtlari bilan boshiga ura-ura, yig'lay-yig'lay nido qilardi:

– Aka bo'lmay o'l, top singlingni, qirilib ketgur! Bor, qayt izingga, topolmasang o'sha yoqlarda o'lib ket!

Ha, butun bu bepoyon kengliklarni birday enlab, quturib-vahshat solib esardi shamol.

Yigitcha bir tomondan or-nomus titrog'i, bir tomondan yana o'sha vahimalarga ro'para kelishning qaltirog'i ila ortiga o'girildi.

Sal narida qishloq uylari tugab, yana kimsasiz dasht, g'alati oqish butalar, goh yakkam-dukam, goh qalin, ayqashib ketgan qamishlar, yulg'unlar, to'rong'illar to'la yaydoq dasht boshlanib ketgan, battar quturib esar edi Dang'araning tentak shamoli.

Bu yigitcha, onasining yolg'iz yodgori, o'sha qo'rqinchlar bilan yana yuzmayuz kelishi kerak edi.

Yuzma-yuz kelishi nimasi, orasida sanqib, mitti va yoqimtoy qizaloqni izlashi kerak edi. Daraxtlar ustidan tushib keladigan qilich ko'targan qora kishi, butalar tagida olov yoqib o'tirgan odamchalar, nima uchun kimsasiz makonlarda kezib yurishlarini birov bilmaydigan g'alati kishilar, qamishzorlar ichra qulay payt poylab yugurgilab borayotgan vahshiy hayvonlar izg'igan dasht aro... nozik-nihol singilchasini topishi kerak edi!

Vahshiy shamol endi uning yuz-ko'zlariga, boshiga tuproq sochar, sochlaridan yulqilab qiynar edi. Uning shiddatida kampirning yog'och eshigi taraqlab yopildi, yopildiyu yana qaytib lang ochilib ketdi.

Yigitcha yana ortiga qarab yo'lga chiqdi.

Kim bilsin... ichidagi shiddatli qo'rquvlarni yengib u makonlarda izg'igani taqdirda ham, toparmikin singlisini? Bu taloto'p va suron ichra nafis-nihol qizaloq qaysi puchmoqlarda ekan hozir? Yeru ko'kni enlab-buzib esayotgan va jonli-yu jonsizni harakatga keltirib quturayotgan bu yovvoyi shamol ostida, qay buta yoki daraxt tubida, qay chuqurda akasini kutib dir-dir titrayotgan ekan?

Mabodo topgan taqdirda ham... qay ahvolda toparkin?

Topa olarmikin?



# Qo'chqor Norqobil

(1968-yilda tug'ilgan)



Qo'chqor Norqobil 1968-yil 5-martda Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi Mo'minqul qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist (2001). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1992). «Daryo ortidagi yig'i» (1994), «O'n sakkizga kirmagan men bor» (2002), «Kulib tur, azizim» (2005), «Quyoshni kim uyg'otadi?» singari nasriy hamda «Xosiyatli dunyo» (1992), «Kaftimdagi qizg'aldoq» (1993) she'riy to'plamlari nashr etilgan.

A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov, S. Esenin, E. Evtushenko kabi shoirlarning nasriy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

## NOZI... NOZIGUL

Bostirma tomondan kampirning gulduragan ovozi keldi:

– Egamboy-u-v, Egamboy! Egamboyu-u-v.

Peshayvonli uy darchasi sharaqlab ochildi. Darchadan yalang'och gavdasini beligacha chiqargan bo'z yigit jahl bilan o'shqirdi:

– H-a-a! Nima deysiz?

– Turdingma-a, bolam?! Turdingma?

– Kallai saharlab qishloqni boshingizga ko'tarasiz-a. Odamga uyqu bermay-siz!..

– Otali olti to'ydi, enali yetti to'ydi, bolam. Senlar uxlayverasan-a?

– Ena-a-a! Sizga nima zaril-a? Nima zaril?! Itga tinim bor, qushga tinim bor, sizga tinim yo'q...

Deraza eshigi sharaqlab yopildi. Bostirma tomondan kampir nimadir deb o'dag'ayladi. Dahliz eshigi ochilib, Egamboy tashqariga chiqdi. Hovlidagi tol tanasiga o'rnatilgan yuzqo'lyuvg'ich chumbiliga sharaqlatib-sharaqlatib urib, hov-



uchiga suv olib yuzini yuvdi. Supada cho‘zilib yotgan akasiga ham havas, ham hasrat bilan qaradi: «Buning joni jon-u, bizning jonimiz – boyimjon». Sarvi kelin qo‘lidagi chelakni daranglatib nimadir, deb to‘ng‘illab o‘tib ketdi. Buyam jimgina o‘tmadi: «Sira ovozi o‘chmaydi-ya...» Shu mahal buzoq cho‘zib mo‘ladi. Sarvar ichida so‘kindi. Kinga aytdi. Buzoqqami? Buzoq buning gapidan keyin mo‘-o‘ladi-yov. Enamga aytdi. Enamga!

... U boshi lo‘qillab og‘riyotganini his qildi. Ko‘kda yulduz xira nur sochyapti.

«Uni ham xuddi shu yulduz kabi yo‘qotib qo‘yganman. Qancha urinmay taqdir uni mendan yulqib oldi...» Ich-ichini kuydirib, bo‘g‘zini shisha siniqlariday tilib o‘tgan shu so‘zlar beixtiyor sokin tong bag‘riga sanchilganda, Sarvarning ko‘kka tikilib toliqqan nigohidan bir tomchi yosh sizib, yonog‘ini kuydirdi. U og‘ir yutinib nigohini yumdi.

O‘sha paytlar ham tonglar xuddi mana shunday sokin otardi. Borliq go‘yo sutga cho‘milib uyg‘onardi. Bog‘lar shunday titroqli va sirli edi. Bog‘ etagida anovi devor ancha pastqam va g‘arib ko‘rinib turibdi, sharqirab suv toshib oqayotgan katta ariq ham kichrayib qolganday. Lekin tongning otishi, borliqning sokinlik ichra to‘lg‘onib hayotga peshvoz chiqishi o‘sha-o‘sha. Oradan shuncha yillar o‘tibdi. Tong jozibasi sira o‘zgarmagan.

Sarvar yana o‘sha yigirma uch yil oldingi so‘nggi uchrashuvni esladi. Nozigul bilan uchrashgan, o‘sha taqdiridagi eng baxtli lahzani, hayot daryosini boshqa o‘zanga burib yuborgan tongni yodga oldi.

... Nozigullarning hovlisiga tutashib ketgan Xolli kalning bog‘idagi dov-daraxt borki, boshini yeb meva solgan. Shaftolilar larzon yukdan qars-qars sinib, yer bilan bitta bo‘lib yotibdi – huzurini yer ko‘rayapti. Olmalarning egik shoxlari bog‘ni oralab o‘tishga yo‘l bermaydi. Bog‘ ichidagi shudring ingan yo‘ng‘ich-qazorni oralab hovliqib kelayotgan Sarvarning ko‘zi adoqdagi Nozigulga tushdi. Yuragi o‘ynab, hapqirib ketdi. Nozigulmi shu?! Qizni ko‘rmaganiga ikki yil bo‘ldi.

Qiz o‘girildi. Sarvar bir zum tosh qotib turdi. Qizning tiniq tabassum porlagan yoniq chehrasiga, qarashiga dosh berolmadi. Yuragi to‘xtab qolayozdi. Kalovlandi.

– Nozi...

– Salom, Sarvar. Yana kechikdingiz, – qiz qo‘lini uzatdi. Sarvarda jon qolmadi. Qizning barmoqlari kaftini kuydirib, vujudini qaltiroq bosdi. Qizning porlab turgan ohu ko‘zlarida kishini esdan og‘dirar bir kuch bor edi.

– Sog‘lig‘ing yaxshimi, Nozi? O‘zgarib ketibsan.

– O‘zingiz-ku, ikki yildan beri xorijlik bo‘lib, ko‘rinmay ketdingiz.

– O‘tgan yili kelganimda vodiya ketgan ekansan.

Qiz kulimsiradi:

– Nima qilay? O‘qishga kirolmadim. Rosa siqildim. Keyin Farg‘onadagi xolamnikiga ketdim. Qishloqdagilarning ko‘ziga ko‘ringim kelmadi.

Qiz qo'lidagi og'ziga oq surp to'silgan tolsavatni Sarvarga uzatdi. Sarvar qiz uzatgan savatni oldi. Ux, buncha zil-zambil bo'lmasa.

– Nozi, bu nima?

– Uzum. Surxa, oq kishmish, tuyatish. Sizga deb terdim.

– Nozi, halidan beri shu zil-zambilni ko'tarib turganmidings. Qo'llaring tolib ketibdi-ku-a, Nozi?

– Nima bo'пти.

– Haliyam esingdami?

– Esimda... Sizga bog'imizdan uzum terib olib berardim.

– Uzuming surxa, oq kishmish, tuyatish bo'lardi. Unda sen kichkina eding.

– Unda siz ham bolakay edingiz.

– Sochlaring qo'ng'ir-qo'ng'ir, patila edi.

– Sizning esa boshingiz doimo tap-taqir, sochingiz olingan bo'lardi.

– Nozi, bog'laringdagi o'sha uzumlar haliyam bormi?

– Bor. Shu uzumlar o'sha toklarning hosili.

– Nozi, sen bularni men uchun olib kelding-a.

– Ha...

– Men sening bog'ingga o'zgalar qo'l cho'zishini xohlamayman. Seniyam, o'sha bog'ingniyam hech kimga bermayman.

– Chiroyli gapirasiz, baribir, shoirsiz-da.

– Chin gapim, sendan ayrilmayman...

– Ayrilsangiz-chi?

Qiz yalt etib qaradi. Qizning yurak tubidan bir nido otilib chiqdi. Qiz beixtiyor og'zidan chiqib ketgan shu so'zni bemavrid aytib yuborganini his etib, bir seskani tushdi. Endi kech edi.

– Ayrilmayman. Qasam ichaman, seni menga ravo ko'rmagan bu dunyoda toq o'tganim bo'lsin!

Qiz yig'lab yubordi. Ikki qo'li bilan yuzini to'sib yig'ladi.

– Unday demang. Unday demang. Qasam ichmang...

– Men aytadiganimni aytdim, Nozi.

... Sarvarning o'rnidan turishga majoli yetmadi. Boshi orqaga tortib og'riyapti. Yosh qirqdan oshgandan so'ng har qanday to'yu hasham, dabdabayu as'asalar og'irlik qilarkan. Kechagi yig'inda o'ziyam hayajonini bosolmadi.

Tadbir ertalabdan boshlandi. Dastlab maktab bog'ida qishloqdoshlar bilan uchrashuv bo'ldi – yozuvchi Sarvar Sardor ijodiga bag'ishlangan adabiy yig'in. Sarvar katta shaharlarning ulkan anjumanlarida ko'p qatnashgan, ancha-muncha ijodiy uchrashuvlarning ko'rki bo'lib savlat to'kkan, qolaversa, o'z ijodidan ham xijolat tortadigan joyi yo'q. Biroq kechagi qishloqdoshlari, sinfdoshlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda o'zini o'ng'aysiz sezdi, negadir odamlardan uyali ketaverdi. Bu sodda va samimiy, mehnatkash kishilar qarshisida hayot haqida badiiy gap aytishga tili bormadi, ular huzurida g'o'ddayib turishi o'ziga erish tu-

yuldi. O'la-a, Tolstoy yoki Chexovmisan, kimsan, hech bo'lmasa Shukur Xolmirzaevmisan deydigan odam yo'q. Bolaligi mana shu odamlar orasida kechdi. Nimani o'rgangan bo'lsa, shulardan o'rgandi, shulardan topdi, nimani yozgan bo'lsa shularda ko'rganini yozdi. Elchilik-da, yaxshisiyam bor, yomoniyam. Bu odamlardan o'tib bir narsa deb bo'ladimi? Tumanning rahbari hashuva gaplardan narvon yasab Sarvarni yurtning faxr-iftixoriga mengzadi. Viloyatdan kelgan vakil «osobyu iste'dodlar qatori»da turgan, poytaxtda ijod qilayotgan hamyurtiga zar chopon kiygizdi. Xonaki xonandalar Sarvarning hurmati «klassika»dan kuylagan bo'lishdi. Xullas, bir yo'qlab kelibsiz, deganlariday bu olqishu zamzama Sarvarga ortiqchaday tuyuldi. Ayniqsa, yig'indagi qishloqdoshlari orasida sinfdoshi Norsuluvni ko'rib o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Bunga nima bor bu yerda? Qarib qopti. Hey, yillar shunday qizniyam qaritibdi.

Iljayib turishidan hamon o'sha yo'rgakda tekkan kasalligi – betgachoparligi qolmaganga o'xshaydi. Yomon qiliq yo'g'onni yo'nar... Beti qattiq qiz edi. Yuzingda ko'zing bormi demasdi-ya. Nega buncha iljayadi. O'rmdan turib savol-pavol berib qolsa-ya? Men siringni bilaman, deganday ma'noli qarayapti.

Yo o'ziga shunday tuyulyaptimi? Shuncha yillik dardi-holning issig'i endi kimni ham isitardi. Bu shaddod echkinining esiga eski gaplar tushayotganga o'xshaydi. Ko'zini uzmay iljayadi-ya...

I-i-i, o'rmdan turyaptimi? Ha, gapirmoqchi? Ey Xudo, o'zing sharmanda qilma.

Norsuluv o'rmdan shahd turib, so'z qotdi:

– Assalomu alaykum, sinfdosh. Siz bizning paxrimizsiz. Ko'p kitoblar yozdingiz. Rahmat hammasi uchun. Vatanga, xalqqa, el-yurtga bo'lgan sevgi-muhabbat haqida chiroyli gapiringiz. Lekin insonga bo'lgan sevgi-muhabbat haqida nima deysiz?

Davranning u yer-bu yeridan yengil kulgi shabadasi esdi. Uh, yomon qildi. Bexato urdi. Sarvar bir chayqalib tushdi. Norsuluvga norizo qiyofada ko'z tashlab qo'ydi, so'ng yuzida yasama tabassum qalqdi. Nimalardir, deb mujmal javob berdi.

Sarvar bilan Nozigulning tilga ko'chmagan muhabbat yukini sinfdosh-partadosh Norsuluv ham ko'tarib yurdi. Lekin birovga churq etmadi, sir sotilmadi. Mard ekan, tanti ekan. Shaqir-shuqur bo'lgani bilan og'zi mahkam ekan. Baribir Norsuluv bu ikkoviga xayrixoh edi. Bugun o'sha yukning hissasini chiqarmoqchi. O'chini olmoqchi. Nima desangiz deng, ayol ayol ekan-da! Heh. Norsuluv, Norsuluv! Nima qilasan eski dardni qo'zg'ab. El-yurtning ichida piching qilishing shartmi? Yolg'iz qolay, yuzimga tarsaki ur, g'ing desam o'lay agar, Norsuluv!

Xayriyat tadbir yaxshi o'tdi. Yig'in tugagach odamlar orasidan ajralib, o'zi tomon kelayotgan Norsuluvni ko'rdi. Sarvarning yuragi shig' etdi. O'zini ko'rmas-ganga oldi. Hokim bilan allanimalarnidir gaplashib, go'yoki hardamxayol alfozda mashina orqa o'rindig'iga o'tirib jo'nab qoldi.

... Tong yanayam yorishdi. Yerni yostiqlik, osmonni ko'rpaga qilib chalgayramon cho'zilib yotishni o'ziga ep ko'rmadi.

O'rnidan shahd turib yarim yalang'och holda hovli etagiga qarab ketdi. Ichi yonib, tutadi. Bo'g'ziga nimadir tiqildi. Hovli adog'ida sharqirab oqayotgan bog'ariqqa o'zini tashladi.

Ariqdagi tez oqar suv uning dardi-hasratini olib ketayotganga o'xshardi. Biroq yurak tubida cho'kib yotgan bu dardi-hasratdan uni dunyoning hech bir mo'jizasi xalos etolmasdi. Bu dard birgina Yaratganga va o'ziga ayon edi.

Bu dard Noziguldan boshlanib, Nozigulda tugaydi. Bu dardning boshiyam, o'rtasiyam, oxiriyam Nozigul edi...

Tog' yelkasiga mingan oftob shu'lasi yoyilgan tonggi osmon guvoh. Sarvarning qalbini jizg'anak etgan armon o'ti kundalik g'imir-simir qoshidagi qishloq odamlariga begona edi. Ahli qishloq bilgani shu: bu savdoyi shuncha obro'-e'tibori bilan bo'ydoq. Odamovi. Qirqdan oshdiki ro'yi-ro'zg'orining tayini yo'q...

Kechagi to'yda ham dastlab jin chalganday, bir narsaga yo'liqqanday bo'lib o'tirdi.

Sinfdoshi In'om injiq to'yga chaqiraverib qo'ymadi. To'rt-besh marta odam yubordi. Oxiri xotinini yetaklab o'zi keldi. Pisanda qildi: «Sen endi katta joylarga borasan. Bizlar bir panadagi paqir, betkaydagi taqir bo'lsak...» Boshqa gaplarni ham gapirdi. Mulzam qildi. Boraman dedi. Injiq buning so'zini oldi, keyin ketdi.

Injiq tumandagi gaz idoraning kattasi. Dami o'tkir. Qishloqdoshlarga kunduz kuni uyida to'y berdi. Nufuzlilar tuman markazidagi restoranga, kechki bazmga aytili. Odmilar oldidan o'tishga hayiqadigan yakka-yu yagona hashamatda Injiq to'y bermay kim to'y bersin...

Sarvarni tumandan uzilib, bu yerga oyoq bosmaganiga ancha bo'lgandi. Bir paytlar it adashmaydigan bunday joylarning bunchalar dovdaskasi baland bo'lib shaharmisan shaharga aylanib ketgani hayratini oshirdi. Toshkent deysizmi, Yevropa deysizmi bemalol kelib tomosha qilaversin – kam joyi yo'q. Ay-ey, oltinsoyliklar Parijda o'tiribsan-a, ukkag'ardi ulari deyidigan kimsa yo'q. Sarvar to'yga biroq kechikib keldi. Unga ostonada In'om injiqning o'zi peshvoz chiqdi. Devori tillarang naqsh saroymonand restoranda mehmon gavjum. In'om injiq Sarvarni keng-mo'l restoranning alohida kazo-kazolar uchun ajratilgan maxsus xonasiga boshlamoqchi bo'ldi. Sarvar ichkariga hatlab o'tishi hamono ostona yonida, davra chetidagi uzun stol atrofida gildardan bir necha kishi o'rnidan turib, unga qarayotganini sezdi. Ana, kimdir qo'l siltayapti.

– Ey-ey, bular sinipdoshlar, tanidingma? Sinipdoshlarga ham otdelniy joy qildik. Endi to'planishyapti. Sen ularga e'tibor berma, qani hayda, to'rga haydayber, osobiy joy bor... Hokim, prokuror, nachal'nik milisa, soliqning boshlig'i, yana viloyatdan kelgan kattalar bor. Seni kutishyapti.

Sarvar bazmxona etagida, ostona yonida tuzalgan stol atrofida gildarlarga ming bir xijolat girdobida boqdi.

– Nima deyapsan? Axir sinfdoshlar yig‘ilgan ekan, men ham ularning yoniga boraman. Ular nima deb o‘ylashadi?

– Qo‘y, bulardi. Katta odamsan. Kattalarga qo‘shil. Kutishyapti.

Sarvarning jahli chiqdi.

– Men to‘yga keldim. Qaysi davrada kim bilan o‘tirish o‘z xohishimda.

O‘n yil bir sinfdi o‘qigan bo‘yinsalar orasida yakkamoxovga aylanib turmaslik uchun bosib-bosib ichdi. Keyin... o‘yinga chiqdi. O‘zicha nimalarnidir gapirdi, nutq irod etdi. Lekin ko‘pchilik unga ko‘ngli yarim odamga qaraganday qaradi. Sinfdoshi Sobir xuddi bir gunoh ish qilganday uzrxohlikka o‘xshash ohangda gapirdi: «Oshna, ro‘zagacha o‘g‘limni uylantiray, devdim. To‘yga, albatta, kel». Bir haftadan keyin Maysara qizini uzatarkan, unikidayam to‘y, taklif qildi. Anorxol nabirali bo‘libdi. Xullas, hammasi kap-katta odamlar. Birgina bu... Baribir shaddod Norsuluvning qo‘liga tushdi. U keng-mo‘l tuzalgan uzun stol to‘rida o‘tirgan Sarvarning yoniga kelib iljaydi:

– Qani qadahlarga quy, sinfdosh. Sen bilan bitta ichaylik. Erim haydavorsa, senikiga boraman.

Sarvarning ichidan qirindi o‘tdi: «Uyalmaydiyam, ukkag‘ar»...

Sarvar noiloj piyolalarga aroq quydi. Norsuluv bir sipqorishda piyolani bo‘shatdi.

– Ishlar qalay, Norsuluv. Qara-ya, yigirma besh yil o‘tibdi. Hech kim o‘zgar-mabdi, deyarli, – mijg‘ovlandi. Tezroq daf bo‘lsaydi, deb o‘yladi.

– Ha, senam o‘zgar-magansan. Pismiqligingcha qolibsan.

– Ha, endi.

– Borib Nozini ko‘rdingmi?

Sarvar o‘tirgan joyida bir seskanib tushdi. Ichidan bir nima chirt uzilib ket-ganday botinida og‘riq tuydi. Bazo‘r o‘zini qo‘lga oldi.

– Nega Nozigul kelmadi? – dedi beparvolikka urinib.

– Seni deb kelmadi...

Norsuluv Sarvarga ma‘noli zehn soldi. So‘ng uf tortib bosh chayqadi-da, stol adog‘iga borib o‘tirdi. Shovqin-suronda bularning orasida ne bir gap-so‘z bo‘lib o‘tganini boshqalar payqamadi.

Sarvar o‘lardan beri, qolardan nari bo‘ldi. Ichi kuyib ketdi. Ichidagi alam o‘ti tutuni ko‘zidan yosh bo‘lib sizdi. Limmo-lim piyolaga qo‘l cho‘zdi. So‘ng bo‘m-bo‘sh piyolani dasturxonga to‘nkarib, stolga u-bu yegulik olib kelib qo‘yayotgan sinfdoshi To‘xtani imlab chaqirdi.

– Nima opkelay, oshna, yana quyaymi? – To‘xta uning yonida egilibroq turdi.

– O‘tir. Ha, yonimga, bu yerga kel.

To‘xta bu mulozamatdan angrayib turdi:

– Nima gap?

– Nega Nozigul kelmadi?

– Ey-ey, oshna, u odamviroq bo‘p qolgan. To‘y-tomoshalarga boravermay-di? Bilasan, bizdan ikki sinf oldin o‘qigan Chori kantujga, afg‘onda xizmat qilgan Choriga teguvdi.

– Buni gapirma, bilaman.  
– Bilasan. Chori unga uylangandan keyin o‘zini osib qo‘ydi. Kallasi ketgan bechoraning. Nozigul bir qizi bilan qop ketdi.  
– Buni bilaman... Nega bu yerga kelmadi, deyapman... Aytmovdinglarmi?  
– Sabr qil. Aytuvdik. Shaxsan o‘zim borib aytdim. Shunday, yozuvchi oshnamiz ham keladi, buytib o‘tirma, Nozigul, senam endi dovu davradan qolib yurma, deb aytdim. Qizing qo‘rqsa, qizingniyam olivol dedim. Qizi bilan ikkovi otasi Haydar boboning choldevorida yashayapti. Eshitgandirsan, Haydar boboyam o‘tgan yili qazo qildi.

– Haydar boboyam o‘ldimi? Buni eshitmagan ekanman, oshna.

– Ha, endi. Ertaga bir fotihaga borib qo‘y.

– Boraman, oshna, boraman. Birga boramiz, menga qara, Nozi... Nozigul erinikidan kep qo‘yivdimi?

– Hey, odamlar, odamlar-a! Chori kantujning ota-onasi o‘g‘li buytib o‘lgandan keyin Nozigulga kun bermadi. Bolamni vos-vos qilgansan, deb kelin bechorani ko‘chaga haydab solishdi. Uyammas-buyammas, Chori kantuj yashagan hovlini Nozigulga bergisi kelmadi.

Sarvar o‘kirib yuborayozdi. Piyolaga ichimlik to‘latib quydi. To‘xta ikkovi bir zapda ko‘tarishdi.

– Oshna, Nozigul g‘alatiroq bo‘p qolgan. Bahorda tomorqadagi bog‘ni buzib bering, deb chaqirdi. Uzumga qaraydigan erkak bo‘lmasa qiyin-da. Kartoshka-martoshka ekib tirikchilik qilaman degandir... Bordim. Bog‘iga traktor soldim. Bog‘ning oxirgi jo‘yagidagi uch tup tokni op qoldi. Bular surxa, oq kishmish, tuyatish, deydi. Bularni buzmag, bularning egasi bor, deb tok tepasida uvillab yig‘ladi. Qo‘rqib ketdim. Buzmasam, buzmadim, deb jo‘navordim. O‘zimam rosa ezildim. Qanday qiz edi. Taqdiri o‘yilgan ekan-da, oshna.

Sarvar ko‘ksini stolga berib, dasturxonga bosh qo‘ydi.

Amir bilan To‘xta Sarvarni suyab, davradan olib ketishdi.

... Sarvar ariq bo‘yida cho‘kkalab o‘tirdi. Tezoqar suv bilan birga bolalik xayollari ham qo‘shilib oqayotganday go‘yo. O‘shanda to‘rtinchi sinfda o‘qirdi. U paytlar ariq ancha katta edi. Nozigul bilan maktabdan birga qaytayotib, maqtangisi keldi.

– Nozi, sen ko‘prikka boraver. Men turbadan o‘taman, – dedi katta ariq ustidagi yo‘g‘on suv quvurga oyoq qo‘yib.

– Men ham sen bilan o‘taman, – dedi Nozigul tumshayib.

– Sen qiz bolasan, yiqilib tushasan.

– Unda sen ham ko‘prikka yur, – Nozigul yalinganday bo‘ldi. Qizning yalinishi Sarvarga xush yoqdi.

Sarvar quvur ustida dor yurish qilib bir amallab o‘tib oldi. Nozigul narigi tomonda qoldi.

– Endi men ham o‘taman.

– Ko‘prikka bor.

– Yo‘q, o‘taman!

– Unda sumkangni bo‘yningga osib olib, turbaga o‘tirib ol, eshak minganday qilib o‘tir-da, oldingga siljiyver.

Nozigul eshakka minganday qilib quvurga o‘tirib, oldga intila boshladi. Quvurning qoq o‘rtasiga kelganda egnidagi sumkasi bir tomonga og‘ib muvozanati yo‘qoldi. Engashib qoldi, bazo‘r o‘zini o‘ngladi. Egnidagi sumkasi suvga tushib ketdi. Sarvar qo‘rqib ketdi. Chinqirib yubordi:

– Nozi... Ko‘zingni yumib ol-da, bu yoqqa qarab yuraver... Silji. Siljisang-chi.

Qiz qo‘rqib ketdi. Ko‘zini yumib, quvurda o‘tirgan alfozda siljiy boshladi, qirg‘oqqa bazo‘r o‘tib olgach, dag‘-dag‘ titrab, yig‘lab yubordi:

– Sarvar, endi meni otam bilan enam urib o‘ldiradi, – dedi hiqillab, – sumkang qani desa, nima deyman?

– O‘ylama, mana, mening sumkamni ol... Ikkoviyam bir xil-ku. Kitoblarimniyam ol. Nima qipti, yangi daftar tutasan.

– Sen-chi! Sen nima qilasan?

– Meni qo‘yaver, bir gap bo‘lar.

– Yaxshiliging uchun senga nima qilay, Sarvar, ayt. Nima desang, xo‘p deyman!

– Menga hech narsang kerakmas.

– Yaxshisi, senga surxa, oq kishmish, tuyatish uzum olib kelaymi, kechqurun. Axir sizlarning bog‘ingiz yo‘q-ku, to‘g‘rimi?

– Mayli, men shu uzumlarni yaxshi ko‘raman.

– Buni bilaman, o‘zing aytuvding.

Ular bog‘ adog‘ida, mana shu yerda xayrlashgandi. Shu-shu Nozigul Sarvarlarnikiga dam-badam surxa, oq kishmish, tuyatish uzumi olib keladigan bo‘ldi. «Xola, Sizga enam berib yubordi», – derdi Oydin momoga. Aslida, uzumlarni u Sarvar uchun keltirardi... Qiz bola-da, o‘ziga puxta-pishiq edi. Uyida enasiga Oydin xolam uzum so‘rovdi, derdi.

... Oydin momo hovlida kuymalanib yurardi. Sarvar enasining yuziga tik qarashga botinolmadi. Supa chetiga omonat cho‘kdi. Kampir keltirgan sutni ko‘ngil uchun puflab-puflab ichgan bo‘ldi. Behuzur bo‘ldi. Kechagi zahar-zaqqumdan keyin sut ichib bo‘larkanmi? Ichburama bo‘lib o‘lmasam edi, degan xayolga bordi. Noiloj, yana ikki-uch qoshiq ichganday bo‘ldi. Ena sho‘rlik javdirab qarab turibdi.

– Ena, bo‘ldi. Sovub tursin, keyin ichaman. Sovugan sut yaxshi, foydali.

– Ol, g‘ilmindidan ol! Ol, bolam!

– Xo‘p ena, xo‘p. Keyinroq yerman. Hozir yuqoriga, Haydar bovonikiga fohihaga borib kelsam, devdim. Bovo ham o‘tib qolgan ekan-a. Bilmabman ena, – dedi dasturxondan ko‘z uzmay.

Ena o‘g‘liga ajabsinib boqdi:

– Haydar bovoning o‘lganiga bir yil bo‘lyapti. Orada Qirmiz amming, Sori bovonig, Qodir tog‘ang ham o‘tdi, bolam. Ajab qilasan, shularnikiga ham kirib o‘t. Fotiha qarz, aylanay.

– Xo‘p, ena, xo‘p!

Ota uy eshigidan Sarvar ilk bor qat‘iyat bilan ko‘chaga chiqdi. Endi yon-tevarakdagi odamlar, ko‘ziga tik qarab ularning turli-tuman tusmol gaplariga qo‘l siltab, qishloqda mag‘rur bosh ko‘tarib yurishga ahd qildi. Ichidan shunday bir taskin otilib chiqdi: «Hech kimning oldida tiling qisiq emas, odamlardan o‘zing bezding, odamlardan o‘zing olislashding. Aslida, sen o‘zingdan o‘zing qochding, o‘zingdan o‘zing bezding. Dadil bo‘l, bir qarorga kelmasang, keyin kech bo‘ladi, bir umr arosat girdobida qolib ketasan»...

... Sarvar Haydar bovani esladi. Ovozi osmonni yorardi-ya bakovulning. O‘shanda, Hamid chavandozning to‘yida Sarvarning boshiga osmon qulab tushganini bu baqiroq bakovul qayoqdan bilibdi deysiz.

– Ha-o-o-y-y, ahli vo-ha-a-a! Surxonning besh polvoniga davraning beshta joyidan tomorqa berib, yelkasini yerga urgan dushanbelik Toyir polvonga talabgor bormi? – guldiradi bakovul.

– Bor! Bor! – Chori kontuj otilib chiqdi. – Men talabgor!

Bakovul bir seskanib tushdi. Choriga shahdingdan qayt, deganday qarash qildi. Davrada sukunat. Endi kech edi... Chori davraga chiqdi. Haydar bakovul ovozi baralla qo‘ydi:

– Ey-e-ey xaloyi-i-i-yiq!! Tingla-a-a-a, xaloy-i-iq!!! Mening jon oshnam Turdiboyning o‘g‘li Chori polvon elning ori uchun qurga chiqdi.

Davradaqilar qiy-chuv qilib Chorini qo‘llab-quvvatlashdi.

– Xaloyi-i-i-iq! – bakovul na‘ra tortdi.

Hamma jim. To‘yxona ahli jon qulog‘ini bakovulga tutdi. Tumonat odamning diqqati-borlig‘i bakovulning og‘ziga mahtal.

– Xaloyi-i-i-iq! Jon oshnam Turdiboy polvon o‘g‘li Choriboy uchun qizimga uch marta og‘iz soldi – sovchi yubordi... Qiz o‘qisin, hali erta deb qaytarganim ham chin. Shu bois oradan oshnachilik hovuri ko‘tarilib Turdiboy araz urib yuribdi... K-e-e-e, oshna!.. Agar bolang shu polvonni yiqitsa, qizimni berganim bo‘lsin... Ertagayoq sovchi yubor...

Haloyiq gurillab-gurillab Haydar bakovulni olqishladi. Sarvarning ko‘zi qorong‘i, dunyosi zimiston tortdi. Boshi aylanib ketdi...

Shuni kutib turgan ekanmi, Chori polvon dushanbelik Toyirni qarsillatib yiqitdi. Butun qishloq olqishladi, vo-ha olqishladi, Chori kontuj elning ardog‘i bo‘ldi, elning arzandasi bo‘ldi.

Sarvar kuygandan kuydi. Osmon past, yer qattiq bo‘ldi, dunyo tor keldi. Dunyoning kengligi oyog‘idagi kirza etikcha bo‘lmay qoldi. Osmon past, dunyo tor kelsa, yigitning joni azobda qolganini ko‘ring ekan. Bog‘ adog‘idagi bedazorga bag‘rini berib yotdi.

... Na Nozigul yorildi, na undan birov ko‘ngil so‘radi. Qiz bola nimayam derdi. Dardi o‘zi bilan ketdi. Sevgisi o‘zi bilan ketdi. Armoni ichida qoldi. Hafta o‘tmay to‘y bo‘ldi... To‘yning ertasiga Sarvar sahar-mardonda yo‘lga oshiqdi. Uy



dagilar bilan ham xayr-xo'shni nasiya qildi. Toshkentga yo'l oldi. Qishloq etagida sinfdoshi To'xtaga duch keldi.

– Saharlab yo'l bo'lsin! Borasan-da shu shahringga! Kecha to'yda ko'rinmading?

– Kasalman. Borolmadim.

– Sinfimizdagi zo'r qiz ketdi. «Qovunning yaxshisini it yeydi» degani shu bo'lsa kerak, – ming'irlagan To'xta Sarvarning ko'zlari yoshlanganini ko'rib kалovlandi... – Nima bo'ldi?

– Kasalman, dedim-ku.

– Sen qachon uylanasan?.. – To'xta tomdan tarasha tashladi. – Bu deyman, shahardan zo'rini topgandirsan-a?

Sarvar o'zini tutolmadi. To'lib turgan edi. Zor qaqqshab To'xtaga o'shqirdi:

– Men endi hech qachon uylanmayman. Qasam ichaman!

Qasam ichdi. Og'zidan og'ir gap chiqdi. Buni bir To'xta bildi, o'zi bildi. Poyidan oqib o'tayotgan katta ariq bildi, boshdagi tonggi osmon, oyog'i ostidagi yer bildi – borliq bildi.

Shu-shu Sarvar hamisha Nozigulning yodi bilan yashadi, Nozigulning armoni bilan yashadi. Nozigulning alangasi boshqa gulning muhabbatini Sarvarning qalbiga yaqinlashtirmadi.

Sarvar metin edi. So'zida qattiq turdi. Qasamni buzmasdi. Bu dunyoning noz-u ishvalariga qo'l siltadi – yoshlik muhabbatining og'ushida yashayverdi...

...Rahmatli Haydar boboning yo'l chetidagi otam zamonida qurilgan past-qamgina kulbasiga yaqinlashganda Sarvarning yuragi qinidan chiqquday bo'lib gupillab ura boshladi. Beixtiyor qadamini sekinlatdi. Boboning tomorqasini o'ragan paxsa devor omonatgina bir ahvolda mung'ayib turibdi. Qattiqroq tikilsang qulab tushguday. Bir paytlar bu devor ancha baland va vahimali ko'rinardi. Bu devordan oshib o'tishning o'zi bo'lmasdi. Sarvar bolalik chog'ida bu devordan necha-necha bor oshib o'tib boboning uzumzoriga o'g'irlikka kirgani, bu o'g'irlikka Nozigul ham sherik bo'lganini esladi. «Sarvar, endi men hadeb senga uzum olib berolmayman. Enamga Oydin xolam uzum so'rayapti, deyaverishga uyalyapman. Kecha bir savat uzum olib senikiga jo'natsam, enam jerkib berdi. Xolangga ayt uzum yesa, o'zi kep, bog'dan terib ketaversin. Seni g'izg'izon qilib bo'zchining mokisiday yugurtirmasin, dedi. Uzum yeging kelsa, devordan irg'ib o'taver. Men uydagilarga qarab turaman...» Shularni yodga olarkan, Sarvarning ko'ngli buzildi. To'kilay deb turgan devor osha hovliga qaradi. Hovlida belurdi bo'lib yovvoyi o'to'lan o'sib yotibdi. Sarvar beixtiyor shavqi-tabiiy bir kuch bilan devordan sakrab o'tdi. O'to'lanni oralab tomorqa adog'iga qarab yurdi. Ne ko'z bilan ko'rsin, qarovsiz tomorqa adog'ida uch tup tok pushtaga bag'ir yozib, tarvaqaylagan serbarg novdalarida g'ij-g'ij uzum hosili tonggi oftob nurida tovlanib turardi. Bolalikdagi o'sha uch tup qadrdon uzum – surxa, oq kishmish, tuyatish... Novdada qip-qizil, yoqutday yonib turgan tuyatish uzumidan bir shingil olib donalab og'ziga soldi.

Beg'uborlik davridagi shirin bir ta'mni tuydi. Uch tup tok tepasida cho'nqayib boboning kulbasiga qaradi. U tomonga yurishga yuragi betlamadi. Uzum tepasida turib, boboning ruhi-pokiga Qur'on tilovat qildi... O'rnidan ruhi tetik holda qo'zg'aldi. Shu payt o't-o'lan oralab o'zi tomon kelayotgan bo'y yetgan qizga ko'zi tushdi. Yuragi to'xtab qolayozdi. Turgan joyida chayqalib ketdi. Ro'parasida bundan yigirma uch yil avvalgi, o'n sakkiz yoshli Nozigul kelayotgan edi. Ha, o'sha Nozigul. Faqat ko'ylagi kapalakgul emas, ko'ylagining guli boshqa, boshida alvon emas, moviy durra. Sochining bir tutamligi, qo'lidagi savat o'sha-o'sha. Yulduzday porloq ko'zlari, sutga chayilgan tiniq va yoniq chehrasi o'sha-o'sha. Yo'q, Nozi o'zgarmabdi. Nozi hamon o'sha ma'suma sevgi yoshida qolib ketibdi. Sarvar karaxt bo'lib qotib turaverdi. Qiz yaqinlashdi. Chehrasida o'sha nim tabassum:

– Assalomu alaykum, Sarvar amaki. Yaxshi yuribsizmi? Nega uyga o'tmayapsiz.

Qiz qo'lidagi savatni tok boshiga ildi. Aql-hushidan ayrilib turgan Sarvarga sinovchan termuldi.

– Sarvar amaki, meni tanimayapsiz-a? Men Nozigul o'rtog'ingizning qiziman. Sarvaraman. Onam siz haqingizda ko'p gapirib bergan. Yaqin do'st bo'lgansizlar-a? Hamma kitoblaringizni o'qib chiqqanman. Yaqinda televizorda kinongizni ham ko'rdik.

Sarvar hech narsa eshitmasdi, aql-hushi uchgan ko'yi qizga termulib turardi.

– Sen... Sen... Nozigulning qizimisan...

– Ha.

– Onang qayerda?

– Uyda. Sizni devordan oshib o'tganingizni ko'rdi onam. Negadir hovliga chiqqisi kelmadi. Qo'limga savatni berib: «Amaking keldi, bir savat uzum terib ber», – dedi.

Sarvarning dimog'i achishdi. Ko'zidan qaynoq yosh shovullab oqa boshladi. Bir zumda butun borliqni, yonidagi qizni ham unutib, kulba tomon yurdi. Qadamlari tezlashdi, yugura boshladi. Bo'g'ziga nimadir tiqilib yugura boshladi. Halloslagan ko'yi loysuvoq kulbaning kemtik eshigini ochib ichkariga kirdi. Kichik dahlizga tutash xona o'rtasida o'tirgan Nozigul telbanamo holda angrayib qoldi. Sochlariga oq oralagan, biroq chehrasi avvalgiday yoniq, nigohlari porlayotgan Nozigul o'rnidan turib ketdi. Sarvar Nozigulga bir bahya bemajol boqib turdi-da, so'ng ichkari kirib o'zini Nozigulning oyog'i ostiga tashladi. Ayolning tizzalarini quchib, o'ksinib-o'ksinib yig'ladi. To'lib-to'lib yig'ladi. Yelkalari silkinib-silkinib, oh urib yig'ladi. O'ksib-qaqshab, yuragida bor dardu hasratni Nozigulning poyiga to'kib soldi:

– Meni kechir, Nozi... Nozi... Men seni unutmadim, Nozi. Seni deb yashadim, Nozi. Seni deb yashayman, Nozi... Yur, men bilan yur... Seni opketaman, qizingniyam birga opketaman, Nozi. Axir meni yaxshi ko'rarding-ku, Nozi. Axir



seni yaxshi ko'rardim-ku, Nozi! Menga turmushga chiq, Nozi! Ishon, Nozi, bu qarorga kelguncha necha bor o'ldim, necha bor tirildim, Nozi. Meni noumid qilma, ishonchimni so'ndirma, Nozi...

Sarvar ayolning tizzalarini quchib, qalbidan otilgan dardi-hasrat vulqonini to'xtatolmasdi.

Nozigul uning boshini siladi. Ko'z yoshlari sel-selob bo'lib ovoz chiqarmay yig'ladi. Taqdir toshlari tegaverib tosh qotgan qalbida bir nur milt etganday, qalbiga haroratli bir nur yugurganday bo'ldi. Sarvarning qarshisida tiz cho'kib, uning qo'llarini yuziga surtdi.

– Sarvar, men charchaganman, Sarvar. Charchab ketdim, Sarvar. Men ham seni yaxshi ko'raman, Sarvar... Lekin...

– Jim gapirma, Nozi. Jim bo'li!

Ular bir-biriga termulib turishdi. So'ng... Nozigul Sarvarning ko'ksiga bosh qo'ydi. Qo'lida uzum to'la tolsavat ko'tarib bu manzaraga g'ayrishiuriy tikilib turgan bo'y yetgan Sarvara nimanidir anglaganday bo'ldi, tolsavatni ostonaga qo'yib, ko'chaga chopib chiqib ketdi.

Sarvar uyga peshindan so'ng keldi. O'choqdagi olovga g'o'zapoya tashlayotgan Oydin momoga jilmayib qaradi. Momo hayron bo'ldi.

– Ena, ena... bir gap aytaymi?

– Tinchlikmi, bolam?

– Ena, amakilarim, qarindosh-urug'larga ayting. Men uylanaman.

Oydin momo kutilmagan xabardan esankirab qoldi. Boshidan gardi ro'moli tushib ketdi. Qo'lida kosov, o'choq chetiga o'tirib o'g'liga parishonxotir tikildi:

– Gaping chinma, aylanay bolam...

– Chin, ena, chin.

– Kimga uylanasan?

– Nozigulga, ena... Nozigulga!

# Uyg'un Ro'ziyev

(1974-yilda tug'ilgan)



Uyg'un Ro'ziyev 1974-yil 30-yanvarda Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Jo'sh qishlog'ida tug'ilgan. SamDUNing o'zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan (1996). «Atirgul» romani (1995), «Qadr kechasi» (2004), «Tog'lar iskanjasi», «Oqcho'qqining bolasi» (2006) qissalari, «Tongda qaytgan kaphtarlar» (2011) nomli hikoyalar to'plamlari nashrdan chiqqan.

## TO'LQINSIZ OQ DENGIZ

Sovuq boshlanayotganidan bo'lsa kerak, choyxonada har doimgidan ham odam gavjum. Doimiy tanda qurganlardan tashqari, endi issiq kunlarda dala-dashtda ish bilan andarmon bo'lib yurganlar ham yumushlarini tugatib, uyda zerkkanlaridan esnab-esnab ko'chaga chiqishadi-da, birin-ketin choyxonaga kirib kelaverishadi. Ular dastlab ichkaridagi tutun va bug'dan nafas olishga biroz qiynalib turishadi-yu, keyin ko'nikib, allamahalgacha suhbatlashib o'tirishadi. De-raza yonida o'tirganlar dam-badam oynaga o'rnamshgan bug'ni artib, ko'chadan o'tgan-ketganni tomosha qilishadi.

– Anavini qaranglar, Mergan Dovon-ku, – dedi ulardan biri ikki barmog'iga qistirgan sigareta bilan ko'chaga ishora qilib.

Ko'chada ot aravani zo'rg'a tortib borayotganga o'xshaydi. Arava ham ot bilan o'chakishganday dam-badam loyga botadi. Ot yurishga battar qiynaladi. Mergan Dovon otini qiynab qo'ymaslik uchun aravadan tushib, uni piyoda yetaklab ketayotgan edi. Ularni ko'rgan ermaktalablarga gap topildi:

– O'larday munkillab qolibdi...

– Ha, nimasini aytasan, oyoq sudrashini qara...

Bunda kim otni, kim cholni nazarda tutyapti, bilib bo'lmaydi. Choyxonachining shumligi bilan choynaklardagi ko'k va qora choylar aralashib ketganiday, gapu hangomalar ham shunga yarasha. Mergan Dovon choyxona tomonga bir-ikki nazar tashladi-yu, lekin to'xtamadi. Biri tund, biri xushvaqt qiyofalar uni tomosha qilib turganidan cholning kayfiyati buzildi. Ana shu qiyofalardan uning yuragi bezillaydi. Naqadar badnigoh, naqadar masxaraomuz. Qishdan darak berib kelib, yuzni chimchilayotgan sovuqdan ham sovuq. Chol yuz yillik qadrdon etigini sudrab, ming yillik qadrdon otini yetaklab yo'lida davom etadi. Odamlar esa u haqda biri olib-biri qo'yib gapirishardi.

– Aravasini qara, birona buqachani ortsa ko'taramikin?  
– Buqachang nimasi, bir paytlar chol shu aravasida tonnalab bug'doy tashigan.

– Hoy, kimni aytyapsizlar?

– Anavi, Panji boyvachchaning qaynotasini...

Ana xolos. Shu gaplarning orasida Panjiga balo bormi. Shu bola odamlarning og'zidan tushmaydi. Choyxonada ham Panji, to'y-ma'arakada ham Panji. To'rtta odam to'plansa bo'ldi, gaplari tugab qolgudek bo'lsa, albatta, Panjidan gapirishadi. Bu Mergan Dovonga sira xush yoqmaydi. Kim bo'пти u, zumrasha. Kelib-kelib endi Panji odam bo'lib qoldimi? Bir umr odamlarning nonini tashigan Merganning ishlarini eslashmaydi-yu, hali ona suti og'zidan ketmagan Panjini og'izlari ko'pirib maqtashgani-maqtashgan. Aslida, o'sha «ishbilarmon» nima karomat ko'rsatgan o'zi, deb savol tashlab qo'ysangiz, hech kim biror jo'yali javob aytolmay qoladi. Lekin negadir bunday savolni hech kim bermaydi-da. Xuddi hamma-lari o'zlaricha Panjini yaqindan biladigandek, unga qarindoshligi, hech bo'lmasa, jo'ra-sirdoshligi bordek pinjiga suqulishadi.

O'sha bola kechagina maktabni zo'rg'a bitirib, takasaltanglar qatoriga qo'shilgan. keyin bekorchilik joniga tegib, to'ylarda qo'shiq aytuvchi artistlarning doiralarini qizdirish uchun tog'orachada cho'g' tashib yurgan bir mishiqi yigit edi. Ashulachilar shu ishi uchun unga choy-chaqa berib turishardi. So'ngra, bu yerda bir umr cho'g' tashib yursam ham birim ikki bo'lmaydiganga o'xshaydi, deb qaysi yili yozda bir-ikkita shahar ko'rgan yigitlarga ergashib Toshkentga ketdi. U yoqlarda katta artistlarga kattaroq tog'orada cho'g' tashigan, shekilli, Panjining «biri ikki bo'lgani» haqida gaplar qishloqqa yetib kela boshladi. Yarim yil o'tar-o'tmas «Panji qora bozorda o'zimizning pulni chet el pullariga almashtiradigan bo'libdi, ishi avj, changali to'la pul» degan gap el oraladi. Bir yilcha o'tib, uning «Chilonzor» bozorida do'kon ochgani ovoza bo'ldi. Vaqt o'tgani sayin uning bir do'koni ikki, ikki do'koni to'rt bo'lgani haqida odamlar havasu hasadga to'lib gapirib yurishdi. Panjining ismiga «boyvachcha» degan so'zni qo'shib aytadigan bo'lishdi.

Ana o'sha «boyvachcha»ning ishqi Mergan Dovonning kenja qiziga tushdi. Odamlar Panji biron boyroq odanga kuyov bo'lsa kerak, deb yurishgan edi. Lekin Merganning qizi har qanday boy xonadonning qizini ham ortda qoldiradigan

darajada chiroyli edi-da. Panjining ko'zi o'ynab, mushtday boshiga katta gapirib, dimog'dorlik qilishi Mergan Dovonga yoqmadi. Biroq qizi, o'ldirsangiz ham shu yigitga tegaman, deb turib olgach, noiloj, rozi bo'ldi. Bundan avval ikkala katta qizi ham, feodallik zamonlari o'tib ketgan, o'zimiz xohlagan odamga turmushga chiqamiz, deb kelgan sovchilarni obdan chertib ko'rib, tanlaganlariga tegishdi. Ota ko'ngilbo'shlik qildi, qizlarining ra'yini qaytarmadi, mayli, baxtli bo'lishsin, dedi. Lekin oqibat nima bo'ldi? Katta qizi besh bolaning tashvishiga o'ralib-chirmalib qoldi. Eri har kuni araq ichib, yer shoxlashdan boshqa narsani bilmaydi. O'rtancha qiziga eri, agar menga tegsang shaharda yashaymiz, deb va'da berib qo'ygan ekan. To'ydan keyin qiz o'sha va'dani mahkam ushlab olib, erini holi-joniga qo'ymagan. So'ng shaharga ko'chib ketishdi. Qaerda yashayapti, qanday kun kechiryapti, hech kim bilmaydi. Ular qishloqni, ota uyni butkul unutishdi. Faqat onasi o'lganda yil oshiga bir kelib ketishdi. Kenjasini uzatganidan keyin esa kampiri, hamma tashvishimdan qutuldim, degandek dunyodan ko'zini yumdi-ketdi. Mergan chol bir kunda boru yo'g'idan ayrilgan mushtipardek huvillagan hovlida yakka o'zi qoldi. Uni shunday tashlab ketgan kampiridan o'pkaladi. Yaxshiyam, oti bor ekan, dardini unga aytib ovundi.

Mergan Dovon kenja qizining to'lishib, chehrasi gul-gul ochilib yurganini ko'rib, avvaliga kuyovining ishbilarmonligidan xursand ham bo'lib yurdi. Ammo bir gal Yoqub cho'loqning to'yiga birga borishdi-yu, yana avvalgi fe'li qo'zidi. Yoqub cho'loq deganlari bir paytlar xo'jalik idorasining qorovuli bo'lgan. Bolalari ko'pligidan yeyarga non topolmay, yig'lagani-yig'lagan edi. Mergan Dovon rahmi kelib, kunda-kunora bitta-yarimta non orttirib, yo'liga chiqib turadigan ana shu odamga berib turardi. Endi esa uning o'g'illari toparmon-tutarmon bo'lib, Yoqub cho'loqning burniga xoda yetmay qolgan. Uning cho'loqligi ham esidan chiqib, go'yo to'rtta oyog'i bordek katta-kichik idoralarning eshigini tepib kiradigan bo'lgan. O'sha cho'loq to'y qilib, to'yiga kazo-kazolarni, albatta, Panji boyvachchani ham taklif qildi. Shularning qatorida «savob uchun» qishloqning «mayda-chuyda» odamlarini ham bir og'iz aytirdi. Chol to'yga borish uchun otini shaylayotganida eshigi oldiga yap-yangi mashina kelib to'xtadi. Chiqib qarasa, mashinadan Panji tushyapti. U ko'zidan qora ko'zoynagini ham olmasdan qaynotasi bilan ko'rishdi. Chol qizini ko'rib quvondi. U yanayam yashnab ketgan, poytaxt havosi unga naqadar yoqib tushganligi sezilib turardi. Mashinadan taralayotganmidi yoki mana bu olifta kuyovi bilan qizidanmi, ko'chani xushbo'y atir islari tutib ketdi. Chol ichkariga taklif qildi, lekin ular unashmadi.

– Tezroq mashinaga o'tiring, ota, – dedi Panji avval o'zi o'tirib olib. – To'yga birga boramiz. Qolgan gaplarni o'sha yerda gaplashamiz.

Mergan Dovonning hozirgina ochilgan bahri dilini yana bir zumda quyun bosdi. «Jirkanishdi, – degan o'y o'tdi cholning xayolidan, – bu g'arib kulbaga kirishga ijirg'anishdi. Bu uy ularga begona. Bular hech kimni eslashmaydi ham, sog'inishmaydi ham».

– Sizlar boraveringlar, men o‘zim yetib olaman, – dedi u.

– E, qo‘ysangiz-chi, sizning shaloq aravangizda borishingiz mening obro‘yimga to‘g‘ri kelmaydi. Mashinaga chiqing-da, ataylab kelgandan keyin, – dedi Panji mashinasini o‘t oldirib.

Chol ikkilanib, qiziga qaradi. Qizi ham allaqachon mashina o‘rindig‘iga suyanib, otasining o‘tirishini kutayotgan edi. Chol noiloj mashinaga o‘tirdi.

To‘y bo‘layotgan hovliga yetib borishlari bilan Yoqub cho‘loq ularning istiqboliga chiqdi. Panji boyvachchani quchoq ochib kutib oldi-da, «nozik» mehmonlar uchun dasturxon tuzalgan mehmonxonaga yetaklab ketdi. Mergan Dovonni ko‘rsa ham ko‘rmaslikka oldi. Dovon xijolat bo‘lib yo‘lakda qolib ketdi. Keyin boshqa «mayda-chuyda» odamlarga qo‘shilib ichkariga kirib, poygakkinaga o‘rnatilgan chorpoyaga o‘tirdi. Choy-poy tashib yurgan yosh-yalanglar ularning oldiga choy, bir kosadan sho‘rva keltirishdi. Mergan chol sho‘rvadan bir ho‘plagan edi, ilmiliq ekanidan ta‘bi tirriq bo‘ldi. Shu payt mehmonxonadan kimdir bo‘ynini cho‘zib: «Hoy, yigitlar, Panjiboyning qaynotasi ham kelgan ekan, ovqat-povqat berdinglarmi?» – deb baqirib qoldi. Chol shunchasiga chidab turgan edi, endi bu yog‘i ortiqchalik qildi. U kosani o‘zidan nari surib qo‘yib, odamlarning hay-haylashlariga ham qaramay, uyiga poyi-piyoda ketib qoldi. O‘shandan beri u Panjining mashinasiga minmaydi. Undan ko‘ra o‘zining qadrdon otaravasi ming chandon yaxshi – beminnat, mavqeiga mos.

Otini otameros desa ham bo‘ladi. Otasidan bir biya meros qolgan edi. Hozirgi oti o‘shaning zurriyoti. Bu otning tuyog‘idan o‘t chaqnagan paytlarida xaridorlari ko‘paygandan-ko‘paydi. Mergan Dovon esa: «Ot mening tanamning yarmi-ku, qanday qilib uni birovga berishim mumkin?» – deb ularning hovurlarini bosib qo‘ydi. Yangi otga yangigina aravani qo‘shdi. Avvaliga xo‘jalikning g‘allasi bormi, paxtasi bormi, yeng shimarib tashib yurdi. Keyin ovqatlanish idorasi ochilgach, uni ishga chaqirishdi. Oshxonalarga, daladagi ishchilarga novvoyxonadan non, ombordan sabzavotlarni tashib yetkazib beradigan bo‘ldi.

Ishlar avjida, Merganning qo‘li qo‘liga tegmaydi. Oti ham charchadim demaydi. Lekin kundan-kunga texnikalar ko‘payib, Merganning otaravasi idora rahbarlariga yoqmay boraverdi. «Endi bu eskilik sarqitini ko‘zdan yo‘qoting, mana, yangi mototsiklni oling, yuklarni mana shunda tashiysiz», – dedi bir kuni direktor. Mergan Dovon xo‘jayinning ra‘yini qaytarolmadi. «Muravey» degan aravachali mototsiklni berishgach, bir kunda haydashni o‘rganib oldi. Ot esa shu kundan boshlab qoziq bilan dardlashib kun o‘tkazadigan bo‘ldi. Mergan otiga yemish tashlar ekan, uning xafa ekanini avzoyidan sezib turardi. Ammo iloj qancha. Xo‘jayinlarga buni tushuntirib bo‘lmasa.

Lekin, aslida, bunday yumushlarga ot chidab yurgan ekan, «Muravey» dosh berolmadi. Hali u yeri-hali bu yeri buzilaverib, bir yilning nari-berisida shalog‘i chiqdi. Oxiri Mergan ham, xo‘jayinlar ham taqdirga tan berdi. «Muravey» bir uyum temir-tersakka aylandi. Omilkor Mergan «Muravey»ning yukxonasini eski

arava ustiga o'rnatib, eskilik bilan yangilikni uyg'unlashtirdi. Shu-shu ot yana gi-jinglab xizmatga otlandi.

Odatdagi ishidan tashqari paytlarda ham Mergan Dovonni ot-aravasidan ayro uchratish qiyin edi. Odamlar mashinayu avtobuslar bilan boradigan joylarga ham u ana shu qadrdonlari bilan borardi. Qirq chaqirim olisdagi tuman markaziga ham otaravada borib kelgan. Dovon degan laqabni ham o'sha yo'lda orttirgan. Tuman markaziga uncha katta bo'lmagan dovon oshib boriladi. Qaysidir yili qahraton qish pallasida dovonga yetganida bo'ron quturgan, yo'llarni qor ko'mib qo'ygan, odamlar bilan liq to'la avtobus va bir yengil mashina qorga tiqilib qolgan edi. Sarosimaga tushgan odamlarni ko'rib, Mergan avtobus oldida to'xtadi. Yengil mashinada bir ayol to'lg'oq tutib qiynalayotgan ekan. Odamlar tashvishlanib, ayolni tezroq tug'uruqxonaga yetkazish zarurligini aytishdi. Mergan shosha-pisha aravani hozirladi. Ayolni aravaga yotqizishdi. Ot qiynalmay dovonni oshib o'tdi. Mergan otni choptirgancha ayolni eson-omon tug'uruqxonaga yetkazdi. Shundan keyin odamlar Merganning ismiga Dovon nomini qo'shib aytadigan bo'lishgan.

Endi esa o'zlari dovon tugul, beli baravar devordan ham oshib o'tolmaydigan mijg'ov odamlar choyxonaga biqinib olib, uning ustidan kulib o'tirishibdi. Ularning gap-so'zlari cholga eshitilmasa ham, lekin nima deb aljirayotganlari unga kunday ravshan. Shuni o'ylab, cholning avzoyi battar buzildi. Bir ko'ngli hozir uyga kirgach, pechkaga o'tin qalab, issiq ko'rpaga burkanib, hamma narsani unu-tib yotgisi keldi. Ammo bugun Boyto'ra fermernikida to'y borligi esiga tushib, shashtidan qaytdi. Boyto'ra Hamdam to'yiga atoqlab aytirmagan bo'lsa ham, lekin Mergan Dovon uning rahmatli otasi bilan qadrdon edi. Dovon kenja qizini uzatayotganida Boyto'ra bir qop guruchni to'yona qilgan. Endi chol tushdan keyin borib, belbog'iga tugib yurgan uch-to'rt so'm pulni to'yona qilib kelmasa uyat bo'ladi. Bu ham bir qarz-da. Bo'lmasa odamlar yana masxaralab kulib yurishadi. Ammo aravani zo'rg'a tortib borayotgan oti holdan toygan ko'rinadi.

Chol otni aravadan xalos etib, oldiga pichan tashlarkan, uning rang-ro'yini ko'rib, ko'ngli buzildi. Otning pichan yeyishi ham avvalgiday emas – ishtahasi ham, madori ham havas qilgulikka o'xshamaydi. «Nima balo bo'ldi ekan? – deya xavotirlandi Mergan Dovon. – Charchadimikan? Yo'llar ham loygarchin bo'lib ketibdi-da. Ishqilib, biron dard tekkan bo'lmasin. Mayli, dam olsin. To'yga o'zim borib kela qolaman».

Boyto'ra Hamdamning uyigacha anchagina yo'l. Mergan Dovon yetib bor-guncha etigiyo choponining etagi jiqqa loy bo'ldi. Qo'llari sovuqdan muzladi. To'yga ko'pdan-ko'p odam kelgan, albatta, Panji ham shu yerda edi. Katta qozon atrofida qiyqirishayotganlar orasida Panjining xushchaqchaq ovozi boshqalardan balandroq eshitaladi. Boyto'raning: «Barakalla, Panjiboy, hammadan o'zing zo'r-san», degan gapi uni yana bir qop semirtirib yuboradi.

– Men qaynotamga aytdim, boboy, shu eski zamondan qolgan otaravangizni axlatga tashlab yuboring, men sizga yap-yangi mashina olib beray, mazza qilib



minib yuring, dedim. Qani endi ko'nsa. O'zi-ku, mayli, lekin mening obro'yimga soya tashlab yurishi yaxshi emas-da. Halizamon bu yerga ham o'sha «Limuzin»-i-da kelib qolsa kerak.

Panji kerilib-kerilib gapirishdan charchamaydi. Boshqalar uning gapini tinglab, olqishlab qo'yishadi.

Mergan Dovon to'y bo'layotgan hovliga yetay deganida yonidan bir mashina loy sachratib o'tib ketib, to'yxona darvozasi oldida to'xtadi. Mashinaning orqa eshigi ochilib, Yoqub cho'loq tusha boshladi. Boyto'ra Hamdam otasini ko'rgandek chopib borib, Yoqub cho'loq bilan salomlashdi. So'ng chaqqonlik bilan uning mashinadan tushishiga yordamlashib yubordi.

– Muborak bo'lsin, oqsoqol, uzoq safarlarga borib kelibdi, deb eshitdik, – dedi Boyto'ra Hamdam ta'zim qilib.

– Ha, borib keldim, – dedi Yoqub cho'loq battar shishib. – Qora dengizda dam olib keldim. Tushga ham kirmaydigan joylar ekan, rosa miriqdim. Suv degani shovullab yotibdi. Katta-kichik kemalar g'ozday kerilib suzib yuribdi. Eh, nimasini aytasan. Sen ham dala-tashvishlaringdan qutulib olgan bo'lsang kerak? Bir borib dam olib kelsang bo'larkan-da. Albatta, borgin. Dengizni ko'rmagan odam odammi?!

– Qulluq, oqsoqol, sizga qiziqib biz ham borishni niyat qilib qo'ydik. O'zlari yana bormaydilarmi mabodo?

– U yerdagilarga yana kelaman, deb keldim. Lekin sal keyinroq. Hozir boshqa bir muborak safarni mo'ljal qilib turibman, bo'tam. Hajga bormoqchiman. Makkatilni bir ziyorat qilib qo'ymasak uyat bo'lar deyman.

– Juda oqilona niyat, muborak bo'lsin.

Chaqqonlar Yoqub cho'loqni tavoze bilan mehmonxonaga olib kirib ketishdi. Keyin Mergan Dovon darvoza oldiga yaqinlashib, mehmonlarni kutib olayotgan Boyto'ra Hamdam bilan ko'rishib, to'y bilan qutladi. Boyto'ra bosh qimirlatib alik oldi. Mergan Dovon sovqotgan qo'llari qaltiray-qaltiray qo'ynidan to'yonani chiqarib, unga uzatdi. Boyto'ra to'yonani qo'li bilan olmadi. To'yonalarni yig'ib yurgan shotirlaridan biriga imo qilgan edi, u yugurib kelib, cholning qo'lidan pulni oldi-da, daftarga yozib qo'ydi. So'ng uni ichkariga boshladi. «Bu qurg'urlarning hammasining loyi bir joydan olingan», – dedi chol xafa bo'lganidan o'zicha pichirlab. O'choqboshida esa Panji hamon odamlarni og'ziga qaratmoqda edi.

– O'sha qirchang'i oti bilan chirik aravasi, – dedi u oshpaz uzatgan bir piyola araqni oxirigacha simirib, – boboy uchun har qanday mashinadan avlo. Bilmadim, oti bilan gaplashib yotadimi-ey. Hatto men bilan o'shanchalik gaplashmaydi.

Mergan Dovonni temir stol ustiga tuzalgan dasturxon yoniga o'tqizishdi. O'rindiqlar ham temirdan ekan, ustiga-ustak, ko'rpacha ham to'shashmabdi. Chol o'tirishi hamonoq sovuqdan battar qaltirab ketdi. Lekin uni shu tobda o'rindiqlarning sovuqligi emas, Qora dengizning qanaqaligi ko'proq qiziqtirib qo'ygan edi. Uning kelganini ko'rib, Panji hangomasini to'xtatdi-da, yoniga kelib, salomlashdi.

– O‘zingiz kelibsiz-da, ota, – dedi Panji sigareta tutatib. – Mashinamda olib kelmoqchi edim, uyingizga borsam, yo‘q ekansiz. – U atrofga alanglab qaradi. – «Limuzin»ingiz ko‘rinmaydi?

– Piyoda keldim, – dedi chol avzoyi battar buzilib. – Obro‘yingizga putur yetmasin dedim-da, o‘g‘lim.

Sovuq jonidan o‘tdi, Mergan Dovon ortiq toqat qilolmadi. Hech kim bilan xayr-xo‘shlashib ham o‘tirmasdan, uyiga qaytdi. Panji obro‘li mehmonlardan xabar olish uchun mehmonxonaga kirib ketgan edi. Cholni hech kim kuzatib chiqmadi.

Mergan Dovon otxonaga kirib, hamon otining shashti yo‘qligini ko‘rib, o‘ksindi. Boya tashlagan yemishini ham yolchitib yemabdi. Ko‘ngliga xavotir oraladi.

– Unday qilma. Iloji bo‘lsa, unday qilma, – dedi u dir-dir titrab.

Keyin u uyga kirib, pechkaning qopqasini ochdi. Ertalabki o‘tning cho‘g‘i hali o‘chmagan, pechka issiq edi. Tarasha tashlashi bilan yana olov gurilladi. Termosdagi qaynoq choydan bir piyola quyib ichdi. Lekin qaltirog‘i hadeganda bosilavermadi. Yog‘ bosgan dasturxonni yozib, suvi qochay deb qolgan nondan bir-ikki bo‘lagini issiq choyga botirib yedi. «Senlarning noz-ne‘matga to‘la ochil dasturxonlaringdan o‘zimning quroq dasturxonim ming marta yaxshi, qornimni to‘ydiradi. Omonat uchun bordim-da. Mayli, hartugul, qarzdan qutuldim. Hech kimga og‘irliging tushmay yashaganing yaxshi. Hatto hovuzga tushsang suv ham seni ko‘tara olsin – yuking og‘irlik qilib oyog‘ing botmasin», – dedi u kavshanib. Pechkaga yaqin o‘tirgani bois choponi quriy boshladi. Ammo badanidagi qaltiroq hali ham to‘xtamayotgan edi. U pechkaga yana ham yaqinroq surilib, ko‘rpga burkanib yotdi. Tashqarida shamol g‘uvillaydi. Pechkadagi olovning gurillashi unga jo‘r bo‘ladi. «Buncha vahima qilmasa bu shamol!» – deya o‘yladi chol. Boya osmonni bulut qoplab, qor yog‘adiganga o‘xshab turgan edi. Chol shuni o‘ylab, otidan xavotir oldi. Yana bir borib xabar olsammikin, degan xayol bilan o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi, lekin majoli yetmadi. Muzday ko‘rpa-to‘shagi endi ancha isib qolgan, cholni jiqqa ter bosgan edi. U nimalardir deb alahsiradi. Shamollab qolganini endi tan oldi. «Hechqisi yo‘q, o‘tib ketadi. Chidayman, bundan battarlariga ham chidaganman», – deb pichirladi.

Avvallari bunday paytlarda kampiri uning boshida girdikapalak bo‘lardi. Us-tiga ko‘rpa yopib, isiriqlar tutatardi. Issiq-issiq choy damlab uzatardi. Qizlari esa chug‘urlashib onasiga yordam berishardi. Mergan Dovon ularni juda-juda ko‘rgisi keldi. Ko‘zlarini uqalab, atrofga razm soldi. Yo tavba, ana, kampiri har doimgidek hovlida ivirsib yuribdi. Bu hovlida bironta ish yo‘q, lekin kampirining qo‘li ishdan bo‘shamaydi. «Ey, etikdo‘zning qizi, to‘xtat yumushlaringni. Kel bu yoqqa, bir piyola choy quy. Birpas gaplashib o‘tir men bilan», – deya o‘dag‘ayladi chol. Kampiri esa ishlarini to‘xtatgisi kelmay, timirskilanib yuraverdi. Jajji qizaloqlari esa hovlini boshlariga ko‘tarib qiyqirishgancha quvlashmachoq o‘ynashmoqda edi.

Mergan Dovonning dili yayrab ketdi. «Qizaloqlarim, qo‘g‘irchoqlarim», – deb ularni chaqirdi. Qizlar uni eshitishmadi, shekilli, parvo qilmay o‘ynayverishdi. Cholning o‘zi ularning oldiga borib, birga qo‘shilib o‘ynamoqchi, shirin-shakar qizlarining jajji qo‘lchalaridan o‘pib qo‘ymoqchi bo‘lib, ularga tomon talpindi. «Ie, boya bo‘ron boshlangan edi, qizaloqlarim shamollab qolishadi-ku», – deya chol qo‘rqib ketib, derazaga qaradi. Bekor qaradi. Ana shu qarashi bilan bir zumda hammasi ro‘yoga aylandi. Uy ichi zim-zimiston bo‘lib qolgan, derazadan ham yorug‘lik ko‘rinmas, pechkadagi olovning ham hovuri pasaygan, har zamonda «chirs-chirs» degan ovoz chiqar, tashqarida bo‘ron tinib, qor yog‘ayotganini bildiruvchi shivirlar sezilar-sezilmas eshitilar edi. Mergan chol ko‘zlarini yumib, yana qizaloqlarini ko‘rgisi keldi. Ammo uning xiralashayotgan ko‘zlariga qorong‘ulikdan boshqa hech narsa ko‘rinmadi. Zim-ziyo uy, huvillagan hovli... Tirik jondan asar yo‘q. «Qana ular? – dedi u yig‘laguday bo‘lib. – Qani mening qizaloqlarim, asaljonlarim? Nega buncha tez qanot chiqarib uchib ketishdi mening polaponlarim? Nega buncha shoshilishdi? Hali hovlini to‘ldirib o‘ynab yurishsa bo‘lmasmidi?» Mergan dovon o‘rtandi. Nafasi siqilib, g‘am-anduhga botdi. Qizaloqlarini ko‘rish ilinjida yana atrofga nazar soldi. Biroq endi uning qarshisida mutlaqo boshqa manzara paydo bo‘ldi. Keng maydonga ko‘pdan-ko‘p odam to‘plangan. O‘rtada to‘kin dasturxon. Hammalari bazm qilishyapti. Davraning to‘rida Yoqub cho‘loq, o‘rtaroqda Panji boyvachcha, poygakda Boyto‘ra Hamdam, qolganlari ham kazo-kazo odamlar. Yoqub cho‘loq Qora dengizda qanday cho‘milganini viqor bilan gapirib beryapti. O‘tirganlar uni olqishlab qadah ko‘tarishadi. Yoqub cho‘loq izzatda: birov unga choy uzatgan, yana birovi oldiga lazzatli taom keltirgan, boshqasi chilim tayyorlab bergan... Shu payt ulardan biri Mergan Dovonni ko‘rib qoldi.

– Anavi shumshayib qarab turgan odam Dovonmi? Bu yoqqa chaqirsakmi-kan? – dedi u.

– Qo‘ysanglar-chi, u umrida Qora dengizni ko‘rmagan. Dengiz ko‘rmagan odam odammi?! – dedi Yoqub cho‘loq kerilib.

Mergan Dovonning jahli chiqdi. Otxonaga kirib, otining avzoyiga razm soldi. Oti, qo‘yib bersang uchaman, deb turibdi. U otni tashqariga olib chiqib, obdan yasantirdi. Tuyoqlariga birma-bir qarab, taqalarini choponining yengi bilan artib yaltiratdi. Otning yollari oltinday tovlanib, tuyog‘idan o‘t chaqnadi. Mergan Dovon bir sakrab otga mindi. Ot, qayoqqa boramiz, deganday kallasini sarak-sarak qildi. «Anavilar Qora dengizga borgan emish, – dedi Mergan Dovon, – mayli, ular o‘sha dengizga boraverishsin. Qora dengizni berdik ularga. Biz esa Oq dengizga boramiz, tulporim, Oq dengizga. Dovondan oshib o‘tamiz. Keyin yana qancha dovon bo‘lsa oshib boraveramiz. Qarabsanki, Oq dengizga yetib boramiz. Oq dengiz bizniki, unga faqat biz boramiz. Ularning hech biri bizning dengizimizga bora olishmaydi. Chunki ularning senday vafodor otlari yo‘q. Men umr bo‘yi yuk ko‘tardim, sen umr bo‘yi arava tortding – ikkovimiz bir umr mehnat qildik. Endi bor-yo‘g‘i

bir kun orom olsak nima qipti. Biz Oq dengizda cho‘milamiz, dengiz qirg‘og‘ida-gi oppoq qumlar ustida chopamiz. Dengiz shamollari bilan quvlashamiz. Qaytib kelib, Oq dengizda bo‘lganimizni odamlarga aytib beramiz. Qani, shundan keyin ham bizni odam qatoriga qo‘shmay ko‘rishsin-chi...» Mergan Dovon otini niqta-di. Ot ham shuni kutib turgan ekanmi, shamoldek uchdi. Maishat qilib o‘tirgan Yoqub cho‘loqlar ortda qolib ketdi. Qora dengiz hangomalari ham, osmondagi qora bulutlar ham ming chaqirim narida qoldi. Ular dovonlarni oshib o‘taverishdi. Osmon tiniqlashib boraverdi. So‘nggi dovonni zabt etganlarida ko‘z oldida oppoq dengiz namoyon bo‘ldi. Oq dengiz mavjlanib shovullaydi. Oq to‘lqinlar qirg‘oqqa uriladi. Oppoq qumlar oftob nurida ko‘zni qamashtirib jimirlaydi. Mergan Dovon o‘zini dengizga otdi. Oti esa oppoq qumlar ustida yugurdi. Uning yollari oltin-dek tovlanardi. Dengiz shovullaydi. To‘lqinlar qirg‘oqni yuvadi. Mergan Dovon qirg‘oqdan qaytayotgan to‘lqinlarni quvib chopadi. Hov narida sochlariga jama-lak taqqan qizaloqlari qumdan uy qurib o‘ynashayotganiga ko‘zi tushdi. Yuragi hapriqib, ularning oldiga borishga shoshildi. Biroq qizaloqlar bir lahzada ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi. Mergan atrofga alanglab, yolg‘iz oti yugurayotganini ko‘rdi. Ot qirg‘oq bo‘ylab yuguradi, yuguradi, tinmay yuguradi. Keyin chopishdan char-chab, o‘zini dengizga urdi. Ko‘pirgan to‘lqinlar uni dengizga tortib ketdi. «Qayt, tulporim, qayt. Unday qilma», – deb baqirdi Mergan Dovon. So‘ngra o‘zi ham otini qutqarish uchun dengizga sho‘ng‘idi.

Mergan Dovonning tomog‘i qaqrab ketdi. Shunda yana hammasi ko‘zdan yo‘qoldi. Derazadan g‘ira-shira yorug‘lik tushayotgani tong yorishib kelayot-ganidan darak berardi. Chol termosdan choy quyib ichdi. Pechka sovib qolgan, hamma yoq suv quyganday jim-jit. Tashqaridan ham biror sado eshitilmaydi. Oti esiga tushib, shosha-pisha o‘rnidan turdi. Hovlini qalin qor qoplabdi. Chol qorni g‘arch-g‘urch bosib otxonaga bordi. Otxonaga kirdi-yu, ayanchli manzaradan bir zum o‘zini yo‘qotib qo‘yayozdi. Ot oyoqlari uzalib, qimir etmay yotardi. Mergan Dovonning ko‘ziga yosh quyilib keldi. U oxurga suyanib o‘tirib qoldi. Otining ochiq qolgan ko‘ziga tikilib, ko‘p xotiralarni xayolidan o‘tkazdi. «Unday qilma degandim-ku senga, – dedi u alam bilan. – Endi butunlay oyoqsiz qoldim. – U chuqur xo‘rsindi. – Mayli, taqdir bitigi shunday ekan-da. Ehtimol, shu ishing to‘g‘ri ham bo‘lgandir. Mendan keyin ketsang, seni kim ko‘mar edi? Go‘sh-tingni laxta-laxta qilishlariga ham mening ruhim chidab turolmasdi». Mergan Dovon g‘am-g‘ussaga botib, otining yollarini siladi. Endi bu yollar oltinay tovlanmaydi, endi ularda tiriklik nishonalari yo‘q. Otning tanasi butunlay sovib bo‘lgan, endi u faqat eng so‘nggi bir harakatni – yer bag‘riga kirishni kutib turibdi, xolos. Bu esa hamma otlarga ham nasib qilavermaydi – go‘yo jonivor-lar go‘shxo‘rlaru o‘laksaxo‘rlarga yem bo‘lish uchun dunyoga kelgandek. «Bu dunyoda hech kim menga senchalik sadoqatli bo‘lmagan, tulporim, – dedi chol taqdirga tan berib, o‘rnidan turarkan. – Hech kim meni sendayin tushunmagan, sen kabi sirdoshu darddosh bo‘lmagan...»

Qor tingan, ammo hamon osmonning qovog'i soliq edi. Mergan Dovon otxona atrofida ancha ivirsidi. Avvaliga bir o'zi otning gavdasini aravaga yuklashiga ko'zi yetmadi. Lekin o'zga iloji ham yo'q. Chol yuz xil tadbir o'yladi. Goh otning, goh aravaning atrofida kuymalandi. Oxiri chora topdi. Hatto ilohiy kuchlar ham unga madad berayotgandek bo'ldi. U otxona oldida qiya chuqurlik kavlab, aravani tushirdi va... ming bir azobda qiynala-qiynala otning jasadini ortdi-da, aravani sudrab yo'lga tushdi. U qishloq chekkasidagi tepalikni mo'ljal-lab ketaverdi. Bir zum ham to'xtamadi, bir dam bo'lsin ortiga qaramadi. Hamma yoqni tizza bo'yi qor bosgan, chol o'zi bir umr yurgan eski yo'llarni chamalab o'tirmasdan, yaydoq dala bo'ylab yo'l soldi. Qalin qor qoplagan bu dalada na bir daraxt, na biron chayla ko'zga chalinadi. Keng dala cholning ko'ziga go'yo-ki Oq dengiz bo'lib ko'rindi. U xayolida Oq dengizni kechib borar, shunchaki kechib emas, ulkan bir kemani tortib borardi. «Mana, Oq dengiz, mening dengizim, – deya o'yladi u. – Lekin nega u shovullamayapti? Nega mavjlanmayapti? Uning to'lqinlari qani? Yo mening dengizim muzlab qoldimikan, muzlab borayotganmikan? Ha, shundayga o'xshaydi. Muzlab borayotgan bo'lsa kerak. Yo'qsa, men kemani tortishga bunchalik qiynalmagan bo'lardim». Uning yuziga dengiz shabadalari urilardi. Lekin dengiz shabadalarining bunchalar sovuq bo'lib, yuzni chimchilab-chimchilab olishini o'ylab ko'rmagan ekan. Shu esiga tushib, miyig'ida kuldi.

Tepalikka qiylab chiqib olgach, Mergan Dovon to'xtab nafas rostladi. Ortiga o'girilib, qishloqqa nazar tashladi. Bir-ikkita uylarning mo'rilaridan tutun o'rlayotganini aytmasa, hali qimir etgan jon ko'rinmaydi. Hamma sahar uyqusida. «Odamlar uxlayapti, – dedi chol xo'rsinib. – Mayli, uxlashsin. Axir ular hayotlarini davom ettirishlari kerak. Yashash uchun kuch yig'ishlari kerak».

Mergan Dovonni kechga yaqin qidirib qolishdi. Kecha Panji Boyto'ra Hamdamnikida yotib qolgan edi. Peshindan keyin tetiklashib, xayr-xo'shlashib chiqdi. Shaharga qaytish oldidan yo'l-yo'lakay qaynotasinikiga ham birrov kirib o'tmoqchi bo'ldi. Qarasa, chol ham, otu arava ham yo'q. Har doimgiday yana biron joyda uloqib yurgandir-da, deb o'yladi. Lekin hamma eshiklar, hatto darvoza ham lang ochiq qolganidan ko'ngliga shubha oraladi. Qo'ni-qo'shnilardan surishtirdi. Panji qidirganidan keyin boshqalar qarab turisharmidi. Hamma Mergan Dovonni axtarishga tushdi. Bir payt biyday dalaning o'rtasidan tepalikka tomon ketgan yakka odam va aravaning izini ko'rib qolishdi. Ertalabki shamol darrov tingan, izlar ko'milmay, aniq-tiniq ko'rinib turardi. G'ala-g'ovur boshlandi Har kim o'zicha to'qib-bichdi.

– Bu qanaqasi, – dedi shov-shuvni eshitib yetib kelgan Yoqub cho'loq, – mana bu aravaning izimi? Nima balo, aravani Merganning o'zi sudraganmikin?

– Bu miyasi aynigan chol, otimga og'irligim tushmasin, deb otaravasini yetaklab ketgan, – deb gap tashladi kimdir.

– E, otning izi yo'q-ku, faqat odam bilan aravaning izi bor.

– Unda uning oti qayoqqa g'oyib bo'ldi?  
– Oti qanot chiqarib uchib ketgan bo'lsa kerak.  
– E, o'sha qirchang'isi uchish u yoqda tursin, oyog'iniyam zo'rg'a sudrab bosadigan bo'lib qolgan edi-ku.

Hammalari qordagi iz bo'ylab tepalikka tomon ketishdi. Tepalikdan oshib o'tishlari bilan yangi va kattagina bir qabrga duch kelishdi. Haligi iz shu qabr oldida to'xtagan edi. Bo'ldi, naryog'i bepoyon dala, oppoq qor yastanib yotibdi, biron ta iz ko'rinmaydi. Xaloyiqning boshi qotdi.

– Bu ahmoq chol o'zini o'zi ko'manganmi deyman, – dedi Yoqub cho'loq.

Odamlar bir ovozdan shu gapga qo'shilmoqchi bo'lishdi.

– Yo'g'-e, bo'lishi mumkin emas, – deb siltab tashladi Panji. – U holda ot bilan arava qayoqqa ketgan? Biron joyda otning izini ko'rdingizmi? Sizday aqli noqislar bilan kengashib odam baraka topmaydi.

– Balki Dovonning oti o'lgandir-u, chol bu yerga otini ko'mib qaytgandir? – dedi kimdir.

– Xo'p, otini ko'mangan ham deylik. Lekin chol bilan arava qayoqqa g'oyib bo'lgan? Bu yoqqa kelgan iz bor, ammo qaytgan iz yo'q-ku, – xunobi oshdi Panjining. – Boboy odamni tozayam uyatga qo'ydi-da. Obro' degan narsaning misqol-lab yig'ilishini qayoqdanam bilsin. Yosh bolaga o'xshab indamay-netmay uydan chiqib ketganini qarang. Bu qo'lansa gap qanot yozib shaharga ham yetib bormasa go'rga edi.

– Biron kimsa xafa qilgan bo'lsa, bizga aytmaydimi, biz o'sha zo'ravonning tanobini tortib qo'ymaymizmi, – dedi hammadan oxiri yetib kelgan Boyto'ra Hamdam. – Kecha biznikiga to'yga ham borganga o'xshadi chamamda. Yo ko'zimga ko'ringanday bo'ldimi, ishqilib, qaerdadir loyga belanib yurganiga ko'zim tushganday bo'luvdi.

– Ko'nglingizga kelmasin-u, Panjiboy, qaynotangiz xo'p g'alati odam-da, – deb kibrli iljaydi Yoqub cho'loq, – uyida osh-noni yo'qligidan arazlab ketib qolmaganmikin, nima balo? Agar shunday bo'lsa, mana, bizga aytmaydimi, uyini go'shtu nonga to'ldirib tashlamaymizmi. Har holda bir umr savobni tabarruk bilib yurgan odammiz. Savob uchun bir ochni to'ydirishga jazm qila olamiz.

Panjining afti burishdi:

– Unaqa savoblarni o'zimiz ham qila olamiz, Yoqub buva. Boboy hech qachon och qolgani yo'q. U kishining, kerak bo'lsa, siz bilan meni to'ydirishga ham qurbi yetardi.

– Yo'g'-e?

Ularning gapini Boyto'ra Hamdam bo'ldi:

– Chol topilsa, savobli ishlaringizni qilish qochmas. Hozir muhimi boshqa masala – Mergan Dovon qayoqqa yo'qoldi?

Kech bo'lib qolgan edi. Odamlar shu jumboqni o'ylay-o'ylay qishloqqa qaytishdi.

– Mergan Dovon tirik, qaerlardadir aravasini sudrab yurgan bo‘lishi kerak. Daragi chiqsa, senga xabar yetkazamiz, – deya Panjining ko‘nglini xotirjam qilib, shaharga kuzatib yuborishdi.

Tuni bilan butun qishloq shu jumboqni o‘ylab deyarli uxlamay chiqdi. Ozmox uxlaganlar ham tushlarida faqat tepalikdagi qabrgacha borgan izlarnigina ko‘rishdi. Boshqa iz yo‘q. Tepalikdan naryog‘ida esa muz qotgan dengizni eslatuvchi oppoq kenglik ko‘zlariga ko‘rindi. Ertasiga ham, indiniga ham qanchalik mulohaza qilishmasin, cholning izini topadigan bironta gap aytisholmadi. Lekin Mergan Dovon qush emaski, osmonga uchib ketsa, suv emaski, yerga singib ket-sa. U – odam. U – inson. Balki rostdan ham, odamlar aytganiday, chol o‘zining bor-yo‘qligini sezdirmay qaerlardadir yurgandir... oq, oppoq dengizni axtarib.

## MUNDARIJA

Nasr ruhi – asr shukuhi .....	3
<b>Abdulla Qodiriy</b>	
Uloqda.....	9
Jinlar bazmi.....	15
<b>Abdulhamid Cho'lpon</b>	
Novvoy qiz.....	19
<b>G'afur G'ulom</b>	
Mening o'g'rigina bolam.....	25
<b>Oybek</b>	
Fanorchi ota.....	29
<b>Abdulla Qahhor</b>	
Ming bir jon .....	32
<b>Mirkarim Osim</b>	
Shiroq.....	38
<b>Hakim Nazir</b>	
Oqibat.....	44
<b>Said Ahmad</b>	
Oftob Oyim .....	48
<b>Mirmuhsin</b>	
«Ona qabriga gul» .....	58
<b>Sunnatulla Anorboyev</b>	
Yaxshilik urug'i.....	65



<b>Odil Yoqubov</b>	
Yaxshilik.....	76
<b>Pirimqul Qodirov</b>	
Ilinj.....	84
<b>Nosir Fozilov</b>	
Robinzonlar.....	92
<b>Anvar Muqimov</b>	
Qo‘qon shamoli.....	97
<b>Farhod Musajonov</b>	
Saboq.....	105
<b>O‘lmas Umarbekov</b>	
Charos.....	117
<b>Uchqun Nazarov</b>	
Qish nafasi.....	120
«Kal Mulla».....	123
Insho.....	125
Umr.....	126
<b>Erkin Samandar</b>	
G‘ayb qushlari.....	128
<b>Ne‘mat Aminov</b>	
Tug‘ilgan kunim qani?.....	134
<b>Mengziyo Safarov</b>	
Tog‘larda gulxan yonadi.....	140
<b>Muhammad Salom</b>	
Qarz.....	145
<b>Shukur Xolmirzayev</b>	
Cho‘loq Turna.....	155
<b>Omon Muxtor</b>	
O‘yin.....	162
<b>O‘tkir Hoshimov</b>	
Yanga.....	172
<b>Erkin Malik</b>	
Gul ishqibozi.....	178

<b>Qudrat Do'stmuhammad</b>	
Oltin tuxum.....	181
<b>Zohir A'lam</b>	
Zarb.....	186
<b>Dadaxon Nuriy</b>	
Mehmon.....	200
<b>Hojiakbar Shayxov</b>	
Iblis bilan muloqot.....	206
<b>Tohir Malik</b>	
Tiriklik suvi.....	213
<b>Qamchibek Kenja</b>	
Baliq ovi.....	223
<b>Shodmon Otabek</b>	
Oriyat.....	230
<b>Norto'xta Qilich</b>	
Jumboq.....	240
<b>Mamatqul Hazratqulov</b>	
Cho'li Iroq.....	262
<b>Asad Dilmurod</b>	
Kunsuluv.....	268
<b>Tog'ay Murod</b>	
Bobosi bilan nevarasi.....	280
<b>Murod Muhammad Do'st</b>	
Dasht-u dalalarda.....	284
<b>Erkin A'zam</b>	
Piyoda.....	294
<b>Nurali Qobul</b>	
Kaptarlar qaytmagan tun.....	307
<b>Nodir Normatov</b>	
Bir kuni chumoli bo'lib.....	316
<b>Xurshid Do'stmuhammad</b>	
Vasiy.....	326

<b>Olim Otaxonov</b>	
To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza.....	333
<b>Shahodat Isaxonova</b>	
Katta «A», kichkina «a».....	342
<b>Dilbar Saidova</b>	
Yig'i.....	350
<b>Mirzapo'lat Toshpo'latov</b>	
Maydon.....	356
<b>Murod Tillayev</b>	
Qo'lqop.....	368
<b>Erkin Usmon</b>	
Txarad.....	373
<b>Alisher Ibodinov</b>	
Bir tomchi yosh.....	380
<b>Orziqul Ergash</b>	
Dala o'rtasidagi daraxt.....	386
<b>Normurod Norqobilov</b>	
Ayriliq quvonchi.....	397
<b>Bahodir Murod Ali</b>	
Oqto'sh.....	405
<b>Jumaqul Qurbonov</b>	
Qorako'z.....	415
<b>Xayriddin Sultonov</b>	
Dunyoning siri.....	419
<b>Ashurali Jo'rayev</b>	
Ketmon yuzidagi oy.....	431
<b>O'ktam Mirzayor</b>	
Tuproq hidi.....	436
<b>Jamila Ergasheva</b>	
Boybichcha.....	441
<b>Nabijon Boqiy</b>	
Hisorak.....	448

<b>To'liqin Hayit</b>	
Kampir osh.....	465
<b>Abulqosim Mamarasulov</b>	
Telba muhabbat .....	471
<b>Shoyim Bo'tayev</b>	
Hisomiddin al-Yog'iy .....	484
<b>Ilhom Zoyir</b>	
To'tinoma.....	495
<b>Nazar Eshonqul</b>	
Maymun yetaklagan odam .....	499
<b>Abduqayum Yo'ldosh</b>	
Yolg'on va haqiqat.....	508
<b>Nabi Jaloliddin</b>	
Erkagi bor uy.....	525
<b>Sobir O'nar</b>	
Tarvuz .....	532
<b>Shodiqul Hamro</b>	
Suratdagi ayol.....	539
<b>Luqmon Bo'rixon</b>	
Qo'noq.....	550
<b>Salomat Vafu</b>	
Elat.....	562
<b>Zulfiya Qurolboy qizi</b>	
Qadimiy qo'shiq.....	574
<b>Isajon Sultonov</b>	
Suvdagi kosa .....	588
<b>Qo'chqor Norqobil</b>	
Nozi... Nozigul .....	595
<b>Uyg'un Ro'ziyev</b>	
To'liqinsiz oq dengiz.....	607

*Adabiy-badiiy nashr*

**XX ASR  
O‘ZBEK HIKOYASI  
ANTOLOGIYASI**

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar:  
**Bahodir Karimov, Habib Abdiyev**

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent–2016

Muharrirlar: *Jahongir Qo‘nishev*  
*Mansur Jumayev*

Badiiy muharrir *Asqar Yoqubjonov*

Musahhih *Iroda Solihova*

Sahifalovchilar: *Akbar Qo‘nishev*  
*Umid Sapayev*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

Bosishga ruxsat etildi 14.12.2016. Bichimi  $60 \times 90 \frac{1}{16}$ .  
Ofset qog‘oziga bosildi. «Times New Roman» garniturasida.  
Shartli bosma tabog‘i 39,0. Nashr hisob-tabog‘i 40,4.  
Adadi 44 221 nusxa. Buyurtma № 16–856.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining  
“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

# XX asr

o'zbek hikoyasi  
ANTOLOGIYASI

Yillar va asrlar yakuni har qanday sohada sarhisobga imkon beradi. Sarhisob ehtiyoji zaruratga aylanadi. Shu ma'noda XX asrda yozilgan o'zbek hikoyalarining estetik qiymati, mavzu ko'lami, badiiy saviyasi, yutuqlari va boshqa qirralarini tasavvur etish uchun ushbu antologiya tuzildi. Antologiyaga Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov va boshqa ko'plab yozuvchilar qalamiga mansub hikoyalar XX asr o'zbek hikoyasi xazinasidan saralab olindi.

Mazkur antologiya muxlislar uchun o'ziga xos sovg'adir. Qolaversa, undan oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'shimcha o'quv qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.



ISBN 978-9943-07-467-5



9 789943 074675